Туристско-экскурсионная работа может использовать весь потенциал культурного наследия Самарканда. Особая задача - обеспечение равномерного сезонного распределения туристических потоков, а также создание комфортных условий проживания и передвижения.

Социальное и образовательное значение культурного наследия

Преданность культурному наследию - отличительная черта культуры петербуржцев. Она формируется в процессе взаимопроникновения нового и старого, введения вечных ценностей в современный культурный обиход. Каждое поколение ищет свою интерпретацию прошлого и извлекает из него новые идеи.

Образовательные курсы должны использовать исторические, художественные и этические ценности, воплощенные в культурном наследии, для воспитания достойных граждан современного общества. Привить молодежи уважение к многообразию культурных традиций и чувство терпимости, умение противостоять проявлениям ксенофобии и национальной исключительности - актуальная задача дня. Качество и объективность данной образовательной идеи важны как для сохранения самого культурного наследия, так и для поддержания общественного порядка в Самарканде [2, 34 с.].

Требуется выработка следующих эффективных форм противодействия проявлениям вандализма и немотивированной агрессивности некоторых групп населения:

- усиление воспитательной и просветительной работы в сочетании с комплексом правоохранительных мер (охранные посты, маршруты патрулей, видеонаблюдение);

- развитие добровольных обществ друзей известных памятников, объединение молодежи вокруг программ сохранения наследия, создание молодежных реставрационных отрядов;

- проведение юбилеев памятников, ансамблей и достопримечательных мест;

- широкая информация общественности об опасностях, грозящих наследию, а также о мерах, принимаемых для его сохранения.

Важным условием успехов в области сохранения культурного наследия является активное и творческое участие всех горожан, формирование общественного сознания в духе понимания ценности исторического городского пространства. Использование современных средств массовой информации, аудиовизуальных средств и приемов рекламы, стимулирование частных и общественных проектов должно быть направлено на активное вовлечение в эту деятельность представителей бизнеса, интеллигенции, молодежи и ветеранов. Без общественного участия невозможна эффективная охрана культурного наследия.

Доступ к знаниям, радость общения с культурным наследием должны поощряться как фактор, жизненно необходимый для творческой самореализации отдельных личностей и целых коллективов. Нужно использовать все возможности для совмещения сохранения памятников с развитием связанных с ними культурных традиций.

Следует заручиться поддержкой общественности при принятии мер защиты объектов культурного наследия:

- от сноса и незаконного изменения строений и уничтожения археологического наследия;

- от загрязнений атмосферы промышленными предприятиями;

- при наложении значительных штрафов за нарушение охранного законодательства в целях лишения нарушителей любой выгоды, которая возникла в результате их незаконных действий;

- при понуждении пользователей и собственников содержать историческую недвижимость в должном состоянии;

- при ограничениях на внешнюю рекламу и контроль за торговым дизайном в охранных зонах;

- при запрете планирования новых дорог в исторической части или в непосредственной близости от исторических зданий;

- при запрете нового строительства, несовместимого с местами, представляющими исторический интерес;

- при отводе транспорта и ограничении парковки автомашин, создании пешеходных зон, перемещении надземных коммуникаций в зонах охраны.

Необходимо пробуждать активность горожан, профессиональной общественности в сборе и передаче информации; поддерживать общественные инициативы по постановке на учет новых объектов, проведению историко-культурных экспертиз. Таким образом, комплексный подход к популяризации культурного наследия включает широкий спектр форм:

- публикация Свода памятников, фиксирующего современный уровень знаний о них;

- различные научные, научно-популярные и справочно-информационные издания;

- общественные слушания;

- выступления в средствах массовой информации;

- проведение массовых мероприятий и акций, связанных с Международным днем охраны памятников и Днем города;

- организация научно-практических конференций всех уровней;

- установка мемориальных и охранных досок, создание информационных стендов по истории объектов культурного наследия в зданиях-памятниках;

- организация тематических выставок;

- развитие сети небольших муниципальных, ведомственных и частных музеев.

Основные задачи: формирование кодекса поведения горожан в духе «национальной идеи», воспитание культурного менталитета городского сообщества, борьба с бытовым вандализмом.

Необходимо отметь, что охрана культурного наследия, это и есть - глобальная проблема современности наряду с экологической, энергетической, сырьевой, демографической и др. Для ее решения требуются усилия мирового сообщества в целом.

Руководствуясь нормами Конвенции об охране всемирного и природного наследия (ЮНЕСКО, 16.11.1972), следует активизировать международное сотрудничество. Обмен научно-технической информацией и публикациями с международными организациями, действующими в сфере сохранения памятников. Участие в международных выставках, конференциях и семинарах. Привлечение иностранных экспертов для участия в решении наиболее важных вопросов сохранения культурного наследия Самарканда.

Для Самарканда международное сотрудничество в сохранении наследия - особенно важный стратегический ресурс. Оно должно реализовываться во всех направлениях - от обмена опытом в законодательной сфере, в теории и практике охраны и реставрации до вовлечения общественности и развития молодежных программ в области сбережения и популяризации культурного наследия. Уникальный объект Всемирного наследия – Самарканд должен и в дальнейшем опираться как на собственный опыт, так и на достижения мирового сообщества в сохранении исторических городов, достопримечательных мест и совершенствовании среды обитания. Вероятно необходимо план научно-теоретических и технических исследований вопросов развития туризма или Технико-экономические обоснования (ТЭО).

Литература.

1. Ноткин И.И. Старогородская среда – объект охраны и реконструкции. Вехи времен (рассказы о памятниках истории и культуры Узбекистана), Альманах `89.– Ташкент: Гафур Гулям. 1989. – 196 с.

2. Концепция развития градостроительства Узбекистана в условиях формирования новых социально-экономических отношений, ТАСИ, Ташкент -2008 г. 302 стр.

3. Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. – Душанбе: Дониш. 1974. –141 с.

ОРГАНИЗАЦИЯ АРХИТЕКТУРНО- СТРОИТЕЛЬНОГО ДЕЛА В СРЕДНЕВЕКОВОМ АЗЕРБАЙДЖАНЕ

Райха Аменздаде
Доктор архитектуры, профессор НАНА, Баку, Азербайджан

Аннотация. Средневековое зодчество Азербайджана складывалось на мощных пластах культуры, в лоне которой эволюционировали архитектурные школы и художественные течения, зиждившиеся на многообразии исторических предпосылок, определивших специфику комплекса средств, принципов, элементов, принявших устойчивые архитектурные формы. Именно в средние века они приобрели полную силу в исключительном богатстве проявлений, на новой художественно-образной основе. В русле целостной общевосточной художественной системы прослеживается самостоятельность могучего зодческого искусства Азербайджана, в формировании которого выявляются роль и место локальных архитектурных школ, органичных в едином стилевом сплаве. В статье автор попыталась представить некоторые аспекты сложной организации архитектурного дела и строительных работ, многоаспектность которых отмечена Рашид ад-Дином в выразительной выдержке в «Сборнике Летописей»

Ключевые слова: архитектура, строительство, монументальные здания и сооружения, мастера, эпиграфика

Принципы организации архитектуры и строительного производства таятся в недрах устоявшихся многолетних традиций и канонизированных правил. Еще в доисламский период ремесленники, селившиеся кварталами, были объединены в цехи и корпорации со старшиной или старостой над строительных дел мастерами. На существовавшую среди них своего рода дифференциацию по роду занятий указывается в средневековом сочинении Задспрама, в котором говорится, что «… когда человек захочет строить дом, он выбирает трех человек, из которых один лучше обучен в закладке фундамента, другой в воздвижении стен, третий в сооружении крыши [1, с.66].

Вассаф сообщает, что строившиеся по личному усмотрению и на средства крупных феодалов монументальные строения (комплексы) управлялись специальным ведомством «Диван-е имарат хасса», отличавшийся от «Диван-е имарат», объединявший цеховые структуры, с государственными служащим, с вливавшимися в них ремесленными мастерскими [2, с.1].

Уже в X веке восточными авторами упоминается мастер хозяин, наемные работники (муздвар) и ученик (шагирд), а передача традиций осуществлялась непосредственно от устада к шагирду, и, это было учебой не только по овладению общими законами профессии, но происходило восприятие индивидуальной манеры зодчего [3, с. 8,9].

Сложность организационных работ определяла единоначалие зодчего, обладающего большими профессиональными знаниями, с опытом руководства строительными работами для определения с целью определения действий исполнителей строительных и декоративно-облицовочных работ, расчетов отпускавшихся материальных средств, учета трудоемкости производившихся работ. Это отмечается Рашид ад-Дином в лаконичной, но выразительной выдержке из «Сборника Летописей» он (Газан) назначил достойных доверия чиновников, честных и опытных писцов, и умевших составлять чертежи зодчих. Очень расчетливо определили все материалы, стоимость работы при таком их количестве, чтобы производящие расчет с рабочими лица (если)

совершат преступление, недостача и убытки ложились бы на них» [4, с.225,226].

В государственных интересах осуществлялась разработка системы санкций и мер, определявших условия написания и регистрации сделок. Записи превращались в официальный юридический документ при выполнении совокупности всех условий.

В источниках содержится немало сведений о предварительной проектной разработке будущего строения, где в планировочной основе (расми тарх) совмещались отдельные части разреза, фасада, развертки, конструкции купола, с нанесением места будущих опор, контуров стен и проемов, проекций сводов и куполов [5, с.118]. Исчерпывающее впечатление о строении, его объемно-пространственной структуре и конструкциях, масштабной характеристике, пропорциональном строе, соотношении целого и частей давалось в чертежах, подготавливавшихся к началу строительства — это был условно-аксонометрический чертеж, с разверткой трех фасадов [3, с. 19]. Вместе с тем заказчики возможно предпочитали представление будущего здания в виде модели- макета, и, именно в них уточнялись общие соотношения и размеры общих масс объемной композиции. Одним из наиболее ранних чертежей является план сталактитовой конхи, сделанный на глиняной табличке длиной 50 см, обнаруженной на месте дворца Абага хана в Тахт-е Сулейман (Ов Сарайы, 1270 год) [6, с.48]. Об «умевших делать чертежи» мухандисах писал Рашид ад-Дин), описывая строительство «Высокого Гумбеда», а также мухандисов, возглавлявших возведение мавзолея (комплекса). Термин «мухандис» приведен и в «Уложении Тимура» (Тузуки Тимури», разд.8), возможно служившего обоснованием о предполагаемом высоком общественном положении архитекторов [7, с.18]. Широкое место приобрели «типовые чертежи» не только самостоятельных (отдельно стоящих) строений, но и в комплексной застройке. Вычерченные в Табризе чертежи мемориального комплекса были предназначены для возведения над местом упокоения в Йезде (Иран) зятя Рашид ад Дина Шамс ад Дина [6, с.48]. Типовые чертежи целого ряда монументальных строений - караван-сарая, рабада, ханегах, обнаруженные в Бухаре (XVI в.) убедительно свидетельствуют о существовании практики предварительно составлявшихся чертежей и отчетливом представлении архитектурного объема здания в целом [8, с.19-21].

Благодаря тщательно организованной подготовке к процессу строительства, а также «конвейерного» способа производства работ возведение не только отдельного строения, но и архитектурных ансамблей велось в крайне сжатые сроки. Об это свидетельствуют, в частности эпиграфические панно с датами, имевшие место в подавляющем большинстве дошедших до наших дней монументальных зданий и сооружений.

Процессу архитектурно-строительных работ посвящен цикл миниатюр с изображением кирпичеобжигательных печей («История непорочных имамов», Британский музей), приемов кладки стен («Стена Искандера», Хамсэ, Низами Гянджеви), столярно-плотничного дела («Обучение людей ремеслам царем Джамшидом», Шахнаме, Фирдоуси), «Постройка мечети» (Зафарнаме, Шараф ад Дина Йезди, худ. Бехзад) и др., продолжающих серию миниатюр, воспевающих гимн высокому труду многочисленной армии архитектурно - строительных дел мастерам, и, в которых явственно ощущается безграничное уважение их труду.

В обширный комплекс средств или жанров декоративного убранства монументальных строений входит эпиграфика, сыгравшая столь важную роль в развитии искусства средневекового Азербайджана. Строительная эпиграфика приобрела значение своего рода паспорта, дающего, помимо сведений о заказчике, повелевшим возвести строение, имена архитекторов, в том числе мастеров архитектурного декора, а также дату строительства. В китабе (панно с эпиграфикой) указаны их профессиональные звания - мухандис, мемар, бенна, устад, наггаш, бэндгир, хаттат, часто указывалось ал-амал (работа), превращаясь в развернутую графическую страницу истории архитектуры. Сама эпиграфика свидетельствует о высокой оценке профессиональных способностей высококвалифицированных мастеров, принадлежавших к культурной среде. Строительная эпиграфика, выполнявшаяся в изразцах, терракоте, камне, мраморе и гяже, исключительно удобочитаема и традиционно имеет место а) над входным проемом, б) над замком стрельчатой арки портала, в) в его тимпанах, г) в архивольте портала [9,166-169]. Мухандисами, мемарами чаще всего, по - видимому становились специалисты широко образованные, имевшие знатное происхождение, одним из самых известных был выдающийся зодчий Али Шах Табризи (XVI в.), по проектам которого был построен целый ряд монументальных строений.

Литература

1.Касумова С.Ю. Азербайджан в III-VIIв., Баку, 1999

2.Мухаммед ибн Хиндушах Нахчивани. Дастур ал-катиб фи тайин ал-маратиб. Т.II, М.,1976

3. Пугаченкова Г.А. Об общественном положении и роли средневекового зодчего в Средней Азии. ИЗУ, Т. IV, Ташкент, 1969

4.Рашид ад-Дин. Сборник летописей. Т.III., М-Л.,1946

5.Захидов П.Ш. Основы канона в архитектуре. Ташкент, 1982

6.Gülru Necipoglu. Geometric design in Timurid/Turkmen architectural practice; thoughts an a recentey discovered scroll and its late gothic parallels.Lisa Golambek, Maria Subtelny "Timurid art and culture. İran and Central Asia in the fifteenth centure". Leiden, New York, Köln, 1992

7. Бретаницкий Л.С. Художественное наследие Переднего Востока эпохи феодализма. М., 1988

8. Бакланов Н. Архитектурные чертежи узбекского мастера XVI века.» Материалы по истории архитектуры народов СССР», вып.4, М., 1944

9. Аменздаде Р. Роль и место эпиграфики в порталах сооружений средневекового зодчества Азербайджана (XII-XVвв.)» Доклады АН Азербайджана»1993/94, T.XLVIII, №VII1-12


O'ZBEKISTON AHOLISINING O'SISHI VA TOG'LI TUMANLARDA AHOLI YASHASH HUDUDLARINING AVZALLIKLARI

Yusupova Aziza Ismailovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti PhD doktoranti
Uralov Axtam Sindarovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti,
arxitektura fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston aholisining kundan-kunga o'sib borishi natijasida ko'plab turar joy binolari qurilmoqda, shuningdek tog' oldi va tog'li hududlarda aholi yashash hududlarini tashkil etish, tog' oldi tumanlaridan maqsadli foydalanish orqali aholiga keng imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir. Tadqiqot yangiligi shuki, O'zbekistonning tog'li tumanlarida aholi yashashini tashkil etish va aholining o'sishini ta'minlash uchun ko'p qirrali yondashuv va zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tog'li va tog' oldi hududlar, aholi turar joylari, demografik o'sish, infratuzilmalarni rivojlantirish.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisi qirq million kishiga yaqinlashib qolmoqda, prezident huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonning doimiy yashaydigan aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 36 799 800 kishini istiqomat qiladi. Bunda shahar aholisi soni 18 768 500 kishini, qishloq aholisi soni 18 031 300 kishini tashkil yetdi. Mehnatga layoqatli aholi soni yesa 20 710 900 nafarni tashkil yetdi. Bu o'tgan yilga nisbatan 205 600 ga ko'p. Yanada batafsilroq ma'lumotlarni 1-rasmda ko'rsatilgan.



1 – rasm. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra aholi soni

Hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni eng ko'p Samarqand viloyatida 4 208 500 kishi, Farg'ona viloyatida 4 061 500 kishi, Qashqadaryo viloyatida 3 560 600 kishi, yeng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida 914 ming kishi, Navoiy viloyatida 1 075 300 kishi va Jizzax viloyatida 1 507 400 kishini tashkil yetgan. Shunday qilib, O'zbekistonda aholi soni 4 milliondan oshgan viloyatlar soni ikkitaga yetdi[1].

O'zbekistonnning demografik, iqtisodiy va ekologik muammolari haqidagi ma'lumotlar ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar, davlat statistikasi va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (Sustainable Development Goals, SDGs) BMT tomonidan 2015 yilda qabul qilingan va 2030 yilga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan 17 ta global maqsadni o'z ichiga oladi. Ushbu taqdiqot uchun O'zbekiston aholisi va uning o'sishi, shuningdek, tog'li tumanlarda aholi yashash hududlari tashkil etish masalalari muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik masalalar hisoblanadi. O'zbekistonning tog'li hududlarida aholi yashashini tashkil etishda bir qator omillarni inobatga olish zarur:

1. "Demografik o'sish": O'zbekiston aholisining o'sishi asosan tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlariga bog'liq. Yuqori tug'ilish koeffitsienti va yosh aholining ko'pligi demografik o'sishni ta'minlaydi.
2. "Ta'lim va sog'liqni saqlash": Aholining sifatini oshirish va o'sish sur'atlarini tezlashtirish uchun ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish zarur.
3. "Iqtisodiy Rivojlanish": Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish aholining yashash sharoitlarini yaxshish kabi omillarni o'z ichiga oladi. [2]

Yuqoridagi omillardan ko'rinib turibdiki, birgina aholi soning o'sishi orqali ko'plab sohalarni rivojlantirishimiz va ularga ehtiyoj sezishimiz mumkin. Shuningdek, tog'li hududlarda ham aholi turar joylarini

loyihalshning bir nechta avzalliklarini haqida to'xtalish joizdir.

- Yashash sharoitlari- tog'li hududlarda aholi yashash joylarini tashkil etishda infratuzilmani rivojlantirish, suv ta'minoti va energetika masalalarini hal qilish zarur.

- Transport aloqalari-tog'li hududlarda transport aloqalarini yaxshilash, aholining harakatlanish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

- Ekologik barqarorlik-tog'li hududlarda aholi yashashini tashkil etishda ekologik barqarorlikni ta'minlash muhimdir. Yerning yaroqliligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur.


- Turizmni Rivojlantirish-tog'li hududlar turizm uchun juda mos keladi. Turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

- Mahalliy madaniyatni saqlash-mahalliy an'ana va madaniyatni rivojlantirish orqali aholi o'rtasida ijtimoiy birlikni mustahkamlash muhim. Mana shunday avzalliklar natijasida tog'li hududlarimizda aholi turmush tarzini rivojlantirish va ularga na'munali turar-joy binolarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Tog'lar mamlakatimizning umumiy hududining 21,4% ini egallaydi, ushbu qismida umumiy aholining 2,7%i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 12-13 %i, sanoat mahsulotlarining 16 %ga yaqini hamda rekratsiya va landshaft xilma-xilligi resurslarining katta qismiga to'g'ri kelishi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston sharoitida hududi to'liq tog'larda joylashgan viloyatlar mavjud emas, ma'muriy jihatdan 10 ta viloyati tekislik-tog' mintaqasida joylashgan bo'lib, ushbu viloyatlar tumanlarining 72 tasi maydonlari tarkibida tog'lar mavjud. Bugungi globallashuv sharoitida aholi sonining o'sishi, buning natijasi o'laroq tog' resurslariga ehtiyojning ortishi, tog' hududlariga ta'sir doiralarining kengayishi oqibatida ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatning beqarorligini kuchayganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz tog'lari Markaziy Osiyoning eng qadimgi o'zlashtirilgan va aholi ko'p yashaydigan hududlaridan biri hisoblanib, XIX asrning ikkinchi yarmiga nazar tashlasak, O'zbekiston aholisining 1/5 qismi, 1987 yillarda 17,4% aholi tog'larda yashagan. Oxirgi yuz yilda ya'ni 2020 yilga kelib, tog' aholisining soni 6 marta ko'payib, 4,3 million kishiga ya'ni umumiy aholi sonining 12,7%ga yetdi[3;1049].

Aholi eng avvalo tog' botiqlarida, tog' daryolari vodiylarining kengaygan joylarida va past tog'lar yonbag'irlarida joylashgan. Mamlakatimizning eng baland tog' qishloqlari Hisor tog'lari janubiy yonbag'irlarida Surxondaryoning Sariosiyo tumanida 2500-2600 metr balandligida joylashgan. O'zbekistonning tog'larida domiy aholi yashaydigan aholi punktlarining eng baland chegarasi 2600 metrni tashkil etib u Kishtut qishlog'i hududini o'z ichiga oladi.[4]

Tog'li hududlardagi turar joylar odatda tog'larning tabiiy sharoitlariga moslashtirilgan va mahalliy aholining turmush tarziga muvofiq qurilgan bo'ladi. Bunday joylashuvda yashash turli xil afzalliklar va qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Tog'li hududlardagi uylar ko'pincha tosh, yog'och va loydan quriladi. Bu materiallar mahalliy sharoitlarga mos keladi va issiqlikni saqlashda samarali hisoblanadi. Tog'lar iqlimi qattiq bo'lgani sababli, uylarda izolyatsiyalangan devorlar, kichikroq derazalar va isitgichlar mavjud bo'lishi kerak. Yomg'ir yoki qor ko'p yog'adigan hududlarda tomlar qiyshiq shaklda quriladi. Bu qor yoki yomg'ir suvining osonlikcha oqib ketishini ta'minlaydi. Ko'p hollarda tog'li joylardagi uylarda o'choqlar (pechlar) o'rnatiladi, chunki ular issiqlik manbai sifatida ishlatiladi. Bu holat mahalliy an'ana va iqlim sharoitlariga ham bog'liq. Aholi punktining tabiiy sharoiti ichkarida va uning atrofida ham yaxshi bo'lgan holatda turar joylar kompozitsiyasini me'moriy rejalashtirishga misollar keltirish mumkin. 2-3-rasmlarda ko'rish mumkin.




2-rasm. Tog' oldi hududlardagi turar-joylarning kompozitsion holati.



3-rasm Tog’ oldi hududlarida aholi punktlari kompozitsiyasiga panorama ko’rinishida misol[5;34]

Tog'li hududlarda joylashgan uylarda ko'pincha qiyaliklar bo'lgani uchun, ular tog' bag'irlari bo'ylab qatlamli yoki terassali usulda quriladi. Buni Sintob misolida ham ko’rish mumkin. Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Sentob qishlog’i Butunjahon turizm tashkilotining turizm qishloqlari ro’yxatiga kiritildi. Bu haqda UNWTO Bosh Assambleyasining sessiyasida xabar berdi.



4-rasm Canaan travel. Sentob qishlog’i

Tog'li hududlarda yashashning afzalliklari juda juda ko’p, toza havo va tabiiy manzaralar,tog'li hududlar sof havo va go'zal tabiat bilan mashhur bo'lib, odamlarning salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm va daromad manbaiga to’xtaladigan bo’lsak tog'li hududlarda yashovchilar

ko'pincha turizm bilan shug'ullanib, qo'shimcha daromad olishlari mumkin[6]. Bunga Sentob qishlog’i yaqqol misoldir. Tog'lar odatda shaharlarning shovqinidan uzoq bo'lib, osoyishta muhit yaratadi, tinchlik va xotirjamlikni beradi insonlarga.

Umuman olganda, tog'li hududlarda turar joylar qurilishi va yashash uslubi tabiiy sharoitlarga moslashgan va mahalliy xalqning tajribasiga asoslangan bu turmush tarzi mashaqqatli ko’rinsa ham, o'ziga xos go'zallik va jozibaga ega. O‘zbekistonning tog‘li tumanlarida aholi yashashini tashkil etish va aholining o‘sishini ta'minlash uchun ko‘p qirrali yondashuv va zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. (https://t.me/statistika_rasmiy/4610)
2. https://sdgs.un.org
3. A.Yusupova, A.Uralov. “Tog’li hududlarida aholi maskanlari, turarjoy va jamoat binolarining joylashuvi va o’ziga xosligi”. SILK ROAD 3 rd International Scientific Research Congress, IKSAD Publishing House Authors are responsible both ethically and jurisdically IKSAD Publications - 2024© Issued: 26.03.2024.
4. Qalandarova M.K. O’zbekistonning tog’ va tog’li hududlari aholisining Turmush tarzi, "Ekonomika i sotsium" №9(112) 2023 www.iupr.ru
5. I.S.Baydjanov Aholi punktlari va jamoat markazlarini me’moriy rejalashtirish. Ridero intellektual nashriyot, 2019 y https://ridero.ru/books/
6. https://bugun.uz/wp-content/uploads/2023/10/photo_2023-10-19_15-26-07.jpg

ZAMONAVIY UNIVERSITET KAMPUSINING TUZILISHI (arxitektura, funksiya va innovatsiyalar)

Rahimov Kamol Djalolovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori.
(ilmiy rahbar)
Rashidova Nafisa Mustafoyevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy universitet kampuslarining tuzilishi va funksional jihatlari yoritilgan bo‘lib, ularning ta’lim, ilmiy faoliyat va madaniy almashinuvga yordam beruvchi ko‘p funksiyali makon sifatidagi roli ta’kidlangan. Arxitekturaviy loyihalash, rayonlashtirish, ta'lim joylari, ijtimoiy va madaniy funktsiyalar, shuningdek, barqaror amaliyotlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi asosiy komponentlar ko'rib chiqiladi. Asosiy e’tibor talabalar va o‘qituvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan qulay muhit yaratishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion yechimlarning ta’lim jarayoni samaradorligi va universitet hamjamiyatini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Universitet kampuslari, ekosistema, innovatsiya, tendensiya, innovatsion texnologiya, laboratoriya, kutubxona, konferens-zal, multimedia, interaktiv doska, landshaft.

Abstract: The article describes the structure and functional aspects of modern university campuses, and emphasizes their role as a multifunctional space that supports education, scientific activity, and cultural exchange. Key components such as architectural design, zoning, educational spaces, social and cultural functions, as well as the introduction of sustainable practices and modern technologies are considered. The main focus is on creating a comfortable environment that meets the needs of students and teachers. The article also analyzes the impact of innovative solutions on the effectiveness of the educational process and the development of the university community.

Key words: University campuses, ecosystem, innovation, trend, innovative technology, laboratory, library, conference hall, multimedia, interactive board, landscape.

Kirish

Zamonaviy universitet kampuslari nafaqat ta'lim olish maskani , balki bilim, innovatsiyalar va ijtimoiy munosabatlar uchun dinamik ekosistemalardir. Ushbu kampuslar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va jamoatchilikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda talabalarning tez o'zgarib borayotgan ehtiyojlari va ta'lim sohasidagi global an'analar tufayli universitet kampuslari arxitekturasi va tuzilishi sezilarli darajadagi o'zgarishlarga duch kelmoqda. Talabalar hayotining turli jabhalarini, mashg`ulotlar va tadqiqotlardan tortib, madaniy va ijtimoiy tashabbuslargacha birlashtiradigan ko'p funksiyali hududlarni yaratishga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu maqolada zamonaviy universitet kampus strukturasining asosiy tarkibiy qismlarini, ularning funksional vazifalarini va ta'lim muhitining kelajagini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning roli batafsil ko'rib chiqiladi.

Usullar va materiallar

Ushbu maqolaning tuzilishi quyidagicha yoritilgan: Dastlab, zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirishda universitet kampuslarining o'rni ko'rib chiqiladi. Zamonaviy universitet kampuslarining tuzilishi va funksional jihatlari yoritilib, ularning ta'lim, ilmiy faoliyat va madaniy almashinuvga yordam beruvchi ahamiyati aniqlanadi. Undan keyin zamonaviy universitet kampuslarini arxitekturaviy loyihalash hamda zonalashtirish masalalari ko`rib chiqiladi hamda zamonaviy universitet kampuslarida innovatsion texnoligiyalarning joriy qilinishi yoritiladi. Xulosa qismida zamonaviy universitet kampuslarining tuzilishida, arxitekturaviy innovatsiyalar va texnologiyalar muhim ahamiyatga ega ekanligi muhokama qilinadi.

Universitet kampusi — bu universitet yoki kollejga tegishli barcha yoki asosiy binolar va inshootlar joylashgan hudud. Kampus odatda ta'lim va boshqaruv binolari, yotoqxonalar, kutubxonalar, laboratoriyalar, sport inshootlari va dam olish zonalarini o'z ichiga oladi.[2]

Kampus talaba va o'qituvchilar uchun o'qish, mulohaza yuritish, sport bilan shug'ullanish, dam olish va madaniy hayotda ishtirok etish uchun qulay va funksional muhit yaratish maqsadida mo'ljallangan. Kampusning tashqi ko'rinishi va tuzilishi arxitektura an'analari, madaniy kontekst va muayyan ta'lim muassasasining xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin.[1]



1-rasm. Gonkong fan va texnologiya universiteti (HKUST)[8]

Arxitekturaviy rejalashtirish

Zonalashtirish. Zamonaviy universitet kampuslari odatda bir necha asosiy zonalarga bo`linib, ularning har biri kampusning ajralmas qismidir:

-Ta'lim zonasi: o`quv xonalari, labaratoriyalar, kutubxonalar, va konferens-zallarni o`z ichiga oladi. Bu joylar resurslardan qulay foydalanishni ta'minlash, shuninngdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot qilish uchun sharoit yaratish uchun mo'ljallanadi.

-Ijtimoiy-madaniy zona: kafe, dam olish joylari, madaniyat markazlari va sport inshootlarini o'z ichiga oladi. Ushbu hududlar talabalar o'rtasida norasmiy muloqotni ta'minlash, rivojlanish va o'qituvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

-Yashash zonalari: talabalar va o'qituvchilar uchun uy-joy taklif etadi, jumladan, yotoqxona va ijara kvartiralari. Ushbu zonalar odatda ta'lim binolariga yaqin joyda joylashadi, bu esa talabalar uchun vaqtni optimallashtirish imkonini beradi.[4]

Estetika va funksionallik

Zamonaviy universitet kampuslarining arxitekturasi funksionallikni estetik elementlar bilan birlashtiradi. Dizaynerlar kampusni yanada jozibador va ilhomlantiruvchi qilish uchun tabiat elementlarini, masalan, yashil maydonlarni, suv obyektlarini va ochiq joylarni kiritishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- Tabiiy materiallardan foydalanish.
- Yashil tomlar va devorlarni yaratish.
- Quyosh nuridan maksimal darajada foydalanish uchun shaffof konstruktsiyalarni qo'llash.

Ushbu jihatlar samarali va ilhomlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi, bu esa talabalar o'sishi va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.[6]

Tahlil natijalari

Universitet kampusi ta'lim jarayonining turli jihatlarini va talabalar hayotini ta'minlaydigan bir butun ekotizim sifatida xizmat qiladi. Universitet kampusining asosiy komponentlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Ta'lim zonalari

Auditoriyalar va laboratoriyalar

Zamonaviy ta'limda o‘quv jarayoni o'tadigan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Auditoriyalar zamonaviy multimedia uskunalari, interaktiv doskalar va raqamli resurslarga ulangan bo‘lishi kerak. Bu talabalarni faol jalb qilishni talab qiladigan interaktiv darslar va seminarlar uchun zarur.

Laboratoriyalar amaliy ishlar va tadqiqotlar uchun maxsus jihozlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Talabalar ulardan darsdan tashqari vaqtlarda ham foydalana olishlari kerak. Masalan, kimyo, biologiya yoki fizika laboratoriyalari klassik asboblarni ham, 3D printerlar va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari kabi eng yangi texnologiyalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. [3]


Kutubxonalar va axborot markazlari

Zamonaviy universitet kutubxonalari faqat kitoblar saqlovchi joy emas, balki ko‘p funksiyali binolardir. Ular quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- O‘quv zallari: kompyuterlar va Wi-Fi bilan jihozlangan, individual yoki jamoaviy ishlash uchun qulay joylar.

- Axborot markazlari: axborotni izlash va tadqiqot ishlarida yordam berish uchun maslahat xizmatlari.

- Kovorkinglar: guruhli loyihalar uchun ideal bo'lgan jamoa bo`lib ishlash zonalari, bu yerda talabalar o`z g‘oyalarini o‘rtoqlashib, ilhomlanib, hamkorlikda ishlashlari mumkin.[2]



2-rasm. Chu Xay kolleji / Oliy ta'lim galereyasi. [8]

Boshqaruv binolari

- Asosiy boshqaruv binosi: Universitet rahbariyati, dekantlar va yordamchi xizmatlar ofislari.

- Talabalarga yordam xizmatlari: Maslahat berish, psixologik yordam va karera ta'limi bo'yicha ofislar.

Turar joylar

- Talabalar yotoqxonalari: Talabalar uchun turar joylar, umumiy qulayliklar bilan birga yoki kvartira turida bo'lishi mumkin.

- O'qituvchilar va mehmonlar uchun mehmonxonalar: Vaqtinchalik yashash uchun.[3]

Ijtimoiy va madaniy funksiyalar

Aloqa uchun zonalar

Kafe, kichik do‘konlar va dam olish joylari talabalar uchun jalb qiluvchi joylarga aylanadi. Ushbu joylar norasmiy muloqotni, tajriba almashishni va g‘oyalarni muhokama qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ular ko‘pincha zamonaviy va xotirjam uslubda bezatilgan bo‘lib, bu esa qulaylik va shinamlik qo‘shadi. Ba'zi universitetlar madaniy tadbirlar, masalan, ko‘rgazmalar, ma'ruza va ustaxonalar tashkil etish uchun ushbu joylardan faol foydalanadilar.[7]

- San'at joylari: Ko'rgazmalar, konserlar va madaniy tadbirlarda ishtirok etishga mo'ljallangan joylar.

- Kafeteriyalar: talabalar va xodimlar tamaddi yoki tushlik qilishlari mumkin bo'lgan joylar.

- Kafe: Ko'proq dam olish va muloqot qilish uchun mo`ljallangan norasmiy joylar.



3-rasm. Chikago universitetining Lakeshore kampusi.[8]

Sport inshootlari

Sport komplekslari, jumladan, ko‘p funksiyali zallar, turli sport turlari uchun ochiq maydonlar va fitness markazlari talabalar uchun jismoniy faoliyatni ta'minlaydi. Bunday obyektlar jismoniy faoliyatni rag'batlantirish, jamoaviy ruhni shakllantirish va sog‘lom hayot tarzini o‘rganish uchun yaratiladi.[4]

- Sport zallari: jamoaviy sport va fitnes uchun.

- Stadionlar: musobaqalar va ochiq tadbirlar uchun.

- Suzish havzalari: Agar universitet dasturi tomonidan taqdim etilgan bo'lsa.

- Fitness markazlari va hovuzlar: Jismoniy rivojlanish va dam olish uchun.

Dam olish zonalari va bog'lar

- Parklar va bog'li hududlar: Sayr qilish, tabiatda dam olish va ijtimoiy aloqalar uchun.

Madaniy va ijodiy joylar

- San'at markazlari: Ko'rgazmalar, san'at loyihalari va madaniy tadbirlar uchun joylar.

- Teatr va konser zalari: Lektsiyalar, madaniy tadbirlar va spektakllar o'tkazish uchun.

Infratuzilma va barqaror rivojlanish

Transport infratuzilmasi

Samarali transport tizimi har qanday kampusning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim bo`lib, quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Yo‘laklar va velosiped yo‘laklari: piyoda va velosipedchilar uchun qulay yo‘llar, bu esa ekologik xabardorlikni oshirishga va ifloslanishni kamaytirishga yordam beradi.

- Avtoturargohlar: avtomobillar va velosipedlar uchun joylar, talabalar va o‘qituvchilar uchun zarur imkoniyatlar taqdim etuvchi joylarni ta'minlaydi.

- Jamoat transporti: kampusdan tashqarida yashovchi talabalar uchun qulay yo‘nalishlarni taklif qiluvchi xizmat.[5]

Xavfsizlik va xizmat ko'rsatish xizmatlari

- Xavfsizlik xizmatlari: Kampus hududida xavfsizlikni ta'minlash.

- Texnik xizmatlar: Bino va infratuzilmani parvarish qilish uchun mas'ul xizmatlar

Barqaror amaliyotlar

Zamonaviy universitet kampuslari tobora ko‘proq barqaror rivojlanish tamoyillarini qabul qilmoqdalar. Bu quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Energiya tejamkor binolar: energiyani iste'mol etishni kamaytirish uchun texnologiyalarni qo‘llash, masalan, quyosh panellari, yoritish va isitish tizimlarini boshqarish.

- Yashil qurilish: atrof-muhitga minimal ta'sir ko‘rsatadigan ekologik toza materiallar va dizayndan foydalanish. Bunday amaliyotlar nafaqat tabiatni saqlashga yordam beradi, balki xarajatlarni kamaytirishga ham yordam beradi. [6]

Zamonaviy texnologiyalar

Aqlli binolar

Zamonaviy kampuslar qulaylik va xavfsizlikni ta'minlovchi texnologiyalarni joriy etish bilan faol shug'ullanadilar. Hozirda ba'zi universitetlarda “aqlli bino” konsepsiyasi qo‘llanilmoqda, bu esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Odamlar mavjudligini hisobga oladigan iqlim va yoritish boshqaruv tizimlari.

- Xavfsizlik muhitini yaratadigan videokuzatuv va kirish nazorati tizimlari.

-Mekanizatsiya: Jamoat joylarida xavfsizlikni oshirish uchun ochiq maydonlar va yaxshi ko'rinish.

- Resurslardan foydalanishni real vaqtda monitoring qilish, bu xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.[7]

Texnologik ta'minot

- Zamonaviy axborot texnologiyalari: Tezkor internet, interaktiv doskalar va ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi boshqa texnologiyalar.

- Aqlli texnologiyalar: Energiyani sarfini optimallashtirish va qulay atrof-muhitni yaratishda binoni boshqarish tizimlarini integratsiya qilish.

IT va texnologik resurslar

- Kompyuter sinflari va laboratoriyalar: Ta'lim va tadqiqot maqsadlari uchun.

- Texnologiyalar bilan ishlash joylari: Startaplar, kovorking va ta'lim laboratoriyalari uchun maydonlar.

Raqamli platforma

Bugungi kunda ko‘plab universitetlar ta'lim jarayonini boshqarish uchun raqamli platformalarni joriy etmoqdalar. Raqanli platformalar talabalar uchun jadvalga, o‘quv materiallariga va o‘qituvchilar bilan muloqot vositalariga kirish imkonini beradi. Bu esa o`z navbatida talabalarni yanada faolroq va tartibli bo‘lishiga yordam berab, ularga o‘z ta'lim jarayonida ko‘proq ishtirok etishga imkoniyatni yaratadi.[5]

Tabiat bilan integratsiya

- Yashil joylar: Talabalar va xodimlarga muloqot va dam olish uchun bog'lar, terasalar va jamoat joylarini yaratish.

- Tabiiy materiallar: Tizimni atrof-muhitga uyg'un bo'lgan tosh, daraxt va boshqa tabiiy materiallardan foydalanish.[2]

Ushbu tuzilma, odatda, ta'lim va talabalarning hayotiga kompleks yondashuvni ta'minlaydi va ularning universitet jamoasida o'zaro aloqa, rivojlanish va ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa

Zamonaviy universitet kampuslarining tuzilishi – bu ta'lim, ijtimoiy va madaniy funktsiyalarni o‘z ichiga oluvchi ko‘p funksiyali tizimdir. Arxitekturaviy innovatsiyalar va texnologiyalar kampuslarni loyihalash va ishlatishda muhim ahamiyatga ega. Universitet kampusi — bu nafaqat jismoniy makon, balki talabalarning, o'qituvchilarning va butun akademik jamoaning rivojlanishiga hissa qo'shuvchi muhim ekotizim hisoblanadi. Samarali va ilhomlantiruvchi kampus yaratish, sifatli ta'lim jarayonini shakllantirish, shuningdek, o'qish va yashash uchun qulay sharoitlar ta'minlash haqiqatan ham muhimdir. Zamonaviy universitet kampuslari akademik, ijtimoiy va madaniy hayotning kesishgan markazlariga aylanmoqda. Ular xodimlar va talabalar o'rtasida hamkorlik qilish imkoniyatlarini taqdim etib, shaxsiy o'sish va professional ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Makonning samarali ishlatilishi, barqaror yechimlar va ijtimoiy infratuzilmaga e'tibor, kampuslarda qulay ta'lim muhitini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Globalizatsiya va raqamlashtirish sharoitida, fanlararo ta'lim tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va universitet kampuslari zamonaviy talablar asosida moslashishi kerak. Bu ta'lim jarayoni, infrastruktura va o'qitishni tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab qiladi. Shunday qilib, universitet kampusi - bu ta'lim va o'sish uchun dinamik makon bo'lib, u jamiyat va texnologiyalardagi o'zgarishlar bilan birga rivojlanishi kerak. Har bir ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxsning hissasi muhimdir va kampuslarda qulay ta'lim muhitini yaratish — bu akademik jamoaning barcha a'zolari uchun umumiy maqsad bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Кириллова, Н.Б. Модернизация университетских кампусов: мировые тенденции и российский опыт / Н.Б. Кириллова, А.А. Мирошниченко // Высшее образование в России. – 2019.

2. Кузнецов, С. С. Архитектура университетских кампусов: история и современные тенденции. Москва: (2015).

3. Смирнова, О. А. "Роль университетского кампуса в формировании образовательной среды". Высшее образование в России. (2020).

4. Бабкин Д.А. Архитектура и формирование городской среды университетских кампусов // Градостроительство. 2020.

5. Campus Planning: The College Board. "Campus Planning Toolkit". www.collegeboard.org/campus-planning.

6. Association of College and University Housing Officers-International. "Designing Learning Communities". www.acuho-i.org.

7. Фонд «Образование для будущего». "Современные подходы к проектированию университетских кампусов". www.fbgb.ru.

8. https://www.wur.nl/en/education-programmes/study-abroad-and-exchange-students

“YASHIL ARXITEKTURA” XUSUSIYATLARINING INSHOOTLARNI LOYIHALASHDAGI AHAMIYATI VA ATROF MUHITGA TA’SIRI

Xudoyarova M.B.
arxitektura nomzodi, dotsent., Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti.Samarqand.
Mamatqulov O’O’
Katta o’qituvchi. Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti.Samarqand.
R.U. Chekaeva.
Gumilyov nomidagi Yevrosiyo Milliy universiteti Arxitektura-qurilish fakulteti arxitektura kafedrasi, Qozog‘iston, Ostona.

Annotatsiya: Maqola “Yashil arxitektura” fanining atrof-muhitga va odamlarga ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirishga qaratilgan bino va inshootlarni loyihalashdagi innovatsion yo’nalishlarning mohiyatini va ulardan qurilish jarayoninining yangi uslublari, yangi texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o’rganishga qaratilgan.

Kalit so`zlar: Yashil arxitektura, tabiat, to’lqin yuzali obolochka, shakl, arxitektura, bionika, qurilish tuzilmalari, ekologik toza, dizayn.

Kirish. Yashil arxitektura me'moriy bionikaning yo'nalishi bo'lib, unda tabiiy ob'ektlar va inshootlarning kombinatsiyasiga katta e'tibor beriladi.

Yashil arxitektura - bu qurilishda barqaror materiallar va energiya manbalaridan foydalanish orqali atrof-muhitga eng kam salbiy ta'sir ko'rsatadigan binolarni loyihalashga qaratilgan falsafa. Yashil binolar binoning butun hayoti davomida ekologik toza va resurslarni tejaydigan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Yashil binolar kontseptsiyasi salbiy ta'sirlarni har tomonlama minimallashtirish va binoning atrof-muhitga va odamlarga ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirishga qaratilgan.

Ammo yillar davomida texnologiya rivojlandi va jamoalar shahar markazlariga oqib keldi va zamonaviy qulayliklarga ko'proq e'tibor berildi, buning natijasida shahardan tashqarida yashashga kamroq e'tibor qaratildi. Afsuski, bu zamonaviy qulaylik qimmatga tushdi - tez o'sib borayotgan energiya iste'moli bizning uglerod izimizga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bugungi kunda barqaror hayot yanada ommalashib borayotganligi sababli, bu yashil arxitektura falsafasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda keng tarqalgan. Muayyan energiya samaradorligi darajasiga javob beradigan binolar butun dunyoda qo'llanilmoqda.

Asosiy qism. Yashil arxitektura bu qurilish loyihalarining zararli tomonlarini insonning sog’ligiga va atrof muhitga eng kam ta’sir qilishini ta’minlashdan iborat. “Yashil” arxitektura bilan shug’ullanuvchi arxitektorlar havoni, suvni va yerni ekologik toza qurilish materiallari va qurilish metodlari bilan muhofaza qilishga harakat qilishadi.

Yashil arxitekturaning paydo bo’lishi XX asrning 70 - 80 yillariga to’g’ri keladi deb qabul qilingan. Garb mamlakatlarida energiya krizisi boshlangandan so’ng atrof muhitga, tabiiy resurslarni saqlashga, “Yashil qurilishga” g’oyasiga ahamiyat bera boshlashadi. E’tibor bilan qaralsa “Yashil arxitektura” bu injenerlik bilan birga arxitektura va landshaftning o’zaro aloqalari asosida arxitekturaviy effekt beruvchi, tejamkor va ekologik arxitektura hisoblanadi.

Yashil arxitekturani tahlil qilishda bir nechta asosiy atamalarni hisobga olish kerak.

Barqarorlik. Barqarorlikning o'zi nisbatan keng tushuncha bo'lib, bino qanday qurilganidan tortib, undan qanday foydalanishgacha bo'lgan hamma narsani qamrab oladi. Bino atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qulay va funktsional makonni yaratganda barqaror hisoblanadi. Ammo barqaror va yashil binolar o'rtasidagi farqni tan olish muhimdir. Barqarorlik uchta ustunni ta'kidlaydi: sayyora, odamlar va foyda. Yashil esa faqat atrof-muhitga e'tibor qaratadi. Bu shuni anglatadiki, barcha yashil binolar barqaror, ammo barcha barqaror binolar yashil emas.

Energiya samaradorligi. Energiyadan samarali foydalanish yashil arxitekturaning muhim elementidir, chunki kamroq energiya ishlatish binoning uglerod izini kamaytiradi. Energiya samaradorligi bir xil vazifani bajarish uchun kamroq energiya talab qiladigan texnologiyalardan foydalanish orqali erishiladi.

Eng yaxshi barqaror loyihalar chiqindilarni kamaytirish, energiya va resurslarni tejash hamda aholi va jamiyat uchun yuqori darajadagi ishlash va funksionallikni ta’minlashga qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishishning ko'plab usullari mavjud va me'morlar uchun muammo va imkoniyat - samarali, yuqori samarali bino yaratish uchun aqlli dizayn bilan birgalikda ishlaydigan materiallar, qurilish mahsulotlari va tizimlarining to'g'ri kombinatsiyasini topishdir.

“Yashil arxitekturaga” bilan shug’ullangan arxitektorlar Norman Foster, Richard Rodjers, Tomas Xertsog, Yan Kapliki va Ken Yang. Ular ishlarida bundan 20 yil avval arxitekturaning atrof muhitga ta’sirini dolzarbligini ko’rsatgan edilar. Hozirgi kunda bu ta’sirning dolzarbligi yanada oshdi.

Yashil arxitektura binoning qurilishi, foydalanishi va ekspluatatsiyasida sarflanadigan resurslar miqdorini minimallashtirishga, shuningdek uning tarkibiy qismlarining chiqindilari, ifloslanishi va chiqindilari orqali atrof-muhitga zararni kamaytirishga intiladi.

Binolarni loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatishda energiya, suv va yangi materiallardan foydalaniladi va sog'liq va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdordagi chiqindilar hosil bo'ladi. Ushbu ta'sirlarni cheklash va barqaror va resurslarni tejaydigan binolarni loyihalash uchun yashil qurilish tizimlarini joriy qilish, tushuntirish, tushunish va amaliyotda qo'llash kerak.

Hozirgi zamonda inson qulay muhitda yashashni istaydi. Arxitektorlar bino va majmualarni yaratayotganda ularni loyihalashda yangi materiallar, yangi texnologiyalardan foydalanib murakkab geometrik shakllarga ega bo’lgan konstruktsiyalar yaratishadi. Ular ko’pincha plastinalar va to’lqin yuzali obolochkalardan foydalanishadi. Ular juda mustahkam bo’ladi.

Tabiat arxitektorlarga uyg’un birlashuvlarni va arxitekturaviy elementlarni konstruktiv birlashuvi mumkinligini taklif etadi. Bu yo’nalishda Rentso Piano, Frenk O. Genri, Getrid Byomlar binoni shaklini, binoni tashkil qiluvchilarning nisbatlarini va tabiiy muhitni buzmasdan kirishib ketishini to’g’ri tushunib tanlashgan.

Arxitekturaviy bionikaga misol qilib arxitektor Gotfrid Byomning Germaniyadagi teatrini olsa bo’ladi. U binoni shahar va tabiat muhitiga uyg’un kirita olgan. U atrof muhitni hisobga olgan, tarixiy binolarni, chiziqlarni, ranglarni, tabiat go’zalligini uyg’un birlashtira olgan. (1- rasm)



1-Rasm. Xansa Otto nomli teatr. Germaniya

Lekin shunday yo’nalish borki tabiatni birinchi o’ringa qo’yadi va inshootlar loyihasida, binolar majmuasi atrof muhitga kirishib ketadi. Ular bu binolarning ekologiyasini va ularda insonning yashashi uchun qulayligini unutishmaydi.Aynan shunday yo’nalish yashil arxitektura hisoblanadi. Rossiyada Zaryadье bog’i yashil qurilishga misol bo’la oladi.(2-rasm)



2-rasm. Zaryadье bog’i. Moskva

Berndagi Paulo Klee markazi loyihasida “yashil arxitektura” an’analari yo’nalishi rivojlantirilgan. Majmuaning asosiy qismi, muzeyda joylashgan rassomning asarlarining yorug’likga ta’sirini yo’qotish uchun yer ostida qurilgan. Binoning fasadi atrof muhit bilan organik birlashib ketgan. (3-rasm)



3-rasm. Berndagi Paulo Klee markazi. Shveytsariya

Kaliforniya ilmiy akademiyasining ilmiy muzeyi qisman yoki to’liq yerga ko’milgan inshootlardan hisoblanadi. Bu loyihada arxitektor Rentso Piano turli

ekologik va energotejamkorlik texnologiyalarni, majmuaning konstruktsiyalarida va ichki makonini shakllantirishda kutilmagan yechimlarni qo'llagan. Antiqa tom yopilmasi – bu yorug'lik berishga mo'ljallangan aylana fonarlar o'rnatilgan o'simliklar ekilgan " tirik yashil" tomdan iborat. (4-rasm)



4-rasm. Kaliforniya ilmiy akademiyasining ilmiy muzeyi

"Yashil arxitektura"- bu na faqat ta'ssurot qoldiruvchi shakllar, u balki zamonaviy talablarga javob beruvchi inshootlarni yaratuvchi progressiv texnologiyalardir; bu insonni ehtiyoji va yorqin tabiatni go'zalligini buzmasdan birlashtirishga imkoniyat berish inshootidir.Inson atrof muhitni ifloslanish muammolarini yechishi va "yashil arxitektura kelajakning kontseptsiyasi ekanligi hozirgi kunda hech shubha uyg'otmay qoldi.

Xulosa. Yashil binolar binoning butun hayoti davomida ekologik toza va resurslarni tejaydigan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Yashil binolar kontseptsiyasi salbiy ta'sirlarni har tomonlama minimallashtirish va binoning atrof-muhitga va odamlarga ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirishga qaratiladi.

3) "Vladimir Dal" 2002; Engels F. The position of the working class in England // Marx K., Engels F. Works. 2nd ed. T.2. M.: Politizdat, 1955; 4. Simmel G. The Metropolis and Mental Life // On individuality and social forms. The University of Chicago Press. Chicago. Lnd., 1971;

4) Park R.E., Burgess E.W. Introduction to the Science of Sociology. Chicago, 1921;

5) Park R. E. Human Communities. The City and Human Ecology. The Free Press, Glencoe, 1952; Park R.E., Burgess E.W., McKenzie. The City. Chicago, 1967;

TOG'LI HUDUDLARDAN MAQSADLI FOYDALANISHNING ARXITEKTURAVIY YONDASHUVI

Yusupova Aziza Ismailovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti PhD doktoranti

Annotatsiya: Tadqiqotda O'zbekistonning tog'li hududlaridan maqsadli foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tog'li hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslari, xususan, ekologik turizm, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni boshqarish imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda tog'li hududlardan samarali foydalanish orqali aholi farovonligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Statistik ma'lumotlar, dala kuzatuvlari va mahalliy aholining fikrlari asosida tog'li hududlarda infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish zarurligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari tog'li hududlardan maqsadli foydalanish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategiyalarning ishlab chiqilishiga zamin yaratadi va bu hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tog'li va tog' oldi hududlar, aholi turar joylari, infratuzilmalarni rivojlantirish, iqtisodiy resurslar va ekologik barqarorlik.

Kirish O'zbekistonning tog'li hududlardan maqsadli foydalanishning arxitekturaviy yondashuvi – ularning tabiiy resurslari va ijtimoiy imkoniyatlaridan barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan tarzda foydalanishdir. Bular tabiiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab masala. Bu maqsad tog'li hududlarning ekologik barqarorligini saqlash, aholi turmush sharoitlarini yaxshilash va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishni o'z ichiga oladi. Ushbu hududlar arxitektura va shaharsozlik nuqtai nazaridan alohida yondashuvni talab qiladi, chunki ularning tabiiy va iqlim sharoitlari, geologik tuzilmalari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Shuningdek, loyihalashda yondashuv tog'li va tog' oldi hududlarida arxitektura ob'yektlarini loyihalashda landshaft, iqlim va tabiiy resurslar hisobga olinadi. Bu hududlarda joylashuvning tabiiy go'zalligini saqlab qolish va uni atrof-muhit bilan uyg'unlashtirish muhimdir.

Tog'li hududlardan maqsadli foydalanishda ularning arxitekturasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holatda, tog'li hududlarda ko'pincha seysmik faol zonalar bo'lishi mumkinligi sababli, binolarning seysmik chidamliligi eng yuqori standartlarga javob berishi lozim bo'ladi. Hamda tog'li hududlarda o'ziga xos estitikasini saqlab qolish, tarixiy va madaniy merosni hurmat qilgan holda zamonaviy texnologiyalar va dizayn uslublarini integratsiya qilish orqali hamda mahalliy an'anaviy uslublar va dekorativ elementlar bilan ishlashga e'tibor qaratish kerakligi yoritib berilgan.

Arxitektorlar binolar va infrastrukturalarni joylashgan joyning topografiyasi, shamol yo'nalishlari va quyosh tushishi kabi bir qancha omillarni hisobga olgan holda loyihalashlari, tog'li hududlarda bir nechta yondashuvlar orqali ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi.

Metodologiya ushbu tadqiqotda O'zbekistonning tog'li hududlardan maqsadli foydalanishning

arxitekturaviy yondashuvi bo‘yicha metodologiyalar quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Barqarorlik va ekologik yondashuv bunda tog'li hududlarda barqarorlikka erishish uchun tabiiy resurslardan samarali foydalanish talab qilinadi. Bunda, quyosh energiyasidan, yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlaridan va tabiiy ventilyatsiya usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Materiallar tanlashda ham ekologik jihatdan xavfsiz, mahalliy va qayta tiklanadigan manbalar afzaldir[1].

-Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv tog‘li hududlarda arxitektura loyihalarini amalga oshirishda mahalliy aholi hayot darajasini oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shuningdek, infratuzilma va transport tizimlarini rivojlantirish orqali ushbu hududlarga yetib borishni yengillashtirish juda muhim masalalardan biridir.

- Tashqi va ichki makon yondashuv tog‘li hududlarda loyihalar tashqi va ichki makonlar o‘rtasidagi chegara xiralashgan holatda bo‘lishi mumkin, bu esa landshaftni tabiiy ravishda ichki makonning bir qismiga aylantirishni ta’minlaydi. Terasli arxitektura, katta derazalar va ochiq teraslar orqali tabiatni uy yoki bino ichiga olib kirish usullari keng qo‘llaniladi.

-Nazariy tahlillar tog’li hududlarning ekologik, iqlimiy va geologik xususiyatlarini tahlil qilish, arxitekturaviy yondashuvlar va tamoyillarni aniqlash. Hamda qulaylik, xavfsizlik va estetika talablariga mos keluvchi loyihalash me’yorlarini o’rganish kabi hududning tabiiy resurslari va ularning barqaror ishlatilishiga qaratilgan loyihalarni o'rganish. Landshaft arxitekturasi va shaharsozlikdagi zamonaviy texnologiyalarni qo’llash.

Bu maqolada tog’li hududlarda maqsadli foydalanish va arxitekturaviy loyihalash yondashuvlari bo'yicha chuqur va asosli tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari tog’li hududlardan maqsadli foydalanishning arxitekturaviy xususiyatlariga


- Tabiat va iqlim sharoitlari: Tog’li hududlarning iqlimi, ekotizimi va tabiiy resurslari, shuningdek, ularning arxitekturaviy yondashuvdagi ko’rinishlari
- Geografik joylashuv: Tog’li hududlarning iqtisodiy va madaniy jihatdan qanday ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ularni rivojlantirishdagi imkoniyatlar.
- Moslashuvchanlikva materiallar tanlovi: Tog’li hududlardagi arxitektura loyihalarining tabiiy sharoitlarga mos ravishda rejalashtirilishi va qurilishi materiallardan foydalanishning afzalliklari hamda to'g'ri material tanlashning ahamiyati.
- Energiya samaradorligi: Energiya tejash va barqaror arxitektura yechimlari (masalan, quyosh energiyasidan foydalanish).
- Turizmni rivojlantirish: Tog’li hududlarni turistik maqsadlarda foydalanish va buning arxitektura yondashuviga ta'siri.
- Landshaft dizayni: Landshaftni saqlab qolish va uning arxitekturaviy muhit bilan uyg’unligini ta'minlash kabi bir qancha natijalar orqali tog’li hududlarda joylashgan relefidan va imkoniyatlarini o’rganish orqali turar-joy va jamoat binolarini arxitekturaviy yechimlar orqli ko’rish mumkin. Bunda, terasli arxitekturaga ega, katta derazalar va ochiq teraslari orqali tabiat bilan uyg'unlashgan zamonaviy uylarning illyustratsiyasini ko’rishingiz mumkin. Bu turdagi arxitektura dizayni tabiatning uy ichiga kirishiga imkon beradi va yashash joylarini yorqin va ochiq qiladi. Geografik joylashuv, ekologik moslashuvchanlik va lanshaft dizaynini ham o’z ichiga olgan bu ko’rinishdagi uylarjuda chiroyli yechim hisoblanadi.



Tog'li hududlarda maqsadli foydalanish uchun ekologik va barqaror arxitekturani aks ettiruvchi bu rasmlar tabiat bilan uyg'unlashgan, teraslar, katta derazalar, yog'och va tabiiy tosh elementlari bo'lgan zamonaviy uylar ko'rsatilgan. Shu bilan birga, uydan ko'rinadigan yashil vodiylar, uzoqdagi tog' cho'qqilari va ochiq yashil maydonlari ham tasvirlangan. Bu dizayn tog'li hududlarda yashash sharoitini yaxshilash va tabiatdan oqilona foydalanish g'oyasini aks ettiradi. Hamda turizmni rivojlantirish, insonlarga qulay sharoit va ekologik toza muhitni yaratib beradi. Bunday go’zal manzaralar shaharning shovqinli hayotidan zerikkan insonlarni dam olishlari uchun imkon yaratib beradi. Tog'li hududlarning tabiiy go'zalligi turizm va dam olish maskanlari sifatida foydalanish imkonini beradi. Ekoturizm, sport turizmi, sog'lomlashtirish va madaniy turizm kabi yo'nalishlar mahalliy iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

- Qishloq xo'jaligi va chorvachilik: tog’li hududlarda asosan insonlarning mehnat faoliyatlari dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan bo’lib, ular tabiiy toza maxsulotlarni ishlab chiqaradi va sog’lom turmush tarziga ega bo’lgan tog’li xalq egalaridir.
- Tabiiy resurslarni qazib olish va o'rmon-tabiiy bog'larni muhofaza qilish: Ko'pgina tog'li hududlar foydali qazilmalar, metallar va boshqa tabiiy resurslarga boy. Bunday resurslardan maqsadli foydalanish iqtisodiy foyda keltirishi mumkin, ammo ekologik muammolarga olib kelmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan ishlash talab etiladi. Tog'li hududlar biologik xilma-xillik markazi hisoblanadi. Ular o'rmonlar, o'simliklar va hayvonot olamining boy zaxiralarini saqlaydi. Shuning uchun ushbu hududlarni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.
- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish: Tog'li

hududlarga yo'llar, ko'priklar va tunnellar kabi transport infratuzilmasini qurish, bu hududlarga kirish va mahalliy iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Tog'li hududlardagi aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi[2].



Muhokamalar natijasida tog‘li hududlardan maqsadli foydalanish orqali Tog‘li hududlardan maqsadli foydalanish masalasi bo‘yicha olimlar turli nuqtai nazarlar bildirgan. Asosan ekologiya, turizm, iqtisodiyot va madaniy merosni saqlash masalalariga alohida e’tibor beriladi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tog’li hududlardagi resurslarni samarli boshqarish hamda mahalliy va tabiiy zaxiralarni kelajak avlodlarga saqlab qolish zarur. Bir qancha manbalarda tadqiqot bo’yicha turli xil fikr va mulohazalarga duch kelib shulardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tog‘li hududlarni barqaror rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalarda turizm, qishloq xo‘jaligi, mahalliy aholi huquqlarini himoya qilish kabi yo‘nalishlarda nashr etilgan ilmiy manbalarda tavsiyalar berilgan[3].

Xalqaro qurilish kodeksining (IBC) 16-bobida tog’li hududlardagi binolar va inshootlarning turli xil ekologik yuklarga bardosh berishini ta'minlash uchun konstruktiv dizayn talablari keng yoritilgan. Ushbu bob, ayniqsa, ushbu mintaqalarning o'ziga xos muammolari tufayli tog'li hududlarda qurilish uchun juda muhim bo’lgan xususiyatlar keltirilgan: Ekologik yuk, qor yuki, shamol yuki va seysmik yuklarni o’z ichiga oladi. Tog’li hududlarda qor to’planishi, yuqori balandlikdagi kuchli shamollar bo’lishi va tog'li hududlar ko'pincha seysmik faol hududlarga to'g'ri kelishi hamda ularga bardosh beradigan tarzda inshootlarni xavfsiz va funksional bo’lib qolishini ta’minlaydi[4].

Xulosa. Umuman olganda, tog'li hududlardan maqsadli foydalanish arxitektura yondashuvida tabiat bilan muvozanatni topish va atrof-muhit bilan uyg‘unlashgan loyihalarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu nafaqat arxitektura sifati va estetikasi, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarni ham ta’minlaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va xalqaro tog‘ tashkiloti (Mountain Partnership) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda tog’li hududlar yer sharining taxminan 24 foizini tashkil qilishi haqidagi ma'lumotga asoslangan holatda, tog’li hududlardan maqsadli foydalanish, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda tog' hududlarini barqaror rivojlantirish va ularning resurslarini oqilona ishlatish tushuniladi. Bu hududlardan samarali foydalanish mahalliy aholi farovonligini oshirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1.Tursunov O., "Geografik hududlar va ularning rivojlanish xususiyatlari", Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

2. "O‘zbekiston geografiyasi", Toshkent: O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi, 2004.

3. "Sustainable Mountain Development" – Mountain Partnership (FAO, UNEP, UNESCO)

4. https://codes.iccsafe.org/content/IBC2021P1

O‘RTA OSIYO TURAR-JOY BINOLARI ARXITEKTURASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),dotsent
Abduraimova Zahro Erkin Qizi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Arxitektura tarixi va nazariyasi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada O’rta Osiyo me’morchiligi tarixi va nazariyasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga tarixiy turarjoylarni saqlash, qayta tiklash va ularni arxitekturasini urganishga qaratilgan. Shuningdek, turar-joylarning xududiy farqlanishi va ularning arxitekturaviy jihatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Turar joy, hovli, imoratlar, boy amaldorlari uylari, dolon, uy-joy, dahliz, ayvon, xonalar, darvoza, yo’lak, mehmonxona, boloxona, oshxona, dahliz.

Kirish: Turarjoy arxitekturasining keyingi taraqqiyoti O‘rta Osiyoda shahar qurilishining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘sha davr turarjoy binolari arxitekturasi umuman olganda, ko‘p xususiyatlari bilan to arablar istilosi (eramiening VII asri oxiri va VIII asr boshlari)gacha bo‘lgan uy-joylari arxitekturasi bilan ancha uyg‘unlashgan. Bu o‘xshashlik qurilish materiallarining umumiyligi, xona, dahliz va

yordamchi xonalarning shakl jihatidan bir xilligi, yopma va kirish yo‘llari echimlarining umumiyligidadir. Lekin tip jihatidan uylar takomillashgan, har biri o‘z davrining ijtimoiy ko‘rinishini, oila va shaxs mavqeini aks ettirgan.

Asosiy qism: Ma’lum bir davr mobaynida taraqqiyotda to‘xtagan uy-joy qurilishi san’ati ham XVI-XIX asrlarga kelib yana yuksaklikka ko‘tarildi. Bir necha yuz yillik madaniy taraqqiyot asosida mahalliy iqlim shart-sharoitlari va xalqning turmush tarzi hamda urf-odatlari hisobga olinib, O‘rta Osiyoning tog‘oldi hududlari, pasttekisliklardagi aholi punktlari shimoliy va janubiy hududlarni egallaganliklari ham bunda o‘z ifodasini topdi. Natijada hozir me’morchilik san’ati tarixi bilan shug‘ullanuvchilar orasida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva va Farg‘ona turarjoy tiplari farq qilinadi. Bundan tashqari tog‘oldi va dasht zonalari uylari tipi ham mavjud. Bularning har biri mahalliy xalq me’morchilik maktablari mahsuli bo‘lib, ayni vaqtda umumiy mushtarak bslgilarga ham ega.

Bu umumiylik shundan iboratki, ularning barchasida asosiy element hovli hisoblanadi. Hovlilar odatda dahlizlar vositasida bag‘langan xonalar hamda ayvon va shu singari yozgi yashash joylari, xo‘jalik hamda yordamchi xonalar bilan to‘rt tarafdan o‘rab olingan bo‘lgan.


Hovlilarni shakllantirish, unga nisbatan xonalar va yozgi inshoatlarni joylashtirish uslubi biz yuqorida aytib o‘tgan shahar va viloyatlarda o‘ziga xos hududiy ko‘rinishni keltirib chihargan.

Buxoro uylari odatda darvozadan ancha narida usti berk yo‘lak-dolondan boshlangan. Dolonning ahamiyati to‘g‘risida mashhur arman adibasi va shoirasi Marietta Shaginyanning juda ham ehtirosli so‘zlari bor. Shu fikrni to‘laroq keltirishni lozim topdik. Harorat qirq daraja issiq edi. Quyoshning tik tushayotgan nurlaridan go‘yo yonib borayotgan ko‘chadan uncha baland bo‘lmagan (qo‘l uzatsa tegadigan) yarim toq shaklidagi darvozadan ichkariga kirdim va meni birdaniga qorong‘ilik qamrab oldi. Yo‘lak boqqamas, hovligayam emas, balki tonnel bo‘ylab davom etardi. Va koshinkorlik qilingan bu tonnel to‘g‘ri ketmasdan, har o‘n-o‘n besh qadamda "tirsaksimon" burilishlar yasab borardi. Koshinlarning tuproqrangu moviyroq tusini, ozroqgina ichiga botib turgan tokchalar va undagi ko‘za ichidagi suvda halqib yurgan atirgul yaproqlarini ko‘z ilg‘ab olishdan oldin, men dimiqib ketgan, ko‘z ochishga qo‘ymaydigan jaziramadan rohatbaxsh, salqin shabada esayotgan tomonga borayotganimni sezdim. Shabada go‘yo yoningizda katta bir kapalak elpitib ketayotganday tuyulardi. Va siz ichkariga kirib borganingizda, bu shabada sizning marjon terlaringizni quritib, yuzingiz alangasini so‘ndirib sizga huzur baxsh etadi, endi yuragingiz bir maromda urib, ko‘zlaringiz orom olgan, teringiz yumshagan, sochingiz oralab salqinlik qalqib o‘tib va hatto go‘yoki kovushingizdagi chang yo‘l-yo‘lakay tushib qolganday tuyuladi, uchinchi burilishdan so‘ng sizning oldingizda uylarning ilohiyoti-hovli namoyon bo‘ladi.

Haqiqatan ham dolonning uy-joy qurilishi sohasidagi vazifasi muhim bo‘lgan. O‘z o‘rnida u yana vestibyul rolini ham bajargan. Bundan tashqari qo‘shimcha qurilish maydoni, yog‘in-sochindan boshpana bo‘lib ham xizmat qilgan (1-rasm)[1].



Разрез




Yertula rejasi **1-qavat rejasi** **2-qavat rejasi**

1-rasm. Buxorodagi Abdullobek uyi.

[1] V. L Voronina. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Moskva-1951. 20-bet

I-Berun: 1-ko'chaga chiqish joyi, 2-otxona, 3-ayvon, 4-yashash xonasi, 5-xujalik xonasi, 6-mehmonxona, 7-omborxona: II-Darun: 1-ayvon, 2-yozgi yashash xonasi(tobistoni), 3-sharq va g'arbdagi xonalar, 4-qishki yashash xonasi(tobistoni), 5-madon, 6-oshxona, 7-omborxona, 8-shaxnishin, 9-ayvonchi.


Xorazm uylarining me'moriy jihatdan eng yaxshi namunalari Xivada saqlanib qolgan. Bu uylardan aksariyatining hovlilari unchalik katta emas va bunga ehtiyoj ham bo'lmagan. Aksincha hovlining ko'p qismi ayvon va soyabonlar bilan bekitilib oftob tushishi kamaytirilgan. Xiva imoratsozligining eng ko'zga yaqqol tashlanuvchi yana bir xususiyati bu shimol tomonga qarata ikki xona balandligida qurilgan katta ("ulli" yoki "ters") ayvondir. Uning ichidan xonalarga kiriladi. Bundan tashqari xonalar hovliga ham qaratilgan bo'ladi. Ulli ayvondan tashqari yana o'ng va boshqa turli ayvonlar ham barpo etilgan. Yozgi xonalar yonida yoki qarshisiga pastak xonalar qurilib, ularning ustiga ayvon solingan. Ayvonlarning aksariyati bir ustunlik. Ustunlar ko'pchiligining tagkursisi marmardan ishlangan. Yog'och elementlar o'yma guldor, devorlari jimjimador qilib ishlangan. Qishki va yordamchi xonalar ustiga boloxona (tapptin) qurilgan. Bular odatda sinchlar bilan ishlangan (2-rasm).



2-rasm. Xivadagi katta ayvonli uy.

Xorazm qishloqlarida paxsa uylar ko'p tarqalgan. Ularning ayrimlari uch-to'rt oshyona (yarus)li qilib qurilgan.

Ulli ayvonlarning shimolga qaratib ikki qavat balandligida qurilishi Orol dengizi va sahro tomonidan esadigan kechki shabadani hovliga yo'naltirishini va salqin havodan foydalanishni ko'zda tutish natijasidir(3-rasm)[2].



3-rasm. Xivadagi Yoqubov uyi. XIX asr oxiri.


1-Kirish, 2-dahliz(dolon), 3-ters ayvon, 4-ulli ayvon, 5-saroy, 6-pesh uy, 7-yonbosh uy, 8-oshxona, 9-tegirmon.

O'rta Osiyo xalq turarjoylari arxitekturasida Samarqand va Toshkent uysozligi alohida o'rin tutadi. Bu ikki shahar me'morchiligidagi umumiylik shundan iboratki, turarjoy binolari ko'chalar arxitekturasining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Uylarning ko'pchiligi ikki qavatli qilib qurilgan. Ikkinchi qavatdagi boloxona birinchi qavat devoridan birmuncha oldinroqqa chiqarilib, uzun ayvoncha-galereya shaklida qurilgan. Bundan tashqari xonalarning joylashuvida ham umumiylik bor. Chunonchi, bularda yashash xonalariga kirish o'rtada joylashgan ayvon orqali bo'lgan.

Samarqand va Toshkentda dolonlar garchi Buxoro uy-joylarida bo'lgani singari ko'p bo'lmasada, ba'zi joylarida sharoit taqozosiga ko'ra bunyod etilgan. Ayrim hollarda dolon o'rniga usti yopiq yo'lak (Buxoroda "rahrav" deyiladi) qurilgan. Toshkentda madon o'rnida yordamchi xona-qaznoq (hujra ham deyiladi) qurilgan. Tashqari hovlilarda og'il va sayisxona (otxona) yonida hamda ichkari hovlida oshxona hamda hojatxona oldida bostirmalar qurilgan. Bu tip uylarning barchasi poygak (poygoh)dan boshlangan. Poygak bu avval aytib o'tganimizdek oyoq kiyimlarining echish joyi bo'lib xonalar hamda dahliz sahnidan bir muncha pastroq, chuqurroq qilib qurilgan va u erda qo'l yuviladigan maxsus joy-tashnan bo'lgan.

[2] V. L Voronina. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Moskva-1951. 20-bet

Ikkinchi qavatda baloxonalar va ayvonlar qurish odat bo‘lgan va u asosan er tanqisligidan hamda mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqqan. Chunki boloxonali uylarning birinchi qavati tomi oftob nuri ta’sirida qizimagani va hovlida kengroh soya turganligi tufayli yozda salqin bo‘lgan (4-rasm).




4-rasm. Samarqanddagi Qozi Abdurasul uyi.

A-Tashqari: 1-dorvozaxona, 2-mehmonxona, 3-saisxona, 4-dahliz, 5-boloxona, 6-omborxona, 7-quduq: B-Ichkari: 1-dahliz, 2-xona, 3-oshxona, 4-xo’jalik xonasi.

Samarqand xalq qurilish san’atida to hanuzgacha uzun hamda katta va keng ayvon qurish odati saqlanib kelmoqda. Ko‘pgina hollarda bu ayvonlar xonalardan ajratilgan holda hovuз labida yoki ancha balandlik tagsupa ustiga qurilgan. Ayvon erdan to 2 metr balandga qurilib, uning tagida omborxona va shunga o‘xshash qo‘shimcha xonalar barpo etilgan hollar ham uchraydi.

Toshkent turarjoy qurilishida ayvonlardan tashqari ravonlar ham keng qo‘llanilgan. Ravon bu hozirgi tushunchamizda vurandaga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Ya’ni boshqacha qilib aytganda old chambarak panjarali, oynavand tarzda ishlangan ayvonlar ravon deb ataladi. Ravon oynalari odatda har xil rangda bo‘ladi. Devorlari ganchkor, tokchaband va nahshin bezatiladi(5-rasm)[3].



5-rasm. Toshkentning Qorasaroy kuchasidagi uy.

A-uyga kirish va otxona; B-tashqari; 1-mehmonxona, 2-yashash xonasi; B-ichkari: 1,2,3,-yashash xonasi, 4-old ayvon, 5-oshxona, 6-xujalik xonasi.

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu an’analarning ichida bevosita iqlim sharoitiga moslashish va xalh urf-odatlarini hisobga olish tufayli yuzaga kelgan o‘nlab me’moriy qonuniyatlar yuzaga kelgan bo‘lib, ular asossiz unutilib yuborilayapti. Madaniy taraqqiyotning tobora yuksalishi natijasida xonadonlarga tancha (sandali) o‘rniga pechka, keyinroq esa suv isitgichlari, lampa o‘rniga elektr yoritgichlari, hovlilarga vodoprovod, kanalizatsiya, gaz va shu singarilar kirib kela boshladi. Natijada shu davrga qadar qurilgan xonalar va uylarni yashash sharoiti talabga javob bermay qoldi. Ammo qurilish ishlarini olib borishda, ayniqsa istiqomat binolarini barpo etishda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olish muhim ekanligini past talablari tahozo etadi. Hozirgi davrda O‘rta Osiyo sharoiti talab qiladigan vositalarning hisobga olinishi kerakligi isbotlangan zarurat bo‘lib qoldi. Yana shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, bir necha yuz yilliklar davomida takomillashib, o‘zining har tomonlama ustunligini ko‘rsatgan milliy qurilish uslubi-ya’ni uy-joy barpo etishda sinchli qurilish

[3] Воронина В.Л. Климат и жилище Средней Азии. /Архитектурное наследство, М., 1982

shakliga hozirgi kunda yana katta ahamiyat berilmoqda. Chunki bunday asosda qurilgan uylar o‘zining zilzila, toshqinlar va boshqa tabiat hodisalari ta’siriga evropacha uslubda qurilgan uy-joylarga nisbatan ancha bardoshli ekanligini hayot bir necha hollarda to‘liq isbot etdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, uy-joy qurilishida mahalliy shart-sharoitni va milliy an’analarni hisobga olish, to‘liq shakllangan hamda o‘zining afzallik xususiyatlarini isbotlagan qurilish usullaridan foydalanish doimo maqsadga muvofiqdir.

Xulosa: O‘rta Osiyo turar-joy binolari arxitekturasi ko‘p asrlik an’analarga tayangan holda o‘ziga xos rivojlangan bo‘lib, u zamonaviylik va qadimiylikni birlashtiradi. Ushbu me’moriy yondashuv, hududning iqlimiy sharoitlariga moslashgan holda, aholiga qulay yashash muhitini ta’minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy davrda ham bu me’morchilik merosi saqlanib qolmoqda va yangi innovatsion texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Shu sababli, O‘rta Osiyo arxitekturasi nafaqat tarixiy qiymatga, balki bugungi kunda ham katta amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov M.Q. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1995.
2. Воронина В.Л. Климат и жилище Средней Азии. /Архитектурное наследство, М., 1982. - №30.
3. Лавров В.А. Методика реконструкции городов. – М.:Стройиздать, 1976.
4. Zoxidov P.SH. Me’mor san’ati (O‘zbekiston arxitekturasi tarixidan lavhalar) - Toshkent: “Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1978.
5. Назилов Д.А. «Зодчество горных районов Средней Азии». Ташкент, 1999
6. Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. – Душанбе: Изд-во «Дониш», 1975.
7. V. L Voronina. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Moskva-1951. 20-bet

SHAHARSOZLIK VA LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA O’SIMLIKLARNING TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdusamatova Lola Xudoynazarovna
JizPI “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi assistenti:
Asadova Zebo Akmal qizi
JizPI talabasi

Annotatsiya. Landshaft arxitekturasi - bu ochiq maskanlar arxitekturasi hisoblanib, atrof muhitni o‘simliklar, suv havzalari, er relefi, tabiiy toshlar, me’moriy qurilmalar, tashqi obodonlashtirish elementlari yordamida muayyan maqsadlarga moslashtirish, badiiy landshaft shakllantirish va loyihalash san’ati demakdir. Ushbu maqolada ba'zi tadqiqotlarga asoslangan shahar landshaft dizaynining zamonaviy usullari haqida so'z boradi.

Kalit so’zlar: me’moriy-landshaft , relef, geoplastika, kompozitsiya, skver, vertikal bog'dorchilik.

Abstract. Landscape architecture is considered to be the architecture of open spaces and means the art of adapting the environment to specific purposes with the help of plants, water bodies, land relief, natural stones, architectural devices, external landscaping elements, forming and designing an artistic landscape. This article discusses modern methods of urban landscape design based on some research.

Keywords: architectural landscape, relief, geoplastics, composition, square, vertical gardening.

Kirish: Landshaft arxitekturasi me’moriy shaharsozlik faoliyatining alohida turi bo‘lib, o‘z ichiga me’moriy landshaft yaratish amaliyotining nazariy asoslarini ham qamrab oladi.

Hozirgi kunda insonlarning turmush-tarzi uchun imkon qadar shart-sharoitlarni yaratish asosiy masalalardan sanaladi. Jumladan, binolar hududining me’moriy-landshaft loyihalarini yaratish muhim masalalardandir. Hududlarda me’moriy-landshaftlarni shakllantirish orqali insonlarni tabiatga bo‘lgan munosabatlarini, uni sevishni, ardoqlashni hamda parvarishlashni o‘rgatadi. Aynan shunday farazlardan kelib chiqqan holda biz shahar obektlari muhitini me’moriy-landshaft echimlarini ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan o‘simliklar dunyosi, suv havzalari va relef geoplastikasi hamda ulardan tuziladigan yashil kompozitsiyalarni o‘rganish, ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish masalalariga keng to‘xtaldik.

Ilmiy uslub. Muammoning hozirgi holatini tahlil qilish, bu sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlar, vatanimiz va xorijiy tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish. Mavzuga doir maxsus adabiyotlar, davlatimiz qonun va Farmoyishlarini, me’yoriy-normativ adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirishdan iboratdir.

Ilmiy natija. Bugungi kunda landshaft arxitekturasining sifatiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, me’moriy-badiiy va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ekologiya, sanitariya-gigiena va estetik talablar. Ana shu talablar majmui shaharlar muhiti va ularning landshaft arxitekturasi echimlarining shakllanishidagi o‘ziga xos zamonaviy omillar sifatida ro‘yobga chiqmoqda.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari quyidagilardan iborat:

-binolarni shakllantirishga yondashuvni shahar muhitini tabiat qurshoviga integratsiyalash (yaxlit holga keltirish) nuqtai nazaridan o‘zgartirildi;

-landshaft arxitekturasining zamonaviy usullari va yashil kompozitsiyalar: soliterlar, guruhlar, qatorlar, massivlar, tik ko‘kalamzorlashtirish kompozitsiyalari, gulzorlar va maysazorlarni shakllantirish usullari va ularni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi;

Munozara: Shaharni bog‘lar va parklar, ko‘kalamzor ko‘chalar va hovlilarsiz tasavvur qilish qiyin. Yashil ekinlar, ochiq muhit nafaqat yashash joylaridagi mikroiqlimni yaxshilaydi, ular shahar atrof-muhitining zarur estetik elementlari bo‘lib ham xizmat qiladi. Tabiiy landshaft elementlari - shahar strukturalarning asosiy va ayni paytda muhim tarkibiy qismidir.

Shahar landshaft arxitekturasi tabiiy qismlariga quyidagilar kiradi: iqlim va mikroiqlim, tuproq, yer ya’ni joy relefi, yashil dunyo, suv dunyosi.

Turli xil o‘simliklarning tuproqqa bo‘lgan talabi bir xil emas. Bu belgisiga ko‘ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin:

- *tuproqqa talabchan:* eman, qayrag‘ochga o‘xshagan daraxt, zarang, archalar, shumtol, qandog‘och;
- *o‘rtacha talabchan:* oddiy archa, shumtol, yaproq bargli zarang, qrim qayrag‘ochi;
- *talabchan bo‘lmagan:* aylant, sariq akatsiya, osilgan qayin, grebenshik, tollar, lox, maklura, virjiniya qora archasi, oddiy qora archa, tog‘ qarag‘ayi, teraklarning ba’zi turlari (oq, qora), tut.

Kimyoviy xususiyatlariga ko‘ra tuproq — ishqorli, nordon va neytral holatlarga bo‘linadi, ularning bu holati tabiiy bo‘ladi yoxud o‘simliklarni sun’iy shakllantirish maqsadida kimyoviy o‘g‘itlar qo‘llanilishi yordamida yaratiladi. O‘simliklarning o‘sishiga yaroqli tabiiy tuproqlar shahar hududining yirik yashil maydonlarida, bog‘larda va o‘rmonsimon bog‘larda uchraydi. Skverlar, bog‘lar, xiyobonlar va yo‘lkalarni obodonlashtirish uchun ajratilgan maydonlar, odatda, tabiiy tuproqqa ega emaslar. Bu erda tuproqlarni o‘simliklarning biologik xususiyatlariga javob beradigan sharoitlarini yaratib berish kerak. Tabiiy tuproq maydonlarda ularning sifatini, bir qator agrotexnik marosimlar o‘tkazib, ahamiyatli darajada yaxshilash mumkin.

Binoning yopiq vertikal bog'dorchiligi uchun tayyor o'simlik modullaridan foydalanish o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni osonlashtiradi. Bu tavsiya etilgan avtomatik sug'orish tizimiga bog'liq. Ular juda ixcham, ularning chuqurligi 20 sm dan oshmaydi, shuning uchun ichki makonning foydali maydoni deyarli o'zgarishsiz qoladi. Plastmassadan vertikal bog'dorchilik uchun fitomodullarning modellarini taklif qiladi. Muhrlangan taglik devorda namlik yoki mog'or paydo bo'lishining oldini oladi. Dizayn qo'shimcha hidrofobik qatlamlarga muhtoj emas. Vertikal taglik gul ekish uchun hujayralar bilan jihozlangan va avtomatik tomchilatib sug'orish tizimi bilan jihozlangan. Vertikal bog'dorchilik uchun zavod modulining jihozlari vertikal suv ta'minoti uchun qurilma, uni to'plash uchun idish va namlik sensorini o'z ichiga oladi. Suv ta'minoti jadvali boshqaruv paneli yordamida o'rnatiladi. Ichki sensor namlik darajasiga javob beradi va agar kerak bo'lsa, avtomatik sug'orish tizimini ishga tushiradi, shuning uchun kvartiraning ichki qismi sog'lom va namlik bilan to'yingan o'simliklar bilan bezatilgan.

Vertikal bog'dorchilik uchun fitomodullar turli o'lchamlarga ega. Siz 30/30 sm ixcham dizayni bilan kichik o'lchamlarga o'zgartirishingiz mumkin, bitta devor kompozitsiyasi uchun 67/104 sm yoki 80/180 sm mahsulotlar mos keladi, bunday fitomodullarning qalinligi 15-17 sm orasida o'zgarib turadi.

Sirg'a yasash usullari. Binoning ichki qismini o'z qo'llaringiz bilan vertikal bog'dorchilik uchun dizayn bilan bezashingiz mumkin. Yagona qiyinchilik - avtomatik sug'orishning etishmasligi. Vertikal bog'dorchilik uchun bir nechta qiziqarli modellar mavjud. Eng oddiy usul quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- • Alyuminiy quvurlar yoki yog'och tikuvlardan yasalgan ikkita vertikal tayanch devordan 5 sm ga 50-70 sm masofada o'rnatiladi.
- • Tayanchlar orasidagi teng masofada poldan shiftgacha ko'ndalang panjaralar o'rnatiladi.
- • Tayyor tuzilishga konteynerlar joylashtiriladi va gullar ekiladi.

Zamonaviy texnika amaliyotida xar qanday relefni yarata olish imkoniyatini beradi. Bu esa landshaft arxitektoriga o‘ziga xos javobgarlikni yuklatadi va u yoki bu qarorni qabul qilish uning bilimi, didi va aniq ijodiy pozitsiyasiga bog‘liq. Kompozitsion savollar bu erda ekologiya, iqtisod, agrotexnika, bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jiddiy ilmiy analiz va eksperimental ishlarni olib borishni talab qiladi.

Relefga plastik ishlov berilishining barcha uslublarini shartli ravishda uch kategoriyaga ajratish mumkin:

- birinchisi - asliday qilib tiklamoq, tabiatda uchraydigan formalarga taqlid qilish;
- ikkinchisi — o‘zgacha geometrik, regulyar va abstrakt formalarni yaratish;
- uchinchidan — tabiiy landshaftga taqlid qilmaslik, balki obektni bajaradigan funksiyasidan qochirish, kompozitsion ifodalash imkoniyatlarini izlash.

Shahar landshaftining vizual-fazoviy uyg‘unligi. Muhit hosil qiluvchi omillar qatorida tashqi obodonlashtirish elementlari alohida o‘ringa ega. Ma’lumki, muhitning shakllanishi birinchi navbatda uni tashkil qiluvchi unsurlarning hajmiy va funksional ko‘lami qay tarzda echilishiga bog‘liqdir. Kishining barcha faoliyat turlari, jumladan sanoat ishlab chiqarish kompleksidagi funksiyalar ham ularni amalga oshirishdagi muayyan “texnologik” jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan.

Shahar kishisining serharakatligi, psixologik ta’sirlarning ortib borayotgani, butun badiiy-estetik izlanishlarda va san’at asarlari yaratishda bo‘lgani kabi shahar landshaft dizayni oldiga ham qator talablar qo‘yadi.

Birinchi talab shunda ediki, shahar dizayni mavjud inshootlar kompleksini, kishilarning ko‘zi tushadigan joylarni badiiy-estetik go‘zal, betakror va o‘ziga xos mohiyatli qilishi lozim. Qad ko‘tarayotgan inshootlar sonining oshishi bilan ularning tashqi ko‘rinishiga, badiiy-estetik jixatlariga talab ham ko‘paydi, ya’ni o‘tgan davrda an’anaga aylangan temir-beton inshootlarni qurishga badiiy-estetik ko‘rinish, bezash lozim bo‘ladi.

Ikkinchi talab serharakat shahar kishisining vaqtini tejash hamda unda ma’lum bir voqealar, hodisalar haqida ta’surot uyg‘otish, fikr shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Uchinchi talab shahar – inson konsepsiyasi yuzaga kelgani bilan bog‘liqdir. Shahar muhiti, undagi tarixiy-madaniy an’analar, turmush tarzi, arxitektura, ko‘chalar va istirohat maskanlari insonda ma’lum etnostereotiplarni shakllantiradi.

Xulosa.

1. Shaharni bog‘lar va parklar, ko‘kalamzor ko‘chalar va hovlilarsiz tasavvur qilish qiyin. Yashil ekinlar, ochiq muhit nafaqat yashash joylaridagi mikroiqlimni yaxshilaydi, ular shahar atrof-muhitining zarur estetik elementlari bo‘lib ham xizmat qiladi. Tabiiy landshaft elementlari - shahar strukturalarning asosiy va ayni paytda muhim tarkibiy qismidir.
2. Shahar landshaft arxitekturasi tabiiy qismlariga quyidagilar kiradi: yashil dunyo (daraxt va butalar, gullar, maysalar, toklar), suv dunyosi (hovuzlar, sharshara, buloqlar, ariqlar), er, ya’ni joy relefi (qir, adirlar, tekisliklar), iqlim va mikroiqlim, tuproq.
3. Shahar landshaft arxitekturasining vizual-fazoviy uyg‘unligini o‘rganishda tashqi obodonlashtirish elementlari alohida o‘ringa ega. Tashqi muhitni obodonlashtirish deganda biz odatda mo‘‘jaz ma’noda, ya’ni boshqa inshootlarga nisbatan hajman va funksiyaviy imkoniyatlari kichik bo‘lgan turli xil dekorativ va utilitar funksiyalarga mo‘ljallangan, hajmi jihatidan uncha katta bo‘lmagan kichik me’moriy ob’ektlarni tushunamiz. Bunday ob’ektlar qatoriga, odatda, tashqi muhitni obodonlashtirish elementlari va inshootlari, shuningdek dekorotiv inshootlar va shakllar ham kiradi. Ularga haykallar, dekorativ hovuzlar, devorlar, favvora va shalolalar, turli xil ko‘shk-kioskalar, pavilonlar, transport bekatlari, bog‘-park yoki muassasalar uchun darvozalar, to‘siqlar,bolalarning o‘yin maydonlari, savdo rastalari, do‘konlar, kichik ko‘rgazma zallar,muzqaymoq va sharbat qahvaxonalari, ovchilar uyi, dala shiyponlari kabi kichik me’moriy ob’ektlar misol bo‘da oladi.

Adabiyotlar:

1. Berdiev E.T., Xolmurotov M.Z., Maxmudova G.B.. Manzarali bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlashtirish. Toshkent, 2017.
2. Qalandarov M.M.. Ko‘kalamzorlashtirish ishlari. Toshkent, 2013.
3. Sьicheva A.V., Titova N.P. Landshaftnьiy dizayn. Minsk, 1984.
4. Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.J. Landshaft arxitekturasi va dizayni. Samarqand, 2003.
5. Raximov K.D., Uralov A.S. SHarq mamlakatlarining bog‘–park san’ati. Toshkent, 2012.
6. Nefyodov V.A. Gorodskoy landshaftnьiy dizayn. Sankt-Peterburg, 2012.
7. Uralov A.S., Jonuzoqov A.E., Balgaeva SH.A. O‘zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari (Samarqand viloyati misolida). Samarqand, 2015.
8. Dobronravova E.A.,Sulaymonova SH.M. Landshaft dizayni. 2-qism. Toshkent, 2012.
9. Raximov K.D. Bog‘–parklarni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari. Toshkent, 2016.
10. Hamidjanov M.H. va boshqalar. Landshaft arxitekturasi qurilmalari va dizayni. Samarqand, 2016.

FEATURES OF THE SAMARKAND FOLK DWELLING
(using the example of Abram Kalantarov's house)

Yuldasheva M.K.
Associate Professor of the Department of Architecture
SamSACU
Kamilova M.E.
Lecturer of the Department of "Preservation of cultural heritage"
Mariana Muhamed Osman
Professor of Urban Planning, Urban Policy and Management, Kulliyyah of Architecture and Enviromental Design. Kuala Lumpur, Malaysia

Abstract. The article examines the study of various aspects of traditional folk housing – one of the most interesting pages in the history of Samarkand architecture. Images of residential architecture of the XIX - XX centuries have come down to our days. Each house that has developed in a particular quarter (mahalla) of the city provides an example of peculiar approaches in the formation of functional planning solutions, decorative decoration of interiors and exteriors, landscaping of courtyard spaces of residential buildings.

Keywords: folk dwelling, courtyards, ganch carving, Samarkand house, ivan, mikhmankhona, bolokhona.

Introduction. The Uzbek folk dwelling, like a pearl shell, conceals the treasures of art inside the shell of deaf and featureless clay walls. Only sometimes an architectural touch — a shadow spot, a loggia, a lattice

opening — enlivens the stingy surface of the street facade. And inside the courtyard, the visitor is greeted, in contrast to the dust and heat of the street, by the cool shade of Ivan, the greenery of the vineyard, cleanliness and comfort, instead of monotonous walls — exquisite spatial combinations, fine finishing of the details of ayvan and the room.

On one of the picturesque streets of Samarkand, in an old mansion that once belonged to the rich merchant Abram Kalantarov, built at the beginning of the XX century by architect E.O. Nelle in the eclectic style, there is a regional museum of local lore. The museum building is considered an architectural monument and is protected by the state. All the halls of the museum are arranged in a row, forming an enfilade. Its main expositions are the history and nature of the Samarkand region. Moreover, the museum's collection of unique exhibits can compete with the funds of larger museums in Uzbekistan, despite its regional status.

The appearance of the dwelling is characterized by spatiality, picturesqueness, scale and that special intimacy that is generated by the loving and attentive arrangement of each corner and detail. Even the most modest dwellings followed architectural traditions and provide fertile material for study. All kinds of folk art are involved in decorating the home — ganch and wood carving, ceiling and wall painting; works of artistic craft contribute to the same purpose: coinage and engraving on copper — trays, jugs, etc., ceramics — watering dishes, wood carving — chests and caskets. All these utensils are placed in special niches. In addition, the walls are decorated with various types of embroidery [1].

The main part. The local tradition was interrupted by the desolation of the city in the XVIII century, and the past, after that, the population brought from different cities the techniques of planning the settlement, so the image of housing does not have integrity. Nevertheless, it is possible to give a fairly clear general description of its features. One or two rooms and a narrow anteroom (dahliz) were used in the architectural and planning structure of the Samarkand house. A single-column ayvan is most often adjacent to a building at an angle or to the end of the room. One or two of the walls of the rooms were made of a single-row frame; Thus, the number of wall niches is reduced compared to the Ferghana and Tashkent houses.[1]

Painting is very common and very colorful and interesting. The interiors of the building are always of great interest to visitors. Experienced craftsmen took part in its decoration — usto Kamol, usto Sadik, usto Hafiz and others. The construction of the mansion cost the owner of the house more than 130 thousand rubles in gold. Today, the mansion is rightfully considered an architectural monument of the early 20th century and is protected by the state. The bright and colorful mehmonkhona living room, like some other halls, has retained its original decoration. The cost of decorating the living room cost the owner of the mansion 16 thousand rubles in gold. [2].



Fig. 1. The Museum of Local Lore in the city of Samarkand

In the building, rooms and ayans with one or two columns alternate in a row. There are ayvans of Kashgarch with shutters and multi-column ayvans along the facade of the room, these are the techniques of the Ferghana type of residential building. The rooms are sometimes preceded by a narrow doorway, in large houses with perimeter buildings, winter and summer rooms of the appropriate orientation differ.




Fig.2. The room is richly decorated with ganch carvings

The walls of the double-row frame are equipped with niches with cells. Rooms in well-to-do houses are richly decorated with ganch carvings, ceilings have figured paintings, wall paintings have not been preserved and are found in small fragments, in niches, less often in the form of panels. [3]

The main element of the composition is a room with a single-column ayvan standing next to it. In a house between two rooms, ayvan is placed between them, in multi-room houses, the main group of rooms is built around the perimeter of the courtyard. The room opens directly onto the ayvan, adjacent to the wall, usually consisting of a single-row frame [4].



Fig.3. The entrance part of the Kalantarov house

The proportions of ayvans are traditionally ingrained — they are placed at the level with the roof of an apartment building or slightly higher, narrow along the facade and equipped with a single column, supports that meet closely with wall consoles, so sometimes all this is cut from a single bar. The wood carvings, gantry lattices, and details of the columns are of a peculiar nature. In the interior decoration, the bright colors of the interior of the niches and the coloring of the panels, in the rich painting of the ceiling, the love of polychromy and contrast is manifested. [5]



Fig.4. Two living rooms on the sides of the ayvan with shutters

It should be noted that Uzbek and Tajik traditions are intertwined especially closely, which is where many features of the local school come from.

The house was divided into two halves; the male – "tashkari" and the female – "ichkari". The richest ethnographic material is presented here: clothes, embroidery, household utensils. This is a fascinating story about traditional national culture, customs and rituals with the help of authentic objects of decorative and applied art. [6]

The exposition was made with the money of the american Joint, so everything is skillfully and well organized. In addition, the interiors of the Kalantarov House themselves are of particular interest: an explosive mixture of Art Nouveau and Central Asian architecture. During the years of Soviet power, everything was badly worn out, but even today you can imagine what a stunning luxury it used to be.



Fig. 5. An example of an Uzbek national dwelling

Conclusion. Research on the cities of Uzbekistan, their measurements in cities and villages, revealed techniques for organizing indoor spaces, shadows and the shadow effect of architectural and natural elements. It was important in architecture. To create comfort in residential areas, aivans were mainly used as a structural element, having a higher height in front of the summer room than the winter one (Samarkand, Khiva). In another case, as in the Bukhara house, for example, the ivan was adjacent to the summer residence room-the living room ("mehman-khona") at right angles, located on the opposite side from the winter room and was a three-dimensional element. As a rule, the winter room was oriented to the south, southeast, the living room-to the east, northeast, and ivan – to the north.

References

1. V.L.Voronina "Folk traditions of architecture of Uzbekistan". 1951 Moscow.

2. Altukhov A. On the question of Lenin's policy in the field of protection of monuments of art and antiquity. "Art", 1969, No. 5. pp.3-8.

3. Tolstov S.P. In the footsteps of the Ancient Khorezmian civilization. Moscow, 1949, pp.126-211.

4. Tolstov S.P. Ancient Khorezm. Moscow, Moscow State University, 1948, p.352.

5. Masson V.M. Central Asia and the Ancient East. Moscow, Nauka, 1964, p.467.

6. Pugachenkova G.A. Architecture of Central Asia of the XV century. Leading trends and features. Tashkent, Literature and Art, 1975, pp.41-44.

3. Ibragimov, N. (2024). FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 340-342.

4. Khasanovich, I. N. (2023). DEVELOPMENT OF SPA (SANUS PER AQUAM) ZONES IN WATER FACILITIES DEVELOPMENT OF SPA (HEALTH THROUGH WATER) ZONES IN WATER FACILITIES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 306-308.

УДК. 711.73:625.712.37

TRANSPORT OQIMINI BOSHQARISHDAGI MUOMMOLAR (Samarqand viloyati misolida)

Xudayberdiyev Ab`erqul
SamDaQU t.f.n, dotsent
Fayzullayev G`olib Zarifovich
SamDaQU tayanch doktarant

Annotatsiya Ushbu maqolada. Jahonda transport oqimini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada transport oqimlarini boshqarishga integral yondashish orqali, harakat jadalligi va transport oqimi xususiyatlariga muvofiq boshqarish usullari tahlil qilindi. Transport oqimini boshqarish tashkil etish tamoyillari ularni to‘g‘ri yo‘naltirishga va tezliklar bo‘yicha guruhlarga ajratishga, har bir yo‘l bo‘lagi uchun ratsional tezliklarni belgilashga, haydovchilarga vaqtida harakat yo‘nalishi va yo‘l sharoiti to‘g‘risida axborot berishga qaratilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb muammosi-transport oqimini boshqarish hisoblanadi. shu jumladan tirbandlik sabablari ko'rib chiqiladi. Ular O`zbekistonda va xorijda qo'llaniladigan usullar asosida ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Transport oqimi tirbandlik, o‘tkazuvchanlik qobiliyati, transport oqimining haddan tashqari to'yinganligi; harakat jadalligi, transport vositalarining kechikishi. intelektual transport tizimlari.

Abstract In this article. Proper organization and management of traffic flow is one of the urgent issues in the world. In this article, through an integrated approach to the management of traffic flows, control methods according to traffic speed and traffic flow characteristics were analyzed. The principles of organization of traffic management are to direct them correctly and to divide them into groups according to speeds, to set rational speeds for each road section, to inform drivers in time about the direction of movement and road conditions. aimed at providing information. Based on the above, the most urgent problem of ensuring road safety is traffic flow management. including the causes of traffic congestion. They give recommendations on their elimination based on the methods used in Uzbekistan and abroad.

Key words: Traffic flow congestion, capacity, traffic oversaturation; speed of traffic, delay of vehicles. intelligent transport systems.

Yurtimizda zamonaviy avtomobillar kirib kelayotgan va ishlab chiqarilayotgan bir davrda katta shaharlarimizda trasport oqimining ko`payishiga, bu esa yo’llarda tirbandliklarning ortishi asosiy muammo bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda aholining o'sishi, avtotransport vositalaridan foydalanish ko‘lamining jadal ortishiga sabab bo`lmoqda. Bu esa transport oqimining boshqarishda tirbandliklarni oshishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash” bo‘yicha vazifalar belgilangan[1].

Yo'l harakati tirbandligi butun dunyo shaharlarida keng tarqalgan muammo bo'lib, haydovchilarning hafsalasi pir bo'lib, uzoq vaqt kechikishlar, atrof-muhitga ifloslanishning ko'payishi va baxtsiz hodisalarga olib keladi. Shunday qilib, ko'plab shaharlar transport oqimini yaxshilash uchun transport nazorati dasturidan foydalanmoqda. Dasturda transport kameralari va sensorlaridan ma'lumotlarni to'playdi, keyinchalik ular real vaqt rejimida transport oqimini yaratish va tirbandlikni kamaytirish uchun tahlil qilinadi. Shaharlar, shuningdek, transport ma'lumotlarini yaxshiroq tushunish uchun video-tahlil dasturidan tobora ko'proq foydalanmoqda. Ushbu ma'lumotlar, shuningdek, yanada samarali va xavfsiz transport tizimini yaratish uchun xavfsizlikni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Endi keling, dunyo shaharlari bunga qanday munosabatda bo'lishini ko'rib chiqaylik[2].

Misol uchun Samarqand viloyatida aholi soni, transport vositalar soni va avtomobil yo`llarning umumiy uzunligi bilan taqqoslasak:

1. Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 4 208,5 ming kishini tashkil etadi[3]. Shundan
   - Shahar aholisi soni 1 542,9 ming kishini (36,7 %).
   - Qishloq aholisi soni 2 665,6 ming kishi (63,3 %)ni tashkil etdi.
2. Samarqand viloyatida avtotransport vositalar soni 417 165 ta tashkil etadi.
   - Shaharda avtotransport vositalar soni 154 351 ta (36,7 %).
   - Qishloqda avtotransport vositalar soni 262 813 (63,3 %)ni tashkil etdi.
Metodlar. Janubiy Turkmaniston - O’rta Osiyoning dastlabki me’morchilik qunoqlari paydo bo’lgan yerlardir. O’rta Osiyoda bronza davrining boshlanishi mil.avv. 4-3 mingyilliklarga to’g’ri kelib, bu davrda insonning ochiq qarorgohlari paydo bo’lgan. Sun’iy ravishda ariqlar qazila boshlangan. Dastlabki shaharlar to’g’risidagi ma’lumotlar zardushtiylik kitobi “Avesto” da mavjud. Unda “Var” to’g’risida so’z yuritiladi. Ibora so’g’d tilida “qo’rg’on” ma’nosini bildiradi. Shu davrlarda paydo bo’lgan “Dalvarzin”, “Varaxsha” kabi istehkomlar nomlariga ham o’tgan [4].

O‘zbekiston hududida, ko‘pgina daryo irmoqlari, soylar va buloqlar bo‘yida tosh asri bilan bog‘liq bo‘lgan qarorgohlar ochib o‘rganilgan. Bu yerdagi tabiiy iqlim sharoiti ham o‘troq, ham ko‘chmanchilik tarzida hayot kechirishga imkon bergan. Mana shu narsaning shaharsozlikda ham o‘z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Binobarin, O‘zbekiston hududida tadqiq etilgan qadimiy shaharsozlik namunalarini kompozitsion jihatdan quyidagi uch turga bo‘lish mumkin:

1. Atrofi usti berk yo‘lak bilan o‘ralgan, ichida aytarli muqarrar imorati bo‘lmagan, ilmiy davrada “vara” yoki “var” nomini olgan to‘rtburchak qal’a-shaharlar;
2. O‘rtasidan markaziy ko‘cha kesib o‘tgan, shahar to‘rida ma’muriy, savdo, jamoa binolari joylashgan, bir darvozali, to‘rtburchak shaklidagi dual shaharlar;
3. Ark, shahriston va raboddan tashkil topgan uch qismli shaharlar [3].

Muhokama va natijalar. O’zbekistonda shaharlarning shakllanishi va rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar, shaharlarning tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar Qarshi va Samarqand shahri misolida ko’rib o’tamiz.

Qarshi shahrining o‘zbek tarixida o‘ziga xos o‘rni bor. Birinchidan, Qarshi Movarounnahrdagi birinchi yirik turkiy tilli shahar. U payti Xorazmda (Urganch), Farg‘onada (Andijon), Shosh vohasida (Toshkent), Sirdaryo bo‘ylarida bir qancha yirik shaharlarda turkiy til hukmron edi, lekin Movarounnahrda bunday shahar yo‘q edi. Qarshining qurilishi bilan bu yerda turli-tuman aholi joylashdi, ammo turkiy shaharda hukmron tilga aylandi.



1-rasm. Qadimgi Qashqadaryo vohasi. Qadimgi Yerqo'rg'on shahri.

Qarshi vohasining qadimiy poytaxti - Yerqo'rg'on shahristoni hozirgi Qarshi shahri Shayxali mahallasidan 2 kilometr shimolda joylashgan tuproq qal'a bo'lgan. Yerqo'rg'on 50-60-yillarda dastavval S.Kabanov va M.Masson tomonidan o'rganilgan. XX asrning 70-80-yillarida esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining ekspeditsiyasi tomonidan bu yerda ilmiy arxeologik tadqiqotlar olib borilgan.

Yerqo'rg'on hududi turli hajmdagi tepaliklar bilan qoplangan bo'lib, ular sobiq shahar vayronalaridir. Eng yirik tepalik hukmdor saroyi ekani aniqlangan. Shuningdek, qazuv ishlari davomida shahar butxonasi, maqbara, zardushtiylik dahmasi, hunarmandlar mahallalari topilgan. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi (1-rasm) [4].

Miloddan avvalgi II asrning birinchi yarmida Yerqo'rg'ondan 15 kilometr janubda qal'a shaklidagi yangi shahar - Qal'ai Zahhoki Moron barpo etilgan. U yagona arxitektura inshooti sifatida qurilgan. Uning markazida tomonlari yuzga yuz metr bo'lgan, 15 metrgacha balandlikdagi ulkan minora joylashgan. Ushbu inshootni uch qator devor qurshab olgan. Qal'ai Zahhoki Moron va uning o'n metr qalinlikdagi devorlari Yerqo'rg'on kabi bir necha marotaba qayta qurilgan.

O'rta asrlarga kelib Qashqar vohasining yangi poytaxti Qashqadaryoning chap qirg'og'ida shakllangan. Bu shahar qoldiqlari hozirgi Qarshi shahridan 5 kilometr shimoli-g'arbda, Yerqo'rg'on qal'asidan 1,5 kilometr janubda joylashgan bo'lib, Shulluktepa shahristoni deb ataladi. Ilk o'rta asrlarda bu yerga qadimgi poytaxtdan zodagon va hunarmandlar - temirchilar, to'quvchi va quruvchilar ko'chib kelgan. VII-VIII asrlarda ularning ustaxonalari bosh qal'ani sharq va janubdan himoyalab, daryo qirg'og'igacha cho'zilgan va asta-sekin Qashqadaryoning chap qirg'og'idagi burilish joyini to'liq egallagan. Bu davrda qal'a devorlari jiddiy ravishda mudofaa ahamiyatini yo'qotadi va shaharning ichki tuzilishi o'zgaradi, saroy - hukmdor taxti va xazina, qamoqxona va harbiy garnizon joylashgan inshoot uning tarkibiy qismi bo'lib qolavergan.

Amir Temur va temuriylar davrida Qarshi Qashqadaryo vohasining yirik savdo va hunarmandlik markaziga aylanadi. Tarixchi Mahmud ibn Valining (XVII asr) ma'lumotlariga ko'ra, Binoiy Qarshidagi jome masjidi tashqarisida dafn etilgan. Keyinchalik uning qabri ustida maqbara qurilgan, lekin u hozirgi kungacha saqlanib qolmagan [4].




2-rasm. Qarshi shahri qadimiy ko'prigi

Qarshi XVI asr boshida istehkomlar bilan mustahkamlangan. XVII-XIX asrlarda Qarshi O'rda, Qo'rg'on, ichki shahar va shahar tashqarisidagi rabotlardan tashkil topgan edi. O'rda mahalliy hokim qarorgohi hisoblanib, to'rtburchak shaklidagi devor bilan o'ralgan hamda bitta Saqlov darvozasiga ega bo'lgan. Qarshi o'rdasi hajmi bo'yicha 2,5 gektar edi. N. Xanikovning ma'lumotlariga ko'ra, 1841 yilda shaharda uchta kontsentrik joylashgan himoya devori mavjud bo'lgan, tashqi tomondan esa uni rabotlar o'rab turgan[2].

XX asrning 70-yillari oxirida Qarshida qariyb 100 ming aholi yashagan. Shahar aholisi keyinchalik tez ko'paygan. Bu paytda shaxar ahli havo, temir yo'l, avtomobil transporti orqali O'zbekistonning markazi - Toshkent va boshqa shaharlar bilan bog'langan (2-rasm).

1987-1989 yillarda Qarshi shahri va tuman markazlarining yangi bosh rejalari ishlab chiqilgan. Unda turar joy binolari, sanoat korxonalari, ma'muriy binolar qurilishi bilan bir qatorda ijtimoiy infratizim inshootlarini bunyod etish, aholi uchun zarur qulayliklarni yaratish, kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bu bosh rejalarda zamonaviy talablarga javob beradigan yangicha konsepsiyada o'z aksini topgan.




3-rasm. Afrosiyob shahri

1987 yilda shaharga tutash 12 ta aholi punkti uning hududiga kiritildi. O'sha davrda shaharda jami 271 ming 694 kvadrat-metr uy-joy foydalanishga topshirildi. Shahardagi «Paxtazor» mikrorayoni qurib nihoyasiga yetkazildi. Qarshida yangi aholi punktlari -yettinchi va uchinchi mikrorayonlar paydo bo'ldi. Kamandi, Zog'za va Otchopar mahallalarida yangi xususiy uy-joylar qurila boshladi. Shaharda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy hajmi ilgari 10,13 kvadrat-metrni tashkil etgan bo'lsa, bu davrga kelib 12,7 kvadrat-metrga yetdi. Mustaqillik yillarida esa Qarshi shahri hududiy jihatdan ham o'sdi va kengaydi.

Samarqand shahri shaharsozligini ko'radigan bo'lsak, shahar asosan to'rt qismdan iborat bo'lib, bu qismlar qadimgi Afrosiyob, eski temuriylar davri shahri, rus davri yepropa qismi va yangi shahardir.

Afrosiyob hududi 219 ga yerni tashkil etib halqali mudofaa devoriga ega bo'lgan. Shahar ikki qismdan - ark va shaxristondan iborat bo'lgan. Uning ichki shahri maydoni 40 gektar bo'lgan. Tepalikning shimoli Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan "eski shahar" deb atalgan qismi Samarqandga qo'shilib ketgan [1]. Shaharni to'rt tomonda to'rtta darvozasi bo'lib, shimolda Buxoro, sharqda Xitoy, janubda Qarshi yoki Kesh va g'arbda Navbegar deb nomlangan [6], (3-rasm).

Samarqand shahrining X-XII asrlardagi tashqi shahristoni 450 gektar va uning raboti 540 gektar, rabot devorining uzunligi 84 km atrofida bo'lgan [2]. Samarqand IX-XII asrlarda 3 qismdan: ichki shahar-Madina-dohil, tashqi shahar-Madina-xorij va raboddan tashkil topgan. Shahar va uning ichki qismi 1220 yilda mug'ullar tomonidan shaharga keladigan suv to'g'oni buzilgan, shahar vayron etilgan, aholi shahri birun va rabodda yashagan, Amir Temur 1371-72 yillarda dastlab shahri birun hududiga mos tushadigan yerni qal'a sifatida tiklaydi, o'sha davrda to'rt darvozasi hamda chotsusi bo'lgan hamda shahar an'anaviy rub'a yoki qit'a shaklida tashkil etilgan.



4-rasm. Samarqand plani 15-asr(Hisor) Muallif: E.Masson

1370-yillarda Samarqand pastga, janubga ko'chdi. Samarqand qal'asi dastlab ark va markazdan ikkita katta ko'cha kesishgan shahristonli shahar ko'rinishida bo'lgan[6]. Buni hozirgi bizga yetib kelgan shahar strukturasidan ko'rish mumkin. Shahar qo'rg'on devor bilan o'ralgan. G'arb tarafida qal'a joylashgan bo'lib, u ham alohida devor bilan qurshalgan. Natijada g'arbda ikki qator devor hosil bo'lgan. 1380-yillarda Sohibqiron shaharning janubiy sharqidagi Ruhobod mavzesini, unga tutash shaharning harbiy gornizoni yerlarini shahar hududi tarkibiga kiritdi.

Shahar strukturasida ko'chalarning tizimi shaharning joylashuviga, past-balandliklariga, irrigatsiya va tarixiy sharoitga qarab shakllangan, shaharning tarxiy tizimi - o'rtada shaharning asosiy markazi bo'lgan bozor joylashgan [2]. Bosh, birinchi darajali ko'chalar markazdan radial yo'nalishda tarqalgan, shaharni oltita darvozasi bo'lgan va ma'lum bir davrlarda ularning nomlari o'zgartirilgan(4-rasm).

Temuriylar davrida Samarqandda o'nlab binolar, g'arbiy qismida esa 34 ga maydonni egallagan shahar qal'asi barpo etilgan. Uning ichida ikkita qasr - Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari, karvonsaroylar, hammomlar, shifoxonalar va boshqa madaniy – maishiy binolar qurilgan. Samarqand shahri yaqin atrofida Amir Temur va uning avlodlari o'ndan ortiq ko'rkam bog'lar barpo etgan va shaharda yashil belbog' hosil qilingan.


1758-59 yillarda Samarqandning hokimi etib tayinlangan Shoxmurod ibn Doniyol o'z qo'li bilan markazida 24 ta masjid joylashgan 24 ta mahalladan iborat shahar tarhini chizgan. Masjidlar va ular oldida hovuzlarni qurdirib imomlar tayinlagan. Shahar markazida savdo hozirgi Chorsu savdo gumbazini qurdiradi. Bundan tashqari So'zangaron darvozasi va shahar devorlarining buzilgan yerlarini tiklagan [6].



5-rasm. Toshkent ko'chasi (hozirgi I.Karimov) 19-asr

Chor Rossiyasi hukumati istilo etilgan shaharlarda yangi yevropacha shahar qurish rejalari va loyihalarini ishlab chiqgan. Samarqandda eng qulay shaharsozlik rejasi tarzida tarixiy shahardagi mavjud ark-qal'adan boshlab unga nisbatan radial –doira shaklida joylashadigan yangi shahar qurilishi amalga oshiriladi. O'qday to'g'ri radial va aylana ko'chalar qurilishi va ularni yevropacha ko'kalamzorlashtirish, ko'chalar chetiga soya beruvchi manzaraviy daraxtlar qatorlab ekilib, tratuarlar vujudga keladi. Samarqand shahri komendanti joylashgan ko'cha bo'ylab yevropacha uzun va keng xiyobon – bulvar loyihasi ishlanib amalga oshiriladi. Bu bulvar Samarqand shahrining yangi yevropacha qismini uning eski tarixiy qismidan ajratib turgan. Uning dastlabki maydoni 7 gektar, uzunligi 804 м., eni 133 м bo'lgan. Uzun va enli bulvar bo'ylab dastlab to'rtta yopiq xiyobon tashkil etilgan [1,2]. Keyinchalik Sobiq Sho'ro hukumati davrida bulvar eniga ancha qisqarib, chetki hiyobonlar o'rniga magistral ko'chalar o'rnatiladi. Natijada u torayib 2 hiyobonlik bulvarga, ya'ni hozirgi ko'rinishiga kelib qoladi.

Ruslar davrida tuzilgan Samarqandning birinchi bosh plani Turkiston general-gubernatori Kaufman tomonidan 1870 yilda tasdiqlangan edi. Uni o'sha paytlarda Zargaron ko'chasi va ruslar istehkomining atrofini tekislash bilan shug'ullangan polkovnik L.Serov tuzgan edi. 1872 yilda topograf I.G.Sexanovich shahar hududining toponusxasini tuzib, ko'chalarning joylashuv rejalarini ishlab chiqgan. 1875 yilning 1-yanvariga qadar kichik topograf, podporuchik I.K .Petrov tomonidan harbiy inshootlar tushirilgan Samarqand harbiy qo'rg'oni va yangi shaharning bosh plani tuzilib, taqdim etilgan. Mana shu loyihaga ko'ra harbiylar qal'asi 31,2 ga, yangi shahar esa 121 ga yerni egallagan. Ruslar o'zlari uchun qurgan yangi shahar shimol tomondan jarliklar bilan, janubdan esa Abramov bunyod etgan bulvar bilan chegaralangan edi (6-rasm).



6-rasm. Ruslar davridagi shahar strukturasi

Uning sharqida sobiq Amir Temur arki o'rnida, uning mudofaa devorlari ichida yangi harbiy qal'a shakllandi. Mana shu harbiy qal'adan - markazda Toshkent hozirgi Amir Temur nomli, uning shimolrog'ida Kattaqo'rg'on hozirgi Mirzo Ulug'bek nomli, janubrog'ida esa Urgut hozirgi O'zbekiston nomli uchta ko'cha boshlanib, janubiy g'arbga qarab yo'nalgan edi. Bu uch ko'chani ko'ndalang yo'nalishda to'rtta ko'cha kesib o'tgan. Ularning birinchisi Aleksandr nomli bo'lib, ruslar qabristoni hamda uning yaqinidagi cherkovga borib taqalgan. Ikkinchi va uchinchi ko'chalar Kaufman hamda Nikolay hozirgi Mustaqillik va Jomiy nomlari bilan atalib markaziy ko'cha hisoblangan. Ayniqsa, Kaufman ko'chasi markaziy hisoblanib istirohat bog'i, savdo inshootlari va jamoat binolarini shahar markazi bilan bog'lagan. Janubiy-g'arbda shaharni chegaralab turgan ko'cha general Chernyayev nomi bilan atalgan va u yerda ko'proq harbiy qo'mondonlar o'z bog'-hovlilarini qurishgan. Shu tufayli shaharning janubi-g'arbiy qismida 1883 yilda harbiy gospital va uning mutahassislari uchun turar-joylar qurilib, yangi shahar xududi 270,5 gektarga yetkaziladi [6].

Samarqand 1918 yildan boshlab Turkiston Sovet Avtonom respublikasi va 1924 yildan boshlab O'zbekiston sotsialistik Respublikasi tarkibiga kirdi. 1928 yildan 1930 yilgacha uning poytaxti bo'ldi. Mana shu davrdan boshlab maxalliy aholi yashab kelgan eski shahar va yevropaliklar yashab kelayotgan yangi shahardan qanday qilib yagona, organik aholi yashash punkti yoki yaxlit shaharga aylantirish muammosi shaharsozlar oldida ko'ndalang bo'lib turibdi.


Samarqand shahrining sovetlar davridagi birinchi bosh plani me'mor M.S.Bulatov tomonidan 1935 yilda ishlab chiqilgan. Uning asosini ko'p tarmoqli, ko'p markazli, qadimiy o'zakdan kengayib boradigan shahar kompozitsion g'oyasi tashkil etadi. Biroq unda eski shahar hududi ko'p markazli to'rtburchak transport yo'llari ichida chegaralanib qo'yilgan edi. Bu g'oya ehtimol o'sha davr shaharsozligi, ayniqsa, Moskva shahrining bosh planidagi transport halqalarining tuzishga taqliddan kelib chiqqan bo'lishi mumkin [6]. Samarqandning bu bosh plani ustida ish boshlanganda bu shahar respublika poytaxti edi. Loyihada mana shu

xususiyat mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Mavjud iqtisodiy yetishmovchilik uning to'liq amalga oshirilishiga yo'l qo'ymadi. Biroq uning asosida shaharning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi, bir necha ma'muriy, turar-joy, o'quv va sog'liqni saqlash muassasalari, sanoat korxonalari bunyod etildi. Loyihaning asosiy qismi esa qog'ozda qolib ketdi.



7-rasm. Samarqand shahar bosh rejasi. Arx. A.M.Aleksandrovich va B.M.Magdievlar

Ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqandga bir necha sanoat korxonalari ko'chirtirilib olib kelinishi shaharsozlik omili sifatida keltirib chiqaradigan shartlari, qurilishning industrial asosga ko'chirilishi kabi omillar yangi bosh plan tuzilishini talab etmoqda edi. 1968 yilda atxitektorlar T.N.Kalinovskaya va A.M.Aleksandrovichlar boshchiligidagi mualliflar guruhi yangi bosh plan loyihasini ishlab chiqishdi. Bu me'moroy loyiha o'sha vaqtlar sho'ro shaharsozligining asosini tashkil etib, zonalashtirishga tayangan edi. Bu usul 1903 yilda muhandis P.Garne tomonidan sanoat korxonalari va turar joy rayonlarini alohida hududlarda bir-biri bilan funksional bog'lashga asoslangan holda ishlab chiqilgan edi. Uning Angliyada uch bosqichli xizmat ko'rsatish inshootlari bilan loyihalanishi funksional shaharsozlikni me'morchilikning asosiy usuliga aylantirdi. Biroq bu usul ko'proq yangi shaharlarga to'g'ri keladi. Ushbu loyihada Kimyogarlar qo'rg'oni, Farxod va Shirin (Xishrav mavzei) nomli yo'ldosh shaharchalar yaratish g'oyasi ilgari surilgan edi.



8-rasm. Samarqand shahrining 2020-yilgacha bo'lgan bosh rejasi. Arx. V.Akopjanyan

Samarqandning keyingi taraqqiyoti 1981 yilda arxitektorlar A.M. Aleksandrovich va B.M.Magdievlar boshchiligida ishlab chiqilgan bosh plan loyihasi bilan belgilab qo'yilgan edi (7-rasm). Bu loyiha ham funksional shaharsozlik an'analariga asoslangan bo'lib, unda loyiha muddati shahar aholisining 750 mingga yetishi belgilab qo'yilgan edi. Loyihada yo'ldosh qo'rg'onlar qatorida Jomboy, Tayloq, Samarqand, Oqdaryo tumanlarining shaharga tutash hududlarini qo'shib berilishi ko'zda tutilgan edi. Ammo, ushbu tuman ma'murlari loyihadan xabardor bo'lgach berilajak yerlarni katta qismini aholiga turar-joy qilib tarqatib berishgan. Natijada shaharsozlikda katta muammolar kelib chiqdi, yo'llar, muhandislik kommunikatsiyalari, xizmat ko'rsatish shaxobchalarini qurishda rejalashtirilmagan ishlarni bajarish vazifasi yuzaga keldi. Natijada bu bosh reja loyihasi ham tasdiqlanmasdan va amalga oshirilmasdan qog'ozda qoldi[2].

Mana shunday bir qator hal qilinmagan muammolar istiqlol davri me'morchiligi zimmasiga to'g'ri keldi. Shunday qilib, XIX asr oxiridan to XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan shaharsozlik amaliyoti dunyoga mashhur bo'lgan Samarqandning o'rta asrlar me'morchiligiga, uning planirovkasiga, o'ziga xos ko'rinishiga katta putur yetkazdi. XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida eski shahar rivojlanishi chegaralanib qo'yilgan bo'lsa, sho'rolar davrida bu hududda bir qator badiiy jihatdan eski shahar muhitiga, eski shahar strukturasi va me'moriy yodgorliklar husniga putur yetkazildi.

2005 yilda Samarqand shahrining 2020 yilgacha bo'lgan davri bosh rejasi O'zbekiston Respublikasi hukumati farmoyishi bilan "Toshkentboshreja" instituti bosh me'mori V.Akopjanyan ishlab chiqqan. Mavjud muammoalarni hal etishda mualliflar shahar hududiy va miqdoriy o'sishini barqarorlashtirish zarurligida shahar tarixiy qismini shaharsozlik faoliyatining va tarh bo'yicha "oraliq" mintaqasining tarixiy negizini shakllantirishning alohida tartibga ega zonalari sifatida rejaviy ajratib ko'rsatishda deb biladilar (8-rasm).

Mazkur loyihada sho’rolar davridagi O’zbekiston shaharsozligiga xos bo’lgan zonalarga ajratib loyihalashdan voz kechildi. Loyihani ishlab chiqishda shahar turli qismlarini yagona butunlikka jamlovchi reja sinchiga katta e’tibor berildi. Transport aloqa sinchi markaziy zonadagi tarixiy jihatdan yuzaga kelgan radial-halqa tuzilmaning chekka zonadagi tangenssimon shohrohlar va to’g’riburchakli ko’chalar tarmoqlarining ochiq tizimi bilan birikib ketishi asosida tuzilgan. Shaharning tabiiy sinchi alohida ahamiyatga ega, u qulay qurilgan anhorlar va ariqlardan iborat bo’lib, ular butun shahar bo’ylab oralab oqib o’tadi, ko’chalar, hiyobonlar va bog’larni sug’orish bilan birga istirohat va muhitni himoya qilishni uzluksiz tizimini yuzaga keltirgan va shahar chekkasidagi manzarador majmualar bilan tutashib ketgan.

Shahar yashil halqa bilan qurshalgan bo’lib, uning atrofidagi mavjud bog’lardan foydalanilgan. Aholi yashaydigan joylarda kichik va o’rta tadbirkorlik inshootlari joylashtirilgan bo’lib, bu ularga qulaylik tug’diradi. Ammo ushbu bosh reja ham mavjud muammolar sababli amalga oshmadi.

“ToshkentboshplanLITI” davlat unitar korxonasi tomonidan 2017—2019-yillarda Samarqand shahrining 2040-yilgacha mo‘ljallangan bosh rejasini va markaziy qismini batafsil rejalashtirish loyihasi ishlab chiqildi. Dasturga ko‘ra, bosh reja va batafsil rejalashtirish loyihasi “ToshkentboshplanLITI” davlat unitar korxonasi hamda Xitoyning “China Construction Engineering Design Group Corp” Ltd kompaniyasining mutaxassislari hamkorligida ishlab chiqildi (9-rasm).

Ushbu bosh planda Samarqand aglomeratsiyasining qo‘shni aholi punktlari bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy rivojlanishi, sayyohlik ijtimoiy soha, muhandislik va transport infratuzilmasi, ekologik muhit, sanoat va boshqa omillar orqali erishish uchun mintaqaviy muvofiqlashtirish orqali shaharni jadal integrallashgan rivojlanishi ko‘zda tutilgan.

Bosh planda tarixiy hudud ichidagi va tashqarisidagi turli xil yo‘l harakati qoidalarini yaratish, tarixiy hududdagi transport tarmog‘iga bo‘lgan yuklanishni kamaytirish nazarda tutilgan. Yo‘llarning mikrosirkulyatsiyasini yaratish maqsadida mavjud bo‘lgan yo‘llarni qayta tiklash, jamoat transporti tizimini faol rivojlanishi, shuningdek, piyoda va velosipedlar uchun sharoitlar yaratish rejalashtirilgan. “Yangi tuman” va “Yangi shahar” tushunchalari turli balandlikdagi turar-joy maydonlarini qurish, yuqori sifatli yashash muhitlarini yaratishga qaratilgan. Avtotransportsiz ko‘chalar, shaxsiy hayotni jamoat hayotidan ajratish, piyoda va yashil hududlar, arxitekturaning xilma-xilligi, ijtimoiy infratuzilmalarning 15 daqiqalik masofada joylashishi ko‘zda tutilgan.

Loyihaga ko’ra Zarafshon daryosi va Darg‘om kanali o‘rtasida bionik tarzda rivojlanadigan ixcham va inklyuziv, iqlimga chidamli shahar shakllanadi. Shaharning mavjud rejaviy tuzilishi maksimal darajada saqlanib qolinmoqda. Tarixiy hudud esa rivojlanayotgan shaharning bir qismi sifatida me’morchilik zaxirasiga aylantirilgan. Ushbu loyiha hozirgi kunda muhokamada va tasdiqlanishi kutilmoqda.

Xulosa.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan moddiy va madaniy yodgorliklarni saqlash, rekonstruksiya qilish muammosi borasida katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda va amalga oshirilmoqda, ammo bugungi kunda mamlakatning barcha tarixiy shaharlarida tarixiy muhitni – "shahar matolarini" saqlash masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Bundan tashqari atrof-muhit, landshaft va sug'orish tizimini tarixiy muhit bilan chambarchas bog’liq holda saqlash kerak. Shahrisabz shahrining shaharsozlik me’yorlari va qoidalariga zid ravishda tarixiy qismida yangi qurilishlar olib borilishi oqibatida bugungi kunda YuNESKO ro’yxatidan chiqarilish arafasida turibdi, Samarqand shahrining tasdiqlangan yagona bosh plani yo’qligi eski shahar va uning bufer zonalarida qator kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Afsuski, biz tarixiy boyligimizni juda tez yo'qotib bormoqdamiz, sug'orish tarmog'i va tarixiy landshaftga tuzatib bo'lmaydigan zarbalar berilmoqda. Qashqadaryo va Samarqand shahri sharoitida shaharning qadimiy tarixiy Temuriylar va Yevropa qismlarini saqlash va reabilitatsiya qilishning samarali yo’llarini ishlab chiqish zarur. Imoratlar qurilishi ham tartibsiz ravishda amalga oshmoqda, ushbu qurilishlarni ham muhitga mos holda cheklash zarur.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov. M.Q. O’rta Osiyo me’morchiligi tarixi. Oliy o’quv yurtlari uchun qo’llanma. T;O’zbekiston,, 1995.1346.

2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.T.: “O’qituvchi”, 1994. 305-bet.

3. В.А.Нильсин. Архитектура Средней Азии (V-VIII вв.) Тошкент; Фан, 1966. с. 11

4. X.Po’latov. Shaharsozlik tarixi. O’quv qo’llanma, T., “Fan va texnologiya”, 2008. 296 bet.

4. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. - Moskva.:, “Nauka”, 1988.

5. B.A.Nilson. “У истоков современного градостроительства Узбекистана” T-1988 y.

6. Ahmedov. M.Q. Me’moriy meros. Monografiya. T; “Fan va texnologiya”, 2011.1346.

7. Fozilova, Z. Q. (2023). Irrigation System of Samarkand City. Journal of engineering, mechanics and modern architecture, 2(2), 64-68.

8. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejalari tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(1), 117-122.

9. Салохиддинова, Д. З., Каюмов, Х. И., & Фозилова, З. К. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЗАСТРОЙКИ ГОРОДА САМАРКАНДА И ЕЕ РЕШЕНИЯ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 300-305.

10. Салохиддинова, Д. З., & Каюмов, Х. И. (2012). Мавзолей Саманидов в загадках и легендах: инженерные приёмы шедевра архитектуры Узбекистана. In Материалы международной конференции “Современная архитектура и инновации.

11. Фозилова, З. Қ., & Каюмов, Х. И. (2023). САМАРКАНД-ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ

ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 249-253.

12. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejalari tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(1), 117-122.

13. Fozilova, Z. Q., & Xamroqulov, O. (2023). SHAHARSOZLIKDAGI MILLIY-TARIXIY AN'ANALAR. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 245-248.

14. Fozilova, Z. Q., Xamroqulov, O., & Yorqulov, F. I. (2023). O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM MARSHRUTLARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 258-262.

15. Salokhiddinova, D. Z., Kayumov, H. I., & Fozilova, Z. K. (2023). Problems of development of the city of Samarkand and its solutions. central asian journal of arts and design, 333-338.

16. Kayumov, H. I., & Fazilova, Z. K. (2023). Organization of traffic flow and optimization of underground-overground passages. the importance of studying optimization of the road transport network in the training of architects–urban planners. journal of engineering, mechanics and modern architecture, 477-482.

17. Fozilova, Z. Q., & Khayitboyev, N. K. (2024). THE ROLE OF "SMART CITIES" IN THE PROBLEMS OF URBAN ECOLOGY AND THEIR MODERN SOLUTIONS. International journal of advanced research in education, technology and management, 3(8), 95-103.

18. Каюмов, Х. И., & Фозилова, З. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕБРОСА ЧАСТИ ВОД СИБИРСКИХ РЕК В ОБРАЛО КАСПИЙСКУЮ ВОДНУЮ СИСТЕМУ. Interpretation and researches.

19. Dostonov, A. S., & Fozilova, Z. Q. (2024). O'ZBEKISTONDA AN'ANAVIY TURAR-JOY BINOLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 251-253.

SHAHAR KO'CHA-YO'L TARMOG'IDA HARAKAT JADALLIGINI OSHIB BORISHINI PROGNOZLASH

Ibragimova Sitora Ilxomjonovna
Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti, magistrant
Achildiyev Rasul Maxmadaliyevich
Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti, katta o'qituvchi

Annotasiya. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini prognozlash muhim va murakkab jarayon bo'lib, u shahar infratuzilmasini yaxshilash, xavfsizlikni oshirish va turg'unlikni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Harakat jadalligi va transport oqimi shahar hayotini samarali va qulay tarzda tashkil etish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini oshib borishini prognozlashning asosiy usullari, muammolari va yechimlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: harakat jadalligi, yo'lovchilar oqimi kartogrammasi, ishonchli ehtimollik funksiyasi, yillik o'sish koeffitsienti, chorrahalar, harakatlanish rejimlari.

Abstract. Traffic forecasting in the city's street network is an important and complex process that is carried out in order to improve the city's infrastructure, increase safety and reduce congestion. Traffic speed and traffic flow are very important for efficient and convenient organization of city life. In this article, the main methods, problems and solutions for forecasting the increase in the speed of traffic in the city's street-road network are considered.

Keywords: traffic speed, passenger flow cartogram, reliable probability function, annual growth rate, intersections, traffic modes.

BMT Taraqqiyot dasturi O'zbekistondagi ekspertlarining fikricha, bugungi kunda yuk va yo'lovchi tashishning asosiy qismi aynan avtomobil yo'llariga to'g'ri kelmoqda. Xususan, avtomobil yo'llari orqali yuklarning qariyb 85%, yo'lovchilarning 95%dan ortig'i tashilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, avtoyo'llar mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Shu bois O'zbekistonda iste'molchilarni ishonchli, qulay, xavfsiz va rentabelli transport aloqasi bilan ta'minlaydigan transport-kommunikatsiya tarmog'ini tashkil etish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon shahar infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu ko'cha-yo'l tarmog'i hisoblanadi. Shaharning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi ko'p jihatdan transport tizimining samaradorligiga bog'liq. Aholi sonining ortishi va avtomobil transporti hajmining ko'payishi shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, transport infratuzilmasiga bo'lgan talabni oshiradi va ko'cha-yo'l tarmog'ining samaradorligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qiladi.

Harakat jadalligini oldindan prognozlash transport tizimini samarali boshqarishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Harakat intensivligini to'g'ri prognozlash orqali transport oqimlarini optimallashtirish, tirbandliklarni kamaytirish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish va shahar ekologiyasini yaxshilash imkoniyatlari ortadi. Shuningdek, bu shahar rejalashtiruvchilari va transport mutaxassislariga infratuzilma rivojlanishi bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ma'lumotlar beradi.

Mazkur maqolada shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini prognozlash usullari va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Dastlab, harakat jadalligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi, so'ngra esa turli prognozlash metodlarining

afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilinadi. Shu asosda, harakat jadalligini samarali prognozlash uchun innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar taklif etiladi.

Harakat jadalligini prognozlash usullari.

1. Tarixiy ma'lumotlar tahlili: Tarixiy ma'lumotlar asosida harakat jadalligini tahlil qilish va prognozlash eng keng tarqalgan usullardan biridir. Bu usul orqali transport vositalarining o'tmishdagi harakat dinamikasi o'rganilib, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar oldindan aniqlanadi.

2. Matematik modellar: Matematik modellar yordamida transport tizimlarining kelajakdagi holati prognoz qilinadi. Bu usulda vaqt qatori tahlili, regressiya modellar va boshqa statistik usullardan foydalaniladi.

3. Simulyatsiya modellari: Transport tizimlarini simulyatsiya qilish orqali harakat jadalligini prognozlash usuli. Bu usulda transport tizimi kompyuter modellarida simulyatsiya qilinadi va turli xil ssenariylar o‘rganiladi.

4. Mashina o‘rganishi va Sun'iy intellekt: So‘nggi yillarda mashina o‘rganishi va sun'iy intellekt usullari transport tizimlarini prognozlashda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va aniq prognozlar berish imkoniyatini beradi.

Harakat jadalligini oshishining asosiy sabablari.

1. Aholi o‘sishi: Aholi sonining ortishi transport vositalari sonining ko‘payishiga va harakat jadalligini oshishiga olib keladi.

2. Iqtisodiy o‘sish: Shaharlarning iqtisodiy o‘sishi natijasida transport xizmatlariga talab oshadi va bu harakat jadalligiga ta'sir ko‘rsatadi.

3. Urbanizatsiya: Shaharlarning kengayishi va urbanizatsiya jarayoni ham transport vositalari sonining oshishiga sabab bo‘ladi.


Harakat jadalligi shahar ko‘cha va yo‘llarini loyihalashda muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Harakat jadalligini hisoblashda kelgusida tashish kutilayotgan yuklar va yo‘lovchilar miqdorlari asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Tashishlar miqdori shaharni rivojlantirish rejasi va shahar harakatini o‘zgarishi bilan aniqlanadi.

Shahar bosh rejasining transportga tegishli qismi odatda ikki guruh ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: birinchisi – asosiy transport yo‘nalishlardagi yuk va passajirlar tashish tirbandligini aniqlash, nazorat davridagi shahar ko‘cha va yo‘l tarmog‘ining holati; ikkinchisi – shahardagi ishlab chiqarish, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi va avtomobillar sonining oshishini inobatga olib kelajakda shahardagi harakatning va ko‘cha – yo‘l tarmog‘ining rivojlanishi.

O‘rganish – aniqlash materiallari tarkibiga shaharning asosiy mos keladigan joylari orasidagi yo‘lovchilar va yuk oqimlarining kartogrammalari kiritiladi.

Aholining harakatini o‘rganishda ishchi – xizmatchilarining ish joylari va o‘quvchilarning o‘quv maskanlari ularning yashash joylariga nisbatan qayerda joylashganligi hamda ularning bu maskanlar orasidagi harakati va shaharning boshqaruv va madaniy – maishiy ob’ektlariga tashrif buyurishining kundalik sikllari aniqlanadi. Bunday o‘rganish – aniqlash ishlari odatda aholini ro‘yxatga olish vaqtida amalga oshiriladi, ba’zi hududlarda esa, pochta orqali jo‘natiluvchi anketalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday so‘rovlar natijasida tegishli joylar orasida yillik tashish hajmlari ko‘rsatilgan kartogramma tuziladi (1-rasm).



1-rasm. Tumanlararo yo‘lovchilar oqimi odatiy kartogrammasi. Chiziqlardagi raqamlar — sutkadagi harakatlar (ko‘chishlar) (ming), aylanadagi raqamlar — rayon raqami va butun rayon uchun harakatlar (ko‘chishlar) soni (ming)

O‘rganish–aniqlash jarayonida shahar transportining to‘xtash joylaridagi yo‘lovchilar aylanishi miqdorlari va yo‘lovchi transportining asosiy marshrutlaridagi yo‘lovchilar oqimi miqdorlari aniqlanadi. Bunday kuzatuvlar yengil va yuk avtomobillarini ham qamrab oladi. Shaxsiy yengil avtomobillar uchun ularni turli mavsumlarda maqsadli ishlashi, yuk avtomobillari uchun esa asosiy manzillar bo‘yicha yuklarni tashish yo‘nalishlari, tashish masofalari va yuk miqdorlari aniqlanadi (2 – rasm).

Shahardagi harakatni o‘rganish mobaynida shahar ko‘cha–yo‘llari tarmog‘idagi harakat jadalligi, uning mavsumiy, hafta mobaynida va kun davomida o‘zgarishlari aniqlanadi. Shuningdek harakat tezliklari tavsiflari va piyodalar harakati jadalligi aniqlanadi. Magistral ko‘chalardagi chorrahalarda harakat oqimlari miqdorini yo‘nalishlari bo‘yicha aniqlanadi.

Shaharning kompleks transport tarmoqlarini, ayrim rayonlarning transport tarmoqlarini loyihalashda va harakatni tashkil qilishdagi muammolarni hal qilish uchun shahardagi harakatni muntazam kuzatib borish zarurati mavjud. Bunday kuzatuvlar ko‘p vaqt talab qiladi va ko‘plab kishilar qatnashuvi talab etiladi,

shuning uchun kuzatuv maqsadini inobatga olib (mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni to‘ldirish yoki ilgari mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni to‘plash) ular «tanlangan» yoki «to‘liq» bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Shahar ko‘chalari tarmog‘idagi yo‘lovchilar oqimi kartogrammasi. Chiziqlardagi raqamlar — yo‘lovchilar harakati jadalligi (sutkadagi ming yo‘lovchi)

Tanlangan kuzatuv uslubi ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika qonuniyatlariga asoslanadi. Masalan, avtomobillarning va piyodalarning bir soatlik harakat jadalliklari 3–5 va 10 minutlik kuzatuvlar yordamida hisoblab chiqarilishi mumkin. Bunday hisobdagi xatolik harakat oqimining vaqt mobaynida bir xilligidan kelib chiqib aniqlanadi.

Shahardagi harakatni o‘rganishdagi zarur bo‘lgan tanlangan kuzatuvlar miqdori (soni) quyidagicha aniqlanadi:

$$n = Et^2\sigma^2/(E\Delta^2\sigma^2) \qquad (1)$$

bu yerda; E - o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning umumiy soni;

t - ishonchli ehtimollik funksiyasi;

σ - dastlabki kuzatuvlar bilan aniqlanadigan kutilayotgan standart og‘ish;

Δ - o‘lchash aniqligi, ruxsat etilgan xatolikka tenglashtiriladi (miqdor birligida).

Ishonchli ehtimollik funksiyasi t kutilayotgan natijalarning ishonchlilik darajasiga ko‘ra belgilanadi

1-jadval

Ishonchlilik darajasi %	85	95	99	99.9
Funksiya, t	1.5	2.0	2.6	3.3

To‘liq kuzatuvlar juda ko‘p vaqt talab qilishi tufayli, ular yo‘lovchi transportining muayyan turlarida (masalan metropoliten yoki avtobuslarda) yoki aholini ro‘yxatga olish chog‘ida amalga oshiriladi.

Yaqin kelajakdagi (10 yilgacha) harakat jadalligini kuzatuv ma’lumotlariga asoslanib hisoblanadi, uzoqroq muddat uchun esa, yuklarni va yo‘lovchilarni shaharning ayrim hududlarida tashish istiqbollari, mavsumiy o‘zgarishlari, haftaning kuni va kun mobaynida harakat miqdori o‘zgarishlarini inobatga olib hisoblab chiqiladi.

Ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha tashishlar miqdori yaqin kelajak uchun ekstropolyatsiya metodi yordamida, o‘sish sur’ati o‘zgarmas holda hisoblanadi, uzoq muddat uchun esa analitik uslub yordamida hisoblanadi.

Analitik uslubda ma’lumotlar anketa – so‘rov yordamida to‘planadi. Bunday uslubda quyidagi ma’lumotlar to‘planadi: yuk jo‘natuvchilardan va yuk oluvchilardan istiqboldagi yuklar miqdori, yuklar miqdori o‘sishi ko‘rsatkichlari, yuk jo‘natiluvchi manzillar, yillik xom ashyolar sarfi, mahsulot ishlab chiqarish sur’atlari va korxonalarning kelajakdagi rivojlanishi istiqbollari. Bu to‘plangan ma’lumotlardan tashqari shaharsozlik Qo‘mitasi va shahar statistikasi boshqarmasidagi o‘rganilayotgan hududning rivojlanish istiqbollari va yuklarni tashish sur’atlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinadi.

Kelajakdagi sutkalik harakat jadalligi iqtisodiy qidiruvlar asosida aniqlanadi. Yuk va yo‘lovchi tashish borasidagi zaruriy ma’lumotlar bo‘lmagan hollarda kelajakdagi o‘rtacha yillik o‘rtacha sutkalik harakat jadalligi quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{kel} = N_{jor}(1 + K_\alpha)^t \qquad (2)$$

bu yerda; N_{jor}- joriy yildagi o‘rtacha sutkalik harakat jadalligi;

α - yillik o‘sish koeffitsienti;

t - yo‘ldan foydalanish yili jadalligi.

Yo‘l tarmog‘ida harakat jadalligining yillik o‘sish koeffitsienti α qiymati quyidagi 2- jadvaldan olinadi.

2-jadval

Yo‘l va ko‘chaning ma’muriy ahamiyati	**Tumanlar**		
	Boshlang‘ich yillarda	Kuchsiz rivojlangan	Yuqori rivojlangan
Tezkor	0.05-0.06	0.04-0.05	0.03-0.04
Magistral	0.06-0.07	0.05-0.06	0.04-0.05
Mahalliy	0.07-0.08	0.06-0.07	0.05-0.06

Harakat jadalligining kelajakda o‘sish koeffitsienti $(1+K\alpha)$ t qiymati quyidagi 3-jadvalda keltirilgan:

3-jadval

α – yillik o‘sish koeffitsienti	**Harakat jadalligining t yildan keyingi ko‘payishi**			
	5 yil	**10 yil**	**15 yil**	**20 yil**
0.01	1.05	1.10	1.16	1.22
0.02	1.10	1.22	1.35	1.49
0.03	1.16	1.34	1.56	1.80
0.04	1.22	1.48	1.80	2.19
0.05	1.28	1.63	2.08	2.65
0.06	1.34	1.79	2.40	3.21

0.07	1.40	1.97	2.76	3.87
0.08	1.47	2.16	3.17	4.66
0.09	1.53	2.37	3.64	5.60
0.10	1.61	2.59	3.18	6.73
0.11	1.69	2.84	3.79	8.06

Muammolar va ularning yechimlari.

1. Tirbandlik: Tirbandlik shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida eng katta muammolardan biridir. Ushbu muammoni hal qilish uchun:

– Transport tizimlarini optimallashtirish,

– Jamoat transportidan foydalanishni rag‘batlantirish,

– Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash kabi choralar ko‘rilishi lozim.

2. Atrof-Muhitga Ta'sir: Transport vositalarining ko‘payishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish va yashil yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

3. Xavfsizlik: Transport vositalari sonining ko‘payishi bilan yo‘l-transport hodisalari xavfi ham ortadi. Xavfsizlikni oshirish uchun yo‘l harakati qoidalarini kuchaytirish, zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish kerak.

Xulosa

Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini prognozlash kompleks jarayon bo'lib, u ko'plab ma'lumotlar va zamonaviy tahlil usullarini talab qiladi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish orqali shahar infratuzilmasi va transport tizimini yaxshilash, xavfsizlikni oshirish va tirbandlikni kamaytirish mumkin. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini oshib borishini prognozlash zamonaviy jamiyatning muhim ehtiyojlaridan biridir. Bu prognozlar shahar transport tizimlarini samarali boshqarish, shaharsozlik va infratuzilma rejalashtirish, hamda atrof-muhitni himoya qilish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu maqsadga erishish uchun yangi texnologiyalar va usullarni qo'llash zarur. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat jadalligini tahlil qilish va prognozlash uchun zamonaviy matematik modellardan foydalanish zarur. Bu kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan aniqlash va ularga o'z vaqtida yechim topishga yordam beradi.

Maqolada keltirilgan uslub va tavsiyalar shahar transport tizimini samarali boshqarish va harakat jadalligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqolada harakat jadalligini oshirish jarayonida aholi hayoti va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun kompleks yondashuvlar zarurligi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar

1. Achildiev, R. M., & Ibragimova, S. I. (2023). Basic methods for protecting the urban environment from traffic noise. *Problems of architecture and construction (scientific technical journal)*, *1*(2), 690-694.
2. Achildiyev, R. M., & Otabekova, D. (2022). Yirik shaharlarda transport muammolarini hal etishda xorijiy tajribalar. Academic research in educational sciences, 3(11), 496-502.
3. Ачилдиев, Р. М., Каримова, З. З., & Фозилова, Ш. Р. (2023). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПЛА-НИРОВОЧНОГО РЕШЕНИЯ" КРАТКОСРОЧНЫХ" АВ-ТОСТОЯНОК. PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL), 1(2), 700-703.
4. Eshatov, I. K., & Achildiyev, R. M. (2023). PLACEMENT OF COMMERCIAL AND DOMESTIC SERVICE COMPLEXES TAKING INTO ACCOUNT NATURAL AND CLIMATIC REGIONS IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 80-86.
5. Maxmadaliyevich, A. R., & Payzullayevna, S. N. (2023). Experimental Studies of Brick Masonry on Climatic Action Impacts. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(4), 69-73.

YASHIL ARXITEKTURA - TABIAT, ATROF-MUHIT VA ARXITEKTURANING UYG‘UNLASHUVI

Janizaqov Abduvahob Esirgapovich,
Jizzax politexnika instituti, dotsent v.b.,
Nurullayeva Marjona Zayniddin qizi, Tovosharov Ulug‘bek Vahobjon o‘g‘li,
Jizzax politexnika instituti, talaba

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy dunyoda "Yashil" arxitektura g‘oyasining dolzarbligini aks ettiradi, shuningdek, keyinchalik "Yashil" deb nomlanishi mumkin bo‘lgan binolarni loyihalash va qurishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: yashil arxitektura, energiya samaradorligi, energiya tejamkor, energiya resurslari, yashil qurilish, atrof-muhit, bino.

Kirish. Yer yuzida odamlar sonining ko‘payishi bilan inson faoliyatining atrof-muhitga halokatli ta'siri ham ortib bormoqda. Shu munosabat bilan energiyaning, issiqlikning, suv va havoni tozalashning muqobil manbalarini rivojlantirish orqali bizda mavjud bo‘lgan resurslarni asrab-avaylash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni qo‘llash zarurati paydo bo‘lmoqda. Shularni inobatga olib "Yashil" arxitektura g‘oyasi bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ekanligini idrok etamiz.

Yashil arxitektura - bu tabiatni, atrof-muhitni va arxitekturani uyg‘unlashtirishga qaratilgan zamonaviy loyihalash tendentsiyasidir. Yashil arxitektura “Barqaror arxitektura”ning insonlar va tabiat o‘rtasida

muvozanatni ta'minlash, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan kontseptsiyadir.

Yashil binolar atrof-muhitga minimal ta'sir ko‘rsatgan holda ularni iloji boricha hayotiy qilish uchun loyihalashtiriladi, quriladi va ta'mirlanadi. Asosiy e'tibor tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar va ifloslanishlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, tabiiy dunyoga ta'sir qilmasdan qurilish uchun zarur bo‘lgan barcha materiallar bilan ta'minlashga qaratilgan.

"Yashil" arxitekturaning rivojlanishining boshlanishi 70-80 yillar deb hisoblanadi. XX asrda yana bir energiya inqirozidan so‘ng, G‘arb dunyosi atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlash muammolari haqida jiddiy o‘ylay boshladi va "Yashil" qurilish g‘oyasi ustida faol ishlay boshladi.

Bir qarashda, "Yashil" arxitektura shunchaki integratsiyalashgan tabiiy komponentga ega arxitektura bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo agar biz ushbu kontseptsiyani chuqurroq ko‘rib chiqsak, ham muhandislik, ham arxitektura va landshaft echimlarining o‘zaro uyg‘unlashgan energiya tejamkor va ekologik arxitektura degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Asosiy qism. Binolarni yashil qilishning yuzlab usullari mavjud, ammo eng yaxshi yashil bino quyidagi omillarga javob berishi kerak:

To‘g‘ri joylashuv. Yashil bino suvli, botqoqli, yer osti suvlari yuzada bo‘lgan yoki eski o‘rmonlar kabi nozik joylarda qurilmasligi kerak. Hozirgi vaqtda tozalangan va qayta tiklangan oldin tashlandiq sanoat hududlarida yangi "Yashil" binolar ataylab qurilmoqda.

Energiya samaradorligi har qanday yashil binoning asosiy komponentidir. Bu omil atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan energiya resurslaridan foydalanishga qaratilgan. Isitish, sovitish va shamollatish odatda binoning eng katta energiya xarajatlari hisoblanadi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish ularni kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun, quyosh panellarini o‘rnatish orqali biz tabiiy quyosh energiyasidan foydalanishimiz mumkin. Sifatli, izolyatsiyalangan derazalardan foydalanish va ularni to‘g‘ri joylashtirish ham bir xil darajada muhimdir, chunki derazalar kunduzgi yorug‘likdan foydalanishni optimillashtirishga imkon beradi elektr yoritgichlar, shu bilan birga salqin havoda quyosh issiqligini oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, bu tamoyil quyosh energiyasi yorug‘lik va issiqlikning asosiy manbai bo‘lgan isitish va sovutish uchun minimal issiqlik iste'moli bilan loyihalash va qurilishga asoslangan.

Chiqindisiz dizayn. Ba'zi ekologik toza tuzilmalar yangi emas, balki eskirgan binolarni qayta foydalanishga moslashtirish, masalan, eski omborni uy-joyga aylantirish, to‘g‘ri rejalashtirish va loyihalash nafaqat qurilish chiqindilari miqdorini, balki binoning ishlash muddati davomida hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorini ham kamaytirishi mumkinligiga misoldir. Qurilishning yanada samarali texnologiyalari, masalan, binoni demontaj qilish, so‘ngra undan joyida yig‘ish, bu esa binolarni buzish, qurish yoki ta'mirlash vaqtida hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorini kamaytiradi.

Organik material. Har kuni yashil binolarni qurish uchun innovatsion materiallar joriy etilayotgandek tuyulishi mumkin. Lekin, aslida, ularning ba'zilari qayta ishlanadi, ba'zilari qo‘shimcha ishlovsiz va ba'zilari bevosita qayta foydalanish uchun foydalanishga topshiriladi. Qurilish maydonchasi yaqinida qazib olinadigan ohak, gil, tosh va shag‘al kabi mahalliy materiallar ham mavjud. Ularning ko‘pchiligida zaharli moddalarning tarkibi kam yoki umuman yo‘q.

"Oson nafas olish". Ichki havo tashqi havoga qaraganda 100 barobar ko‘proq ifloslanishi mumkin. Ko‘pchiligimiz bino ichida bo‘yoq hidini sezishimiz mumkin, ammo bu toksinga qo‘shimcha ravishda, binoda yashovchilarning sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan uchuvchan organik birikmalarni chiqaradigan boshqa materiallar ham mavjud. Bunga yo‘l qo‘ymaslik va bino ichidagi ekologik vaziyat sifatini oshirish uchun biz ichki havoning ifloslanishini oldini oladigan ekologik toza materiallarni tanlashingiz kerak. Shuningdek, binodagi ichki namlik, mog‘or va changning kontsentratsiyasini nazorat qilish kerak.

Yashil binoda suvdan oqilona foydalanish. Yashil binolarda suvdan foydalanish, jumladan oqava suvni qayta ishlatish, ulardan hojatxonalarni yuvish va ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarni sug‘orish uchun foydalanish shular jumlasidandir. Ba'zi yashil binolar hatto yomg‘ir suvini yig‘ib, binoning o‘zining ehtiyoji uchun foydalanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan shuningdek, atrof-muhit, ya’ni tabiiy landshaft tushunchasi ma’lum maydonning tabiiy saqlangan kompleksi bo‘lib, unda mazkur joy, uning relyefi, ob-havosi, tuproq tarkibi va sharoiti hamda biotsenoz omilini ifodalaydi. Bunda tabiiy lanshaftga muvofiqlashtirib yanada me’moriy go‘zallik baxshida etib, kishilarga bahra berish, qulay mikroiqlim yaratishda sun’iy favvoralarning ham ahamiyati beqiyos.

O‘rta Osiyoda favvoralar qurilishi XIV-XV-asrlarda keng rivojlangan. Amir Temur bog‘lariga ishlangan favvoralar haqida yozma ma’lumotlar saqlangan.

Ispaniya elchisi Klavixo 1404-yilning sentyabr-noyabr oylarida Amir Temurning Dilkusho bog‘ida bo‘lganida behad hayratga tushgan. Chunki bu yerda ustalik bilan qurilgan favvoralarni u hech qayerda uchratmagan edi. Keyinchalik u o‘z taassurotlarini quyidagicha bayon etgan: "Podshoh maxsus qurilgan baland o‘rindiqda o‘ltirar va uning oldida suvi tepaga otilib turgan favvora bo‘lib, unda qizil olmalar qalqib turardi…"[1].

XIV-XV asrlarda yurtimizda urf bo‘lgan favvoralar hali Yevropa xalqlari uchun notanish edi. Qadimiy favvoralarni Alisher Navoiy asarlari va "Boburnoma"ga ishlangan miniatyuralarda ham ko‘rish mumkin. O‘z davrida favvoralar yoysimon, to‘rtburchak shakllarda bo‘lib, anvoyi gullar ularga yanada ko‘rkamlik baxsh etgan. Maxsus tayyorlangan sopol quvurlar orqali kelib, otilib chiqqan suv hovuzchalarga tushib, yana yopiq ariqlar orqali chiqib ketgan. Murakkab muhandislik -

qurilish yechimi asosida bunyod etiladigan favvoralar ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati, me'morchilik san'ati naqadar yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi.

Xalqimiz doimo go‘zallikka intilib kelgan. So‘nggi yillarda yurtimizning deyarli barcha hududlarida bir-biridan mo‘jizakor favvoralar barpo etilmoqda. Poytaxtimizning yuragi hisoblangan Mustaqillik maydonida ana shunday ko‘kka o‘ynab otilayotgan suv oqimi kuy hamrohligida raqsga tushayotganining guvohi bo‘lamiz.

Arxitektura bionikasi zamonaviy inson ongiga mustahkam kirdi. Bu fan, uning vazifasi arxitektura va tabiatning organik birikmasidir. Tabiat me'morlarga chiziqlar uyg‘unligini va me'moriy elementlarning konstruktiv kombinatsiyasini taklif qiladi. Ushbu yo‘nalishda ko‘plab me'morlar ishlamoqda: Renzo Piano, Frank O. Gehri, Gottfrid Boem. Ular binolarning shaklini, barcha uchun qiziqarli bo‘lgan va tabiiy muhitga mos keladigan tuzilmalar tarkibiy qismlarining nisbatlarini dissonansga olib kelmasdan oqilona tanlaydilar.

Yashil arxitektura me'moriy bionikaning bir bo‘limi bo‘lib, u tabiiy ob'ektlar va inshootlarning kombinatsiyasiga katta e'tibor beradi.

Zamonaviy dunyoda odamlar qulay muhitda, tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga intiladi. Arxitektorlar yashil binolar majmualarini yaratishga intilishadi, ularning dizaynida yangi materiallar va yangi texnologiyalar qo‘llaniladi, murakkab geometrik shakllar bilan tuzilmalar yaratadi. Bunda ular ko‘pincha egri yuzasiga ega bo‘lgan plitalar va qobiqlardan foydalanadilar. Bunday qobiq va plitalar katta yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Mashhur me'mor Zaha Hadid ko‘pincha bunday me'moriy shakllardan foydalangan (1,2-rasm).





1-rasm. Савдо-кўнгилочар мажмуаси. Пекин 2012 йил. (arxitektor Zaha Hadid)



2-rasm. Ozarbayjon, Boku shahridagi Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazi (arxitektor Zaha Hadid)

Gottfrid Boem o‘z binolarini shahar va tabiiy muhitga qanday qilib organik tarzda moslashtirishni bilardi. Chiziqlar, ranglar uyg‘unligi, tabiat go‘zalligini o‘zida mujassam etgan holda atrof-muhitni, tarixiy binolarni hisobga olgan. Arxitektura bionikasiga misol sifatida Germaniyaning Postdam shahridagi Hans Otto teatri binosini keltirish mumkin.



3-rasm. Germaniyaning Postdam shahridagi Hans Otto teatri binosi(arxitektor Gottfrid Boem)

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib Yashil arxitekturaning asosiy tamoyillarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

1. Tabiat bilan uyg‘unlik. *Yashil arxitektura loyihalari tabiatni hurmat qiladi, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va tabiat elementlarini qo‘llaydi.*

2. Energiya samaradorligi. *Quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantiradi.*

3. Suv resurslaridan samarali foydalanish. *Yomg‘ir suvi to‘plash, suvni qayta ishlash va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.*

4. Chiqindilarni qayta ishlash. *Qayta ishlangan materiallarni va chiqindilarni kamaytirishni maqsad qiladi.*

Adabiyotlar

1.S. S. Ojegov, A. S. O‘rolov, K. J. Rahimov. Landshaft arxitekturasi va dizayni - Samarqand, 2003.

2. Ahmedov M. Q., Nazarova D. A., Xasanov A. O. O‘zbekiston arxitekturasi va shaharsozligining taraqqiyot yo‘llari. Monografiya. Toshkent 2016.

3. Римша А.Н. Градостроителство в условиях жаркого климата. Учебник для вузов. - Москва: Стройиздат, 1979.

4. Uralov.A.S. Гражданское зодчество средневековой Централъной Азии.–Т., 2021.

5. A.S.Uralov, Elina Mohd Husini. Harmonization, decoration of architectural forms and light. - Malaysia, 2021.

6. «Альтернативные природные источники энергии в строительном проектировании» Дэвис А. Шуберт Р.; Издание: Москва, Стройиздат, 1983.

7. «Энергоэффективные здания» Ю.А.Табунщиков, М.М.Бродач, Н.В.Шилкин; Издание: Москва, АВОК-ПРЕСС, 2003.

8. Жанизақов А., Кулдашев Э. БИОАРХИТЕКТУРА ВА БАРҚАРОР ШАҲАРСОЗЛИК //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 97-100.

9.Esirgapovich, D. A. "Actual Problems of Ensuring Sustainable Ecology in Urban Planning." Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 3.6 (2022): 65-72.

10.Esirgapovich, Janizaqov Abduvaxob. "BARQAROR SHAHARSOZLIK, BARQAROR ARXITEKTURA, BIOARXITEKTURA VA BIOIQLIMIY ARXITEKTURA." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 525-528.

11. https://minenergy.uz/uploads/8213.

KICHIK SHAHARLARDA JAMOAT MARKAZLARINI QAYTA QURISH VA FOYDALANISH TAMOYILLARI

Sultanov D.U., Raximov K.I.
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston shaharlaridagi Jamoat markazlarining ko'rsatgan xizmatlari, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy o'zgarishni ta'minlash kabi sohalarda fuqarolar uchun qanday foyda keltirishini haqida yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Regenerasiya, modellashtirish, kompozisiya, xajmiy, fazoviy, funksiyalari, konstruktiv, elementlari

Hozirgi zamon amaliyotida jamoat markazlarini shakllantirishni o’rganishda xar hil turdagi salbiy tendensiyalar va shaharsozlik arxitekturasi talablaridan chekinish motodologik qoidalarga rioya qilinmaslikdan dalolat beradi. Buning oldini olish maqsadida ham rekonstruksiya ishlarini, ham loyihalash jarayonini butunlay shakllantirish lozim. Vaziyatni tokomillashtirishning yangi takliflari esa jamoat markazlarining shaharsozlik arxitekturasida modellashtirish strukturasining yangi yo’llarini izlash bilan bog’liq. Buning ayni muddaosi esa zamonaviy informasion tizimlar va loyihalashning kompyuterlashgan metodlari va vositalaridan foydalanish deb hisoblaymiz.

Oldimizda o’tmish malakasi hamda regenerasiya yechimlari va shaharsozlik loyihalarini uzida mujassam etgan yagona umumlashgan nazariya modeli yaratish vazifasi turibdi. Ushbu vazifa yechimi ostida jamoat markazlari arxitekturaviy-rejaviy rivojlanish konsepsiyasi yotadi.

Bunda arxitekturaviy-rejaviy tizim va jamoat markazlari asosiy komponentlari aniqlanishi kerak. Ya’ni kompozisiya, xajmiy fazoviy o’lchamlar, funksional zonalashtirish kabilar kiradi.

Jamoat markazlarining zamonaviy rivojlanish amaliyoti ularning qurilishi va regenerasiyasi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi masalalar yechimini izlashda qo’l keladi:

- milliy an’analar va tashkil topgan landshaft tizimini inobatga olgan holda kompozisiyaning arxitekturaviy-rejaviy yechimi.
- an’anaviy xizmat ko’rsatish qulayliklarnidan foydalanib jamoat markazlarini joylashtirish.
- jamoat markazlaridan boshlang’ich funksiyalari va yangi madaniy, ma’rifiy, sog’lomlashtirish tadbirlarini o’tkazishda foydalanish.

Ushbu prinsiplarni tanlash shaharsozlik munosabatlarida murakkab tizim yaratishda aholiga qulayliklar yaratish, tejamkor foydalanish, jamoat markazi arxitekturaviy qiyofasini yaxshilash, atrofidagi muhit va madaniy-maishiy xizmat strukturasini shakllantirish hamda xududni obodonlashtrish tadbirlarini olib borish bilan belgilanadi.

Jamoat markazlarini oqilona tashkil etish usullarini topish uchun avvalambor ularning yuqotilgan kamchiliklarini tiklagan holda kelajak avlodga yetkazish kerak. Bularning barchasi ilmiy tadqiqot usullarida o'z aksini topadi.

Ammo, jamoat markazlarini yuqotilgan ahamiyatga moyilik jihatlarini tiklangan qismlarini qo'riqlash haqida gap ketganda regenerasiya qilishda yuqorida keltirilgan prinsiplar, o'zgartirishlar va qo'shimcha alohida izlanishlarsiz amalga oshmaydi.

Bizga ma'lumki, tarixiy obidalarni asrash, ayniqsa xayotiy jarayondagi ma'lum ajralmas qismlarini jamiyat strukturasidan chiqmagan holda, saqlanayotgan obyektni xayotiy tizimga bog'lash bilan amalga oshiriladi. Xar qanday insonni jamoaviy qadr-qimmatga ega bo'lgan madaniy obidalarning vayronaga aylanishi befarq qoldirmaydi. O'z qiymatini yuqotgan madaniy obyekt uchun vayronaga aylanish odatiy hol. Aksincha madaniy obyektning boshlang'ich funksiyalari va jamiyat ehtiyojlariga mos kelmaydigan holda nourin faol foydalanish bundan xam achinarli ahvoldir. Bundan quyidagi shartlar kelib chiqadi:

- zamonaviy talablar boshlang'ich kompozision-fazoviy, rejaviy, konstruktiv va arxitekturaviy badiy tuzilishiga ta'sir qilmasligi lozim.
- yangi funksional belgilar jamoat markazini zamonaviy muhitga qo'shilishiga, madaniy-estetik qimmatga mos kelishi kerak. U mahalliy aholi turmushi va madaniyati, hamda ijtimoiy hayot tizimi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ko'rinib turganidek, ushbu holatda madaniy obidalardan oqilona foydalanish muammosi birinchi urinda turadi. Faol ilmiy izlanish natijasida obyektning mohiyati keng ommaga namoyon bo'lishi kerak.

Ilmiy tadqiqot jarayonida shaharsozlik holati jamoat markazlarining jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda joylashishi o'rganiladi. Bunday turdagi talablar rekonstruksiya qilinayotgan obyektning shaharsozlikdagi o'rnini o'rganishda asos bulib xizmat qiladi.

Jamiyat ehtiyojlarini bilish, aholining rekonstruksiya tarkibiy qismlariga munosabatini aniqlash lozim. Izlanish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich ikki guruhdan tashkil topgan.

- ijtimoiy buyurtma asosida rekonstruksiya maqsadlarini aniqlash. Ya'ni, jamoat markazlari an'anaviy funksiyalarini tadbiq etish, ularning birlamchi madaniy-marifiy jihatlarini qayta tiklash. Ijtimoiy ehtiyoj birinchi bosqichda-jismoniy parametrlar (maydon, hajm, o'rinlar soni va maishiy xizmat); ikkinchi bosqichda-estetik xususiyatlar majmuasi (kompozisiya, butunlik, yahlitlik va h.z.) orqali aniqlanadi.
- jamoat markazlarining eng oqilona rejaviy tizimi vazifalarning ko'payishi, rejaviy o'lchamli, ta'sir doirasi, xizmat kursatayotgan jamoat markazlari soni, ularning aholi foydalanishi va h.z.larning rivojlanishi bilan aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich-galdagi vazifalardan kelib chiqqan holda eskiz va broshyuralar tayyorlash. Eskizlarda hosil bo'lgan muammolarni aks etishdan tashqari hom taklif chizmalar va fotosur'atlar tashkil topishi mumkin. Ushbu eskizlar orasidan tanlanganlari asosida tulasincha rekonstruksiya loyihasi ustida ishlash boshlanadi.

Bundan jamoat markazlari arxitekturasining qoniqarli funksional jihatlari aniqlandi. Bular: ma'muriy-boshqaruv, ma'daniy-ma'rifiy, savdo-sotiq va ho'jalik, sport va sog'lomlashtirish, dam olish va bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish. Natijalarini o'rganishda va ularni tizimlashtirilganda funksional vazifalarga qarab xonalarning tuzilishi belgilandi

Kichik shaharning qismida joylashgan jamoat markazlarida yashovchi aholining bo'sh vaqtlarini o'tkazish joylari ko'p emas-kinoteatr, kafe-restoranlar ularga yaqin joylashmagan. Bizning jamoat markazlarining markazi yechimida bo'sh vaqtni maroqli o'tkazishga butunlay boshqa turdagi fikr diniy ma'rifiy hayotga qaytishga, kent turdagi dam olishga, sport va badiiy tugaraklar, san'at va diniy ishlar bilan shug'ullanishga imkon yaratadi. Bunda aholining barcha qatlamlari, yosh-u qarilar ehtiyojlari inobatga olinadi [20]

Shubhasizki, jamoat markazining ko'p turdagi funksionalligi uning chegarasini asosiy funksiyalariga ajratgan holda zonalashtirishga to'g'ri keladi. Aholiga teng nisbatda xizmat ko'rsatish uchun ilmiy tadqikot natijalaridan aniqlangan funksiyalar: ma'daniy-ma'rifiy, diniy, ma'muriy-boshqaruv, savdo-sotiq va ho'jalik, ayniqsa aholi ko'p foydalanadigan bo'limlarga piyodalar yo'laklarini joylashtirishga asoslangan holda zonalashtirish kerak. An'anaviy o'zbek shahrining xajmiy-fazoviy strukturasi yechimini topish shahar xajmiy muhiti, jamoat markazi xajmiy muhiti, hovlili xajmiy muhit va obodonlashtirishning asosiy elementlari bilan yakunlanadi .

Jamoat markazini zonalarga ajratishda namayon bo'lgan funksional hududlarga ajratish muhim o'rin egallaydi. Bu borada avvalambor inshootning boshlang'ich funksional vazifalarini inobatga olish lozim, sababi, taklif qilinayotgan funksiyalarning inshootning umumiy "sig'imiga" mos kelishi va jamoat markazidagi boshqa elementlar bilan uyg'unlashuvini inobatga olish kerak.

Jamoat markazlarining qarovsiz qolishi ulardagi inshootlar holatining yomonlashishi va buzilishiga olib keldi. Bu esa nafaqat arxitekturaviy-badiy jihatlarning yuqolishiga, balki tashkil topgan majmua xajmiy-fazoviy muhitining qisqarishiga olib keldi. Shuning uchun, regenerasiya ishlarini yuqotilgan muhitni qayta tiklanishga qaratish kerak.

Bu holatda xar bir tashkilot muhiti sig'imi uning jismoniy parametrlariga bog'liq. Ular jamoat markazining xizmat kursatish doirasi, aholi soni va mahalliy demografik hususiyatlarga bog'liq holda tanlanadi.

Kichik shaharning tashkil topgan jamoat markazlari an'anaviy yashash muhitida qulay mikroiqlim yaratishning asosiy komponenti sifatida xizmat qiladi. Bu rol bir vaqtning o'zida jamoat markazlarini tashkil

qiluvchi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun jamoat markazlari regenerasiya jarayonida mikroiqlim yaratishning eski an'anaviy usullari qo'llaniladi. Zamonaviy jamoat markazlarining mikroiqlim ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori bo'lishiga qaramay, ularning ichida qizib ketishga qarshi usuldan foydalanilganda bundanda yaxshi natijalarga erishildi. Usulning mohiyati shundaki, qulay arxitekturaviy iqlimni yaratuvchi vositalarning ishlatilish samaradorligiga nisbatan jamoat markazlari muhiti o'lchamlarining tug'ri proporsional (kengayish yoki qisqarish) bog'liqligida.

Boshqacha aytganda, agar jamoat markazi hovlili muhitning ochiqliligi kengaysa, qulay muhitni yaratuvchi vositalarning samaradorligi oshadi. Bunga qo'yidagilar kiradi:

- sayalar hosil qilish-dollon va shiypon;
- ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish usullarin qo'llash: ariqlarda suv oqimini ta'minlash, gul va bo'talar ekish; hovuzlar va atrofida chuqur tomir yoyadigan daraxtlar (chinor, qayrag'och, tut) utqazish; suv purkagichli sug'orish gulxonalar va boshq.;
- tuproqning zahdagi qatlamidan foydalanib jamoat markazi binolari yoki hovlisini gruntning pastki qismida joylashtirish.

Kichik shaharning shakllangan jamoat markazlari regenerasiyasida arxitekturaviy-badiy va dekorativ qadr-qimmatlarning tiklanishiga katta ahamiyat beriladi. Ushbu holatda badiy bezaklarning konstruksiya bilan bog'liqligini izlanishdan sal yiroqlashib, boshqaruvchi bo'lakni jamoat markazini estetik markazi sifatida qarash kerak.

Shaharsozlik yechimida jamoat markazlarining tiklash va rekonstruksiya ishlari ularning funksional xizmat prinsiplarining rivojlanishini boshqarish bilan bog'liq. Shaharning tarixiy qismidagi rejaviy sxemada jamoat markazining bir maromda qadimdan joylashtirilishi bosqichma-bosqich iyerarxik tizimda maqsadli foydalangan holda jamoat markazining xizmat kursatish va shaharsozlikdagi rivojiga xizmat qiladi. Bunday struktura o'zida ikki hil jamoat markazini mujassam qilishi kerak: kichik jamoat markazi - "mikro", va kattasi "makro", unda tadqiqot natijalarida aniqlangan funksional vazifalardan kelib chiqib, u yoki bu turga bir maromda oqilona rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki nomenkulaturaviy elementlarni kundalik va davriy foydalanish uchun klassifikasiyalash maqsadga muvofiq: Ko'rinib turibdiki, kundalik xizmat kursatish elementlari mikro jamoat markazlarida, kundalik va davriy xizmat kursatish elemenlari makro jamoat markazlari o'zida mujassam qiladi [33].

Bu o'z o'rnida jamoat markazlari arxitekturasining ko'ptarmoqli rivojlangan tizimga, dam olish, xizmat kursatish, siyosiy jamiyat, madaniy hayot; ilmiy tadqiqot doirasining kengayishiga, joylashtirish prinsiplari takomillashishiga, xizmat doirasining yaqinlashuviga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, taklif qilinayotgan rekonstruksiya tizimi aholiga ko'p xizmat qilayotgan obyektlarni ularga yaqinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida tarixiy obidalarga yangi hayot bag'ishlaydi va ularni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Rivojlanishni yuksaltirishda qo'yidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Funksional-ya'ni, jamoat markaziga talablarning tanlash imkonini beruvchi va inshootlar kotegoriyasiga qarab xududni zonalashtirish;
2. Ijtimoiy-jamoat markaziga an'anaviy xizmat kursatish va madaniy-maishiy xizmat rivojiga imkon beruvchi;
3. Arxitekturaviy-shaharsozlik-jamoat markazlariga an'anaviy fozoviy-kompozision, xajmiy-rejaviy masalalarning atrofdagi shaharsozlik muhitiga yechimini topish imkoni. Bu talabning e'tiborli tarafi shundaki: shaharsozlikni tashkil etish va xizmat kursatishning rivojlangan metodlaridan foydalanish; jamoat markazining shaharning rejaviy qismida bosqichma-bosqich rivojlanishi; jamoat markazi tarkibidagi burtib turuvchi (dominant) elemintni kursatish, jamoat markazini esa shaharsozlik muhitida o'rnini ko'rsatish; hosil bulgan xajmiy-fazoviy karkas yaratish; an'anaviy usullardan foydalangan holda yaxlit arxitekturaviy-badiiy qiyofani yaratish-badiiy bezaklarning konstruksiya bilan uyg'unligini ta'minlash; tarixiy malakalarga asosan mahalla markazining ichki muhitida mikroklimat talablarini bajarish.
4. Iqtisodiy-jamoat markazining jipslashtirilishi va ko'paytirilishi, hosil bo'lgan landshaft yechimi variantlaridan foydalanish, markaz yechimi uchun mos hudud tanlash nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq yechim tanlash imkoni.

Har bir talabning mohiyatini anglab shuni aytish mumkinki, mahalla markazini tashkillashtirishning asosi birinchi navbatda uning shaharsozlik muhitidagi maxsuslashganligi bilan bog'liq. Natijada yuqori ijtimoiy faollik-markazlashgan darajadagi, yuqori ijtimoiy mavqyega ega bug'inlari hosil buladi. Bunday obyektlarni takomillashtirishda aholining ijtimoiy-siyosiy faoliyatining turli ko'rinishlari, ommaviy badiiy-san'at, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ko'ngilochar tadbirlarni ochib beruvchi elemtlarni singdirish bilan muvofaqqiyatli buladi. Aytilganlarni inobatga olgan holda ekspozisiyaga jamoat markazining funksional-rejaviy yechimi taqdim etiladi.

Jamoat markazining muhim funksiyalaridan uning muhitining jozibadorligi va ko'p jihatliligi, ham yakka, ham ommaviy tadbirlar uchun joy va sharoitlar yaratilishi hisoblanadi. Jamoat markazining tashkiliy va tarbiyaviy roli ham bundan mustasno emas. Shuning uchun o'zida ham ruhiy ozuqa, ham idial muhit jamlanmasi, ham badiy-estetik qimmatni mujassamlashtiradi. O'z navbatida, jamoat markazining arxitekturaviy qiyofasi o'zida estetik did va ehtiyoj, hamda zamonaviy shaharsozlik muhitining sifatlariga xizmat qilishi kerak. Bu obyektning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiradi .

Jamoat markazlarining funksional va strukturaviy takomillashuvining muammoli tarafi shaharsozlik yechimi bilan bog'liq.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni kursatadiki, zamonaviy jamoat markaziga qo'yiladigan talablarni to'la qondirilishi uning qurilishlarda boshlangan iyerarxik strukturasining bosqichma-bosqich rivojlanishida amalga oshadi. Bunday strukturaning tuzilishi shahar hududining jamoat -tumanga rejelashtirilishi bilan bog'liq.

Shaharsozlikda madaniy-ma'rifiy va savdo-maishiy xizmat sohalarini tashkillashtirish jamoat markazlari arxitekturasi xajmiy-fazoviy strukturasining takomillashuvini belgilab beradi. Bundan jamoat markazining katta-kichikligi va joylashuvi jamoat xizmat turlari, aholi ehtiyoji va shaharsozlik talablari qarab belgilanadi. Xar bir obyekt jamoat markazga intilishi fokusi hisoblanadi. Jamoat markaziniing xarakteri shaharning shaharsozlik tizimida va yangi dahalar hududida funksional foydalangan holda joylashtirilishi bilan belgilanadi.

Jamoat markazining funksionallashtirish shaklini tanlash, qo'yidagi vazifalardan kelib chiqadi: aholiga maksimal yaqinlashish; uning ijtimoiy ahamiyati o'sishiga intilish lozim. Bunga erishish uchun taklif qilinayotgan obyektlarni joylashtirishning iyerarxik strukturasidan foydalanib, aholining barcha madaniy-maishiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda xizmat kursatish xajmini oshirish kerak.

Zamonaviy ijtimoiy-maishiy xizmat talablari va tadqiqot olib borilgan shaharning shaharsozlik asoslari uning tarkibida qo'yidagi muassasalarning paydo bo'lishiga olib keladi:

- ma'muriy-boshqaruv, o'zida jamaot tashkilotlari mujassamlashtirgan;
- madaniy-ma'rifiy, o'zida diniy maktablar, yoshlar markazi, bu yerda ommabop va badiy marosimlar uchun muhit yaratiladi va tarbiyaviy ahamiyatga ega uncha katta bo'lmagan memorial xudud;
- savdo-sotiq va xo'jalik, o'zida savdo-sotiq xizmatlarining yangi turlaridan foydalanib, katta bo'lmagan savdo bloklari (minimarket);
- sport va sog'lomlashtirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi xar hil sport turlari bilan shug'ullanish uchun xona va maydonchalarni o'zida aks etish;
- dam olish vaqtlarni mazmunli o'tkazish, bunga asosan jamoat markazining yulaklari muhiti, qulay sharoit muhitida an'anaviy-mazmunli faol va sokin dam olishni tashkillashtirish.

Ko'rsatilgan xar bir muassasa uchun jamoat markazlari rekonstruksiyasi uchun taklif qilingan xizmat kursatish tarkiblari nomenklaturasini singdirish mumkin.

Zamonaviy jamoat markazining sanab o'tilgan muassasalari bu obyektlarning ko'p qirrali funksional tashkilotining yo'qotuvchisi -zamonaviy shahar qurilishlarining jamoat muhiti bug'ini hisoblanadi.

Zamonaviy bosqichda madaniyat va milliy qadriyatlar rivojlanishiga talablarning ortishi jamoat markazlarini arxitekturaviy xarakteri, arxitekturaviy shaharsozlikda sifatli maishiy hizmat masalasining yechimi bilan bog'liqligi, ularning an'anaviy turlari qidirishga yo'naltiradi. Bunga avvalambor: jamoat markazi mikroiqlim muxitini shakllantiruvchi prinsiplar; arxitekturaviy-kompozision muhit tashkillashtirishning usullari kiradi.

Shunday qilib, tadqiqot olib borilayotgan obyektlarning fazoviy-kompozision qiyofasi va mikroiqlim muhit yaratish miliiy-an'anaviy qadriyatlar va mos proporsiyalarni aniqlash bilan bog'lanadi.

Jamoat markazlarining arxitekturaviy-fazoviy kompozisiya va mikroiqlimni shakllantirishga qo'yiladigan asosiy talablar, jamoat markazlarining rekonstruksiyasi uchun taklif, quyosh nuridan saqlanishni tizimlashtirish usuli natijasi hisoblandi. Shuning uchun yopiq muhitdagi jamoat markazlarini shaharning quyosh nuri ko'p tushadigan qismida joylashtirish tavsiya qilinadi. Bunda jamoat markazlari ko'cha yoki maydondan mustaqil ravishda qo'shiladi; yarim yopiq muhitli jamoat markazlari zichlik va issiqlik darajasini inobatga olgan holda ko'chalarning kesishmasida joylashtiriladi; ochiq muhitli jamoat markazlari imoratlarning zich joylashgan hollarda qo'llaniladi. Bunday hollarda jamoat markazi ko'chaning kengayishida yoki boshlanishida joylashtiriladi [19].

Bunday nuqtai nazarda elementlardan samarali foydalanish va quyosh nuridan ximoyalanish jamoat markazlarining ochiq muhiti xajmiga to'g'ri proporsional bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, jamoat markazlarida ochiq muhitning kengayishi mikroiqlim tashkillashtirish vositalarining samaradorligini oshirsa, ochiq muhitni qisqartirish esa, aksincha bu vositalarning samaradorligini kamaytiradi.

Jamoat markazini strukturasini shakllantirishning navbatdagi talabi uning arxitekturaviy kompozisiyasini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu bevosita obyektning xajmiy-rejaviy muhitining shakllanishi bilan bog'liq.

Jamoat markazining xajmiy-rejaviy yechimi ilmiy tadqiqotda aniqlangan arxitekturaviy-rejaviy (yopiq, yarim ochiq va ochiq) turlarning fazoviy-kompozision sifatlarini "oddiy" va "murakkab" an'analarning davomi sifati fazoviy kompozisiya prinsiplaridan foydalanishni taqazo etadi. Buning xar biri u yoki bu turdagi jamoat markazlarining talablariga javob berishiga qarab foydalaniladi. "Oddiy" prinsip o'zida jamoat piyodalar yulaklarini aks ettiruvchi asosiy yagona rejaviy muhit atrofida inshootlarni guruhlashtarishni mujassamlashtiradi. Bunday prinsip asosida yopiq yoki yarimochiq jamoat markazlari tashkil qilinishi mumkin. "Murakkab" prinsip ochiq turdagi jamoat markazlari uchun ikki yoki undan ortiq muhitda inshootlarni guruhlashtiradi va xar biriga alohida jamoat piyodalar yulaklari tashkillashtiriladi. Bunday hollarda jamoat piyodalar yulaklarini ko'pincha ko'kalamzorlashtirish elementlari va suvli dekorotiv uskunalar bilan o'zaro bog'lanadi. Bunda arxitekturaviy-kompozision yechim

bu elementlarning kursatishga xizmat qilishi kerak. Turar-joy maskanlari muhitidan foydalanish prinsiplari ham arxitekturaviy kompozisiya masalalari yechimiga kiradi.

Jamoat markazi arxitekturaviy-kompozision yechimida jamoat piyodalar yulaklari maydonlariga mo'ljallangan obyektlarda dekorativ yopmalardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Bu ushbu muhitning inson ixtiyoriga topshirilganidan dalolat beradi. Piyodalar yulaklari turi-o'z o'rnida bir axborot. U kompozisiya fonida asosiy o'rin: ko'chaning kompozision o'qini yoki maydonning fokus nuqtasini belgilaydi. Uning yordamida biz jamoat markazida bosh inshootining alohida ahamiyatini, uning salobati yoki aksincha, ikkinchi darajaliligini aniqlash mumkin. Tajribalar shuni kursatdiki, yopmalar sifatida an'anaviy terish usullaridan foydalangan holda pishgan g'ishtdan foydalanish ekologik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoat markazi hovli muhitida mikroklimitini tashkillashtirish talablariga jovob beradigan bunday usullar, ular orasidagi choklarni saqlash, namlikning yaxshi filtrasiyasini va yerni yumshatishni ta'minlaydi.

Zamonaviy jamoat markazi arxitekturaviy-kompozision yechimi qayta yaratishning ikki yo'lida boradi: birinchidan, jamoat markazining hosil bo'dgan xajmiy-fazoviy karkaslari; ikkinchidan, an'anaviy arxitekturaviy-badiy tashkillashtirish.

Jamoat markazlari arxitekturasining hosil bo'lgan ko'plab arxitekturaviy elementlari shu qadar o'zlarining yorqin va xayotga zavq bag'ishlovchi jihatlarini namoyon etadiki, zamonaviy qurilish amaliyotida qayta ishlangan holda foydalanish muvofaqqiyat keltiradi. Qadimiy arxitekturaviy-obraz va konstruksiyalardan foydalanib, yopmalardan foydalanishda, gumbaz sifat, qatlamlar, berk devorlarning ketma-ketligida, yog'och materiallarning (ustun, eshik, ship) faol qo'llanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda konstruksiya va dekorlarning o'zaro bog'liqligini inobatga olish kerak:

a) dekorasiya va badiy uslublar yordamida konstruksiyani namoyon etish;

b) konstruktiv yechim yordamida dekorasiyani namoyon etish;

v) badiy-estetik rejada konstruksiya-dekor, dekor-konstruksiya o'zaro bir-birini to'ldirishi.

Kichik shaharlarda jamoat markazlari arxitekturasini loyihalash metodologiyasini takomillashtirishga yangicha yondoshish, obyektlarning iqtisodiy faktorlari yechimiga bog'liq bo'lgan muammolarning qanchalik to'g'ri aniqlanishi bilan bog'liq. Shu mazmunda aytib o'tish lozimki, qo'yidagilar shaharsozlik metadalogiyasini takomillashtirish vositasi bo'lishi kerak:

- jamoat markazi qurish uchun maydon tanlash;
- xududda tashkil topgan landshaftdan samarali foydalanish;
- jamoat markazlarini jipslashtirish va ko'paytirish nuqtai nazaridan ko'proq maqul yechimni tanlash.

Tanlangan maydon talab qilinayotgan mikroiqlim yaratishga imkon beruvchi, xududning yetarlicha aerasiyasi, inshootlarni quyosh nuridan saqlash qulayliklari bo'lgan xududda joylashishi kerak. Odatda jamoat markazlari uchun baland relyefli jolar tanlanadi. Agar bunday joylar bo'lmasa, ularni sun'iy yo'l bilan yaratish talab qilinadi. Bu bir yo'la jamoat markazini umumiy qurilishda dominantligini belgilaydi. Jamoat markazini ko'kalamzorlashgan va suv havzalari mavjud yerlarda joylashtirish nafaqat mikroiqlimni yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek kichik jamoat markazlari va butun shaharsozlik muhitida arxitekturaviy-fazoviy kompozisiyaning asosiy vositasi hisoblanadi [26].

Yuqorida keltirilgan markaz inshootlarini jipslashtirish va ko'paytirishga yangicha yondoshishlar qo'shimcha qayta loyihaviy izlanishlarsiz shaharsozlik masalalarinining yuqori darajadagi yechimiga olib keladi. Bu jamoat markazlari inshootlarni jipslashtirish bilan bevosita bog'liq funksional tashkillashtirishning eng maqbul shakllari, shaharsozlik yechimining an'anaviy uslublariga taqaladi.

Taklif qilinayotgan birinchi variant o'zgartirishlarsiz an'anaviy markazlarda qo'llanishi mumkin, boisi u markaz inshootlarining jipslashtirilishiga taqaladi. Bu yerda xar bir xizmat elementi o'zaro izolyasiyalashgan tashkilotlar toifasiga kura, alohida inshoot sifatida joylashtiriladi. Bunday holat jamoat markazini bosqichma-bosqich iyerarxik shakllantirishda obyektlarni mikroansabl toifasiga qo'shishi mumkin. U o'zida kundalik xizmat elementlarini mujassamlashtirishi mumkin.

Taklif qilinayotgan ikkinchi va uchinchi variantlar yordamida mahalla markazining funksional xajmi masalasini o'zaro o'zviy holda yechish mumkin. Bu yerda jamoat markazi yirikligi hisobiga xajmini kengaytirishning ulkan imkoniyatlari, ijtimoiy-jamoat va maishiy sohaning shakl va talablariga javob beradigan, hosil bo'lgan an'anaviy xizmat kursatish elementlaridan foydalanish yuzaga keladi. Taklif qilinayotgan variantda ba'zi idoralarning qo'shilish va aralashishi hisobiga jipslashtirish mumkin. Bunda, birinchi holatda inshootlar hosil bo'lgan bir jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi, ikkinchi holatda bir necha jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi nazarda tutiladi.

Taklif qilinayotgan chizmada mahalla markazi inshootlarining xam zaruriy, xam imkon qadar jipslashtirish prinsipi masalasi kurib chiqiladi. Bu chizma yuqorida keltirilgan barcha varianlar uchun yagona xarekterdagi inshootlarni belgilaydi. Taklif qilinayotgan prinsiplar shahar hududidan oqilona foydalanish, uning asosida tezkorlikni oshirish, eng muhimi jamoat markazi xizmat kursatish xajmini oshiriadi, bu o'z navbatida mahalla markazi ijtimoy-iqtisodiy samaradorligini oshiradi, demak, ilmiy izlanish maqsadining yechimini topadi.

Jamoat markazlari rekonstruksiyasi va yangi loyixalari uchun ilmiy tadqiqot natijasida taklif qilinayotgan prinsip va tavsiyalar chizma va jadvallar

kurinishidagi taklif va tavsiyalar yagona umumlashgan nazariy modelda jamlangan. Model zamonaviy jamoat markazini arxitekturaviy-rejaviy va funksional tashkillashtirish barcha turlarini chetlab o'tmaydi. Jamiyat rivojida ularni tashkillashtirishning yangi shakllari vujudga keladi. Ammo, barcha an'anaviy ijtimoiy, maishiy xizmat kursatish bilan bog'liq faktorlar hayot muhitining barcha o'zgarishlariga qaramasdan shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. Bularning barchasi ko'p asrlar davomida O'zbekiston zaminida jamlangan va jamoat markazlari arxitekturasini shakllantirishda asosiy arxitekturaviy-funksional milliy qadriyatlar hisoblangan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Raximov K.D. «Maxalinskiye ansambli» - Moskva.: «Sentr» 1996.
2. Raximov. K.D. «Kvartalnыye obщyestvennыye sentrы istoricheskix gorodov Uzbekistana». diss. - Moskva.: MArxI. 1989.
3. O'ralov A.S. «Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash» - Samarqand.: 2002.
4. Salimov A.M. "Soxraneniye i ispolzovaniye pamyatnikov arxitekturы Uzbekistana", Toshkent, 2009 yil.
5. O'ralov A. S. "Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash", Samarqand, 2003 yil.
6. Bulatov M.S. «Geometricheskaya garmonizasiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv.» - Moskva.: «Nauka». 1988.

GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA LANDSHAFT KARTALARINI YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Karabekov Ulug'bek Abdukarimovich
Jizzax politexnika instituti, assistent

Annotasiya: *Landshaft kartalarni yaratishda murakkab fazoviy ob'ektlar bilan ishlashni ham talab qiladi. Hozirda bunday ehtiyojlarni qondira oladigan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash texnologiyalari mavjud. Ma'lumot yig'ish usullari odatda geometrik ma'lumotlardan tashqari GISga qo'shimcha ma'lumot beradi. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida biz qo'shimcha funktsiyalarni olishimiz mumkin.*


Kalit so'zlar: Fotogrammetriya, masofadan zondlash, lidar, lazerli skanerlash,GAT, GPS, landshaft.

Abstract: Editing landscape maps also requires working with complex spatial objects. There are currently existing collection and processing technologies. Data collection methods provide additional information to GIS in addition to geometric data. We may receive additional support during data processing.

Keywords: Photogrammetry, remote sensing, lidar, laser scanning, GIS, GPS, landshaft.

Kirish. So'nggi bir necha o'n yilliklarda axborot tizimlari sohasidagi muhim o'zgarishlardan biri geografik axborot tizimlari (GIS) bo'ldi. Ular bizning hayotimizga ko'p jihatdan kirib boradi, biz buni sezmaymiz. Biz ulardan foydalanamiz va shunchaki nima deb nomlanganini bilmaymiz. Yandex xaritalari, GOOGLE MAPS va navigatsiya xaritalari bo'lgan boshqa dasturlar odatiy GIS hisoblanadi. Bular faqat eng "talab qilingan" ommaviy geografik axborot tizimlaridir. Ularning qo'llanilishi juda keng va ba'zi hollarda juda atipik. Yerdagi ob'ektlarni ularning joylashuvi bilan solishtirish qulay bo'lgan joyda ular GISdan foydalanishga harakat qilishadi.

Geografik axborot tizimi (GIS) fazoviy yoki geografik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va boshqarish uchun mo'ljallangan tizimdir. GIS usullari global, mintaqaviy va mahalliy rejalashtirishda keng qo'llaniladi. GIS uchun muhim masala - bu ma'lumotlar bazasi ilovasida ishlatiladigan ma'lumotlarning sifati va tahlil qilinishi. Bugungi kunda sifat tushunchasi nafaqat geometrik aniqlikni, balki ma'lumotlar bazasining keyingi tarkibining sifatini ham anglatadi. Aniqlikdan tashqari, geometrik o'lcham ham muhimdir. Bundan tashqari, masofaviy zondlash ma'lumotlari bo'lsa, spektral (kanal raqami) va radiometrik (BPC-bit/kanal) ruxsati muhim ahamiyatga ega. Arxitektura va qurilishning an'anaviy rejalashtirish usullari ko'p mehnat talab qiladigan va statik protseduralardir. Bugungi kunda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z-o'zidan yetkazib beradigan va birgalikda foydalanilganda axborot tarkibini ko'paytiradigan ko'plab taniqli ma'lumotlar yig'ish texnologiyalari mavjud. [1] Bu eng qadimgi ma'lumotlarni yig'ish tartibi. U bir nechta diskret nuqtalarning joylashishini aniqlamoqchi bo'lganimizda ishlatiladi, ya'ni maydon ta'rifi to'g'ri tanlangan diskret nuqtalarga abstraktlashtiriladi (1-rasm). Surveyerning vazifasi maydonning xarakterli nuqtalarini aniqlash va tanlash va ularni ro'yxatga olishdir. Bu ko'p mehnat talab qiladigan dala ishi va cheklangan miqdordagi asosiy nuqtalardan foydalanadi. Biz GPS-dan pastroq aniqlik uchun foydalanishimiz mumkin, lekin agar bizga yuqori aniqlik kerak bo'lsa, umumiy stansiyadan foydalanamiz. Ushbu qurilmalar muhandislik inshootlarini qurish va ularning harakatlarini kuzatish uchun ajralmas hisoblanadi.




2-rasm. Diskret nuqtalarni o'lchash.

Ko‘p vaqtni talab qiluvchi va unchalik samarali emas, lekin ma’lumotlarni to‘plashning eng aniq usullari. Odatda muhandislik vazifalari (muhandislik inshootlaridan tashqarida o‘rnatish, chegara maydonini o‘lchash, kommunal liniyalarni o‘lchash) va masofadan zondlash uchun kalibrlash va mos yozuvlar o‘lchov maydonlari uchun ishlatiladi.

So‘nggi yillarda fotogrammetriya juda rivojlangan. 21-asrning boshlarida. asrda raqamli fotogrametrik kameralar kino uskunalarini almashtirdi. Yuqori aniqlikdagi raqamli kameralar, ko‘p nurli tasvirlar va yuqori avtomatlashtirish potentsiali fotogrametrik texnologiyani butunlay inqilob qildi. [1]

An’anaviy aerofotosurat o‘lchagichlardan tashqari, fotogrammetriya uchun UUA (uchuvchisiz uchish apparati) platformasi zarurdir. UUA lardan foydalanish fotogrammetriyaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Parvoz balandligi pastligi tufayli sezilarli darajada yuqori aniqlik mavjud bo‘ldi (1-2 sm, 2-rasmga qarang). Havodan katta maydonlarni suratga olish an’anaviy samolyotga o‘rnatilgan kamera bilan amalga oshirilishi kerak. Qisqa masofali shahar GIS uchun fotogrammetriyadan ham samarali foydalanish mumkin. Metrik bo‘lmagan kameralar keng qo‘llaniladigan havaskor kameralar tomonidan olingan tasvirlarni qayta ishlay oladigan dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan. Qo‘llarning tasviriga asoslanib, siz binolar yoki boshqa ob’ektlarning 3 o‘lchovli modellarini yaratishingiz mumkin.



2-rasm. Yuqori aniqlikdagi UUA tasviri

Fotogrammetriyada ishlatiladigan datchiklar geometrik, spektral va radiometrik aniqlikda juda xilma-xildir. Ularning shahar o‘lchami muhitidagi eng katta afzalligi ularning geometrik o‘lchamlari (mm dan sm gacha) ko‘p sohalarda ishlatilishi mumkin. Kichkina saytni batafsil tekshirish, holatni kuzatish, ochiq xandaqlarni o‘rganish, arxeologik qazishmalarning tezkor hujjatlari, noqonuniy qurilish nazorati, atrof-muhitni muhofaza qilish muhandisligi, chiqindilarni boshqarish, aqlli transport va boshqa jihatlar tegishli misollar sifatida keltirilishi mumkin. Aerofotogrammetriyada suratga olish usuli keng tarqalgan: berilgan holatda klassik suratga olishdan tashqari (3-rasm) tasvirlar oldinga, orqaga va yon tomonga bo'lishi mumkin. Ushbu “qiyshiq” tasvirlar shaharlarning fazoviy modelini yaratishga imkon beradi. GIS yordamida biz shahardagi shaharsozlik holatini tezkor tahlil qilib, aholiga, jumladan, elektron shaklda, turli shaharsozlik hujjatlari ko‘rinishida xizmatlar ko‘rsatishimiz mumkin. Shaharsozlik hujjatlari loyihalari, masalan, yer uchastkalarining shaharsozlik rejalari, situatsion diagrammalar, aloqa yo‘nalishlarini tanlash sxemalari, shaharda manzillarni belgilash aktlari endi avtomatik tarzda tayyorlanadi. Sun‘iy yo‘ldosh masofadan zondlash shahar ma’lumotlar bazalarining imkoniyatlarini kengaytiradigan ko‘proq turdagi ma’lumotlarni ishlab chiqishi mumkin. So‘nggi yillarda sun'iy yo‘ldosh tasvirining geometrik, spektral va radiometrik o‘lchamlari sezilarli darajada yaxshilandi. Rasmiy ravishda, ular shaharlarda kamroq ilovalarga ega edi, yomon geometrik o‘lchamlari tufayli atrof-muhit hozirgacha o‘zgardi. Misol uchun, WorldView-2 - bu Yerni kuzatishning tijorat sun‘iy yo‘ldoshi. WorldView-2 savdoda mavjud bo‘lgan 0,46 m (18 dyuym) o‘lchamli panxromatik tasvirlarni, 1.84 m (72 dyuym) ruxsatli sakkiz diapazonli multispektral tasvirlarni taqdim etadi. [3]



3-rasm. DigitalGlobe’ning WorldView 3 sun’iy yo‘ldoshi tomonidan olingan San-Paulu, Braziliya.

Lidar texnologiyasi yuqori aniqlikdagi, yuqori zichlikdagi geometrik ma’lumotlarni to‘playdi, ammo tahlil qilish va semantik talqin qilish ma’lumotlarni qayta ishlashning amaliy usullarini talab qiladi. Tasvirlar yoki boshqa ma’lumotlar manbalari kabi yangi qo‘shimcha ma’lumotlarga keyingi ishlov berishda rangni LiDAR ma’lumotlariga qo‘shish mumkin. Lidar uskunasining o‘lchamlari kichrayib borar ekan, ular nafaqat samolyotlarga, balki UAVlarga ham o‘rnatiladi, bu ham aniqlik, ham aniqlikni oshiradi. [2]

Ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash usullari turli xil aniqlik va aniqlikni ko‘rsatadi. Shuni tushunish kerakki, barcha texnologiyalar o‘zlarining kuchli

tomonlariga ega, shuningdek, ular ishlab chiqilgan dastur tomonidan belgilanadigan cheklovlar. Ular odatda qo‘shimcha ravishda ishlatilishi mumkin, shuning uchun ko‘pincha bu usullarni birlashtirish tavsiya etiladi. Ushbu texnologiyalarning hech biri boshqasidan yaxshiroq emas va ularning hech biri barcha holatlar uchun optimal tarzda qo‘llanilmaydi. LIDAR ning geometrik o‘lchamlari sun’iy yo‘ldosh tasviriga qaraganda yaxshiroq, lekin LIDARning o‘zi sirtdan doimiy spektral ma’lumotga ega emas. Biz UAV texnologiyasidan foydalangan holda sanoat investitsiya xaritasini tayyorlashimiz mumkin, ammo strukturaga dala geodezik o‘lchovi tayinlanishi kerak. Texnologiya o'zgardi, lekin qoida saqlanib qolmoqda. Aniqlik talablari va samaradorlik talablari to‘g‘ri ma’lumotlarni to‘plash usuli bo‘yicha qaror qabul qilinishi kerak bo‘lgan asosiy omillardir va biz maqsadimizga eng mos keladigan texnikani tanlaymiz.

Masofadan zondalash materiallarini olishda Google Earth dasturi orqali landsat 8 kosmik kema ma’lumotlari hamda respublika aerogeodeziya tomonidan amalga oshirilgan parvoz, ya’ni uchuvchisiz uchush apparatlari UUA va dronlardan olingan materiallardan foylanildi. Kartalarni tuzish va yangilashda masofadan zondlash materiallari dastlabki manba hisoblanadi.

Dronlarda olingan fotosuratlardagi tasvirlarning shakllanishida atmosfera omilining ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi chunki, bulutli havoda ob’ektlarning soyasi bo‘lmaydi va ularni hajmli kuzatish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Kadastr raqamli kartalarini yaratishda ArsGIS dasturiga to‘plangan ma’lumotlar ketma ketlikda kiritiladi. ArsGIS dasturiga ma’lumotlar yordamida dastlab joyning kartografik asosi tayyorlanadi. Bunda har – bir geografik va kadastr ob’ektlari maxsus qatlamlarda ifodalanib boriladi. Kartografik asos tayyor bo‘lgan ma’lum vaqtda ular yangilanib turiladi.

Raqamli kartalarni yangilash jarayoni asosan masofadan zondlash materiallari negizida bajariladi. Masofadan olingan ma’lumotlarni qayta ishlab GAT dasturlariga yuklanadi hamda mavjud karta bilan ustma ust tushirilishi natijasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar yoqqol ko‘zga tashlanadi. Agarda kartada mavjud ob’ektlar suratda yo‘q bo‘lsa yoki uni aksi bo‘lsa, masofadan zandlash materiallariga moslanadi. Shu tariqa o‘zgarishlar darajasiga qarab kartalar yangilanib boriladi. [3]

Landshaft kartalarning miqdoriy modellarini yaratishda tuzilmalarni murakkab tizimlar sifatida, ular asosida sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalangan holda landshaft hududlarini geoaxborot xaritalash usullarini ishlab chiqish va landshaft GIS doirasida amaliy masalalarni yechish uchun landshaft xaritasini qo‘llash.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

1) landshaft kartalarning strukturaviy va miqdoriy modellarini shakllantirish komplekslar murakkab tizimlar sifatida;

2) chegaralarni ajratib ko‘rsatish va turli darajadagi turli ierarxik darajadagi landshaft komplekslarining tipologik bog‘liqligini aniqlash uchun sun’iy yo'ldosh tasvirlarini miqdoriy tahlil qilish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish tasvirlar va hududlar;

3) topologik darajadagi landshaft komplekslarining modellarini qurish va ular asosida asosiy hududning landshaft-tipologik xaritasini tuzish;

4) landshaft GIS dan vosita sifatida foydalanish usullarini ishlab chiqish yerdan foydalanishni baholash va rejalashtirish.

Mazmuni tematik bo‘lgan shartli belgilarni ishlab chiqarishda, mavzu bo‘yicha ob’ektlar va komplekslarining xususiyatlari e’tiborga olinadi [5]. Ularni kartalarda tasvirlash jarayonida, asosan, kartografik tasvirlash usullari xamda shartli belgilardan foydalaniladi [6]. Ko‘pgina ob’ektlarni kartaning masshtabi tufayli aks ettirib bulmaydi.

Tabiiy mazmundagi ba’zi elementlarni ko‘rsatishda kartografik tasvirlash usullari - chiziqli belgilar ishlatilgan. Bunday usul bilan maydonli ob’ektlarning chegaralarini ko‘rsatiladi.

Murakkab geografik natija bo‘lgan landshaft xaritasi GISdan foydalangan holda tadqiqotlar, yerdan foydalanish va o‘zgartirishning amaliy muammolarini hal qilish uchun geografik axborot bazasidir. Landshaft-tipologik xarita asosida yaratilgan GIS (landshaft GIS) ning birinchi bloki landshaft xaritasini yaratish algoritmlaridan va landshaft konturlari (fatsiyalar bo‘linmalari, ularning taksonomik assotsiatsiyalari va o‘zgaruvchan holatlar) tarmog‘i bilan bog‘langan ma’lumotlar bazasidan iborat.

Atribut ma’lumotlar qator va ustunlardan tashkil topgan bo’lib, ular maxsus jadvallar shaklida ifodalanadi. Ob’ektlarning atribut jadvallari xar bir nuqta, yoy yoki maydon xaqidagi ma’lumotni saqlaydigan maxsus fayli xisoblanadi [7].

Tuproq va o‘simlik xaritalarini taqqoslaganda ularni turi bir biriga mos kelgani maqsadga muvofiqdir, chunki umumlashtirish va toifalarni birlashtirish natijasida chegaralar sezilarli darajada o‘zgaradi. Darajasi har xil bo‘lgan toifalarni bir biri bilan solishtirganda albatta shuni e’tiborga olish lozim. Maydon ichidagi atributlar doimiy miqdorda bo‘lsa, ushbu maydon bir yaxlit qilib saqlanadi. Sifatli rang yoki miqdorli rang usulida tuzilgan xaritadan maydon to‘g‘risida ma’lumotlarni olib ularni kompyuter xotirasiga kiritish va mavjud chegaralarni aniqlash qulaydir [6].

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065 sonli Farmoni.

2. Abdullaev A.D., Xolbaev G.X., Safarov E.YU. “Agrometeorologiyada munosabatli tenglamalarni topishda matematik statistikani qo‘llash, EXM va geografik axborot tizimlarida foydalanish uchun ko‘rsatma” Toshkent 2009.

3. Sultonov MD. “Geoinformatsion kartografiya” / O’quv uslubiy qo’llanma. Urganch: UrDU, 2014.

4. Ulug‘bek Abdukarimovich Karabekov, Voxid Shokir o‘g‘li Karimov (2021). Использование ГИС-технологий в городах строителство. Science and Education, 2 (5), 257-262.

5. Karabekov, U. A. (2022). Роль лазерных сканеров в картографии объектов строительства. Механика и технология, (Спецвыпуск 2), 223-226.

6. Ulug‘bek Abdukarimovich Karabekov, Sanjar Shodmon o‘g‘li Xudayqulov, Marg‘uba Shavkatovna Ismatova (2023). Innovasion texnologiyalar asosida yer resurslaridan samarali. Science and Education, 4 (4), 113-119.

7. Karabekov, U. A. (2022). IMPROVE THE USE OF GIS IN LAND MANAGEMENT FOR AGRICULTURE AND FARMERS. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 256-259.

8. Serikɣi, Dosaliev Kanat, and Karabekov Ulug‘bek Abdukarimovich. "KARTOGRAFIYA VA KADASTR ISHLARINI YURITISHDA GEOGRAFIK BILIMLARNING O ‘RNI." (2024).

MARKAZIY OSIYO BOZORLARIDAGI SAVDO INSHOOTLARI ARXITEKTURASINING RIVOJLANISHI

Kushmanov To’lqin Fayzullayevich
SamDAQU, “Interyer dizayni” kafedrasi mudiri,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo bozorlaridagi savdo inshootlari oddiy ayvon ko’rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko’rinishigacha bo’lgan uzoq me’moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o’tganligi, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan o’zining boy moddiy va ma’nayiy qadriyatlari bilan umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga minosib hissa qo’shib kelganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tim, chorsu, toqlar, karvonsaroy, Toqi-Zargaron, Toqi-Telpakfurushon, Toqi-Sarrafon, savdo inshootlari, savdo ko’chalari.

Kirish. Ma’lumki, qadimgi savdo aloqalari Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etagan. Tarixga bir nazar tashlar ekanmiz Markaziy Osiyo xalqlarining Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq hamda o’rta yer dengizi mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib borilgaligining guvohi bo’lamiz. Yunon tarixchisi Fotiy eramizdan oldingi VI-V asrlardayoq Markaziy Osiyo xalqlarining Hindiston bilan savdo aloqalarini yo’lga qo’yganligi haqida ma’lumot beradi. Buyuk Ipak Yo’lining “kashfiyotchisi” hisoblanadigan Xitoy elchisi Chjan Syan ham o’zining Markaziy Osiyo tashrifi chog’ida (e.o.126 y.) Baqtriya bozorlarida Xitoy mollarini ko’rgan. Savdo aloqalari ayniqsa o’rta asrlarda keng quloch yoygan bo’lib, u savdo markazlari va inshootlari bunyodkorligida ham o’z ifodasini topdi

Maqsad.O’rta asr bozorlarida ko’pdan-ko’p savdo inshootlari bunyod etilgan. Ulardan saq lanib qolganlari bugungi kunda ham shaharlarimizning me’moriy ko’rinishiga ko’rk bag’ishlab turibdi.Ushbu inshootlarni kuzatar ekanmiz beixtiyor xayolimizni “ Savdo inshootlari dastlab qanday me’moriy ko’rinishga ega bo’lgan , ularning tadrijiy- taraqqiyot jarayoni qanday kechgan ekan? ” degan savollar chulg’ab oladi. Savdo inshootlariga oid tarixiy ma’lumotlarni titkilab shu va shunga o’xshash savollarga javob topishga harakat qilamiz

Metodologiya. Muhammad Narshaxiy, Rui Gansales de Klavixo, Abu Qosim Ibn-Xavqal, Chjan Syan asarlaridan bozor tarixiga oid ma’lumotlar to’plandi va A.P.Fedchenko, G.A.Pugachenkova, A.S. Uralov, N.Ibragimov, A.Anarboevlar fikrlari bilan umumiylashtirilib xulosaga kelindi.

Asosiy qism. Afsuski, qo’limizda eramizgacha va antik davrga taalluqli bozorlar, savdo inshootlariga oid ma’lumotlar yo’q. Ko’pgina mutaxasislar bu davr bozorgohlari me’moriy jihatdan shakllanmagan ochiq maydon ko’rinishida bo’lgan deyishadi. Nima bo’lganda ham bozorgohlarda ilk paydo bo’lgan savdo inshooti- ayvon bo’lsa ajab emas. Chunki, ayvonlar tuzilishi jihatdan oddiy, qurilishi oson va tejamli, zarurat tug’ilganda buzib boshqa joyda qaytadan qurish imkoniyati mavjud. Shuning uchun bo’lsa kerak ular hozirgi kungacha ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda. XIX asrda olingan tasvirlarga ko’z yugurtirsak, bozorlarimizning asosan ayvonlardan iborat ekanligining guvohi bo’lamiz. Hozirgi kunda ham bozorlarimizda ko’plab ayvonlar qurilayapdi. Hozirgi qurilish ashyolarining turlari xilma-xil, biroq o’rta asrlarda ayvonlar oddiy yog’och ustunlarga to’sinlar o’rnatib, ustiga qamish yoki bo’yra tashlanib yopilgan.

Vaqt o’tib ayvonning orqa va yon tomonlariga devor qurilgan va natijada do’kon paydo bo’lgan.O’z navbatida do’konlar qator joylashib rastalarni hosil qilishgan . Rastalarni bozorgohlarda ham, markaziy ko’chalar bo’ylab ham uchratish mumkin bulgan. Keyinchalik ko’chaning ikkinchi tomonidan ham savdo do’konlari joy olgan va natijada savdo ko’chalariga asos solingan. Savdo ko’chalari bozorlarning tarkibiy qismi bo’lib, qadimdan shakllana boshlagan. Tarixiy ma’lumotlarda qayd qilinishicha, X-XI asrlardagi Samarqand bozoriga tutashuvchi ko’chalarning ikki tomonida do’konlar bo’lgan. Keyingi yillarda Registon atrofida shunday inshootlarning qoldiqlari topilgan. Yillar osha shaharlar kattalashdi, shaharlar bilan birgalikda bozorlar ham kengaydi. Ayniqsa savdo ko’chalarining ahamiyati o’sdi.XIV-XV asrlarda Samarqandning eng katta savdo ko’chasi Ohanin darvozasidan boshlanib, to Chorsu darvozasigacha davom etgan. So’nggi o’rta asrlardagi Buxoroning eng gavjum ko’chasi Labihovuz ansamblidan to Registon maydonigacha cho’zilgan edi. Mahalliy va chet el mollari sotiladigan minglab do’konlar, karvonsaroylar, tim va toqlar yonma-yon joylashib, ushbu ko’chalarning ikki tomonini butunlay band qilgan.

Savdo ko’chalari odatda, u betidan bu betigacha to’sin tiklab, ustiga qamish buyra va hakozolar to’shab yopilgan. Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda savdo ko’chalarining ustini yopish urf bo’lgan .1868 yilda yurtimizga tashrif buyurgan rus olimi A.P.Fedchenko Qo’qon bozori haqida shunday yozadi: “Qo’qon bozori

juda ajoyib ... Uning eng diqqatga sazovor tomoni yopiqligidadir. Ko'chaning ustiga baland qilib xoda tashlangan, xodaga esa qamish to'shab yopilgan. Devorlari esa yog'ochlar oralig'iga loy to'ldirilib ishlangan". Shuningdek, A.P.Fedchenkoning yana bir gapi diqqatimizni tortdi. U Qo'qon bozori haqida yozar ekan, "Markaziy Osiyoning deyarli barcha bozorlarining tepasi yozda yopiladi" - deb qo'shimcha qilib o'tgan. XIX asrning oxirlaridagi Toshkent bozoriga tegishli foto hujjatni kuzatganimizda ham shunday holatga duch kelamiz; ko'chaning ikki tomonida bir va ikki qavatli do'konlar joylashgan. Ularning oldida ayvonlari ham bor. Ikki tomondan bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ushbu ayvonlarning chekkasida butun ko'cha bo'ylab, ikki qator ustunlar o'rnatilgan. Ikki qator ustunlarni esa ularga mahkamlangan to'sinlar bog'lab turibdi. Qizig'i shundaki, ayrim joylarini hisobga olmaganda to'sinlarga hech narsa tashlanmagan, savdo ko'chasi deyarli ochiq. Demak, savdo ko'chalarining tepasi odatda, yoz oylarida yopilgan, qishda esa ochib qo'yilgan. Fikrimizcha, savdo ko'chalarining qishda yopilishiga zarurat bo'lmagan. Chunki, quyosh nurining yetarli tushmasligi ko'chalarda havo haroratining pasayib ketishiga olib keladi.

Bu degan so'z doimiy usti yopiq savdo inshootlari bo'lmagan degani emas. Qadimda yopiq savdo ko'chalari bilan bir qatorda yopiq mahobatli savdo inshootlari ham mavjud bo'lgan. Tim, chorsu va toqlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ko'p tilga olinadigan "Tim" so'zi qadimgi so'g'd yozuvlarida ham, musulmon adabiyotida ham uchrab turadi. So'g'diycha tym do'kon, savdo inshooti ma'nosini anglatadi. Yoqutning tushuntirishicha, tim so'zi Xuroson tilida xan ya'ni, savdogarlar o'z mollari bilan kelib yashaydigan mexmonxona degani ekan. Forsiy lug'atlarda qayd qilinishicha, tim katta karvonsaroyni, har xil gazlamalar sotiladigan maxsus xonani bildiradi. Chig'atoy tilida esa tim "ravoqli inshoot" yoki oddiy bozorcha degani..Ko'pgina mualliflarning asarlarida Markaziy Osiyodagi qadimiy timlar haqida eslatib o'tilgan. Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi"asarida 937 yilda Buxoro bozorida sodir bo'lgan yong'in haqida hikoya qilar ekan,Samarqand darvozasi yaqinidagi "... bozorlarning timchalari ... , kovushdo'zlar timi" ning yonib ketganligi haqida ma'lumot beradi.Ushbu inshootlar asosan, yog'och va loydan ishlangan bo'lsa kerak chunki, hikoyada aytilishicha, "... uning yog'ochlari tuproq tagida bir oygacha kuyib turgan". Timlarning me'moriy ko'rinishi haqida muallif hech narsa demagan, nima bo'lganda ham bozor ancha mukammal ko'rinishga ega bo'lgan, chunki uni "... hech qachon ilgaridek qilib qura olmaganlar". Bundan tashqari, timlar Numichkat, Isfijob,Ushturkat va Chog'aniyon ham mavjud bo'lgan.

Samarqand shahrida Amir Temur buyrug'iga binoan bunyod etilgan savdo inshooti ham mahobatli savdo inshootlari sirasiga kiradi. Taniqli olima G.A.Pugachenkova ispan elchisi L.Klavixo qoldirgan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu inshootning chizmasini ishlagan. Chizmada ko'rsatilishicha, inshoot Registon maydonidagi Timi-Kulohfurushondan boshlanib, to Ohanin darvozasi tomon davom etgan. Ko'chaning ikki tomonini qator joylashgan do'konlar qurshab turibdi. Inshootning o'rtasidagi yo'lak qismi esa gumbazlar bilan yopilgan.

Keyinchalik savdo inshootlari qurish an'anasi Hirot shahrida ham davom ettirildi. 1410-1411 yillarda Shohruh Mirzo buyrug'iga binoan shaharning to'rt darvozasini o'zaro bog'lovchi ikkita markaziy ko'cha butunlay qaytada obodonlashtirilgan. Ko'cha bo'yidagi do'konlar ikki qavatli qilib pishiq g'ishtdan ishlangan, ko'chaning tepasi esa gumbazli qilib yopilgan Markaziy chorrahada esa Chorsu qad rostlagan.

Yana bir diqqatga sazovor inshoot Osh bozoridagi timdir. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Osh shahridan oqib o'tuvchi Oqbuloq daryosining ikki joyida, bir-biridan 800-900 metrlar chamasi uzoqlikda ikkita osma ko'prik bo'lgan. Tim ushbu ko'priklar oralig'ida, daryoning o'ng tomonida sohildan 40-50 metrlar uzoqlikda joylashgan edi. Uzunligi 700-800 metrlar bo'lgan ushbu inshoot asosan ,yog'och ashyolardan qurilgan. Tepasi avval qamish tashlab yopilgan, keyinchalik uni metall ashyolarga almashtirilgan. Bizgacha faqat Buxorodagi Abdullaxon, Xivadagi Olloqulixon timlari saqlanib qolgan .

Avestoda tilga olingan cavrusuk(chavrisuk) "bozor" hozirgi kungacha ham gumbazli savdo inshootlarining nomi sifatida saqlanib qolgan, uni qisqacha qilib Chorsu deyishadi. Toq esa Markaziy Osiyo me'morchiligida devorlardagi oraliqlar tepasining egri chiziqli yopilishiga aytiladi. Bu ikki so'zni o'zaro bog'lab turadigan narsa, bir turdagi savdo inshootlarining shu ikki nom bilan aytilishidir.

Chorsu va Toqlar qadimdan mavjud bo'lgan IX-X asrlarda Samarqandning Kesh darvozasi yaqinida bozor bo'lib, uning markazida gumbazli savdo inshooti – Chorsu bo'lgan . Bizgacha esa faqat XVI-XVIII asrlarda bunyod etilgan Chorsu va Toqlar yetib kelgan,xolos. Buxorodagi Toqi-Zargaron, Toqi-Telpakfurushon, Toqi-Sarrafon va Samarqand, Shahrisabz chorsulari shular jumlasidandir. Toq va Chorsular asosan, shaharlarning markaziy chorrahalarida bunyod etilgan va shaharlarning me'moriy qiyofasini belgilovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xulosa. Savdo inshootlarining uzoq davom etgan tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti jarayonini o'rganish ularning quyidagicha shakllanganini ko'rsatdi:

Bozorgohlarda dastlabki, paydo bo'lgan savdo bilan bog'liq inshootlar ayvon yoki shiypon ko'rinishida bo'lgan. Vaqt o'tib ayvonlarning takomillashishi, orqa va yon tomonlariga devorlar ishlanishi natijasida savdo inshootlarining bozorlarda eng ko'p bo'lgan uchraydigan turi – do'konlar va ularning qator tuzilmasi -rastalar paydo bo'lgan. O'z navbatida savdo-sotiq rivojlanib, bozor shahar markazidagi maydonga sig'may qolgach shaharlarning asosiy ko'chalari bo'ylab kengaya boshladi. Ko'chaning ikki tomonini rastalar band qiladi va natijada savdo ko'chalariga asos solindi. XV asrga kelib Markaziy Osiyoning ko'pgina shaharlarida asosiy ko'chalar savdo ko'chalariga aylanib bo'lgan edi. Savdo ko'chalari takomillashib yopiq savdo ko'chalariga aylanadi. Avvaliga savdo ko'chalarining usti yengil qurilmalar bilan yopilgan bo'lsa, keyinchalik ularni gumbazli qilib yopish urf bo'lgan. Yopiq savdo ko'chalari rivojlana borib,

mahobatli savdo inshootlari Tim, Chorsu va Toqlar ko'rinishidagi inshootlari qurilishiga olib kelgan.

Shunday qilib, savdo inshootlari o'rta asrlarda oddiy ayvon ko'rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko'rinishigacha bo'lgan uzoq me'moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o'tgan.

Adabiyotlar

1. Rui Gansales de Klavixo. "Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Temura". Moskva:Nauka. 1990.

2. Abu-l-Kasыma Ibn-Xavkal. «Puti i stranы». Perevod Ye.K.Betger. Trudы SAGU. Istoriya nauki. Kn.25. Tashkent, 1957.

3. N.Ibragimov. «Ibn-Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii». Moskva: Nauka, 1988.

4. A.Anarboev. «Blagoustroystvo srednevekovogo goroda Sredney Azii». Tashkent:Fan. 1981.

5. Abu Bakir Muxammad ibn Ja'far an Narщaxiy. «Buxoro tarixi». Meros turkui. Toshkent:Kamalak. 1991.

SAMARQAND SHAHRI SANOAT BINOLARI ARXITEKTURASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI OMILLAR VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Maksimov Furkat Sulaymanovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Samarqand shahri arxitekturasi, sanoat binolarining qurilish jarayonlari va ular rivojlanishining ilmiy asoslari, omillari, o'ziga xos xususiyatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan hamda sanoat binolarining hozirgi kundagi ahamiyati, aholi yashash sharoiti, iqlimga, atrof-muhitga bo'lgan zararli tomonlari.

Kalit so'zlar: yer osti va yer usti tabiiy boyliklari, ekologiya, aholi salomatligi, zaharli gazlar, zararli chiqindilar, ishlab chiqarish texnologiyalari.

Samarqand – O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. Boshqa qadimiy (Buxoro, Xiva, Qo'qon, Termiz va h.k) kabi shaharlar singari Samarqand shahri arxitekturasining ham o'ziga yarasha katta va qadr-qimmatga ega tarixi mavjud. Samarqand o'zining 2700 yildan ortiq tarixiga ega shahar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda milliy hunarmandchilik va xalq xo'jaligidagi ishlab chiqarish azaldan rivojlanib kelgan.

Sanoat binolarining shiddat bilan qurilishi asosan O'rta Osiyoga Chor Rossiyasi kirib kelgandan so'ng ya'ni 1867 yildan boshlandi. Rossiya imperiyasining Markaziy osiyo hududlariga qiziqishi va bosib olish rejalari aslida XIX asrning 20 yillarida juda avjiga chiqqan. Bu bosqinchilik qiziqishlarining asosiy sabablari Markaziy Osiyo yer osti va yer usti tabiiy boyliklarini qo'lga kiritish bo'lgan va shunday ham bo'ldi. Markaziy Osiyo hududlari har jihatdan sanoat binolarini rivojlantirishga juda qulay hududlardan hisoblangan va Samarqand shaharlarida ham ayni shu davrdan boshlab sanoat ishlab chiqarish binolarining qurilishi boshlangan.

Samarqand shahrida shu davrga qadar ayniqsa yengil va og'ir sanoat ishlab chiqarilishi ya'ni to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati keng rivojlanib kelgan. Samarqand shahri sanoat binolari arxitekturasining o'ziga hos uslublari mavjud bo'lgan ammo ekalogik nazorat, inson salomatligiga zararli tomonlarining yechimlari to'liq bartaraf etilmagan. Ma'lumki, butun tabiiy obyektlar yer, yer osti va yer usti boyliklari, suv, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonlar olamining vakillari davlat mulki hisoblanadi. Shu boyliklardan foydalanishning qonun-qoidalari mavjud bo'lib, davlatning muxsus ruxsati bilan shartnoma asosida tabiiy boyliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Davlatning huquqiy qonun-qoidalariga binoan, mamlakatning har bir aholisi toza, sog'lom va go'zal tabiat hamda uning elementlari yer, suv, o'rmon, o'simlik qoplami va hayvonlar vakillarini ijaraga olib foydalanish huquqiga egadir. Tabiatning bebaho ne'matlari havo, suv, tuproq va yer boyliklari davlat va uning huquqiy tashkilotlari tomondan nazorat qilinadi. Har bir tabiiy zaxiradan foydalanish ekologik va iqtisodiy tomondan rejalashtirilgan dastur asosida olib boriladi va nazorat qilinadi.

Huquqiy va tashkiliy davlat nazorati tabiatning holati va uni boshqarish, ekologik nazorat formasi, korxonalararo ekologik nazorat, sanitariya-gigiyenik nazorat va jamoatchilik (mahalla tashkilotlari) nazorati o'rnatiladi. Tabiatda ekologik holatning buzilishi tupraq, havo va suvning tiriklik uchun zararli moddalar bilan ifloslanishi, o'simliklar va hayvonlarning turlari kamayib ketishi, o'tloqzorlar, to'qayzorlar va tog' yonbag'irlaridagi buta hamda daraxtlarning kesilishi kabi holatlar natijasida tabiatni muhofaza qilish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birgalikda inson bu yorug' olamda yashar ekan tabiatdan barcha narsalarni oladi. Bu ijtimoiy, industrial va xo'jalik muammolar, insonning yashash muhiti tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Tabiatning bir kichkina joyida ekologik holati buzilishi, unga yondash bo'lgan katta maydonlar tabiiy holatining buzilishiga sabab bo'lib natijada turli regionlarning aholisiga ta'sir ko'rsatmoqda. Viloyat statistika bo'limi ma'lumotlarida Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni oxirgi 10 yil ichida (2013yilda 3895 ta, 2023 yilda 13775 ta) 9880 taga ko'payganligi ko'rishimiz mumkin. Shuningdek viloyatda 2022-yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida Samarqand shahrining ulushi quyidagicha: oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20,9 %, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 93,8 %, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 28,7%, kiyim ishlab chiqarish 52,2%, teri va

unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 11,1%, yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari) 28,0%, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish 44,1%, qog`oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish 66,5 %, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish 0,9 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 39,0 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 89,3 %, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish 8,7 %, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 31,1 %, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 82,0 %, metallurgiya sanoati 17,9 %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 40,2 %, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, elektr uskunalar ishlab chiqarish 44,5 %, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 41,7 %, avtotransport vositalari 60,2 %, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 96,4 %, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish 16,5 %, mebel ishlab chiqarish 15,3 %, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 58,2 % ni tashkil qilgan. Samarqand shahrida yaratilgan kichik biznes subyektlaridan tortib barcha korxona va ishlab chiqarish muassasalarining faoliyat yuritishi nafaqat shahar balki viloyat aholisining sifatli mahsulotlarni iste’mol qilishi, shuningdek aholi daromatlarining yukshalishidan dalolatdir. Ammo sanoat korxonalari soni qanchalik ko‘p bo‘lsa aholi salomatligi uchun undan chiqadigan zararli chiqindilarning ham ta’siri ko‘payib boraveradi. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi turli xil tadbirlar o‘tkazilmoqda. O‘zbekistonda har bir viloyatning o‘ziga xos tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari mavjud bo‘lib, Samarqand viloyatning ekologik holati boshqa viloyatlarning ekologik holatidan farq qiladi. Viloyatda mashinasozlik, yengil va oziq ovqat sanoati, qurilish materiallari va binokorlik sanoati kabi muhim tarmoqlar joylashgan. Samarqand viloyatda transport tarmoqlaridan chiqadigan chiqindilar ayniqsa viloyat markazi ob havosi uchun zararli bo‘lib, aholi sog‘lom turmush tarziga katta noqulaylik keltirmoqda. Viloyatdagi sanoat korxonalarini joylashtirishda aholi omilini ham e’tiborga olish kerak. Atrof muhitga zaharli gazlarni va zararli chiqindilarni chiqaradigan korxonalarni shahardan uzoqroqda joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aholi kundalik ehtyojlari uchun kerakli bo‘ladigan mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalar aholi manzilgohlariga yaqin quriladi. Ammo boshqa sanoat korxonalari (mashinasozlik, neft-kimyo, qurilish materiallari, biokimyo, yog’-moy va boshqalar) ni aholi yashash joylaridan biroz uzoqroqda joylashtirish lozim. Birgina Samarqand shahridagi yog’ zavodidan chiqadigan har xil hidlar oqibatida, zavod yaqinidagi aholi jabr chekmoqda. Zavodda aholining kundalik ehtiyojlari uchun yog’, sovun hamda chorva mollari uchun omuxta-yem maxsulotlari ishlab chiqarilishini inobatga olsak bu korxona viloyat ahamiyati uchun muhim. Ammo zavodning hozirgi ishlash sikli bizningcha talab darajasida emas. Zavodning ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash kerakligi ko‘rinib turibdi. Agar shu kabi amaliy tadbirlar shahardagi ishlab chiqarish sikli eskirgan korxonalarda amalga oshirilsa aholi kasallanishining oldini olish ishlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Sh.M.Mirziyoyev kitoblari:

1. Together we will build a free and prosperous democratic of Uzbekistan.- Tashkent: “Uzbekistan”, 2016.
2. Critical rewiew, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of thumb for every leader. – Tashkent: “Uzbekistan” 2017.

Maxsus adabiyotlar:

1. Ergashev A., Yulchiyeva M., Ahmedov O’., Abzalov A. “UMUMIY EKOLOGIYA”.Toshkent-2014.
2. Ergashev A., Ergashev T. “EKOLOGIYA, BIOSFERA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH”. Toshkent –“Yangi asr avlodi” nashriyoti -2005 yil.
3. Массон М.Е. По поводу далекого прошлого Самарканда // Из истории искусства великого города. Т.,1972. С.17.
4. Tremblay Xavier. La toponymie de la Sogdiane et la traitment de *XOET * FO EN Iranien in Studia Iranica. Tome 33, 2004, fascicule 1. P.131.
5. Рахматов Т. Этимология топонима «Самарканд» // Советская тюркология, 1973, № 4. С. 48,50.
6. Зайниддинов Х. Асрлар садоси. Т., 1979. 6-бет. 17 Limbert John, Shiraz in the age of Hafez. The glory of a medieval Persian city. Seattle and London: University of Washington press, 2004. P.IX.
7. Shukurullayevich, S. O., Sulaymanovich, M. F., & ShamshidinYalgashevich, K. (2021). SPECIALIZED MOBILE GAMES IN PRACTICAL EXERCISES ON THE NATIONAL FIGHT OF KURASH. *World Bulletin of Management and Law*, *3*, 51-52.

Internet saytlari:

https://www.google.com
https://ziyonet.uz
https://arxiv.uz

SAMARQAND SHAHAR ATROFI YOZGI UYLARI VA ULARNING BEZAKLARI

Karimova Nurxon Abduboqiyevna
SamDAQU “Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi” kafedrasi o’qituvchisi
Bobomurodova Mashhura Azimovna
SamDAQU “Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi” kafedrasi o’qituvchisi**,**

Annotatsiya: Mazkur maqola Samarqand shahar strukturasi uchta o‘zaro bog‘lanmagan elementlari undan farqli o‘laroq o‘rta asrlardagi Samarqand hisorining shakllanishi to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: panja, ko‘chalar, shahar, devorlar, imoratlar, qurilish.

Shahar atrofida, uning chekkalarida, aholi yozga chiqdi. Bu hayot tarzini belgilovchi muhim omillardan biridir Samarqand va ularning shahar va shahar atrofidagi uylarining tabiati. Samarqandlik ko'plab axborot beruvchilarning xabarlariga ko'ra, shahar aholisining taxminan 70-80% shahardan shahar atrofidagi bog'larga sayohat qilgan 1. Osta- shaharda faqat eng kambag'allar bor edi shahar tashqarisida hatto bo'lmagan odamlar dangasa bog ' uchastkasi va sobiq odamlar uni ijaraga ololmaydilar. Samarqandliklar yozda shahar atrofidagi bog'larga chiqish odatini tushuntiradilar birinchidan, yoz 2 shahrida yashashning zararli tomoni, shuningdek, yoz shahar hovlilarida ko'plab chivinlar bo'lgan. Bundan tashqari, shahar atrofi uchastkalarda oilani ta'minlaydigan sabzavot va mevalarni etishtirish kerak edi qishda qo'shimcha mahsulotlar va qo'shimcha daromad keltiradiganlar ortiqcha bering. Biz aprel oyida, tuxumdonlar paydo bo'lgan paytda bog'larga bordi ko'rik daraxtlari va o'rim-yig'imdan keyin kech kuzda qaytib keldi barcha hosilning botlari, yig'ilgan barcha narsalar bilan Qaytish kerak edi noyabr oyida barglarning tushishi vaqti (bargrez, xazonrez). Bog'larga chiqish nafaqat shahar aholisi, balki aholi orasida ham odatiy hol edi shahar atrofidagi qishloqlar, agar ularning asosiy uchastkasi kichik bo'lsa. Masalan, tor aholisi kulbay-poen bog'lar bo'lgan, bu yerda, bundan tashqari, guzar kulba shahar aholisi bog'lari va boshqalar ham bor edi.

Afsuski, biz prigoning tarqalishi haqida material to'play olmadik fuqarolar o'rtasidagi ona yerlari, ayrim guzarlarning qishloqlar va boshqalar ehtimol, ushbu materialni arxivlarda topish mumkin. Kambag'al odamlar qurilish bilan shahar atrofidagi uchastkalarni o'zlashtira boshladilar ular ishlayotganda boshpana topishlari mumkin bo'lgan engil quyosh boshpanalari. Bunday eng oddiy tuzilmalardan biri bu suri platforma, shoxlardan to'qilgan, erdan 1,5-2 m balandlikda ko'tarilgan biz chivinlardan qochib uxladik. Kapa qurish biroz murakkabroq yoki Ularning shakli eng xilma-xildir. U forni takrorlaydimi vertikal ravishda joylashtirilgan to'rtta devorga ega bo'lgan kichik xona va barglar bilan bog'langan novdalar to'plamlari va bir xil qoplama, qo'llab-quvvatlash ustunlardan yasalgan ustunlar yoki taqa shaklidagi kamar shakli arklar bilan egilgan novdalarning yuzi, ba'zan tepada paspaslar bilan qoplangan qamishdan to'qilgan yoki ikkita bog'langan matlar kartalari uyi kabi burchak 3. Oxirgi ikki turdagi kapa- ikkala tomon ham yopiq va ularning ostida har doim havo oqimi mavjud chaldevor (dan chordevor (?) Atrofda panjara qurish imkoniga ega bo'lmagan eng kambag'al odamlar o'z uchastkasida ikki qavatli inshoot qurilgan, u to'rtta devor deb nomlangan. 4). Bu emas edi rejada katta kvadrat yoki to'rtburchaklar xona (10-diagramma, rasm. 108) katta Adobe devorlari bilan. Ikkinchi qavatning devorlari ingichka edi, loy g'ishtdan yasalgan va loy gips bilan qoplangan. Ular balandligiga ko'tarildi va ularning har birida havo oqimlarini yaratish uchun kichik ochilish. Hech qanday qoplama yo'q edi. Kirish joyiga qarama-qarshi burchakda joylashgan taxta zinapoyalarga yoki sud ijrochisiga ko'ra yog'och zinapoyaning Nuhi, u ko'tarilgandan so'ng, u bilan birga yuqoriga tortildi. Pastki qavatda devorlarda teshiklar yo'q edi. U erda faqat burchak yaqinida bor edi devorlardan biri keng ochilish joyi bo'lib, u orqali pastki qismga haydalgan kechasi bir nechta chorva mollari bor edi, keyin o'tish joyi tunda tikan bilan yotqizilgan edi, cho'tka va boshqa shunga o'xshash materiallar. Bunday to'siqni uyg'otmasdan demontaj qiling egalari, qiyin edi. Samarqand chaldiga o'xshash mudofaa tipidagi inshootlarga parallel o'g'ri, juda ko'p. Bular to'rtburchaklar minoralar bo'lib, tepasida boshpana bor, u erda atrofdagi aholi panja daryosining yuqori qismida, hujumlar paytida yashiringan. Qishloqda Charsim daryoning yuqori qismida Gund ularning ettitasi bor edi va ularning barchasi bitta joyda joylashgan edi bu joy, shubhasiz, mudofaa qulayligi va boshpana zarurligi sababli katta miqdorlar odamlar. Markaziy minora deb nomlangan Chordara- "to'rt eshikli", garchi ochilish faqat bitta bo'lsa ham 5. Samarqandga o'xshash chaldevor va turkman mudofaa minoralari 6. Qarshi shahrida tug'ilganlardan biri u menga 1930 yilda Turakul qishlog'i kuchin shahrida ko'rgan narsalarini aytib berdi, qarshi tumani uylarning hovlilarida qurilish jihatidan yumaloq balandligi 4-5 m bo'lgan singan loydan yasalgan mustahkam poydevor tor teshiklari bo'lgan xona devorlarda bo'shliqlar. Bunga ko'tarildi kechasi yuqoriga tortilgan zinapoyadagi xona, shundan so'ng xona mustahkam qal'aga aylandi. Bir marta uchta hikoyachi bo'lgan odam o'zini shunday himoya qilishga muvaffaq bo'ldi bino 50 ta basmachi hujumchilaridan iborat. Samarqand ustasining so'zlariga ko'radevolzana Usto bola, inqilobdan oldin bo'lgan kulbai-bolodan tojik Afg'onistonda Samarqand chaldevorlari kabi inshootlar yo'llar tez-tez-har 3 sanga 7. Ular 4 ta paxsa qatlamidan iborat edi, ular 3 ta paxsa darajasida bir-biriga yopishgan, to'rtinchisida esa bo'shliqlar teshilgan. Kimdan uzoqroq o'xshashliklarni eslatib o'tish mumkin mudofaa minoralari, qurilgan, masalan, Kavkazdagi svanami o'z uylarida 8. Imkoniyat paydo bo'lishi bilanoq, egasi saytni baland bo'lmagan holda o'rab oldi Adobe devori bogdevol (bog ' devori) balandligi uch paxsa qatlami. Ichkarida yozgi uy - bogxon qurilgan, u— boy egalar ko'pincha kapital bo'lmagan. Odatda dumaloq edi devorsiz devorlari bo'lgan oval yoki to'rtburchaklar bino- quritilgan loy bo'laklaridan, loy eritmasida yoki singan gildan tayyorlangan ayollar. Bir-birining ustiga chiqish eng oddiy: devorlarga qalin novdalar qo'yilgan, bo'ylab ular kichikroq, ustiga loy Adobe moyining yupqa qatlami surtilgan. Uchun kirish joyi qoldirilgan, deraza ochilishi ko'pincha amalga oshirilmagan 9. Atrofda Samarqand va Urgutda bunday turar-joylar ko'pincha faqat engil turar-joylardan iborat edi yoki saqlash xonasi va shiypondan Boy odamlar bog ' uchastkasida mustahkam uy qurdilar xo'jalik binolari va chorva mollari uchun xonalar va ularning uy-joylarini o'rab olgan kirish qismida va burchaklarida minoralari bo'lgan baland, katta devor, bu hamma narsaga imkon berdi qurilish uchun qal'a turi. Bunday mustahkamlangan uylar kurgon deb nomlangan 10. Samarqand tumani shahar atrofi uy-joylar, o'ziga xos

arxitektura Xorazmning shunga o'xshash uy-joylariga o'xsha, lekin ulardan farq qiladi va Samarqandga tashrif buyurganlarning ko'pchiligi uzoq vaqtdan beri bezaklari bilan e'tiborni tortgan sayohatchilar va tadqiqotchilar. Bir qator nashrlarda eskizlar keltirilgan va individual uylarning fotosuratlari 11, Ammo har qanday batafsil ma'lumot ular haqida nashr etilmagan. Ushbu mavzu bo'yicha juda katta tasviriy material joriy asrning 30-yillarining ikkinchi yarmida G. V. Grigorye tomonidan to'plangan qarang: Uning rahbarligida V. I. Kotovskiy tomonidan olingan ko'plab rasmlar, Samarqand muzeyi fototekasida saqlanadi. Afsuski, qayta ishlash va nashr etish to'plangan material bu iqtidorli tadqiqotchi ishqibozning vaqti yo'q edi, lekin olingan rasmlar pasportlanmagan hatto suratga olish joyi ham ko'rsatilmagan va yo'q G. V. Grigoryev to'plagan naqshlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar saqlangan. Qachon u tekshirgan ob'ektlarni topish uchun bu holat deyarli paydo bo'ldi mumkin emas, ayniqsa ularning aksariyati endi mavjud emas mavjud. Uning bezak haqidagi ma'lumotlaridan faqat quyidagilar saqlanib qolgan. Bir kuni u, devordagi loydan yasalgan bezakni ko'rib, u nima maqsadda ekanligini so'radi qo'llanilgan. Unga bu bezak Talisman deb javob berishdi (menga xabar berilgan O. A. Suhareva Tomonidan). Boshqa holatda, uning savoliga rasm nimani anglatadi romba, usta devolzan tojik unga oddiy narsa sifatida javob berdi Xia axir, bu odamning surati!"(menga o'zim xabar bergan G. B. Grigoryev Tomonidan). Quyida keltirilgan tepaliklar haqidagi ma'lumotlar asosan men tomonidan to'plangan 1938-1940 yillar, o'sha paytda rasmlar olingan.

Adabiyotlar:

1. Abu Toxirxo'ja. Samariya / Meros- T.: Kamalak, 1991. -S. 5-81
2. Axmedov Ashraf. Amir Temur maqbarasi / Xilqona haqida yangi malumotlar Zarafshon, 23 sentabr, 1995
3. Axmedov M.Q. o'rta osiyo me'morchiligi tarixi. –T.: (Uzbekiston), 1995. – 215 c.
4. Bartold B.B. O pagrebeni Timura / soch. I. P, CH, 2, - M.: (Nauka). 1964. S 423- 154.
5. Narshaxiy.Tarixi Buxoro/Meros.-T.: «Kamalak»,1991,-c82-174
6. Suyunov, J., & Bobomurodova, M. (2021). Purpose of floating structures for all types of water supplying structures. European Scholar Journal, 2(12), 126-129.
7. Qayumov, X. I. (2021). Dostonov AS Fozilova ZQ Samarqand shahri turar joylarini shahar strukturasidagi o'rni. Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnal. Samarqand, (4).
8. Azimovna, B. M. (2023). SAMARQAND SHAHARSOZLIGI ME'MORIY YODGORLIKLARNING XIX-ASR OXIRI XX-ASR BOSHLARIDAGI HOLATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(16), 427-430.

JIZZAX SHAXRIDA TURAR JOYLARNI RENOVATSIY QILISH KONSEPSIYASI

Bobobekov B.Q.
Jizzax politexnika instituti. "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasi a.f.n.dotsent
Mamatov B.Q.
Jizzax politexnika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada arxitektura va qurilishda ushbu rivojlanayotgan texnologiylardan foydalanish, renovatsiyaning asosiy maqsadi hamda Jizzax shahrining "Madaniyat" mahallasida amalga oshiriladigan renovatsiya dasturi konsepsiyasi to'g' risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Renovasiy, shahar, texnologiy,qayta tiklash, ta'mirlash, qurilish, material, innovatsiy.

Abstract: This article talked about the use of these new technologies in architecture and construction, about the main purpose of renovation and the concept of the renovation program implemented in the Madaniyat quarter of the city of Jizzakh.

Keywords: renovation, city, technology,restoration, repair, Construction, materials, innovations.

Renovatsiya - aholi uchun qulay yashash muhitini shakllantirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida, avariya holatidagi mavjud yaroqsiz deb topilgan, shu jumladan, ijtimoiy va muhandislik-transport infratuzilmalari eskirgan, ekspluatatsiya muddati o'tgan, yaroqsiz holga kelgan turar va noturar joylarni hamda yaroqli turar va noturar joylarni zamonaviy talablariga muvofiq qayta qurish, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilishga qaratilgan va amalga oshiriladigan intensiv qurilish tadbirlari majmui.

Renovatsiyaning asosiy maqsadi:

- renovatsiya loyihasi asosida hududni me'moriy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali holatga keltirish;
- yashash, foydalanish, ishlatish uchun yaroqsiz deb topilgan avariya holatidagi uy-joy fondini inson yashashi va foydalanishi uchun yaroqli holga keltirish;
- hudud aholisining ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir qiladigan holatlarni bartaraf etish;
- uy-joy fondidan foydalanish qulayligi va unumdorligini oshirish hamda undagi sharoitlarni yaxshilash;
- zamonaviy mezonlarga javob beradigan muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy

infratuzilmani yaratish, energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash.

- fuqarolarning xzvfsizligini ta'minlash.
- hamma uchun munosib turar-joy
- hamma uchun sog’lom va bardavom hayoit
- yetarli daromad va qoniqarli shi o’rini
- tabiat bilan uyg’unlikda yashash, sog’lom va xavfsiz atrof muhit
- shaxsiy va mulkiy xavfsizlik va himoyalanish
- do’st va hamsoyalar qurshovidv yashash, sosial barqarorlik
- shahar infrastruktura obyektlariga qulay va bemalol aloqa
- landshaft, tarixiy va madaniy obidalarni saqlash
- manzilgohlarning yuqori darajadagi arxitekturaviy, badiiy darajasi

Shahar manzilgohlarining yashovchanligini ta’minlash uchun quyidagilar ko’zda tutiladi:

- boshqa manzilgohlarning o’zaro ta’sirida shaharning kompleks (majmuali) rivojlanishi
- sosial infratuzilmani mukammallashish sistemasi
- ishlab chiqarish, transport va muxandislik-texnik infratuzilmalarning xavfsiz ekologiyasining vujudga kelishi
- aholini sog’lomlashtirish va dam olish joylarini tashkil etish
- tarixiy-madaniy merosni saqlash va tiklash.

Shaharlarning barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson va tabiatning o’zaro ta’siri ekologik nuqtai nazar bilan chegaralanmaydi, bunda shahar muhitining sosial va iqtisodiy tuzilmalari ham bir xil takomillashishga ahamiyat beriladi. Manzilg’ohlarning barqaror rivojlanishiga o’tish yo’llarini har bir hudud va mamlakat o’zi ishlab chiqadi. Ammo bu holatda jamiyatning rivojlanishi xalqaro tabiiy tarixiy prosesslarini, urbanizasiya progressi kabi hozirgi zamonda aholini joylanishini qutblanish jarayoni va tabiiy majmualarni hisobga olish kerak bo’ladi.

Shahar makonlari hududlari qimmatli va cheklangan resurs bo‘lib, uning ahamiyati jamiyat rivojlanishining har bir yangi bosqichi bilan ortadi, chunki zamonaviy mamlakatlar aholisining aksariyati faoliyati shaharlarda to‘plangan. Shahar aholisi tomonidan ulardan foydalanish samaradorligini, atrof-muhitning qulayligi va qulayligini oshirish maqsadida shahar hududlarining doimiy rivojlanishi tobora yangi hududlarni rivojlantirish zarurati, shuningdek, hozirgi foydalanish shaharning mavjud ehtiyojlariga mos kelmaydigan shahar maydonlarini o‘z vaqtida yangilash zarurati bilan murakkablashadi.

Renovatsiya dasturi unda qatnashadiganlar uchungina bo‘libgina qolmay, butun shahar aholisi uchun ahamiyatlidir. Eski uylarni buzib olish shaharning zamonaviy qiyofasini o‘zgartirib uni yanayam zamonaviy va jozibador qilib ko‘rsatadi. Ammo ushbularni amalga oshirish jariyonida me'moriy qiymatga ega bo‘lgan uy-joularni buzib olishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu bilan birgalikda ushbu jarayonda eski foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan boshqa bino va inshootlar ham buzib olinishi mumkin bo‘ladi.

Renovatsiya shaharning ko‘rinishini yangilab, shahar aholisining yashash sharoitini yaxshilaydi, sababi ushbu jarayonda hisob-kitoblarga asoslanib madaniy- maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, kasalxona, poliklinikalar quriladi, hududlar ko‘kalamzorlashtirilib obodonlashtiriladi. Ushbu ishning maqsadi: ta'mirlash loyihalarini amalga oshirish doirasida etarlicha samarali ishlaydigan vositalarni aniqlash va ularning natijasi hududlardan foydalanishning shaharsozlik samaradorligini o‘zgartirish va ularni takomillashtirish bo‘yicha echimlarni taklif qilishdir.

2021 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi shaharlarida ko‘p qavatli turar-joylar fondini yangilash , ya'ni renovatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqa.

«Ayni paytda respublikada 42 minga yaqin ko‘p kvartirali uylar mavjud bo‘lib, ularning 30 795 tasi (82foiz) 1991 yilgacha qurilgan, shundan 1032 tasi instrumental texnik ko‘rikdan o‘tkazish talab etiladigan, 223 tasi seysmik zaif bino-inshootlar ekanligi aniqlangan. Shu bois, renovatsiya asosida uy-joy fondi obyektlarini me’moriy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan yangilash (renovatsiya qilish) zaruriyati yuzaga kelmoqda» Yillar o‘tishi bilan ushbu turar- joylar eskiradi va buziladi. Bu esa bino va inshootlarning seysmik mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatadi va u erda yashovchi fuqarolarning hayotiga xavf tug‘ diradi.

Bugungi kunda Renovatsiya dasturini amalga oshirish bo‘yicha Jizzax shahar "Madaniyat" mahallasi hududida Xitoylik xorijiy investor Li Ven Yan hamkorligida amalga oshiriladigan renovatsiya dasturi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Renovasiyaning bosh afzalliklari turar-joyga yashashni yaxshilashga qaratilgan. Yangi xonadonlar katta-keng, qimmat, qulay(komfort). Bu uylar zamonaviy talablarga standartga asosan loyihalangan, kirish va oshxonalari katta, umumiy maydon bilan turar-joy maydoning nisbati yaxshi yechilgan, lift va axlat chiqargich va boshqalar ko’zda tutilgan.


Renovatsiyaning asosiy afzalliklaridan quyidagilarni ajratamiz:

- Mulk egasi eski xonadoning o‘rniga yangisini oladi;
- Yangi qurilish jarayonida xonalar joylashuviga o‘zgartirishlar kiritish imkoniyati mavjud bo‘ladi;
- Barcha qurilish -montaj ishlari zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi va imkoniyati cheklangan shaxslarga imkoniyatlar yaratish maqsadida panduslar loyihalanadi;
- Yashovchilar avvalgi xonadoniga teng qiymatli mulkka ega bo‘ladi;

Shu yo‘l bilan hukumat tomonidan fuqarolar yashsash sharoitini yaxshilash erishiladi Renovatsiyaning quyidagi kamchiliklarini ko‘rsatib o‘tish zarur bo‘ladi:

- Yangi uy-joy shaharning boshqa hududida infratuzilmasi rivojlanmagan holatda bo‘lishi mumkin;

- ro‘yxatga kiritishga, farzandlarni majmuadan uzoqda joylashgan maktabga va maktabgacha ta'limuassasasiga joylashtirishga ko‘p hujjatlar rasmiylashtirishga to‘g‘ ri kelishi mumkin.



Jizzax shahri to‘g‘ risida:

Jizzax shahri 1926 yil 21 noyabr kuni tashkil topgan. Maydoni - 0,1 ming (49640 ga) kv km Chegara uzunligi -49.5 km. Aholisi - 197.8 ming kishi, Mahalla fuqarolar yig‘ inlari soni- 34 ta. Xonadonlar soni -38523 ta. Oilalar soni - 49855 ta. Shaharning "Madaniyat", Bobur, Ittifoq, Yoshlik, Toshloq, Kimyogar, Obod, Zargarlik, Sayiljoyi, Bunyodkor, Qassoblik, Zilol, Xalqobod, Olmazor, Navro‘z mahallalarida o‘tgan asrning 60-yillarida qurilgan 2 va 4 qavatli uylar mavjud. Ushbu uylarning 2 qavatlilari asosan pishgan g‘ isht, silikat g‘ isht va yi g‘ma temir- beton devorlardan iboratdir.

1. Jizzax shahrining "Madaniyat" mahallasida renovatsiyaga tushgan 2 qavatli turar joylarida yashovchi aholi to‘g‘ risida:

Jizzax shahrining "Madaniyat"mahallasi bosh rejaga asosan shaharning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 74,65 gekterni tashkil Ushbu hududda 76 ta 2 qavatli turar-joy binolari mavjud bo‘lib, ushbu turar- joylarda 970 ta xonadonda 3036 ta kishi yashaydi.

Jumladan: - 4 yo‘lakli 20 xonadonli turar- joylar 3 ta;

- 3 yo‘lakli 16 xonadonli turar- joylar 32 ta;
- 2 yo‘lakli 12 xonadonli turar- joylar 22 ta;
- Yo‘laksiz 12 xonadonli turar- joylar 2 ta;
- Yo‘laksiz 8 xonadonli turar- joylar 4 ta;
-Yo‘laksiz 6 xonadonli turar- joylar 13 ta.

2. Renovatsiyaga tushgan hududdagi mavjud daraxtlar to‘g‘ risida: Ushbu hududda mavjud daraxtlar soni jami 1764 tani tashkil qilib, shundan 1302 tasini ko‘chirib o‘tkashish mumkin bo‘lsa, qolgan 462 tasini ko‘chirib o‘tkazishning imkoni mavjud bo‘lmagan daraxtlardir.

3. Renovatsiyaga tushgan hududdagi mavjud turar va noturar-joy ob'ektlari to‘g‘ risida: Ushbu hududda jami 40 ta yakka tartibdagi turar-joy ob'ektlari va 17 ta noturar-joy ob'ektlari mavjud.

4. Qurilishi rejalashtirilayotgan ko‘p qavatli turar-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma ob'ektlari to‘g‘ risida:

Ushbu loyiha 3 boshqichda amalga oshirilishi mo‘ljallangan bo‘lib, bu davr 2025-2027 yillarni o‘z ichiga oladi.

Rejalashtirilayotgan loyiha doirasida (loyiha qiymati- 220,0 mln.dollarlik, shundan unvestitsiya qiymati - 200,0 mln. dollar) hududda jami quriladigan 16 qavatli 80 xonodonli turar- joylarning soni 45 ta, umumiy xonadonlar soni - 3600 tani tashkil etib, shundan, 1 xonalik (54,3 kv.m.) xonadonlar soni-720 (aholi soni- 2160 kishi)tani,3 xonali(81,5 kv.m.)xonadonlar soni-2880(aholi soni- 14400)ta bo‘lib, bu turar-joylarda yashaydigan aholi soni jami 16560 kishini tashkil etadi.

Qurilish, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va muxandislik tarmoqlarini barpo etishning barchasi zamonaviy, energiya tejamkor, arzon, mahalliy qurilish materiallaridan foydalanilgan holda xitoy texnologiyalari asosda olib borilishi mo‘ljallanmoqda.

Hududda loyiha qiymati - 18,0 mlrd. so‘mlik 1200 o‘rinli maktab va loyiha qiymati-6.0 mlrd. so‘mlik 160 o‘rinli maktabgacha ta'lim muassasasi qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bundan tashqari, tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan 2 ta yirik savdo kompleksi, 2 ta dam olish va ko‘ngilochar markazlari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish ob'ektlari, kafe-restoran va umumiy

ovqatlanish shahobchalari hamda yashil bog‘ va sayilgoh tashkil qilinishi rejalashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, Renovasiya - binolarni yaxshilashning samarali usuli. Loyihani rejalashtirishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, malakali mutaxassislarni jalb qilish va tegishli texnologiyalarni qo‘llash muhimdir. Renovasiya binoning qiymatini oshirishi, funksionalligini yaxshilashi va energiya samaradorligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бондаренко И.А. Реновация городской среды: М.; 2021г.
2. Гусева Г.В. Реновация и комплексное развитие территорий: сущность и взаимосвязь // Baikal Research Journal. 2023. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/renovatsiya-i-kompleksnoe-razvitie-territoriy-suschnost-i-vzaimosvyaz (дата обращения: 29.03.2024).
3. Ильясов, А.К. Современные подходы к реновации жилищных территорий / А.К. Ильясов. — Текст : электронный // NovaInfo, 2024. — № 143 — С. 11-13 — URL: https://novainfo.ru/article/20521 (дата обращения: 15.10.2024).
4. Тишков В. А., Агеева Е. Ю., Елагин Н. С. Методология архитектурно-строительной реновации. Монография. Нижний Новгород: ННГАСУ, 2021. ISBN 978-5-528-00459-4.
5. Альфажр М.А.К. Проблемы сохранения исторического облика здания при комплексной реновации памятника архитектуры // Вестник Белгородского Государственного Технологического университета им. В. Г. Шухова. 2016, Том 1, № 9. – С. 91–95.

XXI АСРДА НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ НАШР ЭТИЛИШИ

Kurbonov A.U.
SamDAQU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarini Turkiyada nashr etilishi borasida fikr yuritiladi. “Turk Dil Kurumu”– ТДК (Турк Тил Ташкилоти) нашриёти Навоий асарларини чоп этишда асосий ролни бажаради.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, nashr, asar, monografiya, Ogoh Sirri Levend, navoiyshunoslik, tadqiqot.

Туркияда Алишер Навоий асарларини чоп эттириш ишлари дастлаб Нежип Асим,{1} Фуад Кўпрулу,{2}Огоҳ Сирри Левенд{3}каби адабиётшуносларнинг тадқиқот ишлари билан бошланган бўлса, кейинчалик бу борадаги тадқиқотлар сезиларли даражада кўпайди. Навоий асарлари нашрлари бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилиши натижасида турк навоийшунослигида шоир асарлари нашрининг катта заҳираси юзага келди.

XXI асрда Туркияда Алишер Навоий асарларининг нашр этилиши бўйича бир қатор ибратли ишлар амалга оширилди. Энг қувонарлиси шуки, 2006 йилда Туркияда Навоийнинг барча асарлари тўлиқ нашр қилинди. Албатта, бунда турк навоийшуносларининг хизмати катта бўлди. Жумладан, турк навоийшуноси Айшехан Дениз Абик 2000 йилда Навоийнинг “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асари бўйича илмий тадқиқот олиб бориб, {4} 2006 йилда Навоийнинг мазкур асари юзасидан қилган илмий изланишлари натижасини асарнинг танқидий матни билан Анқарада чоп эттирди.

Туркиядаги таниқли навоийшунос олимлардан бири Камол Эраслан Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди юзасидан тадқиқотларини давом эттирди. Олим Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси бўйича ҳам йирик тадқиқот ишларини олиб борди. Натижада 2001 йилда ўз илмий изланишлари хулосаларини асарнинг танқидий матни билан бирга икки қисмли монография шаклида илм-фан оламига тақдим этди.

Навоийшунос олима Турон Хатижа Навоий “Хамса”сининг охирги достони “Садди Искандарий” устида олиб борган тадқиқотлари натижаси билан бирга асарнинг танқидий матнини 2001 йилда Анқарадаги “Turk Dil Kurumu”– ТДК (Турк Тил Ташкилоти) нашриётида чоп эттирди.

Туркиялик навоийшунос олимлардан Туркай Қоя Навоийнинг “Чор девон”идаги учинчи девон “Бадойеъ ул-васат” устида тадқиқот ишларини олиб бориб, 2002 йилда унинг танқидий матнини Анқарада нашр эттирди. Шунингдек, навоийшунос Уғур Кўрўғлу Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкирасини ва унинг устида олиб борган тадқиқотлари натижасини асарнинг танқидий матни билан бирга Анқарада 2002 йилда нашр эттирди.

Турк адабиётшунос олими Усмон Фикри Сартқоя таниқли шарқшунос Янос Экманнинг “Хоразм, қипчоқ ва чиғатой туркчаси ҳақида тадқиқотлар” монографиясини турк тилига таржима қилиб, уни нашрга ҳозирлади ва Анқарадаги “Турк Тил Ташкилоти” (“Turk Dil Kurumu”) нашриётида 2003 йилда Анқарада чоп эттирди.{5}

2003 йилнинг 15-17 октябрь кунлари Туркиянинг Эскишаҳаридаги Усмонғози университетида навбатдаги Халқаро чоғиштирма адабиёт конгресси бўлиб ўтди. Ушбу конгресс материалларини чоп этиш ишлари доирасида таниқли адабиётшунос Чапан Парвин Алишер Навоий ва Фузулийларнинг “Лайли ва Мажнун” маснавийларининг маъновий усуллари қиёсий таҳлили устида тадқиқот ишларини олиб бориб, 2005 йилда ҳар иккала шоирнинг “Лайли ва Мажнун” достонларини нашр эттирди.

Навоий асарларининг XXI асрда Туркиядаги нашрлари, асосан, қиёсий-чоғиштирма тадқиқотлар натижасида юзага келди. Турк навоийшунослари Ҳазрат Навоий асарларининг турли йилларда кўчирилган қўлёзма нусхаларини ўзаро чоғиштириш асосида тадқиқотлар олиб боришиб, уларни чоп эттирдилар. Жумладан, 2003 йилда Гўнай Қут, 2005

йилда Танжу Ўрал Сейҳан {7} ва Билге Ўзкон Налбант каби қатор олимлар тадқиқотларида бунга гувоҳ бўлиш мумкин. Гўнай Қут Алишер Навоийнинг “Ғарийб ус-сиғар” девонининг, Танжу Сейҳан “Сирож ул-муслимийн” асарининг, Билге Ўзкон Налбант эса “Наводир ун-ниҳоя” девонининг чоғиштирма матнини нашр эттирдилар.Аҳмад Картал Алишер Навоийнинг форсча девони устида махсус тадқиқот ишларини олиб борди. Навоийнинг форс тилида асарлари – ғазал ва рубоийларини таҳлил қилиб, уларнинг бадиий қиймати, форсий шеъриятда тутган ўрнини аниқлашга интилди ва ўз тадқиқотлари натижасини асар матни билан бирга 2003 йилда чоп эттирди. Юсуф Четиндоғ 2005 йилда Истанбулдаги Фотиҳ университети нашриётида “Алишер Навоий: ҳаёти, ижоди, асарлари” номли монографиясини чоп эттирди . Олим Навоий ҳаёти ва ижоди бўйича тадқиқотларини давом эттириб, турк навоийшунослиги тарихида салмоқли ўрин эгаллаган “Алишер Навоийнинг усмонли шеъриятига таъсири” номли қимматли монографиясини нашр эттирди . Бу асар ўзбек адабиётшунослари Нодирхон Ҳасан ва Роҳила Рўзмоновалар томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб, 2011 йилда Тошкентдаги “Muharrir” нашриётида чоп этилди . Олим Навоийнинг буюк хизматлари ҳақида тўлқинланиб гапирар экан, “...унинг энг буюк кашфиёти қарийб чеккага сурилиб қолган бир тилни жонлантириб, шу тилда гўзал санъат намуналари яратиши” эканлигини алоҳида эътироф этади. Олим Навоийнинг бу борадаги хизматлари ёшлигидаёқ муносиб баҳосини олганлиги ва номи бутун туркий оламда шуҳрат қозонганлигини, ҳатто асарлари ёзилган тилга “Навоий тили” деб берилиб, шеърий услубига “Навоий услуби” дейилганини қайд этади

Адабиётлар

1.Necıp Asım, “Hadis-i Erba’in Tercümeleri”, Millî Tetebbular Mecmuası,1915, sy. 77.

2. Fuad Köprülü, “Çağatay Edebiyatı”, İslâm Ansiklopedisi,1945, c. III, s. 270.

3. Agâh Sırrı Levend, Ali Şir Nevaî,I.cilt,Hayatı,Sanatı,Kişiliği,Ankara: TDK Yayınları, 1965.

4. Abik, Ayşehan Deniz, Hamsetü'l-Mütehayyırın: Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin, Doçentlik Takdim Tezi, Adana, 2000.

5. Eraslan, Kemal, Alí Şír Nevāyí: Mecālisü'n-Nefayis I (Giriş ve Metin), TDK Yay., Ankara, 2001; ўша муаллиф, Alí Şír Nevāyí: Mecālisü'n-Nefayis II (Çeviri ve Notlar), TDK Yay., Ankara, 2001

6. Ескманн Jonos, Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar, hzl. Osman Fikri Sertkaya, 2. baskı, TDK Yay., Ankara, 2003.

7. Tanju Oral Seyhan, Ali Şir Nevayı - Siracü'l-Müslimin (Giriş - Karşılaştırmalı Metin), Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, Aralık 2005, c. II, sy 4, s. 88-120.

JIZZAX SHAHRI BOSH REJASINI AMALGA OSHIRISH TENDENSIYALARI

Kuldashev Ergash Nurmurzayevich

Jizzax politexnika universiteti. Arxitekturaviy loyixalash kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaharsozlik, shahar qurilishi va tashqi tabiatning o‘zaro bog’liqligi, shaharsozlikning maishiy- iqtisodiy, sanitar- gigienik, texnik- qurilish va arxitekturaviy- badiiy vazivalari, shaharning shakli va shu asnoda Jizzax shahrining shu davrgacha ishlab chiqilgan bosh rejalari muhokama qilinadi

Kalit so‘zlar: Shaharsozlik, shahar qurilishi, shaharsozlik vazifalari, turar-joylar, ijtimoiy soha, rejalashtirish qismi, turar-joy massivlari.

Abstract: In this article are being considered urban planning, interdependence of urban planning and external nature, economic, sanitary and hygienic, technical and construction and architectural and artistic taks of urban planning, appearance of the city and developed master plans for the city of Jizzakh by this time.

Keywords: Urban planning, urban construction, urban planning tasks, rezidental buildings, social sphere, planning parr, residential arias.

Shahar qurilishi va tashqi tabiatning o‘zaro bog’likligi – shaharsozlikning asosiy fazifalaridan biridir. Ushbu masalalarning echimida shahar qurilishining aniq holatni va tabiatni hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Butun dynyodagi tashqi muhitning ifloslanishiga olib keluvchi ishlab chiqarishning intensifikatsiya (intensifikatsiya-bu biror bir sferaning rivojlanishi yoki effektiv yoki optimallashtirilgan jarayonlarning qo‘llanishi) jarayoni xalq xo‘jaligida tabiiy resurslarning ko‘proq jalb qilinishini taqoza etadi.

Shaharsozlik – bu shahar va aholi yashash hududlarining loyihalash va qurilishi bilan bog’liq holda rejalashtirilishi va qurilishi bo‘lib, bunda maishiy- iqtisodiy, sanitariya- gigienik, qurilish- montaj, transport va arxitekturaviy- badiiy echimlarini o‘z ichiga oladi.

Maishiy- iqtisodiy masalalar aholi joylashuvini shahar yoki aholi punktining kelajak istiqbollarini hisobga olgan holda, aholining o‘sishini oqlagan holda tabiiy va hududiy resurslarni effektiv foydalanish, madaniy- maishiy xizmatlarni tashkillastirish hisobiga hal etiladi.

Sanitar- gigienek vazifalari aholining sog’lom turmush tarzini tashkil etish bilan bog’liq bo‘lib, yashash hamda sanoat hududlari sanitar- himoya zonalarini aniqlash, ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha chora- tadbirlarni ishlab chiqish, shovqinga hamda ifloslanishga qarshi kurash, havo hamda suv havzalarini yaratishdan iborat.

Issiq iqlimli hududlarda sanitar-gigienek vazifalarning mufavvaqiyatli echimi sifatida tashqi muhitning optimal mikroklimatni yaratishga alohida urg'u berish zarur bo'ladi.

Texnik- qurilish vazifalariga aholi yashash punktining hududni muxandislik- geologiya shart-sharoitlarini o'rganish, zamonaviy qurilish texnologiyalari darajasini aniqlash, transport va piyodalar yo'laklarining to'g'ri tashkillashtirilishi, hududni muxandislik obodonlashtirish(suv,oqava-suv, issiqlik, gaz, elektr, aloqa tarmoqlari) ishlari kiradi.

Arxitekturaviy-badiiy vazifalar shaharning umumiy arxitekturaviy-rejalashtirish strukturasini aniqlashtirish bilan bo'g'liq bo'lib, magistrallar va ko'cha tarmoqlari, shaharning alohida qismlarining funksional tuzilmasi, shu bilan birgalikda tabiiy iqlim (rel'ef, landshaft, suv havzalari, yashil hududlar) sharoitlarini, milliy-maishiy urf-odatlarni,tarixiy-madaniy meros ob'ektlarini hisobga olgan holda shaharning markazining kompozitsiyasini shakllantirish kiradi.

Shaharsozlik fazivalarini echishda yuqoridagi shart-sharoitlarni kompleks holda echish asosiy shartlaridandir. Masalaga kompleks holda qaramaslik aholining ish sharoiti, maishiy ta'minganlik va dam olishi meyyorlarining buzilishiga olib keladi.

Shaharsozlik insonning faoliyati davomida jamiyatning rivojlanish shartlariga qarab doimo shakllanib keldi.

Shaharlar vaqt oralig'ida tarixan rivojlanib, jamiyatning ehtiyojiga qarab shaklini o'zgartirib borgan. Tashkil etilgan shaharlar o'z navbatida jamiyat yashash tarziga qarab unda yashovchilarning dunyoni tushunishiga ta'sir qilib keldi.

Shaharning shakllanishida ijtimoiy va funksional shartlar bilan birgalikda tabiiy shart-sharoit va mikroklimat asosiy omillardan hisoblanadi. Geografik omillar jamiyat rivojlanishining tabiiy bazasi bo'lishi bilan birgalikda insoniyat ga doimiy ta'sir qilib keladi.

Geografik muhit jamiyat rivojlanishining tabiiy asosi sifatida doimo insoniyatga o'z ta'sirini o'tkazib keladi, tabiatning har xil xarakterdagi ko'rinishi muhitning shakllanishiga olib keladi, ya'ni rivojlanishni tezlatadi, yoki aksincha sekinlatadi.

Shaharning shakli- bu faqatgina fuqarolarning qayta joylashuvi bo'lib qolmay, bu yangi, funksional tashkil etishning maishiy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, iqlim va boshqa faktorlarning murakkab strukturasidir.

Shahar va moddiy ma'naviyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Shaharning tez o'sishi unda urbanizatsiya va sanoatlashtirish, moddiy va ma'naviy qadriyat hamda barcha aloqalarning kuchayish jarayoni sodir bo'ladi.

Jizzax shahrining dastlabki bosh rejasi 1974-yilda Jizzax viloyati tashkil etilganda ishlab chiqilgan bo'lib, 1993, 2010- yillarda qayta (korrektirovka) ishlab chiqildi va amalga oshirilib kelindi. Barcha bosh rejalar "O'zshaharsozlik LITI" instituti tomonidan ishlab bchiqildi.

Jizzax shahrining navbatdagi bosh rejasi "O'zshaharsozlik LITI"davlat muassasasing Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish boshqarmasi tomonidan quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqildi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11- sentabrdagi 299-sonli qarori;
- Jizzax viloyati Qurilish va yu-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 2023-yil 13-sentabrdagi 01-05/11641-son buyrtma xati;
- Buyrtmachi va "O'zshaharsozlik LITI"DM o'rtasida 2023-yil 29-noyabrda tuzilgan 85/GP-6-son shartnoma;

Muxandislik- geologiya tadqiqotlar hamda topografik xarita 2023-yilda "O'zGAShK"davlat unitary korxonasi tomonidan 1:10000 miqiyosda ishlab chiqilgan.

Loyihani ishlab chiqishda shaharning tuman va viloyatdagi geografik joylashuvi, hududning rel'efi, seysmik va geologic xusisiyatlari, shamol yo'nalishi, mavjud tabiiy resurslar, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlanganlik holati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, buyrtmachi, tuman hokimligi, tegishli idora va tashkilotlar, mahalla idoralaridan olingan ma'lumotlar inobatga olindi.

Shaharning mavjud holati

Jizzax shahri Jizzax viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, viloyatning markaziy qismida joylashgan. Viloyatning sharqida joylashgan bu shahar viloyatning boshqaruv, iqtisodiy va ma'naviy markazi hisoblanadi. U viloyatning asosiy transport yo'llari va iqtisodiy aloqalarini birlashtiruvchi markaz sifatida muhim ahamiyatga ega.

Jizzax shahridan viloyatning turli hududlariga, jumladan tog'li va tekislik hududlariga yo'llar orqali etib borish oson, bu esa viloyatning boshqa shahar va qishloqlari bilan bog'lanishni ta'minlaydi.

Jizzax sharqdan Samarqand viloyati, g'arbdan esa Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Jizzax shahrining mavjud chegara hududi 6520,0 gektarni tashkil etadi. Natijasida, bosh rejada belgilangan hududiyv rivojlanish yo'nalishlari amalga oshmaganligini ko'rish mumkin.

Shaharning tabiiy xususiyatlari uning tog' etaklarida joylashganligi bilan bog'liq bo'lib, shahar muhitining rivojlanishining umumiy yo'nalishi shimolga biroz qiyalik bilan shimoliy-sharqiy tomonga kengaymoqda. Shaharning asosiy hududi tekislik hududidan, A.Temur va Sayxon mahallalari atrofidagi adirliklardan iborat.

Janubiy- g'arbiy tomondan, shahar hududi orqali, tog' etaklari hududida shaharning arxitektura va rejalashtirish tizimi va ekologiya holatiga ta'sir ko'rsatadogan Sangzor daryosi shimoliy yo'nalaishga oqib o'tadi.

"Toshkent- Jizzax- Samarqand" magistral temir yo'li shahar hududining janubiy- sharqiy va jnubuy chekkalaridan o'tadi.

Tarixiy jihatdan shaharning turar-joy maydoni turli xil rivojlanish davrlarida paydo bo'lgan ikkita rivojlanish shakllanishini ifodalaydi, ya'ni, eski qismi shimolda, O'rda atrofi hududida, yangi qismi esa temiryo'l vokzaliga tutash hududda paydo bo'lgan. Keyingi yillarda shaharning janubiy-g'arbidsgi

A.Temur mahallasi va viloyat markazidan janubda joylashgan Sayxon shahar posiyolkasi Jizzaxga qo‘shib olindi.

Shaharni bog’laydigan asosiy transport yo‘nalishlari Sh.Rashidov va I.Karimov prospektlaridir.

Shahar hududi turar-joy va sanoat hududlariga bo‘linadi:

Turar-joy hududlari shaharning markaziy, shimoliy, g’arbiy va janubiy qismlarini egallagan;

Sanoat hududi esa 2 ta hududdan, ya’ni, shaharning sharqida joylashgan “Jizzax EIZ” hamda janubiy-sharqiy qismidagi sanoat hududlaridir.Shuningdek, turar- joy hududining mahalla va mikrarayonlari hududlarida engil va qurilish sanoatiga oid ob’ektlar ham o‘rin olgan.

Turar - joy massivi Sh.Rashidov shoh ko‘chasi bo‘ylab shakllangan shaharning markaziy o‘zagi hisoblahgan jamoat markaziga ega ixcham tuzilma hisoblanadi.

Turar - joy fondi markaziy hududda joylashgan 2 va 9 qavatgacha bo‘lgan turli darajadagi turar-joy binolarini bir va ikki qavatli individual qurilishdan iborat turar- joy mikrohududlari qamrab olgan.

Jizzax shahri yashil hududlari, bog’lari va ekin maydonlarini asosiy sug’orish manbai Sangzor daryosi hisoblanadi. Daryoning boshlanish joyi dengiz sathidan 1900 metr balandlikda joylashgan Jantike va Guralash nomli buloqlar hisoblanadi.

Daryo qor va buloqlardan, yomg’ir mavsumida esa tog’ qiyaliklaridan daryoga qo‘shiladigan suvlar orqali to‘yinadi. Yilning eng yomg’irli mavsumida (mart, aprel) daryo suvi doimoy ko‘tarilib boradi hamda may oyiga kelib tog’dagi qorlarning shiddatli erishi natijasida daryo o‘zining maksimal suv sarfiga ega bo‘ladi.

Daryoninig o‘rtacha suv sarfi - 2,29m3/sek., maksimal suv sarfi- 33,7 m3/sek., minimal suv sarfi esa - 0,43 m3/sek. ni tashkil etadi.

Sangzor daryosining eng yuqori suv sarfi 1968-yilda kuzatilgan va 415,0 m3/sek. ni tashkil etgan.

Bugungi kunda Jizzax shahri va atrofidagi erlarni Sangzor daryosidan suv oluvchi bir qancha kanallar orqali sug’oriladi. Bulardan asosiylari: O‘ng qirg’oq-1, O‘ng qirg’oq-2, Eroni, Quliniyoz, Qangli, Qaliya, Saroylik va Ravotlik kanallaridir.

Bundan tashqari shahar hudidida ushbu kanallardan suv oluvchi bir qancha magistral sug’orish tarmoqlari mavjud. Ushbu sug’orish tarmoqlarining maksimal suv sarvi 1,0m3/sek. dan oshmaydi.

Shaharning markaziy ko‘chalaridagi irrigatsiya tarmoqlari temirbeton qoplamalar bilan qoplangan, ichki ko‘chalardagi irrigatsiya tarmoqlari ham qisman temirbeton qoplamalar bilan qoplangan, lekin bu ariqlarning aksariyat qismi qoniqarsiz holatda. Bunga sabab ariqlarning avtomobil yo‘llari bilan kesishgan joylaridagi quvurlarning to‘lib qolganligi, suv olish va suv tanlash inshootlarining yo‘qligi, ko‘p ariqlarning suv tanlash joylari to‘silganligi va boshqa sabablarni kuzatish mumkin.

Bosh rejaninig loyihaviy echimi

Jizzax shahrining bosh rejasini ishlab chiqishda loyihachilar tomonidan aholi punktining iqtisodiy, sanoat va hududiy salohiyati hamda aholining o‘sishi suratlari kabi ko‘rsatkichlar inobatga olingan.

Shaharsozlik va ijtimoiy- iqtisodiy masalalarda shaharning xalq xo‘jaligi, sanoat salohiyati, ishchi resurslari, tabiiy-ekologik muhitining rivojlanishi yo‘nalishi bilan bog’liq.

Aholi va hududi:

- ma’muriy jihatdan shahar hokimligiga bo‘ysinadigan aholi punktlari hamda shahar tarkibiga qo‘shilayotgan hududni hisobga olgan holda aholi sonining hisobiy davrdagi o‘sishi 460,0 ming kishi;

- hisobiy davrga shahar chegarasi o‘sishi – 12703,0 gektar.

Yu-joy qurilishi va yu-joy fondi:

-yu-joy fondining umumiy maydoni 3048,88 ming kv.m.qo‘shilishi bilan hisob davrida 9660,0 ming kv.m.ga;

-ymumiy yu-joy bilan ta’minlanishi 15,9 kv.m/kishi dan 21,0 kv.m./kishiga;

-hisob yu-joy fondining qisqarishi - 447,0 ming kv.m., shaharning umumiy turar-joy fondining 9% ni tashkil etadi.

Hisob davriga yu-joy fondining qavatlar kesimida quyidagicha taqsimlanadi;

1-qavatli yakka tartibdagi turar-joylar - 3822,68 ming kv.m., ya’ni- 39,6% ni,

2-qavatli hovlili turar-joylar – 304,1 ming kv.m., ya’ni- 3,2 % ni,

2-qavatli yo‘laki (seksiyali) turar - joylar - 59,4 ming kv.m., ya’ni - 0,6% ni,

4-5 qavatli turat- joylar - 2993,45 ming kv.m., ya’ni - 30,9% ni,

7 -9 qavatli turar -joylar – 678,66 ming kv.m., ya’ni – 7,0% ni,

9 -12 qavatli turar – joylar – 1396, 35 ming kv.m, ya’ni – 14,5 % ni,

16-qavatdan ortiq turar – joylar – 405,36 ming kv.m., ya’ni – 4,2% ni tashkil qiladi.

Ijtimoiy soha: Aholining ijtimoiy soha ob’ektlariga bo‘lgan talabi amaldagi me’yorlarga moslashtirish maqsadida shuvsohadagi ko‘rsatkichlar loyiha hisob davriga quyidagi tarzda o‘zgaradi:

-maktabgacha ta’lim muassasalari – 29440 o‘rin;

-o‘rta umumta’lim maktablarida – 78200 o‘rin;

-kasalxonalarda – 11413 o‘rin;

-poliklinikada smenada – 18460 o‘rin;

-savdo do‘konlarida – 134500,0 kv.m. savdo maydoni;

-umumiy ovqatlanishda – 31250 o‘rin;

-klub, madaniyat saroylarida – 18685 o‘rin;

-kinoteatrlarda – 12205 o‘rin;

-mexmonxonalarda – 2760 o‘rin;

-maishiy xizmat punktlarida – 3695 ishchi o‘rni yaratilishi hisobga olingan.

2010 - yilda ishlab chiqilgan bosh rejada Jizzax shahrini shimoliy, shimoliy- sharqiy, yo‘nalishlarda hududiy rivojlantirish yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib,joriy loyihada ham ushbu yo‘nalish saqlanib

qolgan.Shahar tarkibidagi A.Temur va Sayxon mahallalarining shahar hududida saqlanib qolishi munosabati bilan yangi bosh rejaga hudud janub va janubiy-g'arbiy yo'nalishda ham rivojlanishi belgilab berilgan. Shahar janubiy yo'nalishda sug'orilmaydigan erlarda qurilgan ko'p qavatli "Yangi O'zbekiston" majmuasini ham shahar hududiga kiritilishi ko'zda tutilgan.

Shaharning hududiy va son jihatdan o'sishi shimoliy- g'arbiy, shimoliy- sharqiy va janubdagi turar-joy massivlariga yaqin tutashgan Sh.Rashidov tumanidagi 24 ta mahallaning qo'shib olinishi hisobiga sodir bo'ladi. Hozirda shaharda 34 ta mahalla mavjud. Natijada viloyat markazining aholisi hisobiy davr(2043-yil)ga o'sishi 460,0 ming kishini, hududi 12850,0 gektarni tashkil etadi. Jizzax shahri aholi punktlari guruh tizimining markazi bo'lib, bu uning rejalashtirish tuzilmasida va uning viloyat markazi tomon rivojlanishi bilah magistral ko'chalar tarmog'i qurilishida o'z ifodasini topadi. Ushbu magistral ko'chalar tarmog'i Uchtepa MFY, Sayxon MFY va A.Temur MFYlar bilan bog'lash bilan birgalikda Samarqand va Toshkent viloyatlari bilan ham bog'laydi.

Shahar hududi, avvalgi bosh rejalardagi kabi, turar-joy va sanoat zonalaridan iborat. Sanoat zonasi mavjud sanoat zonalari negizida rivojlantirilmoqda.

O'z navbatida, turar- joy zonasi ma'muriy- iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy, sog'liqni saqlash va turar joy hududlariga bo;linadi.

Shahar hududi 4 ta rejalashtirish qismiga bo'lingan.

-birinchi rejalashtirish qismi Jizzax shahrining sharqiy, shimoliy- sharqiy hamda janubiy-sharqiy markaziy hududi qismlarini qamrab oladi va mehnat, dam olish, tibbiyot va ta'lim muassasalarini o'z ichiga olgan turar-joy, ishlab chiqarish, ma'muriy, sport va boshqa funksional zonalar majmuasidan iborat. Ushbu qism bosh rejada 15 ta turar-joy massiviga bo'libb ishlabbchiqilgan;

-ikkinchi rejalashtirish qismi shaharning shimoliy-g'arbiy, g'arbiy hamda markaziy qismlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qismda ham turar-joy, dam olish, tibbiyot va ta'lim muassasalarini o'z ichiga olgan, ma'muriy, sport va boshqa funksional zonalar majmuasidan iborat. Ushbu rejalashtirish qismida yangi sanoat zonasini tashkil etish rejalashtirilgan.

-uchinchi rejalashtirish qismiga g'arb tomonga rivojlangan bo'lib, mavjud A.Temur MFY dan iborat Xayrobod, Tuyoqli, Kattaqishloq, Sharilloq, Oqtoshota (Yangi O'zbekiston) MFYlari kiradi;

-to'rtinchi rejalashtirish hududi janubiy qismga rivojlangan bo'lib, ushbu qismga Xayrobod, Tuyoqli, Kattaqishloq, Sharilloq, Oqtoshota MFYlari hamda Yangi O'zbekiston massivi kiradi;

Umumshahar avtomobil yo'llari tizimi shaharning mavjud asosiy ko'chalar tarmog'ini rivojlantiradi va tartibga soladi. Bu shaharning yangi turar-joy massivlarini yaratish va ularni bir butunga birlashtirish imkonini beradi.

Shu maqsadda shaharning mavjud avtomobil yo'llari bilan bog'langan shahar miqyosidagi avtomobil yo'llarni yaratish, keyinchalik Paxtakor, Samarqand, G'allaorol, Uchtepa va Bog'don shaharchalari bilan bog'lashdan iboratdir.

Shimoliy aylanma yo'lning yaratilishi O'zbekiston Milly avtomagistralidan Forish tumani tomon kelayotgan transit transport vositalarining shaharni aylanib va o'tishi hamda qo'shni aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini beradi.

Umumshahar markazining joylashuvi markazda saqlanadi va Sh.Rashidov shoh ko'chasi bo'ylab G'arbiy rejalashtirish hududida shakllanadi.Shuningdek, shaharning shimoliy- g'arbiy yo'nalishidagi umumiy rivojlanishi va shaharning shimoliy-sharqiy qismida rejalashtirish hududining yangi markaziga mos ravishda umumshahar markazi tizimi rivojlanadi. Tashqi transport ob'ektlari ham o'z hududlarida saqlanib qolgan avtomobil transporti ob'ektlari (avtovokzal, avtoshohbekat, yo'llarga xizmat ko'rsatish shahobchalari) aholini ushbu xizmat turlari bilan ta'minlash maqsadida tuzilgan hisob- kitoblarga muvofiq bosh rejada yanada rivojlantirilishi ko'zda tutilgan.

Shaharning arxitektura va tarixiy qismlari ikki hududda joylashgan. Ulardan biri sharqiy rejalashtirish hududining shimoliy qismida sobiq O'rda qal'asi o'rnida joylashgan bo'lib, Jizzax qo'zg'oloni qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasi hududidur. Ikkinchisi esa, "B"sanoat zonasida joylashgan bo'lib, "Qaliya tepa" deb nomlangan tepalik hududi bo'lib, u erda vaqti-vaqti bilan arxeologik qazishmalar olib boriladi. Ushbu tarixiy obidalar atrofida qo'riqlanadigan zonalar mavjud.

Shaharda turar-joy qurilishi har xil turdagi ko'p qavatli (7 qavat va undan yuqori), o'rta (4-5) qavatli, past (2-3) qavatli, shuningdek 1-2 qavatli turar-joylar rejalashtirilgan. Bosh rejada shuningdek, 400 m2 gacha bo'lgan 2 qavatli turar- joy binolarini asosan tuman ahamiyatidagi avtomobil yo'llari bo'ylab rekonstruksiya qilish zonalari hamda shaharning shimoliy qismida qurish taklif etilgan.

Shuningdek "ND Imar Tigaret" (Turkiya) loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan master-rejalar ham bosh rejada inobatga olingan. Ushbu loyihada shaharning Jizzaxlik, Qassoblik, Sayiljoyi, Zargarlik, O'ratepalik, Toshloq, Obod, A.Navoiy, Sangzor, X.Olimjon va Navro'z mahallalaridagi bir qavatli yakka tartibdagi va 2 qavatli yo'lak (seksiya)li turar-joylarni renovatsiya qilish ko'zda tutilgan. Ya'ni ushbu hududlarda ko'p qavatli (4 va 16 qavatgacha) turar-joylar ijtimoiy soha rivojlanishini inobatga olgan holda bosh rejada loyihalashtirilgan.

Bosh rejada Sangzor daryosining qirg'ogi bo'ylab aholi dam olish maskanlari rejalashtirilgan. Daryoning yashil qirg'oqlari bo'ylari mavjudligi iqlim sharoitiga foydali ta'sir ko'rsatadi va shahar aholisining turmush darajasining yaxshilanishiga yo'rdam beradi.

Shahardagi umumiy yashil maydonlar O'rda hududidagi, ko'chadagi mavjud markaziy bog'lar bilan ifodalanadi. I.Karimov, Sh.Rashidov, shuningdek, turar- joy massivlari bog'lari, turat-joy va rejalashtirish

massivlari markazlarini bog'lovchi asosiy piyodalar yo'llari bo'ylab yashil xiyobonlar hisobidan tashlik etilishi rejalashtirilgan.

Bosh reja mavjud qabristonlarni ularning atrofidagi uy-joylardan sanitar- himoya hududlarini bosqichma-bosqich shakllantirish bilan yopishni rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, kanal, ariq va kollektorlarning sanitar-himoya hududlarini ko'kalamzorlashtirish orqali tashkillashtirish ko'zda tutilgan.

Jizzax shahrining yangidan ishlab chiqilgan bosh rejasini o'rganish natijalarida shu narsalar ayon bo'ldiki, bu masalalarga jiddiy qaralishini taqoza etadi. Bular birinchi navbatda hozirgi texnikalarning shiddat bilan rivojlanayotganligini hisobga olib, bosh rejada transport oqimini har bir massivlar,ko'chalar kesimida kelajakni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, bunda avtomobillar turar joylari va garajlarning joylashuv sxemalarini ishlab chiqish, butun shahar bo'ylab yillar davomida qarovsiz qolgan sug'orish va irrigatsiya tizimlariga alohida e'tibor qaratishni taqoso qiladi. Shaharning ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan zaharli unsurlar va transport vositalaridan hosil bo'layotgan gazlar ta'sirini kamaytirish maqsadida hamda "yashillik" darajasini ko'paytirish va normallashtirish maqsadida shahar atrofida belbog'lar, jumladan g'arbiy yo'nalishdagi qir-adirlarda o'rmonzorlar yaratish fazifalari yotadi.

Xulosa: O'z- o'zidan ma'lumki, yuqorida sanab o'tilgan muammolar issiq iqlim sharoitida shaharsozlik sohasidagi ilmiy rivojlanishning murakkab jarayonini batamom tugatmaydi. Fan va texnika taraqqiyotining hozirgi boshqichidagi muammolarning muhim qismini haligacha hal qilib bo'lmaydi. Bugun biz hali ob-havoni tartibga solish, iqlimni o'zgartirish, quyosh energiyasidan xalq xo'jaligida yetarlicha foydalanish imkoniyatiga ega emasmiz.Biroq, bu borada ilm-fanning jadal rivojlanishi muammoni muvaffaqiyatli hal etish garovidir, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Груздев В.М.Основы градостроительства и планировка населенных месть. Нижный Новгород.2017

2.Римша.А.Н.Градостроительство в условиях жаркого климата.Москва. Стройиздат .1979

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027 yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora- tadbirlari to'g'risida" gi PQ-299-sonli qarori.11.09.2023

4."O'zshaharsozlik LITI" DM materiallari, 2024.

5.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining Qarori. Toshkent. 25.11. 2021. 1563-IV-son.

6.Наглядные альбомы студенческих работ выполненные на кафедре «Истории и теории архитектуры» ТАСИ, 1980-2002 гг.

7.Адамовичус В.П., Шештокас В.В., – Гаражи и стоянки. М.: Строиздат, 2004. -214 с.

8.Аюкасова Л.К. Основы проектирования станций технического обслуживания легковых автомобилей. Учебное пособие. – Оренбург: ГОУОГУ, 2003 -106 с.

9.Рожина И.Е. Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений: М.: Стройиздат., 1995 г. 458-471 с.

SHAHRISABZ SHAHRI ME'MORIY IMORATSOZLIK MADANIYATI SHAKILLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Tursunov Siroj Urolovich,
Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Mazkur Maqolada arxiologik tadqiqotlar IV-III asrlarda Sharisabz shahar markazida uy-joy imoratlarini, istehkomlar va jamoat binolari tahlil qilingan.O'sha davr imoratlar farqli ravishda, asosan yarim yerto'ladan va yengil bostirmali imoratlardan iborat va antik davriga xos bo'lgan kvadrat shaklidagi xom g'ishtlardan foydalanilgan.Sahrisabz shahri me'moriy rivojlanishi davrlarga bo'lib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kesh, Kitob,paxsa, devor, imorat, istehkom, qo'rg'on, darvoza.

Kirish.O'rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog'ining janubiy yonbag'irlaridan boshlanib,hozirgi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor, O'radaryo vohasi yerlarini o'z ichiga olgan. Uning markaziy shahri Shahrisabz Kitobda rivoj topgan.

Zarafshon tog' tizmasi Sho'robsoy bo'yida Sangirtepa, Uzunqir va Podayoqtepa yodgorliklari tekshirilgan. Sangirtepa o'rnida saroy shaklida qurilgan katta bir inshoot qoidiqlari o'rganilgan. Sangirtepadan 650 km shimolroqda, Sho'robsoy qirg'ogida Uzunqir xarobalari joylashgan.yodgorlining katta qismi tekislanib shudgor qilib yuborilgan, faqat janubi-g'arbiy tomonida mudofaa devorining 450 m ga teng qismi saqlanib qolgan. Tadqiqotlar davomida devorning tashqi tomonida shaharga kirish joyi va shinaklari bo'lgan burjlar qoldiqlari ochib o'rganildi.Burj xonasi devorlari va sathi somon bilan suvalgan.Sathda sapol siniqlari va bironzadan ishlangan kamon o'qi topildi. Shunigdek yodgorlildan mil.avv.VII-IV asrlarga taluqli sapol idishlar yig'ib olindi. Devor xarobalari balandligi 6 m qalinligi asosida 26 m ga tengdir. Mudofaa devorining o'rganish davomida to'g'ri burchak shakildagi rejaga ega bo'lgan burjlar ochilganda ularning ichida xonalar bo'lganligi aniqlangan. Burjlarning tashqi tomonida pilyastra (to'rtburchak

shakildagi yarim ustun), ustunlardan esa nayza shakildagi aldamchi shinaklar bo‘lgan.

Arxologik tadqiqotlar ko‘rsatilishicha mill. avv. IV-III asrlarda Sharqiy Qashqadaryoga uy-joy imoratlarini, istehkomlar va jamoat binolaridan farqli ravishda, asosan yarim yerto‘ladan va yengil bostirmali imoratlardan iborat bo‘l-gan. Bu majmualarda paxsa va antik davriga xos bo‘lgan kvadrat shaklidagi xom g’isht uncha baland bo‘lmagan devorlar va sandallar uchun ishlatilgan. Masalan Podayoqtepa devori ichida o‘zaro bog’lanib ketgan bostirmalar ustiga uy-joylar majmualari gurihi joylashgan. Bostirma ustida shax shabba va qamish tashlanib, loysuvoq qilingan.

Shahrisabzdagi uy qoldiqlari topilmasi. mil. avv. IV-III asr



1-rasm. (Shahrisabzdagi uy qoldiqlari mil. avv. IV-III asr)

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida 30 dan ortiq qal’alar , uy qo‘rg’onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog’ tog’lari yonbag’irida joylashgan. Daratepada mill avv. VII-IV asrlarga oid g’isht va paxsadan qurilgan uy–joylar qazib ochilgan [2].

XVI- XIX asrlarda Shahrisabz va Kitob Qashqadaryo vohasining yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri edi. Shahar XIV asrda Amir Temur davrida devor bilan o‘rab olinib mustahkamlangan “Shahrisabz” atamasining kelib chiqish

to‘g’isida turli fikrlar mavjudligiga qaramasdan, uni “yashil shahar” deb talqin qilish umum qabul qilingan. Yevropalik mualliflarning o‘rganilayotgan davriga oid asarlarida shahar nomi turlicha (Shahrisabz, Shar) ishlatganini ko‘rishimiz mumkun. Amir Temur va Temuriylar davrida musulmon sharqning obod shahriga aylangan, Shahrisabzga Shayboniylar davrida (XVI asr) ham Qashqadaryo vohasining bosh shahri sifatida qaraldi, u keng maydonga, aniq tuzilishga, baland devor va burjlardan iborat mustahkam mudofaa tuzimiga ega edi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Shahrisabz shahri me'moriy imoratsozlik madaniyati shakillanish tarixining o‘ziga xos xususiyatlarini mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shahrisabzga bir nechta bozor mavjud bo‘lib, asosiysi shahar bozori bek o‘rdasining janubida joylashgan. Bu joyda hozirgi paytda ham savdo inshooti Chorsu saqlanib qolgan. Mutaxasislar fikricha, bu bino XV asr oxiri- XVI asr boshlarida barpo etilgan [1].


XVIII-XIX asrlarda Shahrisabz paxsa devor bilan o‘ralgan bo‘lib, olti darvozaga ega bo‘lgan. Bular quyidagilardir:

Shimoliy darvoza – Kitob darvoza yoki ark darvoza deb ataladi. Birinchi nom ushbu darvoza orqali o‘tgan Kitobga olib boruvchi yo‘l bilan bo‘liq bo‘lsa, ikkinchi nom darvozaning Shahrisabz begi Qo‘rg’oni yonida joylashganligi bilan bo‘liq.

Sharqiy darvoza-Kunchiqar darvoza;

G’arbiy darvoza - Kushxona yoki Chiroqchi darvoza. Ushbu darvoza Chiroqchiga olib boruvchi yo‘l o‘tgan.

Janubiy darvoza – Charmgar yoki Yakkabog’ darvoza. Darvozaning birinchi nomi ushbu guzarlar bilan, ikkinchi nomi darvoza orqali o‘tgan Yakkabog’ga boruvchi yo‘l bilan bog’liq.



2-rasm.(Shaxrisabz shaxri markazi rejasi XV-XIX asrlar)

Kitob hudidida ancha mustahkam uylar qurilgan, ular, odatda, maxsus asos ustiga joylashgan. Milodga yaqin, butun o‘rta Osiyodagi singari, sharqiy Qashqadaryoda ham qurilishda yoppasiga xom g’isht ishlatilishiga o‘ta boshlagan. Bunda shahar madaniyatining rivojlanishi va uning xususyatlarining qishloq joylariga yoyilishi katta rol o‘ynagan. Antik davrda uylar, odatda har xil vazifani bajaruvchi bir nechta xonadan iborat bo‘lgan. Maydoni 20-30 kv.m gacha borgan turar joy xonalaridan tashqari, unga albatta xumxona kirgan. Xumxonada (8-12kv.m) devor yonida yarmigacha yoki bo‘g’zigacha yerga ko‘milgan, don, un, moy, sharob saqlanadigan bir necha xum bo‘lgan. Ba’zi xumlar turar joy xonalarining ichiga joylashtirilgan.Bu xumlarning ayrimlarida, hatto go‘sht ham saqlangan, ular o‘zga xos “sovutgich” vazifasini o‘tagan. Turar joylar kirish ro‘parasida devor yonida

paxsadan ishlangan, uncha baland bo‘lmagan kvadrat o‘choqlar yordamida isitilgan. Xonalarning derazasi bo‘lmagan ko‘rinadi. Hovliga olib chiquvchi eshiklar, odatda, ostonaga mahkamlangan yon ustunga o‘rnatilgan.

Imoratni tiklash jarayonida turli usullar qo‘llanilgan, materiallar almashib ishlatilgan. Xona devorlari yerga bir oz chuqur kirgan yoki, ko‘pincha poydevorsiz, tekislangan maydoncha ustiga ko‘tarilgan. Xonalar orasidagi par devorlar qalinligi 75-80 sm bo‘lib kvadrat shakilli yoki g’isht yoki bir paxsa eniga to‘g’ri kelgan.Par devor paxsadan ko‘tarilsa , g’adir-budurni yo‘qotish uchun tomigacha yolamasiga terilgan xom g’isht bilan qoplangan.Tashqi devorga tomning asosiy yuki tushgani uchun, u ancha qalin bo‘lgan. Bir qator hollarda ayvonda hamda keng xonalarda yog‘ochdan, pishiq yoki xom g’ishtdan qo‘shimcha ustunlar ko‘tarilgan.Bu antik davrda Sharqiy Qashqadaryoda tomonlari o‘rtacha 30-45 sm, qalinligi 10-15 sm kvadrat xom g’isht ko‘p ishlatilgan.Uning bichimi, avvalo, qalinligi asta sekin kichrayib borgan.

IV asr oxiri- V asr boshiga kelib esa to‘g’ri burchali g’ishtdan foydalanishga o‘tilgan. Paxsa buloklar va xom g’isht orasiga loy qorishmalar ishlatilgan, ba’zida g’isht va paxsa almashib ishlatilgan. Monolit paxsa devordan asosan qishloq manzilgohlarida foydalanilgan. Sharqiy Qashqadaryoning antik davrida me’morchilik va qurilish texnikasi Baqtrya va yanada ko’proq Markaziy So‘g’d texnikasiga mondand bo‘lgan, buning sababi viloyat giyografik jihatdan O’rta Osiyoning mazkur ikki madaniy markazi oralig’ida joylashganidadir [2].

Lekin XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligidagi keskin siyosiy vaziyat va o‘zaro feodal urishlar natijasida Shahrisabz xarob ahvolga kelib qoldi. Bu inqiroz davri XVIII asrning o‘rtlarigacha davom etdi. Kenagaslardan bo‘lgan beklar, ayniqsa, Nazarbek davrida shahar yangidan qad rostladi. Uning davridan shaharning janubiy tomonida, Amir Temur davri devoridan 450 metr ichkarida yangi devor qad ko’tarib, shahar XIV –XV asrlardagiga nisbatan ancha qisqargan bo‘lsada, unda hayot yangidan tiklandi. Shahar devorining sharqiy, shimoliy g’arbiy devorlari qayta ta‘mirlandi. Shu davrda shahrisabz o’z tuzilishiga ko’ra uch qisimdan bek O‘rdasi, Qo‘rg’on ya’ni bevosita shahar va shahar bilan bir tarkibiy jihatdan bo’langan shahar atrofi qismlardan tashkil topgan edi. Bek qo‘rg’oni shaharning shimoliy – sharqiy burchagida joylashgan. Xalq orasida u Shahrisabz Afrasiyobi nomi bilan mashhur bo‘lgan. Qo‘rg’on ikkita darvozaga ega bo‘lib, janubiy tomonidan ko‘k darvoza, sharqiy tomondagi ikkinchi darvoza esa To‘pxona darvoza deb atalgan. Qo‘rg’on oldida shaharning asosiy maydoni Registon joylashgan [1].

Shahar qo‘rg’oni to‘g’ri to’rtburchak tuzilishda bo‘lib, shimoldan janubga qarab cho‘zilgan va guzarlarga bo‘lingan.Ular to‘g’risida dastlabki ma’lumotlar XIX asr rus mualliflari asarlarida uchraydi. Xususan A.A.Kun Shahrisabznung 14 ta guzarga bo’linishi to‘g’risida yozadi. Uning bu boradagi ma'lumotlariga keyinchalik aniqlik kiritildi. Jumladan 1948 yilda Shahrisabz etnografik tatqiqotlar olib brogan. O.A. Suxareva Shahrisabz 14 ta emas 52 ta guzarga bo‘lingani aniqladi. Shahrisabz guzarlari, ularning aholisi tarkibi, hunarmandligi kabi masalalar ham ushbu olima tomoidan ancha batafsil yoritilgan.

So‘ngi o‘rta asrlarda shaharda 6 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan. Afsuski ularning ko‘pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Bu davrda Shahrisabzda yettita karvonsaroy ham mavjud edi. Saqlanib qolganlari ichida XVI asrda barpo etilgan Koba karvonsaroyi o‘zining yirikligi bilan va hashamatligi bilan ajralib turadi. Bu yerda hozirgi paytda shahar o‘lkashunoslik muzeyi joylashgan. Aholi shahardagi ikkita hammomning vujudga kelishi davrini bekliklar davri, ya’ni XVIII- XIX asrlar bilan bog’laydi. Lekin tadqiqotchilarning fikricha, ular ancha ilgari, hatto Samarqand va Buxorodagi hammomlardan oldin bunyod qilingan. Shahrisabz hammomlari boshqa joylarda ham o‘zining “davolovchi’’ xususyati bilan mashhur bo‘lib, odamlar turli joylardan bu yerga davo istab kelishgan. Shahar tashqarisida, uning shimoliy tomonida Nomozgoh masjidi mavjud bo‘lib, hozirda saqlanib qolgan emas. Shunigdek, har bir guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. Tadqiq qilinayotgan davrda Xo‘ja Muhammad, Chubin va Hazrati Malik Ajdar masjidlari ham shahardagi asosiy masjidlardan hisoblangan [1].

Me’morlik mazkur davrda voha me’morligi rivojiga, xalq me’morligi darajasiga baho berilar ekan, voha me’morligining turli inshootlar va imoratlar qurilishida mahalliy tabiiy xususyatlardan kelib chiqqanligi va qurilishda mahalliy materillardan keng foydalanganligi ta’kidlab o‘tish lozim.

O‘rganilayotgan davrdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat vohada mudofaa me’morligi rivijlanishiga olib keldi. Xususan, yuqoridq ko’rib o‘tganimizdek, katta hududlarni mudofaa qilishga moslashtirilgan himoya devorlari, mustahkamlangan qo’rg’onlar, to’pxonalar, kuzatuv joylari qurilishi shundan dalolat beradi. Shu tufayli ularning ba’zi birlarida arxeologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu turdagi inshootlarni qurishda, avvalo, uiarning joylashgan o‘rniga katta e’tibor berilgan . Ular asosn voha orqali o’tuvchi yo‘llar yoqasida joylashgan.

XVIII – XIX asrlar qo‘rg’onlar qadimgi va ilk o‘rta asrlar yodgorliklari o‘rnida joylashgan. Qo‘rg’onlar qad ko’targan tepaliklarning ko’pchiligida qalin madaniy qatlamlar mavjud. Qo‘rg’onlarning asosiy ko’pchiligi 10m ga yaqin va undan baland tepaliklar ustida joylashgan. Masalan O‘rtaqo‘rg’on arkining balandligi devoir saqlanmagan joyida 11metr teng bo’lsa, Pistaxon qo‘rg’oni 8 metr, Lashkartepa 10 metr, Qo‘rg’ontepa 15 metr balandlikda joylashgan. Ba’zi yodgorliklarning qanday madaniy qatlamlar ustida turganligi maxsus o’rganildi. O‘rtaqo‘rg’on arki o‘rnida ilk manzilgoh IX – X asr larda vujudga kelgan bo‘lib, bu yerda aholi ba’zi uzilishlar bilan XVII asr boshlarigacha yashagan. Manzilgohning ilk gullab yashnagan davri X- XII asrlarga to‘g’ri keladi. XVII – XVIII asr boshlarigacha

bo‘lgan davr da manzilgohda hayot to’xtagan. XVIII asrdan manzilgoh hayotida yangi davr boshlanib, bu yerda beklik mudofaasida muhim ahamyatga ega bo‘lgan qo‘rg’on qad ko’tarilgan [1].

XIX asrdan boshlab vohada devor qurilishida guvalaklardan foydalanish keng qo’llanila boshlagan. Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi va Sharqiy Qashqadaryoning bosqa hududlarida ham shu hol kuzatilgan. O‘rganilgan qo‘rgonlarda devorlar qurilishida 12 sm hajimdagi paxsa devorlardan foydalanilganini ko‘rish mumkin.

Shahrisabz vohasida sinch uylar poydevorsiz qurilgan Qashqadaryo vohasi me’morligi tarixini o‘rgangan V.A.Vororina sinch uylarning poydrvorsiz qurilishini vohada yer qatlamining zichliligi, uning xususyatlari bilan bo‘lab, bunday yer qatlami o’z holicha yengil sinch uylari uchun ishonchli va mustahkam asos bo‘lib xizmat qilganligini yozadi. Imoratlarni tiklashda “Yaksinch” va "qo‘shsinch" uslublaridan birgalikda foydalanilgan. Masalan O‘rtaqo’rg’onda o‘rganilgan imoratlarda barcha xonalar uchun umumiy bo‘lgan janubiy va shimoliy devorlar "qo‘shsinch" oraliq devorlar va "yakkasinch" uslubida qurilgan.Xonalar ustki qismi bolorlar bilan yopilib, bolorlar ustki qismi vassa yotqizilgan. Qazishmalar paytida "plta vassa" deb nomlanuvchi vassanining turli bo‘lakchalari ko‘plab topldi.Binolarning qurilish uslubi bir xilda bo‘lish bilan birga ularning bezashda o‘ziga xos xususyatlar ham mavjud. Maslan Bekliktepadagi saroy binosining poli pishq g’ishtlardan ishlangan Bolaliktepadagi ustki qismilariga jimjimador bezaklar bilan naqish berilgan toshnob va sandallar ham O‘rtaqo‘rg’ondagi sandal va tashnoblardan ajralib turadi. Bezaklardardagi ko‘p sonli girih va islimiy shakldagi turli xil ranglardagi ganj bo‘laklari ham O‘rtaqo‘rg’ondagi oddiy va ko‘pincha bir xildagi ganj bo‘laklaridan tamomila farq qiladi. Albatta bu farqlarni bekliklarning markaziy qo‘rg’oni (Bekliktepa) va qishloq qo‘rg’oni (O‘rtaqo‘rg’on) o‘rtasidagi tafovut bilan izohlash mumkin[4].

Xulosa. Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan arxologik qazish ishlarida madaniy qatlamlarning o‘rganish natijasida vohada me’morchilik yuksak darajada rivojlangan deyish mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan manbalarda vohada ilk manzilgohlar temir davridan boshlangan degan xulosaga kelish mumkin. bu yerda me’morlik rivojlanish juda erta boshlangan. Shahrisabiz rivojlanish davrlarda turlicha nom bilan atalgan. Bunga misol qilib Suse, Sangirtepa, Podayotoqtepa, Uzunqir, Kesh deb nomlangan. Buyuk davlat arbobi sarkarda Amir Temur davridan boshlab Shahrisabz deb atalgan.

Shahisabzning rivojlanish boqichlarini quyidagicha davrlarga bo‘lishi mumkin.

1 – Ilk asrlar mill.avv. I-VI asrlar bunga (Temir davri va Zardushtiylar davri).

2 - O‘rta asrlar mill. avv.VI-XI asrlar bunga (Arablar va Qoraxoniylar hukumronlik qilgan davr).

3- XII- XVI asrlar bunga (Mug’ullar davri va Temur va Temuriylar davri).

4. XVI- XIX asrlar bunga (O‘rta Osiyo xonliklari va Chor Rossiyasi davri)

5. XIX asr oxir va XX asr bunga (Sovet ittifoqi va mustaqillikkacha bo‘lgan davr).

6 .XX asr oxiri va XXI asr boshlari bunga (Mustaqillik davri).

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shahrisabz mimg yillar merosi 2002 yil Toshkent.
2. Л.Ю.Маньковская архитектурные памятники Кашкадарьи. 1979 yil.Toshkent O‘zbekiston.
3. "O‘zbekistonda an’anaviy bog' va bog'dorchilik san'ati kecha,bugun va kelajakda" xalqaro ilmiy konfrensiya materiali".
4. S.U.Tursunov Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirishning ilmiy loyihaviy tahlili. Dissertatsiya 2018 yil Samarqand.
5. Farangiz, K., & Siroj, T. (2024). STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF SHAHRISABZ CITY. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 16-20.
6. Farangiz, K. (2023). WAYS OF FORMING AND DEVELOPING COMMUNITY CENTERS. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 280-284.
7. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-TRADITIONS AND INNOVATIONS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 198-204.
8. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-TRADITIONS AND INNOVATIONS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 198-204.

BUXORO TARIXIY SHAHAR HUDUDIDA SAVDO INSHOOTLARI ARXITEKTURASI

Sa`dullayeva Nigora

SamDAQU “Madaniy meros obyektlarini asrash” kafedrasi o`qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrining tarixiy shahar qismida joylashgan tarixiy savdo inshootlari kelib chiqish tarixi, arxitekturasi, tipologiyasi ularning vazifalari bo`yicha malumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: toq, tim, savdo markaz, bozor,Ark, Savdo gumbazi, kupol, Toqi Ordfurushon, Toqi Sarrafon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Tirgaron, chorsu


O’rta asrlar davri XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo’lgan oraliqni o’z ichiga oladi. Bu davrda xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va geografik o’rni hamda shaharsozlik shakllangan. Xalqaro savdo-

sotiq aloqalarining rivojlanishiga yanada kengroq yo'llar ochilgan. Buxoro xonligi, ayniqsa, Shayboniylar Movarounnahrni zabt etgach, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida o'z mavqeyini oshib borishiga olib keldi. Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro shaxristoni kengaytirilib, ark uning ichida qolib ketgan. Ayniqsa, Abdullaxon hukmronligi davrida Buxoro poytaxt shaharga aylantirilgan va shaharsozlik yangi bosqichga ko'tarilgan. Shuning uchun akademik V.V.Bartold Abdullaxonni "Buyuk quruvchi" deb atagani bejizga emas. Abdullaxon shahar devorlarini, darvozalar, ayniqsa, shahar tashqi ko'rinishini yangilashga buyuradi. XVI asrning ikkinchi yarmida shahar kengaytirilib Jo'ybori shayxlar mulki hisoblanmish shaharnirng g'arbiy qismi ham devor bilan o'rab olingan. Binolarni ansambl tarzida joylashtirishga e'tibor berilib shahar strukturasi qayta tuziladi.

Abdullaxon hukmronligi davrida Buxoroda savdo markazlari qurilishiga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. XVI asrda ularning arxitekturasi yangicha tendensiyalar va yo'nalishlar asosida qad ko'targan. Binokorlik sohasida keng ko'lamda o'zgarishlar boshlanib, u savdo markazlari arxitekturasida ratsionalizm oqimining paydo bo'lishi bilan aksini topgan. Ratsionalizm oqimi nafaqat yangi konstruktiv va dekorativ yechimlarda namoyon bo'libgina qolmay, yangicha



1-rasm. Toqi Zargaron



2-rasm. Toqi Telpakfurushon

kompozitsion g'oyalarning paydo bo'lishi, eski an'analarni ya'ni arxitektura inshootini faqatgina frontal idrok yetib qolmasdan uni ratsional tashkil qilishni taqozo qildi.



3-rasm. Toqi Sarafon

Buxoro shahrida savdo-sotiq rivojlanayotgani, har xil shaharlardan savdogarlarning kirib kelishi, savdo-sotiq binolariga bo'lgan talabni oshirdi. Buxoro iqlimi yozda quruq issiq, qishda sovuq bo'lganligi sababli usti yopiq savdo inshootlari qurish talabi oshdi. Buxoro me'morlari oldida turgan yangi masalalardan biri, katta maydonni egallagan savdo markazlarini ustini yopish masalasi edi. XVI asrda O'rta Osiyo me'morchiligida yuksak yutuqlardan biri, qobiqli tomyopmalar konstruksiyasi va texnologiyasi ishlab chiqilganligidir. Bu texnologiyalarning yaratilishi katta hajmdagi savdo markazlari – bozorlarni ustini yopish masalasini hal qildi.

Chunonchi, asosiy chorrahalarda Toqi Ordfurushon, Toqi Sarrafon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Tirgaron nomli beshta Chorsu tipidagi gumbazli savdo inshootlari bunyod etilgan. Bu savdo gumbazlarining birinchisi (Toqi Ordfurushon) va oxirgisi (Toqi Tirgaron) bizning asrimizda vayrona holiga kelganligi tufayli buzib tashlangan. Qolgan uchtasi hozirgi kunda ham salobat to'kib, shaharning asosiy yo'nalishlarini belgilab turibdi. Bu savdo gumbazlari bugungi kunda aholi orasida birinchi, ikkinchi, uchinchi gumbaz (ba'zilar "kumpol" deyishadi,bu ruschada "Kupol" so'zining buzilib ishlatilishidir) yoki toq deb yuritiladi[1].

Toqi Sarrofon. (fors. — sarroflar toqi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (16- asr), pul almashtiradigan bosh savdo gumbazi (1.5-rasm). Shahristonning 2 ko'chasi kesishgan joyda, qadimgi Shohrud arig'i ustida sarroflarning do'konlari qurilgan. Toqi sarrofon eng kichik gumbazdir. 16-asr 2-yarmida zalning 4ta kesik burchaklaridan biriga masjid, boshqasiga Sarrofon hammomi, qolgan 2 tasiga sarrofon do'konlari kelib tutashgan. Masjidga kiraverishda "Bu qurilish 1534—35 yillari Ubaydulla Bahodirxon podsholigi davrida yakunlandi" degan yozuv saqlangan. Bu atrofdagi binolarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Shayboniylar davrida Buxoro xususiy tadbirkorlik, qarz berish va pul almashtirish markaziga aylangan. Buxoroda sarroflar nomi bilan bog'liq uylar, savdo gumbazi, karvonsaroy, masjid, hammom va boshqa mavjud bo'lgan.

Toqi Telpakfurushon**.** Toqi Telpakfurushon tarxda olti qirrali bo'lib, binoning bosh markaziy gumbazi miyonsaroy ustida o'rnatilgan. Atrofdagi kichik

do'konlar esa gumbazchalar bilan yopilgan. Toq ichida bosh kiyimdan tashqari, kitob sotuvchilar va muqovasoz ustalarning do'koni bo'lgan. Shu bois ushbii bino ilgarilari "Toqi Kitobfurushon" deb ham nomlangan[2]. Bino bilan atalgan. Bosh gumbazi 6 qirrali devor ustiga o‘rnatilgan, atrofi — ko‘cha, choxarso‘ki Axanin, Toqi kitobfurushon, Toqi Xo‘ja Muhammad Parron kabi nomlar ko‘chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan.

Toqi Zargaron. Shulardan uchinchi gumbaz yoki Toqi Zargaron deb nomlanadigani qadimiy shaxriston chorrahasida joylashgan bo’lib, XV asr boshida ham bu joy Chorsu deb nomlanganligi ma’lum. Toqi Zargaron deb atalashining o’zi nomi bilan zargarlar gumbazi ekanligidan dalolat berib turibdi.

Toqi Ordfurushon - un maxsulotlari sotiladigan markaz (XVI asr). Ushbu savdo gumbazi hajmi jihatdan kichikroq bo’lgan. Registon maydonining pastrog’ida janubiy g’arb tomonida joylashgan. Konstruktsiyasi va gumbaz qurilish texnologiyasi jihatdan Toqi Sarrofon gumbaziga o’xshash bo’lgan.

Toqi Tirgaron - qurol yarog’ sotiladigan markaz (XVI asr). Toqi Ordfurushondan g’arbda joylashgan. Ushbu gumbaz hajmi jihatdan kattaroq bo’lgan va Toqi Zargaron gumbaziga o’xshash bo’lgan**.**

Abdullaxon timi – Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi. Toqi Zargaronga ulangan savdo ko'chasi bo'ylab unga yaqin joyda Abdullaxon timi qurilgan bo'lib, uhing ham me'moriy yechimlari yopiq, o'rta mahobatli va tektonik hajmli ko’rinishida ishlangan. Ichida 55 ta savdo ravoqi bo'lgan ushbu tim kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga mo’jallangan. Abdullaxon timi asosi murabba tarxli (39x42m), 3tomoni berk, bosh tarzidagi peshtoq orqali kiriladi. Devorlarining 2 tomonida ravoqli tokchalar joylashgan. Baland gumbazli bostirma timni o‘rab turadi. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug‘ tushadi. Miyonsaroy atrofi dalon. Dalondagi mayda ravoklar ichida gumbaz tomli do‘konlar bo‘lgan. Bino pishiq g’ishtdan (22x27x3,5sm) qurilgan, devorlari ganch suvoqi, naqshin bezaklari deyarli saqlanmagan. O‘tmishda bu yerda shoyi, jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Abdullaxon timi Buxoro shahridagi savdo rastalari, chorsu–toq binolari ichida eng kattasi va shaklu shamoyili jihatidan ancha murakkab va xushbichim hisoblanadi. Bir necha bor ta’mirlangan, savdo do‘konlari joylashgan.

Buxoro amirligi davri me’morchiligi haqida gapirar ekanmiz o’sha davrga xos bo’lgan bino va inshootlar tipologiyasini taxlil qilishga e’tiborni qaratish zarur.

Ark – asosiy bosh qarorgox. Oxirgi arxiologiya tadqiqotlariga asoslanib yoshi 2500 deb belgilangan Buxoro shahri bir necha marta o’z hududini o’zgartirgan bo’lsa ham, uning arkining o’rni ko’p davrlardan beri o’zgargani yo’k. XVI asrda ham shaharning asosiy unsuri shu inshoot hisoblangan va markaziy ko’chalarning yo’nalishini uning joylashishiga qarab belgilangan. Arkka Siyovush asos solgan degan fikr mavjud. Rivoyatlarga ko’ra Siyovush arkni bir necha marta bunyod etgan va lekin inshoot har safar buzilib ketavergan. Nihoyat olimu munajjimlarning maslahati bilan ark Katta Ayiq (xalqda Yetti yulduz, Yetti qaroqchi yoki Cho’mich) yulduz turkumiga o’xshash qilib qurilgach ark istehkomi bunyod etilgan. Har holda arkning chegarasi bo’ylab ko’rinishi o’sha yulduz turkumiga o’xshab ketadi[3].

Balandligi taxminan 20 metr bo’lib, maydoni 4 gektar bo’lgan Buxoro arki Shayboniylar davrida boshqaruv shaharchasi tarzida zich holda qurilgan. Shundan so’ng uning devori ham, ustidagi imoratlar ham bir necha marta qayta qurilgan. Dastlab uning sharq va g’arb tomonida 2 ta darvozasi bo’lgan. Bugungi kunda g’arb tomonda ikki gumbazcha bilan tugallangan guldasta bezab turgan peshtokli darvozaxona saqlanib qolgan. Uning eng yuqori qismida nog’oraxona deb nomlanuvchi oldi peshayvonli xonachalar turkumi saqlanib qolgan. Darvoza dolon orqali o’tadigan burama pandus orqali yuqoriga – ark saxniga olib chiqadi. Dolon yon devorlarida hibsxonalar va sayisxonalar olib boradigan yo’lak joylashgan. U XVIII asr oxirlarida qurilgan bo’lib, ba’zi konstruktsiyalari shu joyda bo’lgan bugungi shunday imorat qurilishini tashkil etadi. Bu masjid maxalla masjidlari singari uch tomoni yog’och ustunli ayvon bilan o’rab olingan xonaqoxdan iborat. Masjiddan janubga qarab salomxonaga olib boruvchi tor ko’cha boshlanadi. Uning markaziy qismida chorsu deb ataluvchi chorraxasi bor. Shu yerdan sharq tomonga qarab devonbegi, qushbegi xonalari, mahkamalar joylashgan. Uning yonida tosh yotqizilgan atrofi ikki qatorli baland yog’och ustunlari bilan o’ralgan hovli ko’rinishli yozgi saroy joylashgan. Bu saroyning naqshli peshtoqi 1605 yilda qurilgan. Darvozadan kirilgach hovli oldi Buxoro turar – joylariga xos g’ulomgard deb yuritiluvchi ko’ndalang devor bilan to’silganligi ko’rinadi. To’rtburchak hovlining to’rida esa Nurota marmaridan qilingan taxtiravon joylashgan. Bu yerda amirlarning toj kiyish (taxtga o’tqazish) marosimlari ijro etilgan hamda elchilar qabul qilingan. Hovlining janubida mehmonxona, korixonalar va xazina saqlanadigan yerto’lalar joylashgan. Ark darvozasidan janubga Registon maydoniga qaragan amir shohayvonchasi qurilgan. Ammo arkdagi binolarning aksariyati inqilob kunlari va undan keyin buzilib ketgan

Savdo gumbazi. Shayboniylar sulolasi davrida Buxoro shaxristoni kengaytirilib, ark uning ichida qolib ketgan. Yuqorida aytib o’tilgandek, Abdullaxon shahar devorlari, darvozalari va fasllarni qayta qurdirgan. XVI asrning ikkinchi yarmida shahar kengaytirilib Juybori shayxlar mulki hisoblanmish shaharning g’arbiy qismi ham devor bilan o’rab olingan. Binolarni ansambllar tarzida joylashtirishga e’tibor berilib, shahar strukturasi qayta tuziladi. Toqi Zargaron- Binoni tarxi kvadrat ko’rinishga ega. Uning markaziy kompozitsion o’qlar bo’ylab to’rt peshtoq to’rtala ko’cha tomonga qaratilgan. Inshootning markaziy qismi sakkizta o’zaro kesishgan toqlar vositasida ko’pburchakli ustivor ustiga qo’ndirilgan ulkan gumbazdan iborat. Gumbaz osti ustivorining o’n olti panjarasi bor. Ichki

tomonida esa toqlar kesishuvidan xosil bo’lgan gajjak (shitovidnыy parus) devorlar bilan ko’pburchakni

bog'lab turibdi. Markaz gumbaz ichidagi bino burchaklari to'rtta va uning atrofidagi usti kichkina gumbazchalar bilan yopilgan yo'lak qismi esa sakkiz ravoqli qilib qurilgan. Yo'lak tashqi devorining ichkari tomonida yana 16 ta ravoq ishlangan. Har qaysi peshtoqning ikki yon qismida (old tomonida) yana 2 tadan ravoqlar ishlangan bo'lib, ular hajmi 36 ta do'kon va ustaxonalar joylashishiga mo'ljallangan[5].

Abdullaxon Timidan janubga qarab yo'nalgan ko'chaning ikki tomoniga rasta, do'kon va ustaxonalar qurilgan bo'lib, mazkur ko'cha zich holda sharq tomonga nisbatan singan yo'nalish bo'ylab Bozori Kord hammomi yonidan o'tib Toqi Telpakfurushonga olib chiqadi. Telpakfurushon toqi savdo gumbazi o'zining me'moriy yechimi jihatidan boshqa savdo gumbazlari va umuman gumbazli binolar ichida ajralib turadi. Uning markaziy gumbazi 6 ta pilpoyaga o'rnatilgan. Gumbaz va mahrut orasi pastak dumaloq ustivor shakliga ega. Gumbaz markazi va mahrut devorlaridan yorug'lik tushadigan maxsus tuynuklar ishlatilgan. Toqi Telpakfurushonning shimoliy yo'lagida balxi gumbazlari, ichkariroqda to'rtta katta ravoqqa engashtirilgan kichik ravoqchalarga qurilgan gumbaz, gajjak qanosli va ustivorli gumbaz singari turli konstruktsiyalar qo'llanilgan. Undan janubiy sharqqa va janubiy g'arbga qarata qo'sh ravoqli ikki kirgash yo'li va xuddi shu tarzdagi to'rt tomonga qaratilgan peshtoqlar ishlatilgan.

Yana bir savdo gumbazi bu oldingi ikkitasidan janubiy sharqda joylashgan (Buxoroda "1 – kumpul" ya'ni "kupol" - "1 – gumbaz" deyishadi) Toqi Sarrafon ("sarrof" pul almashtiruvchi) gumbazidir. Bu savdo gumbazi oldingi ikkitasidan kichikroq bo'lib, uning asosini "linga zarba" usulida o'zaro kesishgan to'rtta katta toq tepasidagi dumaloq ustivorga o'rnatilgan ancha tik ko'rinishli gumbaz tashkil etadi. Gumbaz yuqorisidagi sakkizta kichikroq pilpoyalar ustiga yana bir kichik gumbazcha o'rnatilgan. Binoning shimoliy sharqiy burchagidan uning yonidan oqib o'tuvchi Shohrud arig'i zinapoyali tushish yo'lagi o'rnatilgan[7].

Karvonsaroy. Toqi Zargarondan janubga chiqadigan peshtoqi yonida bizning asrimizda buzib tashlangan o'sha davrda "Hind karvonsaroyi" deb atalgan karvonsaroy bo'lgan. Buxoroda – Hind karvonsaroyi Toqi Telpakfurushon va Toqi Zargaron oralig'idagi savdo rastalari qatorida joylashgan. Ko'rinishidan muxtasham bo'lmagan bu bino 400 m2 ga ega filxonasi (fillar bilan kelgan hind savdogarlari fillarini saqlaydigan joy) bo'lgan. Boshqa karvonsaroylardan shu jihati bilan ajralib turuvchi bu bino xalq orasida "Saroyi Fil" deb atalgan. Karvonsaroy tarxda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, pastki chap burchagi Toqi Zargaron bilan qo'shilib, birikib ketgan. Bu usul binolarni yakkalanib qolmasdan, bir butun kompozitsiya hosil qilishda xizmat qilgan. Karvonsaroyda 27 ta xujralar bo'lib, ichki hovliga chiqadi. Xujralar katta bo'lmagan 4400 x 2000 x 3500 o'lchamlarga ega. Optimal tanlagan o'lchamlar xujralarda mo''tadil mikroiqlim yaratgan. Karvonsaroylarning bosh tarzida savdo do'konlari joylashtirilgan bo'lib, u ko'chadagi savdo rastalariga qo'shilib ketadi. Ko'chadan savdo rastalari vazifasida turgan bu binoga kirib borsangiz sizni ichki hovlili shinam xujralar qatori qarshi oladi. Bu binoning ikki funktsiyaliligini ko'rsatadi. Ya'ni binodan maksimal darajada foydalanilgan. Demak, binoni shahardagi joylashishiga qarab moslashgan. Chunki u shahardagi asosiy savdo tizimida joylashgan. 1933 yilga qadar Buxoro shahri hududida (hozirgi tarixiy hudud) 61 ta karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan.



4-rasm. Hind karvonsaroyi



5-rasm.Hind karvonsaroyi ichki ko`rinishi.

Tim. Hind karvonsaroyidan quyiroqda 1577 yilda qurilgan savdo inshooti – Abdullaxon Timi joylashgan. Agar Toq va Chorsularda kechasi do'kon va ustaxonalar yopilib, binoni kesib o'tgan ko'chalar o'tish joyi sifatida foydalanilgan bo'lsa, Tim yopiq imorat tarzida ishlatilgan va shu jihati bilan bugungi kundagi katta savdo inshootlarini eslatadi. Abdullaxon Timi kamyob va qimmatbaxo gazmollar savdosiga mo'ljallab qurilgan. Bu imorat tarxi ham kvadrat shaklida bo'lib, binoning bosh kirish yo'llari Toqi Zargarondan Toqi Telpakfurushonga boriladigan savdo

ko'chasiga qaratilib, ko'chaning sharqiy betida qurilgan. Bino tarzining markazida bir asosiy va ikki chekkasiga yana ikkita kichikroq peshtoqli eshiklar o'rnatilgan. Imorat markazida sakkiz burchakli pastak ustivorga katta asosiy gumbaz o'rnatilgan. Uning sharq va g'arbida asosiy yo'lak ustiga cho'zinchoq shaklidagi tuynuklar mavjud. Bino ichida jami 55 ta savdo ravoqlari joylashgan.

Xulosa: Buxoro tarixiy shahar arxitekturasi binolar tipologiyasida turli xil savdo inshootlari mavjud. Bular: toqi, tim, karvon saroy, rasta

Adabiyotlar:

1. Axmedov M.K. Ansamblevaya zastroyka: tradisii i preyemstvennost. Arxitektura Uzbekistana. Almanax. – Tashkent: “Gafur Gulyam”, 1985. – 79 s.

2. Vamberi G. Istoriya Buxarы ili transaksanii (s drevneyshix vremyon do nastoyaщyego). Perevod A.I.Pavlovskogo. Rukopis.

3. Axmedov M.K. O’rta Osiyo me’morchiligi tarixi. – O’quv qo’llanma. Toshkent: “O’zbekiston”, 1995. – 140 b.

4. Anette Gangler, Heinz Gaube, Attilio Petruccioli. Bukhara – The Eastern Dome of Islam (Urban Development Urban Space Architecture and Population). –217 p.

ARXITEKTURA VA SAN’AT UYG’UNLIGI

O’rinboyev Sh.E.
SamDAQU “San’at” kafedrasi dotsent v.b.
Gulmirzayev O’.A.
SamDAQU “San’at” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Arxitekturada san'at insoniyat tarixida estetik go'zallik, madaniy boylik va zamonaviylikni aks ettirgan muhim sohalardan biridir. Arxitektura foydali bino va qurilish bilan shug'ullanadi, balki tashkilot ko'rinishi va ichki dizaynini jozibador, uyg'un va betakror tuzatish intiladi. Bu yo'nalishda san'at uslublari, sifatli urf-odatlar va texnologiya birlashadi, natijada zamonaviy arxitekturaga xos bo'lgan o'ziga xos uslublar yaratiladi. Ushbu maqolada arxitekturaviy san’atning asosiy elementlari, uslublari, har bir davrdagi o’ziga xos rivojlanish tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: san’atshunoslik, arxitektura, uslub, san’at tarixi, bino va inshootlar, antik davr, uyg’onish davri, estetika, dekorativ elementlar.

Kirish. San’atshunoslik – bu san’atning turli shakllarini tadqiq qiluvchi va ularning tarixiy, madaniy, estetik, hamda ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan fan. Bu fan san’at asarlarini tahlil qilish, ularning yaratilish tarixi, ijodkor shaxslarining mahorati, shuningdek, turli davr va madaniyatlar ta’sirini chuqurroq anglashni o‘z ichiga oladi. San’atshunoslik turli san’at turlarini – tasviriy san’at (rassomlik), haykaltaroshlik, arxitektura, kino, teatr, musiqani qamrab oladi. Shu bilan birga, u zamonaviy san’at shakllari, jumladan raqamli san’at va dizaynni ham o‘rganib, yangi san’at asarlari va tamoyillarini anglash uchun muhim nazariy asoslarni yaratadi [1].

Arxitektura va san'at bir-biriga yaqin bo'lgan, o'zaro uyg'unlikda rivojlanib boradigan sohalardir. Arxitektura – bu binolar va inshootlarni qurish, uning estetik va amaliy imkoniyatlari san'atning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. San'at esa arxitektura uchun ilhom manbai sifatida xizmat qiladi va uning mazmunini boyitadi.

Arxitektura amaliy, balki estetik jihatdan go'zal, nafis va o'ziga xos bo'lishi uchun ham yaratiladi. Binolarning ko'rinishi, tashqi va ichki bezaklari san'at asarlariga o'xshab, tomoshabinning estetik didini shakllantiradi. Masalan, barokko va gotika uslubidagi yevropa binolari, yoki Markaziy Osiyo me'morchiligida qo'llanilgan koshinkor naqshlar va ganch o'ymakorligi binolarining san'at sifatida qadrlanishiga sabab bo'lgan [1].

Usullar. Har bir davrning o'ziga xos san'at uslublari mavjud bo'lib, ular arxitekturaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Masalan, eski yunon va rim me'morchiligida marmardan yasalgan ustunlar, haykallar va dekorativ elementlar keng qo'llangan. O'zbekistondagi tarixiy me'morchilik esa islomiy naqsh va ornamentlar bilan boyitilgan, bu esa milliy va diniy merosni aks ettiradi. Binolar orqali aniq davr va xalqning madaniyati va qadriyatlari yaxshi namoyon bo'ladi.

San’atshunoslik asosan quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- San’at tarixi – san’atning turli davrlarda qanday rivojlanganini o‘rganadi. Masalan, antik davr, Uyg‘onish davri, Barokko, Modernizm kabi uslublar, ularning o‘ziga xos tomonlari va ular ortidagi madaniy va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi [2].
- Estetika – san’at asarining go‘zallik, estetik qiymat, kompozitsiya va simvolik mazmunlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.
- Kritika – san’atshunoslikda asarlarni tahlil qilish, ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, boshqa san’at asarlari bilan taqqoslash va baholash jarayonidir.
- San’at nazariyasi – san’at va ijodning falsafiy asoslari, ularning qanday qilib odamlarning hissiy va ma’naviy dunyosiga ta’sir ko‘rsatishi haqida tushunchalarni ishlab chiqadi [3].

Muhokama va natijalar. Arxitekturada san’at bu bino va inshootlarni nafaqat funksional, balki estetik va san’at asari sifatida yaratishga yo‘naltirilgan qismdir. Arxitekturaviy san’atning maqsadi nafaqat qurilgan muhitni yaratish, balki uni o‘ziga xos uslubda bezash va kishilarni hayratda qoldiradigan obraz va shakllar orqali ko‘rsatishdir. Bu turdagi san’at asosan quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Dekorativ elementlar – turli o‘ymakorliklar, bezaklar, naqshlar va o‘ziga xos uslublar yordamida arxitekturaga san’at elementi kiritiladi. Dekorativ elementlar – bu binolar, interyerlar yoki san’at asarlarini yanada jozibador va boy ko‘rsatish uchun

10. https://acadomia.ru/articles/arkhitektura-i-dizayn/green-roof-or-roof-garden/
11. https://acadomia.ru/upload/medialibrary/33e/green_roof_3.jpg

INTERYERDA RANG VA YORUG‘LIK

Xakberdiyev A.M.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolada ranglar uyg‘unligi qonuniyatlari, rangning interyer kompozitsiyasida qatnashishi – bu interyerni yaratishdagi muhim masalalardan biri ekanligi haqidagi fikrlar keltirilgan. Odamlarning ranglar birikmasini bilib olishi emotsional va estetik hayajonlanishning boshlanishi hisoblanadi. Rangning psixologik ta’siri

omillaridan biri assotsiatsiya bo‘lib, odam tasavvurida har qanday rang yoqimli va yoqimsiz assotsiatsiyaga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: rang, yorug’lik, tekstura, element, interyer, kompozitsiya, ichki makon.

Kirish. Interyerni loyihalashda, **rang va yorug'lik** asosiy komponentlar ekanligi ko‘pchilikka sir emas. Bunda:

1. Rang – biron narsani yorug‘lik toni, Interyerning ichki ko‘rinishini yaratuvchi va uning badiiy obrazini talqin qiluvchi elementlardan biri;

2. Garmoniya birikmalar, uyg‘unlik – tonlarning bir kompozitsiya asosida mujassamlanishi. Ba’zi bir ranglar va elementlarning o‘zaro kelishtiruvchi va bir makonga keltiruvchi birikmalar, kompozitsiyalar;

3. Monoxromatik gamma – bir bo‘yoq atrofida tanlangan ranglar toni;

4. Axromatik gamma – yorug‘lik bo‘yicha bir makonga teng bo‘lgan kulrang birikmalar;

5. Sun’iy yorug‘lik – atrof-muhitni ko‘radigan qiluvchi nurli energiya, yorug‘lik manbai. Bino ichki ko‘rinishiga badiiy mukammallikni kirituvchi vositalardan biri;

6. Polixromatik – ko‘p ranglilik.

Ba’zi ranglarning assotsiatsiyasi ko‘p interyerlarga mos keladi. Ular umumiy qabul qilingan baholash bilan bog‘liq. Misol uchun, sovuq va iliq tonlarga bo‘linishi tajribada tasdiqlangan. Bu guruhlar psixologik qarama-qarshilikda yotadi. Bu tonlar inson psixologiyasi va fiziologiyasiga qarama-qarshi ta’sir qiladi. Iliq tonlar quvvat beruvchi, sovuq tonlar tinchlantiruvchi sifatida ta’sir qiladi. Eng ko‘p uchraydigan assotsiatsiyalarga qarab ranglarni bo‘lish keng tarqalgan.

Misol uchun, qizil – uyg‘tuvchi, issiq – olov, xavfli, qiziqib intilish, to’q sariq – bayram, xursandchilik, issiqliq beruvchi – quyosh, yaltirash assotsiatsiyalanadi;

yashil – tabiat rangi, tabiiy, engillashtiruvchi havfsizlik bilan assotsiatsiyalanadi;

moviy – keng osmon, aniqlik, sokinlik, ko‘k – chuqurlashgan, bosiqday idrok qilinadi;

to‘q qizil – kuchli, qudratli, baquvvat-qon, kuch-qudrat bilan tavsiflanadi.

Asosiy qism. Rang bilan alohida elementlarning ma’naviy belgisi ajratiladi yoki xulosa qilinadi. Ranglarni idrok qilishda ko‘rishning ba’zi xususiyatlari ta’sir qiladi. Xromatik aberratsiya degan ibora mavjud. Sariq ranglar setchatka yuzasida aniq nuqtaga yig‘iladi, spektr oxirida qizil ranglar setchatka oldida, binafsha ranglar setchatkadan keyin turishidan iborat.

Shuning uchun, sovuq ranglar tomoshabindan uzoqlashtirilganday ko‘rinadi, iliq ranglar unga yaqinlashtirilganday ko‘rinadi.

Interyerda namoyon bo‘ladigan ranglar toni va ko‘rish maydonida yotgan predmetning rang bilan ko‘chaytirilishiga bog‘liq bo‘lgan yorug‘lik ta’sirini hisobga olish kerak.

Eng yaxshi sharoit neytral ranglar atrofida, ya’ni uch xil ranglarni his qiluvchi asboblar bilan bog‘langan yuklarni nisbatdan teng bo‘lishda yaratiladi.

Shunday qilib, rangni idrok qilishning fiziologik va psixologik talablari, hamda ranglar garmoniyasi, nazariyasi interyerni yaratish asoslaridan biri hisoblanadi.

Uyg‘un birikmalar. Ranglar uyg‘unligi insonning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Interyerda u uyg‘unlashgan rang muhitini yaratishda bo‘lishi shart hisoblanadi.

Ranglar uyg‘unligi – bu insonda mavjud bo‘lgan mutanosiblik hissiga mos tushadigan qarama-qarshi qo‘yilgan ranglarning birligi.

Ranglar uyg‘unligi ikki guruhdan iborat. Birinchisi, ranglarning qarama-qarshi qo‘yilishiga asoslangan bo‘lib, kontrast birikmani tashkil qiladi. Ikkinchisi ranglarning yaqinlashishiga asoslangan. Bu nyuans birikmalarni beradi.

Kontrast birikmalar o‘zaro to‘ldiruvchi, ranglar nafaqat to‘ldiruvchi balki qo‘shni ranglar bilan ham tuziladi:

- Ikkita to‘ldiruvchi rang va oradagi rangdan ham foydalanish;
- Bo‘linib tashlangan gamma, ikkita oradagi ranglar turi;
- Ranglar uchligi – ranglar diagrammasi uzunligida teng turadigan ranglardan tuzilgan gamma.

Bu sxemalarga nozik farqli nyuans uyg‘unliklarni solishtirib murakkablashtirilgan sxemalarni olish mumkin.

Nozik farqli uyg‘unliklar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- monoxromatik (bir xildagi och kulrang birikmalar);
- gamma (o‘zaro uyg‘un) bitta rang tusi (bu rang turlicha ko‘rinishi) atrofida yig‘ilgan ranglar turi (och olovrang, jigar ranglar birikmasi);
- har xil rang tusidan yig‘ilgan ranglar gammasi (qizil va olovli, ko‘k va ko‘k yashil moviy rangning qatnashishi bilan);
- oraliqdagi ranglar gammasi, ulardan biri ikkita asosiy rangning qo‘shilishidan tuzilgan (sariq, yashil va oxra) ranglardan tuzilgan;
- axromatik gamma kulrang ranglarning birikmasi (eng chiroyli birikma erkinligi bo‘yicha teng turadigan ranglar birikmasi);
- axromatik va xromatik ranglar birikmasi (kulrang va ko‘k, kulrang va jigarrang, oq va qizg‘ish-jigarrang).

Nozik farqli uyg‘unliklar sxemasini murakkablashtirish va kengaytirish, besh-oltita ranglardan nyuans sxemasini tashkillashtirish mumkin.

Ranglar uyg‘unligini tuzish, ranglarning rang turini tanlash bilan chegaralanib qolmaydi. Ranglar tavsiflari orasidagi moslikni topish, yorqinlik va kuchaytirilganlik bo‘yicha rangning egallagan maydoni bo‘yicha juda muhim.

Zamonaviy interyerga tabiiy materiallar bilan qo‘shilib polixrom uyg‘unliklarni tashkil etadigan engil va yumshoq tusdagi ranglardan foydalanish xarakterli hisoblanadi.

Kuchaytirilgan yorqin tuslardan ulkan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ranglar nisbatini yaratish mumkin. Misol

sifatida - amfiteatrning qizil rangi yog‘ochning tilla rang turi bilan qo‘shilib tantanavorlikni yaratadi.

Shunday qilib, interyerni yaratish vazifalarida ranglar sifatini ham kiritish zarur bo‘ladi.

Yorug‘likning vazifalari. Yorug‘lik – Interyerni eng muhim tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Yorug‘lik inson kayfiyatining turli holatini paydo qiladi. U kayfiyat g‘amgin va sirli, sirli va engillik beruvchi, uyg‘otuvchi va sergak tortuvchi holatlarda bo‘lishi mumkin.

Interyer yorug‘ligini loyihalashda quyidagi vazifalar birga echiladi:

- funksional – xonada aniq ishni bajarish uchun kerak bo‘lgan yorug‘lik sathini ta’minlash;
- me’moriy – Interyerning badiiy ifodaliligini yaratish;
- iqtisodiy – yorug‘likni, funksional va me’moriy talablarga asoslanib optimal, eng qulay variantini aniqlash.

Yorug‘likning uchala vazifalari tomonini jamlaganda – utilitar, psixologik va estetik, Interyerning yorug‘lik me’morchiligi paydo bo‘ladi.

Yorug‘likdan badiiy maqsadda foydalanish yangilik emas. Rus klassitsizmi me’morlari zallarga serhashamlik, bayram va fazoviylikni berish uchun qandillar va oynalardan yaxshi bilib foydalanishgan. Toshkentdagi Navoiy nomidagi opera va balet teatridagi har bir viloyatni bildiruvchi zallardagi naqshinkor qandillar va hokazolar bularga misol bo’la oladi. Zamonaviy interyerda yorug‘likning ahamiyati shunchalik ustunki, ko‘p hollarda interyer arxitekturasini idrok qilish yorug‘lik bilan aniqlanadigan bo‘lib qoladi.

Interyerni yoritish yo‘nalishi tabiat yaratadigan yorug‘liklardan olingan nisbiy yorqinlikka qarab baholanadi.

Interyerni yoritish yo‘nalishi tabiat yaratgan yorug‘liklar yo‘nalishi bo‘yicha olingan nisbiy yorqinlikka qarab belgilanadi. Tabiatdagi yorug‘lik ko‘zni quvontiradi.

Pikasso tabiatdagi yorug‘likning insonga psixologik ta’siri to‘g‘risida shunday degan edi: «Inson xohlaydimi yo‘qmi u tabiatning jihozidir. U insonga o‘zining ko‘rinishi va xarakterini ko‘rsatadi (tutashtiradi). U bizning eng kuchlimizdan kuchliroqdir». Le Korbyuze aytgan: «Haqiqat shundaki, tabiat nima to‘g‘risida aytadi, faqatgina undan nimani so‘rashni bilsangiz».

Xulosa. Tabiiy yorug‘likning xarakterli tomonlari:

- Ko‘z tushish maydonida yorug‘liklar bo‘linishiga ma’lum aniqlik kiritilganligi. Osmon maydonining yuqori qismi eng yorug‘, er pastki qism - eng kam yorug‘likka ega. Gorizontdagi narsalar o‘rtacha yorug‘lik bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar insonga interyerda ham o‘rganilgan holday bo‘ladi.
- Yorug‘likning tekis maydonlarda teng bo‘linishi va notekis maydonlarda va notekis bo‘linishi interyerda tekis bo‘lingan yorqinlik, tekis yuza bilan notekis yorqinlik qiyshiq chiziqli yuza bilan ifoda qilinadi.
- Tabiiy yorug‘lik yo‘naltirilgan tarqalish va har xil nisbatda turli sharoitlarda aks ettirilgan nurlar bilan yaratiladi. Interyerda soyalar bilan erkin ifodalangan kontrast yorug‘lik quyosh nuri bilan yoritilganlikni-soyasiz esa bug‘iq kun yorug‘likni eslatadi.
- Tabiiy yorug‘likning yo‘naltirilganligi. Uning yordamida me’moriy ritm, yorug‘lik-soya ritmi bilan uzatib boriladi. Analog bo‘yicha, interyerda agar uning tabiiy ko‘rinishi zarur bo‘lsa, yorug‘lik-soya ritmi me’moriy ritmga mos tushishi kerak.
- Yorug‘likni yuqoridan yo‘naltirilishi. Yuqoridan yoritilgan interyer tabiiylik tuyg‘usini uyg‘otadi; pastdan yoritilgani o‘zgacha, teatrlashtirilgan tuyg‘uni uyg‘otadi.
- Konstrast yorug‘lik. Ko‘rish. Quyosh yaratadigan kontrastlarga o‘rgangan. Tabiatning ba’zi kontrastlariga o‘rganib qolganlik interyerda ham insonni tashlab qo‘ymaydi.

Yuqorida aytilganlardan qo‘yidagi xulosalarni qilish mumkin. Interyerni yoritishga ikki xil yondashish mumkin.

1. Yorug‘likning tabiiy sharoitlariga intilib borish-maktablarning o‘quv xonalari, sport zallar, kasalxonalar va hokazolar.
2. Xonada «teatr» effektini berish-bu tomosha zallari, restoranlar, ko‘rgazma zallariga to‘g‘ri keladi.

Saroylar xarakteridagi muxtasham binolarda yorug‘lik muhim me’moriy badiiy rolni bajaradi va me’moriy ifodalikni yaratadi.

Yig‘ilishlar zali, konferens zal va shunga o‘xshash boshqa xonalarda me’moriy talablarga ega qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan funksional talablar qo‘shiladi.

Yorug‘lik aksentini yaratish yordamida interyerda asosiy kompozitsiya nuqtasini ajratib ko‘rsatishi mumkin.

Interyerda yorug‘lik yordamida tektonik masalalar echiladi. Formalar aniqlanib olinadi, konstruksiyaning mohiyati, uning turg‘un ishi ochiladi.

Nuqtali yoritgichlar yordamida yulduzli osmon illyuziyasi (aldanish) yaratiladi, shipni ko‘rish yo‘qotiladi va hokazolar.

Adabiyotlar:

1. Лисициан М.В. Новикова Е.В. Петунина З.В. Интерьер общественных и жилых зданий. Москва. Стройиздат. 1973 г.
2. Пономарева Е. С. Свет в интерьере. Минск. «Высшая школа» 1994 г.
3. Фримет Г. «Человек, свет, пространтво» М. 1983 г.
4. Гусев Н. М. Световая архитектура. Москва. 1998 г.

TABIIY LANDSHAFTLARNI YARATISHDA "FREDERIK LAV OLMSTED" VA "EBENEZER HOVARD" LOYIHALARI TAHLILI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xurazov Alisher Shavkat o'g'li
SamDAQU, 3-kurs Landshaft dizayni guruh talabasi,
rahbar **Karimov Ulug'bek Nurmamatovich**,

Anotatsiya: Ushbu tezisda Frederick Lav Olmsted va Ebenezer Hovardning urbanizatsiya va landshaft arxitekturasi sohasidagi ta'siri xususan, Olmstedning Amerika landshaft arxitekturasi asoschilaridan biri sifatidagi yangi kontseptsiyalar ishlab chiqganligi tahlil etilgan. Ebenezer Hovardning esa, "Bog' shaharchalari" g'oyasi orqali shahar va qishloq hayotining eng yaxshi tomonlarini birlashtirishga intilganligi, tabiiy landshaftlarni, shahar hayoti bilan bog'lashdagi o'ziga xos nazariyalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Nyu-Yorkdagi Markaziy Parki, tabiiy landshaft elementlari, ekologik farovonlik, "peyzaj piktoriyalizmi", piktoriyal landshaft, "Bog' Shaharchasi" kontseptsiyasi, urbanistik yondashuv.

Annotation: This thesis examines the influence of Frederick Love Olmsted and Ebenezer Howard in the field of urbanism and landscape architecture, particularly the development of Olmsted's new concepts as one of the founders of American landscape architecture. It examines Ebenezer Howard's attempt to combine the best aspects of urban and rural life through the idea of "Garden Cities" and his unique theories of merging natural landscapes with urban life.

Keywords: Central Park in New York, natural landscape elements, ecological well-being, "pictorial landscape", pictorial landscape design, "Garden City" concept, urban approach.

Kirish. Frederick Lav Olmsted va Ebenezer Hovard, shahar va qishloq hayotining rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan XX asrning muhim shaxslaridandir. Ularning har biri o'zining noyob yondashuvi orqali urbanizatsiya (shaharsozlik), landshaft arxitekturasi (dizayni) va ijtimoiy muammolarga yechim taklif etgan. Olmsted "Landshaft arxitekturasining otasi" sifatida shaharlar ichida tabiiy muhitni birlashtirish va jamoatchilik joylarini yaratishga intilgan. Boshqa tomondan, Ebenezer Hovard "Bog' shaharchasi" kontseptsiyasini ishlab chiqib, shahar va qishloq hayotining eng yaxshi tomonlarini birlashtirishni maqsad qilgan. U o'zining g'oyalari orqali shaharlarning mustaqil va o'zini o'zi ta'minlaydigan jamoalarga aylanishini ko'zlagan. Hovardning nazariyasi zamonaviy urbanizatsiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu tezisda Olmsted va Hovardning ishlarini tahlil qilib, ularning yondashuvlari va nazariyalarining o'xshashliklari va farqlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning urbanizatsiya jarayonlariga qo'shgan hissalari va kelajakda shaharlarni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatlari yoritiladi [1].

Asosiy qism. Frederick Lav Olmsted amerikalik peyzaj me'mori bo'lib, "Amerika parklarining otasi" deb nom qozongan. U mashhur jamoat joylarini loyihalashda ishlagan va tabiiy go'zallikni shahar hayotiga integratsiya (yaxlitlash,birlashtirish, umumlashtirish) qilish orqali me'moriy dizayn va shahar rejalashtirishga katta hissa qo'shgan. Uning eng mashhur loyihalari orasida Nyu-Yorkdagi Markaziy Park va Bruklindagi Prospect Parki hisoblanadi (1-rasm) [3].

Olmstedning dizayn falsafasi parklarni nafaqat go'zal, balki shaharliklarga dam olish, sog'liqni tiklash va tabiat bilan bog'lanish imkonini beruvchi joylarga aylantirish edi. U tabiatning to'liq zavqini olish uchun tabiiy landshaft elementlarini, masalan, o'rmon, suv havzalari, keng yashil maydonlarni yaratdi. Olmstedning falsafasiga ko'ra, tabiatga yaqinlik va ochiq joylar ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

Markaziy Parkdan tashqari uning loyihalari quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

1. Prospect Park (Bruklin, Nyu-York) - Olmsted va uning hamkasbi Kalvert Vaux tomonidan loyihalashtirilgan bu park Markaziy Parkdan keyin yaratilgan va keng yashil maydonlar, ko'l va o'rmonzorlarni o'z ichiga oladi.

2. Emerald Necklace(Boston) - bu loyihada Olmsted bir-biriga bog'langan bir nechta park tizimini loyihalab, Bostonda tabiatni shahar hayotiga birlashtirdi.

3. Mont-Royal Park (Monreal) - bu loyiha Olmstedning Kanadadagi mashhur loyihalaridan biridir. U Mont-Royal tepaligida joylashgan va shahar manzarasini tabiat bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan [2].

a  b 

1-rasm. AQSH. Nyu-Yorkdagi Markaziy Park. Park arxitektorlar Frederik Olmsted va Kalvert Vaux:
a- Bethes terrasasi va favvorasining 1862-yildagi qurilish lavhasi. b- Bog‘ning janubiy tomoni, tabiiy peyzaj fonida ko‘p qavatli inshootlarning park bilan organik arxitekturaviy uyg‘unlashuvi.

Frederik Lav Olmstedning ishlari shahar landshaftlarini yaxshilashda davom etmoqda va u bugungi kunda ham shahar rejalashtirishda katta ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Olmstedning loyihalaridagi asosiy g‘oya shahar muhitiga tabiatni olib kirish orqali odamlar uchun sog‘lom va osoyishta joylar yaratish edi.

Uning fikricha, shaharlardagi gavjum va shovqinli muhitdan dam olish uchun tabiiy manzaralar va keng ochiq maydonlar zarur edi. Olmsted shahar landshaftini yaxshilash orqali insonlarning ruhiy va jismoniy salomatligini qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Olmstedning loyihalaridagi asosiy g‘oya yanada keng qamrovli edi va u urbanizatsiya jarayonida tabiatning muhimligini tan olgan birinchi shahar rejalashtiruvchilardan edi. Uning ishlarida ba’zi qo‘shimcha tamoyillar ham mavjud:

1. *Sun’iylik va tabiiylik uyg‘unligi* - Olmsted landshaftlarni loyihalashda tabiiy ko‘rinishni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratgan. Parklar sun’iy bo‘lsa-da, ular tabiatning tabiiy go‘zalligini aks ettirishi va shu bilan birga insonlarga haqiqiy tabiiy tajriba yaratishi kerak, deb hisoblagan. Masalan, Markaziy Parkda sun’iy yaratilgan o‘rmonlar va ko‘llar tabiiy ko‘rinishga ega bo‘lib, shahar muhitini yumshatishga xizmat qilgan.

2. *Ko‘rish chizig‘i (sightlines)* - Olmsted landshaft dizaynida ko‘rish chizig‘iga katta e’tibor bergan. U parklar ichida muayyan manzaralarni ochib, ularga kirish yo‘llarini yo‘naltirish orqali sayr qiluvchilarni tabiatning go‘zalliklarini qadam-baqadam kashf qilishga undagan. Bu “ko‘rish chizig‘i” texnikasi bilan u parklar ichidagi joylarni qiziqarli va mazmunli qilib yaratishga harakat qilgan.

3. *Jamoatchilikka xizmat qilish* - Olmstedning parklari odamlarning kundalik turmush tarziga moslashtirilgan. U o‘yin maydonchalari, dam olish maskanlari, piyoda sayr qilish va velosiped yo‘llarini loyihalab, odamlarning har xil faoliyatlari uchun qulay muhit yaratgan. Olmsted shuningdek, ochiq va bepul dam olish joylarining barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng darajada xizmat qilishini juda muhim, deb hisoblagan.

4. *Ekologik barqarorlik* - Olmsted parklar va yashil hududlar orqali shaharning ekologik muvozanatini ham yaxshilamoqchi bo‘lgan. Yashil zonalar shahar havosini tozalash, suv havzalarini yaratish, qushlar va boshqa yovvoyi tabiat jonzotlarini shaharlarga jalb qilish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatini yaratgan.

5. *Inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik* - Olmstedning ishlari inson va tabiat o‘rtasidagi chuqur ruhiy aloqani rivojlantirishga qaratilgan. Unga ko‘ra, tabiiy manzaralar inson ruhini ko‘taradi, stressni kamaytiradi va shaxsiy farovonlikni oshiradi. Shu sababli, Olmstedning parklari insonlarga o‘zlarini tabiatning bir qismi sifatida his qilishlariga imkon beradi [4].

Frederick Olmsted shaharlar kengayib ya’ni, urbanizatsiyalashib borayotgan sun’iy muhitda tabiiy go‘zallikni saqlash orqali shaharlar qanchalik rivojlanmasin, odamlar tabiatsiz hayot kechira olmasligini isbotlagan. Uning loyihalari bugungi kungacha shaharlar dizayniga ilhom baxsh etishda davom etmoqda va ularning falsafiy asosi ko‘p zamonaviy shahar rejalashtiruvchilar uchun muhim namuna bo‘lib xizmat qilmoqda [6].

Frederick Lav Olmsted o‘z loyihalarida tabiiy (naturalistik) uslubga tayanib, tabiatning o‘ziga xos ko‘rinishini saqlab qolishga intilgan. U o‘zi ishlab chiqqan park va landshaftlarda ,,peyzaj piktoriyalizmi’’ tamoyillarini qo‘llagan bo‘lib, bunda tabiat elementlari garmoniyasi orqali tinch va estetik jihatdan qulay muhit yaratish maqsad qilinadi. Olmstedning loyihalarida uning uslubiga xos bo‘lgan ba’zi asosiy xususiyatlar quyidagilar edi:

1. *Tabiatga yaqinlik* - Olmsted ko‘p hollarda dizaynni iloji boricha tabiatga o‘xshatishga harakat qilgan, masalan, sun’iy o‘rmonzorlar, maysazorlar, suv havzalari yaratgan. Bu yondashuv orqali u shahar muhitini tinchlantirishga va stressni kamaytirishga yordam beradigan joylar yaratmoqchi bo‘lgan.

2. *Piktoriyal landshaft* - u landshaftni xuddi rasmda tasvirlangandek tuzgan. Ushbu uslubda landshaftni

ko‘rsatish uchun maxsus ko‘rish nuqtalari va yo‘llar tanlangan. Buning natijasida, odamlar parkda sayr qilganda, har bir qadamda yangi va qiziqarli manzaralar ochiladi.

3. *G‘oyat keng va ochiq joylar* - Olmsted ko‘plab loyihalarida odamlar uchun keng maydonlarni asosiy nuqta qilib olgan. Markaziy Parkdagi “Sheep Meadow” yoki Prospect Parkdagi keng yashil maydonlar misolida bo‘lgani kabi, u keng ochiq joylar orqali odamlarning erkin dam olishiga imkon yaratgan.

4. *Suv elementlari va o‘rmonlar* - Olmsted loyihalarida tabiiy daryo, ko‘l va suv havzalariga katta ahamiyat bergan. Masalan, Prospect Parkda u katta ko‘l yaratgan va suv elementlarini boshqa tabiiy landshaft elementlari bilan uyg‘unlashtirgan. Bu esa parklarda jonlantiruvchi va osoyishta muhit yaratgan.

5. Me’moriy elementlarning kamligi - Olmsted ko‘pincha parklarida inson tomonidan yaratilgan strukturani kamaytirishga harakat qilgan. U ko‘priklar, yo‘laklar va boshqa inshootlarni iloji boricha tabiiy landshaft bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratgan, shunda ular tabiatga zarar yetkazmaydi va tabiiy go‘zallikni buzmaydi.

6. *“Chiziqli” parklar va bog‘ tizimlari* - Shaharni bog‘ tizimlari orqali bog‘lashga katta e’tibor bergan. Bostonning Emerald Necklace park tizimida u shaharning turli qismlarini bog‘lovchi yashil yo‘llar va bog‘lar tarmog‘ini yaratgan, bu esa odamlarni tabiiy manzaralardan bahramand bo‘lishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratgan [7].

Olmstedning tabiiy va garmoniyaga yo‘naltirilgan uslubi landshaft dizayni va shaharsozlikda tabiatning nafaqat bezak uchun, balki inson ruhiy va jismoniy farovonligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil ekanligini ta’kidlashga qaratilgan edi. Uning uslubi zamonaviy ekologik dizayn va yashil shaharsozlikning asosiy ilhom manbalaridan biriga aylangan.

Shuningdek Frederick Lav Olmsted Yosemite vodiysi qo‘riqxonasini rivojlantirish va himoya qilishda muhim rol o‘ynagan. 1864-yilda Yosemite va Mariposa sequoia daraxtzorini Kaliforniya shtatiga topshirgan Abraham Linkolnning “Yosemite Grant” qonuni qabul qilingandan keyin, Olmsted ushbu hududni himoya qilish va boshqarish mas’uliyatini olgan komissiyaning raisi etib tayinlangan. Bu, aslida, milliy bog‘ni himoya qilish va boshqarish bo‘yicha ilk tashabbuslardan biri bo‘lib, Olmstedning g‘oyalari milliy bog‘lar tizimining kelajakdagi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Olmstedning Yosemite’ni himoya qilish va boshqarish haqidagi hisobot va g‘oyalari keyinchalik AQShning milliy bog‘lar tizimini yaratishda katta ta’sir ko‘rsatdi. 1872-yilda Yellowstone milliy bog‘i tashkil etilganida, Yosemite Grant ushbu milliy bog‘larning boshlanishi va himoya qilinadigan hududlar tushunchasining asoschisi sifatida qaraldi [2].

Ebenezer Hovardning nazariyasi urbanizatsiya va shaharsozlikda katta yangilik bo‘lib, ayniqsa “Bog‘ shaharchasi” (garden city) kontseptsiyasi orqali mashhur bo‘lgan. Uning g‘oyalari shahar va qishloq hayotining eng yaxshi tomonlarini birlashtirishga qaratilgan quyidagi tamoyillarga asoslangan:

-Bog‘ shaharchasi kontseptsiyasi. Hovardning asosiy g‘oyasi – shahar va qishloq hayotining ijobiy tomonlarini birlashtirgan bog‘ shaharchalarini barpo etish edi. U shahar muhitida tabiiy go‘zallik va ochiq joylarni saqlash bilan birga, qishloq hayotiga xos xotirjamlikni ta’minlaydigan jamoalarni yaratishga intildi. Ushbu yondashuv ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan;

-Ijtimoiy tenglik va hamkorlikka intilish. Hovardning nazariyasi shaharlarni rivojlantirishda ijtimoiy tenglik va jamoat farovonligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. U bog‘ shaharchalari orqali shahar va qishloq aholisining farovon yashashini, jamoalar esa iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustahkam bo‘lishini maqsad qilgan. Bu yondashuv hozirgi urbanizatsiya sohasida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

-O‘zini o‘zi ta’minlash va mahalliy iqtisodiyot. Hovardning “bog‘ shaharchasi” rejasida har bir shahar o‘zining ichki iqtisodiyotiga ega bo‘lishi, o‘zini o‘zi ta’minlay oladigan shaklda bo‘lishi kerak edi. U shaharchalarning kichik o‘lchamli sanoat va qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanib, o‘z aholisi uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarishini taklif etgan. Bu esa jamoa a’zolari o‘rtasida yaqin ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

-Atrof-muhitga e’tibor. Hovardning nazariyasi atrof-muhit muhofazasiga katta ahamiyat beradi. Uning shaharchalari aholiga tabiatning go‘zalligini taqdim etishga, ko‘proq ochiq va yashil maydonlar yaratishga yo‘naltirilgan. Shaharlarni tabiiy go‘zallik bilan birlashtirish orqali Hovard kelajakdagi urbanizatsiyaning barqaror modelini ishlab chiqishga intilgan.

-Bog‘ shaharchalarining xususiyatlari. Hovard o‘z kontseptsiyasida bog‘ shaharchalarining aniq xususiyatlarini belgilab bergan. Ular o‘z-o‘zidan mustaqil, o‘z ichida jamoat xizmatlari, yashash joylari, ishlab chiqarish zonalari va qishloq xo‘jaligini qamrab olishi kerak. Har bir shaharchaning o‘z markaziy bog‘ va jamoatchilik binolari bo‘lishi zarur, bu esa jamoatchilik hayotini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan bo‘lgan.

-Zamonaviy urbanistik yondashuvlar uchun asos. Bugungi kunda Hovardning bog‘ shaharchalari kontseptsiyasi zamonaviy urbanizatsiya va ekologik shaharsozlikka asosiy tamoyil sifatida xizmat qilmoqda. Ko‘plab ekologik va barqaror rivojlanishga asoslangan loyihalar Hovardning g‘oyalaridan ilhomlanadi. Uning shaharlar uchun muvozanatli va barqaror model sifatida taklif qilgan nazariyasi ekologik inqiroz va shahar aholisining sifatli hayotga ehtiyojini ta’minlashda dolzarblik kasb etadi [8].

Xulosa. Frederick Lav Olmsted va Ebenezer Hovardning shaharsozlik bo‘yicha yondashuvlari – biri Amerika, biri esa Britaniya shaharlarini o‘zgartirgan ikki yirik nazariya – urbanistik jarayonlarga ekologik va ijtimoiy yondashuvni birlashtiradi. Olmsted va Hovardning g‘oyalari, bugungi kunda shaharlarni

rejalashtirishda va ijtimoiy muammolarni hal etishda davom etmoqda va ularning merosi shahar landshaftining zamonaviy ko‘rinishini shakllantirishda muhim o‘rin tutishini e’tiborga olgan holda quyidagicha izohlash mumkin:

- Olmstedning tabiat va ochiq hududlarning insonga ta’siriga e’tibor qaratgan “Peyzaj arxitekturasi” nazariyasi, tabiat va shahar hayoti o‘rtasidagi aloqani kuchaytirishni taklif etadi. Bu yondashuv jamoat joylarini nafaqat estetik jihatdan, balki sog‘liqni saqlash va aholi uchun dam olish imkoniyatlarini yaratishga ham qaratilgan.

- Hovard esa o‘zining “Bog‘ shaharchasi” modeli orqali shahar va qishloq hayotining eng yaxshi tomonlarini birlashtiradigan, ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror shaharchalar qurishni maqsad qilgan. Uning yondashuvi aholining sifatli yashash muhitiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlab, o‘zini o‘zi ta’minlay oladigan ijtimoiy hamda iqtisodiy turmush-tarzini yaratishga qaratilgan edi. Olmsted va Hovardning yondashuvlari birgalikda urbanistik rejalashtirish va ekologik barqarorlikda yangi modelga asos bo‘lib xizmat qilgan. Ularning shahar va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan ishlari zamonaviy shaharlar uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu nazariyalar kelajak shaharlarini loyihalashda aholi farovonligi, ekologik muvozanat va ijtimoiy hamjihatlikka asoslangan ilg‘or yondashuvlarni joriy etishda muhim metodologik asos sifatida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Frederick Law Olmsted: Designing the American Landscape” - Charles E. Beveridge va Paul Rocheleau
2. “Genius of Place: The Life of Frederick Law Olmsted” - Justin Martin
3. “A Clearing In The Distance: Frederick Law Olmsted and America in the 19th Century” - Witold Rybczynski
4. Nurmamatovich, K. U., & Bakhridinovich, I. H. (2023). Conceptual Principles of Beautiful and Landscaping of Green Public Parks. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(4), 31-34.
5. Каримов, У.Н., Облакулова, Х., & Кодирова, Н. (2017). Роль малых архитектурных форм в ландшафтном дизайне. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-3), 25-29.
6. Karimov, U. N. (2024). Characteristics of Protection and Formation of National Parks. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(5), 380-384.
7. КАРИМОВ, У. Н., & КАДИРОВА, Н. Б. (2017). РОЛЬ ОСВЕЩЕНИЯ В МАЛЫХ АРХИТЕКТУРНЫХ ФОРМ И ДЕКОРАТИВНЫХ РАСТЕНЕЙ. In Молодежь и XXI век-2017 (pp. 334-337).
8. Nurmamatovich, K. U., & Musurmonqizi, M. M. (2022). In the Conditions of Uzbekistan Principal Principles of Organization of Culture and Recreation Parks. International Journal on Integrated Education, 5(5), 157-161.

Axborot resurslari:

https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/thumb/1/13/Central_Park_-_The_Pond_%2848377220157%29.jpg/800px-Central_Park_-_The_Pond_%2848377220157%29.jpg 5. https://www.olmsted.org/(https://www.olmsted.org/)
https://tclf.org/(https://tclf.org/)
https://www.loc.gov/(https://www.loc.gov/)
"The Garden City: Past, Present and Future" – Stephen V. Ward
"Town Planning in Practice" – Raymond Unwin
"The City in History" – Lewis Mumford
National Park Service (https://www.nps.gov/articles/ebenezer-howard.htm)
ResearchGate (https://www.researchgate.net/)
Academia.edu(https://www.academia.edu/)
CityLab (https://www.bloomberg.com/citylab)

UDK 721.011

YO’LLAR ATROFIDAGI ARXITEKTURA VA UNING TAHLILI

Xamrakulov Oybek Mamadaminovich
SamDAQU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada yo’llarni arxitekturaviy ko’kalamzorlashtirish va obodonlashtirishning amaliy tahlili, yo’l atrofida joylashgan tabiiy muhitga nisbatan estetik yondashuv, yo’l qatnov qismida daraxtlar va butalarni landshaft rejalashtirishning arxitekturaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: ko’kalamzorlashtirish, daraxtlar, rejalashtirish, mikroiqlim,yo’lak, atmosfera, monumental bezak, ko’kalamzorlashtirish loyihasi.

Annotatsion: The article describes the practical analysis of architectural greening and beautification of roads, the aesthetic approach to the natural environment around the road, the architectural importance of landscape planning of trees and bushes on the road.

Key words: landscaping, trees, planning, microclimate, sidewalk, sidewalk, atmosphere, monumental decoration, landscaping project.

Arxitektura sohasida yo’llarni loyihalash bir qancha vazifalarni yuklaydi. Jumladan, yo’l atrofida mukammal arxitektura ob’yektlari mutanosibligini aniqlash hamda uning yo’lga nisbatan aloqalarini yaxshilash va atrof muhitni yo’l qatnov qismi bilan bog’lash muhim vazifa sanaladi. Yo’l atrofida arxitektura obyektlarini rejalashtirishda ko’kalamzorlashtirish masalalari birlamchi sanaladi.

Yo’llarni ko’kalamzorlashtirish. Yo’llarni ko'kalamzorlashtirish uning atrofida, ichida, chetlarida,

yo'llarning ajratish qismida daraxtlar, butalar va maysazorlarni joylashtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Yo'llarni ko'kalamzorlashtirish masalalari bir nechta funksiyalarni bajaradi: me'moriy va dekorativ, himoya (chang, zaharli gazlar va avtomobil chiqindilari) va ajratish (avtomobillar va piyodalar oqimi).

Ko'kalamzorlashtirish mikroiqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ular shahar shovqiniga qarshi kurashda, shamol va changdan himoya qilish, tuproqni mustahkamlash, maydonlarni drenajlash va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.

Yo'llarni ko'kalamzorlashtirishning bir necha **usullari** mavjud, ularni quyidagi asosiy sxemalarga qisqartirish mumkin:

- yo'l va piyodalar yo'laklari o'rtasida bir, ikki yoki undan ortiq qatorda ko'chatlar o'rnatish;
- yo'lning ajratuvchi chizig'ini obodonlashtirish;
- trotuarlar va binolar orasidagi bir va ko'p qatorli ko'chatlarning joylashishi;
- asosiy ko'chalar va xiyobonlarni birgalikda obodonlashtirish.

Ko'kalamzorlashtirish turi **ko'chatlarning maqsadi**, iqlim sharoiti, yo'nalishi, ko'chalarning kengligi va maqsadi, binoning qavatlar soni va boshqa omillarga qarab tanlanadi. Peyzaj texnikasini tanlashda siz quyidagi tavsiyalarga amal qilishingiz mumkin.

- Shaharning barcha ko‘chalari va ayniqsa, transport harakati zich bo‘lgan va sanoat korxonalariga tutash ko‘chalar obodonlashtirishga;
- Daraxtlarni yo'l va yo'lak o'rtasida, tor ko'chalarda esa - binolarning jabhalari bo'ylab joylashtirish afzaldir;
- Atmosfera havosi va shovqin ifloslanishiga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun piyodalar va yo‘laklar orasiga butalar ekishni keng joriy etish;
- ekishda avtomobil chiqindilariga (jo'ka, terak, chinor, kashtan, akatsiya, yasemin, asal va boshqalar) chidamli zich tojli daraxtlar va butalarga ustunlik beriladi;
- chorrahalarda va ko'cha burilishlarida qo'nish joylari piyodalar va haydovchilarning yo'lni va harakatlanayotgan transport vositalarini ko'rishiga xalaqit bermasligi kerak;
- yashil chiziqlar kengligi yashil maydonning turiga bog'liq: 1) butalar bilan bir qatorda daraxtlar qatori ekilgan maysazor: bir qator - 2 m, ikki qator - 5 m; 2) bir xil butalar ekilgan maysazor: baland (1,8 m dan yuqori) - 1,2 m, o'rta (1,8 m gacha) - 1,0 m; 3) guruh yoki bo'lak ekish bilan maysazor: daraxtlar - 4,5 m, butalar - 3,0 m; 4) maysazor - 1,0 m;
- Daraxtlarning ildiz tizimi binolar, inshootlar va kommunal tarmoqlarning poydevorini buzishi mumkin, shuning uchun daraxtlarni (butalar) binolarning tashqi devorlaridan 5 (1,5) m, tramvay yo'llaridan 5 (3) m, 2 dan yaqinroq masofada ekish kerak. (1) yo'lning chetidan m, gaz quvurlaridan 1,5 m, isitish quvurlaridan 2 (1) m, suv quvurlaridan 2 m, elektr kabellaridan 2 (1) m;
- daraxtlar orasidagi masofa ularning etukligida tojlarining 2-4 diametriga teng ravishda olinadi. Piyodalar bo'ylab daraxt ekish paytida kamida 4 m^2 maydonga ega bo'lgan magistrallar yaqinida ochiq joy qoldirish kerak . Zich toj va katta barg yuzasiga ega bo'lgan daraxtlarga ustunlik beriladi, bu ularga ko'proq karbonat angidridni singdirish va piyodalarni quyoshdan himoya qilish uchun ko'proq soyani ta'minlash imkonini beradi;
- Qalinligi kamida 0,2 m bo'lgan o'simlik tuprog'i qatlami ustida maysazorlarni yaratish uchun o'tlarning aralashmalari (o'tloq blyugrass, ingliz javdarlari, fescue va boshqa o'tlar) ishlatiladi.

Shahar sharoitida yashil maydonlar o'simliklarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan noqulay, tajovuzkor muhitda mavjud. Shuning uchun yashil maydonlarga doimiy g'amxo'rlik qilish zarur, bu ularning o'z vazifalarini bajarishiga yordam beradigan chora-tadbirlar majmuini anglatadi. Yashil maydonlarga texnik xizmat ko'rsatish yil davomida amalga oshirilishi kerak va quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- tuproqni parvarish qilish (sug'orish, yumshatish, o'g'itlash, mulchalash, izolyatsiyalash va boshqa tadbirlar);
- zamin qismiga g'amxo'rlik qilish (kesish, yuvish, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurash).

Ko'kalamzorlashtirishning **muhim elementi** - shahar ko'chalari va maydonlarining gulli ramkalari. Gul to'shaklari, qoida tariqasida, oddiy geometrik shakldagi parter shaklida, tizma - tor gullar chizig'i, o'lchami va shakli ma'lum bir tarkibga bo'ysunadigan "modullar" ko'chma uskunalardan foydalangan holda yaratilgan. (vazalar) va boshqa texnikalar. Gullarni bezash sifati gullash vaqti va davomiyligi, gullar va barglarning rangi va shakli bo'yicha gullaydigan o'simliklar assortimentini mohirona tanlashga bog'liq. Yo'l bo'yidagi ekinlarni avtomobil yo'llari muhandislik jihozlari sirasiga kiritish g'ayritabiiy ko'rinadi. Lekin ko'kalamzorlar dekorativ vazifalarni bajarishdan tashqari yo'lning transport-foydalanish xususiyatlariga tegishli ta'sir qiladi. Ko'kalamzorlar harakat havfsizligining qulayligi va xavfsizligiga, qish vaqtida avtomobil transportining ishi tejamli bo'lishiga ta'sir qilishi yo'l bo'yidagi o'simliklarni to'siqlar, yo'l belgilari va boshqa muandislik jihozlari bilan bir qatorga qo'yish imkonini beradi.


Ko'kalamzorlashtirish loyihasi tuzilganda avtomobillarning hisoblangan harakatini e'tiborga olish kerak. Tezlik qancha katta bo‘lsa alohida yoki to‘p qilib daraxt ekishning o‘rniga katta daraxtzorlar qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Uzun bir xil ekinning o‘rniga daraxtlarni guruh qilib ekish to‘g‘ri bo‘ladi. Kichik daraxtlar guruhiga qo‘shimcha daraxtlar ekilishi, qalin butalarni esa siyraklashtirib, yo‘ldan manzara yoki imoratlar ko‘rinadigan qilish mumkin; noxush ko‘rinishni berkitish uchun daraxt ekish, bezatish ishlarini bajarsa bo‘ladi.

Yo'ldan ko'rinadigan manzara o'rmon joylarining bir xilligini buzadigan dominantga aylanadi. Loyihadagi bunday ishlar asoslangan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan muhandislik psixologiyasidagi ma'lum bir qoidani e'tiborga olish kerak, ya'ni yangi signalni idrok qilish vaqti (cheklanmagan sharoitdagi reaktsiya vaqti) 3

sekund bo'ladi, 4 sekund qaraganidan so'ng qarovchida betoqatlik alomatlari paydo bo'ladi. O'rtacha idrok qilish vaqtini 3,5 sekund deb olaylik, ekinzorlar, binolar uzilgan joydagi oraliqni ko'rish 3,5 sekunddan oshmaydi deb hisoblaymiz. Shunda uzilgan joylarning chegaraviy (hisoblanadigan) uzunligi (metrda) son jihatidan (kilometrdagi) lr = υr harakat tezligiga teng bo'ladi.Manzarali joylarni yo'ldanxotirjam ko'rish uchun hisoblangantezlik 100 km/soat bo'lganda uzilgan joyning hisoblangan uzunligi lr =100 m bo'lishi kerak, (1.1-rasm) rasmdagi loyihada esa bu oraliq 120-150 m qilib olinganini ko'rishimiz mumkin. Aksincha bo'lganda, ya'ni biror ob'ektni, misol uchun, yo'l yoqasidagi jarni berkitish , shu bilan birga bu ob'ektga boradigan yo'llarni saqlab qolish uchun uzilish oralig'ini chegaraviydan ko'ra kamroq, yuqoridagi holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, 60 m qilib belgilash kerak (1.2 rasm).



1.1 rasm. Yo'l bo'yidagi daraxtlar uzilish oralig'ini belgilashga misol: a– manzarani ochish uchun (uzilish oralig'i chegaraviydan ko'p); b – berkitish uchun (uzilish oralig'i chegaraviydan kam).




1.2-rasm. O'rmon massivi bir xilligini buzishga misol:

1-o'rmondagi ochiq joy; 2-o'rmon ko'tarilgan joy; 3-daraxtlar alohida o'sgan joy.


O'rmon manzarasi bir xil bo'lganda, yo'l o'tkazish uchun o'rmon tozalanganda, alohida daraxtlarni, o'rmon ko'tarilgan joylarni qoldirish kerak (1.2-rasm). Yaxshi ko'rinib turishi uchun daraxtlar ko'tarilgan joylar bilan ular orasidagi masofani hisobga olingan lr qiymatdan kamaytirmaslik kerak.

Yo'naltiradigan daraxtlar harakat yo'nalishi o'zgarishini bildiradi, uzoqdan haydovchiga burilishning egilish darajasini ko'rsatadi. Ular faqat liniyali, o'tish o'qiga parallel joylashgan, yer poyidan chetda bo'lishi kerak. Ularning uzunligi burilish radiusiga bog'liq bo'ladi, ularning qatori esa egri chiziqqa yaqinlashish joyidan qaraganda harakat polosasi butun kengligini berkitgandek bo'lishi kerak (1.3-rasm).

a)



b)



1.3-rasm. To'g'ridan qaraganda egri chiziqlardagi yo'naltiruvchi daraxtlar:


a- radiusi kichik egri chiziqda; burchagi kam, b - burilish radiusi katta egri chiziqda.

To'siq daraxtlar haydovchiga shu yo'nalishda harakatni davom ettirish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi, nigohini «qaytaradi», nazarini kerakli tomonga qaratadi. Ular ham yo'naltirish qoidasiga amal qilib ekiladi: ular asosan chorrahalarda, avtobus bekatlarida, transport yechimlarida kerak bo'ladi, lekin dam olish maydonchalarida, harakat xizmati komplekslarida ham ishlatilishi mumkin 1.4-rasm). Manzara beruvchi yoki ajralib turuvchi ekinlar maqsadi haydovchini yo'lning muhim joylarida va potentsial xavfli uchastkalarda e'tiborni tortmasligi (manazara beruvchi) yoki aksincha haydovchini e'tiborini tortish, muhim yoki harakat xavfsizligi uchun yoki yo'llarni me'moriy tashkil etishda (misol uchun, havzalar chegarasini belgilashda) e'tiborni tortish. Aktsentlovchi ekinlar bo'ylama kesimni bo'rtiq joylarida «darvoza» ni tashkil qiladi (1,5- rasm).


Dam olish maydonchalarini rejalash loyihalarida yuqorida aytilgan daraxt ekish qoidalari ishlatiladi (1.6-rasm).

Ma'lumki yo'l harakati uchun yo'lning ortiqcha egriligi qancha xavfli bo'lsa uning uzoq masofaga to'g'ri cho'zilgani ham shunchalik xavfli bo'ladi. Biroq guruhli ko'kalamlashtirish ko'rinishidagi me'moriy aktsentlarni joylashtirib yoki yo'lni bezatish elementlarini binolar bilan uyg'unlashtirib ma'lum


chegaragacha yo'l trassasi ko'rinishini yaxshilash mumkin.



1.4-rasm. To'siq daraxtlarning yo'lga birikishiga misollar: a) yo'ldan tushish joyiga qarama-qarshi; b) o'tish-tezlik polosasining oxirida; c) ko'tarilgan egri chiziq orqasida.



1.5-rasm. Bo'ylama profilning ko'tarilgan siniq joylarida daraxtlarni juft ekish: a) yopiq joyda; b) ochiq joyda.



1.6-rasm. Dam olish maydonchasi loyihasida turli daraxt va butalarni ishlatishga misol: C) o'rindiq T) hojatxona.

Yo'lni monumental bezatish imkon qadar yassilik ko'rinishida bajarilishi kerak. Uning ma'lumot beradigan mazmuni shunchalik to'liq bo'lishi kerakki, uzoqdan ma'lum bo'lishi, haydovchida ob'ektni yonidan yoki o'tib ketayotganda ko'rish istagini paydo qilmaslik kerak. Yo'llarda old qismi ketayotgan avtomobilga emas yo'lga qaragan kichik shakllar, monumentlar bo'lmasligi kerak.

Yo'nalish sxemalari va shahar nomlari monumental ko'rinishdagi yo'l ko'rsatgichlarida ma'lum qilinishi mumkin, ular shuningdek me'moriy havzalar chegaralarida dominant vazifasini bajaradi yoki dominantni ajratib turish uchun xizmat qiladi.

Belgilarga o'xshab, **monumental bezash**larni ham imkoni boricha bo'ylama profil ko'tarilgan siniq joylarga yoki to'g'ridagi egri chiziqning tashqi tomoniga o'rnatish kerak. Shunday bo'lganda monument yoki ko'rsatgich o'zining asosiy vazifasidan tashqari nigohni yo'naltiruvchi element vazifasini ham bajaradi, agar o'lchami katta bo'lsa yo'l atrofidagi manzarada dominant ham bo'lishi mumkin.

Kichik me'morchilik vositalari - haykallar, shiyponcha va hokozolar faqat ko'kalamlashtirish vositalarining o'zi bilan cheklanishning iloji bo'lmaganda, shuningdek, xizmat inshootlari tarkibida, ularning atrofini obodonlashtirish uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi mamlakatimizda shaharsozlikning eng muhim muammolaridan biri yo'lsozlik hamda aholi yashash joylarining ekologik muhitini yaxshilash, yo'llarning badiiy ko'rinishini boyitish, yo'llar arxitekturasiga yuqori talablar qo'yilgan shaharlarda inson uchun sog'lom va qulay yashash sharoitlarini tashkil etishdan iborat. Ushbu muammoni hal etishda me'moriy rejalashtirish, yo'llarni arxitekturaviy ko'kalamzorlashtirish, hamda estetik talablarga mos ravishda amalga oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1."Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish usullari" A.X. O'roqov

2. Rodichkin I.D., Rodichkina M.P. Premы ozeleneniya avtomobilnix dorog. «Avtomobilniye dorogi»

3. ."Spravochnik po ozeleneniyu avtomobilnых dorog." Deyisov I.P.

4. Morozov I.V. Kompleksnaya ostenka arxitekturnых kachestv avtomobilnых dorog/ V sb.: Stroitelstvo i ekspluatastiya avtomobilnых dorog i mostov. Minsk

5. Babkov V.F. Landshaftnoe proektirovanie avtomobilnых dorog. - M.: Transport

6. Q.X.Azizov. "Yo`llarda xavfsiz xarakatlanish asoslari", Toshkent: TAYI 2005y

7. https://studfile.net/preview/9892729/page:8

8. https://unilibrary.uz/

HUDUDLARNI OBODONLASHTIRISHDA EKO-AVTOTURARGOHLARNING O'RNI VA VAZIFASI

Yunusova Kamola Baxodirovna
Mustaqil izlanuvchi: K.B.Yunusova, SamDAQU

Annotasiya: Har yili aholining avtomobillashtirish darajasi oshishi va avtotransport vositalarining ko'payishi shaharlarda ekologik vaziyatning yomonlashishiga olib kelmoqda. Maqolada avtomobil to'xtash joylarini

obodonlashtirishda turli xil materiallardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hamda avtoturargoh va obodonlashtirish kabi ikkita dolzarb masalalar shaharda ekologik muammolarini hal qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Eko-avtoturargohning nazariy tarkibiy qismi ko‘rib chiqilib, ma’lum tadqiqot natijalari beriladi. Shuningdek, tadqiqotda ushbu muammoning yechimi O‘zbekiston shaharsozligi hududida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha tadbir sifatida yashil avtoturargohlarni (eko-avtoturargohlarni) o‘rnatish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: avtomobil to‘xtash joylari, eko-avtoturargoh, ekologiya, maysali panjaralar, geotekstil panjaralar, beton panjaralar, polimer panjaralar.

Avtomobil to‘xtash joylari (avtoturargohlar) nafaqat muhandislik infratuzilmasining elementi, balki shaharning keyingi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan me’moriy va rejalashtirish qurilishining ajralmas qismidir. Zamonaviy dunyoda mavjud bo‘lgan me’moriy yechimlar ko‘pincha avtomobil to‘xtash joylarini estetik va ekologik idrok nuqtai nazaridan odamlar uchun yoqimsiz qiladi. Shu munosabat bilan, zarur tabiiy landshaftni infratuzilma bilan birlashtirish imkoniyatini izlash dolzarbdir, shunda avtomobil transportisiz mavjud bo‘lolmaydigan va rivojlana olmaydigan shahar arxitekturasiga mos kelishi mumkin.

Dunyoda hozirgi ekologik vaziyat shaharsozlik sohasidagi eski usullardan foydalanishga imkon bermaydi. Shaharning butun yuzasini asfaltlash va betonlashtirish hududni amalga oshirish uchun yaxshi variant deb hisoblanmaydi. Shahar aholisi jamoat joylarini obodonlashtirishga juda muhtoj, chunki obodonlashtirish bu nafaqat changni yutish funksiyasini bajaradi, balki Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ko‘plab tadqiqotlariga ko‘ra, ruhiy va jismoniy salomatlikka, shuningdek kayfiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, ushbu tadqiqot doirasida hududlarni obodonlashtirishning yana bir vazifasi ko‘rib chiqiladi – issiq mavsumda shaharda havo haroratini pasaytirish. Daraxtlar nafaqat karbonat angidridni yutish orqali, balki ular yaratgan soya tufayli ham shaharni sovutadi. Natijada, daraxtlar bo‘lgan ko‘chalarda harorat daraxtsiz ko‘chalarga qaraganda ancha past bo‘ladi.

Shahar va qishloqlarda mashinalar sonining umumiy ko‘payishi muqarrar ravishda atrof-muhitning yomonlashishiga olib keladi. So‘nggi yillarda avtomobillar sonining tez o‘sishi shaharlar va uning atrofidagi hududlarda avtoturargohlarning yetishmasligiga olib keldi. Asfalt va betonning tarqalishi (va natijada haroratning ko‘tarilishi) ekologik muammo bilan birgalikda bu shahar aholisini ham tashvishga solmoqda. Eko-avtoturargoh bu muammoni qisman hal qilishga yordam beradi.

Eko-avtoturargoh (ekologik avtoto‘xtash joyi) konsepsiyasi turli xil transport vositalarining to‘xtash joyi sifatida belgilanadi, bu maysazor o‘tlari bilan ekilgan va maysazor tarmog‘i bilan mustahkamlangan maxsus obyekt bo‘lib, o‘t o‘simliklarining ildiz tizimini avtomobil shinalari shikastlanishidan himoya qiladi va hududni estetik jihatdan yoqimli saqlaydi. Ushbu turdagi avtoturargohlar samaradorligi tarkibiy qatlamlarda tog‘-kon sanoati chiqindilariga asoslangan samarali yo‘l-qurilish materiallaridan foydalangan holda yaxshilanadi.

Materiallar va metodlar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-son qarorlariga muvofiq “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirishni tashkil etish qoidalari” va 2013-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 223-son yashil qurilishni rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbolli strategiyasi ishlab chiqildi va unga landshaft texnikasini joriy etish dizayni tasdiqlandi. Ushbu va boshqa me’yoriy hujjatlar Respublika shaharlarining obodonlashtirish va landshaft sifatini yaxshilashga yordam beradi [6].

O‘zbekistonda urbanizatsiya davrida obodonlashtirish va landshaft dizaynining tobora o‘sib rivojlanishi sharoitida shaharda eko-avtoturargohlarni yaratish usuli bilan obodonlashtirish juda dolzarb bo‘ladi. Bu maysali panjaralar orqali tashqi ta’sirlardan himoyalangan mashinalar uchun maysazorlardir. Ushbu usul shaharga ko‘proq go‘zallik va poklik bag‘ishlaydi va shaharda bunday turdagi avtoturargohlar sonini ko‘paytirishga imkon beradi. Maysali panjaralar yaxshi, chunki ular ekilgan o‘simliklarning ildiz tizimini himoya qiladi, ammo shu bilan birga havo va suv almashinuviga to‘sqinlik qilmaydi. Ular tuproqni mustahkamlaydi, odamlarga, hayvonlarga va mashinalarga uni oyoq osti qilishga imkon bermaydi. Panjara bir necha tonna yukga bardosh bera oladi, bu eko-avtoturargoh uskunalari uchun juda muhimdir.

Texnologiyaning rivojlanishi va yangi materiallarning paydo bo‘lishi bilan maysali qoplamani buzmasdan avtoturargohlarni tashkil qilish muammosini hal qilish usuli paydo bo‘ldi. Bu maysali panjaralarning paydo bo‘lishi va eko-avtoturargohlar, ya’ni ekologik avtoturargohlar tufayli mumkin bo'ldi. Bunday panjaralardan foydalanib, bir vaqtning o'zida yashil maydonlarni saqlash va avtoturargohlarni kengaytirish mumkin [2].

Maysali panjaralardan foydalanish xususiyatlari. Modulli maysali panjaralarini ishlab chiqarish uchun beton yoki yuqori mustahkamli plastmassadan foydalaniladi. Panjara o‘tli qoplamni yaratish uchun ishlatiladi. Bunday holda, qoplama transport vositalaridan o‘tish yoki to‘xtash uchun mo‘ljallangan. Mahsulot g‘ovakli tuzilishga ega bo‘lib, tuproq uchun mustahkamlash vazifasini bajaradi. Panjaralarning vertikal devorlari maysali o‘tlarining ildizlarini shikastlanishdan, poymol qilishdan himoya qiladi.

Maysali panjaralar ilg‘or bardoshli materialdan tayyorlangan bo‘lib, ular hatto - 40^0C darajagacha bo‘lgan haroratda ham o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi. Shuning uchun mahsulotlar bardoshli va ular tegishli obyekt uchun noto‘g‘ri model tanlangan taqdirdagina qulashi mumkin [3].

Geotekstillardan foydalanish maysazorlarning uzoq muddatli ishlashi uchun zarur shartdir.


Geotekstil-bu polimer tolalardan tashkil topgan to‘qilmagan mato. U maydalangan tosh (shag‘al) qatlamiga yotqizilgan. Agar bunday qilinmasa, unda tez orada tuproq shag‘al bilan aralashtiriladi, bu uning botqoqlanishiga olib keladi. Va bunday tuproqlarda o‘tli o‘simliklar yomon o‘sadi va mashinalar to‘xtab turgandan keyin deyarli tiklanmaydi. Shuningdek, maysazorlarni tashkil qilish uchun oddiy o‘tli o‘simliklardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Buning uchun oyoq osti qilishga chidamli va parvarish qilishda oddiy o'tli o‘simliklarning maxsus turlari mavjud.



1-rasm. Beton maysali panjara

Panjara o‘rnatilgandan so‘ng, mustahkam va zich chim hosil bo‘lishini kutish kerak. Bu odatda ikki oy davom etadi. Shundan so‘ng, maysali avtoturargohdan maqsadga muvofiq foydalanish mumkin. Maysa normal o‘sishi va tez tiklanishi uchun unga quyosh nuri kerak. Shuning uchun, bunday avtoturargohlar transport vositalarini tunda yoki kechqurun yoki vaqti-vaqti bilan to‘xtash uchun ishlatish tavsiya etiladi. Buning uchun turli muassasalar - savdo markazlari, ko‘ngilochar markazlar, supermarketlar va boshqa jamoat binolari oldida avtoturargoh juda mos keladi [3].

Современная народная архитектура (Неонародная архитектура) Сегодня исследования народной архитектуры считаются важными по многим причинам. Важнейшей среди них является экономическая глобализация, которая проявляется как минимум в трех направлениях: глобальные коммуникационные тех- Me′morchilik va qurilish muammolari 2024 йил, №2 сон 52 нологии, глобальный экологический кризис и глобальная геополитика. Международный научно-исследовательский журнал ▪ № 2 (128) ▪ Февраль Примечание: по Willia-H. Sewell Jr, 1999, отредактировано автором Каждое из этих явлений решительно повысило общий интерес к народной архитектуре в мире, поскольку она помогает формулировать решения экологических проблем, управление стихийными бедствиями и жилищными проблемами, с которыми сегодня сталкивается мировое сообщество; не как изучение прошлых традиций, а как вклад в новые методы, решения и достижения для

будущей застроенной среды. Нео-вернакулярная архитектура в основном основана на двух подходах, которые, по существу, противоположны: интерпретативный и консервативный. Консервативный подход ограничен в своей работе и представляет собой использование традиционных материалов и форм. Примером этого подхода может быть творчество египетского архитектора Хасана Фатиха. В то время как интерпретативный подход является лишь расширением старой существующей структуры и ее интеграцией в новые проекты, архитектурный проект не ограничен с точки зрения формы, материалов и функций.





Футуристическая архитектура



Главный стадион в спортивном центре Гуанси.

Амос Рапопорт предполагает, что для народных исследований настало время перейти от описания и документации строительства к следующему этапу, который будет проблемно-ориентированным, сравнительным, интегративным и более концептуальным/теоретическим. Такой подход устраняет разрыв между реальным строительством и теорией. Он предполагает, что более правильный подход состоит в том, чтобы извлечь более или менее общие уроки и принципы, анализируя местную среду с использованием моделей и применяя эти уроки к дизайну. Объединяя местные архитектурные традиции с универсальными архитектурными реалиями, можно создать Нео-народную архитектуру, снизив напряжение между «духом места» и «духом времени» . Энрике Браун в своей книге Otra Arquitectura en America Latina указывает, что народная архитектура развивалась в постоянном напряжении между своим положением во времени и своим положением в пространстве. Пример проекта нео-народной архитектуры THREAD. С целью представить лучший архитектурный пример, который может глобализировать фундаментальные принципы нео-народной архитектуры, было изучено несколько примеров новых проектов домов и проектов оборудования по всему миру, которые основаны на народной архитектуре и методах ее формирования. В ходе аналитической работы с примерами был сделан выбор в пользу проектов, номинированных на Премию Ага Хана, которые соответствуют задаче улучшения качества жизни бедных слоев населения, в основном в Азии и Африке, а также проектов, сохраняющий в своей основе связь с традицией и нацеленных на развитие с точки зрения индустриализации и совершенствования строительных технологий. Комплекс THREAD, расположенный в сообществе им. Синтиан, недалеко от границы с Мали, 700 км от столицы Дакара, Сенегал, открыт в 2015 году. В комплексе располагаются детский сад и сельскохозяйственная школа, конференц-залы, арт-центр, площадки для отдыха и общения. Дизайн арт-центра, созданный по инициативе нью-йоркского архитектора Тошико Мори, в проекте предполагается использование местных натуральных материалов, таких как бамбук, кирпич и солома .Группа архитекторов Тошико Мори воплотила эти материалы в современный пространственно-геометрический дизайн, который дополняет окружающий плоский ландшафт. Наконец, крыша собирает и удерживает дождевую воду, создавая жизнеспособный источник для удовлетворения 40% потребности деревни в воде для бытовых нужд Примечание: материал с ресурса archdaily Миссия THREAD двояка: предоставить художникам доступ к вдохновляющим материалам, найденным в этом редко посещаемом регионе мира; и использовать искусство как средство развития связей между сельским Сенегалом и другими частями земного шара. Проблемы архитектуры и строительства 2024, №2 53 Заключение Нео народная архитектура — это современная интерпретация народного строительства. Фактически, она представляет собой современную архитектурную интерполяцию в народной среде, которая черпает вдохновение из элементов народного наследия и выражает технологический и эстетический язык своего времени. Мно-

гие архитекторы с неприятием отвергают возможность строительства на основе народной архитектуры, этот отказ связан с тем, что большинство считает, что это означает использование только местных материалов и применение их также к формам, ограниченным наследием местной архитектуры. Вопреки этой логике и посредством теоретического исследования и примеров, рассмотренных в этой статье, в определении и решении проблем, нео-народная концепция должна идти гораздо дальше, чем образ и фасад здания, напоминая, что внешний вид и визуальная рецепция не являются целью проектирования. Анализ темы народной архитектуры в данном случае должен быть ориентирован на более широкое исследование, способное затронуть гораздо более широкое поле духовных, исторических, структурных, программных, пространственных и культурных вопросов в рамках развития и особенностей современной жизни, вводя новые функции и объекты, которые вообще неизвестны или не существовали в компонентах нативной архитектуры. В начале возникновения интереса к данной теме, ряд архитекторов, воплотивших нео-народную тему в своих проектах, восприняли положительно традиции народной архитектуры и пытались помочь ее возрождению. Однако в настоящее время эти объекты, предназначенные в основном для целей развития туризма и культуры, заинтересованы и в других функциях, укрепляющих местную архитектуру и экономику страны, которая пока не заинтересована сегодня в развитии экологической программы защиты среды обитания и устойчивости культурного наследия. Поскольку нео-народная архитектура представляет собой диалог между старым и новым, к программам, проектам и их реализации следует подходить детально и более профессионально. Потому что иногда новые функции могут воздействовать на живую культуру, отвлекая от нее или десакрализуя ее. Это может даже повлиять на определение национальной идентичности и снизить характеристики аутентичности региона из-за нового культурного или функционального внешнего влияния, иногда вызванного, например, требованиями создания комфортной среды для туристов, несмотря на положительные примеры новой архитектуры туристских зданий.

Литературы:

1. Rudofsky B. Architecture without Architects: A Short Introduction to Non-Pedigreed Architecture / B. Rudofsky // Art Education. — 1970.

2. Paul O. Dwellings: The Vernacular House World Wide / O. Paul // Rev. Ed. Phaidon. — London, 2003.

3. Ильвицкая С.В. Экологическая взаимосвязь фактора местности и проектирования архитектурной среды на примере индивидуального жилого дома / С.В. Ильвицкая, В.А. Лобков, Т.В. Лобкова // Землеустройство, кадастр и мониторинг земель. — 2021. — 10. — с. 791-794.

4. Glassie H. Architects, vernacular traditions, and society / H. Glassie // Traditional Dwellings and Settlements Review. — 1990.

5. Richardson V. New Vernacular Architecture / V. Richardson // Watson-Guptil Publications. — New York, 2001.

6. Zographaki S.G. Neo-Vernacular / S.G. Zographaki. — Cambridge: MITLibraies, 1986.

7. Calogero B. L'architettura del Novecento, il cemento armato, i restauri e l'autenticita / B. Calogero, F. Angeli // Architetture in cemento armato. Orientamenti per la conservazione. — 2008.

8. Icomos Charter On The Built Vernacular Heritage Ratified by the ICOMOS 12th General Assembly. — Mexico, 1999.

9. Rapoprt, 'Vernacular Design as a Model System' in Vernacular architecture in the Twenty-First Century: Theory Education and Practice / Ed. by L. Asquit and M. Vellinga. — 2006.

10. Сайг А. Устойчивая народная архитектура: как прошлое может обогатить будущее / А. Сайг. — 2019.

11. Kaminer T. The Efficacy of Architecture: Political Contestation and Agency / T. Kaminer. — 2017.

12. Ильвицкая С.В. Натуральные материалы в ≪зеленой≫ архитектуре / С.В. Ильвицкая, В.А. Лобков, Т.В. Лобкова // Academia. Архитектура и строительство. — 2019. — 2. — с. 130-133

13. Ачилов, Ш. Д., Аннакулов, Ж. М., & Асроров, О. А. (2021). Градостроительный совет Самарканда: как улучшить экспозиционную привлекательность города. In Новые идеи нового века: материалы международной научной конференции ФАД ТОГУ (Vol. 2, pp. 23-26). Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Тихоокеанский государственный университет.

14. АЧИЛОВ, Ш., АСРОРОВ, О., & АННАКУЛОВ, Ж. К ВОПРОСУ ОБ УКРЕПЛЕНИИ ИММУНИТЕТА СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ К ВОСПРИЯТИЮ РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ И ЧУЖДЫХ ИДЕОЛОГИЙ. In ВЕСТНИК НАУЧНЫХ КОНФЕРЕНЦИЙ Учредители: ООО" Консалтинговая компания Юком" (pp. 16-18).

15. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 2(2), 36-39.

16. Tulakov, E., Inoyatov, D., Kurbonov, A., Sirojiddinov, S., Abdullayeva, S., Matyokubov, B., & Kulmirzayev, J. (2024). Experimental analysis of moisture protection of buildings. In E3S Web of Conferences (Vol. 559, p. 04018). EDP Sciences.

АРХИТЕКТУРА ВА БИНОЛАР ҚУРИЛИШИДА БИНО КУРСИСИНИНГ КОНСТРУКЦИЯЛАРИ, УЛАРНИНГ РЎЛИ ВА ЎРНИ

Уралов Акбарали
мустақил тадқиқотчи. Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети. Ўзбекистон

Аннотация: Мақоланинг мақсади бино курсисининг архитектурадаги рўли ва ўрни, курси конструкциясиининг турлари ва қурилиш ашёлари, уларга хос хусусиятларни баён қилишдир. Тадқиқот методи мавзуга доир масалаларни архитектура-қурилиш амалиётида таҳлил қилиш, натурада та-нишиш, фотофиксация ва тўпланган материалларни умумлаштиришдан иборатдир. Натижа шундан иборатки, мақолада архитектура ва бинолар қурилишида қўлланиладиган бино курсисининг конструкциялари, курсининг архитектурадаги рўли ва ўрни очиб берилган, бино курсиси тарз компо-зициясини жозибадор кўринишга ёрдам берувчи муҳим қисмлардан бири эканлиги исбот қилинган. Хулоса: Архитекторлар ўзлари лойиҳалаётган бино ва иншоотлар курсисининг элементлари ва конструктив ечимларига алоҳида эътибор беришлари зарур, зеро бу, меъморчиликда ўзига хос тарбиявий ва бадиий–эстетик аҳамиятга эга. Архитектуранинг юксак санъат тарзида ифо-даланишида курсисининг ҳам аҳамияти ва ўрни улкандир.

Калит сўзлар: Замонавий архитектурада курсиларнинг турлари, кон-струкциялари, қурилиш материаллари ҳисобланиб бинонинг пойдевори ус-тига тикланган муҳим қисми ҳисобланади.

Асосий қисм: Кириш бўлими. Меъморчилик назарияси ва тарихи ва, умуман, архитектурашунослик фанида шу чоққача курси композицияларининг шаклланиши, уларнинг меъморий типологияси ва яратилишидаги тар-тиб-қоидалар назарий жиҳатдан яхлит бир илмий-тадқиқот тарзида ишлаб чиқилмаган. Шунинг учун ҳам ўтмиш ва замонавий меъморларнинг ушбу масалага муносабати қандай ва улар ўзлари қурган биноларда курси ком-позицияларини қандай шаклларда ишлаган, бу соҳада қандай илғор меъ-морий анъаналар шаклланган деган саволларга жавоб топиш ва бу меросий қадриятлардан бугунги кун меъморчилигида самарали фойдаланиш имко-ниятларини тадқиқ қилиш қизиқарли ва фойдали ишдир. Бугунги кунда жаҳон мамлакатлари архитектурасида XXI аср архитектурасининг хозирги ҳолати ва келажакдаги тараққиётига, давр талабларига мос ва хос энергия эффектив бинолар қурилишига, уларлда экалогик тозза ва қулай муҳитлар яратилишига эътибор бериш, бинолар эстетик дизайнини замонавайлаш-тириш вазифалари долзарф ҳисобланмоқда. Меъморлар олдидаги ана шун-дай вазифалардан бири иморатларнинг курсиси, остонаси, бино тарзи ва бадиий тугаллик композицияларини ўрганиш ва уларни замонавийлик билан бойитиб, амалиётга тадбиқ қилишдир.

Жахон миқёсида архитектура назарияси ва амалиётига боғишланган хорижий илмий тадқиқотларда асосий эътибор замонавий архитектуранинг илғор ижодий йўналишларини аниқлаш, бинолар образи ва бадиий дизайни, экстерьери ва интерьерларининг стилистик ҳамоҳонглиги, меъморий шакллар гармонияси, биноларнинг конструктив тектоникаси, қурилиш ва пардоз материаллари каби масалалар мухим аҳамият касб этмоқда.

Мустақилликнинг кейинги йилларида республикамизда лойиҳаланаёт-ган аксари бинолар иморатларнинг курсиси, остонаси, бино тарзи ва бадиий тугаллик шаклларига эътибор берилиб қурилмоқда. Бироқ, буни ўта тажри-бали, етук ва юқори савияли меъморларгина амалга оширмоқдалар. Архитекторларнинг асосий таркиби орасида эса бу шаклларнинг амалий бадиий моҳияти, афсуски, тўлиқ англанилмаган, чунки уларнинг мазмуни ва аҳами-яти архитектура фани ва назариясида ҳам ўрганилмай келинмоқда. Оқибатда меъморий амалиётда айрим ҳолларда бадиий савияси паст, композициявий заиф бўлган бино ва иншоотлар ҳам пайдо бўлмоқдаки, буни замонавий архитектурамиз учун кечирарли ҳол деб бўлмайди. Бунинг асосий сабабини биз маълум маънода замонавий архитектура амалиёти, назарияси ва таълим тизимида шу чоққача курси, остона, бино тарзи ва бадиий тугаллик шаклла-рининг мазмун-моҳияти тўлиқ очиб берилмаганлигида, деб тушунамиз.

Ҳукуматимиз томонидан республикамизда Учинчи Ренессансни шакл-лантиришнинг асосий йўналишларидан бири архитектура ва қурилиш соҳа-сини янада такомиллаштириш ҳисобланиб, бу соҳада яқин йиллар ичида кес-кин сифат даражасига эришиш вазифаси қўйилган. Шунинг учун ҳам мазкур масала замонавий меъморчилик соҳасининг илму-фани ва амалиётининг дол-зарб муаммоларидан бирига айланиб улгурган.

Тадқиқот методи ва услублари. Муаммога комплекс илмий ёндо-шувга асосланган бўлиб, қуйидаги хусусий илмий изланиш усулларини ўз ичига олади: **Тадқиқот объектлари билан натурада танишиш**, уларнинг ҳо-зирги ҳолати мониторингини ўтказиш, таснифлаш ва тизимлаш, мавзуга до-ир адабиётларни ўрганиб чиқиш, фотофиксакция, йиғилган материалларни таҳлил қилиш ва илмий умумлаштириш, ҳулосалар чиқариш, курси, остона ва бадиий тугаллик шаклларини амалиётга жорий қилиш бўйича таклиф-лар ишлаб чиқиш каби усуллар қўлланилган.

Натижалар бўлими. Қадимда ва илк ўрта асрларда қурилган бино-ларнинг курсилари сезиларли даражада баланд, айрим ҳолларда яхлит стило-бат (платформа) кўринишларини олган. Бундай усул биноларга ер сатҳидан кўтарилган, фазовий маҳоботли

кўриниш берган. Биноларни суфа ва плат-форма устига қуриш усули ўрта асрларда ҳам давом эти-рилган. Боғлардаги сарой (кўшк)лар, арк-калъалар, ўрдалар ана шундай платформалар устига қурилган. Собиқ Шўролар даврида кам қаватли ёки заллик, би-ноларнинг курсилари деярли баланд бўлмасада ташқи деворларга нисбатан рельефли ёки контрре-льефли шаклларда, кўп қаватли биноларда эса ертўла қаватли ёки биринчи қават баландлигида алоҳида бўрттирилиб қурилган. Мустақил-лик йил-ларида қурилган биноларнинг курсилари ҳам ана шундай кўриниш-ларга эга.

Замонавий меъморчиликда таккурсининг энг кенг тарқалган тури кур-сидир. Курсиларнинг бир неча хиллари мавжуд. Уларнинг биринчисида кур-си бинонинг қурилмавий қисмига кирмайди. У де-ворнинг пастки қисмини пардозлаш ва уни девор те-кислигидан қисман олдинга чикариш йўли билан ҳосил қилинади. Иккинчи хилида эса курси бино-нинг қурилмавий қисмини ташкил қилиб, девор курси устига терилган ва унинг сатҳидан бироз ол-динга чиқиб туради, яъни бу биринчи хилнинг тес-кариси ҳисобланади.

Таккурсининг амалий вазифасини эътиборга олиб, уни одатда девор-дан кўра қаттиқроқ ва му-стаҳкамроқ материалдан ишланади. Чунончи, ғишт деворларнинг таккурсиси табиий тошдан, пардоз-ланган деворларники гра-нитдан ишланади.

Курсиларга безак бериш мақсадида турли хил де-коратив материал-лардан фойдаланилади. Курси-ларни пардозлаш учун курси уланишлари мавжуд, курси уланишлари панель кўринишда бўлади. Бундан ташқари, фи-броцемент панелларидан фой-даланиб курсиларни пардозлаш мумкин, фиб-роце-мент панеллари юқори мустаҳкамликга эга, муз-лашга чидамли, ҳаро-ратни кескин ўзгаришига чидамлидир.

Курсиларни пардозлашда ишлатиладиган энг кўп тарқалган материал винилли панеллардир. Улар турли хил рангларда таёрланиб ёлтироқ ранг-даги қўшимча материаллардан тузилган ҳолда мустах-камлиги ва устивор-ликка эга хисобланади. Уларни камчилиги шундан иборатки, ҳароратнинг кескин ўзгариши таъсирида мустаҳкамлигини йўқотиши мумкин. Бундай панеллардан қишда ўта совуқ иқлимларда фойдаланиш тавсия этилмайди.

Курсиларнинг турли хил композициялари ва ша-кллари, уларнинг бино тарзи массасига нисбатан пропорциялари ўта ўзгарувчанки, уларнинг тузу-лишига хос умумий бир қонуният топиш кийин. Шундай бўлсада,бизнинг кузатувларимиз курсилар композициясига хос қуйидаги йўналишларни аниқ-лаш имконни берди:


Курси бинони ер билан муқим боғлаб турувчи, бинога салобат баги-шловчи бино қисми ҳисобла-ниб, у ҳамма вақт горизонтал йўналишдаги кўри-нишга эга бўлади;

Катта (айниқса, кўп қаватли) бинолар курсиси-нинг баландлиги кичик ёки бир қаватли биноларни-кига нисбатан аксарият ҳолларда катта иш-ланади;

Курсилар асосан тарихий, мумтоз меъморий, кенг таркалган анъана-ларимиз асосида қурилган бино ва иншоотларда бинонинг пойдевори устига тикланган муҳим қисми ҳисобланади. Бироқ, улар замонавий архитектура объектларида ҳам ўз аҳами-ятини йўқотмаган;

Меъморчиликда курси композицияларининг илғор анъаналарини излаб топиш, уларнинг архи-тектурадаги ўрни ва моҳиятини тўғри тушуниш, уларни бадиий шакллантириш ва архитектурани яратишда биноларнинг ушбу қисм-ларини меъмо-рий композициянинг энг муҳим бадиий таркибий воситалари тарзида қариш, ҳисоблаш ва эътироф этиш бирдан юзага келмаган.

Бу масалалар асрлар давомида аста-секинлик би-лан тўғри тушинилиб, эътироф этилиб, уларнинг илғор, ижобий ва муваққат анъаналари шаклланти-рилиб келинмоқда.



1-расм. Биноларнинг курсисига ва пойдевор конструкци-ясиларига қўшимча ишлов берилган қурилиш материали билан безатилган курси ечими.

Замонавий архитектурада курсининг турли хил ноанъанавий кўриниш-ларини учратамиз. Масалан, курсининг девор текислигидан олдинга чиққани эмас, балки орқага силжиган кўринишидаги шакли ёки перрон типидаги подиум кўриниши ва ҳоказо;

Айрим замонавий биноларда пастки биринчи қават буткул йўқ ёки қисман мавжудки, унинг ўр-нига бино яхлит устунларга ёки синч қозиқларга та-янган. Бундай ҳолатларда табиийки, курсига эҳтиёж йўқолади.



2-расм. Бино курсиси девор қалинлигидан бўртиб чиққан, пойдевор конструкциясиларига мос бўлган за-монавий қурилиш материалларидан фойдаланилган плиткалар билан безатилган куриси.

Бироқ, бинони кўтариб турган ўша устунлар ва синч қозиқлар ҳам ердан ўсиб чиқмайди ва устунлар қўйилади. Демак, улар ҳам маълум маънода ўз кур-сисига эгадир.



3-расм. Биноларнинг табиий тошлардан ишланган курсиси.

Мавзуга доир тадқиқот объектларини ўрганиш, улардаги курси, компо-зицияларини тадқиқ қилиш, таққослаш, ўрта асрлар меъморчилигида курси композициясининг шаклланиши, курси композициясининг ўрта асрлар меъ-морчилигидаги рўли ва ўрни, қадимги дунё ва ўрта асрлар меъморчилигида курси композицияларининг турларини тадқиқ қилишдан иборатдир.



4-расм. Бино пойдеворининг конструкциясилари мармар плиткалари билан пардозланган курсиси.



5-расм. Бинонинг таббий тошлардан бажарилган қурилиш материаллари ечимига эга курсиси.



6-расм. Биноларнинг пойдевор конструкциясилари тош плиталаридан терилган курси.



7-расм. Биноларнинг курсиси оддий ғиштдан терилган ечим.

Акрилли панеллар бу мебель сифатидаги рангда таёрланган холда

ишлатиладиган материал бўлиб ҳисобланади. Унинг афзаллик томони шун-дан иборатки, бундай пардоз материал ёрдамида иссиқ иқлимда қурилади-ган биноларнинг курсисини пардозаш мақсадга мувоффиқдир, чун-

ки акрилли панеллар юқори иссиқликка чидамли, Ўрта Осиё иқлимига мос келади.



8-расм. Биноларнинг курсиси акрилли панеллардан ишланган ечими.

Хулоса

1. Меморчиликда курси шаклларига қадимда, илк ўрта аср ва ўрта асрларда, Собиқ Шўролар ва ҳозирги даврда, келажакда ҳам бирдай, нафа-қат функциявий ва қурилмавий, балки композициявий бадиий меъморий восита тарзида қаралган ва қаралиб келмоқда.

2. Қадимги ва илк ўрта асрларда қурилган биноларнинг курсилари сезиларли даражада баланд, айрим ҳолларда яхлит кўринишларини олган. Бундай усул биноларга ер юзидан кўтарилган, фазовий маҳоботли кўриниш берган. Биноларни суфа ва платформа устига қуриш усули ўрта асрларда ҳам давом эттирилган. Мустақиллик йилларида қурилган биноларнинг курсилари ҳам ана шундай кўринишларга эга.

3. Бино курсисининг баландлиги бинонинг неча қаватлилиги ва уму-мий баландлигига мутаносиб тарзда белгиланган. Агар бино кам қаватли бўлса унинг курсиси 0,5 метрдан ошмаслиги, агар бино 5-7 қаватдан ошса, унинг курсиси 1-қават баландлигини ҳам қамраб олиши, агар у 9-12 қават ва ундан юқори бўлса бино курсисининг баландлиги икки қават ҳажмида ҳам бўлишлиги мақсадга мувофиқ.

4.Архитекторлар ўзлари лойиҳалаётган бино ва иншоотлар курсиси-нинг элементлари ва конструктив ечимларига алоҳида эътибор беришлари зарур,

зеро бу, меъморчиликда ўзига хос тарбиявий ва бадиий - эстетик аҳа-миятга эга. Архитектуранинг юксак санъат тарзида ифодаланишида курсиси-нинг ҳам аҳамияти ва ўрни ҳам улкандир.

Мунозара. Қадимги ва илк ўрта асрларда қурилган биноларнинг кур-силари сезиларли даражада баланд, айрим ҳолларда яхлит стилобат (плат-форма) кўринишларини олган. Бундай усул биноларга ер юзидан кўтарил-ган, фазовий маҳоботли кўриниш берган. Биноларни суфа ва платформа устига қуриш усули ўрта асрларда ҳам давом эттирилган. Боғлардаги саройлар (кўшк)лар, арк-қалъалар, ўрдалар ана шундай платформалар устига қурилган. Собиқ Шўролар даврида кам қаватли ёки заллик бино-ларнинг курсилари деярли баланд бўлмасада ташқи деворларга нисбатан рельефли ёки контррельефли шаклларда, кўп қаватли биноларда эса курси ер тўла (подвал) қаватли ёки биринчи қават баланд-лигида алоҳида бўрт-тирилиб қурилган. Мустақиллик йилларида қурилган биноларнинг курси-лари ҳам ана шундай кўринишларга эга;

Меъморчиликда курси шаклига қадимда, илк ўрта ва ўрта асрларда, Собиқ Шўролар даврида, ҳозирги ва келажакда ҳам бирдай дунёқараш билан, яъни уларга биноларнинг нафақат функциявий ва қурилмавий эле-ментлари тарзида, балки биноларни лойиҳалашда энг муҳим компози-циявий меъморий-бадиий воситалар тарзида қаралиши зарур, зеро бу ша-кллар иморатларнинг ажралмас асосий таркибий қисмлари (атрибутлари)ни ташкил этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Уралов А.С., Уралов А. Курси, остона ва бадиий тугаллик компо-зицияларининг меъморчиликда қўлланилиш анъаналари. // Республика илмий- техника анжумани. 30-апрел 2021 йил.53-57 бетлар: Термиз, 2021.

2.Uralov Akbarali, independent researcher ARCHITECTURAL SOLUTIONS OF MODERN BUILDINGS. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595) Vol.1. Issue 1 page 35.

3. Uralov Akbarali. National Culture of Banquet Hll Building Architecture and Principles of its Formation 1st stage graduate student, WEB OF SCIENTISTI: INTERNATIONATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL SSN: 2697-2131,Volume 22, Issue 2, Nov-2022 https: //igcm.academicgonal io. pp.48-57.

4. Льюис П., М.Тсурумаки, М., Льюис Д. Manvae of sectioni.- 2008.

5. Витривий Марк**.** Десят книг об архитектуре.- М.,2008.

BUXORO SHAHRI TARIXIY HUDUDINING LANDSHAFTI VA UNDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Nodira N.Fayzullayeva
Arx (PhD), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Malika N.Fayzullayeva
Magistrant, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotasiya: Maqolada Buxoro tarixiy shahrining shakllanish tarixi, uning tarixiy landshafti haqida to‘xtalib o‘tilgan. Buxoro tarixiy shahar hududidagi hovuzlarning tarixi, ularning shaharsozlikdagi o‘rni va bugungi kundagi holati va ulardagi muammolar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Eski shahar va undagi yashil oazislar ularning kelib chiqishi va shakllanishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Zarafshon daryosi, hovuz, yashil zona, mahalla markazi, Shoxrud kanali, karroziya, sho‘rlanish, suv muammosi.

Buxoro – qadimiy shahar. Zarafshon daryosi atrofida bundan ming yillar oldin qulay iqlim sharoiti tufayli aholi yashash hududlari shakllangan. Daryoning o‘rta oqimida Samarqand vohasi, quyi oqimida Buxoro vohasi hozirgi Buxoro shahri o‘rnida bugungi kundan kamida ikki yarim ming yil muqaddam paydo bo‘lgan. Bizga Narshaxiyning manbaalaridan ma’lumki, hozirgi Buxoro viloyatining o‘rnida qadimda botqoqlik bo‘lib, aksariyat qismi qamish va daraxtlar bilan qoplangan. U yerda juda ko‘p qushlar bo‘lib, yerda hech bir hayvon o‘ta olmagan jarliklar uchragan. Bu esa Samarqandni o‘rab turgan tog‘lardan qorlar erib, suv shu tomonga oqib kelishi hisobiga bo‘lgan. Shunday qilib, Samarqandda sersuv katta daryo Masaf bo‘lgan. Suv ko‘p joylarni yuvib o‘tib yerlar tuzilishiga ta’sir qilgan. Bu esa botqoq yerlarni gil tuproqqa ko‘milishiga keltirgan. Suv oqimi shunchalik ko‘p bo‘lganki, Bitik va Farabgacha bo‘lgan hududda juda ko‘p yerlar ko‘chgan natijada botqoqlikdagi suv qurib o‘rnida gil tuproqqa to‘yingan katta hudud hosil bo‘lgan. Shu tariqa Sug‘d daryosi hosil bo‘lib, gil tuproqqa to‘yingan hududda Buxoro vohasi hosil bo‘lgan [1, 25 b.]. Bu vohada ko‘p suv bo‘lib, hududda daraxtlar ko‘p bo‘lgan. Ov qilish imkoniyatlari keng bo‘lgan, bu esa Turkistondan ko‘chib keladigan ko‘chmanchilarga juda qulay kelgan. Odamlar dastlab chodir va o‘tovlarda yashashgan, keyinchalik aholi ko‘payishi bilan binolar bunyod etish boshlangan. Shu tariqa botqoqlik o‘rnida aholi yashash hududi paydo bo‘lgan. Shunday qilib, ming yillar ilgari Zarafshon daryosining quyi oqimida hosil bo‘lgan tabiiy qulay iqlim sharoiti bu yerda shahar shakllanishiga asos bo‘lgan.

Buxoro shahri siyosiy markaz sifatida quyidagi davrlarni bosib o‘tgan: Varaxsha – eramizdan avval IV asrdan – eramizning VIII asrigacha (VIII asr – Buxorxudotlar hukmronligi), Poykent – eramizdan avval IV - II asrdan – eramizning XII asrigacha, bu orada IX – X asrga kelib hozirgi Buxoro shahri somoniylar davlatining poytaxti, XI – XII asrlar qoraxoniylar davrida xam Buxoro poytaxt shahar,

keyinchalik XIV asrda temuriylar davrida poytaxt Samarqandga ko‘chirilgan va nihoyat shayboniylar va amirliklar davrida poytaxt maqomi Buxoroga qaytgan. XVI – XVIII asrlar Buxoro shahrining shahar sifatida shakllanishida muhim, hattoki asosiy davr bo‘lib xizmat qilgan. Amirliklar davrida Buxoro shahri o‘sha davr uchun to‘la shakllangan shahar ko‘rinishiga kelgan.

Shaharning asosiy suv manbai Zarafshon daryosidan to‘yinadigan Shoxrud kanali bo‘lgan (1-rasm). Asosiy ichimlik suvi manbai hovuzlarda bo‘lgan. Shahar hududida 80 ga yaqin hovuzlar bo‘lgan. Hovuzlarni suv bilan asosiy va katta kanal Shohrud ta’minlagan. Kanaldan hovuzlarga suv o‘tadigan usti yopiq ariqlar (tazar) bo‘lgan. Shohrud kanali shaharga sharqdan – Mozori Sharif darvozasi oldidan kirib, shahar markazidan o‘tib, g‘arbdan – Talipoch darvozasi oldidan o‘tib, Shirgaron darvozasini chetlab chiqib ketgan. Kanalning markazdan o‘tishi uni shaharning barcha hovuzlarini suv bilan ta’minlab o‘tishiga qulay bo‘lgan. Katta markaziy hovuzlar atrofi (masalan: Devonbegi hovuzi) g‘ishtin devor bilan o‘ralgan. Suv meshkoblar yordamida miroblar tomonidan xalqqa yetkazilgan. Suv bilan ta’minlash ishlari puxta o‘ylangan va yaxshi tashkillashtirilgan tizim asosida faoliyat ko‘rsatgan [2,3].



1-rasm. Shahar markazidan oqib o‘tuvchi Shoxrud kanali. Buxoro.2024 yil. Foto muallifi Fayzullayeva N.N.

Har bir maxalla markazida hovuz bo‘lgan. Hovuz maxalla markazining markaziy elementi bo‘lib, atrofdagi barcha ob’ektlarni birlashtiruvchi tugun bo‘lgan. Hovuz bo‘lgan joyda tabiiyki, ko‘kalamzorlashtirish imkoniyati bo‘lgan. Suvning tanqisligini inobatga olsak, ko‘chalar va maydonlarda ko‘kalamlar bo‘lmagan, faqatgina maxalla markazlarida hovuzlar atrofidagina yashil oazislar shakllangan. Bundan kichkina yashil tugunlar esa turar-joy uylarida bo‘lgan. Har bir turar-joyda uning katta kichkinaligidan qat’iy nazar hovli bo‘lgan. Har bitta hovlida katta bo‘lmagan yashil zona bo‘lgan. Turar-joy hovlilarida odatda uzum ekilgan. Uzum tirmashuvchi daraxt bo‘lganligi sababli hovlida o‘rnatilgan havoza ustini to‘liq egallab, hovli yuzasini soya-salqinlik bilan ta’minlagan. Bundan tashqari tut daraxti ham ekilgan. Lekin tut daraxti katta daraxtlar sirasiga kirishini inobatga olsak, ular odatda ko‘chalarni burimlarida hosil bo‘lgan maydonlarda ekilgan. Tut daraxtini ekilishi Buxoroning tuprog‘i tarkibidagi sho‘rni shimilishiga yordam bo‘lgan. Tut daraxti atrofidagi tuproq sho‘rdan tozalanar ekan, uning atrofida binolarni poydevorini uzoq yil xizmat qilishiga olib kelgan. Turar-joy hovlilari va maxalla markazlarida asosan mevali daraxtlar ekilgan, gullardan esa rayxon, namozshomgullar ekilgan. Turar-joy hovlilarida maxalla markazlaridan farqli yashil zonaning yuzasi katta bo‘lmagan va bu maydonni sug‘orish uchun xo‘jalik yumushlaridan chiqqan chiqindi suvlar ham yetarli bo‘lgan.

Lekin bugunga kelib, Zarafshon daryosida suv hajmini pasayishi Shoxrud kanalida suvni kamayishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida Buxoro shahridagi hovuzlarni qurishiga olib keldi. Yuqorida aytilgan 80 ga yaqin hovuzdan 10 ga yaqin hovuzlardagina suv saqlanib qolgan (2,3,4-rasmlar). XIX asrda o‘z davrining markaziy va katta hovuzlaridan bo‘lgan Xo‘ja Zayniddin hovuzida maxalliy aholining guvohlik berishicha oxirgi 50 yil suv bo‘lmagan. Bu holat shahardagi boshqa hovuzlarda ham kuzatilgan (5-rasm). Bu esa o‘z navbatida atrofdagi binolar, asosan, turar-joy uylari poydevorlarida tuz yig‘ilishiga olib kelgan. Bu holat bugungi kunda Buxoro eski shahar hududida mavjud muammolardan biridir. Yer osti suvlarining ko‘tarilishi natijasida tarixiy obidalar poydevorlarining sho‘rlanishi karroziya jarayonini tezlashishiga sabab bo‘layapti.



2-rasm. Lyabi-hovuz ansambilidagi hovuz. Buxoro. 2020 yil. Foto muallifi Fayzullayeva N.N.



3-rasm. Bolo-hovuz ansambilidagi hovuz. Buxoro. 2023 yil. Foto muallifi Fayzullayeva N.N.



4-rasm. Gavkushon ansambilidagi hovuz. Buxoro. 2023 yil. Foto muallifi Fayzullayeva N.N.



5-rasm. Havzi-nav ansambilidagi hovuz. Buxoro. 2023 yil. Foto muallifi Fayzullayeva N.N.

Suv bilan bog‘liq muammolar bugungi kunda dunyo miqyosida global muammolar darajasida ko‘rib chiqilayapti. O‘z navbatida Orol dengizida suv hajmining kamayishi dunyo hamjamiyatini befarq qoldirgan emas. Shunday ekan, biz ushbu vaziyatda muammolar va hozirgi holatdan kelib chiqib, vaziyatga moslashishimiz, mahalliy landshaftni jonlantirishimiz va shahar mikroiqlimini yaxshilashga qaratilgan loyixa takliflarni ishlab chiqishimiz zarur. Loyihalarda suvsizlikka chidamli daraxt va o‘simliklar, gidraponik usulda ekiladigan gul va butalarni tarixiy muhitga uning o‘ziga xos manzaralari bilan uyg‘unlashib ketuvchi landshaft dizayn elementlarini ishlab chiqib, ularni hayotga tadbiq etish bo‘yicha takliflar kiritishimiz kerak.

Adabiyotlar.

1. Наршахи М. “История Бухары”, Санкт – Петербург, “О и Г.Бр.Каменские”, 1879 год.
2. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. – Ташкент: Гафур Гулям, 1981. – 301 стр.
3. Кочедамов В.И. Городские водоёмы Бухары и Самарканда. Архитектурное наследство. №8. – Москва: Гос.Изд. литературы по строительстве и архитектуре. 1957. – 190 с.

UDK 711.122

HAR XIL MORFOLOGIK TURDAGI HOVLI MAYDONLARINI OBODONLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA QOIDALARI

Achildiyev Rasul Maxmadaliyevich
Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotasiya. Mavzuning dolzarbligi eski turar-joy hududlarini obodonlashtirishning amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga, aholi ehtiyojlari va hayot sifatining hozirgi darajasiga mos kelmasligidadir. Maqolada shahar rivojlanishini takomillashtirish uchun asos bo'lgan shahar makonining morfologiyasi va turar-joylarning hovli hududi muhokama qilinadi. Rejadagi ko'p qavatli uylarning tuzilishiga qarab hovli maydonlarining tasnifi taklif etiladi. Shaharlarni obodonlashtirishda foydalanish uchun qulay bo'lgan to'rtta umumiy hovli maydonlari aniqlandi. Hududlarni loyihalashda aholining jismoniy qobiliyatlardan kelib chiqqan holda, barcha aholi uchun teng imkoniyat va har tomonlama qulay muhit shakllantirilishi lozim. Shu munosabat bilan, maqolada shahar makonlarini loyihalash uchun zamonaviy talablarni hisobga olgan holda universal va arzon loyiha yechimlari ta'kidlangan. Hovli hududlarini rejalashtirish va loyihalashda aholining muayyan toifalariga va ularning afzalliklariga ham alohida e'tibor qaratmog’ligi lozim. Muallif aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda hovlilarda joylashtirish uchun zarur bo'lgan funktsional maydonlarni tavsiflaydi. Har bir hudud uchun maydonlarni joylashtirish, ularni jihozlash va zarur bo'sh joylar bo'yicha umumiy tavsiyalar beradi. Avtotransport vositalari sonining ko‘payishi va umuman shaharda “yashil” maydonlarning qisqarishi munosabati bilan hududni ko‘kalamzorlashtirish, avtoturargohlarni joylashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turar-joylardagi hovli hududlarining hozirgi holati tahlili o'tkazilib, uning asosida jamoat va hovli maydonlarining hududini obodonlashtirish sifati past, shuningdek, obodonlashtirish dasturiga ehtiyoj bor degan xulosaga keldi.

Kalit so'zlar: shahar muhiti; rivojlanish; morfo turi; hovli maydoni; funktsional maydon; obodonlashtirish; loyiha.

Abstract. The relevance of the topic lies in the inconsistency of the improvement of old districts with the requirements of existing regulatory documents, the needs of the population and the current level of quality of life. The article discusses the morphology of urban space, which form the basis for the improvement of urban

development, and, consequently, the yard territory. A classification of courtyard spaces is proposed, depending on the layout of the apartment buildings in the plan. Four general types of courtyard areas have been identified, which are convenient to use for planning the improvement of the city. According to recent trends in the desire to ensure equal access for all residents, regardless of experience, physical abilities, when designing a territory, it is necessary to strive for universal convenience. In this regard, the article highlights the principles of universal and affordable design, taking into account modern requirements for the design of urban spaces. When planning and designing yard areas, you should also pay attention to specific categories of the population and their preferences. The author describes the functional areas necessary for placement in courtyards, taking into account the needs of the population. For each zone, general recommendations are given on the placement of sites, their equipment, equipment, and the necessary space. Particular attention is paid to the issues of greening the territory, as well as the location of parking spaces, in connection with the increase in the number of vehicles and the reduction of "green" zones in the city as a whole. The analysis of the current state of courtyard territories in Krasnodar is carried out, on the basis of which it is concluded that the quality of landscaping of the territory of both public and courtyard spaces is low, as well as the need for a landscaping program.

Keywords: urban environment; building; morphotype; yard area; functional area; improvement of public services; landscaping; design

Shahar muhiti murakkab tuzilmadir. Har qanday shahar doimiy ravishda o'zgarib turadi ya’ni texnologiyaning rivojlanishi, urbanizatsiyaning o'sib borishi, hududlarni qayta tashkil etilishi va yangi va mavjud yerlarni jadal o'zlashtirish zarurati tug'iladi. Shaharning o'sishi va shahar hududidagi mavjud vaziyatni yaxshilash uchun, birinchi navbatda, mavjud binolarni baholash va tahlil qilish kerak. Shahar muhitini o'rganish uchun tadqiqot o'tkazish talab etiladi.

Hovli va shahar hududlarini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish bugungi kunda uyg‘un muhit yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shaharsoz va arxitektorlar nafaqat funktsional, balki aholining turli toifalari uchun chiroyli, xavfsiz va qiziqarli bo'lgan hududni yaratishga intilishadi [1].

Obodonlashtirish deganda biz oqilona to'ldirilgan yer uchastkasini shakllantirish bo'yicha ishlarning butun majmuasini, shu jumladan ko’kalamzor-lashtirish, landshaftni o'zgartirish, kichik me'moriy shakllarni tartibga solish va boshqalarni tushunamiz. Ushbu jarayon eng mayda detallarigacha o‘ylab rejalashtirilishi va maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Obodonlashtirish masalasini to'g'ri hal qilish uchun hududni diqqat bilan o'rganish lozim: mavjud binolar, ko’kalamzorlar va mayondagi insolyatsiyani hisoblab chiqish.

Hovli maydonlarini rejalashtirishning oqilona yechimini shakllantirish qo'shnilar o'rtasidagi munasabatlarini mustahkamlaydi, mahalliy hudud xavfsizligini oshiradi, shuningdek, har bir shaxsning kayfiyatini yaxshilaydi. Ushbu mavzu yangi kichik tumanlarni yaratish va shaharlarni kengaytirishda juda dolzarb hisoblanadi. [1].

Qo'shni hudud, hovli maydoni - bu turar-joy binosi atrofida joylashgan yer. Binodan tashqari, ushbu hududda foydalanish va aholining ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan inshootlar, kichik idoralar va maydonlar joylashadi.

Samarali hovli - bu yosh xususiyatlari va qiziqishlaridan qat'i nazar, barcha odamlar vaqt o'tkazishni xohlaydigan hovli. Shuning uchun hovli maydonini loyihalashda aholining turli guruhlari manfaatlari hisobga olinadi. So'nggi paytlarda odamlar hovli maydoniga butunlay boshqacha qarashni boshladilar. Ular uni inson manfaatlariga moslashtira boshladilar, uni insonni shahar muhitiga bog'lash kontekstida ko'ra boshladilar.

Rivojlanishning morfo turi - bu 1980-yillarda paydo bo'lgan tushuncha bo’lib, buni rus olimlari A.E.Gutnova va V.L. Glazychevaning kitoblarida kuzatish mumkin. [2].


Morfo tipi - bu shahar rivojlanishini rejalashtirish va fazoviy tashkil etishning evolyutsion rivojlangan turi hisoblanadi.

Morfo tipi qurilishning funksional to'liqligini aks ettiradi, hududning fazoviy tashkil etilishini, uning tarixiy-madaniy jihatlarini aniqlashtiradi. Morfo turi-bu mahalla hududining tuzilishi, dominant ijtimoiy qadriyatlar tomonidan shakllantirilgan qurilish va ochiq makonning miqdoriy geometrik va topologik ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlar to'plamidir. [3].

Har bir shaharda rivojlanishning turli xil morfologik turlarini farqlash va turli yo'llar bilan tasniflash mumkin. Ba'zi olimlar morfotiplarni tarixiy mansubligiga qarab, boshqalari esa - ijtimoiy jihatlariga ko'ra, yana ayrimlari esa - hududning o'zi shakllanish printsipiga va masshtabiga ko'ra ajratadilar. Buni o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab ko'plab mutaxassislar o'z ishlarida ko'rib chiqdilar. [4].

Samarqand shahri misolidan foydalanib, biz hovli maydonlarining eng keng tarqalgan va ishlatish uchun qulay tasnifini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- blokli binolarda;
- guruhli binolarda;
- qatorli binolar;
- zamonaviy ko'p qavatli binolarda.



Hovlining u yoki bu turiga tegishli bo'lishiga qaramay, yangi hududni loyihalashda yoki eski hududni rekonstruksiya qilishda bir nechta tamoyil va qoidalarni hisobga olish kerak.

Hozirgi vaqtda atrof-muhitning xilma-xilligi va qulayligi, barcha shahar aholisi uchun atrof-muhitning tengligi tamoyillariga etarlicha e'tibor qaratish lozim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi ham buni bizga ta'kidlaydi va shuningdek, SHNK 2.07.02-22–"Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" va boshqalar kabi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Universal loyihani ettita oddiy qoidalar bilan ifodalanishi mumkin.

1) Foydalanishda tenglik.

Hovli jihozlari jismoniy qobiliyatidan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolari tomonidan istisnosiz ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, har bir kishi uchun maxfiylikni xavfsizlik va ishonchli ishlash bilan muvozanatlash kerakligini hisobga olish kerak.

2) Foydalanishda moslashuvchanlik.

Ushbu tamoyilga asoslanib, loyihalashda jihoz elementlarini aholining maksimal soni uchun qulay qilish mumkin bo'ladi. Gap shundaki, odamlar o'ng yoki chap qo'l bo'lishi mumkin va bir xil jihozlar yoki boshqa obodonlashtirish elementlari birinchi va ikkinchi foydalanish uchun bir xil darajada qulay bo'lishi kerak.

3) Intuitiv loyiha.

Hududni obodonlashtirish loyihasini ishlab chiqishda uni ishlatish qiyin bo'lgan uskunalar bilan jihozlamaslik kerak. Shuni yodda tutish kerakki, barcha aholi qatlami darajasi har xil, masalan savodxonlik darajasi, diqqatni jamlash qobiliyati, tilni bilish, har bir kishi jihozlardan foydalanishda har xil tajribaga ega va hokazo. Har qanday odam uchun obodonlashtirish elementlari intuitiv ravishda aniq bo'lishi kerak nima uchun va nimaga. Va agar siz bunga ishonchingiz komil bo'lmasa, uskunani kerakli maslahatlar, matnli va teginish bilan ta'minlash yaxshiroqdir.

4) Ma'lumotni osongina idrok etish kerak.

Kerakli ma'lumotlarni iloji boricha aniqroq etkazish kerak. Ma'lumotni bir nechta variantlarda takrorlash yaxshidir: vizual, teginish, og'zaki. Shuni hisobga olish kerakki, atrof-muhit sharoitlari yoki insonning har qanday individual xususiyatlari ushbu ma'lumotni idrok etishga ta'sir qilmasligi kerak. Barcha ko'rsatmalar yoki tavsiflar iloji boricha sodda bo'lishi kerak.

5) Obodonlashtirish elementlarining xavfsizligi.

Uskunaning qanchalik xavfsiz bo'lishidan qat'i nazar, har doim salbiy oqibatlarga olib keladigan xatolik yuzaga kelishi mumkinligini yodda tutish kerak.

Shuning uchun, hovli maydonini rejalashtirishda siz:

- ✓ xavf omillarini bartaraf etish;
- ✓ eng ommabop jihozlarni imkon qadar qulay qilish;
- ✓ texnik nosozliklar yoki buzilishlar sodir bo'lganda, xavfli oqibatlarning oldini olish.

6) Jismoniy harakat kam bo'lishi kerak.

Har qanday obodonlashtirish elementlari maxsus jismoniy kuch ishlatmasdan foydalanish uchun imkon qadar qulay bo'lishi kerak.

7) Bo'sh joy bilan ta'minlash.

Har bir turdagi jihoz yoki hovli hududini obodonlashtirish elementi uchun uning atrofida yetarli joy mavjudligini hisobga olish kerak. Uskunaga yondashuv nafaqat foydalanuvchining o'zi, balki kutilmagan vaziyat yuzaga kelganda yordamchilar uchun ham ta'minlanishi kerak.

Shuni ham unutmasligimiz kerakki, barcha o'tish joylari va harakatlanish yo'llari qulay, to'siqsiz va harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlarning harakatlanishi uchun xavfsiz bo'lishi kerak. Barcha

ma'lumotlar to'liq va yuqori sifatli bo'lishi kerak, bu sizga fazoviy navigatsiya qilish imkonini beradi.

Hududni faoliyat doiralarga taqsimlash majburiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu sizga barcha yashovchilarning ehtiyojlarini hisobga olish va ularni bir-biriga xalaqit bermasdan, qiziqish, yosh bilan o'zaro aloqada bo'lishlari uchun taqsimlash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda bir nechta funktsional yo'nalishlarni ajratish mumkin:

1. O'yin maydonchalari.
2. Katta yoshdagi aholining dam olish joylari.
3. Sport maydonchalari.
4. Avtoturargohlar.
5. Uy xo'jaligi hududlari.

Bolalar har doim harakatchan va faol, shuning uchun bolalarning hatti-harakatlarining xususiyatlarini va albatta yoshni hisobga olgan holda o'yin maydonchalarini ishlab chiqish kerak:

- maktabgacha yoshdagi bolalar - 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar;
- boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi bolalar - 7-12 yosh;
- katta maktab yoshi – 12–16 yosh.

Maydonlar har bir bolalar guruhi uchun alohida bo'lishi mumkin, agar bu bo'sh joyga imkon bersa yoki har xil bolalar guruhlari uchun jihozlarni birlashtirgan holda.

Bolalar o'yin maydonchasida zerikmasliklari kerak, jihozlarning elementlari o'z o'yinlariga tasavvurni kiritishga imkon berishi kerak; Turli xil o'yin senariylari, atrofimizdagi dunyoni idrok etishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, siz maydon xavfsizligi haqida hech qachon unutmasligingiz va bu loyihalashda birinchi navbatda bo'lishi kerak.

Bir xil turdagi emas, balki ko'proq turli xildagi maydonlarni yaratish yaxshiroqdir. Hovlida bolalar har kuni o'ynashlari kerak va ular bir xil senariyda o'ynashni xohlamaydilar. Iloji bo'lsa, maydonni ko'p darajali qilish kerak, ya'ni ba'zi balandliklar, tepaliklar va boshqalar bo'lishi kerak, tekis sirt o'yinni zerikarli bo’lishiga olib keladi.

Ko’kalamzorlashtirish - o'yin maydonchasini obodonlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu shahar bolalariga hech bo'lmaganda tabiatga biroz yaqinroq bo'lishga imkon beradi. O'yin maydonchasini tashkil etishga kelsak, bu masalada bolalarning yoshini hisobga olish kerak.

Ko'p vaqtini ota-onasi bilan o'tkazadigan chaqaloqlar uchun mashg'ulotlar oddiy va harakatsiz bo'lishi kerak. Bu qum qutilari, past tebranishlar, karusellar va boshqalar bo'lishi mumkin, bu yerda asosiy narsa ota-onalar haqida unutmaslikdir. Bunday joylar skameykalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan, allaqachon mustaqil va faolroq bo'lgan katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maydonchalari ko'proq xilma-xil bo'lishi kerak. Bu yerda jihozlar ro'yxati nafaqat qum qutilari va belanchaklarni, balki turli xil toqqa chiqish moslamalarini, velosipedlarni va boshqalarni ham o'z ichiga olishi kerak.

7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'yin maydonchasi yanada murakkab belanchak va karusellar, toqqa chiqish va sport moslamalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

12-16 yoshli o'smirlar oddiy toqqa chiqish jihozlaridan kamroq foydalanadilar. Bu davrda bolalar ko'proq sport maydonchalari, toqqa chiqadigan devorlar, rolikli konkida uchish, skeytbordda uchish joylari va boshqalarga qiziqishadi. Ular jarayon ishtirokchilari uchun ham, mumkin bo'lgan tomoshabinlar uchun ham ko'proq joy talab qiladi - stendlar, skameykalar.

Hovlilarda kattalar uchun bo'sh vaqt ko'pincha tashkil etilmaydi. Biroq, bu kamchilikni bartaraf etishga arziydi va loyihalashda aholining manfaatlarini hisobga olgan holda kattalar uchun dam olish zonasini kiritish kerak. Aholining yoshini hisobga olish kerak. Keksalar uchun stol o'yinlari, oddiy sport anjomlari bilan tinch dam olish joylari ko'proq mos keladi. Iloji bo'lsa, ularni uyning kirish qismiga yaqinroq joylashtiring.

Aholining faol hordiq chiqarishi uchun maydon sport anjomlari (stol tennisi, trening), tinch joylardan uzoqda joylashgan bo'lishi kerak. Maydonlar sayr qilish joylari sifatida ham jihozlanishi mumkin. Hovlilarda bunday Maydonlarning joylashtirilishi aholining ijtimoiy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Odamlar bir-birlari bilan tanishadilar va ko'proq muloqot qiladilar, bu aholi yuki yuqori bo'lganda juda muhimdir.

Yuqori ish majburiyatlari tufayli ko'pchilik aholi har doim ham tabiat qo'yniga chiqa olmaydi. Bu maydonning perimetri bo'ylab yashil maydonlarni tashkil etish orqali qoplanishi kerak.

Avtomobillar hovlida juda ko'p joy egallaydi. Mashinalar tobora ko'payib bormoqda va to'xtash joylari tartibsizlikka aylanmasligi uchun ular uchun ma'lum joylarni ajratish kerak. Joylar soni, shuningdek, to'xtash joylarini rejalashtirish SHNQ va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

So'nggi paytlarda "mashinasiz hovli" deb nomlangan mashina joylarini hovli hududidan tashqariga olib chiqish kontseptsiyasi ommalashmoqda. Avtoturargohlarning odatiy joylashuvi bilan taqqoslaganda, bunday hududni tashkil qilish, birinchi navbatda, hovlini bolalar uchun xavfsizroq qiladi. Ikkinchidan, hovli maydoni barcha aholi uchun qulayroq bo'ladi, turli xil o'yin maydonchalari, sport maydonchalari va boshqalarni joylashtirish uchun ko'proq joy va imkoniyatlar paydo bo'ladi, yanada jozibali landshaft yaratiladi.

Kirish guruhlari butun hovlini obodonlashtirishning muhim qismidir. Bu turli xil kichik me'moriy shakllar va strukturaviy elementlar majmuasidir.

Kirish guruhini tartibga solish unga yondashuvlar va kirishlarni, qisqa muddatli dam olish va kutish joyini tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Biroq, favqulodda vaziyatlarda odamlarni evakuatsiya qilish standartlarini hisobga olishingiz kerakligini unutmang. Ayvon va uning oldidagi maydon chigal bo'lmasligi yoki ko'kalamzorlashtirish elementlari bilan ortiqcha yuklanmasligi kerak.

Standartlarga muvofiq, kirish guruhi 1:20 nishabga ega bo'lgan rampa bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Ayvon yomg'ir va qordan himoya qilish uchun ayvon bilan qoplangan. Turar-joy binosiga kirish joyi tozalikni saqlash uchun axlat qutisi bilan jihozlangan. Turar-joy binosiga kirish joyi yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak.

Hududda tozalik va farovonlikni saqlash uchun aholining bo'sh vaqtini tashkil qilish joylaridan tashqari, chiqindilarni yig'ish joylari va kommunal maydonlar ham ajratilishi kerak.

Ular boshqa barcha joylardan uzoqda, lekin binoga kirish joyidan juda uzoq bo'lmagan, belgilangan joylarda joylashtirilishi kerak.

Odatda, ayvonlar ostidagi soyali joylarda joylashgan chiqindilarni yig'ish uchun alohida idishlar qo'yilishi lozim. Iloji bo'lsa, chiqindilarni alohida yig'ish ta'minlanishi kerak.

Uy-joy maydonchalarida odatda gilamlarni tozalash, uy-ro'zg'or buyumlarini quritish va boshqalar uchun uskunalar tashkil etiladi.

Xulosa

Samarqand tez rivojlanayotgan zamonaviy shahar. Uning funktsional zonalarini o'rganish va tahlil qilish orqali xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu bosqichda jamoat va hovli maydonlarini obodonlashtirish yetarli darajada emas, obodonlashtirish dasturlarini amalga oshirish talab etiladi.

Hududning ancha katta qismini obodonlashtirish bo'yicha zamonaviy talablar bajarilmagan eski binolar egallagan. Ushbu hududlarda aholining bo'sh vaqtlarida dam olishlari uchun etarli sharoitlar tashkillashtirilmagan yoki kamchiliklar mavjud. O'yin maydonchalari va sport maydonchalari ko'p sonli avtomashinalar bilan to'lgan, to'xtash joylari yo'qligi sababli tartibsizliklar yuzaga kelgan va hokazo. Bularning barchasi hududni obodonlashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Hovli maydoni - bu aholining turli manfaatdor guruhlarini birlashtiruvchi hudud. Hovlida hududida vaqtinchalik ijtimoiy guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ular uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash kerak. Hamma narsa barcha foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan birlik sifatida ishlashi kerak. Hovlining funktsional imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning estetik qismi haqida unutmaslik lozim, shunda har bir aholi dam olish va unda bo'lishdan mamnun bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Гутнов А.Э. Эволюция градостроительства М.: Стройиздат, 1984. – 256 с.

2. Глазычев В.Л. Социально-экономическая интерпретация городской среды. М.: Наука, 1974.

3. Achildiyev, R. M., & Otabekova, D. (2022). Yirik shaharlarda transport muammolarini hal etishda xorijiy tajribalar. Academic research in educational sciences, 3(11), 496-502.

4. Ачилдиев, Р. М., Каримова, З. З., & Фозилова, Ш. Р. (2023). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПЛАНИРОВОЧНОГО РЕШЕНИЯ" КРАТКОСРОЧНЫХ" АВТОСТОЯНОК. PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL), 1(2), 700-703.

5. Eshatov, I. K., & Achildiyev, R. M. (2023). PLACEMENT OF COMMERCIAL AND DOMESTIC SERVICE COMPLEXES TAKING INTO ACCOUNT NATURAL AND CLIMATIC REGIONS IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 80-86.

6. Maxmadaliyevich, A. R., & Payzullayevna, S. N. (2023). Experimental Studies of Brick Masonry on Climatic Action Impacts. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(4), 69-73.

LANDSHAFT DIZAYNIDA KO'KALAMZORLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

Karimova Dilnoza Erkinovna

Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti, "Landshaft dizayni" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada shahar ekologik muhitini loyihalash va tashkil etish muammolari ko'rib chiqiladi. Maqola shaharlarda landshaftli muhitlarning yetishmasligi bilan bog'liq ba'zi dolzarb muammolarga bag'ishlangan, shuningdek, ushbu sohadagi hududlarni obodonlashtirishning zamonaviy usullarini ko'rib chiqadi. Landshaft dizaynining belgilangan tamoyillari bo'lajak landshat dizaynerlarni kasbiy tayyorlash jarayonida ushbu yo'nalish mavjud bo'lgan universitetlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ekologik dizayn, landshaft dizayni, vertikal ko'kalamzorlashtirish, zamonaviy materiallar.

Bugungi kunda zamonaviy yirik shaharlarda odamlarni o'rab turgan muhitni saqlash va yaxshilash juda dolzarb muammodir. Shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish inson salomatligining jismoniy va ruhiy holatiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shaharlarning kuchli o'sish davrida, shahar hayoti ritmining oshishi va shahar transportining rivojlanishi ko'chalar, hovlilar va bog'larni yashil maydonlar bilan ko'proq ta'minlashni talab qilmoqda.

Yashil o'simliklar yetishmasligi muammosi yirik shaharlar va ayniqsa fabrika va zavodlar to'plangan yoki zich qurilgan hududlarga tegishlidir. Ko'pgina qurilish kompaniyalari ShNvaQda belgilangan standartlarga rioya qilmasdan, ko'proq foyda olish maqsadida uylar va boshqa inshootlar orasidagi masofalarni bir-biriga juda yaqin quradilar. Ko'pchilik hollarda tegishli tashkilotlar bu qonunbuzarliklarga ko'z yumadi.

Bunday hududlarda yashil maydonlar yetishmasligi muammosini hal qilishning zamonaviy usuli – vertikal

ko’kalamzorlashtirishni yaratishdir. Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, insonni o’rab turgan atrof-muhitning qulayligi yuqori darajada bo’lishi uchun, atrof-muhitda yetarli miqdorda yashil massivlar bo’lishi kerak. Ushbu parametrlarni shahar ko’cha va hovlilarini ko’kalamzorlashtirish yordamida sezilarli darajada boshqarish mumkin. Shuningdek yashil o’simliklar mikroiqlimni yaxshilash xususiyatiga ham ega.

Butun shahar monoton kulrang rangga aylanganda, o'simliklarning yetishmasligi nafaqat estetik muammo, balki ekologik muammoni ham keltirib chiqaradi. Yashil maydonlarni kam bo’lishi mahalliy mikroiqlimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq joylarga nisbatan shaharlarda allaqachon havo harorati o’rtacha temperaturadan 7° ga oshib ketgan, namlik darajasi sezilarli ravishda pasaygan. Olimlar shuni isbotlashdiki, ko’kalamzorlar maydoni yetarli darajada katta bo’lmagan taqdirda ham harorat va namlikga ta’sir qiladi. Yashil maydonlar yozda issiqlik energiyasini o’ziga yutish va atrofdagi havo haroratini pasaytirish xususiyatiga ega.

Ma’lumki, katta shaharlarda havoni changdan va og’ir metallardan tozalashda, kislorod bilan to’yintirishda daraxtlar, butalar, gullar va maysalar muhim rol o’ynaydi. Yildan yilga havoga zaharli gazlar chiqaradigan zavod va avtomashinalar soni ortib bormoqda. Aynan yashil o’simliklar 3,5 mlrd. yildan ortiq muddat mobaynida bizning planetamizdagi barcha mavjudotlarning yashashi uchun kislorod ajratib bermoqda. Bir shahar aholisi uchun ajratilgan yashil maydon hajmi 20 dan 50 m^2 bo’lishi kerak deb hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi natijasida yashash joylarining zichlashib borayotganligini hisobga olgan holda ushbu standartlarga rioya qilish deyarli mumkin emas. Shuningdek, yashil o’simliklarning soni va turlariga ta’sir qiluvchi omil bu ularning geografik joylashuvidir va ayniqsa ushbu hududning iqlimi.

Shaharning arxitekturaviy muhitini shakllantirishda ham yashil maydonlar asosiy rolni o’ynashadi. Bu inson yashash muhitining ekologiya va estetikasiga bevosita ta’sir qiladi. Yashil o’simliklar turlarini ularning estetik xususiyatlariga ko’ra to’g’ri tanlash, insonlarning didi va madaniyatini rivojlantirishga imkon beradi [1].

Ko’kalamzorlashtirish yo’llari.

Klumbalar. Ko’kalamzorlashtirishning eng mashhur yo’llaridan biri bu gulli klumbalar bo’lib, ularsiz zamonaviy shahar landshaftini tasavvur qilish qiyin. Ular shakli va bezash uslublariga ko’ra bir yillik va ko’p yillik bo’ladi. Klumbalarni shakllantirishning muhim talabi bu, nafaqat o’simliklarni to’g’ri tanlash balki uni muayyan uslubda yaratishdir. Shundagina klumbalar shaharning landshaftli muhitini yanada boyitib ko’rsatib beradi [2].

Muntazam klumba. Muntazam klumbaning asosiy xususiyati – ushbu klumbada mavjud bo’lgan gullarning bir vaqtda gullashidir (1-rasm). Ko’proq holatda muntazam klumbalar shahar muhitida uning ko’rkiga ko’rk qo’shib turishi uchun qo’llaniladi. Ular kompozitsion dizaynning qat’iyligi, shakllarning simmetriyasi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Muntazam bo’lmagan klumba. Muntazam bo’lmagan klumba muntazam klumbadan o'zining erkin dizayni bilan farq qiladi (2-rasm). Bog’ maydonida muntazam bo’lmagan klumbani yaratish unchalik qiyin emas va u tabiiy va yengil ko’rinadi. Bunday turdagi klumbaga ko’p yillik, oddiy gul o’simliklarini ekish eng maqbul variantdir. O'simliklarni butun yoz mavsumi davomida gullab-yashnashi uchun ularni gullash davriga qarab to’g’ri tanlashga harakat qiling, shunda sizning klumbangiz doimo barchani ko’zini quvontiradi. Bundan tashqari, ko’p yillik o’simliklar (gullar) sizni har yili klumbalarni qayta tashkillashtirishingizni talab etmaydi.



1-rasm. Muntazam klumba



2-rasm. Muntazam bo’lmagan klumba

Vertikal klumba. Vertikal klumba – tirik san’at asaridir. Bunday mo'jiza kam odamni befarq qoldiradi. Ehtimol, har bir kishi o'z bog'ida uch o'lchamli shakldagi bunday gulzorni ko'rishni xohlaydi. Afsuski, vertikal klumbani loyihalash juda qiyin vazifadir. Avvalo klumbaning karkasi yaratiladi, bu bo’lajak klumbaning asosidir. Keyin ramkaga maxsus vazalar o’rnatiladi va ularga o’simliklar ekiladi [4].



3-rasm. Vertikal klumba

Maysazor. Maysazor–bu tabiiy yoki sun’iy tarzda yaratilgan, ajir maysa o‘tlar bilan yopilgan yashil maydondir. Maysazorlar yaratilishiga qarab ikki xil: tabiiy shakllangan va maxsus yaratilgan maysazorlar guruhiga bo‘linadi. Qo’llanish sohalari bo’yicha quyidagi klassifikatsiya turlariga bo’linadi: manzaraviy va sport maysazorlari [3].

Manzaraviy maysazor quyidagi turdagi qoplamalarni o'z ichiga oladi:

Parterli maysazor - ular o‘ta sifatli bo’lib, o‘tlari baxmalsimon, rangi bir xilda, yuzi o‘ta tekis, bo‘yi pastqam, barglari tig‘iz bo‘ladi. Landshaft dizayneri tomonidan bog’ asosiy me’moriy qurilmalari bo’lgan favvora va dekorativ hovuzlar fonida bunday turdagi maysazorni qo’llashi uning yutug’i hisoblanadi. Bunday maysazorni qo’llashdagi asosiy shart - bu maysazor maydonining kattaligi kompozitsiyaning boshqa elementlari maydoni kattaligidan katta bo’lishi kerak (4-rasm).



4-rasm. Parterli maysazor

Oddiy maysazor, ushbu maysazor yana bog’-park maysazori nomi bilan ham mashhur. Uning qo’llanilish sohalari skver, bog’ va parklardir. Ushbu zich, keng o’tli qoplama ko’p yilligi, yuqori temperaturaga chidamliligi, mexanik shikastlar orqali zararlanmasligi bilan ajralib turadi.





5-rasm. Oddiy maysazor

Mavritan yoki gullaydigan gazon o’zining tashqi ko’rinishi bilan rangdor mozaykani eslatadi (6-rasm). Bunday gazon uchun 8 dan 30 xilgacha bo’lgan, past bo’yli, e’tibor talab qilmaydigan bir yillik, piyozsimon va urug’lik dala o’simliklaridan o’stiriladi. Mutaxassislar fikriga ko’ra bunday maysazor ochiq dalalar yoki sun’iy suv havzalarini obodonlashtirishda qo’llanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

O’tloq yoki bo’lmasa lugoviy maysazorlar Mavritan maysazoriga o’xshab ketadi, lekin unga nisbatan soddaroq (7-rasm). Parklarning katta maydonlariga 3-5 xil turdagi ko’p yillik o’simliklar ekiladi. Ushbu maysazorning xarakterli jihati kam e’tiborliligidadir.



6-rasm. Mavritan yoki gullaydigan gazon



7-rasm. O’tloq yoki bo’lmasa lugoviy maysazor

Sport gazoni. Ushbu o’tli qoplama aniq maqsad bilan o’stiriladi ya’ni, sport turlaridan bo’lgan futbol va golf o’yinlari bilan shug’ullanish uchun. Bunday turdagi maysazorlar yuqori yuk va yomon ob-havoga chidamli bo’ladi.

Massivlar. Ko’kalamzor hududdagi ko’p miqdordagi daraxt va buta o’simliklari bu massivlardir. Ular parkning asosiy yadrosi hisoblanadi, hududdagi sanitar-gigiyenik vazifani va mikroiqlimni yaxshilab beradi. Bunday hududga uzoq umr ko’radigan va mustahkam bo’lgan o’simliklar ekiladi.

Guruhlar kompozitsiyasi. Ushbu ko’kalamzorlashtirish turi erkin rejali va ochiq muhitli parklarda chiroyli manzaralarni yaratishda qo’llaniladi.

Agar parkni loyihalashda ko'p sonli guruhlar kompozitsiyasi qo’llanilsa, umumiy ko'rinishning hilma-xilligiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni bir xil qilish tavsiya etiladi. Kuzatuv hududlariga aralash guruhlarni qo’llash tavsiya etiladi (8-rasm). Ushbu hududga manzaraviy va ignabargli turdagi o’simliklarni ekish juda ham samarali hisoblanadi ammo, ularni loyihalayotganda har bir o’simlik turning biologik xususiyatini inobatga olish kerak.



8-rasm. Guruhlar kompozitsiyasi

Qatorlar kompozitsiyasi. Yo’llar, bulvarlar va bog’-parklarni ko’kalamzorlashtirishda loyihalanadigan o’simliklar ma’lum masofada bir tekis yoki egri chiziq bo’ylab bir yoki bir nechta qatorlarda joylashtiriladi.

Daraxtlardan hosil qilinadigan qatorlar kompozitsiyasi bog’-parklarda yo’laklar bo’ylab qo’llaniladi. Ushbu ko’rinishdagi xiyobon alleya deb ataladi. Alleyalar ochiq va yopiq turlarga bo’linadi. Ochiq alleyalar uchun daraxtlarning toj qismi yuqoriga qarab o’sadigan daraxtlar tanlanadi, yopiq turdagi alleyalarga esa toj qismi yon tomonga o’sib yo’laklar bo’ylab soya hosil qiladigan daraxtlar tanlanadi.

Yashil to’siqlar. Ushbu turdagi ko’kalamzorlashtirish turidan yo’l sirtlarini ajratishda, maydonlar va gulzorlarni ramkalash (o’rash) uchun qo’llaniladi. Yashil to'siqlar – keng bo’lmagan, qatorli, past balandlikdagi daraxt va buta o'simliklaridir. Vazifasiga ko'ra ulardan o'tib bo'lmaydigan bo'lishi kerak, shuning uchun ularni ekayotganda o'simliklar zich, odatda ikki yoki uch qatorda ekiladi.

Shakliga ko'ra, to'siqlar erkin o'sadigan va shakl beriladiganga bo'linadi. Erkin holda o’suvchi yashil to’siqlar mo’l-ko’l bo’lib o’sadigan butalardan tashkil qilinadi. Ular o’zining tabiiy ko’rinishi bilan go’zal bo’ladi. Shakl beriladigan yashil to’siqlar esa shox-shabbalari zich bo’lgan butalardan tashkil qilinadi. Shakl beriladigan yashil to’siqlarga istalgan turdagi shaklni berish mumkin.

O’simliklarning turiga qarab yashil to’siqlar yumshoq va tikonli, doim yashil va barglari to’kiladiganlarga bo’linadi.

Vertikal ko’kalamzorlashtirish – landshaft obyektlarini vertikal yo’nalishda joylashtirish orqali landshaftni o’zgartirish va yaxshilash usuli. Zamonaviy shaharlarda ko’kalamzorlashtiriladigan maydonlarni kamligini hisobiga vertikal ko’kalamzorlashtirish usuli tobora mashhurlikga erishmoqda. Vertikal ko’kalamzorlashtirishning afzallik tomonlari ko’p. Vertikal ko’kalamzorlashtirishning dekorativ roli va estetik ahamiyatini bo’rttirib ko’rsatish qiyin. Lianalar, chirmashib o’suvchi o’simliklar va vertikal ko’kalamzorlashtirishda ishlatiladigan boshqa o’simliklar mo’jaz me’moriy shakllardan bo’lgan besedka, pergola va arkalarni bezaydi (9-rasm). Yashil devorlar soya hosil qiladi, bog’ni tashqi ta’sirlardan himoya qiladi, bog’ga sirlilik va romantiklik hissiyotlarini baxsh etadi.





9-rasm. Mo'jaz me'moriy shakllarda vertikal ko'kalamzorlashtirish

usulini qo'llash

Bugungi kunda vertikal ko'kalamzorlashtirish usuli hududga estetik go'zallik berish maqsadi bilan birgalikda, hududni obodonlashtirish va holatini yaxshilash uchun qo'llanilmoqda.

Yashil tomlar. Hovlida past qavatli binolar mavjud bo'ladigan bo'lsa, ushbu bino tomida ko'kalamzorlarni tashkil qilish mumkin. Yashil tom tufayli binoning ichki qismidagi haroratni haddan tashqari isib ketishi va sovib ketishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu holda sug'orish, drenaj va tomdan suv o'tkazmaslik sistemasini to'g'ri tashkillashtirish muhim (10-rasm).





10-rasm. Pastqam turar-joy binosidagi tashkillashtirilgan yashil tom

Yaxshi rejalashtirilgan landshaft dizayni har qanday yer uchastkasini go'zal ko'rinishga o'zgartirishi mumkin va bunda ko'kalamzorlashtirish katta rol o'ynaydi. Daraxtlar, butalar, gullar va zamin qoplamalarining mohirona kombinatsiyasi ko'kalamzorlashtirilishi kerak bo'lgan hududlarga yangi shakllar berishga imkon beradi. O'zining estetik ko'rinishidan tashqari, ko'kalamzorlashtirish shovqindan, changdan himoya qiladi va havoni tozalashni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Самарская, В. В., Фрелих, А. Н., & Чесноков, Н. Н. (2019). Принципы озеленения городских территорий. Наука и Образование, 2(4).
2. Каримова, Д. Э. (2017). ФИТОДИЗАЙН С НАМИ ВЕЗДЕ. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-3), 64-66.
3. K.D.Rahimov, A.S.Uralov. "Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash". «Sano-standart» nashriyoti, Toshkent, 2015.
4. Muratovich, K. A., & Erkinovna, K. D. (2022). Ornamental Plants Used for Flower Arrangements. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 511-514.
5. Erkinovna, K. D., & Sergeyevna, K. G. The Reconstruction of the Architectural Landscape is a Means of Optimizing an Urban Environment. International Journal on Integrated Education, 4(4), 238-240.
6. Erkinovna, K. D., & Ulugbek, M. (2024). Importance of Beautiful Catalpa Tree in Urban Landscape Design. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 5(3), 45-48.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON ARXITEKTURASI

Shamsieva Rafoat Aslidinovna
"Interyer dizayni" kafedrasi o'qituvchisi, SamDAQU

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida O'zbekiston arxitekturasining bosqichma bosqich rivojlanishi, keng batafsil tushuntirilgan. Dunyoda inson qo'li bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, o'z jozibasini yo'qotmay kelgan tarixiy obidalar ko'plab uchraydi. Vatanimiz hududida ham o'tmishdan sado beruvchi ko'plab tarixiy obidalar yetib kelgan. Ushbu maqolada yurtimiz o'tmishini, madaniyatini, xalqimiz ong va shuurining yorqin aksi hisoblangan tarixiy yodgorliklarimiz haqida xabar beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston arxitekturasi, arxitektura, me'morchilik, O'rta Osiyo me'morchiligi, Chorbog', madaniyat, kommunikatsiya tizimi, honliklar, saroylar mustamlaka, taraqqiyot, Sharq Uyg'onish davri.

O‘zbekiston arxitekturasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ko‘pchilik mamlakat boshidan kechirgan o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar, texnik taraqqiyot, demografik tebranishlar va madaniy o‘zgarishlarga qaramay, O‘zbekiston arxitekturasi diqqatga sazovor deb hisoblaydi.

Milliy merosning rivojlanishi, odatda, o‘zining boy o‘tmishiga ega bo‘lgan tarixiy uslublardan birining rivojlanishi sifatida qaraladi. XIX-XX asrlarning ikkinchi yarmidagi Turkiston shahar va qishloqlarining turmush tarzi tubdan o‘zgardi. Yangi shaharsozlik tamoyillari, yangi ansambl va blok ichidagi yechimlar, yangi turdagi jamoat, turar - joy, sanoat va boshqa binolar paydo bo‘ldi, ular uchun ilgari prototiplar mavjud emas edi. Shahar tuzilishi, kommunikatsiya tizimi, suv ta’minoti, sug‘orish, sanitariya, quyoshdan himoya qilish va shahar hayoti bilan bog‘liq barcha narsalar me’morchilik uchun shunday muammolarni keltirib chiqaradiki, milliy uslubni ifodalash masalasi sof badiiy bo‘lib qolmaydi. O‘rta Osiyo me’morchiligida mustamlakachilik tuzumi o‘rnatilgandan keyin muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Diniy binolar, muhtasham karvonsaroylar, masjidlar, madrasalar va maqbaralar qurilishi yo‘qoladi. O‘rta asrlarda bo‘lsa O‘rta Osiyo hukmdorlari, ruhoniylarning hamdardligi va qo‘llab-quvvatlashini qozonishga harakat qilishdi va o‘zlari haqida xotira qoldirib, ulug‘vor qabrlar va sobori masjidlar qurilgan, keyinchalik esa bunday sarmoya minimal bo‘lib qoldi [1].

Darhaqiqat, mamlakatning Surxondaryo, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Navoiy viloyatlarida tosh va bronza davri yodgorliklari qoldiqlari topilgan[1]. O‘rta asrlarda o‘zbek me’morchiligi 11 000 kilometr (7000 milya) Buyuk ipak yo‘lining Markaziy bo‘g‘ini bo‘lgani uchun gullab-yashnagan[2]. XIV asrdan XVI asrgacha Temuriylar davri me’morchiligi, shuningdek, XVI asrda Shayboniylar davri me’morchiligi Islom me’morchiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan[3]. XXI asrda o‘zbek me’morchiligi an’anaviy dizayn va zamonaviy innovatsiyalar muvozanati bilan ajralib turadi.

Hozirgi O‘zbekiston hududini o‘z ichiga olgan O‘rta Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka sifatida Turkiston generalgubematorligi bo‘lib, podsho Rossiyasi tarkibiga kiritilgan edi. XX asr O‘zbekiston arxitekturasi turmushining barcha sohalarida sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarislilari va tarixiy yevrilishlar asnosida sodir bo‘ldi. Bu qattiq mehnat va kurash yillari edi hamda ular yangi davr arxitekturasi tiklanishi va rivojlanishiga bevosita va jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlar, binolar va inshootlaming tahliliga, mustamlaka davr arxitekturasining yetuk arxitektorlari ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud. Bular G. Chabrov, V. Voronina, K. Babiyevskiy va T. Qodirova, Sh. Asqarov, A. Ziyoyev va boshqalarning ilmiy ishlaridir. V. Nilsenning «У истоков современною градостроительства Узбекистана (XIX — нач. XX вв)» kitobida butun mintaqa shaharlarining rivojlanish davri daliliy ashyolar va adabiy manbalar asosida yoritib berilgan. Ushbu davr bo‘yicha M. Yusupovaning «Полвека трансформации архитектуры Узбекистана конца X1X-начало XX вв (на принципе «Новых городов» Ферганской долины конца XIX — начала XX вв.)» nomli tadqiqoti (2005-y.) diqqatga sazovor. Muallif ko‘plab arxiv materiallari asosida XIX asrning oxiri — XX asr boshi Farg‘ona vodiysining olti shahri yangi qismlarining shaharsozlik san’ati va arxitekturasini tahlil etadi. Shaharlaming reja ko‘rinishidagi suvratlari, turar-joy va jamoat binolari rejalari, asliyatdan olingan rangli fotosuvratlar qiziqish uyg‘otadi Mustamlaka davr arxitekturasini anglash zarur, chunki bu shunday daliliy asos va arxitekturaviy tangzaminki, u O‘zbekistonning zamonaviy shaharlari qiyofasida chuqur iz qoldirgan. Zamonaviy bosqichda shaharlar va ulaming markazlarini qayta tiklashda arxitektura rivojlanishining umumiy an’analari bevosita ahamiyat kasb etadi. Rus muhandis va arxitektorlari Farg‘ona yo‘nalishi, Kogon, Toshkent, Samarqand, Andijon kabi tarixiy shaharlaming yangi qismlarini loyihalashtirganlar. Tarixiy shaharlarnmg loyihalari izchil rejalashtirish tamoyillariga asoslangan. Xususan, to‘g‘ri va obod ko‘chalar, bog‘ va hiyobonlari bunyod etilgan, ariqlar o‘tkazilgan, yo‘llarga tosh to‘shalgan. Bu shaharlaming rejasi markazida, odatda, jamoatchilik maydoni joylashgan. Shaharni obodonlashtirishda ham sezilarli taraqqiyot kuzatilgan.

1860-yillar oxirlarida hozirgi O‘zbekiston jumhuriyatining asosiy yerlari bosib olingan bo‘lsa, 1992-yilgacha bo‘lgan davrda juda ham ko‘p imoratlar qurilgan. Qasr va saroylar me’morchiligining namunalaridan biri Toshkentdagi Nikolay Konstatinovich saroyining mahalliy qasrlarga Yevropa me’morchiligi ta’sirini esa Kogondagi Buxoro amiri qasri, Karmanada vayronalari saqlanib qolgan Charmgar — Chorbog‘ ziyoratgohi va Buxoro yonidagi Sitorai Mohi Xossa saroylarida ko‘rish mumkin. Toshkent, Samarhand, Fargonadagi harbiy yig‘ilish binolari, Gubernator inshootlari, turarjoy kvartallari, markaziy ko‘chalardagi cherkovlar, magazinlar, madaniy va ma’muriy ahamiyatdagi binolar O‘rta Osiyoning an’anaviy me’morchiligi namunalaridan yaqqol ajralib turagan.

Taassufki, Yevropa muhandislik ilmi bilan birga kirib kelgan ilg‘or qurilish va me’morchilik usullarini o‘zlashtirishda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yilgan. Yevropadan nimaiki kirib kelsa, barchasi ilg‘or va aksincha — mahalliy barcha an’analar zararli, eskirgan, degan noto‘g‘ri aqida yuzaga kelgan. Natijada bir qator ijobiy me’moriy ilmlar unutilgan.

Jumladan, o‘rta asrlar me’morchiligimizdagi handasaviy uyg‘unlashtirish usullari, naqsh bog‘lash san’ati, koshinkorlik, gumbaz, qanoslar bog‘lash va shu singari qator an’analar qadrsizlanib, chiqib ketgan. Bugungi kunda qadimiy qadriyatlar qaytadan o‘rganilib chiqilmoqda va undan foydalanish choralari qidirilmoqda.

Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida me’morchilikda, turar-joylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. Farg‘ona

vodiysida hovlilar ishkomli, bo‘yama naqshlar bilan bezatilgan mehmonxona va ayvonli qilib qurilgan. Samarqand va Buxoroda hovlilar imorat va paxsa devor bilan o‘ralib, bir necha qismlarga bo‘lingan, darvoza qarshisida hovuz, chorbog‘ bo‘lishiga ahamiyat berilgan, Xorazmda hovli baland paxsa devor bilan o‘ralib, uylar baland qurilgan, ustunlar o‘ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida m e’morchilikda rus rassomlarining ta’siri ham bilingan. Masalan, Sitorai Mohi Xosa saroyida kirish eshigi oldida sher haykallari o‘rnatilgan, Farg‘ona xona devorlarida tabiat manzaralari ishlangan. Naqqoshlikda qush va hayvonlarning tasvirlari ko‘paygan, sur’atkashlik san’ati kirib kelgan.

1920-1930-yillardagi O‘zbekiston arxitekturasi - Tiklanish davri arxitekturasi xalq xo‘jaligining rivojlanishidagi qiyinchiliklar va yangi davr (1917-yildan)ning boshlanishi bilan bog‘liq. Yerga va arxitekturaga nisbatan davlat yakkahokimligining o‘rnatilishi, qurilishdagi krizis davrlari, yagona ijodiy tushuncha yo‘qligi (1917-1924-yillar) rejalashtirishda ham, shaharlar, turar-joylar va jamoat binolarining ramziy-badiiy yechimidagi yangi izlanishlarda ham arxitekturaviy krizisga va ijodiy qiyinchiliklarga olib keldi. Bu davrda Toshkentda ham, O‘zbekistonning boshqa shaharlarida ham sanoat va irrigatsiya inshootlari qurildi, qadimgi shaharlarning rivojlanishi hamda yangilarining vujudga kelishi (Chirchiq, Yangiyo‘l) shu bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, o‘zbek me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari an’anaviy dizayn, original dizaynlar va mikroiqlimga innovatsion yondashuvni birlashtiradi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari Hazrat Imom, Registon, Lyabi Xaus va Ichan-Qal’a kabi ajoyib me’moriy ansambllari bilan mashhur[1]. Shunday qilib, yana bir bor ta’kidlash kerakki, Markaziy Osiyo Rossiya uchun ikkinchi o‘rinda turadi XIX asrning choragi iqtisodiy jihatdan muhimhudud bo‘lib, uni o‘zlashtirgan chor hukumati savdo bozorlarini kengaytirib, yangi bozorlarga ega bo‘lishi mumkin edi xom ashyo manbalari, shuningdek, bu vaqtga kerak hozirgi O‘zbekiston davlat-hududiy tuzilishining asosi edi. Bu davr san’ati estetik g‘oyalar va badiiylikni, o‘zbek xalqining o‘ziga bo‘lgan intilishlari tarixan shakllangan asr oxiriga kelib to‘liq mustaqillikka erishgan davlatchilikni qadar kuchayib ketishining oldini olish Britaniyaning Markaziy Osiyoga kirib borishi. XIX asr oxiri XX asr boshlari arxitekturasi bilan yangisining, o‘rta asr o‘zbek me’morchiligi an’analarini uyg‘unlashtirgan yo‘nalish qurilishning zamonaviy tendentsiyalari, yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar tug‘ilishini ifodalaydi.

Adabiyotlar ro’yxati

7. https://ru.wikipedia.org/wiki
8. https://art-blog.uz/archives/4666
9. Vohiov M.M Me’morchilik I-qism Me’morchilik tarixi.
10. Vohidov M.M. O ‘zbekiston milliy me’morchiligi. «Buxoro»,2009.
11. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzaev Me’morchilik 1,2,3, qismlar
12. T. F. Qodirova, San’at, arxitektura va shaharsozuk tarixi. Toshkent-2012.

HARAKATI CHEKLANGAN ODAMLAR UCHUN UYLARNING ICHKI DIZAYNINING XUSUSIYATLARI

Kurbanova Maxsuda Karshiyevna
Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqola harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun interyerlarni jihozlash xususiyatlariga bag‘ishlangan. Unda kirish imkoniyatini ta'minlash, xavfsizlik, mebel va sanitariya-texnika jihozlarining ergonomikasi hamda qulay va funksional makonni yaratish kabi asosiy jihatlar ko‘rib chiqiladi. Eshiklar ostonasini kengaytirish va harakatlanish uchun bo‘sh joy qoldirish, tutqichlar va sirpanmaydigan qoplamalar o‘rnatish, balandligi sozlanadigan mebel va "aqlli uy" tizimlarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola nogironligi bor odamlar uchun qulay va mustaqil turmush tarzini yaratishning ahamiyatiga urg‘u beradi.

Kalit so'zlar: interyer, ergonomika, aqlli uy, imkoniyati cheklangan odamlar, universal dizayn, tendensiya, estetik, klassika.

Har bir inson salomatligimiz juda nozik ekanligini unutmasligi lozim. Uni iloji boricha uzoqroq saqlash uchun yoshlikdan g‘amxo‘rlik qilish kerak. Biroq shunday odamlar toifasi borki, ularning salomatligi qandaydir sabablar tufayli zaiflashgan bo’ladi. Bular imkoniyati cheklangan insonlardir. Ular ham boshqalarday, faqat mustaqil harakatlanishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularga qulay yashash sharoitlarini yaratish uchun ba’zi sa’y-harakatlarni amalga oshirish zarur.

Imkoniyati cheklangan odamlar uchun qulay muhit yaratish shaharlarda universal dizaynning asosiy tamoyiliga aylandi. Shu bois yildan-yilga insonning istalgan joyda, hatto nogironlar aravachasida bo’lsa ham mustaqil harakatlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilishi loyihalashning muhim bosqichlaridan biriga aylandi.

Ushbu tendensiya ichki dizaynda ham davom etmoqda. Endi har qanday ehtiyojga ega bo'lgan odamlar uchun zamonaviy interyer yaratishda hech qanday muammo yo'q. Bu yerda kundalik hayotni

tartibga solish bilan bog'liq ba'zi nuanslar mavjud, ammo estetik nuqtai nazardan, bunday interyerlar klassikadan hech qanday kam emas - agar loyihalar professionallar tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo'lsa albatta.

Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun interyerni to‘g‘ri tashkil etishda, uning xavfsiz harakatlanishini ta’minlash zarur. Agar bu nogironlar aravachasi foydalanuvchisi bo'lsa interyerni shunday rejalashtirish kerakki, u xonadon bo‘ylab erkin harakat qila olsin. Ehtimol, buning uchun xonalararo o‘tish joylarini yarim metr kengroq qilish yoki koridor devorlarini bir-biridan ajratish uchun xonani qayta ishlab chiqishni talab qilishi mumkin. Ba'zan, bu maqsadlar uchun ikkita xona birlashtiriladi, masalan, oshxona va yashash xonasi yoki hammom birlashtiriladi [1].

Bundan tashqari, xonalardagi devorlarga va uy-ro'zg'or buyumlari yaqinida tutqichlarni ta'minlash kerak. Hammom va oshxonada yuqori namlik va yuqori harorat o'zgarishiga qarshi yaxshi himoya xususiyatlariga ega bo'lgan xrom yoki zanglamaydigan po'latdan yasalgan dastgohlar va tutqichlarni o'rnatish mumkin. Bunday holda, tayanchlar yuqori yuklarga bardosh bera oladigan qalin devorli metalldan yasalgan bo'lishi kerak. Funksional maqsadlarga qo'shimcha ravishda, tutqichlar tashqi ko'rinishi bilan xonaning ichki qismini buzmaslik uchun estetik jihatdan ham yoqimli ko'rinishi kerak.







Harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun mo‘ljallangan interyerlarni jihozlash o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi, chunki bu makon nafaqat qulay va funksional, balki xavfsiz ham bo‘lishi kerak. Bunday interyerlar yashovchilarning jismoniy harakati va ularning yordam va kirish imkoniyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda yaratiladi. Quyida qulay va foydalanishga yaroqli makonni yaratish bo‘yicha asosiy tamoyillar va tavsiyalar bilan tanishamiz.

1. Kirish imkoniyati va erkin harakatlanish:

Harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun interyerning asosiy maqsadi maksimal darajada kirish imkoniyatini yaratish va uyning barcha qismlarida erkin harakatlanishni ta’minlashdir. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- **Eshik ostonalarini** kengaytirish (80-90 sm gacha), bu esa nogironlar aravachasida bemalol harakatlanishni ta'minlaydi.
- **Parchalar va baland ostonalardan qochish** yoki ularni maksimal past qilib o‘rnatish, bu harakatlanishni osonlashtiradi.
- **Xonalar maydonini kengaytirish**, bunda aravachada burilish uchun kamida 1,5 metr bo‘sh joy qoldirish zarur [2].





2. Ergonomika va foydalanish qulayligi

Har bir mebel va maishiy texnika elementiga kirish oson va qulay bo‘lishi kerak:

- **Mebel** imkon qadar yumaloq burchaklar bilan tanlanadi, bu esa jarohat olish xavfini kamaytiradi.
- **Oshxona shkaflari va javonlari** o‘tirgan holatda ham ularga osongina yetib borish uchun optimal balandlikda o‘rnatilishi kerak. Ilgichli javonlarning osti

oyoqlar uchun bo‘sh qoldirilsa, bu o‘tirgan odamga ishlashni osonlashtiradi.


- **Tutqichlar va o‘chirgichlar** esa pol yuzasidan 90-120 sm balandlikda o‘rnatiladi, bu ularga oson yetish imkonini beradi [3].



3. Maxsus sanitariya jihozlari va hojatxona qulayligi

Hojatxona harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun xavf darajasi yuqori bo‘lgan hudud hisoblanadi va alohida e’tiborni talab qiladi:

- **Tutqichlar o‘rnatish** unitaz, yuvinish joyi va dush yonida xavfsizlikni oshiradi.
- **Aralash tirqishlar** uzun tutqichlar yoki sensorli boshqaruv bilan o‘rnatiladi, bu ularning foydalanishini osonlashtiradi.
- **Dush kabinasi** maxsus yig‘iladigan o‘rindiq yoki skameykaga ega bo‘lishi kerak, shuningdek, unga kirish uchun balandliksiz eshik ham zarur.





- **Pol qoplamasi** vannaxonada va boshqa nam joylarda sirpanmas materiallardan qilingan bo‘lishi kerak, bu yiqilish xavfini kamaytiradi.

4. Yoritish va xavfsizlikni optimallashtirish

Yoritish yetarlicha yorug‘ va boshqarishda qulay bo‘lishi kerak:

- **Avtomatik yoritish** harakat detektorlari yoki masofaviy o‘chirgichlar yordamida amalga oshiriladi, bu esa qo‘shimcha harakatlarni kamaytiradi.
- **Pollar va tutqichlar yoritilishi** ayniqsa zinapoya yoki yo‘laklarda qorong‘i vaqtda yo‘nalish aniqligini yaxshilaydi.
- **Signalizatsiya va detektorlar** (masalan, yong‘in va gaz signalizatsiyasi) aqlli uy tizimiga ulanishi va mobil qurilma yoki pult orqali boshqarilishi mumkin.

5. "Aqlli uy" tizimi integratsiyasi

"Aqlli uy" tizimi harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlarning hayotini yengillashtirib, uydagi turli jihatlarni masofaviy boshqarish imkonini beradi:

- **Yoritish, harorat va maishiy texnika boshqaruvi** smartfon yoki ovoz yordamida amalga oshiriladi.
- **Video domofon va kameralar** uy ichidagi holatni nazorat qilish va xavfsizlikni ta’minlaydi.
- **Avtomatlashtirilgan pardalar va oynalar** esa yangi havo va tabiiy yorug‘likni oson kirishini ta’minlaydi.
- **Yong‘in yoki tutun detektorlari** kabi xavfsizlik tizimlari avtomatik ravishda signal beradi, bu esa xavfsizlikni oshiradi va tezkor yordam choralarini ko‘rish imkonini yaratadi.[4].

6. Individual yondashuv

Har bir odamning o‘ziga xos ehtiyoj va talablarini inobatga olish muhimdir, shuning uchun yashovchilarning afzalliklari va odatlari hisobga olinishi kerak. Ayrim hollarda, maxsus mebel dizayni yoki standart yechimlarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish talab etilishi mumkin.

Harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun qulay va xavfsiz interyer yaratish puxta rejalashtirish jarayonini talab qiladi. To‘g‘ri yondashuv bilan bunday yashovchilarga maksimal darajada mustaqillik va qulaylikni ta’minlash, ularning kundalik hayotini yanada oson va yoqimli qilish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Holmes-Sidle, James. Barrier-Free Design: A Manual for Building Designers and Managers. London: Architectural Press, 1996.
2. Остроумова, В. Доступная среда: проектирование и адаптация интерьеров. Москва:2021 год.
3. Berdiyev E.T., Maxmudova G.B. “Vertikalniy ozelenenie” (o‘quv qo‘llanma).– Toshkent, 2017y.
4. Maxkamov S. A ., Daminova U .O ., S haumarova D.A “Interyer va jihozlash” Toshkent, 2020 - yil

NAVOIY VILOYATIDA SAYYOHLIK MAJMUALARINI LOYIHALASHDA TABIIY-IQLIM SHAROITLARNI HISOBGA OLISH MASALALARI

Hidirov Muhsin Mihayilovich
Ipak yo'li xalqaro turizm universiteti dotsenti
Sharipova Yulduzxon Olim qizi
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti doktoranti

1. Annotatsiya. Navoiy viloyati O‘zbekistonning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, o‘zining cho‘l iqlimi bilan ajralib turadi. Mintaqa cho‘l zonasida joylashgani sababli yil davomida juda quruq va issiq iqlim kuzatiladi. Yoz oylarida harorat 38-39 °C darajaga yetadi, bu esa turizm va sayyohlik ob’ektlarini loyihalashda alohida yondashuvni talab qiladi. Viloyatda yog‘ingarchilik miqdori yil davomida kam bo‘lib, namlik darajasi ham past. Shuningdek, kuchli shamollar va chang bo‘ronlari sayyohlik majmualarini loyihalashda qo‘shimcha e’tiborni talab qiladi.Ushbu maqolada Navoiy viloyatida barqaror sayyohlik majmualarini loyihalashda tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish usullari, shuningdek, bu omillarning energiya samaradorligi, sog‘liq uchun qulaylik yaratish va ekologik barqarorlikka ta’siri batafsil o‘rganiladi. Maqsad – turizm infratuzilmasining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash, energiya resurslaridan samarali foydalanish va ekologik muhitni saqlashdir.

2. Uslublar. Mazkur tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan holda o‘tkazildi:

1. **Adabiyotlar tahlili**: Sayyohlik majmualarini loyihalashda tabiiy-iqlim sharoitlarini inobatga olish borasida ilmiy manbalar o‘rganildi. Xususan, Navoiy viloyatining iqlim xususiyatlariga mos keladigan arxitektura va landshaft dizayni bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston shaharsozlik normalari va qoidalari, iqlimga mos qurilish materiallari va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari bo‘yicha hujjatlar o‘rganildi.
2. **Iqlimiy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish**: Navoiy viloyatining iqlimiy ko‘rsatkichlari, jumladan, yillik harorat, namlik, yog‘ingarchilik va shamol tezligi ma'lumotlari yig‘ildi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida sayyohlik infratuzilmasini iqlim sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.
3. **Qiyosiy o‘rganish va misol tahlili**: Issiq va quruq iqlimli boshqa mintaqalarda, jumladan, AQSh va Eronda qo‘llangan dizayn va qurilish usullari qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu mintaqalarda qo‘llanilgan issiqlik, shamol va changdan himoya qilish choralari Navoiy viloyati uchun moslashtirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanildi.

3. Natija. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Navoiy viloyatida sayyohlik majmualarini loyihalashda quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish zarur:

3.1. Quyosh nurlanishi va haroratni boshqarish

Quyosh nurlaridan to’g’ri foydalanish, loyihalanayotgan binoning insoniyat uchun qulay bo’lishi uchun juda muhim omildir.Navoiy viloyatida quyosh nuri va harorat yuqori o’lka hisoblanadi.Yoz oylarida harorat eng yuqori 38-39 ⁰ C daraja bo’lishi mumkin[1].Tashrif buyuruvchilar sayyohlar uchun maxsimal darajada quyoshning nurlanishi va haroratning issiqligi tug’diradigan noqulayiklardan himoya qilish zarur.Quyosh nuri va haroratning sayyohlik majmualarini shakllantirishda quyidagicha ta’sirlarini ko’rib chiqish mumkin:

- **Yorug‘lik va qulaylik**: Xonani tabiiy yorug'lik bilan ta'minlash, kun davomida sun'iy yorug'likka ehtiyojni kamaytiradi, bu esa energiya tejamkorligi uchun muhim omildir. Quyoshning to'g'ri yo'nalishida joylashtirilgan derazalar kun davomida xonani tabiiy ravishda yoritadi va bino ichidagi quyosh nuri ortishi bilan odamlar faoliyati uchun yanada jozibali muhitning afzalliklaridan bahramand bo'lishlari mumkin.Har qanday xona uchun kunduzgi yorug'likni maksimal darajada oshirishning eng oddiy usuli - deraza o'lchamini oshirish yoki ko'proq derazalar qo'shish.Ammo,bu xonani ortiqcha isib ketishiga ham olib kelishi mumkin.Bugungi kun texnika taraqqiyoti bu masalaga ham yechim topgan.Shisha ishlab chiqarishdagi yutuqlar xona yoki strukturaning ehtiyojlariga qarab, derazaga turli xil xususiyatlarni o'rnatish imkonini beradi.Issiqlik ko'rsatkichlarini oshirish yoki kamaytirish uchun oynalar o'zgartirilishi mumkin ekan[2]. Bundan tashqari me’morlar quyoshning zararli nurlaridan himoyalanish,yoz oylarida ichki muhitda tabiiy salqinlikka erishish uchun ko’plab usullardan foydalanishadi. Navoiy viloyati quyoshli, issiq va quruq iqlimga ega bo‘lgani sababli, Sayyohlik majmuasi tarkibidagi turistlarga asosiy xizmat ko’rsatadigan binolarni janub tomonga orientatsiya qilish orqali tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish mumkin.Binolarni yoritish 3 xil yo’nalishda bo’ladi.Tabiiy yoritish, aralash yoritish va sun’iy yoritish.Ularga qo’yiladigan talablar O’zbekiston shaharsozlik normalar va qoidalarda to’liq keltirib o’tilgan[3]. Tabiiy yorug'lik juda ham ko'p xususiyatlarni qamrab olgan.Kunduzgi yorug'lik iqlimi, bino hajmi, deraza materiallari, yashovchilar soni va sun'iy yorug'lik kabilarni o'z ichiga oladi. Binolarda tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish uchun ularni janubiy yo‘nalishga orientatsiyalash va katta derazalar o‘rnatish tavsiya etiladi. Tabiiy yorug‘lik xonalarni yoritish bilan birga, energiya tejamkorligini ham oshiradi, bu esa majmualarda sun’iy yoritishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi. Buning uchun oynalarning issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlari yaxshilangan, zamonaviy shisha materiallardan foydalanish lozim.

• **Haroratni nazorat qilish va energiya samaradorligi**: Quyosh nuri inson faoliyat olib boradigan xonani tabiiy ravishta isita oladi.Janubiy yo'nalishda joylashtirilgan derazalar qish faslida xonani tabiiy isitishi mumkin, bu esa qishda isitishga sarflanadigan energiyani kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki maksimal kunduzgi yorug'likka erishilganda, binolar energiya sarfini 20-60% gacha kamaytirishi mumkin ekan. A. Tsangrassoulis, A. Kontadakis, L. Douloslarning izlanish natijalari,ularning hisob-kitoblariga qaraganda energiya tejashning 5,3% dan 79,5% gacha o'sishini ko'rish mumkin[4]. Biroq, haddan tashqari issiqlikning oldini olish uchun soyalar va qo‘shimcha himoya elementlaridan foydalanish zarur. Binolarning haddan tashqari qizib ketmasligi uchun soyali hududlar barpo etish zaruriyati haqida ko'plab arxitektorlar va tadqiqotchilar fikr bildirishgan.Binolarni quyosh nuri va yuqori haroratdan himoyalashda soyali hududlar, pergolalar, louvre va jalyuzilar kabi soyador qurilmalardan foydalanish kerak. Janub tomonga joylashtirilgan katta derazalar qishda xonani tabiiy isitadi, yozda esa haddan tashqari issiqlikning oldini olish uchun soyali qurilmalar va maxsus texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

• **Sog‘liq va kayfiyat**: Tabiiy yorug‘lik va optimal harorat sayyohlar kayfiyati va sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bino dizaynida quyosh nurining kirib kelish yo‘nalishini nazorat qilish, dam olish hududlarida quyosh nuri va soyani uyg‘unlashtirish orqali sayyohlik muhitini yanada jozibali qilish mumkin.

• **Arxitektura va estetika**: Quyosh nuri va soyani nazorat qilish arxitektura estetikasi uchun ham katta ahamiyatga ega. Tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish va soyali hududlarni tashkil etish binolarni yanada jozibador va funksional qiladi. Frank Lloyd Rayt va Le Korbuze singari arxitektorlar o‘z loyihalarida quyosh traektoriyasini hisobga olgan holda dizayn qilingan binolarni loyihalashgan. Masalan, pergola va soyador konstruktsiyalar binolarga nafaqat funksional qulaylik, balki estetik ko‘rinish ham qo‘shadi.

3.2. Shamol yo‘nalishi va tezligini boshqarish

Navoiy viloyatida kuzatiladigan kuchli shamollar va chang bo‘ronlari sayyohlik majmualarini loyihalashda alohida e’tiborni talab qiladi.

• **Aerodinamik dizayn**: Sayyohlik obyektlarining aerodinamik shaklda loyihalanishi shamolning kuchli ta’sirini kamaytiradi. Dumaloq yoki egri shaklli binolar kuchli shamollar oqimini kamaytirishda samaralidir, bu esa chang va qumning binolarga kirish ehtimolini pasaytiradi[5]. Past profilli binolar esa kuchli shamollarni o‘ziga kamroq tortadi, natijada binolar atrofida chang kamroq to‘planadi.

• **Himoya devorlari va panjara tizimlari**: Sayyohlik majmualari atrofida shamol va changdan himoyalanish uchun maxsus devorlar va panjaralar qurish maqsadga muvofiqdir[6]. Bu devor va panjaralar shamolning kuchini sezilarli darajada susaytiradi, chang va qumning obyektlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishini oldini oladi[7]. Landshaft bilan uyg‘unlashtirilgan himoya devorlari va panjaralar obyektlarga estetik qiymat ham qo‘shadi.

• **Himoya o‘rmonzorlari**: Daraxt va butalardan iborat himoya o‘rmonzorlarini barpo etish shamol va changning zararli ta’sirini kamaytiradi. O‘rmonzorlar ekologik muvozanatni saqlash, shamol tezligini susaytirish va changning tarqalishini oldini olishda samaralidir. Mahalliy o‘sib boruvchi daraxt turlaridan foydalanish, shuningdek, ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

3.3. Yog‘ingarchilik va namlik ko‘rsatkichlarini inobatga olish

Viloyat iqlimi quruq va kam yog‘ingarchilikka ega bo‘lganligi sababli suv resurslarini tejash va atrof-muhitni nam saqlash choralari tavsiya etiladi.

• **Suv bilan purkash tizimlari**: Havo namligini oshirish va changning tarqalishini kamaytirish uchun sayyohlik obyektlarida suv purkash tizimlarini joriy qilish lozim[8]. Bu tizim ayniqsa quruq va issiq kunlarda foydali bo‘lib, changning havoga ko‘tarilishining oldini oladi va toza muhit yaratadi.

3.4. Landshaft dizayni va tabiiy to‘siqlarni tashkil etish

Sayyohlik majmualarini shamol va changdan himoyalash uchun landshaft dizaynida tabiiy to‘siqlar yaratish, ekologik jihatdan qulay muhitni shakllantirish zarur[9].

• **Butalar va tabiiy to‘siqlar**: Daraxt va butalardan tashkil topgan tabiiy to‘siqlar chang va qumning kirib kelishini kamaytiradi, shamolning tezligini susaytiradi. Bu o‘simliklar tuproq eroziyasini kamaytirishda va qulay mikroiqlimni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

• **Mahalliy o‘simlik turlaridan foydalanish**: Tabiiy to‘siqlar uchun mahalliy iqlimga mos keladigan, kam suv talab qiladigan va yuqori haroratlarga chidamli o‘simliklar tanlanishi lozim. Daraxtlar, butalar va uzumlar shamol va changdan himoyalanishni ta’minlaydi.

4. Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Navoiy viloyatida tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sayyohlik majmualarini loyihalash zarur. Quyosh nuri va yuqori haroratdan himoya qilishda quyosh nuri va soyador hududlar, tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish, bino dizaynini aerodinamik shaklda loyihalash kabilar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yashil hududlar va o‘rmonzorlar yaratish orqali shamol va changning zararli ta’sirini kamaytirish mumkin.Shuningdek, quruq iqlimga mos o‘simliklardan foydalanish ekologik muvozanatni saqlash va suv resurslarini tejashda katta ahamiyatga ega. Navoiy viloyati uchun suv bilan purkash tizimlarini joriy etish chang va qumning tarqalishini kamaytiradi. Bu barcha choralar barqaror turizmni rivojlantirish va qulay sayyohlik muhiti yaratishda samaralidir.

5. Xulosa. Mazkur tadqiqot Navoiy viloyatida sayyohlik majmualarini loyihalashda tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olishning muhimligini ko‘rsatdi. Iqlimga mos dizayn, tabiiy yorug‘lik, shamol va changdan himoya qilish, suv resurslarini tejash va

landshaft elementlaridan to‘g‘ri foydalanish orqali viloyatda barqaror turizm muhitini yaratish mumkin.Shunday qilib, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar Navoiy viloyatining tabiiy sharoitlariga moslashtirilgan sayyohlik majmualarini loyihalashda samarali yechimlarni taqdim etadi. Tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda qurilgan majmualar uzoq muddatli raqobatbardoshlik va ekologik barqarorlikka ega bo‘lib, sayyohlar uchun yanada qulay dam olish sharoitini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. ShNQ 2.01.01-22 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar” shaharsozlik normalari va qoidalari.
2. https://www.linkedin.com/pulse/importance-natural-daylight-building-design-david-higgins/
3. QMQ 2.01.05-2019 “Tabiiy va sun’iy yoritish” qurilish me’yorlari va qoidalari.
4. A. Tsangrassoulis, A. Kontadakis, L. Doulos.Assessing Lighting Energy Saving Potential from Daylight Harvesting in Office Buildings Based on Code Compliance & Simulation Techniques Comparison,Procedia Environmental Sciences.Volume 38.2017.Pages 420-427.ISSN 1878-0296.https://doi.org/10.1016/j.proenv.2017.03.127.(https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1878029617301317)
5. GHOTE, TILAKCHAND & Wankhade, L. (2022). Reducing Impact of Wind on Tall Buildings Through Aero-dynamic Shape Modifications. 10.21203/rs.3.rs-2082175/v1.
6. https://www.wetearth.com.au/wind-fence-dust-fence
7. Albatayneh, Aiman. (2021). Optimisation of building envelope parameters in a semi-arid and warm Mediterranean climate zone. Energy Reports. 7. 2081-2093. 10.1016/j.egyr.2021.04.011.
8. Motlak, Jamal & Alshaikh, Rafah & Matlak, Mazin. (2020). The Use of New Irrigation Systems in Increasing Green Areas and Improve Environment-Case study: Neighborhood 405 in City of Baghdad. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. 745. 012118. 10.1088/1757-899X/745/1/012118.
9. Ramyar, Reza & Zarghami, Esmaeil. (2017). Green infrastructure contribution for climate change adaptation in urban landscape context. Applied Ecology and Environmental Research. 15. 1193-1209. 10.15666/aeer/1503_11931209.

KATTA SHAHARLARDA TRANSPORT TIRBANDLIKLARINI KAMAYTIRISH BO’YICHA YECHIMLAR

Akramova Xolida Alisher qizi
SamDAQU Akademik litsey katta o’qituvchisi,

Soliyev Solibek, Nuraliyev Akbar, Amonov Shukrullo
Shahar qurilishi va loyihalash yo’nalishi talabalari:, Jabborov Shodiyor

Xaydarov Shoxbozjon Zuhriddin o’g’li, Davlatov Ikrom Shavxidinovich
Ilmiy rahbar “Shaharsozlik” kafedrasi katta o’qituvchilari: Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola katta shaharlarda transport trbandliklarini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni tahlil qiladi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, smart texnologiyalarni joriy etish va ekologik transportni rag'batlantirish kabi strategiyalar orqali shahar aholisining harakatini qulaylashtirish maqsadida takliflar beriladi. Maqola, shaharlar uchun innovatsion yechimlar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi, aholi hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Katta shaharlar, transport tirbandliklari, jamoat transporti, infratuzilma, smart texnologiyalar, ekologik transport, harakatni boshqarish, transport strategiyalari, piyodalar va velosiped yo'llari.

Аннотация: В этой статье анализируются возможные меры по снижению загруженности дорог в крупных городах. С помощью таких стратегий, как развитие транспортной инфраструктуры, модернизация общественного транспорта, внедрение интеллектуальных технологий и стимулирование экологического транспорта, предлагаются предложения по облегчению передвижения горожан. В статье показаны инновационные решения и возможности их использования для городов, подчеркивается важность улучшения качества жизни населения.

Ключевые слова: Крупные города, пробки, общественный транспорт, инфраструктура, интеллектуальные технологии, экологический транспорт, управление движением, транспортные стратегии, пешеходные и велосипедные дорожки.

Abstcart: This article analyzes possible measures to reduce traffic congestion in large cities. Proposals are made with the aim of facilitating the movement of the urban population through strategies such as the development of Transport infrastructure, the modernization of public transport, the introduction of smart technologies and the promotion of Environmental Transport. The article, which shows innovative solutions and opportunities to use for Cities, argues that the population will be instrumental in improving the quality of life.

Key words: Major cities, transportation traffic jams, public transportation, infrastructure, smart technologies, environmental transportation, traffic management, transportation strategies, pedestrian and bicycle paths.

Kirish.

Asosiy qism. Mamlakat aholisning dam olish kunlarini maroqli o‘tqazishi, oila va do‘stlar davrasida hordiq chiqarishi, chet ellik sayohlarning ham O‘zbekistonning oromgohlari haqidagi yaxshi tassavurlar bilan yurtiga qaytishi juda muhimdir. Bizda go‘zal tabiat manzaralari, ma’danli suvlarning mavjudligi, tog‘li landshaftning serjiloligi insonlarda ko‘tarinki kayfiyatni uyg‘otmoqda.

Shahar tashqarisdagi dam olish maskanlariga tashrif buyuruvchilar ularga ko‘rsatilyotgan xizmatlardan, yaratilgan sharoitlardan rozi bo‘lib ketishi muhim masala hisoblanadi. Shunday ekan mavjud dam olish maskanlarini rekonstruksiya qilish va yangilarini kompleks ravishda barpo etish lozim bo‘ladi. Toshkent viloyati hududining ko‘plab dam olish maskanlarida aynan shunday bunyodkorlik ishlari amalga

oshirilmoqda. Lekin barcha hududlarda ham ishlar ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Ko‘p holatlarda dam olish maskanlarida yo‘llanma asosida bir necha kun davomida tinch hordiq chiqarishda kelgan aholi vakillari bilan bir kunlik hordiqqa kelgan tashrif buyuruvchilarning bir-biriga halaqit berishining guvohi bo‘lamiz. Bizningcha, nisbatan uzoq muddatga tashrif buyurgan dam oluvchilar uchun alohida, kunlik tashrifchilar uchun alohida dam olish hududlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bolgariya, Vengriya, Latviya, Gruziya va boshqa ko‘pgina mamlakatlar tajribasini o‘rganish foydadan holi bo‘lmaydi. Yuqorida nomi zikr etilgan mamlakatlarning shahar tashqarisidagi dam olish maskanlari tog‘ yon bag‘irlarida yoki dengiz va ko‘llar bo‘yida joylashgan bo‘lib, ularda har bir dam olish maskanining kompleks ravishda barpo etilganini ko‘ramiz. Bizda esa komplekslikni, ya’ni, turar-joy korpusi, ovqatlanish, savdo, maishiy xizmat, madaniyat va ma’rifat ob’yektlarini, sport, tashqi transport hududi va boshqalarning yonma-yon joylashganini kamdan-kam holatlarda kuzatamiz.



2-rasm. Ozarbayjon Qabala Kanat majmuasi

Ko‘pincha dam olish maskanlariga shahardan olib boruvchi yo‘llarning sifatsizligi, ularda xizmat ko‘rsatuvchi ob’yektlarning yetarli emasligi kishi dilini xira qiladi.

Ko‘pgina turizm rivojlangan mamlakatlarda turistik qishloqlarning barpo etilganining guvohi bo‘lamiz. Agar bizning tog‘li hududlarimizda bunday qishloqlar tashkil etilsa, o‘ylaymizki, ularga bo‘lgan talab yuqori bo‘ladi. Turistik qishloqqa tashrif buyurgan dam oluvchilar u yerdagi xonadonlardan birida yashashi, tabiiy mahsulotlardan va shifobaxsh giyohlardan iste’mol qiladilar, tog‘ning musaffo havosidan nafas oladilar. Shuningdek, tog‘li xalqning mehmondo‘stligiga guvoh bo‘ladilar. Ular tog‘li aholining to‘y va boshqa bayramona tadbirlarida, xalq sayllarida ishtrok etish imkonyatiga ega bo‘ladilar. Ishonamizki, bunday dam olish insonlarga esda qolarli darajada taassurotlarni hadya etadi. Turistik qishloqlarda dam olgan kishi ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib oila davrasiga qaytadi. Dam olish maskani sog‘liqni saqlash, davolash, kasalliklarning oldini olish va tibbiy reabilitatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan, tabiiy shifobaxsh resurslar bilan faol ishlaydigan inshootlarga ega bo‘lgan alohida muhofaza qilinadigan hudud hisoblanadi [2]. Rekreatsion hududlarda joylashgan kurort va dam olish maskanlari mahorat bilan rejalashtirish orqali mukammal yechimga erishish hamda dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish mumkin bo‘ladi [3].

Dam olish maskanlarining me’moriy yechimiga alohida talablar mavjud bo‘ladi. Me’moriy yechimning asosiy maqsadi inson salomatligining psixofizik xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, kurortda qolish uchun yetarlicha qulay sharoitlarni ta’minlashdan iboratdir. 1920-yillarning boshlarida shu davr me’morlari tomonidan burjuaziya va zodagonlarning qasrlarini, ustunlar, ayvonlar va keng terassalar bilan bezatilgan sobiq mulklarni rekonstruksiya qilish va ular uchun sanatoriy-kurort muassasalarining yangi funksional yechimini taklif etish maqsad qilib olindi. Shuningdek, dam olish maskanlarining loyihaviy yechimini tubdan isloh qilinishi pansionatlar, dam olish uylari, sanatoriy binolari, odamlarning doimiy yashash joyi bo‘lgan umumiy kurort binolari oyna va beton mahsulotlari bilan boyishiga olib keldi [4].

Bugungi kunda tog‘li hududlardagi qadimiy manzilgohlar o‘rnida o‘z qiyofasini yo‘qotmagan holda kurort muassasalarini shakllantirish va ularga tutash hududni zamonaviy talablarga javob beradigan darajada obodonlashtirish yangi me’moriy yechim bo‘lib xizmat qilmoqda. Shimoliy Yevropa mamlakatlari kurort majmualarini jadal qurishda maksimal samaradorlik, zamonaviylik va qulaylik ko‘rsatkichlariga erishishga intilmoqdalar. Kurort zonalarini rivojlantirishda an’anaviy me’morchilik tamoyillari va tabiiy landshaftni uyg‘un ravishda tashkil etishga erishish uchun harakat qilinmoqda.

Ozarbayjonda turizmni rivojlantirish sohasiga berilayotgan katta e’tibor tufayli e’tiborga loyiq dam olish maskanlari, kurortlar kompleksini shakllantirishga muvaffaq bo‘linmoqda. Mamlakat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida zamonaviy mehmonxona va turizm infratuzilmasi yaratildi. Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon bo‘ylab ko‘plab sayyohlik marshrutlari ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan, eng go‘zal va unumdor hududlardagi dam olish maskanlari kompleksidan iborat bo‘lib, katta qismi shahar tashqarisida joylashgan. Ozarbayjon Respublikasining geografik joylashuvi qulay bo‘lib, Yevropa va Osiyo chegarasida joylashgan Kavkazortining butun sharqiy

qismini egallaydi. Respublika Janubiy Kavkazning mintaqaviy yetakchisi hisoblanadi, chunki u xalqaro maydondagi eng yirik, iqtisodiy rivojlangan va siyosiy ahamiyatga ega davlatdir.



3-rasm. Ozarbayjon Xinaliq dam olish maskani manzarasi

Bugungi kunda Ozarbayjon o‘zining neft va gaz resurslari bilan dunyoga mashhur. Shu bilan birga, mamlakat sayyohlik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun juda katta turizm salohiyatiga ega. Ozarbayjonda turizm so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biridir. Sayyoramizning mavjud 11 iqlim zonasidan 9 tasi Ozarbayjon hududida joylashgan. Ozarbayjon turistik resurslarining tabiati va infratuzilma holatini hisobga olgan holda, turizm tizimini rivojlantirish uchun quyidagi turlar alohida qiziqish uyg‘otishi mumkin: madaniy, ma’rifiy, biznes, shuningdek, ixtisoslashgan turizm (plyaj, tadbir, ekologik, qishloq, ov va baliq ovlash, sport, sog‘liqni saqlash, etnik, ta’lim, chang‘i, ilmiy va boshqalar) [5].

Plyaj turizmi dam olishning eng mashhur turlaridan biridir: ko‘pchilik mahalliy (ichki) sayyohlar dengiz bo‘yida dam olishni afzal ko‘radilar. Bu yo‘nalish Absheron yarim orolida va mamlakat shimolidagi Nabran sayyohlik hududida faol rivojlanmoqda.

So‘nggi yillarda chang‘i sport-sog‘lomlashtirish maskanlari juda mashhur va talabgir bo‘lib bormoqda. Shu munosabat bilan Ozarbayjonning Gusar viloyatida “Shahdag” loyihasi amalga oshirilib, uning yakuniga ko‘ra mehmonxonalar va ekologik toza muhandislik-transport infratuzilmasiga ega zamonaviy tog‘-chang‘i kompleksini foydalanishga topshirildi [6]. Bu esa, nafaqat mamlakat aholisini balki, xorijlik sayyohlarni mamlakatga jalb qildi. Dam olish maskanlari kompleksini shakllantirish orqali turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi tamoyillarga asosan amalga oshirildi:

• sohaga doir munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish;

• dam olish maskanlariga jalb qilishni ichki va jahon turizm bozorlarida ilgari surishga ko‘maklashish;

• dam oluvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta’minlash;

• sanatoriy-kurortlarni tashkillashtirishda soha bo‘yicha litsenziyalash, standartlashtirish kabi hujjatlarni takomillashtirish;

• mamlakat hududidagi dam olish maskanlarini qurish bo‘yicha uslubiy va tizimli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

• hudud ixtisosligidan kelib chiqib, dam olishning turlariga moslashtirish, bunda tabiiy rekreatsion zonalar landshaftiga sezilarli ta’sir etmaslikni eng birinchi maqsad qilib qo‘yish;

• dam olish maskanlari hududiga eltuvchi va komplekslashgan dam olish maskanlari transport tizimini shakllantirish va shu kabi tamoyillar asos bo‘ldi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida yuqorida keltirilgan chet el mamlakatlari, xususan Ozarbayjon mamlakatining dam olish maskanlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqqan tamoyillari, O‘zbekistonning shahar tashqarisida joylashgan dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish uchun andoza sifatida foydalanib, milliy tamoyillar jamlanmasini ishlab chiqish orqali mamlakatimiz rekreatsion hududlaridagi dam olish maskanlari kompleksini shakllantirishga erishish mumkin. Bu esa, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish va resurslardan unumli foydalanishga yordam beribgina qolmay, O‘zbekistonning iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. К.И.Самойлов, К.Р.Омаров «Мировой опыт развития курортных зон», статьи по специальности «Строительство и архитектура», УДК 712.23: 626.814(574), 96 стр.

2. Курорты. Энциклопедический словарь / Гл. ред. Е.И. Чазов. М.: Сов. энциклопедия, 1983. 592 стр.

3. Фоминых И.Л. Основы проектирования туристских, гостиничных и ресторанных комплексов // Учебное пособие – ВГУЭС: Владивосток, 2007. 104 стр.

4. Морозова Н.В. Принципы и приемы архитектурного формирования прибрежных рекреационных комплексов в горных ландшафтах (на примере горного Алтая). Барнаул, 2012. 228 стр.

5. Алиев Х.М. «Перспективы развития туризма в азербайджанской республике», статьи по специальности «Туристика», УДК 338.48(479.24), 45-46 стр.

6. Гасанов Ш.М. Курортные богатства Азербайджана. Баку: Азер-Медиа, 2013. 204 с.

7. Ibragimov, N. (2024). FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 340-342.

8. Khasanovich, I. N. (2023). DEVELOPMENT OF SPA (SANUS PER AQUAM) ZONES IN WATER FACILITIES DEVELOPMENT OF SPA (HEALTH THROUGH WATER) ZONES IN WATER FACILITIES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 306-308.

SHAHAR MARKAZLARINING FUNKTSIONAL ZONALARGA BO'LISH TAMOYILLARI

Xudoyarova M.B., arxitektura nomzodi, dotsent.,
Mamatqulov O'O'., katta o'qituvchi.,
Toxirov A. I. o'qituvchi.
Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti.Samarqand shahri.

Annotatsiya: Maqola shaharni rejalashtirishga va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar, shahar markazlarining funktsional zonalarga bo'linishi tamoyillari va ularning shahar markazlarning hajmiy-fazoviy kompozitsiyasini yaratishdagi muhim ahamiyatini batafsil o'rganishga qaratilgan.


Kalit so`zlar: Funktsional zonalar, jamoat markazlari, rekreatsiya. tamoyillar, chiziqli tizim, tugunli tizim, ixcham tizim, [a;miy fazoviy kompozitsiya..

Kirish. Bugungi kunda shahar markazlari muhitini shakllantirish va rekonstruksiya qilish masalalari - muhim shaharsozlik maqomiga ega bo'lgan va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalari uchun mo'ljallangan shahar atrof-muhitining bo'laklari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shaharsozlik nazariyasi va amaliyotida ushbu shahar hududlarini atrof-muhitni barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan tizimli yondashuv asosida loyihalash zarur. Shahar markazlarining tarkibiy elementlari landshaft fonidan, umumiy ekologik vaziyatdan va ijtimoiy mavqeidan ajratilgan alohida shaharsozlik ob'ektlari (jamoat markazlari, shahar ko'chalari va maydonlari, obodonlashtirish) hisoblanadi [4].

Shaharlar doimiy ravishda o'sib bormoqda va agar rejalashtirishga e'tibor berilmasa, muammolar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, transport aloqalarining uzilishi, tirbandliklar, havoning ifloslanishi, infratuzilmaning yomon ishlashi tufayli aholi xarajatlarining oshishi sodir bo`ladi [3]. Bu esa shahar markazlarini shakllantirishga, uni funktsional zonalarga bo'linishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun shahar markazlarini rejalashtirishda arxitektura, iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan barqarorlikni ta'minlash va bu muammolarni arxitektura talabalariga o'quv jarayonida o'rgatish muhim ahamiyatga ega[5].

Asosiy qism. Zamonaviy markazlarning murakkablashib o'sib borishida funktsional zonalash, ularni fazoviy tashkil qilish vositalari orasida mustahkam o'rinni egallaydi. Chet el va respublikamiz tajribasida amalda zonalashning bir necha ko'rinishini uchratish mumkin: alohida zonalarning mazmuniga qarab sohaviy va aralash, hamda turli funktsional bo'limlarning fazoda joylashishi bo'yicha tekislikda va vertikal bo'lishi mumkin. Oxirgi yillarda markazni u yoki boshqacha tamoyillarga aniq bo'ysinib ajratib chiqishga kamroq ahamiyat berilmoqda. Odatda turli vaziyatlarga qarab bir turdagi ichki markazni bo'lishda boshqa turlarni ham kiritish mumkin. Bitta markaz tarkibida bir yo'nalishdagi muassasalarning uchastkalari yig'ilgan joyda va ko'pfunktsiyali mazmundagi zonalashda, alohida zonalarni bo'lib - bo'lib yuborish va ularni vertikal bo'yicha "qavatlantirish" birga qo'shilishi mumkin. Lekin hamma vaqt bir yoki ikki ko'rinishdagi zonalash ko'rib chiqilayotgan ob'ektda boshlovchi rolni bajarishi mumkin. Bu chet ellarda ko'p uchraydigan vertikal zonalash bo'lishi mumkin. Bu majmualar (ko'pincha chiziqli shaklda) hududdan yuqori darajada intensiv ravishda foydalanish bilan xarakterlanadi. Markazni chiziqli shakllanish modelida zonalarning joylashishiga va ularning mazmuniga qarab tekislikda zonalashga e'tibor ko'proq qaratiladi.

Markaz esplanadalarda tekislikda zonalash printsipidan foydalanish turli vazifani bajaruvchi bir nechta xarakterli joylashish zonalarining sxemasini aks ettiradi. Bu sxemalarning barchasi davomli fazoviy esplanadani tashkil etishda paydo bo'ladi. Sxemalarning turli xilliligiga qaramay ular alohida zonalarni chiziqli birlashtirishga olib keladi [6]. (1-rasm)



1- rasm. Markaz – esplanadalarda funktsional zonalashning asosiy sxemalari

I- zonalarning ketma –ket qatorlari; II- zonalarni aralashtirib joylashtirish; III – zonalarni parallel joylashtirish; IV - muassasalarni bo'lib joylashtirish;1-маъмурий бинолар; 2- korxona va tashkilotlar; 3- madaniy –ma'rifiy muassasalar; 4-sport zonasi; 5-ko`p qavatli funksiyali majmualar; 6 – o`quv muassasalari; 7-savdo tashkilotlari.[6]


Respublikamizdagi Jizzax, Qarshi, Qo'qon va boshqa kichik shaharlada shahar markazlari asosiy ko'cha bo'ylab alohida ob'yektlarni tarqatib joylashtirilgan.

(2- (gazeta.uz) rasm)



2-rasm. Jizzax shahri bosh plani

Respublikamizdagi shaharlarning rivojlanishida chiziqli yo'naltirilgan usul ko'proq qo'llanilayotganini ko'ramiz. Bu usulda aholiga xizmat qiluvchi ma'muriy madaniy, savdo va maishiy xizmat binolari shaharni uzunligi bo'yicha markaz hududini bog'lab turgan asosiy ko'cha atrofida joylashtirilgan. (3- rasm)




3-rasm. Jizzax shahri markazi.1-ma'muriyat markazi, 2-madaniyat markazi, 3-shahar hokimiyati, 4-turar joylar savdo do'konlari bilan, 5-jamoat binolari, 6-mehmonxona binosi, 7-dam olish joylari

Zonalarni markaziy piyoda-kommunikatsiyali va ko'kalamzorlash makoni bo'ylab parallel joylashtirishda ikki xil variant qo'llaniladi: bir biriga parallel zonalar mazmuni bo'yicha turli yoki bir xil bo'ladi. Zonalarni birgalikda joylashtirish turli sxemalarda bo'ladi. Masalan markaz ikkita esplanada bilan shakllansa, unda ularda joylashtirilgan muassasalarning ko'pligi bilan bog'liq bo'lgan o'zining funktsional mazmuniga ega bo'ladi.

Tugunli tuzilishda markaz hududini kengayishining keng tarqalgan funktsional zonalash tamoyilidan foydalanishda alohida uzellarni shakllantirish funktsional belgilarning ko'pligi evaziga amalga oshiriladi. Shuning evaziga har qaysi kompozitsiya - rejaviy komponentlar boshqalarga nisbatan aniq bir farqga ega bo'ladi. Chunki unda ma'muriy-jamoaviy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy, savdo yoki boshqa muassasalarning yuqori darajada yig'ilganligi bilinib qoladi. Bu degani taklif qilinayotgan markazning yangi paydo bo'ladigan qismi o'zining mazmuni bo'yicha bir xil turda bo'ladi degani emas.

Umumshahar markazlarni tugunli tuzilishini shakllantirishda zonalarni joylashtirishda qandaydir keskin qonuniyatlarni qidirish shart emas. Tugunli tuzilishda markaz –esplanadadan o'laroq alohida ob'ektlarni va zonalarni joylashtirishning variantlari chegaralanmagan. (4-rasm)



4-rasm. Tugunli tuzilishlarda funktsional zonalash sxemalari.
a:1-ma`muriy markaza; 2- madaniyat –ma'rifat muassasalari; 3- savdo tashkilotlari; 4- ИТИ муассасалари; 5 –yoshlar markazi; 6 – sport zonasi; 7-turistik zona; 8 –oliy o`quv yurtlari; b: 1- ma`muriy –jamoatchilik markazi; 2-korxona va tashkilotlar; 3 – oliy o`quv yurtlari; 4 – yoshlar markazi; 5– sport zonasi; 6 - madaniyat –ma'rifat muassasalari [6]

Funktsional zonalarning kombinatsiyasi va birlashuvlarning o'zaro joylashuvining ko'pqirraligi ko'p hollarda shaharsozlik holatidan kelib chiqadi (yangi umumshahar qurilishidagi uchastkalarning holati, ko'cha tarmoqlarining chizmalari, landshaft va shahar atrofidagi muhitning xarakteri).

Samarqand shahrida ma'muriyat markazi, madaniyat markazi opera balet binosi bilan qo`shilib ketgan, konsert zali, teatr binosi shaharning asosiy magistrallari bo'ylab alohida tarqoq joylashtirilgan. Shahar istirohat bog'i hududida Yoshlar markazi, bolalar teatri, yozgi amfiteatr , Ofitserlar uyi bog'ning markaziy ko'chasi orqali bir tomondan bulvar bilah bog'langan, ikkinchi tomondan colonial davrda shakllantirilgah savdo ko'chasiga qo'shilib ketgan.

Shaharning tarixiy qismida Shohi Zinda majmuasi, Hazrati Xizir masjidi, Hazrati Doniyor maqbarasi, Afrosiyob, Bibixonim madrasasi Regisnon ansambli, Go'ri Amir Temur maqbarasi bilan savdo ko'chalari infratuzilmasi, barcha savdo rastalari bilan shaharning gavjum turizm zonasiga aylantirilgan. Qorasuv va eshkak eshish kanaldagi "mangu shahar'' kabi shahar chetida qo'shimcha dam olish zonalari tashkil etilgan. (5- (gazeta.uz) rasm)




5-rasm. Samarqand shahri bosh

Shahar o'zagining ixcham loyihalarida funktsional zonalarni shakllantirishda u yoki boshqa muassasalarning belgilarining ko'pligiga qarab uchastkalar shartli ravishda ajratiladi. Zonalarning bir biriga nisbatan joylashishi shaharning ma'lum aniq sharoiti bilan aniqlanadi. Ixcham rejalashtirish modelining xususyatlari rejalashtirishning yaxlitligi, alohida zonalarning o'zaro tutashishidan iborat. Bunga misol qilib Navoiy shahri markazini misol qilsa bo'ladi. Shahar markazi ixsham joylashuan bo'lib yaxlit kompozitsiyani tashkil etgan. Shahar ma'muriyati, madaniyat markazi bilan birgalirda tutashib ketgan. Shu bilan bir qatorda bu zonalar shaharning hajmiy - fazoviy kompozitsiyasi markaziga aylangan. (6- (gazeta.uz) rasm)



6-rasm.Navoiy shahri

Bu masalada u markaz-esplanadaga o'xshash bo'lishi mumkin. Bu xususiyat ixcham rejani tugunli tuzilishdan ajratib turadi. Chunki tugunli tuzilishda alohida zonalar orasida hududiy bo'linishlar bo'ladi (7-rasm).



7-расм. Ixcham markazlarda funktsional zonalash a: 1- ma'muriyat –ishbilarmonlar zonasi; 2- madaniyat – ma'rifat muassasalari; 3 –savdo zonasi; 4- sport zonasi; b: 1 – ma`muriyat-jamoatchilik muassasalari; 2- madaniyat – ma'rifat muassasalari; 3 –savdo va maishiy xizmat; 4- korxona va tashkilotlar; 5 – oliy o`quv yurtlari; 6 – sport zonasi.[6]

Yuqorida aytilgan umumshahar markazlarining funktsional zonalashdagi o'xshashliklar va farqlardan tashqari bir nechta xarakterli lahzalarga ahamiyat berish mumkin. Bular qaysidir ma'noda alohida ob'ektlarning tarqoqligi hisoblanib unda tomosha va savdo muassasalari, maishiy xizmat va mehmonxonalar ko'pincha turli zonalarning komponentlari bo'ladi va barcha egallagan hududida har holda tekis tarqaladi.

Madaniy – ma'naviy va tomosha muassasalari ko'pincha mamuriyat va uning jamoat zonasi bilan yonma - yon va uning tarkibida, hamda markazning istirohat bog'i bilan chegarasida joylashadi. Ko'pincha tomosha muassasalari savdo va ish yurituvchi muassasalarning birlashuvidan foydalaniladi [7].

Savdo tashkilotlari, ovqatlanish va maishiy xizmat ba'zi hollarda yirik majmualar ko'rinishida yig'iladi va jamoat va ma'muriy, ishbilarmon va madaniy – ma'rifiy zonalar bilan yonma yon joylashishi mukin. Boshqa hollarda ular ko'pfunktsiyali inshootlar tarkibiga kiritiladi va pastki qavatlarning birinchi va ikkinchi sathlarida joylashadi. Undan tashqari savdo, ovqatlanish, xizmat muassasalarining ko'p qismi butun

shaharning markaziy hududlarida alohida ob’ektlarning tarqoq joylashganligi bilan namoyon bo’ladi.

Umumshahar markazlarining alohida uchastkalarini ba’zida ko’psathli majmualar bilan qurish taklif etiladi. Bu majmualar ixcham va chiziqli shakllarda loyihalanadi, ammo ularning egallagan joylari umumiy markazga nisbatan unchalik ahamiyatli emas. Uncha katta bo’lmagan hudud qismida joylashgan vertikal zonalash markazning rejaviy tuzilishiga jiddiy ta’sir qilmaydi va alohida funktsional zonalarni tekislikda ajratib joylashtirish saqlanib qoladi. Ko’psathli majmualar markazida zonalarni vertikal bo’ylab bo’lish printsipi quriladigan maydonning barchasida amalga oshiriladi.

Umumshahar markazi hududini bo’lib chiqishda mavjud muassasalarning tarmoqlarini ayniqsa ularning yig’ilgan joylarini hisobga olish juda muhim. Nazariy tomondan ikkita asosiy yo’nalish bo’lishi mumkin: mavjud binolarni modernizatsiyalash va ularga yangilarni qo’shish, boshqa uchastkalarda yangi majmualarni qurish. Birinchi yo’l murakkab yechimga ega bo’lib tarixiy paydo bo’ladigan funktsional fokuslarni meros qilib koldirib rivojlantirish va keyinchalik qatlamlashishi va birlashib ketishini belgilaydi. Ikkinchi yo’l parallel infrastrukturani yaratadi. Bu yo’llar orasida kelishtirilgan variantlar ham bo’lishi mumkin. Ko’p ahamiyatga ega bo’lgan sabablarga ko’ra ikkinchi variantda erkin loyihalash imkoniyatlari ko’p va ma’qulroq.

Funktsional zonalash printsiplarida markaz esplanadalar ham, tugunli tuzilish ham keluvchlar va transport potoklarini tarqatishga imkon beradi. Ular katta intervallar bilan joylashtirilgan turli funktsional “fokuslarga” yo’naltiriladi. Shu sababli markazga olib boruvchi transportning magistrallarda bir joyga yig’ilishiga imkon bermaydi. Jamoat markazini aholiga xizmat qilishning barcha qulayliklarini ta’minlash uchun jamoat markazini yaxlit funktsional – rejaviy organizmga aylantirishga erishish o’ta muhim hisoblanadi [1]. Bu ma’noda shahar o’zagi hududidan ko’pfunktsional foydalanish va ularni shaharning hajmiy - fazoviy kompozitsiyasini hamda markazini zonalarga bo’lib shakllantirish tamoyillarining rolini hisobga olgan holda kelajakda rivojlanishini amalga oshirish kerak bo’ladi.

Xulosa. Shaharsozlik nazariyasi va amaliyotida ushbu shahar hududlarini, atrof-muhitni barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan tizimli yondashuv asosida loyihalashda shahar markazlarini funktsional zonalarga bo’llsh tamoyillarini o’rganish va ulardan turli sharoitlarda o’z o’rnini topib joyida qo’llash arxitektura turlari bo’yicha mutaxassislarni tayorlashda muhim ahamiyatga ega.

Shahar markazlarini asosiy ko’cha bo’ylab bajaradigan funktsiyasi yaqin , o’xshash bo’lgan alohida ob’ektlar bilan zonalaarga bo’lish, ularni ko’chaning ikkala tomonida parallel joylashishi, ko’p sathli majmualar markazida zonalarni vertikal bo’ylab bo’lish tamoyillari quriladigan maydonning barchasida amalga oshirilishi mumkin. Bu markazni chiziqli shakllanish modeli hisoblanadi va zonalarning joylashishiga, hamda ularning mazmuniga qarab tekislikda zonalash tamoyiliga e’tibor ko’proq qaratiladi. Respublikamizdagi Jizzax, Qarshi shaharlaridagi markazlar misolida ko’rish mumkin.

Tugunli tuzilishda markaz hududini kengayishining keng tarqalgan funktsional zonalash tamoyilidan foydalanishda alohida uzellarni shakllantirish funktsional belgilarning ko’pligi evaziga amalga oshiriladi. Shuning evaziga har qaysi kompozitsiya - rejaviy komponentlar boshqalarga nisbatan aniq bir farqga ega bo’ladi. Tugunli tuzilishda markaz – esplanadadan o’laroq alohida ob’ektlarni va zonalarni joylashtirishning variantlari chegaralanmagan (2 rasm). Samarqand shahrining 2025 yilga mo’ljallangan bosh rejasida ko’rish mumkin.

Shahar o’zagining ixcham loyihalarida funktsional zonalarni shakllantirishda u yoki boshqa muassasalarning belgilarining ko’pligiga qarab uchastkalar shartli ravishda ajratiladi. Zonalarning bir biriga nisbatan joylashishi shaharning ma’lum aniq sharoiti bilan aniqlanadi. Ixcham rejalashtirish modelining xususyatlari rejalashtirishning yaxlitligi, alohida zonalarning o’zaro tutashishidan iborat. Bunga misol qilib Navoiy shahri markazini misol qilsa bo’ladi.

Shaharlarni o’sishida ularni rivojlantirishda Ijtimoiy taraqqiyotni yaxshilash maqsadida markazlarning ichki makonining xususiyatlarini doimiy ravishda takomillashtirish, insonning ekologik muhitining bir qismi sifatida bu makonning kompozitsion va semantik tuzilishini, ularning shahar tuzilishidagi roli va o'rnini yanada rivojlantirish lozimligini talabalarga, batafsil o’rgatish zarur.

Adabiyotlar

1. Худоярова М.Б. Аҳоли пунктлари жамоат марказлари. Ўқув қўлланма. “Zarafshon” нашриёти. Самарқанд, 2019.

2. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslsri va landshaft arxitekturasi: 1 qism, darslik / O’zR oily va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi,-Toshkent: Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 .

3. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O’zbekiston Respublikasi shaharsozlik asoslari. O’quv qo’llanma. T.2000 TAQI.

4. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O’quv qo’llanma. T.2001 TAQI.

5. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O’quv qo’llanma. T., 2000- u

6. Пронин Йе.С. Формирование городских сентров.Москва.Стройиздат,1983

7. Йетеревская, И. Н. Региональные принципы проектирования городских общественных пространств. Волгоград 2018

ZAMONAVIY KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARINI LOYIHALASHDA MUAMMOLAR VA YONDASHUVLAR

Isakov X.Q.
Farg'ona viloyati hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari
Qosimova F.N.
SamDAQU 101-(Landshaft dizayn) guruhi magistranti
Mustaev B.B.
SamDAQU Arx.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kam qavatli turar-joy binolarini loyihalashdagi muammolar va ushbu muammolarga qarshi taklif etiladigan yondashuvlar tahlil qilinadi. Turar-joy inshootlari jamiyatning turmush sharoitlarini yaxshilashda, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda va ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kam qavatli turar-joy, loyihalash, muammolar, yondashuvlar, barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the problems in the design of modern low-rise residential buildings and the proposed approaches to these problems. Residential structures are important in improving the living conditions of society, ensuring economic efficiency and solving environmental problems.

Key words: low-rise housing, design, problems, approaches, sustainability.

Kirish. Zamonaviy dunyoda turar-joy inshootlari aholi uchun muhim san'at va madaniyat elementidir. Kam qavatli turar-joy binolari – bu shaharda yoki qishloqda yashovchilar uchun qulay va arzon variantlarni ta'minlaydigan inshootlardir. Biroq, ularning loyihalash jarayonida turli muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada kam qavatli turar-joy binolarini loyihalashdagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi.

1. Muammolar

1.1. Ekologik muammolar

Turar-joy binolarining loyihalashida ekologik jihatlarni hisobga olish juda muhim. Ko'plab loyihalarda atrof-muhitga zarar yetkazadigan materiallar va energiya manbalaridan foydalaniladi. Bu holat, o'z navbatida, qulay yashash sharoitlarini yaratishni qiyinlashtiradi.

1.2. Iqtisodiy xatolar

Loyihalash jarayonida noto'g'ri iqtisodiy baholashlar va moliyaviy rejalar muammolarga olib kelishi mumkin. Kam qavatli turar-joy binolari ko'pincha past narxlari tufayli tarafdorlik kasb etadi, lekin ko'pincha moliyaviy jihatlari yetarlicha o'ylab topilmaydi.

1.3. Ijtimoiy muammolar

Turar-joy inshootlaring loyihalashtirishda aholi ehtiyojlari va ijtimoiy jihatlarni inobatga olmaslik muammolari kuzatiladi. Aholi turli ijtimoiy guruhlarga kirmoqda, shuning uchun ularga mos keladigan va yaroqli dizaynlar kerak.

2. Yondashuvlar

2.1. Barqaror arxitektura

Kam qavatli turar-joy binolarining loyihalashida barqaror arxitektura yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv energiyani tejash, tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish va binafsha foydalanishni tavsiya etadi. Masalan, quyosh energiyasi tizimlari va ekologik jihatdan qulay materiallar foydalanilishi mumkin.

2.2. Ijtimoiy hamkorlik

Turar-joy binolarining loyihalashtirilishi jarayonida aholi va ijtimoiy guruhlar bilan hamkorlik qilish muhim. Ularning fikrlarini hisobga olish, ehtiyojlariga mos, qulay joylar yaratishga yordam beradi. Sotsiologik tadqiqotlar va so'rovlar yordamida ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash kuchayishi mumkin.

2.3. Innovatsion texnologiyalar

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash – kam qavatli turar-joy binolarini loyihalashdagi muammolarni hal qilishda katta rol o'ynaydi. Kompyuter modellashuvi, B.I.M (Building Information Modeling) texnologiyalari orqali loyihalash jarayonini intuitiv va samarali qilish mumkin.

Xulosa

Zamonaviy kam qavatli turar-joy binalarini loyihalashda turli muammolar mavjud. Biroq, yuqorida keltirilgan yondashuvlar bu muammolarni hal etishda yordam berishi mumkin. Barqaror, ijtimoiy ehtiyojlarga mos va innovatsion yechimlar yaratish orqali, biz aholi uchun qulay yashash sharoitlarini ta'minlashimiz mumkin. Ushbu maqolada zamonaviy kam qavatli turar-joy binolari loyihalashtirishdagi muammolar va yondashuvlar samarali ravishda tahlil qilingan. Ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish zarurligi – bu bugungi kunning talabidir.

Adabiyotlar

1. Smith, J. (2020). Sustainable Architecture: Building for the Future. New York: Architecture Press.
2. John, D. (2021). Community and Housing: A Collaborative Approach. London: Urban Studies Journal.
3. Green, A. & Brown, T. (2019). Innovations in Housing Design: New Technologies and Strategies. Boston: Tech Architecture Reviews.

«THE ROLE OF ROOFTOP GARDENS IN URBAN ECOSYSTEMS: ENVIRONMENTAL, AESTHETIC, AND SOCIAL IMPLICATIONS»

Abdullayeva Firuza
The department of «Interior Design» at Samarkand Architecture and Construction University

Abstract

This study explores the potential of rooftop gardens in Samarkand as a vital strategy for tackling land scarcity and environmental challenges. Despite limited implementation due to a lack of design guidelines and suitable plant knowledge, green roofs offer numerous benefits, including enhanced aesthetics, recreational spaces, and improved urban quality. We identify challenges such as financial constraints and community engagement, and aim to adapt successful global models to the local context. Our findings indicate that rooftop gardens can improve air quality, reduce urban heat, and enhance biodiversity, positioning them as essential elements of sustainable urban ecosystems that address key social and environmental issues in rapidly urbanizing areas.

Key words: rooftop gardens, urban ecosystems, environmental benefits, aesthetic value, social interaction, biodiversity, urban heat island effect, green roofs, community engagement, sustainable design, ecological resilience, urban planning.

Introduction

The incorporation of rooftop gardens into urban architecture is increasingly recognized as a crucial aspect of modern landscape architecture, particularly in light of growing land shortages and worsening environmental conditions in metropolitan areas. As urban populations expand, there is an urgent need for innovative solutions that meet both aesthetic and ecological demands. Worldwide, the adoption of green roofs has been well-documented, showcasing their effectiveness in mitigating the urban heat island effect, enhancing biodiversity, and improving air quality.[1] However, in Samarkand, the potential for such practices remains largely untapped, primarily due to a lack of specific design guidelines, maintenance strategies, and understanding of appropriate plant species for the local climate.

This study seeks to investigate the diverse benefits of rooftop greening, which encompass enhanced visual appeal, increased recreational spaces, and improved urban environmental quality. Specifically, it will explore how green roofs can function as urban oases, providing essential green spaces that promote community interaction and support residents' mental well-being. A thorough examination of the feasibility and ecological implications of green roofs in Samarkand is essential, involving quantitative assessments of environmental benefits alongside qualitative evaluations of user experiences.

Additionally, this research will analyze the challenges and barriers to implementation, such as financial constraints, structural requirements, and the need for community engagement. By drawing on best practices from successful global examples and adapting them to Samarkand's unique context, this study aims to guide future architectural practices and urban planning strategies. Through effective implementation, rooftop gardens could emerge as vital urban green spaces, bolstering ecological resilience, enhancing biodiversity, and significantly elevating the overall quality of urban life. Ultimately, this research aspires to establish rooftop gardens not merely as aesthetic enhancements but as fundamental components of sustainable urban ecosystems.

In urban environments, particularly in our city, it is observed that over half of the population relies on private vehicles for transportation. This reliance on automobiles exacerbates the trend of urban sprawl, resulting in a proliferation of multi-story buildings that occupy substantial land areas while often neglecting the integration of green spaces. Consequently, a significant proportion of residents reside on the upper floors of high-rise structures, which limits their access to natural environments and fosters a profound disconnection from the terrestrial landscape. This detachment is further compounded by visual discomfort arising from the prevalence of unappealing rooftop aesthetics within the urban fabric.

The dearth of designated areas for relaxation and pedestrian movement is a ubiquitous issue at nearly all public and residential buildings in Samarkand, reflecting a broader urban design challenge. Despite the region's unique natural landscape, inhabitants frequently find themselves deprived of visually appealing vistas from their windows.

Strategically designed rooftop gardens possess the capacity to alleviate the negative psychological and aesthetic impacts associated with urban living by creating visually enriching environments that facilitate a reconnection with nature. The multifunctional application of green roofs for a variety of activities—such as recreational pursuits, social interactions, physical exercise, and child development—has the potential to significantly enhance urban quality of life. Such environments may foster community engagement, thereby contributing to social cohesion and overall well-being.[2]

Engagement with vegetative landscapes in these settings is hypothesized to provide substantial benefits for both physical health and psychological resilience. Research suggests that exposure to natural elements can reduce stress, enhance mood, and promote physical activity, all of which are critical components of holistic health. Moreover, integrating green infrastructure within urban contexts is likely to support biodiversity and improve ecological resilience, thereby promoting a more sustainable coexistence between urban environments and natural ecosystems.

Horizontal roof surfaces should be greened and become not just part of the landscape but part of the ecosystem. In one of his manifestos, Austrian architect and painter Friedensreich Hundertwasser wrote: «What we lack is a peaceful agreement with Nature. We must return to Nature the territories we have unlawfully taken from it. All horizontal surfaces under the sky belong to Nature. Everything that the sun's rays touch, everything that receives rain, is the sacred and inviolable property of Nature. » [3]

The technique of greening roofs is not a new invention. The prototype of the green roof can be considered the first dwelling of prehistoric humans, who left caves and built shelters from plant materials, using tree trunks and branches, as well as grasses and moss. For many centuries, wooden roofs were covered with straw and reeds, insulating them in harsh climates with a layer of soil on which grass could grow. The tradition of covering wooden houses with grass has long existed in Scandinavian countries, where old farmhouses with turf roofs can still be found today. In Central Asia, people used this idea to escape the heat. The construction of rooftop gardens, which first appeared in the Middle East, where flat roofs were common, dates back to ancient times. Their homeland is considered to be Assyria and Babylon, where, six centuries before Christ, the so-called "Hanging Gardens of Babylon" were built, regarded as one of the Seven Wonders of the World. [4]

One of the main qualities of «green roofs» is their beauty; such roofs give an interesting appearance to almost any building and provide a peaceful retreat in a bustling city. Moreover, recent experiments in Manchester confirmed that the introduction of green roofs in urban areas significantly reduces temperatures: «Greening all roofs in the city can have a substantial impact on surface heating, lowering average daytime and nighttime temperatures compared to the last forty years, regardless of air pollution levels. Roof greening has the greatest effect in densely built-up areas with insufficient moisture evaporation. In other words, the maximum effect is observed in urban centers. » [5]

First and foremost, rooftop greening improves air quality, significantly reducing pollution levels, as green plants release oxygen and absorb carbon dioxide, as well as pollutants and dust. Urban air quality is affected not only by cars emitting combustion products, which contain numerous toxic substances, but also by roofs covered with bitumen. In summer, this roofing material not only retains heat but also releases toxic vapors, which greening helps to mitigate, leading to cleaner air and lower temperatures in the city. In Uzbekistan, with its sharply continental, hot, and arid climate, standard roofs can become extremely hot in summer, with temperatures exceeding 80°C. However, the presence of moisture-evaporating plants can reduce the air temperature to about 35°C. Consequently, temperatures drop in the rooms directly beneath the roof, making living there more comfortable and allowing for energy savings due to reduced air conditioning needs.

Another important quality of «green roofs» is that even in dry conditions, small patches of grass with shrubs can capture up to 50% of the dust from passing air currents, and this effect increases with watering and plant moisture. The vegetative layer also reduces harmful electromagnetic radiation, protecting the roof structure from ultraviolet rays. Additionally, it can serve as extra insulation for the roof and protect it from mechanical damage. Studies have also shown a significant noise-reducing effect of green roofs, which can lower ambient noise levels in adjacent buildings by 2 to 10 decibels.[6]

Considering all the advantages of «green roofs, » it's essential not to overlook the importance of incorporating flat roofs into the city's public space system while taking into account the opinions of the people. Ricardo Bofill, in his book « Spaces of a Life, » wrote: «To be an architect means to perceive and reveal spontaneous behavior and movement of the population through organized human spaces, and, moreover, to notice the necessity for changes that they may subconsciously strive for. One must be able to identify these needs to contribute meaningfully. » [7]

When designing rooftop gardens in Uzbekistan's cities, it is crucial to first study the culture and psychology of the residents who will use these spaces. In Tashkent, for example, after the devastating earthquake of 1966, a monolithic high-rise building was constructed, drastically altering the traditional living environment. Residents transitioned from one- or two-story houses with cozy inner courtyards to multi-story apartments, which necessitated a significant adjustment in lifestyle. To address this disconnection from their previous surroundings, internal courtyards were created every three floors, with balconies leading to them and concrete containers for plants placed at the ends of the landings. The flat roof was designated as a garden, featuring a large pool and shaded canopies with circular benches, providing a scenic viewpoint of the capital. However, the high-rise design fundamentally changed residents' traditional ways of life, and not everyone adapted easily. Therefore, before implementing innovative projects like rooftop gardens, it is essential to thoroughly understand the local culture and the psychological needs of the community to ensure these spaces are both functional and meaningful for the people who inhabit them.

A field survey in our city revealed a significant number of unused flat roofs, highlighting an opportunity for sustainable development through the implementation of green roofs. These roofs align with principles of sustainability, promoting energy and water conservation, enhancing building quality, and reducing air pollution. In addition to their ecological benefits, green roofs offer aesthetic value and create new habitats for various plant species, insects, and birds, fostering a stronger connection between residents and nature. By mimicking natural environments, green roofs increase greenery, provide shade, and enhance moisture evaporation, all while protecting the roof from adverse weather conditions and extending its lifespan.[8] Uzbekistan should actively pursue the integration of green roofs as a vital component of its sustainable development strategy, ensuring that urban growth harmonizes with ecological principles.

Conclusion

This study highlights the significance of rooftop gardens in Samarkand as a strategic response to urban challenges like land scarcity and environmental degradation. Despite their potential benefits—such as improved aesthetics, recreational spaces, and enhanced air quality—implementation has been limited due to a lack of design guidelines and suitable plant knowledge. Rooftop gardens can serve as urban oases that foster community interaction and mental well-being, while also addressing challenges like financial constraints and the need for community engagement. By transforming unused flat roofs into green spaces, Samarkand can mitigate urban heat, enhance biodiversity, and create areas that benefit residents' health. As urban populations grow, integrating green infrastructure into city planning will become increasingly relevant, emphasizing the need for community involvement and adaptation of successful practices from other regions. Ultimately, rooftop gardens could emerge as essential components of sustainable urban life, significantly improving the quality of urban ecosystems.

References

1. Earth Pledge Foundation (2004) «Green Roofs: Ecological Design And Construction».
2. Linda McIntyre, Edmund C. Snodgrass (2010) «The Green Roof Manual».
3. Barak, Nir. (2015). Hundertwasser's Vienna: Architecture, Urban Identity and Environmental Sentiments.
4. Jim, C.Y.. (2017). An archaeological and historical exploration of the origins of green roofs. Urban Forestry & Urban Greening.
5. Renewable and Sustainable Energy Reviews «Green roofs as a nature-based solution for improving urban sustainability: Progress and perspectives» Giouli Mihalakakou, Manolis Souliotis, Maria Papadaki, Pen elope Menounou, Panayotis Dimopoulos, Dionysia Kolokots a, JohnA. Paravantis, Giorgos Panaras, Evangelos Giannakop oulos, Spiros Papaefthimiou.
6. Viecco, Margareth & Jorquera, Héctor & Sharma, Ashish & Bustamante, W. & Fernando, Harindra & Vera, Sergio. (2021). Green roofs and green walls layouts for improved urban air quality by mitigating particulate matter. Building and Environment.
7. Ricardo Bofill, Jean Andre (1998) «Spaces of a Life».
8. Getter, Kristin & Rowe, D.. (2006). The Role of Extensive Green Roofs in Sustainable Development. HortScience: a publication of the American Society for Horticultural Science.

MEXMONXONALARNING PAYDO BO'LISH DAVRLARI VA TURIZM FAOLIYATIDAGI O'RNI

Asadov Sherbek Ilyos o'g'li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehmonxonalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'rib chiqilgan. Turizm faoliyatini rivojlantirish qo'llab-quvvatlash, turistik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mehmonxonalar, karvonsaroylar hovlilar, turizm, savdo rastalari va restoranlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение и развитие гостиниц. Проанализированы поддержка развития туристской деятельности, повышение эффективности использования туристского потенциала, улучшение условий для отдыха и туризма.

Ключевые слова. Отели, караван-сараи дворы, туризм, киоски и рестораны.

Annotatsion: This article discusses the emergence and development of hotels. The article analyzes the support for the development of tourism activities, increasing the efficiency of using tourist potential, improving conditions for recreation and tourism.

Keywords. Hotels, caravanserais, courtyards, tourism, kiosks and restaurants.

Kirish.

"Mehmonxona" atamasi keng tarqalgan so'z bo'lsada, u turli tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat yashash joyiga, balki ovqatlanish, madaniyat va xizmat ko'rsatish birlashadigan, ko'pincha muassasaning bir qismi sifatida restoran va klublarga ega bo'lgan joy.

Mehmonxona ta'rifi ko'p asrlik an'analar va innovatsiyalar bilan shakllangan. 19-asrdagi birinchi hashamatli mehmonxonalar boyligidan tortib 2024-yilgi zamonaviy, aqlli texnologiyalarigacha mehmonxona tajribasi doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilib borildi.

Mehmonxonalar kontsepsiyasi asrlar davomida sezilarli darajada rivojlandi, oddiy mehmonxonalardan sayyohlarning turli ehtiyojlarini qondiradigan hashamatli dam olish joygacha. Mehmonxonalarning eng qadimgi shakllari mehmonxonalar va tavernalar bo'lib, ular asosan sayohatchilar va charchagan savdogarlar uchun dam olish joylari bo'lib xizmat qilgan. Bu joylar ko'pincha oddiy turar joy, oziq-ovqat va ichimliklar hamda asosiy savdo yo'llari bo'ylab joylashgan. Sayohat qulayroq va ommalashgani sayin, yanada qulay va hashamatli turar joylarga talab ortdi. 19-asrda katta mehmonxona boylik va nafosat ramzi sifatida paydo bo'ldi. Bu katta mehmonxonalar boy sayohatchilar va sotsialistlarni o'ziga jalb etuvchi dabdabali interyer, ajoyib taomlar va keng ko'lamli qulayliklarga ega bo'lgan.

Kelajakka nazar tashlaydigan bo'lsak, "mehmonxona" so'zi barqarorlik va texnologik jasorat haqida tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy mehmonxonalarning vazifasi dam olish uchun joy bilan ta'minlashdan tashqarida; bu yashil ongli jamoatchilikning qadriyatlariga mos keladigan ekologik toza mulkni yaratish haqida. Sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar va ekologik toza amaliyotlarga sodiqlik bilan mehmonxonalar nafaqat qolish uchun joy emas, balki

ular barqaror va samarali kelajakning mayoqlariga aylanib, ko'pincha shaharning ijtimoiy va biznes markazining yuragi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mehmonxona sanoati har qachongidan ham xilma-xil bo'lib, turli xil imtiyozlar va byudjetlarga mos keladigan keng imkoniyatlarga ega. Butik mehmonxonalar va ekologik toza kurortlardan tortib, hamma narsani qamrab oluvchi kurortlar va biznes mehmonxonalargacha hamma uchun nimadir bor. Texnologiya, shuningdek, zamonaviy mehmonxona tajribasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi, onlayn bron qilish platformalari, mobil ro'yxatdan o'tish va smart televizorlar va virtual yordamchilar kabi xona ichidagi qulayliklar tobora keng tarqalgan.

O'zbekiston respublikasi hukumati turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda jahon hamjamiyati O'zbekistonning turizm sohasida ulkan va tub o'zgarishlarni e'tirof etmoqda. Buning isboti sifatida turizmni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish, boshqaruv tizimini yaratish, turizm turlarini diversifikatsiya qilish, O'zbekistonning xalqaro maydonda tan olinishi va jozibadorligini ta'minlashga qaratilgan hujjatlar qabul qilinganligini e'tirof etish lozim. Turizm faoliyati subyektlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, mintaqalarning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirish maqsadida oilaviy mehmon uylari tashkil etildi.

Shuningdek, oilaviy mehmon uylari xizmatlarini sertifikatlashtirish soddalashtirilgan holda, oilaviy mehmon uylarini o‘rganish dalolatnomasi asosida ularni Oilaviy mehmon uylari va xostellar yagona reyestriga kiritish va Oilaviy mehmon uylari va xostellar yagona reyestridan tegishli ko‘chirma berish yo‘li bilan amalga oshirila boshladi.

Mehmondo‘stlik sanoati korxonalarining evolyutsiyasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, tarixiy jihatdan kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlariga mos keluvchi davrlarni ajratish mumkin:

Qadimgi davr (miloddan avvalgi IV ming yillik – milodiy 476 yil) Aksariyat tarixchilar jamiyat taraqqiyotining bu davriga hozirgi mehmonxonalar va restoranlarning «ajdodi» - dastlabki mehmonxona korxonalari paydo bo‘lgan davrni kiritadilar. Bunday korxonalar – tavernalar qadimgi manuskriptlarda tilga olinadi. Taxminan miloddan avvalgi 1700 yilda yozilgan Bobil podshosi Hammurapi kodeksi mana shunday manuskriptlardan biridir.

Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi I mingyillikda tavernalar ijtimoiy va diniy hayotning muhim unsuri hisoblangan. Tavernalarda sayohatchilarni joylashtirish uchun xonalar mavjudligiga qaramay, ular asosan ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Vaholanki, savdo-sotiqning rivojlanishi va shu bilan bog‘liq uzoq muddatli safarlar nafaqat ovqatlanish, balki tunash joylarini tashkil qilishni qam taqozo etar edi. Shu holat mehmonxona korxonalarining boshqa turi – karvonsaroylar paydo bo‘lishini belgilab berdi. Karvonsaroylarning eng rivojlangan tarmog‘i Rim imperiyasi hududida tashkil etilgan edi. Qadimgi Rim karvonsaroylari asosiy yo‘llar yoqasidagi shaharlar va qishloqlarda, bir-biridan taxminan 25mil (40,22 km) oraliqda joylashgan edi.

Quyi tabaqa vakillariga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tavernalar va karvonsaroylar tunash va dam olish uchun minimal shart-sharoitlar taklif qilar edi. Masalan, sayohatchilar ko‘pincha poxol ustida, yilning sovuq mavsumida esa muzlab qolmaslik uchun otlarining issiq biqiniga tiqilib uxlardilar. Biron-bir qo‘shimcha qulaylik haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas edi. Yaqin Sharq, Osiyo va Kavkazortida savdo aloqalarining rivojlanishi mehmondo‘stlik korxonalarining paydo bo‘lishida katta rol o‘ynadi. Ushbu mintaqalar hududidan yirik savdo yo‘llari o‘tar, ular bo‘ylab yuk ortilgan uzun karvonlar harakatlanar edi. Karvonlardagi yo‘lovchilar tunashi uchun savdo yo‘llari yoqasida karvonsaroylar tashkil etilardi. Bunday karvonsaroylar, qoida tariqasida, odamlar dam olishi uchun hujralar hamda tuya va otlar uchun mo‘ljallangan qo‘tonlardan tashkil topar edi. Bularning barchasi tabiiy ofat (shamol, yomg‘ir, bo‘ron)lardan, shuningdek talonchilar va qaroqchilardan saqlovchi qal’a devori bilan o‘ralgan edi.

O‘rta asrlar (milodiy V – XV asrlar) O‘rta asrlarda diniy an’analar mehmondo‘stlik korxonalarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda muqaddas joylarga ziyorat qiluvchi odamlar soni keskin ko‘paydi. Cherkov monastirlarga ziyoratchilarni qabul qilish, ular uchun tunash joylari tashkil etish va ularni ovqatlantirish majburiyatini yukladi. Bu davrda mazkur vazifani bajaruvchi boshqa muassasalar ham paydo bo‘ldi. Masalan, franklar qiroli, keyinchalik esa imperator Karl Buyuk (742-814) cherkovlarga homiylik qilib, VIII asrda ziyoratchilar dam olishi uchun maxsus uylar tashkil etdi. XII-XIII asrlarda ilk mehmonxonalarning ajdodi – karvonsaroylar Rusda ham paydo bo‘ldi. O‘sha davrda ular «yama» – o‘ra deb atalar, bir-biridan ot charchamasdan bosib o‘ta oladigan masofada joylashgan edi. XV asrda karvonsaroylar *Yamskoy prikaz*[2] ixtiyoridagi pochta bekatlari qoshida tashkil etila boshlandi. Katta rus shaharlarida mehmon kutiladigan hovli (gostiniy dvor)lar qurildi. Ularning karvonsaroylardan farqi shunda ediki, bu yerda tunash va ovqatlanishdan tashqari, savdo-sotiq qilish imkoniyati ham mavjud edi. Boshqacha qilib aytganda, mehmon kutiladigan hovlilar jihozlangan xonalar, savdo rastalari, do‘konlar va omborlarni o‘zida birlashtirgan edi. qoida tariqasida, hovli baland devorlar va minoralar bilan o‘ralgan, unga katta darvozadan kirilardi.

XIII asrda bunday hovlilar Vitebsk, Grodno, Brest, Slonim hamda boshqa belorus shaharlarida paydo bo‘ldi. Belorus savdogarlari uchun maxsus hovlilar XV-XVI asrlarda Bryansk, Vyazma va Moskvada qurildi. O‘rta asrlarda ilk kasaba uyushmalarining tashkil topishi mehmondo‘stlik korxonalari faoliyatining ilg‘or yo‘nalishini tashkil etdi. 1282 yilda Italiyaning Florensiya shahri traktirchilari o‘z gildiyasini tashkil etdi.

Yangi davr (XVI asr – XX asr boshi) XVI asrda dastlabki qahvaxonalar ochildi. Ular o‘sha davr

madaniy va adabiy hayotining markazlariga aylandi. g‘arbiy Yevropada qahva va choy kabi ekzotik ichimliklarning tarqalishi qahvaxonalarning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratdi. Yevropada dastlabki qahvaxonalar 1652 yili Londonda va 1683 yili Venada ochildi. Xususan, Venada birinchi marta asal va sut qo‘shilgan qahva taklif qilindi. XVII asr oxiriga kelib Yevropa qit’asida qahvaxonalar ancha keng tarqalgan hodisaga aylandi. Yirik shaharlarda ularning soni bir necha o‘ntaga yetar edi.

1553 yilda Parijda birinchi restoran – «Tur d’Arjan» restorani ochildi. Bu restoran keyingi ikki asr mobaynida o‘ziga xos muassasa bo‘lib qoldi, chunki uning yagona funksiyasi faqat ovqatlantirishdan iborat edi. «Restoran» atamasining o‘zi keyinroq, XVIII asrning ikkinchi yarmida muomalaga kirdi. Janob Bulanjening Parijdagi uzzukun ishlaydigan tavernasida asosiy taom hisoblangan sho‘rva «restorantes» (fransuz tilida «quvvatbaxsh, tiklovchi» degan ma’noni anglatadi) deb atalar edi. 1789-1799 yillardagi Buyuk fransuz inqilobi davrida fransiyalik mashhur oshpazlar boshqa davlatlarga chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Yangijoyda ular restoran biznesi bilan shug‘ullandilar. Natijada restoran g‘oyasi butun dunyoga tarqaldi. XIX asr o‘rtalaridan «a la carte» (a lya kart) menyusidan foydalanila boshlandi. Mijoz taklif qilingan ro‘yxatdan o‘ziga ma’qul taomni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

1898 yilda Londonda «Savoy» mehmonxonasi ochildi. Uning boshqaruvchisi Sezar Rits (hozirda Rits-Karlton mehmonxonalari uning nomi bilan ataladi), bosh oshpazi esa – Jorj Agyust Eskofe edi. Bu ikki odam mehmonxonalar qoshida restoranlar tashkil etishda chinakam inqilob sodir etdi. Eskofe o‘z davrining buyuk kulinarlaridan biri edi. U kulinariya bo‘yicha nashr etgan ma’lumotnoma hamda oshxonada joriy etgan brigada pudrati bilan dong taratdi. Mehmondo‘stlik korxonalarining rivojlanishida AQSH alohida o‘rin tutadi. Tarixchilarning fikricha, birinchi karvonsaroy bu yerda Yevropadan ancha keyin, 1607 yilda paydo bo‘lgan. Dastlabki tavernalardan biri 1634 yili Bostonda ochildi. 1642 yilda Nyu-Yorkda (o‘sha davrda u Yangi Amsterdam deb atalar edi) taverna gollandlar tomonidan ochildi. Shu davrdan boshlab tavernalar jamiyat hayotining markaziga, askarlar va tijoratchilar uchrashadigan joyga aylandi. Ular nafaqat shaharlarda, balki katta yo‘llar yoqasida, ayniqsa, chorrahalarda ravnaq topdi. Nyu-Yorkning Brodvey ko‘chasidagi 70 xonali «Siti-otel» qo‘shma Shtatlarda ochilgan birinchi mehmonxona bo‘ldi. Bu muhim hodisa 1794 yilda sodir bo‘ldi. 1829 yilda Bostonda «Tremont» mehmonxonasi – AQShdagi birinchi klassli, koridor xizmatchilari, registratura (resepsiya)ga ega, nomerlarning eshiklari qulflanadigan va hatto mehmonlarga bepul sovun beriladigan ilk mehmonxona ochildi. Bu AQShda mehmonxona bumi boshlanishiga turtki berdi. Sharqiy qirg‘oq shaharlarida, so‘ngra g‘arb va Janubda ko‘plab mehmonxonalar ochildi. XIX asr oxiriga kelib bu yerda mehmonxonalarning ikki turi – katta, hashamatli, shinam mehmonxonalar hamda kichkina, eskirgan, arzon narxda xizmatlar taklif qiluvchi mehmonxonalar tarqalgan edi.

1831 yilda Nyu-Yorkda ochilgan mashhur «Delmoniko» restorani AQShdagi birinchi restoran hisoblanadi. O‘sha davrda AQShda restoran ishining rivojlanishiga fransuz an’analari katta ta’sir ko‘rsatdi. 1852 yilga kelib AQShning birinchi klassli har bir mehmonxonasi o‘z fransuz bosh oshpaziga ega edi. Menyu ham an’anaga ko‘ra fransuz tilida yozilardiki, bu inglizzabon mijozlar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirardi. «Delmoniko» restoranining sohiblaridan biri Jon Delmonikoning sa’y-harakati bilan birinchi marta ikki tilli menyu joriy etildi. Unda taomlarning fransuz va ingliz tilidagi nomlari qarama-qarshi joylashtirilgan edi. Bu an’ana saqlanib qoldi va yillar o‘tib butun jahonda keng tarqaldi.

XIX-XX asrlar chegarasida mehmondo‘stlik sanoati muhim tarmoqqa aylandi. Mehmonxona birlashmalari, sindikatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar mehmonxonalar qurish, kadrlar tayyorlash, narxlarni belgilash masalalari bilan shug‘ullana boshladi. XX asr boshida faoliyat ko‘rsatgan bunday uyushmalar orasida London mehmonxonalar sohiblari sindikati, Fransiya «Mehmonxona sohiblari uyushmasi»ni qayd etish mumkin. 1906 yilda jahonning turli mamlakatlarida joylashgan 1700 mehmonxonani birlashtirgan Mehmonxonalar sohiblari xalqaro uyushmasi tashkil topdi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, kelajakka nazar tashlaydigan bo'lsak, "mehmonxona" so'zi barqarorlik va texnologik jasorat haqida tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy mehmonxonalarning vazifasi dam olish uchun joy bilan ta'minlashdan tashqarida; bu yashil ongli jamoatchilikning qadriyatlariga mos keladigan ekologik toza mulkni yaratish haqida. Sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar va ekologik toza amaliyotlarga sodiqlik bilan mehmonxonalar nafaqat qolish uchun joy emas, balki ular barqaror va samarali kelajakning mayoqlariga aylanib, ko'pincha shaharning ijtimoiy va biznes markazining yuragi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назилов Д.А. Элементы, определяющие функции интерьера в зодчестве центральной Азии. Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. 1-2007.
2. Архитектура и строительство Узбекистана № 3 - 1987 г. К эволюции архитектурной типологической схемы «Двор с обводом из коридорообразных помещений» в северном Тохаристане – Согде.
3. Юсупова М.А. К генезису и эволюции дворово-айванной композиции в архитектуре Средней Азии.
4. Мукумов Р.С., Мамаджанова С.М. Зодчество Таджикистана. – Душанбе: «Маориф», 1990. - 167 с.
5. Нильсен В.А. Архитектура Средней Азии V-VIII вв. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв.) – Ташкент: «Наука», 1966. - 334 с.
6. Булатова В.А., Ноткин И.М. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. -Тошкент, 1963. - 94 б.
7. Рапопорт Т.Б. О прогрессивных традициях в архитектуре народного жилища Узбекистана. Архитектурное наследство. Гос. издательство литературы по строительству, архитектуры и строительным материалам. Москва, 1961 г. Ред. коллегия Е.Д. Квитницкая, А.М. Прибыткова, О.Х. Халпахчьян, Ю. С. Яралов (отв. ред.), 199 с.
8. Ibragimov, N. (2024). FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 340-342.

9. Khasanovich, I. N. (2023). DEVELOPMENT OF SPA (SANUS PER AQUAM) ZONES IN WATER FACILITIES DEVELOPMENT OF SPA (HEALTH THROUGH WATER) ZONES IN WATER FACILITIES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 306-308.

Internet saytlari

1. http:/www.natlib/ (Ўзбекистан миллий кутубхонаси)
2. www.edu.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.nuuz.uz
5. www.bimm.uz

SHAHAR VA YO'LDOSH SHAHAR HUDUDLARINI LOYIHALASH TAMOYILLARI

Fozilova Z. Q.
Katta o'qituvchi, Samarqand Davlat arxitektura va qurilish universiteti
Dostonov A.S.
O'qituvchi, Samarqand Davlat arxitektura va qurilish universiteti
Hanif Budiman
Arxitektura (Phd). Indoneziya Islom universiteti.

Annotatsiya: Shahar va yo'ldosh shaharlar — bu bir xil metropoliten zonasida joylashgan va ko'p hollarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan hududlar hisoblanadi. Hozirgi kunda shahar va uning yo'ldosh shaharlarini to'g'ri loyihalash va rivojlantirish masalasi ko'plab muammolar, jumladan, aholi zichligi, transport tizimlari, yashil hududlar va arxitektura rivojlanishiga bog'liq. Ushbu maqolada shahar va yo'ldosh shaharlarni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shahar, yo'ldosh shahar, shaharsozlik, tendensiya, funksiya, hudud, demografiya, arxitektura.

Annotation: Urban and satellite cities are areas that are located in the same metropolitan zone and, in most cases, are economically, socially and culturally interdependent. Currently, the issue of the proper design and development of the city and its satellite cities is due to many problems, including population density, transportation systems, green areas and architectural development. This article provides a scientific analysis of the peculiarities of the design of urban and satellite cities.

Keywords: city, satellite city, urban planning, trend, function, area, demography, architecture.

Kirish. Shaharsozlik — bu shaharlarni loyihalash, rivojlantirish va boshqarish jarayonidir. U shahar infratuzilmasini to‘g‘ri rejalashtirish, aholi uchun qulay yashash muhitini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bunda shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini ta’minlashga, ularda yashovchi aholiga qulay yashash sharoitlari yaratishga qaratilgan.

Shaharsozlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun-qoidalar mamlakatning urbanizatsiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, shahar hududlarini samarali foydalanish va aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida ham shaharsozlik faoliyatini nazorat qiluvchi bir qancha qonun va me’yoriy hujjatlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi — bu shaharsozlik sohasida umumiy tamoyillarni belgilab beradi va shahar hududlarini rejalashtirishda rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalarni o‘z ichiga oladi. U yer uchastkalarini ajratish, uy-joy va infratuzilma obyektlarini joylashtirishda me'yoriy talablarni belgilaydi.

Shahar va yo'ldosh shaharlar — bu bir-biriga yaqin joylashgan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan bog‘langan shaharlar to‘plamidir. Asosiy shahar ko‘pincha mamlakat yoki mintaqa uchun muhim markaz hisoblanadi va katta iqtisodiy va madaniy salohiyatga ega bo‘ladi. Yo'ldosh shahar esa odatda asosiy shaharning atrofida joylashadi va iqtisodiy rivojlanish, aholi zichligi, transport aloqalari kabi jihatlardan unga bog'liqdir.

Yo'ldosh shaharlar katta shaharlardagi aholi zichligini kamaytirishga, uy-joy va ijtimoiy infratuzilma yetishmovchiligini bartaraf etishga, iqtisodiy rivojlanishni diversifikatsiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari, yo'ldosh shaharlar ekologik muvozanatni ta’minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Usullar. Shahar va yo'ldosh shaharlar o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Asosiy shahar iqtisodiyot, savdo, madaniyat va boshqaruv markazi sifatida xizmat qiladi, yo'ldosh shaharlar esa qo'shimcha yashash joylari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hududi bo‘lib xizmat qiladi;
2. Shahar va yo'ldosh shaharlar o'rtasida kuchli transport aloqalari mavjud. Ushbu yo‘nalishlarda jamoat transporti va yo‘l infratuzilmasi rivojlangan bo‘lib, aholi uchun qulay harakatlanish imkoniyatini beradi;
3. Ko‘pincha yo'ldosh shaharlar yashash uchun qulay muhit yaratish maqsadida loyihalanadi. Ular ko‘proq yashil hududlarga, sayr qilish joylariga ega bo‘lib, shahar aholisining dam olish maskaniga aylanishi mumkin.

Yo'ldosh shaharlar zamonaviy urbanizatsiyada ahamiyatli rol o‘ynaydi. Ular nafaqat asosiy

shaharlarning yukini kamaytiradi, balki mamlakat yoki mintaqa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Quyida yo'ldosh shaharlarning ahamiyatli jihatlari keltirilgan:

1. Aholi zichligini kamaytirish. Yo'ldosh shaharlar asosiy shaharlardagi ortib borayotgan aholi zichligini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan, asosiy shaharda ortiqcha odam to‘planishining oldi olinadi va uy-joy, yo‘l infratuzilmasi, jamoat xizmatlari kabi resurslarga bosim kamayadi. Aholi zichligi pastroq bo‘lgan yo'ldosh shaharlarda yashash sharoitlari odatda qulayroq va sog‘lom muhit yaratilgan bo‘ladi.

2. Uy-joy va infratuzilma muammolarini hal etish. Asosiy shaharda yer va uy-joy qiymatining o‘sishi muammolarni keltirib chiqaradi. Yo'ldosh shaharlar esa nisbatan qulay uy-joy va keng infratuzilmani taklif qilib, shahar atrofida yashash imkoniyatini oshiradi. Shu orqali aholiga qulay uy-joy va yaxshi ijtimoiy infratuzilma taklif etiladi.

3. Iqtisodiy rivojlanishni diversifikatsiyalash. Yo'ldosh shaharlar yirik iqtisodiy faoliyat markazlari sifatida rivojlantirilishi mumkin. Ular ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi imkoniyatlar yaratib, asosiy shaharga qaramlikni kamaytiradi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, sarmoya jalb qilish va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga yordam beradi.

4. Transport infratuzilmasiga bosimni kamaytirish. Yo'ldosh shaharlarning mavjudligi transport tarmoqlariga tushadigan yukni pasaytiradi, chunki aholi asosiy shaharga ko‘p qatnamasdan yo'ldosh shaharlarda yashash va ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa transport tizimida yo‘l tiqilinchlarini kamaytirishga va shahar yo‘llarida xavfsizlikni oshirishga yordam beradi.

5. Ekologik muvozanatni saqlash. Asosiy shaharlarda urbanizatsiya bilan bog‘liq ekologik muammolar kuzatiladi, shu jumladan, ifloslanish, yashil hududlarning kamayishi va resurslarning haddan tashqari sarflanishi. Yo'ldosh shaharlar aholining bir qismi uchun yashil va ekologik muhit yaratib, atrof-muhitni saqlashga hissa qo‘shadi va asosiy shaharning ekologik yukini kamaytiradi.

6. Madaniy va ijtimoiy xilma-xillikni oshirish. Yo'ldosh shaharlar rivojlangan sayin, ularning o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy muhitlari shakllanadi. Bu shaharlar aholisi uchun boy madaniy hayot, o‘quv va sog‘liqni saqlash muassasalari, dam olish maskanlari va ko‘ngilochar markazlar kabi imkoniyatlar taqdim etadi.

Muhokama va natijalar. Shahar va yo'ldosh shaharlarni loyihalash tamoyillari zamonaviy urbanistik loyihalash jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni samarali va barqaror rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillar hisobga olinishi lozim:

1. Integratsiyalashgan transport tizimi. Shahar va yo'ldosh shaharlar o‘rtasida kuchli va samarali transport tizimini yaratish lozim. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Jamoat transporti: Shaharning asosiy qismidan yo'ldosh shaharlar tomon yo'nalgan avtobuslar, metro, tramvay yoki tezkor transport tizimlarini joriy etish orqali aholiga qulay harakatlanish imkoniyatini yaratish;
- Velosiped va piyodalar yo‘llari: Yashil va ekologik transport turlariga imkoniyat yaratish va ular uchun infratuzilma barpo etish;

2. Yashil hududlarni saqlash va rivojlantirish. Shahar va yo'ldosh shaharlar ekologik jihatdan barqaror bo‘lishi uchun yashil hududlar muhim ahamiyatga ega. Ularni loyihalashda quyidagi tamoyillar muhimdir:

- Parklar va dam olish joylari, aholi uchun dam olish hududlarini yaratish, shu bilan birga tabiiy muhitni asrab-avaylash;
- Yashil koridorlar, turli yashil hududlarni birlashtiruvchi yo‘llar yoki yashil koridorlar yaratish orqali tabiiy oqim va migratsiya yo‘nalishlarini ta’minlash.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi. Aholi farovonligini oshirish va shaharni barqaror rivojlantirish uchun ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani to‘g‘ri rejalashtirish kerak.

- Savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari, yashash joylari yaqinida savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari barpo etish orqali odamlar uchun qulaylik yaratish;
- Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari, maktablar, shifoxonalar va madaniy markazlar aholi ehtiyojlariga mos ravishda shahar va yo'ldosh shaharlar bo‘ylab joylashtirilishi lozim.

4. Arxitektura va dizayn tamoyillari. Shahar va yo'ldosh shaharlar arxitektura jihatidan ham uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim:

- Mahalliy va zamonaviy dizayn, arxitektura milliy va mahalliy xususiyatlarni aks ettirishi, shuningdek zamonaviylikni ifodalashi kerak;
- Estetik va funksional uyg‘unlik, bino va inshootlar ham estetik, ham funksional jihatdan qulay bo‘lishi muhim. Bu shahar muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Ekologik barqarorlik va energiya samaradorligi. Shahar va yo'ldosh shaharlarni loyihalashda ekologik barqarorlikni saqlash asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi:

- Yashil texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalar, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish kabi ekologik texnologiyalarni joriy etish;
- Suv va chiqindilarni boshqarish tizimi, suv resurslarini tejash va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini barpo etish orqali shahar atrof-muhitini himoya qilish.

6. Urbanizatsiyani muvozanatlash. Asosiy shahar va yo'ldosh shaharlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni saqlash, aholi zichligini boshqarish muhim:

- Hududiy rivojlanishni rejalashtirish, shahar markazlaridagi zichlikni kamaytirish maqsadida yo'ldosh shaharlarda ish o‘rinlari va xizmatlar yaratish;
- Turar joy va tijorat zonalari, shaharlar atrofida turar joy va tijorat hududlarini rejalashtirish orqali muvozanatni saqlash.

Shahar va yo'ldosh shaharlarni to‘g‘ri loyihalash orqali ularning integratsiyalashgan holda barqaror

rivojlanishi va aholiga qulay yashash muhiti yaratish mumkin.

Xulosa. Ushbu tamoyillar asosida shahar va yo'ldosh shaharlarni loyihalash ularning integratsiyalashgan holda rivojlanishini va aholi uchun yuqori sifatli yashash muhitini ta'minlashga yordam beradi. Shahar va yo'ldosh shaharlar hududlarini to'g'ri loyihalash va rivojlantirish orqali ularni yanada qulay, barqaror va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarga aylantirish mumkin. Yo'ldosh shaharlar shunday qimmatli ahamiyatga ega bo'lgani sababli, ularni strategik rejalashtirish va asosiy shahar bilan birga rivojlantirish urbanizatsiya va aholi farovonligini oshirishda muhim hisoblanadi. Shu maqsadga erishish uchun kompleks va integratsiyalangan yondashuv zarur.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi
2. Qodirova S.A., M.T. Abdujabborova. “Turar joy va jamoat binolarini loyihalash” Darslik. - Toshkent.: Nizomiy nomli TDPU , 2019 y. -300 bet.
3. Ubaydullaev X.M., Inagamova M.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari. Darslik. - Toshkent.: Voris”, 2009. - 300 bet.
4. Xasanov A.O. “Arxitekturaviy loyihalash” O‘quv qo‘llanma. - Toshkent. “Arxitektura innovatsion markazi”, 2019. – 140 bet.
5. Ubaydullaev X.M, Xidoyatov T.A, Abduraxmanov Y.I, G.I.Korobovsev,
Mansurov YA.M. Arxitekturaviy loyihalash. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent.: “Arxitektura innovatsion markazi”, 2012. - 180bet.
6. Fozilova, Z. Q., & Khayitboyev, N. K. (2024). THE ROLE OF “SMART CITIES” IN THE PROBLEMS OF URBAN ECOLOGY AND THEIR MODERN SOLUTIONS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *3*(8), 95-103.
7. Dostonov, A. S., & Fozilova, Z. Q. (2024). O’ZBEKISTONDA AN’ANAVIY TURAR-JOY BINOLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 251-253.
8. Каюмов, Х. И., & Фозилова, З. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕБРОСА ЧАСТИ ВОД СИБИРСКИХ РЕК В ОБРАЛО КАСПИЙСКУЮ ВОДНУЮ СИСТЕМУ. *Interpretation and researches*.
9. Салохиддинова, Д. З., & Фозилова, З. К. (2024). Уточнение критериев устойчивости всемирно известных башен Хивы.
10. Kayumov, H. I., & Fazilova, Z. K. (2023). Organization of traffic flow and optimization of underground-overground passages. The importance of studying optimization of the road transport network in the training of architects–urban planners. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 477-482.
11. Фозилова, З. Қ., & Каюмов, Х. И. (2023). Самарканд-проблемы сохранения исторической городской среды. *Central asian journal of arts and design*, 249-253.
12. Салохиддинова, Д. З., Каюмов, Х. И., & Фозилова, З. К. (2023). Проблемы застройки города Самарканда и ее решения. *Central asian journal of arts and design*, 300-305.
13. Salokhiddinova, D. Z., Kayumov, H. I., & Fozilova, Z. K. (2023). Problems of development of the city of samarkand and its solutions. *Central asian journal of arts and design*, 333-338.
14. Fozilova, Z. Q. (2023). Irrigation System of Samarkand City. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, *2*(2), 64-68.
15. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejalari tahlili. *Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali*, *2*(1), 117-122.

UDK: 379.851

TURISTIK MAHALLA, TURISTIK QISHLOQ, TURISTIK YO’LLARNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Hamidov Oybek Umarjon o’g’li
Namangan muhandislik-qurilish institute

Annotatsiya: Ushubu maqolada Namangan viloyatidagi turistik marshrutlarni rivojlantirish, ushbu hududlarda “turistik qishloq”, “turistik mahalla”, “turistik ovul” larni tashkil qilish va ularga turistlar oqimini yanada ko’paytirish ko’zda tutilgan.

Kalit so’zlar: Turizm, sayyoh, marshrut, qishloq, mahalla, ovul, brend, nanay, mehmon, mahalliy, rivojlangan, muafiq, katalizator, kongil ochar.

Abstract: This article provides for the development of tourist routes in the Namangan region, the creation in these territories of "tourist villages", "tourist quarters", "tourist villages" and a further increase in the flow of tourists to them.

Keywords: tourism, tourist, route, village, microdistrict, aul, brand, nanai, guest, local, developed, actual, catalyst, entertainment.

Kirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 13-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5781-sonli Farmoniga muvofiq joylarda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, “turistik mahalla”, “turistik qishloq” yoki “turistik ovul” tashkil etish ko’zda tutilganligi yoritilgan [1].

Ma’lumki, turizm - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo’lib, xorijiy valyuta va sarmoyalar oqimini ta’minlaydi, unga yaqin sohalarning tez

o'sishiga ko'mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishda yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro'sini oshiradi. Bugungi karantin bilan bog'liq davrda turistik biznes vakillari murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Xususan, "Uzbekistan. Safe travel guaranteed" ("O'zbekiston. Xavfsiz sayohat kafolatlangan") brendi ostida turistlar uchun sanitariya-epidemiologik xavfsizlik tizimi ishlab chiqildi [2,6,7].

Shuningdek, ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun qabul qilingan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2020-yil 10-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 433-son qaroriga ko'ra, "Fuqarolar yig'inlariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomini berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning tasdiqlanishi va uning ijrosi O'zbekistonni xususan Namangan viloyatida ham tez orada yirik hamda jozibador sayyohlik markazlaridan biriga, turizmni esa iqtisodiyotimizning yetakchi sohasiga aylantirishga mustahkam zamin yaratishi muqarrar [1,7,8].

Asosiy qism. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda Yangiqo'rg'on tumanidagi "Nanay" qishlog'ida "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" (keyingi o'rinlarda - turizm mahallasi) - fuqarolar yig'inlari hududining mavjud tabiiy, tarixiy-madaniy resurslari va xususiyatlari asosida turistik xizmatlar (turistik mahsulotlar) majmua shakllangan va ushbu hududga taqdim etiladigan maqom hisoblanadi. Fuqarolar yig'iniga turizm mahallasi maqomini berishdan asosiy maqsadlar quyidagilar hisoblanadi [2,7,8].

- fuqarolar yig'ini hamda mahalliy aholida azaldan saqlanib qolgan moddiy va madaniy merosini, urf-odatlari va turmush tarzini saqlash, ilgari surish va targ'ib qilish;
- xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish;
- turizmni barqaror rivojlantirish;
- mahalliy aholining madaniyati va an'analarini ommalashtirish;
- turizm mahallasining ekologiyasini hamda tabiiy boyliklarini asrash va yaxshilash;
- fuqaralor yig'ini hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash;
- fuqarolar yig'ini hududida yangi ish o'rinlarini yaratish;
- doimiy ravishda turizm xizmatlari sifatini belgilangan talablarga muvofiqlashtirish;

Albatta, Nanay kabi tog' joyini eshitgansiz. O'zbekiston xaritasida bunday nomga ega bo'lgan ikkita qishloqni ko'rish mumkinligini juda kam odam biladi. Birinchi qishloq Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan bo'lib, u Chorvoq suv omborining Janubiy-Sharqiy qismida joylashgan [9,10]. Ikkinchisi-Namangan yaqinida Yangiqo'rg'on tumanida joylashgan. Hozirgacha ikkita qishloqning bir xil nomga ega ekanligi haqida hech qanday to'xtamga kelinmagan. Afsonalardan biriga ko'ra, Namangan Nanay aholisining bir qismi o'z ona yurtini tark etadilar va tog'larda yurib, Pskem daryosining chap qirg'og'ida vodiyda joylashadilar [14,15].

Boshqa afsonaga ko'ra, Nanay tog' qishlog'i eng qadimiylaridan biri bo'lib, Iskandar Zulqarnaynning bosib olgandan beri mavjud. Qishloq buyuk qo'mondon va uning jangchilari uchun vaqtinchalik harbiy qo'rg'on sifatida qurilgan. Bunga Nanaytepa (Dinaptepning boshqa nomi) qal'asi qoldiqlari mudofaa devori va minorasi qoldiqlari topilganligini isbot sifatida keltirishadi. Nima uchun aholining bir qismi bu joyni tark etib, Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tgani hali aniq emas.Bundan tashqari, "Nanay" toponimining etimologiyasi haqida ko'plab munozaralar mavjud. Taxminlarga ko'ra, "Nanay" nomi "Nona" so'zidan – unumdorlikning butparast ma'budasi nomiga qo'yilgan deyilsa, yana boshqa taxminlarga ko'ra, bu so'z "Nana" dan – shifobaxsh o'ti, yoki "Non" degan ma'noni anglatadi. Ayniqsa, Namangan Nanayining so'nggi taxmini juda mos keladi, chunki ma'lumki, Namangan viloyati o'simlikshunoslik bo'yicha juda mashhur, shu jumladan don ekinlari bilan ham.

Bugungi kunga kelib, har ikkala obekt ham tashrif buyuradigan qiziqarli joylardir. Chorvoq Nanayi, tog' qishlog'ining an'anaviy qiyofasini saqlab qoldi. Mahalliy aholi asalarichilik va xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanadi. Nanaya tog' asallari o'zining noyob tarkibida qimmatli va ekologik toza mahsulot hisoblanadi. Xalq hunarmandchiligidan, aholi do'ppilar ishlab chiqaradi. Shuningdek, qishloqda qadimiy shahar va mahalliy qadamjoga, mozor G'oyib ota mozoriga ekskursiyalar tashkil etadilar. Bundan tashqari, siz tapchanni ijaraga olishingiz mumkin, Chorvoq suv ombori g'arb qismidan yuvib ketgan katta g'orni va kichik tog' ko'lini ko'rishingiz mumkin.Yaqin kelajakda Namangan Nanayida katta o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Yaqinda shahar qishlog'i zamonaviy sayyohlik kurorti qayta quriladi. Avvalroq, bu hududda dam olish joylari mavjud edi, biroq bir necha o'n yillar davomida obektlar bo'sh qolgan. Shu munosabat bilan qishloqni sayyohlik ekosentriga aylantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu yerda lagerlar, kempinglar, mehmon uylari, ko'ngilochar obektlar va yana ko'p obektlar yaratiladi

Turizm mahallasi maqomini olgan "Nanay" fuqarolar yig'ini quyidagi imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirishi esa, yurtimizga tashrif buyurishni rejalashtirayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlarni o'ziga jalb etmay qolmasligi shubhasiz:

- fuqarolar yig'ini hududida xorijiy va mahalliy turistlarni qabul qilish uchun kamida 20 ta oilaviy mehmon uylarining mavjudligi;
- fuqarolar yig'ini hududida turistlarga kamida 5 ta sifatli turistik xizmatlarni taqdim etish (turar joy va (yoki) ovqatlanish xizmatlaridan tashqari);
- fuqarolar yig'ini hududida mahalliy ishlab chiqarilayotgan esdalik sovg'alari mahsulotlarini (kamida bitta savdo nuqtasi) sotish shoxobchalarini tashkil etish;
- fuqarolar yig'ini hududida turistlar (ekskursantlar) xavfsizligini ta'minlash;

- turistlar uchun yaratilgan qo‘shimcha ko‘ngil ochar shart-sharoitlar (otlar, tuyalar, velosipedlar, kvadratsikllar, qayiqlar, katamaranlar va boshqalar ijarasi);

- zarur infratuzilmaning mavjudligi (avtomobil yo‘llari, transport aloqasi, aloqa vositalari, ichimlik suvi, elektr energiyasi, Internet, sovuq mavsumda isitish tizimi);

- yil davomida turizm xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi;

- bosma shaklda turistik ob’ektlarni joylashish joylari xaritasi mavjudligi;

- tashrif buyurishdan oldin turistlar tomonidan oilaviy mehmon uylari uchun joylarni bant qilish va fuqarolar yig‘ini hududida ko‘rsatiladigan turistik xizmatlarga buyurtma berish imkoniyatining mavjudligi;

- fuqarolar yig‘ini to‘g‘risida barcha uchun qulay joyida ma’lumot materiallari (varaqalar, bukletlar, risolalar, xaritalar va boshqalar) mavjudligi [12,14,18,19].



1-rasm Nanay hududida aqilli “Turizm-qishlog’i” loyiha taklifi.

Xususan, O‘zbekistonga shu jumladan Namangan viloyati, Yangiqo’rg’on tumanidagi “Nanay” qishlog’i turizm sohasini rivojlantirish 2020-yilning yanvar-mart oylarida turizm maqsadida tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy fuqarolar soni 1,2 million kishini tashkil qildi. Mazkur ko‘rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 12 foizga kamaygan [2,3,4,11,12,14].

Birinchi chorak davomida MDH mamlakatlaridan kelganlar soni 1,16 million kishini (95,6 %), xorijiy davlatlardan kelganlar esa 53,6 ming kishini (4,4 %) tashkil qilgan. O‘zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolarning eng ko‘pi Qozog‘istondan tashrif buyurgan, ularning soni 397,6 ming kishini tashkil qilgan. Shuningdek, Tojikistondan 332,7 ming kishi, Qirg‘izistondan 298,1 ming kishi, Rossiyadan 64,7 ming kishi, Turkmanistondan 60,6 ming kishi, Ozarbayjondan 2 ming kishi va Belarusdan 1,2 ming kishi O‘zbekistonga kelgan. Uzoq xorijdan sezilarli oqim Turkiyadan, Janubiy Koreyadan, Xitoydan, Hindistondan, Yaponiya va Fransiyadan kuzatilgan. Tadqiqot ishida Turizm sohasini uning funksiyalari nuqtai nazaridan ko’rib chiqsak, shu narsa aniq bo’ladiki, turizmning klassik tarzdagi uchligi «turizm + joylashtirish + ko’ngil ochish» ijtimoiy iqtisodiy soha vazifalarining qariyb hammasini o’z ichiga oladi. Bundan esa, «turizm turli xil, o’zaro bog‘liq va bir-birini taqozo etadigan kichik tizimlardan iborat murakkab ijtimoiy - iqtisodiy tizim» ekanligi aniq bo’ladi [3,4,6,7,8].

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, turizm sohasi O’zbekistonda yani Namangan viloyati, Yangiqo’rg’on tumanidagi “Nanay” qishlog’ida jami xizmatlar sohasi rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchiga aylanishi, mamlakat va viloyat iqtisodiyotiga valyuta Davlat statistika qo‘mitasi hisobotidan tushumlarining salmoqli darajada oshishiga xizmat qilishi, shuningdek, mahalli aholi va yoshlar uchun minglab ish o’rinlari yaratib beradigan yangi turistik marshrutlar tashkil etilishini ta’minlashi mumkin[3,4]. Biroq, turizm faqat Prezident yoki hukumat qarorlari bilan taraqqiy etib ketadigan soha emas. Ayniqsa, bugungi sharoitda uning ravnaqi juda ko’p omillarga, xususan, davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatiga, biz - fuqarolarning amaliy harakatimizga ham bog’liq. Yurtimiz ravnaqi yo’lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o’zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko’tarish uchun, hammamiz o’z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo’lishimiz lozim. Shuningdek, Namangan viloyati, Yangiqo’rg’on tumanidagi “Nanay” qishlog’ida hududning turistik infratuzilmasini yaxshilash, sayyohlar uchun davlat dasturlari asosida “turistik mahallalar” va mahalliy aholi tomonidan oilaviy mehmon uylari, bundan tashqari, kelajakda madaniy-ko’ngilochar ob’ektlarini tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar.

1. Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son
2. Kotler, Bowen & Makens (2006), Marketing for Hospitality and Tourism Pearson Education, 2006.
3. Хасанов А.О. Ўзбек миллий автомагистрали бекатларида микроиқлимли муҳит яратишнинг баъзи масалалари //Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. - Самарқанд, 2013. - №1
4. Manba: https://uzbektourism.uz sayti.
5. Ozodovich, H. A., & Maribovich, Q. I. (2022). Improving the Design of Youth Innovative-Creative and Development Scientific Centers.
6. Dedakhanov, B., & Kasimov, I. (2022). ANCIENT ARCHITECTURE OF THE FERGHANA VALLEY FEATURES OF FORMATION AND DEVELOPMENT (ON THE EXAMPLE OF CIVIL ARCHITECTURE AND URBAN PLANNING). Science and innovation, 1(C6), 278-284.
7. Хасанов, А. Н., Аббасова, Р. К., & Маърибович, Қ. И. (2022). КАСБ ҲУНАР МАЖМУАЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ (ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА). Journal of new century innovations, 19(1), 198-204.
8. Maribovich, Q. I. (2022). Scientific Proposals for Architectural Improvement of Engineering Centers. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 1(6), 59-63.
9. Ozodovich, H. A., Maribovich, Q. I., & Zarina, B. (2023). KASBGA YO’NALTIRISH MARKAZINI INNOVATSION LOYIHASI TAKLIFI “KIDZANIA JOB WORLD IN TASHKENT”. PEDAGOG, 6(1), 120-129.

10. Maribovich, Q. I. (2023). Architectural Improvement of Professional Centers. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(3), 85-91.

11. Қосимов, И. М., Дедеханов, Б., Адилов, З. Р., & Раҳимова, Г. Э. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МАРКАЗЛАРНИНГ ИННОВАТЦИОН АРХИТЕКТУРАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Journal of new century innovations, 19(2), 169-175.

12. Хасанов, А. О., & Қосимов, И. М. (2023). ЖАМИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАСБГА ЙЎНАЛТИШ МАРКАЗЛАРНИ ЛОЙИҲАЛАШНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ. Journal of new century innovations, 21(1), 136-143.

13. Хасанов, А. О., & Қосимов, И. М. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МАРКАЗЛАРИНИ АРХИТЕКТУРА ТАКЛИФИ. Journal of new century innovations, 21(1), 144-150.

14. Madamiovna, K. D., & Maripovich, K. I. (2024). The Role of Towns and Baths in Community Life And. European Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations, 1(2), 39-42.

15. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In E3S Web of Conferences (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.

KATTA SHAHARLARNING TURAR-JOY KVARTALLARI

Aymatov A.A.
Samarqand Davlat Arxitektura - Qurilish Universiteti dotsenti

Bugungi kunga qadar eng murakkabi – yirik shaharlardagi turar-joy binolarini rekonstrukrtsiya qilish bo‘lib qolmoqda. Turar-joy muhitining funksiyalari ro‘yxati, madaniy va maishiy xizmatlarni tashkil etish sxemasi va rejalashtirish tuzilmasining konfiguratsiyasi shahardagi turar joy tumanining joylashishiga ta’sir qiladi. Tumanning joylashuvi ham rekonstrukrtsiya tadbirlarini tanlashni belgilaydi. Shaharsozlik holati va mavjud qurilishning tarixiy va me’moriy qiymatiga qarab, u konservatsiya qilish, tartibga solish, ko‘paytirish va o‘zgartirish zonalariga bo‘linadi. [17]

Konservatsiya qilish zonasiga quyidagilar kiradi: shaharning tarixiy o‘zagi va unga tutash ko‘chalardagi kvartallar. Umuman olganda, ular shahar markazini tashkil qiladi. Ushbu zona odatda tarixiy va me’moriy jihatdan eng qimmatli binolarni o‘z ichiga oladi. Bu landshaft-shaharsozlik holati bilan umumiy bir butundir.

Konservatsiya qilish zonasining kamchiliklari: turar-joy bo‘lmagan funksiyalarning ko‘pligi, bu esa kunduzi va kechqurun ko‘plab tashrif buyuruvchilar oqimiga olib keladi; rekonstrukrtsiya qilish uchun qiyin sharoitlar; transport tirbandligi; ko‘kalamzorlashtirilgan maydonning yetarli emasligi, avtomobil turar joylari, to‘xtash joylari, bolalar bog‘chalarining etishmasligi.

Konservatsiya qilish zonasining asosiy vazifasi mavjud binolar asosida atrof-muhitning tarixiy xususiyatini saqlab qolishdir. Unda yangi turar-joy binolari hududning kichik maydonlarini egallashi va mavjud kvartalning qurilishiga vizual qo‘shimcha bo‘lishi kerak.

Tartibga solish zonasi yirik va o‘ta yirik tarixiy shaharlarning markaziy hududlari uchun xosdir. Unda XIX asr 2-yarmi XX asr boshlarida aholining o‘rta qatlamlari uchun qurilgan g‘ishtdan va aralash materiallardan qurilgan uylar ustunlik qiladi. Ushbu zonaning kvartallari kichik maydonni egallaydi va shaharsozlik xususiyatlariga ko‘ra konservatsiya qilish zonasi kvartallariga o‘xshaydi – ular yuqori (60% gacha) qurilish zichligiga ega, kichik miqdordagi ichki ko‘kalamzorlashtirishga ega, ammo qiymati, ko‘lami va uslubiy xususiyatlari bilan mavjud binolardan farq qiladi (1-rasm, II). Ushbu zonadagi yangi qurilishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: mavjud yashash muhitining qulayliklarini oshirish, tayanch binolarning haddan tashqari uslubi va miqyosidagi har xillikni zararsizlantirish, kompozitsion urg‘ularni shakllantirishda ketma-ketlik (ayniqsa muhim rel’yef nuqtalarini, rejalashtirish tuzilmasini, tarixiy voqealar bilan bog‘liq joylarni belgilash).


Shaharning tarixiy o‘zagini chekka hududlar bilan bog‘lovchi radial ko‘chalarni rekonstrukrtsiya qilish – eng mas’uliyatli vazifadir. Bunday ko‘chalarda eski binolar va obodonlashtirish elementlarining uslub xususiyatlaridan zamonaviy arxitektura uslubi va ko‘lamiga bosqichma-bosqich o‘tishni yaratish kerak (1-rasm).

Tiklash (reproduksiya) maydoni. Bu zonaga inqilobga qadar shahar chekkasi bo‘lgan, ishchilar, mayda hunarmandlar, qishloq aholisi o‘rnashib qolgan hududlar kiradi. Kapital binolarning kichik bir qismi bu yerda joylashgan. Asosiy qurilish turi: bir va ikki qavatli yog‘och uylar. Hududni muhandislik obodonlashtirishning past darajasi. Shu munosabat bilan bino va inshootlarni buzish va hududni qayta jihozlash zarurati tug‘iladi. Shu bilan birga, ushbu davrning yashash muhiti zamonaviy shahar sharoitida o‘ziga xos jozibadorlikdir: keng ko‘lamlilik, transport shovqinining yo‘qligi, ko‘chalarning go‘zal tabiati, ko‘plab yashil o‘simliklar, xalq me’morchiligi va shahar uy-joylarining badiiy elementlarini birlashtirgan turar joylarning yog‘och va dala hovli uslubini aks ettiradi. Bu zonada davlat tomonidan muhofaza qilinadigan uylar – ko‘plab san’at va madaniyat arboblari nomi bilan bog‘liq yodgorliklar joylashgan.

Shu munosabat bilan tiklash zonasida avvalgi me’moriy-tarixiy bosqich tabiatini qayta tiklaydigan, uning ijobiy fazilatlarini saqlaydigan va me’moriy yodgorliklar bilan yaxlit muhitni tashkil etuvchi turar joy qurilishini shakllantirish rejalashtirilmoqda.

Transformatsiya zonasi. Ushbu zona markazning tarixiy yadrosidan eng uzoqda joylashgan, ammo ayni

paytda ular o‘rtasida vizual aloqa bo‘lishi mumkin. Ko‘chmas mulkni buzish yoki yangilash joylari bilan bir qatorda, ushbu zonaning zaxiralari erkin, shuningdek, ilgari noturar joy bo‘lmagan, chiqindilar bilan qoplangan, omborlar yoki sanoat korxonalari olib tashlanganidan keyin bo‘shatilgan hududlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu zonada paydo bo‘ladigan yangi turar joy komplekslari katta hajmga ega bo‘lishi mumkin va asosan sanoat usullari bilan shakllanadi. Hududdan eng samarali foydalanish kam qavatli va ko‘p qavatli binolarning kombinatsiyasi bilan erishiladi (4.69-rasm, IV).



1-rasm. Katta shaharlarning turar joylari. Sxemalar: a - tarixiy rivojlangan hududlarni arxitektura va badiiy qiymatga ko‘ra zonalashtirish; b - rekonstrukrtsiya qilinayotgan kvartallarning xarakteristikalari; I – qurilishni konservatsiya qilish zonasi; II - qurilishni tartibga solish zonasi; III - atrof-muhit xarakterini tiklash zonasi; IV - atrof-muhitni tubdan o‘zgartirish zonasi.

Shahar kvartallarini rekonstrukrtsiya qilishning tarkibiy masalalari, ko‘chalar, maydonlar, piyodalar ko‘chalarining o‘rni, shaharlarning tarixiy rivojlangan hududlari moddiy va fazoviy muhitining xilma-xilligi (ularning vaqt, joylashuvi, qurilish zichligi bo‘yicha, strukturaviy tashkil etilishi va boshqalar) zamonaviy shaharsozlik amaliyotida keng tarqalgan rekonstrukrtsiyaga individual yondashuvni qo‘llash zarurati tug‘iladi.

Rekonstrukrtsiya qilishning uchta asosiy yo‘nalishi mavjud: mavjud sxemani va qurilishni saqlash; mavjud binoni qisman saqlab qolish va tubdan rekonstrukrtsiya qilish. Har bir yo‘nalishdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi mahalliy vaziyat sharoitlari va birinchi navbatda, mavjud qurilishning tarixiy-me’moriy qiymati va kapitallashuvi bilan belgilanadi.

Umumiy ma’noda ushbu yo‘nalishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin: Shaharning mavjud binolarini saqlab qolish - tarixiy, madaniy yoki ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan binolarni ilmiy tiklash va rekonstrukrtsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui; saqlanib qolgan binolarni yaxshi va qoniqarli jismoniy holatda saqlash; shaharning saqlanib qolgan uy-joy fondini va uydan tashqaridagi muhandislik kommunikatsiyalari va qurilmalarini kapital ta’mirlash va texnik modernizatsiya qilish; turar joy binolari hududlarini kompleks obodonlashtirish bo‘yicha normativ talablarni ta’minlash.

Mavjud rivojlanishning qisman saqlanishi – oddiy binoda kapital bo‘yicha bir xil bo‘lmagan individual tarixiy qimmatli binolar mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Bu yerda rekonstrukrtsiya qilish "tejamkor" rejimda amalga oshirilishi kerak: keyinchalik turar joy binolari va xizmat ko‘rsatish ob’yektlarini qurish uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lmagan alohida mavjud binolarni tanlab buzishga ruxsat berilishi mumkin; mavjud binolarni rekonstrukrtsiya qilish va modernizatsiya qilish (qayta obodonlashtirish, pollar, chodirlar, uchastkalarni kengaytirish), turar joy binolari hududini funksional va rejalashtirishni tashkil etish, uy-joy kommunal tarmoqlari va qurilmalaridan tashqarida kompleks obodonlashtirish, texnik modernizatsiya qilishni ta’minlash; sanitariya-gigiyena sharoitlari bo‘yicha normativ talablarni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Radikal rekonstrukrtsiya asosan ekstensiv qurilish darajasi past bo‘lgan hududlarda amalga oshiriladi. Bu 50% dan ortiq mavjud binolarni buzish bilan rekonstrukrtsiya qilish hisoblanadi. Bu yerda yashil maydonlarni saqlab qolgan holda, eskirish darajasi yuqori bo‘lgan binolarni to‘liq buzishga ruxsat beriladi. Radikal rekonstrukrtsiya ilgari sanoat, kommunal, omborxona va shahardan olib tashlangan boshqa ob’yektlar egallagan shahar hududlariga ham tegishli hisoblanadi.

Qabul qilingan rekonstrukrtsiya yo‘nalishiga, shuningdek rekonstrukrtsiya qilinayotgan hududning joylashuviga (shahar markazi, chekka, o‘rtada joylashgan, asosiy ko‘chalarga yaqin joylashuv) qarab, shaharning fazoviy rejalashtirish tuzilmasiga asosiy kompozitsion yondashuvlar belgilanadi.

Rekonstrukrtsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy arxitektura-badiiy vazifalari quyidagilardan iborat: shahardagi turar joy binolarining

tarixiy-madaniy qiymatini va ekologik rang-barangligini saqlash; turar joy binolarining me'moriy va fazoviy ko'rinishining o'ziga xosligini estetik ekspressivligini oshirish, psixologik qulaylikni ta'minlash, shu jumladan yashash muhitining insonga fazoviy mutanosibligini ta'minlash.

Hukumat qaror va nizomlari:

1. O'Zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini beshta ustivor yo'nalishlarda rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" PF-4947-son Farmoni.

2. O'Zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 19-12-son PQ-4068-son Qarori.

3. Shaharning mavjud rivojlanishini rekonstruksiya qilish va yangilash [Matn]: Universitetlar uchun darslik. / P. G. Grabovoi, V. A. Xaritonov tahr. - M.; "ASV" va "Realproekt" nashriyoti, 2006. - 624 b.

4. Mavjud shaharni rekonstruksiya qilish va yangilash [Elektron resurs]: Universitetlar uchun darslik. / P. G. Grabovoi, V. A. Xaritonov taxr. - M.: "ASV" va "Realproekt" nashriyoti, 2006. - 624 b. – kirish rejimi: http://alyos.ru/enciklopediya/

ZICH JOYLASHGAN ARXITEKTURA VA YASIL PARADIGMA

Amrullayev Donyor,
Abduganiyev Musurmon
SamDAQU 201 Bva IA magistrantlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaharda turar joy binolarining joylashuvi atroflicha tahlil qilingan.Maqolada turar joylarning demografika bilan bo`g`liqligi yechib berilgan.Zich joylashgan arxitektura va yashil paradigama tushunchalari yoritilib berilgan

**Kalit so`zlar:** Global, Germaniya, Aholi, demografiya, Yashil paradigma, arxitektura, Stiftung Weltbevölkerung (*DSW*), DeutscheWelle,Andijon, Farg`ona, Navoiy, Qoraqalpog`iston, qurilish, qurilish biznesi.

Annotation: In this article, the location of residential buildings in the city is analyzed in detail. In the article, the relationship between residential buildings and demographics is revealed. The concepts of densely located architecture and green paradigm are highlighted.

Key words: Global, Germany, Population, demography, Green paradigm, architecture, Stiftung Weltbevölkerung (DSW), Deutsche Welle, Andijan, Fergana, Navoi, Karakalpakstan, construction, construction business.

Аннотация: В статье подробно анализируется расположение жилой застройки в городе. В статье раскрывается взаимосвязь жилой застройки и демографии.

Ключевые слова: Мир, Германия, Население, демография, Зеленая парадигма, архитектура, Stiftung Weltbevölkerung (DSW), Deutsche Welle, Андижан, Фергана, Навои, Каракалпакстан, строительство, строительный бизнес.

Bizning global jamiyatimizning urbanizatsiyasi jadal rivojlanayotgani hozirgi kunga kelib inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. 2024 yilga kelib, dunyo aholisi soni 8 milliard 73 million kishidan oshdi. Germaniyaning Stiftung Weltbevölkerung (*DSW*) - «Yer aholisi» jamg'armasi tomonidan mavzu haqida berilgan bayonotga ko'ra, 2023 – yili dunyo aholisi soni qariyb 66 million kishiga ko'paygan. «DeutscheWelle»ning turkcha nashri xabariga ko'ra 2024 – yilning boshidan e'tiboran dunyoda 8 milliard 73 million 859 ming 407 kishi umr surmoqda. [2]

2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda doimiy aholi soni **36 799 800** kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18 525 000 kishini, ayollar soni 18 274 800 kishini, shahar aholisi soni 18 768 500 kishini, qishloq aholisi soni 18 031 300 kishini tashkil etdi. Bu haqda prezident huzuridagi Statistika agentligi xabar qildi. O`zbekiston aholisi tabiiy o`sish koeffisiyenti 21,7 %, bu ko`rsatkich o`tgan yilgiga nisbatan0.3% oshgan. O'zbekistonda 2024-yil 1-yanvar holatiga **1 kvadrat kilometrga o'rtacha 82 kishi to'g'ri kelgan**. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,8 kishiga ortgan (2023-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga 80,2 kishi). Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida 6787,5 kishi, Andijon viloyatida 789,4 kishi, Farg'ona viloyatida 600,8 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati 9,7 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 kishini tashkil etgan. [3]


"Zich joylashgan arxitektura" (ya'ni, "dense architecture") va "yashil paradigma" (yoki "green paradigm") atamalari, asosan, urbanistik va arxitektura sohalarida ishlatiladi.

1. **Zich joylashgan arxitektura**:
   - Bu tushuncha shahar joylashuvini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni maqsad qilgan arxitektura va urbanistik yondashuvni anglatadi. Zich joylashgan arxitektura shaharni zichroq joylashuvga, ya'ni ko'p qavatli binolar va turar joylarni yaratishga asoslanadi, bu esa infratuzilmani va transportni yaxshilaydi, ijtimoiy hayotni faolroq qiladi.
2. **Yashil paradigma**:

o Yashil paradigma atamasi atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yondashuvni anglatadi. Bu, asosan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik materiallar, va yashil infratuzilmani o'z ichiga oladi. Yashil arxitektura, binolarning atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatishi maqsadida loyihalangan.

Ushbu ikki yondashuv birgalikda ishlaganda, shaharlarning barqaror va ekologik toza rivojlanishiga xizmat qiladi, aholining hayot sifatini oshiradi va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O‘zbekiston hududida yashil paradigma qo‘llanilishi atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan ko‘plab tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Ushbu paradigma quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:



1-rasm

1. **Barqaror energetika**: O‘zbekiston quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni kengaytirishga intilmoqda. Mamlakatda ko‘plab quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

2. **Qayta tiklanuvchi resurslar**: Suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligida barqaror texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni qayta ishlash muhim masalalardir. Misol uchun, agrotexnik tadqiqotlar orqali suvni tejaydigan qishloq xo‘jalik usullari qo‘llanilmoqda.

3. **Yashil infratuzilma**: Shaharlar va qishloqlarda yashil zonalar, parklar va bog‘lar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu aholi salomatligini oshirish va ekologik muhitni yaxshilashga yordam beradi.

4. **Ekologik ta'lim**: Aholining ekologik ongini oshirish va yashil paradigmani targ‘ib qilish maqsadida ta'lim tizimida ekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda.

5. **Xalqaro hamkorlik**: O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit muammolariga qarshi kurashda muhimdir.

Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonning ekologik barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Yuqoridagi ma`lumotlar shuni ko`rsatadiki, O`zbekiston aholisi yildan yilga ortib bormoqda, bu esa aholining turar joylarga bo`lgan ehtiyojini ham ortishini ko`rsatadi. Barchamizga ma`lumki, bugungi kunda turar joy binolarining qurilishi ham jadal rivojlanmoqda. Shu sababdan, “qurilish biznesi” degan atama jamiyatda keng qo`llanmoqda. **Qurilish** — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qurilish]

Biznes – bu insonning daromad olib, hayot kechiradigan, tirikchilik vositasidir. Demak, qurilish biznesi deganda insonlarning hayot kechirish, tirikchilik qilish va yirik daromad topish maqsadi qurilish bilan shug`ullanishidir. Ya`ni turli xildagi binolarni qurib, foyda evaziga sotish jarayoni. Qurilishning asosiy maqsadi har tomonlama mustahkam, zilzilabardosh va arxitektura-qurilish standartlariga javob beradigan binolarni qurishdir. Ammo qurilish biznesining asosiy maqsadi qo`shimcha daromad bo`lganligi sababli, ba`zi tadbirkorlar qurilishning asosiy ko`rsatkichlaridan biri bo`lgan arxitektura-qurilish standartlarini biroz chetlab o`tishmoqda. Bunga asosiy sabab, bitta qurilishda ko`proq xonadon qurib sotishdir. Hozirda qurilayotgan aksariyat turar joylardagi asosiy muammo bu xonadonlardagi yashash xonalariga quyosh nurining yetarli miqdorda tushmasligi, havo aylanmasligi, xonalarning bo`yi va kengligi to`g`ri nisbatda olinmasligi, ya`ni xonaning eni bo`yiga nisbatan juda qisqa bo`lganligi uchun mebel texnologiyasi qulay joylashtirilmasligi va oynaning yuzasi xonaning maydoniga to`g`ri kelmasligi kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Umumiy qilib aytganda, muhandislik-texnik talablarga javob bermaydi. Buni ayrim tadbirkorlar kichik muammo sifatida qarashi mumkin, ammo, bunday turar joylarda yillar davomida yashayotgan insonlarning sog`ligida jiddiy kasalliklar rivojlanishiga sabab bo`ladi.



Bu va shunga o`xshash muammolarning kelib chiqishiga bu aholi zichligining ortishi va qurilish uchun yaroqli yerlarning tugashini ko`rsatishimiz mumkin. Bunday vaziyatda asosiy yechim bu binolarni vertikaliga o`stirishdir. Arxitektura va qurilish sohasida rivojlangan mamlakatlar allaqachon bu usulni qo`llamoqda va asta sekinlik bilan O`zbekistonda ham osmono`par binolarning qurilishi ko`paymoqda. Misol uchun Toshkentda O‘zbekistondagi eng baland binosi — Nest One qurilishi yakunlandi. Nest One — balandligi 267 metrli, 51 qavatdan iborat O‘zbekistondagi ilk osmono‘par, ko‘p funksiyali majmua. Salobatli bino poytaxtning ajoyib manazarasi namoyon bo‘luvchi premium xonadonlar, ofislar va 33 ta jamoat hududlarini o‘zida jamlagan. Nest One da jami 1029 ta xonadon va 29 ta tezyurar liftlar mavjud.[4]

O`zbekistonning boshqa hududlarida ham Nest One tajribasini qo`llash tavsiya etiladi. Qurilayotgan turar joy binolarida muhandislik talablarini inobatga olib, binolarni vertikaliga o`stirish, hamda zamonaviy qurilish konstruksiyalarini qo`llash eng maqbul yechimdir. Nafaqat, O`zbekistondagi joriy etilgan qurilish standartlariga, balki yangi qurilish standartlari asosida binolar loyihasini qayta ko`rib chiqish O`zbekistonning arxitektura-qurilish sohasida yangi pog`ona bo`lar edi.

Adabiyotlar:

1. H.M. UBAYDULLAYEV M.M. INOG‘OMOVA Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari-darslik. «Voris-nashriyot» Toshkent — 2009
2. https://www.trt.net.tr/uzbek/dunyo/2024/01/03/dunyo-aholisi-soni-qariyb-66-million-kishiga-ko-paydi-2083365
3. https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/27/demographics/
4. https://daryo.uz/2023/11/20/toshkentda-ozbekistondagi-eng-baland-binosi-nest-one-qurilishi-yakunlandi

UDK: 711,13:711,433

VILOYATLAR SHAHAR MARKAZIDA SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH MAJMUALARINI ARXITEKTURA-LOYIHAVIY TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR (QARSHI, JIZZAX, URGANCH) SHAHARLARI MISOLIDA

Eshatov I.Q. (PhD) dotsent v.b, **Mustafoyeva M.Z.** mustaqil tadqiqotchi,,
Yusupov Z.J. tayanch doktarant
Mirzo Ulug`bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda, savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish markazlari uchun aniq bir ta’rif va to‘xtam berilmaganligining asosiy sababi, uning ixtiyorida qanday funksiyalar bajarilishi va kompleks xizmatlar to‘plami qanday ko‘rinishda hamda bog‘lanishda bo‘lishi kerakligini aniqlash juda murakkab bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay, savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish markazlari katta shuhrat qozonib dunyo amaliyotida keng ommalashmoqda. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini loyihalashda ochiq, yarim ochiq, va yopiq turdagi arxitektura-fazoviy yechimlardan foydalanish tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: aglomerasion aloqalar, transport, savdo, majmua, ochiq, yarim ochiq, va yopiq.

Asosiy qism: Aynan, hozirgi kunda, respublikamizdagi ko‘pgina shaharlar ayniqsa, Qarshi, Jizzax, Urganch kabi yirik shaharlar aglomerasion markazlariga aylanib bormoqda. Bu esa, davlatimizning olib borayotgan to‘g‘ri siyosatining natijasi bo‘lib, O‘zbekistonda aglomerasion darajadagi savdo majmualari modelini shakllantirishni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston hukumati ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishini jadallashtirish va turar-joy, jamoat va sanoat binolarini barpo etish, yangi qurilish materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritgan.

Kirish bo‘limi: Mamlakatimizda va chet elda o‘tkazilgan ko‘p sonli tadqiqotchilarning izlanishlariga qaramay, respublikamizning barcha shaharlarida, jumladan, Jizzax Qarshi va Urganch shaharlarida barpo etilgan ko‘pgina savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari va yirik savdo markazlarida hamda ularni loyiha takliflarida ko‘p hollarda quruq-issiq iqlim sharoitiga moslashtirilmasdan joylashtirilganligi va xaridor uchun qulay sharoit yaratilmaganligi hamda avtoturargoh zonalari uchun yetarli joy ajratilmaganligi kuzatiladi [3,4,5,7].

Xaridorlar o‘z istaklarini amalga oshirish va xizmatlardan foydalanish uchun ko‘p vaqt yo‘qotishlari hamda yosh bolalar va qariyalar uchun dam olish

zonalari tashkil qilinmaganligi, mahalliy va chet el turistlariga mos shart-sharoitlar yaratilmaganligi oqibatida savdo majmualarning foydali ish koeffisiyenti va samarasi past bo‘lib kelmoqda. Yuqorida aytib o‘tilgan kamchilik va xatolarni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston viloyat markazlari uchun yangi turdagi arxitekturaviy-loyihaviy yechimga ega. Zamonaviy aglomerasion darajadagi savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualar loyihalarini shaharsozlik tamoyillari asosida ishlab chiqish, takomillashtirish va yaratish dolzarb va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi [7,8].

Metodlar bo‘limi: Loyihalanayotgan savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarida turli xil funksional va texnologik jarayonlarning amalga oshirilishini e’tiborga olib, markazning qat’iy bir loyiha asosida (maydoni 5000 m2 dan ortiq bo‘lganda) rejalashtirish talab qilinadi. Chunki, markaz maydoni katta bo‘lgani sababli uzun monoton ko‘rinishli galereya perspektivasi bugungi kunda zerikish tuyg‘usini uyg‘otib, tashrif buyuruvchilarning diqqatini torta olmasligi tabiiy holga aylangan.

Loyihalanayotgan savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini loyihalash quyidagi mezonlar asosida bajarilishi kerak [2].

1. Savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarining janubga qaratilgan tomonlari ortiqcha isib ketishi mumkin. Shu sababli, derazalar o‘lchamlari kichik, sharq va g‘arbga qaragan devorlarlarda qoraytirilgan derazalar loyihalanishi kerak.

2. Savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari uchun juda keng yo‘laklar hosil qilinmaydi. Chunki, odamlar o‘zlarini bunda "erkin" harakatlanishda yo‘qotib qo‘yishlari va sarosimaga tushishlaridan tashqari, yo‘laklarning tarmoqlanishi xaridorlar oriyentatsiyasini murakkablashtirib, oqim yo‘nalishini buzilishiga olib kelishi mumkin.

3. Savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmua zallari barchaga qulay va sodda bo‘lishi uchun atrium va galereya sxemalari asosida loyihalanishi tavsiya qilinadi [1,2].

Mijozlarning diqqatini jalb qilish uchun har 100 metrda turli xil rejalashtirish magnitlari joylashtiriladi. Harakati chegaralangan kishilar hamda yosh bolasi bo‘lgan onalar uchun markaz binosining har bir burchagiga borish qulay bo‘lishi kerakligini e’tiborga olgan holda, binoda ularga mo‘ljallangan alohida liftlar ko‘zda tutiladi hamda yuz berishi mumkin bo‘lgan turli xil holatlarda-yong‘in, avariya, zilzila kabi ofatlarga qarshi xavfsizlikni ta’minlash maqsadida evakuatsiya yo‘llaridagi chiqish eshigigacha bo‘lgan eng qisqa masofa asosida loyihalanishi tavsiya qilinadi.

Viloyat markazlari Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini loyihalash – respublikamizda amalda bo‘lgan asosiy me’yoriy va sohaga oid hujjatlar (Qurilish me’yorlari va qoidalari, idoralararo qurilish me’yorlari va GOSTlar asosida) va dunyo amaliyotidan olingan tajriba va ilmiy-amaliy tadqiqot natijalariga tayangan holda, zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmua markazlari uchun loyihalash tavsiya etiladi.

4."Magnitlar" yoki "yagona tortishish"ni – universal do‘konlar va oziq-ovqat supermarketlari hosil qilib, strategik nuqtalarda joylashgan do‘konlarni va ular orasida joylashtirilgan kichik ixtisoslashtirilgan do‘konlar bilan birgalikda kiritishni nazarda tutish lozim. Markaz qulay avtoturagohga ega bo‘lishi kerak (lekin transport vositalari hududga kirishiga ruxsat berilmaydi), jozibali landshaft rejasi, yuqori darajadagi qulayliklarga ega restoran, sport markazi, kinoteatrlar, badiiy ko‘rgazmalar va boshqa qo‘shimcha diqqatga sazovor joylar bo‘lishi mumkin [2,6].


Bularning barchasi uchun, shuningdek, kengaytirilgan savdo kuni savdosi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu "qamrov doirasi", ya’ni aglomeratsiyada muvaffaqiyatli ishlashga bog‘liq bo‘lgan odatiy savdo markazi bo‘ladi. "Tabiiy" atrof-muhit muhandisligi, ya’ni kondisioner, progressiv sun’iy yoritish rivojlanishi bilan yopiq savdo markazi yoki "yopiq mall" paydo bo‘ladi [1,3,4].

5. Ayni paytda, bir tomondan, shaharlarni betartib rivojlanishi va boshqa tomondan, o‘sib borayotgan shahar aholisiga xizmat ko‘rsatishga e’tibor qaratilishi talab qilinadi. Shunday qilib, rejalashtirilgan savdo maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarining klassik to‘plamlari paydo bo‘ladi.

6.O‘zbekistonda shahar markazlarini qayta qurish bo‘yicha dastlabki urinishlar yetarli darajada muvaffaqiyatli bo‘lmadi. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari qayta qurilmoqda, do‘konlar va savdo nuqtalarining ahamiyatini hisobga olmagan holda keng transport yo‘llarining har ikki tomonida joylashganligi sababli mavjud uchastkalarning foydalanish samaradorligi va transport aloqasi hisobga olinmagan.

Natijalar bo‘limi: Savdo markazini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun o‘ta muhim joylashgan hudud hisoblanadi. Savdo markazini joylashtirish uchun viloyat markazining boshqa aholi punktlari bilan transport aloqalari hisobga olinishi kerak. Qurilish uchastkasi uchun mos geografik joylashish hududni tavsiflovchi iqtisodiy jihatlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy jihatlar aglomeratsiya yadrosining savdo va xizmat ko‘rsatishga moslashganligi bilan bog‘liq. Savdo markazini ko‘r-ko‘rona tashkil etish xavfini oldini olish uchun, har doim tanlab olingan yer mavjudmi yoki hali ham tegishli joy topilmaganidan qat’iy nazar, savdo markazi joylashgan hududning mohiyatini hisobga olish kerak [5,6,7,8].

Agar hudud allaqachon tanlab olingan bo‘lsa, unda iqtisodchining ishi qurilish maydonining aglomeratsiya doirasida iqtisodiy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Uning tadqiqotlari natijalari, u yoki bu tarzda, tanlangan joy savdo markazini qurish va rivojlantirish uchun mos yoki yo‘qligini hal qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Agar masala ijobiy hal etilsa, olingan ma’lumotlar asosida savdo markazining hajmi va tuzilishi aniqlanishi kerak [5,6,7,8,9].



1.Rasm. Ushbu tadqiqot metodologiyasi puxta va to‘g‘ri tahlil qilinganida, odatda aglomeratsiya ahamiyatiga ega savdo markazi qurish uchun eng maqbul joyni aniqlashga yordam beradi.

Biroq, mavjud hududni tavsiflash uchun yoki savdo markazining yangi joyini yaratish uchun so‘rov ham o‘tkazilishi muhimdir va asosiy tadqiqot usullari juda o‘xshash bo‘ladi [7,9,10].

Iqtisodiy tahlilning maqsadi batafsil iqtisodiy ma’lumotlarni olishdir, shunda savdo markazi qurilishi kutilayotgan ma’lum bir joy uchun maqbul bo‘lgan chakana savdoning taxminiy hajmini aniqlash mumkin bo‘ladi. Har qanday iqtisodiy tahlilda odatda quyidagi omillar o‘rganiladi: aholi daromadi, aholining xarid qobiliyati, raqobatdosh do‘konlar, kelajakdagi savdo markaziga yaqinlashish qulayligi va boshqa sharoitlar. Savdo markazi joylashgan joyni belgilovchi asosiy omil bu aholi masalasidir. Agar butun aglomeratsiya aholisi savdo markazidan foydalansa, unda iqtisodiy samaradorlik yuqori bo‘ladi [2].

Savdo markazining muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlash uchun uning joylashuvi aglomeratsiya tarkibiy qismlari bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun, agar kelajakda markazning kengayishini nazarda tutsak, unda bu dastlabki rejalashtirishda ta’minlanishi kerak. Agar boshida bunday choralar ko‘rilmagan bo‘lsa, unda ba’zi bir istisno holatlarida, yerni qo‘shimcha ravishda olish sharti bilan, markazni kengaytirish hali ham mumkin.

Biroq, bunday kengayish uyg‘unlashgan va juda muvaffaqiyatli bo‘lish ehtimoli juda kamayadi. Ba’zi hollarda markazlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga dastlabki loyihada ko‘zda tutilmagan qo‘shimcha binolarni qurish orqali erishish mumkin. Bunday kengayish uchun zaxira joy ko‘zda tutilmaganligi sababli, avval avtoturargohlar uchun foydalanilgan joyda yangi binolar qurilishi kerak va bu chora samaradorligini pasaytiradi. Bu esa qandaydir tarzda markazning dastlabki muvaffaqiyatini belgilaydi [3].

Shu munosabat bilan nafaqat yangi do‘konlarning, balki butun markazning aylanmasi ko‘pincha zarar ko‘radi. Markazning o‘sishini rejalashtirishda bu yerda ikkita asosiy masala ko‘rib chiqiladi: markazni kengaytirishni rejalashtirish va bosqichma-bosqich markazni rivojlantirish [3,7,8].

Shu bilan birga, individual do‘konlarni kengaytirish, yangi do‘konlarni qurish yoki markazni kengaytirishning ikkala usulini ham amalga oshirish imkoniyati ushbu imkoniyat yaqin yoki uzoq kelajakda ishlatilishidan qat’iy nazar, dastlabki reja tuzilayotganda yaratiladi.

Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun qo`yidagicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:



2.Rasm. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini loyihalashda ochiq, yarim ochiq, va yopiq turdagi arxitektura-fazoviy yechimlardan foydalanish tavsiya qilingan.

Markazni kengaytirishni rejalashtirish uchun juda ko‘p zaruriy shartlar mavjud. Asosiy shartlardan biri aglomerasion aloqalar rivojlanganligi va savdo markazini transport tugunlari bilan yaqinligi asoslab berilgan. Transport tugunlari jamoat transporti bekatlari bilan yaxshi bog‘lanishlarga ega bo‘lishi muhimdir. Atrofdagi asosiy yo‘llarning mumkin bo‘lgan o‘tkazuvchanlik quvvati qo‘shimcha transport yuklariga mos keladigan darajada bo‘lishi kerak. Hududda qo‘shimcha binolar, avtoturargohlar va transport harakati uchun zaxira maydonini saqlash uchun yetarlicha katta bo‘lishi kerak yoki qo‘shimcha daromad markazni kengaytirish paytida ikki yoki ko‘p qavatli avtoulovlar parkini qurish uchun kapital qo‘yilmalarni oqlashi kerak [3,5,6].

Munozara bo‘limi: Eng muhimi loyihachi markazni kengaytirishni rejalashtirayotganda, savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmua hajmi ortib borayotgan savdo salohiyati uchun daromad keltirishi mumkinligiga ishonch hosil qilinishi kerak. Agar savdoda, masalan, savdo majmua markazlari uchun mos hududlar mavjud bo‘lsa, unda kelajakda bunday raqobat ehtimoli katta. Ushbu holatlar oldin yaxshilab ko‘rib chiqilishi kerak va markazni kengaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi [3].

Kerakli piyodalar yo‘laklari va bo‘sh maydonlarga ega bo‘lgan qo‘shimcha do‘konlarning guruhi uchun maydon dastlabki hudud rejasining bir qismi bo‘lishi kerak va shunday qilib saqlanishi kerakki, savdo

markazining birinchi bosqichida sezilarli bo‘shliq paydo bo‘lmasligi kerak. Bunday holda, rejalashtirish ushbu yangi binolarni ilgari qurilgan markaz bilan to‘liq tartibga solishni ta’minlaydigan tarzda amalga oshirilishi kerak [4,5,6].

Savdo shaxobchalarining kengayishi natijasida avtoturargohlarga bo‘lgan talabni qondirish uchun bo‘sh joy ham zaxirada saqlanishi kerak. Ushbu maqsad uchun zarur bo‘lgan zaxira maydonini belgilashda uning avtoturargoh va piyodalar maydonlari o‘rtasida haddan tashqari katta masofalar yaratilmasligi uchun uning savdo markazining yangi yoki mavjud binolariga nisbatan joylashganligiga e’tibor qaratish lozim.

Dastlabki qurilish tugagandan so‘ng, ushbu zaxira maydoni savdo markazining umumiy ko‘rinishini buzmasligi uchun tegishli ravishda obodonlashtirilishi kerak. Yordamchi xonalarni, omborlar va tarqatish tizimlarini loyihalashtirish va qurishda ularni ortib borayotgan ehtiyojlarga mutanosib ravishda kengaytirish choralarini ko‘rish hisobga olinishi zarur.

Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini rivojlantirishda rejaviy xilma-xillik va kompozision birlikka erishish yo‘llari tavsiya qilingan.

Xulosa: Kelgusida aglomerasion darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini zamonaviy shaharsozlik talablar darajasida loyihalash amaliyoti va qurishni yanada takomillashtirish masalasini hal etishda arxitektorlar va qurilish sohasidagi kadrlar zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan bo‘lishi kerak.

Ana shu nuqsonlarni bartaraf etish, fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish, zamonaviy me’morchilikning eng yaxshi qirralarini o‘zaro uyg‘unlashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir [7,8,9,10,11].

Adabiyotlar

1. Беддингтон, Н. Строительство торговых сентров. Москва. Стройиздат: 1986.
2. Грюн, В. Смит, Л. Торговые центры США. Москва. Стройиздат: 1966. 3-8 бет
3. Градостроителний кодекс Узбекистана-Тошкент: 2021.
4. Гослинг Д., Мэйтленд Б. Проектирование торговых комплексов. Пер. с англ. Д. Копедянского, вод. ред. И. Федосеевой М., Стройиздат, 1979.
5. Мейтленд, Б. Пешеходне торгово-общественние пространства. Мейтленд Б. пер. сангл. – М.: Стройиздат, 1989. - 206 с.
6. Орлов М.А., Федосеева И. Р. идр. Проектирование сетипредприятий торгово-битового обслуживанияв городах. М., Стройиздат. 1975
7. Eshatov, I. K., & Achildiyev, R. M. (2023). Placement of commercial and domestic service complexes taking into account natural and climatic regions in the regions of Uzbekistan. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 80-86.
8. Ikrom, E. Historical bazaars of central asia–predictors of modern shopping centers. *International Journal on Integrated Education*, *2*(4), 23-27.
9. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., ... & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In E3S Web of Conferences (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.
10. Eshatov, I. K., Aymatov, A. A., & Soliyev, F. F. (2023). Regional Location of Commercial and Household Service Complexes in Uzbekistan Regions Taking into Account Natural-Climatic Conditions. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(10), 31-38.
11. Eshatov IQ. O`zbekiston viloyatlari markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini arxitektura-loyihaviy shakllantirish xususiyatlari. // ISBN 978-83-66216-90-7 © iScience Sp. z o. o. Warszawa – 2024.

JIZZAX VILOYATI TURAR JOY BINOLARINING SHAKLANISH TAMOYILARI

Xalikov Sindorkul Ravshanovich
Jizzax politexnika instituti, Arxitekturaviy loyihalash kafedrasi dotsent
Narziyev Faslidin Nuraliyevich
Jizzax politexnika instituti magstranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyati jizzax shaharlaridagi turar joy binolarining rivojlanish bosqichlari va hozirgi kundagi axvoli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek ularning shakillanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganilgan. Jizzax an’anaviy turar joy uylarini o‘ranilgan, xozirgi xolati kuzatilgan. Jizzax shaharidagi mavjud turar joyuylarining arxitekturaviy loyihaviy shakillanishlarini o‘rganilgan va tahlil qilingan. Jizzax viloyati turar joylarning muomolariga ayrim yechimlar va loyihaviy takliflar keltirib o‘tilgan. Tadqiqot izlanishlar kelajakda ushbu hududa yashovchi aholiga har tomonlama qalay, inovatsion tehnologiyalardan foydalanib zamonaviy shu bilan birga an’anviylikni o‘zida saqlab qolgan turarjoy uylarini bunyod etishdir.

Kalit so‘zlar: Qadimiy, turar joy, me’ros, ayvon, uylar, hovli.

Me’morchilik tarixan chuqur ildizlarga ega sohalardan biri. Uning rivojlanish davrlari insoniyatning rivojlanish davrlari bilan, qisqacha aytganda arxitektura insoniyat bilan birga rivojlanish davrlarini bosib o‘tgan. Ushbu fikirni quyidagi ma’lumotlarda ko‘rishimiz mumkun.

Insoniyat yaralgandan buyon izlanishda intilishda bo‘lishganlar. Har doim yangilik topish asosiy maqsadlardan biri bo‘lgan. Shu boisdan ham turar joy

binolari insonlar singari rivojlanishda bo‘lgan. Turar joy sifatida insoniyat oldin tabiiy pana joylardan foydanilgan. Undan keyin turli tabiiy materiallardan chaylalar qurib shularda yashashgan. Qurilish materiali sifatida hayvon terilari yag‘och materiallari toshlardan foydalanishga. Undan keyin insonlar tuproq, toshlar hamda daraxtlar uyg‘unligida ilk turar joy namunalarini yaratib shu uylarda umirguzoronlik qilishgan.

Markaziy Osiyodagi shaharlar va aholi punktlarini shakililanish tarixi ko‘plab omillar bilan (ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi, etnik xususiyatlar va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lgan xalq uy-joylarini tarixiy-etnografik o‘rganishdagi o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olmaslik mumkin emas. Katta shahardan kichik qishloqlarga qadar aholi punkti va uning hududidagi uy-joylarning shakllanishi doimiy o‘zaro bir- biriga ta’sir edadi. Shuning uchun uy-joy tarixini aholi punktlari tarixidan ajratib bo‘lmaydi. Aholi punktlarining tipologiyasini yaratish va bunday tipologiyaga asos bo‘la oladigan umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash etnografiyaning dolzarb vazifasidir biridir. Bu juda muhim mavzu bo‘lib, afsuski, hali ham yaxshi to‘laqonli o‘rganilmagan O‘rta O‘zbekiston aholi punktlari, qishloq va shahar aholi punktlarining turlari haqida bir qator olim va loyihachilar ishlarida tadqiq qilingan. Bular jumlasiga O‘rta va ko‘p qavatli turar joy binolari arxitekturasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan mahalliy olimlarimizdan O.S.Djabbor [1], R.T.Toshtemirov [2], V.Akobjanyan, A.Saidov, P.Zoxidov [3], A.Farmonov [4] Бобобеков Б.К [8] larni ko‘rsatish mumkin. Shu bilan bir qatorda A.M. Rimsha, I.S. Suxanov, V.M. Firsanovlar o‘z nazariy asarlarida issiq va quruq iqlimga xos bo‘lgan yechimlar xususiyatlarini ochib berishgan. Shu bilan birga turli profildagi mutaxassislar, o‘z maqolalarida ma’lumotlar berib o‘tishgan, bu masala bilan eng avvalo, geograflardan. O. A. Suxareva va N. Tursunov o‘zining “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari” maqolasida aholi punktlari turlarining qisqacha tavsiflaridan tashqari ushbu mintaqa uchun etnografik materiallarni umumlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tish bilan birga, shaharni, shaharchani, savdo qishloqlarini, turli xil qishloq aholi punktlarini aniqlash mezonlari va biz qishloq va shahar aholi punktlarining etnografik tipologiyasini yanada rivojlantirish uchun tvsiyala ishlab chiqgan.

Markaziy Osiyo tarixiy-etnografik atlasinin o‘rganish va tayyorlash xalq uy-joy qurilishini o‘rganishda muhim bosqichi bo‘lib, turar-joy binolarini tiplashtirish, tadqiqotchilar uchun mavjud bo‘lgan barcha muhim materiallarni tizimlashtirish zarurligini ko‘rsatib turibdi, shu bilan birga xalq uylarining arxitekturasi yoki ma'lum bir mintaqani o‘rganishga bag‘ishlangan mavzuda ko‘plab nashrlarda to‘xtalib o‘tishgan.

Sovet davrida, xalq uy-joylarini bir qator mutaxassislar tadqiqot ob’ektiga aylantirish sababli, O‘rta Osiyo respublikalari aholisining ananaviy me'morchiligiga bag‘ishlangan bi qator asarlar paydo bo‘ldi, ular orasida birinchi navbatda V. L. Voronina, A. K. Pisarchik va G. A Pugachenkova." O‘rta Osiyo aholisining turar-joy binolari to‘g‘risidagi ma'lumotlarning to‘planishi O‘zbekiston hududidagi mahalliy me'morchilik maktablarini (Farg‘ona, Buxoro, Xiva, Samarqand va Shahrisabz) aniqlash, ularning xususiyatlarini tavsiflash imkonini berdi.

O‘zbekistonda ananaviy turar-joy binolarini rivojlantirish muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan Respublikamizda so‘nggi yillarda shaharlar va tuman markazlarida arxitektura ob’yektlari va komplekslari, shaharsozlik ansambillari, ayniqsa turar joylar arxitekturasini yaratish va qurish borasida katta hajimdagi ishla amalga oshirildi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqiyot strategiyasida “Respublika xududlarining arxitektura qiyofasini tubdan yaxshilsh, obodonlashtirish va aholi turmish darajasini oshirish” vazifasi alohida takidlab o‘tilgan. Shu bilan birga turarjoy maskanlari arxitekturasini zamonaviy va an’anaviy talablar asosida shakilantirish, ularning zamonaviy turlarini barpo etish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqmoqda.

Mamlakattimizda bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Shular qatorida arxitektura ham o‘rin olgan. Yurtimizning barcha hududlarida, poytax, viloyatlar, shahar va tumanlarda, eng chekka hududlarimizda ham bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Buning natijasida viloyat markazlari yangi zamonaviy va an’anaviy arxitekturani o‘zida umumlashtirilgan ko‘rkam ko‘rinishlarga egadir. Qishloq va shaharlarning ko‘rinishi tubdan isloh qilindi. Bugungi kunda respublikamizda yuqori takidlab o‘tilgandagi qurilish ishlarini amalga oshirish uchun 23,8 mingta pudrat tashkilotlari, 31 bosh loyiha instituti va 1000 ga yaqin loyiha tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Arxitektura sohasini jadal rivojlantirish, qurilishda yangi texnologiyalar va energiya tejamkor materiallarni qo‘llash, qurilish pudrat va loyiha tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ular uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish soha rivojining yangi davrini boshlab berdi. Sohada keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunga kelib arxitektura sohasi o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi.

Bu mintaqa Rossiyaga qo‘shilganidan keyin sezilarli o‘zgarishlarga uchragan eski an’anaviy uy-joylar Buyuk Oktyabr Sotsialistik inqilobi va undan keyin aholi iqtisodiyoti va madaniyatidagi tub o‘zgarishlar yangi, yanada ilg‘or turar-joy turlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. turar-joy binolari tarixida bir qator davrlar, masalan, urushdan oldingi, urushdan keyingi va hozirgi bosqichda, mamlakatimizda kommunistik qurilish davrida ko‘plab omillar aniqlangan Sovet turmush tarzi turli hududlarda etnik o‘ziga xoslikni saqlab qolgan holda, Markaziy Osiyo uy-joylari umumiyligini oshirishga olib keladi, bu esa tadqiqotchilarni tarixiy rivojlanishda turar joyni ko‘rib chiqishda yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ularning turlarining fazoviy-geografik kontinuumdagi ketma-ketligini to‘g‘ri belgilab berish va mohiyatan xalq qurilishidagi arxitektura uzluksizligi va xalq uylarining alohida turlarining maydonlarini aniqlash kabi muhim masala echimini aniqlash lozimligini ko‘rsatdi.

Xozirda qurilayotgan zamonaviy turar joy binolariga yillar moboynida sinovlardan o‘tgan ana’nalardan zamonaviy arxitekturaviy yutuklarni uyg‘nlashtirish bugungi kunda arxitektorlardan talab qilinadigan asosiy masaladir. Bunday uyg‘unlik turar joy uylarining ularda hayot kechiradigan aholi uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lishi lozim.

Endilikda nafaqat mahaliy me’moriy qonuniyatlarga balki dunyo me’moriy qonun qoidalariga to‘xtalib o‘tishni davr talb etmoqda. Bunga sabab shiddat bilan rivojlanishlarni keltirishimiz mumkun. Talablar esa kundan kunga oshib bormoqda, aholi soni oshyapti, ularning turmush tarzi yaxshilanmoqda. Barchani go‘zal, zamonaviy, shinam uylarda yashashni istaydi, biz arxitektorlar anashunday uylar, nafaqat uylar bino va ishnoatlarni yaratmoqimiz asosiy vazifamiz va bu burchimizdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Har bir o‘lka, shahar xalqlarining madaniyati, xayot tarzi, turar joylari tuzilishi ko‘pchilikni qiziqtirib keladi. Chunki ular har joyda har xil bo‘lgan. Turar joy kompozitsiyasiga o‘sha joining iqlim sharoiti, geografik o‘rni, landshafti, tabiiy boyliklari va xalqning turmushi o‘z tasirini ko‘satadi. Arxialogik qazilmalar natijasida ochilgan bir nechta ming yil moboynida yer qarida qolib ketgan qadimiy makonlar, ulardagi ashyoviy topilmalar o‘sha makon xalqining madaniy taraqqiyotini, urf odatlarini, kasbi korini aniqlay olish imkoni beradi.

Tadqiqot obyekti. Jizzax shaharidagi kam qavatli turar joy binolari.

Tadqiqot predmeti. Jizzax shaharidagi kam qavatli turar joy binolari, ularning arxitekturaviy - tarhiy yechimlari, tarhlari, tarzlari, xonalar tarkibi va ularning o‘zaro jayloshuvi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Jizzax shaharida qadimiy uylarni arxitekturaviy yechimlarini taxlil qilish va chuqurroq o‘ganish asosiy masaladir. Kutilyotgan gipoteza esa axolini kundalik turmush tarzi uchun o‘zida an’anaviylikni saqlab qolgan zamonaviy kam qavatli turar joy binolarini shakillantirish va tadbiq etishdir.

Tadqiqotning amaliy axamiyati shundan iboratki, O‘zbekiston xalq me’morchiligi tarixining xali to‘laligicha o‘rganilmagan tomonlarini ochib berish shu bilan birga turar joy me’morchiligida asrlar davomida shakillangan ijobiy an’analarini yangi uyjoy loyihalarida va qurilishda unumli foydalanish.

Tadqiqotning vazifalari :

- Jizzax viloyati tarixiy xududlaridagi an’anaviy uylarni shakillanishini o‘rganib chiqish;
- Viloyatdagi zamonaviy kam qavatli uylarni o‘rganish;
- Iqlimning kam qavatli turar joylarga tasirini o‘rganish;
- Jizzax viloyati kam qavatli turar joy binolari arxitekturasida ekologik tadbirlar o‘rganish;
- Kam qavatli binolarning konsturiktiv yechimlari bilan tanishish;
- Jizzax shaharida kelajakda turar joy binolari rivojlanishi strategiyasi, satsiologiyasi, tipologiyasiga tavsiyalar berish;
- Jizzax shaharlarida yangi kam qavatli turar joy loyihalariga ilmiy takliflar berish;

Respublikamiz hududi turli iqlim sharoitlariga va tabiiy tuzilish jihatidan bir birini takrorlamasligi qurilish sohasiga kata tasir o`tkazadi. Nafaqat iqlim sharoiti balki turmush tarzi an’analari turlichadir. Shu sababli, mamlakatimizni turli xududlarida turar joylar arxitekturasi, turlicha tarhiy yechimlarga egadir. Garchi xozirgi paytda mamlakatimizning barcha hududlarida na`munaviy uylar axoliga qurib berilyotgan bo`lsada axolida turar joyga bo‘lgan talabni to‘la qonli qondirmayapti. Shu sababli individual kam qavatli turar joy binolarini qurilishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda [10].

Zamonaviy kam qavatli turar joy uylarida chet el tajribasi bilan bir qatorda o‘zimizning ming yillar moboynida shakillangan turar joy tajribasidan unumli foydalanish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu ikki yo‘nalishni umumlashtirib mamlakatimiz axolisiga qulay shinam va albatda ko‘rkam kam qavatli turar joy arxitekturasini shakillantirish asosiy maqsadimizdir.

Zamonaviy shahar qurilishi – shunday murakkab organizmki, xattoki uning jihatlari tog‘risidagi chuqur bilim va intuitsion aniqlashda yetarli darajada bo‘lavermaydi. O‘zbek milliy me’morchiligining o‘tmishini taxlil qilib va O‘zbekistondagi zamonaviy turmush tarzini diqqat bilan o‘rganib, shuni aloxida ta`kidlash lozimki, turar joyning ushbu konsepsiyasini chetga surib qo‘yish uchun hech qanday sabab yo‘q va bunga bizning hech qanday haqqimiz ham yo‘q.

Har bir shahar, viloyat, tuman va qishloq uchun uy-joy tanlashda ularda yashaydigan aholining demografik tarkibini e’tiborga olish katta ahamiyatga ega. Respublikamiz aholisining demografik tarkibi, albatta, boshqa davlatlarnikidan o‘zgachadir. Ayniqsa, bu Boltiqbo‘yi davlatlari va Belorussiyadagidan katta farq qiladi. O‘zbekistonda aholining bir yillik o‘sishi 3 % ni tashkil etadi. Boshqa qo‘shni davlatlarga nisbatan bizning respublikamizda ko‘p bolali oilalar soni ancha ko‘proqdir. Bu esa, o‘z navbatida, ko‘p xonali xonadonlarning nisbiy foizini oshirishga olib keladi. Turar joy uyini tanlashda tub aholining qaysi hunarlar bilan mashg‘ul bo‘lishini e’tiborga olish ham eng asosiy omillardan biridir. Ilm- fan va san’at ahllari uchun uyda qo‘shimcha xonalar qurilishi xonadon tarkibi va tarhini belgilashda hisobga olinishi kerak. Xalqning urf-odatlari ham xonadon tarkibiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘zbek xalqining eng asosiy urf-

odatlaridan biri bu ochiq havoda ko‘proq vaqt o‘tkazishdir. Bu odat mamlakatimizning tabiati, iqlim sharoitidan kelib chiqqan bo‘lib, xonadon tarkibiga ochiq yozgi xonalar, ayvonlar va supalar kiritishni taqozo etadi. Bu yerda aholi mehmon kutadi, dam oladi va uxlaydi. Uyning turini tanlashga uning qayerda joylashgani ham ta’sir qiladi. Uy joylashgan joy shahardami, qishloqdami, shahar markazidami yoki chetidami – shunga qarab har xil talablar paydo bo‘ladi. Undan tashqari, yerning past-balandligi, uyni o‘rab turgan tabiat iqlim sharoiti, tuproq tarkibi va seysmik holatlari ham uy turini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bu narsaga tabiiy iqlim sharoiti katta ta’sir qiladi.

Respublikamizning shimol va janubida quriladigan uylar bir-biridan farq qiladi, undan tashqari, nam va quruq iqlim, tog‘ yoki pastliklar, sahro va nam yerlarning ta’siri ham turar joy me’morchiligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tog‘lardan, sahrolardan, tekislik va pasttekisliklardan, ko‘kalamzor, lalmikor yerlardan tashkil topgan. Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida turar joylarni hamma yerda bir xil loyihalashtirish va qurish katta xatoliklarga olib kelishi mumkin. Respublikamiz ilmiy tekshirish institutlari tomonidan tabiati, iqlim sharoiti, yer qimirlashi hisobga olingan xaritalar ishlab chiqilgan. Shu xaritalarga qarab me’morlar va qurilish mutaxassislari uylarning turlarini tanlaydilar, undan foydalanadilar va quradilar.

Uylarni tanlash va qurishga mahalliy qurilish sharoitlari, ya’ni qanaqa qurilish texnikasi, ashyolari va materiallarining borligi, qurilish-texnik jihozlari va asboblarning ahvoli ham ta’sir etadi. Lekin bu narsalar o‘zgaruvchan bo‘lib, ular umumiy texnik-iqtisodiy rivojlanishga, fan va texnika yutuqlariga ham bog‘liq. Shuning uchun loyihalovchi me’morning oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifa – bu hamma shart-sharoitlarni to‘la o‘rganib chiqib, keyin eng zarur, qulay, chiroyli va arzon uy-joy binosini loyihalashdir.

Aslida *Xonadon* deb, bitta oilaning yashashi uchun mo‘ljallangan va shu maqsadda bir-biriga funksional bog‘langan xonalar guruhiga aytiladi. Xonadon turar joylarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu xonadonlarda oila a’zolari o‘zining asosiy vaqtini o‘tkazadi, dam olishadi, uxlashadi, ovqatlanishadi, mehmon kutishadi, ayrim hollarda ishlashadi. Xonadon xonalari yashash, yozgi va yordamchi xonalarga bo‘linadi.[3]

Yashash xonalari tarkibiga mehmonxona, umumiy xona, ishlash uchun xona, katta yoshdagilar uchun yotoqxona va yosh bolalarning uxlashi, o‘ynashi uchun xonalar kiradi. O‘zbekiston sharoitida har bir xonadon yozgi ayvoniga ega bo‘lishi kerak. Yordamchi xonalarga oshxona, dahliz, hojatxona, qo‘l yuvadigan joy, yo‘laklar, qaznoqxonalar, tokchalar, taxmonlar kiradi. Devorlarning qalinligi xonadonni qishda sovuqdan, yozda esa issiqdan, shu bilan birga, ko‘cha shovqini va changdan saqlashi kerak. Bulardan tashqari, ichki va tashqi devorlar tovush o‘tkazmaslik xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Zaruriy sanitariya-gigiyenik sharoitni yaratishda muhandislik jihozlaridan foydalaniladi. Xonadonlarda umumiy isitish, sovuq va issiq suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, sun’iy shamollatish va boshqa muammolar hal etilgan bo‘lishi lozim. Eng kerakli tadbirlardan biri sanitariya-gigiyenani yaxshilash, O‘rta Osiyo sharoitida xonani quyoshdan asraydigan qurilmalardan foydalanish lozim.

Xonadon xonalari soniga qarab kam xonali (1 ta yashash xonali), o‘rtacha (3–4 ta yashash xonai) va ko‘p xonali (5 va undan ko‘p xonali), o‘lchoviga qarab kam maydonli va mukammal xonadonlardan iborat bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra xonadon bir yoki ikki qavatli bo‘lishi mumkin. Umumiy xona maydonining yuzasi 18 m^2 dan kam bo‘lmasligi kerak. Xonalar soni ortib borgan sari, umumiy xona maydoni ham oshib boradi. Umumiy xonaning eni 3,5 metrdan kam va bo‘yi 6 metrdan ortiq bo‘lmasligi kerak. Umumiy xonaning nisbatlari, ya’ni eni bo‘yiga nisbatan 1 : 2 nisbatda bo‘lishi qulay hisoblanadi.

Umumiy xonaning eni va bo‘yini to‘g‘ri tanlash xonaga mebellar, har xil kerakli uy jihozlarini unumli va qulay joylashtirishga hamda xonani to‘g‘ri yoritishga yordam beradi. Umumiy xona dahliz bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan bo‘lishi shart. Oshxona bilan umumiy xona bog‘liqligi qulay, lekin to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lishi shart emas, ularning yo‘lak yoki dahliz orqali bog‘lanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yozgi xona, ayvonning ahamiyati juda katta bo‘lib, u yoz paytida umumiy xona vazifasini o‘taydi va umumiy xonaga qaraganda yorug‘roq va salqinroq bo‘ladi. Shuning uchun umumiy xona bilan yozgi xona orasiga yig‘ma transformatsion to‘siqlar ishlash va, kezi kelganda, ularni birlashtirish uchun sharoit yaratish zarur. Umumiy xonadan faqat bittagina yashash xonasiga kirishga ruxsat beriladi. Ko‘p xonali xonadonlarda bitta xonani mehmonxona uchun ajratish mumkin. Bunday holatda umumiy xonaning o‘lchovlarini qisqartirish mumkin. Mehmonxonani umumiy xona yoniga joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bular orasida yig‘ishtiriladigan to‘siqlar o‘rnatilib, vaqti-vaqti bilan ularni birlashtirib turish mumkin bo‘ladi. Mehmonxona bilan umumiy xonaning oriyentatsiyasi g‘arb va janubi-g‘arbdan tashqari boshqa barcha tomonlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Agar bu xonalar shimol tomonga qaratilsa, unda ularning oldiga yozgi xona, ya’ni ayvonni joylashtirish man etiladi.

Xulosa: Ushbu izlanishlar natijasida hozirgi kunda mavjud bir qancha muammolarga echim topish maqsadida quyidagi taklifni kiritdek: bizlar qadimiy ayvonlarni bir qancha o‘zgartirishlar bilan zamonaviy turarjoylarda qo‘llash lozimligini taklif qilamiz. Maqsad yillar mobaynida sinalib, urganib bunyod etilgan ayvonlar hozirgi kunda ham bizlarga samarali ravishda faoliyat ko‘rsatishini aytib o‘tish. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shaharlarning rivojlanishi bilan bund etilayotgan turarjoylarning janub tomoniga qaralgan xonalarni ichki iqlimini mo‘tadil tutish maqsadida aynan janubga qaratilgan ayvonlardan

foydalanish nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Turarjoyda ayvondan keyin albatta bog', bunyod qilish u erda mevali yoki manzarali daraxtlarni ekish orqali uyda iqlim mo'tadilligini saqlash mumkin bo'ladi. Ayniqsa gujum daraxti samarali salqinlik beradi.

Ushbu maqolada Jizzax viloyati turar joy binolarilarini arxitekturaviy takomillashtirish maqsad qilib olingan edi. O'tkazilgan tadqiqot natijasida Jizzax viloyatining turar joy binolarining o'ziga xosligi bu uning tarxiy yechimi yaxlid xolda rejalashishi. Biz yosh arxitektorlar oldiga qo'yiladigan maqsad bu zamonaviy arxitekturaviy yutuqlar yonida o'zligimizning an'analarimizni unutmasligimiz, ota bobolarimiz tomonidan yillar moboynida bunyod etilgan ulkan tarjibalardan unumli foydalanishdir. Shu bilan bir qatorda milliyligimizga zamon talablarini ham uyg'unlashtirib badiiy-kompozitsion yechimlarini o'zaro uyg'un, ixcham, qulay muhitga mos turar joy binolarilarini arxitekturaviy takomillashtirish zarurdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Джаббор О.С Новый тип жилища для Бухары. Строительство и архитектура Узбекистана, 1980.№7с.24-29
2. Тоштемиров Р.Т Исследование обьемн-Планировочной структуры многоэтажных жилых домов в условях Узбекистана. Киев, 1984. Автореферaткан.дисс.
3. Зохидов П.Ш. Традиции народных зодчих Узбекистана. – Ташкент: Изд-во «Наука», 1964.– 8 с.;
4. Фармонов А.А Проектирование жилых домов свнутреними двориками для малых городов жаркого климата. Самарканд 2007.
5. H. M. Ubaydullayevning "Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari" kitobi, T., 2009;
6. Matchanov B. G.TAQI ilmiy konferensiyadagi maqola T 2018y.
7. Zahidova D. TAQI ilmiy konferensiyadagi maqola T 2019y.
8. Бобобеков Б.К Архитектурно-планировочная организатция сельского жилища Узбекистана с помещениями для индивидуальной трудовой деятельности Киев, 1995. Автореферaткан.дисс
9. Zoxidov M.M. Energiya samarador binolarni loyihalashning geliotexnik asoslari. Tex.f.d.(DSc) diss. Avtoreferati. – T., 2021
10. D. U. Isamuxamedovaning "Turar joy tumani loyihasi" o'quv qo'llanmasi, T., 2005;

UDK 711,424,3

TOG' OLDI HUDUDLARDA AHOLI TURAR JOYLARINI LOYIHAVIY YECHIMLARI

A.T. Rahmonov, B.T. Abdurahmonov
Alfraganus universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada togli zonalarda qishloq axoli punktlarinig zamonaviy loyihalari taklif etish, qishloqlarda zamonaviy turar joylar loyixalari bunyod etish va qishloqlarda sugoriladigan er maydonlarini saklab kolish..

Kalit so'zlar: Qishloq aholi punktlari, iqlimiy, reylif buyicha loyixalash


Annotation

This article rropose modern projects of rural settlements in mountainous areas, build modern housing projects in rural areas and maintain irrigated lands in rural areas.

Key words: Planning of rural settlements, climate, terrain.


Mamlakatimizning aholi sonining asosiy qismi tekislik, ya'ni har tomonlama qulay ijtimoiy iqtisodiy jihatdan har kimni o'ziga jalb qiladigan muhitda istiqomat qilishadi. Shahar aholi asosiy qismi bizning yurtimizda tekisliklarda istiqomat qilishadi. Geografik joylashuvi barchamizga ma'lumki asosan tekislik va past teksliklardir. Loyihaviy jixatdan ham biz bilamizki tekisliklarda nafaqat yashash balki loyihalar muhandislik tarmoqlari eng qulaydir. Men e'tibor qaratadigan jihat esa tog' oldi hududlar. Tahlil qilib ko'radigan bo'lsak mamlakatimzda aholining o'rtacha 15-25% qismi tog'li va tog' oldi hududlarda istiqomat qilishadi. Mening o'z tahlilim natijasida Samarqand va Qashqadaryo viloyati chegaradosh qismida tog' oldi hududida istiqomat qilib kelayotdan aholining joylashgan joyi dengiz sathidan 1000-2000m balandlikda ishtiqomat qilishadi. Tabiiyki bu juda ko'p omillarga qiyinchiliklar tug'diradi.(1-rasm) Omillarni qator qilib keltirib o'tadigan bo'lsak- iqlimiy, ijtimoiy iqtisodiy geografik va boshqa jihatlar qiyinchilik tug'diradi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan so'ngi yillarda aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshib bormoqda. Davlat dasturining ishlab chiqilishi va izchillik bilan hayotga joriy qilinayotgani bu sohada yangi davrni boshlab berdi.

Mazkur xaritada kurishimiz mumkinki Tojikiston respublikasi bilan tutash bo'lgan viloyatlar aholi yashash punktlari 2000m va undan balandda istiqomat qilishlari ko'rinib turibdi. Arxitektura nuqtai nazaridan rejalashtirilishini tashkil etish, ularda uy-joy va ijtimoiy ob'ektlar qurilishini loyihalashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.




1-rasm. Qashqadaryo va Samarqand viloyati tog'li hududlar dengiz sathidan balandlik ko'rinishi.

Bunday sharoitda aholi turar joy uylarini loyihalashda tog'li va tog' oldi zonalarda loyihalash, tekis er maydonlarini saqlash va qishloq xo'jaligi uchun maydonlarni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 51% qishloq joylarida istiqomat qiladi. Bugun qishloqlarimizdagi turar-joy massivlarida uy-joylar, tashqi muhandislik va transport-kommunikatsiya tizimi, ijtimoiy va bozor ob'ektlari bilan yanada mukamallik kasb etmoqda. Bu ishlarni moliyalash, qurilish ishlari hukumatimiz e'tibor markazida turibdi. Mazkur uy-joylar sifatli qurilish materiallaridan qurilmoqda. Bu uylar bir necha avlodlarga xizmat qiladi. Axolisining miqdoriga ko'ra ham aynan shu guruhdagi QFYlari eng katta ko'rsatkichlarga ega. Biroq, birinchi va ikkinchi guruhga tegishli Qishloqlari son jihatdan hali ham ustun bo'lsada, ularning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi, infratuzilma tizimining shakllanishda biroz qiyinchiliklar to'g'diradi. Ammo qishloqlarning tobora yiriklashib, kengayib borishi bunday muammolarni hal etish uchun zaruriy imkoniyatlar yaratadi.



2 rasm. Tog'li hududlarning aholi uylarining joylashuvi ko'rinishi.

O‘zbekiston respublikasi markaziy osiyo mitaqasida joylashgan bo‘lib, to‘rt fasl ham teng taqsimlanqandir. Birinchi navbatda O‘zbekistonning tog‘li zonalarida shu vaqtga qadar mahalliy aholi tomonidan bunyod etilgan turar joy va aholi punktlarini har tomonlama tahlil qilish muhimdir. Bu orqali esa mahalliy aholi tomonidan qurilgan binolarning tog‘li zonalardagi shart sharoitlari tahlil qilib o‘tamiz. (2-rasm)





3-rasm. Tog’li hududlarning yashash tarzi (O’zbekiston)

Aholi turar joylari va aholi tomonidan qurilgan binolar tog‘li reylifga o‘z navbatida joylashadi va hovli uchun katta bo‘lmagan maydon hosil bo‘ladi.

Tabiiy tog‘li sharoitdan kelib chiqib yashash uylari yerto‘lali qilib loyihalanishi, tekis joylashtirish uchun bu sharoit muhim hisoblanadi. Tog‘li erlarda aholi punktlari turar joylari xalq memorchilik mavjud matiriallaridan, toshdan cho‘pkoridan va paxsali devorlardan qurilgan. Shuning uchun ham tog‘li aholi punktlarida xalq arxitekturasi dizayn echimlari tabiiy qurilish matiriallari bilan xarakterlangan. Tog‘li zonalarida hunarmandchilik va memorchilik san’ati madaniyati ko‘proq Farg‘ona vodiysining tog‘li hududlari da keng rivojlangan. Biz buni tahlil qilib aytishimiz mumkinki, qurilish matiriallari arzonga tushishi va cho‘pkoridan qurilgan uylar esa zilzilga bardosh bera olishi o‘z isbotini topgan. Tabiiyki tog‘li zonalarda tekis yer maydonlari katta emas, bu sharoitda tog‘li zonalarda qishloq aholisi erdan unumli foydalanish uchun tekislik hosil qilib, yashab kelayotgan uyning osti esa uy hayvonlari(molllar va qo‘y qo‘zilar)ni saqlash, usti esa ekin va uy uchun hovli sifatida foydalanilgan. Tog‘li zonalari aholi turar joylari reylif sharoiti, iqlimi demografik tarkibi, va xo‘jalik turiga qarab turlarga ajratish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida tog‘ va tog‘ oldi zonalari aholining ijtimoiy qatlamidan kelib chiqib asosiy 4 ta guhuhlarga ajratishimiz mumkin. 1-Navbatda bo‘lib erkin loyihlanandigan hududlar er maydonlari keng miqyosda bo‘lib tog‘ bag‘ridan pastroqda joylashgan bo‘lib ekin maydonlari va bog‘dorchlik maydonlari tog‘dan pastroqda joylashgan bo‘ladi. 2- kichik aholilar uchun muljallangan bo‘lib, qishloq maydoni katta bo‘lmaydi.3- Aholi punklari baland tog‘li joylarda qurilishga mo‘jallanadi, ekin va qishloq xo‘jaligi uchun maydonlari juda kam bo‘ladi. 4- Aholi punklari uylari kichik kichik terassali uylarda loyihalanadi. Kichik hovlili uylar, qo‘shni hovli bilan bog‘langan holda loyihalanadi.



4- rasm.Tog’li hududlar uylarning joylashuvi (O’zbekiston)

Qashqadaryo viloyatida tog‘li zonalarada aholi uylari ikki oilaga muljallangan bo‘lib, uyning rejasida ikki xonali uylar, burchakli ayvonlar, uch xonali uylarda o‘rtasi ayvon shaklida bo;ladi. Yashash uylari esa peshayvon atrofi bo‘ylab joylashadi. Qashqadaryo bilan Nurota uylari loyihalari bir biriga o‘shashdir.

In areas with a population of more than 4,000 people, in 4-5–storey buildings, it is advisable to choose kindergartens for 280 and 330 places, which in most cases are convenient from the point of view of construction and economy. Where the population is less than 4,000 people, children's flat beds for 140 and 190 beds can be additionally selected. Preschool institutions are located on separate plots, the most convenient, isolated, ventilated and landscaped territories are selected for them. The perimeter of the territory should be surrounded by a protective strip of green spaces, placing this border at a distance of at least 10 m from residential buildings. [6]

When choosing a construction site for a building of preschool organizations, it is necessary to pay great attention to the cleanliness of the land, its sanitary condition, good ventilation and sunbathing, the absence of flooding, waterlogging, as close as possible to groundwater.

In the architectural design of preschool organizations, the projected territory should not be adjacent to outbuildings, kitchens, boiler rooms, garages, parking lots and other similar buildings of shops with poor sanitary conditions that spread unpleasant odors from themselves. They should not be built even in the case of standing ponds, garbage heaps, cemeteries, rural production and livestock farms, animal storage sites and livestock farms, animal storage sites and near pastures for livestock without a protective zone. A street in residential areas of preschool educational organizations buildings must have a limit of at least 15 m from the red line inside highways. At the same time, the main children's rooms (the play – dining room and the room for groups) should be oriented to the south or to the southeast and east. Children's rooms cannot be rotated to the north and northwest of the Hecht time. [7]

The service area of preschool educational organizations is an integral part of the children's institution. Here children play, play sports, sleep, take water treatments, sun and air baths in summer, walk, sledding and skiing in winter. Taking care of plants and animals, children get acquainted with nature here, acquire initial work skills.

All significant problems in the implementation of the project should be carefully taken into account when

planning the territory. In connection with them, the territory must have sufficient dimensions, appropriate equipment and housing.

The plot area is taken in the size of one place: in the ITC - in kindergartens for 90 places - 40 m2; for 140 - 320 places - in complexes for 35 m2, 560 and 640 places - 30 m2; in places with a harsh cold climate, the land area can be reduced to 25 m2 per place.

In recent years, due to the development of new forms of providing amateur services to the population, as well as public buildings and public complexes within the framework of primary consumer services, hotel-type housing and utilities, the appearance of residential buildings from 16 floors to 51 floors, a new type of activity is being established: non-governmental, private, family preschool educational institutions. [3]

Preschool educational organizations have a well-maintained territory, which includes: a child's physical development zone, a play area, an emotional development zone, a musical (theatrical) zone, a visual activity zone, a play area, a speech development zone, a natural zone, a role-playing games zone, an experiment zone and a book zone [3; 7]. In this case, the individuality of the design and its associative perception prevail, which should cause positive emotions in children.

Conclusion. When designing preschool educational organizations, special importance is attached to the architectural appearance and compositional solution of the building itself into the environment, improving the quality of architectural and planning solutions. Therefore, when designing a kindergarten, it is necessary to take into account the radii of public services in urban and rural areas. This not only contributes to the creation of comfort in urban and rural environments, but it is also necessary to take into account the problem of creating a protected area. [6]

Literatura

1. Resolution No. UP-3261 on measures to radically improve the system of preschool education content

2. Resolution PK-3955 on measures to improve the management of the preschool education system

3. Rakhimov Sh. The main task is to reach children with education.// - Journal of Preschool work, No. 3, 2017, pp. 2-3.

4. E.O. Salaponova 2016 - Using the project method in preschool institutions. Web of science

9. Ташматова, Х. С., & Камилова, М. Э. (2023). Методы Проектирования Детских Дошкольных Организаций В Городских И Сельских Районах. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, *4*(3), 49-52.

10. 5. Keldiyar, K. ., & Khosiyat , T. (2024). Features of the Design of Residential Buildings.Sustainable Civil Building Management and Engineering Journal, 1(2), https://doi.org/10.47134/scbmej.v1i2.2352

11. Abdiyev Hamza Jalolovich. (2022). MAKTABGA MUASSASALAR INTERERIDAGI MEBELLARNING AHAMIYATI. Britaniya global ekologiya va barqaror rivojlanish jurnali, 5,94–96. https://journalzone.org/index.php/ bjgesd/article/view/73

12. Keldiyar, K.., & Khosiyat , T. (2024). Features of the Design of Residential Buildings. Sustainable Civil Building Management and Engineering Journal, 1(2), . https://doi.org/10.47134/scbmej.v1i2.2352

ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TENDENSIYALARI

Faritdinov Jur’at Nurmuxammetovich
Alfraganus Universiteti, Umumkasbiy fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi.

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda arxitektura va shaharsozlik insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ular nafaqat binolarni qurish, balki shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada arxitektura va shaharsozlikning dolzarbligi, zamonaviy muammolar va ularni hal qilish yo'llari ,arxitektura va shaharsozlik sohalari va tendensiyalari haqida muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: Zamonaviy arxitektura, tendensiyalr,shaharsozlik , infratuzilmalar, bunyodkorlik, me’morchilik.

Annotation: In the modern world, architecture and urban planning have become an integral part of human life. They play an important role not only in the construction of buildings, but also in the development of cities, the formation of the cultural and social life of society, and the improvement of people's quality of life. This article discusses the relevance of architecture and urban planning, modern problems and ways to solve them, the fields and trends of architecture and urban planning.

Key words: Modern architecture, trends, urban planning, infrastructures, creativity, architecture.

Hozirgi kunda yurtimiz bo’ylab ,shahar-u qishloqlarimizda ko’kalamzorlashtirish va bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Qurilish – bunyodkorlik ,yaratuvchilik bu hayot talabi bo’lib,iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi.Shaharsozlik va qurilishga bo’lgan e’tibor yurtimiz iqtisodiga salmoqli hissa qo’shadi.Yangidan-yangi, zamon talabiga mos binolar, osmono’par inshootlar shahar ko’rkini ochadi. Maqolam boshida ikki atama, arxitektura va shaharsozlik atamalariga ozgina ma’lumot berim o’tsam:

Shaharsozlik –me’morlikning yirik sohasi hisoblanadi. Shaharsozlik deganda — aholi yashaydigan hududlarni loyiha asosida rejalashtirish tushuniladi. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilish-texnika, badiiy me’moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me’morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning

ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o‘z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me’morligi, bog‘ barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo‘linganligi, shahrida turar joylarning nafaqat me’moriy badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga — yo‘llar, ayniqsa, avtomobil yo‘llariga, infratuzilma (suv, oqava — kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta’minotlari)ga 291katta e’tibor beriladi. Shaharsozlikda yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), me’moriy majmualar (ko‘proq turar joy.mavzelari)ni bunyod etish bosh reja asosida amalga oshiriladi, bunda loyihalarni ishlab chiqish (tuzish) muhim o‘rin tutadi. (1-rasm).

Endi arxitektura atamasiga ta’rif berib o’tilsa, Arxitektura bino va inshootlarni loyihalash, qurish va bezatish san’ati; me’morlikdir. Arxitekturaning kelib chiqishi dastlab boshpana yaratishdan boshlanganligi tufayli bino va inshootlar ichida turar-joy me’morchiligi eng qadimiy soha hisoblanadi. Qolgan bino turlarining aksariyati turar joylardan kelib chiqqan.



1-rasm Shaharsozlik –tushunchasi : yangilangan aholi turar joylarining arxitekturasi va zamonaviy,qulay infostrukturasi misolida.

Dastlab ibodatxonalar, keyin ustaxonalar va undan so‘ng boshqa-boshqa imoratlar uy-joylardan ajralib chiqa boshlashi natijasida oldiniga soddaroq keyin esa maktab, kafe, teatr, fabrika singari murakkab bino turlari kelib chiqdi va bu uzluksiz davom etib boraveradi. Shuning uchun ham turar-joylar va ularning majmualarining shakllanishining estetik masalalarini o‘rganish hamma vaqt ham me’morchilik va shaharsozlikda o‘ta muhim masala hisoblanadi. Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi boiib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab boimaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo’lmaydi. Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan.Shuningdek ,arxitektura ta’limi 21-asr uchun haqiqatan ham barqaror yangi dizaynlarni ishlab chiqarishga yordam beradigan birinchi qadam bo’lishi kerak.

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me’morlik san’atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo‘llar, hiyobonu maydonlar, yirik suv inshoot va madaniy xordiq uchun mo‘ljallangan me’moriy majmualar hammasi shu san’atning turli ko‘rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi - arxitektori (me’mori) tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va inshootlaming nima maqsadga xizmat qilishi, ya’ni ulaming bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uning to‘g‘ri hal qilish esa me’morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi.

Yana bir tomondan -Arxitektura – sun’iy fazoviy muhit yaratish vazifasiga ega bo‘lgan shunday faoliyat sohasiki, qaysiki bunda jamiyat va alohida odamlarning barcha hayotiy jarayonlari sodir bo‘ladi – mehnat, xo‘jalik, ma’daniyat, munosabat, hordiq va boshqalar. Moddiy ishlab chiqarish sohasi kabi, arxitektura qurilish texnikasiga tayanadi, moddiy muhit kabi – jamiyatning ijtimoiy sharoitini aks ettiradi, san’at kabi – chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Binolar, inshootlarni va ular majmuasini me’moriy loyihalash bino vazifasi talablari, fizik qonunlar va estetik qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Arxitektura va shaharsozlik aslida - bu insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydigan, bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikki soha. Ularni quyidagicha tushunish mumkin:

- Binolarni loyihalash va qurish san'ati va fanidir. U binolarni estetik jihatdan chiroyli, funktsional va xavfsiz qilishga qaratilgan.
- Arxitektura binolarning ichki va tashqi dizaynini, materiallarni tanlashni, konstruktsiyalarni loyihalashni, energiya samaradorligini ta'minlashni, yoritishni, shamollatishni va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi.
- Arxitektura odamlarning turmush sifatini yaxshilash, ularga qulay va xavfsiz muhit yaratish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirishga qaratilgan.
- Shaharsozlik shaharlarning infratuzilmasini, transport tizimini, turar joylarni, jamoat joylarini, ekologik jihatlarini va boshqa ko'plab jihatlarini o'z ichiga oladi.2-rasm
- Shaharsozlikda shaharlarni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqiladigan soha.
- Shaharsozlik shaharlarda yashaydigan odamlarning hayot sifatini yaxshilash, ularga qulay va xavfsiz muhit yaratish, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan.

Arxitektura va shahrsozlik o'rtasidagi bog'liqlik :

Arxitektura va shaharsozlik bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shaharlarning infratuzilmasi va jamoat joylarini loyihalash arxitektura elementlaridan foydalanadi, binolar esa shahar kontekstida joylashgan bo'lib, shaharning umumiy estetikasiga ta'sir qiladi. Arxitektura va shaharsozlik insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi. Ular binolarni qurish, shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shaharsozlik keng miqyosda rivoj topib, zamonaviy me’morchilik yechimlari asosida shaharlarning qiyofasi kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Shu jihatlardan olib qaraganda, shaharsozlik inson madaniyati va ma’naviyatini rivojlantiruvchi omillardan biri bo‘lib qoladi.

Zamonaviy arxitektura va shaharsozlikning dolzarb mavzu sifatida ko’radigan bo’lsak:

- Shaharlarning tez sur'atlarda kengayishi va aholining ko'payishi tufayli turar joy va infratuzilma yetishmasligi, transport muammolari, ifloslanish va boshqa salbiy oqibatlarni nazarda tutgan holda.
- Energiya iste'moli va iqlim o'zgarishi global muammolarga aylanishi. Binolar va shaharlarning energiya samaradorligini oshirish muhimligi.
- Arxitektura va shahrsozlikning ijtimoiy adolat masalalariga, masalan, kam ta'minlangan oilalar uchun arzon turar joy ta'minlash, nogironlarga qulay sharoit yaratish,
- Tarixiy binolar va yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida.
- Zamonaviy texnologiyalar, masalan, 3D bosma, datchiklar, sun'iy intellekt arxitektura va shaharsozlikda yangi imkoniyatlar yaratilishiga asos bo’la oladi.



2-rasm .Ekologik toza shaharsozlik

Arxitektura va shaharsozlik dolzarbligi zamonaviy jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhimdir. Ushbu sohalarning muammolarini hal qilish uchun ekologik barqaror shaharlar yaratish, jamoat transporti tizimini rivojlantirish, arzon va qulay turar joylar qurish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va texnologiyalarni qo'llash kerak.

Yurtimizda shaharsozlik ko’lamini oshirish uchun ham bir qator harakatlar qilinmoqda.Shu sabab arxitektura va shaharsozlik sohalari jadal rivojlanayotgandur.Bunga yorqin misol sifatida:

Prezident tomonidan 2024 yil 10 sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun imzolanganini qayd etishimiz mumkin.

Ushbu kodeks orqali**:** Ma’muriy islohotlar doirasida bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini transformatsiya qilish munosabati bilan Shaharsozlik kodeksiga ushbu organlarning nomi va vakolatlarini aniqlashtirish, shuningdek aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi;

Qonun bilan Shaharsozlik kodeksiga O‘zbekiston hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish tarhlarini ishlab chiqish yo‘li bilan aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar ham kiritilishi;.

Hujjatning qabul qilinishi shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini, shuningdek O‘zbekiston hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli prognozlariga muvofiq shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Bundan o‘n yillar ilgari qurilgan uy-joylar bilan yurtimizning bugungi qiyofasini aslo solishtirib bo‘lmaydi. Bir paytlar xorij filmlaridagina ko‘rgan ajoyib qiyofadagi binolar bugun O‘zbekistonimizning barcha hududlarida qad rostlamoqda**. Bunga yorqin misol sifatida Tashkent city –ya’ni tarixda Olmazor va O’qchi mahallasi deb yuritilgan joy avval va hozirgi ko’rinishi judafarqli.Bu ham bo’lsa shaharsozlik va arxitekturaning natijasi.3-rasm**

Har qanday loyiha eng avvalo, puxta o‘rganish va izlanishlar natijasida yaratilishi kerak. Shu bois, loyihaga buyurtma olingach, eng avvalo, obe’kt sinchkovlik bilan o‘rganib chiqiladi. Masalan, baland qavatli bino qurilishi lozim, ammo uning atrofidagi imoratlar bir qavat bo‘lsa, bu vaziyatda buyurtmachi bilan kelishgan holda, Shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiq loyihaga boshqa yechim topiladi.



Markazdagi ulkan kvadrat — Tashkent City qurilish joyi. Yandeks.Karti. Toshkent 2017yil



(3-rasm)Tashkent ciy 2023yil

Maqolamning so’nggi bobida shaharsozlik tendensiyalarga ham to’xtalib o’tmoqchiman. Tendensiya o’zi nima?

Tendensiya bu Taraqqiyot yo‘nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish. Va

Ma’lum o‘y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g‘oyasi hisoblanadi. Demak shunday ekan arxutektura va shaharsozlikning ham o’ziga hos o’y-mulohaza qilinadigan g’oyalari bor.

Bizning hozirgi kunimizda shaharlar tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va bu jarayon turli xil muammolarni, jumladan, atrof-muhitni ifloslanishi, transport muammolari, ijtimoiy tengsizlik va boshqalarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy shaharsozlikda barqarorlik, innovatsiya va ijtimoiy adolatga asoslangan yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. Ya’ni :

Barqaror shaharlar tendensiyasida:

- Ekologik Tozalik : Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, havo va suv ifloslanishini kamaytirishi, karbon izini qisqartirish kabi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan strategiya.
- Yashil Infrastruktura: Yashil maydonlar, parklar, bog'lar, o'rmonzorlarni kengaytirish, shahar havosini tozalash, bioxilma-xillikni saqlash, shahar issiqlik ortishiga qarshi kurashish va yashash sifatini yaxshilash.(4-rasm)
- Suv Resurslarini Boshqarish: Suv resurslarini samarali ishlatish, suvni tozalash, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va suv ta'minotini yaxshilash.
- Iqlim O'zgarishiga Moslashish: Suv toshqinlari, issiqlik to'lqinlari, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlarga qarshi chidamli shaharlarni qurish.



4-rasm.

Innovatsion Texnologiyalar:

- Aqlli Shaharlar: Shahar infrastrukturasini sensorlar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari bilan jihozlash, transportni boshqarish, energiya samaradorligini oshirish, xizmatlarni yaxshilash va shaharni samaraliroq boshqarish.
- 3D Bosma Texnologiyalari: Arzon va tez quriladigan turar joylar, infratuzilma obyektlari va shahar jihozlarini yaratish, bu esa shahar qurish jarayonini tezlashtiradi va arzonlashtiradi.

Mobil Transport: Avtomobilga asoslangan transport tizimidan uzoqlashish, jamoat transportini rivojlantirish, piyoda va velosiped yo'llarini kengaytirish, transport tizimini optimallashtirish va shaharlardagi tirbandlikni kamaytirish.(5-rasm)



5-rasm.Piyodalar va velosipedlar uchun yo’laklar aks ettirilgan surat

Ijtimoiy Barqarorlik tendensiyasida

- Inklyuziv Shaharlar: Barcha aholi qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, nogironlarga qulay sharoitlar yaratish, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, shaharni barcha uchun qulay va xavfsiz qilish.
- Ijtimoiy Infrastruktura: Bog'chalar, maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari va boshqa ijtimoiy obyektlarni rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy hayotni yaxshilash.
- Jamoat Makonlari: Ochiq, funksional va estetik jihatdan yoqimli jamoat makonlarini yaratish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va shahar hayotini boyitish.

Shahar Dizayni va Estetika:

- Shahar Landshaftlari: Shaharni go'zallashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish, haykallar va me'moriy yodgorliklarni qurish, shaharni estetik jihatdan yoqimli qilish (6-rasm).
- Funksional Dizayn: Shaharni rejalashtirishda funksionallik va ergonomikaga e'tibor qaratish, yo'llar va piyoda yo'llarini qulay va xavfsiz qilish, infratuzilmani yaxshilash va shaharni foydalanuvchilarga qulay qilish.



6-rasmToshkentda ladshaft dizayni yordamida alleyalar.

Xulosa qilib aytganda, Arxitektura va shahrsozlik insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi. Ular binolarni qurish, shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilganligini yuqorida ta’kidlab o’tdim va albatta , zamonaviy shaharsozlik tendensiyalari shaharlarni ekologik toza, barqaror, inklyuziv va innovatsion qilishga qaratilgan. Ushbu tendensiyalarni

amalda qo'llash orqali biz o'sib borayotgan shaharlarni kelajakda yashaydigan va rivojlanadigan joyga aylantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1.BIOURBANIZM – TABIAT VA SHAHARSOZLIK A.Q. Baydjanov Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi B.A. Polvanov Urganch davlat universiteti stajyor o'qituvchisi Toshkent 2022

2. KADABAYEVA SHAXNOZA SAIDJANOVNA «ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK ASOSLARI» 2023

3. M.MUXAMEDOVA " ME'MORCHILIK ASOSLARI" T-2018

4. X. PO'LATOV SHAHARSOZLIK TARIXI T-2008

5. M.Q Ahmedov Shaharlar estetikasi T-2016

6.https://uz.wikipedia.org/ -shaharsozlik

7.https://yoshlarkelajagimiz.uz/shaharsozlik-ma'lumotlar (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)

8.https://uz.wiktionary.org/wiki/arxitektura

9.https://yuz.uz/uz/news/qurilish-materiallari-sanoati-yangi-davr-yangi-imkoniyatlar

10.https://www.ecocertify.org/uz –(maqolada foydalanilgan suratlar olingan)

11.https://www.gazeta.uz/oz/2017/10/25/uqchi-olmazor/ (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)

12.https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/12/green-cities/(maqolada foydalanilgan suratlar olingan)

13.https://artdeco.uz/landshaftniy-dizayn-v-tashkente/ (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)

ВОҲАЛАР ВА ШАҲАРЛАРНИНГ МУДОФАА ДЕВОРЛАРИ ВА ДАРВОЗАЛАРИ

Султанова Дилшода Намазовна
профессор, архитектура фанлари доктори/ Турон ФА академиги
Абатова Шамсиқамар Зиядуллаевна
СамДАҚУ таянч докторанти (PhD)

Аннотация: Ушбу мақолада воҳалар ва шаҳарларнинг мудофаа деворлари ва дарвозалари, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, уларнинг архитектураси ва жойлашуви ҳамда вазифалари нималардан иборатлиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Буюк Хитой девори, Садди Чиний, Чингизхон девори, Канпирак девори, Шаҳар деворлари ва дарвозалар.

Annotation: In this state, the defensive walls and gates of oases and cities, their origin, architecture and location, as well as their functions are described.

Key words: Stone Wall: Great Chinese Wall, Barrier Chinese Wall, Genghis Khan Wall, Kanpirak Wall, City wall and gate.


Кириш: Республикамиз мустақилликка эришгач халқимизнинг ўтмиши ва тарихини чуқур ўрганишга бўлган қизиқиши янада ошди. Ота-боболаримиздан ёдгор қолган қадимий обидалар, масжид-мадрасалар, тарихий қадамжолар, саройлар, арк-қалъалар сафида тарихий шаҳарларимизнинг қадим дарвозалари ҳам борки, уларнинг архитектураси, шаҳарсозликда тутган ўрни ва рўлини ўрганиб, мавжудларини таъмирлаб, сақланмаганларини график қайта тиклаб, уларни келаж авлодларга етказиб бериш муҳим аҳамият касб этмоқда. Бу йўналишдаги ишлар орасида тарихий шаҳарларимиз учун катта ижтимоий, сиёсий ва туристик аҳамият касб этувчи тарихий дарвозаларни, ҳусусан, Қадим Самарқанд ва Бухоро ша-ҳарлари дарвозаларини илмий ўрганиш, график қайта тиклаш, улардан туризм мақсадларида фойдаланиш долзарб масалалардан биридир.

Асосий қисм:Инсоният ер юзида яшай бошлабдики, ўз ҳаётини осойишта, ҳавф-хатарсиз ўтказишнинг турли чораларини кўради. Шундай чоралардан бири мудофаа деворларини барпо қилиш эди. Одамзод дастлаб ўз кулбалари атрофини баланд деворлар билан ўраган бўлса, кейинчалик бутун бошли қишлоқ ва шаҳарлар атрофини ҳам мудофаа деворлари билан ўрай бошлади. Маълум даврларга келиб, улкан воҳалар ва мамлакатининг бепоён сарҳадларини ҳам баланд, мустаҳкам девор билан ўраб олиш бошлан-ганлигининг гувоҳи бўламиз. Бунга мисол тариқасида эрамиздан олдинги 4-3 асрларда барпо қилинган Буюк Хитой деворини айтиб ўтишимиз мумкин...

Шарқ тарихий манбаларида Садди Чиний деб номланган бу девор ўз тарихи, кўлими ва салобати билан икки минг йилдан буён инсоннятни хайратга солиб келмоқда. Уч юз минг аскар ва икки миллиондан ортиқ ҳарбий асирлар ҳамда ҳар хил жиноятчилардан иборат қурувчилар томонидан 10 йил мобайнида барпо қилинган бу деворнинг узунлиги олти минг километрга яқин. Баландлги айрим жойларда 10 метргача етадиган бу девор ранит тошлар, хом ғишт ва пишитилган лойдан бунёд қилинган. Девор бўйлаб ҳар 60- 100 метр масофада мустаҳкам миноралар, тоғдан ўтадиган қисмларида эса истеҳкомлар барпо қилинган.

Буюк Хитой девори ниҳоятда қалин бўлганлигидан упинг устидан лашкарлар, суворийлар ва жанг аравалари бемалол у ёқдан бу ёққа қатнаб турган. Хитой тарихий манбаларида ёзилишича, бу деворни ниҳоятда қийинчилик билан қуришган, минглаб кишилар шароитнинг оғирлигидан, турли касалликлар ва очликдан силласи қуриб, қирилиб кетган. Ўлганларнинг жасадини эса деворинг тагига ташлаб,

устидан ишни давом эттираверганлар. Шу сабабли бу девор минг-минглаб одамлар учун қабр вазифасини ўтаган, десак хато бўлмайди. Шу ўринда, маҳобатли Буюк Хитой девори қандай мақсадда барпо қилинган, деган савол туғилади. Шак-шубҳасис, у хитойликларни жангари хунлардан ҳимоя қилиш учун қурилган эди. Бундан ташқари, Буюк Хитой девори хитойликларни ўз мамлакати ҳудудида жиловлаб туриш вазифасини ҳам ўтаганлиги маълум.



Буюк Хитой девори

Жахон халқлари тарихига назар соладиган бўлсак, Хитой Девори ягона эмаслиги, бу хилдаги деворлар Осиё, Европа ва Африка қитъаларида ҳам барпо қилинганлигига гувоҳ бўламиз. Тарихий манбаларнинг шоҳидлик беришича, ҳозирги Мўғулистон ҳудудларида Чингизхон девори номли мудофаа девори ҳам барпо қилинган. Мўғулистон ҳудудларидан бошланган бу мудофаа девори Хитой ва ҳозирги Россия сарҳадларида ҳам давом этган бўлиб, унинг умумий узунлиги 600 километрдан иборат.

Антик ва илк ўрта асрларда Ўрта Осиё ҳудудларида ҳам худди Хитой Деворига ўхшаш мудофаа деворлари барпо қилинганлиги аён. Бундай деворларнинг қадимгиси ҳозирги Туркманистон Республикасининг Марв воҳасида эрамиздан олдинги III асрда барпо қилинган Антиох I-Сотер девори ҳисобланади. Александр Македонскийнинг жасур лашкарбошиси Селевк ва Сўғд баҳодири Спитаменнииг қизи гўзал Апамалардан туғилган Антиох Сотер отасининг ўлимидан сўнг тахтга ўтириб, Ўрта Осиёда айрим иншоотларни барпо қилдирганлиги маълум. Бу девор, асосан, пахсадан тикланган бўлиб, узунлиги 250 км. га етган ва Марв воҳасининг маданий, деҳқончилик ерларини ўз ичига қамраган.



Бухоро воҳаси мудофаа дсвори

Тарихий ва археологик маълумотларнинг кўрсатишича, қадимги Бухоро воҳасиининг ҳукмдорлари бу воҳанинг обод шаҳар ва қишлоқлари, суғориладиган, серҳосил ерлирини баланд мудофаа девори билан ўраб олган. Бу девор воҳа аҳолиси на уларнинг ерини кўчманчи-чорвадор қабилаларнинг ҳужумлари, уларнинг сиёсий ҳиётларига ноўрин аралашувларидан ҳимоя қилган. Бухоро воҳаси ён-атрофини ўраб турган бу мудофаа дсвори халқ ўртасида Канпирак девори деб аталган бўлиб, тарихчи Муҳаммад Наршахийнинг ёзишича, у эрамизнинг 782 йилидан 830 йилларигача қуриб битказилган. Археологик тадқиқотлар Бухоро воҳаси атрофида эрамизнинг IV-V асрларида ҳам мудофаа девори мавжуд бўлганлигини кўрсатди. Наршахий тилга олгаи девор эса ундан сўнг барпо қилинган. [1]

Тадқиқот услублари. Зарафшон водийси ва Жиззах воҳалари ҳудудларини қадимда ўраб турган яна бир мудофаа девори халк ўртасида “Канпир девор” деб номланган. Самарқанд вилоятининг Булунғур туманидан бошланиб, Жиззах вилоятининг Ғаллаорол, Жиззах, Бахмал туманлари ҳудудларини ўз ичига қамраган бу мудофаа деворининг қалинлиги айрим жойларда 15-20 метргача етган. Канпир девор Зарафшон дарёсидан чиқарилган каналлардан суғо-рилиб, обод қилинган деҳқончилик ва боғдорчилик ерларини, шаҳар ва қишлокларни ўз ичига камраб, бу жойларни ёвларнинг ҳужумларидан ҳимоя қилган.

Биз юқорида номларини тилга олган мудофаа деворлари аждодлари-мизнинг ҳаётида муҳим аҳамиятга эга бўлганлиги шубҳасиз. Шу сабабли ҳам аждодларимиз мудофаа деворлари бўйлаб ва уларнинг ёнида мустаҳкам буржлар, қалъалар, шаҳарлар, истеҳкомлар барпо қилишган. Воҳаларнинг ичкарига кирадиган жойларида эса работ-дарвозалар қурилиб, дарвозалар жуда қаттик муҳофаза қилинар эди. Отлиқ ва пиёда душманларнинг воҳа ичига бостириб киришларининг олдини олиш учун деворларнинг ташқи томонидан ҳандақлар қазилган. Бу ҳандақларнинг ичи сувга тўлдирилган. Катта йўллар устига қурилган дарвозаларнинг олдида эса осма кўприклар барпо қилингаи. Кўприклар кундузи туширилган, кечаси ёки хавф туғилган пайтларда кўтариб қўйилган.





Kampirak va kampir devor qoldiqlari

Тадқиқот натижалари. Деворлар бўйлаб, мамлакатнинг ичкари томонига ҳар 10-15 км масофада махсус кузатув ва ҳабар етказиш миноралари бунёд қилинган. Қоровул минораларда кечаю кундуз соқчилар ҳушёр турган.

Агарда душман ҳавфи сезилса, соқчилар дарҳол олов ёқиб, навбатдаги минорага хабар берганлар. Шу тариқа бу хабар зудлик билан пойтахтга, ҳукмдорга етказилган. Сўнгги даврларда давлатлар чегараларининг ўзгариши, сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий қудратининг ошиши туфайли улкан воҳалар ва сарҳадларни қуршаб олган бу мудофаа деворларининг аҳамияти камайган, улар тарих мулкига айланган.

Ҳозирги кунда ҳам республикамиз бепоён майдонларининг у ер бу-ерида қадимги мудофаа деворларининг қолдиқлари учрайди. Аждодларимизнинг осойишталигини асрашда муҳим аҳамиятга эга бўлган бу деворлар мозийнинг алғов-далғов даврларидан қолган хотира гувоҳлардир.

Эрамиздан аввалги IV асрларда қурилган шаҳар қалин мудофаа деворлари ва дарвозаларидан ташқари дарвоза олди мураккаб мудофаа иншоотига ҳам эга бўлган. Одатда тўғри бурчакли шаклдаги бу иншоотига ҳам эга бўлган. Одатда тўғри бурчакли шаклдаги бу иншоот бир неча айланма йўлакдан иборат бўлиб, унинг бундай мураккаб қурилиши душманнинг шаҳар ичкарисига тўғри кириб келишига имкон бермаган. Айланма йўлакдан кирган душман эса девор устида турган ўқчилар зарбасига дуч келган.

Бундай дарвозаолди мураккаб мудофаа иншооти қадимги Хоразм шаҳарларининг деярли барчасида (Қалъаликкир, Куй -кирилган қалъа, Ёнбошқаъла, аёзқалъа, Қатқалъа ва хакозаларда) мавжуд бўлган.

Ушбу меъморий услуб, шунингдек, Тошкент вилояти ҳудудига Канка, Туркманистондаги Дилбержин қалъаларида ҳам қўлланилган. Дарвоза олди мудофаа иншоотининг Хоразм шаҳарларида кўпроқ ўрнатилиши бу ўлканинг кўчманчилар билан чегарада жойлашганлигидан деб тушуниш мумкин. Қадимги Хоразм шаҳарларининг мудофаасига хос ҳусусиятлардан яна бири – мудофаа деворлари ичидаги йўлакдир.

Йўлакнинг кенглиги 2,5 метр дан кам бўлмай, у мудофаанинг ожиз жойига тезда етиб бориш ва ҳимояни мустаҳкамлашга ёрдам берган [2]. Хоразм шаҳарларининг ички йўлакли баланд деворлар билан ҳимояланиш сабаби ҳам бу шаҳарлар мамлакатнинг чегара ҳудудларида жойлашганлигидандир.

Шаҳарларниинг мудофаа иншоотларига деворлардан ташқари ўша деворлар сатҳи бўйлаб бўрттирилган буржлар, шаҳар деворлари ташқи бурчакларига қурилган кузатув миноралари ҳамда ўрта асрлар шаҳарлари ҳаётида то XIX асргача муҳим рўл ўйнаган дарвозалар ҳам кирган. Бу девор ва дарвозалар шаҳар аҳолисини ташқи ёвлар ҳужумидан ҳимоялашдан ташқари, ўзига хос шаҳар “остона”лари рўлини ҳам бажаришган.

“Ватан остонадан бошланади” деганларидек, шаҳарлар ҳам ўтмишда ўша дарвозалар ва деворлардан бошланган. Шаҳар деворлари ва дарвозалар ҳукмдорлар маблағи ва буюртмаси билан меъмор муҳандислар, моҳир усталар ва халқ оммаси иштирокида ҳашар услубида қурилган.

Шаҳар дарвозалари ёнида божхоналари, соқчилар ва қалъа- сарой-лари, яъни мамлакат маъмурияти, ҳарбийлар ва қозихона жойлашган. Уларга дарвозалар олдида жойлашган бозорлар, меҳмонхоналар, коммунал-маиший ва савдо бинолари (ҳаммомлар, ҳовузлар, карвон-саройлар) қўшилган.

Хулоса. Зарафшон воҳасининг энг қадимий шаҳарларидан бири Афросиёб-қадимги Самарқанд шаҳри бўлиб, у ўзининг арки, шаҳристони, мустаҳкам де-ворлари ва 4 та дарвозаларига эга бўлган. Бундан ташқари, шаҳарнинг рабод қисми ва уни қуршаб турган ташқи мудофаа деворлари ҳам бўлиб, унинг 12 та дарвозаси бўлган. Бу қадим узун деворнинг номи “Девори қиё-мат” ёки “Девори кўндаланг” деб аталган. Афросиёб шаҳарчаси дарвозалари тепа-ликда жойлашган бўлиб, унга одамлар зинапоялар, арабалар эса махсус қиялик (пандус)лар

орқали чиққан. Самарқанд шаҳри ташқи девори (Девори қиёмат)нинг узунлиги 12 фарсах, яъни 84 км бўлган (1фарсах 7-8 км га тенг). Девор тепаларида тиргоҳлар, деворнинг ўзида эса жангчилар учун махсус буржлар қурилган. 12 та дарвозанинг барчаси ёғочдан, икки табақали қилиб ишланган. Афросиёб аркининг боши ва охирида темир дарвозалар ўрнатилган. Афросиёб шаҳрининг рабод қисми ҳозирги Темурийлар даври Самарқандига мос келади.

Адабиётлар рўйҳати:

1. Юсупова М.А. Бухарская школа зодчества. XV-XVII вв.-Самарканд, 2022.
2. А.С.Уралов., Хасанова Х Шаҳар деворлари ва дарвозаларининг // Меъ-морчилик ва қурилиш муаммолари илмий-техник журнали.- №1, 2004
3. Шамсикамар, А., & Зиёдуллаевна, М. Б. (2022). Интериорс оф Ҳисторис Ҳоспиталс. ЭУРОПЭАН ЖОУРНАЛ ОФ ИННОВАТИОН ИН НОНФОРМАЛ ЭДУСАТИОН, 2(5), 227-229. 4. Шамсикамар, А. (2021). Ҳисторисал арчитестурал рулес wҳен десигнинг буилдингс. Жоурнал оф Арчитестурал Десигн, 1, 6-9
4. Султонова Д.Н. Ўзбекистон меъморчилигида тасвирий ва бадиий воситаларни уйғунлаштириш/ Монография ISBN 978-9943-322-79-0. Тошкент: "Санъат", 2010. -Б. 232. 2. Султонова Д.Н. Harmonisierung der bildnerischen und kunstlerischen mittel in der

architectur Usbekistan/ ISBN: 978-620-3-93073-3 Publisher: LAP LAMBERT Academic Publishing is a trademark of the OmniScriptum S.R.LPublishing group 2021. - Б. 102. 6.4 б.т. (немис тилида) https://www.amazon.com/www.lap-publishing.com.

5. Султонова Д.Н. "Рамзий тоқ-дарвозаларнинг шаҳарсозликда қўлланилиши тарихи"/ Услубий кўрсатма Мавзу бўйича мустақил ишларни бажариш учун. СамДАҚИ, Самарқанд, 2016.
6. Султонова Д.Н. Рамзий дарвозаларнинг келиб чиқишида тарихий дарвозаларнинг аҳамияти/ Архитектура, қурилиш, дизайн(илмий-амалий журнал). ТАҚИ. 2-4 сон. –Тошкент, 2006, -Б. 13-16.
7. Султонова Д.Н. Возникновение ворот в градостроительстве Узбекистана (на примере города Ташкента)/ Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. 4-сон. СамДАҚИ.Сам. 2009.-Б.22-29.
8. Султонова Д.Н. 12 символических ворот в историческом и современном градостроительстве Ташкента/ Вестник МИЦАИ (издание Международного института Центрально-азиатских исследований). 17-сон. - Самарканд, 2013 -Б. 43-51,

AN'ANAVIY XALQ UYLARNING KONSTRUKSIYALARI

Khakimov Dilshod Xasanovich magistr
Xoshimov Azamat Shavkatovich magistr
SamDAQU

Annotasiya : Tarixiy shaharlar va ularning an'anaviy xalq uylari va markazlarni kayta tiklash va barqaror rivojlantirishni

Kalit so'zlar: shahar, mahalla, xalq uylari

Xalq uylari ustida utkazilgan tekshirishlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki xar bir regionning uzining uy joy qurilish tizimi bor va ishlab chiqilganligi faqat ular shu regionning tabiiy iqlim, urf-odatlari va yashash tarzlariga tuliq javob beradi.

Shu tarzda xalq uylari xar bir regionlarida o'ziga xos va mos tiplar vujudga kelgan, ular uzining tarkibi, sistemasi va qonuniyatlari bilan xar bir regionning betakror an'anaviy xalq uylari arxitekturasi yaratildi.

Termiz ustalarining qurilish usullarining xarakterli jixatlari shundan iboratki, maxalliy qurilish materiallaridan unumli foydalanishdir. Bu esa o'z navbatida, sinchli (karkasli) devorlarni ko'tarishda ratsional uslublarni tanlash, tom yopilmalari – bolor yopilma va xonalarning xar xil turdagi bezaklarini tanlashdan iborat.

Termiza, xalq uylarning konstruksiyalari va kismlari uchun asosiy kurilish materiali bu yogoch xisoblanadi.

Yaxshi qurilish yog'och, bu uning uzunligi va tanasining tekisligi. Sinchli karkasda poydevor ustida bolordan foydalanilgan va bir-birini biriktirish uchun qoldiqlari foydalanilgan.

Binoning konstpuksiyasi, fakat sinchdan (konstruksivdan) iborat. Sinch kutarilgandan keyin uni chuvala bilan tuldirilgan va loy bilan shuvolgan. Qullanilgan materiallar chidamli va issiq-sovuq o'tkazmaydigan xususiyatlarga egadir.

Sinchli (karkasli) konstruksiyalar. Termiza sinchli (karkasli) konstruksiyalar bir qatorli va ikki qatorli bo'lgan. Sinchni ko'tarishda poydevor ustida qo'yilgan. Sinchning tagidan nomni o'tkazmaslik uchun ko'p xollarda yaxshi pishgan qamish tushalgan. Poydevor va tagxonalarning devorlari toshdan yoki pishiq g'ishtdan terilgan. Tagxonalar (padvol) asosan «Mexmonxonaning tagida urnatilgan» Boshqa xanalarning tagida o'rnatilmagan, lekin ayrim xollarda o'rnatilgan.

Yuk ko'taruvchi sinch burchak va tik ustum gushalardan iborat.

Konstruksiyaning ishlaydigan qismi (ustungusha va xobonda) xamma vaqt xonaning burchaklari bo'ladi. Devolning o'rta qismi vertikal kalamalar qo'yiladi va ular digonal, burchak ostida zobarov bilan to'ldiriladi.

Karkas ko'tarilgandan keyin, ularning orasi chuvolalar bilan to'ldiriladi va somonli loy bilan shuvoladi. Karkasning devolning perimetrii bo'yicha taxtalar tushalib uning ustidan 4-5 kator pishiq g'isht teriladi, undan keyin yaxshi pishgan qamich yotqiziladi, uning ustidan uprok totiladi va oxirida 2-3 marta yaxshi achitilgan samon loy bilan shuvoladi.

Devorning kalinligi. Bir qator sinchli devorlarning eni 22 sm, 26 sm.ga bulishi mumkin. Bu devorning qalinligi xonalarning vazifasiga karab xar-xil bulishi mumkin.

Bir qatorli sinch uzining yutugi va kamchiligi bor. Yutuklardan-devolning konstruksiyasining qattikligi, priyomlar armaturasining ochiqligi, va sinchda tug'ri burchakli yoki figurali arnalarning paydo bo'lishi. Bu sistemaning kamchiligi-bir qatorli karkas uncha mustaxkam emas. Ikki qatorli sinch (karkas) asosan uyning mexmonxona va yashash xonalarida ishlatilgan bu yaxlit kostruktiv sistemani tashkil qilgan. Bu sistemada taxminlar, tokchalar, shkaflar, aloxida orqali ravoklar tashkil qilish imkoniyatini berali. Natijada xonalar interyerining shunday badiiy obrazi yaratildiki, bu esa uz vaqtida, murakkab iqlim sharoitida, betakror, o'ziga xos va mos bo'lgan arxitektura yaratildi.

Sinchli devorlar tashqi tomondan soztuproqli somonli loy bilan shuvolgan. Ichkarisida esa (mexmonxonalar, yashash xonalar) ganch bilan ishlov beriladi. Boshqa xonalar somonli loy bilan shuvaladi.

Tom yopmasi. Tagxona usti yopilmasi bolalar bilan yopiladi, qalinligi 30-35 sm.ni tashkil qiladi. Mexmonxona va yashash xonalari bolor va vassalar bilan yopilib ularning qalinligi 40-42 sm tashkil qiladi.

Xonalarning o'lchamiga qarab bolalar tanlanadi. Masalan asosiy yashash xonalari mexmonxonning bolorlar qirqimi 24-30 sm, boshqa xonalarda 20-25 sm. ni tashkil qiladi.

Mexmonxona shaftlarining konstruksiyalari xar xil bo'lishi mumkin.1.Bolorlar qayta ishlangan (dumaloq shaklda) va vassa juft; 2. Bolorlar turtburchakli (kovzama juft) va vassa juft; 3. Kavzama juft-shiftning chekalari tushirilgan, urtasi ko'tarilgan.

Turar joy arxitekturasi qadimdan boy an'analarga ega. Turar joy arxitekturani xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy iqlim sharoitining ta'sirlari ostida rivojlanib va ular asrlar davomida shakllangan va bizgacha takomillashgan holda yetib kelgan.

Turar joylar xayotimizning ko'p qismini o'z ichiga olgan mikrodunyo desak bo'ladi. Shu mikrodunyoning qulay, shinam va guzalligi bizning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy xayotimiz kuzgusidir. Uning go'zalligi ixcham bo'lishi xozirgi kunda xam, kelajakda xam me'morlarimiz, kuruvchilarimiz, qolaversa, xar bir oila uchun muxim bo'lib qoladi. Shuni aytish keraki, xozirgi va bo'lajak me'morchilikda xam xona turt devor, shift va poldan tashkil topganligicha va qolaveradi, lekin shu turt devor va shiftning mustaxkamligi, qulay, afzal va arzon ko'rilishi uchun materiallar, konstruksiyalar zamon talabiga javob beradigan bo'lishi, uni tabiat bilan uygunlashtirish, guzal va shinam bo'lishini ta'minlash zarur. Shunga ko'ra, xam madaniy, xam tarixiy boyligimiz, xalqimizning asrlar davomida shakillanib sayqal topib kelgan an'analariga qat'iy amal qilmogimiz kerak.

Xalq arxitekturasida me'morchiligida uy tarxi va tarzi usha joy muxiti, tabiati, iklim sharoiti ta'siri ostida bevosita rivojlangan. O'zbekiston tabiiy iqlim sharoitini to'rtta arxitekturaviy- qurilish rayonlariga ajratish mumkin. Bular cho'l, vodiy, voxa va tog' oldi xamda tog'li zonalardir. Manna shu to'rtta rayonlarning tabiiy-iqlim sharoitidan tashqari xar bir rayonning o'zining maxalliy ko'rilish materiallari bor.

Qurilish materiallari turarjoy memorchiligida muxim ahamiyat kasb etadi. Uni to'g'ri tanlash inson salomatligi uchun muxim axamiyat kasb etadi. O'rta Osiyoda jumladan Termizida qadimdan bino konstruksiyasida paxsa, sinch (karkas) va toshli devorlarda, guvala, xom gisht, pishik gisht to shva yogochlardan foydalanilgan. Ko'pgina jamoat binolari, masjid va madrasalarda ichki devorlar xom gishtdan sirti esa koshin va koshinburushlardan keng foydalanilgan. Bu esa devorlarning inson salomatligi bilan bir katorda uning tabiyligi, kam xarajatliligi va oson kurilishi bilan bir qatorda, zilzilaga bardoshliligi bilan ajralib turadi.

Maxalliy xom ashyo, konstruktiv materiallardan bir ikkisini misol tariqasida keltiradigan bulsak: hozirgi davrda xam o'tmishdagi kabi O'rta Osiyo mintaqasida an'anaviy qurilish materiallari asosiy bo'lib qolaveradi. Bunga sabab paxsa uchun materiallarning kupligi va arzonligi va qolaversa paxsa devor yozning jazirama issigida xonani salkin kishda esa issik saklashidadir-bu esa mutadil sof xavoga olib keladi. [2]

Ma'lumki, O'rta Osiyoning oddiy sof soz tuprogidan guvala kilingan, gisht kuyilgan, paxsa devorlar solingan. Bunday devorlarr kadimdan memorchilikda keng kullanilgan. Jumladan, milodgacha VI-IV asrda Balalik-tepa va Jaytun uylari somon aralashtirilgan guvalalardan kurilib ustidan suvalgan. Xozirgi kunda bu an'anaviy material YAna tiklanmokda.

Xozirgi kunda xam xom gisht 250x120x65 ulchamda oddiy sof soz tuprok loyidan ishlov berib tayyorlanmokda. SHunga karamasdan bu xom gisht boshka devorbop materiallarga kura zaif material xisoblansada kup kavatli bulmagan turar joy uylarida xam keng kulamda foydalanish mumkin. Buning uchun poydevor va tomini mustaxkam kilmok kerak.

Sinch (karkas) binnolar, turar joylar zilzilakuchlarini xisobga olinib, zilzila bardosh konstruksiyasidar. Ular yakka sinch yoki kushsinch bulishi mumkin. Odatda yuk kutaruvchi tashki devorlar kushsinch, ichki devorlar esa yakka sinch kilib bajariladi.

Xozirda zamon talablariga mos keladigan bir kancha kurilish materiallari xam ishlab chikilmokdaki, bizning fikrimizcha turar joy majmualari yoki binolar uz funksiyasi va ichki xajmiy fazoviy joylashtirish bilan bir katorda, barcha kurilish materiallarini tabiy omillarga asoslangan xolda kuriladigan bino yoki inshoot atrofda kurilgan bino yoki tarixiy muxitga boglab loyixalanishi va Utmish bilan kelajakni boglab kelgan ananaviy urf odatlar va kurilish materiallaridan foydalanish maksadga muvofikdir. [4]

Turar joy memorchiligi va unga ishlatiladigan xom ashyolar ustida kupgin me'morlar va kurilish muxandislar bu soxo buyicha bir kancha ishlar olib boryabdlarki, bu esa kelajakda uz mevasini berib, biz xam bobokalonimiz Amir A.Temur aytganlaridaek ma'naviyat va madaniyati yuksak munosib vorislar

bulib, kelajakda labbay deb javob bera oladigan ananaviy uylarimiz bilan faxrlanadigan insonlar bulsak ne ajab.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.-T., 2022.
2. Aymatov A.ASamarqand an`anaviy turar joy ularu maqola 2020 y
3. Sultanov A.N. Zamonaviy masjidlar tipologiyasi va arxitekturasining xorijiy tajribalari, bezaklari va ularga qo'yiladigan talablari. //Turkey International scientific-online conference: "Theory and analytical aspects of recent research". 129-135 pages. Part 11, January 9, collections of scientific works, Istanbul. 2023.
4. Nozilov D.A. O'rta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar. – Toshkent, 2013.
5. www.masjid.uz
6. www.meros.uzn

THE WORLD OF ARCHITECTURAL INNOVATION AND AI: COLLABORATING TO CREATE THE FUTURE

Henri Achten
Czech Technical University
Bazor Makhamov
Samarkand State Architecture and Construction University, Faculty of Architecture, Department of Architecture.

Abstraction: This article delves into the transformative impact of artificial intelligence (AI) on the field of architecture. It explores how AI is reshaping the design process, enhancing collaboration, and enabling the creation of innovative and sustainable structures. By examining the symbiotic relationship between human creativity and machine intelligence, we uncover the potential of AI to revolutionize the architectural landscape. From generative design and machine learning to virtual and augmented reality, AI is empowering architects to push the boundaries of architectural possibility. The integration of artificial intelligence (AI) into architecture is revolutionizing the field, fostering a collaborative environment where human creativity and computing power intersect to create innovative designs and sustainable solutions.

Keywords: Architecture, artificial intelligence, innovation, future, collaboration, design, generative design, structural analysis, virtual reality, human-AI partnership, autonomous construction, construction.

Introduction. In today's world, innovative architectural solutions play an undeniable role in creating a modern and unique environment for our life and work. They allow us to transform cities, buildings and spaces around us, making them more functional, comfortable and aesthetically attractive. The implementation of such solutions requires a constant innovative approach and the use of advanced technologies. And this is where artificial intelligence makes a significant contribution.



Intelligent algorithms and machine learning systems make it possible to analyze huge amounts of data, predict trends and allow architects and designers to create unique and innovative projects. AI helps improve every stage of creating architectural solutions. Starting from the initial planning and development of the project concept, AI can help determine the optimal parameters, accounting efficiency and environmental sustainability of the proposed solution. AI can also automate the processes of modeling and visualization, helping architects to evaluate the appearance and functionality of the project faster and more accurately. The creation of innovative architectural solutions using AI is becoming an integral part of modern practice. It allows us not only to create more efficient buildings and urban planning, but also to maintain a balance between humans and nature, and to improve the quality of life in general. Ultimately, artificial intelligence is a powerful tool that helps us shape the future of architecture and make it even more innovative and attractive.

Main part. The fundamentals of architectural design are the foundation for creating unique and innovative architectural projects. These fundamentals include the design of space, the choice of materials, the play of light and shadow, as well as the functionality and aesthetics of the project. Over time, architectural design has evolved under the influence of new technologies and changing societal demands. Starting from classical styles, architectural design has evolved and taken the form of various historical periods, from imperial buildings to modern minimalism (Figure 1). This allows

both architects and real estate developers to have full control over the quantitative aspects of the design and focus on decision making.




Figure 1. Architechtures - is a generative platform for building design powered by artificial intelligence

AI is revolutionizing the approach to creating architectural projects. It provides architects and designers with new tools and opportunities for creativity. AI can analyze and model huge amounts of data, which allows you to more accurately determine the parameters of a project and predict its future success. For example, AI can be used to analyze climate data and determine the most energy-efficient solutions in building design. This helps create environmentally sustainable and energy-efficient architectural projects. The use of AI also speeds up and automates the modeling and visualization processes of architectural projects. Architects can create detailed 3D models and visualizations using AI, allowing them to evaluate the appearance and functionality of a project faster and more accurately (figure -2). This also allows clients and stakeholders to better understand and visualize the proposed solution. AI also helps improve interaction and communication between architects, designers, and other participants in the construction process. With the help of AI, it is possible to create collaborative work platforms that facilitate the exchange of ideas, teamwork, and coordination of various tasks.



Figure 2. Architectural innovations created by artificial intelligence.

Overall, artificial intelligence is changing the approach to creating architectural projects, making them more innovative, accurate, and efficient. AI provides new tools and opportunities for architects and designers, and facilitates interaction and communication within the construction process. Creating innovative architectural solutions using AI opens up new horizons for the development of architecture and leads to the creation of a more modern and unique environment for living and working.

Kirish. Parametrik dizayn - zamonaviy arxitekturaning eng ko'p muhokama qilinadigan va innovasion o'zgarishlarga sabab bo'lgan konsepsiyalaridan biridir. U arxitektura, muhandislik va shaharsozlik sohalarida kompyuter texnologiyalari va raqamli modellashtirish usullarining rivoji orqali shakllarni, strukturalarni va konstruksiyalarini optimallashtirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Parametrik dizaynning asosiy maqsadi - ob'yektning har bir elementining o‘lchamlari, shakllari va funksiyasini o‘zaro bog‘lanishga asoslanib shakllantirishdir. Ushbu jarayonda shakllar dinamik ravishda o‘zgarib, konstruktiv va funksional talablarga moslashishni ta'minlaydi.

Parametrik dizaynning arxitekturaga kirib kelishi bilan dizayn jarayonlari yangi tuzilish va yangicha evolyusiyani boshladi. Parametrik modullar va generativ dizayn usullari orqali juda murakkab va amaliyotga tatbiq etish uchun qulay shakllar yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, parametrik dizayn nafaqat vizual va estetik yangiliklar, balki ekologik samaradorlik va energiya tejashga ham e'tibor qaratadi. Bu maqola parametrik dizayning arxitekturadagi ahamiyatini tahlil qilish va uning rivojlanishiga qaratilgan.

Materiallar va usullar. Maqolada parametrik dizaynning arxitekturadagi ahamiyati va ta'sirini tadqiq etish uchun turli yo‘nalishlar va usullardan foydalanilgan. Tafsilotli tahlil va mukammal xulosalar olish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanildi:

1. Ta'rixiy va nazariy tahlil: Parametrik dizaynning arxitekturadagi paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. 20-asrning oxirida raqamli texnologiyalar va kompyuter modellashtirish imkoniyatlari orqali parametrik konsepsiyalar paydo bo‘ldi. Uning nazariy asoslari va tarixiy rivojlanishini o‘rganish orqali parametrik dizaynning qanday shakllanishi va arxitekturaga qanday ta'sir ko‘rsatganini tushunish mumkin bo‘ldi.

2. Texnologik tadqiqot: Zamonaviy arxitekturada parametrik modellash-tirishning foydalanilishi va kompyuter yordamida shakllarni modellashtirishning rivojlanishi. Texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish usullari va avtomatlashtirilgan konstruksiyalarni modellashtirish jarayonlari ko‘rib chiqildi.

3. Keys tadqiqotlari: Dunyodagi yirik parametrik loyihalar, masalan, “Burj Xalifa” (Dubay), "Tasma" (Madrid), “Gugenxeym muzeyi” (Frenk Lloyd Rayt) va ularning parametrik modellashtirish orqali qanday yaratilgani o‘rganildi. Ushbu loyihalardagi shakllar, konstruksiyalar va ularning parametrik modellashtirishdagi o‘rni tahlil qilindi.

4. Ekologik samaradorlik: Parametrik dizaynning ekologik xususiyatlari va qurilishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, quyosh energiyasini integratsiya qilish va energiyani tejashga qaratilgan parametrik prinsiplarning rivojlanishi.

Natijalar. Parametrik dizaynning arxitekturadagi qo‘llanilishi asosan yangi shakllar, konstruksiyalar va yangi texnologik imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. O‘zaro bog‘lanish: Parametrik dizaynning asosiy xususiyati — parametrlar orasidagi dinamik bog‘lanish. Har bir elementning o‘zgarishi, boshqa elementlarning avtomatik tarzda o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bu shakllarni dinamik ravishda yaratish va ularning konstruktiv xususiyatlarini optimallashtirishga yordam beradi.

2. Dinamik shakl va struktura: Parametrik modellashtirishda shakllar statik bo‘lmay, ma'lum shartlarga asosan o‘zgarishlari mumkin. Bu shakllarning konstruktiv va funksional talablarga moslashishini ta'minlaydi. Parametrik dizayn orqali yangi shakllarning yaratilishi binoning ichki va tashqi qismlarini moslashtirishga imkon beradi.

3. Generativ dizayn: Parametrik modellashtirishning yana bir muhim xususiyati - generativ dizayn usullaridan foydalanish. Bu usul orqali avtomatik ravishda shakllar va konstruksiyalarni yaratish imkoni paydo bo‘ladi. Algoritmlar va parametrik prinsiplar orqali shakllar avtomatik ravishda yaratilishi va ularning optimal holati tanlanishi mumkin.

4. Ekologik samaradorlik: Parametrik dizayn ekologik samaradorlikka ega bo‘lgan bino va shaharlar yaratishga yordam beradi. Jismoniy o‘lchamlar, shakllar, materiallar va tabiiy omillar (quyush energiyasini qabul qilish, atmosfera sharoitlariga moslashish) parametrik modellashtirish orqali samarali tashkil etilgan.

5. Yangi texnologik usullar: Parametrik dizaynning muvaffaqiyati zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirish usullariga bog‘liq. Kompyuter yordamida shakllarni modellashtirish, algoritmlar, va avtomatlashtirilgan qurilish jarayonlari parametrik dizaynning samaradorligini oshiradi.

Muhokama. Parametrik dizaynning arxitekturadagi o‘rni va ta'siri, bunga bog‘liq bo‘lgan ijodiy va texnik muammolarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Parametrik modellashtirishning rivojlanishi va amaliyotda qo‘llanilishi ko‘plab yangi imkoniyatlarni taqdim etish bilan birga, shu bilan birga ularning texnologik, ekologik va ijodiy cheklovlarini ham nazardan qochirish mumkin emas. Bu bobda parametrik dizaynning arxitekturaga ta'sirini yanada chuqurroq muhokama qilishga harakat qilamiz.

Yangi shakllar va konstruksiyalar: Parametrik dizayn arxitekturadagi shakllarning yaratilishiga yangi va dinamik yondashuvlarni olib keldi. Arxitektorlar va muhandislar parametrik modellashtirish orqali murakkab va geometriyasi boshqa usullar bilan ishlab chiqarish qiyin bo‘lgan shakllarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Shakllar va konstruksiyalarning qisqa vaqtda va avtomatik ravishda yaratilishi binoning funksional talablariga moslashuvchi, bir vaqtning o‘zida estetik va konstruktiv jixatdan to‘liq bo‘lgan yondashuvlarni ta'minlashga imkon beradi. Parametrik dizaynning kelajagi o‘zida geometriya va strukturaviy innovatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, dizaynerlarga murakkab shakllar va konstruksiyalar yaratishda qulaylik tug‘diradi. Shuningdek, parametrik dizayn arxitekturada shakllarni optimallashtirishga yordam beradi, bu esa loyiha talablariga mos kelganini ta'minlaydi.

Ekologik o‘zgarishlar va barqarorlik: Parametrik dizaynning ekologik ta'siri haqida gapirganda, bu usulning barqaror qurilishga ta'siri nazarga olinishi kerak. Zamonaviy arxitekturada ekologik barqarorlik muhokama qilinishi kerak bo‘lgan muhim

yo‘nalishlardan biridir. Parametrik modellashtirish orqali yaratilgan shakllar va konstruksiyalar faqat estetik va funksional emas, balki ekologik jihatdan ham samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, binoning quyosh energiyasini samarali qabul qilishi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini integratsiya qilish uchun parametrik dizayn jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, parametrik dizayn materiallarning samarali foydalanilishiga yordam beradi, masalan, qurilish materiallarining jismoniy va ximik xususiyatlariga qarab o‘zaro integratsiya qilingan konstruksiyalar yaratilishi mumkin. Buning natijasida, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya tejash va chiqindilarni kamaytirishga erishish mumkin.

Texnologik salohiyat va chegaralar: Parametrik dizaynning arxitekturadagi samaradorligi zamonaviy texnologiyalar va algoritmlardan foydalanishga bog‘liq bo‘lsa-da, uning rivojlanishi va chegaralari ham mavjud. Kompyuter yordamida shakllar va konstruksiyalarni modellashtirish va simulyasiya qilishda yangi texnologiyalardan foydalanish mumkin, ammo har doim ham har bir loyiha uchun texnologiyalar o‘zining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga erishishga imkon bermaydi. Masalan, ba’zi soxa qurilish materiallari yoki qurilish usullarining chegaralari parametrik dizaynning mukammal ishlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun yangi materiallar va konstruktiv usullarni ishlab chiqish, shuningdek, avtomatlashtirilgan qurilish jarayonlarini rivojlantirish talab etiladi.

Ijodiy va texnik muammolar: Parametrik dizayn orqali yaratilgan shakllar va konstruksiyalar texnik jihatdan ko‘pincha murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim shakllar konstruktorlik yoki qurilish jarayonidagi muammolarni tug‘dirishi mumkin. Bunday muammolarni hal qilish uchun yangi tadqiqotlar, innovasion texnologiyalar va mutaxassislarning ko‘magi kerak. Shuningdek, parametrik dizaynning ijodiy chegaralari ham mavjud, chunki har bir shaklni raqamli usul bilan modellashtirish uning estetik va funksional jihatlarini qamrab olishi kerak. Texnologik va ijodiy muammolarni bartaraf etish uchun turli sohalardagi mutaxassislar hamkorligi talab qilinadi. Arxitektorlar, muhandislar va dizaynerlar o‘rtasidagi muloqot va integratsiya parametrik dizaynning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Innovasion yondashuvlar va kelajak perspektivalari: Parametrik dizaynning arxitekturaga ta’siri kelajakda yanada kuchayadi, chunki bu usul orqali arxitekturada yangi shakllar va konstruksiyalar yaratishning imkoniyatlari kengaymoqda. Generativ dizayn va 3D chop qilish kabi texnologiyalar parametrik dizaynga qo‘shiladi va yangi materiallar, konstruktiv usullar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari parametrik dizaynning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologik rivojlanishlar binolarning ekologik samaradorligini oshirish, energiyani tejash va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Parametrik dizaynning kelajagi arxitektorlar va muhandislar uchun yangicha yondashuvlar, materiallar va konstruktiv imkoniyatlarni izlashga qaratilgan.

Xulosa. Parametrik dizayn arxitekturada shakllar, konstruksiyalar va texnologik jarayonlarni yangi yo‘nalishda rivojlantirishga yordam beradi. Uning ekologik samaradorligi, texnologik imkoniyatlari va ijodiy o‘sishga qaratilgan eng muhim maqsadlaridan biridir. Ammo, parametrik dizaynga bog‘liq chegaralar va muammolarga yechim topish uchun yangi tadqiqotlar, innovatsiyalar va mutaxassislar orasidagi hamkorlik zarur.

Adabiyotlar

1. Woodbury, R. (2010). *Elements of Parametric Design*. Routledge.
2. Oxman, R. (2010). *The New Structuralism: Design and Engineering in the Age of Digital Fabrication*. Architectural Press.
3. Zaha Hadid Architects (2011). *Digital Fabrications and Parametric Design*. Academy Press.
4. Wang, Y., & Wang, Y. (2018). *Parametric Design in Architecture: Theoretical and Practical Approaches*. Springer.
5. Alonso, M., & Brown, G. (2020). *Sustainable Parametric Design: A Guide for Architects and Designers*. Routledge.
6. Patel, H. & Bhatia, P. (2017). *Parametric Design and Architecture: A Study on Design Automation*. Springer.
7. Hensel, M., & Menges, A. (2006). *Design Parametrics: The Application of Computational Methods in Architecture*. Wiley.

ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАР ТУРАР-ЖОЙЛАРИ АРХИТЕКТУРАСИГА БЎЛГАН ТАЛАБНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Собирова Озода Ибрагимовна
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Ушбу мақола Ўзбекистон шароитида талабалар турар жойларини лойиҳалаштириш, реконструкция қилишнинг долзарблиги, талабалар турар-жойларига доир низом ҳақида ва талабаларга ётоқхонадан фойдаланишда қулайликлар яратиш борасида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Талабалар турар-жойи, университет, талаба, низом, қарор, меъморий-режавий муҳит,тенденция, архитектура, реконструкция:

Замонавий талабалар турар-жойлари нафақат касб таълими муассасаси, балки кўплаб ижтимоий соҳалар, институт ва муассасалар ходимларини шакллантирадиган юқори технологияли ва ижтимоий-маъданий марказдир. Шу муносабат билан, бугунги кунда унинг меъморий-режавий муҳитининг барча таркибий қисмларини ва эстетик ечимларини яхлит ташкил этиш даражасига юқори талаблар қўйилмоқда.

Талабалар турар-жойлари ўқув муҳити ривожланган Олий таълим муассасаларида, тегишли илмий педагогик ходимларга эга бўлган йирик шаҳарларда шакллантирилади. Бундай марказларга олий маълумот олиш учун аҳолининг кенг контингенти юборилади, бу эса уларнинг узоқ муддатли таълими давомида махсус яшаш муҳити-замонавий талабалар турар жойини яратиш зарурлигини тақозо этади.

Талабалар турар-жойлари - бу нисбатан мустақил бўлган махсус макон бўлиб, олий таьлим муассасаларнинг архитектура муҳитига таркибий жиҳатдан бирлаштирилишидир.

Талаба-ёшлар замонавий жамиятда алоҳида ўрин тутадиган ижтимоий гуруҳдир. Бугунги талабалар, 15-35 йил ўтиб, иқтисодиётнинг барча тармоқларида, мамлакатнинг ижтимоий ва сиёсий тузилмаларида раҳбарлик лавозимларини эгаллайди. Бу ижтимоий-маданий ва касбий даражаси бутун халқнинг ҳаётини ва уларнинг шаклланишини нафақат касбий етуклик масалаларида, балки шахснинг ҳар томонлама ривожланиши, маънавий, ахлоқий, ижтимоий нормалар ва қадриятлар, хулқ-атвор моделлари, психологик муносабатлар, жамиятда муваффақиятли ишлашга имкон берадиган билим ва кўникмаларга эга бўлиш масалаларида ҳам тўлақонли ва самарали бўлишини белгилайдиган кадрлар ҳисобланади.

Давлатимиз раҳбари президентлик фаолиятининг дастлабки кунларидан бошлаб юртимизда инновацион ва креатив фикрлайдиган замонавий кадрлар тайёрлаш, ёшларни ватанпарварлик руҳида, юксак маънавият эгалари этиб тарбиялаш, шу мақсадда таълим тизимини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда.

Президентимиз 2022 йил Ўзбекистонда ёшлар муаммоларини ечишга бағишланган видеоселектор йиғилишида давлат раҳбари талабаларни қийнайдиган қуйидаги муаммоларга тўхталиб ўтди:

«Бугунги кунда 130 мингдан зиёд олийгоҳ талабалари ижарада яшамоқда. Бу масалани ҳал қилиш бўйича Ҳукумат томонидан алоҳида дастур тайёрланмоқда. Унга кўра, бундай фарзандларимизга жорий йилнинг 1 майдан бошлаб ижара тўловининг ярми давлат томонидан қоплаб берилади. Дастлабки босқичда ушбу тизим орқали 60 минг нафар ёшлар қамраб олинади. Шу билан бирга, эҳтиёжманд талабаларга ушбу харажатлар ҳокимликлар ва олийгоҳлар маблағи ҳисобидан ҳам қоплаб берилади»[1].

Олий ва ўрта махсус таълим вазири «2021-2025 йилларда 92500 ётоқхона ўринлари қурилади ва бу 2017-2021 йилларга нисбатан 20 баробар кўп дегани. Бунинг учун 4,4 трлн сўм маблағ ажратилади. Кўпчилик талабаларга ўз уйини ижарага беришни истамайди. Энди тўловлар муаммоси ҳал бўлгач, биз ўзимиз талабаларга бериладиган уй-жойларни текшириб кўрамиз» [2] дея мазкур мавзунинг долзарблигини таъкидлаб ўтдилар.

Ўзбекистонда биринчи ётоқхоналар, асосан, собиқ Иттифоқ даврида қурилган, биринчи қурилган ётоқхоналар, асосан, бир қаватли бўлиб, унча катта бўлмаган ва қулайликлар яратилмаган. Биринчи 5 йиллик даврида ишчилар ва талабалар учун 2-4 қаватли ётоқхоналар қулайликлари билан қурила бошланган. Бу бинолар якка ҳолда бўлиб, шахсий лойиҳалар бўйича қурилган.

Биринчи андозали лойиҳа 2 қаватдан иборат бўлиб, 100 та ўринга мўлжалланган андозали серия бўйича турар жой бинолари (210) 1946-йил, кейинчалик 400 ўринли тўрт қаватли андозали лойиҳа амалга оширилган[3].

Талабалар турар жойи анъанавий равишда талабалар гуруҳларининг ўзига хос эҳтиёжлари ва хусусиятларини ҳисобга оладиган кўп функцияли комплекс объект сифатида қаралади. Истеъмолчиларнинг ётоқхонага бўлган талаблари кўплаб омиллар таъсири остида шаклланади: ижтимоий, психологик, ҳиссий ва бошқалар.

Талабаларнинг яшаш муҳитига муносабатини аниқлаш, "талаба - яшаш / ўқиш / кундалик фаолият - талабалар турар жойи" тизимининг ўзаро таъсирини таҳлил қилиш бизга ўқув фаолиятини ташкил этишнинг функционал режалаштириш усулларидан оптимал фойдаланиш, талабалар турар жойи архитектурасини аниқлаш имконини беради. [4].

Талабалар турар жойларини лойиҳалаш ва қуриш бўйича хорижий тажрибани таҳлил қилиш бизга ётоқхоналарни шакллантиришнинг бир қатор тенденцияларини аниқлаш имконини беради [5]. Талабалар ётоқхоналарининг замонавий архитектурасида қизиқарли тенденция - бу мослашувчанлик, композициянинг "очиқлиги" истаги, бу келажакда жойларни кенгайтириш, ўзгартириш ва қайта ташкил этиш имконини беради.

Яна бир тенденция - лойиҳа ғояси доирасида ҳар бир атроф-муҳит объектини ётоқхонадан ётоқхонагача бўлган хонага ифодали, ўзига хос кўриниш беришга, маконни индивидуаллаштиришга, уни таниқли ва "меники" қилишга уринишдир. Борган сари бу ғоя талаба учун қулай, қулай уй-жой ташкил этиш, "уй" муҳитини яратишга тўғри келади. Ҳар бир талабанинг кичик шахсий майдонини тартибга солиш ва сақлаш, унинг қизиқишлари ва эҳтиёжларини акс еттирувчи ва уйғун муваффақиятли ривожланишига ёрдам беради.

Ҳар бир талаба ижарачининг индивидуал хусусиятларини олдиндан кўра олмаслик дизайннинг, яшаш жойларининг бир хиллигидан воз кечиш тенденциясини белгилайди, бу еса талабага мос уй танлаш имкониятини беради.

Ўзбекистондаги талабалар турар жойи алоҳида ётоқхона бинолари ва уларнинг мажмуаларидан шаклланиб, "талабалар шаҳарчалари" ни ташкил қилиши керак. Ушбу архитектура объектлари, қоида тариқасида, турар-жой ва хизмат кўрсатиш бинолари-ни, турли хил жамоавий тадбирларни ўтказиш учун хоналарни ва маъмурий блокни ўз ичига олади.

Маҳаллий архитектура тажрибаси турар-жой ячейкалари асосида бинонинг функционал тузилишини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади, уларнинг ҳар бири баъзи умумий майдонларга эга бўлган мустақил хоналар гуруҳи ташкил этишга тўғри келади

Ўқиш, дам олиш, ухлаш ва меҳмонларни қабул қилиш учун энг қулай шароитларни яратиш учун хоналарнинг тартиби талабанинг турли хил фаолиятини батафсил таҳлил қилиш асосида ишлаб чиқилиши керак. Танланган таълим соҳасига хос бўлган муайян фаолият турлари билан боғлиқ бўлган фазовий талаблар ҳам ҳисобга олиниши мумкин. Иш жойларининг жиҳозлари, бўлажак меъмор, рассом, муҳандис, раққоса, қўшиқчи, спортчининг хонасида сақлаш жойларининг таркиби, дизайни ва ўлчамлари истеъмолчи талабларига жавоб бериши керак [6].

Талабалар ётоқхонасининг турар-жой ички қисмининг лойиҳалаштиришни дизайндан олдинги таҳлил ва дизайн моделини ўз ичига олади. Дизайндан олдинги таҳлил ички дизайннинг умумий тамойилларидан фойдаланган ҳолда дастлабки дизайн шартларини ва ушбу синф объектларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганишга имкон беради. Экспериментал ишлаб чиқиш жараёнида ички лойиҳалаштириш тўғридан-тўғри функционал зоналарни ажратиш, композицион вазифаларни ҳал қилиш ва бўшлиқларни мансублиги бўйича зоналаштириш билан амалга оширилади.

Ётоқхонада универсал лойиҳалаштириш тамойиллари асосида атроф-муҳитга кириш учун шароит яратиш учун нафақат фазовий тўсиқларни енгиб ўтишга имкон берадиган чора-тадбирларни таъминлаш (панжара ўрнатиш, зинапояларни пандуслар, кўтаргичлар, лифтлар билан кўпайтириш, эшикларни кенглиги), шунингдек, иложи бўлса, уларни кенгайтириш керак. Талабаларни уларнинг физиологик, психологик, ижтимоий хусусиятлари билан боғлиқ тўсиқлар ва ноқулайликлардан ҳимоя қилиш (визуал, тактил ва товуш маркерлари ёрдамида маълумотларнинг такрорланиши, эркин йўналиш ва ётоқхонада энг қулай яшаш учун очиқ рангли ва объект-фазовий муҳитни яратиш учун турли хил усуллардан фойдаланиш)зарур.[7]

Бугунги кунда Ўзбекистонда талабалар турар-жойларининг меъморий-режавий муҳитининг барча таркибий қисмларини ва эстетик ечимларини яхлит ташкил этиш даражасига юқори талаблар қўйилмоқда. Замонавий талабалар турар жойи анъанавий равишда талабалар жамоасининг ўзига хос эҳтиёжлари ва хусусиятларини ҳисобга оладиган кўп функцияли мураккаб объект сифатида қаралади. Талабаларнинг замонавий ётоқхонага бўлган талаблари кўплаб омиллар таъсирида шаклланади: ижтимоий, психологик, ҳиссий ва бошқалар. Шундай функсиялар ва омилларни ўз ичига олган келажагдаги замонавий талабалар турар-жойлари архитектурасига мисол тариқасида муаллиф томонидан лойиҳаланган талабалар турар-жойинини кўрсатиш мумкин (1-расм).

Давлат-хусусий шериклик муносабатлари Ўзбекистон “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги қонуни ҳамда Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил 26-апрелдаги 259-сон қарори билан тасдиқланган “Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартиби тўғрисида низом” асосида амалга оширилади.

2021—2025-йилларда олий таълим муассасаларида талабаларни турар жой билан қамраб олиш даражасини ошириш дастури, унинг таркибида қуйидагилар киради:

2021—2025-йилларда тармоқлар ва ҳудудларни ривожлантиришнинг тасдиқланган консепциялари ва дастурлари, Ўзбекистон Президенти ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қуриладиган талабалар турар жойлари рўйхати;

2021—2025-йилларда давлат-хусусий шериклик асосида талабаларни турар жой билан қамраб олиш даражасини ошириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар киради.

Давлат-хусусий шериклик асосида талабалар турар жойларини қуриш, реконструкция қилиш, жиҳозлаш ва улардан фойдаланишни ташкил этиш лойиҳаларини махсус ҳисоб-варақдан кредит билан таъминлаш ҳамда давлат шериги маблағлари ҳисобидан қисман молиялаштириш тартиби тўғрисида низом тасдиқланди.

Қарорда белгиланишича:

- олий таълим муассасалари ҳудудидан талабалар турар жойларини қуриш учун ер майдонлари тасарруфида олий таълим муассасаси бўлган вазирлик ва идораларнинг буйруғи асосида хусусий шерикка ажратиб берилади;
- олий таълим муассасалари ҳудудидан ташқаридаги ер майдонларини ҳудуддаги олий таълим муассасаларининг эҳтиёжларидан келиб чиқиб, Қорақалпоғистон Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари томонидан олий таълим муассасаларидан узоқ бўлмаган ҳудудлардан ажратиб берилади. Бунда, хусусий шерик қонунчиликда белгиланган тартибда тендер танловлари асосида танланишини инобатга олиб, талабалар турар жойларини қуриш учун ажратиладиган ер майдонларини ауксион савдо майдончасида электрон онлайн-ауксионга қўймаган ҳолда ажратилади;
- бинолар қурилиши якунланганидан кейин давлат-хусусий шериклик шартномасида кўрсатилган муддат мобайнида талабалар турар жойи сифатида фойдаланиш шарти билан хусусий шерик

бўлган тадбиркорлик субъектига қонунчиликда белгиланган тартибда маҳаллий (шаҳар) ҳокимликнинг қарори асосида Кўчмас мулк обьектига (ер участкаси билан) эгалик ҳуқуқи берилади ва давлат ер кадастри гувоҳномаси расмийлаштирилади. Бунда, хусусий шерик томонидан шартномадаги муддат ичида бинодан фойдаланиш мақсади ўзгартирилганда, бино тегишли ҳудуди билан биргаликда ўрнатилган тартибда олий таълим муассасасига қайтарилади.



1-расм. Муаллиф томонидан лойиҳаланган замонавий Талабалар турар-жойи

Вазирлар Маҳкамасининг 06.05.2022 йилдаги 239-сон қарори билан Талабалар турар жойларини давлат-хусусий шериклик шартлари асосида қуриш учун Давлат бюджетидан субсидия ажратиш тартиби тўғрисидаги низом тасдиқланди.

Низом қуйидагиларни белгилайди:

• талабалар турар жойини қуришга субсидия олиш учун мурожаат қилиш ва шерик томонидан маблағлар ажратиш тартиби;

• Давлат бюджетидан ажратилган маблағларни мониторинг ва назорат қилиш тартиби.

Низомга асосан, талабалар турар жойларини қуриш лойиҳаларини амалга ошириш учун хусусий шерикка субсидия лойиҳа-смета ҳужжатлари бўйича бир ўринга тўғри келадиган қийматнинг 50%и, бироқ БҲМнинг 100 бараваридан ортиқ бўлмаган микдорда ажратилади.

Бунда лойиҳаларни амалга ошириш учун тадбиркорлар ўртасида тендер ўтказилади. Давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги битим ДХШ лойиҳаларининг реестрига киритилганидан сўнг хусусий шерик давлат шеригига (ОТМ) субсидия ажратиш тўғрисида ариза беради. Давлат шериги аризани 3 иш куни (қўшимча ўрганишлар ўтказиш талаб этилса - 10 иш куни) ичида ўрганиб чиқади ва уни Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига юборади.

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5 иш куни ичида тақдим этилган аризани ўрганиб чиқиб ва субсидия бериш учун давлат шериги билан субсидия ажратиш юзасидан шартномани имзолайди.

Хусусий шерикка турар жойни қуриш учун икки иш куни ичида давлат шериги томонидан биринчи босқичда талабалар турар жойлари умумий қийматининг 15%и микдорида субсидия ажратилади.

Кейинги босқичларда бажарилган ишлар далолатномаси имзоланган кундан бошлаб 3 иш куни ичида бажарилган ишнинг 50%и миқдорида, биринчи босқичда ажратилган маблағларни инобатга олган ҳолда субсидия ажратилади.

2022-2025 йилларда республика бўйича 228 та (жорий йилда 47 та) талабалар турар жойларини қуриш назарда тутилган. Ҳужжат Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базасида эълон қилинган ва 07.05.2022 йилдан кучга кирди.

2022-йил 7-феврал куни Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтида 600 ўринга мўлжалланган талабалар турар жойининг фойдаланишга топширилишига бағишланган тантанали тадбир бўлиб ўтди.

Тадбирда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазири ўринбосари, институт жамоаси ва оммавий ахборот воситалари вакиллари иштирок этди.

Фойдаланишга топширилаётган талабалар турар жойининг қурилиш-реконструкция ишлари учун институтнинг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан 3 миллиард 855 миллион сўм маблағ ажратилиб, тез суръатларда ҳамда сифатли қилиб тугалланди. Реконструкция ишларидан олдин 400 ўринга мўлжалланган талабалар турар жойига замонавий икки ярусли ётоқ ўринлари жойлаштирилиб, 600 ўринга етказилди. Замонавий лойиҳа асосида қурилиш-реконструкция ишлари олиб борилган талабалар турар жойи 1 миллиард 600 миллион сўмлик мебел инвентарлари, 545 миллион сўмлик замонавий газ плиталари, музлатгичлар, кир ювиш машиналари, микротўлқинли печлар, дазмоллар, сув иситиш ускуналари каби маъиший техникалар билан таъминланди.

Талабалар турар жойида талаба-ёшларнинг ўқишдан бўш вақтларини мазмунли ўтказиши, дам олиши, қўшимча тўгаракларда иштирок этиши, таълим олиши учун барча шароитлар яратилган. Хусусан, Президентимиз томонидан илгари сурилган беш ташаббусни талабалар орасида кенг тарғиб қилиш мақсадида замонавий ахборот технологиялари, компютерлар хонаси, ахборот-ресурс маркази, санъатга қизиқувчи ёшлар учун чолғу асбоблари билан таъминланган тўгараклар, ёшларнинг бўш пайтларида тикувчилик сирларини ўрганиши учун тикув машиналари билан жиҳозланган тўгараклар, шу билан бирга, овқатланиш, ювиниш, интернет тармоғидан фойдаланиш, газета-журналлар мутолаа қилиб, телевизор томоша қилиш учун барча шароитлар мавжуд.

Маълумот ўрнида таъкидлаш жоиз, талабалар турар жойига биринчи навбатда чет эл фуқаролари, олис вилоятлар ҳамда туманлардан қатнаб ўқийдиган кам таъминланган, етим, боқувчисидан айрилган, «Темир дафтар»га киритилган оилаларнинг фарзандлари жойлаштирилади.

Тадбирда қурилиш-реконструкция ишлари якунланган 600 ўринлик талабалар турар жойининг рамзий калити тантанали равишда топширилиб, дастурий тасма кесилди. Тадбир иштирокчилари талабалар турар жойидаги шароитлар билан танишди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2021-йил 13-апрелдаги ёшлар муаммоларига бағишланган видеоселекторида сўзлаган нутқи

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2021-йил 13-апрелдаги ёшлар муаммоларига бағишланган видеоселекторида Олий ва ўрта махсус таълим вазири Абдуқодир Тошқулов сўзлаган нутқи

3. Ҳ. М. Убайдуллаев “Турар жой ва жамоат биноларини лойиҳалашнинг типологик асослари” Тошкент. Ворис нашриёт. 2009-йил. -60-61 бетлар.

4. Боровкова, А. А. Основная проблематика и тенденции формирования студенческого жилья. Объемно-планировочное решение студенческих общежитий Полоцкого государственного университета / А. А.Боровкова // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия F, Строительство. Прикладные науки. - 2016. - № 8. - С. 18

5. Мазаник, А. В. Поиск альтернатив: европейская практика проектирования студенческих общежитий = The search for alternatives:the european practice of designing student hostels /А. В. Мазаник, Я. С. Жарновецкая, А.В.Токаюк // Архитектура : сб. науч. тр.2017. – Вып. 10. – С. 163-169

6. Мазаник, А. В. Студенческое общежитие:проектирование жилого интерьера // Наука –образованию, производству, экономике:Материалы 11-й

междунар. науч.-технич. конф. В 4 т. Т.2 / редкол.: Б. М. Хрусталев [и др.]. Минск, БНТУ, 2013. – С. 382.

7. Лазовская, Н. А. Универсальный дизайн открытых пространств, зданий и сооружений /Н. А. Лазовская. Минск : Ковчег, 2016. – 144 с.

ARXITEKTURAGA OID NANOMAXSULOTLARNING USTIVOR JIHATLARI

M.N.Fayzullayeva 101-(Landshaft dizayn) guruhi magistranti
Sh.M. Abduraimov –Arx.f.b.f.d. (PhD)
B.B.Mustayev –Arx.f.b.f.d. (PhD)
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti

Zamonaviy texnologiyalar arxitektura sohasiga ijobiy o‘zgarishlar kiritmoqda, yani materiallar sifati yaxshilanmoqda, yangi asboblar paydo bo‘lmoqda va asosiy e’tibor inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lgan bardoshli qurilish materiallarini yaratishga qaratiladi [1].

Hozirgi vaqtda qurilishda nanotexnologiya deganda nanoqo‘shimchalar, ya’ni maxsus ishlab chiqilgan nanozarrachalar ko‘rinishidagi nanoob’ektlar, chiziqli o‘lchami 100 nmdan kam bo‘lgan nanoo‘lchovli zarrachalar tushuniladi [2].

Nanotexnologiyalar sohasidagi yutuqlardan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish bugungi kunda keng ko‘lamga ega bo‘ldi. Bu yutuqlar qatoriga o‘ziga xos mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan konstruktiv kompozit materiallar, shaffof konstruksiyalarni qoplash uchun noyob nanoplyonkalar, o‘z-o‘zidan tozalanadigan va olovbardoshli qoplamalar, yangi turdagi armatura po‘latlari, bug‘ o‘tkazuvchan va egiluvchan oynalar va nanobetonlarni kiritish mumkin. Zamon talablariga javob beradigan qurilish materiallarini ishlab chiqarish shiddatli raqobat sharoitida faqat nanotexnologiyalar asosidagina yaratish mumkin. Nanotubalarni ishlab chiqarishni an’anaviy sanoat ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan binolarda joylashtirish mumkin emas. Binolarni loyihalash va ularni qurishda foydalaniladigan materiallarga mutlaqo yangi darajada yangi talablar paydo bo‘ldi, bu umumiy qabul qilinganlardan yuzlab marta farq qiladi. Nanotexnologiyaning eng istiqbolli qo‘llanilishidan biri bu yangi avlod qurilish materiallarini ishlab chiqarishdir. Bugunning o‘zidayoq nanotexnologiyalar yordamida dunyoda sement, keramika, metallqotishmalari, plastmassa va boshqa ko‘plab noyob xususiyatlarga ega materiallar ishlab chiqarilmoqda.

Qurilish konstruksiyalaridagi nanosensorlar doimiy ravishda aholiga moslashuvchi “aqlli” yashash muhitini yaratadi. YAngi turdagi binolar atrof-muhitga yaxshiroq moslashadi [3]. Zamon talablariga javob beradigan, eng qattiq raqobat sharoitida qurilish materiallarini ishlab chiqarish faqat zamonaviy nanotexnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Qurilish materiallari sifati yaxshilanmoqda, noyob xususiyatlarga ega yangi materiallar ishlab chiqilmoqda. Ular juda kuchli materiallar hisoblanib, ularning o‘ziga hos xususiyatlarini suv yoki olov bilan yo‘qqilib bo‘lmaydi. Nanotexnologiyalar asosida tirnalmaydigan oynalar, shikastlangandan keyin tiklanishi mumkin bo‘lgan bo‘yoq va hatto o‘z-o‘zidan yoriqlarni tiklovchi devorlar yaratiladi. Endilikda ulardan qurilishda yuqori mustahkam po‘lat, qobiqsimon nanoqoplamalar, yuqori mustahkam beton va boshqa ko‘plab materiallarda foydalanmoqda.

Qurilishda nanotexnologiyadan foydalanganda an’anaviy qurilish materiallari modernizatsiya qilinadi, ularning xususiyatlari o‘zgaradi, buning natijasida ular butunlay boshqacha tarzda ishlaydi. Misol uchun, eng dolzarb ishlanmalardan biri yuk ko‘taruvchi betonning ko‘rinishidir. Yillar hisob-kitoblariga ko‘ra, bunday betonning "yaroqlilik muddati" hozirgi vaqtda 100 yil o‘rniga 500 yil deb xisoblanmoqda. Ana shunday betondan osmono‘par binolar, uzun ko‘priklar va hizmat ko‘rsatish muddati cheksiz bo‘lgan inshootlar barpo etiladi. Figovskiy O. L.ning maqolasi [4] qurilish materiallari uchun nanotexnologiyalar sohasidagi so‘nggi yutuqlar haqida qisqacha ma’lumot beradi. Mualliflarning ishlari va nashr etilgan materiallar tahlili asosida nanostrukturali beton, jumladan, nanokompozit armatura, nanozarrachalar bilan modifikatsiyalangan po‘lat va polimer qoplamalaridan foydalanish va ularning samaradorligi bo‘yicha aytib o‘tilgan. Bugungi kunda jahon bozorida nanotexnologiyalar yordamida ishlab chiqarilgan yuzlab qurilish materiallari mavjud.

Bularga noyob mustahkamlik xususiyatlariga ega bo‘lgan strukturaviy kompozit materiallar, mustahkamlovchi po‘latlarning yangi turlari, shaffof tuzilmalarni qoplash uchun noyob nanoqoplaimalar, o‘z-o‘zini tozalovchi va olovga bardoshli qoplamalar, bug‘ o‘tkazuvchan va moslashuvchan oyna va shisha. Quruq qurilish konstruksiyalarini kompensatsiya qilish uchun o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizimli qurilish poydevorlarini yaratish, o‘zlarining kuchlanish-deformatsiya holatini kuzatish, tom yopish inshootlarida energiyani saqlash, yo‘lning psixofizik holati, fotokatalitik qoplamalar kabi maxsulotlarda qo‘llanilmoqda. Nanotexnologiyalar dunyoni yangi texnologik inqilobga olib borishi va nafaqat iqtisodiyotni, balki inson muhitini ham butunlay o‘zgartirishi kutilmoqda [5]. Qurilishda nanotexnologiyadan foydalanganda an’anaviy qurilish materiallari modernizatsiya qilinadi, ularning xususiyatlari o‘zgaradi, buning natijasida ular butunlay boshqacha tarzda ishlaydi. Misol uchun, eng dolzarb

ishlanmalardan biri yuk ko‘taruvchi betonning ko‘rinishidir. "yaroqlilik muddati" hozirgi vaqtda 100 yil o‘rniga 500 yil deb belgilanmoqda. Beton konstruksiyaga maxsus nanozarracha kiritiladi va ushbu betondan osmono‘par binolar, uzun ko‘priklar quriladi .

Qurilish industriyasida texnologiyalarni ishlab chiqish birinchi navbatda yangi qurilish materiallarini joriy etishga emas, balki binoning funksional xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgandir. Hozirgi vaqtda muhandislar va olimlar qurilishda nanomolekulyar materiallardan foydalanishning quyidagi istiqbollarini ko‘rishmoqda:

-tuproqning qisqarishini, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi poydevor yaratish;

-zarar yoki deformatsiyaga javob beruvchi konstruktiv elementlarni ishlab chiqish;

- quyosh panellarini yopiq inshootlar sifatida qo‘llash;

-odamlarning ruhiy va jismoniy holatiga sezgir bo‘lgan qoplama zarralardan foydalanish;

-funksional qoplamalarni yaratish;

-binolarning mustahkamligi va zilzilaga bardoshliligini oshirish.

Qurilishda foydalaniladigon nanomaxsulotlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- nanobeton
- nangel
- nanoqoplamalar
-nanokompozit armatura

Nanobeton yuqori quvvatli va uzoq xizmat ko‘rsatish muddati bilan alohida ajralib turadi. YUqori mustahkam va bardoshli beton ishlab chiqarish uchun o‘ta nozik, nanoo‘lchamdagi zarralar qo‘llanilmoqda. Bunday materiallar uzoq masofali ko‘priklar, osmono‘par binolar, yadro reaktorlarining himoya qobiqlari va boshqalarni qurish uchun mo‘ljallangan. Titandioksidi nanopartikullari tozalanishi kerak bo‘lgan barcha narsalarni tozalash uchun ishlatiladi masalan, yodli yuzalar, shisha, yo‘l plitalari, hojatxona sirtlari, kiyim-kechak, stomatologik kiyimlar va boshqalar [6]. TiO2 qo‘shilishi bilan sementdan foydalanish agressiv shahar sharoitida ham uzoq vaqt davomida betonning ko‘rinishini (ayniqsa uning rangini) saqlab qolish imkonini beradi. Bir qator mamlakatlarda (YAponiya, Polsha, Fransiya va Rimda) allaqachon tashqi stentlari (beton, keramik plitkalar) titanium dioksid bilan qoplangan binolarning namunalari mavjud. Misol uchun, Rimdagi *Dives in Misericordi* cherkovi o‘zini tozalaydigan oq betondan qurilgan bo‘lib, cherkovning loyihasi maxsus texnologiyalarni talab qildi, yani uning devori qor kabi oq bo‘lishi va tozaligini saqlashi kerak. Buning uchun TX Astive qurilish kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan sementdan foydalangan [7].

U titandioksidi (T1O2) nanozarralarini o‘z ichiga oladi. Bunday sementning yuzasi fotokataliz tufayli o‘z-o‘zini tozalash xususiyatiga ega. Quyosh nurlari binoning devorlariga tushganda, sement tarkibidagi titandioksidi katalizator vazifasini bajaradi va kimyoviy reaksiyani tezlashtiradi. Bakteriyalar, mog‘or va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni bartaraf etadi. Har qanday binoning stentlari suv, kislorod va tuzlarga parchalanadi.

Oq beton va shishadan qurilgan cherkov atrofidagi binolar fonida tom ma’noda "porlaydi" [8]. Bunday binolar murakkab ob’ektlarning tuzilmalarini saqlash, ta’mirlash va tiklash uchun xarajatlarni va ish vaqtini qisqartirishga olib keladi.

Nanogel - Nanogel va aerogel yuqori issiqlik va ovoz izolyatsiyasini bajarish xususiyatlariga ega. Stoktondagi (Kaliforniya) Tinch okeani kollejida amerikalik olim Samuel Kistler XX asr boshlarida aql bovar qilmaydigan kashfiyot qildi. - SHaffof nanogellar (aerojellar) qiziqarli xususiyatlarga ega. Materiallar yuqori issiqlik va ovoz izolyasiyasi vazifalarini bajarib, energiyani tejovchi, tom yopish va yorug‘lik tizimlarida keng qo‘llaniladi. Nanogellar ko‘pincha qurilishning turli sohalarida qo‘llaniladi. Har xil turdagi jellardan foydalanish ekzotik materiallarni yaratishga imkon beradi. YAngi texnologiya taklif qilindi, unda to‘ldiruvchi nanozarrachalar dastlab nanozarrachalar dispersiyasi asosida gel hosil qilish orqali uch o‘lchamli panjara hosil qiladi. Keyin olingan matritsaga kerakli polimerning organik erituvchidagi dispersiyasi qo‘shiladi [9] . Erituvchi almashtirilganda yang idispers tizim hosil bo‘ladi.

Agar qurilish sanoati haqida gapiradigan bo‘lsak, unda *nano-qoplamalar* binolarni tashqi ta’sirlardan himoya qilish uchun ishlatiladi. Rangli plastik oynalarni infraqizil (issiqlik)nurlanishdan himoya qilish uchun mo‘ljallangan innovatsion plyonka bo‘lgan nanomateriallarning xossalari qurilish sohasida haqiqiy kashfiyotga aylandi. Quyosh energiyasini to‘playdigan nanokristallarni olish texnologiyasi SHanxay fan va texnologiya markazida ixtiro qilingan [10] . Ushbu nanoqoplamni elektr yoritgichi bo‘lmagan binolarning zinapoyalarida, shuningdek, evakuatsiya qilingan taqdirda masalan, ko‘ngilochar joylarda favqulodda yoritishda foydalanish mumkin. YOritish plyonkalaridan uy sharoitida foydalanishda nafaqat eksklyuziv yorug‘lik manbai sifatida, balki tejamkor yorug‘lik manbai sifatini ham bajaradi. Bundan tashqari, derazalar quyosh batareyalari sifatida ishlatilishi mumkin.

YAna bir yangi qurilish maxsuloti – rangli PVX oynalarni infraqizil nurlanishdan himoya qilish uchun *cool-colors* qoplamasi yaratildi. Maxsus pigmentlar tufayli plyonka issiqlik nurlarini 80% gacha o‘zida aks ettiradi va struktura xonaning haddan tashqari qizib ketishining oldini oladi, ramkaning ishlash muddatini uzaytiradi va konditsioner xarajatlarini kamaytiradi.

SHu bilan birga, laminatsiya paytida profilga qo‘llaniladigan innovatsion rangli *plyonka* ramkaga vizual 3D effektini berishga qodir.

Bu plyonkaning maxsus komponenti – olmosli bo‘yoqlardan foydalanish bilan bog‘liq.

Qurilishda nanomateriallardan foydalanishning haqiqiy yo‘nalishi energiyani tejashdir. SHanxay fan va nanotexnologiyalar markazida yaratilgan *shaffofn*

nanoqoplamalar quyosh energiyasini yig‘ish va saqlashi xususiyatiga ega. Binoning derazalari va devorlariga qo‘llaniladigan plyonkalar quyosh panellari kabi ishlaydi va energiya xarajatlarini kamaytiradi [11] . Olimlarning metallar va ularning qotishmalarini nanomodifikatsiya qilish sohasidagi tadqiqotlari mustahkamligi va pishiqligi bo‘yicha hozirda o‘xshashi bo‘lmagan yuqori mustahkam po‘latnanokabellarini yaratish imkonini berdi.

Qurilishdagi nanotexnologiyalar asosan nanomateriallarni yaratishda namoyon bo‘ladi. Ushbu sohadagi asosiy yo‘nalish – murakkab tuzilishga ega va o‘ziga xos mustahkamlik yoki harorat xususiyatlariga ega bo‘lgan turli xil materiallarni yaratish, shuningdek, atom va molekulyar darajadagi moddalarning o‘zini o‘zi tashkil qilish jarayonlari, bu esa tashqi ob’ektlarsiz ob’ektlarni yaratishga imkon beradi. Va hozirda materiallarni nanostrukturaviy modifikatsiya qilish usullarini ishlab chiqish, ularning eng muhim xususiyatlaridagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlarini o‘rganish va har xil turdagi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini olish uchun texnologik jarayonlarni ishlab chiqishga qaratilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar rejalashtirilgan va amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Arxitekturada nanotexnologiyalardan foydalanish birqancha yangi uslublarini yaratilishiga olib keldi. Bular – bionika, dekonstruktivizm, hay-tech, nanoarxitektura kabi uslublar bo‘lib, arxitektura soxasini estetik-dizayn jixatidan yanada boyitdi va arxitekturlarga ijodiy fikrlash erkinligini kabi imkoniyatlarni yaratdi.

.Arxitekturada nanotexnologiyalardan foydalanish arxitektorlarga materiallar va texnologiyalariga oid g‘oyalarni o‘zgartirishga, o‘z sohalarini kengaytirishga, memarlarning tasavvuridagi ammo amalga oshirishi muammoli bo‘lgan rejalarini amalga oshirishga, insonlarning hayoliy talablarini ro‘yobga chiqarishga, inson hayoti uchun qulay muhit yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Пустовгар А. Нанотехнологии в строительство.- Строительная газета.-2007. -1 окт.
2. Кузьмина В. П. Нанотехнологии в строительстве // Нанотехнологии в строительстве”.- 2010.-№ 1. С. 63-70.
3. Фиговский О. Л., Бейлин Д. А., Пономарёв А. Н. Успехи применения нанотехнологий в строительных материалах. –Научный Интернет – журнал “Нанотехнологии в строительстве”. -2013.-№ 3
4. Фиговский О. Л., Бейлин Д. А., Пономарёв А. Н. Успехи применения нанотехнологий в строительных материалах. –Научный Интернет – журнал “Нанотехнологии в строительстве”. -2013.-№ 3.- С. 6-21.
5. Bhushan B. Springer Handbook of Nanotechnology / B. Bhushan, Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2010. P1-2.
6. Serrano E. Nanotechnology for sustainable energy / Serrano, G. Rus, J. G. Martínez // Renewable and Sustainable Energy Reviews 2009. No 13. – P. 2373-2384.
7. Igarashi K. Nanotechnology for new industry creation and lifestyle creation / K. Igarashi // AIST Tsukuba, 2011. P. - 1-25
8. Рыбалкина М. Нанотехнологии для всех.-М.: Nanotechnology News Network, 2005. -444с.
9. Zhu W. Application of nanotechnology in construction: Summary of a state-of-the-art report / W. Zhu, P. Bartos, A. Porro // Material Structures 2004. No 37. - P. 649–658.
10. Pacheco-Torga Nanotechnology: Advantages and drawbacks in construction and building materials / T. Pacheco-Torga, S. Jalali // Construction and Building Materials 2011. No 25. – P. 582-590.
11. Bartos P.J.M. Nanotechnology in Construction: A Roadmap for Development / P.J.M. Bartos // Nanotechnology in Construction 2009. Springer-Verlag Berlin Heidelberg. P. 15-26.

SAMARQAND SHAHRIDA TURISTIK PIYODA YO’LAKLARINING ARXITEKTURASI

Bobobekov Bekzod Bahodirovich,
Aliyev Saadin Baxtiyorovich
Samarqand Davlat Arxitektura – qurilish universiteti,

Annotatsiya: Samarqand shahrining tarixiy hududlarini shakllantirishda piyodalar yo‘laklari arxitekturasi sohasida amaliy va xorijiy tajribalardan foydalanish, shaharsozlik va tarixiy piyodalar muhitini tashkil etishda amaliy va xorijiy tajribalardan foydalanish, piyoda yo'laklarining yutuq va kamchiliklarini ilmiy o'rganish, bu zamonaviy arxitektura ilmiy loyihani yanada rivojlantirishda samarali foydalanish bo‘yicha takliflar kiritish.

Kalit so’zlar: Hududning landshaft qismiga o’zgartirishlar kiritish, yo’laklar, irrigatsiya tarmoqlari, ko’kalamzorlashtirish va bino fasad qismlarini shu loyihalarga nisbatan uyg’unlashtirish.

Аннотация: Использование практического и зарубежного опыта в области архитектуры пешеходных дорожек при формировании исторических территорий города Самарканда, использование практического и зарубежного опыта в организации градостроительной и исторической пешеходной среды, прогулочные дорожки, научное изучение достижений и недостатков, это современная архитектура, внесение предложений по эффективному использованию для дальнейшего развития научного проекта.

Ключевые слова: Изменения ландшафта территории, тратуары, ирригационных сетей, озеленения и гармонизации фасадов зданий с учетом данных проектов.

Abstract: The use of practical and foreign experiences in the field of architecture of pedestrian walkways in the formation of historical areas of the city of Samarkand, the use of practical and foreign experiences in the

organization of urban planning and historical pedestrian environment. walking paths, scientific study of achievements and shortcomings, this is modern architecture. making suggestions on effective use for further development of the scientific project.

Key words: Changes to the landscape of the area, corridors, irrigation networks, landscaping and harmonization of building facades with respect to these projects.

Tadqiqot ob'ekti: Tarixiy Samarqandda turistik piyoda yo‘laklari (Islom Karimov ko’chasi, Registon ko’chasi, Universitet hiyoboni va h.k)

Asosiy qism. Turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri bo‘lgan turistik marshrutlar ishlab chiqishni o‘rganishga mo‘ljallangan. Turistik marshrutlarning tarixi, buyuk geografik davrlardagi sayyohlarning, Markaziy Osiyolik olimlar va geograflarning, XX asrda tadqiqotlar va kashfiyotlar qilgan sayyoh-olimlarning marshrutlari, turistik marshrut ishlab chiqishning usullari, marshrutlarda xizmatlar ko‘rsatish, ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish, marshrut tuzishning loyiha namunasi, maqsadi va vazifalarini belgilovchi muhim mavzular yoritilgan [2].

Arxitekturada tarixiy Samarqand piyoda yo‘laklarining tiplarini, shaharsozlik va tarixiy piyoda yo‘laklar muhitini tashkil qilish sohasidagi amaliy tajribalar, yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ilmiy o‘rganilib, me’morchilikning istiqboldagi taraqqiyoti uchun takliflar berilgan [1].

Tarixiy Samarqandda turistik piyoda yo‘laklarining zamonaviy tusga keltirilishida muammoli jihatlar o‘rganilib, shaharning asosan tarixiy hududida madaniyat bilan jamoaviy muhitining o‘zaro ta’siri masalalariga yechimlar topish ko’zda tutilgan. Samarqand tarixiy shahar qismidagi piyoda yo‘laklarning saqlanishi va piyoda yo‘laklarning an’anaviy kompozitsion yaxlitlikda ko‘rinishi, shaharlar piyoda yo‘laklarining kelajakdagi loyihalarini tuzish jarayonida tarixiy me’morchilik an’analarini nazarda tutish [1].



1-rasm. Islom Karimov ko’chasi

Samarqand shahri tarixiy piyoda yo‘laklar hududining shakllanish davridan XXI asr boshlari arxitekturasining holati, shakllanish va rivojlanish darajasiga holisona ilmiy baho berilmagan, yutuq va kamchiliklar yuzasidan ilmiy tahlillar kam. Bu davrda shakllangan me’moriy ijodiy uslublar, me’moriy-badiiy yo‘nalishlar aniqlangan, lekin etarlicha emas. Turistik marshrutlarni tashkil etish usullari tarixan shakllangan ko'chalarning o'ziga xosligini, shahar muhitining parchalarini ochib berishga mo'ljallangan [2].

Muammolar. Turistik piyoda yo’laklari muhitining uzluksizligi tarixiy markazning barcha hududlarini hamma joyda piyodalar bog'lanishini ta'minlaydigan o'zaro bog'langan piyodalar yurish joylarining yagona tarmoqli tizimini yaratishni nazarda tutadi [2].

Piyodalar va dam olish joylarining uzluksiz tizimi, shuningdek, transport tarmog'i shahar hududlarida ulanishni yaratadi, bu esa shahar hududlarini yurishga qulay va o'zaro ochiq qiladi. Turistik yo'nalishlarning ijtimoiy bog'liqligi shaharning chekka va markaziy qismida joylashgan, daromadi past odamlar yashaydigan hududlarni yagona ijtimoiy doiraga kiritish imkonini beradi.

Turistik piyoda yo’laklarining muhitini shakllantirish uchun tabiiy va texnogen landshaftlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular shahar ansamblini rivojlantiruvchi yagona me'moriy makonni yaratish vositasidir. Tabiiy elementlar - relyef, suv, ko'chatlar - odatda ochiq me'moriy kompozitsiyani to'ldiradi. Piyoda turistik marshrutlar tizimi muhitining me’moriy-badiiy ko‘rinishi va qulayligi ko‘p jihatdan texnogen maydonlar va shahar muhitining tabiiy komponentlarining o‘zaro ta’siri xususiyatlariga, shuningdek, muayyan shahar landshaftining xususiyatlariga bog‘liq. Har bir shaharda shahar muhitining morfologiyasiga qarab, piyoda yurish yo'llari tizimi uchun o'ziga xos joylashuv va ramka turi mavjud. Shunday qilib, turistik marshrutlar tizimini tashkil etish strukturasi ko'p jihatdan relyef tuzilishi, mavjud yodgorliklarni joylashtirish xususiyati, ko'cha va yo'l tarmog'ining izi, transport infratuzilmasi, shaharning vizual tuzilishi bilan bog'liqligi bilan belgilanadi [3]

Turistik marshrut atrof-muhitining ijtimoiy va ekologik sifat xususiyatlarini yaxshilash uchun har qanday rejalashtirish usullaridan foydalanish aniqlanmagan. “Yashil chiziq” piyoda turistik marshruti na shaharning jamoat dam olish maskanlari tuzilishiga, na uning ekologik tuzilishiga mos kelmaydi. Tashrif ob'ektlari tematik emas, ular shahar tarixining turli davrlaridan tanlangan. Yo'lda shaharning yog'och tarixiy binolarining saqlanib qolgan massivlari ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, "Yashil chiziq" aniq bo'lmagan, erkinlikka intiladigan rejalashtirish tuzilmasiga ega. Kirish va chiqish nuqtalari hech qanday tarzda ta'kidlanmagan, marshrutning har qanday oddiy nuqtalari boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin [2]

Shaharsozlik nuqtai nazaridan piyoda turistik marshrutlar - bu turli xil urbanizasiya va rekreasiya zonalari, muassasalari va majmualari, tabiiy hamda madaniy tabiatning alohida ob’ektlari, muhandislik kommunikasiyalari, xizmatlarni ishlab chiqarish, iste’mol qilish muassasalari va boshqalarni o‘z ichiga olgan fazoviy tizimlardir [3].

Piyoda turistik marshrutlar tegishli hududning tabiiy – iqlim, sog‘lomlashtirish, tarixiy – madaniy, ma’rifiy

va ijtimoiy – maishiy ob'ektlari majmui deb hisoblanadi. Kengroq qilib olganda sayyohlik resurslarga tabiiy, tarixiy, ijtimoiy va madaniy ob'ektlar, shu jumladan turistik ko'rgazma ob'ektlari hamda sayyohlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondira oladigan, ularning jismoniy kuchlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradigan boshqa ob'ektlar va muassasalar kiradi.

"Yashil chiziq" piyodalar turistik marshrutining aloqa tizimi nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilganligini, biroq atrof-muhit va undagi ekologik komponentning qulayligi hech narsa bilan ta'minlanmaganligini ta'kidlash lozim. O'tkazilgan tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, "Yashil chiziq" turistik yo'nalishini takomillashtirish zarur, chunki yo'nalish atrof-muhit sifati xalqaro standartlarga javob bermaydi [3].

Qadimgi Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan Samarqand o'zining boy madaniy – tarixiy merosi, betakror sharqona qiyofa va rang – barangligi, ajoyib tabiiy – iqlim sharoiti, yuksak sayyohlik salohiyati bilan mashhur bo'lgan dunyoning qadimiy shaharlaridan biridir [3].

Yechim. Xorijiy tajribalardan namuna olsak, Angliyada smartfonga (qo'l telefon) qarab yuradiganlar uchun alohida piyoda yo'laklari tashkil qilingan va ularda hech qanday to'siqlar yo'q. Manchester ko'chalarida yuradigan va smartfon ekraniga qaraydigan odamlar uchun maxsus piyoda yo'llari paydo bo'lganligi ma'lum bo'ldi. G'ayrioddiy loyihaning muallifi AO-Mobile uyali aloqa operatori bo'lib, u o'z foydalanuvchilariga g'amxo'rlik qilishni hohladi [4].




Kirishdan ro'paradagi g'arbiy devorga e'tibor beramiz. Yuqoridan chapda, tasvir saqlanib qolgan joyda, oq kiyim kiygan kishining surati va kiyimining etagida 16 ta sug'diy yozuv saqlanib qolgan. Bu satrlar unash naslidan bo'lmish shoh Varxumanning elchilar qabul qilish marosimiga taluqlidir. Xitoy solnomachilari bu nom bilan faqat bitta shoh Varxumanni bilganlar,655 yilda Tan davlatiga shoh Varxuman elchilarini fuqoralik masalasi bo'yicha yuborgan, bu aftidan Eron bilan bo'lgan urush tugallanganidan so'ng, arablardan kutilgan xavf-xatarga qarshi bo'lgan amal bo'lsa kerak.

G'arbiy devorning pastki qismida tasvirlangan sovg'a olib borayotgan elchilarning tantanali yurish marosimi satrlarda ko'rsatilgan yozuvlarga mos keladi. Bu sahna ochiq joyda tasvirlangan bo'lib, bizning ko'z o'ngimizda qurollar to'plami, tirgakka o'rnatilgan nayzalar, o'ng tomonda g'alati niqoblar bilan bezatilgan qalqonlar uyumi tasvirlangan. ikkinchi qatordagi tasvirlar esa, tomoshabinga orqasi bilan o'tirgan uzun

sochli kishilar bo‘lib, ular aftidan hokimiyatning shaxsiy gvardiyasini tashkil etgan turklar bo‘lgan.

Endi yozuvlar oldida turgan uchta soqolli kishilarni ko‘rib chiqamiz. Ular qilich va xanjar bilan qurollangan bo‘lib, shoyi kiyimlar kiyinishgan, yaktaglari har xil jonivorlar rasmi bilan bezatilgan, bular o‘sha davrdagi sosoniy Eroni va Xitoygacha tarqalgan uslub bo‘yicha kiyinishgan. Ularning biri taqinchoq va bezaklar, boshqalari shoyi to‘plami olib ketyaptilar. Oq va qora rangdagi odamlarning navbat bilan kelishi, Sug‘dda ikki xil tusdagi odamlar bo‘lganidan darak beradi**.**

Yozuvda ko‘rsatilganidek, qoraroq tusdagi markaziy personajni, mansabi bo‘yicha, Shosh (Toshkentning eski nomi) hukmdorining devonxona boshlig‘iga o‘xshatish mumkin. O‘ngroqda oddiy kiyingan, jismonan mug‘ullarga mansub kishilar turibdi. Ulardan biri (shikast yetgan devorning o‘ngrog‘ida) belida ro‘mol osilgan qo‘shnisining ortidan ro‘moliga teginib turibdi (bu rasm bo‘lagini yaqinda fransuz mutaxassisi Aliks Barbe ta’mirlash ishlari vaqtida aniqladi). Devorning o‘rta qismida bir-biriga simmetrik ikkita guruh marosimga tantanali chiqmoqda. O‘ng tomonda esa qora qalpoqlar kiygan, mevalar va shoyi gazlamalar ko‘targan Xitoy elchilari boryapti. Bu yerda boshqa xitoyliklarning ham qizil hoshiya bilan belgilangan tasviri ko‘zga tashlanadi. Izlanishlardan biri bo‘yicha, rasmlar ustida ishlanayotgan paytda kompozitsiya o‘zgartirilgan. Bu personajlardan o‘ng tomonda sochlari uzun turklar boryapti, bu galda ular chet el elchilari sifatida tasvirlangan.

Yana o‘ngroqdagi tasvirlarga e’tibor beramiz.Bu yerda uch kishi tasvirlangan bo‘lib, ular yoqaga biriktirib tikiladigan qaytarma qalpoqsimon ustki kiyimda bo‘lib, oyoqlarida uzun paypoq etiklar kiygan, aftidan bu odamlar tog‘li xonliklar elchilari bo‘lgan (hozirgi davrda bu tasvirlar arang ko‘rinadi). Bularning orqasidan sochlarida parlar bog‘langan ikki kishi turibdi. Bu bosh kiyimi, 699 yilda Xitoy Tan imperiyasi tarqibidagi birlashtirgan Koguryo shohligiga mansub koreyslarga oiddir.Bu tasvirlardan yuqori qismida devor buzilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda u yerda nima tasvirlangani noma’lum.

Shimoliy devor

O‘ng tomondan boshlanadigan shimoliy devorning kompozitsiyalari esa boshqa olamga chorlaydi. Biz go‘yoki Samarqandda emas, Xitoydamiz. Chap tomonda ikkita sayr qayiqlarida ayollar tasvirlangan, birinchisi yaxshi saqlangan. Qayiqning quyruq tomonida musiqachilar turli musiqa asboblar bilan tasvirlangan, boshqalariga qaraganda yirikroq tasvirlangan ayol-xonzoda (qirolicha) bo‘lgan. Oldinda esa boshqa sahna ko‘rinadi: ya’ni xizmatkor ayol boshqasining qo‘lidan tutib, yarashmoqchi bo‘lyapti va xonzodaga ishora qilyapti, u esa ikkalasini tinchlantirib, yarashtirib qo‘ymoqda. Marko Polo davrida Xitoyni ajib jonivorlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, bu yerda ham VII asrga mansub, suvda har xil g‘ayritabiiy jonivorlar: echki boshli va ilon dumli ajdaholar suzib yuribdi. O‘ngroqda soxta soch kiygan odam, suvda suzayotgan otning dumidan ushlab turibdi. To‘lqinli chiziq tasvirni ikkiga ajratib turibdi, aftidan ikki tog‘ etagini eslatadi. Bu yerda Tan davriga oid mos kiyingan xitoyliklar, qoplon ovlamoqdalar. Yana o‘ngroqda boshqa shakllarga nisbatan yirikroq tasvirlangan, lekin yomon saqlangan asosiy otlik kishi tasviri bor. Sug‘d madaniyatining sharti bo‘yicha, rasmlardagi nomutanosiblik xudolar va shohlarni bildiradi. Bu yerda Xitoy shohi imperatori haqida gap ketadi, uning xotinini biz yuqorida ko‘rdik.

Saroy interyer devorlarining birida suratda og’zi bog’langan ikki kishi tasvirlangan. Bu yerda zardushtiylar kohini (qurbon qiluvchi) emas, balki bayramona kiyingan, qurollangan aslzodalar tasvirlangan, ular qurbonlik jonivorlarini olib bormoqdalar. Bu jonivorlardan biri kulrang ot bo’lib, u egarlangan, lekin chavandozsiz, yana biri to’rtta g’oz ko’tarib boryapti, ularning qanotida sug’d yozuvi keltirilgan. ***4-rasm***



4-rasm. Afrosiyob devoriy surati



5-rasm.Aso ko’targan ikki chavandoz

Har xil hujjatlarda ko’rsatilishicha, egarlangan ot qurbonlik qilishda foydalanilgan va u aftidan quyosh xudosi va o’liklar hakami Mitraga atalgan. G’ozlarga kelganda esa, ular cheksiz davr xudosi Braxmaga taqqoslanadigan Zurvanga baxshida etilgan. Zurvan to’rt xil shaklda bo’lib, uning ramzi yovvoyi g’ozlar edi.

Qurbonliklar oldidan ikkita chavandoz tuyada qo’lida aso bilan bormoqda.

5-rasm. Bu marosimiy yurishning oxirida sariq ot ustida bo’ynida tumor va qoplon terisi tashlangan, qizil ko’ylakda ulkan odam, shoh Varxuman tasvirlangan. Shoh tasvirlangan joyda, xuddi shimoliy devordagi Xitoy imperatorining turgan joyi bilan mos keladi.

Shohning avlodlari yotgan joy yaqinida, oq fil tasviri bo'lib, uning ustidagi taxtiravonda yuqori mansabdagi ayol o'tiribdi, u shoh Varxumanning xotini deb ta'kidlashadi. Uning orqasidan egarlangan otlar ustida uchta yosh juvonlar tasvirlangan, ayollarning birining bilagida — mansabdor beka-xonim yozuvi saqlanib qolgan. Bundan yuqorida esa mansabdor chavandozlar safi bo'lib, faqat otlarining oyoqlari ko'rinmoqda, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ular turk gvardiyasi deb ta'kidlanadi.

Afrosiyob devoriy suratlarida syujetlar erkin joylashtirilgan bo'lib, tasvirlarning mukammal o'rni bor.

Samarqand viloyatida 2016−2017-yillarda 15 madaniy yodgorlik ob'ektini shu jumladan, ―Afrosiyob tarixiy yodgorligi restavratsiya, rekonstruksiya qilish va ular bilan yondosh hududlarni obodonlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Shular jumlasidan Arxitektura fan.dok.professor Sultonova Dilshoda Namozovna tomonidan ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan, Afrosiyob saroyining interyerlaridagi devoriy rangtasvir namunalarining ko'rinishi tiklandi va Samarqand arxeologiya instituti kirish foyesiga tushirildi. 6-**rasm**

Keyinchalik arxeologiya instituti qayta rekonstruksiya qilish jaroyonida devoriy suratlar Samarqandlik rassom Xurshed Xalilov tomoni qayta chizilgan.

Rassom Xalilovning chizgan afrosiyob devoriy suratlarida siz qadimiy saroydan topilgan va saqlanib qolgan asl devoriy suratni ko'rishingiz mumkin. Sababi u yerda rassom aslidan kop farq qilmaydigan qilib devoriy suratlarni chizgan.Suratlarning kolloretiga ham etibor bersangiz o'tkir ranglardan foydalanilmagan.7-**rasm**



6-rasm.Arxeologiya instituti foyesidagi devoriy surat.(Sultonova.D.N tomoidan chizilgan).



7-rasm.Arxeologiya instituti foyesidagi afrosiyob devoriy surat.(Xalilov.X. tomonidan chizilgan).

Adabiyotlar

1. V.V.Bartold. Turkistonga xizmat safari haqida xabar, Asarlar, IV jild, Afrasiyob qadimiy manzilgohi, Soch., IV jild,

2. A. I. Terenojkin. 1945 yilda Afrasiyob manzilgohining arxeologik tadqiqotlari. KSIIMK, XVII, 1946,

3. Qadimgi Samarqandni tarixiy va arxeologik davrlashtirish masalalari, VDI, 1947, 4-son,

4. Z.F.Bahriddinova. "Samarqand shahar restoranlarining interyer bezaklarida devoriy suratlarni qo'llash tamoyillar".Dissertatsiya. Samarqand 2022 y.

ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПОВЕРХНОСТЕЙ ФАСАДОВ ИСТОРИЧЕСКОГО ЗДАНИЯ ЯПОНСКОГО ГОСПИТАЛЯ В Г. КАГАНЕ

Вахитов М.М., доктор техн. наук, проф**.**
Воҳидов И.М.,
Нозимов У.А.
Бухарский инженерно-технологический институт,

Аннотация: В статье рассотрены вопросы технического состояния поверхностей фасадов исторического здания, являющимся культурным наследием. Показаны, что в процессе эксплуатации объекта в период более чем 125 лет, под воздействием атмосферных факторов происходили различные повреждения снижения качество кирпичного здания. На освове анализа технического состояния здания рекомендована его реставрация.

Ключевые слова: Историческое здание, японский госпиталь, техническое состояние, фасад, кирпичная кладка, здания, признаки ветхости, реставрация.

Историческое здание японского госпиталя было построено в г. Кагане на рубеже девятнадцатого и двадцатого веков для использования в качестве японской больницы. Японский госпиталь была построена русскими и бухарскими мастерами (рис.1) по проекту итальянского архитектора.



Рис.1. Общий вид южного фасада здания японского госпиталя по архивным материалам (1956 г)

Здание является хорошим образцом конца XIX и начало XX века, построенным из «николаевского кирпича» [1,2]. Отделка фасада осуществлялась путем различного сочетания кирпичной кладки. Фасад здания оформлен плоской полосы кирпичной кладки, а окна подчеркнуты декоративной кирпичной кладкой. Существующая застройка по своему художественному и архитектурно-планировочному решению и типу застройки сыграла важную роль в формировании местных ансамблей, улиц и площадей. Здание имеет Г-образную форму, длиной 193 м, шириной от 6 до 13 м и двумя существующими этажами, расположенными над главным входом.

Кладка здания японского госпиталя по восточным и южным фасадам облицовочная кирпичная, северный фасад, обращенный двору школы заштукатурен и не видна отделочная кирпичная кладка.

Декоративные элементы карнизов и мотивы пилястр также выполнены из кирпича. В частности, на участках под окнами, имеющими деревянные рамы, расположены прямоугольные модули с декоративными мотивами в центре, выполненными чередованием мелкого кирпича, окрашенного на поверхности в красный и зеленый цвета. Швы оформлялись с помощью закругленного инструмента, придающего раствору особую форму.

Части главного входа с двойными железными воротами были поверхностно окрашены в белый цвет. В центральной части южного фасада здание возвышается на один этаж, показывая в базовой части выступающих балок, а выше, вставленный между двумя окнами, центральный элемент, который, должно быть, изначально имел гипсовый декор, возможно, сделанный для имитации поддельной архитектуры. Лишь небольшая часть сохранилась в правой нижней части, которая также частично отделена и залита раствором, издалека кажущимся цементным.

Поверхности в целом имеют различные виды деградации, в основном из-за антропогенного и экологического ущерба. Присутствующие изменения и типы деградации в конкретном случае проявляются на фасадах с разной интенсивностью в зависимости от воздействия одного и того же или в зависимости от местоположения части: прямое воздействие атмосферных факторов на выступы, такие как декоративные венчающие элементы, или защищенные части, такие как кронштейны, карнизы или отделка под подоконником, морфология и высота по отношению к фасаду.

Кирпичная кладка имеет высокую степень физико-химической деградации, в основном вызванную внешними факторами, такими как солнечная радиация, дождь и ветер, с последующими химическими явлениями, возникающими в результате осаждения пыли, газов и взвешенных веществ в атмосфере, которые реагируют с поверхностными слоями материалов. В соответствии с горизонтальными поверхностями и головками кладки можно отметить развитые явления повреждения и разрушения материалов, возникающие в результате реакций между биологическими факторами, поверхностных отложений органических и неорганических веществ и загрязняющих атмосферных элементов (рис. 2 и 3). Износ искусственных компонентов кладки, таких как раствор и кирпичи, также связан с внутренними факторами, обусловленными специфическими химико-физическими характеристиками глины, процессами обжига, обработки и ее полегания.

Отложения, присутствующие на всех поверхностях, сами по себе не вызывают особого беспокойства, за исключением того факта, что в некоторых местах они представляют собой первую стадию черной корки, которая со временем может создавать все более плотный слой, вызывающий химический процесс сульфатации. Данное явление более заметно в местах, где карнизы на вершине кладки отсутствуют и имеют трещины.



Рис. 2. Общий вид восточного фасада обследованного японского госпиталя образной формы (2024 г); наблюдается повреждение и частичное разрушение элементов стены восточного фасада

Крепления и различные деревянные элементы на фасаде здания имеют общий износ, характеризующийся потерей защитного слоя, а также изменением цвета и трещинами на составных материалах, в основном из-за воздействия солнца и атмосферных факторов, в то время как элементы в металлические материалы имеют явные признаки коррозии.

Обнаруженные явления деградации могут быть идентифицированы в соответствии с эффектами, которые они вызвали на поверхности материалов, характеризующимися простыми изменениями или все более серьезными патологиями, которые изменили внешний вид поверхности, влияя на восприятие поверхности, в частности:

-удаление материала из-за эрозии, особенно вызванной выщелачиванием и дезинтеграцией, из-за кристаллизации солей, содержащихся в воде, проникших в структуру из-за пористости материалов.

Это явление часто связано с си высолами. Когда снятие происходило при наличии зажимов или штифтов, которые, окисляясь или увеличиваясь в объеме, имели место явления растрескивания и отрыва с последующей потерей материала отщепами;

-укопление различных типов материала с отложениями, которые вызывают изменения в цвете, внешнем виде и структуре;

-необратимая модификация элементов фасада с последующим риском обрушения декоративного элемента.



Рис. 3. Фрагмент поврежденной кирпичной кладки подоконника, где видна использованный строительный раствор; судя по цвету использованный раствор на известково-гипсовом вяжущее

В цокольных частях стен фасада присутствуют многочисленные отслоения и падения штукатурки. На этих участках видны трещины, обычно не имеющие значения для статики фасада и видимые в настоящее время в виде опустошения швов между камнями. Длительное и текущее воздействие климатических явлений привело видимо к обеднению растворов с потерей часто значительного материала. Явление связано с присутствием в воздухе диоксида серы SO_2 и образованием серной кислоты H_2SO_4.

В условиях окружающей среды артефактов, выставленных на открытом воздухе в густонаселенных и загрязненных районах городов, образование серной кислоты также обусловлено атмосферными взвесями и солнечной радиацией, которые действуют как катализаторы. Ухудшение принимает несколько тенденций, таких как крошение каменной структуры, обеднение соединительных растворов из тесаного камня, крошение кирпичных полос.

Анализ ветхости фасадов и последующее выявление патологий и соответствующих вмешательств, которые необходимо выполнить, будут в основном состоять из операций по очистке с удалением и восстановлением ранее существовавшего цвета, чтобы стандартизировать объект вмешательства, однако, прежде всего, сохраняя исходные черты фасадов здания [3-6].

Известно, что положениям сохранности можно отнести следующие мероприятия: предварительная деятельность перед действиями по сохранности, дезинфекция и обработка от вредителей, обработка металлических элементов, консолидационные работы, удаление неподходящих материалов, очистка архитектурных поверхностей, обработка деревянных элементов, затирка и коррекция швов, а также нанесения завершающего защитного слоя.

Возможный вариант касается дверей и окон. В настоящее время необходимость повышения эффективности является существенной, и необходим разумный баланс между сохранением и устойчивостью, когда имеется дело с архитектурой, имеющей историческую ценность. Окна вносят существенный вклад в архитектурную характеристику фасада, придавая ему ритм и гармонию.

Таким образом, обследования показали, что на восточном и южном фасадах обследованного здания имеет место повреждение и частичное разрушение кирпичной кладки нижней части стены, техническое состояние фундамента из природных камней местами также разрушены. Техническое состояние верхних частей стен, перемычек из декоративной кирпичной кладки, архитектурных элементов крыши и её металлическое ограждение и карниза восточных и южных фасадов в целом удовлетворительное; целесообразно чистка и покраска металлического ограждения крыши. Отмостка здания по периметру здания практически поврежденная и разрушенная. В целом рекомендуется выполнить реставрацию фасадов с устранением повреждений и дефектов исторического здания японского госпиталя.

Литература

1. Vaxitov M.M., SHaripova F.N. Architecture. History of architecture Textbuk. Bukhara. “Durdona” publication. 2023 г.

2. RomanYu. Pochekaev, New bukhara: An island of russia in central asia, Basic Research Program Working Papers Series: Law WP BRP 86/LAW/2018/.

3. Методика комплексного технического обследования исторических и архитектурных памятников, АО «Уз ЛИТТИ» от 1996 г.

4. КМК 2.02.01-98. Основание зданий и сооружений. Ташкент, Узархитектстрой. 1999.

5. КМК 2.01.03-19. Строительство в сейсмических районах. КМК 2.01.03-96).

6. Вахитов М.М. Бинолар ва иншоотлар конструкциялари. Дарслик. Бухоро. Дурдона нашриёти. 2023 й.

O‘RTA OSIYO TARIXIY SHAHARIDA GIDROTEXNIK INSHOOTLARINING TARIXI VA BUGUNI

Chorshanbayev F.,
Meliyeva Ch.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish inversiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Anatasiya: O‘rta Osiyo katta qismining tabiiy - iqlimiy sharoitlari qadim zamonlardan suv xo‘jaligining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerdagi, chamasi, faqat sun’iy sug‘orishdagi qishloq xo‘jaligi, suvni tutib qoluvchi to‘g‘on suv havzalari qurishni talab etgan, suv – to‘g‘onlari, sisternalar, yo‘llarda sardoba, koruzlar hamda quduq va ko‘priklar bilan jihozlash, shahar hayotining rivoji uchun bir qancha suv singdiruvchi quduqlar tipidagi yirik hovuzlar, ichimlik suvtarmoqlar va sanitar - maishiy inshootlar qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Kalit so’zlar: to‘g‘on, hoviz, damba, band, sardoba, koruz, quduq, ko‘prik.

Irrigatsion va gidrotexnik qurilishning rivoji quruvchilar oldiga, suv bilan ishlaganda chidamli bo‘lgan maxsus qurilish xom ashyolarini izlash bilan bog‘liq bo‘lgan qator jiddiy vazifalarni qo‘yadi.

Qadimgi suv inshootlari ota-bobolarimizdan qolgan arxitektura yodgorliklari qatorida muhim o‘rin tutadi va ularning tipologik asoslaridan birini tashkil etadi. Maxsus hovuzlar, korizlar sardobalar, suv omborlari, ko‘priklar kabi gidrotexnik inshootlar murakkab muhandislik madaniyatining namunasi sifatida, avvaldan tayyorlangan loyihalar asosida bunyod etilganligini isbotlaydi.

Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgan sun’iy suv havzasi hovuz bo‘lib, suv yig‘ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy, shuningdek u ichimlik suvini ham saqlagan. Hovuzlarning chorsi, to‘rtburchak, aylana, olti qirrali va sakkiz qirrali turlari mavjud. Hovuzlar asosan mahalla guzarlarida masjid va madrasalar yonida, shahar maydonlari, bog‘lar, chorbog‘lar, saroy hovlisi kabi hududlarda bunyod etilgan. Atrofini toshlar bilan mustahkamlab daraxtlar ekib soya-salqin joyga aylantirilgan, ko‘pincha favvoralar bilan bezatilgan. Hovuzlarning qadimdan arxitekturada, ayniqsa ansambllar tashkil etishdagi ahamiyati katta bo‘lgan. Qadimiy Misrda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi hovuz yo‘lkaning ikki tomonida bunyod etilgan. Keyinchalik me’moriy majmualar tarkibida hovuzdan unumli foydalanila boshlangan: Agradagi (Hindiston) Tojmahal, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa, Labihovuz, Bolohovuz va boshqalar nafaqat aholini suv bilan ta’minlagan, shaharlarning takrorlanmas ko‘rkam va jozibali manzillari bo‘lgan. Masalan, Buxoro Shohrud arig‘i yaqinidagi eng katta va ko‘rkam Labihovuz (1620 y) harakterlidir. Markaziy Osiyo da eng yirik hisoblangan. Hovuz tarhi to‘rtburchakli, hajmi 36x46m, chuqurligi 5 m bo‘lib 4320 metr kub suvga mo‘ljallangan, burchaklari qiya kesik chekkalariga yirik toshlar zina tarzida terilgan. XVIII asrga oid yozma manbalarda qayd etilishicha, Toshkentning o‘sha davrdagi markaziy maydoni Registon va Shayhontohurda hovuzlar bo‘lgan, uning atrofida daraxtlar o‘sgan, qo‘lyozmalarga ishlangan miniatyuralarda ham hovuz o‘z ifodasini topgan.

Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo‘lganligi XIX asr xujjatlarida qayd qilingan. XX asrda esa sanitariya talablari bahonasi bilan aksari hovuzlar quritib o‘rniga binolar qurilgan. Hozirda O‘zbekiston hududida tabiiy iqlim sharoitlarini e’tiborga olinib hovuzlar (suv havza)lar bunyod etilmoqda, ular favvoralar bilan uyg‘unlikda so‘lim maskanlar hosil qiladi.

Hovuzning yana bir turi “qulfakli”hovuzlar bo‘lib, qurilish uslubiga ko‘ra bu hovuzlar oddiy hovuzlardan farq qiladi. Bu hovuzlar yerni o‘yib emas, balki do‘nglikka yoki soyning biron qirg‘og‘iga qurilgan.

Buning uchun bo‘yi 60, eni 40 m keladigan qulay maydoncha tanlanib, uch tomoniga tosh va chimdan balandligi 2m keladigan devor qurilgan.

Devorning tagi 3 metr, yuqorisi 1,5 metr qilib uriladi. Hovuzning yuqori va pastki qarama-qarshi tomonlarida ikkita qulog‘i bo‘lib, ulardan yuqorisidagisi teparoq keladigan soy-suvini hovuzga bog‘lash uchun, pastdagi esa hovuzda to‘plangan suvni chiqarish uchun ishlanadi. Hovuzdagi suvni chiqarish uchun oqilona ishlangan bu “mexanizm”-“qulfak” deb ataladi. Hovuzga suvni to‘plashda va chiqarishda ular qulf vazifasini bajaradi. Hovuz tagidan o‘tkazilgan quvur ham diqqatga sazovor bo‘lib, uning kesimi to‘rt burchak shaklli tosh plitalardan ishlangan. Quvurning suv oqib chiqadigan tashqi og‘zi suv kiradigan ichki og‘ziga nisbatan ikki baravar keng. Masalan, uning ichki og‘zining kattaligi 40 sm bo‘lsa, tashqarisi 80 sm bo‘ladi. Sababi qulfak ochilganda hovuzdagi suv bosim bilan teshikdan o‘tib, quvurga oqib kirganda suvning kuchli zarbi quvurning tashqi og‘zini o‘pirib ketishini yaxshi hisoblagan qadimgi muhandislar suv bosimini kamaytirib, oqim zarbini sindirish maqsadida quvurni konussimon qilib qurganlar. Shuning uchun ham bunday oddiy, biroq har taraflama puxta qurilgan inshootlar “qulfakli” hovuzlar deb atalib, Markaziy Osiyoning tog‘ oldi tumanlarida keng tarqalgan, ulardan hozirgi kungacha sug‘oriladigan dehqonchilikda foydalanib kelinmoqda. Birgina Forish tumanida (Jizzax viloyati) bunday qulfakli suv inshootlarini Nurak, Qoraxon Qurbonxoji, Pastko‘cha, Yonbuloq kabi o‘nlab qishloqlarda uchratish mumkin.

Yirik gidrotexnik inshootlardan bandlar Markaziy Osiyo arxitekturada interyerida alohida o‘rin egallaydi. Band-to‘g‘on, damba, suv ombori; Masalan, X asrda hozirgi Forish tumani Pasttog‘ darasida toshdan qurilgan Xonbandi, Nurota tumanidagi G‘ishtband (XII asr), shu tumandagi Beglarsoy darasida qurilgan Abdullaxon bandi va boshqalar.

Pasttog‘ (Osmonsoy) darasiga qurilgan Xonbandi suv ombori XX asrda akademik Ya.G‘.G‘ulomov boshliq arxeologik ekspeditsiya tomonidan tekshirilgan. To‘g‘onning uzunligi ustki qismida 51,75 m, asosida 24,35 m bo‘lib, balandligi 15,25 metrga teng. To‘g‘on granit toshlardan yo‘nib qurilgan bo‘lib, toshlar suvga chidamli maxsus qurilish qorishmasi bilan bir-biriga mahkam biriktirilgan.

To‘g‘on qurilgach Osmonsoy darasi ichida uzunligi bir yarim kilometr, eni to‘g‘on oldida 52 m va dara og‘zida 200 m kattalikdagi suv ombori hosil bo‘lgan.

Osmonsoy va Ilonchi soylardan bahorda keladigan sel suvlari ana shu omborda to‘planib, taxminan bir million olti yuz ming kubometr hajmdagi suv zapasini hosil etgan xonbandi suv omboriga to‘plangan suv bilan Qizilqumning Mirzacho‘l bilan tutashgan chegarasida, taxminan bir yarim ming gektar yer maydoni o‘zlashtirilib, inshootdan 6 km shimolda mustahkam rabot va obod qishloq qad ko‘targan. Hozirgi kungacha saqlangan bu rabotning xarobalarini mahalliy aholi Kaltepa nomi bilan ataydi.

Abdullaxon bandi - XVI asrning 80 yillarida Buxoro hukmdori Abdullaxon II qurdirgan qadimiy suv ombori XVI asr Buxoro tarixchisi Hofiz Tinish Mirmuhammad Al Buxoriyning “Abdullanoma” nomli qo‘lyozma asarida va XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yozilgan “Tarixi Salimiy” qo‘lyozma asarlarida yozilishicha bahorgi yomg‘ir suvlarini to‘plash uchun qurdirilgan to‘g‘on qoldiqlari Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlangan o‘sha davrdagi eng ulkan va murakkab suv inshootlaridan bo‘lgan. 1957-1962 yillarda O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti olimlari tomonidan o‘rganilgan Abdullaxon bandining to‘g‘oni slanes toshlardan qurilib, tosh palaxsalari suvga chidamli maxsus ganch qorishmasi - qir bilan biriktirilgan. To‘g‘onning uzunligi asosida 73m, yuqorisida 85m, balandligi 14,5m ni tashkil etgan. Bunda suv bosimi hamda uning ag‘daruvchi kuchi hisobga olingan holda to‘g‘on asosining qalinligi 15,3m ustki qismi 4,5m qilinib zinapoya shaklida qurilgan. To‘g‘on oldida hosil bo‘lgan suv omborining uzunligi 1,5km, eni 75-125m. Abdullaxon bandiga taxminan bir million ikki yuz ming kubometr hajmdagi suv to‘plangan.

Inshootdan quyi joylashgan Kamar, Oqchob, O‘rganjiy, Ravot, Jilon - tamg‘ali va Soykechar qishloqlari atrofi sug‘orilib obod etilgan. XVI asrda ana shu qishloqlar hududida taxminan bir million ikki yuz ming gektar yer maydoni o‘zlashtirilgan.

Koriz (fors.) — yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti; aholini suv bilan ta’minlash va sug‘orish maqsadlarida qo‘llaniladi. Koriz Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan. O‘rta Osiyoning tog‘li va tog‘ oldi zonalarida uchraydi. Turkmaniston (Ashxobod shahri yaqinida chuq. 100 m, suv sarfi 150-225 l/s), O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarida 200 ga yaqin K. qazilgan. 20-asrning 20-yillariga qadar O‘rta Osiyoda Koriz suvlaridan ekinlarni sug‘orishda foydalanilgan. Koriz kavlash yer osti suvlari sathida ro‘y beradigan o‘zgarishlar va joy relyefidagi nishablikni aniq belgilashni talab etgan. Bu maxsus asboblar (astrolyabiya, vaterpas) vositasida amalga oshirilgan. Koriz trassasi belgilab chiqilgach, shu trassa bo‘ylab har 5–40 m da quduqlar kavlangan. Quduqlarning chuq. 14–15 m danba’zan 60–70 m gacha borgan. Quduqlar suvli qatlamga tutashadigan lahim (tunnel) orqali bir-biriga birlashtirilgan. Lahimning balandligi 1,5 m, eni 1 m bo‘lib, devorlari yog‘och yoki toshlar bilan mustahkamlangan, uzunligi joy nishabligiga qarab bir necha km gacha cho‘zilgan. Mas, Nurota (Navoiy viloyati)dagi "Maston" nomli Korizning 280 qudug‘i bo‘lib, bosh qudug‘ining chuq. 14 m va lahimning o‘z. 3 km bo‘lgan. Koriz qurilishi davrida bu quduqlar tuproq-shag‘alni chiqarib tashlashga, Korizni ishlatish davrida esa kuzatish (nazorat), tiklash, tuzatish va havo almashtirish uchun xizmat qiladi.

O‘rta hisobda 1 m uzunlikdagi suv yig‘uvchi quduq 0,3—0,6 l/s suv beradi. Koriz kavlashda bir qancha korizchi jamoalar oylab va yillab lahim hamda quduqlar qazib, minglab kubometr tuproq va shag‘al qazib chiqargan. Nurotada qadimgi Korizlardan ko‘pi ko‘milib ketgan. Mastak, Zulm, Zulfiqor, Mozor, Xayrobod, Sulton, Maston, Ko‘nchi, Begli, Tayla, Korizchi singari 30 dan ortiq Koriz bo‘lgan. Ayrim Korizlarning nomidan ularning qazilish tarixi, yili chiqadi. Mas, Zulm Korizning nomidagi harflar yig‘indisidan abjad hisobida hijriy 970- milodiy 1533-1534-yillar va Zulfiqor Korizdan hijriy 1118- milodiy 1706 yoki 1707-yil raqamlari chiqadi.


Sardobalar. Oqar suvlardan mutlaqo mahrum bo‘lgan cho‘l va dasht joylarida-Markaziy Osiyo ning Qizilqum, Qoraqum, Mirzacho‘l, Qarshi va boshqa cho‘llar orqali chet mamlakatlarga qatnagan savdo karvonlari va chorva mollarni suv bilan ta’minlash maqsadida maxsus suv inshootlari “sardoba” lar qurilgan. “Sardoba” – sovuq suvli xona yoki muz xona ma’nosini anglatadi, maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Sardobalar anchagina murakkab qurilgan. Ular turli xil hajmda bo‘ladi. Silindr shaklida yerga o‘yib ishlangan sardoba hovuzning chuqurligi 10-15 m, diametri 12-16 m va devorining qalinligi 1-1,5 metrni tashkil qiladi, hovuz yuzasi sathi bilan bir tekis bo‘lgan. Sardoba gumbazi sifatli pishiq g‘isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflariga hovuzga suv tushadigan teshiklar qilingan. Kirish uchun sardobaga eshik ham o‘rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o‘ralgan. Sardoba yoniga mollarni sug‘oradigan oxur qilinib, unga suvdondan maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Ba’zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchilar uchun xonalar ham bo‘lgan.

Raboti Malik karvon saroyini suv bilan doimiy ta’minlab kelgan, uning yaqinida (145-150 m janubiy g‘arbida) joylashgan yirik gumbazsimon inshoot Malik sardobasi hisoblanadi. Sardoba gumbazli, hovuzining diametri 12,8 m, balandligi 20 m, uning uchdan ikki qismi pishiq g‘ishtdan, yerga o‘yib ishlangan. Sardobaning shimoliy qismida suvga tushish zinapoyalari, gumbazi tepasida yorug‘lik tushuvchi tuynuklari mavjud. Sardobaga suv Zarafshon daryosidan maxsus kanal orqali keltirilgan.

Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiati, relefiga ko‘ra bir necha xil: qor-yomg‘ir suvlaridan, anhor-ariq suvlaridan, yer osti suvlaridan (korizlar yordamida) to‘ldiriladigan sardobalar bo‘lgan. Qor-yomg‘ir suvlaridan to‘ldiriladigan sardobalarni qurishda joyni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki bunday sardobalar bahorda atrofdagi

nishabliklardan oqib tushadigan qor va yomg‘ir suvlari hisobiga to‘ldirilgan. Masalan, Jizzax shahridan 35 km shimoliy-sharqda joylashgan «Yog‘ochli» degan sardobaning kattaligi 25x25=26x26 va 27x27 sm va 5-5,5 sm bo‘lgan to‘rtburchakli pishiq g‘ishtdan qurilgan, uning diametri 15,2 m va devorining qalinligi 1,4 metrga teng. «Yog‘ochli» sardoba gumbazining uch tomonidan uchta shamollatuvchi tuynukchalar bo‘lib, ularning tashqarisida mo‘ri bo‘lgan.





Shamollatuvchi mo‘ri va tuynuklar doimo inshoot ichidagi xavoni tozalab, unga salqinlik berib turgan. Sardoba hovuziga suv quyiladigan maxsus suv yo‘li hamda undan suv olib chiqadigan peshtoqli kirish yo‘lagi bo‘lib, yo‘lakdan zinapoyalar orqali hovuz ichiga tushilgan.

Turkmanistonning Sandiqli cho‘lida Kerki bilan Qarshi shaharlarini bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘lida Sangi Suvoq sardobasi bunyod etilgan (XVII-acp o‘rtalarida). Sardoba pastlikda joylashgan va atrofdagi nishabliklardan oqib tushuvchi qor-yomg‘ir suvlari bilan to‘ldirilgan. Hovuzning diametri 17 m. Sardoba pog‘onali, baland gumbazi pishiq; g‘ishtdan ishlangan, tepasi va yon tomonlari tuynukli. Yo‘lovchilar dam olishi uchun yonida ravoqli ayvonchalar qilingan. Mol sug‘orish uchun tarnov o‘rnatilgan. 19 asrning 90 yillarida rassom K.Kosmovskiy tomonidan sardobaning surati chizilgan. Sangi Suvloq sardobasining arxitekturaviy kompozitsiyasi o‘ziga xos: pog‘onali gumbazi, dam olish uchun qilingan mehrobsimon ayvonchalari va peshtog‘i bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo viloyatida 1892 yili suv saqlanadigan hovuz Qamashi sardobasi bunyod etilgan. Uning bosh tarzi peshtoqli, gumbazi yassi pog‘onali. Gumbazdagi tuynuklar orqali ichiga yorug‘lik tushadi. Hovuzga peshtoqdagi aylanma zina orqali tushiladi.1913 yilda ta’mirlangan.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda Movaraunnahrda 44 ta sardoba bo‘lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg‘ona o‘rtasidagi qadimgi savdo yo‘lida, 1 tasi Karmana yaqinida-Cho‘li Malik (Raboti Malik)da bo‘lgan. Sardobalardan Markaziy Osiyoning ba’zi dasht-cho‘llarida hozir ham qisman foydalaniladi.

Ushbu qadimgi gedratexnik inshootlari va qurilmalarning hozirgi kunda ham suv tanqisligini etiborga olgan holda suvdan unimli foydalanishni texnalogiyalarini qullash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qor va yomgir suvlaridan unumli foydalanib ishlatish zaxiralarga yig’ish hovuzlarga ortiqcha suvlarni to’plash ulardan unumli foydalanish maqsadga mofiq bo’lar edi. Shahar tashqarilaridagi suv ombori bo’lib ularda ham suv zaxirasini to’plash sifatida foydalanib kelinmoqda Shahar ichkarisidagi bahorgi mavsumiy yog’ingarchilik vaqtidagi yomg’ir suvlarini to’plablash uchun maxsus joylar (sardobolar) qilinishligi juda zarur Qadimgi va hozirgi Samarqand shahar relifda joylashganligi tufayli yomg’ir qor suvlarining to’planib qolishini oldini olish mahsadida maxsus (sardobo) inshootlar qurilish kerak. Ko’pgina qadimgi shaharlarda tarixiy obidalarni atrofiga ushbu suvni to’plash va qayta ishlash texnalogiyasini yaratish zarur oldingi davirlarda har bir masjid madrasalar atrofida maxsus hovuzlar bo’lgan Bu havuzlar iqlimni mutadillashtirgan. Hozirgi kunda favoralar havuzlarning urnini egallagan deb o’ylashimiz mumkin lekin bundoq emas chunki havuzlar atrofida uzining maxsus daraxtlarini ekishgan favoralar atrofida daraxt ekib bulmaydi Shu sababli biz qadimgi havuzlarni tiklashimiz zarur deb bilamiz Bugungi kunning dolzarb muomalaridan biri qurg’oqchilik chang ko’tarilishi ekologiyaning tubdan buzilib ketishi tufayli ushbu havuzlarga bizning ehtiyojimiz bor.

Adabiyotlar

1. Chorshandayev, Fayzulla Ziyatovich; Meliyeva, Chinnigul Otaqulovna; Ziyatova, Aziza; ,The Role of Traditions in the Establishment of Historical Cities,Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences,7,2022,57-62,2022,www.geniusjournals.org

2. Shukurov I.S., Chorshanbaev F. Z., Shukurova L.I.; ,O’zbekistonda suv toshqinlari muammalarining me’yoriy-xujjatlar tahlili.,me'morchilik va qurilish muammolari (ilmiy-texnik jurnal),1,2,73-76,2023,"SamDAQI bosmaxonasida chop etilgan Samarqamd shahar, Lolazor ko'chasi 70"

3. Uralov A., Yusupov R. Markaziy Osiyoning o‘tmishdagi ta’lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari. - Samarkand, 2005.

4. Uralov A., Saidov I.M. Markaziy Osiyo me’moriy yodgorliklari -vatanimiz tarixini o‘rganishning moddiy manbalari. - Samarkand, 2009.

MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASHDAGI MUAMMOLAR

Inoyatov Dilovar Tolibovich,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, (PhD) dotsent v.b.

Annotasiya. Maqolada yurtimizdagi mavjud tarixiy obidalarni saqlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan holatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: namlik, deformatsiya, ekspluatatsiya, tadqiqot.

1. Kirish. O'zbekiston Respublikasi, hozirgi kungacha saqlanib qolgan va jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, tarixiy me'moriy yodgorliklarga boy davlatlar qatoriga kiradi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-son Farmoni hamda 2021 yil 6 apreldagi PQ-5054-sonli qarorida "Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Madaniy meros obyektlarini asrash" fakultetlarini tashkil qilish alohida belgilab qo'yilganligi buning yaqqol dalilidir [2,3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-177-sonli Qarori bilan "Madaniy meros agentligi" faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida - ilmiy-tarixiy yondashuv asosida moddiy madaniy meros obyektlari, madaniy boyliklar, muzey ashyolari va kolleksiyalarini restavrasiya-tiklash, asrashga doir ishlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi [4].

Har bir tarixiy me'moriy yodgorlik o'ziga xos, betakror bo'lib, ajdodlar va tarixning bizga qoldirgan madaniy merosi hisoblanadi. Quvonarlisi, Vatanimiz ularga juda boy va biz bugungi kungacha saqlanib qolgan har bir tarixiy obidalarning xavfsizligi uchun mas'ulmiz. Tarixiy obidalarning texnik holati va saqlanishiga - tabiati, mohiyati va xususiyatlariga ko'ra har xil bo'lgan, bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy obidalarda uchrayotgan muammolar ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvni talab qiladi. Bunda, birinchi navbatda, tarixiy obidalarning buzilishiga va qattiq shikastlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy sabablarni aniqlash, muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kungacha olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va kuzatuvlardan ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda, tarixiy obidalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichida **"texnogen omillar"** ustunlik qiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1.1. Tarixiy obidalarni barpo etish vaqtidagi qurilish ishlarining sifati - elementlarning va umuman sistemaning yuk ko'tarish qobiliyati, mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy obidalarning aksariyatida, ushbu shartlar yer usti yuk ko'taruvchi elementlari (devorlar, ustunlar va boshqalar)da bir qancha zaxira bilan qondiriladi. Chunki, ularning o'lchamlari mutanosiblik shartlaridan kelib chiqqan holda tayinlangan. Bunda albatta, ishlatilgan qurilish materiallari va barpo etish vaqtidagi olib borilgan ishlarning sifatiga munosib baho berish lozim.

1.2. Xizmat muddati. Uzoq muddat (vaqt) - qurilish materiallarining xususiyatlarini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Bunda, atrof-muhit harorati va namligining o'zgarishi ham qo'shimcha omil hisoblanadi. Ma'lumki, harorat va namlik tarixiy obidalarning qurilishida ishlatilgan materiallarning asosiy xususiyatlarini o'zgarib ketishiga hissa qo'shadigan, barcha organik va fizik-kimyoviy jarayonlarning asosiy manbalari hisoblanadi. Biologik organizmlar (mog'or, zamburug'lar va ba'zan poydevorlarda ildiz otgan o'simliklar, hashoratlar va kemiruvchilar) ta'siri ostida yog'och konstruksiyalar, qorishmalar, g'isht va qoplamalar buzilib ketadi. Suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi natijasida, devorlarda shishish, to'kilish, suvoqlarning ajralib ketishi, g'isht terimi pardoz qatlamining ko'chishi kuzatiladi. Shuningdek, tarixiy obidalarning devorlarida ko'tarilgan kapillyar namlik, ularning mustahkamligiga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Shu sababli, har qanday tarixiy obidalarni saqlash uchun, vaqti-vaqti bilan ta'mirlash, konservasiya va tiklash ishlarini olib borish talab qilinadi.

1.3. Notekis deformasiya. Ma'lumki, inshootning alohida qismlari ostidagi grunt massivining turli xil kuchlanish holati, poydevorning kattaligi, gruntning bir jinsli emasligi, yuklarning xarakteri va boshqalar tufayli poydevorlarning bir xil deformasiyasini ta'minlash deyarli mumkin emas.

1.4. Grunt sharoitlari. Respublikamizdagi tarixiy obidalarning katta qismi, qurilish nuqtai nazaridan, grunt sharoiti noqulay bo'lgan joylarda joylashgan. Bular ko'pincha lyossimon o'ta cho'kuvchan, to'ldirilgan (antropogen) yoki sho'rlangan gruntlardir. Bu gruntlarning barchasi nam o'tkazuvchanlik xususiyatlariga ega va ba'zan har xil turdagi namliklarga bir zumda reaksiyaga kirishadi. Shubhasiz, me'morlar cho'kuvchan gruntlarning o'ziga xosligini yaxshi bilishgan. Bo'lmasa, tarixiy obidalardan suvning oqib chiqishini ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish, drenaj kommunikasiyalari, yodgorliklar to'plangan joylarda maxsus zovurlar – drenaj ariqlari qurilishigacha tashkil etilganini qanday izohlash mumkin.

1.5. Asos gruntlarining namlanishi. Bu turli manbalar tufayli sodir bo'lishi mumkin. Ular orasida tarixiy obidalarni saqlashga eng ko'p zararli ta'sir ko'rsatadiganlari, yaqin atrofdagi suv omborlari va yer osti suvli qatlamlar bo'lib, ular ba'zan juda katta hajmga ega bo'ladi. Ularning atrofida yer osti suvlarining ko'tarilishi bilan birga, bir necha o'nlab kilometr

radiusdagi hududlar suv bosishi mumkin. Qo‘llaniladigan yer osti inshootlari handaklarni barpo etishda, gruntning mavjud tabiiy tuzilishi buziladi, bunda suvli qatlamlardan suv oqimi ehtimolini istisno qilish deyarli mumkin emas. Tabiiy aerasiya rejimining buzilishi natijasida, ayniqsa, zich joylashgan hududlarda, grunt tabiiy namligining oshib ketish tendensiyasi ham jiddiy tashvish tug‘diradi [6]. Shuningdek, namlikning bundan boshqa manbalari ham bo‘lishi mumkin. Masalan, yog‘ingarchilik suvlarining chiqib ketishini to‘g‘ri rejalashtirilmaganligi hamda obidalar atrofidagi hududni “obodonlashtirish” va arxitekturaviy-rejaviy ifodalash maqsadida, drenaj zovurlarini (obidalar to‘plangan joylarda maxsus yaratilgan ochiq drenajlar) asossiz va o‘ylanmagan holda yopib tashlanishi.

1.6. Dinamik yuklar. Zilzilalardan va ularning yaqinidan o‘tadigan avtomobil yo‘llarining dinamik yuklari (tebranishlari) va boshqalar, ko‘pincha turli xil mustahkamlikka ega bo‘lgan binoning qismlari o‘rtasida, vertikal yoriqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday holda, tebranishlar amplitudasi poydevor asoslarining mustahkamligi va suv bilan to‘yinganligiga bog‘liq. Dinamik ta’sirlar tarixiy obidalarning poydevorini qurishda ko‘pincha ishlatilgan chaqiq toshlarning surilib ketishiga, ularning orasidagi qorishmalarning parchalanishiga olib kelishi mumkin. Ko‘p asrlar davomida sinovdan o‘tgan obidalar “bardosh bera oladi”, deb taxmin qilish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki, zilzilani, ayniqsa uning kuchini oldindan aytib bo‘lmaydi. Boshqa tomondan, tarixiy obidalarning bugungi texnik holati ham oldingidek emas.

1.7. Atrof-muhitning ifloslanishi. Uchuvchi birikmalar bilan tobora ko‘proq ifloslangan atmosfera va yog‘ingarchilik, asta-sekin tarixiy obidalarning xavfsizligiga tiklab bo‘lmas tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Havodagi turli xil gazlar, shuningdek, yoqilg‘i yonishi natijasida hosil bo‘lgan oltingugurt dioksidi va oltingugurt angidridiga asoslangan gazlar (ayniqsa transport vositalaridan chiqadigan gazlar) havoni to‘ydiradi. Oltingugurt birikmalari suv bilan reaksiyaga kirishib, kislotalar hosil qiladi. Shuningdek, grunt tarkibidagi turli xil tuzlarning ko‘payishi tendensiyasi mavjud bo‘lib, ular hududni suv bosganda erishi va sho‘rlangan hududlardan havo oqimlari orqali ko‘chishi natijasida yuzaga keladi. Bu omillarning barchasi turli xil qurilish materiallarining yemirilishini tezlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan texnogen omillar sabab, so‘ngi paytlarda deformasiyalangan tarixiy obidalar haqida tez-tez xabarlar tarqalmoqda [7,8,9]. Bu esa o‘z navbatida, shoshilinch ta’mirlash, tiklash va mustahkamlash ishlarini amalga oshirishni talab etadi.

Keyingi yillarda binolarning texnik holatini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar natijalari va ularni ekspluatasiya qilish davrida to‘plangan arxiv ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat avval qurilgan binolarning texnik holati yomonlashgan, ularning sokol qismlarida buzilishlar yuzaga kelgan (1-rasm).



a) **b)** **v)**

1-rasm. Samarqand shahridagi Go‘ri-Amir majmuasi. 2024 yil 2 mart holati:
a) namlikning 2 metrdan ortiq masofagacha ko‘tarilgan holati; b) namlikdan hosil bo‘lgan oq dog‘lar, v) namlikning g‘isht terimiga ta’siri

Namlik yoki yer osti suvining sathi yuqori bo‘lgan yerlarda poydevorlarni chaqiq va harsang toshlardan “qalama” usulida, qorishmasiz barpo etishgan. Masjid va obidalar atrofiga tuproqdagi namlikni eng ko‘p shimib, barglari orqali atrofga bug‘lantiruvchi tut daraxtini ekishgan [10,11]. Xiva shahridagi Ichan Qal’a obidalarida poydevor ustidan turli balandliklarda 2-3 qator quruq qamish bo‘yralar to‘shalgan. Yer osti suvi

sathi yetarlicha past bo‘lgan holda, ko‘tarilgan suv birinchi qator, qolganlari ikkinchi va uchinchi qator qamish bo‘yralar orqali bug‘lanib, devorlarni namdan saqlash imkonini bergan. So‘ngi yillarda yer osti suvi sathining poydevorgacha ko‘tarilib ketishi natijasida, qamish bo‘yralar chirib, devorlarni 2-3 metr balandlikkacha namlanishiga olib kelgan [12].

Bir paytlar Ichan Qal’a atrofida “sun’iy drenajlar - gorizontal zovurlar” (zaxkashlar) barpo etilgan. Zovurlar yerdan sizib chiqqan suvni tizimli (sistematik) ravishda yig‘ib, xavfsiz masofaga oqizib yuborish vazifasini o‘tagan. Bu esa yer osti suvining sathini bir maromda ushlab turish imkoniyatini bergan. Afsuski, oxirgi 1970-80 yillar davomida Ichan Qal’a atrofidagi “zahkashning” vazifasi va ahamiyati unutilib, ular egallagan maydondan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun ko‘milib tashlanishi, me’moriy obidalar joylashgan hududda yuza suvlarining to‘planib qolishi, natijada devorlarni 3-4 metr namlanishiga sabab bo‘lmoqda va ularga zarar yetkazmoqda [13].

2. Natija. Ba’zi mualliflar [14,15] ta’kidlaganidek, har qanday sharoitda ham ekspluatasiya qilinayotgan binolarning namlangan devorlarini quritishda samarali bo‘lgan noyob va aniq texnologiya hali mavjud emas. Shuning uchun, ko‘p hollarda turli xil texnologiyalarning kombinasiyasi talab qilinadi. Bundan tashqari, tarixiy binolarning poydevor va devorlaridagi namlikni bartaraf etish muammosi, ularda ishlatilgan materiallarning turli xilligi va ularni barpo etishda foydalanilgan qadimiy qurilish usullarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Ba’zi hollarda namlikni yo‘qotish (bartaraf etish) mexanizmlari hali to‘liq tushuntirilmagan, asosan solishtirish qiyin bo‘lgan natijalar yoki turli xil ish sharoitlari keltirilgan [16,17,18]. Shu sababli, har bir holat uchun alohida tahlillar bilan, turli texnologiyalarning kombinasiyasini tanlash zarur bo‘ladi [19,20,21,22,23,24,25].

3. Xulosa.

3.1. O’zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va uning viloyatlardagi boshqarmalari yurtimizdagi mavjud barcha tarixiy obidalalarni saqlash va tiklash, shuningdek, obidalarning yer osti qismi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab vazifalar bilan shug‘ullanadi.

Tarixiy obidalarda uchrayotgan salbiy holatlardan kelib chiqqan holda, zamonaviy ilmiy-texnik baza bilan jihozlangan, tarixiy obidalarning yer osti qismi muammolari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-ishlab chiqarish va tadqiqot instituti kabi Respublika markazini tashkil etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shuningdek, tarixiy obidalarni geodezik tadqiq qilish, yer osti suvlari sathining o‘zgarishlarini, poydevor va gruntlarning tabiiy namligini, yer osti suvlarining agressivligini kuzatish, ayrim me’moriy yodgorliklarning texnik holatini, seysmik chidamliligini baholash, yer osti qismini rekonstruksiya qilish va mustahkamlash masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlarni jalb qilish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Qolaversa, ushbu markazda tarixiy obidalar eng ko‘p to‘plangan hududlarda, masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Termiz shaharlarida obidalarni doimo monitoring qilib borish uchun bo‘lim (filial)lar tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3.2. Yurtimizdagi mavjud tarixiy obidalarning holati, qurilish sistemalari va ularda ishlatilgan qurilish materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, “Madaniy meros obyektlarini asrash” fakultetining, “Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavrasiyasi” ta’lim yo‘nalishi talabalariga qurilish mexanikasi, materialshunoslik, metall konstruksiyalar, yog‘och materiallar, gruntlar mexanikasi va asos-poydevorlar kabi fanlarni chuqurlashtirilgan holda, yetakchi olimlar, malakali mutaxassislar tomonidan o‘tilishini ta’minlash lozim. Shuningdek, mazkur yo‘nalish talabalari uchun amaliy darslarni tarixiy obidalarda tashkil etish lozim. Bu ularning zimmasiga tarixiy obidalarni kelajak avlodlarga bezavol, asl holatida yetkazishdek mas’uliyat borligini chuqur anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shamuratov A. Rol obщyestva oxranы pamyatnikov v dele soxraneniya i propagandы arxitekturnogo naslediya Uzbekistana // Stroitelstvo i arxitektura Uzbekistana. 1973. №7. S. 6-7.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6199-son Farmoni
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-5054-sonli qarori.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-177-sonli Qarori
5. Durdiyeva G.S. Xiva me’moriy yodgorliklarini saqlash va ta’mirlash metodologiyasini takomillashtirish. Ma’ruza shaklidagi arxitektura bo’yicha fan doktori (DSc) diss. / TAQI. T., 2017. -122 b.
6. Konovalov P.A. Osnovaniya i fundamentы rekonstruiruyemыx zdaniy. M.: VNIINTP. 2000. 320 s.
7. Axmedov M., Yakubov Sh.M., Kurbonova N. O posledstviyax texnogennыx vozdeystviy na istoricheskiye pamyatniki Uzbekistana // Mater, mejd. konf.: Problemы mexaniki i seysmostoykosti soorujeniy. Tashkent. 2004. S. 143-146.
8. Gendel E.M. Injenernыye rabotы pri restavrasii pamyatnikov arxitekturы. M.: Stroyizdat,1980. - 199 s.
9. Rashidov T.R., Sirojiddinov Z.S., Kondratyev V.A. Geotexnicheskiy monitoring pamyatnikov arxitekturы // Mater, mejd. konf.: Problemы mexaniki i seysmostoykosti soorujeniy. Tashkent. 2004. - S. 170-171.
10. Durdiyeva G.S., Zargarov A.K., Salayev E.A. Ichan Qal’a atrofidagi tik drenajlarning intensiv ishlashi natijasida me’moriy yodgorliklarning deformasiyasi. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi–7/2020. 6-9 b.
11. Z. Sirojiddinov, P.A. Madatov, A. Madatov. Problemы soxraneniya arxitekturnыx pamyatnikov Uzbekistana. Elektronnыy nauchno-prakticheskiy jurnal Sinergiya. 2018. № 4. S. 41-48.

12. Инженерное заключение о состоянии юго-восточной части и предложения по его конструктивному креплению и реставрации медресе Кутлуг-Мурод Инак в г. Хиве. «СНПР Мастерская», Ташкент, 1982. – 36 с.

13. Инженерно-геологическое заключение о грунтах основания и фундаментах юго-восточной части медресе Кутлуг-Мурод Инак. «СНПР Мастерская», Ташкент, 1982. – 24 с.

14. D.R. Salmon, R.G. Williams, R.P. Tye, Thermal conductivity and moisture measurements on masonry materials, ASTM Spec. Techn. Publ. 1426 (2002) 58–78.

15. C. Riminesi, A. Sansonetti, A. Scala, Assessment of the effectiveness of a dehumidification system by emission of electromagnetic fields: proposal of a protocol, J. Cult. Herit. 31 (2018) S46–S51, doi:10.1016/j.culher.2018.04.002.

16. D. Camuffo, how much temperature will increase the efficiency of electroosmosis? J. Cult. Herit. 36 (2019) 264–267, doi:10.1016/j.culher.2018.09.002.

17. Nicodemo G., Peduto D., Ferlisi S. Building damage assessment and settlement monitoring in subsidence-affected urban areas: case study in the Netherlands //Proceedings of the International Association of Hydrological Sciences. – 2020. – T. 382. – C. 651-656. doi:10.5194/piahs- 382- 651- 2020.

18. H. Janssen, J. Carmeliet, H. Hens, The influence of soil moisture transfer on building heat loss via the ground, Build. Environ. 39 (2004) 825–836, doi:10.1016/j.buildenv.2004.01.004.

19. M. Abuku, B. Blocken, S. Roles, Moisture response of building façades to wind-driven rain: field measurements compared with numerical simulations, J. Wind Eng. Ind. Aerodyn. 97 (2009) 197–207, doi:10.1016/j.jweia.2009.06.006.

20. Methods of Measuring Moisture in Building Materials and Structures. Stateof-the-Art Report of the RILEM Technical Committee 248-MMB Editors: Nilsson, Lars-Olof (Ed.) Springer International Publishing. DOI 10.1007/978-3-319-74231-1.

21. Tulakov, E., Inoyatov, D., Kurbonov, A., Sirojiddinov, S., Abdullayeva, S., Matyokubov, B., & Kulmirzayev, J. (2024, August). Experimental analysis of moisture protection of buildings. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 559, p. 04018).

22. Tulakov, E., Kurbonov, A., Inoyatov, D., Eshatov, I., & Abdullayeva, S. (2024). Study on the heat and vapor transfer resistance of the basement's outer walls and calculation of moisture regime: A case study of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 563, p. 02022). EDP Sciences.

23. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., ... & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.

24. Sirozhiddinov, Z., & Inoyatov, D. (2023). Calculation of the Reliability of Pile Foundations. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, *3*(1), 65-70.

25. DT, I., & ES, T. (2022). Theoretical Solutions for Calculating the Height of the Capillary Rise of Water in the Foundation of a Building. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, *3*(2), 15-20.

SAMARQAND SHAHRIDAGI DARI-ZANJIR MADRASASINI TA'MIRLASH LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Jurayeva Elvira Elmuradovna
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Annotatsiya: Samarqandning eski shahar qismida, Registon maydoni yaqinida Dari-zanjir mahallasi bor. Bu nom shu yerdagi "Dari-zanjir" madaniy yodgorligi bilan bog'liq. So'zma-so'z tarjima qilinganda "zanjirlangan eshik" ma'nosini bildiradi. Dari -zanjir madrasasi bugungi kunda juda ham achinarli holatga kelib qolgan. Ushbu maqolada madrasanini ta'mirlash loyihasi ishlab chiqilgan. Madrasani zararlangan qisimlari aniqlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: madrassa, gumbaz, minora, peshtoq, ravoq, hujra.

Kirish qismi: Madrasa so'zi arab tilidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'noda "o'qish joyi" yoki "o'qitish joyi" umuman dars o'tiladigan joy ma'nosini anglatadi[1]. VII—VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. Madrasaning birinchi ta'lim muassasasi Zayd ibn Arkam mulkida Safo degan tepalik yaqinida bo'lib, u yerda Muhammad (s.a.v.) domla, shogirdlari esa uning izdoshlari edi. Hijratdan keyin Madinada Masjid an - Nabaviy masjidining sharqiy tomonida "Suffa" madrasasi tashkil etilgan. Keyinchalik Fotimiylar tomonidan 969–970 yillarda Qohirada ismoiliy ta'limotini targ'ib qilish markazi sifatida al-Azhar masjidi tashkil etildi, keyinchalik u Ayyubiylar hukmronligi ostida sunniylik institutiga aylangan[2]. IX—XII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Narshaxiyning „Buxoro tarixi" asarida 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan Forjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Abbosiylar davrining oxirlarida, saljuqiylar vaziri Niyom al-Mulk tomonidan Madrasai Nizomiyya nomi bilan Eron, Mesopotamiya va Xurosonda tarixda birinchi rasmiy madrasalar tarmog'i qurilgan. U madrasalar keyingi bir necha asrlar davomida musulmon dunyosining katta qismiga tarqaldi va me'moriy dizaynning o'xshash modellarini qabul qildi[2]. O'zining shakllanish davrida madrasa atamasi oliy o'quv yurtini nazarda tutgan bo'lib, uning o'quv dasturida dastlab faqat „diniy fanlar" kiritilgan bo'lsa, keyinchalik ko'plab madrasalarda mantiq, matematika va falsafa kabi diniy va „dunyoviy fanlar" o'qitiladi[3].

XII asrgacha ayollar jahon islom ulamolarining bir foizdan kamrog'ini tashkil qilgan. Biroq as-Saxaviy va Muhammad Akram Nadvi XV asrdan buyon 8000 dan

ortiq ayol olimlarning dalillarini topganlar[5]. XII-asrdagi sunniy olim Ibn Asakir o‘z davrida 80 nafar ayol domladan tahsil olgan ekan.


Madrasalarning **xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar** kabi turlari bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi madrasa binosini ta’mirlash uchun ajratilgan, ma’lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

Asosiy qisim: Ab-u Tohir Xojaning “Samariya” asarida “Dari-zanjir Amir Temur Ko‘ragon xotinining raboti bo‘lib, Chokardizaning g‘arb tomonida va musulmonlarning qabristoniga tutashgan” deb qayd qilingan. XVI-XVII asrlarda mazkur hudud Hayoti Xon (Xonning hovlisi) nomi bilan ham yuritilgan. XVIII asrda hududda madrasa, maktab, hovuz, savdo do‘konlari faoliyat ko‘rsa tgan.




Madrasaning bugungi kundagi holati (foto surat 2024yil dekabr muallif tomonidan olingan)

Ota-bobolarimizdan Dari-zanjir XI asrda dastlab qal’a bo‘lgani, XIV asr oxirlarida yaholi yashash manziliga aylantirilgani haqida eshitganmiz, – deydi Dari-zanjir mahallasida yashovchi Jo‘raxon Mallaxo‘jayev. – Bu yerda Amir Temur va temuriylarning yaqin qarindoshlari, keyinchalik din peshvolarining oilalari yashagan. Ular ayollarini nomahramlardan himoya qilib, hujra eshiklarini zanjirlab qo‘ygan va begonalarning kirishi taqiqlangan. Shundan “Dari-zanjir” iborasi kelib chiqqan deyishadi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Dari-zanjir yaqinida katta masjid bo‘lgan, masjidga keluvchilar bu yerdagi hujralardan darsxona sifatida foydalangani haqida ma’lumotlar bor. Jumladan, Alisher Navoiy Samarqandda yashagan yillari bu yerga kelib turgani to‘g‘risida manbalarda qayd etilgan.




Dari -zanjir madrasasi tarxi loyiha taklif



Madrasaning zararlangan qisimlarinni aniqlanganligi

Afsuski, asrlar silsilasida mazkur obidaga ham zarar yetib, ayni chog‘da yaroqsiz holga kelib qolgan. 2009-2016-yillarda o‘zim ushbu mahallaga raislik qilganimda hashar yo‘li bilan yoki homiylar ko‘magida obyektni ta’mirlash bo‘yicha taklif bergandim. Ammo mas’ullar madaniy merosga ziyon yetishini aytib, obyekt 2014-yilda ta’mirlanishi, buning uchun mablag‘ ajratilishini ma’lum qilgandi. Ammo hozirgacha hech qanday amaliy ish qilinmadi. Ayni paytda majmua xaroba holatda turibdi.

“Dari-zanjir” madaniy meros obyekti mahalla binosi ro‘parasida joylashgan bo‘lib, to‘rt hujradan iborat. Hozir obyekt devorlari abgor holatga kelib qolgan va bitta hujra nurab tushgan. Qolgan uchta hujradan aholi omborxona sifatida foydalanib kelmoqda. Agar majmua tez fursatda himoyaga olinmasa, qolgan qismi ham yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.



Madrasa bosh rejasi loyiha taklif (401-AyoRva R *yo’nalish talabasi Abdurahmonov M)*

“Dari-zanjir” yodgorligi moddiy- madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va mahalliy ahamiyatdagi moddiy -madaniy meros obyekti hisoblanadi, – deydi Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Ziyodulla Nasimov. – Obyektning umumiy maydoni 70,13 kvadrat metrni tashkil etadi va uzoq yillardan buyon restavratsiyaga muhtoj. Shu bois, madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti va madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi bilan hamkorlikda “Dari-zanjir” majmuasining loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilib, obyektda ta’mirlash, tiklash va konservatsiya ishlarini olib borish rejalashtirilgan. Ammo bundan avval ham ushbu majmuani ta’mirlash va konservatsiya qilish bir necha marta dasturga kiritilgan. Afsuski, bu ishlar qog‘ozda qolib ketgan.

Viloyat madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda Samarqandda 130 ta madaniy meros obyekti yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Ular orasida “Dari-zanjir” madaniy meros obyekti ham borligi achinarli.



Madrasa fasad qismiga berilgan loyiha taklif (muallif 401-AyoRva R yo’nalish talabasi Abdurahmonov M raxbar E.E.Jurayeva)



Madrasa hovlisiga berilayotgan loyiga taklif



Madrasa umumiy ko’rinishi

Turizm haqida gap ketganda sayyohlik sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqin o‘tmishga ham o‘zgacha munosabat shakllangani to‘g‘risida eshitamiz. Hatto, o‘tgan asrda ishlangan badiiy filmlar suratga olingan obyektlar saqlab qolinib, bu joylardan turistik obyekt sifatida foydalanishayotganini bilamiz. Biz esa turkiy adabiyotning buyuk vakili, dunyoga mashhur

Alisher Navoiy bobomiz qadami teggan manzillarni asrab-avaylab, bu joylarni sayyohlik obyektlari qatoriga kirita olmayapmiz.

Ulug‘ bobomizning qabri qo‘shni davlatda, unga munosabat ham turlicha ekanligini eshityapmiz. Hech bo‘lmaganda, Navoiy hazratlari nomi bilan bog‘liq o‘zimizdagi mavjud joylarga e’tibor qaratsak, ularga turizmda daromad topish manbai sifatidagina emas, balki o‘tmishimiz, o‘zligimizning bir bo‘lagi sifatida qarab, xalqimizni bundan bahramand etsak, ayni muddao bo‘lardi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari Samarqanddagi Amir Temur bog‘larini tiklash va bir qator tarixiy obidalarni ta’mirlash zarurligini qayd etgandi. Ana shu obidalar qatorida Dari-zanjirga ham e’tibor qaratilsa, xalqimiz tarixi, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash yo‘lida muhim qadam qo‘yilgan bo‘larmidi?

Shu yilning fevrla oyida saytimizda “Navoiy qadami yetgan “Dari-zanjir” butkul yo‘qolib ketadimi?” sarlavhali maqola e’lon qilingan edi.

Unda Samarqandning eski shahar qismida, Registon maydoni yaqinidagi “Dari-zanjir” madaniy yodgorligining e’tibordan chetda qolgani haqida yozgan edik.

Shu kunlarda ob’ektda ta’mirlash-tiklash ishlari boshlanib, tarixiy inshootni asrab-avaylash uchun zarur choralar ko‘rilmoqda.

– “Dari-zanjir” yodgorligi moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan, lekin ancha vaqtdan buyon ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirishga imkoniyat bo‘lmayotgan edi, – deydi Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ziyodulla Nasimov. – Bu yil esa ob’ekt madaniy meros agentligining manzilli ro‘yxatiga kiritilib, 415 million so‘m mablag‘ ajratildi. Hozirda yodgorlikning ustini yopish ishlari olib borilmoqda. Shundan so‘ng hujralarni restavratsiya-konservatsiya qilishga kirishiladi.

Boshqarma ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda viloyatda muhofazaga muhtoj ob’ektlarni asrab-avaylash borasida manzilli dasturlar asosida ish olib borilib, joriy yilning o‘tgan davrida Samarqand shahridagi “Xalqlar do‘stligi va bag‘rikenglik muzeyi”, Ruhobod, Shohi Zinda majmualari, Xo‘ja Doniyor maqbarasi, Avliyo Georgiy cherkovi hamda Oqdaryo tumanidagi “Bahodir Yalangto‘sh” masjidida ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilgan. Yil yakuniga qadar Samarqand shahrida 16 ta, Kattaqo‘rg‘on shahar, Nurobod, Oqdaryo va Bulung‘ur tumanlarida bittadan moddiy madaniy meros ob’ektlari ta’mirlanishi ko‘zda tutilgan. Bu maqsad uchun qariyb 14 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan.

Xulosa: Viloyat madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda Samarqandda 130 ta madaniy meros obyekti yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Ular orasida “Dari-zanjir” madaniy meros obyekti ham borligi aytib o’tilgan edi talabalar bilan birgalikda mana shunday ob’ektlardan biri bo’lgan Dar-zanjir madrasasini to;iq tadqiq qilib ,unga zarur bo’lgan ta’mirlash loyihasi ishlab chiqildi .O’rganishlarimiz natijasida malum bo’ldiki Dari -zanjir madrasasi asrlar davomida yer sthining ko’tarilishi natijasida o’zining haqiqiy balandligini yo’qotib bir yarim metr qismi yer ostida qolib ketganligi aniqlanib madrasaning haqiqiy balandligi ochilib ,madrasa va uning atrof muhitini tamirlash loyihasi ishlab chqildi va viloyat madaniy meros boshqarmasiga topshirildi.

Adabiyotlar

1. *The Grove Encyclopedia of Islamic Art and Architecture* Bloom, Jonathan M.; Blair, Sheila S.:. Oxford University Press, 2009.
2. Jonathan Berkey. *The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo*. Princeton University Press, 1992.
3. M. S. Asimov. *Clifford Edmund Bosworth*. The Age of Achievement: Vol 4, 1999 — 37-bet. ISBN 81-208-1596-3.
4. Gibb, H. A. R. *The University in the Arab-Moslem World, in The University Outside Europe: Essays on the Development of University* Bradby, Edward:. Ayer Publishing, 1970 — 281–298-bet. ISBN ISBN 978-0-8369-1548-8.
5. Nadwi, Mohammad Akram. *Al-Muhaddithat*. Oxford: Interface Publications, 2013.

[tahrir | manbasini tahrirlash]

6.Kerenskiy O. M., Medrese Turkestanskogo kraya-SPb., 1892;

7.Abdullayev Yu., Ocherki po metodike obucheniya gramote v o‘zbekskoy shkole, T., 1966;

8.Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1991;

9.Shamsutdinov R. T., Rasulov B., Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari), Andijon, 1995.

10.Jurayeva, E. (2023). TARIXIY SHAHARLARDAGI DOMINANT INSHOOTLAR: TARIXIY SHAHARLARDAGI DOMINANT INSHOOTLAR.

11.Karimova, N., & Jurayeva, E. (2023). REGISTON SQUARE, TASHKENT: HISTORICAL AND ARCHITECTURE. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, *2*(10), 14-17.

12.Elmuradovna, J. E. (2023). The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present.

Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND 13.RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *2*(11), 50-54.

14.Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(9), 121-125.

15.Elmuradovna, J. E. (2023). REGISTON MAYDONLARINING KOMPOZISION TUZILISHI. JOURNAL OF 15.ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 48-52.

16.Elmuradovna, J. E. (2021). The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present. Middle European Scientific Bulletin, 18, 247-252.

17.Elmuradovna, J. E. (2021). Bukhara Registan: Past And Present. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(1), 160-166.

QADIMIY AFROSIYOB SHAHRI DEVORIY SURATLARINI TADQIQ ETISH

Marupova Nargiza Soleyevna
Madaniy meros obyektlarini asrash kafedrasi
Mustanova Nafisa Xabibullayevna
San'at kafedrasi o‘qituvchisi
Aminova Ruxshona Olim Qizi
Arxitektura tarixi va nazariyasi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura – qurilish universiteti

Annotatsiya: Ilk o’rta asrlar rang-tasvir san’atining O’rta Osiyo miqyosidagi rivoji Afrosiyob devoriy suratlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Afrosiyob devoriy suratlari faqatgina ilk o’rta asrlar ma’naviyati, madaniyati rivojidan dalolat berib qolmay, balki o’sha davr ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyoti hamda hunarmandchilik rivojining ham yaqqol isbotidir.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, devoriy suratlar, arablar istilosi, Yui shaharcha, ensiz naqsh, Varxumana, zandanachi, Domision tobuti, so’g’dlar turmushi.

Annotation : The development of early medieval color art in Central Asia can be clearly seen in Afrosiab's murals. Afrosiab's murals are not only a testament to the development of early medieval spirituality and culture, but also a testament to the development of domestic and foreign policy, economics and crafts at that time.

Keywords: innovation, murals, Arab conquest, Yui town, narrow pattern, Varkhumana, zandanachi, Domision coffin, sogdian life.

Kirish: Samarqand Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri bo’lib, So’g’dning qadimgi va o’rta asrlardagi poytaxtidir. Samarqand O’rta Osiyoning ikki daryo oraligidagi eng yirik shaharlaridan biri hamda o’zbek davlatchiligi shakllanishida asosiy beshik vazifasini o’tagan maskanlardan biri bo’lib hisoblanadi.

Qadimgi Sharq olimlari Samarqandni “Markaziy Osiyoning yuragi” deb ataydi. Darhaqiqat, qadimiy So’g’d siyosiy va iqtisodiy markaz bo’lib, mintaqadagi ko’plab jiddiy masalalarni hal qilishda nihoyatda muhim rol o’ynagan. Bu uning Markaziy Osiyo qit'asidagi qulay geografik joylashuvi bilan belgilanadi.

Ilk o’rta asrlarda O’rta Osiyo xalqlari san’ati devoriy suratlar, haykaltaroshlik, turli taqinchoq buyumlari orqali izohlanadi. Devoriy suratlar Dilbarjin(Afg’oniston), Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o’rganilgan bo’lsa, Kuyovqo’rg’on, Vaxsh vohasi, Chaqaloqtepa(Afg’oniston), Yerqo’rg’ondan turli hajmdagi haykallar, zargarlik buyumlari topib o’rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metal idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O’rta Osiyodagi tasviriy san’atning rivojidan dalolat beradi.[1]

Afrosiyob devoriy rasmlari — Afrosiyob arxeologik qazilmalar natijasida topilgan mahobatli rangtasvirning noyob namunalaridan biridir. Dastlabki namunalari arxeolog V. A. Shishkin tomonidan ochilgan.

Keyingi qazishlar davri(1965—68) da o`zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvaffaq bo`lganlar, bu xonalarning ko`plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan. Shulardan katta (11x11 m) va kichik(7x7 m) xonalardagi rasmlar birmuncha yaxshi saqlangan. Xonalardan birida erkak va ayol ark oldida o`tirgan holda tasvirlangan. Katta xona devorlariga ishlangan rasmlar detallarga boyligi, saqlanib qolgan sug`d yozuvlari bilan ahamiyatli. Xona devorlariga ishlangan rasmlarda to`y marosimi, Sug`d hukmdorining xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilishi, bu elchilarning yo`ldagi sarguzashtlari, yirtqich hayvonlar bilan olishuv, ov manzaralari, afsonaviy maxluklar tasvirlangan. Saqlanib qolgan rasmlar tahlili o`rta asr mahobatli tasviriy san`atining g`oyaviy badiiy yo`nalishi, rassomning ish usullari va vositalari haqida, tafsilotlarga boy maishiy sahnalar, etnik ko`rinishlar o`sha davr haqida fikr yuritish imkonini beradi. Rassom devorni 3 qismga bo`lib, 2 chetki qismidan ensiz naqsh hoshiyasi ajratib olgan, asosiy qismga mavzuli tasvir ishlagan, voqealarni yuqoridan kuzatayotganday aks etgirgan. Afrosiyob devoriy rasmlari yagona bir mazmunga bo`ysundirilgan: markazda so’g`d hukmdori Varxumon turadi, an`analarga ko`ra rassom uni boshqalarga nisbatan yirik ko`rinishda (butun devor balandligida, 5—6 m) tasvirlab, hukmdorning buyukligini e`tirof etadi, unga abadiylik, qahramonlik baxsh etadi. Afrosiyob devoriy rasmlari O`rta Osiyoda arablar istilosiga qadar mahobatli rangtasvirning rivojlanganligi, Samarqand uning markazi bo`lganligini ko`rsatadi.[2]



1965 yil V. A. Shishkin Janubiy devorning ochiq *qismi* oldida. E. N. Yuditskiy surati

Oxirgi o’n yil ichida Afrosiyob tarixi bo’yicha o’zbek-fransuz qo’shma ekspeditsiyasi(akademik

P.Bernar va keyinchalik F.Grene vaM.Isomiddinovlar boshchiligida) yangidan-yangi ma'lumotlarni bermoqdalar.Afrosiyob devoriy suratlarida So'g'd ixshidi Varxumana(VII asr oxiri) saroyida turli hududdan kelgan elchilar tasvirlangan.Shulardan ipak yo'li bo'ylab kelgan Xitoy va Koreya elchilari so'g'd ixshidi tomonidan qabul qilinishi bizgacha yaxshi saqlanib qolgan.

Afrosiyob devoriy suratlarida figuralarni qavtma-qavat joylashtirish orqali yassi devorda fazoviy kenglik hosil qilingan. Demak devordagi tasvirning balandda chizilishiga qarab, qanchalik uzoqligini his etamiz. Odamlar qiyofasida ham shu qonunlarga rioya qilinadi, hukmdor shaxslar naturada ulkan, xizmatkorlar esa kichiko'lchamdagi kompozitsiyada o'z yechimini topadi. Bu ularning ichki kechinmalari yuzlarida emas, qo'l,barmoq harakatlarida aks etishi va me'moriy binolarning kichik masshtabligi O'rta Osiyo miniatyurasida keng tarqalganligidan guvohlik beradi.[3]



Janubiy devor
Ixshid Varxumon boshchiligida o'zidan oldingi Shishpir sharafiga dafn marosimi

Shimoliy va janubiy devorlarda muhtasham mulozimlar bilan o'ralgan xorijlik ayollarning kelishi tasvirlangan[4], sharqiy devor esa hind mavzulariga bag'ishlangan. A. M. Belenitskiy va B. I. Marshak, aksincha, g'arbiy devorning syujeti turli davlatlar vakillarining sig'inishi deb hisoblashgan."So'g'd ma'budasi" - Nana. Boshqa devorlarda qirollik juftliklari tasvirlangan: shimoliy devorda - imperator Taizong bilan, janubda - Varxuman va uning rafiqasi boshchiligidagi ajdodlar maqbarasiga Navro'z bayramida marosim yurishi[5] C. Silvi Antonini rasmlarni hukmdor saroyida unga sovg'alar taqdim etish bilan birga Navro'z bayramini tantanali marosimi sifatida izohlaydi[6].

So'gd hunarmadlari biror martabali kishilar uchun tikiladigan libos matolariga alohida ahamiyat berishgan. Misol uchun elchilar libosi qimmatbaho, qalin va puxta ishlangan tabiiy ipak va ipdan tayyorlangan matodan tikilgan. Uning qalinligi odam egniga qulaylik va ko'rkamlik baxsh etishi hamda chakmon uchun rasmlar va naqshli bezaklarning ketma-ketligi yaqqol ko'rinishi uchun moslangan. Shuningdek, qalin chakmon uzoq vaqtga chidamli,issiq vasovuq havo ta'siridan saqlanishi uchun mo'ljallangan. Elchi egnidagi chakmon yurishga qulay bo'lishi uchun pastki qismidan tizzagacha ikki yon tomonidan qirqimlar hosil qilingan. Erkaklar basavlar va ko'rkam ko'rnishi uchun yelka kengligi kengroq qilib bichilgan. Bo'yin qismi va pastki qismi etagining qirqimlariga alohida hoshiya uchun shu matodan boshqa bichim qilganlar. Ba'zida elchi bosh kiyimi ham egnidagi chakmonga munosib tarzda shu matodan tikilgan. Elchilar sardori bosh kiyimi kashtalangan qalpoqdan boshqalariniki esa oddiy peshonaband qilingan tasmalardan iborat bo'lgan.

L.I.Albaum devoriy rang tasvir suratlarni o'rganarkan, mazkur elchilar chakmoni mutlaqo o'zgacha, ya'ni o'zi xos bezaklarda tasvirlanganini va bu hashamlar boshqa devoriy suratlarda ta'kidlaydi. Uning fikricha, elchi chakmoni alohida va mahsus qimmatbaho liboslar go'zalligini namoyon etish uchun tayyorlangan.

Ularning kiyinish madaniyati muhim diplomatik ahamiyatga ega bo'lishidan bir qatorda o'z xalqining milliy madaniyati va san'atini ham namoyish etgan. Elchi liboslari tasvirida doira ichiga olingan turli hayvonlar ko'rinishi, o'simliksimon bezaklar aks etgan. Liboslar bezagi uchun asosan, qizil, ko'k, oq ranglardan foydalanilgan. Ko'k rangni 4 xil ko'rinishini qo'llagan. Bunga sabab bu rangning O'rta Osiyotabiatida o'ziga xos o'ringa egaligidir. Liboslarda qalampirmunchoq sifat naqsh uslubi keng qo'llanilgan. Hozirda bu uslubdan o'zbek do'ppilari, kashtado'zligimizda va amaliy san'atning turli ko'rinishlarida qo'llanilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Xulosa: Shunday qilib, Samarqand O'rta Osiyoning eng yirik va qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, u haqida moziy olimlarining ko'pgina tarixiy asarlarida so'z yuritiladi. So'g'd o'lkasi O'rta Osiyoda rivojlangan davlatlardan biri sifatida Osiyo va Ovro'pa qit'asidagi turli mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yuritgan. Ayniqsa Buyuk Ipak yo'li So'g'd taraqqiyoti hamda uning Eron, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar bilan xalqaro aloqalari rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Shu bilan birga, so'g'dlarning o'ziga xos madaniyati, arxitekturasi, hunarmand chilik sanati,matolari va kiyim- kechaklari, ularning to'qimachilik sanoati boshqa davlatlar bilan turli aloqalarni,ayniqsa savdo munosabatlari rivojlanishiga sabab bo'lgan. Binobarin, so'g'd milliy an'analari timsoli tasviri, bezaklar so'g'dlarning o'ziga xos dunyoqarashi, san'ati va madaniyati haqida yorqin tasavvur paydo bo'lishiga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. A.S.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi – T.: ―Vneshinvestprom‖, 2003. 306-bet
2. Albaum.L.I. ―Afrasiab – T.: 1969. bet-256-260.
3. Д.Sultonova ―Moziydan sado jurnali. - T.: ―O'zbekiston‖, 2003. 3-son. 44-bet
4. Shishkin 1966, 18-bet; Albaum 1975, 56-bet
5. Belenitskiy, Marshak, 1981. 61 -63-betlar, 1994. 5-20-betlar
6. Silvi Antonini, 1989. 109-144-betlar

HISTORICAL ANALYSIS OF THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF TECHNICAL SCHOOLS IN UZBEKISTAN

Yuldasheva M.K. Associate Professor
Rakhmatova D.D. 1st year Master's degree
SamSACU

Abstract: The article analyzes the historical features of the emergence and development of the system of vocational education, i.e. technical schools, their functional and planning solution. At this stage there was a need to return technical schools, i.e. secondary specialized education and provide specialists of secondary specialized level.

Keywords: historical features, analysis, technical schools,education, maktabs, progressive methods, the Middle Ages.

Resolution of the Cabinet of Ministers No610 of 2019 - "On measures to improve the efficiency of training mid-level specialists". This resolution defines important aspects of financing and the organization of the educational process in technical schools, as well as the role of state bodies in ensuring the quality of vocational education. [1]

These reforms are aimed at increasing the level of training and improving the system of secondary specialized education in the country, which is an urgent and important part of the development of the economy of Uzbekistan.

Therefore, in the study of a scientific topic, it is necessary to reveal the history of the emergence and creation of technical schools (vocational school, vocational school). [2]

Issues of enlightenment and education in Turkestan. Until 1917, political power was concentrated in the hands of several ruling families and clans, relying on the support of the military. The Muslim clergy, in addition to religious activities, performed certain functions in educating the population and resolving legal issues. The rest of society consisted of merchants, artisans, as well as peasants, who made up the bulk of the population.

In 1917-18, regional councils of public education began to be created, and local councils of public education began to be created in the regions.

In May 1918, the Turkestan Republic began, as it announced, the creation of a new public school. Free education was introduced, entrance exams were canceled, and education was conducted in the native language.

In Turkestan from 1920 to 1925, the state set itself the task of organizing and strengthening a new school, involving as many children of working people as possible, introducing new ideological content into schools everywhere, and training new cadres of teachers.



Tashkent. The building of the general meeting was converted into a technical school. 1921.

About maktabs and madrasahs, there was the following measure: they were deprived of state funding. There were no religious subjects in public schools. There were not enough teachers and textbooks. Uzbek textbooks began to be created. Rahimi's primer was created, which was very popular in elementary school. It began to teach children to read and write in the Uzbek language. Textbooks on mathematics, elementary geography, a "primer for adults", and the anthology "Turkic School" (translated from Tatar) appeared. [3]

In 1922, the publication of textbooks increased. Textbooks were given out free of charge, on the condition that they would later be returned safe and sound. The interesting experience of many schools has been preserved. For example, the schools in Fergana, where Khamza, Kori-Niyazov and other graduates of these schools worked, played a role in the development of pedagogical thought.

In the same period, schools began to open in which children deprived of parents studied. Among the teachers there were many enthusiasts of their work, energetically introducing new progressive methods of teaching children.

At the age of 18, after a short training (1 year in a Russian-native school and 3 years in a madrasah), Akilkhon Sharafutdinov organized the first primary

school with 70 pupils in Toy-Tyube. He was one of the best teachers-methodologists in primary school, became the initiator of subject education, education of students in diligence and labor skills. writing and arithmetic, worked in the garden, published a wall newspaper, collected seeds, painted. Sharafutdinov was the author of a number of textbooks and a primer, which went through about 20 editions.

Of great importance in the organization of educational work and the provision of methodological assistance to teachers were the schools established in 1919-1928 in Tashkent on Besh-Agach, I and II levels named after Alman with a boarding school at it. Classes here were held in well-equipped classrooms. Music, drama, radio classes, etc. were created at the school.

In 1921, the school was renamed the Experimental Labor School, and then transformed into a school campus. In addition to the nine-year school, a kindergarten was organized in the town, pedagogical and agricultural classes were opened with a two-year course of study as a technical school. The main attention at the school was paid to the issues of polytechnicization and preparation of students for work.

In 1920, the First Congress of Educators was held, where important issues related to the development of education were raised.

In the 1920s and 1930s, Uzbekistan began to actively open technical schools, the task of which was to train workers and technical specialists in various fields - from agriculture and industry to health care and education.

The history of technical schools in Uzbekistan is closely connected with the process of modernization of education, which began in the Soviet period. After the October Revolution of 1917 in Russia and the formation of the Uzbek SSR in 1924, there was a need to develop a system of vocational education to train qualified personnel for various sectors of the economy.



Chirchik Industrial Technical School

In the 1920s and 1930s, Uzbekistan began to actively open technical schools, the task of which was to train workers and technical specialists in various fields - from agriculture and industry to health care and education. [4]

In connection with the need to provide qualified labor for the needs of the developing capitalist industry and the construction of railways, craft classes (carpentry, turning, bookbinding, and shoemaking) were opened at city schools. They were of great importance for raising the general educational and technical level of education of the population. The growth of trade and intermediary operations caused the opening of evening courses

Between 1975 and 1976 there were 4.8 million pupils in 10,000 general-education schools of all kinds, 117,000 pupils in 273 vocational-technical educational institutions (including 43,000 pupils in 88 vocational-technical educational institutions providing secondary education), 185,200 pupils in 187 specialized secondary educational institutions, and 246,600 pupils in 42 higher educational institutions.

A great contribution to the development of education was made by such teachers and figures as A. Shakuri, Hamza, Abdulla Avloni, Sadriddin Ayni, T.N. Kori-Niyazov, Ismatulla Rakhmatullaev and others.

Between 1975 and 1976 there were 4.8 million pupils in 10,000 general-education schools of all kinds, 117,000 pupils in 273 vocational-technical educational institutions (including 43,000 pupils in 88 vocational-technical educational institutions providing secondary education), 185,200 pupils in 187 specialized secondary educational institutions, and 246,600 pupils in 42 higher educational institutions.



First classes at vocational schools



Tashkent. The building of the vocational school

In 1989, more than 500 vocational and technical schools were operating in Uzbekistan.



Military School in Tashkent



Vocational school in Tashkent

Architectural and planning part of the historical period. Technical schools were mainly located in administrative buildings or in adapted buildings, like many educational institutions of the East, arose as an ideological, religious and educational one with a central core in the form of a mosque, where the main educational processes took place.

As a result of the study, it turned out that in the vast territory of Uzbekistan in the early Middle Ages there were independent architectural and artistic schools with established traditions of housing construction, typology of civil, religious and engineering structures. [5]

Conclusion

The historical prerequisites for the formation of vocational education in Uzbekistan, the contribution of Eastern thinkers to the development of vocational training, the scientific heritage of encyclopedic scientists of the Renaissance of the East, a number of qualities that serve as criteria for a perfect, creative personality of the younger generation, according to the teachings of Eastern thinkers, played a huge role in the development of the state.

One of the key features of the secondary vocational education system in Uzbekistan was the linking of educational institutions to specific sectors of the economy. Technical schools were created on the basis of existing enterprises, collective farms and state farms, which made it possible to carry out training as close as possible to real practice and the needs of the economy. This corresponded to the requirements of society in the practice of training personnel in close connection with production.

Restoration and expansion of the network of technical schools: In 2019, it was decided to return to the system of technical schools for the training of qualified mid-level specialists. The President signed a decree according to which many technical schools were restored and modernized so that they could meet the requirements of the modern economy. This step was a reaction to the need to train specialists for rapidly developing industries such as industry, agriculture, IT, construction and services.

References:

1. Presidential Decree NoUP-6097 of 2020 – "On additional measures to further improve the vocational education system"
2. Resolution of the Cabinet of Ministers No610 of 2019 - "On measures to improve the efficiency of training mid-level specialists".
3. V. Karyshev Chirchik Industrial Technical School. History
4. https://mytashkent.uz/2024/05/03/chirchikskij-industrialnyj-tehnikum/
5. Tashkent Aviation Technical School. To the 75th anniversary of its foundation https://dzen.ru/a/W8bRPp
6. Shoira Nurmukhamedova, History of the development of architecture in Uzbekistan period of antiquity. Tashkent 2023 Meros https://mytashkent.uz/2018/12/03/tat-imeni-yu-a-gagarina/

AMIR TEMUR DAVRIDA KUNDAL USLUBI

Umarova Manzura Karimdjanovna SamDAQU mustaqil.tad. (PhD)
Sultanova Dilshoda Namazovna
professor, arxitektura fanlari doktori Turon FA akademigi
Xasanova Xafiza Baxriddinovna
“Landshaft dizayni” kafedrasi katta o’qtuvchi
SamDAQU

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O’tmishda ota-bobolarimiz qurgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo’qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar xozirgacha bizni xayratga solib kelmoqda.

Kalit so’zlar: kundal uslubi, amaliy bezak, naqqoshlik, ganchkorlik, kashtachilik, zardo‘zik, kandakorlik, zargarlik,

Abstract: In this article, the art of painting of the Middle Ages has been known to the world since ancient times. The magnificent buildings that our ancestors saw in the past have not lost their charm to this day. We are still amazed by the exquisite design.

Keywords: kundal style, practical decoration, painting, handicrafts, embroidery, jewelry making, quilting, jewelry.

KIRISH

O'zbekiston monumental bezak san'atiga oid ajoyib asarlarning shon-shuhrati butun dunyoga yoyilgan. Biroq. jahonga mashhur bu san'at namunalari asosan Varaxsha, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Afrosiyob saroylaridagi devoriy yozuv va naqshlar hamda O'zbekiston muzeylarida namoyish etilayotgan, so'ngi paytlarda topilgan XIX- XX asrga oid uy ro'zg'or buyumlaridagi naqsh va gullar bilan cheklanib qolmoqda. Xolbuki ko'pgina turarjoy binolaridagi, o'rtacha mahalliy maschitlaridagi, so'ngi asrlarda bunyod topgan inshootlardagi, zamonaviy me'morchilik uslublari uzviy ravishda uyg'ynlashib ketgan imoratlardagi rango-rang naqshlar, asrlar mobaynida yuzaga kelgan nafosat durdonalari, yorqin va quvnoq, ranglarda o'ta yuksak did bilan ado etilgan bezaklar deyarli panada qolgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilk yer egaligi davrida (VI-VII asr) qasirlar, ibodatxonalar va boylarning uylari panno hoshiya singari bezaklar bilan obdon bezatilgzn. Ustalar ma'dan bo'yoqlarni yelimli suvda aralashtirib, uni quruq. mato yuziga surganlar, shu tariqa afsona va ertak yo'lida xayoldagi narsalarni haqiqat bilan yig'irib turli – tuman shakllar chizganlar. Shu kunlargacha saqlanib kelgan devoriy naqshu nigorlar bamisoli o'sha davrdagi murakkab, jo'shqin hayotning darakchisidek namoyon bo'lgan. Bu naqshu nigorlarni ikki yo'nalishga bo'lish mumkii: biri hayotining asosiy mazmuni ilohiy Budda e'tiqodidan iborat qadimgi budda sana'ati oqimi bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy oqim bo'lib bunda rassomlar urush bazmi jamshid. ov – shikor singari manzaralarni tasvirlaganlar. 1-rasmda Ilk o'rta asr davridagi butun O'rta Osiyo tasviriy san'atining umumiy xususiyati – bu bezakchilikni tashkil etgan rasmlarda odatdagi "kenglik", "bo'shliq", degan gaplarni uchratmaymiz. soya yo'q, biroq, ulardagi hajm mohirona ishlangan mana men deb turardi u ayniqsa, rasmning umumiy tuzilishida va detallarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Odatda ko'p miqdordagi jonli maxluqlarning tasviri birgina rang bilan ifoda etilgan, tagi yo ko'k. yo qizil rangda bo'lgan risunok (bichim) ning tarxlari esa gox qora, gox to'q kizil tusda berilgan.

Elchilarning tantanali suratda shox, qabulida bo'lishlari, shox saroyi, qahramonona janglar va mardona shikorlar tasvirlangan biri – biridan maroqli manzaralar musavvirlar yoqtirgan asosiy mavzular bo'lib, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi ilk o'rta asr aholilarining ijtimoiy, madaniy va axloqiy ideallarini o'zlarida to'la aks ettirar edilar.

VIII asrda O'rta Osiyoda qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din va yangi g'oya bezakli tasviriy san'atga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. O'tmish davr san'atining chinakam ildizlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan naqshu nigorlar yo'qolib ketib, faqatgina tabiat manzaralari hamda bezakli naqshlar qolgan. Ammo keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hadislar ko'proq, murosasiz yo'l tuta borib, qatiy ravishda shunday der edi: "tangri yoki odam zot suratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling", aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo'ladi, deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suratini chizish man etilishining ma'nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratishi u yoqda tursin, hatto xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi xam, aks xolda musavvir xudo bilan bahs boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi deyilgan. Islom talablariga bo'ysinish oqibati o'laroq bezakli san'atda monumental naqqoshlik rivoj topgan, arab yozuvining o'zlashtirilishi bilan bezaklarda unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'lgan. Yozuvlarninr mazmuni ma'lum darajada barcha bezaklarning umumiy tarziga bo'ysundirilib, yozuvning o'zi ham naqsh vazifasini ado etgan.



1 – rasm O'rta Osiyo naqshu nigorlarida osoyishtalik va umur-uzoqlik timsoli bo'lgan zirk gulini uchratishimiz mumkin.

IX- X asrlarda O'zbekiston hududida bezakli naqshu nigorlar, ayniqsa, keng tus oldi . Islom, xristian diniga o'xshab. San'atda mavzu va voqeani bir izmga solib qo'ymadi, biroq asrlar osha uning tasviriy imkoniyatlarini, afsuski, tobora cheklar edi. Asta sekin naqshli shakl va kompozisiyalarning ma'lum qonunlari ishlab chiqila boshlandi. O'rta asrdagi san'atning estetik talablaridan biri shu ediki, u odamni real voqelikni tushunishdan chalg'itish, dunyodagi barcha guzallikdan ajralgan holda kamol topishga undamog'i lozim bo'lgan. O'rta Osiyodagi naqqoshlik san'ati xuddi shunga asoslangan. O'rta asr O'zbekistonining bezak san'atida rang va naqsh ramziyligi birinchi uringa qo'yiladi. Qaysi bir tasvirni olmaylik, uning zamirida, albatta, qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi.

Foqat murakkab naqsh kompozisiyasini bunyod etar ekanlar, musavvirlar ma'lu motli kishi bir qarashdayoq ilg'ab olishi mumkin bo'lgan yaxshi tilaklarni aks ettirganlar: Xususan, naqshdagi ranglarning o'zlariga xos ma'nolari bo'lgan. Masalan gulsafsar osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to'l qinsimon gul poyasi - boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda tabiatning bahor chog'ida uyg'onishin anglatgan. Bezakli naqshu nigorlar musavvirlarning ona tabiatga chuqur muhabbatla hrini ifoda etib, ularning jo'shqin hayot bilan doim hamnafas ekanliklarini bildirgan. 2 – rasm Gullar va naqshlar borasidagi xalq tasavvuri doim sehr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand – nasihatlar bilan qorishib ketgan. Masalan, oq rang baxt va omadni bildirgan, zangori rang – oliy e'tiqodni, qizil rang – xushchaqchaqlik va shodlikni va hokazo . Ranglar bir – biriga chaplashtirilmay, har biri o'z holicha g'oyat tiniq berilsa-da, hatto bir – biriga eng zid ranglar ham qandaydir yaxlitlikka ega bo'lgan. Ranglardagi bu ramziylik O'zbekiston xalqlarining liboslariga, zargarlik buyumlariga, uy-ro'zg'or ashyolariga va uy-joy bezaklariga ham uzviy ravishda ko'chib o'tgan.



2 – rasm. O'zbekiston me'morchiligi bezaklarida yulduzli mehroblar eng keng tarqalgan usuldir ular asosan hajmi jihatdan uncha katta bo'lmagan havzalarda alohida ko'kamlik bilan namoyon bo'ladi.

Bezakli san'atning eng keng tarqalgan shakli bo'lmish ornament naqsh, gul, rasm) bashariyat madaniyatining hamma bosqichlarida unga hamrox bo'lib kelgan. Uning eng oddiy prinsiplari – bular uyg'unlik, bir-biriga mutanosiblik, yo'sin va usullarning qayta-qayta takrorlashuvchi naqsh (rasm)dagi yo'sin (motiv)lar aksariyat barqaror bo'lib, uzining ornamentallik shaklini yo'qotmagan holda bir buyumdan boshqa buyumga ko'chib yuradi. Bu xildagi naqshu nigorlarga ko'proq xos bo'lgan motivlar mebellarda, uy-joy, ro'zg'or ashyolarida, devor va shiftga ishlangan keng hajmdagi bezaklarda yaqol namoyon bo'lgan. [1]

Temur va temuriylar davrida san'atning barcha turi, jumladan, bezakli naqshu nigor yuksak darajada kamol topgan. Bu davrda dunyoviy san'atda islom taqiqlarini bartaraf etishga intilish ko'zga tashlanadi hamda naqshu nigorlar qaytadan jonlandi. Xatto endilikda u birgina miniatyura sohasida emas, balki monumental san'atda ham rivoj topdi. Temur buyrug'i bilan tiklangan saroylarning devorlarida tuylar, mashoshqu-mutriblar, amirning o'z rasmi, malika va ularning qarindosh-urug'lari, urush va shahar muhorabasi, hukmdorlar, a'yonlar va olimlarni qabul qilish marosimlari tasvirlandi. O'rta asr mualliflarining shohidlik berishlaricha, Ulufbek rasadxonasida ham tasviriy manzaralar bo'lib, ularda to'qqiz qavat osmonu etti qavat er, sobitu sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar va xokazolar aks ettirilgan.Bu davr tasviriy san'atining asosiy vazifasi hukmdorning kuch-qudratini, sarvatini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat bo'lgan.[11]

Afsuski, vayronagarchilik keltiruvchi urushlar va vaqt taqozosi bilan qasrlar hamda boshqa jamoat binolaridagi rasmlar yo'q bo'lib ketgan. Bu davrga oid bo'lgan tabiat manzarasi aks ettirilgan rasmlaring ayrim qismlari Samarqanddagi (Shirinbeka oqa, Tuman oqa, Bibixonim) va Shahrisabzdagi (Gumbazi Sayyidon) yodgorlik binolarining ichki qismida saqlanib qolgan. Ko'k bo'yoq bilan oppok, ganch ustiga daraxtlar, butoqlar, qushlarning shakllari hal berib nihoyatda nafis ifoda etilgan. Shu davrda ishlangan miniatyuralarni ko'zdan kechirar ekanmiz, turarjoy binolarining ichki qismlariga ishlangan rasmlar ham syujet ornamental naqshlardan mustasno emasligining shohidi bo'lamiz. Devoriy naqshlar kompozitsiyasi bilan miniatyuralar syujeti bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Musavvirlar naqshlar bilan chatishtirib yuborilgan tabiat manzaralarini yaratar ekanlar, ularga tabiatning ilk bunyodga kelgan chog'idagi osoyishtalik g'oyasi singdirilgan, jannatdagi bog'-rizvon aks ettirilgan, bu esa, o'z o'rnida, tasviriy san'atning islom aqidalari bilan chambarchas bo'lishini yana bir karra ta'minlagan. Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo'li bamisoli qush parvoziday erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan muyqalami musavvirning o'z barmoqlariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o'tmas do'st mo'yqalam go'yo uning amriga mahtalday bo'lgan.

Temur o'z davrida xalq hunarmanchiligi rivojlanishiga katta e'tibor bergan. Temur va temuriylar avlodi hukmronlik qilgan davrda hunarmanchilik buyumlari ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. XIV asrda naqshu nigorning **kundal** sanati paydo bo'ldi. Bunda maxsus gil ustidagi qizil loy bilan bo'rtiq, naqshlar solingan, tagi ko'k bo'yoqqa bo'yalib, naqsh yupqa tilla qatlami bilan qoplangan, tillaning ustidan esa naqshu nigorlar tushirilgan Samarqanddagi XVasrga oid tarixiy obidalar - Isharatxona, Oqsaroy va hokazo maqbaralarning ichki qismi xuddi shu usul bilan o'ralgan.

Ba davrda xalq amaliy san'atining barcha turlarida badiiy uslubning o'zgarishi bilan naqshlari yanada badiiylashgan, noziklashdi, mayda islimiy naqshlar, yozuvli naqshlar yanada ko'p ishlatilgan. O'sha davrlarda "**kundal** "uslubi qo'llanilgan. 3 – rasm Gumbaz osti qanoslari dastlab 8 qirrali, ganchkori

muqarnaslar ishlangan bo‘lsa, keyinchalik murakkablashib 16 qirrali qilib ochilgan. 8- 12 va 16 burchakli ravoqlar ishlanib, gumbazlarga panjarali darchalar qo’yilgan bo’lib Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida **Kundal** — 1) amaliy bezak san’atida bo‘rtma bezak yaratish usuli; shu usulda yaratilgan bezak (vaqsh) ham kundal deb ataladi. Me’morchilikda bezatilayotgan sath (devor)ga qizil kesak loy bir necha marta surtilib, bo’rtma shakl hosil qilinadi, so’ng mo’yqalam bilan bezak shakl bo’yoq va zarhal qoplab bo’yaladi; shuningdek, oltin plastinka (yap-roqcha)lar qoplab ishlangan bo’rtma vaqshlar ham kundal deb ataladi. XIV— XV -asrlarda binolarni bezashda kundal usulidan foydalanilgan. Samarqand (Bog‘i Dilkusho, Amir Temur maqbarasi va boshqalar), Buxoro (Baland masjid va boshqalar)dagi binolarda kundalning jozibador namunalari saqlangan. Hozirgi me’morlikdagi sharqona bezaklarda ham kundal keng qo’llanadi. 4 – rasm Kundal kashtado’zlik (jumladan, zardo’zlik)da bezatilayotgan buyum sirtiga to’shama (mato, karton va boshqalar) qo’yib, ustidan ip, ipak, zar iplar bilan kashta tikib hosil qilinadi; 2) zar ip qo’shib to’qilgan qimmatbaho shoyi mato; gullari xilma-xil va rang-barang; ushbu matodan tayyorlangan liboslar ham kundal deb atalgan.



3 – rasm



4 – rasm

XVI- XVII asrga kelib syujetli devoriy rasmlar deyarli chizilmay qo‘yildi ular o‘rniga ornamental kompozitsiya bilan kundal usulida ishlov berish rivojlandi (Buxorodagi Baland maschit, Xoja Zayniddin xonzqosi (XVI) va Abdulazixon madrasasi (XVII), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII) va boshqalar). "O’lkadagi eng yaxshi o‘rta asr binolari naqoshlik va bezak san’ati uyg‘unligining, naqshu nigorlar binolarning me’moriy ko‘rinishiga hamohangligining chinakam namunasi bo‘lib xizmat qilardi. Oddiygina oro berilgan panelning yuqorisida gir atrofi chiroyli gul shakli bilan o‘ralgan turli-tuman pannolar savlat to‘kib turadi, qubbalarda esa devor gumbaziga mos ravishda yuqoriga chiqan sari torayib boruvchi ornamentlar aqlni lol qiladi. Har bir kompozisiya hajmi va shakl e’tibori bilan o‘zi mustaqil bir tugal asar edi. Biroq XVII asr oxiriga kelib, devoriy naqshu nigor san’ati tanazzulga uchraydi. Bu narsa bezaklarni ishlash chog‘ida yorqin ijodiy izlanishlarning yo‘qligida, xonalar jihozlanishi ma’lum bir qolipga tushib qolishida, naqshu nigorlar mavzusidagi bir xillikda va nihoyat, tillaning haddan ortiq sarf etilishida ko’zga tashlanadi. XVIII - XIX asrga kelgandagina o‘zbek xonliklari iqtisodiy jihatdan bir oz o‘zlarini o‘nglab oldilar. Madaniy hayotda, jumladan, naqshu nigor san’atida ham umumiy rivojlanish jarayoni ro‘y berdi. [12]

XIX asr va XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududida mahalliy badiiy me’morchilik maktablari yuzaga kela boshladi. Ular nafaqat o‘zlarining hajm-planli kompozitsiyalari bilan ajralib turar edilar, balki bezakli jihozlarining g‘oyat nafisligi bilan ham diqqatga sazovor edilar. Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi farqni anglash uchun Fargona va Xorazm naqshu nigorlarini taqqoslasak, shuning o‘zi kifoya. Farg‘ona vodiysida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan, ichiga islimiy shakl tushirilgan va qizil hamda yashil bo‘yoqlar bilan jilolangan urunjlar afzal tursa, Xorazmda musavvirlar butun yuzani geometrik naqshlar bilan tuldirib, moviy va noranj rangli bo‘yoq berishni xush ko‘rganlar.

XIX asr va XX asr boshlarida barpo etilgan binolar ichida juda mo‘l xalq me’morchilik san’ati namunalari saqlanib qolgan. Turarjoy binolari, jamoa va mahalla maschitlari, saroy va o‘quv yurtlari binolarining devor va shiftlari jimjimador naqshu nigorlar bilan bezatilgan. Devorlarda gulli butoqlar, daraxtlar, guldonli guldastalar aks ettirilgan, shiftlari esa turli-tuman naqshlar bilan oro berilgan (Quqondagi Xudoyorxon saroyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Toshkentdagi knyazlar N.K.Romanovning" saroyi va A.A.Polovsevning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxuja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Moxi Xossa saroyi va boshqalar) Binoning ichki qismidagi har bir me'moriy qism ornamental bezakning ma’lum tipini tashkil etadi. Devorlar uzunasiga uch qismga bo‘lingan: panel qismi, o‘rta (enliroq) qismi va eng yuqori qismi, ya’ni friz. Yirik hajmdagi manzarali yoki naqshli kompozitsiyalar, odatda, devorning o‘rta qismiga joylashtirilgan. Unvonli yozuvlarni ham aynan shu qismda bitish kuzda tutilgan. Friz sidirg‘a rangdagi geometrik chizmalardan iborat bo‘lgan. Devorning shiftga tutashgan joyida ganchli karniz o‘rnatilib, uni sharafa deyilgan. Tep-tekis taxta shift bir necha ayrim-ayrim bo‘laklarga bo‘lnib, ular o‘rtasi o‘yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan.[13]

O‘rta Osiyo savdogarlari keltirgan hunarmanchilik buyumlari ichida oltin suvi yuritilgan gurzi, o’q, o’tkir tig‘li qilichlar va qilich qinlari va boshqa buyumlar o’sha davrdagi ustalarning mahoratini ko’rsatgan. XVIII-XX asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan bo’lib, Buxoro, Qo’qon, Xiva, Samarqakd, Shaxrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar bo’lgan. Zodagonlar xonadonlari naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Bu buyumlar xonadon sohibining davlatmandligini namoish qilib turgan.

XULOSA

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, asrlar davomida ulug’ ajdodlarimizning milliy-ma’naviy merosi shaxs kamolotiga juda ahamiyatliligi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy xazinalaridan o’rinli foydalanish, ularni yosh avlodga ko’proq tanishtirish, o’rgatish kerak bo’ladi. Ana shu ma’noda, sharqona bezaklar talabalarni estetik qobilyatlarini shakllantirishda va ma’naviy yuksak, go’zal va nafosatli bo’lib tarbiyalanishlarida ahamiyati beqiyosdir. Ko’zlangan maqsad talabalarning milliy arxitektura yodgorliklarga bo’lgan qiziqishlarini yanada orttirish hamda estetik qobilyatlarini shakllantirish. Sharqona bezaklarni qay darajada ko’ra olishi, idrok etishi, ulardagi rang uyg’unligini chiqarish va bir-biriga ta’sirini anglay olishi, tasavvur va dunyoqarashini yanada kengaytirish. Talabalarda milliy me’morchilik haqidagi tushunchalarini boyitish, ularni qurilish materiallari, qurilish chizmachiligi, amaliy san’at bilan chuqurroq tanishtirsh maqsadimizdir. Shuning uchun ajdodlarimizning milliy arxitektura tajribalarini yosh avlodga o’rgatish, ularda ilm-ma’rifatga, madaniy qadriyatlarga va kasb-hunarga qiziqtirish, ustoz-shogird an’analari asosida tarbiyalash, tabalarning axloq odobi, bilim darajasi, umuman, ularning ma’naviyatining shakllanishi muhimdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. I.Azimov O’zbtkiston naqshu nigorlari.-T. “G’afur G’ulom”, 1987

2. Po‘latov X., P. Zohidov va boshqalar. (2005). “Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari”. Toshkent, “Talqin” nashriyoti.

3. Qodirxo’jayev P. (2005). Badiiy bezak san’ati. O’quv qo’llanma. Toshkent “Iqtisod -moliya” nashriyoti.

4. Ахмедов М.К. Урта Осиё меъморчилик тарихи.-Т. . “Ўзбекистон”,1995

5. Уралов А.С. Темурийлар маънавияти ва маданияти.,,Сугдиён”,1996

6. Абдуллаев Н.Ж. Санъат тарихи, Т. 2, Т:, 2002. (дарслик)

7. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги. Т:, 1995

8. Уролов А.С. Архитектура лечебно – селебных учреждений Сентралной Азии и стран зарубежного мусулманского Востока. Самарканд, 2004

9. Пўлатов Х.Ш. Архитектура ва шаҳарсозлик

10. Mahmudov, N. O., Norimova, S. A., & Ehsonov, D. R. (2021). So‘ngi o‘rta asrlarda o ‘rta osiyoda hunarmandchilik markazlarini takomillashtirish asoslari.

11. A. Akromov, N.Tukhliev. O’zbekiston Milliy Entsiklopediasi Davlat ilmiy nashriyoti. T:, 2009 (106 bet)

12. I.M. Mo’minov. O’zbek Sovet Entsiklopediasi. Tom-5 1971 (182 bet)

13. M.Aminov. O’zbekiston Milliy Entsiklopediasi Davlat ilmiy nashriyoti. Tom-12 2000

O’ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARI MAHALLALARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Magistr, **Khakimov Dilshod Xasanovich**

Annotasiya: Termiz butunjahon madaniy me’ros obyektlaridan shaharning eski shahar ananaviy xalq uylarining hajmiy rejaviy tizimlari asosida ularni qayta tiklash tamoyillari. Tarixiy shaharlarda maxallalarning paydo bo’lishi, tarixiy shakillanishi va rivojlanishini tadqiq etish, ishlab chiqilgan xulosalar, natijalarini ularni saqlash va qayta tiklash borasida foydalanish

Kalit so’zlar: shahar, mahalla, arxeologik topilma va markazlar

Davlatimizning rahbari Sh.M.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Qurilish sohasida “Bugungi kunda mamlakatimiz qurilish sohasida ham yangi davr boshlandi, desak, to’g’ri bo’ladi. Avvalo, sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, respublikamizning barcha hududlarida ilg’or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo’layotgani, qurilish materiallari industriyasi yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotgani, malakali yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yo’lga qo’yilgani shunday deb aytishga asos beradi”, deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam.

Bugun ana shunday oliy janob an’analar qaytadan mustaxkam qaror topishi va rivojlanishi uchun, istiqlol sharofati tufayli eng qulay muhit yaratildi. Bu shubhasiz, biz, ota-onalar va mustaqil buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga yuklaydi.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda Prezidentimiz va davlatimiz bu masalaga jiddiy e’tibor bermoqdalar. Bu masalaning yechilishida esa oilaning o’rni va eng muhimi farzandlar oilaviy hayot manbai orqali oila va jamiyat talablarini anglaydi, his etadi va kelajak hayotini tashkil qiladi va farovon qiladi.

Biz bu yerda, oilaning sog’lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish oilaning asosiy funksiyasidir. Shu borada har bir inson o’z farzandlarining baxti saodati, fazli kamolini qo’rish uchun butun hayoti davomida ko’rishadi, mehnat qiladi.

Har bir fuqaro o'z-orzu umidlarini, ezgu maqsadlarini bafurja amalga oshirish mumkin. Fuqarolar mahallaga istalgan takliflar bilan murojaat etishsa, ishlari asosan shu yerda bitadi. Mahalla degani hashamatli binoda joylashgan ma'muriy-buyruqbozlik idorasi emas, bilsak har kuni kishilar ko'z o'ngida, o'zlari saylab qo'ygan oqsokol o'z maslahatchilari bilan kengashib bir to'xtamga keladi yoki oqsokol yig'ini nomidan istalgan tashkilotga mahalliy hokimiyatga murojaat qilishi mumkin.

Mana shu orzu-umidlarni amalga oshirishda O'zbekiston tarixiy shaharlarining milliy qadriyatlarimizning beshigi bo'lgan an'anaviy mahallalarini va ularning xalq uylari va markazlarini saqlash, kayta tiklash zamonaviylashtirish va ularni kelajak avlodga avaylab, asrab yetkazib berish bu bugungi kunning dolzarb masalalaridir.

O'zbekiston tarixi asrlar qa'riga borib taqaladigan, yoshi minglab yillar bilan o'lchanadigan shaharlar kam emas. Serquyosh Termiz ham shunday shaharlar jumlasidandir. Termiz O'rta Osiyodagi kelib chiqishi va tadrijiy taraqqiyoti bir joyda kechmay, o'zi mavjud bo'lgan barcha davrlarni aks ettiruvchi madaniy qatlamlar birin-ketin to'planib, qadimshunos ko'z oldida zamonlarning uzluksiz almashinuvini namoyon qilgan shaharlar jumlasiga kiradi. Termiz Sharqdagi qadimiy shaharlardan biri bo'lib, arab va yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlar va arxeologik topilmalar bu haqda guvohlik beradi. Qadimgi Sharq sivilizasiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor.

Termiz tarixi shaharlarini rekonstruksiya qilish vaqtida va kelajakda rivojlantirishda shaharning yaxlit Bosh plani bilan birgalikda eski shahar qismini shaharsozlik bo'yicha rivojlantirish, tartibga keltirish, ko'rkam bo'lishi bir butun sifatida qarilishi kerak.

Ayniqsa an'anaviy xalq uylari, mahallalarni saqlash va qayta tiklash bu nafaqat qadriyatlarimizni tiklash va saklash, buning asosida esa shu tarixiy mahallalarning nufuzini ko'tarish va unda istiqomat qilayotgan aholining turar joy sharoitini yaxshilash, suv ta'minoti, kanalizasiya, issiq suv, elektr energiyasi bilan ta'minlashdan iborat. Bulardan tashqari turar joy muammosini hal qilish, aholining ish bilan ta'minlash kabi bir qancha hayotiy muhim ijtimoiy muammolarni bir-biriga bog'lik holda hal etilmog'i lozim. Bundan tashqari an'anaviy xalq uylari, mahallalar va ularning markazlari kayta tiklash bilan bir qatorda hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirish hamda madaniy-ma'ishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirishni kompleks olib borish hamda tarixiy shaharlarimiz asosida zamonaviy shaharlarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridir.

Buyuk Ipak Yo'lining muhim bir tarmog'i ham Termiz orqali o'tgan. Yozma manbalarga qaraganda shaharga miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida asos solingan. Rivoyatlarga ko'ra esa Termizni miloddan avvalgi VII-asrda Baqtryaning birinchi podshosi Zaroastr bunyod yetgan deyiladi. Termiz tarixiga kirgan ilk nomlardan biri Taramasta-Taramata (baqtrcha-daryo qirg'og'i) yoki Hofizi Abruyning yozishicha, shahar nomi TARAMASTXA "narigi sohildagi manzil "so'zlaridan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan. Ayrim boshqa manbalarda shaharning eng qadimgi nomi TARMITA bo'lib, ilk o'rta asrlarga oid arman manbalarida "Drmat" tarzida mashhur bo'lgan. Jumladan "Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo, Demetrias" X-asrdan bugungi kundagi nomi bilan yani Termiz deb atala boshlagan.

Ko'hna Termiz, Sug'diyona, Xorazm, Marg'iyona va Parfiya davaltlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o'rnatgan. Topilmalarga qaraganda, shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda mustahkam va faol bo'lgan. Termiz III-IIasrlarga kelib Baqtryaning eng rivojlangan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Shaharning gullab yashnagan davri (miloddan avvalgi I-asr oxiri-milodiy I-II-asrlar) Kushonlar hukmronligi davriga to'g'ri keladi.. Islomiyat fatxi davrida (686-704) Tremiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, murabba' yani to'rtburchak shakldagi qal'adan iborat bo'lgan. Shaharda bu davrga oid me'morlik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metal va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari kabi topilmalarning ko'plab qayd etilishi shahr yirik savdo markazi vazifasini o'taganini isbotlaydi. O'sha davrda Termiz Kushonlar davlatining muhim shahri va budizmnint markazlaridan biri bo'lgan. Xasrda yozilgan "Hudud ul –olam" asarida Termiz "Jayxun bo'yidagi ko'rkam va obod shahar. Qalasi daryo bo'yida , ulkan bozori mashhur, Xuttalon va Chag'oniyon ahli shu yerda savdo qiladi" deb tariflanadi. Shulardan eski shahar qismida Termizshohlar saroyi saqlanib qolingan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.-T., 2022.
2. Manoyev S.B. O'zbekiston jamoat binolari me'morchiligida ansambl va komplekslarning shakllanishi. Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TAQI, 2017.
3. Sultanov A.N. Zamonaviy masjidlar tipologiyasi va arxitekturasining xorijiy tajribalari, bezaklari va ularga qo'yiladigan talablari. //Turkey International scientific-online conference: "Theory and analytical aspects of recent research". 129-135 pages. Part 11, January 9, collections of scientific works, Istanbul. 2023.
4. Nozilov D.A. O'rta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar. – Toshkent, 2013.
5. Gonzales, M. F. Marmara University Faculty of Theology Mosque ArchDialy September 18, 2020.
6. Shakirin Mosque Istanbul-Turkey. Beautiful Mosques Gallery September 17, 2020.
7. Riyadh-Arabic.net. Saudi Arabia, A mosque with a large dome with no pillars in between. 2020 October 3, 2020.
8. www.masjid.uz
9. www.meros.uz

NAMANGAN SHAHRI ARXITEKTURA YODGORLIKLARI TARIXI-MA'NAVIYATIMIZ SARCHASHMALARI

Adilov Zafar Ravshanovich
arx.f.n.,(PhD), Namangan muhandislik-qurilish instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatida joylashgan arxitektura yodgorliklari, ayrim madrasa va masjidlar bunyod etilishiga oid tarixiy ma'lumotlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, me'morchilik yodgorliklarining insoniyat taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rni, salmog'i va ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy yodgorliklar, madaniy meros ob'yektlari, zamonaviy shaharsozlik, ziyoratgohlar, masjidlar, gumbaz.

Аннотация: В статье представлены исторические сведения о строительстве памятников архитектуры, некоторых медресе и мечетях в Наманганской области. Он также предоставляет подробную информацию и необходимые выводы об уникальной роли и значении архитектурных памятников в человеческом развитии.

Ключевые слова: памятники культуры, объекты культурного наследия, современное градостроительство, святыни, мечети, купола.

Annotation: The article presents historical information about the construction of architectural monuments, some madrasahs and mosques in the Namangan region. It also provides detailed information and necessary conclusions about the unique role and significance of landmarks in human development.

Key words: cultural monuments, objects of cultural heritage, modern urban planning, shrines, mosques, domes.

Kirish. O'zbekiston qadimiy tarixiy madaniy yodgorliklari, takrorlanmas me'morchilik asarlari bilan butun jahonga ma'lum va mashhurdir. Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Buxoro, Xiva, Eski Termiz, Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon, Namangan kabi qadimiy shaharlar tarixda me'morchilik madaniyatining yuksak taraqqiy etganligidan dalolatdir. Bugungi kunda bunday shaharlarda me'moriy yodgorliklar alohida o'ringa ega. Respublikamizda oxirgi yillarda boshqa sohalarda bo'lgani kabi tarixiy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash, qayta tiklash bo'yicha katta ijodiy ishlar, o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston tarixiy shaharlardagi me'moriy yodgorliklarni himoya qilish va qayta tiklash jaaryoni, ayniqsa, 2001 yilda qabul qilingan "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish haqida" gi Qonun bilan bevosita bog'liq holda kechmoqda. Istiqlolimiz sabab biz olamni taniyapmiz, teng huquqli mustaqil davlat sifatida jahonga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldik, respublikamizga ziyoratga keluvchilar uchun qo'yilgan g'ovlarning olib tashlangani bois ularning mamlakatmizga tashriflari uchun imkoniyat yaratildi.

Asosiy qism. Namangan viloyatida jami 260 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud bo'lib, ana shu merosni o'rganish, uni avaylab-asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish bizning sharafli va mas'uliyatli burchimizdir.

Hozirgi vaqtda shaharsozlik va meьmorchilik sohasida bir qancha muammolar mavjud. Yaьni, keyingi yillar mobaynida bir qator ijobiy ishlar qilingani holda zamonaviy shaharsozlik masalasiga doir bir qator muammolar ham vujudga kelmoqda. Bu muammolarning orasida qurilishlarni shahar arxitekturasining tarixiy ansambli va qadimiy yodgorliklariga uyg'un holda olib borish kabi dolzarb masala ham bo'lib, nafaqat qadimiy shaharlar, balki bugunki kunda respublika shaharsozlik qurilishidagi hal etilishi zarur bo'lgan jiddiy muammolardan biridir.

Inson mehnati qanday go'zalliklar yaratishga qodir ekanligini va bu go'zallikda xalqning kechinmalari, istiroblari-yu, ezgu niyatlari umumlashganligini tarixning o'zi shohiddir. Shu maqsadda Namangan shahridagi Mulla qirg'iz madrasasi, Ota Ullixon To'ra masjidi, Namangan tumanidagi Sirli masjid, Kosonsoy tumanidagi Jome' masjidi, Chust shahridagi Mavlono Lutfulloh komplekslari yoshlarni ma'naviy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda juda katta rol o'ynaydi [1, 2] .

Me'morchilik yodgorliklari insoniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rni, salmog'i va ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy, qolaversa, ma'naviy boyligimizdir. Ularda ajdodlarimizning cheksiz qobiliyati, iqtidori, ilmiy g'oyalari aks etadi. Quyosh nurida tovlanib, ko'zni qamashtirgudek jilva berib turgan xilma xil rangli koshinlar go'zallik va joziba kashf etadi. Eshiklarga o'yilgan turli naqshlar, darchalar tepasidagi ganch yoki marmardan o'yib ishlangan panjaralar, devorlarning pastki qismiga o'rnatilgan marmar toshlarning o'ymakor naqshlari va ko'kka bo'y cho'zgan minoralarning qomati, ularga mutanosib ishlangan xilma xil gullar, bir vaqtlar sharqda madaniyat juda yuksak bo'lganligidan dalolat beradi.

Namangan shahri va viloyatida saqlangan me'moriy yodgorliklar asosan XVIII-XX asrlarda bunyod etilgan. Viloyatda joylashgan Mulla Qirg'iz madrasasi, Ota Valixon To'ra va Shayx tarixi, shuningdek me'morchilik san'atidan darak berib turuvchi ko'plab tarixiy me'morchilik obidalari va ziyoratgohlari Ishoq Eshon masjidlari, Hazrati Mavlono Lutfulloh Chustiy majmuasi, Mulla Bozor Oxund maqbarasi, Baliqlik Mozor, Buloqli Mozor va Bibi Ona ziyoratgohlari shular jumlasidandir.

Manbalarning ko'rsatishicha, Namangan viloyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy manzillaridan biri hisoblanadi. Ana shu tarixiy manzillarda o'sha davr

muhitini aks ettiruvchi, aholining madaniy-ma'naviy holatini ozmi-ko'pmi qoniqtirib turuvchi masjid, madrasa, hammomlar ishlab turar edi. Bulardan biri me'moriy mahobati hamda balandligi bilan ajralib turuvchi 1916 yilda qurilgan Namangan shahridagi Ota Valixon To'ra madrasasi hisoblanadi. Ushbu madrasa qurilishi o'ziga xos uslub asosida barpo qilingan. Bu madrasa uchun ishlatilgan g'ishtning tuprog'i tarkibidagi tuzni yuvib tashlash uchun oylab suv oqizib turilgan, shundan keyingina loy tayyorlanib, qayta ishlanib, g'isht tayyorlangan. Bu g'ishtlar nihoyatda avaylab, ehtiyotkorlik bilan humlarda pishirilgan, shuning uchun ham yuqori sifatli bo'lib, undan qurilgan imoratlar mustahkam va ko'rkam bo'lgan. Binobarin, dahadagi bu me'morchilik obidasi O'rta Osiyoda muhtasham osori-atiqalardan hisoblanadi [3, 4, 5].

Madrasa so'zi arabchada «o'rganmoq» ma'nosini anglatib, u O'rta Osiyoda umumiy va oliy ta'lim muassasasi sifatida VIII asr oxiri va xususan Somoniylar davrida shakllangan. Madrasalar bu davrning yirik shaharlari Buxoro va Samarqandda VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida qurila boshlangan. Unga qadar ta'lim ishlari, yuqorida qayd qilinganidek, maktablar va masjidlarning kutubxonalarida hamda maxsus bilim uylarida olib borilgan.


Tarixdan ma'lumki, Mulla Bozor Oxund XVII asrning birinchi yarmida xalqni insonparvarlikka, ezgulikka, mehr-oqibatga, ilm-ma'rifatga, ma'naviyatga targ'ib qiluvchi yirik olim sifatida mashhur kishi bo'lgan. Bu ulamo hamyurtimiz, otashnafas shoir Boborahim Mashrabning birinchi ustozi hisoblangan. Shuning uchun ham Mulla Bozor Oxund maqbarasini va qabrini ziyorat qiluvchilar bilan bu atrof doimo gavjumdir.

Mahalliy aholi o'rtasida Usta Mulla Qirg'iz mahorati katta hurmatga sazovor bo'lgan. Usta Mulla Qirg'iz yaratgan kompleks an'anaviyligi bilan emas, balki tarix yechimining alohidaligi bilan diqqatga sazovor. Ayni paytda saqlanib qolgan bezak turlari Farg'ona monumental arxitekturasi uchun xarakterlidir [6].

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'lkamiz me'morchiligi yodgorliklarining shuhrati butun jahonga yoyilgan, ularga bag'ishlab ko'plab kitoblar, albomlar, risolalar chop etilgan. Biroq, Farg'ona vodiysidagi, ayniqsa, Namangan viloyatidagi tarixiy obidalar esa birmuncha e'tibordan chetda qolib keldi. Buning boisi, birinchidan, Namangan arxitektura yodgorliklari O'rta Osiyoning mashhur obidalar singari unchalik serhasham emas, ikkinchidan, Namangan shahridagi tarixiy yodgorliklar hozirgacha kam o'rganilgan, ularni faqat mahalliy aholi-yu, mutaxassis olimlarning tor doirasigina biladi, xolos. Shu sabablarga ko'ra ular keng ommalashmagan.

Atoullixon to'ra masjidi - Namangan shahridagi me'moriy obidalarning ajoyib namunalaridan biri Sumalak guzar mahalla markazida, Uychi ko'chasida joylashgan (1,2-rasm). Bu masjid mahalliy xalq iborasida Otavalixon to'ra masjidi deb atab kelinadi.

Ushbu masjid yog'ochdan sinchli qilib qurilgan bo'lib, binoning ichki va tashqi ko'rinishlari hamda jome' masjidining ayvoni nihoyatda did, amaliy san'atning go'zal usullari bilan naqsh qilinib, ziynatlangan hamda arab yozuvining kufiy, suls, nash va nasta'liq usullarida oyatlar, hadislar hamda salovatlar yozilgan. Shuningdek, ganch va yog'och o'ymakorligi ishlari nihoyatda mohirona bajarilgan [7].



1-rasm.«Otaullixon to'ra» masjidi va madrasasining avvalgi ko'rinishi



2-rasm. «Atoullixon to'ra» masjidi va madrasasining bugungi kundagi tashqi ko'rinishi


XX asrning boshlariga kelib, sababi noma'lum bo'lgan yong'in natijasida Atoullixon to'ra masjidi va madrasa binolari tamoman yonib ketadi. Masjidni qayta tiklash maqsadida bo'lg'usi masjid binosining loyihasi ishlab chiqiladi. Ushbu loyihaga muvofiq masjid katta gumbazli bo'lib, yog'och ishlatmasdan faqat pishiq g'ishtdan qurilishi va binoning ichki qismi ajoyib san'atli turli o'yma naqshlar bilan bezatilishi kerak edi.

1915 yilning bahorida qurilish ishlari boshlab yuboriladi, qurilish jarayonida Usta Mulla qirg'iz bilan yonma - yon uning is'tedodli shogirdlaridan Usta Fozil Namangoniy, soqov Xoji va boshqalar birga ishlaydilar. Usta Mulla Qirg'iz masjid qurilishida o'zining barcha tajribasini ishga soladi va mahoratini namoyon qiladi. Chunki, bunday murakkab qurilish inshootlari kamdan - kam bunyod etilar edi. Dastlab bino poydevorini 4 oy davomida shibbalab qotirilgan, har bir shibbalashdan avval poydevorga to'ldirib suv qo'yilgan, to suv shimilib ketgunga qadar kutib turilgan va yana shibbalangan. Bu hol poydevorga quyilgan suv ma'lum

muddat shimilguncha davom ettirilgan va shundan so‘ng tosh terib, qamish solib, g‘isht terilgan [7].

Binoning rejaviy yechimi to‘g‘ri burchakli shaklda bo‘lib, unga mutanosib gumbaz bilan yopilgan. Bino 27x19,6 metrlik reja asosida qurilgan. Masjidning usti aylana diametri 13,9 metrlik qovurg‘ali ulkan gumbaz bilan yopilgan. Gumbazning yon tomonlariga aylantirib bir nechta panjarasimon tuynuklar qo‘yilgan. Masjid gumbazining g‘arbiy va sharqiy qismlari g‘ishtdan ko‘tarib ishlangan to‘rtta ustunlar tepasiga o‘rnatilgan bo‘lsa, gumbazning shimoliy va janubiy qismlari sakkizta ana shunday ustunchalar ustiga o‘rnatilgan. Bu ustunlarning barchasi turli rangdagi sirkor qoplamalar bilan qoplanib, yuqori qismiga kufiy xati bilan Olloh va uning sifati yozilgan. Ustunlar bilan devor orasidagi bo‘shliq esa masjid ayvonini tashkil qiladi. Masjidga kirish eshigining ikki yonida ikkinchi qavatga chiqish uchun balandligi 10 metrga yaqin, zinapoyalik burama yo‘laklar bor. Usta Qirg‘iz mazkur yo‘laklarni qurishda g‘isht terishning o‘ziga xos maxsus usullari va salobatini mohirona namoyon etgan [10].


Atoullixon To‘ra masjidi binosining yana bir qimmatli tomoni shuki, XVI asrdan to hozirgi davrimizgacha O‘rta Osiyoda bunyod etilgan me’morlik obidalari orasida gumbazining ulkanligi jihatidan yetakchi o‘rinlardan birida turganligidadir. Bu inshoot namanganlik me’morlarning iste’dodidan darak berib turibdi. Gumbazning ustki qismidagi markazdan boshlanib pastga tushgan 30 ga yaqin qovurg‘alar, quyosh nurida tovlanuvchi ko‘k rangli quyma sopol tuvakchalarga o‘rnatilgan. Gumbazni serjilo va jozibador qilish uchun g‘ishtdan bo‘rttirib gullar chiqarilgan hamda uning ostidan gumbaz aylanasiga kufiy yozuvida bo‘rttirib «Kalimai toyiba» bitilgan. Masjid qurilishi asosan Degrezlik dahasida yashovchi mahallalar aholisidan va boshqa muridlardan yig‘ilgan mablag‘ hisobiga bunyod etilgan. Atoullixon To‘ra masjidining mazkur loyihasi hozirda Respublika markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda (3-rasm).



3-rasm.Atoullixon To‘ra masjidining rejaviy loyihasi

Yana bir tarixiy obidalardan biri **Mahdumi Eshon masjidi** Namangan shahrining Marg‘ilon ko‘chasida joylashgan. Masjid 1808 yilda Mulla Buvaboyning mablag‘i hisobiga barpo etilgan bo‘lib, usta Ismatillo boshchiligidagi binokorlar tomonidan qurilgan. U 1938 yilgacha masjid sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik dinga qarshi kurash davrida bu masjid yopib qo‘yilgan. 1946 yil ikkinchi jahon urushidan so‘ng davlat ruxsati bilan qaytadan masjid sifatida ochilib, hozirgi kunga qadar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda [5,6] (4-rasm).

Masjid 2000 kishilik xonaqoh va 6000 kishi joylashadigan hovlidan iborat bo‘lib, tahoratxonalar zamonaviy talablarga javob beradi. Bundan tashqari imom uchun alohida hujra, masjidning xodimlari uchun binolar, alohida nikoh o‘qish xonasi, viloyat Haj va Umra markazlari uchun xonalar ajratilgan.



4-rasm. Namangan shahridagi XIX-asr o‘rtalarida qurilgan «Mahdumi Eshon» jome’ masjidi tashqi ko‘rinishi.

Masjidga jo’me maqomi berilgan bo‘lib, juma va Iyd Ramazon va Hayit namozlari o‘qiladi. Masjid mo‘min musulmonlarga shariat ahloqlarini o‘rgatishda xizmat qiladi.

Xulosa. Namangan shahri o‘zining boy tarixiy me’moriy obidalariga ega. Shulardan Xo‘jamning maqbarasi, Atoullixon To‘ra masjidi, Azizxo‘ja Eshon madrasasi va masjidi, Mulla Qirg‘iz madrasasi, Mavlaviy Namangoniy maqbarasi, Mahdumi Eshon masjidi, Qodirxo‘ja Eshonboy uy muzeyi, Mulla Bozor Oxund majmuasi, Alisher Navoiy nomidagi viloyat musiqa va drama teatri, 1-sonli o‘rta maktab binosi, Namangan Xitoy bank binosi, Abdulla Eshon masjidi, Rahmatulla Laxtod masjidi, Nodim Namangoniy maqbarasi, Shayx Isoq Eshon masjidi, Muyi muborak gumbazi, Langar masjidini zamonaviy funksiyalarga moslashtirish, ularni saqlash masalalari haqida loyihaviy taklif berish bugunning dolzarb vazifalaridandir. Jumladan, Atoullixon to‘ra masjidini muzey binosiga moslashtirish, Mulla Qirg‘iz madrasasini milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotish maqsadida moslashtirilish ulardan samarali foydalanish koeffisiyentini oshirishi muqarrardir. Chunki, bu yodgorliklar Namangan tarixini, madaniyatini, me’moriy an’analarini o‘zida aks ettirgan noyob ob’yektlardir.

Adabiyotlar:

1. Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorliklari. Toshkent, «O‘zbekiston», 1986 y.

2. Zohidov P.Sh. Me’mor olami. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati,1996 y.
3. Ismoilov Yu. Namangan fahri. Namangan nashriyoti,1994 y.
4. Mirzaaliyev E.Yu, Bozorova M.T. Namangan shahar tarixiga bir nazar. Namangan, 1997 y.
5. Ro‘zinov B., Rajabova S. Namangan viloyati madaniy merosidan lavhalar. Namangan nashriyoti, 2006 y.
6. Samatov U. Usta qirg‘iz izlari izdoshi. «Namangan» 1999 y.
7. Shamsiyev Z. Gumbazlar xaqida. «Hayot va iqtisod» jurnali, 1991 yil, №7.
8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti arxiv ma’lumotlari.
9. Ro‘zinov B., Rajabova S., Ismoilov Yu., Kosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. Namangan: 2013.

ОПТИЧЕСКИЕ КОРРЕКТИВЫ И ДЕКОР МЕЧЕТИ БИБИ-ХАНЫМ

Салохутдинова Мунаввар Голиб-кизи
докторант PhD, Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Аннотация: В статье рассматриваются архитектурные и декоративные приемы, применяемые среднеазиатскими зодчими, на примере мечети Биби-Ханум в Самарканде. Основное внимание уделяется оптической коррекции, которая создает иллюзию монументальности и устремления здания ввысь. Анализируются применение наклона боковых стенок портала для усиления визуального эффекта объемности, а также использование декоративных элементов, таких как понижение деталей верхней части и кашинная мозаика, для создания сложных геометрических и растительных узоров

Ключевые слова:кашинная мозаика, оптические коррективы, визуальный эффект, кисва, сульс, куфи.

Annotatsiya: Maqolada Samarqanddagi Bibixonim masjidi misolida Markaziy Osiyo me’morlari tomonidan qo‘llanilgan me’moriy va bezak uslublari haqida so‘z boradi. Asosiy e'tibor monumentallik illyuziyasini va binoning yuqoriga intilishini yaratadigan optik tuzatishga qaratiladi. Balandlikni vizual effektini oshirish uchun portalning yon devorlarini egishdan foydalanish tahlil qilinadi.Shuningdek, murakkab geometrik va gul naqshlarini yaratish uchun yuqori qismlarni tushirish va mozaikalar kabi dekorativ elementlardan foydalanish.


Kalit so`zlar: kashin mozaikasi, optik tuzatishlar, vizual effekt, kisva, suls, kufi.

Abstract: The article discusses the architectural and decorative techniques used by Central Asian architects, using the example of the Bibi-Khanum Mosque in Samarkand. The main attention is paid to optical correction, which creates the illusion of monumentality and the aspiration of the building upward. The use of tilting the side walls of the portal to enhance the visual effect of volume is analyzed.

Key words: kashin mosaic, optical corrections, visual effect, kiswa, thuls, kufi.

Архитектурное наследие Средней Азии, особенно эпохи правления Тамерлана, представляет собой уникальное сочетание инженерных решений, эстетических приемов и глубокой символики, отражающих культурные и фундаментальные идеалы того времени. Одним из самых современных образцов этой традиции является мечеть Биби-Ханум в Самарканде — грандиозное сооружение, ставшее символом могущества и духовности империи Тимуридов. Стремление к созданию новых пространств и использование различных техник оптической коррекции приводит к тому, что средневековые зодчие не только мастерски владеют законами перспективы, но и умело нарушают их визуальными эффектов. Важное место занимают декоративные элементы, такие как кашинная мозаика, сложные геометрические узоры, каллиграфические надписи, а также мукарнасы — особый архитектурный элемент, символизирующий переход к божественному миру. Настоящая статья посвящена анализу этих архитектурных и художественных приемов, направленных на создание сакрального пространства.

Среднеазиатские архитекторы используют приемы оптической коррекции, чтобы создать впечатление устремления ввысь. Этот эффект достигался за счет наклона боковых стенок портала, что создавало иллюзию более высокого объекта. По законам перспективы все параллельные линии кажутся сходящимися в одной точке. Ломая законы перспективы, меняли восприятие зрителя. Е.Ш..Ратия пишет, что такой наклон был сделан намеренно, дабы угодить требованиям заказчика. Ведь ещё средневековый путешественник Клавихо упоминает это в своих записках, что Тимур, вернувшись из похода в Индию, был крайне недоволен размерами портала мечети Биби-Ханум в Самарканде. Эта мечеть, была задумана как грандиозное сооружение. Так же применяли такую иллюзию в декоре. Одинаковые элементы вверху делали меньшими, чем такие же нижние.[2]



(Рис.1.) Визуальное восприятие главного портала мечети Биби-Ханум.С учётом оптической коррекции и без. Графический чертёж автора.

Обратим внимание на впечатление, создаваемое у зрителя, осматривающего фасад портала с одной и той же точки зрения в том и другом случаях. Как можно убедиться из рассмотрения перспективного рисунка, в первом случае стрельчатая арка, перекрывающая портальную нишу, вследствие понижения перспективной точки схода внешних граней этой ниши тяготеет к быстрому сужению к замку, отчего ниша кажется зажатой и лишенной пространственности. Во втором случае, когда перспективная точка схода значительно удаляется вследствие некоторого наклона этих стен, арка принимает более округлую форму и зрительно охватывает большое пространство', перекрываемое ею. При этом и создается иллюзия, что арка портала значительно больше своих действительных размеров, и композиция портала в целом воспринимается зрителем, как более монументальная. [2]

Для Биби-Ханым была характерна строгость в отделке фасада, с преобладанием разнообразных геометрических построений.Мастера действительно обладают выдающимся терпением, создавая кашинную мозаику — украшение из самой сложной техники керамического декора. Кашинная плитка, открытая обработанным глазурью, обеспечивает яркость. В процессе изготовления керамическую плитку разбивали на мельчайшие части, которые тщательно подгоняли по форме и окрашивали глазурью в определенный цвет. Каждый элемент потом обжигали и собирали в сложные орнаменты и узоры, подобные мозаики. Такая техника изменения создает как геометрические, так и растительные узоры, характерные для ислама. [1]

Поражает, как быстро древние зодчие справлялись с крупно-масштабными проектами, используя столь трудоёмкие технологии. Например, строительство мечети Биби-Ханум заняло всего 5 лет, несмотря на огромные размеры и количество деталей в оформлении. Это говорит о высокой организованности труда. К числу лучших памятников, демонстрирующих технику мозаики, относится мечеть Биби-Ханым. Мечеть дает великолепные образцы панно, выполненные в данной технике, способной воплощать изящные растительные орнаменты в сочетании с надписями, выполненными почерком *сульс* и *куфи*. [3]Использование кирпичной мозаики давало возможность для создания крупномасштабного геометрического и эпиграфического декора; именно такие варианты представлены на стенах лучших памятников эпохи – дворца Ак-Сарай, мечети Биби-Ханым, медресе Улугбека и мн. др. Монументальный узор из кирпичей «кладет начало новому периоду широкого применения полихромных кирпичных мозаик» Надписи на стенах мечети Биби-Ханум действительно придают ей особую сакральную атмосферу и значение. Использование священных исламских формул и сур из Кораны не только украшает здание, но и обеспечивает духовную функцию. Эти каллиграфические надписи, выполненные мастерами в виде изящных узоров, символизируют вечное величие Бога и указывают на упоминание о вере для всех, кто входит в него.




Рис. 2. Перспективный рисунок портала главного здания мечети Биби-ханым при вертикальных щековых стенах.




Рис. 3. Перспективный рисунок портала при наклонных щековых стенах. Иллюстрация Ш.Е.Ратия (стр. 61)

Особенно символично то, что надписи облекают здание как своеобразный щит, защищающий его и верующих от злых сил и неудач. В этом смысле

надписи действительно можно сравнить с кисвой — покрывалом на Каабе, которое также несёт на себе священные слова.

Крупномасштабный *гирих*, в явленных формах подчеркивающий бесконечность узорной завесы, как нельзя лучше соответствовал масштабам зданий темуровского времени; гигантской сеткой он разворачивался на обширных плоскостях стен и стволах минаретов, на щеках, щипцах и плафонах порталов, чашах куполов, зрительно организуя гигантские плоскости и усиливая ощущение масштаба облекаемых им архитектурных поверхностей (Пугаченкова, 1976; с. 35). Мавзолеи Гур-Эмир и Безымянный (Шахи-Зинда), мечеть Биби-Ханым, дворец Ак-Сарай, медресе Улугбека и многие другие памятники демонстрируют блестящую разработку геометрических построений, доведенных до уровня высокого искусства.

Мукарнасы, или «сталактиты», действительно стали важной и символически насыщенной частью исламской конструкции. Этот декоративный элемент с ритмично расположенными и бесконечно дробящимися консолями создает впечатление земной, почти абстрактной геометрической структуры, напоминающей небесные сферы или круговой, идеализированный божественный порядок. Использование мукарнас в куполах и нишах имело особое значение: они олицетворяли переход к «верхнему миру», ассоциированному с небом и божественной бесконечностью. [3]

Такая структура, которая, словно вы удлинены из стен и потолков, позволяет скользить вверх, символически направляя взгляд человека к созерцанию божественного и бесконечного. Мукарнасы воспринимаются как визуальное воплощение концепции абстрактного Бога, которое трансцендентно и не может быть изображено непосредственно, но символически «присутствует» в упрощенном, почти математическом виде.

Исламские зодчие создают мукарнасы с использованием ганчи — смеси алебастра и гипса, которую можно было отливать в других формах. Эта техника преобразования передает весь объемно-пластический замысел, превращая стены и потолки мечетей в шедевры архитектурного искусства. Как отметил Пиотровский, мукарнасы, подобные куполам, создают иллюзию «неба» или «бесконечности», увеличивая сакральное значение пространства мечети. [4]

Орнаментальное искусство эпохи Тимуридов представляет собой яркий этап в истории мусульманского декора, когда сложение классической орнаментальной базы привело к появлению уникальной эстетики, отличающейся от предшествующих форм и одновременно вписывающейся в общеисламскую традицию. В отличие от раннеисламского орнамента, перенявшего византийские мотивы и сосредотачивавшегося на элементах, таких как виноградные лозы и пальметты, темуридский декор синтезировал символику и мотивы, унаследованные от различных культур. Это включало достижения караханидских мастеров, что позволило темуридским зодчим одновременно развивать существующие формы и вносить собственные инновации, создавая декоративную систему, отражающую идеалы исламского мира. Эта система, ассоциирующаяся исключительно с исламским искусством, была результатом совместной работы художников различных этнических групп в крупных центрах мусульманского Востока, таких как Самарканд и Герат. Значимую роль в оформлении исламского орнамента играли не арабы, завоевавшие обширные территории, а народы, обладавшие развитыми художественными традициями, – так, арабы привнесли каллиграфию, которая стала основным элементом раннеисламского декора, тогда как орнаментальные формы продолжали сохранять элементы предшествующих культурных пластов. С XI–XII веков орнамент приобрел более характерный исламский стиль, распространившийся на все сферы прикладного искусства, что сделало темуридский орнамент кульминацией векового синтеза различных традиций и выражением единого художественного языка исламского мира.

Эпоха Тимуридов сыграла ключевую роль в становлении исламского орнамента как самостоятельного художественного направления, объединившего разнородные влияния и эстетические принципы в единую декоративную систему. В процессе формирования этой системы мастера эпохи не только заимствовали и развивали достижения своих предшественников, но и создавали новые формы, обогащая орнаментальный язык элементами различных культурных традиций. Темуридский декор, впитавший черты как локальных, так и византийских, иранских и среднеазиатских мотивов, стал выразительным символом исламского искусства и установил фундамент для дальнейшего развития орнамента во всем мусульманском мире. Эта уникальная эстетическая модель на долгие века определила направления архитектурного и прикладного искусства мусульманского Востока, продолжая оказывать влияние на стилистические решения и в последующие исторические периоды.

Таким образом, архитектура и декоративное оформление мечети Биби-Ханум в Самарканде иллюстрируют высокий уровень мастерства и символическое мышление среднеазиатских зодчих. Использование оптической коррекции и наклона стен для усиления монументальности иллюзий, в основном, с учетом принципов солнечного света и подхода архитекторов, которые создают впечатляющие, духовно насыщенные пространства. Кашинная мозаика, сложные геометрические орнаменты, а также каллиграфические надписи носят не только эстетическое, но и сакральное значение, создавая атмосферу, где каждый элемент имеет религиозную и символическую культуру. Мукарнасы, символизирующие божественный порядок и бесконечность, включают в пространство медитативный вход,

направляя взгляд к мыслям о вечности. В результате мечеть Биби-Ханум представляет собой не только выдающееся электрическое достижение, но и выражение духовных идеалов эпохи, служащее источником вдохновения для развития человечества.

Литературы:

1. Нильсен В.А., Манакова В.Н. «Архитектурный декор памятников Узбекистана»Стройиздат 1974 г. Ленинград
2. Ш.Е.Ратия «Мечеть Биби-Ханим в Самарканде.Исследование.Опыт рестоврации» Москва 1950г.
3. Эльмира Гюль «Архитектурный декор эпохи Темуридов» -Ташкент 2014 Издательство журнала “San`at” 180стр. с илл.
4. Ст. Эльмира Гюль “Цвет в архитектуре эпохи Темуридов” Ташкент 2014 Издательство журнала “San`at”
5. L.Golombek, D.Wilber “Timurid architecture of Iran and Turan” Princeton 1988. University Press

SURXONDARYO VOHASI ME’MORIY YODGORLIKLARINI SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ro’ziboboyev Azizbek Azamat o’g’li
Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti assistenti

Annotasiya Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi davr, o‘rta asrlar va undan keyingi davr yodgorliklarini asl ko‘rinishini tasavvur qilish uchun ularning dastlabki ko‘rinishini grafik qayta tiklash, hududning shaharsozligi va me’morligida arxitektura va arxeologiya yodgorliklarining tutgan o‘rnini aniqlash

Kalit so’zlar: Qadimgi davr, o‘rta asr shaharsozligi va me’morlig, arxeologiya yodgorliklar tadqiqotchilar dizayn, , ekologiya,zamonaviylik, tabiiy-iqlim, turarjoy maydoni, sanoat.

Ключевые слова: Античный период, средневековое градостроительство и архитектура, археологические памятники, исследователи, дизайн, экология, современность, природный климат, жилой район, промышленность.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF5953-son “2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2021 yil 6 apreldagi PF–6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021 yil 19 iyundagi PQ-5150-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazrligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 maydagi 332-son Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me’yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Surxondaryo vohasida joylashgan qadimgi davr, o‘rta asr va undan keyingi davrlar shaharsozligi va me’morligi, arxeologiya yodgorliklari XX asrdan boshlab tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelgan. Xususan, mavzu doirasidaA.S. Urolov , O.M. Salimov, T.Sh. Mamatmusaev , va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘proq qadimgi va o‘rta asrlar arxeologik, me’morchilik va tarixiylik nuqtai nazaridan olib borilgan bo‘lib, hududni kompleks tarzda o‘rganish nazarda tutilmagan.

Ya’ni, Surxondaryo vohasi me’moriy yodgorliklarini saqlash va ulardan samarali foydalanish samaradorligini oshirish, ta’mirlash, qayta tiklash kabi masalalarga bag‘ishlangan kompleks tadqiqot olib borilmagan. Mustaqillik yillarida ham chorak asrdan ko‘proq vaqt mobaynida hududda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar natijasida yangidan-yangi ma’lumotlar va materiallar qo‘lga kiritilmoqda. To‘plangan ma’lumotlarni jamlab, ilmiy izlanish va tadqiqotlarni umumlashtirib, mavzuni chuqurroq tahlil etish nihoyatda muhimdir

Surxondaryoda maqbaralar asosan bir gumbazli bo‘lib, boshqa hududlardan farqli ravishda binoning bezaklari kamligi, Abu Iso atTermiziy va Al Hakim at-Termiziy maqbaralari tipologiyasida masjid va xonaqoh kompleks tarzda shakllanganligi dalillangan;

Qirqqiz yodgorligi xonaqoh, saroy, ko‘shk, karvonsaroy bo‘lganligi xususida yozma ma’lumotlar mavjudligi, ushbu yodgorlik Suriyada Qasr alHayr al-Sharqi, Qasr al-Hayr al-G‘arbi va Iordaniyada Qasr Xaranalar kabi arablar chegarasini bildiruvchi qal’a arxitekturasiga o‘xshash ekanligi aniqlangan; hududning turizm infrastrukturasini boyitishga xizmat qiluvchi Sopollitepa manzilgohi, Fayoztepa ibodatxonasi, Qirqqiz qal’asi, Abu Iso at-Termiziy maqbarasi hamda Iskandar ko‘prigining qadimgi ko‘rinishlarini grafik qayta tiklash taklif loyihalari ishlab chiqilgan.

Sopollitepa manzilgohi O‘zbekistonning qadimgi shaharsozlik san’ati haqida tasavvur beruvchi, umumiy kompozitsiyasining mukammalligi, devorlarning to‘g‘ri chiziqlar kesishuvi asosida yaratilganligi, manzilgoh asosiy qismining bir vaqtda oldindan ishlangan o‘sha davrga xos loyiha asosida qurilganligidan dalolat beradi. Sopollitepa manzilgohi Sherobod vohasida Ko‘hitang daralaridan oqib chiqqan O‘lanbuloq soy quyi oqimida

joylashgan jez davriga oid arxeologik yodgorlik bo‘lib, u 1968 yilda arxeolog L.Albaum tomonidan topilgan. 1969 – 1974 yillarda arxeolog A.Asqarov tomonidan o‘rganilgan . Sopollitepa jamoasi yangi joyni o‘zlashtirib, O‘zbekiston janubida eng qadimgi ilk shaharni barpo etadilar . U shahar O‘zbekiston tarixida Jarqo‘ton nomi bilan atalib, uning protoshahri Sopollitepa hisoblanadi18 .

Surxondaryo viloyatining o‘rta asr shaharlari va aholi joylari kam o‘rganilgan. Arxeologik qazish ishlari natijasida dastlabki o‘rta asrlarning bir qancha yodgorliklari o‘rganilgan (Bolaliktepa, Zangtepa, Xayrabodtepa, Chayontepa, Yaxshiboytepa) deyarli hech qanday qazish ishlari olib borilmagan va undan ham ko‘proq o‘rta asrlarning oxirlariga oid yodgorliklarda qazish ishlari mutlaqo olib borilmagan.

Arxeologik ma’lumotlar hali batafsil Surxondaryo viloyati shaharlari va boshqa aholi joylari va ularning o‘rta asrlarda rivojlanishiga doir umumiy gaplarni aytish mumkin34 . Termiz shahri qadimgi joyidan shimoliy-sharqqa tomon rivojlanib kengayib bordi.

Termiz minorasi Surxondaryo viloyati hududidagi ilk minoralardan biri Chorsutun masjidi tarkibida bo‘lib, balandligi 16-18 m bo‘lgan. Xuroson me’morligi asosida barpo etilgan Jarqo‘rg‘on minorasi 1108-1109 yillarda bunyod etilgan. Tarhi guldastasimon hozirgi balandligi 21,6 m, aslida 50 m ga yaqin bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Xuddi shu davrda 1127 yilda Buxorodagi Minorai Kalon barpo etiladi. Minoraning balandligi 46,5 m ni tashkil etadi38. Jarqo‘rg‘on minorasi tarhiga o‘xshash yana ikkita minora Hindistondagi Qutb-Minor, balandligi 72,6 m (XIII asr) va Turkiyadagi Yivli minorasi balandligi 38 m (XIII asr) bu minoralarining tarhlari ham guldastasimon shaklda barpo etilgan

Xulosa. Surxondaryo viloyati hududidagi diqqatga sazovor arxeologiya va arxitektura yodgorliklarining turistik xaritasi takomillashtirish, Hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar Tojikiston Respublikasidan M-41 yo‘li, Toshkentdan M-39 yo‘li orqali kirib keladi, xaritaga “Qr-Code” ham o‘rnatilgan bo‘lib, bu orqali @sayohat_surkhandarya telegram kanaliga kiriladi, bu orqali diqqatga sazovor arxeologiya va arxitektura yodgorliklari to‘g‘risida batafsil ma’lumotga va yo‘nalishga ega bo‘lish mumkin.

Surxondaryo viloyati hududidagi 16 ta diqqatga sazovor arxeologiya va arxitektura yodgorliklari mavjud. Shu orqali Surxondaryo viloyatining turistik joylari haqida ma’lumotga ega bo‘lgan kishilar soni oshib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, kelajakda hududga tashrif buyuruvchilar sonining oshishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda tarixiy yodgorliklarimizni saqlab qolish maqsadida qimmatbaho qog‘ozlar, pullar va tangalar, bank kartalari, pochta markalari, umumiy daftar va boshqalarda ma’lum bir tarixiy obida rasmini qo‘yib chiqarishini, rag‘batlantirish lozim, bu esa o‘z navbatida, tarixiy yodgorliklarning o‘rni naqadar muhimligini keng ommaga namoyish qilib kelmoqda

Adabiyotlar

1. THE CITY OF TERMEZ DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS (First name of Termez) Ro’ziboboyev.A.A

shovqindan himoya qilishning choratadbirlari arxitekturaviy tarxiy uslublar

2. OLD TERMEZ IN HISTORICAL SOURCES (XIX-EARLY XX CENTURIES) Ro’ziboboyev.A.A

3. Akilova K. “O’zbekistonda dizaynning rivojlanish istiqbollari” Toshkent. 2006 y. (Respublika ilmiy-nazariy anjumani tezislar to’plami).

4. UMUM TA’LIM MAKTABLARNING INOVATSION TA’LIM TIZIMI ASOSIDA TASHKILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI (O’zbekiston miqyosida arxitekturaviy loyihalash asosida) Ro’ziboboyev.A.A

5. Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 463-466.

6. Bozorqulov, S., Ro’ziboboyev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARXITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.

MAHALLIY ZIYORATGOHLARNI ANIQLASH, VA MANZILLI XARITASI HAMDA TURISTIK YO'NALISHLARNI ISHLAB CHIQISH BO'YICHA NAMUNAVIY TAKLIF LOYIHA YARATISH (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)

Mirzayev Dilshod Mardonovich
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti (kafedra mudiri.)
Riichi Miyake
Tokiodagi ARCHI-DEPOT korporatsiyasi direktori, Professor, (Yaponiya)

Annotatsiya: Mazkur Maqolada Samarqand viloyati madaniy meros ob’ektlarini asrash agentligi tomonidan 100 dan ortiq arxiologiya yodgorliklar ro’yxatga olingan ammo mahalliy xalq hamda xorijiy sayyohlarga noma’lum bo’lgan Samarqand sharidagi moddiy madaniy merosining ko‘chmas mulk ob’ektlarining hali o’rganilmagan mahalliy ziyoratgoh, masjid va madrasalar haqida haqida qisqacha ma’lumot berib boriladi.

Kalit so‘zlar: masjid, madrasa, ziyoratgoh,yodgorlik, madaniy, meros,ob’ekt, restovratsiya , rekonstruksiya.

Kirish. Vatanimiz tarixi juda qiziqarli va hali ham kashf etilmagan jabxalarga boy. Ayniqsa, milliy urf-odatlarimizning ko‘p qirraliligi, shuningdek, aziz-avliyolarimiz qo‘nim topgan yodgorliklar -

ziyoratgohlar va sajdagohlarning ko‘pligi katta ahamiyatga ega.Maqolada manzilgohlarni mamlakatimizga ma’lum qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tegishli dalillar asosida tushuntirishdan iboratdir. Shu bilan birga, Samarqand viloyati yoki respublikamizda mavjud bo'lgan, lekin davlat manfaatlariga yoki butun dunyo turizm potentsialiga xizmat qilishga yetarli e'tiborga ega bo'lgan yoki bo'lmagan barcha ziyoratgohlar va sajdagohlarning manzilli xaritasi tuziladi. Ushbu manzilli xaritalar O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini butun dunyoda oshirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur loyiha yo'nalishdagi xaritada ushbu manzillarni ta'mirlash yoki tiklash, salohiyatini oshirish loyihalari va maqsadli reklama va e'lonlarni yaratish shuningdek, yangi aniqlangan ziyoratgohlar va sajdagohlarini sertifikatlash zarurligiga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu manzilli xaritalar va taklif etilayotgan mavzu bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar asosida vazkur ziyoratgohlar va sajdagohlarga qulay va yetarli yo'nalishlari aniqlanadi. Bu yo'nalishlarga kerakli reklama va e’lonlar o'rnatiladi. Xarakterli arxitektura va dizaynga ega bo'lgan yo'nalishdagi reklama va e'lonlar yangilanadi, shuningdek ularning joylashgan joylari va manzillari aniqlanadi. Ularni ta’mirlash yoki qayta tiklash loyihalari, ularga olib boruvchi yo‘llarni loyihalari mazkur yo‘llardagi nufuzli va tashlandiq ziyoratgohlar va sajdagohlar joylarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Har bir ziyoratgohlar va sajdagohlar yo'nalishi bo'yicha to'liq ilmiy asoslangan dizayn yechimlarini tayyorlash loyihalari ushbu joylarning yaxshilanishiga hissa qo'shadi va davlat manfaatlari yo'lida ishlatilib turizm salohiyatini oshiradi. Ilmiy tadqiqot natijalari pasport jildi, chizma, loyiha va xarita, shuningdek, maket shaklida taqdim etiladi. Ilmiy loyiha yakunlagandan so'ng, manzilli xaritalar qulay va etarli yo'nalishlardagi loyihalar asosida mintaqamiz va Respublikamiz uchun turistik yo'nalishdagi salohiyatini yuqori potentsial holatiga erishiladi. Ushbu yo'nalishda o'ziga xos arxitektura va dizaynga ega bo'lgan yo'nalish belgilari va maqsadli reklama hamda e'lonlar paydo bo'ladi. Shuningdek, diqqatga sazovor va tashlandiq manzillarni ta'mirlash yoki tiklash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Bunda ushbu ziyoratgohlar va sajdagohlarning tarixda tutgan o'rni, ularning o'ziga xos jozibasi va potentsiali, shuningdek, ularning nufuzi va saviyasi yanada kuchayadi. Maqsadli yo'nalishi va har bir ziyoratgohlar va sajdagohlarning to'liq ilmiy asoslangan dizayn yechimlari ishlab chiqilib ushbu joylarning yaxshilanishiga hissa qo'shadi va shu bilan birga respublikamiz va butun dunyo turizm salohiyatini oshiradi.

*Asosiy qism.*Samarqand viloyati madaniy meros ob’ektlarini asrash agentligi tomonidan 100 dan ortiq arxiologiya yodgorliklar ro’yxatga olingan ammo mahalliy xalq hamda xorijiy sayyohlarga noma’lum bo’lgan Samarqand sharidagi moddiy madaniy merosining ko‘chmas mulk ob’ektlarining o’zimiz o’rgangan ziyoratgohlar haqida qisqacha ma’lumot berib boriladi. Jumladan “Dari Zanjir” madrasasi, “Qo‘sh-Xauz”, Toshkandi Mullo Qosim, 1916-1919 yil Dahbediy, “Oq saroy” maqbarasi, “Qozikalon” ,“Naqshin”, “Yomini”, “Qo‘sh-Xauz”, Xavuzi baland “Qozi Abdurasul”, “Xon Said Imom” “Dahbediy”, “Qo‘rg‘oncha”, “Qo‘rg‘oncha” Toshkandi Mullo Qosim, Maxdumi Xorazmiy, Maddoxiy ziyoratgohlari haqida batafsil o’ganildi.

“Dari Zanjir” madrasasi “Dari Zanjir” madrasasi Samarqandning eski shahar qismida, Registon maydoni yaqinida Dari-zanjir mahallasi bor. Bu nom shuyerdagi “Dari-zanjir” madaniy yodgorligi bilan bog‘liq. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda “zanjirlangan eshik” ma’nosini bildiradi. Ab-u Tohir Xojaning “Samariya” asarida “Dari-zanjir Amir Temur Ko‘ragon xotinining raboti bo‘lib, Chokardizaning g‘arb tomonida va musulmonlarning qabristoniga tutashgan” deb qayd qilingan. XVI-XVII asrlarda mazkur hudud HayotiXon (Xonning hovlisi) nomi bilan ham yuritilgan. XVIII asrda hududda madrasa, maktab, hovuz, savdo do‘konlari faoliyat ko‘rsatgan.

Ota-bobolarimizdan Dari-zanjir XI asrda dastlab madrasa bo‘lgani, XIV asr oxirlarida aholi yashash manzilig aaylantirilgani haqida eshitganmiz, – deydi Dari-zanjir mahallasida yashovchi Jo‘raxon Mallaxo‘jayev. – Bu yerda Amir Temur va temuriylarning yaqin qarindoshlari, keyinchalik dinpeshvolarining oilalari yashagan. Ular ayollarini nomahramlardan himoya qilib, hujra eshiklarini zanjirlab qo‘ygan va begonalarning kirishi taqiqlangan. Shundan “Dari-zanjir” iborasi kelib chiqqan deyishadi. XIV asroxiri XV asr boshlarid aDari-zanjir yaqinida katta masjid bo‘lgan, masjidga keluvchilar bu yerdagi hujralardan darsxona sifatida foydalangani haqida ma’lumotlar bor. Jumladan, Alisher Navoiy Samarqandda yashagan yillari bu yerga kelib turgani to‘g‘risida manbalarda qayd etilgan.

Afsuski, asrla rsilsilasida mazkur obidaga ham zarar yetib, ayni chog‘da yaroqsiz holga kelib qolgan. 2009-2016-yillarda o‘zi ushbu mahallaga raislik qilgani mdahasharyo‘libilanyokihomiylarko‘magidaobyektnita’ mirlashbo‘yichataklifbergandim. Ammo mas’ullar madaniy merosga ziyon yetishini aytib, obyekt 2014-yilda ta’mirlanishi, buninguchunmablag‘ ajratilishinima’lumqilgandi. Ammo hozirgacha hech qanday amaliy ish qilinmadi. Ayni paytda majmua xaroba holatda turibdi.

“Dari-zanjir” madaniy meros obyekti mahalla binosi ro‘parasida joylashgan bo‘lib, to‘rt hujradan iborat. Hozir obyekt devorlari abgor holatga kelib qolgan va bitta hujra nurab tushgan. Qolgan uchta hujradan aholi omborxona sifatida foydalanib kelmoqda. Agar majmua tez fursatda himoyag aolinmasa, qolgan qismi ham yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.“Dari-zanjir” yodgorligi moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va mahalliy ahamiyatdagi moddiy-madaniy meros obyekti hisoblanadi, – deydi Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi boshlig‘I vazifasini bajaruvchi Ziyodulla Nasimov. – Obyektning umumiy

maydoni 70,13 kvadrat metrni tashki letadi va uzoq yillardan buyon restavratsiyaga muhtoj. Shu bois, madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti va madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi bilan hamkorlikda "Dari-zanjir" majmuasining loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilib, obyektda ta'mirlash, tiklash va konservatsiy aishlarini olib boorish rejalashtirilgan. Ammo bundan avval ham ushbu majmuani ta'mirlash va konservatsiya qilish bir necha marta dasturga kiritilgan. Afsuski, bu ishlar qog'ozda qolib ketgan (O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil).

''Qo'sh-Xauz'' Masjid Samarqand gavhari ''Registon'' maydonining shundoq orqasida Qo'shhovuz mahallasida joylashgan. Samarqandning shahar ''Qo'sh-Xauz'' masjidi taxminan 1897-1903 yillarda Axmadjon xoji bobo tomonidan o'zining sahxsiy hisobidan qayta quriladi.''Qo'sh-Xauz'' masjidi bunyod bo'lishi esa XII-XIII-asrlarga tug'ri keladi. Binoga puxta xom g'ishtlar ishlatilgan , vassajuft va ustumlardan iborat. ''Qo'sh-Xauz'' masjidi joylashgan mahalla XV-asrda Samarqand shahrining shimoliy-g'arbiy mintaqasida vujudga kelgan. Mahalla shimoliy tomondan Xo'jajon-Xo'ja, sharqdan Sofi Roziq va Maddohi, janub tomondan Tagi Sho'r va G'arbdan Ko'k masjid va Yusufboy mahallalari bilan chegaradosh.

''Qo'sh-xauz'' mahalla hududida madrasa, ikkita masjid, maktab, hammom, uchta mozor, baqqollik do'konlari, karvonsaroy, attorlik bozori, ikki qavatli havuz va boshqa tarixiy binolar mavjud bo'lgan. Havuzlardan birida suv loyqadan tozalanib, ikkinchi hovuzga quyilgach, uni iste'mol qilish mumkun edi. Shuning uchun ham mahalla Qo'sh hovuz. Masjid esa Qo'sh-Xauz masjidi deb nomlangan.

Hozirda masjid hovlisida qadim yozuvdan nishona sifatida ajoyib ko'rinishga ega, zinapoyali hovuz mavjud. Qo'sh-Xauz masjidi nomidan kelib chiqqan holda ikkita havuz bo'lgan. Birinchi havuz to'rt burchak shaklda bo'lib, undan suvni tozalashta foydalanilgan va havuzning nomi ''Loychin'' deb atalgan. Loychin deb atalishiga sabab esa havuzda yomg'irdan keyin suv tuplanib loyi tinib keyingi havuzga utkani uchun. Ikkinchi havuz esa sakkiz burchak shaklda bo'lgan va undan mahalliy shu hududda istiqomat qiluvchi aholi ichimlik suvi sifatida foydalanib kelgan. Bunga sabab esa odamlar uylarida quduqlar bo'lmagani sabab aholi suvni shu masjiddan olib foydalanishgan. Havuzdan chiqqan suv esa shimol tamonga harakatlanishda davom etkan. Mustaqillikdan so'ng masjid qayttattan rekonstruksiya va restovratsiya ishlari mahalliy aholi tamonidan olib borilgan. Mihail Mihalovich Abramov ning Samarqand tarixi kitobiga asoslangan holda Samarqand shahri yaralishi avvalam bor afrosiyob atrofidan boshlangan bo'lib ilk mahallalar usha yerlarda bo'lgan.

SSSR yurtimizni mustamlaka qilgan davrlarda masjid faoliyati tuhtatib quyilgan va masjid hududidan haykaltaroshlik, ya'ni haykallarni yasaydigan majmuaga aylantirilgan. Masjid hududiga istiqomat qiluvchi aholi kirishi taqiqlangan.

Men usha davrlarni yaxshi eslayman, biz unda juda yosh edik masjid yopilgan va u yerda qandaydur haykallarni yasashar va yuk mashinalari kelib olib ketar edi deb so'zlab berishdi o'sha mahallada tug'ulib o'sgan Alim bobo.

"Qo'sh-Xauz" jome masjidi taxminan 1897-1903 yillarda Axmadjon xoji bobo tomonidan o'zining shaxsiy mablag'i hisobidan qayta quriladi. Binoga puxta xom g'ishtlar ishlatilgan, vassajuft va ustumlardan iborat.

"Qo'sh hovuz" masjidi joylashgan mahalla XV asrda Samarqand shahrining shimoliy-g'arbiy mintaqasida vujudga kelgan. Mahalla shimol tomondan Xo'jajon Xo'ja, sharqdan So'fi Roziq va Maddohi, janub tomondan Tagi Sho'r va g'arbdan Ko'k masjid va Yusufboy mahallalari bilan chegaradosh. Mahalla hududida madrasa, ikkita masjid, maktab, hammom, uchta mozor, baqqollik do'konlari, karvonsaroy, attorlik bozori, ikki qavatli hovuz va boshqa tarixiy binolar mavjud bo'lgan. Hovuzning birida suv loyqadan tozalanib, ikkinchi hovuzga qo'yilgach, uni iste'mol qilish mumkin edi. Shuning uchun ham mahalla Qo'sh hovuz, masjid esa "Qo'sh hovuz" masjidi deb nomlangan. Hozirda masjid hovlisida qadim hovuzdan nishona sifatida ajoyib ko'rinishga ega, zinapoyali hovuz mavjud.(https://sammuslim.uz/oz/press/news/qosh-hovuz-jome-masjidi).

"Toshkandiy Mullo Qosim" masjidi Samarqand shahridagi mahalla guzarida joylashgan masjid. Masjid 1889 yilda Toshkentlik ustalar tomonidan qurilgan.

Toshkandiy Mullo Qosim masjidi Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XIX asr). Boshqa bir taxminga ko'ra, masjidni noma'lum kishi bir yillik qo'ylarning olingan junini sotib shu pulga masjid qurdirgan deyilgan. U kishi Usmat degan qishloqdan bo'lganligi mahalliy aholi tomonidan aytiladi. Bu yerni mahalliy aholi juda ham e'zozlaydilar. Toshkandiy Mullo Qosim masjidi shu yerda yashovchi aholining mablag'i hisobidan bir necha yil muqaddam ta'mirdan chiqarilgan. Ma'nan eskirgan eshik va derazalar zamonaviylari bilan almashtirilgan. Masjidning ustunlari, devorlari va shifti bo'yalgan kishi e'tiborini tortadigan ko'rinish kasb etgan. Namozxonlar uchun qisman bo'lsa-da sharoitlar yaratilgan.Ikkinchi jahon urushi davrida ya'ni 1941-1944 yillarda uysiz va ota-onasiz yetim bolalarga boshpana sifatida masjiddan foydalangan. Ammo bugun bu masjidda namoz o'qilmaydi, undan mahalla ahli u-bu narsalarni saqlaydigan ombor sifatida foydalanib kelmoqda. Ushbu obyekt devorlarining poydevor qismi biroz zaxlagan. Bu holatni esa fuqarolar tabiat omillari ta'siri bilan izohlamoqda. Mahalliy aholining ta'kidlashicha, ushbu masjid devorlari yomg'ir va qor suvlari ta'sirida yillar davomida nurab, yiqilib tushgan. Bugun bu yerda qurilish chiqindilaridan boshqa narsani uchratmaysiz. Hududning tozaligi, ozodaligi ham ushbu manzaraga mos.





1-rasm. “Dari Zanjir”madrasasining rekonistruksiya taklif loyihasi. (Mualif Abduraximov Muhriddin arxitektura yodgorliklari rekonstrulsiyasi va restovratsiyasi yo‘nalishi talabasi).

Xulosa va takliflar. Samarqand shahri ildizlari hisoblanadigan arxitektura yodgorliklarni tiklash va saqlashga kata ahamiyat qaratishimiz lozim.Jumladan quyida nomlari keltirib o’tilgan Dari Zanjir” madrasasi, “Qo‘sh-Xauz” ,Toshkandi Mullo Qosim,1916-1919 yil Dahbediy, “Oq saroy” maqbarasi, “Qozikalon” ,“Naqshin”, “Yomini”, “Qo‘sh-Xauz”,Xavuzi baland “Qozi Abdurasul”,“Xon Said Imom” “Dahbediy”, “Qo‘rg‘oncha”, “Qo‘rg‘oncha” Toshkandi Mullo Qosim, Maxdumi Xorazmiy, Maddoxiy ziyoratgohlarida rekonstruksiya va restoratsiya ishlari amaliyotga joriy qilinsa Samarqand shahridagi turistik bazasi boyitishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. (https://sammuslim.uz/oz/press/news/qosh-hovuz-jome-masjidi). 11/05/2016 y.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. A.Arapov. Arxitektura Uzbekistana. Xudojestvennaya kultura Sentralnoy Azii i Azerbaydjana IX-XV vv. Tom IV. Arxitektura.-Samarkand-Tashkent: MITSAI, 2013.
4. Farangiz, K. (2024). TYPES OF LOCATION OF VILLAGES IN SAMARKAND REGION. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 467-470.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME

SAVDO BINO VA INSHOOTLARINING POYDEVORLARINI SAQLAB TURISHDA XITOY VA UKRAINA USULLARIDAN FOSDALANISHNING SAMARADORLIGI

Abdullayev Bahodir Allamurod O’g’li
SamDAQU 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIV asr oxiri va XX asr boshlarida qurilgan savdo bino va inshootlarini poydevorlarini saqlab turishda zamonaviy xorijiy tajriba asosida restavratsiya qilinishi, hamda Xitoy va Ukraina tajribalaridan foydalanishning samarador yechimlari haqida batafsil bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: savdo binolari, resrtavratsiya, poydevorlar, zerikarli qoziqlar.
Аннотация: В данной статье подробно рассказывается о реставрации торговых зданий и сооружений конца XIV-начала XX веков на основе современного зарубежного опыта с сохранением их фундаментов, а также об эффективных решениях с использованием китайского и украинского опыта.
Ключевые слова: коммерческие здания, реставрация, фундаменты, глухие сваи.

Kirish. Tarixiy meros ob'ektlarini tadqiq qilish va saqlash muammosi ko'p jihatdan xalqaro ahamiyatga ega. Chet ellik me'morlar davlat hududida o'z mamlakatining uslubi va qurilish texnologiyalari bo'yicha ob'ektlar qurganlarida bir qator qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu o‘ziga xoslik Xitoy shaharlaridagi Yevropa tarixshunosligi va modernizmi merosiga ham xosdir bo‘ldi. Evropa va rus me'morlari tomonidan Evropa va rus uslublari qonunlariga muvofiq qurilgan ob'ektlar Xitoy uchun atipik bo'lib, nafaqat tashqi ko'rinishi, balki texnologiyalari va qurilish materiallarida ham butunlay farq qiladi, shuning uchun ularni qayta tiklash Evropa va Rossiya analoglari bilan tanishishni talab qiladi.

Asosiy qism. Xitoyda Evropa me'morchiligi ob'ektlari asosan Evropa va Rossiya mustamlaka shaharlari to'plangan mamlakatning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab to'plangan. Xitoy shaharlaridagi zamonaviylik o'zining uslubiy xususiyatlari bilan ko'p hollarda Evropa Art Nouveaudan farq qiladi [1,3]. Bu mutlaqo tabiiy jarayon: uslub o'zining dastlabki paydo bo'lgan joyidan qanchalik uzoqlashsa, unga mahalliy madaniy an'analar shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatdi. Sharq madaniyati - xitoy va yapon - Evropa Art Nouveau-Art Nouveauning kelib chiqishidan biri bo'lganiga qaramay, ushbu uslubning Evropa versiyasi Xitoy va Yaponiyada mahalliy an'analarda organik tarzda o'stirilgan uslub sifatida qabul qilinmagan. Bundan tashqari, u bu mamlakatlarda juda cheklangan va qoida tariqasida, evropaliklar yashaydigan kvartallarda yoki Evropaning mustamlaka shaharlarida ishlatilgan [2-6, 9-11]. Ushbu metropoliyalar ro'yxati orasida Germaniyaning Qingdao shahri, xalqaro Tyanjin aholi punkti, Rossiyaning sharqiy hududlari (Xarbin, Dalyan) va Shanxay alohida o'rin egallaydi

Bugungi kunda ushbu va boshqa ko'plab shaharlarda Evropaning keng arxitektura merosi, jumladan Art Nouveau davri binolari to'plangan, ular o'zlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xitoyda zamonaviylik tashqi ko'rinishida bir xil emas va har bir ob'ekt o'ziga xos restavratsiya texnologiyalarini talab qiladi.

Monumental binolarni yo'q qilishning asosiy sabablari ichki, binoning o'ziga xos va tashqi, uning ishlashi bilan bog'liq bo'ladi. Arxitektura yodgorliklarini yo'q qilishning ichki sabablariga dizayn echimlarining kamchiliklari, jumladan, poydevor va poydevorlar tizimidagi echimlar, ishdagi xatolar, qurilish materiallari va konstruktsiyalarining sifati kiradi [7]. Arxitektura yodgorliklarini vayron qilishning tashqi sabablariga tabiiy va iqlimiy ta'sirlarning binolarning tashqi qobig'iga ta'siri ostida qurilish materiallarining qarishi, uning noto'g'ri ishlashi natijasida inson faoliyatining binoning holatiga salbiy ta'siri; elementlarning ta'siri va harbiy halokat.

Yodgorliklarni restavratsiya qilish texnologiyalarini tanlash yodgorlikning holati, dala tadqiqotlari ma'lumotlari, binoning favqulodda holatiga olib keladigan sabablar va restavratsiya ishlaridan keyin undan foydalanish istiqbollari bilan belgilanadi. Yodgorlik binosining favqulodda holatiga olib keladigan sabablar asosan xalqaro bo'lganligi sababli, Ukrainaning "Ukrrestavratsiya" korporatsiyasining tajribasi Xitoyda Evropa me'morchiligi merosini tiklash uchun foydali bo'lishi mumkin [7, 8]. Ukrainaning "Ukrestavratsiya" korporatsiyasi o'zining yetmish yillik faoliyati davomida arxitektura yodgorliklarini tiklash va tiklash bo'yicha boy tajribaga ega bo'ldi va bu tajriba Xitoyda Evropa va Rossiya me'morchiligi ob'ektlarini tiklashda foydali bo'lishi mumkin.

Binolarning barqarorligini buzish ko'pincha poydevorlarning fizik-mexanik xususiyatlarining o'zgarishi va poydevor tuzilmalarining yo'q qilinishi tufayli yuzaga keladi. Ko'pincha poydevorning yuk ko'tarish qobiliyatini yo'qotish er osti suvlari darajasining o'zgarishi natijasida, shuningdek, poydevor tagidagi tuproqning asl tuzilishining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Yodgorlikda restavratsiya ishlarini olib borishdan oldin joyning gidrogeologik sharoitlari o‘rganiladi va avariya sabablari aniqlanadi. Arxitektura yodgorligidagi restavratsiya ishlari aynan poydevor va poydevorlarni mustahkamlashdan boshlanishi kerak. Bunday holda, eng tejamkor kuchaytirish usuli tanlanadi. Er osti suvlari sathining ko'tarilishi yoki keyingi ustki tuzilmalar va kengaytmalardan poydevor va tuproqdagi yukning ortishi holatlarida poydevor, poydevorini kengaytirish kerak bo'lishi mumkin.

Poydevorlarning ikkala tomonida ko‘ndalang to‘sinli burg‘ulash qoziqlari, shuningdek, ezilgan qoziqlar va zerikarli konusli qoziqlar keng qo‘llaniladi. Poydevorlarni mustahkamlashning an'anaviy usullarining kamchiliklari tiklash ishlarini olib borishda ularni qo'llash doirasini cheklaydi. Poydevorlar va poydevorlarni mustahkamlashning an'anaviy usullarini qo'llashning cheklangan doirasi zerikarli in'ektsiya qoziqlaridan kengroq foydalanishga olib keladi. Zerikilgan qoziqlarni o'rnatish uchun birinchi navbatda devorning bir tomonidan poydevorga bir oz burchak ostida teshik qaziladi, so'ngra erga ishonchli jinslar belgisiga qadar tsement-qum ohak bilan to'ldiriladi, ular ichiga armatura o'rnatiladi. quduq. Bundan tashqari, devorning boshqa tomonida bir xil burchak ostida, bir xil qoziqlarni joylashtiring, ularni ofset bilan joylashtiring. Agar poydevorning devori etarli kuchga ega bo'lmasa, u tsement ohak bilan in'ektsiya yo'li bilan o'rnatiladi. Shunday qilib, binoning tagida, xuddi tuproqdagi qattiq ildizlar o'rnatilgan bo'lib, ular yuklarning ko'p qismini zichroq tuproq qatlamlariga o'tkazadi

Chet elda birinchi marta 1952 yilda Italiyada Fernando Lizzi tomonidan Piazza Mario Taganodagi maktab binosida poydevorni mustahkamlashda burg'ulash bilan qoplangan konusli qoziqlar ishlatilgan. Bugungi kunga qadar 5 mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning poydevori zerikarli qoziqlar yordamida mustahkamlangan.

Poydevorlarni mustahkamlashning ushbu usulining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- *zerikarli qoziqlar mavjud poydevor konstruksiyalari orqali devor konstruktsiyasini kesmasdan, poydevor chuqurlarini yasamasdan o'rnatilishi mumkin;*
- *zerikarli qoziqlar mavjud strukturaning barqarorligini saqlaydi;*
- *zerikarli qoziqlar kichik o'lchamli uskunalar bilan o'rnatiladi (bino va uning inshootlarida tebranishlarning paydo bo'lishiga olib kelmaydigan yuqori aylanish tezligi bilan), tiklangan bino ichida osongina ko'chiriladi;*
- *zerikarli qoziqlarni o'rnatishda poydevor va poydevorning yuk ko'tarish qobiliyati ortadi;*
- *zerikarli qoziqlar bir necha millimetrning ahamiyatsiz joylashuvi bilan tavsiflanadi;*
- *zerikarli qoziqlarni o'rnatish qayta tiklangan binoning tashqi ko'rinishi va strukturaviy yaxlitligini buzmaydi.*

Bu usul tuproqlarni kimyoviy mustahkamlash usuliga qaraganda 2-2,5 barobar arzon va doimiy muzlik va cho'kma tuproqlardan tashqari har qanday tuproq uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolada keltirilgan tajribalarni XIV asr axiri va XXasr boshlarida qurilgan savdo bino va inshootlarida qo‘llanilishi restavratsiyadagi ishlarning yanada rivojlantiriishini ko‘rishimiz mumkin. Yevropa va rus arxitekturasining qurilish materialllarining asosoy qismi g‘ishtdan tashkil topganligi, hamda xonliklar davrida rus, shu orqali yevropa arxitekturasi markaziy osiyo arxitekrurasiga sezilarli tasiri ushbu usuldan samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi

Adabiyotlar adaboyotlar:

1.Горюнов В.С. Истоки “Северного модерна” / В.С. Горюнов // Тезисы докладов круглого стола “Архитектура эпохи модерна в странах Балтийского региона и Санкт–Петербурге” 4 марта 2011 года

2.Иванова А.П. Особенности формирования архитектурного ландшафта европейских концессий в Китае (Циндао, Тяньцзинь). Конец XIX – середина XX вв. / А.П. Иванова // Новые идеи нового века (Сборник статей). – Хабаровск, 2014. – № 1. – С. 103-109.

3.Ивашко Ю.В. Модерн Западной Европы, Украины и Китая: пути трансформации и имплементации / Ю.В.Ивашко, Ли Шуань. – К.: Феникс, 2015. – 152 с.

4.Орленко Н.И. Усиление фундаментов памятников архитектуры с помощью буроинъекционных свай / Н. И.

Орленко // Строительство и архитектура. – Киев, 1989. – № 8. – С. 16-19.

5.Wang Chaolu. Fifty Old Constructions in Quingdao / Wang Chaolu. – Quingdao Publishing House, 2008. – 114 s.

6.Yuan Binjiu. German architecture in Oingdao / Yuan Binjiu. – China Architecture and Building Press, 2009. – 415 s.

7.Консервація і реставрація пам'яток архітектури (Методичний посібник) / Під ред. М.І. Орленко. – К.-Л., 1996. – 586 с

THE IMPORTANCE OF FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING CULTURAL HERITAGE SITES AS TOURIST ATTRACTIONS

Boboyorov Sirojiddin
SamSACU, Teacher of the Department of Foreign Languages

Annatation: This article explores the crucial role of foreign languages in promoting cultural heritage sites as tourist destinations. It emphasizes that linguistic accessibility is essential for making these sites inviting and comprehensible to international visitors. By offering multilingual content-through signage, brochures, guided tours, and online resources-heritage sites can enhance the visitor experience, fostering deeper engagement and appreciation.

Moreover, the article discusses how foreign languages help bridge cultural gaps, enabling tourists to understand not only the historical facts but also the cultural nuances and values associated with these sites. This fosters a sense of shared global heritage and mutual respect among diverse audiences.

Keywords: Cultural heritage sites, Foreign languages, Tourism promotion, Accessibility, Visitor engagement, Cross-cultural understanding, Sustainable tourism, Preservation, Multilingual content, Global audience, Cultural appreciation, Economic stability, Responsible tourism, Local communities

In an increasingly interconnected world, cultural heritage sites hold tremendous value as symbols of national identity and as windows into the rich history and traditions of different cultures. These sites, however, face challenges in attracting a global audience due to language barriers that can prevent international tourists from fully understanding and appreciating their significance. Foreign languages play a critical role in bridging these gaps, allowing cultural heritage sites to be more accessible, engaging, and relevant to visitors from around the world. This ability to communicate effectively with diverse audiences through multilingual information, tours, and digital content has become essential in promoting these heritage sites as premier tourist destinations. By embracing foreign languages, heritage sites not only broaden their appeal but also foster cultural understanding, support sustainable tourism, and enhance preservation efforts. In this context, the role of foreign languages in promoting cultural heritage as tourist attractions has never been more important.

Foreign languages play a fundamental role in making cultural heritage sites accessible and appealing to international tourists. By providing multilingual signage, brochures, audio guides, and website content, heritage sites can communicate their significance to a diverse audience. Offering information in commonly spoken languages-such as English, Spanish, Mandarin, and French-creates an inclusive experience, welcoming visitors from various linguistic backgrounds. When tourists can read descriptions, follow guided tours, and understand narratives in their own language, they feel a stronger connection to the site and are more likely to appreciate its cultural and historical value.

This inclusivity not only enhances visitor satisfaction but also contributes to the site's reputation. Tourists who have positive experiences are more likely to leave favorable reviews, share their experiences on social media, and recommend the site to others. A well-crafted, multilingual approach to promoting heritage sites can thus act as a powerful tool for drawing international attention, strengthening a site's appeal, and making it a memorable part of the global travel experience.

Foreign languages are essential in promoting sustainable tourism at cultural heritage sites, as they help ensure that international visitors respect both the environment and cultural practices unique to each site. Multilingual information boards, signs, and visitor guides can communicate clear guidelines on proper behavior, safety, and conservation practices, helping to protect these sites from accidental damage. When tourists understand why specific rules are in place, they are more likely to act responsibly, supporting the preservation of these culturally significant locations.

Moreover, by attracting a diverse audience through multilingual promotion, heritage sites can generate revenue from international tourism. This is income oftenreinvested into site maintenance, conservation efforts, and community support, all of which are critical for the site's long-term sustainability. For communities that rely on tourism as an economic foundation, foreign languages enable them to reach broader markets, thus stabilizing and sustaining local livelihoods. By fostering global awareness and respect for cultural heritage through language, these sites promote responsible tourism practices that support both cultural preservation and community well-being.

In the age of digital communication, foreign languages are essential in the online promotion of cultural heritage sites. Social media platforms, websites, and travel blogs are the primary means through which many travelers discover new destinations, making multilingual content indispensable for reaching a global

audience. Tourist boards, heritage organizations, and local governments can leverage social media in multiple languages to promote cultural heritage sites, thereby reaching potential tourists who might otherwise remain unaware of these destinations.

Moreover, multilingual digital content improves a site's visibility in search engines, allowing it to reach audiences who search for travel information in different languages. By offering online content in various languages, heritage sites increase their visibility in international tourism markets and attract diverse tourist groups. Multilingual social media content, such as Facebook posts, Instagram captions, and YouTube videos, further humanizes these sites, creating an inviting image that resonates with travelers from different cultural backgrounds.

Several examples highlight the success of using foreign languages to promote cultural heritage. For instance, the Egyptian government has implemented a series of multilingual tours, guides, and digital platforms for its iconic heritage sites, including the Pyramids of Giza and Luxor Temple. These efforts have attracted millions of international tourists, who are better able to understand and appreciate the significance of Egypt's ancient history.

Similarly, the French government has invested in multilingual promotion for its UNESCO World Heritage sites, such as Mont-Saint-Michel and the Palace of Versailles. By providing information in multiple languages, France has consistently remained one of the world's most popular tourist destinations, attracting a broad range of visitors who feel welcomed and informed. This model serves as a blueprint for other countries aiming to increase tourism through linguistic inclusivity.

In today's globalized society, the importance of foreign languages in promoting cultural heritage sites as tourist attractions cannot be overstated. Through language, heritage sites become more accessible, engaging, and inclusive, enabling visitors from all over the world to connect deeply with the culture, history, and traditions that these sites represent. Foreign languages foster greater cultural understanding, allowing tourists to appreciate not just the physical beauty of these sites but also the values and beliefs embedded within them. Additionally, multilingual promotion supports sustainable tourism practices, empowering heritage sites to generate revenue for preservation while enhancing local economies and protecting cultural legacies. Embracing foreign languages is, therefore, not just a tool for tourism growth but a means of sharing and safeguarding our collective human heritage for future generations.

Bibliography

1. Francesconi, Sabrina. Reading Tourism Texts: A Multimodal Analysis. Channel View Publications, 2014.

2. Kelly, Ian R. Tourism: An International Approach. Pearson, 2016.

3. Mkono, Muchazondida, and Kevin Markwell. "The Role of Language in Mediating Tourist Experiences at Heritage Sites." Journal of Heritage Tourism, vol. 13, no. 2, 2018, pp. 140-154.

4. Richards, Greg, and Derek Hall. Tourism and Sustainable Community Development. Routledge, 2016.

5. Sharpley, Richard, and David J. Telfer. Tourism and Development: Concepts and Issues. Channel View Publications, 2015.

6. Timothy, Dallen J., and Stephen W. Boyd. Heritage Tourism. Pearson, 2016.

7. Zhang, Chen. "Language Barriers and Cultural Heritage Tourism: Managing Visitor Experiences." International Journal of Tourism Research, vol. 19, no. 3, 2020, pp. 220-233.

SHAHARLARNING TARIXIY QISMLARIDA TURAR-JOY MUHITINI LOYIHALASH BO'YICHA MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Gulyamova F.A.
Doktorant, Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Shaharlarning tarixiy qismlarida turar-joy muhitini loyihalash alohida e'tibor talab qiladi, chunki bu hududlar tarixiy, madaniy va arxitektura merosini o'zida mujassam etgan bo'ladi. O'zbekistonda mahalla madaniyati aholining bir-biri bilan yaqin aloqada yashashini qo'llab-quvvatlaydi. Mahallalarda jamoat joylari, o'yingohlar va dam olish hududlari barpo etilib, mahalliy aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.Ushbu hududlarni loyihalashda bir vaqtning o'zida qulay yashash sharoitlarini yaratish va tarixiy o'ziga xoslikni saqlab qolish lozim. Ushbu maqolada tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni loyihalashda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar va amaliyotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: arxitektura, shaharsozlik, tarixiy muhit, madaniy meros, madaniyat, modernizatsiya, xorijiy tajriba.

Kirish.

Tarixiy shaharlarni loyihalash — bu tarixiy shaharlarning ma'muriy va arxitektura jihatidan muhim bo'lgan qismlarini rejalashtirish, saqlash va rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon shaharlarning tarixiy, madaniy va estetik ahamiyatini hisobga olish, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish, madaniy merosni asrab qolish va shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Tarixiy qismlarda arxitektura va urbanistika tamoyillarini saqlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda tarixiy binolarni saqlash, yangi qurilishlar

orqali ularning estetikasini to‘ldirish va uyg‘unlashtirish muhimdir. O‘zbekistonda shaharsozlikni rivojlantirish va zamonaviy shaharlar barpo etish bo‘yicha bir qator muhim qarorlar va dasturlar qabul qilingan. Bu qarorlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlash, shaharlarning estetik ko‘rinishini yaxshilash, yashash sharoitlarini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik sohasida 2019-2025-yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlanish dasturi” [1] shaharsozlikni takomillashtirish, infratuzilma va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Dastur doirasida Shaharlarning tarixiy qismlarini asrab qolish va modernizatsiya qilish, O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida tarixiy yodgorliklarni asrab qolish va ularni restavratsiya qilish bo‘yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish kabi ishlar nazarda tutilgan. Bu qarorlar doirasida tarixiy obidalarni tiklash va modernizatsiya qilish, turizmni rivojlantirish maqsadida tarixiy joylarni kengaytirish, mahalliy aholi uchun yashash sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston shaharsozlik sohasida qabul qilingan qarorlar va dasturlar shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, tarixiy merosni asrab qolish va ekologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan. Bu ishlar mamlakat iqtisodiyoti va aholisining farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shaharlarning tarixiy qismlari — bu shaharlar tarixi, madaniyati va arxitekturasini aks ettiruvchi o‘ziga xos hududlardir. Bunday qismlar odatda o‘tmishdagi me’moriy uslub va shaharsozlik amaliyotlarini saqlagan holda zamonaviy shaharlarda rivojlanib kelmoqda. Tarixiy qismlar nafaqat mahalliy ahamiyatga ega, balki ular ko‘pincha sayyohlar, tadqiqotchilar va shahar aholisining diqqat markazida bo‘ladi.

Turar-joy muhiti — bu odamlarning yashashi, dam olishi va ijtimoiy aloqalarini amalga oshirishi uchun mo‘ljallangan jismoniy va ijtimoiy makon. Turar-joy muhiti nafaqat qulay va xavfsiz yashash joyini ta’minlashi kerak, balki u insonlarning ijtimoiy, psixologik va ekologik ehtiyojlariga ham mos bo‘lishi muhim. Shu sababli, turar-joy muhitini loyihalashda atrof-muhit bilan uyg‘unlashgan, funksional va barqaror dizayn yechimlari qo‘llaniladi.

Usullar.

Turar-joy muhitini loyihalashda mahalla va jamoa hayotini qo‘llab-quvvatlash uchun jamoat joylari — masalan, bolalar o‘yingohlari, sport maydonchalari, dam olish joylari, piyodalar uchun qulay yo‘laklar — tashkil etilishi zarur. Bu hududlar ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki odamlar shu joylarda bir-birlari bilan uchrashish, suhbatlashish va o‘zaro madaniy almashinuvni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Tarixiy hududlar milliy va mahalliy madaniyatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘ziga xos me’moriy uslub, an’ana va san’atni aks ettiradi. Tarixiy qismlar shaharning kelib chiqishi, o‘sish jarayonlari va rivojlanishini aks ettiruvchi manbaga aylanadi. Ushbu hududlar shahar tarixini chuqur o‘rganish va unga qiziqqan kishilar uchun qimmatli ahamiyatga ega. Tarixiy hududlar odatda mahalliy aholining an’analarini va kundalik hayot tarzini saqlaydi. Bu esa shahar va mahalla hayotini jonli uslubda namoyish etadi.

O‘zbekiston tarixiy turar joylari, madaniy merosi va arxitektura obidalari bo‘yicha ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu olimlar O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatini o‘rganish, asrab-avaylash va rivojlantirishga hissa qo‘shganlar. O‘. Qodirov O‘zbekistonning tarixiy arxitekturasi va shaharlaridagi an'anaviy qurilish uslublarini o‘rganib, ularning ahamiyatini tahlil qilgan, bundan tashqari Marina G. Volkov O‘zbekistonning etnik va madaniy xilma-xilligi, shuningdek, tarixiy obidalar va turar joylarining ijtimoiy va madaniy ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan, S. A. Qayumov O‘zbekiston shaharlarining tarixi, ularning shaharsozlik an'analari va madaniy merosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. O‘zbekiston tarixiy turar joylari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatning boy tarixi va madaniyatini o‘rganish, saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu olimlar O‘zbekistonning tarixiy merosini asrab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda katta hissa qo‘shgan. Ularning ishlarida tarixiy joylarning ahamiyati va madaniy merosni saqlash masalalari yoritilgan.

Muhokama va natijalar.

Shaharlarning tarixiy qismlarini loyihalash jarayoni, ularning madaniy va arxitektura merosini saqlagan holda, zamonaviy yashash va turizm ehtiyojlariga javob beradigan tarzda amalga oshiriladi. Bu jarayonda hududlarning tarixiy qiymatini saqlash, ularning estetik qiyofasini yangilash va mahalliy aholi uchun qulayliklar yaratish birlamchi vazifalardir. Tarixiy binolarni asrab qolish, ularni restavratsiya qilish va ularning asl arxitektura uslubini saqlash muhimdir. Qayta tiklash jarayonida an’anaviy materiallar va usullardan foydalanish tavsiya etiladi. UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar ko‘rsatmalariga ko‘ra, tarixiy joylarda yangilash va qurilish ishlari faqat asosiy qiyofani saqlagan holda amalga oshirilishi lozim.

Tarixiy qismlarga zamonaviy funksiyalar kiritishda, binolar va hududlar shahar aholisi uchun qulay va foydali bo‘lishi kerak. Misol uchun, tarixiy binolarni muzey, san’at galereyalari, restoran va do‘konlarga aylantirish orqali ular foydali va qiziqarli qilinadi. Elektr, suv va issiqlik tizimlarini yangilash, internet va telekommunikatsiya xizmatlarini kiritish orqali tarixiy hududlar zamonaviy hayotga moslashtiriladi. Tarixiy qismlarni loyihalashda zamonaviy elementlar bilan tarixiy ko‘rinish uyg‘unligiga erishish muhim. Har bir yangi dizayn tarixiy muhitni to‘ldirishi kerak, ya'ni zamonaviy arxitektura unsurlari o‘ta jozibador yoki ko‘zga tashlanadigan bo‘lmasligi lozim. Bino fasadlarida tarixiy uslubga mos ranglar, tuzilish va materiallardan foydalanish ko‘rinishni saqlashga yordam beradi.

Tarixiy qismlarda yashovchi aholi uchun ijtimoiy muhitni yaxshilash, ya'ni mahalla, jamoat markazlari, kichik bog‘lar va dam olish joylari yaratish muhim. Bu tarixiy hududlarni nafaqat turistik, balki yashash uchun ham jozibador qiladi. Shuningdek, mahalliy an’analarni saqlash va targ‘ib qilishga ko‘mak beruvchi madaniy tadbirlar va festivallar o‘tkazish yo‘li bilan tarixiy qismlarni jonlantirish mumkin.

Tarixiy qismlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash va energiya samaradorligi kabi ekologik choralardan foydalanish talab qilinadi.

Yashil maydonlar, daraxt va o‘simliklar qo‘shish orqali mikroiqlimni yaxshilash va hududni yanada qulayroq qilish mumkin. Tarixiy hududlarga keladigan sayyohlar oqimi yaxshi boshqarilishi kerak, chunki haddan tashqari turizm tarixiy binolar va ko‘chalar uchun zararli bo‘lishi mumkin. Shu sababli, turizm oqimini boshqarish va mehmonlar uchun maxsus yo‘nalishlarni belgilash orqali hududlarni himoya qilish lozim. Shuningdek, mahalliy aholi va turistik faoliyat uyg‘unligini ta'minlash uchun madaniy, ma’rifiy va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishidagi tadbirlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tarixiy shahar hududlaridagi uy-joylarni restavratsiya qilishda ularning asl arxitekturasi, qurilish usuli va bezaklari asrab qolingan holda yangilanadi. O‘ziga xos arxitektura elementlari — masalan, g‘isht terish, to‘sinli shiftlar, o‘ymakor eshik va derazalar, noyob dekorlar saqlanadi.

Tarixiy hududlar uchun maxsus me'moriy bosh reja ishlab chiqiladi, bunda har bir bino va inshoot tarixiy qiymatiga qarab baholanadi va unga mos ravishda ta’mirlash yoki qayta qurish ishlari olib boriladi. Loyiha jarayonida o‘sha hududning tarixiy uslublari va materiallarini ishlatish ahamiyatli. Bu, masalan, Buxoro va Samarqandda qo‘llanilgan g‘isht terish usuli yoki o‘ziga xos fasad bezaklarini saqlash orqali amalga oshiriladi.

Tarixiy hududlarda mahalla tuzilmasini saqlab qolish orqali jamoatchilik hayotini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. Masalan, hovli va ichki ko‘chalar shunday tarzda loyihalanadiki, ular aholining kundalik muloqot va aloqalarini saqlashga yordam beradi. Tarixiy uylarning ichki qismida yashash sharoitlarini yaxshilash uchun sanitariya, elektr tarmoqlari, isitish va sovutish tizimlari kabi zarur qulayliklar joriy etiladi. Bu orqali binoning tashqi ko‘rinishini saqlab qolgan holda zamonaviy yashash qulayligi yaratiladi. Ko‘p joylarda tarixiy binolarni faqat turar-joy sifatida emas, balki savdo, madaniyat va jamoat maskanlari sifatida ham foydalanish orqali aholi va turizm ehtiyojlariga moslashtirish tajribasi qo‘llaniladi.

Tarixiy binolarda ekologik va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish — masalan, quyosh panellari, izolyatsiya qilish usullari orqali ularning ekologik ta’sirini kamaytirish mumkin.

Tarixiy hududlardagi bog‘ va yashil maydonlar, bog‘chalar, ichki hovlilar yangilanib, ulardan jamoa uchun foydalanish imkoniyati yaratiladi. Yashil hududlar nafaqat atrof-muhitni yaxshilaydi, balki bu joylarda yashovchi aholi uchun dam olish joyi ham bo‘ladi.

Transport va piyoda harakati uchun sharoit yaratish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- *Piyodalar uchun ko‘chalar:* Tarixiy shahar hududlarida ko‘chalarni piyodalar uchun moslashtirish, jamoat transporti va velosiped yo‘laklari yaratish muhim. Bunda tarixiy hududlarga mos keluvchi kichik ko‘chalar va sayyohlar hamda mahalliy aholi uchun qulay harakatlanish imkoniyatlari ta’minlanadi.
- *Avtomobil transportini cheklash*: Ko‘p xorijiy shaharlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tarixiy hududlarda avtomobil transportini cheklash orqali shahar muhitini saqlab qolish mumkin. Bu aholi uchun xavfsizlikni oshiradi va shahar havosini yaxshilaydi.

Turizm va mahalliy hayot o‘rtasida balans: Turizm va mahalliy aholi manfaatlarini uyg‘unlashtirish uchun turar-joy muhitini shunday loyihalash kerakki, u sayyohlar oqimini qabul qilgan holda mahalliy hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatmasin. Buning uchun uy-joy va savdo maydonlarini ajratish, turizmni boshqarish tizimini joriy qilish amaliyoti qo‘llaniladi.

Tarixiy hududlar aholisi uchun madaniy tadbirlar va jamoat faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan maskanlar (amfiteatrlar, ochiq maydonlar) tashkil qilinadi. Bu aholi o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

O‘zbekiston tarixiy shaharlaridagi tajribalar

O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida qadimiy yodgorliklarni asrab qolish, ularni restavratsiya qilish, zamonaviy turizm va yashash ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi shaharlar o‘zining boy madaniy merosi va tarixiy me’morchiligi bilan dunyoga mashhur bo‘lib, ushbu shaharlarning tarixiy qismlarida amalga oshirilgan restavratsiya va modernizatsiya ishlari xalqaro e’tiborga sazovor bo‘lmoqda.

Buxoro — dunyo miqyosida taniqli tarixiy shaharlardan biri bo‘lib, uning tarixiy markazi UNESCOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Buxoroda Ark qal’asi, Poyi Kalon masjidi va minorasi, Labihovuz majmuasi, Mag‘oki Attor masjidi va boshqa ko‘plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Shaharning tarixiy qismlarini saqlashda mahalliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va an’anaviy me’moriy uslublarni saqlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Hunarmandchilik markazlari va qadimiy bozorlarda mahalliy aholi qadimiy san’at an’anasini davom ettirmoqda, bu esa sayyohlar uchun ham qiziqarli jarayondir.

Samarqand - qadimgi Ipak yo‘lida joylashgan va o‘zining boy tarixi, alohida me’moriy uslubi va obidalari bilan mashhur. Samarqandda Registon majmuasi, Shohizinda, Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, tarixiy turar joy uylari kabi tarixiy inshootlar joylashgan. Shaharning tarixiy qismlarini restavratsiya qilishda an’anaviy usullar va mahalliy materiallardan foydalanish asosiy tamoyillardan biridir. Samarqandda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish bilan birga,

turizm sohasi ham kengaytirilib, tarixiy joylarga yaqin maskanlarda mehmonxonalar, restoranlar va xizmat ko‘rsatish nuqtalari tashkil etilgan.

Xiva - qadimiy me’morchilik namunalariga boy bo‘lib, uning Ichan-Qal’a shaharchasi ham UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Xivada mavjud bo‘lgan 200 dan ortiq me’moriy yodgorliklar, jumladan, madrasalar, masjidlar, minoralar va qal’a devorlari asrab qolinmoqda.

Xivada amalga oshirilgan restavratsiya ishlarida shaharning o‘ziga xos ko‘rinishini saqlab qolish va xalqaro turizmni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mahalliy me’moriy elementlar va dizaynlar saqlanib, o‘ziga xos "ochiq osmon ostidagi muzey" hosil qilingan.

Toshkentning Eski shahar hududi, ayniqsa, Ko‘kaldosh madrasasi va Shayx Zayniddin maqbarasi kabi qadimiy joylari bilan mashhur. Bu hududda qadimgi uslubda restavratsiya ishlari amalga oshirilib, u yerda mahalliy aholi turmushi, qadimiy an’analar va bozor madaniyati saqlanib qolgan. Eski shahar hududida o‘zbekona uy-joylar, masjidlar va madrasa binolari saqlanmoqda. Ular zamonaviy sharoitlarga moslashtirilib, turizmni rivojlantirish va shu bilan birga shahar aholisining turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yangilanmoqda.

Tarixiy shaharlarni restavratsiya qilishda hududlarning tabiiy va ekologik xususiyatlarini saqlashga harakat qilinmoqda. O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida yashil maydonlar va o‘simliklar ekilib, bu hududlarda iqlimni barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo‘llanilmoqda. Tarixiy shaharlar sayyohlik uchun qiziqarli joy bo‘lsa-da, mahalliy aholining kundalik hayotini saqlash va qulay yashash sharoitlarini ta’minlash ham muhimdir. Turistik xizmatlar mahalliy aholiga ham foyda keltiradigan qilib tashkil etilmoqda, bu esa tarixiy hududlarda yashovchi odamlar uchun qulaylik yaratadi.

O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning restavratsiya va modernizatsiya jarayonlariga xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO va boshqa madaniy merosni asrashga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan yordam ko‘rsatilmoqda. Xorijiy mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan texnik maslahat va yordamlardan foydalanish restavratsiya jarayonlarini samarali olib borishga ko‘mak beradi.

Xorijiy tajriba

O‘zbekiston va boshqa mamlakatlardagi tarixiy shaharlarni loyihalash va modernizatsiya qilish jarayonida har xil tajribalardan foydalanish, mahalliy an’analarni saqlash va madaniy merosni rivojlantirish muhimdir. Ushbu tajribalar yordamida shaharlarning tarixiy qismlari zamonaviy hayotga moslashtiriladi va sayyohlar uchun qiziqarli joylarga aylantiriladi. Bu jarayonlar mahalliy aholi va madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga hamda turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Evropadagi tarixiy shaharlar (Venetsiya, Parij, Praga). Ushbu shaharlar tarixiy arxitekturani saqlagan holda turar-joylarni modernizatsiyalash bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega.

Venetsiya Shaharning tarixiy qismlarida suv sathining oshishi muammosiga qarshi himoya tizimlari o‘rnatilgan. Turar-joylarda ekologik materiallardan foydalanish, ichki me'moriy qismni yangilash ishlari olib borilgan.

Praga tarixiy qismlarida binolarni qayta ta’mirlashda tarixiy arxitekturani saqlashga e’tibor qaratiladi. Bunda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va binolarning ichki qismida zamonaviy yashash qulayliklarini yaratish yo‘lga qo‘yilgan.

Turkiya (Istanbulning tarixiy qismlari). Istanbulda tarixiy binolarni ta'mirlash va ularda turar-joylar yaratish jarayonida yangicha va o‘ziga xos yondashuvlar qo‘llaniladi. Tarixiy binolarni zamonaviy foydalanishga moslashtirishda material va dizayn elementlarining muvozanati saqlanadi. Misol uchun, ichki dizayn zamonaviy uslubda, tashqi ko‘rinish esa tarixiy holatda saqlanadi. Istanbulning ko‘plab tarixiy hududlarida turar-joylarni turistik obyektlarga aylantirmasdan, mahalliy aholi uchun saqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ispaniya (Barselona, Sevil’ya). Barselona va Sevil’yaning tarixiy markazlarida tarixiy binolarda yashash va tijorat faoliyati uchun sharoit yaratish loyihalari amalga oshirilgan. Bino va inshootlarni qayta loyihalashda ularning tarixiy qiyofasini saqlash, yashash uchun moslashtirish va tijorat hududlari sifatida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Barselonada energiya samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan. Shu bilan birga, eski shahar hududlarida yashash qulayliklarini oshirish va tabiiy muhitni muhofaza qilish choralari ko‘rilgan. Bu yondashuvlar tarixiy qismlarda turar-joy muhitini loyihalash va modernizatsiya qilishda muvaffaqiyatli amaliyot sifatida xizmat qiladi. Bunday hududlarda binolarni restavratsiya qilishda ularning tarixiy uslubini saqlash talab qilinadi. Bu orqali binolarning arxitektura uslubi va ularning tarixiy qimmati himoya qilinadi.

Tarixiy hududlar aholisi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish maqsadida jamoat transporti, piyoda yo‘laklari va yashil hududlarni rivojlantirish muhim. Tarixiy qismlar mahalliy aholi va sayyohlar uchun qulay bo‘lishi kerak. Turizm oqimini boshqarish va mahalliy aholi uchun qulay yashash sharoitlarini ta’minlash orqali ularni uyg‘unlashtirish lozim.

Xulosa.

Shaharlarning tarixiy qismlarida turar-joy muhitini loyihalashda quyidagi tamoyillar asosiy ahamiyat kasb etadi:

Tarixiy merosni saqlash: Binolar, ko‘chalar va boshqa obyektlarning tarixiy ko‘rinishi saqlanishi kerak.

Zamonaviy qulayliklarni joriy qilish: Yashash sharoitlarini yaxshilash uchun zamonaviy qulayliklarni yaratish.

Замонваий компютер дастурларининг имкониятлари ёдгорликларнинг уч ўлчовли моделларини яратишга имкон беради. Меъморий ёдгорлигининг уч ўлчовли моделини яратиш техник жиҳатдан қийин иш эмас, фақат режалаштириш ечимига эга бўлиш, шунингдек, иложи борича яқинроқ модел яратиш учун тарихчи - меъморий тадқиқотчи томонидан тўпланган тарихий материалга асл нусхасига эга бўлиш муҳимдир. Шуни таъкидлаш керакки, меъморчиликнинг қайта тикланган қиёфасининг ишончлилиги бевосита ёдгорлик тадқиқотчисининг ишига боғлиқ. Замонавий технологияларидан фойдаланган ҳолда меъморий ёдгорликларни қайта тиклашда бузилиш эҳтимоли истисно этилмайди, бу архитектура тарихчиси анъанавий билимлардан ташқари, компютер унга тақдим этадиган воситаларни ҳам ўзлаштириши кераклиги билан изоҳланиши мумкин.

Меъморий ёдгорликни замонваий технологилар асосида ўрганиш бугунги куннинг талабидир. Самарқанд шаҳрида жойлашган XIV асрга барпо этилган Руҳобод мақараси мисолида кўриб чиқамиз.

Гури Амирнинг шимолида XIV асрда вафот этган Бурҳонаддин Сағоржи қабри устига қурилган мақбара жойлашган. Рухобод ("Руҳи обод") деб номланувчи ушбу бино қурилишининг аниқ вақти аниқланмаган. Ётқизилган Шимолий эшик атрофидаги релеф плиткалари безаклари табиатига кўра, баъзи тадқиқотчилар бу мақбаранинг XIV асрнинг ўрталарига тўғри келади[1] Рухобод мафбарасида шайҳнинг ўғиллари Абу Сайд, Шайҳзода Исомиддин ва бошка оила аъзолари, шунингдек «Хитой маликаси» шайх Сағоржи рафикаси дафн этилган[2]. 1880-1882 йилларда мақбара ёнида хитойча услубда безатилган масжид пайдо бўлди. XIX аср ўрталарида , хароба бинолар ўрнида бир қаватли мадраса, минора ва уй қурилган. Масжид ва минора ҳозирги кунгача сақланиб қолган[3].

Руҳобод мақбараси куб шаклидаги асосли марказлаштирилган композициядан иборат улуғвор бино бўлиб, тухумсимон гумбаз билан қопланган. Геометрик шаклларнинг соддалиги ва муҳим умумий ўлчамлари унга монументал хусусиятларни беради[4].



1 – расм. Руҳобод йиллар мабойнида.

Меъморий ёдгорликни сақлаш ва ўрганиш қийин, аммо анъанавий иншоотлар ва қадимий експонатларни тўғри сақлаш учун зарурдир. Тарихий биноларининг асл қиёфаси қадимий биноларнинг уч ўлчовли нуқтали булутли модели билан қайд этилиши керак, шу билан меросни таъмирлаш, техник хизмат кўрсатиш ва сақлаш учун анъанавий меъморчилик тўғрисида асосий маълумотларни тақдим этади [5].

Меъморий меросни сақлаш ёки тиклаш учун уч ўлчовли нуқтали булутли модел маълумотларини таъминлаш зарур [6]. Анъанага кўра, қадимий бинолар оддий ўлчаш асбоблари ёрдамида яратилган бўлиб, улар фақат икки ўлчовли чизмалар ва ёзма ёзувларни берган [7].

Ер усти ва ҳаводаги лазерли сканерлаш, эҳтимол, 20 йил ичида ишлаб чиқилган энг яхши ва энг муҳим геодезия технологиясидир [8]. Ҳужжатлар, хариталаш ва кўп ўлчовли кўриш учун нуқта булутларини ишлаб чиқариш учун лазерли сканерлашдан фойдаланиш 20 йиллик даврда ривожланди ва энди тўғри ёндашув ҳисобланади [9]. Рақамлаштиришда уч ўлчамли лазерли сканерлаш ва фотограмметрия каби автоматик реконструкция қилиш уч ўлчамли моделлаштириш техникасидан фойдаланади. уч ўлчамли модел кўриш аниқ таҳлил қилиш ва уч ўлчамли реконструксия [10] орқали объектлар тўлиқ намойиш учун ишлатиладиган илғор техналогиядир. Уч ўлчамли модел бинонинг ҳар томондан, турли йўналишларда олинган маълумотларни тақдим этади. Ушбу уч ўлчамли лазер сканери олинган маълумотларни яхлит бир тизимига бирлаштириш ҳамда барча (сёмка) олинган маълумотларни созлайди ва бирлаштириб битта файлда тўлиқ моделни ишлаб чиқишга олиб келади [11].

Объектни сканерлаш яъни нуқталар булутини олиш учун ўлчов жойлари, сканерни жойлаштириш

(станция) аниқлиги белгилаш даркор. Кўпгина тарихий бинолар мураккаб бўлгани учун, жуда кўп нуқталар булути яъни станциялар ва йўналишларда сканерлаш орқали бир нечта ўлчов нуқталари ва мақсадларини ўрнатиш мақсадга мувофиқдир. Руҳобод мақбарасининг (2-расм) ён ва олд кўринишлари тасвирланган суратларда сканерлаш жараёни тасвирларган.



а) б)

2 – расм. Руҳобод мақбараси сурати 2024 йил. а) ён кўриниши, б) олд кўриниши.

Руҳобод мақбарасининг сканерлашда 20 станция ташкил этилди. Бир нечта станцияларга бир тизимига мослаштирилган нуқта булут моделидаги турли координаталарга эга нуқталарни текшириш ва объект шаклининг тўлиқ сирт маълумотларини олиш учун мумкин бўлган мақсадли тартиб зарур эди. Тарихий биноларни сақлаш ва тиклаш учун уч ўлчамли маълумот олишнинг ва яхлитлиги талабларини бажариш учун етарли маълумотларни қамраб олиш талаб этилганлиги сабабли, сканерлаш жойлари қамраб олиш учун ташкил этилган.



3 – расм. Руҳобод мақбарасининг сканерлаш худудини кўриниши.



4 – расм. Руҳобод мақбарасининг умумий кўриниши (нуқталар булути).



5 – расм. Руҳобод мақбарасининг интерьер кўриниши (нуқталар булути).

Сканерлаш созламаларини созлашда резолюциясини 1/4, сифатни 4х га ўрнатамиз сўнгра Start Scan тугмасини босиш орқали сканер ишга тушади тахминан 6-7 дақиқа мабойнида 1 та сканер ўрнатилган жойдан объектимизни ўлчовларини олиб беради ва қолган объектимизни қисмларини ўлчамларини олишда шу тарзда давом эттирамиз.


Маълумотларни қайта ишлаш уч ўлчамли лазерли сканерлаш муҳим аҳамиятга эга, ва асосан маълумотлар (нуқталар булутини) бирлаштиришни ўз ичига олади. Меъморий ёдгорликларни сақлаш ва тадқиқ қилишда уч ўлчамли лазерли сканерлаш маълумотни сақлаш вақтини қисқартириш ва маълумотларнинг аниқлигини оширишнинг ажойиб афзалликларига эга. Меъморий ёдгорликларда декоратив безак элементлари ва нақшлари юқори аниқликни талаб қилади. Шу сабаб маълумотларни аниқ бирлаштириш уч ўлчамли моделлаштиришда муҳим ахамиятга эгадир. Faro scene дастурида нуқталар булутига ишлов бериш автоматик равишда нуқталар булутини ва маълум нуқталарни бирлаштиришни амалга оширади. Faro scene дастурида бирлаштиришган моделлари 3-5 расмларда тасвирланган.

Faro scene дастурида яратилган уч ўлчамли меделни бизга керакли бўлган дастурлардан бирига (FARO As-built дастури қўшимча модул сифатида AutoCAD дастурига ўрнатилади) AutoCAD дастурида ишни давом эттириш мақсадида файл кенгайтмаси (rcp*)га ўгирдик (6-расм). AutoCAD дастурида Руҳобод мақбарасининг горизонтал ва вертикал кесим юзалари орқали мақбаранинг тарз, тарх ва қирқим юзаларини чизиш орқали икки ўлчамли чизмалари чизиб чиқилди(7-8расм).




6 – расм. Руҳобод мақбарасининг умумий кўриниши (нуқталар булути As-built to AutoCAD дастурида)

Уч ўлчовли сканердан фойдаланишда мутахассислар қайта-қайта объектга боришга, қўшимча ходимларни жалб қилишлари шарт эмас. Баъзида таъмирлаш объектда баланд қисмларни ўлчовларини олишда дронлардан фойдаланса мақсадга мувофиқ бўлади.



а) б)

7 – расм. Руҳобод мақбарасининг кесим юзалари а) горизонтал кесим юзаси, б) вертикал кесим юзаси (нуқталар булути As-built to AutoCAD дастурида)




а) б) в) г)

8 – расм. Руҳобод мақбараси а) тарз кўриниши, б) тарх кўриниши, в) В-В қирқим юзаси, г) А-А қирқим юзаси.

Мураккаб меъморий шаклларни лазерли сканерлашда маълумотларни компьютер ёрдамида моделлаштириш, меъморий иншоот ҳақидаги батафсил маълумотларни электрон тарзда сақлаш имконини беради. Бундай ҳолда, олинган маълумотлар кейин-

чалик реконструкция, таъмирлаш ва қурилиш ишларини режалаштириш учун турли хил компьютер дастурларида ишлатилиши мумкин. Замонавий дастурлар Autodesk, AutoCAD, Revit, CloudCompare ва бошқа рақамли воситаларига мос келадиган маълумотлар тизимларини яратади.


Faro Focus^{3D} S 120 лазер сканери олинган нуқталар булути бизга аниқ ўлчамлар олишда энг яхши асос бўлиб ҳисобланади (6-7-расмлар). Бунда биз мақбаранинг нуқталар булути (уч ўлчамли модели)да аномалиялар учун текширилди.



9-расм. а) Пештоқнинг рангли харитаси, б) шарқий деворнинг рангли харитаси.


Асосий пештоқ пастки қисмидан вертикал текисликдан мойиллиги учун текширилди. Мойилликларнинг рангли харитаси 9 а) - расмда келтирилган. Пештоқнинг рангли харита шуни кўрсатадики, пештоқнинг мойиллиги (ғарбий) пастдан юқорига 1 - ва 2 - кординаталар фарқи 0,13м. шарқий тарафидан пастдан юқорига 4 - ва 3 - кординаталар фарқи 0,26 м.ни ташкил қилади. Яъни ғарбдан шарққа юқори шарқий бурчакда максимал дифференсиал силжиш 0,13м. билан ортади. Пештоқнинг пастки қисмига нисбаттан пештоқнинг юқори қисми жануб томонга дифференсиал силжиш ўртача 0,19м. ташкил қилмоқда.

Руҳобод мақбарасини шарқий девор қисми вертикал текисликдан мойиллиги учун текширилди. Мойилликларнинг рангли харитаси 9 б) - расмда келтирилган. Деворнинг рангли харита шуни кўрсатадики, деворнинг мойиллиги (жанубий) пастдан юқорига 1 - ва 2 - кординаталар фарқи 0,14м. шимолий тарафидан пастдан юқорига 4 - ва 3 - кординаталар фарқи 0,40 м.ни ташкил қилади. Яъни Шарқий деворнинг деформасияси сизиларли даражада силжишлар бор. Бу ерда хам девор пастдан тепага қараб шарқ томонга 0,27м.га дефференсиал силжиш юзага келган. Деворнинг шимолий пастки бурчаги жанубий пастки бурчакка нисбаттан - 0,34м.ни ташкил қилади.



10-расм.Ички гумбазнинг ранги харитаси. а) x,z ўқлари бўйича кесим юзаси, b) y,z в) ички гумбазнинг изометрик кўриниши x,y ўқлари бўйича кесилган, g) a ва b кесим юзаларининг бир-бирига устма уст жойлаштирилган тахлили.

Юқорида кўрсатилган Руҳобод мақбарасининг ички гумбазини структуравий аномалиялари ҳам ўрганилди. Ички гумбаз баландликларининг рангли харитаси келтирилган. Кесилган чизиқлар баландликларни 0,8 метрли ўсиш билан кўрсатади ва кўп ҳолларда ҳар бир баландлик диапазони учун ранг харитаси кесилган чизиқлардан бироз оғишларга эга. Бу гумбазнинг деформасиялар содир бўлганлигини кўрсатади. Вақт ўтиши билан камчиликлар ўзгармаслигини таъминлаш учун лазерли сканерлаш орқали даврий мониторинг тавсия этилди. 10-расмда кўрсатилганидек, ички гумбаздан X (а-қирқим) ва Y (b-қирқим) ўқларидаги иккита бўлак кесилган. 10 g)-расмда ушбу бўлаклар а ва b- қирқим юзалари анализи тасвирланган, бунда гумбазнинг баландлиги бир-бирига мос келганини кўриш мумкин аммо гумбазнинг пастки қисмларида силжишлар борлиги аниқланган.



11-расм.Ички гумбазнинг баландликлари ранги харитаси.

a) Руҳобод мақбараси ички гумбазини структуранинг баландликларининг рангли харитаси ички гумбазнинг ҳозирги холати.

b) Ички гумбазни анализи учун мос тушадиган айланилар жамланмаси.

v) a ва b расмларни текшириш мақсадида устмауст қўйилса ички гумбазнинг дефформациясини кузатиш мумкин бўлади.

Бу ерда биз ички гумбазнинг рангили модели қизил чизиқларга мос келмаганлигини кўриш мумкин. Руҳобод мақбараси ички гумбазининг шимол-ғарбга диферренциал оғиш бўлганлигидан далолат беради.

Мақбаранинг ушбу мойиллик даражаси ривожланмаслигини таъминлаш учун лазерли сканерлаш орқали даврий мониторинг тавсия этилди. Шунингдек, мониторингнинг аниқлигини ошириш учун лазер нишонларини ўрнатишни тавсия этилди.

Руҳобод мақбарасининг чизмаларини лойиҳалашда лазерли сканерлаш анъанавий ўлчаш усулларидан замоновийси бўлиб ҳисобланади ва мақбаранинг юқори аниқликдаги нуқта булутини олиш имконини берди, бу эса кейинги таъмирлаш ишлари учун асос бўлиб хизмат қилади.

Уч ўлчамли сканерлар мураккаб объектларни ўлчашда ўз имкониятларига кўра бошқа ускуналарга қараганда сезиларли даражада устундир. Энг юқори аниқлик (1 мм гача) ва ўлчаш тезлиги (секундига деярли 1 миллион нуқта), шунингдек, инсон омилининг таъсирини минималлаштирадиган автоматлаштириш функциялари - буларнинг барчаси лойиҳани ишончли амалга оширишни, иш вақти ва меҳнатни қисқартиришни таъминлайди.

Хулоса. Ушбу натижаларига асосланиб, қуйидаги хулосалар чиқариш мумкин. Илмий тадқиқот натижалари меъморий обиданинг геометриясини аниқ ҳужжатлаштириш учун лазер ёрдамида сканерлаш афзаллигини кўрсатади. Ёдгорликнинг ҳозирги ҳолатининг таркибий аномалияларини таҳлил қилинди ва кейинги кузатув экспедицияларида фойдаланилади. Мақбарани пештоқ, шарқий девор ва ички гумбазида деформация борлиги кўрсатилди. Жумладан: 1). Пештоқнинг пастки қисмига нисбаттан пештоқнинг юқори қисми жануб томонга дифференсиал силжиш ўртача 0,19м. ташкил қилмоқда. 2). Шарқий деворнинг шимолий пастки бурчаги жанубий пастки бурчакка нисбаттан -0,34м.ни ташкил қилади, яъни бир текисликда эмас. 3). Руҳобод мақбараси ички гумбазининг шимол-ғарбга диферренциал оғиш бўлганлигидан далолат беради. Бундай холатларни ривожланмаслигини таъминлаш учун доимий равишда кузатилиб туриши даркор. Шунингдек, мониторингнинг аниқлигини ошириш учун лазер нишонларини ўрнатиш тавсия этилди. Келгуси текширувлар учун лазерли сканерлаш орқали даврий мониторинг режалаштирилиши зарур. Бундай даврий мониторинглар натижасида келгусида бир нечта рақамли моделларнинг қиёсий таҳлили, мақбарадаги деформациялар, ўзгаришларни кузатиш имконини беради.

Олинган уч ўлчовли моделларни кейинчалик тиклаш учун осонгина сақлаш мумкин, барча нуқсонларни, қурилма ва конструкцияларнинг ҳолатини ҳам кўрсатадиган ва бошқа керакли маълумотларга эга файлларни яратиш мумкин. Ушбу технологиялар турли хил усуллар ва турли лойиҳалар учун объектларни тўлиқ уч ўлчовли моделлаштиришни талаб қилади.

Кўп тарихга эга бўлган бебаҳо меъморий ёдгорликларни келажак авлодлар учун асраб-авайлашда замонавий инновацион ишланмалар, махсус компютер дастурлари, уч ўлчамли сканерлаш, сунъий интеллектдан фойдаланиш, таъмирлаш жараёнида инновацион технологиялар ва материаллардан фойдаланиш орқалигина эришиш мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. И. И. Умняков, ю. Н. Алескеров к. М. Михаилов «Самарканд Краткий справочникпутеводитель» Государственное издательство узбекской ССР Ташкент – 1968. Ст. -20.
2. ТАРИХИЙ САМАРКАНД Тошкент: «SAN'AT» журнали нашри, 2007,96 б. Album was published with financial support of UNESCO within the framework of the Participation Program 375158 02UZB "Celebration of the 2750th anniversary of Samarkand". Стр-20
3. В. И. Кочедамов. Труды по истории градостроительства с комментариями современных ученых. В 4 т. Т. 1. СПб.: Сохраненная культура, Санкт-Петербург 2021. 320 с. Стр.-122
4. Пугаченкова Галина Анатольевна и Ремпель Лазарь Израилевич История Искусств Узбекистана М., .Искусство*, 1965. Стр. 688 С Илл. Индекс 7с1 Стр. 273-282

5. Qiu Y. 3d reconstruction and intelligent digital conservation of ancient buildings based on laser point cloud data. J Electr Comput Eng. 2022. https://doi.org/! 0.1155/2022/7182018.
6. Wang Q, Kim M-K. Applications of 3d point cloud data in the construction industry: a fifteen-year review from 2004 to 2018. Adv Eng Inform. 2019;39:306-19.
7. Murphy M, McGovern E, Pavia S. Historic building information modelling (HBIM). Struct Surv. 2009;27(4):311-27.
8. Martinez Espejo Zaragoza I, Caroti G, Piemonte A, et al. The use of image and laser scanner survey archives for cultural heritage 3d modelling and change analysis. ACTA IMEKO. 2021;10(1):114-21.
9. Arayici Y. An approach for real world data modelling with the 3d terrestrial laser scanner for built environment. Autom Constr. 2007;16(6):816-29.
10. Santosa H, Yudono A, Adhitama MS. The digital management system of the tangible culture heritage for enhancing historic building governance in malang, indonesia. IOP Conf Ser Earth Environ Sci. 2021;738: 012056 **(IOP Publishing).**
11. Moreno-Puchalt J, Almerich-Chulia A, Laumain X. Digital preservation of the Jesuitas church in Valencia (Spain) using 3d laser scanning. IOP Conf Ser Mater Sci Eng. 2022;1252: 012040 **(IOP Publishing).**

Интернет манбалари:

1. https://www.faro.com/en/Products/Hardware/Focus-Laser-Scanners
2. http://mytashkent.uz/2016/08/04/samarkand-xix-v-54-foto/
3. :https://goskatalog.ru/portal/#/collections?id=33794963
4. https://pastvu.com/p/1714626

THE RESEARCH OF PILGRIMAGE ADDRESSES IN SAMARKAND REGION

Nodira N. Fayzullayeva
Arch. (PhD) associate professor Samarkand State University of Architecture and Construction
Sitorabonu Shodiyeva
Graduate student of the Samarkand State University of Architecture and Construction

Annotation: Today, in a period of extensive development of tourism, it is thought that pilgrimage tourism has its place among other types of tourism. A plan has been drawn up to turn these places, which are located in Samarkand region, but unknown to the population, into tourism destinations. In this article, we will focus on the architecture of neglected pilgrimage sites around the city of Samarkand and their current status.

Key words: Shrine, pilgrimage, Imam Ali Sugdi, Kumushkent, Miyanqul, Hanafiya madhhab, Shovdar, Kocha Malik, Sugd Khurd, Sugdi Kalon, Kabud, Navbog, Yoryailaq, Anhori Jadid, Shiroz Aliabad Sogarj, Shodmon and Ishtikhan, Said Nurmuhammad Khoja, Arab-Ota, Samanid, Ashiq-Ota.

Samarkand has always been a land of religious scholars. There are many visiting places in today's Samarkand city and around of it. There are many places of pilgrimage in the city center, which are popular and the center of attention among the locals. But the suburbs of Samarkand are known only among the people who live in the pilgrimage destination, and others do not know them. In this article, we will focus on the architecture of neglected pilgrimage sites around the city of Samarkand and their current status.

Architecture of Imam Ali Sugdi complex. Islam Imam Ali Sugdi, honored with the name "Pillar of Islam", one of the greatest scholars of fiqh; He was born at the beginning of the 11th century in Sogd of Samarkand (now Kumushkent region of Okhdarya), died in 1069 and was buried in Kumushkent region of Okhdarya. One of the greatest scholars of science and fiqh. In his time, he was the head of the Hanafiya madhhab of the whole Islamic world.



Figure 1. Imam Ali Sugdi complex

Despite the fact that the cemetery on the outskirts of Kumushkent district of Akdarya district is ancient and has become a ruin, its beauty is noticeable. In the middle of the cemetery there is a large mound like a hut, on which four dilapidated graves stand side by side. According to the elders, there was once a mosque-khanaqah near this hut-hill.[4]

In the Middle Ages, the land between the Aqdarya and Karadarya rivers in the region was called Miyanqul, and even more anciently, Sug'd. Since the time of the Timurids, the land of Samarkand was mainly divided into fourteen districts. At different times, there were different numbers of districts in Samarkand. They are the following: Shovdar, Anhor, Kocha Malik, Sugd Khurd, Sugdi Kalon, Kabud, Navbog, Yoryailaq, Anhori Jadid, Shiroz Aliabad Sogarj, Shodmon and Ishtikhan districts. Two of these districts were called "Sug'di Kalon" (Big Sug'd) and "Sug'd Khurd" (Little Khurd). Kumushkent district, which we are interested in, is located in Sugdi district, which is sometimes called "Nimsugd" (Half Sugd) . In the 16th century, during the Shaibani dynasty, the name of the district was changed and it was called "Ofarinkent" district. The district occupied the upper northern part of Mionkol Island between Okdarya and Karadarya, and according to some sources, it occupied the north-western part of the city of Samarkand, the southeastern part of Mionkol Island. Since ancient times, the land between two rivers has been called "Samakarkand Sugdi". Khartang, Sogarch, Ishtikhan, Ofarinkent, Dahbed, etc., were considered the most ancient and famous areas of Samarkand Sughd. According to the historical waqfnama and wasikanomas, these lands were included in the Khurd district of Sughd. The district is bordered by Sogarj district from the north. The center of Sugdi Khurd district is Ofarinkent (Prinkent) region, which was founded by the Sugd king Gurak at the beginning of the 8th century (the Gurak-Arab caliphate was a local king during the conquest of Central Asia).[5]

In accordance with the "clause" of the Cabinet of Ministers' Decision on International Conferences dedicated to the memory of our Great Imams - Imam Moturidi and Imam Marginani, the spiritual disciple of Imam al-Moturidi, Imam Marg' It is both a debt and a duty for us to improve the graves of Hazrat Imam Ali Sugdi, one of the direct teachers of Inani. We hope that those in charge of implementing the decision will carry out this meritorious work. On the eve of finishing the book, in collaboration with several major scientists, an appeal was made to the governor of Samarkand region about the restoration of the mausoleum of the great Imam Ali Sugdi in Kumushkent district of Okdarya district, and as a result of this appeal, a meeting was held under the leadership of the governor of Okdarya district, and beautification activities were carried out.

The architecture of the shrine of Said Nurmuhammad Khoja. (Figure 2) In accordance with the decision of the governor of the Okdarya district of Samarkand region No. 300-k dated December 2, 1999, research works were carried out in the cemetery in the village of Pichachchi, Okdarya district. Information about the life and work of Sheikh Syed Nurmuhammad Khoja was obtained from Eshon Akramov Aslan Khoja, his 10th generation ancestor, who lived in this village and restored the grave of his famous grandfather. The studied object is located in the territory of the cemetery of the village of Pichachchi, Okdarya district, and has become a place where grass has grown. The grave belongs to the famous Sheikh Syed Nurmuhammad



Figure 2. Shrine of Said Nurmuhammad Khoja

Khoja. Sheikh Sayit Nurmuhammad Khoja was born in Khorezm at the beginning of the 18th century. He received his education in Bukhara. He was a representative of the famous Naqshbandi sect. He practiced healing and prophecy (saintship) and was the spiritual teacher of Amir Abdulaziz Khan and Muhammadaziz Khan for a long time. After the enmity caused by the injustices, he asked the ruler of Samarkand for a land like a "tip of a knife", from which the village of "Pichok Uchi" was called "Pichok Uchi", which was later transformed into a more simplified

4 https://e-library.sammu.uz/uploads/books/O'zbek%20tilidagi%20adabiyotlar.pdf

"Great scholars of our country. Imam Ali Sugdi and the history of the pirs of the Tariqat in Kumushkent" Tashken-2020 "Navruz publisher

village. This village is now called Pichakhchi. In 1730, 444 acres of land was allocated to him 30 km away from Samarkand, in the territory of a modern village, and he was buried there. During his lifetime, the Sheikh was famous as a famous healer, especially in the field of infertility treatment. The sheikh's lineage goes back from the Sayyids to the Prophet Muhammad. Amir Temur's spiritual teacher Mir Syed Baraka was also from the same family. Around Dahbet, in addition to the families belonging to the family of Dahbedi Makhdumi Azam, Sayyid Atoi, i.e. descendants belonging to the family of Sayyid Ota, also worked as representatives of various sects. This breed is famous for being governor. They were engaged in the education of the perfect piri murids of the people of the Tariqat and started the masses on the right path. According to preliminary conclusions, this breed died in 1330 AD. Originally from Khorezm, he was the ancestor of rulers like Abdulaziz Khan and Muhammad Aziz. In 2008, the hut was opened, historical and comparative accuracy was introduced and recorded evidence was enriched. The descendants of Sayyid Nurmuhammad's disciples and caliphs, as well as relatives, lived in Okdarya, Payariq, Nurota districts. Hazrat Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf's books on Sufism also contain information about a great Sheikh named Sayyid Nur Muhammad Badauni (qs). Information about the place and year of birth is not given, the date of death is 1135 AH and 1722 AD. It is noted that this person has a light sign on his forehead, and that he is a leader in the sciences of Sharia and Tariqat, and that he is also a master of the sciences of Sarf, Nahw, Hadith, and Tafsir. Those who earned an example by their piety: they found the necessary bread flour for their needs from the halal they trusted, made the dough themselves, and baked the bread themselves. They chewed the bread and ate it only when there was an extreme need for consumption. Being an avid reader, they started reading any book they could get their hands on after three days. They are aware of the height of the level of knowledge. They quickly understand the problems faced by their students and solve their problems. It is said that Sayyid Nurmuhammad took knowledge and guidance from his teacher Sheikh Saifuddin and gave it to his student Habibullah Mazhar Jo Janan Shamsiddin. More accurate information is that this breed was considered the twenty-seventh perfect pir in the Naqshbandi sect.[6]

The architecture of the Arab-father mausoleum. (2. Figure) Arab-Ota mausoleum in the village of Tim. A number of scientists believe that this structure was built as a mausoleum in 977-978, while P.Sh.Zokhidov believes that it was later converted into a mausoleum, in fact, it is a preserved part of one of the Samanid castles. The Arab-Ota mausoleum is also made of 23 x 23 x 3.5 cm baked bricks, and its internal dimensions are 5.6 x 5.6 meters. Its difference is that the entrance is one, directed through a luxurious porch. Although there is an opinion among scholars that the use of peshtogh in the architecture of Central Asia was known a little before the period under consideration, among the preserved monuments, the Arab-Ota mausoleum can be considered the first example in this respect. Here the peshtoq forms a whole (spherical) wall. The three-quarter (3/4) part of the square at the entrance is placed on a pillar, reminiscent of the entrance in the Samanid mausoleum. Above the arch at the entrance there are three more arches with falling light, this style gives rise to the direction of decorating the upper part of the gables with arches in later periods. The four kunjak between the wall and the dome are in the form of large muqarnas bowls. The columns are patterned. These elegant pillars give the room a cozy and majestic look. The beauty of the mausoleum is its majestic facade. Bricks are picked in pairs in different order. Stitches include hankor patterns. There are Kufic inscriptions from Peshtok stems. Three niches above the porch are decorated with small patterns. The Tomb of the Arab Father is one of the oldest preserved Muslim tombs in Movaraunnahr. The mausoleum is of great importance in terms of its architectural structure. His Peshtoq was the first mature example of the type of buildings created in that period and influenced the development of the architecture of the XI-XII centuries. The front facade of the Mirsaid Bayerom mausoleum in Karmana (Navoi region), which is considered to have been built at the end of the 10th century or the beginning of the 11th century, depending on the construction method, is also a front facade. Its internal dimensions are 4.47x4.4 meters, and it is built of 21x21x2.5 cm brick. In 2015, the archeological monuments located in the district were registered by the employees of the Samarkand Archaeological Institute and the catalog of Nurabad district was published. In this catalog, the location, exact coordinates, appearance, topographical history, photos and drawings of each monument in the village of Tim and the nearby villages of Astonabobo, Sahoba, Changalli, Kochkorli Ota and other villages are included. given Researchers of the Samarkand Institute of Archeology regularly carry out scientific research in the village of Tim, Nurabad district. In particular, in 2022, as a result of the research carried out together with the scientific staff of the institute and local local historians, public inspectors, new rock paintings were registered from streams such as Kuduqchasoy and Tuyatash near the village of Tim.

In particular, on the stone in Kuduqchasoy there are suvori, wild mountain goats, arhar, various geometric symbols, and ancient Turkic-runic inscriptions. Many of these paintings have been eroded and worn down due to long-term effects of natural phenomena.

Scientific and research work is currently being conducted on the detected records. Also, the location of the Kuduqchasoy metal ore deposit was noted. Around this mine, bronze and early medieval pottery and Turkic-runic writing were discovered. Rock paintings

6 M.Ablayev "The study of the dear saints and scholars of Turan land" Tashkent 2001-y. pages 540-541.

from Changallisoy near the village of Tim were also recorded, and khumdons belonging to the early Middle Ages were discovered and studied. In particular, the khumdons recorded in Changallisoi were built in a two-tier round shape dating back to the early Middle



Figure 3. The Arab-Ota mausoleum

Ages, and the walls of the hearth were made of granite stones. In 2023, it was proved that the pottery and metal vessels found by local residents from the Korgontepa archaeological site in the center of Tim village belong to the Karakhanid period (XI-XII centuries). Also, this year, together with public inspector Ilhom Botirov, the Dunyotash stone picture, located on the left side of Gulbuloksoy, Kurgancha village, Nurabad district, was researched. It was found that there are images of a man, a mountain goat, an arhar, gazelle, a horse, a camel, a goat, a horseman, a stamp, and the image of the sun. In the course of consistent and comprehensive research conducted in the oasis, in addition to these rock paintings, the ancient cemetery and the ruins of village houses were identified and displayed on the map.

In addition, the mausoleum of the Arab father located in the village of Tim did not escape the attention of the officials of the field regarding the effective organization of work related to the preservation of material cultural heritage in our country in the following years, and the solution of existing problematic issues related to them. Due to the fact that this mausoleum needs restoration, construction and repair work, the Arab father's mausoleum was included in the address list of cultural heritage objects for restoration, construction and repair work in 2023-2024 by the Cultural Heritage Agency and the Cultural Heritage Department of Samarkand region. 500 million from budget and non-budgetary funds for the repair and restoration of the mausoleum. It was decided to allocate soum. At the moment, these funds have been allocated, and the process of financing the work to be carried out and preparing estimate documents is underway. Also, measures are being taken to surround the archaeological monuments in this area with a 3D fence.

Architecture of Ashiq-Ota Mausoleum. One of the Sufism scholars of his time, Mavlano Ashiq, the real name of the father is Mavlano Mir Nematullah Ashiq. Also, in these documents, valuable information can be obtained from the documents about the endowment of lands belonging to the shrine of Mavlano Mir Nematullah Ashiq Ota. Hazrat Mavlona Mir Ne'matullah Ashiq, who is the real father, his name, profession, where and when he was born, may be a bit confusing, but if you come to visit this place, you will find the light of day, leaving no room for questions, the divine in the human heart. there is a silence. Hazrat Mavlano Ne'matullah Ashiq Ata, in the development of education, in the service of teachers, on the basis of the perfection of students, spread light over the years, and as a result of his belonging in the love of creation, in the eyes and words of the murshid and murids, Mavlano Ashiq Ata received the status of Mavlano Ashiq Ata. The reason why this person is called the Loving Father is because he is considered to be one of the true Lovers of Allah. In addition to the name of the Father, the whole Muslim world is considered the spiritual Father. In particular, it is known from the history that the Prophets of Allah and the servants of the Saints were considered as spiritual fathers to all other people. Hazrat Mawlana Mir Nematullah Ashiq Ata was one of the great saints and had many blessings. In his time, people who suffered from severe pain were cured by the permission of Allah due to the prayers of this person. For several years now, many pilgrims have been coming to the mausoleum erected over the graves of Hazrat Mawlana Mir Nematullah Ashiq Ota, bringing peace of mind and spiritual nourishment. There are also reports that Hazrat Mavlano Mir Ne'matullah Ashiq Ota composed "Devon" during his activity, and that he was the owner of a higher authority than mature poetry. This divan is kept in the ToshDSHI SHKM fund of his work "Devoni Ashiq". Around the mausoleum are the graves of famous scholars of their time - Abu Mu'in Sheikh (birth time unknown, died 1112 AH), Amir Haydar Ibn Amir Muhammad Khurasani (died 958 AH), and There are tombstones of several great scholars, such as Shaykh Abdul Karim (died 1017 AH), who had the status of "Sheikh of the Believers" in the z period. Not only Pastdargom, but also residents of villages adjacent to Okdarya district are buried in the cemetery near the shrine of Ashiq Ota. In the 10th century, this neighborhood belonged to the Okdarya district, and today it is called "Ashiq ota". Next to the entrance gate, there is a well-made in memory of Ashraf Akhrorkulov, and it consists of iron bars. Ornamental trees were planted at the entrance to the shrine and beautification works were carried out. A 200-meter road has been built from the entrance gate to the nursery, and a slab has been laid. During the years of independence, attention was paid to the shrine and repair works were carried out. In the 14th century, during the reign of Mirzo Ulug'bek, a tomb was surrounded and a domed shrine was built as a tribute to the graves of teachers and scholars, and during the period of independence, a 6x3m room for reciting the Qur'an was built.





Figure 4. Ashiq-Ota Mausoleum

There are many places of pilgrimage in the city of Samarkand dedicated to the memory of mature scholars, religious and statesmen of their time, and some of them have not been preserved at all. Their lack of promotion among the local population caused the sedan to disappear over time. In this research, we aim to identify and study such pilgrimage destinations, recover information about them, improve pilgrimage destinations based on them and add them to tourism destinations.

Literature

1. Architectural monuments of Central Asia. Bukhara, Samarkand: Photo album/ Author of text and compositions. V.L.Voronina. -L.: Aurora, 1969. 39 f., 44 l. -L.: Aurora, 1969. - Text paral. rus., engl.
2. Yakubovskiy A.Yu. "From the history of archaeological study of Samarkand // Tr. Department of the East / State. Hermitage
3. . T.P. – Leningrad: 1940, - 336 s.
4. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). Interrelation of Roads with Architectural and Landscape Environment. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 2(2), 19-23.
5. Islamic Painting and the Arts of the Book / Ed. bu B.W.Robinson. -London: Faber Lim., 1976. 322 p.
6. M.K. Ahmedov "History of Central Asian architecture" Tashkent Uzbekistan" 1995
7. M.Ablayev "The study of the dear saints and scholars of Turan land" Tashkent
8. Kattayev K. "Great scholars of our country. Imam Ali Sugdi and the history of the pirs of the Tariqat in Kumushkent" Tashken-2020 "Navruz publisher

ТАРИХИЙ ДАРВОЗАЛАРНИНГ ШАҲАРСОЗЛИКДАГИ РЎЛИ ВА ЎРНИ

Абатова Шамсиқамар Зиядуллаевна
СамДАҚУ таянч докторанти (PhD)
Рашидов Давлатхон Обиджонович
СамДАҚУ Архитектура йўналиш 3 босқич талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада шаҳар деворлари ва дарвозалари инсоният тарихида душманлардан ҳимояланиш воситалари тарзида чуқур из қолдирганлиги, улар биринчидан, давлат ва ҳукумдорларнинг куч-қудратини ифодаласа, иккинчидан, шаҳарсозлик мақоми белгиларидан бири ҳисобланганлиги, ҳамда тарихий шаҳарларнинг ижтимоий ҳаётида мудофаа иншоотлари, деворлари ва дарвозаларининг ўрни алоҳида мавқега эга еканлиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Шаҳар деворлари, мудофаа иншоотлари, Андижон, Ургут, Наманган шаҳар дарвозалари, Қанка қалъа, Дилбаржин қалъа

Аннотация: В данной статье городские стены и ворота оставили глубокий след в истории человечества как средства защиты от врагов, во-первых, они олицетворяют власть государства и правителей, а во-вторых, считаются одним из статусных символов градостроительства. , а роль оборонительных сооружений, стен и ворот в общественной жизни исторических городов занимает особое место.

Ключевые слова: Городские стены, оборонительные сооружения, Андижан, Ургут, городские ворота Намангана, Канка, Дильбарджин.

Annotation: In this article, city walls and gates have left a deep mark in the history of mankind as a means of protection from enemies, firstly, they represent the power of the state and rulers, and secondly, they are considered one of the status symbols of urban development. , and the role of defensive structures, walls and gates in the public life of historical cities occupies a special place.

Key words: City walls, defensive structures, Andijan, Urgut, city gates of Namangan, Kanka castle, Dilbarjin.

Кириш: Бугунги кунда дунёдаги тарихий шаҳарлар ва меъморий ёдгорликларни сақлаш, уларни келажак авлодга бус-бутун етказиш, улардан туризм соҳасини ривожлан-тиришда фойдаланиш ниҳоятда долзарб масалага айланмоқда. Бу борада халқаро БМТ, ЮНЕСКО, ИКОМОС каби нуфузли ташкилотлар томонидан маданий ва табиий меросни асраш бўйича Бутунжаҳон конвенциясининг қабул қилиниши ҳамда Маданий мерос ёдгорликларини сақлаб қолиш тўғ-рисидаги Сиан декларацияси каби халқаро ҳужжатларнинг қабул қилини-ши бу соҳага катта эътибор бериш, ёдгорликларни сақлашнинг замонавий усулларини аниқлаш, уларни таъмирлаш ва фойдаланиш ишларининг са-марали бўлишлига асос яратмоқда.

Дунё миқёсида қадимий шаҳарларнинг эволюцион тараққиёти, шаҳар-созлик тизими, маданий мерос объектларини сақлаш, археология ва архи-тектура ёдгорликларини қайта тиклаш ва таъмирлаш бўйича олиб бори-лаётган хорижий илмий тадқиқотларда тарихий ёдгорликларни асл ҳолатида сақлаб қилиш йўлларини такомиллаштириш, ёдгорликлардан улар жой-лашган шаҳарларнинг туризм салоҳиятини оширишда фойдаланиш масалалари илгари сурилган. Ушбу тадқиқотларда шаҳарсозлик ва меъморий ёдгорликларнинг ўзига хос тарихий-меъморий хусусиятларини аниқлаш, тарихий ҳудудларнинг сайёҳлик имкониятларини янада ошириш, маъданий мерос объектларидан унимли фойдаланиш долзарб вазифалардан ҳисоб-ланади.

Шаҳар деворлари ва дарвозалари инсоният тарихида душманлардан ҳимояланиш воситалари тарзида чуқур из қолдирган Улар биринчидан, давлат ва ҳукумдорларнинг куч-қудратини ифодаласа, иккинчидан, шаҳарсозлик мақоми белгиларидан бири ҳисобланади. Баъзи шаҳарларда ҳатто уч қатор мудофаа деворлар бўлиб, биринчи мудофаа чизиғи рабодни, иккинчиси шаҳристонни, учинчиси эса аркни ҳимояланган. Дарвозаларнинг буржларида, девор юқорисида, девор буйлаб жойлашган ярим буржларда кузатув жойлари, яъни шинак (ўқ отадиган туйнук) лар билан жиҳозланган.

Асосий қисм:Тарихий шаҳарларнинг ижтимоий ҳаётида мудофаа иншоотлари, деворлари ва дарвозаларининг ўрни алоҳида мавқега эга. Тарихий дарвозаларни ҳозирги вақтда кўпроқ божхоналар билан таққослашимиз мумкин. Улар ҳозирда ҳам самарали фаолият кўрсатиб келмоқда. Замонавий шаҳарларга кираверишда кўчаларга рамзий дарвозалар қуриш тажрибалари ҳам мавжуд. Масалан, Андижон, Ургут, Наманган каби шаҳарлар ана шундай дарвозаларга эга.

Бу ҳимояланиш воситалари ичида шаҳарлар деворлари ва дарвозалари инсоният тарихида чуқур из қолдирган. Улар биринчидан, давлат ва ҳукум-доларинг куч-қудратини ифодаласа, иккинчидан, шаҳарларсзлик мақоми белгиларидан бири ҳисбланади. Шаҳар ҳимояси одатда бир неча ҳимоя чизиқлари ва деворлар тизимидан ташкил топган. Баъзи шаҳарларда ҳатто уч қатор мудофаа деворлари бўлиб, биринчи мудофаа чизиғи рабодни, иккинчи шаҳристонни, учинчиси эса аркни ҳимояланган. Дарвозаларининг бурж-ларида, девор юқорисида, девор бўйлаб жойлашган ярим буржларида кузатув жойлари, яъни шинақ (ўқ отадиган туйнук)лар билан жиҳозланган.

Эрамиздан аввалги IV асрларда қурилган шаҳар қалин мудофаа девор-лари ва дарвозаларидан ташқари дарвозаолди мураккаб мудофаа иншоотига ҳам эга бўлган. Одатда тўғри бурчакли шаклдаги бу иншоот бир неча айланма йўлакдан иборат бўлиб, унинг бундай мураккаб қурилиши душманнинг шаҳар ичкарисига тўғри кириб келишига имкон бермаган. Айланма йўлакдан кирган душман эса девор устида турган ўқчилар зарбасига дуч келган.

ТАДҚИҚОТ УСЛУБЛАРИ. Бундай дарвозаолди мураккаб мудофаа иншооти қадимги Хоразм шаҳарларининг деярли барчасида (Қальаликкир, Куй-кирилган қалъа, Ён-бошқалъа, Аёзқалъа, Қатқалъа ва ҳоказоларда) мавжуд бўлга.

Ушбу меъморий услуб, шунингдек, Тошкент вилояти ҳудудидаги Қанка, Туркистондаги Дилбаржин қалъаларида ҳам қўлланилган. Дарвозаолди мудофаа иншоотининг Хоразм шаҳарларида кўпроқ ўрна-тилиши бу ўлканинг кўчманчилар билан чегарада жойлашганлигидан деб тушуниш мумкин. Қадимги Хоразм шаҳарларининг мудофаасига хос хусусияларидан Яна бири – мудофаа деворлари ичидаги йўлакдир.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ. Тарихий дарвозаларга хос пештоқ-кириш композициясининг тарихий бинолар остонаси архитектурасида “эмбриони” вазифасини бажарганлиги исботланган;

Афросиёб тарихий шаҳри дарвозаларидан бир нечтаси: Кеш дарвозаси, Чин дарвозаси ва Бухоро дарвозлари архитектурасини график тиклаш лойиҳа таклифлари ишлаб чиқилган;

Самарқанд шаҳри Темур даври арк-қалъаси дарвозасининг архи-тектураси ҳамда Самарқанд шаҳри ҳисорининг Оҳанин дарвозаси архи-тектурасини график тиклаш лойиҳа таклифлари ишлаб чиқилган;

Тарихий дарвозаларнинг ижтимоий аҳамияти ва архитектуравий ғоя-сининг Ўзбекистон шаҳарларидаги замонавий рамзий дарвозаларга транс-формацияланиши аниқланган.

ХУЛОСА. Ўтмишда шаҳар дарвозаларининг шаҳар ҳаёти ва мудофасидаги ўрни ва рўли катта бўлган. Улар шаҳар мудофа дарвозалари билан биргаликда аҳолини ташқи ёвлар ва душманлардан ҳимоя ва мудофаа қилишда уларга қарши қўйилган илк қалқон бўлиб ҳисобланган. Шунинг учун ҳам мудофаа деворлари ва дарвозалар ўта ўлуғвор, қалин, мустаҳкам қилиб қурилган. Баъзида дарвозалар эшиги темирдан ишланган.

Дарвозаларнинг ўлчамлари ҳажми мудофаа деворларининг катталиги билан аниқланган ва баъзида жуда улкан бўлган. Бундай дарвозаларни

кўрган душмонлар даҳшатга тушган. Мудофаа деворлари ва дарвозаларнинг ўзи улар олдидан қурилган сувга тўла чуқур ва кенг ҳандаклар ва улар устига қурилган кўприклар орқали ҳимояланган. Улар душманни шаҳар мудофаа деворлари ва дарвозаларига яқин келишига ҳалақит берувчи дарвозаолди ҳимоя воситалари ҳисобланган.

Ўрта асрларда мудофаа деворлари ва дарвозалар шаҳарни шакллан-тирувчи аҳамиятга ҳам эга бўлган.

Ўтмишда дарвозалар нафақат мудофаа ҳимояланиш рўлини, балки пос-бон вазифасини ҳам бажарган. Шаҳарга бирон бегоналар кириши, айниқса, ёмон ниятдагиларнинг киришига чек қўйилган, шундай одамлар тутиб қо-линиб, хибисга олинган.

Адабиётлар рўйҳати:

1. Юсупова М.А. Бухарская школа зодчества. XV-XVII вв.-Самарканд, 2022.

2. А.С.Уралов., Хасанова Х Шаҳар деворлари ва дарвозаларининг // Меъ-морчилик ва қурилиш муаммолари илмий-техник журнали.- №1, 2004

3. Шамсикамар, А., & Зиёдуллаевна, М. Б. (2022). Интериорс оф Ҳисторис Ҳоспиталс. ЭУРОПЭАН ЖОУРНАЛ ОФ ИННОВАТИОН ИН НОНФОРМАЛ ЭДУСАТИОН, 2(5), 227-229. 4. Шамсикамар, А. (2021). Ҳисторисал арчитестурал рулес wҳен десигнинг буилдингс. Жоурнал оф Арчитестурал Десигн, 1, 6-9

4. Султонова Д.Н. Ўзбекистон меъморчилигида тасвирий ва бадиий воситаларни уйғунлаштириш/ Монография ISBN 978-9943-322-79-0. Тошкент: “Санъат”, 2010. -Б. 232. 2. Султонова Д.Н. Harmonisierung der bildnerischen und kunstlerischen mittel in der

architectur Usbekistan/ ISBN: 978-620-3-93073-3 Publisher: LAP LAMBERT Academic Publishing is a trademark of the OmniScriptum S.R.LPublishing group 2021. - Б. 102. 6.4 б.т. (немис тилида) https://www.amazon.com/www.lap-publishing.com.

5. Султонова Д.Н. “Рамзий тоқ-дарвозаларнинг шаҳарсозликда қўлланилиши тарихи”/ Услубий кўрсатма Мавзу бўйича мустақил ишларни бажариш учун. СамДАҚИ, Самарқанд, 2016.

6. Султонова Д.Н. Рамзий дарвозаларнинг келиб чиқишида тарихий дарвозаларнинг аҳамияти/ Архитектура, қурилиш, дизайн(илмий-амалий журнал). ТАҚИ. 2-4 сон. –Тошкент, 2006, -Б. 13-16.

7. Султонова Д.Н. Возникновение ворот в градостроительстве Узбекистана (на примере города Ташкента)/ Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. 4-сон. СамДАҚИ.Сам. 2009.-Б.22-29.

SAMARQAND MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Xoldorova Dilrabo
SamDAQU

Annotasiya Maqolada Xulosa qilib aytganda **t**uristik hududlarda arxitektura muhiti obyektlarini yaratishning asosiy mezoni bu «turistik qiziqish» va «turistik taassurot» ekanligi aniqlandi. mahalliy va xorijiy amaliyotda turistik markazlarning rivojlanishini tizimlashtirish asosida turistik markazlarning asosiy tipologik xususiyatlari quyidagilardan tashkil topgan funksional tarkibi va tuzilishi yetakchi funksiyalar va ularni taqsimlanishi; hududning tarkibiy ahamiyati turistik potensial obyektlarini joylashtirishni rejalashtirish.

Kalit so’zlar. Turistik, funksional, obyektlar, vizual, Ssenar tamoyil, arxitektura, marshrut, geografiya

Аннотация В заключении определено, что основными критериями создания объектов архитектурной среды в туристских зонах являются «туристский интерес» и «туристское впечатление». На основе систематизации развития туристских центров в отечественной и зарубежной практике основными типологическими признаками туристских центров являются функциональный состав и структура ведущих функций и их распределение; планирование размещения объектов туристского потенциала структурного значения территории

Ключевые слова. Туристический, функциональный, объектный, визуальный, Сценарный принцип, архитектура, маршрут, география

Abstract. In conclusion, it was determined that the main criteria for creating objects of the architectural environment in tourist areas are "tourist interest" and "tourist impression". Based on the systematization of the development of tourist centers in domestic and foreign practice, the main typological features of tourist centers are the functional composition and structure of the leading functions and their distribution; planning the placement of objects of tourist potential of the structural significance of the territory

Keywords: Tourist, functional, objects, visual, Scenario principle, architecture, route, geography

Tadqiqotlar doirasida ichki sayyohlik marshrut va markazlarini shakllantirish bosqichlari tahlil qilndi. Buning natijasida turizmni rivojlantirish uchun me’moriy muhit, hamda uni tarkibiy jihatdan tashkil etishning tarixiy jihatdan asoslangan asosiy (birlamchi) tamoyillarini aniqlashga imkon berdi. Bular quyidagi beshta tamoyildan iborat

1. “*Turistik arxitektura obyektlarining yodgorliklar hududi bilan fazoviy va vizual bog’lanish tamoyili”.* Turistik salohiyatga ega obyektlar va ansambllarni ko’rish nuqtalarini tashkil etish uchun hududning landshaftidan va relyefidan foydalanish. Tarixiy hududlar asosida sayyohlik markazlarini loyihalashtirish

2. “*Turistik maqsadlarda yodgorliklardan foydalanish va moslashtirish tamoyili”.* Foydalanishning ma’nosi nafaqat turistik obyektning joylashgan joyiga to’g’ridan-to’g’ri (bevosita)

moslashishi, balki yangi funksiya yodgorlikning oldingi maqsadiga maksimal yaqinlashishi sifatida tushuniladi. Yodgorlikni sayyohlik maqsadlarida ishlatishning asosiy shakli uni qayta tiklash va namoyish etish obyekti sifatida saqlab qolish, shuningdek muzey ekspozisiyalarini yaratishdir. Yodgorlikni turistik muassasaga to'g'ridan-to'g'ri moslashtirish nafaqat tashqi ko'rinishini buzilmasligi, balki uning ichki makonidagi tarixiy elementlarini idrok qilishni ham buzmasligi bilan amalga oshirish

3. *"Turistik mavzu tamoyili"* - shaharsozlik obyekti tarkibidagi turistik marshrutni shakllantirish g'oyasining yetakchi qismi bo'lgan uning badiiy-obrazli va me'moriy-morfologik g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mavzu hisoblanadi. Muhit mavzusini badiiy-majoziy dizaynning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shaharsozlik kompozisiyasining syujeti, ya'ni mazmuni bu - me'moriy va fazoviy muhitda aks etadigan voqyealar tizimi, semantik g'oyalar va shakllantirishning o'ziga xos tamoyillari, vositalari, hamda usullari

4. *"Ssenar tamoyil"* tematik marshrutlarni va har xil funksional, hamda tematik yo'naltirilgan aniq obyektlar orasidagi bog'lanishni oldindan belgilab beradi. Ushbu tamoyil Samarqandda turistik markazni rivojlantirish loyihalarida belgilab qo'yilgan -

5. "*Yaxlitlik tamoyili"* - bu turizm sohasining yagona ko'p funksiyali majmualarni yaratish. Unda barcha muassasalar yagona turistik kompleks sifatida ishlab chiqiladi, hamda uning har bir bo'g'ini o'zaro bog'liq bo'ladi. Bu majmua sayyohlarga dam olish uchun eng yaxshi sharoitlarni yuqori darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi



Turistik marshrutlarni ishlab chiqish. Turistik sayohatning sifati ko'plab omillarga bog'liq va muhimlardan biri marshrutning izchilligi. Ushbu geografik omil turistik sayohatining ommaviyligi, foydaliligi, samaradorligi va xavfsizligiga ta'sir qiladi. Turizm amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mantiqiy va mantiqsiz marshrutlar mavjud, ikkinchisi esa juda ko'p

Mantiqiy marshrutlarni tuzish, nafaqat maksimal darajada mintaqaviy ma'lumotlarni, balki ishlab chiquvchining tajribasi, iste'dodi va ilhomini ham talab qiladi. Marshrutni rejalashtirish mantig'ining ham, etalon marshrutlar ham, ilmiy adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilinmagan

Turistik marshrutlarni ishlab chiqish juda yuqori malakani talab qiladigan va turistik xizmat ko'rsatish texnologiyasining asosiy elementi bo'lgan murakkab ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon ko'p vaqt talab etadi va ba'zida bir necha oy davom etishi mumkin. Marshrutlarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarga rioya qilish kerak.

1. Maqsadli turistik guruhning "portretini" aniqlash. Marketing tadqiqotlari asosida potensial turistlarning "portreti" tuziladi. Tahlillar natijasida talabning tuzilishi, hajmi va bozor sharoitlari aniqlanadi. "Portret" tuzish guruhning o'ziga xos xususiyatlarini modellashtirishni o'z ichiga oladi: psixofiziologik, milliy, diniy, ijtimoiy-madaniy, professional va boshqalar, bu kelajakda marshrut dasturini ishlab chiqishda va xizmat ko'rsatishda hisobga olinishi kerak

2. Turistik marshrutning maqsadini belgilash va vazifalarini aniqlash. Marshrut ishlab chiqilishining bu bosqichida turistlarning kelajakdagi sayohati uchun qo'ygan maqsadlarini aniq shakllantirish kerak. Sayohatning maqsadi sayyohlarning sayohat paytida u yoki bu tarzda o'z ehtiyojlarini qondirish istagini belgilovchi motivlardir. Agar sayohatning maqsadi (motivi) aniq ko'rsatilgan bo'lsa, unda tur operatorga marshrutda turistlarning ehtiyojlarini qondiradigan sharoitlarni yaratishda yordam beradigan vazifalar (tadbirlar, dasturiy harakatlar) tuzilishi kerak. Agar maqsad ma'rifiy bo'lsa, marshrutni ekskursiya mazmuni va shunga o'xshash narsalar bilan ta'minlash vazifalari bo'lishi kerak.

*3.***Konigil turizm xaritasi** . Mavsumni tanlash, asosan marshrutning maqsadini va unga jalb qilingan mintaqaning turistik resurslari imkoniyatlarini aniqlaydi. Xuddi shu yondashuv marshrutning davomiyligini aniqlash uchun talab qilinadi. Biroq, bu yerda turistik bozorning turli segmentlarida bo'sh vaqtning tuzilishini hisobga olish kerak. Masalan, Jahon sayyohlik tashkiloti mutaxassislari sayyohlarning yoshiga qarab segmentlarini ajratib ko'rsatib, "yoshlar turizmi" ta'til kunlari, "o'rta yoshdagi turizm" (30-60 yosh) bilan tartibga solinishiga e'tibor qaratmoqdalar. Iqtisodiy faol sayyohlar uchun "bo'sh vaqt bloki" dan foydalanish mumkin - ta'til va dam olish kunlari. Nafaqa yoshidagi odamlarni o'z ichiga olgan "uchinchi yoshdagi turizm" sayohat vaqtiga cheklovlar qo'ymaydi, bundan tashqari, aniq mavsumiylik yo'q, aksincha, bunday sayyohlar eng yuqori turistik mavsumlardan qochishadi va tinch davrlarni afzal ko'rishadi. Ushbu bosqichning natijasi quyidagicha ta'rif bo'lishi kerak.



• marshrut mavsumi va tanlov asoslari;

• marshrutning davomiyligi va ularning davomiyligini asoslari.

4. Geografiyaning tavsifi va marshrut yo’nalishi. Yo’nalish marshrutini ishlab chiqishda mahalliy tarixni bilish, shuningdek mintaqaning turistik infratuzilmasini batafsil o’rganish, ya’ni,

guruhning qiziqish mavzusiga aylanishi mumkin bo’lgan narsalar. Ularning joylashishi turistlar qolish yoki tashrif buyuradigan joylarni tanlashda asosiy hal qiluvchi omilga aylanadi. Marshrutni tuzishda safarlarning tasnifiga murojaat qilish kerak. Shunday qilib, ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

• sayyohlarning turar joylarini tanlash va tanlovni asoslash;

• marshrut xaritasi-sxemasini qurish (marshrut sxemasi, joylarning nomlari, yirik suv, temir yo’l va avtomobil yo’llarining belgilanishi, qolish punktlari orasidagi masofani kilometrlarda ko’rsatish);

• Yo’nalish marshrutining tasnifi.

5. Marshrut bo’yicha turistik xizmatlarni moddiy-texnik ta’minlash. Ushbu bosqichda quyidagi savollarni yechish kerak: Sayyohlar qayerda yashaydi va ovqatlanadi? Sayyohlarni nuqtadan nuqtaga olib borishda transportning qaysi turidan foydalanish mumkin? Sayyohlarga qolish va ovqatlanish, joy tanlash uchun quyidagi asosiy fikrlardan foydalaniladi.

a) sayyohlarning istaklari yoki talablari;

b) mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarining tuzilishi va holatini tahlil qilish;

c) mehmonxonalarning tashrif buyuradigan obyektlarga yaqinligi;

d) mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalarini toifalarga ajratish.

Masalan, biznes-turlarda ishbilarmonlarni ma’muriy markazlarning yaqin atrofida joylashtirish, dam olish maqsadida sayohat qilish - sayyohlarni jozibali tabiiy va iqlim zonalariga yaqin mehmonxonalarda joylashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi.qatlanish korxonalarini tanlash, birinchi navbatda, sayyohlarning qulayligi nuqtai nazaridan, ya’ni mehmonxonada nonushta tashkil qilinishi kerak, tushlik va kechki ovqatlarni tashkil qilishda esa vaqtincha tuzilishga asoslanish kerak, ekskursiya va madaniy dasturlar (masalan, uzoq ekskursiya sayyohlar uchun kafedagi tushlikni o’z ichiga olishi mumkin, agar sayyohlar kechqurun teatr tomoshasiga tashrif buyursa, u holda mehmonxonada kechki ovqatni uyushtirish afzal, uzoq ekskursiyalar yoki transferlar uchun tez ovqatlanish iqoniyatlarini tashkil etish mumkin) Shunday qilib, ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanadi.

- sayyohlar uchun mo’ljallangan mehmonxonalarning joylashuvi va turlari;

- mehmonxonaning xususiyatlari ("yulduzli reytingi", mehmonxonalar xizmatlarining xususiyatlari, turlari, ta’minlanish darajasi)

- ovqatlanish korxonalarining joylashuvi va nomlari, xizmat ko’rsatish va ovqatlanish xususiyatlari, ovqatlanish turlari, marshrut ichidagi transport turlari.

6. Tashrif obyektlari. Keyinchalik aniq obyektlarni, tashrif buyuradigan joylarni, shuningdek sayyohlar uchrashadigan shaxslarni aniqlash kerak. Ushbu obyektlarni quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin.

1) majburiy, bu yo’nalish maqsadlari va guruhlarning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan ehtiyoj. Majburiy obyektlarga quyidagilar kiradi.

• mintaqadagi eng qiziqarli joylar (madaniyat, me’morchilik, san’at tarixi yodgorliklari, tabiat yodgorliklari);

• sayyohlarning professional yoki boshqa qiziqishlari bilan bog’liq korxonalar, muassasalar;

• u yoki bu maqsad uchun sayyohlarni qiziqtirgan shaxslar, odamlar guruhlari.

2) qo’shimcha, uning tarkibiga qo’shilishi xizmat dasturini to’ldiradi va diversifikasiya qiladi. Qo’shimcha shartlarga quyidagilar kiradi.

• qo’shimcha ekskursiya obyektlari.

• madaniyat muassasalari (teatr, diskoteka va boshqalar)

• sport va dam olish maskanlari va tadbirlari

• tantanalar va boshqa ko’ngilochar shoularni o’tkazish joylari va boshqalar

3) maxsus, uning kiritilishi marshrutning eksklyuziv xususiyatiga aylanadi, uning avj nuqtasi, marshrutning "ta’kidlanishi". Maxsus obyektlar sayyohlarga milliy madaniyatning o’ziga xos xususiyatlarini, mintaqaviy xususiyatlarini va urf-odatlarini ochib beradigan tashriflar yoki xizmatlar deb ataladi. Bunday tadbirlar bayram va ko’ngilochar xarakterga ega bo’lishi mumkin, bu g’ayrioddiy odamlar bilan uchrashuvlar, sarguzasht tabiatidagi tadbirlar bo’lishi mumkin.

7. Turistik marshrut dasturi. Bu yakuniy bosqich. Turistlar guruhi uchun xizmatning barcha elementlarini mantiqiy ketma-ketlikda va yashash kunlari va soatlari bo’yicha taqsimlab birlashtirgan yagona xizmat dasturini yaratish zarur. Bunday holda, quyidagi asosiy fikrlarni hisobga olish kerak.

• sayyohlarning kelish va ketish vaqti (soatlari);

• turistlarning harakatlanish davomiyligi bilan bog’liq bo’lgan holatlar;

• mehmonxonadan chiqish soatlari;

• transferlarni tashkil etish zarurati (sayyohlarni kutib olish va ularni kuzatish);
• shu kuni o'xshash ekskursiyalarni tashkil etishga yo'l qo'yilmasligi;
• sayyohlarning milliy yoki diniy urf-odatlari (masalan: ertalab va kechqurun namoz o'qish, erta turish yoki erta yotish odatlari va boshqalar);
• yoshga bog'liq psixologik xususiyatlar.

Marshrutni ishlab chiqishda xilma-xil materiallardan foydalaniladi: ma'lumotnomalar, qo'llanmalar va boshqa tarixiy adabiyotlar, kartografik materiallar. Marshrutni ishlab chiqish marshrut pasportini muvofiqlashtirish va tasdiqlash bilan tugaydi. Yo'nalish pasporti ekskursiyalarni tashkil qilishda qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1.Орлов М.А. Крупные туристские центры // - М.:Стройиздат, 1983. 159 с. 2. 2. Казакова С.А. Архитектурная среда: вопросы туристской аттрактивности // Сервис в России и за рубежом. Журнал Российский государственный университет туризма и сервиса // № 6 (53). 2014 г. Стр.: 3-13

3.Булатова Е. Комплексный подход к организации архитектурной среды туризма в 1920-1980-е годы.

4.. Зырянов А.И., Королев А.Ю. Разработка туристского маршрута. Электрон матн. https://svastour.ru/articles/puteshestviya/vidy-turov/razrabotka-turistskogo-marshruta.html

5. Киреева Л.А. Классификация туристических маршрутов в системе размещения объектов туризма. / Региональная архитектура и строительство. №1 – Пенза 2010 г. – С. 144-147

6. Ширинкин П.С., Волк Е.Н., Сидорова Е.В. Методические рекомендации к межвузовскому конкурсу студенческих проектов по региональному туроперейтингу «Пермский тур-2011» Пермь, 2012. 170 с.

7. Зырянов А.И., Королев А.Ю. Логика туристического путешествия и разработка эталонных маршрутов // Географический вестник, №2 2009, Пермь.

8. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие - Ростов н/Д: «Феникс», 2006. - 368 с.

9. Анализ услуг питания в гостиниц. / Уральский институт экономики, управления и права. / С. 62. (Текст электронный) https://studfile.net/preview/8986838/

10. Емелин С.В. Курс лекций по дисциплине: Технология туристической деятельности для специальности Гостиничное хозяйство. / Севастополь 2006. С. 151. https://studfile.net/preview/5274869/

O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI VA ARXITEKTURASI TARIXIDA YOG'OCH O'YMAKORLIK SAN'ATI HAMDA MOHIR USTALAR IJODI

Kulnazarov Bahram Bekmurodovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti.

Annotation: The article describes the history of the architecture of the cultural heritage of the Uzbek people, the art of wood carving and the creativity of the masters. Wood carving is one of the most popular Uzbek folk arts and crafts. Kokand, Khiva, Samarkand and Tashkent schools of wood carving show their creativity and differences. There was also talk about famous wood carving masters.

Аннотация: В статье описана история архитектуры культурного наследия узбекского народа, искусство резьбы по дереву и творчество мастеров. Резьба по дереву – один из самых популярных видов узбекского народного искусства. Коканская, Хивинская, Самаркандская и Ташкентская школы резьбы по дереву демонстрируют свое творчество и различия. Также речь шла о знаменитых мастерах резьбы по дереву.

Keywords: wood carving, applied arts, culture, wood materials, folk crafts, history of wood carving, schools of wood carving, carpenter.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqi madaniy myerosi me'morchiligi tarixi, yog'och o'ymakorligi san'ati va ustalar ijodi yoritilgan. Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy san'atining eng mashhur turlaridan biridir. Qo'qon, Xiva, Samarqand va Toshkent yog'och o'ymakorligi maktablari o'z ijodkorligi va farqlarini namoyon etadi. Hamda, yog'och o'ymakorligining mashhur ustalari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: yog'och o'ymakorligi, amaliy san'at, madaniyat, yog'och materiallari, xalq hunarmandchiligi, yog'och o'ymakorligi tarixi, yog'och o'ymakorligi maktablari, duradgorlik.

O'tmish arxitekturamizda, binolarning ichki tuzilishi, bino interyerlarida yog'och materiallarning ahamiyati juda kata bo'lgani bizga ma'lum. Shuning uchun ularni urganish madaniy merosimiz urganishga katta e'tibor demakdir. Nafaqat O'zbekistonda, butun Markaziy Osiyoda keng tarqalgan xalq hunarmandligi yog'och o'ymakorligi tarixini urganish talabalar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Davlatining keyingi yillardagi xalq xujaligining rivojlanishi bilan bir qatorda arxitektura, amaliy san'at va madaniyat rivojlanishga katta e'tibor berilishi, uning tarixini o'rganish, bilish kelajak yoshlarga kuch g'ayrat bag'ishlaydi. "Tarixini bilmaydigan xalqning kelajak yo'q" deganlaridek, o'tmishimizni o'rganish kelajak uchun katta poydevor hisoblanadi.

Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atning keng tarqalgan bir turidir. Bunda biror narsaga naqsh(tasvir)lar taxta yoki yog'och materiallarga chizib, kesib o'yib ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi diyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi sharq antik dunyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib, o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari markaziy osiyoda ham

yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy- ro‘zg‘or buyumlarida va arxitektura, interyerlarida juda keng qo‘llanib kelingan. Bu o‘ymakorlik qadimiy arxitekturaning yog‘och materiallari ya’ni eshik, darvoza, ustunlar, har xil tusinlar stol, kursi xontaxta, quticha, ramka, qalamdan, lavhalar va boshqa buyumlar yasashda va bezashda ishlatilib kelingan.

O‘zbek xalqi yaratgan asarlar o‘zining nafosati murakkabligi tabiiyligi bilan kishni aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog‘ochdan ishlangan ajoyib yog‘och o‘ymakorligiga xar qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay yillar, asrlar o‘tishi bilan ular namgarchilikka bardosh berolmay diyarli ko‘pchiligi chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalardan topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

V- VI asrlarda yog‘och o‘ymakorligi namunalari Surxandaryo vohasidagi yumoloq tepa tubidan topilgan. Olimlarning aniqlashicha butin bir, bir yarim ming yillar muqaddam bu joyda naqsh o‘ymakorligiga dalillar topilib, o‘ymakorlik san’ati keng rivojlanganligidan dalolat beradi. Bunday nayob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa qadimiy shaxarlardan arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

VII asrning oxitgigacha mahalliy o‘zbek xalqi ichida yog‘och materiallarga o‘ymakorlik bilan naqsh solish juda tez sur’atlar bilan rivojlangan edi. Markaziy Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq mabutlari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o‘rni ustunlar va boyligiga qarab o‘z ma’budasi(xudosi)bo‘lgan. Odatda bu ma’buda eshik tepasiga qo‘yilgan. Xonadon sohibi mavridi bilan yog‘ochdan o‘yilgan yangi ma’budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog‘och o‘ymakorligi san’ati qadimiy bo‘lganligidan dalolat beradi.

Arablar istilosh oqibatida tasviriy san’atning ko‘p turlari qatori yog‘och haykalchalar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq islom dini bu san’atni tagtugi bilan yuqota olmadi. Yog‘och ta’mirlovchi usta naqqoshlar o‘z san’atini naqshda yog‘ochdan dov- daraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yashashda namoyish etdilar. Ustalarning san’ati otadan bolaga, avloddan- avlodga meros bo‘lib o‘taverdi.

IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda shuningdek mamlakatimizda madaniy meros yuksak darajada o‘sa boshladi. IX asrda Samarqand mustaqil bo‘lib qoldi Xalq madaniyatida, arxitektura rivojlanishidayangi burilishlar bo‘ldi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, shoirlar yitishib chiqa boshladi. Ular Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Beruniy, Al-Xorazmiy va boshqalar. Ajoyib arxitektura yodgorliklari yaratildi. Masalan Buxoradagi jahonga mashhur Ismoil Samoniy maqbarasidir. Madaniyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Yo‘och o‘ymakorligi bilan eshiklar, darvozalar, binolar ustinlar, ravoq va har xil xontaxtalar bezatildi.

XI-XII asrlarda xalq amaliy san’ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni girih naqshi bezakda yetakchi o‘rinni egalladi. Arxitektura, uy- ro‘zg‘or buyumlari ya’nada badiiy nafis qilib bezatildi. Girih naqshi yanada rivojlandi. Masalan, XII asrga oid yog‘och o‘ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi-Zinda devorining orasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIV-asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda Buyuk Sohibqiron Amir Timur davri boshlandi. Amir Temur va temuriylar saltanatida san’at va madaniyat gurkirab rivojlandi. Shu jumladan amaliy san’at ham juda tez suratlar bilan rivojlanishida, yig‘och o‘ymakorligi ham o‘zining yuqori chuqqilariga ko‘tarildi. Buyuk sarkarda Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyodagi o‘z poytaxti Samarqandda arxitektura va qurilish obodonchiligi bilan bir qatorda hatto Xuroson (Avg‘oniston), Eron, Mavarounnahr singari o‘zga o‘lkalarda ham eng mashhur hunarmand ustalar bilan ulkan qurilishlarni barpo etdi.

XIV-XV asrlarda Samarqanda hunarmand ustalar muhandislar, jome masjidlar, madrasalar, xanaqalar, saroylar hamda ulkan inshoatlar qurilishida faol qatnashganlar. Ular hozirgi kunda biz ko‘rib, kuzimiz va dilimiz quvanayotgan go‘zal va nafis tarixiy – madaniy obidalar, bunyod etishda o‘zlarining butun bilimi, hunari san’ati va mahoratini sarf etganlar. Bu jarayon O‘zbekistonda turizm rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

XIV-XV asarlarda yog‘och o‘ymakorligi tez qo‘llashda rivojlanadi. Xattoki tirik mavjudodlar o‘yib tasvirlanganini ko‘rish mumkin. Samarqanddagi Ruhobod maqbarasining eshigida o‘yma naqshi bajarilgan bo‘lib, baliqning sitillashtirilgan tasviri namoyon etilgan. Temuriylar sulolasi inqirozga uchragandan (XVI-XVIII asrlarda) keyin o‘zaro ichki urushlar madaniyatimiz shu qatori xalq va amaliy san’atning rivojlantirishga salbiy tasir o‘tkazdi.

XVIII asr oxiri XIX boshlarida Buxoro, Xiva ,Qo‘qon xonliklarida yutuk adabiyot namoyondalari qatori xalq amaliy san’ati shiu jumladan yog‘och o‘ymakorligi ham gurkirab rivojlandi. Har bir shaharning o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Xudayraxon Saroyi, Quvadagi Zaynuiddin boyning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmad Xo‘ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohihossa va boshqalarda ajoyib yog‘och o‘ymakorligi namunalari yaratildi. U esa o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi san’atining bebaho asarlaridir. Yuqorida ta’kidlab chiqilgan asarlar o‘sha davr interyerlarida yog‘och materiallaridan juda ustalik bilan foydalanishdan dalolat beradi.

O‘zbek xalqining eng ko‘zga ko‘ringan ustalaridan Olimjon Qosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xo‘jayev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o‘ziga xos yog‘och o‘ymako‘rligi maktablarini yaratib ajoyib shogirdlar yetishtirdilar. Yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos turli uslub va usullari bor, masalan, Xiva yog‘och o‘ymakorligi o‘ymasining monumentalligi yog‘och tabbiy ranglarining saqlab qolishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Buxora yog‘och o‘ymakorligi esa o‘yma

naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarini oltin, kumush suvi bilan bezatilishi naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajarilib turadi. Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorligi chuqur zaminli yassi o‘ymani qo‘llab kelgan. Qo‘qon o‘ymakorligi esa kalta bo‘rtmali yassi o‘yma ishlatganlar. Toshkentda esa naqshi bilan qoplangan yassi bo‘rtmali zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan.

Yog‘och o‘ymakorligi maktablari taxminan 40-50-yillardan keyin paydo bo‘lgan. Mamlakatimizda Qo‘qon, Xiva, Samarqand, Toshkent maktablari mavjud. Shulardan Toshkent yog‘och o‘ymakorligi diqqatga sazovar bo‘lib, bu maktabga mansub ustalar op’yma naqshlarni bir ikki qavat qilib o‘yadilar, keying vaqtlarda esa uch qavatli o‘ymalar bajarishga o‘tmoqdalar. Kompozitsiya jihatdan o‘rtaga chuqurlikda o‘yib, o‘simliksimon, geometrik gulli girix, xattoki ramziy naqshlar bajaradilar. Pardozning hamma turlarini qo‘llaydilar. Ular ko‘pgina yong‘oq, chinor, buk yog‘ochlarni ishlatadilar. Toshkent ustalari relef yuzasiga ozgina rang berib, relefning o‘zi loklanadi. Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi namoyondalaridan biri Sulaymon Xo‘jayev, u faqat pargori naqshlarni ishlaganlar. Uning shogirdi Maqsud Qosimov birinchi bo‘lib pargori naqshini tekis yuzasi islimiy naqsh o‘ymaga kiritgan. Sulaymon Xo‘jayev 1866-yili Toshkentdagi naqsh soluvchilar va duradgorlar yashaydigan Suzuk ota mahallasidagi durodgor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi nazrullo Xo‘ja panjara duradgorlikni ota-bobosidan meros qilib olgan edi. Sulaymon yoshligidanoq yog‘och o‘ymakorligiga qiziqar, nozik san’at sirlarini o‘rganishga harakat qilar edi. U din’iy maktabda o‘qib yurgan kezlarda otasiga yordam berardi. Keyionchalik u 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida ishlaydi. U 1891-yilda, o‘sh davrda yog‘och o‘ymakorligi pargori ustalaridan biri Toshpo‘lat Ayubxo‘jayevga shogird tushib, yog‘och o‘ymakorliging sir-asrorlarini o‘rgandi.

Usta Sulaymon Xo‘jayev o‘z hunari sir-asrorlarini kelajak avlodlarga o‘rgatishga mehnatini ayamadi. Usta shogirdlari bilan ramka qutichalar, stollar, kitob javonlar, shkaf va boshqa yog‘och materiallardan yasaladigan barcha narsalarni bejirim qilib yasadilar. Ko‘pincha u yong‘oq va chinor yog‘ochlaridan foydalanar edilar. Chunki, bu yog‘ochlar qattiq va pardoz berganda ajoyib yaltirab ko‘rinish berar edi. Yuza o‘yimida yorug‘lik kontrastiktik rol o‘ynaydi. Ustaning sevimli usuli bo‘lgan pargori naqsh kopmzitsiyasi ancha murakkab bo‘lib, ustani ko‘p mehnat hamda sabr-toqatini talab qilar edi. Usta kerakli yuzaga qog‘oz qo‘yib ustidan qalam, sirkul(pargor), chizg‘ich yordamida naqsh kompazitsioya chizar va shu chiziq bo‘yicha o‘yar edi. U naqshni o‘yishda o‘yma qalamidan foydalanar edi. Ustada 30-35ta yog‘och o‘ymakorligining asosiy asbobi bo‘lib, ular kichik yoki yirik naqshlarga qarab har xil o‘lchamda bo‘ladi.

Usta Sulaymon Xo‘jayev o‘zbek xalq bezak san’atining juda ko‘p ko‘rgazmalarida qatnashdi. 1923-yilda Rossiya qishloq xo‘jaligi xunarmandchiligida, 1927-yilda esa Sobiq Sovetlar Ittifoqi san’at ko‘rgazmasida I-darajali diplom bilan taqdirlandi. 1930-yili O‘zbekiston Respublikasining 5 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazmaga qatnashdi. 1937-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan san’at va texnika ko‘rgazmasida qatnashib yuksak baholar oldi. Sulaymon Xo‘jayev shogirdlaridan Muhhamadvali Asqarov (1904-49), Maqsud Qosimov pargori naqshini ijodiy rivojlantirdilar hamda o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorlari maktablarini yaratdilar. O‘zbekiston xalq ustalari ichidan Usta Sulaymon

Xo‘jayevga (1932-yil) “Sotsialistik mehnat qahramoni” unvoni berildi. U 1947-yili 81 yoshida pargor naqsh ustasi sifatida vafot edi. Uning yuzlab yaratgan asarlari Moskvadagi Sharq muzeyida, O‘zbekistonning Taviriy san’at muzeyida va Xalq amaliy san’ati muzeyida saqlanmoqda va bu kabi mashhur ustalarning yuzlab, hattoki minglab davomchilari hozirgi davirgacha xalq uchun xizmat qilib kelmoqdalar.

O‘zbek xalqi o‘zining qadimiy va boy ma’daniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxetektura yodgorliklari xalq amaliy san’ati namunalari, yog‘och o‘ymakorligi san’ati, o‘zbek xalqining ma’daniyati naqadar yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu uymakorlik san’ati, qoyatoshlarga, yog‘och, suyak, qora loy, ganch va boshqalarga jon ato etilgan hayot qo‘shig‘idir. Hayot qo‘shig‘i esa zamonlar osha barilla mangu yangrayveradi.

Adabiyotlar

1. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati.-T:.Mehnat,1991.

2. Qulnazarov B. Chizma geometriya, Toshkent; “O’zbekiston”-2006. y

3. Kulnazarova Z.B. (2021). Samarqand shahri arxitekturasining istiqboldagi rivojlanish yo‘llari. Monografiya. – Samarqand: SamDAQI,

4. Odilovich, R. Z., & Baxromovna, K. Z. (2021). The importance of hotel building architecture for the development of tourism in Uzbekistan. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(04), 118-121.

5. Kulnazarov B. Memorchilik va qurilish muammolari,2022y,N2(1-qism).

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ҚАДИМИЙ ШАҲАР МАРКАЗЛАРИ

Шарипов Баҳодир Холбоевич
Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети Бино ва иншоотлар қурилиши кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ўзбекистоннинг қадимий шаҳарсозлигида шаҳар марказлари, йўллар, сув иншоотлари, шаҳар деворлари, шаҳар дарвозалари ҳамда уларнинг ҳозирги давр шаҳарсозлигидаги аҳамияти. Ўрта Осиёнинг халқларининг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида қадимдан шаҳарларнинг барпо этилиши муҳим ўрин тутганлиги.

Калит сўзлар: жамият, девор, ижтимоий, дарвоза, шаҳар, кунгура, пахса, саржин, лой, қўрғон.

Шаҳарлар бир неча минг йиллар давомида шаклланган ва ривожланган давлатчилик анъаналари ва маҳаллий аҳоли турмуш тарзини акс эттирувчи мезонлардан биридир. Кишилик жамиятида аҳолининг жойлашуви ва сони, ижтимоий-иқтисодий ҳаётининг даражаси турлича бўлган, маданий тараққиётнинг айрим жиҳатлари билан бир-биридан фарқланувчи кўплаб катта ва кичик шаҳарлар азалдан мавжуд эди. Шу билан бирга шаҳарларни тавсифлашда эътиборга лойиқ умумий ҳолатлар ҳам бўлган. Бу ҳолатларни айниқса шаҳарларнинг ҳозирда сақланиб қолган қисмларида ва ёзма манбалардан тасаввур қилиш мумкин. Бу шаҳарларнинг деворлар билан ўраб олиниши, уларнинг ташқи кўринишини белгилайдиган ҳолатлардир.

Одатда шаҳар деворлари аҳолини турли ташқи хавф-хатарлардан ҳимоя қилиш, шаҳардаги ижтимоий-иқтисодий ҳаётни осуда бошқариш ва бир маромда сақлаб туришда аҳамият касб этган.

Масалан XVI- аср муаллифи Зайниддин Восифийнинг Самарқанд девори ҳақидаги қуйидаги битикларини келтирамиз: “Карвон Самарқанд шаҳар дарвозасига етгач, шундай бир шаҳарни кўрдиларки, ғоят мустаҳкам ва маҳкам. Деворнинг баландлиги шу қадар эдики, агар фалак ҳўкизи унинг тепасидан ўтганда кунгурасининг кезки қорнини йиртган бўларди”.

Кўпгина шаҳарларнинг деворлари атрофидан хандақлар билан ўралган бўлиб, улар сув билан тўлдирилган ва ўзига хос ишончли ҳимоя воситаси вазифасини ўтаган.

Шаҳар деворлари одатда пахса деворлар билан ўралган. Баъзи ўринларда ғиштдан ҳам фойдаланилган.

Буни 1697 йил Ўрта Осиёга ташриф буюрган рус кишиси Федор Скаби ўзининг қуйидаги сўзларида Бухоро ҳақида ёзар экан, у; “Бухоро шаҳри ҳам қурилиши ва баландлиги билан Туркистондек” деб қайд этган. Туркистон ва бошқа шаҳарлар тупроқ билан ўралган, улар устига хом ғиштдан девор ўрнатишгани, деворнинг тупроқ билан биргаликдаги баландлиги 3,5 саржин, қалинлиги эса 1,5 саржиндан ортиқ ёки қалинлигини қайд этган. Баъзи шаҳарлар атрофи ғиштсиз лойдевор билан ўралганини кўрсатиб ўтади.

Бухоро хонлиги тасарруфидаги шаҳарлардан бири Термиз эди. Шаҳар деворини XVI- аср муаррихи Ҳофиз Таниш Бухорий: ”жуда қудратли”, деб таърифласа, XVII- аср муаллифи Маҳмуд ибн Вали эса “Шаҳар мустаҳкам девор билан ўралган”,[4] деб қайд этган. Бухоро хонлигининг бошқа кўпгина катта ва кичик шаҳарлари ҳам лой деворлар билан ўралган эди. Худди шунингдек XIX- аср ўрталарида Бухорода асирликда бўлиб қайтган Корнило Суворовнинг таъсуротларида келтирилишича “Каттақўрғон, Зиёвуддин, Кармана, Янгиқўрғон, Керки, Қарши, Жиззах ҳам “лой билан ўралган” эди”.[5]

Бу маълумот ўша даврда яшаган бошқа муаллифларнинг фикрларини ҳам тасдиқлайди.

Шаҳарларни девор билан ўраб олиш анъанаси Ўрта Осиёнинг бошқа хонлиги Хивада ҳам мавжуд эди. XVI- асрда бу юртга ташриф буюрган “Москва савдо компанияси”нинг вакили инглиз Антоний Женкинсон унинг йирик шаҳарларидан бири Урганч ҳақида ёзар экан, “Шаҳар текисликда жойлашган ва узунлиги 4 мил атрофидаги лой деворлар билан ўралган”лигини қайд этади.

Хива шаҳрида XVIII- асрда бўлган рус геодезисти И.Муравин “Хиваликлар ҳукмронлиги остида лойдан қурилган саккизта шаҳар бор, деворларининг баландлиги беш - олти саржин, атрофида каналлар (ҳандақлар) қазилган, – деб қайд этган эди. Бу маълумотни XIX- аср 20- йилларига оид маълумотлар ҳам тасдиқлайди. Уларга кўра, Хива хонлигининг шаҳарлари –Ҳазорасп, Хонқа, Гурлан, Хўжайли шаҳарлари ҳам лой деворлар билан ўралган.

Шаҳарларнинг ривожланиб бориши натижасида уларнинг деворлари янгиланиб борган. Хусусан, Бухоронинг чегара шаҳарларидан бири ҳисобланган Керки ҳақида XVII- муаллифи Маҳмуд ибн Вали ”Ҳозирда шаҳар девори бузилиб кетган” -деб ёзади.

Бу ўринда XIX- аср муаллифи А. Вамберининг ушбу шаҳар учта девор билан ўралгани ҳақидаги маълумоти диққатга сазовордир. Демак Бухоро хонлигида шаҳар чегараларини яхшироқ ҳимоялашга эътибор қаратилганлигини ва шаҳар ҳудудининг даврлар оша кенгайиб борайверганини кузатиш мумкин.

Шу ўринда қайд этиб ўтиш лозим-ки, шаҳар деворлари доимий таъмирланиб турилган. Бу ишга аҳолининг кенг қатлами жалб этилган. Шаҳар деворларини тузатишда иштирок этишни назарда тутган “Шаҳар мажбурияти” ҳам бор эди.

Тошкентда шаҳар деворларининг турли қисмлари шаҳарнинг тўрт даҳаси аҳлига тақсимланган бўлиб улар деворни доим таъмирлаб турганлар.

“Шаҳарлар атрофларидаги қўрғон деворлар шаҳарларни мудофаа қилиш ва шартли равишда маъмурий чизиқ вазифасини ўтаган. Шартлилик шундан иборатки, юқорида айтиб ўтилганидек кўпгина шаҳарлар қўрғон деворидан ташқаридаги теварак билан функционал жиҳатдан чамбарчас боғлиқ бўлган. Қўрғон деворлари кўпроқ пахса ва хом гиштдан қурилган бўлиб, қалинлиги тепага қараб ингичкалашиб борган. Одатда деворларнинг тепа сатҳи шундай бўлганки, унинг устида навкар, хатто баъзан икки отлиқ ёнма – ён юра олган. Деворнинг ташқи томонида кунгуралари бўлган. Кунгуралар биринчидан, шаҳарнинг қамал вақтларида ҳимоячиларни душман уқидан тўсиб туриш вазифасини ўтаса (функцияси), иккинчидан, унинг кўринишида ритм ҳосил қилиб тарзини жойлантириб турган (эстетикаси). Девор сиртидан ташқарига чиққан буржлар ҳам функционал – девор тагига келиб қолган душманга ўқ узиш ҳам бадиий – меъморий – девор текислигининг пластикасини бойитиш вазифаларини ўтаган. Муҳаммад Солиқ Тошкандийнинг “Жадидаи тарихи Тошканд” асарида шаҳар деворининг бошқа унсури – *бару* тилга олинади.

Шаҳарда дарвозалар аҳолини ташқи дунё билан боғлаб турган. Улар шаҳар марказидан тарқалиб теваракдаги йўлларга айланиб кетадиган кўчаларнинг қўрғон девор билан кесишган жойларида қурилган. Одатда дарвозанинг икки ёнида буржлар бўлган.

Дарвозанинг ўзи эса икки табақали бўлган. У аксари равоқ шаклининг ичида жойлаштирилган. Дарвозалар кечаси ёйилиб, кундузлари очилган.

Дарвозабонларнинг хоналари кўпроқ кўчанинг икки томонида жойлашган.

Нисбатан яхши сақланган дарвозалардан бири Бухоронинг Шайх Жалол дарвозасидир. Унда дарвозабонларнинг хоналари бўлиб, таркибида айвон ҳам мавжуд. Хиванинг рабод деворида Қўш дарвоза номли дарвоза бўлиб, у одатдагилардан икки ёнма – ён ўрнатилган дарвозалари билан ажралади. Қўш дарвоза ўзининг оригиналлиги, кўркамлиги билан бошқалардан ҳам фарқланади.

Ошкора, диққат тортадиган дарвозалардан ташқари деворларда кўзга ташланмайдиган эшиклар ҳам бўлган. Тошкентда улар қопқа номи билан аталган. Шунга кўра Тошкентниниг 12 дарвозаси бўлишига қарамай, уни «32 қопқали» шаҳар дейишган.

Кўп ҳолларда шаҳар деворлари бўйлаб ташқи тарафдан сувга тўлдирилган зовур – *ҳандақ* ҳам бўлган. Хандақ ҳам девор каби шаҳарнинг муҳофазасини таъминловчи қўрғон меъморийсининг бир тармоғи сифатида қадимдан маълум. Масалан, Хоразмдаги антик даврга мансуб Жонбозқалъа, Тупроққалъа шаҳарларида ҳам ҳандақлар бўлган. Аниқроқ айтилса, ҳандақлар антик даврдан ҳам қадимийроқдир.

Турли шаҳарларнинг қалъалари таркибларида умумийлик мавжуд. Аксари уларда ноғорахона, жиловхона, харам, арзхона (расмий қабуллар учун), зарбхона (танга зарб этиш учун), масжид каби бинолар, сарбозларнинг. машқлари учун майдон бўлган. Бинолар функцияларига қараб рационал ҳолатларда, ҳажмий – жиҳатдан яхлит ҳолда ўзаро бириктирилган.

Ўрта Осиёдек иқлими иссиқ минтақада сувнинг аҳамияти беқиёсдир. Шаҳарнинг сув тармоғи бошида бир ёки икки бош ариқ туради: Бухорода – Шоҳруд, Самарқандда – Сиёб, Хивада – Полвон ёб, Марғилонда – Марғилонсой, Ўратепада – Каттасой, Тошкентда – Бўзсувнинг икки шохи – Калковуз ва Анҳор Хўжанд эса Сирдарёнинг ўзидан сув ичади. Дарё ва бош ариқлардан ён ариқлар ажралади. Улардан ҳам майдаланиб борган ариқ деярлик ҳар ҳовлигача етиб борган ва шаҳардан чиқиб кетган. Хар хонадон ўз ҳовлисига илож бўлмаганда қўшнининг ҳовлиси орқали ўтказишга хақли бўлган. Бу риоя қилиниши шарт бўлган одат обраҳа хақи номи билан маълум бўлган. Ариқларнинг йўналиши ернинг паст –баландлигига боғлиқ бўлган ва шаҳарнинг баъзи кисмларида кўча бўйлаб ўтган. Истеъмол учун сувни аҳоли аксар катта ва кичик ҳовуз ва ҳовузчалардан олган. Оқар сувдан ташқари булоқ ва қудуқдан ҳам фойдаланилган. Хиванинг Боғча дарвозаси олдидаги қудуқ, Тошкентда Чорсуда бўлган. Дуккоша булоғи маълум ва машҳурдир. Сув иншоотларининг яхши ҳолатда сақланишига алоҳида эътибор берилган.

Туркистон шаҳарининг кўркамлигини кўп жиҳатдан боғлар таъминлаган эди. Боғларга асосан мевали дарахтлар экилган. Улар кўпроқ шаҳар чеккаларида ва қўрғон девор ташқарисида барпо этилган. Юқорида зикр этилган мавзу ва боғотларнинг асосий қисмини боғлар, полизлар ташкил этган. Уларнинг орасида дала ҳовлилари (уйлар) жойлашар эди.

Шаҳарларнинг қиёфасини ундаги турли бинолар меъморлиги шакллантирган. Қурилмаларнинг энг кўп тарқалган тури турар уйлар (ҳовлилар) эди. Шахар марказида одатда уйлар зич, ҳовлилари тарроқ бўлиб, чеккасига келиб уйлар сийракроқ, ҳовлилари кенг бўлган. Дала ҳовлилари эса таркоқ, онда – сонда учраган.

Қадимги шаҳарларнинг тарҳларида кўчалар юзаки қараганда бир хилдек, бетартиб ва тасодифан, ўша ҳолатда пайдо бўлгандек туюлади. Аслида эса кўчаларнинг тизими шаҳарнинг жойлашувига, паст – баландликларига, ирригациясига ва тарихий шароитга қараб шаклланган. Уларда мантиқийлик, рационаллик, бадиийлик мавжуд.

Шаҳарларнинг тархий тизими аксари қуйидагича бўлган. Ўртада шаҳарнинг асосий маркази бўлмиш бозор жойлашган. Регистон ҳам шу ерда бўлган. Бош, биринчи даражали кўчалар марказдан радиал йўналишда тарқалган. Улар одатда шаҳарнинг қўрғон деворидаги дарвозалар мавжудлиги билан ажралади ва девор ортида бошқа

шаҳар ва қишлоқларга олиб борадиган йўлга айланиб кетади. Бош кўчалар бир мунча тўғрилиги ҳамда бироз кенглиги билан характерланади.

Бош кўчаларнинг ичида ҳам асосийларини ажратиш даркор. Улар карвон йўллари негизида ташкил топган, яхлит йўналишдаги бир ёки икки жуфт бош кўчалардан ҳосил бўлади. Бош кўчаларга иккинчи ва учинчи даражали кўчалар туташтирилган. Оралиқларида майда кўчалар ҳосил бўлган.

Кўп ҳолларда шаҳарнинг қўрғон деворлари ўрнида халқа йўл шаклланган. Унинг содир бўлиши шундай кечган; турли даврларга мансуб бўлган қўрғон деворлар бўйлаб йўл пайдо бўлади, девор йўқ бўлиб кетгач йўл кўчага айланади. Кўчаларнинг шакллари қўрғон деворларнинг шаклларига монанд равишда тўртбурчакка ва айланага яқин бўлади. Мавқеи жиҳатидан бундай кўчалар иккинчи даражалидирлар. Одатда улар бош кўчалар билан биргаликда шаҳарнинг радиал – ҳалқа схемасини ташкил қилган.

Шаҳарнинг асосий функционал (ва аксар холларда геометрик ҳам) маркази б о з о р эди. Унда нафақат турли савдо ёки ҳизмат (чархчилик, чегачилик каби) жараёнлари бажарилибгина қолмай, балки баъзи хунармандлар ўз маҳсулотларини ишлаб чиқарган. Масалан, темирчилар теша, болта кабиларни бозорда ҳам тайёрлаганлар, ҳам сотганлар. Бундай масканларда қурилмаларнинг асосий типи – дўконлар бўлган. Хунармандлик жойлари асосан раста, яъни муайян касб – хунарга тегишли қатор асосида ташкил бўлган. Пичоқчи, баққол, махсидўз каби хунармандлар ўз расталарига эга бўлишган. Расталар одатда оддий дўконлардан иборат эди. Шу билан бирга бозорда қурилмаларга хожат бўлмаган турли махсулот билан савдо қилиш учун очиқ масканлар – майдонлар тайин қилинган эди. Масалан, ун бозор, қўй бозорлар очиқ жойларда уюштирилган.

Йирик бозорларда асосий расталар жойлашган савдо кўчаларининг устилари ёпиладиган эди. Улар тим деб аталган. Бухоро, Тошкент, Марғилон, Шаҳрихонда шундай тимлар мавжуд бўлган.

Бозор хордиқ чиқарадиган жой вазифасини ҳам ўтаган. Маддоқ, масҳарабоз, полвон, дорбоз кабилар ўз санъатларини намойиш этишар эдилар. Бозор чойхоналарида хонандалар, созандалар, шоирлар тўпланишиб туришган, аскиябозлар ҳазил – мутойиба қилишган. Рамазон ойларида бозор кечалари ҳам давом этган. Бундай бозор бозори шаъб деб номланган.

Шаҳарларнинг ижтимоий – сиёсий мавқега эга майдонлари бўлган.

Улар Регистон номи билан маълум. Регистон майдонлари одатда бозор билан бирга (таркибида ёки ёнма – ён) бўлган. Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Қарши каби шаҳарлар бунга мисол бўлиши мумкин. Туркистонда Регистонларнинг меъморий жиҳатдан салобатлигиси Самарқандда бўлган."[13]

Тадқиқотчиларнинг фикрича XIX- асрнинг биринчи ярмидан бошлаб шаҳарни қўриқлаш соқчилар (полиция) назорати кучайтирилгани ҳамда ўқотар қуролларнинг такомиллашиб боргани сари шаҳар деворлари ўзининг ҳарбий аҳамиятини йўқота бошлаган.

Шаҳар деворлари Ўрта Осиёда давлатларнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлашга хизмат қилган. Шаҳар деворлари олдида кўп ҳолларда божхоналар жойлаштирилган.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 29 октябрь "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги ЎРҚ-576-сон қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йилнинг 19 март куни ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузасидан.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 9 декабрь. "Йўл хўжалиги тизимини чуқур ислоҳ қилиш чора тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5890 фармони
4. "Архитектуравий лойиҳалаш асослари" Муаллифлар жамоаси: А.С.Ўралов, Х.Ш.Пўлатов, М. Мирюсупова, М. Зойирова, О. Салимов, Ш. Нурмуҳаммедова, Б. Саидова, А. Шарипов, Д. Носирова, А. Ризаева, М. Розиқбердиев, А. Толипов. Масъул муҳаррир : Х.Ш.Пўлатов. Тошкент – 2007 й.
5. "Композиция асослари" Муаллифлар жамоаси: Д. А. Нозилов, И. В. Дмитриева, Н. Х. Хаджибаева. Тошкент "Янги аср авлоди" 2009 й.
6. ЭБ Эшқуватов, БХ Шарипов "Аэродромларни лойиҳалаш, қуриш ва эксплуатация қилиш" "Innovatsiya-Ziyo" 1, 432 бет. 2023.
7. Шарипов Б.Х. (2020). Из истории древнего градостроительства и архитектуры средней азии. Экономика и социум, (10 (77)), 915-919. https://cyberleninka.ru/article/n/iz-istorii-drevnego-gradostroitelstva-i-arhitektury-sredney-azii. https://elibrary.ru/item.asp?id=44467836
8. Shavkat Suyunovich Turaev WAYS TO INCREASE THERMAL CHARACTERISTICS IN BUILDING CONSTRUCTION Modern Scientific Research International Scientific Journal https://academicsresearch.ru/index.php/MSRISJ/article/view/3538

HINDISTON ARXITEKTURA YODGORLIKLARI TAHLILI

Qosimov Ilxom Maribovich
arxitektura f.b.f.d. (PhD), (Namangan muxandislik qurilish instituti)

Annotatsiya: Maqolada Hindiston yodgorliklari arxitekturasi qurilishi, vazifalari, uslublari, yog'och va tosh o'ymakorligi yo'nalishlari taxlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: arxitektura, me'moriy, shakl, me'mor, tosh, monas, ibodatxona, Qizil qal'a, Agra, Dehli, Lotus, ibodatxona, Akshardham.

Аннотация: В статье рассматриваются архитектурное построение, функции, стили, направления резьбы по дереву и камню индийских памятников.

Ключевые слова: архитектура, архитектурный, форма, архитектор, камень, монастырь, храм, Красный Форт, Агра, Дели, Лотос, храм, Акшардхам.

Abstract: The article examines the architectural construction, functions, styles, directions of wood and stone carving of Indian monuments.

Keywords: architecture, architectural, form, architect, stone, monastery, temple, Red Fort, Agra, Delhi, Lotus, temple, Akshardham.

Kirish. Hindiston sayyoramizdagi eng qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biridir. Qadimgi va O‘rta asrlar Hindistonining arxitekturasi yorqin va chuqur o‘ziga xos hodisadir. Hind binolarining me'moriy shakllari bu mamlakatning yam-yashil tabiatini innovatsion mahalliy g‘oyalarni va hind dunyoqarashini aks ettiradi.

Hindiston me'morchiligining asosiy yo‘nalishi diniy me'morchilik edi. Hindistondagi eng qadimgi binolar yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Ammo keyinchalik, tez-tez sodir bo‘lganidek, ularning shakllari toshda takrorlandi. Asosiy urg‘u, qoida tariqasida, ma'badning tashqi ko‘rinishiga qaratildi. Ammo bir qator me’moriy yodgorliklarda binoning rivojlangan, boy bezatilgan interyeri bo‘lsada, lekin uning me’moriy shakllari tashqi ko‘rinishda aniqlanmagan bo‘lsa, mutlaqo teskari holatni ham ko‘rish mumkin. Bu tosh monastirlar va ibodatxonalarga (Karli va Ajanta g‘or ibodatxonalari) tegishli.

Hind me'morchiligi tabiat bilan chambarchas bog‘langan, o‘zining organik tabiatiga ega. Yana bir muhim xususiyat - me'moriy shakllarning haykaltaroshligi va ularning plastikligining kuchayishi. Haykaltaroshlik va arxitektura hind binolarida ajralmas bir butunga birlashadi. Bundan tashqari, ansamblda haykaltaroshlik ustunlik qiladi. Binoni uzluksiz gilam bilan saxiylik bilan qoplagan holda, u o‘z shakllarini yashiradi va o‘rab oladi va strukturaning tafsilotlarini tekislaydi. Bunday ibodatxonalar dizayni Hindistondagi eng qadimgi va eng keng tarqalgan din bo‘lgan hinduizm g‘oyalarini aks ettiradi. Bir muncha vaqt hinduizm Hindistonda paydo bo‘lgan buddizmni siqib chiqardi. VI asr Buddist ibodatxonalari, hind ibodatxonalaridan farqli o‘laroq, me'moriy shakllarning jiddiyligi va ravshanligi bilan ajralib turardi, go‘yo barcha keraksiz va behuda narsalardan tozalangan.

Bunday me'morchilik nirvananing mukammal va yorqin dunyosi haqidagi g‘oyalarni o‘zida mujassam etgandek edi. Biroq, 10-asrga kelib. eski butparastlik e'tiqodlari va urf-odatlariga qaytish bor, ular nihoyatda qat'iyatli bo‘lib chiqdi. Biroq, buddizm saqlanib qoldi va shunga ko‘ra, buddist binolar qurilgan. Keyinchalik Hindistonning bir qator hududlari musulmon madaniyati bilan tanishtirildi. Agra yaqinidagi Toj Mahal maqbarasi yangi turdagi arxitektura durdonasiga aylandi. Uning arxitekturasi an'anaviy hind arxitekturasidan mutlaqo farq qiladi.

Asosiy qism. Agradagi Qizil qal'a. Hindiston. 1565 yilda Akbar tomonidan qurilgan Agra qal'asi uch tomondan xandaq bilan o‘ralgan va to‘rtinchi tomondan daryo bilan himoyalangan qal'a sifatida yaratilgan. Qal’ani uning nabirasi Shoh Jahon qurgan. Qurilish jarayonida marmar elementlari bo‘lgan qizil qumtoshni afzal ko‘rgan Akbardan farqli o‘laroq, Jahon o‘zining sevimli materiali – oq marmardan foydalangan. Keyinchalik Shoh Jahon Agra qal'asini saroyga aylantirdi.






Dehlidagi Qutub Minor. Balandligi 73 m bo‘lgan g‘ishtli minora Qutub minorasi o‘rta asr hind-islom me’morchiligining noyob yodgorligi hisoblanadi. Qutb minori qizil qumtosh va marmardan qurilgan. Qutub minorining diametri tagida 14,32 m, tepasida esa 2,75 m. Qutub minorining balandligi 73 m. balandlikda. Qutub minori 379 zinapoyadan iborat. Qutub minori azon aytish uchun muazzin uchun qurilgan.

Lotus ibodatxonasi. Nyu-Dehli hududida qurilgan Lotus ibodatxonasi nafaqat Hindiston, balki butun Osiyodagi eng yorqin zamonaviy arxitektura diqqatga sazovor joylaridan biridir. Uning qurilishi 1986 yilda yakunlanganiga qaramay, Lotus ibodatxonasi butun

dunyodan kelgan sayyohlar orasida juda mashhurdir. Hozirgi kunda Ibodat xona Hindistonning eng ko'p turislar oqimini o'ziga yo'naltirgan maskan hisoblanadi.



Svaminarayan Akshardham hindu ibodatxonasi va Hindistonning Dehli shahridagi ruhiy-madaniy kampusdir. Ma'bad Noida chegarasiga yaqin joylashgan. Akshardham ibodatxonasi yoki Akshardham Dehli deb ham ataladigan majmua ming yillik an'anaviy va zamonaviy hind madaniyati, ma'naviyati va me'morchiligini namoyish etadi. Yogiji Maxaraj tomonidan ilhomlantirilgan va Pramukh Swami Maxaraj tomonidan yaratilgan, u BAPS tomonidan qurilgan. Bu AQShdagi Nyu-Jersi shtatidagi Akshardhamdan keyin dunyodagi ikkinchi eng katta BAPS hindu ibodatxonasidir.




Ma'bad rasman 2005 yil 6 noyabrda Pramux Svami Maxaraj tomonidan APJ Abdul Kalam, Manmohan Singx, LK Advani va BL Joshi ishtirokida ochildi. Majmua markazidagi ibodatxona Vastu shastra va Pancharatra shastrasiga muvofiq qurilgan.

Svaminarayan Akshardhamda, Gujaratning Gandhinagar shahridagi o'zidan oldingi Svaminarayan Akshardhamga o'xshab, asosiy ziyoratgoh diqqat markazida bo'lib, butun majmuaning markaziy mavqeini saqlab turadi. Svaminarayan hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi turli ko'rgazma zallari mavjud. Majmua dizaynerlari turli ko'rgazma zallarini yaratish uchun zamonaviy aloqa va texnologiya usullarini o'zlashtirgan. Kompleksda abhishek mandap, Sahaj Anand suv shousi, tematik bog' va uchta ko'rgazma, jumladan Sahajanand Darshan (Qadriyatlar zali), Neelkanth Darshan (Svaminarayanning o'smir hayoti sifatidagi erta hayoti haqida IMAX filmi, Nilkanth) va Sanskruti mavjud.

Svaminarayan Akshardham majmuasining asosiy diqqatga sazovor joyi - Akshardham Mandir. U 141 fut (43 m) balandlikda ko'tariladi, kengligi 316 fut (96 m) va uzunligi 356 fut (109 m) ga cho'ziladi. Unda flora, fauna, raqqosalar, musiqachilar va xudolar tasvirlangan.

Biroq, hind ibodatxonalari ham minoraga o'xshash shakllarga ega edi. Bu ham muqaddas afsonaviy Meru tog'ining tasviri, ham koinotning uyg'un, aqlli tuzilishining tasviridir. Hindu ibodatxonalarining me'moriy shakllari g'ayrioddiy plastik, deyarli haykaltaroshdir. Ular haykaltaroshlik va arxitektura bezaklari bilan zich qoplangan bo'lib, ular bilan ajralmas bir butunlikni tashkil qiladi (ibodatxonalar haqiqatan ham monolit bo'lishi mumkin, lekin ular alohida toshlardan ham qurilishi mumkin). Hind ibodatxonalari o'zining behuda saxiy dekoratsiyasi va plastik mustahkam silueti bilan tomoshabinga ta'sir qiladi. Hind haykaltaroshligi qahramonlari singari, ma'bad ham kuchli, plastik tanaga ega. Ammo, me'morchilikning umumiy qonunlari talab qilganidek, ma'bad shakllari mantiqiy, tartibli printsipga bo'ysunadi, unga ko'ra haykaltaroshlik dekorasining o'zi tashkil etiladi. G'arbdan islom ta'sirining kelishi bilan hind me'morchiligi yangi diniy an'analarga moslashdi. Fatehpur Sikri, Toj Mahal, Gol Gumbaz, Qizil qal'a bu davrga xos me'moriy inshootlardir. Britaniya mustamlakachiligi davrida Hindistonda hind-saratsenik va neogotik kabi me'moriy uslublar paydo bo'ldi.

Hindiston darvozasi Mumbayning gavjum Kolaba hududidagi Apollon Bunderda, o'zining ajoyib arklari bilan Hindiston darvozasi Arab dengiziga qarab qo'riqlanadi. Eng mashhur turistik diqqatga sazovor joy, bu Mumbay shahrining norasmiy belgisi bo'lib, uning Bombey kabi boy mustamlakachilik tarixini eslatib turadi. Dengiz orqali shaharga kiruvchi mehmonlarni kutib oladigan birinchi inshoot xalq orasida "Mumbay Toj Mahali" deb ataladi. U Chhatrapati Shivaji Margning oxirida, suv qirg'og'ida joylashgan. Sayyohlar va mahalliy aholi tomonidan tashrif buyuriladigan darvoza va uning sayr qilish joyi qayiq bilan qoplangan dengizning ajoyib manzarasini taqdim etadi va mashhur Elephanta g'orlariga qayiqda sayohat qilish va qaytish uchun bog'lanish nuqtasidir. Ilgari Elephanta g'orlarida o'tkazilgan "Elephanta musiqa va raqs festivali" endi har yili mart oyida Gateway oldida o'tkaziladi. Bu ko'pincha 1914-21 yillarda Birinchi jahon urushida halok bo'lgan Hindiston armiyasining 82 000 askarlari xotirasiga qurilgan Dehlidagi Hindiston darvozasi bilan chalkashib ketadi.



Dizayn, arxitektura va tuzilma Hindiston Gateway shotland arxitektori Jorj Vittet tomonidan ishlab chiqilgan va qurilish ishlari Hindistondagi yagona qurilish kompaniyasi bo‘lgan Gammon India Limited tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, o‘sha paytda qurilish muhandisligining barcha sohalarida ISO 9001: 1994 akkreditatsiyadan o‘tgan sertifikatiga ega. Qurilish poydevori temir-beton bilan o‘ralgan sariq bazalt toshlari bilan qurilgan. Tosh mahalliy manbalardan olingan. Teshilgan ekranlar Gvaliordan keltirildi. Struktura o‘ziga olib boradigan yo‘lga burchakni kesib, Apollon Bunderning uchidan Mumbay bandargohiga qaragan.

To‘rtburchaklar strukturasi uchta bo‘limdan iborat. Strukturaning markaziy kamarlari 85 fut balandlikda. Markaziy blokda diametri 48 fut va balandligi 83 fut bo‘lgan gumbaz joylashgan. Arkning har ikki tomonida murakkab o‘yilgan tosh parda bilan qoplangan va har biri 600 kishini sig‘dira oladigan arkli katta zallar mavjud. Markaziy gumbaz 4 ta minora bilan birlashtirilgan va Hindiston darvozasining butun tuzilishining eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlari bo‘lgan murakkab panjara bilan bezatilgan. Darvozaning orqasidan qadamlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Arab dengiziga olib boradi. Ark baliq ovlash qayiqlari va hashamatli yaxtalar bilan bezatilgan Arab dengizining ta'sirchan ko‘rinishini yaratadi. Tun tushgandan keyin inshoot yoritilgan bo‘lib, u qo‘shni Toj Mahal saroyi mehmonxonasi va minorasi bilan birgalikda hayratlanarli manzarani taqdim etadi.

1961 yil 26 yanvarda Chhatrapati Shivaji haykali Maratha g‘ururi va shon-shuhratining ramzi sifatida darvoza qarshisida ochildi. Svami Vivekanandaning yana bir haykali uning Mumbaydan Chikagoga Jahon Dinlari Parlamentiga qilgan sayohatini nishonlash uchun yaqin joyda joylashgan.

1913 yil 31 martda Qurilish boshlanib 1924 yil 4 dekabrda qurilishi tugatilgan, 1911 yilda qirol Jorj Vand qirolicha Meri Mumbayga (ilgari Bombay) qirollik tashrifini xotirlash uchun qurilgan, imoratning markaziy gumbazning diametri 48 fut va balandligi 83 fut, Sariq Kharodi bazalt va temir-betondan qurilgan, Arxitektor Jorj Vittet musulmon ta'siri bilan hind-saratsenik arxitektura uslubida loyihalagan.

Hindiston darvozasi - Nyu-Dehli, Hindiston darvozasini loyihalashtirgan ser Edvin Lutyens urush yodgorligining etakchi me'mori va IWGC a'zosi edi. U uni har qanday diniy uyushma yoki madaniy bezaklardan xoli dunyoviy yodgorlik sifatida qurdi. Bundan tashqari, Lutyens yodgorlikning klassik bo‘lishini xohlardi, shuning uchun o‘tkir arklar kabi har qanday Osiyo naqshlarini o‘z ichiga olishdan bosh tortdi.



Hindiston darvozasining me'moriy uslubi zafarli arkga o‘xshaydi Mumbaydagi Hindiston darvozasi va Konstantin arkasi bilan taqqoslanadi.

Olti burchakli majmuaning o‘rtasida joylashgan bu inshoot balandligi 42 metr va kengligi 9,1 metrni tashkil qiladi. Butun struktura to‘g‘ridan-to‘g‘ri Bharatpurdan olib kelingan sariq va qizil qumtosh yordamida qilingan.

1936 yilda Hindistonning sobiq imperatori qirol Jorj V ga hurmat sifatida qurilgan soyabon bor. Ilgari Jorj V ning marmar haykali bo‘lgan, ammo u yerdan olib tashlangan. Hindiston mustaqillikka erishgandan keyin ba'zi siyosiy partiyalarning qarshiliklariga. Ayni paytda haykal Dehlidagi Coronation Parkda joylashgan.



Hindiston darvozasi, shuningdek, tepasida senotaf bo‘lgan marmar poydevordan iborat Amar Jawan Jyoti nomli kichik inshootga ega. Kenotafning to‘rt tomonida oltin harflar bilan "Amar Javan" so‘zlari yozilgan, shuningdek, uning ustiga askar dubulg‘asi bilan yopilgan teskari miltiq bor. Yodgorlik devorlariga 13300 askarning ismlari o‘yib yozilgan.

Agra shahrida joylashgan Toj Mahal maqbarasi butun dunyodagi eng mashhur diqqatga sazovor joylardan biridir. Inshoot Shoh Jahon tomonidan tug‘ruq vaqtida vafot etgan rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga qurilgan. Bu mo‘jizaning qurilishi yillar davom etdi (1632-yilda boshlanib, 1653-yilda tugadi), minglab hunarmandlar va hunarmandlar jalb qilindi, Ustoz Ahmad Lakhauriy boshchiligidagi butun me’morlar kengashi ishladi. 1648 yilga kelib, asosiy maqbara qurib bitkazildi, ammo qo‘shni binolar va bog‘ faqat besh yildan keyin qurib bitkazildi. Toj Mahal fors, islom va hind me’morchiligi elementlarini o‘zida mujassam etgan islom uslubining ajoyib namunasidir.



Xulosa: Hindiston arxitektura yodgorliglari 10.12.2023 yil 10 dekabrdan-30 dekabrgacha Hindistonga bo‘lgan rasmiy tashrif asosida o‘rganildi. Hindistondagi eng qadimgi binolar yog‘ochdan qurilganligi bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib qolmaganligi, ammo keyinchalik, tez-tez sodir bo‘lganidek, ularning shakllari toshda takrorlanganligini o‘z isbotini topdi. Arxitektura yodgorliklarini o‘rganilganda qadimdan arxitektura rivojlanganini toshga o‘yib ishlash san’ati mukammal ravishda rivojlanganini guvoxi bo‘linda.



Conclution. The 21st century is considered the century of nanotechnology, and as in all other fields, great achievements are being made in the field of architecture. It is shown that these products bring high results not only in modern memorial styles, but also in the repair and restoration of historical memorial objects, residential buildings, public buildings, especially dense memorial complexes. Based on the results of the research, the conclusion is that in the architecture of Uzbekistan, in particular, the preservation of cultural heritage objects and their life extension is one of the most urgent issues, as well as considering the fact that the Ichankala memorial monument, which is considered our material wealth, is mainly composed of baked bricks, tiles, decorations and wooden structures. and in the future, it was shown that the use of nanoproducts in the repair processes will play an important role in increasing the service life of our memorial monuments and delivering them to the next generation, and it was determined that the use of special types of nanoproducts as a solution to these problems is considered the main factor in preserving the unique monuments of memory.

References

1. Muqimov K. "What are dwarf creators or nanotechnologies? 2017

2.С.С. Касымова, А.С. Куртаев, А.А. Тўлаганов “Нанотехнологии в строителстве и архитектуре XXI века” 2017 г.

3. K.J. Rakhimov. "Modern directions of park planning" 2017.

4. M.O. Kasimov. "Physico-chemical foundations of nanotechnology" T. 2009.

5. S.S. Kasimova, A. A. Tulanov, A. S. Kurtayev “Nanotechnology in the construction of the 21st century” 2017.

6. Войтович В. А. Лакокрасочные материалы, предназначенные для применения в строительстве // Стройпрофиль.- 2006.

7. Sultanova D.N., Achilova M.F. Problemы ispolzovaniya nanotexnologiy v arxitekture Uzbekistana. 2023.

8. Sultanova D.N., Achilova M.F. Memoriy yodgorliklarini tamirlashda nanotexnologiyalarning ahamiyati// Me’morchilik va qurilish muammolari. SamDAQU. – Samarqand, 2024. 1-son. -B. 24-26.

9. Sultanova D.N. Krovli-shiferы v Germanskoy arxitekture// Arxitektura, qurilish, dizayn (ilmiy-amaliy jurnali) TAQU. –Tosh., 2024. 3-son. -B.412-416.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЎРТА АСРЛАРДАГИ МАИШИЙ ТУРМУШ, ХЎЖАЛИК ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ОБЪЕКТЛАРИНИНГ КЛАССИФИКАЦИЯСИ ВА ТИПОЛОГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Қўчқоров Шерзод Шавкатович
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети, мустақил изланувчи (Ўзбекистон)

Аннотация: Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистоннинг ўрта асрлардаги маиший турмуш, хўжалик ва ишлаб чиқариш объектларининг классификацияси ва типологиясини ишлаб чиқиб, уларни илмий муомалага киритиш.Тадқиқот услуби маскур иморатлар ҳақидаги тарихий маълумотларни тўплаш ва ўр-ганиш,шундай иморатлардан бизгача сақланганларини ва ҳозирда амалда фойдаланилаётганлари билан натурада танишиш, уларни фотофиксация қи-лиш, ушбу иморатларнинг гуруҳлари ва турларини аниқлаш каби илмий услуб-лардан фойдаланиш. Тадқиқот натижаси - Ўзбекистонинг ўрта асрладаги маиший турмуш объектлари (ҳаммомлар, қуруқ ҳаммомлар, обзанлар, гар-мобалар, чойхоналар), хўжалик объектлари (сардобалар, ҳовузлар, сув чиғириқ-лари, коризлар, акведуклар ва ишлаб чиқариш объектлари (жувозлар, тегир-монлар, тандирлар, яхдонлар, устахоналар)нинг классификацияси ва меъморий типологияси яратилди. Хулосада Ўзбекистон архитектурашунослик фанидан илк бор тадқиқот объектларининг классификацияси ва типологияси яратил-ганлиги ва уларнинг илмий муомалага киритилганлиги қайт этилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, ўрта асрлар, маиший турмуш, хўжалик, ишлаб чиқариш объектлари, уларнинг классификацияси ва типологияси.

Асосий қисм: Кириш. Ўзбекистон меъморчилиги тарихида маданий мерос объектлари –жамоат ва турар жой бинолари жуда кўп ва кенг ўрганилган бўлсада, ўтмишда халқимиз бино этиб фойдаланган маиший турмуш, хўжалик ва ишлаб чиқариш объектлари, уларнинг турлари, архитектураси ҳанузгача яхши ўрга-нилмаган ва мазкур соҳа бўйича меъморият илму-фанида анчагина камчиликлар мавжуд. Ўзбекистон олимлари ҳам бу мавзуга камдан-кам эътиборини қарат-ганлар. Улар сафига А.Муҳаммаджонов, А. Бобохонов, Д.Нозилов, А. Ураловларни киритиш мумкин. Тожикистон олимларидан Р.Мукимов, С. Мамаджонова, А. Мирбобоевлар ҳам ушбу мавзуга эътибор берганлар. Бироқ, бу объектларнинг меъморий шаклланиш ва ривожланиш тарихи, типологияси, меъморий-режавий ечимлари комплекс тарзда ўрганилмаган. Шундан келиб чиқиб, маскур мақолада Ўзбекистоннинг ўрта асрдаги маиший турмуш, хўжалик ва ишлаб чиқариш объ-ектларининг классификацияси ва типологиясини ишлаб чиқиш мақсад қилиб қўйилди.

Асосий қисм: Тадқиқотни бажариш учун тадқиқот объектлари ҳақидаги тарихий маълумотларни тўплаш ва ўрганиш, шундай иморатлардан бизгача сақланганларини ва ҳозирда амалда фойдаланилаётганлари билан натурада танишиш, уларни фотофиксация қилиш, ушбу иморатларнинг гуруҳлари ва турларини аниқлаш каби илмий услублардан фойдаланилди.

Натижалар ва хулоса. Ўзбекистонда XIX–XX асрлардаги маиший турмуш, хўжалик ва ишлаб чиқариш иншоотларининг классификацияси мазкур тадқиқотда уч гуруҳга бўлиб ўрганилди.

Биринчи гуруҳга маиший турмуш қурилмалари ва иморатлари кириб, уларга ҳаммомлар, обзан, қуруқ ҳаммомлар, гармобалар ва оловхоналар (эркаклар уйи) киритилган.

Иккинчиси хўжалик иншоотлари ва қурилмалари гуруҳи бўлиб, уларга ҳовузлар, сардобалар, чархпалаклар, чиғириқлар, коризлар, тўғонлар ва бандлар, сув айирғичлар , акведук (сув новлари), ўралар киритилган.

Учинчи гуруҳ ишлаб чиқариш иншоотлари ва иморатларини қамраб олиб, уларга устахоналар, жувозлар, тегирмонлар, осиёйиоб (шолини пўстлоғидан ажра-тувчи сув тегирмонлари), яхдонлар, қоғоз жувозлар, соякилар киради (1–жадвал).



1–жадвал. Тадқиқот объектларининг классификацияси

Дастлаб маиший турмиш объектларидан ҳаммомлар *типологияси* ўрга-нилиб, улар жойлашишига кўра шаҳар ва қишлоқ ҳаммомларига бўлинган. Шаҳар ҳаммомлари ўз навбатида гузар ва бозор ҳаммомларига, ҳукмдорларнинг арк-қалъалари, саройлари таркибидаги ҳаммомларга ҳамда карвон йўллари бўйлаб қурилган йирик карвон-саройлар ва зиёратгоҳлар таркибидаги ҳам-момларга бўлинган. Қишлоқ ҳаммомлари эса, асосан, йирик қишлоқларда қишлоқ бозорлари қошида қурилган[1;2].

Ҳаммомларни қаерда ва қандай аҳоли пунктида жойлашганига қараб шартли тарзда шаҳар ва қишлоқ ҳаммомларига бўлиш мумкин. Шаҳар ҳам-

момлари ҳам ўз навбатида кимларга хизмат кўрсатишига қараб: жамоат ҳаммомлари ва хусусий ҳаммомларга бўлинган[2].

Жамоат ҳаммомлари эса шаҳарнинг қайси жойида жойлашганига қараб уч турга, яъни “бозор” ҳаммомлари, “гузар” ҳаммомлари ва шаҳардаги бошқа меъморий комплекслар ва ансамбллар таркибига кирган ҳаммомларга бў-линган[1;2].

Жамоат ҳаммомларини “бозор” ёки “гузар” ҳаммомлари деб аталиши-нинг асосий сабаби, бу уларнинг шаҳар бозорлари қошида ва маҳаллалар Марказий - гуҳар иморатлари сифатида қурилиши ва жойлашганлигидадир. Ҳозирда бундай ҳаммомлардан бизгача сақланиб қолганлари мавжуд бўлиб, “бозор” ҳаммомларига мисол тарзида Бухоро шаҳридаги Мисгарон ва Саррафон ҳаммомларини, “гузар” ҳаммомларига Самарқанднинг эски шаҳрида жойлашган Довути ҳаммоми ва Панжоб ҳаммомини кўрсатиш мумкин.

Хусусий ҳаммомларга ҳукмдорлар саройлари, арк–қалъалар, қаср ва боғ–парк қароргоҳлари таркибида киритилган, фақат ҳукмдорнинг ўзи ва унинг оиласига хизмат кўрсатувчи хусусий ҳаммомлар кирган. Қишлоқ ҳаммомлари ҳам алоҳида ёки бошқа жамоат бинолари, шунингдек масжидлар қошида ва таркибида қурилган.




Шундай қилиб, юқоридаги изланишларимиз асосида Марказий Осиёнинг ўрта асрлардаги анъанавий халқ ҳаммомларининг меъморий типологиясини қуйидаги жадвал кўринишида ифодалашимиз мумкин (2–жадвалга қаранг).

2-жадвал. Ҳаммомларнинг меъморий типологияси

Классификацияси	**Шаҳар ҳаммомлари**				**Қишлоқ ҳаммомлари**
	Жамоат ҳаммомлари			**Ҳусусий ҳаммомлар**	
типологияси ва жойлашиш тизими	Умумшаҳар, яъни “бозор Ҳаммомлари”	Маҳалла, яъни “гузар ҳаммомлари”	Меъморий комплекслар ёки ансамбллар таркибидаги ҳаммомлар	Сарой, қалъа, қаср ва боғ-парклар таркибидаги ҳаммомлар	Ижтимоий-маиший ёки диний бинолар таркибидаги ҳаммомлар
Амалдаги кўриниши					

Маиший турмуш объектлари типологиясига ҳаммомлардан ташқари қуруқ ҳаммомлар, гармобалар, обзанлар ва эркаклар уйлари киритилган (3–жадвалга қаранг).

МАИШИЙ ТУРМУШ ИМОРАТЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИ

Маиший турмуш иморатлари								
Шахарсозлик тизимида жойлашиши ва фойдаланилиши	Ҳаммомлар			Қуруқ ҳаммомлар		Обзанлар		Гармобалар	Чайхоналар
	Шаҳар ҳаммомлари		Қишлоқ ҳаммомлари	Саройлар таркибида	Шифохона таркибида	Ҳаммом-ларда	Сарой-ларда	Табиий тер.булоқлар қошида	Шаҳар ва қишлоқларда
Меъморий – режавий ва ҳажмий ечимлар бўйича график кўринишлари	Бозор ҳаммоми	Гузар ҳаммоми	Қишлоқ ҳаммоми						
Амалиётда мисоллар	Ўзбекистонинг тарихий шаҳарларидаги мавжуд тарихий ҳаммомлар		Қишлоқлардаги тарихий ҳаммомлар	Саройларда қўлланилган қуруқ ҳаммомлар	Шифохона-лардаги қуруқ ҳаммомлар	Ҳаммом-лардаги обзанлар	Сарой-лардаги обзан-лар	Фарғона, Чимён,Нуробод, Қороқолпоғис-тонда топилган тарихий гармобалар	Шаҳар ва қишлоқларда тарихий шаклланган чайхоналар

Хўжалик иншоотлари *типологиясига* ҳовузлар, сардобалар, чархпалаклар, чиғирлар, коризлар, тўғонлар ва бандлар, сув айирғичлар , акведук (сув нов-лари), ўралар киритилган (4–жадвалга қаранг).

ХЎЖАЛИК ИМОРАТЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИ

ХЎЖАЛИК ИМОРАТЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ					
Иморатларнинг типологияси	Сардобалар	Ҳовузлар	Коризлар	Акведуклар	Чархпалаклар (сув чиғириқлари)
Жойлашиш бўйича типлари	Карвон йўлларида ва шаҳарларда	Шаҳарларда ва қишлоқларда	Қишлоқ ҳудудларида	Шаҳарлар ва қишлоқларда	Шаҳар ва қишлоқларда
График кўринишлари					
Амалиётдан мисоллар	Шаҳар ва қишлоқлардаги сардобалар	Шаҳарлар ва қишлоқлардаги ҳовузлар	Нурота ва Китоб туманидаги коризлар	Шаҳар ва қишлоқлардаги акведуклар	Шаҳар ва қишлоқлардаги чархпалаклар

Биргина сардобаларнинг ўзини икки гуруҳга бўлиш мумкин: Уларни жойлашган жойига қараб карвон йўлларидаги ва шаҳарлардаги сардобаларга ажратиш мумкин. Шаҳарлардаги сардобалар йирик жамоат бинолари: асосан мадрасалар, хонақоҳлар, шифохоналар ҳовлиларида қурилган [6;1].

Ўтмишда қурилган ишлаб чиқариш иморатлари-устахоналар турли-туман бўлиб, темирчи ва мисгарлар, кулоллар ва дурадгорлар устахоналари, обжувоз ва мойжувозлар, тегирмонлар, қоғозжувозлар, нонвойхоналар, сояки ва яхдонларга бўлинган (5–жадвалга қаранг).

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИМОРАТЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИ

	Шаҳар устахоналари					Қишлоқ устахоналари
Устахоналар типологияси	Шаҳар устахоналарининг турлари					Кулолчилик ва темирчилик устахоналари
	Темирчилик устахоналари	Кулолчилик устахоналари	Мисгарчилик устахоналари	Заргарлик устахоналари	Этикдўзлик устахоналари	
График кўринишлари						
Амалиётдан мисоллар	Республикамиз таркибий шаҳарларида тарихий шаклланиш Темирчилик устахоналари	Риштон, Самарқанд, Наманган, Қўқон, Шаҳрисабз, Тошкент, Бухоро шаҳарларида тарихий кулолчилик устахоналари	Қўқон,Бухоро, Самарқанд, шаҳарларида тарихий Мисгарчилик устахоналари	Бухоро, Самарқанд, , Қўқон, шаҳарларида тарихий заргарчилик устахоналари	Тарихий Этикдўзлик Устахоналари бизгача сақланганлиги	Республикамизнинг йирик қишлоқларидаги хозирги ишлаб келаётган темирчилик устахоналари

Яхдонлар - бу Марказий Осиёнинг жазирама иссиқли ёз фаслида аҳоли эҳтиёжи ва истимоли учун муз таёрланадиган тарихий иншоотлардир[3;4]. Улар Эрон, Мовароуннаҳр ва Хуросонда кўплаб қурилган ва афсуски, бизгача сақланганларининг сони жуда кам.

Соякилар ўтмишда ва ҳозирда ҳам халқ томонидан қурилиб келинаётган, ичида узум қуритилиб майизга айлантириладиган енгил конструкцияли иморатлардир [5].

Хулоса. Тадқиқот объектларининг классификацияси уларнинг функцияси ва нима мақсадда қурилганликларига қараб уч гуруҳга: 1) маиший турмуш; 2) хўжалик; 3) ишлаб чиқариш иморатларига бўлинган. Ҳар бир гуруҳ иморатлари ўз навбатида

меъморий типларга бўлиниб чиқилган. Биринчи гуруҳ иморат-ларига ҳаммомлар, қуруқ ҳаммомлар, обзанлар, гармобалар, чойхоналар киритилган. Иккинчи гуруҳ иморатларига ҳовузлар, сардобалар, сув чиғириқлар (чарҳпалаклар), коризлар, акведуклар, кўприклар киритилган бўлса, учунчи гуруҳ объектларига жувозлар, тегирмонлар, тандирлар, соякилар, пиллахо-налар, яхдонлар, устахоналар кирган. Ҳар бир меъморий типологик иморатлар ўзининг қурилиш услублари ва жойлашишига кўра турлича хилларга эга бўлган.

Муҳокама. Татқиқот объектларини комплекс илмий ўрганиш ўзбек халқининг ўтмишига, унинг маиший турмуши, муҳандислик ва қурилиш ма-даниятига чуқур назар солиш, тарихий меъморий қадриятларини аниқлаш ва белгилаш, ушбу объектлар қатламига кирган, бироқ илгари ўрганилмаган баъзи иншоотлар ва қурилмалар (қуруқ ҳаммом, обзан, гармоба, сардоба, яхдон)ларни ўрганиш ва, умуман, шаҳар ва қишлоқлар ҳудудини ободонлаштириш, янги анъанавий ирригация ва суғориш тизимларини яратиш имконини беради. Бу эса улардан Ўзбекистон Республикасининг замонавий ҳаётида, замонавий меъмор-чилик ва шаҳарсозликни ривожлантиришда ўзбек халқининг тарихий қадриятлари ва услубларига таяниш, уларни эътиборга олиш ва улардан унумли фойдаланиш учун асос яратади.

Адабиётлар

1. Уралов А.С. Гражданское задчество средневековой Центральной Азии (общественые здания и сооружения). –Ташкент, 2022.

2. Уралов А.С. Бани-хаммам в зодчестве Центральной Азии.-Самарканд, 2002.

3. Мирбабаев А. Леденщики Худжанта // Памир-Душанбе, 1991, № 9.

4. Мукимов Р., Мамаджонова С.М., Мукимова С. Памятники культур-ного наследия верховьев Зарафшана. – Душанбе, 2022.

5. Нозилов Д.А. Зодчество горных районов Средней Азии.-Т.,1999.

6. Мухаммаджонов А. Ўзбекистонниг қадимги гидротехника иншоотлари. –Т., 1997.

АНАЛИЗ СРЕДСТВ ГАРМОНИЗАЦИИ ФАСАДА МЕЧЕТИ БИБИ-ХАНЫМ

Салохутдинова Мунаввар Голиб-кизи
докторант PhD, Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Аннотация: В статье рассматриваются основные средства гармонизации фасадов в архитектуре эпохи Темуридов (на примере мечети Биби-ханым), среди которых симметрия, контраст, модульная система, пропорции и масштабность. Особое внимание уделено осевой симметрии, которая является основным элементом композиции и создает четкую объемную структуру, определяющую баланс и гармонию в оформлении фасадов центральных зданий.

Ключевые слова: средства гармонизации**,** гармония, симметрия, контраст, модульная система, пропорции и масштабность, «гяз», осевая симметрия, фактурность

Annotatsiya: Maqolada temuriylar davri arxitekturasida fasadlarni uyg‘unlashtirishning asosiy vositalari (Bibixonim masjidi misolida), shu jumladan simmetriya, kontrast, modulli tizim, nisbatlar va masshtablar muhokama qilinadi. Kompozitsiyaning asosiy elementi bo'lgan va markaziy binolarning jabhalarini loyihalashda muvozanat va uyg'unlikni belgilaydigan aniq hajmli tuzilmani yaratadigan eksenel simmetriyaga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so`zlar: uyg'unlashtirish vositalari, garmoniya, simmetriya, kontrast, modul sistema, nisbatlar va masshtab, “gyaz”, eksenel simmetriya, tekstura

Abstract: The article discusses the main means of harmonizing facades in the architecture of the Timurid era (using the example of the Bibi Khanim Mosque), including symmetry, contrast, modular system, proportions and scale. Particular attention is paid to axial symmetry, which is the main element of the composition and creates a clear volumetric structure that determines balance and harmony in the design of the facades of the central buildings.

Key words: harmony, harmony, symmetry, contrast, modular system, proportions and scale, "gyaz", axial symmetry, texture

Композиция фасада мечети Биби-Ханым в Самарканде представляет собой незабываемый образец гармонии и соразмерности архитектурных форм, достигнутых с помощью объемно-пространственной структуры и тектоники. Построенная в конце XIV – начале XV века по приказу Тамерлана, мечеть с уникальными композиционными приемами, направленными на создание впечатляющей монументальной и эстетической целостности.

В своей книге «Типология и формообразование Среднеазиатского зодчества IX–XV веков» Н.А. Маньковская уделяет внимание **категориям композиции** анализа архитектурных памятников [1, стр20]. Эти категории композиции так же можно применить к анализу фасада мечети Биби-Ханум.Средства гармонизации относятся к категориям композиции.

Средства гармонизации:симметрия, контраст и нюанс, модуль, пропорция, масштабность.

Симметрия.Вертикальные оси симметрии присутствуют в композиции фасадов центрических зданий. Эта симметрия называется зеркальной. В вертикальных и горизонтальных проекциях плоскости симметрии превращаются в оси.Осевая симметрия в архитектуре Тимуридов была ключевым элементом, способствующим гармонии и величию сооружения. Эта симметрия проявлялась как в планировке зданий, так и в расположении декоративных элементов, придавая баланс и четкую структуру пространств. Центр композиции часто становился главной точкой фокуса, вокруг которого выстраивались остальные элементы, отражающие идею единства и пространственного порядка, что было характерно для архитектуры эпохи Тимуридов.

Контраст и нюанс — одно из ярких средств достижения художественной выразительности в архитектуре, характеризующее и выявляющее степень сходства или различия между определенными свойствами сооружения.Контрастные отношения подчеркивают резко выраженные различия этих свойств; нюансные отношения означают очень постепенный, едва заметный переход от одного свойства к другому.В отношениях контраста или нюанса могут находиться размеры и форма (большое и малое, горизонтальное и вертикальное, прямолинейное и криволинейное, простое и сложное, массивное и легкое), фактура, окраска, освещенность.Применение приема контрастных и нюансных отношений самых разнообразных свойств (формы, размеров, фактуры, цвета) мы можем видеть на примерах многих сооружений древней и современной архитектуры

В темуридской архитектуре обычно используются приемы контрастного тонового соединения, заключающие их контурными линиями и комбинирующие близкие составляющие. Колористическая гамма темуридской архитектуры находила также поддержку в цветах местной природы, что и предопределило ее устойчивость на протяжении многих веков.[4] **Модуль.** Принцип пропорциональных систем, особенно модульной системы, имеет решающее значение в архитектуре, позволяя архитекторам создавать гармонию и эстетическую конструкцию зданий. В основе модульной системы лежит идея, что все размеры здания, включая его высоту, высоту и длину, а также размеры отдельных архитектурных элементов, подчиняются единому масштабу – модулю. Этот модуль, представляющий собой базовую меру, может быть взят, например, из размеров какого-то основного элемента, таких как ширина колонны, высота этажей или даже ширина кирпича.Разработка модуля стала не просто технической, а эстетичной. Простые и пропорциональные соотношения, заложенные в модульную систему, стали для создания встроенной и легко воспринимаемой формы. Модули позволяют архитекторам формировать здания, в которых масштабы и пропорции были естественными для человеческих глаз. Ш.Е Ратия описывает графический анализ композиции фасада. В Которой вычисляется модуль фасада мечети Биби Ханум. На основе размера минарета в плане здания. Диаметр минарета как основной модуль для определения пропорций здания мог бы использоваться в архитектурных сооружениях, поскольку минарет — ярко выраженный вертикальный элемент и важная часть композиции фасада мечети.Модуль-Гяз, по мнению разных исследователей, имеет различную величину. Однако принятая единица модуля должна была содержать какое-то целое число гязов, независимо от его фактической величины.Проделав ряд вычислений по сопоставлению отдельных размеров, удалось определить величину гяза равной 0,73 м. Убедиться в правильности данного числового выражения гяза нетрудно, например, из следующего. Ширина минарета портала главного здания комплекса Биби-ханым у обреза цоколя составляет 5,84 м. Разделив 5,84 м на число 8 (принятое в данном случае целое число гязов в единице модуля), получим, что гяз равен 0,73 м; размер внутреннего помещения главной мечети составляет 14,60 м и будет, по принятой модульной системе, равен 2'/г модуля, или 20 гязам; если 14,60 м разделить на 20, опять-таки получим 0,73 м и т. д.Естественно, что, имея величину гяза и число гязов в модуле, нетрудно определить все действительные размеры здания. Для удобства модуль, принятый для главной мечети, обозначим буквой «А». Таким образом, длина западной внешней стены главного здания мечети равна 4 «А», или 4X8 = 32 гязам; умножив 32 X 0,73, получим размер этой стены,равный 23,36 м; действительный размер стены по обмеру равен 23,30 м1. Ширина пролета портальной ниши главного здания у открытой стороны равна 3 «А», т. е. 3 X 8 — 24 гязам, или 24 X X0.73 м = 17,52 м; фактический размер ее составляет 17,54 м. Ширина проема в щипцовой стене портальной ниши равна 1 модулю, т. е. 8 гязам, или 8 X 0,73 м — 5,84 м (в об-мере — 5,85 м с внешней и 5,75 м — с внутренней стороны) и т. д.Эта же модульная система, естественно, остается в силе и при построении высотных размеров фасада. [2, Стр.90]




Рис.2 Биби-ханым. Анализ построения восточного фасада главного здания комплекса и галереи. Членение на модули. Иллюстрация Е.Ш.Ратия

Пропорция. Пропорции — одно из основных композиционных средств, применяемых в архитектуре для приведения соотношений всех частей сооружения в зрительную гармонию. Таким образом, пропорцией называется определенное соотношение, соразмерность частей между собой и с целым. Это относится к соразмерности линейных размеров (высота, ширина), площадей и объемов. Охватывая все сооружение или ансамбль, пропорции образуют в своем единстве пропорциональный строй.

Особое место среди различных пропорциональных систем занимает **«золотое сечение»**, которым широко пользовались зодчие античности. В эпоху Возрождения оно считалось «божественной пропорцией». Исследователи указывают на многочисленные примеры проявления «золотого сечения» в природе (строение дерева, листа и т. д.), чем и объясняют силу эмоционального воздействия этого пропорционального соотношения на человека.Принцип построения «золотого сечения» заключается в делении отрезка таким образом, что большая его часть является средней пропорциональной величиной между всем отрезком и его меньшей частью: $a : 6 = 6 : (a + b)$.Геометрическое построение деления отрезка в таком отношении проще всего осуществляется при помощи прямоугольного треугольника с отношением катетов 1 : 2, где больший катет, условно принимаемый за единицу, делится в заданном отношении. Это отношение иррационально. Достаточно точным его выражением является: a = 0,382; 6 = 0,618.




Рис.3 Пропорциональность фасада главного портала мечети Биби-Ханум по принципу золотого сечения. Графическая работа автора.

Масштабность в архитектуре действительно играет ключевую роль в восприятии сооружений и их отношении к человеку и окружающему миру. Этот принцип, направленный на создание у зрителя ощущения величия или, наоборот, интимности, соразмерности, обеспечивает его пониженную, культурную инновационность и ситуацию. Архитекторы наблюдают за масштабами, чтобы определить определенные эмоции и добиться гармонии между зданиями и людьми, которые они воспринимают. В Монографии Э. Гюль «Архитектура эпохи Темуридов»

Масштабность в архитектуре — это восприятие человеком величины и значительности сооружения, это «подходящая предмету мера», приданная ему человеком, это, следовательно, соразмерность сооружения человеку и окружающей среде (в этом же значении употребляется иногда и термин «масштаб» в архитектуре).

В книге Э. Гюль «Архитектура эпохи Тимуридов» обращает внимание на интересный принцип масштабности в декорировании памятников, характерный для этой эпохи. В архитектуре тимуридского периода можно увидеть, что подход к декору напрямую зависел от размеров и конструкции, что подчёркивало его масштабность.[3]

Для более крупных зданий эпохи Тимуридов, таких как мечети Биби-Ханум, характерно использование менее богатого и сложного декора, на фасадах. Чем больше здание, тем крупнее сетка гириха, больше воздушности и пробелов в виде стен из жжённого кирпича. Это сдержанный классический фасад.

Для камерных сооружений, мавзолеев киосков маленьких масштабов, характерно полное покрытие глазурованной керамикой, узорчатой мозаикой и резным терракотовым декором, создающим эффектный и монументальный облик. (Рис.4)Эти элементы не только усиливали величие восприятия, но и символизировали культурное и религиозное значение.

Архитектурные композиции эпохи Тимуридов продуманным использованием гармонизирующих элементов, среди которых осевая симметрия, контрастность, модульные пропорции, золотое сечение и масштабность. Центральным средством становится осевая симметрия, особенно зеркальная, создающая четкий пространственный порядок. В фасадах и планировке центрических зданий эта симметрия формирует визуальную ось, вокруг которой выстраиваются декоративные элементы, подчёркивая баланс и единство пространства[4]. Принцип контраста, проявляющийся в резком противопоставлении форм и фактур, как и тонкие тонкие переходы, придает выразительность. Например, в архитектуре Тимуридов обнаруживает тоновые контрасты, вдохновленные природной палитрой региона, которые обеспечивают создание динамиков и эстетического разнообразия. Модульная система, основанная на единице «гяз», представляет собой основу пропорциональных отношений, в которой ключевые элементы, такие как минарет мечети Биби-Ханум, являются основанием для других размеров здания.



(Рис.4) Сравнение Масштабности декора Биби-Ханум и мавзолея в Шохи-Зинде

Ш.Е. Ратия анализирует это соотношение, используя различные методы модуляции, чтобы создать эффектный фасад, соразмерный всем его частям. Пропорциональная система дополняет применение золотого сечения, что, как традиционные зодчие, обеспечивает природное совершенство и визуально привлекательные отношения между частями и целыми.[4] Масштабность, или соразмерность строения человека и окружающей среды, также играет ключевую роль: крупные здания имеют менее детализированный декор, тогда как маленькие постройки, такие как мавзолеи, украшения с керамической мозаикой и терракотовыми орнаментами, подчеркивающие их монументальность. Эти подходы подчеркивают как художественное мастерство, так и культурное значение конструкции Тимуридов.

Архитектурные композиции эпохи Тимуридов продуманны использованием гармонизирующих элементов, среди которых осевая симметрия, контрастность, модульные пропорции, золотое сечение и масштабность. Центральным средством становится осевая симметрия, особенно зеркальная, создающая четкий пространственный порядок. В фасадах и планировке центрических зданий эта симметрия формирует визуальную ось, вокруг которой выстраиваются декоративные элементы, подчёркивая баланс и единство пространства.Принцип контраста, проявляющийся в резком противопоставлении форм и фактур, как и тонкие переходы, придает выразительность. Например, в архитектуре Тимуридов обнаруживает тоновые контрасты, вдохновленные природной палитрой региона, которые обеспечивают создание динамиков и эстетического разнообразия. Модульная система, основанная на единице «гяз», представляет собой основу пропорциональных отношений, в которой ключевые элементы, такие как минарет мечети Биби-Ханым, являются основанием для других размеров здания. Ш.Е. Ратия анализирует это соотношение, используя различные методы модуляции, чтобы создать эффектный фасад, соразмерный всем его частям. Масштабность, или соразмерность строения человека и окружающей среды, также играет ключевую роль: крупные здания имеют менее детализированный декор, тогда как маленькие постройки, такие как мавзолеи, украшенны керамической мозаикой и терракотовыми орнаментами, подчеркивающие их монументальность. Эти подходы подчеркивают как художественное мастерство, так и культурное значение конструкции.

Литература:

6. Л.Ю.Маньковская Формообразование и типология зодчества Средней Азии (X-Начало XX века)/ -Ташкент: Baktria press, 2014.-496с
7. Ш.Е.Ратия «Мечеть Биби-Ханим в Самарканде.Исследование.Опыт рестоврации» Москва 1950г.
8. Эльмира Гюль «Архитектурный декор эпохи Темуридов» -Ташкент 2014 Издательство журнала “San`at” 180стр. с илл.
9. Ст. Эльмира Гюль “Цвет в архитектуре эпохи Темуридов” Ташкент 2014 Издательство журнала “San`at”
10. L.Golombek, D.Wilber “Timurid architecture of Iran and Turan” Princeton 1988. University Press

КАТТАҚЎРҒОН ШАҲРИДАГИ XIX-XX АСРГА ОИД ТУРАР ЖОЙ БИНОЛАРИНИНГ МЕЪМОРЧИЛИГИ

Ярашев Фозилбек Собир ўғли

“Ипак йўли” халқаро тадқиқот институти, кичик илмий ходими, Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети таянч докторанти, Самарқанд, Ўзбекистон,

Аннотация: Ушбу мақолада Каттақўрғон шаҳридаги XIX-XX аср бошида қурилган турар жой биноларининг меъморчилиги, ўзига хослиги, типологияси ва уларнинг бадиий ечимлари ҳақида сўз боради. Шунингдек ўрганилаётган даврда қурилган ва ҳозирги кунгача сақланган шаҳардаги анъанавий ва европача услубдаги турар жой биноларининг турлари, таснифи ва уларнинг уйғунлашган услубдари хақида фикрлар ва мулохазалар келтирилган.

Калит сўзлар: Каттақўрғон, турар жой, ҳовли, ташқари ҳовли, ичкари ҳовли, ҳовуз, анъанавий, европача, айвон, супа, мехмонхона.

Кириш. Давлатимиз томонидан сўнги йилларда тарихий шаҳарларимиздаги меъморий обидаларни асл қиёфасини сақлаш, реставрация ва реконструкция қилишга катта этибор берилмоқда. Хозирги кунга келиб тарихий шахарларимиздаги турар жой биноларини ўрганиш, уларларни реставрация, сақлаш масалалари долзарб масалалардан биридир. Шу жумладан ўрта катталикдаги Каттақўрғон шаҳрида бугунги келиб жуда кам сонли турар жой бинолари сақланиб қолган ва хозирда уларнинг айримлари йўқ бўлиш арафасида. Биз уларнинг, архитектура, бадиий жиҳатларини илмий жиҳатдан ўргансак, шунингдек ушбу архитектура ёдгорликларини асл қиёфасини тиклаш, реставрация, сақлаш масалаларига алоҳида этибор қаратсак, фанимизга катта илмий янгилик бўлади ва мазкур шаҳардаги туризм инфраструктурасини ривожланишига катта хисса қўшган бўламиз.

Асосий қисм. Турар жой бинолари анъанавий равишда энг кенг тарқалган фуқаролик бинолари бўлиб, бошқа турдаги қурилмаларга қараганда вазифаси чексиз, хилма-ҳил ва мураккаброқ шаклга эга. Шунинг учун ҳам ташқи кўриниши турли ҳил ижтимоий, табиий ва иқлимий омиллар мажмуаси билан белгиланади [1].

Каттақўрғон шаҳри географик жиҳатдан Самарқанд шаҳрига яқин жойлашган ва унда Самарқанд турар жой меъморчилиги таъсири кўринади. Самарқанд меъморчилик мактабининг анъанавий турар-жой уйлари одатда бир ёки икки ҳовлили уйлар бўлиб, бир ёки икки қаватнинг қурилиши асосан ҳовлининг шимолий қисмида амалга оширилган. Уйнинг ўзаги – айвон ва ён томонлардаги иккита хона ҳисобланган. Баъзан ташқари ҳовлилар икки қаватли қурилган [2]. Шу қатори бу ерда, ушбу ҳудудга хос бўлган, жиҳатлар кузатилади. Турар жой хоналари ўз вазифасига қараб қатъий йўналишга эга бўлиб, ҳовли жавҳаси бўйлаб, яшаш хоналари ва устунли айвонлар жойлашади. Аксарият айвонлар жанубга қаратилган.

Каттақўрғон шаҳридаги турар жой уйларининг ўзига хос хусусияти унинг мўжазгина боғи ва сув билан узвий боғлиқлиги бўлиб, бу янада қулай микроиқлимни яратишга ёрдам берган. Ҳовли жой атрофи лой девор билан ўралган бўлиб, ҳовлида ҳовуз унинг атрофида мевали дарахтлар (узум, ўрик) ва гулзорлар билан узвий боғлиқ бўлган.

Каттақўрғон турар жой уйлари хам Ўрта Осиё турар жойлари каби иккига – *ичкари* ва *ташқари* ҳовлига бўлинган. Ичкари қисмдаги хоналар оила аъзолари учун, ташқари қисмдаги бинолар меҳмонлар учун мўлжалланган. Шунингдек баъзи ташқари ҳовлиларда оиланинг муайян касбига қараб устахонаси ёки савдо дўкони бўлган. Ўзига тўқ, бой-бадавлат оилаларнинг ичкари ва ташқари ҳовлиларида барча қулайликлар яратилган. Ўртахол, камбағал оилалар ҳовли-жойи ташқари қисми эса меҳмонхонлар, келиб-кетувчилар учун мўлжалланган хоналардан ташкил топган. Камбағал хонадонларнинг тураржой ҳовлилари икки қисмга ажратилмаган. Тарихий режага кура, ҳовли ичкарисида олд томони айвонли бир нечта хона, ошхона, озиқ-овқат маҳсулотлари сақланадиган хоналар қурилган [3].

Ташқари ҳовли. Каттақўрғон шаҳридаги аксарият ҳовлилар тўртбурчак шаклда бўлиб, ундаги турар жой ва хўжалик хоналари ҳовли бўйлаб қурилган. Ташқари ҳовлида, меҳмонлар, келиб-кетувчи кишиларга мўлжалланган хоналардан ташқари, хўжалик хоналари жойлашган. Шунингдек қўрғон ичидаги ҳунармандлар, савдогарлар ҳовли-жойларида ташқари қисмда юқоридаги ҳоналардан ташқари яна устахона, савдо дўконлари ва омборҳоналар бўлган. Одатда ташқари ҳовли икки қаватли қилиб барпо этилган. Биринчи қават дарвозахонага ёндош бўлиб, унда устаҳона, дўкон ёки омборҳона жойлашган. Дарвозахонадан ёғоч зиналар орқали иккинчи қаватга чиқилган. Иккинчи қават икки-уч хонадан иборат бўлиб, улардан бири кенг, шинам ва кўркам безатилган бўлиб, у меҳмонлар учун мўлжалланган. Баъзи ҳовли-жойларнинг ташқари қисмида хўжалик бинолари қаторидан усти ёпиқ отхона ҳам бўлган. Базида эса ташқари ҳовлилар бир қаватли турар жой ташқари қисми эркак меҳмонлар учун мўлжалланган хона, устахона ёки дўкон, шунингдек хўжалик биноларидан иборат бўлган. Ҳовлининг ўртасида кўпинча ҳовли ичидан оқиб ўтувчи ариқ суви қуйилиб, чиқиб кетган. Ҳовуз атрофига дарахтлар экилган ва унинг атрофидаги дарахтлар тагида оила азолари дам олиши учун супа бўлган. Ҳовлининг ичкари ва ташқари ҳовлилар орасида одам бўйи баландликдаги тикланган девор орқали ажратилган. Ва ушбу девордаги эшик орқали, алоқа боғланган.

Ичкари ҳовли. Каттақўрғон шаҳри қўрғони турар жойларнинг ичкари ҳовлиси атрофида умумий хона, яшаш хоналари ва хўжалик хоналари жойлашган. Умумий хона, яшаш хоналари айвон орқали бир-бири билан туташтирилган. Айрим холларда ичкари ҳовлилар устида, иккинчи қавати ҳам бўлиб, у болохона деб номланган. Бундай турар жойни Д.А. Назилов тадқиқодида мисол бўла олади. Болохона очиқ бир устунли бўлиб, у ерда озиқ-овқат маҳсулотлари сақланган [4].

Ўртаҳол оилаларнинг турар жой ичкари қисми яшаш хоналардан иборат бўлиб, оила аъзолари йилнинг олти-етти ойида шу хоналарда ҳаёт кечиришган. Улар шу жойда овқат пиширишган, дам олишган, ҳаво иссиқ пайтларда кечаси ҳовли ўртасидаги супада ётиб дам олишган. Бу мўжазгина ҳовли турар жойлардаги дов-дарахтдар, токлар ҳамда ҳовуз атрофида хонадон аҳли, ёз ойларида жазирамадан сақланиш учун қулай микроиқлим яратган.

Каттақўрғон турар жой меъморчилигининг яна бир ўзига хос жиҳатларидан бири бу мехмонхонада шахнишин каби қисмнинг мавжудлигидир. Бухоро ва Самарқанд турар жой меъморчилигида шахнишин кенг қўлланилган. Шаҳнишинлар биринчи ва иккинчи қаватда жойлаштирилиб, бир неча турда

бўлган. Шаҳнишинлардан биринчи қаватда жойлашганлари меҳмон кутиш учун қулай бўлган. Иккинчи қаватда жойлашган айрим шаҳнишинлар шифти жуда паст, йўлак шаклида узунчоқ, пастқам бўлган. Деворларида деразалар ўрнатиш имкони бўлмаган, хаво алмашини суст бўлгани учун, уларда хўжалик буюмлари қуйилган. Шунингдек иккинчи қаватда жойлаштирилган шаҳнишинлардан айримлари жуда қулай, баланд деразали бахово қурилган [4]. Бунга Каттақўрғонда 1902 йили қурилган Элмурадов уйи [4], шунингдек XX аср бошида қурилган Мирзаҳакимбой уйи (қозихона) мисол бўла олади.

Шунингдек Мирзаҳакимбой уйидаги шаҳнишин хам иккинчи қаватда меҳмонхонанинг тўрида жойлашиб, унда кўча ва ҳовлига қараган очиқ айвон томондан деразалар ўрнатилган. Шахнишин учта равоқли ёғоч қисм билан меҳмонхонадан ажралиб туради ва унга ўзгача кўрк бериб туради.

Каттақўрғон шаҳрида кўплаб қурилишлар, ўзгаришлар сабабли ўрта асрларга оид ҳамда XIX-XX аср охирларидаги турар жой биноларининг кўпи йўқ бўлиб кетган. Бугунги кунда, баъзи турар жой биноларининг бирламчи қиёфси ва тарҳи билан боғлиқ маълумот ЎзР ФА Санъатшунослик институти архитектура бўлими архивида сақланиб қолинган. Мазкур кам ўрганилган, муҳим архив маълумотлари 1977-йилда Э. Қораев томонидан ёдгорликка тузилган паспорт ҳужжатида қайд этилган. Каттақўрғон турар жой уйларини архитектура доктори Д.А. Назилов томонидан хам ўрганилган. Шунингдек тадқиқот жараёнида биз Каттақўрғонлик кекса отаҳонларнинг сухбатларига кўра, XX аср бошидаги турар жой биноларинг тарҳлари ва меъморий ечими тўғрисида қўшимча маъмумотларга хам эга бўлдик.

Муаллиф Каттақўрғон шаҳри ***анъанавий*** услубидаги турар жой уйларини меъморчилигига кўра қуйидаги учта турга таснифлади:

1. *Кичик ўлчамли бир қаватли турар-жой уйи;*
2. *Кичик ўлчамли икки қаватли турар-жой биноси;*
3. *Бир қаватли, айвони Г шаклли турар-жой уйи.*
4. *Ташқари ва ичкари ҳовлили турар жойлар;*

Анъанавий турар жой меъморчилигининг ***биринчи турга оид*** – *Карим бобо уйи* XX аср бошида қурилган бўлиб, у Каттақўрғон шаҳрида биргина сақланиб қолган ушбу турга тегишли бинодир. Турар жой тўғри тўртбурчак шаклда бўлиб, икки хона, олд айвонли бўлган. Уйнинг меҳмонҳонаси интерьери ўта бой ишланган бўлиб, у бошқа уйлардан ажралиб туради ва бадавлат хонадонлар қаторига киради. Турар жойнинг интеръери деворларида рўзғор буюмлари учун мўлжалланган косамон токчалар жойлаштирилган. Хонанинг шифт қисмидаги карнизлар нақшинкор ўйма ганч ва муқарнаслар билан безатилган, уйилган болорлар ва бўялган шифт мехмонхона декорациясини янада бойитади.

Иккинчи турга мансуб – турар жой Каттақўрғон шаҳрининг тарихий қисмида жойлашган, *қозиҳона* деб ном олган *Мирзахакимбой* уйи бўлиб, XX аср бошида қурилган ва ҳозирда ушбу турга оид ягона сақланган бинодир. Турар жой тархи тўртбурчак шаклида, икки қаватли бўлган. Биринчи қавати пишиқ ғиштдан қурилган бўлиб, отхона, кичик омборхона ва ҳовлига ўтиш жойи – дарвозахонадан иборат; иккинчиси қавати – оралиқ дахлиз, хона, очиқ айвон ва хона тўғрисида шахнишин жойлашган мехмонхонадан ташкил топган.

Турар жойнинг ўзига хос конструкцияси ва безаклари билан ажралиб турадиган, меҳмонхона шифти тахта, поғонали, бурчакларида панел бўлинмалари ва юлдузсимон ховузаклар билан безатилган [5].

Ушбу турар жой қозихона биноси бўлган. Худди шу даврда Тошкент вилоятида Қози (Абдулазиз Абдуллаев) уйи қурилган. Уларнинг жуда катта режавий-меъморий ўхшашликларини топамиз. Фақат Мирзаҳакимбой уйининг фарқли жиҳати шундаки, иккинчи қаватдаги айвон қисми ҳовлига қаратилган. Бундан шундай фикр келиб, чиқадики, балки ўша даврда Қози уйлари қандайдир типологик лойиҳа асосида ёки битта архитектор томонидан лойиҳаланган бўлиши мумкин.

Анъанавий турар-жой меъморчилигининг ***учунчи турига оид –*** *Алимходжи уйи* XIX аср охирида қурилган. Архитектор Э. Қораев 1979 йилда бинонинг тарҳини чизади ва суратга олади. Уй бой хонадонга тегишли бўлиб, ундан фақатгина *мехмонхона* комплекси сақланиб қолган.

Меҳмонхона бир хил ўлчамдаги иккита хонадан, олди Г-шаклдаги айвондан иборат. Ичкарига ёпиладиган ўтиш жойи шарқий бурчакга туташган.

Биноларнинг ички қисми бадиий безакнинг бойлиги билан ажралиб туради: деворларнинг пастки қисмида ганч гирихдан қирма техникаси ёрдамида бўялган панно; косамонларга бўлинадиган токчалар; деворларда ганч панеллари; юқори қисмида безакли фриз ва шарафли карниздан иборат. Шунингдек, шифтларда полихром безак мавжуд. Эшиклари ўймакор бўлиб, тобадонлари очиқ ганч безак панжарадан иборат.


Айвоннинг ғарбий деворида икки ўлчамдаги (баландлиги кўпроқ ва камроқ) равоқсимон токчалар оддий, аммо ифодали ритм ҳосил қилади. “Бағдодий” ойнасидаги ўйилган устунлар тарзнинг декоратив безакларини тўлдиради.

Деворлари лой ғиштли бўлиб, шифт васса ва болор билан ёпилган. Том лой ва парапет ғишт билан қопланган.

Ўлчамлари: умумий тарҳи бўйича – 14.8 х 4.7 м [5].

Тўртинчи турга мансуб турар жойлар шаҳарнинг тарихий қисми – қўрғонда жойлашган бўлиб, улар ташқари ва ичкари ховлили бўлган. Бундай турар жойлардан олим Д. Назилов тадқиқодида келтирилган 1878 йилда қурилган *Каттақўрғондаги Пирматов уйи* афсуски ҳозирда сақланмаган. Уйнинг ички ҳовлиси уч томондан турар хона ва айвонлар билан ўралган. Ташқи ҳовли тўрида олди айвонли икки хонадан иборат меҳмонхона жойлаштирилган.

Мазкур ҳовлининг қолган уч томонида айвонлар қурилган. Меҳмонхона салобатлиги, баланд айвони, муҳташам устунлари билан ҳовлига кўрк бериб турибди [4].



1-расм. 1878 йилда қурилган Каттақўрғон шаҳридаги ичкари ва ташқари ховлили Пирматов уйи. Назилов бўйича

Кўчаҳўр маҳалласидаги ҳалвогар *Изатилло бобо уйи* ташқари ва ичкари ҳовли қисмлардан иборат эди. Ташқари ҳовлининг кўча томонида мехмонхона ва хўжалик хоналари жойлашган. Шунингдек хонадон касби ҳолвагар бўлганлиги боис, ташқи ҳовлида савдо дўкони бўлган. Ичкари ҳовли – айвон, тураржой хоналари ва ошхонадан иборат эди. Айвон дарвозахонадан киргандан сўнг ҳовлининг шарқий қисмида жойлашган. Тураржой биноси ҳовлининг айланасига хоналардан иборат эди. Яшаш хоналари ҳовлининг тўрида “Г” - шаклида жойлашган бўлиб, шимолий-шарқий бурчагида даҳлиз бўлган. Даҳлиздан икки томондаги яшаш хоналарига кирилган. Ҳовлининг шарқий томонида ҳам бир хона бир даҳлиз жойлашган. Ошхона ва хўжалик хонаси уйнинг тўрида жойлашган. Бундан ташқари агар зарурият туғулса, айвоннинг шимол томонидан уйга янги хоналар қўшиш мумкин бўлган. Ҳовлининг ўрта қисмида супа жойлашган бўлиб, атрофи дарахтлар билан ўралган. Ушбу супада хонадон аҳли ёз ойлари жазирама иссиқдан сақланган ва кечалари ухлашган. Ичкари ва ташқари ҳовли одам бўйи баландликдаги девор билан ажратилган [6].

Шаҳарнинг тарихий қисмида XIX аср охири - XX аср бошларида турар жой меъморчиликда янги қурилиш материаллари ва техникаси-услубларидан фойдаланиш бошланган: Россиядан келтирилган тўғри тўртбурчак шаклидаги “рус” пишиқ ғишти, мустаҳкам металл, ёғоч, оҳак, шиша ва ҳокозолардан фойдаланилган ҳолда турар-жой бинолари қурилган. Янги қурилиш материаллари ўз навбатида, турар жой биноларини режалаштириш ва композициясининг европача усулларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш имконини берган.

Россия қурилиш материалларининг кириб келиши том маънода анъанавий турар жой уйларининг европача (рус) услубда ривожланишига ва уларнинг ҳажмининг кенгайишига ёрдам берган. Шу билан бирга, бундай биноларнинг ташқи кўринишида европача уйларга ҳос ўзгаришлар кириб, маҳаллий анъаналар қисман сақланган ҳолда, ички интеръери асосан уйғунлашган эклектика услубда бўлган. Бунга Каттақўрғон шаҳридаги ***европа услубидаги*** сақланиб қолинган турар жой биносини мисол қилишимиз мумкин ва улар қуйдаги таснифда ўрганилди:

Европа услубда қурилган:

1. Бир қаватли тўғри тўртбурчак тарҳли турар жой уйи;

2. Бир қаватли, мураккаб композиция тарҳли турар жой уйи;

Европа услубдаги турар жой меъморчилигнинг *биринчи турга тегишли – Рус уйи* Каттақўрғон шаҳрида XX аср бошида қурилган. Турар жой биноси тарҳда тўғри тўртбурчак шаклда, пишган ғиштдан қурилган бўлиб, иккита хона ва кириш дарвозасидан иборат. Хоналарнинг дераза ромлари равоқсимон шаклда қурилган. Дарвоза аркасимон шаклда қурилган. Турар жой уйининг хоналари замонавийлаштирилган бўлиб, уйнинг асосий тарихий қисми асосан унинг ташқи тарзида сақланиб қолинган.

Абаев уйи (ҳозирги Ўлкашунослик музейи) XIX аср оҳири – XX аср бошида асли келиб чиқиши татаристонлик бўлган Абаев томонидан, тураржой сифатида қурилган. Кейинчалик эса иншоотдан турли мақсадларда фойлаланилган. Шу жумладан: русларни ибодат қилиш жойи, Каттақўрғон халқ хафсизлик назорати бўлими биноси, Каттақўрғон шаҳар комсомол қўмитаси биноси сифатида фойдаланилган. 1992 йилдан бино Каттақўрғон Ўлкашунослик музейига берилган. Абаев уйи ўша даврда Каттакўрғонда қурилган епропа (рус) услубидаги энг маҳобатли биноси бўлган.

Турар жой тарҳда тўрғри тўртбурчак шаклда бўлиб, ўнта хонадан ташкил топган. Бино пойдевори пишган ғиштдан, деворлари асосан хом ғиштдан қурилган бўлиб, меъморий услуби европа архитектурасига хосдир.

Иншоотнинг асосий кириш эшиги равоқсимон шаклда ўрнатилган. Бинонинг тарз қисми, ганч билан европа услубида безатилган. Турар жой хоналари ичида энг диққатга сазовор қисми меҳмонҳона бўлиб, унинг шифти ховузакли шаклда бўлиб, унда турли ранглар уйғунлашган безаклар ва ажралиб туради.

Каттақўрғон турар жой биноларининг бадиий жиҳатлари. Шаҳар турар жой уйлари конструкцияси Ўрта Осиё меъморчилигига хос бўлиб, улар маҳаллий қурилиш ашёларидан яъни лой, пахса, хом ғишт ва синчли, яъни ёғочдан фойдаланиб иморатларни кўтаришган. Турар жой қурилишида икки турдаги синч деворлари – якка синч ва қўш синч қўлланилган. Синчлар ораси хом ғишт билан терилиб тўлдирилиб, устидан лой-сомонли сувоқ билан пардозланган. Иморатлар интерьерининг деворларида токчалар, тахмонлар ўрнатилиб улар безаклар билан пардозланган. Самарқанд тураржой биноларида бир қаторли синч билан икки қаватли девор қурилган. Шунга кўра, токчалар сони

Фарғона водийси ёки Тошкентдаги бир ҳил хоналарга нисбатан камайган [2]. Хонанинг тепа қисми карнизлар, деворлари эса –нақшинкор ва ганч ўймакорлик безаклари билан қопланган.



2-расм. XX асрда қурилган Каттақўрғон шаҳридаги европача услубдаги Абаев уйи.

Турар жой хоналари узунлиги 6 метр ва ундан ҳам узунроқ бўлиб, эни 4 ёки 5 метрдан ошмаган. Чунки том ёпмага ёғочдан фойдаланишган ва ёғочнинг юк кўтариш хусусиятининг шикастланиши назарда тутган холда болорлар узунлиги танланган. Қўрғон (шаҳристон) ичидаги турар жой бинолари ёғоч синчлардан мустаҳкам қилиб тикланиб, ичи гувала ва ғиштлар билан тўлдирилган. Бино девори учун таянч ҳисобланган синч устидан томни ёпиш учун болорлар қатор қилиб терилган. Унинг устидан вассажуфт таҳланиб, устига қамиш тўшалган ва қамиш устидан тупроқ қатлами ташланиб, усти сомонли лой сувоқ қилинган. Қўрғон ташқарисидаги турар жой бинолари асосан паҳсадан кўтарилиб, томи юқоридаги тартибда ёпилган.

Адабиётлар рўйхати

1. Воронина В.Л. Народные традиции Архитектуры Узбекистана. М., 1951..
2. Азимов И.М. Архитектура Узбекистана XVIII – начала XX вв. (традиции и локальные особенности). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора архитектурых наук. Москва, 2000.
3. Планъ г. Катта-Кургана съ окректностями. Снятый инструментально въ 1875 году. // Каттақўрғон шахри Ўлкашунослик музейининг архиви.
4. Назилов Д.А. Ҳалқ меъморчилиги. Ташкент, 1982.
5. Караев Э. Дом Мирзахакима в ташкари, Паспорт. Архив Института Искусствознания АН РУз. № ИА(м)К21 №958/8. 1977 г.
6. Каттақўрғон шаҳрида истиқомад қилувчи архитектор, ўқитувчи, Ғолиб Салохиддинов билан суҳбат.
7. Юсупова М.А. Бухарская школа зодчества XV-XVII вв.(особенности и динамика развития). Самарканд, 2022.

PRESERVATION AND RESTORATION OF THE ASHRATKHANA MAUSOLEUM IN SAMARKAND CITY

Yulduz Nurmuradova
Muxlisa Jumayeva
Samarkand State University of architecture and construction

Annotation. This article contains information about the single foundation document on the monument in the Samarkand State Museum-Reserve documentation fund. According to him, this Waqf document was written in the beginning of Ramadan 868 (may 1463), and the document was printed, among other seals, the seal of Movarounnahr and the Ruler of Khorasan, Abu Said ibn Sultan Muhammad ibn Mironshah ibn Amir Temur. The document calls the mausoleum the mausoleum of Sultan Khovand Beka, and states that it was built by Habiba Sultan Begim, daughter of Emir Jalaliddin Sukhrob, near the mausoleum of Khoja Abdu Darun in the western corner of Feruza Park. It is recorded that the mausoleum was endowed with half of the land of the village of Malik Palace, located on the way from Samarkand to Shahrisabz. This complex is now in a very deplorable state. It is under the jurisdiction of the Department of cultural heritage. It has been preserved, but has not been preserved in its full condition. The preservation of the object requires restoration, reconstruction work. But no funds were allocated for the removal from UNESCO.

Keywords: Ashratkhana, mausoleum, palace, repair, restoration, conservation, reconstruction.

The ashratkhana complex is a unique architectural monument (15th century) in the pattern of Samarkand. Another theory is that the name of the monument is from Arabic meaning asharat – ten (ten rooms). Ashratkhana - translated from Persian, "Ishratkhana" means " House of entertainment". The first mention of the ashratkhana complex is in the historical treatise "Samaria" of the 30s of the XIX century. In it, the Ishratkhana is evidenced by the foundation of the daughter of Emir Jalaliddin – Khabib Sultan. In the mid-19th century, topographer Yakovlev, a member of the Russian Embassy in Bukhara, drew up a plan for the city of Samarkand, marking the building southeast of the fortress gate with a large conditional sign and the inscription "building left over from the Timur period". Academician V.In his study of Samarkand, Bartold gave the name of the "nestoriansky monument", which was transformed into the palace of the wanderer of the Khan's workshop.Ishrathananinglugzvi manosiikki are interpreted in kind. The myonsaroy type is made up of

very complex intersecting ravocks and thyroid ligaments in the corners. Izorasi koshinkori pattern, its top is white, the hook is worked on rangebarang embossed flowers have become Chama'nzori. Among them, the slightly embossed kundal flowers made the room more polished. The top of the myonsaroy is externally covered with a second dome.






Figure 1. Preserved interior decoration of the Asratkhana complex.

This dome is also ancient because of the high round chambarak and majestic. The surface of the Chambarak is decorated with intricate koshinkor patterns. The dome is entirely krped with feruza bricks. That is why Koshk was later named after the "blue dome". Islimiy and girih patterns in the workshop, gilded kundal ornaments are considered from unique masterpieces in the national architectural Treasury.





Figure 2. The current state of the complex





Figure 3. The entrance gate of the complex.

Even now, the remains of the Ashrathana, although having lost much of it, look showy and attractive. Its high dome collapsed during the powerful earthquake of 1903. Beijing built the dome structure in 1872. can be identified from the su-rat obtained at. The ashratkhana complex occupies a special place in the history of the architecture of Uzbekistan as the most famous and most mukhtashami, especially the only example that has been

demolished, among the garden ponds built around Amir Temur Samarkand with special dedication, personally supervised. The first archaeological work in the ashratchah was carried out in 1939-1940 by academics M.E.Masson and G.A.Pugachenkova, as a result of which it was determined that the mausoleum was located on a large Foundation, which was deepened to almost 5 meters. The ashratchana was a unique building of the 15th century. Prominent figures of the time and master craftsmen worked on the construction of the palace. At that time, a special revolution was carried out in Samarkand architecture. Many researchers praised the art of its creators greatly, noting not only the endless luxury of the design of this building - a mausoleum or Palace, but also the fact that fundamentally new architectural techniques and solutions were involved in the construction. The ashratkhana complex includes: a mosque with a dazzling and modest interior, where funerals are held using the "kundal" technique, and a number of rooms on the 1st and 2nd floors for funeral prayer ado etiish are also available. In the 16th century, the mausoleum fell into disrepair.

More precisely, looted. This was due to the intense construction work that began in the 17th century in Samarkand. At first, the Ashratchan was separated from the marble panel. Because large plates were needed for Lion-Dor and Tillaqori madrasas built in Registan. Marble tombstones were also carried to the adjacent Abdi-Darun cemetery, replacing the old slabs with new marble stones. The only source of reference to the ashratkhana complex is information about the single foundation document on the monument in the Samarkand State Museum-Reserve document fund.




Figure 4. Pattern decorations.

According to him, this Waqf document was written in the beginning of Ramadan 868 (may 1463), and the document was printed, among other seals, the seal of Movarounnahr and the Ruler of Khorasan, Abu Said ibn Sultan Muhammad ibn Mironshah ibn Amir Temur. The document calls the mausoleum the mausoleum of Sultan Khovand Beka, and states that it was built by Habiba Sultan Begim, daughter of Emir Jalaliddin Sukhrob, near the mausoleum of Khoja Abdu Darun in the western corner of Feruza Park. It is recorded that the mausoleum was endowed with half of the land of the village of Malik Palace, located on the way from Samarkand to Shahrisabz. The document of this foundation was approved by Samarkand Kazi in the month of shaabon in 870 Ah (March-April 1466). Speaking about the history of its construction, the Ashratkhana complex is located on the southeast side of the square, on the edge of the Old City. During the years of Emir Temür's reign, a serf road ran from here to "Gatai Feruza" to "Bogi Dilkusho" and "Bogi became". According to Abu Tohirkhoja's "Samaria", the building was erected by Order of Habiba Sultan Begim, wife of Abu Said Mirza, the ruler of temüri, for his daughter Sultan Hovand Beka.



Figure 5. Preserved decorations of the complex.

The workshop complex was built in a short time, that is, in 3-4 years. Construction was completed in may 1463. This luxurious mausoleum, originally built for Khawand Sultan, later became a family hut for women and children of the Timurid dynasty. As a result of the archaeological excavations carried out, dahma, which has 20 graves found here, is distinguished from saganas known in Central Asia by their fertility and size. The workshop complex was built to consist of a khilkhana and a pilgrimage site, like the Amir Temur mausoleum. However, the difference between this mausoleum and other monuments of the Timurid period is that a second floor is also located under its dome. The mausoleum Hilary, like the mausoleum of Amir Temur, is 8-9 in diameter and is made Octagonal and has a well-preserved roof. The mausoleum also has a second floor, and such a style of construction is not found in other mausoleums built during and after the Timurid period. In this respect, too, it always attracts the attention of researchers and tourists. The mausoleum was built in different years by Uzbek scientists G.Pugachenkova and M.Studied by the Masons. In Particular, G.Pugachenkova, in her work "Central Asian 15th-century architecture", published in 1976, mainly researching Timurid architectural monuments,

completed the mausoleum of Sultan Khovand Beka and at Herat in 1438. Gavharshodbegim rests on the similar and faulty sides of the mausoleums. Also, drawings of the mausoleum were taken and put forward scientific conclusions about its condition at the time of construction. In 2007, the mausoleum was under the direction of Dr. Shteffen Laue with the participation of students from the Potsdam School of Applied Arts in Germany and the Samarkand State Institute of architecture and construction. During the study, samples were taken from the wall images and ceramic coatings of the mausoleum, and Microchemical analyzes of the colors used in them were taken in laboratory conditions. Part of the architectural decoration of the mausoleum wall is restored in order to create an idea of the initial state of the colors used in the decorations on the walls of the mausoleum, relying on the analyzes obtained. In 2009, a practical training for students of the University of Dresden is organized in Samarkand by the German scientist Jens Yordan, professor of the Department of architectural history at the University of Weimar. During the training, students deal with the problems of restoration and use of the mausoleum of Sultan Khovand Beka.

Using the practical results achieved, they develop a project for the organization of a small museum complex in the mausoleum. In particular, through the placement of engineering communications and Exhibition Buildings, proposals are put forward to block the part of the mausoleum near Sadriddin Ayniy street from traffic noise, to create a relaxing atmosphere in this place. As a result of this study, in addition to the models and virtual 3D images of the mausoleum of Sultan Khovand Beka, it was also proposed to organize a permanent exhibition here about the history of the restoration of Samarkand monuments. The destruction of the monument dates back to the 16th century. Due to the events of the late 15th – early 16th centuries in Central Asia, Power is transferred from the temurians to the shaybanids, and from this period, attention to the mausoleum begins to decline. In the 17th century, the tombstones on the monument were moved to the Abdu Darun cemetery not far from it, their old inscriptions were erased and replaced with new ones. It is known that all the preserved architectural monuments over time become obsolete due to the natural climatic environment and external influences, in which they undergo a process of irradiation and deformation. The task of maintaining them requires that they be carried out by specialists using scientifically based methods of repair work. Because without determining the reasons for the destruction of the monument, it is clear that the taste of the monument will be of poor quality in the case of non-theoretical justification. Timely monitoring of Castle deformation shows the correct way to strengthen future monument structures. It is necessary to find a system of operation of each construction in the initial, current and subsequent case. This is especially difficult in structures where tensile strength is present, i.e. in raves.

References:

1. Po‘Latov X.Sh. O‘Zbekiston Arxitektura Yodgorlikla ri. O‘Quv Qo‘Llanma. – T.: 2003.
2. Isamuxamdova D.U., Mirzaev M.K. «Zamonaviy Shaharsozlik Nazariyasi”.O‘Quvqo‘Llanma, Toshkent, 2015 Y.
3. Samarqand Viloyati Misolida). Samarqand, 2015
4. Uralov A.S, Nozilov D, Farmonov A, Matyazov S. Qishloq Uylarini Rejalashtirish Va Qurish Asoslari.-T.,1994
5. Uralov A.S., Sadikova S.N. O’rta Osiyo An’anaviy “Chorbog‘” Uslubi Va Zamonaviy Bog‘-Park San’ati.-T.,2012
6. Bazarovna, N. Y. (2023). O’RTA OSIYONING TARIXIY BOZORLARI VA SAVDO BINOLARI ARXITEKTURASINI TAHLIL QILISH. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 46-50.
7. Jurayeva, E., Fayoza, O., & Baljan, X. (2024). ARCHITECTURAL FORMATION PROCESSES OF KARSHI FORTRESS AREAS. International Journal Of Education, Social Science & Humanities, 12(3), 789-797.
8. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). ORGANIZATION OF PROTECTION GODS IN HISTORICAL CITIES. Synergy: Cross-Disciplinary Journal Of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 69-76.
9. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). O ‘ZBEKISTON TARIXIY OBIDALARIDAGI BEZAKLAR TAHLILI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(10), 1-4.
10. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). Architecture Of Historical Monuments Of Shahrisabz. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(10), 6-10.
11. Elmuradovna, J. E. (2023). TARIXIY SHAHARLARDAGI CHETEL MAYDONLARINING ARXITEKTURASINI TAHLIL QILISH. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 20-26.
12. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). ORGANIZATION OF PROTECTION GODS IN HISTORICAL CITIES. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 69-76.

XORAZM VOHASIDA EKOLOGIK SOF GIL XOM ASHYOLARDAN KAM QAVATLI ZILZILAGA BARDOSH BERADIGAN BINOLARNI TIKLASHDAGI TADBIRLAR

Rustamov I.O.
tayanch doktorant Xorazm Ma'mun akademiyasi Xiva shahar.

Annotasiya: Ushbu maqolada Xorazm hududida ekologik gil xom ashyolardan tayyorlangan zilzilaga bardosh beradigan kam qavatli turar joylar xaqida gapiramiz. Chunki mahalliy xom ashyolar arzon bo'lishi bilan birga ekologik jihatdan toza hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Loy, paxsadevor, zilzila, ashyolar, turar-joy.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о сейсмостойких малоэтажных жилых домах на территории Хорезма, изготовленных из экологического глиняного сырья. Потому что местное сырье считается экологически чистым, но при этом дешевым.

Ключевые слова: глина, пахсадевор, землетрясение, артефакты, жилье.

Abstract: This article will focus on earthquake-resistant low-rise residential buildings in the territory of Khorezm, made from ecological clay raw materials. Because local raw materials are considered environmentally friendly, but at the same time cheap.

Keywords: mud, wall, earthquake, artifacts, housing.

Jaxon iqtisodiy inqirozi davrida energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilish hisobiga mahalliy mineral xom ashyo resurslaridan foydalanib, sifat ko'rsatkichlari bilan chet el andozalaridan qolishmaydigan, nisbatan arzon mahsulotlarni regionlarda ishlab chiqarishni tashkil qilish o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirda mamlakatimizda aholi turmush tarzini yaxshilash, qishloqlarda zamonaviy, barcha sharoitlarga ega bo'lgan uy joylarni qurishga katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Aholining 60% dan ortig'i istiqomat qiladigan O'zbekiston Respublikasi qishloq joylarida qurilayotgan turar-joy binolarining asosiy qismini mahalliy xom-ashyodan (paxsa, xom g'isht va yog'och sinchdan) tiklangan bir va ikki qavatli binolar tashkil etadi. Chunki mahalliy xom ashyolar arzon bo'lishi bilan birga ekologik jihatdan toza hisoblanadi. Shuning uchun ham tuproq va yog'och ko'p asrlardan buyon yer yuzida istiqomat qilayotgan hamma halqlar uchun asosiy qurilish materiali bo'lib kelmoqda [Xakkulov: 165].

Qishloq joylarida mahalliy xom ashyolardan qurilgan binolarning hajmiy-loyihaviy yechimlari tahlil qilinganda shu narsa ma'lum bo'ldiki turar-joy binolari asosan janubga qaratilib qurilgan bo'lib, 1-rasmda ko'rsatilgandek planga ega.

Qishloq joylarida quriladigan aksariyat 1 va 2 qavatli binolar loyiha smeta hujjatisiz, hashar asosida tiklanadi. Qurilish jarayoni esa hech kim tomonidan nazorat qilinmaydi.

Qishloq joylarida qurilgan binolarning konstruktiv yechimlari tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi:

1. Turar-joy binosining poydevori tasmasimon bo'lib, yaxlit betondan tiklangan. Bunda poydevor tagining joylashish chuqurligi hamma vaqt ham yerning muzlash qatalamidan pastda joylashtirilmagan.

2. Turar-joy binosining devorini tiklash uchun quyidagi mahalliy ashyolardan biri yoki bir-nechtasi birgalikda ishlatilgan: paxsa, xom g'isht, paxsa bilan xom g'isht birgalikda (ma'lum balandlikkacha paxsa undan yuqorisi xom g'isht) va oralari xom g'isht bilan to'ldirilgan yog'och sinch.

3. Devor bilan poydevor orasidagi gorizontal gidroizolyatsiya sifatida bir qavat tol yoki ruberoid ishlatilgan.

4. Turar-joy binosining tomi yog'och bolorlar (1) bilan yopilib, uning ustidan vassa (2) quyilgan va bolorlarga mixlab maxkamlangan. Bolorlarning orasidagi masofa bolor dametriga bog'liq ravishda (1,0…1,2) m qabul qilingan. Vassalar ustidan qamish (3) to'sha¬lib tuproq (4) tortilgan. Tuproq issiqlikni saqlovchi qatlam rolini o'tagan holda uning qalinligi (100…150) mm qabul qilingan.

Tuproq ustidan tom somonli loy (5) bilan suvalgan Tom asbestotsementli to'lqinli varaqlar bilan yopilmagan taqdirda somonli loy bilan ikki uch qatlam suvalgan. Tom asbestotsementli to'lqinli varaqlar bilan yopilgan taqdirda bir qatlamli suvoq yetarli bo'lgan.

Bolorlarni loyihaviy o'rniga qo'yishda paxsali yoki xom g'ishtli devor ustidan yog'och taxta (6) qo'yilgan va bolorlar mix yordamida shu taxtaga mahkamlangan. Bolorlar orasi paxsa yoki xom g'isht bilan to'ldirilgan.

Yuqorida keltirilgan konstruktiv yechimlardan xulosa qiliщ mumkinki hozirgi vaqtda qishloq joylarida mahalliy xom ashyolardan qurilayotgan binolarda zilzilaga qarshi elementar chora tadbirlar ko'rilmagan.

Oxirgi vaqtda Markaziy Osiyo hududlarida vayronaliklarga olib kelgan kuchli zilzilalar sodir bo'ldi [Shoumarov: 185]. O'tgan asrning 80 yillarida Gazlida, Isfarada va boshqa shaharlarda, 2008 yilda Qirg'izistonda kuchli zilzilalar sodir bo'ldi.

Bu zilzilalar oqibatida mahalliy xom ashyodan tiklangan turar-joy binolari vayronaliklarga aylandi. Xudi shunday voqealarni xorijiy davlatlar (Xitoy, Eron, Rossiya, Turkiya) misolida ham keltirish mumkin.

Demak, zilzilaga qarshi ma'lum chora tadbirlar ko'rilmaganda u qishloq joylarida qurilgan turar-joylarni vayronalarga aylantirishi va bu binolarda yashayotgan odamlarning halokatiga olib kelishi muqarrar.

Mahalliy xom ashyolardan tiklanadigan binolarning zilzilabar-doshligini ta'minlash chora tadbirlari «Zilzilaviy xududlarda qurilish» me'yoriy hujjatining (QMQ) 3.7 bandida keltirilgan.

QMQ talabi (3.1 jadval, 7 band) bo'yicha devorlari xom g'isht va paxsadan tiklanadigan binolarni tiklash

faqat seysmikligi 7 ball bo’lgan tumanlarda ruxsat etiladi. Bunda binolarda antiseysmik tadbirlar ko’rilgan bo’lib, balandligi 4,5 m dan oshmasligi (1 qavat) shart. Binolarning poydevorlari tosh materiallardan tiklanishi shart.

Devorlari yog’och sinchdan tiklanib, xom g’isht bilan to’ldirilgan binolarni tiklash esa faqat seysmikligi 7va 8 ball bo’lgan tumanlarda ruxsat etiladi. Bunda binolarning poydevorlari beton va tosh materiallardan tayyorlangan bo’lishi shart. Bunday binolarning balandligi mos ravishda 7 balli tumanlarda 8 m dan (2 qavat), 8 balli tumanlarda esa, 4 m dan (1 qavat) oshmasligi shart.

Devorlari xom g’isht va paxsadan tiklanadigan binolar temirbeton bilan kuchaytirilgan binolarni tiklash esa seysmikligi 7, 8 va 9 ball bo’lgan tumanlarda ruxsat etiladi. Bunda binolarning poydevorlari beton va tosh materiallardan tayyorlangan bo’lishi shart. Bunday binolarning balandligi mos ravishda 7 balli tumanlarda 8 m dan (2 qavat), 8 balli tumanlarda 7 m dan (2 qavat) va 8 balli tumanlarda esa, 5 m dan (1 qavat) oshmasligi shart.

Mustahkamligi past bo’lgan ashyolardan tiklanadigan binolar uchun qurilish me’yorlarida [4] keltirilgan cheklanishlar ilmiy jihatdan asoslanmagan. Chunki bu yo’nalishda ochiq matbuotda chop etilgan maqolalar soni barmoq bilan sanoqli. Bu yo’nalishda chop etilgan ishlarga A.I. Martemyanovning Toshkent va Gazli shaharlarida sodir bo’lgan zilzilalarda shikastlangan kam qavatli binolar asosida yozilgan kitobini keltirish mumkin.

Oralari xom g’isht bilan to’ldiriladigan yog’och sinchli binolar zilzila ta’siriga chidamli bo’lishiga qaramasdan bunday konstruktiv sxemaga ega bo’lgan turar joy binolarining qurilishiga e’tibor kam karatilgan. Qo’sh sinchli konstruktiv sxemaga ega bo’lgan binolarning yechimlari takomillashtirilib sinch elementlari unifikatsiyalashtiriladigan bo’lsa bunday konstruktiv sxema bo’yicha hisobiy seysmikligi 7-9 ball bo’lgan tumanlarda ko’pqavatli binolar ham qurish mumkin.

Adabiyotlar

1. Usmanov., Xadjiev I., Durdieva G.S. Gil xom ashyoli devorlarni hisoblashning muhandislik uslubi. // Me’morchilik va qurilish muammolari ilmiy texnik jurnal, Samarqand, 2014, №1. 6-8 bet.

2. Xaqqulov A. Tarixiy yodgorliklarni taьmirlash. Toshkent. O’kituvchi nashriyoti, 1983, 185 b.

3. Shoumarov N.B., Hobilov B.A. Zilzilabardosh imoratlar. Toshkent, “Mehnat” nashriyoti, 1989, 165 b.

4. QMQ 2.01.03-96. Zilzilaviy hududda qurilish. Toshkent, 1997.

5. QMQ 2.01.07-97. Yuklar va ta’sirlar. T., 1997.

3-SHO‘BA. QURILISH, MEXANIKA, GEOMATIKA, ATROF-MUHIT, MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SA-LOMATLIK MUHANDISLIGI SOHALARIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMIL-LASHTIRISHNING MUAMMMO, YECHIM VA ISTIQBOLLARI

УДК 614.8.084

ELEKTR KABEL TARMOQLARIDA SODIR BO‘LADIGAN QISQA TUTASHUV VA YONG‘IN-LARNING OLDINI OLISH TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH

Ruziev S.T.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Safarov I.U.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Qurilish muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yasakov Z.X.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi” katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy uskunalar orqali yong’in vaqtida so’rilishi ko’zatilayotgan “Aspiratsiya oqimi koeffitsientini zamonaviy uskunasini” avtomatik boshqarish, ya’ni uskunani CoDeSys 2.3 muhiti ST dastu-rida boshqarish algoritmini modelini ishlab chiqish va vizuallashtirish vazifalari o’rganilib, favqulodda vaziyatlarni (yong’in) lokalizatsiyalash, yong’in ko’lamini kamaytirish, orqali iqtisodiy ta’sirini kamaytirishdan iborat bo‘lib, yong‘in xavfsizligini sohasida eng dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgan muammolarni tadqiqotlarda olin-gan natijalar asosida yechimlar orqali isbotlab berish.

Kalit so‘zlar: CoDeSys 2.3 muhiti ST dasturi, avtomatlashtirish, vizuallashtirish, kontroller, moddalar va ma-teriallarning yonish jarayonidagi o‘zgarishlari, aspiratsiya, yong‘in, yonish kamerasi, shamolning harakatlanish te-zligi, anemometr, temperaturaning oshishi, yonish zonasi, qo‘shimcha konveksiya oqim, gorelka.

Kirish. Jahonda elektr kabel tarmoqlarida sodir bo‘ladigan qisqa tutashuvlardan hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarning oldini olish yonuvchi muhitning hosil bo‘lishini, yonish manbalarini bartaraf etish va yong‘in tarqalishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni to‘sish or-qali ko‘lamni kamaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada zamonaviy texnologiyalar asosida keng rivojlanayotgan polimer kompozit materiallari va yengil alangalanuvchi qattiq hamda suyuq moddalarni yong‘indan himoyalash samaradorligini oshirish maqsa-dida, iqtisodiy va ekologik samarador yong‘in o‘chiru-vchi tarkiblar olish va ular yordamida sodir bo‘ladigan yong‘inlarni oldini olish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda.

Shu boisdan Respublikamizda va xorijda keyingi yillarda bir qator olimlar tomonidan elektr kabellarining olovbardoshli polimer kompozitlarning yangi tar-kiblarini ishlab chiqish va ularni olish texnologiyalarini yaratish hamda ularning strukturasi va xossalarini tadqiq etish va texnologiyasining asoslari ishlab chi-qilgan.

Tadqiqotning maqsadi: xavfli ishlab chiqarish hamda turar joy bino va inshootlarida yong‘in xavfi mavjud bo‘lgan qurilish kompozitlari, elektr kabel tarmoqlarida yonishda alangalanishining aspiratsiya koeffitsientini aniqlash, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni CodeSys muhiti ST dasturlash orqali avtomatik boshqarish tizimi favqulodda yong’in paydo bo’lishida qurilmani mantiqiy boshqaruv algoritmini ishlab chi-qish.

Vazifasi: “Aspiratsiya oqimi koeffitsientidan foydalanib favqulodda vaziyatlar (yong‘in)ni lokalizatsiyalash va bartaraf etish taktikasini takomillashtirish” va maxalliylashtirishdan iborat.

Ixtiro mohiyati: Yonish kamerasi ichida sinalayotgan material namunasi ostida ketma-ket ikkita anemometr joylashgan bo‘lib, har bir anemometr tegishli quvvat datchiklari potensiometrlarga ulangan, bu esa anemometr paraklarining aylanishi natijasida potensiometrga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan quvvat asosida datchiklarda shamolning harakat tezligi ko‘rsatgichini aniqlab beradi. Yong‘inda yetkaziladigan talafotlar faqat vaqt omiligagina bog‘liq bo‘lmay, balki shamolning yo‘nalishi va tezligi yong‘inning rivojlanishi bir qator boshqa omillar jo‘mladan birinchi navbatda esa yong‘in zonasidagi harorat rejimiga bog‘liqdir.Yong‘in sodir bo‘lgan muhitdagi havoning tarkibi anchagina o‘zgarib mahsulotlarning yonishi natijasida ajralib chiqqan zaharli gazlarning miqdori ko‘payadi, kislorod miqdori esa kamaishi ko‘zatildi(1-jadval).

1-jadval.


Yong‘inda havo tarkibining o‘zgarishi (%).

Yong‘inlar:	SO	SO_2	O_2
Yerto‘lalarda	0,04÷0,65	0,1÷3,4	17÷20
Qavatlarda	0,01÷0,4	0,3÷10,1	9,9÷20,8
Chordoqlarda	0,01÷0,4	0,1÷0,7	17,9÷20,7

Shu maqsadda, yonish paytida hosil bo‘lgan aspiratsiya oqimi mexanikasini o‘rganish qo‘shimcha zarur ma’lumotlarni taqdim etadi. Favqulodda vaziyat

(yong‘in)larga olib keluvchi xavfli omillarga ta’sir qilish natijasida favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish uchun kuch va vositalarni oldindan hisoblash imkonini beradi.

Materiallarning yonish vaqtida, yonish zonasida hosil bo‘ladigan aspiratsion oqimlar qo‘shimcha havo oqimining tezligiga bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi. Bundan ko‘rinadiki yong‘in markazida yonayotgan material atrofidagi kislorod yonishi natijasida bosimning pasayishi kuzatiladi va bosim pasayishi oqibatida atrof muhitdan havo so‘rilishi ro‘y berib, bu holat alohida ravishda yuqori va quyi anemometrlar orqali qayd qilib boriladi. Anemometrning elektron chizmasining (1-rasm) 1-blokida ikkita parrak o‘rnatilgan.



1-rasm. Aspiratsiya koeffitsientini aniqlash bo‘yicha portativ uskunasining elektron chizmasi.

Anemometrning parraklari pastdan yuqoriga tomon harakat qiladi va pastgi parrakdan o‘tib yuqori parrakni aylantirib o‘tadi. Bu jarayondan keyin ikkala parrak aylanishni boshlaydi. Laboratoriya sharoitida aspiratsiya koeffitsientini aniqlash qurilmasi- shtativga (2) qotirilgan, xomutli ushlagich (3) bilan mahkamlangan, texnik farfor, oynadan tayyorlangan 50 mm.diametrlik reaksion yonish kameradan (1), shtativga mahkamlangan ushlagich (5) orqali kameraga kiritilgan sinalayotgan material namunasi (4), kamera o‘rtasida va quyi qismida o‘rnatilgan anemometrlar (6, 7), namunani yoqish uchun kamera ostiga o‘rnatilgan gorelka (8), kamera o‘rtasidagi va quyi qismidagi anemometrlarga ulangan potensiometrlar (shamol tezligini ko‘rsatuvchi datchiklar) (9, 10)dan tashkil topgan. Laboratoriya sharoitida aspiratsiya koeffitsientini aniqlash bo‘yicha qurilmaning aksonometrik seximasi 1-rasmda keltirilgan.

Parraklarning aylanish paytidagi ishqalanish kuchi qancha kam bo‘lsa aniqlik shuncha yuqori bo‘ladi. Bizda ishqalanish elementi sifatida grafit o‘q qo‘llanilgan. Parraklar 8 tadan qanotga ega. Parrak aylanganda qanotlar ilgarilanma harakat qiladi va qanot o‘rnini bo‘shliq va bo‘shliq o‘rnini qanot egallashni boshlaydi. Bu jarayon chastotani hosil qilishda qo‘llaniladi.

Agar parrak 1 soniyada 5 marta aylansa, unda chastotasi 5*8=40 Hz bo‘ladi. Parrakning tagida infraqizil nur qabul (IR receiver-“Infra Qizil qabul qilgich”) qiluvchi datchik va tepasida infraqizil diod (IR emitter – “Infra Qizil uzatgich”)bor.

Parrakning qanotchalari parrak tezligiga bog‘liq ravishda chastotada dioddan chiqayotgan infraqizil nurni chastota bo‘yicha to‘sadi va o‘tkazadi. Bu kabi to‘sish-o‘tkazish-to‘sish-o‘tkazish qabul qilgichda impulsli tokni hosil qiladi. Bu impulslar ikkinchi va uchinchi bloklardagi tranzistorlarning bazasiga yuboriladi. Tranzistorlar impulslar (“Tok bor va ma’lum vaqtdan keyin butunlay yo‘q va ma’lum vaqtdan keyin bor”) natijasi ochilib yopilishni boshlaydi va natijada 4 ta 2N5551 rusumli npn tranzistorlar 200nF li (nano farad) ko‘prik sxemasi (“bridge scheme”) orqali ulangan kondensatorni zaryadlashni va razryadlashni boshlaydi. Kondensator zaryad-razryad paytida

Tomson formulasi yordamida aniqlanadigan qarshilik ko‘rsatadi. Bu jarayonda chastota qancha balanad ya’ni parraklar aylanish tezligi qancha baland bo‘lsa, kondensator qarshiligi shuncha kam bo‘ladi. Kondensator soni ikkita va shunga muvofiq 2 ta indicator bor. Indikatorning anodida transistor bor va shu tranzistorning bazasiga yuqoridagi kondensatorlardan o‘tayotgan tok ketadi (ketadi negaki bazaga “-“ minus ishorali tok ulangan) va transistor ochiladi. Ma’lum milli sekunddan keyin ko‘prik sxemasidagi kondensator to‘liq zaryadlanadi va undan tok o‘tmay qoladi va indikatorning transistori o‘chadi va ma’lum millisekunddan keyin payyak qanotchasi joyini o‘zgartiradi impuls hosil bo‘ladi va ko‘prik kondensator razryadlanishini boshlaydi va indicator tranzistori yana ochiladi va ma’lum millisekunddan keyin kondensator to‘liq razryadlanadi va transistor yopiladi, biz buni sezmaymiz chunki bu juda tez sodir bo‘ladi va indicator ko‘rsatgichi to‘liq pastga tushmaydi va vibratsiyaga uchramaydi. Bunga sabab indikatorda 200mF (“milli Farad”) li filtr, antivibratsion stabillashtiruvchi kondensator o‘rnatilgan.

$$X = \frac{1}{2\pi f C};$$

bu yerda;

X-reaktiv qarshilik (“kondensatorning qarshiligi”) [Ohm]

f-chastora [Hertz]

C-kondensator sig’imi [Farad]

π -3.14159265358979323846264338327 95

Yuqori va o‘rtadagi anemometr ko‘rsatkichlarini N_1 va N_2 deb belgilab olamiz va $K_{asp}=N_2/N_1$ formulasidan foydalangan holda aspiratsiya koeffitsienti aniqlanadi. Olingan bu koeffitsientning haqiqiy ma’nosi quyidagilar bilan izohlanadi:


Bundan kontroller ishi algoritmi boshqaruv dasturi asosida aniqlanib, boshqaruv tizimi talablariga mos ravishda qo’llanuvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Boshqaruv algoritmini mantiqiy shart bo’yicha bajarilishini ko’rib chiqamiz:

1.Agar PUSK tugmasi bosilgan (PUSK=1) va yong’in tutuni qurilmaga yo’naltiriladi, bu vaqtda STOP tugmasi bosilmagan (STOP=1), va D3 ihfraqizil datchigiga signal kelmagan bo’ladi (D3=0) , keyin datchiklar D1=1 anemometr 1 va D2 =1 anemometr 2 ishga tushiriladi.


2. Agar PUSK tugmasi bosilgan (PUSK=1), STOP tugmasi bosilmagan (STOP=1), va bu vaqtda D3 ihfra-qizil datchigiga signal kelgan bo'lsa (D3=1) , keyin datchiklar D1=1 anemometr 1 va D2 =1 anemometr 2 ishlashi to'xtatiladi va avtomatik ravishda yong'in xavfi tovushli va lampali signallashtirish tizimi ishlab ketadi. [6 -7]

```
PLC_PRG (PRG-ST)
0001 PROGRAM PLC_PRG
0002 VAR
0003     PUSK: BOOL; (*ишга тушириш тугмаси*)
0004     STOP: BOOL; (*тухтатиш тугмаси*)
0005     D1: BOOL; (*1-паррак, 1 -анемометр*)
0006     D2: BOOL; (*2-паррак , 2-анемометр*)
0007     D3: BOOL; (*инфракизил датчик*)
0008     L1: BOOL; (*сигнал ёнгин лампаси-авария режими*)
0009     L2: BOOL; (*товуш ёнгин сигнали-авария режими*)
0010 END_VAR
0011
0001 IF PUSK=TRUE AND STOP=TRUE AND  D3=FALSE THEN
0002 D1:=TRUE;
0003 D2:=TRUE;
0004 END_IF
0005 IF PUSK=TRUE AND STOP=TRUE AND D3=TRUE THEN
0006 D1:=FALSE;
0007 D2:=FALSE;
0008 END_IF
0009 IF D3=TRUE THEN
0010 L1:=TRUE;
0011 L2:=TRUE;
0012 ELSE
0013 L1:=FALSE;
0014 L2:=FALSE;
0015 END_IF
```

2-rasm.CodeSys muhiti ST dasturlash tilida favqulodda yong'in paydo bo'lishida qurilmani mantiqiy boshqaruv algo-ritmi.



3-rasm.CodeSys muhiti ST dasturlash tilida favqulodda yong'in paydo bo'lishida qurilmani avtomatik boshqarish tizimi.



4-rasm. CodeSys muhiti ST dasturlash tilida favqulodda yong'in paydo bo'lishida qurilmani avtomatik boshqarish tizimini modelini vizuallashtirish.

Xulosa. Tajriba sinov natijalari davomida qurilmani sinash avtomatik boshqaruv orqali olingan ma'lumotlar natijalarini amalda qo'llash, tahlil qilish va favqulodda vaziyat (yong'in)da materiallarning yonishidagi as-piratsiya oqimlari koeffitsientini aniqlash qurilmasi yordamida, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun jalb etilishi kerak bo'lgan shaxsiy tarkibning soni 1,32 barobarga hamda vaqt (τ2+τ3) sarfi 1,72 barobarga qis-qarishi aniqlandi va qurilmani avtomatik boshqarish tiz-imini modelini vizuallashtirish CodeSys muhiti ST dastur tilida ishlab chiqildi.

Yong'inning kelib chiqishi va undan oldingi hola-tlarni tahlil qilib, yong'in taxminan qaysi vaqt oralig'ida rivojlanganligini, ya'ni uchqunning yonuvchan materi-alga tushganidan boshlab uning yong'in chiqqan (payqalgan) payti oralig'idagi vaqt ham aniqlanishi za-rurligini ko'rsatdi.

Bu metodologiya yong'in xavfini ehtimoliy baholash va aspiratsiya koeffitsiyentini aniqlash quril-masi orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asnosida yong'in vaqtida tezkor javob choralari ko'rish uchun kuchlar va vositalarni to'g'ri taqsimlash samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Ruziyev S.T., Rayimqulov A., Rajabova O. Yong'in sodir bo'lganda yetkaziladigan talafotlarni hamda moddiy

zarar miqdorini kamaytirishgning algoritmlarini matematik xavfsizlik mexanikasini ishlab chiqish. Me’morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnal 2023 yil № 2 son 322-324 bet.

2. Ruziyev S.T., Rayimqulov A., AchilovA.M. Dala sharoitida maxsus-taktik o‘quv mashg’ulotlar o‘tkazish orqali aspiratsiya oqimini aniqlash yo‘llari. “Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta‟minlashda Innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi IV Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy Anjuman materiallari Toshkent sh., 2022-yil 28-sentabr 87-92 bet.

3. Ruziyev S.T., Yasakov Z.X., Aminov O.Sh., Saidov B.M. Determination Of The Additional Aspiration Coefficient Formed In The Combustion Zone Excellencia: Xalqaro ko'p tarmoqli ta'lim jurnali (2994-9521) 2023 yil 59-62 bet.

4. Eksperimental tadqiqot tahlillari asosida shamolning yong'in ko'lamiga ta ‘sirini aniqlash Me’morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnik jurnali) 27.04.2023-yil № mahsus son https://samdaqi.edu.uz/institut-ilmiy-jurnali 734-737 betlar.

5. Ro'ziev, ST (2022). Dala sharoitida yong'in zonasida hosil bo'ladigan qo'shimcha aspiratsiya oqimlarini eritmalar bilan aniqlash. Markaziy Osiyo nazariy va amaliy fanlar jurnali, 3 (6), 101-104.

6. Старожилов И.А., Сидоров А.А. Разработка алгоритма работы учебного стенда автоматизированной системы пожарной охраны // Материалы докладов II Международной научно-практической конференции «European science forum», Петрозаводск, 11 декабря 2019 г. – Петрозаводск: МЦПН «Новая наука», 2019. Секция «Технические науки»

7. Петров, И.В. Программируемые контроллеры. Стандартные языки и приемы прикладного проектирования/И.В. Петров, В.П. Дьяконова. - М.: СОЛОН_Пресс, 2004.-256 с.

8. А. И. Новиков М. А. Воропанова Автоматизация технологических процессов и производств Практикум Утверждено Редакционно-издательским советом ВШТЭ СПбГУПТД Санкт-Петербург 2022 56-57 стр.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПАРАМЕТРОВ МИКРОКЛИМАТА В СПОРТЗАЛАХ ПОСРЕДСТВОМ ПАНЕЛЬНО-ЛУЧИСТОГО ОТОПЛЕНИЯ

Ширяева Нина Павловна
заведующий кафедрой, к.т.н., доцент, кафедра теплогазоснабжения и вентиляции, Институт строительства и архитектуры. ФГАОУ ВО «Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б. Н. Ельцина». г. Екатеринбург, Российская Федерация
npshiryaeva@yandex.ru
Булатников Алексей Алексеевич
студент, кафедра теплогазоснабжения и вентиляции, Институт строительства и архитектуры ФГАОУ ВО «Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б. Н. Ельцина». г. Екатеринбург, Российская Федерация
alekseybulatnikov@yandex.ru
Кулыгин Вячеслав Сергеевич
студент, кафедра теплогазоснабжения и вентиляции, Институт строительства и архитектуры ФГАОУ ВО «Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б. Н. Ельцина» г. Екатеринбург, Российская Федерация
slavakulyigin8@gmail.com

Аннотация. В статье представлены результаты расчета поверхностной плотности лучистого теплового потока от потолочных панелей в разных точках спортивного зала гимназии при различных температурах теплоносителя. Выявлены зоны, где облученность превышает допустимые значения. Предложены меры по снижению облученности.

Ключевые слова: Спортивный зал, излучающие панели, облученность, панельно-лучистое отопление, лучистый тепловой поток, тепловая нагрузка, энергоэффективные системы отопления, равномерный обогрев помещения.

Введение. В последнее время многие проектные решения по отоплению спортивных залов учебных заведений предполагают применение панельно-лучистого отопления. В качестве отопительных приборов используют водяные потолочные панели. Лучистый тепловой поток от нагретых панелей передается на поверхности ограждающих конструкций помещения, имеющих более низкую температуру. При этом излучение частично поглощается и частично отражается. При поглощении энергия излучения преобразуется в теплоту, а отраженные электромагнитные волны образуют вторичное излучение, которое также поглощается ограждающими конструкциями помещения.

Объект исследования. Объектом исследования были малый и большой спортивные залы МАОУ гимназии №39 «Французская гимназия» в Екатеринбурге. Высота спортзалов 8 м, площадь большого зала – 288 м^2, малого – 171 м^2.

Для отопления большого спортзала были использованы потолочные панели “Zehnder ZIP”, расположенные в 3 ряда: по центру, вдоль внутренней стены и вдоль наружной стены, причем у холодной наружной стены располагался сдвоенный ряд панелей (рис. 1).




Рис. 1. Расположение панелей в большом спортивном зале

В малом спортивном зале потолочные панели располагались в два ряда по две панели в каждом ряду, причем в панель у наружной стены поступал горячий теплоноситель, а в панели у внутренней стены перемещался охлажденный теплоноситель.

Инфракрасная потолочная водяная панель серии ZIP состоит из нескольких модулей, количество которых зависит от теплопотерь помещения. Корпус потолочной панели изготовлен из оцинкованной стали со специальным профилированием, что обеспечивает высокий коэффициент теплопередачи между теплоносителем, движущимся в оцинкованных трубах из прецизионной стали, и излучающей поверхностью панели. Сверху панель покрыта тепловой изоляцией (рис.2) [1,2].




Рис. 2. Конструкция подвесной излучающей панели

Панель собирается из отдельных модулей шириной 320 мм и длиной 2 м. Вес одного стандартного модуля с заполненными водой трубами составляет 5,8 кг.

Метод исследования и результаты. Расчет лучистого отопления включает определение тепловой нагрузки, выбор типа, конструкции и количества излучателей. Кроме того, необходимо обеспечить равномерность обогрева помещения. В зависимости от норм облученности головы человека определяются допустимая температура поверхности излучателя или расстояние до него. Оценка параметров систем лучистого отопления произведена на основе закономерностей лучистого теплообмена, приведенного в [3,4].

Количество теплоты, передаваемой излучением от нагретой поверхности панели на поверхность головы человека, имеющую более низкую температуру, может быть определено по формуле [5]:

$$Q_{п-ч} = c_0 \varepsilon_{п-ч} H_{п-ч} \left[\left(\frac{T_п}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_ч}{100} \right)^4 \right], \quad (1)$$

где c_0 = 5,67 Вт/(м^2·К) – коэффициент излучения абсолютно черного тела; $\varepsilon_{п-ч}$ – приведенная степень черноты участвующих в теплообмене поверхностей; $H_{п-ч}$ – взаимная площадь излучения, м^2; $T_п$ – температура поверхности излучения панели, К; $T_ч$ – температура поверхности головы человека, принимаемая равной 273 + 37 = 310 К.

Приведенная степень черноты участвующих в теплообмене поверхностей определяется соотношением [5]:

$$\varepsilon_{п-ч} = \left[1 + \left(\frac{1}{\varepsilon_п} - 1 \right) \frac{H_{п-ч}}{F_п} + \left(\frac{1}{\varepsilon_ч} - 1 \right) \frac{H_{п-ч}}{F_ч} \right]^{-1}, \quad (2)$$

где $\varepsilon_{п-ч}$ – приведенная степень черноты участвующих в теплообмене поверхностей; $\varepsilon_п$ – степень черноты поверхности панели (0,15 для полированного алюминия); $\varepsilon_ч$ – степень черноты поверхности головы человека, принята равной 0,95; $F_п$– площадь поверхности излучения панели, м^2; $F_ч$ – площадь поверхности головы человека, м^2.

Квадрат расстояния между центрами взаимодействующих площадок определяется по формуле

$$R^2 = \Delta x^2 + \Delta y^2 + \Delta z^2, \quad (3)$$

где x, Δy, Δz – разность координат центров панели и поверхности головы человека по осям x, y, z соответственно, м, (рис. 3).




Рис. 3. Схема к расчету теплообмена излучением

При горизонтальной установке излучающих панелей (рис. 3) принимают, что нагреваемая поверхность головы человека параллельна излучающей поверхности панели. В этом случае взаимную площадь излучения можно определить по формуле

$$H_{п-ч} = \frac{\Delta z^2}{\pi R^4} F_п F_ч. \quad (4)$$

Принимая форму головы человека шарообразной с площадью поперечного сечения $F_ч$ = 0,03 м^2 при температуре поверхности головы $T_ч$ = 310 К и площадью панели $F_п$ = 0,64 м^2, из уравнения (1) получаем выражение для поверхностной плотности лучистого теплового потока I = $Q_{п-ч}$ / $F_ч$ [6]:

$$I = \frac{1{,}8\Delta^{x^2} F_п}{R^4}\left[\left(\frac{273 + t_п}{100}\right)^4 - 92\right]. \quad (5)$$

Для расчета поверхностной плотности лучистого теплового потока панели были разбиты на отдельные излучатели длиной по 2 м каждый. Расчет облученности проведен в 12 контрольных точках (рис.4).




Рис. 4. План большого спортивного зала с размещением излучающих панелей: Т.1 - Т.12 – расчетные точка; 1 - 40 – номера инфракрасных излучателей

По результатам расчетов для точки Т.1 (рис. 4) были получены следующие значения величин:

- расстояние между центрами площадок R = 6 м при Δx = 0, Δz = 6 м, Δy = 0;
- взаимная площадь излучения $H_{п-ч}$ = 16,98 · 10 $^{-5}$ м^2;
- приведенная степень черноты участвующих в теплообмене поверхностей $\varepsilon_{п-ч}$ = 0,99;
- поверхностная плотность излучения I = 1,48 Вт/м^2.

Результаты расчетов суммарной поверхностной плотности лучистого теплового потока в точке 1 приведены в таблице.

Таблица

Результаты расчета суммарной поверхностной плотности лучистого теплового потока в расчетной точке 1 при температуре излучающей панели 70 °С

№ панели	ΔX, м	ΔZ, м	ΔY, м	R, м	Облученность I, Вт/м^2
1	0	6	0	6,0	1,48
2	0	6	2	6,3	1,20
3	0	6	4	7,2	0,71
4	0	6	6	8,5	0,37
5	0	6	8	10,0	0,19
6	0	6	10	11,7	0,10
7	0	6	12	13,4	0,06
8	0	6	14	15,2	0,04
9	0	6	16	17,1	0,02

Продолжение таблицы

№ панели	ΔX, м	ΔZ, м	ΔY, м	R, м	Облученность I, Вт/м^2
10	0	6	18	19,0	0,01
11	0,32	6	18	19,0	0,01
12	0,32	6	16	17,1	0,02
13	0,32	6	14	15,2	0,04
14	0,32	6	12	13,4	0,06
15	0,32	6	10	11,7	0,10
16	0,32	6	8	10,0	0,19
17	0,32	6	6	8	0,37
18	0,32	6	4	7,2	0,71
19	0,32	6	2	6,3	1,20
20	0,32	6	0	6,0	1,48
21	4,20	6	0	7,3	0,67
22	4,20	6	2	7,6	0,58
23	4,20	6	4	8	0,40
24	4,20	6	6	9,5	0,24
25	4,20	6	8	10,8	0,14
26	4,20	6	10	12,4	0,08
27	4,20	6	12	14,1	0,05
28	4,20	6	14	15,8	0,03
29	4,20	6	16	17,6	0,02
30	4,20	6	18	19,4	0,01
31	8,20	6	18	20,7	0,01
32	8,20	6	16	19,0	0,01
33	8,20	6	14	17,3	0,02
34	8,20	6	12	15,7	0,03
35	8,20	6	10	14,3	0,05
36	8,20	6	8	12,9	0,07
37	8,20	6	6	11,8	0,10
38	8,20	6	4	10,9	0,14
39	8,20	6	2	10,4	0,17
40	8,20	6	0	10,2	0,18
Суммарная облученность					11,37

Расчеты показали, что суммарная плотность лучистого теплового потока превышает допустимое значение 15 Вт/м^2 [7] в точках 2, 5, 8 и составляет соответственно 17,43 Вт/м^2; 16,97 Вт/м^2; 17,27 Вт/м^2 при средней температуре поверхности панели от 68 ^{0}С до 69,5 ^{0}С. Точки находятся в центре зала под панелями с горячим теплоносителем. Из условий выполнения требований [7] была определена максимально допустимая температура поверхности панели $t_п$ = 65 ^{0}С.

Библиографический список

1. Потолочные панели Zehnder ZIP, характеристики. URL: https://www.zehnder-radiator.ru/potolochnye-paneli-zehnder-zip [дата обращения 14.05.2024].

2. Zehnder ZIP: Technical brochure for radiant ceiling panels for heating and cooling, 2024. – 48 p.

3. Ципина Н.В., Теплофизические процессы в приборах. Учебное пособие. Воронеж: ФГБОУ ВО Воронежский государственный технический университет, 2022. – 134 с.

4. Исаченко В.П., Осипова В.А., Сукомел А.С. Теплопередача. М.: Энергия, 1981. – 416 с.

5. Шумилов Р.Н., Толстова Ю.И. Проектирование систем вентиляции и отопления. Учебное пособие: в 2-х частях. Ч. 1. Екатеринбург: УГТУ-УПИ, 2008. – 187 с.

6.Наумейко А.В., Кузнецов П.В., Толстова Ю.И., Шумилов Р.Н. Энергоэффективные системы отопления. Учебное пособие. Екатеринбург: ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 2003. – 106 с.

7. СП 60.13330.2020 Отопление, вентиляция и кондиционирование СНиП 41-01-2003 / М.: Минстрой России, 2021. – 116 с.

MODIFIKATSIYALANGAN YOG‘OCH MATERIALLARNING MUSTAHKAMLIGI

Maxmatkulov Turdumurod

Samarqand davlat arxitektura –qurilish universiteti “Qurilish muxandisligi” kafedrasining professori.

Annatatsiya: Bugungi kunda qurilishda oddiy yog‘och konstruksiyalar bilan bir qatorda murakkab kimyoviy tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan materiallardan keng foydalanil-moqda. Bu turdagi materiallarning mustahkamligi yog‘ochning va modifikatsiyalavchi tarkiblarning turiga va boshqa ko‘rsatkichlarga bog‘liq. Maqolada modifikatsiyalangan yog‘och material-larning mustahkamligi yuzasidan ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yog‘och konstruksiyalar, murakkab kimyoviy tarkiblar, modifikatsiya qilish, tarkiblarning turi, materiallarning mustahkamligi, tahlil natijalari.

Аннатация: В настаяшие время в строительстве широко применяются модифицированные деревянные материалы в равне с обычными материалами. Прочностные показатели зависить от вида деревянных материалов и модифицирующих составов. В статье приводятся результаты анализа прочностных характеристик модифицированных материалов.

Ключевые слова: Деревянные конструкции, сложные химические составы. модификация, виды материалов, прочность, результаты анализа.

Annotation: Nowadays, modified wooden materials are widely used in construction along with conventional materials. Strength indicators depend on the type of wooden materials and modifying compositions. The article presents the results of an analysis of the strength characteristics of modified materials.

Key words: Wooden structures, complex chemical compositions. modification, types of materials, strength, analysis results.

Kirish: Yog‘och materiallarning bir qator kamchiliklari, shu jumladan yillik qavatlariga kundalang yo‘nalishdagi mustahkamligi, foydalanilgan daraxtlarning turiga bog‘liq ravishda ularning qattiqligini, doimiy yoki o‘zgaruvchan namlik sharoitiga va boshqa turli ta’sirlarga chidamliligini ta’minlash yog‘och elementlar va konstruksiyalar tayyorlashda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda yuqorida e’tirof etilgan kamchiliklarni murakkab kimyoviy tarkibli birikmalar - polimerlar bilan modifikatsiya qilish orqali bartaraf etish imkoniyati yaratildi[1].

Modifikatsiyalangan yog‘och materiallar bugungi kunda murakkab ekspluatatsiya sharoitida foydalaniladigan turli elementlar va konstruksiyalar tayyorlash uchun samarador materiallardan biri hisoblanadi. Chunki, bu turdagi materiallarning turli salbiy ta’sirlarga yuqori darajadagi chidamliligi, yuksak fizik – mexanik xossalari ularni oddiy yog‘och materiallarga qaraganda qator afzalliklarga ega ekanligini belgilaydi[2].

Asosiy qism: Oxirgi yillarda modifikatsiyalangan yog‘och materiallardan foydalanish darajasi kengayib borayotganligi sababli, ularning yaxshi o‘rganilmagan xususiyatlarini tahlil qilish, ayniqsa, ularni yaxshilash, elimlash texnologiyalarini takomillashtirish, turli ekspluatatsiya sharoitlariga javob beradigan usullarni joriy etish, elimlangan materiallarning mustahkamligini o‘rganish muhim masalalardan biridir[3].

Ma’lumki, modifikatsiyalangan materiallar o‘z ichiga tabiiy yog‘och va plastmassa materiallarning xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. SHu sababli, ularni bu xususiyatlarini birgalikda o‘rganish, yog‘och materiallarga qaraganda sovuq va issiq holda qotish xususiyatiga ega bo‘lgan elimlarning keng assortimentidan foydalanishni taqoza etadi.

Modifikatsiyalangan yog‘och tabiiy materiallarga nisbatan qattiq bo‘lganligi sababli, ularni biriktirishda plastikligi yuqori elimlardan foydalaniladi. Elimlanayotgan choklarning mustahkamligi yuzalarga beriladigan bosim miqdoriga, materiallar yuzasining tekislik darajasiga, elimlarning qayishqoqlik xususiyatlariga va nihoyat bosim berish ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Bu turdagi materiallarni elimlashda ularning muhim ko‘rsatkichlari biri-biri bilan bog‘liqligi sababli, ularning mustahkamlikka ta’sirini alohida tahlil qilish maqsadga muvoffiq.

Elimlangan choklarning mustahkamligini taxlil qilish uchun ikki xil oq qayin va qarag‘ay materialari tanlandi va ulardan belgilangan QMQ talablariga binoan 30x20x10 va 50x20x10 mm o‘lchamdagi nusxalar tayyorlandi[5]. Nusxalarni modifikatsiya qilish uchun dastlab finolspirtli tarqiblardan foydalanildi. Belgilangan o‘lchamdagi nusxalar normal sharoitda ochiq vannalarga joylashtirildi va kiyin 90 ^{0}S haroratda quritildi, modifikatsiyalovchi tarkibning sarfi o‘rtacha 30 % ni tashkil etdi.

Quritilgan nusxalar fenolformaldegid (KB-3) va rezorsin-formaldegid (FR-12) tipidagi elimlar bilan radial yunalishda yilliq qavatlari bo‘ylab belgilangan Davlat talablari asosida elimlandi. Elim sarfi KB-3 uchun 300 g/m^2 , FR-12 uchun esa 250 g/m^2 ni tashkil etdi. Elimlash ishlari 20 ^{0}S haroratda, 0,5 MPa bosimda, 48 soat davomida, yog‘och materiallarning yuzalariga oldindan ishlov bermasdan amalga oshirildi.

Tayyorlangan nusxalar belgilangan talablar asosida sinovdan o‘tkazildi. Elim va materiallar turining mustahkamlikka ta’sirini o‘rganish maqsadida nusxalar qarag‘ay va oq qayindan tayyorlandi. Tayyorlangan nusxalar KB-3 va FR-12 tipidagi elimlar yordamida normal xona xaroratida elimlandi va belgilangan muddatda bosim ostida ushlab turildi.

KB-3 tipidagi elim bilan elimlangan choklarning mustahkamligi FR-12 elimi bilan bajarilgan nusxalarga qaraganda nisbatan past bo‘ldi, buni kiyingi elimning yopishqoqlik xusiyatiningi yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xuddi shu elimlar bilan elimlangan PN-1tipidagi finol spirtli tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan nusxalarning mustahkmligi ulardagi ayrim ko‘rsatkichlarni oshirilishi hisobiga yuqori bo‘ldi, chunki, bu ko‘rsatkichni ularni shimdirishdan kiyin nusxalarni 3 soat davomida 90 ^{0}S haroratda ushlab turilganligi bilan izohlash mumkin.

Tayyorlangan nusxalarda modifikatsiyalovchi tarkiblarning sarfi 200, 250 va 220 g/m^2 ni tashkil etdi. Yuqorida e'tirof etilganidek, elimlanadigan yuzalar oldindan tozalanmadi, bu esa elimlarni notekis yuzada yaxshi birikishini ta'minladi. Foydalanilgan elimlar uchun nusxalarni ochiq havoda 0,5 MPa bosimda ushlab turish vakti 5 minutni tashkil etdi.

O'tkazilgant sinov natijalari KB-3 elim bilan elimlangan PN-1 tarkib bilan modifikatsiya qilingan nusxalarning mustahkamligi oddiy nusxalarga qaraganda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu holatni modifikatsiyalangan nusxalarning yuzasida yupka shishasimon qatlam hosil bulishi va bu uning yopishqoqlikni oshishiga ta'sir ko'rsatishi bilan izohlash mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda fenolspirtli tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan nusxalarning mustahkamligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tarqiqot natijalari keltirilgan.

Fenolspirtli tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan elimlangan yog'och materiallarning mustahkamlik ko'rsatkichlari

1-jadval

T/r	Elimlangan materiallar nomi	Nusxalarni sinash natijalari			Mustahkamlik ko'rsatkichi
		M	V	A	
KB-3 elimi bilan qarag'ay materialidan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	8,5	20,3	31,5	0,32
2	Modifikatsiyalangan	7,7	24,2	31.0	0,68
KB-3 elimi bilan oq qayin materialidan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	10,6	24,0	51,5	0.44
2	Modifikatsiyalangan	8,0	27.1	12,5	0,85
FR-12 elimi bilan qarag'aydan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	11,0	17,8	46,0	0.70
2	Modifikatsiyalangan	11.7	19,5	30	0,96
FR-12 elimi bilan oq qayindan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	12,1	14.9	58	0,53
2	Modifikatsiyalangan	9,8	24,3	44	0.9

Izoh: M- nusxalarning elimlangan chok bo'yicha yorilishdagi mustahkamligi, MPa (10 ta nusxa bo'yicha olingan natijalarning o'rtacha qiymati.
V- variatsiya koeffitsienti, %;
A-nusxalarning yog'och bo'ylab yorilish ko'rsatkichi. %.

Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda yog'och materiallarni modifikatsiya qilish uchun muljallangan kimyoviy tarkiblarning turini mustahkamlikka ta'siri ham o'rganildi. Buning uchun nusxalar yuqorida keltirilgan rejim asosida poliefirmalenat (PN-1) tarkiblar bilan modifikatsiya qilindi. Bu turdagi tarkib yuksak yopishqoqlik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, elimlangan choklarning mustakamligi o'rtacha 10 MPa gacha ko'tarildi va nusxalarni buzulishi esa yog'och bo'ylab 50% ni tashkil etdi. PN-1 tarkibda sterol aralashmasi mavjudligi sababli shimdirilgandan kiyin manomerning uchuvchanlik, yani, parlanish darajasi 20-25 % ga teng bo'ldi.

Quyidagi 2-jadvalda poliefirmalenat (PN-1) tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan nusxalarning mustahkamligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tarqiqot natijalari keltirilgan.

Poliefirmalenat (PN-1) tarkiblar bilan modifikatsiya qilingan elimlangan yog'och materiallarning mustahkamlik ko'rsatkichlari

2-jadval

T/r	Elimlangan materiallar nomi	Nusxalarni sinash natijalari			Mustahkamlik ko'rsatkichi
		M	V	A	
KB-3 elimi bilan qarag'ay materialidan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	8,5	20,5	10	0,32
2	Modifikatsiyalangan	10,6	24,5	41.5	-
KB-3 elimi bilan qarag'ay va fanera elimlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	7,0	22,5	28,6	-
2	Modifikatsiyalangan	11,5	22.9	45	0,20
FR-12 elimi bilan qarag'aydan tayyorlangan nusxalar					
1	Tabiiy material	6,7	17,8	36,0	0.70
2	Modifikatsiyalangan	4.8	19,5	30	0,96
PN-1 elimi bilan oq qayindan tayyorlangan nusxalar					
Yashil qurilish materiallari va texnologiyalari ekologik tozalik va energiya samaradorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu texnologiyalar atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, energiya tejaydigan va qayta ishlangan materiallardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ular yordamida barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilinadi va qurilish sohasida ekologik barqarorlik ta’minlanadi. Yashil qurilish, avvalo, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

Ekologik materiallar: Yashil qurilishda qayta ishlangan, tabiiy va kam zararlovchi materiallar qo'llaniladi. Masalan, bambuk, qayta ishlangan yog'och va po'latdan foydalanish atrof-muhitga kam zarar etkazadi.

Energiya samaradorligi: Yashil qurilishning maqsadi energiya sarfini kamaytirishdir. Bu, energiya tejovchi qurilmalardan foydalanish, yaxshi izolyatsiya va tabiiy yoritish imkoniyatlarini joriy qilish orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida binolarning energiya talabini kamaytirish va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini pasaytirish mumkin.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish: Yashil qurilishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalaniladi, masalan, quyosh va shamol energiyasi. Bu, tabiiy resurslarni samarali va muvozanatli ravishda ishlatishga yordam beradi.

Yashil qurilish iqtisodiy jihatdan ham foydali. Bu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Tejash: Energiya va resurslar sarfini kamaytirish, uzoq muddatda xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Yashil binolarni qurish va ularni boshqarish davomida energiya va suv tejash orqali xarajatlarni 20-50% ga qisqartirish mumkin.

Yangi ish o'rinlari: Yashil qurilish texnologiyalari va materiallarini ishlab chiqarish yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi. Bu, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sertifikatlar va moliyaviy yordamlar: Yashil qurilish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordamlar va grantlar orqali iqtisodiy barqarorlik oshiriladi.

Yashil qurilish ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sog‘lom yashash sharoitlari: Yashil binolar havoning sifatini yaxshilaydi, shuningdek, insonlarning salomatligini himoya qiladi. Toksik moddalar ajratmaydigan materiallar va tabiiy ventilyatsiya tizimlari ichki havoni toza saqlaydi.

Jamiyatning ijtimoiy mas'uliyati: Yashil qurilish orqali jamiyatning ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyat hissi oshadi. Odamlar barqarorlik va ekologik mas'uliyatni his qilishadi, bu esa jamiyatda o'zgarishlarga olib keladi.

Ochiq joylar va ko‘kalamzorlashtirish: Yashil qurilishda ko‘kalamzorlashtirish va ochiq joylarning ko‘payishi odamlarning ruhiy salomatligi va jismoniy faoliyatini yaxshilaydi. Bu, shaharlar va qishloqlarda yashash sifatini oshiradi.

Ekologik muammolar bo‘yicha keltirilgan raqamlar, haqiqatda, insoniyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. 2020-yilga kelib, global harorat 1.2 °C ga ko'tarildi (pre-industrial davrga nisbatan). 2019-yilda global issiqxona gazlari chiqarilishi 59.1 milliard tonnani tashkil etdi. Global iqlim o‘zgarishi, asosan, issiqxona gazlarining ortishi natijasida yuzaga keladi. Haroratning oshishi, quruqlik va suv ekotizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi,

qurg'oqchilik va toshqinlar kabi ekstremal ob-havo hodisalarini kuchaytiradi. Bu raqamlar, global issiqxona gazlari chiqarilishining birinchi o'rinda qurilish sohasiga bog'liqligi va bu muammoni hal etish zarurligini ko'rsatadi.

Atrof-muhit ifloslanishi Plastik chiqindilar va boshqa qattiq chiqindilar, insoniyat tomonidan ishlab chiqarilgan chiqindilarni tashkil etadi. Okeanga tushadigan plastiklar, dengiz hayotiga zarar yetkazib, o'simlik va hayvonlar ekotizimlarining buzilishiga olib keladi. Qurilish chiqindilari esa, ko'plab joylarda tabiiy muhitni ifloslantirib, biologik xilma-xillikni kamaytiradi. Bu raqamlar, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash zarurligini isbotlaydi.

Tabiiy resurslarning kamayishi 2020-yilda 55% insoniyat suv resurslaridan foydalanadi. Har yili 24 milliard tonna qum va shag'al qurilish uchun ishlatiladi, bu esa global qum resurslarining kamayishiga olib keladi. Suv va boshqa tabiiy resurslarning kamayishi, odamlarning hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Qurilish sanoati, qum va shag'al iste'molida katta o'rin tutadi, bu esa ba'zi hududlarda qum tanqisligi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Ushbu raqamlar, tabiiy resurslarni tejash va ularni oqilona foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Biologik xilma-xillikning kamayishi . Hozirgi kunda 1 milliondan ortiq o'simlik va hayvon turlari yo'qolish xavfi ostida. Biologik xilma-xillikning kamayishi, ekotizimning barqarorligini pasaytiradi va insoniyatning oziq-ovqat xavfsizligi hamda tibbiy tadqiqotlarga ta'sir qiladi. Qurilish, o'rmonlarni kesish va tabiiy muhitni o'zgartirish orqali xilma-xillikni kamaytiradi. Ushbu raqamlar, muqobil va barqaror qurilish amaliyotlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Ekologik muammolar bo‘yicha keltirilgan raqamlar, bu masalalar insoniyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni anglashda juda muhimdir. Ular nafaqat muammoni tushunishga yordam beradi, balki tegishli choralarni ko'rish zarurligini isbotlaydi.

Mamlakatimizda ham yashil qurilish va yashil iqtisodiyot sohasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu strategiya quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Iqlim o‘zgarishiga moslashish: O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi natijalariga qarshi kurashish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Tabiiy ekotizimlarni asrash: Ekotizimlarning barqarorligini ta'minlash va ularning resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida amalga oshirilayotgan bir qator chora-tadbirlar mavjud:

a. Energiya samaradorligini oshirish

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish: O‘zbekiston quyosh, shamol va biokmassani energetika sohasida qo‘llashga katta e’tibor qaratmoqda. 2021-yilga kelib, quyosh energiyasi manbalari orqali energiya ishlab chiqarishni oshirish maqsadida bir qancha loyihalar amalga oshirildi.

Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish: Passiv uylar va energiya samarali qurilmalar qurish uchun standartlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

b. Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish

Qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish: Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashga yo‘naltirilgan dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ularni energetik resurs sifatida ishlatish uchun maxsus tizimlar joriy etilmoqda.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish: Qishloq xo‘jaligida, suv resurslarini boshqarishda va tabiiy ekotizimlarni asrashda samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

c. Suv resurslaridan foydalanish

Irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish: Suvni tejaydigan irrigatsiya texnologiyalarini joriy etish va suv resurslarini oqilona foydalanish maqsadida loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida suvni tejash va samarali ishlatish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqda.

d. Mahalliy va xalqaro hamkorlik

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: O‘zbekiston BMTning Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Bu hamkorlik orqali davlat ichidagi resurslarni yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyalaridan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

Atrof-muhitni muhofaza qilish: Ekologik muammolarni kamaytirish va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish orqali atrof-muhitning yaxshilanishi.

Iqtisodiy barqarorlik: Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish orqali iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta’minlash. Energiya samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy jihatdan foydali loyihalar amalga oshirish kutilmoqda.

Ijtimoiy farovonlik: Yashil iqtisodiyot tamoyillari orqali aholining hayot sifatini oshirish, sog‘lom yashash sharoitlarini ta’minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish.

Barqaror rivojlanish: Yashil iqtisodiyotga o‘tish, kelajak avlodlar uchun barqaror va ekologik jihatdan toza infratuzilma yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon davomida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror o‘sishni ta'minlashga intilmoqda. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amalga oshirayotgan asosiy

strategik yo‘nalishlarini bir qanchasi haqida to‘xtalib o‘tadiga bo‘lsak:

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish: Quyosh, shamol va suv energiyasini keng qo‘llash. 2030-yilgacha mamlakat energiya ishlab chiqarish salohiyatining 25%ni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ta’minlash maqsad qilingan.

Energiyani tejash va samaradorlikni oshirish: Energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash. Shuningdek, maishiy sektorda energiya samaradorlik texnologiyalarini keng joriy qilish orqali energiya iste’molini kamaytirish.

Suv resurslarini barqaror boshqarish: Suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni qayta ishlash va suvni tejash texnologiyalarini rivojlantirish. Xususan, qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish va boshqa suv tejash usullarini keng qo‘llash rejalashtirilgan.

Suv resurslari monitoring tizimini yaratish: Suv resurslarining sifati va miqdorini doimiy nazorat qilish, resurslarni tejash va ifloslanishning oldini olish uchun monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish: Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va chiqindilarni ajratish tizimini joriy qilish orqali atrof-muhitni toza saqlash.

Havo va suv ifloslanishini nazorat qilish: Havo sifati monitoring tizimini joriy etish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va suv ifloslanishini oldini olish uchun maxsus choralar ko‘rish.

Elektromobillar va ekologik transportni rivojlantirish: Shahar transport tizimida elektr transport vositalarini ko‘paytirish, shuningdek, ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash.

Jamoat transport tizimini modernizatsiya qilish: Transport tizimini energiya samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va jamoat transportini rivojlantirish orqali karbon chiqindilarini kamaytirish.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish: Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik qilish va texnik yordam olish.

Ilg‘or tajriba va texnologiyalarni jalb qilish: Xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or texnologiyalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha masalalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishini ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston iqtisodiyoti va atrof-muhitining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlarini bajarishga yordam beradi.

Natijada, yashil qurilish materiallari va texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat muammolarni hal qilish, balki insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlodlar uchun barqaror va sog'lom hayot tarzini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro‘

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori.
3. Korotayev, V.V., va Xalikov, Sh.A. Qayta tiklanadigan energiya manbalari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2018.
4. Energiya samarador uylar qurilishini qishloq sharoitida ommalashtirish istiqbollari N.E. Rahmonov - Science and Education, 2022.
5. Increase local prospects of innovative approaches to improving energy efficiency of buildings N.E Rahmonov, B.J Abduraximov - Экономика и социум 2024.

TEMIRBETONNING YONG'INGA CHIDAMLILIGINI HISOBLASH UCHUN YANGI KESMA TRIANGULYATSIYA USULI

Ulug‘berdiyev Sanjar
stajor-o‘qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tursunova Sadoqat
magistr, Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolada Temir-betonning yong'inga chidamliligini hisoblash uchun yangi kesma triangulyatsiya usuli bo‘yicha LIRA-CAD 2020 R2 dasturida hisoblangan sonli tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Temirbeton, yong‘in, chidamlilik, xarorat, deformatsiya konstruksiya, beton, harorat,

Kirish. Temirbeton konstruktsiyalar yong'inga chidamlilik darajasi bilan ajralib turadi, ammo ularning chidamliligi va o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha o'rganishni talab qiladi. Yong'in ta’sirida temirbeton konstruktsiyalar kuchlanish va yuqori harorat ta’sirida deformasiyaga uchrashi mumkin, bu esa strukturaviy barqarorlikni kamaytiradi. Shu sababli, yong'inga chidamlilikni aniq hisoblash, ayniqsa konstruktsiya yuqori xavfli hududda joylashganida muhimdir.

Yangi kesma triangulyatsiya usuli bu hisoblash jarayonini yaxshilash va strukturaviy qismlarning yuk ko'tarish qobiliyatini, ayniqsa yong'in ta’sirida tahlil qilishni aniqroq amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Triangulyatsiya usulining mohiyati

Kesma triangulyatsiyasi usuli kesmani uchburchakli segmentlarga bo'lish orqali temir-beton kesimlarning harorat ta'siridagi o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Har bir uchburchak bo'lagi geometrik shakliga va harorat ta'siriga qarab, konstruksiyaning umumiy yong'inga chidamliligiga qanday ta'sir qilishini baholash imkonini beradi.

Triangulyatsiya orqali aniqlanishi kerak bo'lgan asosiy elementlar quyidagilar:

Har bir uchburchak ichidagi maksimal bosim va cho'zilish kuchlanishi.

Har bir uchburchakdagi beton va po'lat qismlarning termal ko'rsatkichlari.

Har bir uchburchakning konstruksiyaga yuk ko'tarish va deformatsiyaga chidamlilikka qo'shadigan hissasi.

Yangi kesma triangulyatsiya usulining afzalliklari

Triangulyatsiya usuli an'anaviy usullardan bir qancha afzalliklarga ega:

1. **Aniqlikning oshishi**: Uchburchak segmentlarga bo'linish orqali har bir kesma qismi alohida hisoblanadi, bu esa umumiy hisoblashda aniqroq natijalarni beradi.

2. **Deformatsiyani aniq baholash**: Har bir uchburchak element termal kengayish yoki qisqarishni alohida ko'rib chiqadi, bu esa yong'in ta'sirida butun konstruktsiyaning reaktsiyasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

3. **Materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini hisoblash**: Ushbu usul orqali har bir uchburchakning ichki kuchlanishini aniqlash osonlashadi, shu bilan birga harorat bilan birgalikda beton va po'latning o'ziga xos xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Hisoblash jarayoni

1. **Kesmani uchburchaklarga ajratish**: Kesim aniqlangan uchburchaklarga ajratiladi va har bir uchburchak alohida geometriya sifatida ko'rib chiqiladi.

2. **Harorat tarqalishini hisoblash**: Har bir uchburchak uchun yong'in ta'sirida haroratning qanday tarqalishi aniqlanadi. Yuqori harorat ostida beton va po'lat qismlarning har bir uchburchakda qanday harakatlanishi hisoblanadi.

3. **Termal kengayish va qisqarish o'lchovlari**: Harorat ta'siri ostida betonning kengayishi va po'latning qisqarishi aniq hisoblanadi.

4. **Uchburchak elementlarda yuk va kuchlanish hisoblari**: Har bir uchburchak ichidagi yuk ko'tarish va kuchlanishlarni hisoblash uchun alohida modellar ishlatiladi.






Yong'inga chidamlilik uchun temir-beton tasavvurlarni hisoblashda, ma'lum bir vaqtda harorat taqsimoti haqida bilish uchun issiqlik o'tkazuvchanligi muammosini hal qilish kerak. Buning uchun bo'lim avtomatik ravishda uning yakuniy elementlariga bo'linadi.


Misol. Yong'inga chidamlilik muammosi uchun dinamik issiqlik o'tkazuvchanligini hal qilish

Yong'inga chidamlilik muammosining shakllanishining batafsil tavsifi











LIRA-CAD 2020 R2 versiyasida yong'inga chidamliligini hisoblashda temir-beton elementlarning kesimlarining yangi triangulyatsiyasi amalga oshirildi. Ushbu maqolada biz bu nima, nima uchun kerakligi va mustahkamlash natijalariga qanday ta'sir qilishi haqidagi savolga javob berishga harakat qilamiz.

Yangi triangulyatsiya elementlarning isitish tomonlariga shunday moslashadiki, panjara olovga duchor bo'lgan tomonda qalinlashadi:

Isitish tomonlari:	Buzilish natijalari:
	
	
	




LIRA-SAPR versiyalarida turli tasavvurlar triangulyatsiyasini taqqoslash

2020 R1	2020 R2
	
	
	
	
	

Yangi uchburchak bilan kesmaning cheklangan elementlarining o'lchamlarini qanday aniqlash mumkin?

Bu savolga javob berish uchun biz bo'limni isitishning ikkita variantini ko'rib chiqamiz:

1. Nosimmetrik kesimli isitish




Bunday holda, **kesma** nosimmetrik tarzda yarmiga bo'linadi. Bo'limning pastki yarmini alohida ko'rib chiqing. Elementlarning har bir qatori avvalgisidan 2 baravar katta bo'lishi kerak one.In bu holda, kesma nosimmetrik tarzda yarmiga bo'linadi. Bo'limning pastki yarmini alohida ko'rib chiqing. Elementlarning har bir qatori avvalgisidan **2 baravar** katta bo'lishi kerak.

Shunday qilib, ekstremal elementlarning balandligini topish uchun siz tenglamani echishingiz kerak:

$$x + 2x + 4x + 8x = 200 \text{ мм}$$

2. balanssiz kesimli isitish



Bunday holda, **qatorlar soni** yarmiga bo'linadi. Isitish tomoniga yaqinroq bo'lgan birinchi yarmida: har bir qator avvalgisidan **2 baravar** katta bo'lishi kerak. Ikkinchi yarmida har bir qator avvalgisidan **1,2 baravar** katta bo'ladi.










Shunday qilib, ekstremal elementlarning balandligini topish uchun siz tenglamani echishingiz kerak:




$$x + 2x + 4x + 8x + 8x \cdot 1,2 + 8x \cdot 2,4 + 8x \cdot 3,6 + 8x \cdot 2,8 = 200 \text{ мм}$$

Перша половина перерізу










Друга половина перерізу




Yangi kesma triangulyatsiyasi CTO 36554501-006-2006 "Temirbeton konstruktsiyalarning yong'in xavfsizligi va yong'inga chidamliligini hisoblash qoidalari" standartlarida e'lon qilinganlarga yaqinroq haroratni taqsimlash grafikalarini olish uchun yaratilgan. 400x400 mm kesimli ustun uchun SRT standartlari bilan harorat jadvallarini taqqoslash:

yuz	LIRA SAPR 2020 R1	LIRA SAPR 2020 R2
Isitish vaqti: 30 daqiqa		
		
T max = 827 D. C.	T max = 756 xususiyat	T max = 782 XK
	Xato chegarasi 8.58 %	Xato chegarasi 5.44 %
Isitish vaqti: 60 daqiqa		
		
T max = 933 xususiyatlarda taxrirlash	T max = 916kattalash C	T max = 927 D. C.
	Xato chegarasi 1,8 ga teng %	Xato-0.6 %
Isitish vaqti: 90 daqiqa		
		
T max = 1002 D. C.	T max = 989 D. C.	T max = 997 DK
	Xato darajasi 1,3 ga teng %	Xato chegarasi 0,49 %
Isitish vaqti: 120 daqiqa		

		
T_{max} = 1046 kattalash C	T_{max} = 1040 DK	T_{max} = 1040 DK
	Xato-0.6 %	Xato-0.6 %

`Yangi harorat maydonlarining to'g'riligini tasdiqlash uchun biz 500x500 mm kesimli ustunni ko'proq sonli elementlarga ajratamiz va natijalarni solishtiramiz (oxir-oqibat, cheklangan elementlar soni qancha ko'p bo'lsa, natija aniqroq bo'ladi) :

Kichik buzilish	LIRA SAPR 2020 R1	LIRA SAPR 2020 R2
Isitish vaqti: 30 daqiqa		
		
T_{max} = 789xususiyatlari C	T_{max} = 734 °C	T_{max} = 78 °C
	Xato chegarasi 7.79 %	Xato chegarasi 1,4 ga teng %
Isitish vaqti: 60 daqiqa		
		
Tmax = 930xususiyatlari ^oC	T_{max} = 915 °C	T_{max} = 923 kattaligini o'zgartirish ^oC
	Xato darajasi-1.6 %	Xato chegarasi 0,8 ga teng %
Isitish vaqti: 90 daqiqa		
		
T_{max} = 999 °C	T_{max} = 987 °C	T_{max} = 996 °C
	Xato 1.2 %	Xato-0.3 %
Isitish vaqti: 120 daqiqa		

		
T_{max} = 1044.07 XK	T_{max} =1034.98 DK	T_{max} =1042.32.
	Xato 0,96 %	Xato 0.16 %

Xulosa. Yangi kesma triangulyatsiyasi usuli temir-betonning yong'inga chidamliligini hisoblashda yuqori aniqlikni ta'minlaydi va konstruktsiyalarning xavfsizligini oshiradi. Bu usul yong'in ta'sirida strukturaviy tahlil qilish va konstruktsiyaning maksimal yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

R2 versiyasidagi harorat qiymatlari R1 versiyasiga qaraganda nozik buzilish bilan natijalarga yaqinroq ekanligi aniq ko'rinib turibdi. Yangi triangulyatsiyada yaratilgan cheklangan elementlar soni oldingi versiyadagi bo'limlar uchun cheklangan elementlar soniga to'liq mos keladi. Shunday qilib, temir-betonni hisoblash tezligi sekinlashmaydi va haroratni taqsimlash natijalari yaxshilanadi, shuning uchun mustahkamlashni tanlash natijalari aniqroq bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Фокин. К.Ф. Уточненный метод расчета влажностного режима ограждающих конструкций / Фокин. К.Ф.// Холодильная техника. – 1955. - №3. – С.28-32.
2. Shukuroý. G'. Arxitektura fizikasi. Darslik. SamDU, 2022 y. – 226 b.
3. QMQ 2.01.04-18. Qurilish issiqlik texnikasi. – T.: 2018.
4. Payzullaevna, S. N. (2023). G'IShT TERIMI DEFORMATSIYASIGA O'ZGARUVChAN HAVO HARORATINING TA'SIRI. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, (2), 126-129.
5. Aliyev, A., Mamatov, M. (2021). Yong'inga chidamli beton va temir-beton konstruktsiyalarning issiqlik qarshiligini tadqiq qilish. O'zbekiston qurilish ilmiy-texnik jurnali, 34(2), 45–52.
6. FIB (Federation Internationale du Beton). (2010). Fire Design of Concrete Structures - Structural Behaviour and Assessment. Lausanne: FIB Publications.
7. Kodur, V. K. R., Phan, L. (2007). Fire performance of high-strength concrete: research needs. Cement and Concrete Composites, 29(10), 45–56.
8. Bazant, Z., Kaplan, M. (1996). Concrete at High Temperatures: Material Properties and Mathematical Models. Harlow: Longman Scientific & Technical.
9. Phan, L., Carino, N. J. (2001). Effects of Test Conditions and Mixture Proportion on Behavior of High-Strength Concrete Exposed to High Temperatures. ACI Materials Journal, 98(1), 54–64.
10. Usmanov V.F., Sanayeva N.P.,"Influence of step-by-step rise and loading on stress-deformed state structures of multi-storey buildings in the conditions of dry hot climate of Central Asia"//Proceedings of Multidisciplinary International Scientific-Practical Conference "Current Issues of Science, Education and Industry in Modern Research" Organised by SamSACI, Uzbekistan ISSN: 2581-4230 In Association with NovateurPublication India's A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal journalnx.com 10 -12th December 2020 JournalNX Journal Impact Factor 7.223. Pages:148-151
11. Usmanov, V. F. (2023). Structural design of residential buildings.". Science and education" publishing house. Tashkent.

UDK 625.7 (075.8)

ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИДА СУВ ҚОЧИРИШ ТИЗИМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ҲАМДА ЛОЙИҲАЛАШ ВА ҚУРИШДА ҚИДИРУВ ИШЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ

Зафаров Олмос Зафарович
(ЖизПИ, PhD, доцент)
Тоғайев Феруз Валижон ўғли
(ЖизПИ, Магистр)

Аннотация. Ушбу мақолада автомобиль йўлларида инженер-геологик қидирув ишларини олиб бориш учун ШНК 2.05.02-07, ШНК 2.05.11-07, шунингдек ШНК 3.06.03-07, ШНК 1.02.09-15 меъёрий хужжатлар талаблари бўйича юқори намликка эга бўлган грунтларни физик-механик хоссаларини аниқлаш талаб

этилиши ва мухандислик-геологик қидирув ишларида аэрокосмик съемка, аэро визуал кузатув, аэрофотосьемка хақида фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: юқори намланган грунтлар, аэровизуал кузатув, аэрофотосемка, йўл пойи, аэрокосмик сьемка.

Аннотация. В данном статье инжинерно-геологические изискание в сильно влажных грунтов ведется по требованию нормативных документах ШНК 2.05.02-07, ШНК 2.05.11-07, шунингдек ШНК 3.06.03-07, ШНК 1.02.09-15. Ведется оценка кочество материалов для строительства земролотна автомобилных дорог. Ведется изискания по аэрокосмическим сьемкам, аэровизуальные наблюдение и аэрофотосьемки.

Ключевые слова: сильно влажные грунты, аэровизуальные наблюдение аэрофотосьемки, земполотна, аэрокосмическим сьемки.

Abstrakt. This article outlines the requirements of sity regulations for engineering-geological works on high-ways, requirements for the physical and mtchanical properties of moisture with moisture requirements and require-ments for aeroshace engineering in engineering geological prospecting.

Key words: strongle soaked grunts, airborne surveillance, road state.

Лойиҳани ишлаб чиқиш учун муҳандис-геологик қидирувлар таркибига юқорида келтирилган ҳамма турдаги ишлар киради.

Муҳандис-геологик съемкаларни масштаби 1:10000-1:2000 бўлишини тавсия этилади. Кидирувнинг дастурида тегишлича асосланганда масштабни 1:1000 ва ундан кичик олиш мумкин.

Юқори намликдаги грунт қалинлигини геофизик тадқиқот натижалариаввал рекогноцировкали текширув жараёнида олинган маълумотларни уни тузилишини бирхил эмаслиги, грунт сувларининг йўналиши ва ҳаракат тезлиги, юқори намликдаги грунтларни физик-механик тавсифларини ўзгарувчанлиги бўйича маълумотларни тўлдиради

Зондли қудуқларни бурғулаш рақоботлашаётган трассанинг вариантларида амалга оширилиши керак, уларнинг ҳолати қурилиш ҳудудининг рекогносцировкали текшириш натижаси бўйича аниқлаштирилади.

Механик бурғулашга кўпроқ эътибор бериш керак, бунда структураси бузилмаган (диаметри 100 мм кам эмас) ва бузилган намуналар кетма кет олинади. Трасса ўқи бўйича қудуқларни орасидаги масофа юқори намликдаги грунт қатламини тузилиш хусусиятига боғлиқ ҳолда, 25-50 м бўлиши керак. Шу билан биргаликда, ҳар 200 м да кесимлар асосий ҳисобланади ва уларда 5-7 бурғу қудуғи ковланиши керак, улар орасидаги кесимлар оралиқ ҳисобланади ва уларда 3 та скважина ковлашга руҳсат берилади. Грунт намунаси ҳар 0,5-1,0 м да олиниши керак, аммо ҳар бир тавсифли қатламдан 3 та намунадан кам эмас. Бурғулаш тагида ётган грунтга (мустаҳкам) 1,5-2,0 м кириш билан, юқори намланган грунтларни ҳамма қалинлиги бўйича амалга оширилади,

Агар текширлиаётган юқори намланган грунтли қатламнинг қалинлиги кам бўлса ёки механик бурғиловчи ускунани ишлатиш самарали бўлмаса, унда шурф ковланади. Шурфлар рельефни ҳамма тавсифли жойларида ковланади. Уларнинг умумий сони 1 км трассага 5 тадан кам бўлмаслиги керак. Ўлчами 1х1,5х2 м бўлган шурфлар йўл ўқидан 10-15 м масофада ковланади. Агар керак бўлса тупроқ-грунт шароитини ўзгарган жойини аниқлаштириш учун шурфлар орасига чуқурчалар ковланади.

Грунтларнинг хоссаларини кузатиш, уларни дастлабки зичлаштиришда ёки (ва) мелиоратив тадбирларни амалга ошириш муҳандис қидирув дастурига мос равишдаги таркибда, ҳажмда ва иш усулида олиб борилади.

Техник топшириқда кўрсатилган стационар кузатишларни тавсифли жойларда ва махсус жихозланган постларда ўтказилади, улардан бир қисмини қурилиш жараёнида ва у тугаллангандан сўнг кузатиш учун фойдаланилади.

Қидирувнинг бу босқичида юқори намланган грунтни дала тадқиқотларини таркиби ва ҳажмиюқори намланган грунтни тарқалиш чегарасини, ажратилган муҳандис-геологик элементларни қалинлигини, грунтларни физик-механик кўрсаткичларини аниқлаштирилиши керак.

Лойиҳани бу босқичидаги лаборатория тадқиқотларини таркиби ва ҳажми қуйидагиларни таъминлаши лозим:

- грунтларни умумий ва хусусий тавсифига мос равишда гуруҳ, гуруҳдош, тури, турдошларга ажралишини аниқлаштириш;
- юқори намликдаги грунтларнинг асосий норматив ва ҳисобий кўрсаткичларини аниқлаш;
- иншоотларни қуриш ва фойдаланиш жараёнида грунтларни ҳолатини ва хоссасини ўзгаришини башоратлаш.

Лаборатория шароитида юқори намликдаги грунтларнинг қуйидаги таркиб ва ҳолатини аниқлаш керак: намлиги, органик моддаларни миқдори, пластиклик чегараси, грунт заррасининг зичлиги, грунт зичлиги, $CaCO_3$миқдори (карбонатли жинслар учун), мустаҳкамлик хоссаларини ўлчами, консолидацияли тавсифлари ва сиқилиш тавсифи.

Ишчи ҳужжатларни ишлаб чиқиш жараёнида юқори намликдаги грунтларнинг кўтарма оғирлиги таъсирида янги шароитда ишлашида механик хоссаларини башоратлаш учун лаборатория тадқиқотларини бажариш кўзда тутилиши мумкин.

Шу жумладан трасса йўлакчасидан ташқарисидагини, зарур бўлганхолларда, юқори

намликдаги грунтнинг қалинлиги, сувли горизонтникўрса-

ткичлари, геологик жараёнларни динамикаси аниқлаштирилади.

Ўймалар орасидаги масофа аввал ўтилган ўймаларни ҳисобга олиб белгиланади, бунда ҳар бир кесимда агар кўтарманинг баландлиги 12 м гача бўлса 25 м дан, кўтармани баландлиги 12 м дан катта бўлса 10 м дан кам бўлмаслиги, мос равишда улар орасидаги масофа 100 ёки 50 м бўлиши керак.

Бунда монолитлар шундай ҳисоб билан олиниши керакки, уларни таркиби ва ҳолати ажратилган ҳисобий қатлам учун белгиланган намлик ва зичликни ҳисобий қийматига мос келсин. Ҳар бир ҳисобий қатламдан ҳар бир компрессион-консолидация синов учун олтитадан кам бўлмаган, сурилишга қаршилик учун тўққизтадан кам бўлмаган намуна олиниши керак.

Ўймани чуқурлиги сиқилаётган зонани чуқурлигидан 1-2 м чуқур бўлиши керак, қозиқли конструкция белгиланганда қозиқни учи 5 м чуқурга кириши керак.

Катта аҳамиятга эга бўлган йўл объектларини лойиҳалашда, шунингдек жуда хилма хил бўлган грунт массивида, қидирув дастурида грунтларни ўзига ҳос хусусиятларини ўрганиш учун махсус тадқиқотлар ўтказишда илмий ва махсус ташкилотларни жалб қилиб моделлаштириш (математик, физик), шунингдек кучланиш-деформацияланиш ҳолатини аниқлаш мумкин.

Муҳандис-геологик қидирувларни натижаси тўғрисидаги техник ҳисоботни таркиби ва мазмуни юқори намликдаги грунтлардан иборат автомобиль йўлларини индивидуал лойиҳалашни ўзига ҳослигини ҳисобга олиши керак.

Шунга боғлиқ равишда қуйидагилар бўйича хулосада аниқлаштирилган таклифлар ва ечимлар бўлиши керак:

- участкада трассани жойлашуви;
- кўтармани оптимал конструкцияси;
- турғунликни таъминлаш ва кўтармани чўкишини тезлаштириш

бўйича қўшимча конструктив-технологик тадбирлар ва ечимлар;

- технологик регламентлар (йўл тўшамасини қуришгача бўлган вақт ва кўтармани қуриш тартиби);
- йўл пойини қуриш технологияси;
- қуриш ва фойдаланиш жараёнида кўтарма деформациясини стационар кузатиш;
- илмий-техник йўлланмани ташкил қилиш.

Юқори намликдаги грунтлар борлиги, уларни хусусиятлари, тарқалиши ва хоссаларитўғрисида маълумотларни йиғишаввалги йиллардаги маълумотлар ва берилган худуддаги қурилиш тажрибасини ҳисобга олган ҳолда олиб борилади. Бунда аэрофотосъемка ва космик съемка маълумотларидан фойдаланиш керак. Тарқалиши, генезиси, қалинлиги, таркиби, грунтларни ҳолати ва хоссаси, шунингдек тадқиқот олиб борилаётган худуднинг гидрогеологик ва геоморфологик шароити тўғрисида етарли даражада маълумотлар бўлмаса рекогноцировкали қидирув белгиланади.

Лойиҳани ишлаб чиқаришнинг бу босқичида кўриладиган асосий иш турлари қуйидагилар: юқори намликдаги грунтли участкада муҳандис-геологик съемка, маршрутли кузатиш, геофизик тадқиқотлар, грунтлардан намуна олиб танлаб зондловчи бурғу қудуқларини ковлаш.

Муҳандис-геологик съемкани 1:10000-1:5000масштабда бажариш таклиф қилинади.

Геофизик тадқиқотларни асосий усули сифатида электроразведка ва сейсмоакустик профиллаш, георадиолокация таклиф қилинади.

Бурғу қудуқларини 50х50 м тўр кўринишида, ўрганилаётган худуднинг ўлчамига боғлиқ ҳолда, аэрофотосъемка маълумотларига асосланиб трасса ўқининг ҳар иккала томонидан 150 м масофада қазилади. Зондловчи бурғу қудуқларини ўтишда юқори намликдаги грунтлардан чуқурлик бўйича ҳар 0,5-1,0 м да намуна олинади.

Қатламнинг гидрогеологик тартиби тўғрисида материаллар йиғилади.

Ҳисоботда қуйидаги маълумотлар, шунингдек таклиф ва ечимлар бўлиши керак:

- жойнинг рельефи, геологияси ва гидрогеологияси тўғрисида маълумотлар (агар мураккаб бўлса - локал участкаларда);
- юқори намликдаги грунтларни ётиш кўрсаткичлари ва турининг тавсифи, уларни физик хоссалари билан биргаликда (дала ёки лаборатория шароитида аниқланган) ва механик хоссаларини кўрсаткичлари (таснифли жадвал бўйича аниқланган);
- грунт қатлами тўғрисида маълумотлар;
- юқори намликдаги грунтли участкаларда трассани жойлаштириш мақсадга мувофиқ ёки мувофиқ эмаслиги тўғрисидаги вариантларни солиштириш бўйича дастлабки хулосалар;
- юқори намликдаги грунтли участкани кесиб ўтиш тўғрисида таклифлар;
- грунтнинг таркиби ва ҳолатини ўзгартириш мукинлигини тавсифи;
- муҳандис-геологик шароитининг айрим омилларини ўзгариш тенденцияси;
- юқори намликдаги қатламларни келгусида ўрганиш бўйича вазифалар.

Адабиётлар рўйхати:

1. Товбоев Б. и др. Применение многослойных (трехслойных) пластинок в транспортных зданиях и сооружениях //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 287-293.

2. Равшанов Ж.Р. У. Ремонтные работы на автомобильных дорогах с цементно-бетонным покрытием //Academy. – 2021. – №. 5 (68). – С. 18-21.

3. Ravshan o’g R. J. et al. Basic parameters of physical properties of the saline soils in roadside of highways. the density stantards of the motorway grounds //Technium Conference. – 2021. – Т. 8. – С. 27.03. 2021-13: 00 GMT (6 min).

4. Ravshan o'g R. J. et al. The impact of road pavement condition on the quality of summer time accommodation //Technium Conference. – 2021. – T. 8.

5. GOST 22733-2002. Soils. Laboratory detection method for maximum density.

6. SHNK 2.05.02-07. Automobile roads. -Tashkent: State Architectural Building Committee 2007. - 93 p.

7. SHNK 2.05.11-07. Internal automobile roads in collective farming, agricultural organizations and enterprises. - Tashkent: State Architectural Building Committee. 1996. - 27 p.

8. SHNK 3.06.03-07. Automobile roads. -Tashkent: State Architectural Building Committee . 1997. - 122 p.

XAVFNI BOSHQARISH VA XAVFSIZ ISH SHAROITI

Z.X.Yasakov
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, "Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi" katta o'qituvchisi
Shaydullayev N.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, 401-Hayot faoliyati xavfsizligi talabasi
L.Shamsiyeva
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
201-Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolada qurilish maydonchasida jarohatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa sog'liqqa oid muammolarining oldini olish uchun ishchilar va mijozlar hamda pudratchilar xavfsizligini ta'minlash uchun umumiy qurilish xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi, qurilishda xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini optimal rejalashtirish ko'zda tutilgan.

Аннотация: В данной статье в целях предотвращения травматизма, несчастных случаев и других проблем со здоровьем на строительной площадке, обеспечения безопасности рабочих и заказчиков и подрядчиков, соблюдения общих правил строительной безопасности, оптимального планирования приоритетов безопасности строительства проводятся в вас.

Kalit so'zlar: qurilishda xavfsizlik, qurilish tizimi, mehnatni muhofaza qilish, optimalashtirish, boshqaruv, pofitsianal xavflar, boshqaruv tizimi.

Kirish. O'zbekiston bugunga kelib ulkan qurilish maydonga aylandi. Qurishda inson salomatligini asrash va hayot faoliyatini xavfsiz tashkil qilish eng dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun qurilishda baxtsiz hodisalarning oldini olish masalasi dolzarbdir. U qurilayotgan ob'ektning ko'lamidan qat'i nazar, har qanday muhitda mavjud bo'lishi kerak. Qurilishda ko'plab mexanizm va uskunalar ishga tushirilgan bo'lib, ularning ko'pchiligining og'irligi tonnaga yetadi. Tizimlar, bloklar va boshqa ko'plab qurilmalar va ish momentlari jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilinishini talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Qurilish jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun mehnat xavfsizligini boshqarish tizimlarini raqamlashtirish mehnatni muhofaza qilish sohasida sifatli va zamonaviy yondashuvni ifodalaydi. Ushbu jarayon nafaqat xodimlarning xavfsizligini ta'minlaydi, balki tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Xavfni boshqarishda tadqiqotning tizimli xarakteri to'liq nazorat zanjirini o'z ichiga olgan va muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning ko'p qirrali xususiyatini hal qiluvchi tadqiqotlar deyarli yo'q. Haqiqiy ishlab chiqarish sharoitida asosiy e'tibor mehnat xavfsizligini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimining asosiy elementlarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Ushbu sohalardagi ishlarni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Asosiy takliflarni tayyorlash: ishlab chiqarish ob'ektlarida mehnat xavfsizligini boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha fundamental takliflarni ishlab chiqish.

2. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish metodologiyasi: Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimida quyi tizim sifatida ma'lumotlar bazasini yaratish usulini yarating.

3. Profilaktik chora-tadbirlarni optimal rejalashtirish: optimallashtirish mezonlari va ularning noyob samaradorligini hisobga olgan holda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini optimal rejalashtirish usulini ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar tizimli yondashuvlar va ilg'or metodologiyalarni qo'llash orqali mehnat xavfsizligini boshqarish tizimlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Qurilish maydonchasida jarohatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa sog'liqqa oid muammolarning oldini olish uchun ishchi va pudratchilar xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi umumiy qurilish xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mujburiyatini keltirib chiqaradi.

Qurilishda xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor vazifasi boshqarish tizimlarini raqamlashtirishdir. Uning asosiy afzalliklari quyidagilar.

1. **Aniq va tezkor ma'lumotlarni tahlil qilish**: Raqamli texnologiyalar mehnat xavfsizligi bilan bog'liq

ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu xavflarni aniqlash, tuzatish choralarini ko‘rish va hodisalarning oldini olish uchun zarurdir.

2. **Monitoring tizimlarini integratsiyalashuvi**: raqamlashtirish jarayonida turli monitoring tizimlari birlashtirilib, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlikni nazorat qilishni kuchaytiradi. Masalan, xodimlarning mehnat sharoitlari va jihozlarning ish holati doimiy ravishda nazorat qilinadi.

3. **Ta‘lim va axborotni yetkazib berish samaradorligi**: raqamli o‘quv platformalari xodimlarga xavfsizlik bilan bog‘liq ma’lumotlarni yetkazish va o‘rgatish jarayonini soddalashtiradi. Masofaviy o‘qitish kurslari va virtual simulyatorlar ishchilarga xavfsizlik qoidalarini tushunishda yordam beradi.

4. **Xatolarni kamaytirish va inson omillarini nazorat qilish**: avtomatlashtirish va raqamli tizimlar inson omillarini minimallashtirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida mehnat xavfsizligi bilan bog‘liq xatolar sonini kamaytiradi.

5. **Jarayonni optimallashtirish**: raqamlashtirish jarayoni xavfsizlik protokollarini soddalashtirish va ish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu nafaqat xavfsizlikni oshiradi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

6. **Ijtimoiy mas’uliyat va imidjni oshirish**: raqamli xavfsizlik tizimlari korporativ imidjni yaxshilaydi va ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi. Bu kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishning hal qiluvchi omilidir.

7. **Xarajatlarni kamaytirish**: xavfsizlik bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar va xavflarning oldini olish ularni hal qilish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi. Raqamli xavfsizlik tizimlari uzoq muddatli iqtisodiy foyda ham beradi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Tadqiqot olib borish jarayonida eng muhum masalalardan biri xavfsizlikni boshqarish bo‘yicha bilimga ega bo‘lish sohasida yaxshi natijadorlikka olib kelishi kuzatildi. Bunda boshqaruv xodimlari qurilish ob’yektlarida xavfsizlikni boshqarish sohasida yaxshi bilim darajasiga ega bo‘lishi ishchilarning avariya va nohush hodisalardan holi holda, xavfsiz ishlashi uchun xavfsiz ish muhitini yaratish va tavakkalchiliklarni boshqarish imkoniyatini berdi. Bu jarayonda esa ish boshqaruvchi quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lishi talab etildi.

1. **Xatarli va zaharli muhitni bilish qobiliyati** - bu ishchilar ish olib borayotgan joyda yoki ish olib borish uslubida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan bilish va ularni bartaraf etish maqsadida xavfsizlik choralarini ko‘rish qobiliyatidir. Doimiy o‘zgarib turadigan qurilish sohasida tajribaga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tajriba to‘plashga va boshqalarning misollaridan o‘rganishga harakat qilishi va tajribani kengaytirish maqsadida xavfsizlik bilan aloqador ma’lumotlar va yangi texnologiyalardan ortda qolmaslik muhimdir.

2. **Texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish qobiliyati** - texnika xavfsizligi bo‘yicha ta’lim bera olish, xodimning tavakkalchiliklarni tushuna olishi va xavfsizlik choralarini qo‘llay olishidir. Xavfsizlik yig‘ilishlari, xavfsizlik bo‘yicha seminarlar va xavfsizlik bo‘yicha treninglar - bularning barchasi texnika xavfsizligi bo‘yicha ta’lim o‘tkazish vositalari hisoblanadi.

3. **Ish ob’yektini nazorat qila olish** - xavfli ish uslublarining oldini olish va ishchilar o‘z vazifalarini xavfsiz bajarishlarini ta’minlash maqsadida tegishli ko‘rsatmalar bera olishdir. Shu maqsadda, ishchilar bajarayotgan ishlarga, ularning tevarak-atrofiga doimo nazar tashlash, ob’yektlarda xavfsizlikni ta’minlash mas’uliyatini o’z zimmasiga olish muhimdir.

4. **Nohush hodisalarga munosabat bildira olish** - bunday hodisa sodir bo‘lgan taqdirda, birinchi qadam ishchilarning xavfsizligini ta’minlashdir. Shuningdek, nohush hodisa sabablarini o‘rganib chiqish maqsadida, avariya yoki nohush hodisa ro‘y bergan ob’yektni qo‘riqlash. Bu hodisaning sababini tekshirgandan so‘ng, bunday hodisalarning qaytarilmasligi uchun choralar ishlab chiqish hamda amalga oshirish maqsadida tezkor va tegishli choralarni ko‘ra olish.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, qurilish jarayonlarida xavfsizlikni ta’minlash uchun mehnat xavfsizligini boshqarish tizimlarini raqamlashtirish, qurilmalar, qurilish uskunalari va yuk ko’tarish kranlari, kran yo’llarining holatini nazorat qiluvchi professional texnik nazoratni yaratish, qurilishda band bo’lgan qatlamni xavfsizlik bo‘yicha seminarlar va xavfsizlik bo‘yicha treninglar olib borish orqali yuzaga kelishi mumkin bo’lgan baxtsiz hodisalarni oldini olishga erishish mumkin.

1. Qurilish sohasida ish boshqaruvida ishlayotgan xodimlarni bir yilda bir marta majburiy tarzda mehnat muhofazasi va salomlik sohasida 30 soatlik o’qishini tashkil qilish.

2. Qurilish jarayoniga jalb qilingan pudratchi tashkilotlar uchun xavfsizlik talablari kuchaytirilioshi zarur.

3. Qurilish sohasida tehsil olayotgan talabalarga “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Mehnat muhofazasi va xafsizlik” fanlarini 60 soatlik dasturini ishlab chiqish zarurati.

4. Qurilishda yuzaga keladigan xavflardan himoyalanishda boshqaruv hodimlari uchun 3 yillik sertifikat beriladigan “Xavfsizlikni boshqarish”, “Boshqaruvchanlik”, “Yetakchilik” mavzularida 45 soatlik dasturni ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2020 yil 24 yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasi –

2. Безопасность труда на объектах городского строительства и хозяйства при использовании кранов и подъемников. Учебно-методическое, практическое и справочное пособие. Москва 2005 г.

3. QMQ 3.01.02- 00 Qurilishda xavfsizlik texnikasi. T. 2000 y.

4. O’zbekiston Respublikasi “Sanoatgeokontexnazorat” Davlat inspeksiyasi boshlig’ining 14.02.2006-yil 32-son buyrug’iga binoan tasdiqlangan “Ortish-tushirish ishlaridagi

ishlarni xavfsiz bajarish qoidalari”
5. https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=16142718638551729026
6. Life Safety and Environment Protection. Mark D Goldfein, Alexei V Ivanov,Nikolaj Kozhevnikov, V Kozhevnikov. NovaSciencePublishers, Inc. (April 25, 2013).
7. Eyewitness Ecology. Written by STEVE POLLOCK. United States in 2005 by DK Publishing, Inc. 375 Hudson Street, New York, NY 10014 ISBN-13: 978-0-7566-1387-7 (PLC), ISBN-13: 978-0-7566-1396-9 (ALB).
8. O’zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to’g’risida”gi qonuni.

GRUNTLARNING TARKIBI VA ULARNING INSHOOTLARGA TA’SIRINI BAHOLASH

Xudoyberddiyev Jamshid Ziyatovich
o’qituvchi (JizPI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik inshootlarini qurishda gruntlarning tarkibi, ularning klassifikatsiyasini aniqlash, gruntlar mexanik xossalarinining inshootga ta’sirini baholash ma’lumotlari keltirilgan.

Kalit so’zlar. Muhandislik inshootlari, gruntlar, gruntlarning tarkibi, mexanik xossalar, mustaxkamlik, inshoot asosi, gruntlar tarkibidagi mayda zarralar.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о составе грунтов, их классификации и оценке влияния механических свойств грунтов на структуру при строительстве инженерных сооружений.

Ключевые слова. Инженерные сооружения, грунты, состав грунтов, механические свойства, прочность, основа конструкции, мелкие частицы в грунтах.

Annotation. This article provides information on the composition of soils, their classification, and evaluation of the effect of mechanical properties of soils on the structure in the construction of engineering structures.

Key words. Engineering structures, soils, composition of soils, mechanical properties, strength, structure base, fine particles in soils.

Kirish. Gruntlarning tarkibi, klassifikatsiyasi, mustahkamlik ko’rsakichlari ularning ichki bog’lanishiga bog’liq bo’lib, ular 2 guruhga bo’linadi: kristall va suvli – kolloidli bog’lanishlar. Bu bog‘lanishlarning mustahkamligi minerallarga bog’liqdir. Tabiatda tarqalgan gruntlar ma’lum bir belgisiga qarab, ularni tasniflanishiga asosan tabiatda keng tarqalgan, inshoot zamini bo’lib xizmat qiladigan, ichki bog’lanishi va kuch ko’tara olish qobilyatiga asosan 4 ta sinfga bo’linadi: qoya gruntlar, yirik bo’lakli gruntlar, qumlar, gilli gruntlar.

Ilmiy-tadqiqot metodlari. Inshootlarni loyihalash va qurishda gruntlar tarkibini aniqlash lozim. Gruntlar tarkibi inshoot asosining mustaxkamligini ta’minlaydi. Izlanishlar natijasida gruntlarning tabiatda tarqalishi, tarkibi, xossalari aniqlandi. Tabiatda tarqalgan gruntlar bo’laklardan, donalardan zarralardan tashkil topgan bo’lib, ularning yirikligi gruntning mustahkamligiga ta’sir etadi. Gruntlarning tarkibidagi fraksiya miqdorini gruntning umumiy og’rligiga nisbati gruntning granulometrik tarkibi deyiladi. Yopishqoqlik - bu gruntlarning jismlarga yopishib qolish xususiyati. Bu kattalik g/sm^3 kattalikda o’lchanib, jismni gruntdan ajratib olishga sarflangan kuch bilan o’lchanadi. Yopishqoqlik xususiyati gruntdagi gill zarrachalariga va ba’zi bir chang zarrachalariga xam xos xususiyat bo’lib, gruntning namlik xolatida ro’y beradi. Fraksiya deb, o’lchamlari va xossalari bir xil bo’lgan grunt donechalariga aytiladi. Gruntlarning tarkibida turli xil fraksiyalar uchraydi. Shag’al fraksiyasi – 2mm – 70 mm, qum fraksiyasi – 2 – 0,05 mm, chang fraksiyasi – 0,05 – 0,005 mm, gill fraksiyasi – <0.005 mm bo’ladi. Laboratoriya sharoitida gruntlarning suvli xususyatlari, ko’pchishi, ivishi, suv o’tkazuvchanligi, yopishqoqligi, hajmi kichrayishi, kapilyar balandliklari aniqlandi.

Natijalar. Gilli gruntlarning tarkibida montmorillonit qanchalik ko’p bo’lsa, u shuncha ko’p ko’pchiydi. Gruntlarning xajmi kichrayishi - bu ko’pchishning teskarisi bo’lib, grunt namligini yo’qotganda, ya’ni undagi suv parlaganda yoki o’simlik ildizi orqali yutilganda ro’y beradi. Xajm kichrayishda tabiatda gruntlarning yuzasida darzliklar paydo bo’ladi va gruntning xususiyati o’zgaradi. Gruntning kapilyarligi - gilli gruntlar tarkibidagi chang zarrachalari kapilyar g’ovaklarni xosil qiladi. Shu kapilyarlar yordamida suv yer yuzasiga chqadi. Grunt zarralarini suvda cho’kish tezligi bilan, ularni diametrlari orasidagi bog’liqlik shkalasi keltirildi.

Gruntlarn yer osti suvlari yuzasidan yuqoriga qarab suvlarning ko’tarilish qobiliyati ularning kapilyarlik xossasini belgilaydi.Kapilyarlik xossasi kapilyarlik tezlikka va kapilyarlik balandlikka bog’langan bo’ladi. Kapilyarlik balandlik gruntlarning donadorlik tarkibiga, suvning xaroratiga, gruntning zichligiga bog’liq bo’lgan kattalikdir.

Muhokamalar. Gruntlarning mexanik xossalari. Gruntlarning siljishga qarshiligini aniqlash usullari. Gruntlarning mehanik xossalariga: gruntlarning siljishga qarshiligi, gruntlarning siqilishi kiradi. Gruntlarning surilishiga qarshiligi, ularning asosiy mexanik xossalardan biri bo’lib, u ko’tarmalardagi to’g’ jinslarining, tog’ yon bag’irlarining hamda inshootlar zaminini mustahkamligini ifodalaydi. Tog’ jinslari tashqi kuch ta’sirida siqilganda ularning zarrachalari harakatga keladi. Bunda zarrachalar orasida siljituvchi kuchga qarshi kuch, ya’ni ishqalanish kuchi hosil bo’ladi. Gruntlarning shakl o’zgarishi uning mustahkamligiga bog’liq. Gruntning mustahkamligi esa ularning siljishga qarshiligi bilan belgilandi. Shunday qilib, gruntning mustahkamligini ifodalovchi kattaliklar - ichki ishqalanish burchagi va bog’lanish kuchidir.

Ichki ishqalanish burchagi: Jism zarralari sirt yuzasining g’adir-budurlik shakli ishqalanish holatini belgilaydi.

Xulosa. O’rganishlarimiz natijasida aniqlandiki, inshoot asosining uzoq vaqt xizmat qilishi gruntlarning mustahkamligiga bog’liq. Gruntlarning mustahkamligi faqat ulardagi yumshoq bog'lanish kuchiga teng bo'lib, namlikning ma'lum qiymatida yukning qiymati hisobga olinmaydi. Tog’ jinslariga tashqi kuch ta’sirida ularning g’ovakligi va hajmi kamayishiga gruntlarning siqilishi deyiladi. Gruntlarning siqilish darajasini aniqlash uchun ularni tajriba orqali sinash kerak. Kompression siqilishda gruntlarning kuch ostida yonga kengaymasdan tik siqilishi aniqlandi. Na’munadan xalqaga grunt kesib olindi, kompression asbobida turli kuchlar ta’sirida (P=2 kg, 4 kg, 6 kg) siqilish darajalari aniqlandi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Худойбердиев Ж. З. и др. Шахар кўчаларида транспорт воситаларининг ҳаракат миқдори ва таркибини таҳлили //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 633-640.
2. Xudoyberdiyev J. Z. Mamlakatimizda loyihalanayotgan ko’priklar qurilish ashyolarini, innovatsion yechimlarini ishlab chiqish va tatbiq etish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 263-270.
3. Худойбердиев Ж. и др. Эксплуатация қилинаётган автомобиль йўллари кўприклари темирбетонли оралиқ қурилмаларини диагностикалаш усулларини такомиллаштириш //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 276-281.
4. Khudoyberdiev J. Z., Urazov A. M. The density stantards of the Motorway grounds //ББК. – 2019. – Т. 1. – С. 107.
5. Xudoyberdiev J. va boshqalar. Temir-beton ko'priklar monitoringi asoslari //Fan va ta'lim. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – S. 126-131.
6. Худойбердиев Ж. З., Шохрух У. Ў. А. Республикамиздаги автомобиль йўлларида ишлатиладиган грунтларнинг зичлик нормалари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 401-407.
7. Khudoyberdiev J. Z., Urazov A. M. The density stantards of the Motorway grounds //ББК. – 2019. – Т. 1. – С. 107.
8. Khudoyberdiev J. et al. Dynamic testing of reinforced concrete bridges //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 120-125.


QOVUSHOQ-ELASTIK PLASTINKA ERKIN TEBRANISHLARI

Yaxshiboyev Sh.R., SamDAQU f.-m.,f.f.d. dotsent
Razzoqov N.S., SamDAQU t.f.f.d. (PhD)
Razzoqov N.S., SamDAQU katta o’qituvchi

Annotation. In work the task about movement of points is considered continuous plates from system equalizes fluctuations of a three-layer elastic plate. For this purpose you understand the system of the differential equation in the private derivatives describing fluctuations of a three-layer elastic plate, and then, in that specific case, behind analytical comments and continuations.

Аннотация. В работе рассмотрена задача вывода перемещение точек сплошной пластин из системы уравнены колебания трехслойной упругой пластины. С этой целью выведении система дифференциального уравнения в частных производных, описывающие колебания трехслойной упругой пластины, а затем, в частном случае получены анализированы продолный и поперечний колебания сплошной пластины при отсуствие внешных нагрузок.

Kirish. Bugungi kunga kelib texnikaning turli sohalarida va qurilishda, ko’p qatlamli xususan, uch qatlamli plastinkalar keng qo’llanilmoqda. Bunga sabab uch qatlamli plastinkalarning turli xildagi tebranishlar jarayonida mustahkamligi yuqori darajada qolishi va iqtisodiy muammolarning oson yechilishi bo’lmoqda. Shuning uchun uch qatlamli plastinkalar ustida ko’plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bular qatoriga [1, 2] ishlarni misol qilib ko’rsatish mumkin. Bunda juda ko’p hollarda plastinkalarning dinamik hisobi klassik nazariyaga tayangan holda olib boriladi [3]. Ba’zi hollarda dinamik hisoblar ko’ndalang siljish deformatsiyasi va aylanish inersiyasini hisobga oluvchi aniqlashtirilgan S.P.Timoshenko tipidagi tenglamalarga asoslanadi [4].



1-rasm

Keyingi yilliklarda aniq yechimlar usuliga asoslangan plastinkalar nazariyalari ishlab chiqilgan. Xususan ushbu usul bilan professor I.G.Filippov [6] va uning o’quvchilari tomonidan simmetrik strukturaga ega bo’lgan uch qatlamli plastinkalar tebranish nazariyalari yaratilgan.

Ushbu maqolada bir qatlamli elastik plastinkaning tebranish tenglamalari masala tekis masala deb qaralgan

hol uchun keltirib chiqarilgan. Tebranish tenglamalari bilan bir qatorda plastinka ixtiyoriy kesimidagi ko'chish va kuchlanishlarni aniqlashga imkon beruvchi algoritm ishlab chiqilgan.

Masalaning qo'yilishi. Dekart koordinatalar sistemasida bir qatlamli plastinkani qaraymiz. Plastinka tekis deformatsiya holatida deb unga 1-rasmdagi holatdagidek Oxz to'g'ri burchakli koordinata o'qlarini o'tkazamiz. Bunda Ox o'qini ko'ndalang kesimning o'rta chizig'i bo'ylab yo'naltiramiz, Oz - o'qini esa unga tik ravishda yuqoriga yo'naltiramiz.

Qatlam qalinligini $2h_0$ orqali, qatlam materiali zichligini ρ_0 orqali, qatlam materiali elastik harakteristikalarini μ_0 va λ_0 orqali belgilaymiz.

Bu bir qatlamli plastinka tebranish tenglamasini xususiy holda [5] ishda keltirilgan uch qatlamli plastinka tebranish tenglamasidan keltirib chiqarish hamda qaralayotgan bir qatlamli plastinkada yuzaga keladigan ko'chish va kuchlanishlarni topish masalasini qaraymiz.

Masalaning yechimi. Shunday qilib bir qatlamli plastinkaning tebranishlari haqidagi masalani yechish uchun uch qatlamli plastinkaning [5] ishda keltirilgan tebranish tenglamalaridan foydalanamiz. Bizga ma'lumki [5] ishda ikki izlanuvchi funksiyalarga nisbatan uch qatlamli plastinkaning amaliy masalalarni yechishda qo'llash mumkin bo'lgan tebranish tenglamalari sistemasi ba'zi almashtirishlardan keyin quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$\left\{A_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+A_{12}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+A_{13}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+A_{14}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+A_{15}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+A_{16}\right\}\frac{\partial}{\partial x}W_0^{(0)}+$$
$$+\left\{B_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+B_{12}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+B_{13}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+B_{14}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+B_{15}\frac{\partial^2}{\partial x^2}\right\}U_0^{(0)}=$$
$$=\left\{S_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+S_{12}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+S_{13}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+S_{14}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+S_{15}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+S_{16}\right\}f_x^{(1)}(k,p);\qquad(1)$$
$$\left\{A_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+A_{22}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+A_{23}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+A_{24}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+A_{25}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+A_{26}\right\}W_0^{(0)}+$$
$$B_{24}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+B_{25}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+B_{26}\Big\}\frac{\partial U_0^{(0)}}{\partial x}=$$
$$=\left\{S_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+S_{22}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+S_{23}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+S_{24}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+S_{25}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+S_{26}\right\}f_z^{(2)}(k,p).$$

bu yerda

$$A_{11}=-\left(\frac{q_0}{a_1^2b_1^2}+\frac{1-q_1}{a_0^2a_1^2}\right)\frac{z_1h_0^4}{12}-\left(\frac{2q_1}{a_1^2b_0^2}+\frac{3(1+q_1-3q_0q_1)}{a_1^2b_1^2}+\frac{2q_0q_1}{a_0^2a_1^2}+\frac{3q_0(1-q_1)}{a_1^4}\right.$$
$$\left.+\frac{1+q_1}{b_0^2b_1^2}+\frac{q_0(1+q_1)}{a_0^2b_1^2}\right)\frac{z_1^3h_0^2}{36};$$
$$A_{12}=\left(\frac{1-q_1+2q_0}{a_1^2}+\frac{q_0}{b_1^2}+\frac{1-q_1}{a_0^2}\right)\frac{z_1h_0^4}{12}+\left(\frac{3+5q_1+7q_0-13q_0q_1}{a_1^2}+\frac{1+3q_1}{b_0^2}\right.$$
$$\left.+\frac{4+4q_1+q_0-8q_0q_1}{b_1^2}\right)\frac{z_1^3h_0^2}{36};$$
$$A_{13}=-(1-q_1+2q_0)\frac{z_1h_0^4}{12}-(4+6q_1+4q_0-9q_0q_1)\frac{z_1^3h_0^2}{36};\ A_{15}=(4-2q_1+4q_0-2q_0q_1)\frac{z_1h_0^2}{6}$$
$$+(1+3q_1)\frac{z_1^3}{6};$$
$$A_{14}=-\left(\frac{1+q_1}{b_0^2}+\frac{3(1-q_1)(1+q_0)}{a_1^2}+\frac{q_0(1+q_1)}{a_0^2}\right)\frac{z_1h_0^2}{6}-\left(\frac{2q_1}{a_1^2}+\frac{1+q_1}{b_1^2}\right)\frac{z_1^3}{6};\qquad A_{16}=-(1+q_1)z_1;$$

$$A_{21}=\frac{1-q_2}{a_0^2b_2^2}\frac{h_0^4}{12}+\left(\frac{1-q_2}{a_2^2}+\frac{3(1-q_2)}{a_2^2b_2^2}+\frac{(1-q_2)q_0}{a_0^2a_2^2}\right)\frac{h_0^2z_2^2}{12};$$

$$A_{25}=-(4-10q_2+6q_0+2q_0q_2)\frac{h_0^2}{6}-(1+q_2)\frac{z_2^2}{2};$$

$$A_{22}=\left(\frac{1-3q_2}{a_0^2}+\frac{2q_0}{a_2^2}+\frac{1-q_2}{b_2^2}\right)\frac{h_0^4}{12}-\left(\frac{(5+3q_0)(1-q_2)}{a_2^2}+\frac{1+q_2}{a_0^2}+\frac{3(1-q_2)}{b_2^2}+\frac{q_0(1+q_2)}{a_0^2}\right)\frac{h_0^2z_2^2}{12};\qquad A_{26}=(1-q_2);$$

$$A_{23}=(1-3q_2+2q_0)\frac{h_0^4}{12}+(5-3q_2+3q_0-q_0q_2)\frac{h_0^2z_2^2}{12};\ A_{24}=\left(\frac{3(1-q_2)}{b_2^2}+\frac{1-q_2}{b_0^2}+\frac{q_0(1-q_2)}{a_0^2}\right)\frac{h_0^2}{6}$$

$$+\frac{1-q_2}{a_2^2}\frac{z_2^2}{2};$$

$$B_{11}=-\xi\left(\frac{3(1-q_1)(q_0-1)}{a_0^2}-\frac{1}{b_1^2}\right)\frac{1}{a_1^2}\frac{z_1h_0^2}{6}-\xi\frac{q_1-1}{a_1^2b_1^2}\frac{z_1^3}{6};\qquad B_{13}=-\xi(4-2q_1)(q_0-1)\frac{z_1h_0^2}{6}-\xi(1+q_1)\frac{z_1^3}{6}$$

;

$$B_{12}=\xi\left(\frac{3q_0-2-3q_0q_1+4q_1}{a_0^2}+\frac{3q_0-4-3q_0q_1+2q_1}{a_1^2}-\frac{1}{b_1^2}\right)\frac{z_1h_0^2}{6}-\xi\left(\frac{3q_1-1}{a_1^2}+\frac{q_1-1}{b_1^2}\right)\frac{z_1^3}{6};$$

$$B_{14}=-\xi\left(\frac{q_1-1}{a_1^2}\right)z_1;$$

$$B_{15}=\xi(q_1-1)z_1;\qquad B_{21}=\xi\left(\frac{2(q_0-q_2)}{a_2^2}-\frac{1+q_2}{b_2^2}\right)\frac{1}{a_0^2}\frac{h_0^4}{12}+\xi\left(\frac{3(q_2-1)}{a_0^2a_2^2}-\frac{1+q_2}{a_2^2b_2^2}+\frac{2q_0}{a_0^2b_2^2}\right)\frac{h_0^2z_2^2}{12};$$

$$B_{22}=-\xi\left(\frac{2q_0-3q_2-1}{a_0^2}+\frac{2(q_0-q_2)}{a_2^2}-\frac{1+q_2}{b_2^2}\right)\frac{h_0^4}{12}-\xi\left(\frac{3q_2+2q_0-3}{a_0^2}+\frac{2q_2+2q_0-4}{a_2^2}-\frac{1+q_2}{b_2^2}\right)\frac{h_0^2z_2^2}{12};$$

$$B_{23}=\xi(2q_0-3q_2-1)\frac{h_0^4}{12}+\xi(2q_2+2q_0-4)\frac{h_0^2z_2^2}{12};\qquad B_{25}=-\xi(q_2-1)\frac{z_2^2}{2}-\xi(2q_0q_2+4q_0-2q_2)\frac{h_0^2}{6}$$

;

$$B_{24}=\xi\left(\frac{3-q_2}{b_2^2}+\frac{2q_0q_2+4q_0-3q_2-3}{a_0^2}+\frac{2q_2}{a_2^2}\right)\frac{h_0^2}{6}+\xi\frac{q_2-1}{a_2^2}\frac{z_2^2}{2};\qquad B_{26}=-\xi(1+q_2);$$

$$S_{i1}=\xi\mu_i^{-1}\frac{1}{a_i^2b_i^2}\frac{h_0^4}{12};\qquad S_{i2}=-\xi\mu_i^{-1}\left(\frac{1}{a_i^2}+\frac{1}{b_i^2}\right)\frac{h_0^4}{12};\qquad S_{i3}=\xi\mu_i^{-1}\frac{h_0^4}{12};$$

$$S_{i4}=\xi\mu_i^{-1}\left(\frac{3-2q_i}{a_i^2}+\frac{1}{b_i^2}\right)\frac{h_0^2}{6};\qquad S_{i5}=-\xi\mu_i^{-1}(4-2q_i)\frac{h_0^2}{6};\qquad S_{i6}=\xi\mu_i^{-1};$$

bunda $(i=1,2)$; $z_1=h_0+h_1$; $z_2=h_0+h_2$; $q_m=1-\dfrac{\lambda_m}{\mu_m}$; a_m - plastinka materiallaridagi bo'ylama to'lqin tarqalish tezligi va b_m - ko'ndalang to'lqin tarqalish tezligi; m - qatlamlar nomeri.

Xususiy holda (1) tenglamalar sistemasida $h_0=0$, $h_2=h_1$, $q_2=q_1$ va $a_2=a_1$ deb olsak va ta'sir etuvchi kuchlarni nolga tenglashtirsak erkin holdagi bir qatlamli plastinka tebranish tenglamasi kelib chiqadi.

$$\left(c_{11}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+c_{12}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+c_{13}\right)\frac{\partial}{\partial x}W_0^{(0)}+\left(d_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+d_{12}\frac{\partial^4}{\partial x^2\partial t^2}+d_{13}\frac{\partial^4}{\partial x^4}+d_{14}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+d_{15}\frac{\partial^2}{\partial x^2}\right)U_0^{(0)}=0 \qquad (2)$$

$$\left(c_{21}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+c_{22}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+c_{23}\right)W_0^{(0)}+\left(d_{21}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+d_{22}\frac{\partial^2}{\partial x^2}+d_{23}\right)\frac{\partial U_0^{(0)}}{\partial x}=0$$

bu yerda

$$c_{11}=-\left(\frac{2q_1}{a_1^2}+\frac{1+q_1}{b_1^2}\right)\frac{h_1^3}{6};\quad c_{12}=(1+3q_1)\frac{h_1^3}{6};\quad c_{12}=-(1+q_1)h_1;\quad c_{21}\frac{1-q_1}{a_1^2}\frac{h_1^2}{2};\quad c_{22}=-(1+q_1)\frac{h_1^2}{2};$$

$$c_{23}=(1-q_1);\quad d_{11}=-\xi\frac{q_1-1}{a_1^2b_1^2}\frac{h_1^3}{6};\quad d_{12}=-\xi\left(\frac{3q_1-1}{a_1^2}+\frac{q_1-1}{b_1^2}\right)\frac{h_1^3}{6};\ d_{13}=-\xi(1+q_1)\frac{h_1^3}{6};\ d_{15}=\xi(q_1-1)h_1;$$

$$d_{14}=-\xi\left(\frac{q_1-1}{a_1^2}\right)h_1;\qquad d_{21}=\xi\frac{q_1-1}{a_1^2}\frac{h_1^2}{2};\qquad d_{22}=-\xi(q_1-1)\frac{h_1^2}{2};\quad d_{23}=-\xi(1+q_1);$$

Bir qatlamli plastinka tebranish tenglamalar sistemasi (2) ni o'lchovsiz holatga keltiramiz. Buning uchun quyidagi ko'rinishdagi o'lchovsiz kattaliklarni kiritamiz.

$$x^*=\frac{x}{l},\ z^*=\frac{z}{l},\ h_m^*=\frac{h_m}{l},\ t^*=\frac{t\cdot b_0}{l},\ a_m^*=\frac{a_m}{b_0},\ b_m^*=\frac{b_m}{b_0},\ \mu_m^*=\frac{\mu_m}{\mu_0},$$

$$U_0^{(0)*}=\frac{U_0^{(0)}}{l},\ W_0^{(0)*}=\frac{W_0^{(0)}}{l},\quad \xi^*=\frac{\xi}{l}. \tag{3}$$

(3) o'lchovsiz kattaliklarni (2) tenglamalar sistemasiga kiritib so'ngra bir qancha matematik soddalashtirishlarni bajarib quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz

$$\left(c_{11}^*\frac{\partial^2}{\partial t^{*2}}+c_{12}^*\frac{\partial^2}{\partial x^{*2}}+c_{13}^*\right)\frac{\partial}{\partial x^*}W_0^{(0)*}+\left(d_{11}^*\frac{\partial^4}{\partial t^{*4}}+d_{12}^*\frac{\partial^4}{\partial x^{*2}\partial t^{*2}}+d_{13}^*\frac{\partial^4}{\partial x^{*4}}+\right.$$

$$\left.d_{14}^*\frac{\partial^2}{\partial t^{*2}}+d_{15}^*\frac{\partial^2}{\partial x^{*2}}\right)U_0^{(0)*}=0 \tag{4}$$

$$\left(c_{21}^*\frac{\partial^2}{\partial t^{*2}}+c_{22}^*\frac{\partial^2}{\partial x^{*2}}+c_{23}^*\right)W_0^{(0)*}+\left(d_{21}^*\frac{\partial^2}{\partial t^{*2}}+d_{22}^*\frac{\partial^2}{\partial x^{*2}}+d_{23}^*\right)\frac{\partial U_0^{(0)*}}{\partial x^*}=0$$

bu yerda

$$c_{11}^*=-\left(\frac{2q_1}{a_1^{*2}}+\frac{1+q_1}{b_1^{*2}}\right)\frac{h_1^{*3}}{6};\quad c_{12}^*=(1+3q_1)\frac{h_1^{*3}}{6};\quad c_{13}^*=-(1+q_1)h_1^*;\quad c_{21}^*=\frac{1-q_1}{a_1^2}\frac{h_1^{*2}}{2};$$


$$c_{22}^*=-(1+q_1)\frac{h_1^{*2}}{2};$$

$$c_{23}^*=1-q_1;\quad d_{11}^*=-\xi^*\frac{q_1-1}{a_1^{*2}b_1^{*2}}\frac{h_1^{*3}}{6};\quad d_{12}^*=-\xi^*\left(\frac{3q_1-1}{a_1^{*2}}+\frac{q_1-1}{b_1^{*2}}\right)\frac{h_1^{*3}}{6};\quad d_{13}^*=-\xi^*(1+q_1)\frac{h_1^{*3}}{6};$$


$$d_{15}^*=\xi^*(q_1-1)h_1^*;\quad d_{14}^*=-\xi^*\left(\frac{q_1-1}{a_1^{*2}}\right)h_1^*;\quad d_{21}^*=\xi^*\frac{q_1-1}{a_1^{*2}}\frac{h_1^{*2}}{2};\quad d_{22}^*=-\xi^*(q_1-1)\frac{h_1^{*2}}{2};\quad d_{23}^*=-\xi^*(1+q_1)$$

;

Bu (4) tenglamalar sistemasini "Maple 12" dasturi yordamida yechib izlanuvchi funksiyalarni grafik ko'rinishida quyidagicha ekanligini topib olamiz. 2-rasmda $W_0^{(0)*}$ izlanuvchi funksiyaning grafigi tasvirlangan bo'lsa, 3-rasmda $U_0^{(0)*}$ izlanuvchi funksiyaning grafigi keltirilgan.



2-Rasm



3-Rasm

bunda,

$$\xi = 1\ ;\quad l = 1;\quad h = 0.05\ ;\quad \rho_{alyu\,\min} = 2700\ kg/m^3\ ;\quad E_{alyu\,\min} = 7\cdot 10^{10}\ Pa\ ;\quad \nu_{alyu\,\min} = 0.34\ . \qquad (5)$$

Shundan so'ng bir qatlamli plastinkada yuzaga keladigan ko'chishlarni topilgan bu izlanuvchi funksiyalar orqali o'lchovsiz holatda quyidagi ko'rinishda tasvirlaymiz.


$$U_0^* = \frac{1-q_0}{a_0^{*2}}\frac{z^{*2}}{2}\frac{\partial^2 U_0^{(0)*}}{\partial t^{*2}} - (1-q_0)\frac{z^{*2}}{2}\frac{\partial^2 U_0^{(0)*}}{\partial x^{*2}} + U_0^{(0)*} - \frac{1}{\xi^*}q_0\frac{z^{*2}}{2}\frac{\partial}{\partial x^*}W_0^{(0)*};$$

$$W_0^* = \frac{1}{\xi^*}\left(1+\frac{q_0}{a_0^{*2}}\right)\frac{z^{*3}}{6}\frac{\partial^2 W_0^{(0)*}}{\partial t^{*2}} - (1+q_0)\frac{z^{*3}}{6}\frac{1}{\xi^*}\frac{\partial^2 W_0^{(0)*}}{\partial x^{*2}} + \frac{1}{\xi^*}z^* W_0^{(0)*} + \qquad (6)$$


$$+\frac{q_0}{a_0^{*2}}\frac{z^{*3}}{6}\frac{\partial^3 U_0^{(0)*}}{\partial t^{*2}\partial x^*} - q_0\frac{z^{*3}}{6}\frac{\partial^3 U_0^{(0)*}}{\partial x^{*3}};$$

Bu (6) tenglamalar sistemasi bir qatlamli plastinkada yuzaga keladigan ko'chishlarni ifodalaydi.

Olingan natijalar. Bu (6) ko'rinishdagi ko'chishlar ifodalarini topilgan izlanuchi funksiyalardan foydalangan holda grafikda tasvirlash uchun bir qatlamli plastinka geometrik va mexanik parametrlarni yana (5) ko'rinishda kiritamiz va (6) ifodalarni "Mapl 12" dasturi yordamida yechib quyidagi grafiklarni olamiz.



4-Rasm



5-Rasm

Bunda 4-rasmda bir qatlamli plastinka materiali nuqtalarining z o'qi bo'ylab yo'nalgan W_0^* ko'chishi grafigi tasvirlangan bo'lsa, 5-rasmda esa bir qatlamli plastinka materiali nuqtalarining x o'qi bo'ylab yo'nalgan U_0^* ko'chishi grafigi tasvirlangan. Iki holatda ham plastinka materiali alyuminiydan iborat. Faqatgina 4- va 5 - rasmlardagi uzlukli chiziqlar (6) ifodalardagi z^* o'rniga $h/2$ qiymatni qo'ygan vaqti kelib chiqgan bo'lsa, uzluksiz chiziqlar esa (6) ifodalardagi z^* o'rniga $h/3$ qiymatni qo'ygan vaqti kelib chiqgan.

Adabiyotlar

1. Лопатин А.В., Удальцов Р.А. Симметричные колебания трехслойной пластины // Вестник СибГАУ. 2010. Вып. 2(36). С. 53-61.

2. Алтухов Е.В., Фоменко М.В. Упругие колебания трехслойных пластин симметричного строения //

Прикладни проблеми механики и математики. - 2009. Вып. 6. С. 139-145.

3. Александров А.Я., Куршин Л.М. Трехслойные пластинки и оболочки // Прочность, устойчивость, колебания. – М.: Машиностроение, 1968, т. 2.- С.245-308.

4. Григолюк Э.И., Селезов И.Т. Неклассические теории колебаний стержней, пластин и обо лочек // Итоги науки и техники. Сер. Механика деформ. твердых тел. – Т. 5 – М.: ВИНИТИ, 1973. – 272с.

5. Kh Khudoynazarov and Sh.R Yaxshiboyev 2020 The Mathematical Model of Transverse Vibrations of the Three-Layer Plate. IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012062. DOI: 10.1088/1755-1315/614/1/012062

6. Худойназаров Х.Х. Нестационарное взаимодействие цилиндрических оболочек и стержней с деформируемой средой.- Т. Изд-во мед.лит. имени Абу Али Ибн Сина, 2003, 325 стр.

7. Худойназаров Х.Х., Скрипняк В.А., Яхшибоев Ш. Нестационарные поперечные колебания трехслойной вязкоупругой пластинки. Узбекский журнал Проблемы Механики, №2, 2018.- С.27-32.

8. Яхшибоев Ш.Р. Антисимметричные колебания трехслойной, поперечный шарнирно-опертая пластины. Eurasıan journal of academic research.// 20-28 с. https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/12607

9. N.Razzakov, Sh.Yaxshiboyev, N.Razzakov, Sh.Buri-baev Modeling the operational state of suspended roofs with large spans and unique load-bearning elements E3S Web of Conferences 2024 Second International Conference on Sustainable Technologies in Civil and Environmental Engineering (ICSTCE 2024) https://www.e3s-conferences.org/.

UDK 625.089. 2.

SEMENTBETON QOPLAMALI AVTOMOBIL YO‘LLARINI QURISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI

Zafarov Olmos Zafarovich
(JizPI, PhD, dotsent)
Bozarboyev Anvar Azamat o‘g‘li
(JizPI, Magistr)

Annotatsiya. Ushbu mqolada mamlakatimizning quruq-issiq iqlim sharoitida zamonaviy sementbeton qoplamali avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurishning innovatsion yechimlari haqida ma’lumotlar keltirilib, ular ustida tajribalar olib borilgan. Shuningdek, yo‘l to‘shamalarining ishonchliligi, ishlash qobiliyati va mustahkamligiga bo‘lgan talablarning ortishi transport vositalarining yuk ko‘tarish qobiliyati va yo‘llarda harakat jadalligi ortib ketishi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: sementbeton qoplamali yo‘llar, loyihalash, qurish, transport-ekspluatatsiya ko‘rsatkichlar, yo‘l to‘shamalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi.

Abstract. This article provides information on innovative solutions for the design and construction of modern cement-concrete roads in the dry-hot climate of our country, and experiments were conducted on them. Also, the increase in requirements for the reliability, performance and durability of road surfaces is connected with the increase in the load-carrying capacity of vehicles and the speed of traffic on the roads.

Key words: cement concrete roads, design, construction, transport and operation indicators, road surfaces, engineering and communication infrastructure.

Аннотация. В данной статье представлена информация об инновационных решениях по проектированию и строительству современных цементобетонных дорог в условиях сухого жаркого климата нашей страны и проведены эксперименты по ним. Также повышение требований к надежности, работоспособности и долговечности дорожных покрытий связано с увеличением грузоподъемности транспортных средств и скорости движения на дорогах.

Ключевые слова: цементобетонные дороги, проектирование, строительство, транспортно-эксплуатационные показатели, дорожные покрытия, инженерно-коммуникационная инфраструктура.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlanishining asosiy omillardan biri bu rivojlangan, tashqi integratsiyalashgan va ichki birikkan avtomobil yo‘llari tarmog‘i hisoblanadi. Bugungi kunda avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda “O‘zbek milliy avtomagistralini barpo qilish” avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish borasida Davlat yo‘l texnik siyosati olib borilmoqda. Sementbeton qoplamali avtomobil yo‘llari AQSH da hamma yo‘lning 60% ni, Germaniyada 38%ni, Avstriyada 46% ni, Rossiyada 3% ni, O‘zbekistonda bor yo‘g‘i 0,8 % ni tashkil qiladi. Respublikamizda sementbeton qoplamali avtomobil yo‘llari 1962 yildan boshlab qurila boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlarining bir maromda faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishida transport kommunikatsiyalarining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan yillar davomida bir qator keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Buni zamonaviy talablarga javob beradigan avtomagistral yo‘llarni qurish, xorijiy davlatlar bilan transport aloqalarni o‘rnatish, yo‘l xo‘jaligiga

zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish, bugungi kun talablariga javob beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi muhim yo‘nalishlarda ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizdagi yo‘llarni Transyevropa va Yevroosiyodagi yo‘llar bilan tutashtirish hamda shu yo‘l bilan jahon portlariga chiqish bo‘yicha ishonchli qadamlar qo‘yildi. Texnik ko‘rsatkichlariga ko‘ra, O‘zbekistondagi umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llari MDH davlatlari orasida oldingi o‘ringa chiqdi. Tarmoq muhandis-texnik xodimlari qisqa muddatlarga yirik yo‘lo‘tkazgichlar, ko‘priklar, ko‘p tasmali transport harakatiga mo‘ljallangan zamonaviy avtomagistrallar qurishni o‘zlashtirdilar. Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlardan zamonaviy yo‘l-qurilish uskunalari va texnikalari keltirildi. Bularning natijasida tarmoq rivojlanib, yo‘llarning ravonligi, avtomobillarning uzluksiz va xavfsiz harakatlanishi ta’minlanmoqda. Respublikamiz barqaror avtomagistral yo‘llari aloqasiga ega. Kelajakda respublika hududi orqali 20 ta xalqaro transport yo‘nalishlari o‘tishi rejalashtirilgan. Shuning uchun bugungi kunda o‘zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi A-380 «G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynov» avtomobil yo‘li va A-373 «Toshkent-O‘sh» avtomobil yo‘llarida to‘rt tasmali sementbeton qoplamasini qurish ishlari investitsiya dasturlari asosida jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

Respublikamizda sementbeton qoplamalarini qurish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha bir qancha muammolarga duch kelinmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida ilmiy texnik asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Ma’lumki, sementbeton qoplamali yo‘llarni qurishdagi asosiy masala ularning qimmatliligida: beton qoplama asfalt qoplamadan 1,5-2,0 marta, ya’ni 70-80% qimmat. Biroq, o’zbek, rus va yevropa olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, taxminan 8 yildan keyin sementbeton va asfaltbeton yo‘llarning ekspluatatsion xarajatlari muvozanatlashadi.

Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, asfaltbeton qoplama foydalanishga topshirilgandan keyin 2-3 yil o‘tib ta’mir talab bo‘lib qoladi. Hosil bo‘lgan yoriqlar, chuqurchalar va o‘yiqlarni ta’mirlash kerak bo‘ladi. Sifatli qurilgan sementbeton qoplama 10-12 yil davomida ta’mirga muhtoj bo‘lmaydi.

Sementbeton qoplamali avtomobil yo’llarini qurishning bugungi kundagi ahamiyati shundaki, ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog‘liq holda ildam rivojlanishini ta’minlash hamda buning negizida yangi ish joylarini yaratish, aholining bandligi va turmush darajasi uzluksiz o‘sib borishini hamda 2022-2025 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

Yo‘l to‘shamalarining ishonchliligi, ishlash qobiliyati va mustahkamligiga bo‘lgan talablarning ortishi transport vositalarining yuk ko‘tarish qobiliyati va yo‘llarda harakat jadalligi ortib ketishi bilan bog‘liq. Keyingi o‘n yillikda O‘zbekistonning avtomobil parki bir necha marta o‘sdi. Respublikamizdagi va dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi tajribalar ko‘rsatishicha, o‘sib borayotgan talablarni sementbeton qoplamali avtomobil yo‘llari ko‘proq qoniqtiradi. Bunday yo‘llarning transport-ekspluatatsiya ko‘rsatkichlari, uzoq vaqt xizmat qilishi organik moddalardan qurilgan yo‘llarga qaraganda ancha afzalligini ko‘rsatadi.

Biroq, shuni ham hisobga olish lozimki, sementbeton qoplamani qurish ijodiy yondashuv va e’tiborni, texnik jihatdan yuqori darajada qurollanishni, yuqori malakani, qurilish aniq va mukammal tashkil qilinishini talab qiladi. Ba’zi omillar masalasida ozgina chetga chiqish yoki e’tiborsizlik qilinadigan bo‘lsa sementbeton qoplama asfaltbetondan ancha qimmatga tushadi.

Sementbeton qoplamalarning afzalligi shubhasiz bo‘lishiga qaramay, bunday qoplamani bizning Respublikada qurish tajribalari ko‘rsatishicha, hozircha jiddiy muammolar mavjud. Masalan, yuqori unumli yo‘l mashinalari yordamida sementbeton qoplamalarini qurish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bu texnologiya qurilish ishlarining samarasini oshirishga, bajarilayotgan ishlarning sifatini oshishiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida ilmiy texnik asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning iqlimi keskin kontinental bo’lib, ham yillik, ham sutkalik haroratlar katta amplitudada o‘zgarib turadi va yoz oylarida harorat eng baland darajaga chiqadi. Janubiy va g‘arbiy tekisliklarda iyul oyining o‘rtacha harorati +29°C +30°C ga teng, Termiz va Sherobodda +50°C, sharqiy tekisliklarda, tog‘ etaklarida esa +26°C ga yetadi. Yanvar oyining o‘rtacha harorati Amudaryo etaklarida -8°C, janubda Termizda +2°C bo‘ladi. O‘zbekistonning iqlimida havo harorati manfiydan musbatga tez-tez almashib turadi bu esa yo‘l materiallarining sovuq bardoshliligiga katta talab qo‘yadi. Ustyurtning g‘arbida, Amudaryo va Qizilqum etaklarida yomg‘irlar miqdori bir yilda 100 mm ni tashkil etadi, sharqda 200 mm gacha, Tissar tizmasidagi Tyan-shan tog‘ etaklarida 300-400 mm gacha oshadi. O‘zbekistonda bahor iliq va seryomg‘ir, yoz juda issiq va quruq. Kuz quruq va iliq, faqat uning ikkinchi yarmidagina yomg‘ir yog‘a boshlaydi. Qish sovuq va seryomg‘ir. Qor tez-tez yog‘adi, harorat -30°C gacha, shimoliy tumanlarda esa -37°C gacha tushib ketadi (Xorazm viloyati). 1986-1989 yillarda qishda Toshkentda kechasi, ertalabga yaqin harorat -38°C, kunduzi esa +5°C ekanligi qayd etilgan. Eng issiq davr 25-iyundan 5-avgustgacha, eng sovuq davr 25-dekabrdan 5-fevralgacha.

O‘zbekistonda ko‘pgina sug‘oriladigan yerlarning gruntlari tarkibida changsimon zarralar ko‘pligi(75-85)

bilan ajralib turadi. Amudaryo va Sirdaryo etaklarida ularning miqdori yanada ko‘p (92 % gacha). Bunday gruntlarning ko‘tarib turish qobiliyati kam, suvga chidamliligi kuchsiz va kapillyar ko‘tarilishi katta bo‘lib, 2,5-3,0 metrga yetadi. Bu gruntlar namni shimib olish xususiyatiga ega bo‘lib, keyingi namlanishda ivib, suyuq loyga aylanadi. Quruq holatda avtomobillar ta’sirida gruntlar oson yemirilib, changga aylanadi. Sun’iy sug‘oriladigan ko‘pgina tumanlarda sho‘rlangan tuproqlar keng tarqalgan. Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l va Buxoro vohasidagi sho‘r yerlarida sulfatli sho‘rlanish xloridli sho‘rlanishdan ustun turadi. Amudaryo etaklaridagi katta hududlarda xloridli sho‘rlanish keng tarqalgan. Sug‘oriladigan zonada yo‘l uchun og‘ir bo‘lgan gidrogeologik sharoitlarning yuzaga kelishiga yer yuzasidan 0.5-1 m gacha chuqurlikda joylashadigan yer osti suvlarining yuqori sathi sabab bo‘ladi, ayrim tumanlarda esa yer osti suvlarining sathi hatto yuzaga ham chiqadi. Transport-ekspluatatsiya ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy omillar, quyidagi parametrlar hisoblanadi: yomg‘irlar, harorat, muzlash, chuqurligi va tezligi, yer osti suvlarining rejimi va qor uyumining qalinligi. Tabiiy-iqlim omillari haqidagi ma’lumot nafaqat transport-ekspluatatsiya ko‘rsatlichlarining vaqt davomida o‘zgarishini bashorat(prognoz) qilishda, balki ularni har bir konkret vaziyatda aniqlashda ham zarurdir.

Yil fasllari davomida yog‘inlarning bir tekisda yog‘masligi alohida xususiyatga ega bo‘lib, bunda yog‘inlarning 80%i qish-bahor oylarining havo harorati past kunlariga to‘g‘ri keladi. Yoz davrida esa yog‘in miqdori eng kam bo‘lgan holda havo harorati yuqori absolyut maksimum 40,5-45,6°C ga yetadi.

O‘zbekiston va ko‘plab issiq mamlakatlarda yuzaga keluvchi muammo bu issiq va quruq iqlim sharoitida beton yotqizish. Chunki beton yotqizishda ob-havo sharoiti juda muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun bu faktr beton qorishmasi tanlanayotgandaalbatta inobatga olinadi. Issiq va quruq iqlimda beton qorishmasi o‘z qulay yotqiziluvchanligini yo‘qota boshlaydi va uni yotqizish davomida har xil muammolar vujudga keladi. Bularga misol, beton qorishmasi qattiq bo‘lsa beton yotqizuvchi mexanizmdan so‘ng pora ya’ni teshikchalar hosil bo‘ladi yoki beton yuzasi notekis chiqishi kabilar hosil bo‘ladi. Beton qorishmasi ko‘p suv talab qilishini betonga plastikligini oshiruvchi qo‘shimcha qo‘shish bilan muammoni hal qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Аминов Э.Х. Климат и бетон. Ташкент. Меҳнат, 1988, 183 стр.

2. Аминов Э.Х. Назначение марки бетона на морозостойкость из условий воздействия окружающей среды Средней Азии. Строительство и архитектура Узбекистана, 1984, №10.

3. Amirov T.J. “Sementbeton yo‘l qoplamasining egilishdagi cho‘zilishga mustahkamligini baholash uslubini takomillashtirish”. TAYI xabarnomasi. 2013 y. 1-2 son. 74-80 bet.

4. Amirov T.J “Yo‘l qurilishida monolit konstruksiyalar betonining mustahkamligini baholash”. TAYI xabarnomasi. 2013 y. 3-4 son. 74-80 bet.

UDK 625.731

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA KENG TARQALGAN SUG‘ORILADIGAN HUDUDLARDA AVTOMOBIL YO‘LLARINING YO‘L POYINI LOYIHALASH

Zafarov Olmos Zafarovich
(JizPI, PhD, dotsent)
Kamalov Xumoyun Dilshod o‘g‘li
(JizPI, Magistr)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘oriladigan hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarini balandligini bashoratlash bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, tadqiqotning uslublari hamda muammoning dolzarbligi o‘rganilgan, shuningdek, rejalashtirilgan tadqiqotlar bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil yo‘l poyi, sun’iy sug‘oriladigan hudud, iqlim, grunt, ko‘tarma, loyiha, gidrogeologiya, sho‘rlangan hududlar, nishablik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научные работы отечественных и зарубежных ученых по прогнозированию высоты автомобильных дорог, проходящих через орошаемые территории, методы исследования и актуальность проблемы, а также комментарии к планируемым исследованиям.

Ключевые слова: дорожное основание, искусственно орошаемая территория, климат, почва, высота над уровнем моря, проект, гидрогеология, засоленные участки, склон.

Abstract. This article examines the scientific work of local and foreign scientists on the prediction of the height of highways passing through irrigated areas, research methods and the relevance of the problem, as well as comments on planned research.

Key words: road base, artificially irrigated area, climate, soil, elevation, project, hydrogeology, saline areas, slope.

Kirish. Yurtimiz avtomobil yo‘llarini jahon talablariga mos ravishda loyihalash va qurish uchun

ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan yurtimiz rahbari Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurish ishlari sifatini oshirish uchun farmon va qarorlari imzolanmoqda. Yaqinda Prezidentimizning “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining avtomobil yo‘llarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Strategiyaning asosiy maqsadi – avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirishning, ularning ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini oshirishning iqtisodiyot barqaror va ildam rivojlanishiga, respublika mudofaa qobiliyati va iqtisodiy xavfsizligi mustahkamlanishiga, aholi turmush darajasi o‘sishiga ko‘maklashadigan yo‘nalishlari, yondashuvlari va mexanizmlarini belgilab olish.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun Strategiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

yo‘l qurilishini rivojlantirish va takomillashtirish sohasida yagona davlat siyosati asoslarini ishlab chiqish;

amaldagi transport yo‘laklarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish, shuningdek quyidagilarni ta'minlaydigan yangi transport yo‘laklarini yaratish:

biror-bir mamlakatga qaramlikni istisno etadigan mintaqaviy va xalqaro bozorlarga eng qisqa ko‘p variantli chiqish yo‘llari;

qo‘shni mamlakatlar hududlarini kesib o‘tmay, respublika hududlari o‘rtasida avtotransportning samarali va to‘siqsiz harakatlanishi;

Respublika hududlarini birlashtiruvchi strategik avtoyo‘llarning tog‘li uchastkalari bo‘yicha yo‘lovchilar va yuklarni yil davomida ishonchli tashish;

xalqaro transport marshrutlari va yo‘nalishlaridan foydalanishda xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy integratsiya tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish;

yo‘l xo‘jaligida mablag‘larni boshqarish, moliyalashtirish va sarflashning samarali tizimini amalga oshirish;

mavjud yo‘l tarmog‘ini saqlab turish bo‘yicha ishlarni birinchi navbatda amalga oshirgan holda yo‘l tarmog‘i xavfsizligini ta'minlash;

eskirgan yo‘l qoplamasi va boshqa yo‘l inshootlari tiklanishini ta'minlaydigan hajmlarda ta'mirlash ishlarini olib borishdan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sun’iy sug‘oriladigan hududlardan o’tgan va yangi loyihalanayotgan avtomobil yo‘llarni loyihalash va qurishda ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish, yo‘l poyi mustahkamligini oshirish, qulay va ishonchli yo‘llarni barpo etishga bor e’tiborimizni qaratishimiz lozim.

Asosiy qism. Respublikamiz bo‘yicha barcha avtomobil yo‘llari o‘tgan hudud maydonlari er tuzilishi, geologik va gidrogeologik sharoiti bilan quruq va nam iqlimga ajralib turadi.

Avtomobil yo‘llarini loyihalash og‘ir va mas’uliyatli ishdir. Loyihalash ishlarini bajarishda loyihalovchidan chuqur bilim, ko‘p yillik tajriba va bu sohada erishilgan so‘ngi ilmiy izlanishlar yutuqlarini qo‘llashni talab etadi.

Iqlimi quruq hududlarda sug‘orish ishlari asosan yer yuzasi bo‘ylab qazilgan ariqlar orqali sug‘oriladi. Sun’iy sug‘oriladigan hududlardan o‘tgan yerlarda avtomobil yo‘llarini loyihalashdagi qiyinchilik sug‘oriladigan yer maydonining nisbatan yaxlit tekis joylashganidadir. Sababi bunday hududlarda yo‘lga yondosh zovur-kanallardagi suvlarni chetlatish o‘ziga xos qiyinchiliklarni tug‘diradi [1].

Hududlarni yo‘l-iqlim bo‘yicha hududlarga ajratish geografik hududning faqat umumiy tavsifini beradi.

Yo’l uchastkalari namlanish sharoitlari va suvni yo‘ldan chetlatish ta’minlanganligi nuqtai nazaridan uch turga bo‘linadi:


1. Ortiqcha namlanmagan va yo‘l ustidagi suv to‘liq chetlatiladigan, botqoqlanish belgilari bo‘lmagan quruq joylar;

2. Yo‘lning ayrim davrlarida ortqcha namlanadigan zax joylar, ustki suvi yo‘ldan chetlatilmagan, sizot suvlari gruntning yuqorigi qatlamlarini ortiqcha namlantirmasa ham, bahorda va kuzda yo‘l ustining ayrim joylarida suvning turib qolishi;

3. Gruntning yuqorigi qatlami sirtga yaqin turgan sizot suvlari yoki uzoq vaqt turib qolgan yuzaki suvlar bilan doimo namlanishi. Bu turdagi joyga sho‘rxok yerlar va qurg‘oqchil mintaqaning doimo sug‘oriladigan hududlari kiradi.

Tadiqot qismi. Avtomobil yo‘li o‘tkaziladigan joyni gidrologik sharoitlarning u yoki bu turiga kiritishda joyning re’lefi, suvning oqib kelishi va chetlatilishi, sizot suvlari sathi va gruntlarning namlanishi hisobga olinadi [2].

Hozirgi kunda Respublikamiz bo‘yicha 4214 ming gektarni tashkil qiladi. Jumladan viloyatlar kesimida quyidagicha taqsimlanishini ko‘rishimiz mumkin [3].



1-rasm. Hududlar kesimida sug‘oriladigan maydonlar

Avtomobil yo‘llarinining yo‘l poyini balandligini belgilashda R.M.Xudaykulov, A.D.Kayumov, S.I.Komilov, Л.Ф.Ступакова, Ю.Л.Мотылев, Л.Ф.Ступакова, В.М.Безрук, А.И.Грот va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

R.M.Xudaykulov sho‘rlangan gruntlarning fizik-mexanik xossalari, gruntlarni zichlash jarayonlari, laboratoriya va dala sharoitlarida o’rganish natijalari va yo’l poyini qurish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

Quruq iqlimli sun'iy sug'oriladigan hududlarda avtomobil yo'llarining poyini loyihalash va qurish bo'yicha texnik ko'rsatmalarda O'zbekistonning sug'oriladigan hudularidagi iqlimi tez o'zgaruvchan va qurg'oqchil hududlarida, sun'iy sug'oriladigan yerlarida va ulardagi suvda eriydigan tuzlari yuviladigan joylarida yo'l poyini loyihalash va qurish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar keltirib o'tilgan.

Yo'l to'shamasi qoplamasining yuzasi yer osti suvlari sathidan balandligi lyossimon gruntlarda, ularning zichlanishdagi namligiga qarab talab qilingan zichlik koeffitsiyentlari keltirilgan [5].

1-jadval

Zichlashtirish jarayonidagi gruntning namligi	Qoplama yuzasining eng kichik balandligi, m								
	Changli supes			Changli og'ir supes, changli yengil suglinok			Changli gil		
	Zichlik koeffitsiyenti								
	0.95	0.98	1.0	0.95	0.98	1.0	0.95	0.98	1.0
0.7	2.0	1.4	1.2	2.3	1.7	1.5	2.3	1.9	1.7
0.8	1.9	1.2	1.0	2.1	1.3	1.2	2.2	1.6	1.4
0.9	1.7	1.0	0.8	1.9	1.2	1.0	2.0	1.4	1.2
1.0	1.5	1.0	0.8	1.7	1.2	0.9	1.9	1.4	1.0

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq umani hududidan o'tgan "Yoshlik" ko'chasi.

Yuqoridagi suratlardan ko'rishimiz mumkinki avtomobil yo'l poyi sug'oriladigan hududlardan o'tganda ancha baland qilib quriladi. Bu o'z navbatida avtomobil yo'lini qurishda ancha murakkabliklar va xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Xulosa. O'zbekistonning sun'iy sug'oriladigan hududlaridan o'tgan avtomobil yo'llarining holatini tahlil qilish quyidagilarni ta'minlash imkonini beradi:

yo'l qurilishi sohasidagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun maqsadli davlat moliyaviy resurslarini yo'naltirish;

xalqaro va tranzit avtotashishni oshirish;

ichki va tashqi yuk oqimi hamda yo'lovchi tashish oshishini inobatga olib, shahar ko'chalari va avtoyo'llar tarmog'ini saqlash va takomillashtirish, uni viloyatlarvaro va xalqaro transport tizimlariga integratsiyalash, yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini oshirish;

shahar ko'chalari va avtoyo'llarning transport-ekspluatasiya sifatlarini oshirish, yuk va yo'lovchilarni transportda tashishning barcha yo'nalishlari bo'yicha raqobatbardosh va samarali tranzitni amalga oshirish;

avtotransport vositalarining halokatga uchrashini va atrof muhitga salbiy ta'sirini pasaytirish;

mamlakatning yo'l-transport kommunikasiyalarining yagona, yaxlit va samarali tarmog'ini shakllantirish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Ilyosov Avtomobil yo'llarini loyihalash. O'zbekiston 2001 y. 264 b.

2. V.F.Babkov, O.V.Andreyev Avtomobil yo'llarini qidiruv va loyihalash. TAYI professori A.R.Qodirova tomonidan qayta ishlangan va to'ldirilgan. I-qism. Toshkent 2015 y. 518 b.

3. https://www.agro.uz/statistika-malumotlari-2/

4. R.M.Xudaykulov Sho'rlangan gruntli yo'l poyi ko'tarmasining turg'unligini baholash. Monografiya. Toshkent 2021 y. 151 b.

5. MShN 47-2005. "Quruq iqlimli sun'iy sug'oriladigan hududlarda avtomobil yo'llarining poyini loyihalash va qurish bo'yicha texnik ko'rsatmalar". "O'zavtoyo'l" DAK. Toshkent-2005. 36 b.

УДК 621.311. 243

BINOLAR QURILISHIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI KONSTRUKSIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Saven Sergey Yurievech
Associate Professor of the Department of Industrial and Civil Engineering
Ablayeva O'g'iloy Shodiqulovna-
Jizzax politexnika instituti dotsenti
Shodiqulova Marxabo Urishevna
Jizzax Politexnika instituti assistenti

Annotatsiya: Maqolada kam qavatli binolarning tomlarini loyihalashda yuzaga keladigan muammolarning hozirgi holati tahlil qilinadi. Shu maqsadda turli xil dizayn konsepsiyalari ko'rib chiqiladi, ular asosida tom tuzilmalari yaratilgan. Ushbu rejalarni amalga oshirish mexanizmining elementlaridan biri sifatida energiya tejovchi tomlarni loyihalashning aniq misollari keltirilgan.

Kalit so'zlar: qurilish, energiyatejamkor, iqlim, energiya sarfi, uylar qurilishi, issiqlik energiyasi, loyihalash

Аннотация: В статье анализируется современное состояние проблем, возникающих при проектировании крыш малоэтажных зданий. Для этого рассматриваются различные конструктивные решения, на основе которых создаются конструкции крыши. В качестве одного из элементов механизма реализации этих планов приведены конкретные примеры проектирования энергоэффективной кровли.

Ключевые слова: строительство, энергоэффективность, климат, энергопотребление, строительство домов, тепловая энергия, проектирование.

Abstract: The article analyzes the current state of problems arising in the design of roofs of low-rise buildings. For this purpose, various design concepts are considered, based on which roof structures are created. As one of the elements of the implementation mechanism of these plans, specific examples of energy-efficient roof design are provided.

Keywords: construction, energy-efficient, climate, energy consumption, construction of houses, heat energy, design

Yildan yilga energiyani tejash dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Energetik resurslarning cheklanganligi, energiya narxining yuqoriligi, uni ishlab chiqarish jarayonining atrof-muhitga ko‘rsatadigan salbiy ta'siri, bularning barchasi cheklangan resurslar sharoitida energiyani tejash va masalaning yechimini topishni taqozo etadi. Shu yo‘nalishda dunyoda energiya sarfini kamaytirish, yangi, muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoev 2017 yil 7 fevraldaO‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish maqsadida - «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq qishloq joylarining o‘zida 16 mingta arzon kam qavatli uy-joylarni qurish rejalashtirildi.

Yevropa mamlakatlarida qurilayotgan binolarning energiya iste'moli bizning binolarga nisbatan 10 barobar kamligi hali respublikamizda bu yo‘nalishda qilinadigan ishlar ko‘lami ancha kengligini ko‘rsatadi.Demak bizda binolar energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha juda katta imkoniyatlar mavjud.

Kam qavatli uylarning 66%ida yog‘och romlar o‘rnatilgan va 91,7% uy tomlarining issiqlik izolyasiyasi mavjud emas. Rivojlangan mamlakatlarga nisbatan O‘zbekistonda binolarning energiya iste'moli 2-2,5 marta ko‘pdir. Bugungi kunda respublikamizda jami energiya iste'molining deyarli yarmi binolar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda

2016 yil 4 noyabrdan butunjahon iqlim o‘zgarishi Parij kelishuvi kuchga kiradi, bu esa yer sayyorasi o‘rtacha haroratini 2ºS dan ortmasligini ta'minlash, uglerodsiz shaharlar bosqichiga o‘tish, SO_2 emissiyasini kamaytirishni maqsad qilib qo‘ygan. BMT ma'lumotlariga ko‘ra 1950 yilda shaharlarda aholining 30 foizi istiqomat qilgan bo‘lsa, 2015 yilda bu ko‘rsatkich 54 foizga ortgan. Prognozlar shuni ko‘rsatadiki, 2050 yilga kelib shaharlarda aholining 66-70 foizi yashaydi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston aholisining qariyib 15,964 millioni (51%) shaharlarda, qolgan 5,612 millioni (49%) esa qishloqlarda yashaydi. Ma'lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi yirik shaharlar ichida aholi soni bo‘yicha yetakchi shahar Toshkent hisoblanib, unda 2 mln. 353 ming kishi yashamoqda. O‘zbekistonda bir yilda iste'mol kilinadigan barcha energiyaning 49% yoki 17 mln.tonna neft ekvivalenti binolar hissasiga to‘g‘ri keladi. Binolar loyihasini tuzish va qurishda energiyani tejash masalalari e'tibordan chetda qolmoqda, bu esa energiyaning haddan ziyod ortiq sarflanishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, aholimizning aksariyat qismi, ya'ni 76,8 foizi kam qavatli uylarda istiqomat qilmoqda. Bu deyarli 24,6 mln. kishi degani. Ko‘p qavatli uylardan farqli o‘laroq, kam qavatli shaxsiy turar joy binolariga yetkaziladigan issiqlik energiya tizimi markazlashmagan va loyihaviy yechimlarning turlicha ekani ulardagi energiya iste'moliga ta'sir etuvchi faktorlarni oshishiga olib keladi. Jadallik bilan o‘sib borayotgan urbanizatsiya jarayonlari, shaharlarda aholi sonining keskin ortib borayotgani qurilish yer maydoni taqchilligini keltirib chiqaradi.

Shu sababdan bugungi kunda ko‘pgina davlat va nodavlat loyihalash tashkilotlari kam qavatli turar joy binolarini loyihalash bosqichida shinam va qulay mansard qavatini loyihalashni taklif etmoqda. Bu albatta, arxitekturaviy-badiiy jihatdan maqbul yechim. Ammo quruq issiq va keskin kontinental qish sharoitli respublikamiz hududida chordoq qismini yashash honasiga aylantirish energiya iste'moli sarfini bir necha barobar oshirish yevaziga erishilmoqda. Kam qavatli binolarning tom konstruksiyalarining energiya samaradorligini oshirish, aynan chordoq qismining energiya sarfini kamaytirish va bu yo‘nalishda O‘zbekiston sharoitida qo‘llaniladigan issiqlik-fizik yechimlar, bu borada quyosh panellaridan foydalanish, ularning iqtisodiy samaradorligi atroflicha o‘rganilmagan. An'anaviy energiya manbalarining cheklanganligi va narxining yildan yilga qimmatlashuvi sababli quruq issiq iqlim sharoitida zamonaviy kam qavatli turar joy binolarini loyihalashda, ayniqsa, ekspluatatsiya davrida harajatlarning ortib borishi, chordoqli tom konstruksiyasining energiya samaradorlik masalalari, bunda quyosh energiyasidan foydalanish yechimlarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini atroflicha o‘rganishni taqozo qilmoqda.

Kam qavatli bino tom konstruksiyasining energiya samaradorligini oshirish hisobiga binoning umumiy energiya samaradorligini oshirish va shu yo‘l bilan energiya iste'molini tejashga imkon tug‘iladi. Yuqoridagi maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- energiya tejamkor binolarni loyihalash, qurish ulardan foydalanish bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish, uni tahlil etish;
- chordoqli tom konstruksiyalarining bino energiya samaradorligiga ko‘rsatadigan ta'sirini o‘rganish va loyihaviy-konstruktiv yechimlarini tanlash, tanlangan materiallarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish va asoslash;
- kam qavatli turar-joy binosini dastlab qurilgan holatda binodan issiqlik yuqotilishini matematik modelini ishlab chiqish va turli sharoitlar uchun issiqlik yo‘qotilishini hisoblash va tahlil qilish;
- tom konstruksiyasidan ketadigan energiya sarfini binodan ketadigan umumiy energiya miqdori bilan solishtirish va muvofiq yechimlarni tanlash,

ularning energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash, matematik hisob natijalarini tahlil qilish;

- tom konstruksiyasi energiya samaradorligini oshirish buyicha taklif etilayotgan muqobil yechimni tanlash va shu bo‘yicha binoning yillik energiya sarfini hisoblash, shuningdek, avvalgi yillik ko‘rsatkichlar bilan solishtirish, uning iqtisodiy samaradorligini asoslash va h.k.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan qator tadqiqotlar[1]dan ma'lum bo‘ldiki, tom energiya samaradorligida asosiy jihat issiqlik izolyasiya materialining joylashuvidir. Tom konstruksiyasi qatlamlarining o‘zaro joylashuvining noto‘g‘ri tanlanishi issiqlik yo‘qotilishning kamaymasligiga bevosita ta'sir ko‘rsatib, harorat-namlik rejimini muqobillashtirish yechimlarini taqozo etadi.

1983 yilda Toshkentda Sobiq ittifoqda birinchi bo‘lib tomda joylashtiriladigan quyosh suv isitgichlari yordamida isitish tizimiga ega bo‘lgan eksperimental tajribalar natijasida energiya sarflanishining yiliga 40-50% ga qisqarishiga erishilgan [2]. “O‘zbekiston sharoitida energiya samarali binolarni loyihalash”[3] ijtimoiy soha binolari va aholi uylarni loyihalashda energiya tejamkorlik masalalarini keng yoritilgan. An'anaviy va noan'anaviy energiya manbaalari, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash, geliobinolarni energiya samaradorligini oshirish yo‘llari, ularni variantlarini tanlashning texnik-iqtisodiy asoslarini keltirib, binolarni energiya tejamkorligi va energosamaradorligi masalalarida alohida tekshirilgan “Binolarni loyihalashda fizikaviy–texnikaviy loyihalash asoslari” [4] kitobida binolarni loyihalashdagi energiya tejamkorlik masalalarini chuqur yoritib, O‘zbekiston Respublikasi sharoitidagi klimatologik ta'sirlar, ularni kamaytirish yo‘llari, mavsumiy o‘zgarishlarning binolarga ta'siri va yangi binolarni loyihalashda e'tibor qaratish lozim bo‘lgan ayrim jihatlar ko‘rsatilgan.

2023-yilning qish davrida O‘zbekistonda minglab odamlar anomal sovuq havo vaqtida qariyb ikki hafta davomida ishonchli energiya ta’minotisiz yashashga majbur bo‘ldi. Energiya ta’minotidagi uzilishlar eskirib qolgan infratuzilmaning zaifligini va mavjud energiya tejovchi texnologiyalarning nomutanosibligini namoyon qildi. Mamlakatning ayrim hududlarida tabiiy gaz yoki elektr energiyasi kabi energiya manbalarining yetishmasligi sababli aholi o‘z uylarini isitish uchun ko‘mir yoqishga o‘tdi. Bu, ayniqsa, havo sifati va issiqxona gazlari chiqindilarining to‘planishi nuqtai nazaridan salbiy oqibatlarga olib keldi.

Yana bir xavotirlantiradigan soha - bu tijorat va turar joy qurilishi sohasidir. Butun dunyoda umumiy issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 40 foizi qurilish sektoriga (yoritish, isitish, issiq va sovuq suv ta’minoti uchun elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish) to‘g‘ri keladi. Mazkur o‘rtacha ko‘rsatkich O‘zbekistonga ham taalluqli bo‘lib, O‘zbekistonning birinchi bo‘yicha ikki yillik yangilangan hisobotiga ko‘ra, bu yerda mamlakatdagi umumiy energiya iste’molining 22 foizi sanoat va qurilishga, 21 foizi esa uy-joy qurilishiga to‘g‘ri keladi.



2-rasm. O‘zbekistonda umumiy energiya iste'moli sarfi diagrammasi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, quruq issiq iqlim sharoitida chordoqli tomlarda komfort sharoitni yaratish, bunda tom konstruksiyasini tashkil etuvchi qurilish materiallarni montaj qilish texnologiyasini takomillashtirish, bino konstruktiv elementlarining energiya sarfini kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish yevaziga tom konstruksimyasining energiya samaradorligini yaxshilash va shu yo‘l bilan binoning umumiy energiya samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishdan iborat. Bu esa qurilish amaliyotida yangi energiya samarali loyihaviy va texnologik yechimlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil

Из формулы (3.6) видно, что для обеспечения условия прочности конструкции второе слагаемое выражения должна быть более 1. В этих случаях значения растягивающие напряжения, возникающие от действия нагрузки, с учетом перепада температуры по толщине должно быть менее 2,25 МПа. Анализа рис. 1 – 3 позволяет сделать вывод, что при часовом перепаде до 7,5^{0}C, толщине слоя усиления от 0,15 м до 0,2 м, и при часовом перепаде до 5^{0}C, толщине слоя усиления от 0,07 м до 0,2 м условия выполняются, а в остальных случаях условия не выполняются. В этом случае при перепаде температуры воздуха больше 5^{0}C, из-заувеличение значения растягивающих напряжения слоях усиления появляются отраженные трещины.

Исходя из вышеизложенного можно сделать вывод что, изменение геометрических параметров конструкции, применение синтетических, нетканых и армирующих материалов не предотвращает появления отраженных трещин, они предназначены для снижения темпа появления и развития трещин.

Литература:

1. Садиков И.С., Артиков А.А. Теоритическое обоснования влияния температурных факторов на образование отраженных трещин в асфальтобетонных слоях усиления//Сборник научных трудов республиканской научно-практической конференции-Джизак 2010. –С.14-19

2. Садиков И.С., Артиков А.А. Изучение влияния температурных факторов на образование отраженных трещин в асфальтобетонных слоях усиления// Межвузовский сборник научных трудов. Вып.№5-Ташкент 2010. –С.65-73

3. МКН 44-2008 Инструкция по проектировании жестких дорожных одежд– Т.: АДНИИ, 2008. – С.153.

ОЧИҚ ВА ЁПИҚ ЎЗАНЛАРДАГИ СУВ ҲАРАКАТИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

Исламов Карим Сайидмурадович
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети ўқитувчиси,

Аннотация: Ушбу мақолада дарё ва каналлардан эхтиёжлар учун сув олишда оқаётган сув ҳаракатининг математик таҳлил қилинади. Бунинг учун дарё ёки каналларнинг гидравлик шароитини ўрганиб чиқиш талаб этилади. Гидравлик шароитдан келиб чиқиб, сув ҳаракати давомида жуда кўп номаълумлар аниқланади, булар сувнинг қовушоқлиги, ҳаракати, чўкмалар ҳолати ва деформация жараёнларидир. Мана шу номаълумлар аниқланиб сув ҳаракатининг математик модели келтирилади.

Калит сўзлар: сув ҳаракати, деформация, қовушоқлик, сув сарфи, узлуксизлик, зичлик.

Кириш. Сўнгги йилларда ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, сув ресурсларини бошқариш тизимини такомиллаштириш, сув хўжалиги объектларини модернизация қилиш ва ривожлантириш бўйича изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, глобал иқлим ўзгариши, аҳоли сонининг ва иқтисодиёт тармоқларининг ўсиши, уларнинг сувга бўлган талаби йил сайин ошиб бориши туфайли сув ресурсларининг тақчиллиги йилдан-йилга кучайиб бормоқда.

Кейинги йилларда кузатилган сув танқислиги ерларнинг мелиоратив холатининг ёмонлиги ва бошқа ташкилий чора-тадбирлар ўз вақтида кўрилмаганлиги боис 560 минг гектар суғориладиган ер майдонининг сув таъминоти даражаси пастлигича қолмоқда, жами 298,5 минг гектар суғориладиган ер майдони эса фойдаланишдан чиқиб кетган. Республикада қишлоқ хўжалиги экинлари асосан анъанавий усулда-эгатлаб суғорилмоқда, ерларни лазерли ускуна билан жиҳозланган текислагичлар билан текислаш ишларининг кўлами жуда паст даражада қолмоқда[1].


Тадқиқот методологияси: Умумий қилиб айтадиган бўлсак мелорация, энергетика ва бошқа соҳалардаги иншоотларни гидравлик ҳисоблашда масалан, дарё каналлардаги сувнинг ҳаракати, тўғонсиз сув олишда сув ҳаракати, тўғон устидан ошиб ўтадиган сув ҳаракати, сув таъминоти ва канализация, дренаж қувурлардаги сув ҳаракати ва бошқа сув ҳаракат қонунлари гидродинамиканинг асосий тенгламалари орқали ечилади.

Таҳлил ва натижалар: Мақоланинг таҳлил ва натижаси шундан иборатки гидравлик иншоотларни қуришда олимлар томонидан келтирилган тенгламалар асосида сув ҳаракатини математик йўл билан аниқ ечимлари кўриб чиқилади.

Асосий қисм: Гидродинамикада ташқи ва ички масалалар бўлади. Труба ва каналлар ичидаги сувнинг ҳаракати бу гидродинамиканинг ички масаласидир. Турли жисмлар юзасида сувнинг ҳаракати - бу гидродинамиканинг ташқи масаласидир.

Гидравликада асосан сув оқими ичида узулиш ходисалари бўлмайдиган оқимлар ўрганилади яъни оқим шундай бўлиши керакки у ҳаракат қилаётган ўзан ичидаги ҳамма бўшлиқлар сув билан зич тўлдирилган бўлиши керак.

1-расмдаги элементар оқим найчасини олиб унда 1-1 ва 2-2 кўндаланг кесимларини тайинлаймиз элементар оқим найчаси 1-1 кўндаланг кесим майдонини(юзасини) $d\omega_1$, ўша кесимдаги оқим тезлигини u_1, сув сарфини dQ_1 ва шунга ўхшаш 2-2 кесим учун $d\omega_2$, u_2, dQ_2 деб ифодалаймиз.



Расм 1. Элементароқим найчасидаги суюқлик ҳаракати.

Элементар оқим найчасининг кўндаланг кесимидан ўтаётган сувни ҳажмий сарфи $dQ = ud\omega$ формулага асосан қуйидагича ёзиш мумкин.

$$\left.\begin{aligned} dQ_1 &= ud\omega_1 \\ dQ_2 &= ud\omega_2 \end{aligned}\right\} \qquad (1)$$

Барқарор ҳаракатдаги элементар оқим найчасининг хоссасига асосан:

1. Элементар оқим найчаси орқали ўтаётган сув сарфи вақт ўтиши билан ўзгармайди

2. Элементар оқим найчасининг ён деворларининг сирти орқали сув ичкарига кирмайди ва ичкаридан ташқарига чиқмайди. Яъни $\rho = const$.

Шунинг учун элементар оқим найчаси орқали вақт ўтиши билан 1-1 кўндаланг кесимидан кирган сув ҳажми, унинг 2-2 кўндаланг кесимидан чиқган сув ҳажмига тенг у ҳолда

$$dQ_1 dt = dQ_2 dt \qquad (2)$$

ёки

$$dQ_1 = dQ_2 \qquad (3)$$

(1) тенгламага кўра

$$u_1 d\omega_1 = u_2 d\omega_2 \qquad (4)$$

(4) тенгламадан ихтиёр ихтиёрий кесимлар учун

$$u_1 d\omega_1 = u_2 d\omega_2 = u_3 d\omega_3 = ... = const \qquad (5)$$

ёки

$$dQ = u d\omega \qquad (6)$$

Бу (5) тенглама элементар оқим найчаси учун узлуксизлик тенгламаси тенгламаси деб аталади. Энди (5) тенгламани тўлиқ оқим учун тадбиқ қиламиз.

$$u_1 d\omega_1 = u_2 d\omega_2 = u_3 d\omega_3 = ... = const$$

Бу тенгламанинг икки томонини оқимнинг кўндаланг кесими бўйича элементар майдонларини алохида қўшиб чиқамиз, у ҳолда қуйидаги формула ҳосил бўлади.

$$\int_{\omega_1} u_1 d\omega_1 = \int_{\omega_2} u_2 d\omega_2 = \int_{\omega_3} u_3 d\omega_3 = ... \qquad (7)$$

(7) тенгламадан

$$\int_{\omega_1} u_1 d\omega_1 = v_1 d\omega_1, \quad \int_{\omega_1} u_2 d\omega_2 = v_2 d\omega_2 .... \qquad (8)$$

(8) тенгламадан

$$v_1 \omega_1 = v_2 \omega_2 = ... = v\omega = Q \qquad (9)$$

Яъни

$$Q_1 = Q_2 = ... = Q = const \qquad (10)$$

(10) тенгламадан куринадики, барқарор ҳаракат пайтида ҳам окимнинг кўндаланг кесими ва ундаги ўртача тезлик оқимнинг узунлиги бўйича ўзгаришига қарамай, сув сарфи, яъни ω кундаланг кесим майдонининг шу кўндаланг кесим бўйича окимнинг v ўртача тезлигига купайтмаси ҳар хил ихтиёрий кесимларда бир хил ўзгармасдан қолади. (10) тенгламадан қуйидаги нисбатларни оламиз:

$$\frac{v_1}{v_2} = \frac{\omega_2}{\omega_1} \qquad (11)$$


(11) тенглама оқимнинг ихтиёрий икки кўндаланг кесимидаги ўртача тезликларнинг нисбати шу икки кўндаланг кесим майдонларининг нисбатига тескари пропортционал.

Узлуксизлик тенгламасига асосланиб Эйлер идеал суюқлик учун дифференциал кўринишидаги тенгламасини ишлаб чиқди.

Бунда Эйлер қуйидагича тушунчани илгари суради.

Агар оқим сиқилмайдиган узлуксиз муҳит бўлса вақт ўтиши билан унинг массаси кўпаймайди ҳам камаймайди. Сувда ихтиёрий паралелопипед олиб, паралелопипед сув билан лиқ тўла бўлгани учун массасини ўзгармас деб фараз қилади.

Паралелопипеднинг yz, zx, yz координата текислигига паралел бўлган қирралари орқали кираётган ва чиқаётган сув массасини миқдорини кўриб чиқамиз. Бунинг учун паралеллопипеднинг dy, dz қирраси орқали кирган сув массасининг миқдорини қараб чиқамиз: фараз қилайлик шу қирраси орқали кираётган сув тезлиги v_x бўлсин ва унинг қарама – қарши қиррасидаги сув тезлиги $v_x + \frac{\partial v_x}{\partial x} dx$ бўлсин.



Расм 2. Паралелопипед шаклдаги сув массасинининг ҳаракати.

Сувнинг зичлигини ρ билан белгилаб, фақат yz текислигига параллел бўлган қирраси орқали вақт бирлиги ичида паралелопипед ичидан ўтган сув массаси миқдорининг ўзгаришини оламиз. У қуйидагича ёзилади.

$$\rho v_x dydz - \rho\left(v_x + \frac{\partial v_x}{\partial x} dx\right) dydz = -\rho \frac{\partial v_x}{\partial x} dydzdx \qquad (12)$$

Худди шу йўл билан $zx,$ ва yz текисликларга паралелл бўлган паралеллопипед қирраларидан вақт бирлиги ичида ўтган массасини ўзгаришини аниқлаймиз.

zx текислигига нисбатан

$$\rho v_y dzdx - \rho\left(v_y + \frac{\partial v_y}{\partial y} dy\right) dzdx = -\rho \frac{\partial v_y}{\partial y} dydzdx \qquad (13)$$

yz текислигига нисбатан

$$\rho v_z dydz - \rho\left(v_z + \frac{\partial v_z}{\partial z} dz\right) dydz = -\rho \frac{\partial v_z}{\partial z} dydzdx \qquad (14)$$

Сув ҳаракатининг узлуксиз муҳит шартига биноан, паралеллепипедга унинг қирраларидан оқиб кираётган ва оқиб чиқаётган сув массасининг миқдори ўзгармайди у ҳолда қуйидаги йиғинди нолга тенг бўлади.

$$-\rho\frac{\partial v_x}{\partial x}dydzdx+\left(-\rho\frac{\partial v_y}{\partial y}dydzdx\right)+\left(-\rho\frac{\partial v_z}{\partial z}dydzdx\right)=-\rho dxdzdy\left(\frac{\partial v_x}{\partial x}+\frac{\partial v_y}{\partial y}+\frac{\partial v_z}{\partial z}\right)=0$$

Бу тенгламадан

$$\frac{\partial v_x}{\partial x}+\frac{\partial v_y}{\partial y}+\frac{\partial v_z}{\partial z}=0. \qquad (15)$$

Келтирилган тенглама идеал сув харакати учун Л.Эйлернинг узлуксизлик тенгламаси дейилади[2,3].

Хулоса. Мақолада келтирилган маълумотлар шуни кўрсатадики очиқ ва ёпиқ ўзанлардаги сув ҳаракатини ўрагиниш жараёнида олимлардан Л. Эйлер, Наве-Стокс, Сен-венан, Франкл, ва Д.Бернулли тенгламалари суюқликлар ҳаракатини ўрганиш учун энг асосийлари ҳисобланади. Бу олимлар томонидан келтирилган тенгламалар гидродинамик ва гидромеханик масалаларини ечишда аниқ ҳисоблашларни беради.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони, 10.07.2020 йилдаги ПФ-6024-сон. Ўзбекистон республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида.
2. Д.Р. Бозоров, Р.М. Каримов, Ж.С. Казбеков. ГИДРАВЛИКА АСОСЛАРИ. Тошкент 2001 й.
3. А.Ю. Умаров. Гидравлика. "Ўзбекистон" нашрёти. Тошшкент 2002 й.
4. Н.Б. Барышников. Русловые процессы. Учебник. - СПб. изд. РГГМУ.2008 г.
5. Великанов М.А. Динамика русловых потоков, т. 2. М.-Л., Гостехиздат, 1955г.

ЁҒОЧ АШЁЛАРНИНГ ТУРЛАРИ. ЁҒОЧ КОНСТРУКЦИЯЛАРНИНГ ХОССАЛАРИ

Саримсоқов Сардор Шойзақович,
Убайдуллаев Абдилбасе Сувонқулович
Жиззах политехника институти

Аннотация: Мақолада, қурилишда ишлатиладиган ёғоч ашёлар кўндаланг кесим юзаси икки хил: тилинган ва тилинмаган турларга бўлиниши. Ўз навбатида ёғочдан ясалган конструкцияларнинг ўлчамлари, номланиши, бирикиш нуқталари ва мустахкамликлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: ёғоч ашёлар, тилинган ва тилинмаган, хода ва ходачалар стандартларига бруслар, шпунтли тахталар .

Аннотация: В статье поверхность поперечного сечения древесных материалов, используемых в строительстве, разделена на два типа: строганная и нестроганая. В свою очередь предоставляется информация о размерах, наименованиях, местах соединения и прочности деревянных конструкций.

Ключевые слова: материалы деревянные пиленые и непиленые, брус по стандартам лаг и лаг, доски с шпунтом и пазом.

Қурилишда ишлатиладиган ёғоч ашёлар икки: тилинган ва тилинмаган турларга бўлинади. Ўз навбатида улар хари ва хода деб юритилади.


Учининг диаметри 14 см ва бундан катта бўлган ҳамда ҳар икки сантиметрдан кейин бир текисда йўғонлашиб борадиган тилинмаган ёғочлар хари деб аталади. Агар тилинмаган ёғоч учининг диаметри 14 см. дан кам бўлса, у ҳолда хода диаметри 8– 11 см ёки ходачалар диаметри 3–7 см дейилади.

Хариларнинг узунлиги Давлат стандартларига музофиқ, 3–9 метр атрофида бўлади. Лекин, қурилишда ўртача 4–7 метр узунликдаги харилар кўпроқ ишлатилади. Уларнинг диаметри тубидан учига қараб ҳар 1 метрда 1 см. дан 1,5 см. гача камайиб боради. Тилинган ёғочлар олишда, ҳар метрда 1,5 см. дан кўпроқ ингичкалашган харилар яроқсиздир. Чунки, тахта тилишда уларнинг кўп қисми чиқитга чиқиб кетади.

Тилинмаган ёғочлар сифатига кўра навларга бўлинади. Биринчи навга юқори сифатли харилар киради. Улардан биноларнинг оғирлик кучи таъсир этувчи конструкциялар, дурадгорлик ва мебел буюмлари тайёрланади. Иккинчи навга айрим нуқсонлари бўлган, аммо замбуруғ билан касалланмаган харилар киради. Бу навдаги ёғочлар куч таъсирида ишлайдиган конструкциялар, қолиплар ва шунга ўхшашларни тайёрлашда фойдаланилади. Учинчи нав хариларда нуқсонлар кўп бўлади, лекин чириш касаллиги бўлмаслиги керак. Бундай ёғочлар эса бино ва иншоотларнинг иккинчи даражали қисмлари сифатида, ёғоч бинолар қуришда ишлатилади.

Хода ва ходачалардан кўпинча, қурилишда


тўсин, устун ва синчлар ҳамда тиргаклар тайёрланади. Ходаларни бўйига арралаб, тилинган ёғоч ашёлар олинади. Ёғочнинг сифатига ва ундаги нуқсонларнинг микдорига қараб бундай ашёлар олти навга бўлинади. Қурилишда тилинган ашёларнинг қуйидаги турлари ишлатилади: харини бўйламасига арралаб, қоқ ўртасидан бўлинса, ярим харилар ҳосил бўлади. Улар иситилмайдиган биноларнинг деворларига, ёпма синчларига ва бошқаларга ишлатилади. Ярим хари деганда унинг кўндаланг кесимини (1/2) тушунмоқ керак. Масалан, харининг диаметри 140 ёки 180 мм бўлса, ярим хари 140/2 ёки 180/2 деб ёзилади. Бутун харини бўйламасига баравар тўрт қисмга арралаб, чорак хари олинади. Давлат стандартларига мувофиқ, тилинган ёғочлар кўндаланг кесимнинг шаклига ва катта-кичиклигига қараб, қурилиш бруслари, брусчалар ҳамда бошқа хилларга бўлинади.




1-расм. Харилар: а–қурилишбоп хари; б– ярим хари (пластин);
в–чоракхари

Хар тўрт томонидан арраланса, тўғри тўртбурчак ёки квадрат кесимли тоза кесилган брус ҳосил бўлади. Бруслар кесимининг ўлчами 100– 220 мм чегарасида белгиланади. Қурилишда асосан устунлар сифатида квадрат кесимли бруслар томбоп ёпма тўсинлар, стропил тўсинлари ва тўртбурчак кесимли (2-расм) бруслар ишлатилади.

Кўпинча, кўндаланг кесими тўғри тўртбурчакли тоза қирқилган брус ҳосил қилишга зарурат бўлмайди. Ёғочни тежаш мақсадида харининг тўрт томони чала арраланиб, юмалоқ қиррали брус ҳосил қилинади. Фақатгина икки томони арраланган хари икки қиррали брус деб аталади. Қурилиш учун узунлиги 1 дан 7 м. гача, эни 120 дан 300 мм. гача ва қалинлиги 110 дан 225 мм. гача бўлган бруслар яроқли ҳисобланади.



2-расм. Бруслар: а-тагсинч; б-чала арраланган; в-брус; г-уч томони арраланган брус.



3-расм. Ёғоч тахталар: а–ҳамма томони тилинган тоза тахта; б-ярим тилинган тахта; в-қирраси тилинмаган тахта; г-пуштахта.


Ёғоч ашёларнинг қурилишда энг кўп ишлатиладиган хили тахтадир. Улар кўндаланг кесимининг шаклига қараб уч хил: эни бир ўлчамда, ҳамма томони арраланган тўғри қиррали икки қирраси чала арраланган юмалоқ қиррали (3-расм, б) ва икки қирраси бутунлай арраланмаган тахталарга (3-расм, в) бўлинади. Умуман тахта деганда эни қалинлигидан уч марта ортиқ бўлган ёғочни тушуниш лозим. Харини арраланганда икки ёки тўртта чеккасидан чиққан тахта пуштахта дейилади (3-расм, г). Улар қурилишда иккинчи даражали қисмлар ёки ёрдамчи ашё сифатида ишлатилади.

Тахталарнинг ўлчамлари стандартлаштирилган. Эни 80 дан 300 мм. гача бўлади. Улар қалинлиги жиҳатидан икки: юпқа ва қалин хилларга бўлинади. Юпқа тахталарнинг қалинлиги 8, 16, 19 ва 25 мм, қалин тахталарники эса 40, 50, 60 ва 100 мм бўлади.


Қурилишда олдиндан йўниб тайёрлаб қўйилган ёғоч элементлардан, полбоп шпунтли тахталар (4-расм), часпаклар, полнинг деворга туташган бурчагига қоқиладиган плинтуслар ва зинапоя тутқичи каби ярим фабрикат буюмлар кенг ишлатилмоқда.

Йўнилган тахталар кўндаланг кесимнинг шаклига кўра: тўғри тўртбурчакли (рандалангандан кейин ҳам ўзининг аввалги шакли ўзгармайди) ва шпунтли хилларга бўлинади. Шпунтли тахталар пол учун, деворларни қоплаш ва пардеворлар қуриш учун ишлатилади. Бундай тахталар рандаланган бўлиб, бир четида шпунт (ариқча), иккинчи четида чизиғи бўлади. Шу туфайли, уларни бир-бирига зич қилиб бирлаштириш мумкин.


Часпаклар (5-расм) девор сувоғи билан эшик кесакисининг бир-бирига туташган жойини беркитиб туриш учун, шунингдек, ёғоч уйларда дераза ҳамда эшик ўринларига шакл бериш учун ишлатилади. Часпаклар тахталарнинг узунлиги бўйлаб махсус ранда билан йўниб тайёрланади. Галтель ва плинтуслар полнинг девор билан туташган жойини беркитиб туради. Зина панжарасининг юқориги томонига ҳар хил кесимли тутқичлар маҳкамланади (6-расм).



4-расм. Шпунтли тахталар.



5-расм. Часпаклар (доира ичидаги рақам часпак типини билдиради).



6-расм. Плинтус (а), галтель (б), зина тутқичлар (в).


Ёғоч ашёлар жуда кўп бўлган жойларда ёғоч тахталардан иморат томларини ёпишда ҳам фойдаланилади. Бунинг учун бўйи 50–70 см, эни 8–15 см ва қалинлиги 0,3 см келадиган пластинкалар ҳамда гонт тайёрланади. Улар учун қаттиқлиги ўртача бўлган ёғоч ишлатилади.

Сувоқчиликда ишлатиладиган резги тахта қалинлиги 2–3 мм, эни 30 мм. га яқин ва узунлиги 1,5–2 мм келадиган рейкадир. Фанерлар юпқа ёғоч қатламлари толаларини бир-бирига тик қўйиб, елим билан ёпиштириб тайёрланади. Бу қатламлар юқори сифатли, танаси тўғри бўлган қайин, зирк дарахти, терак ҳамда қарағайдан ишланади.


Махсус дастгоҳларнинг кенг ва жуда ўткир пичоғи ёрдамида айланиб турувчи харидан юпқа қатлам – фанер шпони шилинади (6-расм). Фанернинг ўлчамлари: 72,5х183 см, қалинлиги 0,15–1,2 см бўлади. Фанер тайёрлашда ишлатиладиган елим хоссаларига қараб, у сувга чидамсиз ва сувга чидамли хилларга бўлинади. Сувга чидамлиси қайин дарахтининг шпонидан тайёрланади, бундай фанернинг шпонлари махсус синтетик смолалардан (формальдегид, карбамид ва ҳ.к.) олинган елимлар билан ёпиштирилади ва 7, 9 ҳамда 11 қатлам бўлади.

Оққайин ёғочидан шилинган шпонларни бакелит елими билан ёпиштириб фанерлар олинади. Уларни тайёрлашда елимнинг қандай смоладан ишланганлигига кўра (спиртда эрувчан смолалардан), (спиртда ва сувда эрувчан смолалардан) (сувда эрувчан смолалардан) сингари маркаларга бўлинади. Бакелит билан ёпиштирилган фанер жуда мустаҳкам, зарарли муҳитга чидамли бўлади. Фанерларни ўзаро ёпиштириб, елимланган конструктив элементлар тайёрланади.

Паркет – турли ёғочдан тайёрланган, узунлиги 15–50 см, эни 3,5–9 см ва қалинлиги 1,2; 1,7; 2,0 см келадиган тахтача. Унинг арикчали, шпунтли, фальцли ва қия қиррали (7расм) турлари ишлаб чиқарилади. Эндиликда донали паркет тахтачаларнинг қалинлиги 1,5 см, узушшги 15 дан 40 см. гача, эни 3 дан 6 см. гача бўлган арикчали ва эгатли турлари ишлаб чиқарилади. Қурилишда игнабаргли дарахт ёғочидан тайёрланган паркет шитлар кўп қўлланилади. Уларнинг ўлчами 100х100 см. дан 140х140 см. гача бўлиши мумкин. Паркет шит кесими 4,4х9,4 см. ли брусчалардан йиғилади, қалинлиги 3–3,5 см. ли шпунт брусга бир текис ётқизилади ва унга баргли ёғочнинг қаттиқ туридан тайёрланган паркет тахтачалар маълум шаклда сувга чидамли елим билан ёпиштирилиб пол қилинади.



6-расм. Ёғочни қатламларга ажратиб тилиш (а) ва уларни ўзаро ёпиштириб (б) фанер тайёрлаш: 1–пичоқ; 2–шпон; 3– сиқиб турувчи мослама.



7-расм. Паркет пол: 1–бетонли замин; 2– мастика; 3– паркет тахтачалар

Ҳозирги паркет шит ўрнига бошқа йирикроқ

элементлар: эни 15 см ва узунлиги 300 см. гача бўлган паркет тахталар ва қаттиқ қоғозга ёпиштирилган йиғма мозаика паркетлари ишлатилмоқда. Бундай полбоп элементларнинг катталиги 40 дан 60 см. гача бўлади. Иккиламчи ёғочлардан қалинлиги 2,6–5 см. гача бўлган дурадгорлик плиталари ишланади (4.31-расм). Бундай плита майда рейкаларни бир-бирига ёпиштириб тайёрланади.

Юқорида айтиб ўтилган ярим фабрикат ва буюмлардан ташқари заводда тайёрланган ёғоч конструкциялардан ҳам қурилишда кенг фойдаланилади. Қурилишга ёғоч конструкциялар тайёр ёки қурилиш майдонининг ўзида йишладиган ҳолда ҳам келтирилади. Ёпма ва қаватлараро конструкциялар сифатида кесими тўғри тўртбурчак, шунингдек, Т шаклида елимланган тўсинлар, йиғма қолиплар қурилишда кўплаб ишлатилади. Бундай конструкцияларни тайёрлашда елим сифатида сув таъсирига чидамли бўлган казеинли цемент, сувга чидамли фенолформальдегидлар ишлатилади.

Адабиётлар.

1. Қосимов Т.К. Ёғоч ва пластмасса конструкция-лари. Ўқув қўлланма Самарқанд – 2018 й
2. Закон Республики Узбекистан “Об архитектуре и градостроительстве” Ташкент 22 декабря 1995г.
3. 3.Sarimsoqov S.SH. Yog’ochning sirpanuvchanlik nazariyasiga asosan kuchlanish deformatsiya va vaqt o’rtasidagi bog’lanish. 292-295 bet. Zamonaviy qurilish sohasida ta’lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
4. Sarimsoqov S.SH. Qurilish hududini seysmik ray-onlashtirish. 112-114 bet. . Zamonaviy qurilish sohasida ta’lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
5. R.D. Xamroqulov. S.SH.Sarimsoqov .Noyob va baland binolarning zilzilabardoshligi. Jizzax. O’quv qo’llanma 2023.
6. Махматқулов Т. Ёғоч конструкциялари.//Дарслик Тошкент (SAHHOF) .
7. Armaturalangan ikki qiyali yog ‘och to ‘sinni loyihalash SS Sarimsoqov - Science and Education, 2022
8. 8.Determination of Thermophysical Properties and Fire Resistance of Wooden Structures Amonov Daler Davronovich, Ganiev Jakhongir Nabievich, Aslanov Muro-djon, Sarimsokov Sardor

УДК 624.041.6

ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ, УСИЛЕННЫЕ КОМПОЗИЦИОННЫМИ ПОЛИМЕРНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ

Бердиев Облокул Бобокулович, кандидат технических наук, доцент
Сагатов Баходир Ўктамович, старший преподаватель
Джизакский политехнический институт

Аннотация: В статье изложены результаты экспериментальных исследований механизма передачи усилий через трещины в железобетонных элементах, усиленных внеш-ним армированием из углеволокнистых материалов. Отражены новые результаты для оценки предельного сдвигового сопротивления и жесткости сечений железо-бетонных элементов с трещинами.

Ключевые слова: усиление, железобетонный элемент, углеволокна, трещина

Abstract: The paper gives the results of experimental study of the mechanism of shear transfer across the cracks in reinforced concrete elements strengthened with fiber reinforcing polymers. New results has been obtained on ultimate strength and stiffness evaluation of reinforced concrete cracked sections.

Keywords: reinforcement, ferroconcrete items, carbon tiles, cracks

Annotatsiya: Maqolada zo’riqishlarni temirbeton elementlaridagi yoriqlar orqali uzatish mexanizmini eksperi-mental tadqiq qilish natijalari bayon etilgan, ushbu elementlar ugletolali materiallar bilan tashqi tomondan ar-maturalab kuchaytirilgan. Yoriqlarga ega bo’lgan temirbeton elementlar kesimining chegaraviy siljish qarshiligi va bikirligini baholash uchun yangi natijalar o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: kuchaytirish, temirbeton element, uglirodtolali mato, yoriq


Проблемы усиления и реабилитации железобетонных элементов приобрели в последнее время большую актуальность и практическую значимость в связи с большим числом эксплуатируемых длительное время зданий и сооружений. Результаты проведенных многолетних обследований говорят о наличии различных дефектов в несущих конструкциях, которые, развиваясь со временем, могут привести к серьезным последствиям. Наиболее серьезными из них являются макротрещины в сечениях, расположенных в зоне действия поперечных сил. Учитывая опасный характер таких дефектов, при расчете усиления таких элементов необходимо более четкое понимание механизмов их сопротивления с учетом сдвиговых напряжений и смещений в сечениях с трещинами. О практическом значении учета этих напряжений и смещений, которые связаны с касательными силами зацепления берегов в трещинах, говорят некоторые важные особенности в поведении железобетонных конструкций, содержащих макротрещины [1,2,5,6].

В практике эксплуатации сооружений разработаны различные методы ремонта и усиления

железобетонных элементов с применением элементов из стальных листов и профилей. Учитывая многие неудобства традиционных методов усиления, в последнее время все большее распространение получают новые технологии усиления конструкций высокопрочными полимерными тканевыми материалами (из стекло-, угле- и арамидопластиковых волокон), отличающиеся от традиционных повышенной легкостью и прочностью, стойкостью к коррозии и низкой трудоемкостью применения [3]. Примерно 40-летняя история применения таких волокон для усиления строительных конструкций уже насчитывает тысячи объектов.

В связи с вышеизложенным нами были проведены исследования механизма взаимного зацепления берегов трещины в специальных железобетонных образцах, усиленных внешним армированием из углепластиковых тканевых материалов (УПВМ) и проведена оценка несущей способности и жесткости сечений с трещиной при действии усилий среза. Испытанию подвергались специальные образцы, в которых предварительным раскалыванием создавалась трещина. При приложении сдвиговой нагрузки вдоль трещины её берега, взаимно смещаясь, зацепляются друг за друга вследствие их шероховатости, обеспечивая передачу через них возникающих в трещине сдвиговых напряжений. По разработанной в [1,2] методике был изучен характер зависимости между этими напряжениями и соответствующими им сдвиговыми и нормальными смещениями в трещинах образцов от начальных ступеней загружения вплоть до разрушения, а также влияние на эту зависимость внутреннего и внешнего армирования образцов стальными хомутами и тканевым полимерным материалом из УПВМ.

Результаты показывают, что смещение при сдвиге усиленных образцов на начальных стадиях загруения значительно меньше, чем у образцов не усиленных внешним армированием. В предельной стадии перед разрушением наблюдалось резкое увеличение сдвиговых смещений в усиленных образцах, что объяснялось пластическим характером разрушения волокон УПВМ. Испытание на срез показали, что напряжение сдвига увеличивается с увеличением процента внутреннего армирования стальными стержнями–хомутами. Однако в усиленных образцах доля вклада УПВМ в несущую способность уменьшается с увеличением процента внутреннего армирования. Жесткость всех усиленных образцов была больше чем неусиленных, кроме образца PF2. Его жесткость была меньше по сравнению с образцом P2 из-за меньшей начальной ширины раскрытия трещин. Жесткость железобетонных образцов с большей начальной шири ной раскрытия трещин была ниже, чем образцов с меньшей начальной шириной раскрытия трещин. Увеличение процента внутреннего армирования несущественно влияло на нормальные и касательные смещения в образцах P1 и P3 в предельной стадии. С ростом процента внутреннего армирования стальными хомутами, пересекающих плоскость трещины, в образцах наблюдалось уменьшение доли вклада внешнего усиления в общее сопротивление сдвигу. На начальных стадиях загружения можно было наблюдать, что касательные сдвиговые смещения и ширина раскрытия трещин образцов усиленных УПВМ были меньше чем образцов без внешнего армирования. Однако при разрушающей нагрузке, эти же значения смещений или ширины раскрытия трещин в усиленных образцах резко возрастали по сравнению с образцами без УПВМ. Рост нагрузки в образцах без внешнего армирования приводил к пикам сдвиговых и нормальных смещений в трещинах. В образцах, усиленных УПВМ, это увеличение оставалось постоянным вплоть до разрушающей нагрузки.








Рис. 1. Схемы армирования и испытания образцов: (а - в) - армирование хомутами образцов P1/PF1, P2/PF2 и P3/PF3; г) – внешнее армирование тканью УПВМ образцов PF1, PF2 и PF3; д) – раскалывание (1) и испытание образцов на срез (2)

Максимальная деформация хомутов образцов серий P изменялась в пределах (2447-3052)x10^{-5}, тогда как образцов серий PF увеличивалась в пределах (2805-7770)x10^{-5}. Увеличение нагрузки приводило к увеличению значения деформации в образцах, усиленных УПВМ. Фактическая деформация в стальных хомутах была меньше предельной. В усиленных образцах, расколотые поверхности имели признак разделения, далее происходил разрыв листов УПВМ вдоль плоскости среза или его отслоение от поверхности бетона. Внешнее армирование сдерживало как сдвиговые смещения, так и раскрытие трещин. При испытании образцы PF1 и PF2 разрушились разрывом листов УПВМ, а образец PF3 разрушился в результате их отслоения от поверхности бетона вдоль плоскости среза.

а)



б)



в)




Рис. 2. Зависимости: а) «τ – δcrc»; б) «τ – acrc»; в) «τ – ε» в стальных хомутах поперек плоскости среза образцов серий P и PF

В работах [1,4] предложены выражения для предельного сопротивления при сдвиге образцов с трещиной по аналогии с теорией трения при сдвиге. Эта теория представляется весьма ценной для оценки предельных сдвиговых напряжений, передаваемых через трещины железобетонного элемента. Бетонные поверхности трещины грубы и нерегулярны и когда происходит смещение вдоль плоскости сдвига, её берега будут раздвигаться, что

приведет к появлению дополнительных растягивающих напряжений во внутренней стальной арматуре, пересекающей трещину и сжимающих напряжений в бетоне. Сжимающее напряжение поперек трещины обеспечивает сопротивление сдвиговому смещению вследствие трения между шероховатыми поверхностями трещины. Можно предположить, что раскрытие трещины может привести к текучести стержней, пересекающих трещину. По [4] для сечения с «армированной» трещиной предельное сопротивление сдвигу можно записать в виде:

$$Q_u = A_{sw} R_{sw} tg\alpha , \qquad (1)$$

где величина tgα понимается как коэффициент трения между поверхностями трещины. Деля это уравнение на площадь плоскости среза, можно представить его в напряжениях:

$$\tau_u = \rho R_{sw} tg\alpha . \qquad (2)$$

В усиленных образцах, листы УПВМ сопротивляются разделению образца в горизонтальном направлении (нормальное смещение или раскрытие трещин) и сдвиговым смещениям в плоскости среза. Волокна, ориентированные перпендикулярно трещине работают аналогично стальным хомутам. Вертикальные волокна (т. е. параллельные трещине) действуют как ограничители деформаций для волокон другого направления, а также предотвращают отслаивание листов от поверхности бетона. По результатам регрессионного анализа экспериментальных данных эмпирическое выражение, учитывающее вклад внешнего армирования из УПВМ в общее сопротивление сдвигу усиленных образцов, предложено в следующем виде:

$$\tau_R = 0{,}88544\left[\rho R_s \tan\alpha + \left(\frac{2t_f}{b}\right) + R_{fu}\right] - 2{,}9802 , \qquad (3)$$

где: $\rho = A_{sw} / A_{crc}$; tgα = 1,4; A_{sw} – площадь сечения стальных хомутов; A_{crc} – площадь плоскости среза; R_s – прочность стали на растяжение; t_f - толщина листа; b – ширина плоскости среза; R_{fu} - предел прочности при растяжении листа.

Сравнение результатов теоретических и экспериментальных исследований специальных образцов

Образцы	Количество и диаметр хомутов, мм	ρ (%)	Разрушающая нагрузка, кН	Усилие в ПВМ, кН	Напряжение сдвига τ, МПа		$\frac{\tau(теор)}{\tau(эксп)}$
					Теоретич.	Экспер.	
P1	2Ø6	0,14	85,50	---	1,28	2,09	1,63
PF1			131,82	46,32	3,20	3,23	1,04
P2	4Ø6	0,28	135,38	---	2,56	3,30	1,28
PF2			167,45	32,07	4,34	4,10	0,95
P3	6Ø6	0,42	213,87	---	3,84	5,24	1,36
PF3			228,02	14,15	5,48	5,58	1,02

Применимость выражения (3) ограничена кубиковой прочностью бетона в пределах 30 – 40 МПа. В таблице приведено сравнение теоретических и экспериментальных данных испытанных образцов. Видно, что предложенное уравнение хорошо аппроксимирует экспериментальные значения и позволяет с достаточной точностью определить несущую способность при срезе образцов усиленных УПВМ.

Результаты испытаний показывают, что доля вклада внешнего армирования в несущую способность образца уменьшается с увеличением процента внутреннего армирования стальными стержнями (хомутами). На начальных стадиях загружения внешнее армирование сдерживало тангенциальное смещение в сечении с трещиной и её раскрытие; они были меньше по сравнению с образцами без внешнего усиления для того же уровня нагрузки. Однако в предельной стадии наблюдалось внезапное увеличение нормальных и касательных смещений по сравнению с образцами без внешнего усиления. Повышение напряжения сдвига усиленных образцов изменяется в пределах 7% – 56% по сравнению с образцами без внешнего усиления (табл.1). В целом жесткость усиленных образцов была выше чем неусиленных, что можно объяснить меньшими деформациями в стальных хомутах при том же уровне нагрузки.

Деформация в стальных хомутах усиленных образцов была меньше чем в неусиленных при той же нагрузке. Однако в стадии разрушения, усиленные образцы показали большие значения деформации, чем неусиленные образцы. Характер зависимости «τ – δ» усиленных и неусиленных спецобразцов примерно одинаков. Предложенное теоретическое выражение для вычисления напряжения сдвига образцов с внешним усилением может использоваться при условии достаточной корреляции с экспериментальными результатами. Для более широкого применения предложенного уравнения необходимы дальнейшие исследования.

Литература

1. А. А. Ашрабов. К исследованию контактных взаимодействий в трещинах железобетон-ных элементов. Сб. трудов РААСН, Москва, 2009, 89-94 с.

2. А. А. Ашрабов. Моделирование свойств и процессов разрушения бетона и железобетона. Ташкент, «Фан», 1988, 147 с.

3. А. А. Ашрабов, А.А. Ишанходжаев, Ч.С. Раупов. О передаче напряжений в трещинах железобетонных элементов, усиленных полимерными волокнистыми материалами. Журнал АН РУз «Проблемы механики», Ташкент, №5, «Фан», 2007, с. 7-11.

4. Ashrabov A. A., J. Jayaprakash. Rehabilitation of Precracked RC Push-off Specimens with CFRP Fabrics. First International Conference on Advances in Bridge Engineering, Brunel University, 26th - 28th June 2008, West London, UK, pp. 309 – 312.

5. Millard S. G., Johnson R. P. Shear Transfer Across Cracks in Reinforced Concrete due to Aggregate Interlock and Dowel Action. Mag. Conc. Res. 36, No. 126, Mar., 1984, pp. 9 – 21.

6. Sagatov B. Study on reinforced concrete elements of buildings and structures with cracks, reinforced with composite polymer materials //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1142. – №. 1. – С. 012043.

ИШҚОР БИЛАН ФАОЛЛАШТИРИЛГАН ПУССОЛАН ПОРТЛАНДЦЕМЕНТ

Султонов А.А техника фанлари номзоди, профессор
Турсунов У.Қ Магистр
Хамроева Ф.Х Магистр
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Annotation. Pozzolanic portlandvcement is produced from Portland cement clinker (20...50%) and active mineral components (50...80%). This cement has low strength (up to 30 MPa). This work is aimed at increasing the activity of such cement by activating it with alkali, in particular with soda water.

Аннотация. Пуццолановый портландцемент получают из портландцементного клинкера (20…50%) и активных минеральных компонентов (50…80%). Этот цемент обладает низкой прочностью (до 30 МПа). Данная работа направлена на повышение активности такого цемента путем активирования щелочью, в частности содой кальцинированной.

Аннотация. Пуссолан портландцементи портландцемент клинкери (20…50%) ва фаол минерал компонентлардан (50…80%) ишлаб чикарилади. Ушбу цемент паст мустаҳкамликка эга (30 МПа гача). Бу иш ишқор билан, хусусан калцийлаштирилган сода билан пуссолан цемент фаоллигини оширишга қаратилган.

Кириш. Ишқорли цемент деб алюмосиликат билан ишқорий ташкил этувчилар асосида олинган гидравлик боғловчи моддага айтилади.

Ишқорий боғловчиларнинг назарий асослари, шу жумладан шлак-ишқорли боғловчилар, профессор В.Д.Глуховскийнинг кашфиёти асосида унинг илмий мактаби олимлари томонидан гидрооксидли металл бирикмаларининг гидравлик боғланиш хусусиятлари ўрганилган [1].

Шлакишқорли цементнинг ва ундан олинадиган сунъий тошнинг хоссаларини бошқариш мақсадида туйишда ёки аралаштириш суюқлиги билан бирга минерал ёки органик қўшимчалар солиниши мумкин.

Шлак ишқорли цемент икки усулда ишлаб чиқарилиши мумкин. Биринчи усулда куритиб, ўлчанган алюмосиликат, ишқорли компонентлар ва қўшимчалар тегирмонда биргаликда туйиб олинади. Иккинчи усулда эса ишқорли компонент алоҳида сувда эритиб қўшилади. Шлакишқорли цемент сув (боғловчи биринчи усулда тайёрланган бўлса) ёки ишқорли компонентнинг сувдаги эритмаси (иккинчи усулда тайёрланган бўлса) билан аралаштирилганда пластик хамир ҳосил бўлади ва бу хамир аста-секин қота бошлайди. Қотиш натижасида олинган сунъий тошнинг минерологик таркиби калсийнинг паст асосли гидросиликатлари ва калситдан ташқари, ишқорий металларнинг гидроалюмо- ва гидроферросиликатларидан ташкил топган. Бундай минералогик таркиб шлакишқорли цементнинг юқори физик-механик хоссаларига эга бўлишини асослайди [2].

Пуссолан портландцементда гидравлик қўшимчадан тайёр махсулот оғирлигининг камида 20 фоиз ва кўпи билан 50 фоиз миқдорида бўлиши лозим.

Фаол қўшимчалар майда туйилган табиий ёки сунъий моддалар бўлиб, улар боғловчи моддаларнинг хоссаларини яхшилаш учун қўшилади. Фаол минерал қўшимчаларнинг табиий ва сунъий хиллари мавжуд. Табиий минерал қўшимчалар чўкинди жинслардан олинади ва уларга диатомит, трепел, опока ва гилсимон моддалар киради. Вулқон жинслари қўшимчаларга вулқон кули, туф, денгиз кўпиги ва ҳ.к. киради [3].

Танланган хом ашё ва тадқиқот ўтказиш усуллари.

Бу тадқиқотда алюминосиликат компоненти сифатида туффит ишлатилган ва унинг кимевий таркиби 1-жадвалда кўрсатилган. Таркиб танлаш

учун "HUAXIN CEMENT JIZZAKH" МЧЖ портландцементи олинган.

Ишқор билан фаоллаштирилган пуссолан портландсемет олиш учун Навоий конидан олинган туффитдан алюминосиликат сифатида ишлатдик. Навоий "QIZILQUMSEMENT" МЧЖ да портландцемент олишда туффит куйдирилиб пуссолан портландцемент ишлаб чиқаришда ишлатилади.

1-жадвал. Туффитнинг кимёвий таркиби

Хом ашё	Асосий оксидларнинг массавий миқдори,%									
	к.м.к.	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	SO_3	P_2O_5	W	M_0
Туф-фит	17	50	9	3	11	3	4	3	21	0.28

Ишқорий фаоллаштирувчи сифатида "QO'NG'IROT SODA ZAVODI" МЧЖдан ГОСТ 5100-85 бўйича зичлиги 1025 кг/м^3 бўлган техник соданинг сувли эритмаси ишлатилган. Боғловчининг майинлик даражаси N008 элакдан ўтказиш орқали назорат қилинди, элагандан кейин қолган қолдиқ 7% ни ташкил этади. Боғловчи моддани синовдан ўтказишда ГОСТ 6139-2003 талабларига жавоб берадиган полифракцион қум ишлатилган.

Тадқиқотда пуссолан портландцемент олишда клинкер 50-80% ва қўшимча (туффит) 20-50% бирга шарли тегирмонда туйилди. Портландцемент клинкери алюминосиликат компонентининг асослилик модулини ошириш учун юқори асосли қўшимча сифатида киритилган.

Тадқиқот натижаларини солиштириш .

Тадқиқот олиб боришда ишқор билан фаоллаштирилган пуссолан портландцемент олиш учун бир нечта таркибни кўриб чиқдик. Тадқиқот олиб боришда цемент хоссаларини текширишни ГОСТ 30744-2001 стандартига амал қилдик. Бунинг учун 40x40x160 мм ўлчамидаги намуна балкачалар таёрланиб, мустаҳкамликка текширилди. Намуналар 1 кун қолипда, сувда 2, 7 ва 27 кун мустаҳкамликни олгандан кейин сиқилишга бўлган мустаҳкамлигини аниқлаш учун синовдан ўтказилди. Портландцемент мустаҳкамлиги унинг таркибидаги материалларга боғлиқ. Натижалар 2-жадвалда берилган.

2-жадвал. Ишқор билан фаоллаштирилган пуссолан портландцементнинг сиқилишдаги мустаҳкамлиги

№	Туффит,%	Клинкер, %	Сода сувли эритма-си зичлиги, кг/м^3	Сув/ Цемент ниба-ти	Сиқилишдаги мустаҳкамлик чегараси, МПа		
					Мустаҳкамлик олган кунлар		
					2	7	28
1	20	80	1025	0.5	11.48	16.74	36.5
2	30	70	1025	0.5	11.42	16.49	35.8
3	40	60	1025	0.5	8.8	16.58	26.7
4	50	50	1025	0.5	6,0	14.14	20.16

Тадқиқот натижасида кальцийлаштирилган сода сувли эритмасининг зичлиги 1025 кг/м^3 ва сувли эритма миқдорининг цемент миқдорига нисбати 0,5 бўланда ишқор билан фаоллаштирилган пуссолан портландцементнинг сиқилишаги мустаҳкамлик чегараси таркибдаги юқори асосли қўшимча бўлган портландсемент клинкерининг миқдорига ва намуналарнинг сувда қотиш вақтига боғлиқиги аниқланди. Юқори асосли қўшимчанинг 50 % дан то 80% гача ошганда, қотиш вақтидан қатий назар, сиқилишга бўлган мустаҳкамлик чегараси ошади. Масалан, портландцемент клинкерининг миқдори 50% бўлганда сиқилишга бўлган мустаҳкамлик чегараси 2 кун қотган намуналарда 6.0 МПа, 7 кун қотганларда 14.14 МПа ва 28 кун қотганда эса 20,16 МПа бўлган бўлса, клинкернинг миқдори 80% гача ошганда сиқилишга бўлган мустаҳкамлик чегараси 2 кун қотган намуналарда 6.0 дан то 11.48 МПа гача, 7 кун қотганларда 14.14 дан 16.74 МПа гача ва 28 кун қотганда эса 20,16 дан то 36,5 МПа гача ошди ва S32.5 маркага етди (2-жадвал).

Аниқландики, ишқорий фаоллаштирувчи сифатида паст зичликга эга кальцийлаштирилган сода ишлатилганда энг оптимал юқори асосли қўшимча миқдори 70% атрофида экан. Бу олинган натижа 30% атрофида юқори қийматга эга бўлган портландцемент миқдорини тежаб қурилишда кенг ишлатиладиган ишқорли пуссолан портландцемент олиш имконини беради.

Хулоса. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида аниқландики, ишқор билан фаоллаштирилганда пуссолан портландцементнинг сиқилишаги мустаҳкамлик чегараси ошади. Натижада 30% атрофида юқори қийматга эга бўлган портландцемент миқдорини тежаб қурилишда кенг ишлатиладиган S32.5 маркали ишқорли пуссолан портландцемент олиш имконини беради.

Адабиётлар рўйхати

[1] Шлакощелочные бетоны на мелкозернистых заполнителях. Под редакцией проф. Глуховский В.Д. - Киев, Высшая школа, 1982.

[2] Тўлаганов А.А., Камилов Х.Х., Воҳидов М.М., Султонов А.А. Замонавий қурилиш материаллари, буюмлари ва технологиялари. Уқув қулланма, Тошкент, ТАҚИ, 2014. 129 б.

[3] Отақўзиев Т.А. Минерал боғловчи моддалар. Т., Ўқитувчи, 1989.

UDK 691.278

KAM SUV TALABCHAN SEMENT ASOSIDA KO‘PCHITILGAN VERMIKULITNI YENGIL BETONLARDA QO‘LLANILISH SAMARADORLIGI

Yusupov H.V. t.f.n., v.b.prof.,
Karimov G.U., t.f.f.d, (PhD)
Saidmurodova S.M. SamDAQU tayanch doktoranti,
Babayev Sultonbek SamDAQU tayanch doktoranti.
Mirzo Ulug`bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, Samarqand, SamDAQU,

Annotatsiya: “Vermikulit asosida yengil beton bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” energiya tejamkor samarador tannarxi arzon yuqori sifatli kam suv talab qiluvchi sement asosidagi vermikulitli yengil beton ishlab chiqarish masalasi dolzarbdir. Bugungi kunda Respublikamizda qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ularning zamonaviy bosqichda iqtisodiy samaradorligini, tannarxining arzonligi, energiyatejamkor materiallar ishlab chiqarish uchun mahalliy xom ashyo manbalaridan keng qamrovli va unumli foydalanish hamda turli sanoat sohalarida yuzaga keladigan chiqindilarni to`liq ishlatishga bog`liq ko`pgina chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishmoq muhimdir. Iqtisodiyotda energiyatejamkor, samarador va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejaydigan texnologiyalarni qo`llab yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish, ularni rivojlantirish, sifatini yaxshilash dolzarb muammolardan biridir. Shunday muammolardan biri kam suv talabchan sementlar asosidagi vermikulitli o`ta yengil energiyatejamkor, samarador, yuqori sifatli beton bloklar ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, kam suv talabchan sementlar, klinker, mineral va inert qo‘shimchalar, vermikulit, vermikulit beton, yengil beton, o`ta yengil beton, hajmiy massa, issiqlik izolyatsiyasi, olovbardoshligi, tovush yutuvchanligi.

Аннотация: “Создание технологии производства легкобетонных блоков на основе вермикулита” актуален вопрос производства недорогого высококачественного маловодного легкого вермикулитового бетона на основе цемента с энергоэффективными бетонами. Сегодня в нашей республике реализуется множество мер по дальнейшему углублению экономических реформ в отрасли строительных материалов, повышению их экономической эффективности на современном этапе, широкому и эффективному использованию местных источников сырья для производства энергоэффективных материалов и полному использованию отходов, образующихся в различных отраслях промышленности, и достижению определенных результатов. Одной из актуальных проблем является реализация целевых программ по модернизации производственных предприятий, эффективности и снижения ресурсоемкости экономики, поддержка энергосберегающих технологий в производстве, производство высококачественных строительных материалов, их развитие, повышение качества. Одна из таких проблем заключается в том, что сверхлегкая энергия с вермикулитом на основе цементов с низким содержанием воды становится все более важной для производства экономичных, эффективных и высококачественных бетонных блоков.

Ключевые слова: инновация, цемент низкой водопотребности, клинкер, инертные минеральные добавки, вермикулит, вермикулит бетон, легкие бетон, объёмная масса, огнестойкость, звукопоглощение.

Kirish: “Vermikulit asosida yengil beton bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” mavzusida energiya tejamkor samarador tannarxi arzon yuqori sifatli kam suv talab qiluvchi sement asosidagi vermikulitli yengil beton ishlab chiqarish masalasi dolzarbdir. Bugungi kunda Respublikamizda qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ularning zamonaviy bosqichda iqtisodiy samaradorligini, tannarxining arzonligi, energiyatejamkor materiallar ishlab chiqarish uchun mahalliy xom ashyo manbalaridan keng qamrovli va unumli foydalanish hamda turli sanoat sohalarida yuzaga keladigan chiqindilarni to`liq ishlatishga bog`liq ko`pgina chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishmoq muhimdir. O`zbekiston Respublikasi prezidentining farmonlarida va harakatlar strategiyasining 5 ta ustuvor yo`nalishlarida belgilangan ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish bo`yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, iqtisodiyotda energiyatejamkor, samarador va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejaydigan texnologiyalarni qo`llab yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish, ularni rivojlantirish, sifatini yaxshilash dolzarb muammolardan biridir.

Shunday muammolardan biri kam suv talabchan sementlar asosidagi vermikulitli o`ta yengil energiyatejamkor, samarador, yuqori sifatli beton bloklar ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Energiya tejamkor materiallar zamonaviy qurilishning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ular bino va inshootlarning energiya sarfini kamaytiradi, bu esa o‘z navbatida isitish, havoni konditsionerlash va yoritish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi” “Energiya tejamkor bino va inshootlarni barpo qilishda issiqlikni saqlab qoluvchi va olovbardosh, tejamkor qurilish materiallaridan foydalanish dolzarb mavzulardan biridir. Bunday qurilish materiallari va buyumlarini mahalliy xom-ashyo va ikkilamchi resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.Turar joy binolarida issiqlikni saqlash choralari keng o‘rganilayotgan bir paytda energiya tejamkor va yengil betonlarni qo‘llagan holda uy-joy qurilishni ko‘paytirish ancha samarali hisoblanadi. Bunday yengil betonlar asosida mahalliy xom-ashyo chiqindilaridan tabiiy va sun’iy to‘ldiruvchidan foydalanish ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ko‘pchitilgan vermikulit sanoat va mahalliy bino va inshootlar qurilishda, qora va rangli metallurgiyada, olovbardosh material sifatida, neftni qayta ishlash sanoatida, atom elektr stansiyalarida hamda qurilish sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Elektr kabellari, pol, tom, temir beton, yog‘och inshootlarni issiqlikdan va olovdan himoya qilishga qodir. Bundan tashqari vermikulitli betonlar turli yo‘nalishlarda, jumladan yong‘inga chidamli vermikulit bloklaridan foydalanish, yong‘in xavfsizligi yuqoriligi uchun jamoat, ishlab chiqarish va turar-joy binolarini barpo etishda qo‘llaniladi.

Vermikulit minerali haroratni keskin ravishda 540-1100 oC harorat oralig‘ida termik ta’sir ko‘rsatilganida o‘zining dastlabki hajmidan 12 baravargacha ko‘pchish xususiyatiga ega. Vermikulit asosan kondan qazib olingan boshlangich tabiiy tog jinsi sifatida emas, ko‘proq ko‘pchitilgan holda sanoat, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarida keng foydalaniladi. Bunday to‘ldiruvchilardan biri vermikulit bo‘lib, u hajmiy og‘irligi 800 – 1200 kg/m3 bo‘lgan yengil betonlarda qo‘llanib ko‘rilgan. Hozirgi kunda biz olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijasida hajmiy og‘irligi 300 – 600 va 600-1100 kg/m3 bo‘lgan yengil betonlardan iborat yengil bloklar ishlab chiqarish texnologiyasini tavsiya etamiz.

Vermikulit - lotincha – «vermiculuc – qurt, chuvalchang »ma’nosini anglatib, gidroslyudalar guruhiga mansubdir, shuningdek u qatlamli tuzilishiga ega bo‘lib, ikkilamchi resurslardan olinadi.

Vermikulit ekologik jihatidan xavfsiz, ekologik toza va turli biota’sirlarga chidamli xom- ashyodir. Asbest va mineral tosh paxta singari nafas yo‘llariga ta’sir qiluvchi gazlar ajratmaydi.



1-rasm:Vermikulit xom-ashyosining ko‘rinishi

Vermikulitning quyidagi ijobiy xususiyatlari mavjud: Mahalliy xom-ashyo, tan narxining arzonligi, olovbardoshligi, yuqori issiq o‘tkazuvchan issiqlik-saqlovchiligi, shovqinsaqlovchi, gigroskopikligi past, ekologik toza mahsulot, biologik jihatdan ta’sirlarga

berilmaydi, kimyoviy inert material. Vermikulitning kimyoviy formulasi qo‘yidagicha:

(Na+ K+ MgO+ CaO+H2O) Mg5 Fe

Vermikulit 1824 yil Vebbon tomonidan topilgan bo‘lib tillarang, kulrang, mall ava sarig‘ rangli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Moss shkalasi bo‘yicha qattiqligi 1.5 -2 ga teng bo‘lib, uyma zichligi Pm= 640 : 1120 kg\m3 ga teng. Bu mineral 1850 0C xaroratda eriydi, 5 % gacha kenglikka ega. Vermikulitning issiq izolyatsion materiallar toifasiga kirishining sababi u o‘zining tolasimon g‘ovakligi borligi uzun, ajoyib to‘lduruvchi sifatida ishlatsa bo‘ladi. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti λ =0,046 Vt /m2C ga teng. Vermikulit chirimaydi va ishqorlar ta’siriga berilmaydi. Shuning uchun uni yengil betonlarda keng ishlatish mumkin. Ko`pchitilgan vermikulit 1350 0C gacha harorat ta`sirida uz xususiyatini yo`qotmaydi.

“Vermikulit asosida yengil beton bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish”. Tadqiqotda yechilishi lozim bo‘lgan asosiy ikki masala qo‘yilmoqda ushbu vermikulitdan tayyorlanadigan bloklar quyidagi talablarga javob berishi lozim “Issiqlikdan himoyalovchi va issiqlikga chidamli” bo‘lishi lozim. Ushbu asosiy maqsadni amalga oshirish uchun bir qator ilmiy-tadqiqot, texnologik,marketolik, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqotda ushbu material va undan tayyorlangan buyumning texnologik tizimi,tarkibi,afzalliklari, modellarni ishlab chiqish va oldin ishlab chiqilgan ushbu turdagi materiallarni farqlarni ochishib berish rejalashtirilgan.

Qurilmasiga ko'ra: alohida va yaxlit poydevorlar, ustunlar, chiqib turuvchi osmalar, to'sinlar, orayopma to'shamalar, fermalar va tomyopma to'shamalaridan iborat bo'ladi.

Montaj uslubiga ko'ra: monolitli, kichik yig'ma, yirik yig'ma, bloklilarga ajratiladi.

Montaj aniqligiga ko'ra: texnik (2-5 sm), muhandislik (1 sm dan kichik), yuqori aniq (2-5 mm), maxsus nur chiqaruvchi asboblar bilan bajarish (1 mm dan kichik) turlariga bo'linadi [2].

Qurilish bosqichlari

1. Qidiruv ishlari – nima qurilishi qarori (qaror buyurtmaga ko'ra) qabul qilinadi [1].

A) Texnik-iqtisodiy baholash (TIB) – qanday, qaerda va qachon o'zini oqlaydi.

B) Texnik qidiruv:

- topografik (kerakli masshtabda planni tuzish);
- geologik (asosning yuk ko'tarish qobiliyatini (kg/sm^2) va suvning tajovuzkorlik darajasini aniqlash);
- gidrologik (ochiq suv havzalari va daryolarning - oqim tezligini, suv hajmini, tub cho'kindilarining darajasini o'rganish; oxirgi natija nima qurilishiga bog'liq);
- klimatik (shamol yo'nalishi, o'rtacha yillik harorat jadvali, suv yig'ish maydoniga tushadigan yog'ingarchilik miqdori) va boshqalar.

2. Loyihalash

A) birinchi bosqichda loyihalash (texnik ishchi loyiha);

B) ikkinchi bosqichda loyihalash (texnik loyiha va ishchi hujjatlar).

Texnik loyiha bosqichida – qaror qabul qilish tamoyili. Ishchi hujjatlar – dolzarb masalalarni batafsil o'rganish (smeta faqat past tomonga qarab o'zgaradi). Ishchi loyiha bo'yicha quriladi.

Katta aniqlik talab qilinadigan obyektlar uchta bosqichda loyihalanadi: texnik loyihalash, ishchi hujjatlar, loyihaning maxsus qismi (katta aniqlik talab qilinuvchi obyektning joyida).

Loyihaning tarkibi:

1. Bosh plan (gorizontal, vertikal va yerosti kommunikatsiyalarining profili);

2. Loyihaning arxitektura-qurilish qismi (to‘sinlar va chiqib turuvchi osmalar hisobi, montaj sxemasi);

3. Tashkiliy-iqtisodiy qism (ishlarni tashkillashtirish loyihasi (ITL)).

3. Territoriyani muhandislik tayyorlash.

A) Qurilish pasportini rasmiylashtirish (qurilishga ruxsat berish);

B) Territoriyani tozalash (keraksiz obyektlardan bo‘shatish).

No‘l sikli (yerosti sikli): shartli no‘ldan pastdagi obyektlar (birinchi qavatning toza poli) va yo‘llar.

Yerusti sikli: birinchi qavat toza polidan yuqorida joylashgan obyektlar.

4. Obodonlashtirish.

A) territoriyaga loyiha asosida dastlab kerakli bo‘lgan (yoritkichlar, piyoda yo‘laklari va boshqalar) o‘rnatiladi va quriladi;

B) ko‘kalamzorlashtiriladi.


5. Obyektni foydalanishga topshirish.

Muhandislik inshootlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar.

Ishlab chiqarish inshootlari metall yoki temirbeton sinchli ustunlar ko‘rinishidagi modullar yoki uchga yaxlit qadamlar bilan quriladi. Monolit binolarda armaturalangan betondan quriladi, har qaysi qoziq (svay) qoqilganidan keyin geodezist va ish yurituvchi tomonidan imzolanadi [3].

Qoliplarni o‘rnatilishi nazorat qilinadi.

Bu yerga yana to‘g‘onlar ham (arkali va gravitatsion) kiradi (1-rasm).



1-rasm

To‘g‘onning quvvati quyidagi formuladan aniqlanadi

$$N = HQ \cdot g, \quad (1)$$

bu yerda HQ suv sarfi.


Katta aniqlik talab qilinadigan obyektlarga kosmik aloqa to‘plamlari, tezlatgichlar va boshqalar kiradi. Tezlatgichlarda doirasi bo‘yicha magnitlarni o‘rnatilish aniqligi $40\ mkr$ tashkil qiladi.

Chiziqli obyektlarga besh toifadagi avtomobil yo‘llari va to‘rt toifadagi temir yo‘llar (qiyaliklarda, gorizontal va vertikal to‘g‘ri chiziqlarning burilish radiuslaridagi – farqlar) kiradi.

Inshootlarga: avtomobil va temir yo‘llar hamda transport tunnellari kiradi (2,a-rasm).

Klotoida – o‘tish egri chiziqlari (2,b-rasm), ularning tenglamalari ma’lum.



Burilishlarda virajlar (2,s-rasm) quriladi – burilishlardagi yo‘lning ko‘ndalang nishabliklari (1-jadval).



2-rasm

1-jadval

1) $i = 2\%$ $= 20‰$ $i = tgv$ - nishablik. 2) 3)	

Metro.	
Tunnel.	

Piket – yuz metrli kesma.

Piket – qiymati bo‘yicha 100 metrdan farqlanadi $(100m \pm 20D)$,

bu yerda D - yo‘l uzunligi farqlari.

Geodezik ishlarni olib borish loyihasi

1.Geodezik ishlar uchun ma’lum summa ajratiladi.

2.Qatnashadilar: buyurtmachi, boshpudratchi, subpudratchi tashkilotlar, loyihachi.

Qurilish maydonidagi geodezik ishlar

Quyidagi geodezik ishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Qurilish asosini rejalash – bosh o‘qlarni kesishish nuqtalari (simmetriya o‘qlari – ular ikkita);

2. Mavjud yerosti kommunikatsiyalari o‘qlarini rejalash (joyida belgilanishi kerak bo‘ladi);

3. Binoning asosiy o‘qlarini rejalash (bino tashqi devorlarining o‘qlari – 4 ta o‘q – odatda o‘lchami va shakli);

4. Qaziladigan kotlovan konturlarini rejalash;

5. Kotlovan tubiga asosiy o‘qlar va otmetkalarni ko‘chirish;

6. No‘l siklini ijroiy syomkasi;

7. Berilgan montaj gorizontidagi asosiy o‘qlarni rejalash (toza pol sathida);

8. Berilgan gorizontdan har qaysi keyingisiga binoning asosiy o‘qlarini ko‘chirish;

9. Har qaysi montaj gorizontining ijroiy syomkasi;

10. Territoriyani vertikal planlashtirish – loyihaviy otmetka (qizil otmetka) ni rejalash, ko‘chalar o‘qlarini, o‘tish joylari va boshqalarni rejalash;

11. Yangi yerosti kommunikatsiyalarini rejalash va ularning ijroiy syomkasi;

12.Bino cho‘kishini kuzatish.


Loyihachining maxsus ko‘rsatmasiga ko‘ra cho‘kishni kuzatishi olib boriladi.

Qurilish jarayonida esa asosga binoga har 25% og‘irlik yuki qo‘yilganida olib boriladi.

Ishchi o‘qlar – ya’ni, ular bosh va asosiy o‘qlar emas.

Binoning asosiy o‘qlarini rejalash

Ushbu rejalashni bajarish ikkita turli xil yondashuv tamoyillariga farq qiladi (3-rasm):



3-rasm

1.Qurilish maydonidagi berilgan geodezik asosdan (qurilish maydonining tashqi to‘ri) joyiga kamida binoning ikkita nuqtasi chiqariladi [4].


2.Berilgan asosdan binoning bitta nuqtasi chiqariladi.

Ikkinchi usul aniqroq, chunki berilgan boshlang‘ichlarning ta’siri va rejalash burchagi kichik. Birinchi usulda ular chiziq uzunligiga ta’sir qiladi.

O‘qlarni batafsil rejalash qurilish obnoskasi bo‘yicha bajariladi (4-rasm).


To‘liq obnoska. Unga o‘qlar chiqariladi. Ko‘ndalang o‘qlar raqamlar bilan, bo‘ylama o‘qlar - harflar bilan belgilanadi. Asosiy o‘qlar yerga har qaysi tomondan kamida ikkita belgi bilan yoki chiziqlar bilan (uylarda) mahkamlanadi.

Mixlar bo‘yicha simlar tortiladi va u bo‘yicha shovun harakatlantiriladi. Asosiy o‘qlarni mahkamlash belgilari qurilish boshplani bilan tanlanadi.



4-rasm

Shartlar: “skameyka” asosiy o‘qlarga parallel bo‘lishi kerak; ustunlar teng balandliklarda bo‘lishi kerak; obnoska gorizontal bo‘lishi kerak (5-rasm).



5-rasm


Uzunlik 100 m bo‘lganida, nisbiy xatolik 1/25000, qadam 6 m.

Obnoska 1/5000 (umumiy) da parallel, gorizontal va to‘g‘ri chiziqli bo‘lmasligi mumkin.

Montaj gorizontlariga vertikal bo‘yicha o‘qlarni ko‘chirish

Ushbu ishlarni bajarish uch xil usulga farqlanadi:


1.Teodolit bilan qiya loyihalash usuli. Teodolitni gorizontlashtirishga bog‘liq. Ikkita doirada bajariladi. Shartlar: uzatishda adilak taxminan devorga parallel bo‘lishi kerak (6-rasm).



6-rasm

2.Vertikal loyihalash usuli.

3.Chiziqli o‘lchashlardan (chiziqli uchburchak usuli) (7-rasm).



7-rasm

Nivelir yordamida $H_1 = H_2$ bo‘lishiga erishamiz [5].

$$\cos\alpha = \frac{(b^2 + c^2 - a^2)}{2bc} \quad (2)$$

$$\cos\alpha = \frac{b^2}{2bc} + \frac{c^2}{2bc} - \frac{a^2}{2bc} = \frac{b}{2c} + \frac{c}{2b} - \frac{a^2}{2bc} = \left(\frac{b}{c} + \frac{c}{b} - \frac{a}{b}\cdot a\cdot\frac{1}{c}\right)^{\frac{1}{2}} \quad (3)$$

Xmelyovskiyning formulasi: $\cos\alpha = \frac{2P(P-a)}{bc} - 1;$

$$P = \frac{(a+b+c)}{2}; \quad (4)$$

$$2F = bc\cdot\sin\alpha; \quad (5)$$

$$h_a = \frac{2F}{a} \quad (6)$$

Q_A, Q_B - hisoblaymiz.

Nazorat: $A = Q_A + Q_B$.

Boshlang‘ich montaj gorizonti (“0” otmetka sathi) da berilgan geodezik asosni qurish

Ushbu ishni bajarishning ikkita bosqichi mavjud:

1.Boshlang‘ich montaj gorizontiga o‘qlarni mahkamlash belgilaridan to‘r nuqtalarini ko‘chirish. 8-rasmda – mikrotriangulyasiya to‘ri keltirilgan.

2.O‘lchashlar ushbu nuqtalarning ichida bajariladi: aniqlik 5 mm + harorat uchun aniqlik. Bog‘lanmaslikni aniqlash uchun ortiqcha o‘lchash bajaramiz.

Ikkita Δ bo‘yicha hisoblangan tomonlarning koordinatalarini topamiz, diagonalni topamiz va uni o‘lchangani bilan taqqoslaymiz (tenglama tuzishni chiziqli shaklga keltirish uchun).

Shartli tenglamaning maydonli shakli: $(P_{124+134}) = (P_{123+234})$.

Ikkita $(\alpha_1 + \alpha_2) = \alpha_3$ uchburchakdan 124 – burchak shakli.

$$\alpha_1 + \alpha_2 - \alpha_3 = 0; \quad (7)$$


$v_{\alpha 1} + v_{\alpha 2} - v_{\alpha 3} = -W$ hisoblangan burchaklarga tuzatmalar.

Algebraik o‘zgartirishdan keyin:

$$v_\alpha = (A_\alpha v_a - B_\alpha v_b - C_\alpha v_c)\cdot\rho, \quad (8)$$

bu yerda $A_\alpha, B_\alpha, C_\alpha$ - quyidagi tarzda aniqlanadigan koeffitsientlar:

$$A_\alpha = \frac{1}{h_a} = \frac{a}{bc\sin\alpha}; \qquad (9)$$



8-rasm

Gauss uchun (1864 y):

$$B_\alpha = \sqrt{A_\alpha^2 \cdot \frac{1}{b^2}}; \qquad (10)$$

A.K.Zaysev: $C_\alpha = \sqrt{A_\alpha^2 \cdot \frac{1}{c^2}}.$

Butkevichning formulasi: $B = \frac{1}{hb'}; \quad C = \frac{1}{hc'}$

$$A_1v_{12} - B_1v_{24} - C_1v_{41} + A_2v_{23} - B_2v_{34} - C_2v_{42} - (A_3v_{13} - B_3v_{34} - C_3v_{41}) \qquad (11)$$

Agar o'xshash hadlarga olib kelinsa, quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$A_1v_{12} + A_2v_{23} - A_3v_{13} - (B_1 + C_2)v_{42} - (B_1 + C_2)v_{42} - (B_2 - B_3)v_{34} - (C_1 - C_3)v_{41} + \omega = 0 \qquad (12)$$

Shartli tenglama: $-\frac{\omega}{\rho}.$

Tuzatmalarni hisoblangan ruxsat etishlar bog'lanmasliklar qiymatlari xatolariga almashtiramiz:

$$\omega_{rux} = 3m = 3\left[A_1^2m_{12}^2 + A_2m_{23}^2 + A_3m_{13}^2 + (B_1 + C_2)m_{42}^2 + (B_1 + C_2)m_{42}^2 + (B_1 + C_2)m_{42}^2 + (B_2 - B_3)m_{34}^2 - \ldots\right] \qquad (13)$$

O'lchashlar teng aniqli bo'lganligidan, formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\omega_{rux} = 3m(A_1^2 + A_2^2 + A_3^2 + (B_1 + C_2)^2 + (B_2 + C_3)^2 + (C_1 - C_3)^2) \qquad (14)$$



Har qaysi uchburchaklardan A, B, C koeffitsientlarni hisoblash uchun nazorat formulasi: $Aa - Bb - Cc = 0.$

Kosinuslar teoremasiga ko'ra α burchak hisoblash aniqligini differensiallashdan topamiz va differensial tenglamani o'zgartirgandan keyingi formulasini olamiz:


$$m_\alpha = \rho \cdot m_S \sqrt{\frac{3}{h_a^2} - \frac{1}{b^2} - \frac{1}{c^2}}. \qquad (15)$$

Tipik shakldagi uchburchaklar (to'g'ri burchakli, teng yon tomonli, teng tomonli) da yuqorida keltirilgan barcha formulalarda A, B, C koeffitsientlarni no'lga teng bo'lib qolishi yoki o'lchangan tomon bilan bog'langanligi sababli soddalashadi (2-jadval).

2-jadval

1) $A = \frac{1}{c}$; $B = \frac{A}{bc}$; $C = 0.$	
2) $A = \frac{2\sqrt{3}}{l}$; $B = \frac{\sqrt{3}}{l}$; $C = \frac{\sqrt{3}}{l}.$	

Berilgan boshlang‘ich montaj gorizontida yaratilgan to‘r har qaysi kelgusidagi montaj gorizontida takrorlanadi, keyin berilgan boshlang‘ich gorizontdan ushbu gorizontga ko‘chiriladi (9-rasm).



9-rasm

Bundan keyin to‘rni teskari tomonga burilishi va uning og‘irlik markazini to‘rga nisbatan berilgan boshlag‘ich montaj gorizontiga siljishi hisoblanadi. Agar bu qiymatlar sezilarli bo‘lsa (o‘lchash xatolaridan oshganida), ushbu montaj gorizontidagi nuqtalarning koordinatalariga mos keluvchi reduksiya elementlarini kiritish kerak bo‘ladi.

$$\frac{1}{f}v_{l1}+\frac{1}{f}v_{l2}+\frac{1}{l}v_{f1}+\frac{1}{l}v_{f2}-\frac{d}{fl}v_{d1}-\frac{d}{fl}v_{d2}+\frac{\omega}{\rho}=0 \qquad (16)$$

bu yerda f,d,l - ikkita mos keluvchi o‘lchashlardan, 0,001 gacha yaxlitlangan, o‘rtacha qiymatlar.

Bog‘lanmaslikni sekundning bir ulushigacha yaxlitlaymiz. O‘lchashlarni teng aniqlikli hisoblaymiz.

Og‘irlik markazi to‘rtta koordinatadan o‘rtacha arifmetikdek hisoblanadi. So‘ngra shaklning koordinatalarini og‘irlik markazi koordinatasidan og‘ishlarini hisoblaymiz: $\delta_X = X_i - X_0;\quad \delta_Y = Y_i - Y_0.$

$$\delta_{X'} = Xij - Xi^{ber}$$

$$\delta_{Y'} = Yij - Yi^{ber}$$

$$\omega_{qo'sh} = 3m = 3m_s\sqrt{\sum R^2}\cdot\rho \qquad (17)$$

bu yerda $\sqrt{\sum R^2}$ - shartli tenglama koeffitsientlarining yig‘indisi.

Berilgan boshlang‘ich direksion burchakni teskari tomonga burish formulasi:

$$\delta_\alpha = \frac{\sum(\delta_X\delta_{X'} - Y_0\delta_{Xi'})}{\sum\delta x_i^2+\delta y_i^2)}\rho;\quad \alpha_{ber} = \alpha_{teng} + \delta_\alpha. \qquad (18)$$

Reduksiya elementlari:

$\delta_{Xi''} = X_i^{\alpha\ uchun\ tuz} - X_i^{ber\ mon\ gor}$, Y uchun ham o‘xshash.

O‘rtacha siljish reduksiya elementlari yig‘indisidan o‘rtacha arifmetikdek hisoblanadi

$$m_X = X^{OK} - X_i^{ber}. \qquad (19)$$

Aniqlikni baholash:

$$m_Y = Y^{OK} - Y_i^{ber}. \qquad (20)$$

$M = \sqrt{\frac{\sum m_X^2}{(2n-4)}}$ - xatolarning o‘rtacha qiymati,

n - o‘lchangan tomonlar soni.

Adabiyotlar:

1.Қурилиш учун муҳандислик-геодезик қидирувлар. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi.https://mc.uz › uploads › mcuz_38201731707277 PDF. (Геодезия ва картография тўғрисида-Ўзбекистон Республикаси қонуни 25.04 ... ШНК 1.02.21-09 «Составление и размножение топографических карт и планов для ... 290 страниц.

2.ҚУРИЛИШДА ГЕОДЕЗИЯ ИШЛАРИ. ШНҚ 3.01.03-19. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi.https://mc.uz › uploads › mcuz 1926311897492 PDF. ШНК 3. 01. 03- 09 «Геодезические работы в строительстве»; ШНК

1.03.01-03 «Состав, порядок разработки, согласования и утверждения проектной документации на ...288 страниц.

3. Жуков Б.Н. Руководство по геодезическому контролю сооружений и оборудования промышленных предприятий при их эксплуатации. – Новосибирск: СГГА, 2004. – 376 с.

4. Инженерная геодезия. Геодезические разбивочные работы /Учеб. пособие/ Е.Б. Михаленко, Н.Д. Беляев, В.В. Вилькевич, Н.Н. Загрядская, А.А. Смирнов. СПб.: Изд-во СПбГПУ, 2004. 52 с.

5. Aylmer Johnson, Plane and geodetic surveying.,CRC Press, 2014.

GEODEZIK ISHLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLANILISH JARAYONLARI

Artikov G‘ulom Abduraxmonovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti,
“Geomatika muhandisligi” kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Nishanov Azamat Xakimovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, (PhD) doktoranti,
Yoqubov Azamat Komil o‘g‘li

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti,
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada GLONASS va GPS tizimlaridagi yo'ldoshli geodezik priyomniklar, elektron taxeometrlar, lazerli skanerlash tizimlari, raqamli aerofotoplan olish to'plamlari, elektron teodolitlar, lazerli dalnomerlar, elektron (raqamli) nivelirlar va yerosti kommunikatsiyalarini qidirish va planga olish asboblarini qo'llab, geodezik ishlarni bajarishdagi avtomatlashtirish jarayonlari batafsil yoritib berilgan.

Аннотация: В статье подробно описаны процессы автоматизации геодезических работ с использованием спутниковых геодезических приемников ГЛОНАСС и GPS, электронных тахеометров, систем лазерного сканирования, цифровых аэрофотосъемочных комплексов, электронных теодолитов, лазерных дальномеров, электронных (цифровых) нивелиров и инструменты поиска и планирования подземных коммуникаций.

Annotation: The article describes in detail the processes of automation of geodetic work using GLONASS and GPS satellite geodetic receivers, electronic total stations, laser scanning systems, digital aerial photography systems, electronic theodolites, laser rangefinders, electronic (digital) levels and tools for searching and planning underground communications.

Kalit so'zlar: Geografik axborot tizimlari (GAT), MON MOS universal o'lchash tizimlari, elektron planlar, GLONASS va GPS tizimlaridagi yo'ldoshli geodezik priyomniklar, elektron taxeometrlar, lazerli skanerlash tizimlari, raqamli aerofotoplan olish to'plamlari, elektron teodolitlar, lazerli dalnomerlar, elektron (raqamli) nivelirlar, yerosti kommunikatsiyalarini qidirish va planga olish asboblari.

Ключевые слова: Географические информационные системы (ГИС), универсальные измерительные системы MON MOS, электронные планы, спутниковые геодезические приемники в системах ГЛОНАСС и GPS, электронные тахеометры, системы лазерного сканирования, комплекты для получения цифровых аэрофотопланов, электронные теодолиты, лазерные дальномеры, электронные (цифровые) нивелиры, инструменты поиска и планирования подземных коммуникаций.

Keywords: Geographical information systems (GIS), universal measuring systems MON MOS, electronic plans, satellite geodetic receivers in GLONASS and GPS systems, electronic total stations, laser scanning systems, kits for obtaining digital aerial photographs, electronic theodolites, laser range finders, electronic (digital) levels, tools for searching and planning underground communications.

Geodezik ishlarni bajarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llanilish jarayonlari shakllandi va avtomatlashtirish asosida geodezik ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida rivojlanib bormoqda. Bularga misol sifatida dala o'lchashlari va topografik plan olishlarni, o'lchash natijalarini matematik qayta ishlashni, plan va kartalarni tuzishni, geografik axborot tizimlari (GAT) bazasini yaratishni, amaliy geodezik ma'lumotlarni olishni va boshqalarni keltirish mumkin.

Geodezik ishlarni avtomatlashtirilishining zamonaviy darajasi elektron taxeometrlar va yo'ldoshli texnologiyalar, raqamli aeroplan olish to'plamlari, dala noutbuk kompyuterlari, dasturiy ta'minotning ko'p funksiyali paketlarini keng tarqalishi bilan tavsiflanadi. Elektron geodezik asboblarning yangi turlari ishlab chiqilmoqda. Lazerli nur qaytargichsiz dalnomerlarni paydo bo'lishi, plan olish ishlarida geodezik lazerli skanerlash tizimini seriyali ishlab chiqarish va qo'llanilishiga imkoniyat yaratdi, yuqori aniqlikdagi amaliy o'lchashlarni olib borishda esa – MON MOS universal o'lchash tizimlaridan foydalanilmoqda [2].

Geodezik ishlarni avtomatlashtirilish jarayonlari uzluksiz bo'lib qoldi. Elektron asboblar bilan o'lchangan natijalar avtomatik ravishda qayd qilinadi, ularning fayllari shaxsiy kompyuterga uzatiladi, mos keluvchi dasturiy to'plamda qayta ishlanadi va axborot tizimiga jo'natiladi, masalan, GAT ga, ular bo'yicha obyektlarning raqamli modellari, elektron topografik plan va kartalar shakllantiriladi.

Qog'ozli plan va kartalardan, elektronli ko'rinishga o'tilishi, geodeziyada an'anaviy kameral ishlarni vektorlashtirilgan avtomatlashgan texnologiyalariga va topografik ma'lumotlarni raqamlashtirishga to'lig'icha almashtirdi. Elektron planlar asosida kadastr, shahar qurilishi va boshqa ma'lumotlar qatlamlari shakllantirilmoqda. Juda kuchli arsenalga ega bo'lgan dasturiy vosita ishlab chiqilgan, u doimo kengaymoqda va modernizatsiya qilinmoqda. U barcha ko'rinishdagi kameral ishlarni avtomatlashtirilishini ta'minlamoqda.

Hozirgi vaqtda, ko'plab geodezik asboblar ishlab chiqaruvchi firma va kompaniyalar, bir tizimda barcha turdagi geodezik ishlarni, har qanday obyektda, amaliy jihatdan operativ olib borish imkonini beruvchi, elektron geodezik asboblar va universal dasturiy paketlarni ishlab chiqarmoqdalar. Bunday tizimlar o'lchashlarni avtomatlashtirilgan vositalarini, berilgan ma'lumotlar bazasini qayta ishlashlarni va shakllantirishni unifikatsiyalanishi bilan tavsiflanadi.

Ammo, geodezik avtomatlashtirilgan texnologiyaning zamonaviy holatiga erishishga, asosiy impuls bo'lib, elektron taxeometrlarni va geodezik yo'ldoshli priyomniklarning birgalikdagi qo'llanilishi bo'ldi. Geodezik ishlarni bajarishda ularning ichidan Ural optik-mexanik zavodi, Trimble, Sokkia, Leica, Thales, Nikon, Pentax va boshqa kompaniyalarning mahsulotlari eng ko'p tarqalishlar oldi. Yuqori aniqlik, ishonchlilik, elektron geodezik vositaning oddiy ekspluatatsiyasi, zamonaviy geodezik texnologiyani kelgusida tezlik bilan rivojlanishiga imkon beradi.

Hozir barcha turdagi geodezik ishlar amaliy jihatdan elektron asboblar bilan olib borilmoqda. Ularning paydo bo‘lishi bilan geodezistning ishi turli yo‘nalishlardagi: kadastr va ko‘chmas mulk obyektlarini baholash, qidiruvlar, loyihalash, qurilish, qurilgan territoriyalarni ekspluatatsiyasi va boshqa muhandislik faoliyati fazoviy ma’lumotlari bilan ta’minlash darajasiga o‘tdi. Shuningdek, geodezik yo‘ldoshli priyomniklar geodezik, marksheyderlik va qo‘shni to‘rlarni qurishda an’anaviy usullarni (triangulyasiya, trilateratsiya, poligonometriya) to‘lig‘icha almashtirgan. Elektron taxeometrlar o‘zida an’anaviy chiziqli o‘lchash vositalarini, optik teodolitlar va nivelirlarni, shuning bilan biraglikda, dala ishlarini olib borish texnologiyasi va usulini boyitib almashtirdi.

Geodezik dala o‘lchashlari va plan olishlarni avtomatlashtirish uchun, asosan, quyidagi geodezik asboblar qo‘llaniladi:

- GLONASS va GPS tizimlaridagi yo‘ldoshli geodezik priyomniklar;
- elektron taxeometrlar;
- lazerli skanerlash tizimlari;
- raqamli aerofotoplan olish to‘plamlari;
- elektron teodolitlar;
- lazerli dalnomerlar, shu jumladan, nur qaytargichlarsiz;
- elektron (raqamli) nivelirlar;
- yerosti kommunikatsiyalarini qidirish va planga olish asboblari.

Yo‘ldoshli geodezik priyomniklar, navigatsiya yo‘ldoshlaridan radionavigatsiya xabarlarini qabul qilishiga ko‘ra, joydagi nuqtalarning koordinatalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ularning paydo bo‘lishi bilan mavjud tayanch geodezik to‘rlarni zichlashtirish va yangilarini qurishdagi geodezik dala ishlari to‘plamlari to‘lig‘icha avtomatlashtirildi [1,3,4].

Elektron taxeometrlar tayanch geodezik to‘rlarni zichlashtirish, plan olish asoslari to‘rlarini qurish, taxeometrik plan olish, yer o‘lchash ishlari, qurilishlarni inventarizatsiyasi hamda amaliy geodezik ishlar uchun qo‘llaniladi [5].

Lazerli skanerlash tizimlari katta hajmdagi nuqtalarni planga olish jarayonida avtomatlashtirildi hamda binoning murakkab fasadlarini, arxitektura va arxeologiya yodgorliklarini, qurilish qurilmalarining holatlarini batafsil aks ettirishda foydalaniladi [2].

Paqamli aerofotoplan olish to‘plamlari, uchish apparatlaridan, joyning raqamli planini olish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda fotoximik jarayonlar va fotomateriallardan foydalanish istisno qilinadi. Suratga olinadigan ma’lumotlar qayd qilinadi va yuqori tezlikdagi interfeyslar orqali navbatdagi qayta ishlash hamda saqlash uchun avtomatlashtirilgan ishchi joylarga uzatiladi. Bir vaqtning o‘zida panxromatik, ko‘p spektralli plan olish bo‘lishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimda suratga olingan ma’lumotlar asosida turli territoriyalar va obyektlarning elektron topografik, mavzuli plan va kartalari olinadi.

Elektron teodolitlarda, gorizontal va vertikal doiralardan sanoq olishlar avtomatlashtirilgan bo‘lib, burchak o‘lchash natijalarini qayd qiladi. Ular optik teodolitlarning o‘rniga qo‘llaniladi.

Lazerli dalnomerlarda chiziqli o‘lchashlar avtomatlashtirilgan. Katta masofalarni o‘lchashda nur qaytargich tizimlaridan foydalaniladi, kichik masofalarda esa o‘lchash nur qaytargichlarsiz rejimida bajariladi.

Elektron (raqamli) nivelirlar nisbiy balandliklarni o‘lchashda raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Ular, RAB-kodga ega, maxsus reykalardan sanoqlarni avtomatik ravishda oladi, ularni xotirasiga qayd qiladi, dala qayta ishlashlarini olib boradi. Yuqori aniq, aniq va texnik raqamli nivelirlar, invar, fiberglass, yog‘och va kodli alyumin reykalar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, qurilish va montaj ishlarida, ko‘rinadigan nurlar yordamida gorizontal, vertikal va qiya tekisliklar va yo‘nalishlarni qurishni ta’minlovchi, lazerli nivelirlar keng tarqalish oldi.

Yerosti kommunikatsiyalarini qidirish va planga olish asboblari elektromagnit maydonni aniqlash imkoniyatiga ega, ular quvur o‘tkazgichlarga yoki mavjud quvvat kabellari atrofiga maxsus trassa qidiruvchi generator bilan beriladi. Bunday asboblar to‘plami generator, antenna va priyomniklarni o‘z ichiga oladi. Yerosti trassasining holati yetarlicha aniq va birdaniga aniqlanadi. Priyomnikning ekranida, yotish chuqurligi va kommunikatsiyadan kelayotgan, elektromagnit maydonning kuchi aks etadi.

Avtomatlashtirish hisobiga, elektron asboblar bilan, geodezik dala o‘lchashlari sekundlar va ularning ulushlarida bajariladi. Shuningdek, Sokkia taxeometrlarida RED-tech chiziqli o‘lchashlar avtomatlashgan texnologiyasi qo‘llanilgan, burchak o‘lchashlar datchiklari tizimi va RAB-kodlar, displeyga natijalarni lahza (0,5 s) da namoyon qiladi. Xatto asbobni o‘rnatish uchun vaqtni hisobga olganda, uni markazlashtirish, nuqtaga yo‘naltirish va stansiyadagi ishlar bir necha minut oralig‘ida bajariladi.

Elektron asboblarni ishlashini boshqarish minimal jarayonlargacha keltirilgan. Ular ekspluatatsiyada oddiy, funksional va jarayon klavishlari, suyuqkristall grafik displey, teodolitlarga o‘xshash, qotiruvchi va yo‘naltiruvchi vintlarga ega. Taxeometrlarda, burchaklarni va masofalarni o‘lchash, avtomatik ravishda amalga oshiriladi, geodezik yo‘ldoshli priyomniklarda esa, radionavigatsion xabar, avtomatik ravishda qabul qilinadi. Asboblarni boshqarish, tashqi simsiz klaviatura bilan masofadan olib borilishi ham mumkin, bu havfli va tor sharoitlarda sifatli o‘lchashlarni olib borishga imkon yaratadi.

Geodezik elektron asboblar o‘rnatilgan dasturiy ta’minotga ega, undan foydalanib, limblar va nivelir reykalaridan sanoqlarni avtomatik ravishda olishlar hamda yo‘ldoshlardan qabul qilingan radinavigatsion xabarlar, dastlabki qayta ishlanadi. Bundan tashqari, o‘rnatilgan dasturiy ta’minot haqiqiy vaqt rejimida, bevosita stansiyada, bir qator masalalarni tezlik bilan yechish imkoniga ega. Geodezik asboblarning an’anaviy maqsadli ishlashlari e’tiborga olinib, elektron asboblar yangi funksiyalar va ish rejimlari bilan sezilarli darajada boyitildi.

O‘lchash natijalari qayd qilinadi va ishchi fayllarga yoziladi. Geodezik asboblar ichki va tashqi xotiraga ega, ularning hajmi katta sonli o‘lchash (10000 nuqta va undan ko‘p) larni olib borish uchun yetarli. Dala jurnali asbobga o‘rnatilgan va elektronli bo‘ldi. Asbob xotirasidan tashqari kontrollerning xotirasi ham ishlatilishi mumkin. Kontroller asbobga elektron dala jurnali va noutbuk kompyuter bilan qo‘shimcha hisoblanadi.

Asbobning fayli yoki kontrollerga yozilgan, o‘lchash natijalari, kompyuterga navbatdagi qayta ishlashlar uchun uzatiladi. Dasturiy ta’minotning mavjudligi, geodezik o‘lchashlar va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, yuqorida aytib o‘tilganidek, uzluksiz bo‘lib qoldi.

Elektron asboblar bilan o‘lchashlarni bitta operator, ayniqsa, nur qaytargichsiz dalnomerlar va yo‘ldoshli geodezik priyomniklar qo‘llanilganida, bajarishi mumkin. Oldinlari borib bo‘lmas va obyektlarning xavfli uchastkalarini aniq distansion o‘lchashlarini olib borish, binolarning o‘lchamlarini distansion bajarish, qurilmalarning fazoviy holatini va ularning deformatsiyalarini planga olish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

Avtomatlashtirishning uzluksiz jarayoni o‘lchash va qayta ishlashlardagi qo‘pol xatolarni bartaraf etadi, chunki asboblarda limbdan yoki reykalardan sanoq olish operatorning ishtirokisiz o‘tadi. O‘lchash natijalarini xotiraga yozish va fayllarni shaxsiy kompyuterga uzatishning avtomatlashtirilganligi esa - jurnalga qo‘lda yozish, klaviaturadan ma’lumotlarni kiritish va hisoblashlardagi xatolarni yo‘qotadi. Bundan tashqari, elektron asboblar, o‘lchash natijalarining o‘zini aniqligini oshiruvchi, bir qator tizimli tuzatmalarni avtomatik ravishda hisobga oladi.

So‘nggi yillarda yangi elektron geodezik asboblar – lazerli skanerlash tizimlari paydo bo‘ldi, ular murakkab obyektlarning planlarini olishda juda istiqbolli bo‘lib bormoqda. Ular shtativga taxeometrga o‘xshash yoki uchuvchi apparatlarga fotokameraga o‘xshash o‘rnatiladi. Geodezik skanerlash tizimlari binolar, arxitektura yodgorliklari, binolarning fasadi, qurilish qurilmalarining fazoviy holati, mashina va uskunalarning tugunlarini aniq planlarini olish uchun qo‘llaniladi.

Lazerli skanerlarda impuls turidagi nur qaytargichsiz lazerli dalnomer va skanerlash matritsasi ishlatiladi. O‘lchashlar yuqori tezlik bilan (1000 dan 10000 gacha o‘lchashlar sekundiga) uch o‘lchamli fazoda olib boriladi. Skanerlash nurining gorizontal va vertikal harakatini ta’minlovchi, dalnomerning impulslari ikkita harakatlanuvchi ko‘zgu tizimidan o‘tadi. Ko‘zgularning harakatlanishi va aylanishi an’anaviy servomotorlar bilan amalga oshiriladi, ular iste’mol manbalaridan energiyani boshqarish signali qabul qilinishi bilan mos ravishda ko‘zgularning mexanik harakatiga o‘zgartiradi. Bunda ko‘zgularning teskari tomonga burilishi va nur qaytargichsiz dalnomer bilan o‘lchangan masofa skanerlash nuqtasiga qayd qilinadi, ular bo‘yicha X,Y,Z koordinatalar hisoblanadi. Koordinatalarni aniqlash aniqligi, 50 m gacha (Leica HDS 3000) masofalarga ±6 mm ni tashkil qiladi. Geodezik skanerni ishlashini boshqarish noutbuk kompyuterda amalga oshiriladi. Asbob stansiyasining har qaysisidan skanerlash gorizontal tekislikda 360°, vertikal tekislikda esa 270° gacha olib borilishi mumkin. Plan olish natijasida obyektning barcha skanerlangan nuqtalarining fazoviy koordinatalari aniqlanadi, ularning jamlanmasi nuqtalar bulutini hosil qiladi.

Bir necha stansiyalardan skanerlash natijalarini “tikish” uchun, obyektlarda o‘rnatilgan va barcha stansiyalardan skanerlangan, stansiyalar koordinatalarini va tayanch nishonlarni geodezik usullar bilan aniqlash olib boriladi. Bu barcha stansiyalarning natijalarini birgalikdagi qayta ishlashlarini olib borish va bitta geodezik koordinata tizimida nuqta bulutlarining yagona tasvirini olish imkonini beradi.

Koordinatali nuqta bulutlari, nafaqat, obyektlarning tasvirini ifodalaydi, balki uning fazoviy ma’lumotlarini: egilishlar, qiyaliklar, qurilmalardagi nuqsonlar va arxitektura elementlarining buzilishlarini ham o‘z ichiga oladi. Skanerlangan yuzalar bo‘yicha har xil kesimlarni qurish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, geodezik ishlarni olib borishni avtomatlashtirilishi, bevosita ishlab chiqarilayotgan zamonaviy geodezik asbob-uskunalarga bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim. Bu sohadagi ishlar to‘xtab qolgani yo‘q, zamonaviy geodezik asbob-uskunalarning yangi avlodlari va turlari yaratilmoqda. Bular kelajakda, geodezik ishlarni avtomatlashtirish jarayonini, yanada tezlashtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Антонович, К.М. Совместное использование метеоданных наземных и аэрологических наблюдений при обработке спутниковых измерений [Текст] / К.М. Антонович, Е.К. Фролова // Вестник СГГА, вып. 8. – Новосибирск: СГГА, 2003. – С. 8 –13.

2.А.П.Ворошилов. Спутниковые системы и электронные тахеометры в обеспечении строительных работ. Учебное пособие. Челябинск. АКСВЕЛЛ. 2007.

3.Генике, А.А. Глобальная спутниковая система определения местоположения GPS и ее применения в геодезии [Текст] / А.А. Генике, Г.Г.Побединский. – М.: Картоцентр: Геоиздат, 1999. – 272 с.

4. Artikov G‘. A. Kosmik geodeziya va global navigatsiya sun’iy yo‘ldoshlar tizimi [Darslik]. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2021.

5.In.Z;gu, Y., Qiao, S. Geodesy: Introduction to Geodetic Datum and Geodetic Systems., "Spriger".2014.

ASFALTBETON QOPLAMALARIDA VUJIDGA KELADIGAN DEFORMATSIYA VA BUZILISH-LAR ULARNING TAXLILI

Urokov Aslidin Xushvaktovich
Toshkent davlat transport universiteti professori
Ashurov Elyor To‘lqinovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistant
Umid Bekmurodovich Bekmurodov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistant

Annotatsiya

Mamlakatimizda dinamik xususiyatlariga ega og‘ir transport vositalari oqimining ko‘payganligi va yuqori xajimli xorij avtomobillari ortib borayapganligi sababli janubiy hududdan o‘tgan xalqaro ahamiyatidagi M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo‘lining 1330-1451 km qismining hozirgi holatidagi taxlilar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘l qoplamasiga og‘ir yuk transport vositalaridan tushadigan dinamik yuklamalar ta’sirida bo‘ylama noravonliklar, deformatsiya, buzilishlar, rivojlanib qoplamaning yuk ko‘tarish qobiliyatidagi va hizmat qilish muddati kamayib bir qator tizimli muammo va kamchiliklar yuzaga kelmoqda.

Kalit so‘zlar

Og‘ir yuk, asfaltbeton qoplama, transport, siljish, g‘ildirak izi, deformatsiyalar, nuqson.

Annotatsiya

1330-1451 км автодороги М-39 “Алматы-Бишкек-Ташкент-Шахрисабз-Термиз” международного значения прошли по южному региону в связи с увеличением потока большегрузных автомобилей с динамическими характеристиками в нашей стране и увеличением количества крупнообъемные иномарки Анализ современного состояния участка показывает, что под воздействием динамических нагрузок от большегрузных автомобилей на этом дорожном покрытии возникают продольные напряжения, деформации, перекосы, развивается ряд конструктивных проблем в нагрузке. несущая способность поверхности и снижение срока ее службы, а также возникают недостатки.

Ключевые слова

Тяжелая нагрузка, асфальтобетонное покрытие, транспорт, смещение, колея, деформация, дефект.

Abstract

1330-1451 km of the M-39 “Almaty-Bishkek-Tashkent-Shahrisabz-Termiz” highway of international importance passed through the southern region due to the increase in the flow of heavy vehicles with dynamic characteristics in our country and the increasing number of high-capacity foreign cars. The analysis of the current state of the section shows that under the influence of dynamic loads from heavy-duty vehicles on this road surface, longitudinal stress, deformation, distortions, developing a number of structural problems in the load-carrying capacity of the surface and reducing its service life, and deficiencies are occurring.

Key words


Heavy load, asphalt concrete pavement, transport, displacement, wheel track, deformation, defect

Avtomobil yo‘llari qoplamalari keyingi yillarda jadal deformatsiyalanishi va buzilishining sabablardan biri – ularning ishlash sharoitlari o‘zgarishidir. Transport oqimi miqdor va sifat jihatdan o‘zgardi, harakat jadalligi, yuk transport vositalarining o‘qiga tushadigan yuklama, hisobiy xarakat tezligi, yengil va yuk avtomobillarining dinamik imkoniyatlari oshdi.

Mamlakatimizda dinamik xususiyatlariga ega transport vositalari oqimining ko‘payganligi va yuqori xajimli xorij avtomobillari ortib bormoqda. Bu avtomobillarda o‘qqa tushadigan yuklama meyoridan katta bo‘lib 13 tonnagacha yetadi. Asfaltbeton qoplamalarga og‘ir yuk transport vositalaridan tushadigan zo‘riqishlar ruxsat etilgan meyorlardan ortib ketganligi va tabiiy iqlim omillardan vujidga keladigan nuqsonlar natijasida qoplamada deformatsiya va buzilishlar rivojlana boshlaydi.[1]

Ayniqsa, o‘g‘ir yuk transport vositalaridan tushadigan takroriy yuklamalar harorat oshganda ta’siri yana ham ortib ketadi. Natijada yo‘lda ko‘plab yoriq va deformatsiyalar hosil bo‘ladi. So‘nggi vaqtlarda yo‘l qoplamalarida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra yo‘l qoplamasining buzilishining sababi takroriy ta’sir etuvchi harakatlar ekanligini tasdiqladi.

Asfaltbeton qoplamasida dinamik yuklamalar natijasida ikki xil kuchlanish paydo bo‘lishi aniqlandi: vertikal va gorizontal. Bunda oddiy (vertikal) F_n va siljish (gorizontal) F_t kuchlari avtomobil g‘ildiragi tomonidagi qoplamaga ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. F_t kuch - avtomobil tormozlanganda yoki dvigateldan moment ta’sirida qo‘zg‘alayotganda g‘ildiragining chetida paydo bo‘ladi.



1-rasm. Avtomobil g‘ildiragi tomonidan normal Fn va Ft siljish kuchlari ta’siri ostidagi yo‘l sirtining deformatsion holati: a) ko‘ndalang to‘lqin hosil bo‘lishi -tormozlash joylarida; b) bo‘ylama iz hosil bo‘lishi c) g‘ildirak ostidagi qoplamaning bo‘ylama siljishi.

Yo‘l qoplamasi orqali transport vositalarining g‘ildiraklari bilan pastki qatlamga uzatiladigan statik va dinamik vertikal va tegensial kuchlar uning asosida zo‘riqish va deformatsiyalarni keltirib chiqaradi

Yilning issiq vaqtlarida qoplama harorati ancha ko‘tarilib asfaltbeton yumshab qoladi va transport vositalari ta’sir etganidan qoldiq deformatsiyalar to‘planib qoladi. Qoplama yuzasida ishlash jarayonida turli xil deformatsiyalar, jumladan g‘ildirak izi deformatsiyasi hosil bo‘ladi. [3]

Avtomobil yo‘llarida g‘ildirak izi deformatsiyasining hosil bo‘lishiga ikkita asosiy omillar ta’sir qiladi.

- Ob-havo va iqlim sharoitining ta’siri;
- Og‘ir transportlardan bir o‘qqa tushadigan yuklarning ta’siri;

G‘ildirak izining paydo bo‘lishiga iqlim omillarining ta’siri. Havo haroratining g‘ildirak izining paydo bo‘lishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. G‘ildirak izi deformatsiyasining chuqirligi havo harorati va og‘ir yuk avtomobillarining bir izdan o‘tishlar soniga bog‘liqligi quyidagi matematik model bilan ifodalanadi.

$$h_k = a * N^b * T^Q$$


Bu yerda:

N- og‘ir yuk avtomobillarning o‘tishlari soni. avto/sutka

T–asfaltbeton qoplama harorati. C°


b–yuklanishning kuchayish koeffitsenti .

a va Q–Asfaltbeton qoplama shaklining bog‘liqlik koeffisenti.



2–rasm. G‘ildirak izi deformatsiyasining asosiy parametrlari: 1, 2–qurilishdan so‘ng va mos ravishda g‘ildirak izi shakllangandan keyin qoplama yuzasi liniyasi. 3–g‘ildirak izini o‘lchash reykasi.

Shuningdek, asfaltbetondagi organik bog‘lovchi va mineral to‘ldirgichlarning chiziqli harorat kengayish koeffitsienti qoplamani buzilishiga olib keluvchi omil hisoblanadi. Asfaltobeton qoplamaning xizmat muddati uncha uzoq emas, deformatsiyaga moyilligi yuqori. [2]



3– rasm: M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1330-1451 kmlarda sutkalik harakat jadalligi dona/sut


Asfaltbeton qoplamaning xizmat muddati harakat jadaligi 1000 avt/sutka bo‘lganda 20 yilga yetadi, harakat jadaligi 10000 avt/sutkadan oshsa 3-4 yilga umri qisqaradi.

Respublikaning janubidagi Surxondaryo viloyatidan o‘tadigan xalqaro ahamiyatdagi “M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1330-1451km (121 km) bo‘lagini rekonstruktsiya qilish loyihasi xalqaro sarmoyalar hisobidan bajarildi. Hozirgi kunda ushbu yo‘l bo‘lagidan o‘tadigan transport oqimi tarkibida yuqori dinamik xususiyatlarga ega bo‘lgan xorijiy rusumdagi avtomobillarni harakat jadalligi ortib bormoqda. Ushbu hududlarda Sherabodsement zavodi hamda Sherabod qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi karerlar joylashgan bo‘lib, ularda tashilayotgan yuk miqdorlarining belgilangan o‘qqa tushadigan yuklama me’yoridan yuqori ekanligi aniqlandi.



3– rasm: M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1398-1420 kmlarda qoplama g‘ildirak izi va siljish deformatsiyalar

Bugungi kunda og‘ir yuk avtomobillarini ko‘payib ketishi me’yordan ortiq yuk ortishi oqibatida qoplamaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Yo‘l qoplamalarida g‘ildirak izini paydo bo‘lishi hamda ko‘prik qoplamalarini siljishi ortidan foydalanishga topshirilmasdan (qoplama yot-qizilganiga 4 yil bo‘lgan), bugungi kunga kelib yo‘l bo‘lagi qoplamasi qayta ta’mirlanmoqda.



4–rasm: Qoplamada g‘ildirak izi chuqurligi paydo bo‘lishiga iqlim omillarining ta’siri

Ushbu buzulishlar sababini tadqiq qilish maqsadida «Sherabod yo‘llardan foidalanish» unitar korxonasi mutaxassislari 2023-2024 yil sentabr oyigacha xalqaro ahamiyatga molik M39 «Almati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz» avtomobil yo‘lining 1402 kilometrida “Sherabod-Termiz” yo‘nalishida og‘ir yuk transport vositalarining vazn va hajm o‘lchamlarini nazorat qilish bo‘yicha TENZO mobil tarozi ishga tushirildi.


Ushbu mobil tarozida og‘ir yuk transport vositalari nazorat qilinganda ortiqcha vazn yuk bilan harakatlanayotgan transport vositalari aniqlandi.




5– rasm: M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo'lining 1402 kmda og‘ir yuk transport vositalarining vaznini TENZO mobil tarozida o‘lchov ishlari.

Surxondaryo viloyatidan o‘tgan M39 «Almati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz» avtomobil yo‘lining Boysun tumanida joylashgan “Darband” YPX makani hamda Sherobod tumaning 1402 kilometlarida joylashgan og‘ir vazinli transport vositalarini nazorat qilish punkitlarida joylashtirilgan mobil tarozi yordamida qoida buzarliklar vujudga kelmoqda.

Yuk tashishdan keng foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, ulardan biri transport vositasining ruxsat etilgan og‘irligi va o‘lchamlaridan oshib ketishi. Ruxsat etilgan maksimal og‘irliklarning buzilishi - bu haqiqiy massaning ortiqligi yoki ruxsat etilgan o‘qqa tushadigan yukidir. Yuk tashuvchi tomonidan ruxsat etilgan ko‘rsatkichlarga rioya qilmaslik yo‘l qoplamasida qoldiq deformatsiyalar paydo bo‘lishiga, bu esa qoplamani buzilishiga olib keladi va yo‘l harakati qatnashchilari uchun xavf tug‘diradi. [7]



6-rasm. Nazorat punktida aniqlangan qoidabuzarlar soni



7-rasm. Nazorat punktida aniqlangan qoidabuzarlar transport vositasining o'qlar soni kesimida

Xulosa Og'ir yuklarning ta'siri ostida yo'l mukammal ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilishdan oldin belgilangan xizmat muddatdan ancha tezroq sifati pasayadi va shu bilan mamlakat transport kompleksiga katta zarar etkaziladi.

M-39 "Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining 1402 kmda og'ir yuk transport vositalarining vaznini Sherabod tumanida joylashgan mobil TENZO nazorat tarozisidan 2023 yil oktabr oyidan 2024 yil mart oyiga qadar umumiy nazoratdan o'tgan og'ir transport vositasining soni 458 ta bo'lib, meyyordan ortiq yuklangan transport vositalari 124 dona (27 %) ni tashkil etdi.

Natijalari shuni ko'rsatadiki xalqaro karidor tarmoqlarini holatini yaxshi saqlash muhimdir, keltirilgan "O'g'ir transport vositalarining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilish" punktlari faoliyati va nazoratini ko'proq yo'lga qo'yilsa, xalqaro yo'llar tarmog'i holatini saqlab qolgan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. A.X.O'roqov Avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash texnologiyalari. Darslik T.-TAYLQEI. – 2019.
2. O'roqov A.X., Narmanov A.Q. Egrashev Q.X. "Asfaltbeton qoplamalaridagi g'ildirak izi deformatsiyalarining hosil bo'lishiga og'ir transport vositalaridan tushadigan kuchlarning ta'siri". Transport sohasidagi xalqaro mutaxassislarni tayyorlash. 926- 929 b T: 22.04.2022 y.
3. ShNQ 2.05.02-07 Avtomobil yo'llari. "Davapxitektqurilish", Toshkent sh., 2008 y. 89 b.
4. I.S.Sodiqov, F.B.Ashurov, "O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llarida transport vositalarining vazn o'lchamlarini nazorat qilish natijalari tahlili", Toshkent 2021 y;
5. I.S. Sodiqov "Avtomobil yo'llarining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlari" Darslik/ Toshkent-TAYLQEI. – 2019.
6. MKN 52-2008 Nobikr yo'l to'shamalari mustahkamligini baholash va uni kuchaytirishni hisoblash bo'yicha ko'rsatmalar.
7. Katta hajimli va og'ir vazinli yuklarni avtomobil transportida tashish xarakat havfsizligini ta'minlash Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.12.2011 yildagi 342-son qarori.

UDK 69.059.22

TEXNOGEN TA'SIRLAR NATIJASIDA BINOLAR KONSTRUKSIYALARIDA VUJUDGA KELADIGAN SHIKASTLANISHLAR TAHLILI

Asmanova Chimnaz Arzikulovna[1] – tayanch doktorant.
Ibragimov Xasan Murtazovich[1] – katta o'qituvchi;
Usmanov Valiaxmat Fayzillayevich[1,2] –t.f.d., professor;
[1]Mirzo Ulugbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti;
[2]MCHJ «SVP MASKAN»

Annotatsiya. Maqolada hozirgi vaqtda texnogen ta'sirlardan avariya holatiga olib kelgan omillardan biri, gaz portlashi natijasida ko'p qavatli yirik panelli bino konstruksiyalarining texnik holati o'rganilgan va bino konstruktiv yechimining zaif holatlari tahlil qilingan.

Binolarni ko'chkisimon buzilish holatlariga olib keladigan texnogen omillar va ko'chkisimon buzilishning oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bino, qurilish, konstruksiya, texnogen, portlash, nuqson, shikastlanishlar, umrboqiylik, ko'chkisimon buzilish.

1. Kirish. Bino va inshootning ko'chkisimon buzilishiga qarshiligini taminlash nuqtai nazaridan muhim xususiyati uning "umrboqiyligi" hisoblanadi. "Umrboqiylik" - bu binoning (inshootning) alohida kon-

struktiv elementlari ishdan chiqqan taqdirda ham o‘zining funksional vazifasini (ishlash qobiliyatini) qisman yoki to‘liq ta’minlashdan iborat. Bunda vujudga keladigan nuqsonlar va shikastlanishlar tufayli jiddiy nosozliklarning rivojlanishiga qarshilik ko‘rsatishi, hamda ba’zi konstruktiv qismlar ishdan chiqqanda ham cheklangan ishlash qobiliyatini saqlab qolish xususiyati muhim hisoblanadi [1].

Bino va inshootlarning xavfsizligini ta’minlash so‘nggi yillarda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Foydalanilayotgan obyektlarda sodir bo‘layotgan avariyalar katta miqdordagi iqtisodiy yo‘qotishlar va qurbonlarga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baxtsiz hodisalarning asosiy sabablari, binolar va inshootlarni texnik jihatdan ekspluatatsiya qilish qoidalarining qo‘pol ravishda buzilishi hisoblanadi.

Turli xil ta’sirlar sharoitida obyektlarning umrboqiyligini baholash uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi [2-4]:

- yagona buzilish tamoyilidan foydalaniladi, ya’ni amalda tizimdagi ixtiyoriy bitta elementning buzilishini ko‘rib chiqishga asoslanadi (bunday buzilishlar ushbu holatda maxsus ta’sir hisoblanadi);

- muhim ta’sirlarning turli vaqtlarida obyekt asosiy elementlarining xarakterli guruhi tomonidan yuk ko‘tarish qobiliyatining yo‘qolishini ko‘rib chiqishga imkon bermaydi;

- qaralayotgan sharitda obyektning xavfsizlik darajasini aniqlovchi asosiy, muhim omil sifatida yong‘in bilan birga muhim ta’sirlarga ob’yektning qarshilik ko‘rsatish vaqtini baholash imkonini bermaydi;

- favqulodda vaziyatlarda eng xavfli muhim ta’sir hisoblanmish yong‘indan - ishchi yuklarning va yong‘in yuqori haroratining konstruksiyaga kombinatsiyalashgan ta’siridan obyektlarning ko‘chkisimon buzilishi mumkinligining me’yorlarda qabul qilinganligi e’tiborga olinmaydi;

- yong‘in sodir bo‘lgan favquloddagi vaziyatda obyektning ko‘chkisimon buzilishi mumkinligi me’yorlarda tartibga solinganligi yong‘in ta’sirining boshlanishidan u yoki bu chegaraviy holatning boshlanishiga qadar bo‘lgan vaqt mobaynida "olovga chidamlilik" ko‘rsatkichi ko‘rinishida xalqaro me’yorlarda tartibga solinganligini hisobga olmaydi.

[5] va boshqa manbalarga ko‘ra, ko‘chkisimon buzilishga quyidagi ta’sirlar va ularning kombinatsiyasi sabab bo‘lishi mumkin:

1. Kuchli zilzilalar; 2. Dovul; 3. Sunami; 4. Yog‘inlar va karst hodisalari (tog‘ jinslarining erishi natijasida bo‘shliqlar hosil bo‘lishi); 5. Yong‘in; 6. Portlash; 7. Zarba;8. Portlash + yong‘in; 9. Zarba +yong‘in; 10. Portlash +zarba +yong‘in; 11. Zarba+portlash; 12. Zarba+portlash+yong‘in- (uchar obyektlar to‘qnashganda).

Asosiy qism. «Portlash + yong‘in», ya’ni kombinatsiyalangan maxsus ta’sirlarni hisobga olish zarurligining yorqin misoli sifatida 2024 yil 9 sentabr, dushanba kuni soat 17:30 atrofida Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi 86 manzilda joylashgan 9 qavatli 48 xonadondan iborat turar-joy binosidagi xonadonlardan birida gazdan sodir bo‘lgan portlashni keltirish mumkin.


1979 yilda qurilgan ushbu bino boshqa ikkita alohida qismlardan iborat binolarga, zich qilib qurilgan (1-rasm) va seysmik chok bilan ajratilgan. Portlash binoning o‘ng tomonidagi qismida, o‘rta podyezdda, 3-qavatda joylashgan xonadonda yuz bergan [8-9].

Binoning birinchi qavati sinchli bo‘lib, qolgan 8 qavati esa yirik panellardan barpo etilgan. Ustunlar va rigellar yig‘ma temirbetondan tayyorlangan va o‘zaro bikir tugun hosil qilib biriktirilgan. Yuqori qavat devorlari yig‘ma panellaridan tayyorlangan va bir-biri bilan ularda hosil qilingan o‘yiqlardan chiqarib qoldirilgan gorizontal va vertikal armaturalarni o‘zaro payvandlanib, o‘yiqlar quyma beton bilan to‘ldirilgan. Orayopma yig‘ma plitalari to‘rt tomondan devor panellariga o‘rnatilgan bo‘lib, bir-biri bilan o‘yiqlar hosil qilingan joylarda ulardan chiqarib qoldirilgan armaturalarni payvandlab biriktirilgan va o‘yiq joylar beton bilan to‘ldirilgan.





1-rasm. Bino joylashish plani: a- holat rejasi; b- binoning buzilmagan qismi plani



2-rasm. Binoning umumiy koʻrinishi (portlash sodir boʻlguncha)



3-rasm. Binoning umumiy koʻrinishi (portlash sodir boʻlgandan soʻng)



4-rasm. Binoning hovli tomondan umumiy koʻrinishi (portlash sodir boʻlgandan soʻng)



5- rasm. Portlash sodir boʻlgan xonadonning shi-kastlangan devori, orayopmasi va poli.



6-rasm. 2 va 3 qavat orayopma plitasining uzilib tushgan holati.



7- rasm. Portlash natijasida 3- qavat orayopmasi (ostidan ko‘rinishi) va devorining buzilish sxemalari



8- rasm. Portlash natijasida 3- qavat oray-opmasining ustidan ko‘rinishi

Portlash natijasida oshxona pardevorining holati 9-rasmda keltirilgan. Xonadonning hammomida portlash natijasida sodir bo‘lgan yong‘in katta zarar keltirgan (10 rasm).



9-rasm. 3-qavatdagi pardevorning ko‘rinishi



10-rasm. Sanuzel xonasi ko‘rinishi

Portlash sodir blguncha va portlash sodir bo‘lgandan keyin binoning umumiy ko‘rinishlari 2 … 4-rasmlarda keltirilgan.

Portlash binoga katta zarar keltirgan: nafaqat portlash sodir bo‘lgan kvartiraning o‘zida, balki qo‘shni uylarda ham, shu jumladan, bino yonidagi kafega ham zarar keltirgan. Portlash sodir bo‘lgan xonadonning poli va shifti qulab tushgan. Ya’ni 2-qavat va 4-qavatlar orasidagi orayopma plitalari portlash to‘lqiniga dosh bermagan. Shuningdek, xonadonga qo‘shni bo‘lgan xonadon o‘rtasidagi devor ham buzilgan (5 va 6 - rasmlar).

Bino ichidagi deflagratsion portlashning (qatlamlarining qizishi va alangalanishi diffuziya va issiqlik berish natijasida sodir bo‘ladigan portlash) xususiyatlari xonalararo va xonadonlararo o‘tish joylarida, yo‘laklarda va h.k. kuchli havo oqimlarining shakllanishini o‘z ichiga oladi. Aynan shu oqimlar (ko‘pincha, ayniqsa matbuotda talqin qilinganidek, zarba to‘lqinlari emas) xonadondan qurilish konstruksiyalari va ob’yektlarning bo‘laklarini chiqarib yuborishga olib keladi. Portlash sodir bo‘lganidan keyin xonadondagi derazalarning o‘z o‘rnidan chiqib ketishi sodir bo‘lgan (4-6-rasmga qarang).

Kuchli havo oqimlarining to‘lqini shu daraja kuchli bo‘lganki, xonadonlarga temirdan o‘rnatilgan kirish eshiklarini o‘rnidan chiqarib tashlagan (11-rasm), lift eshiklarini ham joyidan qo‘zg‘atgan (12-rasm).



11-rasm.



12-rasm.

Binolarni energiya samaradorligini oshirish maqsadida hozirgi davrda ilmiy tadqiqotchilar, loyihachilar, quruvchilar va olimlar tomonidan turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan ba'zi tadqiqotlarda tashqi devorlarni energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, tavsiyalar berilgan. Ba'zi tadqiqotlarda faqat tom yopmani energiya samaradorligini oshirish masalalari ko'rilgan. Boshqa izlanuvchilar pol konstruksiyasini yoki poydevor konstruksiyasini issiqlik himoyasini oshirish masalalari bilan shug'ulanib, tadqiqotlar natijasida tavsiyalar barishgan [7].

Bizning nazarimizda binolarning energiya samaradorligini oshirish uchun tashqi devor, tom yopma, pol konstruksiyalari va eshik derazalarning issiqlik himoyasini oshirib, bino xonalarida me'yoriy mikroiqlim yaratish uchun qancha miqdorda issiqlik energiyasi sarf bo'lmoqda va qancha issiqlik energiyasini tejash mumkinligi haqida tadqiqotlar olib borib tavsiyalar berish lozim. [7].

Buning uchun binoning energiya samaradorligini oshirish uchun uning barcha tashqi to'siq konstruksiyalarining issiqlik himoyasini oshiruvchi issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materialini to'g'ri tanlab olish lozim. Buning uchun issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini va issiqlik uzatish qarshiligini bilish talab etiladi. Bu ko'rsatgichlar tanlab olingandan keyin issiqlik-fizik hisoblar natijasida binoning energiya samaradorligini aniqlash mumkin.

Binolarning tashqi to'siq konstruksiyalarini issiqlik-fizik jihatdan takomillashtirib issiqlik-fizik hisoblari natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

- bino tashqi to'siq konstruksiyalari uchun energiya samarador qurilish materiallari tanlab olinadi;
- binoning umumiy massasi pasayib, poydevorga tushayotgan yuk kamayadi;
- natijada binoning zilzila bardoshligi oshadi;
- bino xonalarida me'yoriy normativ mikroiqlim sharoiti yaratiladi;
- bino tashqi to'siq konstruksiyalarining issiqlik izolyatsiyalovchi qatlamini optimal qalinligi aniqlanadi;
- binolarni isitish va maishiy xizmatlar uchun sarf bo'layotgan issiqlik miqdori tejaladi;
- natijada energiya samarador binolarni loyixalash va qurish imkoniyatlariga erishiladi;
- Bino tashqi to'siq konstruksiya qatlamlarida kondansat namlik hosil bo'lish extimolini oldi olinadi [8].

Yuqorida keltirilgan natijalarga erishish uchun binolarni energiya samaradorligini oshiruvchi qurilish materiallari va issiqlik izolyasilovchi matariallarni asosiy issiqlik-fizik xususiyatlaridan biri, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini bilish lozim. Ammo ba'zi qurilish materiallarining issiqlik-fizik xususiyatlari o'rganilmagan, o'rganilganlari esa qurilish me'yoriy hujjatlarga kiritilmagan. Masalan issiqlik-fizik jihatdan takomillashtirilgan gazobeton va issiqlik izolyatsiyalovchi bazalt plitalarning issiqlik o'tkazuvchanlik koefisienti va boshqa issiqlik-fizik xususiyatlari o'rganilmagan. Ba'zi adabiyotlarda va internet tarmoqlarida bazalt plitaning issiqlik o'tkazkvchanlik koeffitsiyenti uning zichligiga bog'liq emasligi ta'kidlangan. Masalan zichligi 30-200 kg/m3 bo'lgan bazalt plitalarning issiqlik o'tkazuvchanlik koefisienti bir xil ekanligi keltirilgan. Bizning nazarimizda bunday emas. Shu sababli biz issiqlik-fizik jihatdan takomillashtirilgan gazobeton va issiqlik izolyatsiyalovchi bazalt materialini issiqlik-fizik xususiyatlarini o'rganib-tajribada issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini, zichligini va siqlishga chidamliligini aniqladik.

Tajribalar "Mintaqa Sinov Markazi" MCHJ ning laboratoriyasida o'tkazildi. O'lchami 200x200x200 mm bo'lgan gazobloklar namuna sifatida tanlab olindi.

O'lchami 200x200x200 mm bo'lgan gazoblok namunalarining dastlabki quruq holatdagi o'rtacha zichligi $\gamma_{o'rt}$=725 kg/m^3 bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda_{o'rt}$ =0,145 Vt/(m.^{o}C) ekan. Namunaning o'rtacha nisbiy namligi 3,81% bo'lganda ishlatish jarayonidagi zichligini -$\lambda_{o'rt}$742 kg/m^3 ekan.

Binolarning va ularning tashqi devorlarining energiya samaradorligini oshirish uchun, issiqlik izolyatsiyalovchi material "Bazalt" plitalarini tanlab oldik. Bu plitalarning boshqa issiqlik izolyatsiyalovchi materiallardan ijobiy tomonlari quyidagicha:


1. Bu material mahalliy bo'lib, Jizzax viloyatida ishlab chiqariladi;
2. Bu materialning 1 m^2 ning tan narxi pol va tom yopma uchun 20000-so'm va tashqi devor uchun 20000-50000 so'm atrofida bo'lib, boshqa issiqlik izolyatsiyalovchi materiallarga nisbatan ancha arzon;
3. Issiqlik izolyatsiyalovchi "Bazalt" plitalari tabiiy material bo'lib ya'ni tosh materiali maydalanib, tola shakliga keltirilib issiqlik izolyatsiyalovchi material ya'ni yumshoq tolali plitalar tayyorlanadi;
4. Bu matarial yong'inga chidamli bo'lib, umuman yonmaydi;
5. Issiqlik izolyatsiyalovchi "Bazalt" plitalari suv, yomg'ir, muzlashga chidamli ekan;
6. Issiqlik izolyatsiyalovchi "Bazalt" plitalari ekologik jihatdan toza material hisoblanadi.

Issiqlik izolyatsiyalovchi "Bazalt" plitalarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti va zichligi "Mintaqa Sinov Markazi" MCHJ ning laboratoriya sharoitida tajriba natijasida aniqlandi.

O'lchami 150x150x50 mm bo'lgan Bazalt plitaning o'rtacha issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti "Cistema izmeritelnaya SI-2-500-UXL-42" asbobida tajribada aniqlandi. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda_{o'rt} = 0.0366$ Vt/m · ℃ ekan. O'rtacha zichligi $\gamma_{o'rt}$= 90-100 kg/m^3 ekan.

Biz SamDAQU mukammal ta'mirlanayotgan yotoqxonasining energiya samaradorligini oshirish maqsadida, tashqi devorlarining issiqlik himoya darajasini oshirish uchun "Bazalt" plitalarini tavsiya etdik.

Uning hisobiy sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. G'isht devorning konstruktiv yechimi.

1,4 – suvoq qatlam; 2 – g'isht terimi; 3-Bazalt issiqlik izolyatsiya materiali.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari quyida keltirilgan:

SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlashdan oldingi tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=0,74 m^2 ^{0}C/Vt ekan.

SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlash jarayonida uning tashqi devorining tashqi sirtidan qalinligi 5 sm bo'lgan "Bazalt" plitalari bilan izolyatsiya qilinsa, tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=2,106 m^2 ^{0}C/Vt bo'lar ekan.

Agar SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlash jarayonida uni tashqi devorini tashqi sirtidan qalinligi 10 sm bo'lgan "Bazalt" plitalari bilan izolyatsiya qilinsa, tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=3,472 m^2 ^{0}C/Vt bo'lar ekan.

Yuqorida ketirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalaridan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlashdan oldingi tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=0,74 m^2 ^{0}C/Vt ekan;
2. SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlash jarayonida uning tashqi devorining tashqi sirtidan qalinligi 5 sm bo'lgan "Bazalt" plitalari bilan izolyatsiya qilinsa, tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R= 2,106 m^2 ^{0}C/Vt bo'lib, bu tashqi devordan sarf bo'layotgan issiqlik energiyasini 2-3 barobar tejar ekan;
3. Agar SamDAQU yotoqxonasini mukammal ta'mirlash jarayonida uning tashqi devorining tashqi sirtidan qalinligi 10 sm bo'lgan "Bazalt" plitalari bilan izolyatsiya qilinsa, tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=3,472 m^2 ^{0}C/Vt bo'lar ekan. Bu holat tashqi devordan sarf bo'layotgan issiqlik energiyasini 4-5 barobar tejar ekan;
4. Bundan tashqari karkasli binolar qurilishida ularning tashqi devorlarini zichligi 700-1000 kg/m^3 bo'lgan gazobloklardan tiklab, "Bazalt" plitalari bilan tashqi devori, tom yopmasi va poli izolyatsiya qilinsa binoning energiya samaradorligi 5-6 barobar oshar ekan.
5. Tavsiya etilayotgan "Bazalt" plitalari bilan izolyatsiya qilingan tashqi devorining umumiy issiqlik uzatish qarshiligi R=3,472 m^2 ^{0}C/Vt bo'lib, QMQ 2.01.04-18* da keltirilgan tashqi devor issiqlik himoyasining barcha talablariga javob berar ekan.

Adabiyotlar:

1. Shukurov G'.Sh., Boboev S.M. Arxitektura fizikasi. 1-qism. Qurilish issiqlik-fizikasi.Darslik – T.: Mehnat, 2005 y. 160s.
2. Shukurov G'.Sh., Islomova D. G'. Qurilish fizikasi. Darslik – Samarqand. 2015 y.226s.
3. Fokin. K.F. Stroitelьnaya teplotexnika ograjdayuщix chastey zdaniy. M. Stroyizdat, 1973g. 286s.
4. QMQ-2.01.04-18. Stroitelьnaya teplotexnika. – T., 2018 y.
5. Shukurov G'., Ne'matov B. Mayda blokdan iborat tashqi devor konstruktsiyasini issiqlik himosini oshirish. Obrazovanie nauka i innovatsionnыe idei v mire. Mejdunarodnыy nauchnыy elektronnыy jurnal. Rossiya-2023 y. http:/www.neviournal.org/
6. Shukurov G'.Sh., Nosirova S, Mamadaliev X, Odinaeva S. (2017). Uch qatlamlm penobetondan iborat tashqt devor nakmunasida o'tkazilgan issiqlik-fizik tadqiqotlar natijasi.

Aktualьnыe nauchnыe issledovaniya v sovremennom mire, (6-3), 50-54.

7. Shukurov, G., Bolikulovich, K. M., Holiyevich, F. F., Ilxomiddinovich, K. J., & Rizki, M. A. (2024, July). Innovative solutions for the use of aerated concrete blocks in residential buildings. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3167, No. 1). AIP Publishing.

8. Ne‘matov, B. (2023). TURAR-JOY BINOLARIDA GAZOBETON BLOKLARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION YECHIMLARI. *PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL)*, *1*(2), 251-254.

9. Ziyaviddinov, D. O., Yunusboev, B. A., Dossaliyev, K. S., Kh, J. M., & Kulmirzayev, J. I. (2024). DESIGN OF A 4 FLOOR PUBLIC BUILDING MADE OF REINFORCED CONCRETE PANELS ON THE BASIS OF ENERGY EFFICIENCY REQUIREMENTS. *Экономика и социум*, (4-1 (119)), 710-714.

10. Tulakov, E., Inoyatov, D., Kurbonov, A., Sirojiddinov, S., Abdullayeva, S., Matyokubov, B., & Kulmirzayev, J. (2024). Experimental analysis of moisture protection of buildings. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 559, p. 04018). EDP Sciences.

11. Salomovich, T. E., Samariddinovich, S. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Improving the Heat Preservation Properties of the Exterior Walls of Brick Buildings. International Journal of Culture and Modernity, 28, 15-20.

12. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 2(2), 36-39.

13. Turakulovna, E. M. U., Baxodirovna, R. D., & Pulatovich, M. B. (2024). CLIMATE AND BUILDING ENERGY EFFICIENCY. Научный Фокус, 1(11), 386-389.

14. Bolikulovich, K. M., & Po‘latovich, M. B. (2024). CALCULATION OF THE TEMPERATURE FIELD OF EXTERNAL ENCLOSING STRUCTURES USING THE FINITE DIFFERENCE METHOD. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 165-169.

EKOLOGIK KARTALASHTIRISHNING ASOSIY PRINSPLARI VA MOHIYATI

Gulmurodov Farrux Eshmurodovich
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti dotsenti, texnika fanlari falsafa doktori (PhD)
Po`latov Asliddin Sayfullayevich
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Ekologik xaritalarni tahlil qilish jarayonida yangi ma'lumotlarni olish usullari. ekologik xaritalarning turlari, ekologik ma'lumotlarni namoyish qilish shakllari va usullari, ekologik xaritalarning mazmuni, ekologik vaziyatlarning genezisini ochib beradigan xaritalar, baholash ekologik xaritalari, ekologik-resurs xaritalari, xaritalar ekologik favqulodda vaziyatlar, ekologik atlaslarni tahlil qilish kabi muhum masalalar ko’rib chiqilgan.

Kirish: Bugungi kundagi ekalogik barqarorlikni saqlab qolish va salbiy oqibatlarni oldini olish uchun Ekologik ekalogik kartalashtirish muhum ahamyat kasb etadi. Bir qarashda, xaritadan foydalanib, foydalanuvchi faqat ekologik vaziyat haqida ma'lumot oladi. Ammo bu ma'lumotlar chuqurroq ko'rib chiqilsa, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jihatlarga ega bo'ladi. Iqtisodiy tarkibga ega xaritalar iqtisodiy qarorlarning asosi bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatlar shundan dalolat beradiki, ekologik vaziyatni baholash muqarrar ravishda vaziyatni yaxshilash uchun zarur bo'lgan xarajatlar, yomon (agar shunday bo'lsa) ekologik holat tufayli o'tkazib yuborilgan imkoniyatlar to'g'risida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Ekologik xaritalarni tuzish tamoyillari va usullarini, har xil turdagi xaritalarning mazmunini ko'rsatish, ekologik xaritalarning ekologik vaziyatlarni ochishdagi rolini ko'rsatish. Xaritalar bilan ishlash, kartografik ma'lumotlarni qayta ishlash, yangi ma'lumotlarni olish muhim o'rin tutadi. Ekologik xaritalar tufayli foydalanuvchi sub'ektlar va ob'ektlarning o'zaro ta'sirining hududiy qonuniyatlari, ekologik vaziyatni baholash imkoniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Kartani an'anaviy, ammo ko'proq darajada har qanday zamonaviy usulda to'g'ri tuzishni o'rgatish, uni atrof-muhitni boshqarish vositasiga aylantirish. -ushbu fan sohasida yuqori GIS texnologiyalaridan foydalanishning yaxshi zamonaviy namunalarini ishonchli namoyish etish ilmiy ishning asosiy mohiyati va maqsadi sifatida olingan.

Asosiy qism: Ekologik xaritalash-bu ekotizimlarning holati, atrof-muhit, xaritalar bo'yicha yangi ma'lumotlarni olish usullari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va kartografik taqdim etish usullari to'g'risida bilim sohasi. Zamonaviy ekologiyaning maqsadi atrof-muhit parametrlarining bunday kombinatsiyasini izlashdir, bu barcha sub'ektlarga mos keladi va biosfera-Sotsiosfera-texnosferaning yaqin vaqt oralig'ida, ya'ni butun dunyo bo'ylab muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. keyingi yillarda ham, strategik istiqbolda ham. Bu "yaxshi" va "yomon"haqidagi ko'plab g'oyalarni qayta baholash zarurligini anglatadi. Ekologik xaritalashning quyidagi funktsiyalari namoyon bo'ladi: - fazoviy taqsimlangan ma'lumotlarni hujjatlashtirish (kadastr xaritalari); – fazoviy muvofiqlashtirilgan ma'lumotlarni (geodatalarni) ikki o'lchovli (ba'zan uch o'lchovli)ramziy tasvirlashning o'ziga xos vositalaridan foydalangan holda voqelikni aks ettirish.; - virtual haqiqatni vizualizatsiya qilish (fazoviy statistika; statistik maydonlar; virtual kompyuter tasvirlari); - geodatadan va ularning hosilaviy fazoviy tasvirlaridan foydalanishning tematik muammolarini hal qilish; - aloqa, ya'ni. foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot almashish va uni qayta ishlash natijalari; - yangi fazoviy tasvirlarni yaratish; - geodatalarni fazoviy tahlil

qilish va boshqalar. - modellashtirish, tahlil qilish, bashorat qilish, baholash, geosituatsiyalarni optimallashtirish. E'tibor bering, kartografiya tomonidan hal qilingan ushbu vazifalar orasida, ko'p korrelyatsiyalar va o'ziga xos "mahalliy o'ziga xoslik" mavjud, ya'ni bir xil tadqiqot harakati va olingan xaritalash mahsuloti ikki yoki undan ortiq muammolarni hal qilish uchun ishlatiladigan holatlardan iboratdir.

Ekologik xaritalash ekologiyani geograflashtirishning eng muhim usuli hisoblanadi. Geografik qonunlar va bilimlar ekologik xaritalashning asosiy asosidir. Geografiyada o'zaro ta'sir jarayonlarini hududiy asosda ko'rib chiqish bo'yicha katta tajriba to'plangan, bu ekologik xaritalashda juda muhimdir. Geografiya, shuningdek, ekologik muammolarni faqat tabiiy muhitga mantiqsiz iqtisodiy ta'sir natijasida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar sifatida talqin qilishning bir tomonlama ekanligini ta'kidlaydi.

Xarita xususiyatlari. Xarita quyidagi xususiyatlarga ega

1. Bu ikki o'lchovli, ammo belgilar yordamida uchinchi o'lchov effektlari va undan ham ko'proq o'lchovlar uzatilishi mumkin.

2. Undagi sirt tasviri buzilgan, chunki sharsimon sirtni buzilmasdan tekislikka o'tkazish mumkin emas. Yer yuzasining o'zi juda notekis, shuning uchun xaritalarda haqiqiy chiziqlar emas, balki gorizontal chiziqlar, ya'ni egri chiziqlarning gorizontal tekislikka proektsiyalari berilgan.

3. Xarita geografik makonning analogidir, chunki u erning fazoviy o'xshashligini saqlab qoladi.

4. Hududdagi hodisalar xaritalarda tanlab ko'rsatiladi.

5. Xarita sintetiklik xususiyatiga ega, ya'ni yaxlit tizimlarni namoyish qilish qobiliyatiga ega.

6. Xarita, boshqa aloqa vositalaridan farqli o'laroq, belgilar ketma-ketligini bermaydi (bu bir o'lchovli makonda sodir bo'ladi), lekin bir vaqtning o'zida ularning ko'pligi (ikki o'lchovli makon modelidan foydalanish orqali erishiladi), bu ularning fazoviy kombinatsiyalariga imkon beradi, ya'ni qo'shish, o'zaro o'xshashlik, mahalla, birlashma, kesishish va boshqalar.

7. Kartografik ma'lumotlar xarita yuki bilan cheklanmaydi, balki tasvirlangan hodisalar (munosabatlar, bog'liqlik, pozitsiya, konfiguratsiya va boshqalar) o'rtasidagi munosabatlar orqali ham namoyon bo'ladi. Kartografik ma'lumotlarning bir qismi xaritada yashirin shaklda mavjud bo'lib, uni turli mantiqiy va matematik protseduralar jarayonida aniqlash mumkin: fazoviy korrelyatsiya, sirtlarni qo'shish va ayirish, sirtni fon va qoldiqlarga ajratish va boshqalar.

8. Xarita nafaqat ramziy, balki voqelikning majoziy va ramziy modelidir. Ushbu model xarita tasvirini idrok etish jarayonida xarita foydalanuvchisi (o'quvchi) tizimida paydo bo'ladi. Tasvirning shakllanishi belgilar (shakli, rangi, o'lchami, yo'nalishi va boshqalar), ularning fazoviy kombinatsiyasi, o'zaro joylashuvi, fazoviy koordinatalarga nisbatan pozitsiyasi, kombinatsiyaning tabiati, o'zaro joylashuvi va boshqalar bilan bog'liq. 9. Xaritalarda makon va vaqt o'rtasidagi aloqaning turli shakllari namoyon bo'ladi. Xaritada ikkita asosiy fazoviy o'lchov mavjud – kenglik va uzunlik. Izogips yordamida yana bir o'lchov – balandlik kiritiladi. Kichik joylar uchun xarita Evklid fazosi metrikasi bilan yaxshi bog'liq, ammo katta bo'shliqlar uchun yer makonining sferikligini hisobga olish kerak. 10. Rangli fon, Lyuk va boshqa kartografik piktogrammalar sizga turli xil xususiyatlarning (tabiiy, iqtisodiy, texnik va boshqalar) joylashishini ko'rsatishga imkon beradi, bu esa xaritani nisbatan ko'p o'lchovli qiladi. 11. Xaritada olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar cheksizdir. Xaritada mavjud bo'lgan belgilar soni cheklangan bo'lsa-da, ular orasidagi fazoviy munosabatlar soni cheksizdir.

Ekologik xarita-bu fazoviy munosabatlarni xaritalashning o'ziga xos usuli bo'lib, unda koordinatalar tizimi va sub'ektning mezonlariga javob beradigan chora-tadbirlar tizimi qo'llaniladi. Ekologik xaritalarning asosiy funktsiyalari, shuningdek boshqa tarkibdagi xaritalar: kommunikativ, operativ, kognitiv. Xarita xususiyatlar va elementlarni xaritalash orqali hududning ekologik xususiyatlarini ochib berishi kerak. Ekologik xarita, boshqa turdagi xaritalar singari, ma'lum bir ko'rinishga ega. Ko'rinish va ko'rish darajasi har bir karta turining maqsadi va funktsiyalariga mos kelishi kerak. Ekologik xaritalar tematik geografik, geologik, tuproq va boshqa xaritalardan baholash sub'ektlarining (sub'ektlarining) aniq yoki yashirin mavjudligi bilan farq qiladi.

Mavzu tufayli tarkib baholovchi ma'noga ega bo'ladi: u yoki bu xususiyatlar har xil darajada qimmatli, zararli yoki foydali, zarur yoki keraksiz bo'lib qoladi. So'nggi o'n yilliklarda ekologiyaning rivojlanishi sub'ektlar ro'yxatining kengayishiga olib keldi. Ularga landshaftlar, shuningdek texnik obyektlar, iqtisodiy obyektlar, faoliyat sohalari qishloq xo'jaligi, rekreatsiya va boshqalar ham kiritilishni boshladi.shunday qilib, ekologik xaritalarning mazmuni atrof – muhit muammolari bilan bog'liq ko'plab masalalarni qamrab oladi. Ekologik xaritalarda boshqa turdagi xaritalarda bo'lgani kabi an'anaviy belgilar va ko'rsatish usullari tizimi qo'llaniladi: rang, soyalash, masshtabdan tashqari belgilar, kartogrammalar, chiziqli belgilar va boshqalar.

Shu bilan birga, biz ekologik kartografiyada tadqiqot tuzilishini aniqlaymiz. "Tadqiqotchi – ob'ekt (haqiqat) – xarita (model)" triadasi mavjud bo'lgan an'anaviy tematik geografik xaritalashdan farqli o'laroq, ekologik xaritalashda to'rtta o'zaro ta'sir qiluvchi element mavjud: "tadqiqotchi – ob'ekt (atrof – muhit) – mavzu (mezbon) - xarita" . Ya'ni, bu holda tadqiqotchi ob'ektni baholash (bu holda atrof-muhitning turli elementlari) va xaritada olingan ma'lumotlarning tasvirini olish uchun mavzu mezonlarini kiritadi. Baholash sub'ektlari "tabiat – texnosfera – jamiyat"tizimining turli tarkibiy qismlari. Shuni ham yodda tutish kerakki, bitta mavzuga (o'simlik, hayvon, biotsenoz, odam, jamiyat va boshqalar) yo'naltirilgan har qanday ekologik xarita ekologik vaziyatni to'liq ochib bermaydi, chunki ikkinchisini ob'ektiv baholash faqat barcha sub'ektlarni hisobga olgan holda bo'lishi mumkin. Shunday qilib, biz shaxsiy baholar va keng qamrovli baholar haqida gapirishimiz

mumkin. Vaziyatni bitta mavzu nuqtai nazaridan baholaydigan xaritalarni tahlil qilishda buni hisobga olish kerak (ko'pincha bu shaxs). Boshqa sub'ektlarni hisobga olish vaziyatni qayta baholashni talab qiladi.

Ekologik xarita elementlari

ekologik xaritalarning asosiy elementlari tarkib, matematik asos, konventsiyalar, yordamchi elementlar va qo'shimcha ma'lumotlardir. Tarkib-bu xaritaning asosiy qismi, shu jumladan ekologik ma'lumotlar to'plami, ularning joylashuvi, xususiyatlari, dinamikasi. Tarkib sub'ektlar va ob'ektlarning munosabatini aks ettiradi. Ekologik xaritalarda umumiy geografik xaritalarda, shuningdek landshaft, tuproq, iqtisodiy-geografik, geologik, geobotanik va boshqa tematik xaritalarda bo'lgani kabi tasvirlash usullari qo'llaniladi. Matematik asosning elementlari kartografik proektsiyalar, koordinatali panjaralar, masshtabdir. Yordamchi xizmat elementlari-bu xarita afsonasi, masofalar, burchaklar, maydonlar, qiyaliklarning tikligi va boshqalar xaritalari bo'yicha o'lchovlar uchun grafikalar.

Ekologik xaritalarni tuzishda vaqt toifasini batafsil hisobga olish zarurati aniqlandi. Tematik geografik, tuproq, geobotanik xaritalarda vaqt kamdan-kam hollarda xarita tarkibini belgilaydigan zarur toifadir. Tarixiy tarkibning geologik xaritalarida (paleogeografik) vaqt majburiy element hisoblanadi, ammo bu vaqt tizimga xos bo'lgan tizimning ishlash vaqtini ochib bermaydi. Ekologik xaritalarda vaqt toifasi katta rol o'ynaydi.1. . Xaritani tuzishda foydalanilgan ma'lumot olingan vaqtni (t1) ko'rsatish kerak. Bu qisqa vaqt (daqiqa, soat, kun), muhimroq davr (oy, yil, o'n yilliklar) va juda uzoq davr (asr va boshqalar) bo'lishi mumkin. 2. Xaritada (t3) tasvirlangan vaziyat shakllangan davrni aniqlash kerak. Bunday holda, biz kelajakda voqealar rivoji uchun katta rol o'ynashi mumkin bo'lgan vaziyatni shakllantirish tarixi bilan qiziqamiz. Agar tuproq ifloslanishini o'lchash amalga oshirilsa, bu ifloslanish darajasi ancha uzoq vaqt davomida shakllanganligi aniq. Agar ifloslanish 10 yil ichida o'lchangan bo'lsa ham, o'rtacha qiymatlar nafaqat shu davrga tegishli bo'lishi mumkin, chunki ifloslanish miqdoriga avvalgi voqealar ta'sir ko'rsatgan.

3. Xaritada ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan qamrab olingan davrni baholash kerak – xaritada ko'rsatilgan ma'lumotlar adolatli bo'lishi mumkin bo'lgan vaqt davri (t2). Tuproqning ko'plab xususiyatlari, masalan, ifloslanish, vaqt o'tishi bilan nisbatan barqaror. Tuproqning ko'plab ifloslanishini har oy, ayniqsa har kuni o'lchash mantiqiy emas. Shuning uchun ma'lum bir o'lchov natijasida olingan tuproqning ifloslanishi to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum bir keyingi davrga tarqalishi mumkin. Ammo ma'lum bir vaqt ichida havodagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda keyingi davrlarga o'tkazish mumkin emas, chunki havo deyarli inertsiya xususiyatlariga ega emas va ifloslantiruvchi moddalarni uzoq vaqt saqlamaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyat tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilish choralari o'zgarishsiz qolishiga amin bo'lsak, havoning ifloslanishi to'g'risidagi ma'lumotlar kelajakda ma'lum bir muddatga tarqatilishi mumkin.

4. Xarita tuzilgan vaqtni ham ko'rsatish kerak (t4). Bu vaqt ma'lumot olish uchun ishlatiladigan ma'lumotlarga tegishli vaqt bilan hech qanday bog'liq bo'lmasligi mumkin. Xaritani tuzish vaqti faqat qiziqarli, chunki u xaritani tuzish paytida xaritalash metodologiyasi va usullarini hisobga olishga imkon beradi. Ekologik xaritalarni tuzish metodologiyasi va metodologiyasi endigina shakllanmoqda, juda tez o'zgarib bormoqda, takomillashmoqda, shuning uchun ushbu xarita ushbu jarayonning qaysi bosqichida tuzilganligini tasavvur qilish muhimdir. Shunday qilib, tabiiy muhitlar – tog ' jinslari, tuproq, daryolar, ko'llar, havo, o'simliklar, muz va boshqalar – turli xil inertsiya, xotira qiymatlariga ega ekanligini tushunish muhimdir. Shuning uchun ular ekologik holatni shakllantirish uchun turli vaqtlarga ega va agar shakllanish omillari o'zgarsa, bu holat davom etishi mumkin.

Vaziyatni baholashga ehtimoliy yondashuv. Xavfni baholash. Vaqt toifasi ekologik xaritalashda va ekologik vaziyatlarni xavf-xatarni baholash shaklida namoyon bo'ladi. Xavfni tahlil qilish davriy chastotali yoki vaqt o'tishi bilan yanada murakkab namoyon bo'ladigan hodisalar xavfini ehtimoliy baholashga asoslangan. Tabiiy komplekslarning ko'plab tabiiy jarayonlari, hodisalari va antropogen ta'sirlarga reaktsiyalarining ehtimollik tabiati bunday tizimlarning atrof - muhit va resurslarni qo'llab-quvvatlash funktsiyalarini yo'qotish xavfini baholashda xavfni tahlil qilish usulini qo'llashga imkon beradi. Ob'ektlar (geosistemalar, ekotizimlar va boshqalar) har doim o'ziga xos bo'lgan doimiy xususiyatlari bilan tavsiflanishi mumkin – bu havo va tuproqning harorati va namligi, radiatsiya balansining qiymati, ma'lum geokimyoviy ko'rsatkichlar. Ammo ular kamdan-kam hollarda yoki hatto juda kamdan-kam hollarda sodir bo'ladigan, tsiklik yoki xaotik tarzda namoyon bo'ladigan jarayonlarga ham xosdir.

Bular zilzilalar, ko'chkilar, sellar, gradobitiyalar, sovuqlar, kuchli shamol va yomg'irlar bilan siklonlar, dengizdagi bo'ron to'lqinlari va boshqalar.bunday hodisalarni ma'lum muddatga prognoz qilish qiyin. Ammo bunday ko'plab hodisalarning statistik xususiyatlari – o'rtacha, maksimal, minimal, dispersiya, taqsimot va boshqalar-ko'pincha ma'lum. Ulardan ularning namoyon bo'lish ehtimolini, ya'ni ushbu salbiy hodisalar bilan bog'liq xavf darajasini hisoblash mumkin. Va nihoyat, mumkin bo'lgan hodisalar haqida gapirish mumkin-bu ko'pincha uskunalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar. Ularning ehtimolini hisoblash ayniqsa qiyin, chunki ularga olib keladigan sabablar to'plami doimiy ravishda o'zgarib turadi: texnologik daraja, ishchilar va muhandislarning mahorat darajasi, ob'ektlarning fazoviy zichligi va boshqalar.

PO‘LAT PROFIL QUVURLARDAN TAYYORLANGAN TUGUN BIRIKMALAR HISOBINI KOMPYUTER DASTURLARI ASOSIDA TAQQOSLASH

Ibragimov Nizom Xusenovich
“Qurilish muhandisligi” kafedrasi tayanch doktoranti.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (Uzbekistan)
Maxmatqulov Turdimurod
“Qurilish muhandisligi” kafedrasi professori, texnika fanlari nomzodi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (Uzbekistan)

Annotasiya: Ushbu maqolada yassi fermaning po’lat profil quvurlardan tayyorlangan tugun birikmasini Idea StatiCa hamda Base kompyuter dasturlari asosida hisoblash-taqqoslash ishlari olib borildi. Dastavval tugun birikma elementlarining geometrik o’lchamlari hamda ularga ta’sir etadigan yuk qiymatlari shakllantirildi. Olingan hisob naijalari bo’yicha tugun elementlaridagi kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari hamda payvand choklarining ish-latilish koeffitsientlari (foizlari) aniqlandi.
Kalit so‘zlar: tugun birikma, kompyuter dasturlari, modellashtirish, po’lat profil quvurlar, payvand chok kateti, payvand elementi, kuchlanish.

Аннотация: В этой статье было проведено расчетно-сравнительное исследование узлового соединения плоской фермы из стальных профильных труб на основе компьютерных программ IDEA StatiCa и Base. Первоначально формировались геометрические размеры элементов узлового соединения, а также величины нагрузки, влияющие на них. По полученным расчетным результатам определены напряженно-деформационные состояния узловых элементов, а также коэффициенты (проценты) использования сварных швов.
Ключевые слова: узловое соединение, компьютерные программы, моделирование, стальные профильные трубы, сварочный катет шва, сварочный элемент, напряжение.

Abstract: In this article, a computational and comparative study of the nodal connection of a flat truss made of steel profile pipes based on the computer programs IDEA StatiCa and Base was carried out. Initially, the geometric dimensions of the node connection elements were formed, as well as the load values affecting them. According to the calculated results, the stress-strain states of the nodal elements, as well as the coefficients (percentages) of the use of welds, were determined.
Keywords: nodal connection, computer programs, modeling, steel profile pipes, welding seam catheter, welding element, voltage.

Sterjenli konstruksiyalarning eng ahamiyatli qismi ularning tugun birikmalari hisoblanib, umumiy sistemaning bikrligini ta’minlashda muhim o’rinni egallaydi. Tugun birikmalarning mustahkamligini hisoblashning bugungi kunda ko’plab usullari ishlab chiqilgan bo’lib, bular asosan kompyuter dasturlari asosida amalga oshiriladi. Tugun birikmalarni kompyuter dasturlari yordamida modellashtirish orqali ularning yaqqol kuchlanish-deformasiyalanish holatini tahlil qilish mumkin.


Ko’pchilik kompyuter dasturlarida tugun birikmalarning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilgan. Bazi kompyuter dasturlari(AnSYS, LiraSAPR va h.k)da esa bunday tizim keng yaratilmagan bo’lib, ularni model-lashtirish asosan qo’lda bajariladi. Birikish usullarini qo’lda modellashtirish bir muncha qiyin bo’lib, tahlil qilishda ham qiyinchiliklarga duch kelinadi. [1], [2], [3].

Ushbu maqolada yassi fermaning po’lat profil quvurlardan tayyorlangan tugun birikmasini hisoblashda Isdea StatiCa hamda Base dasturlaridan foydalanib, tahlil natijalarini taqqoslash ishlarini olib borildi.

Idea Statica dasturi bo’yicha olingan hisob natijalari quyidagilardan iborat (1-variant) [4], [5]:

Ferma elementlari haqida ma’lumot

Nomi	Kesimi	β-yo'nalish, [°]	γ-qiyalik [°]	*a*- aylan-ish, [°]	ex- siljish, [mm]	ey – siljish, [mm]	ez - siljish, [mm]	Kuchlarni qo'llash
CH	1 - 120 x 80 x 5.0	0,0	0,0	0,0	0 0	0	0	Tugun
D1	2 - 60 x 4	0,0	-45,0	0,0	0	0	0	Tugun
D2	3 - 60 X tugun 4	180,0	-45,0	0,0	0	0	0	Tugun



Ko'ndalang kesimlari

Nomi	Material
1-120 x 80 x 5.0	C235
2-60 x 4	C235
3-60 x 4	C235

Yuklash (muvozanat talab qilinmaydi)

Nomi	Belgilanishi	N, [kN]	Vy, [kN]	Vz, [kN]	Mx, [kNm]	My, [kNm]	Mz, [kNm]
LE1	D1	-80,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
	D2	-80,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Natijalarni tekshirish:

Qisqa hisobot

Ism	Qiymati	Tekshirish holati
Hisoblash	100,0%	OK
Plastinalar	2,1 < 5,0%	OK
Payvand choklari	96,3 < 100%	OK
Ustuvorlik	Hisoblanmagan	
GMNA	Hisoblandi	

Plastinalar

Ism	R_y, [MPa]	qalinligi, [mm]	yuklar	σ, [MPa]	ε_{PI}, [%]	σc_{Ed}, [MPa]	Eekshirish holati
CH	229,3	5,0	LE1	233,5	2,1	0,0	OK
D1	229,3	4,0	LE1	231,3	1,0	0,0	OK
D2	229,3	4,0	LE1	231,3	1,0	0,0	OK


Loyiha ma'lumotlari

Material	R_y, [MPa]	ε_{lim}, [%]
C235	229,3	5,0


Belgilar uchun tushuntirishlar:

ε_{PL}	- Nisbiy deformatsiya
σ	- Metalldagi o'rtacha kuchlanish
R_y	- Oqish chegarasi


ε_{lim}	- Chegaraviy plastik deformatsiya



Umumiy tekshirish, LE1



Deformatsiyani tekshirish, LE1



Ekvivalent kuchlanish, LE1

Payvand choklarining kesimlari

Element	Chekka	Elektrod	k_f [mm]	l [mm]	l_{biz} [mm]	Yuklar	N [kN]	u_{twm} [%]	U_{tbm} [%]	Konstruksiya-lash	Ho-lati
CH-w 3	D1	E50	◢4.0	258	4	LE1	2.7	84.4	96.3	OK	OK
CH-w 3	D2	E50	◢4.0	258	4	LE1	2,7	84,4	96,3	OK	OK


Belgilar uchun tushuntirishlar

k_f	- Payvand chokining kateti;
l	- Payvand chokining haiqiy uzunligi;

l_{we}	- Payvand elementining hisobiy uzunligi;
N	- Payvand elementining siljish kuchlanishi;
U_{twm}	- Payvand chokining ishlatilish koeffitsienti;
U_{tbm}	- Payvand elementining ishlatilish koeffisienti.

Base dasturi bo'yicha hisob natijalari quyidagilardan iborat (2-variant):

1. - Dastlabki ma'lumotlar:



Oddiy tugun chizmasi

Konstruksiyaning geometrik xususiyatlari:
Kamarning kengligi (B) - 8 sm;
Kamarning balandligi (h) - 12 sm;
Ferma kamarining devor qalinligi (t) - 5 mm;
Vertikal chok kateti (f1) - 4 mm;
Hovon kesimining balandligi (d) - 6 sm;
Hovon kesmaning kengligi (db) - 6 sm;
Hovon devorining qalinligi (td) - 4 mm;
Hovonlar orasidagi o'lcham (c) - 2 sm;
Hovonlarning kamarga birikish burchagi (a) – 45.

Elementga hisoblangan yuk:
Element og'irlik markaziga qo'yilgan yuk (N) - 8 tonna.

2. - Natijalar:

Hisoblash uchun zarur bo'lgan tugun xususiyatlari:

Nomi	Hajmi	O'lchov birliklari
Kamarning yuk ko'tarish qobiliyati	Yetarli	K=0.87
Kamar devorining yuk ko'tarish qobiliyatini tekshirish	Talab qilinmaydi	
Payvand elementining yuk ko'tarish qobiliyati	Yetarli	k=0.4
Payvand chokining yuk ko'tarish qobiliyati	Yetarli	k=0.21

Xulosa:
1- variant hisob natijalari bo'yicha payvand chokining ishlatilishi 84,4 % ni, payvand elementining ishlatilishi 96.3 % ni tashkil etmoqda. 2-variant hisob natijalari bo'yicha payvand chokining ishlatilishi 21 % ni, payvand elementining ishlatilishi 40 % ni tashkil qilmoqda. Bu yerda variantlar orasidagi farqning katta ekanligi ko'rishimiz mumkin. Tahlil natijalariga asoslanib 1- variantni samarali deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdimurod M., Khusenovich I. N. COMPUTER MODELLING AND NUMERICAL STUDIES OF NODAL CONNECTIONS OF STRUCTURAL STRUCTURES //Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X). – 2024. – С. 155-158.
2. Ибрагимов Н. ФАЗОВИЙ КЕСИШГАН ФЕРМАЛИ КОНСТРУКЦИЯЛАР ТУГУН БИРИКМАЛАРИНИ КОМПЮТЕРДА МОДЕЛЛАШТИРИШ //PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL). – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 592-594.
3. Николаева А. Г., Иванова Н. В. МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ УЗЛОВ СТРОИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ //ББК 22.2 я43 С56. – 2021. – С. 187.
4. Pyskunov S. et al. Порівняльний аналіз результатів розрахунку рамного вузла у програмному засобі IDEA STATICA CONNECTION та за методиками нормативних документів //Strength of Materials and Theory of Structures. – 2022. – №. 109. – С. 120-128.
5. Pribadi G., Rumbyarso Y. P. A. Analisis Profil Atap Baja WF dengan Metode LRFD Menggunakan SAP 2000 dan Idea StatiCa //Jurnal Teknik Industri Terintegrasi (JUTIN). – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 1543-1559.

KOMPYUTERDA ISHLAYOTGAN XODIM ELEKTR TOKIDAN JAROHATLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO‘RSATISH

Suyunov J.Sh. t.f.f.d., (PhD), **Saidov B.M.** (SamDAQU)

Annotatsiya: Ma’lumki kompyuter jihozlari yuqori kuchlanishda ishlaydi, elektr o‘tkazgichlarning nosozligi tufayli tok ta’siriga tushib qolgan kishi undan har doim ham ozod bo‘la olmaydi va hayotdan ko‘z yumadi. Ayrim hollarda tok ta’siridan jarohatlanganlarga ularni yonidagilar tomonidan birinchi yordam ko‘rsata olmaganliklari va uquvsizliklari oqibatida jarohatlangan kishi o‘limiga sabab bo‘ladi.

Kalit so’zlar: kompyuter, birinchi yordam, elektr toki, sun’iy nafas, nurlanish, jarohatlanish;

Elektr tokidan jarohatlangan kishining hayoti, yordamning o‘z vaqtida ko‘rsatilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham ishlab chiqarishdagi har bir ishchiga elektr tokidan shikastlanganda birinchi yordam ko‘rsatish turlari o‘rgatiladi. Shikastlanishning dastlabki 4...6 daqiqalarigacha muddatda yordam berilsa, shikastlaganlarning 90% ini, agar yordam kechiktirilsa ularning faqat 10% ni hayotini saqlab qolish mumkin.

Birinchi yordamning eng oddiy usuli birinchi bosqichda.tok ta’siridagi kishini tokdan ozod qilish va ikkinchi bosqichda sun’iy nafas berish, hamda yurakni uqalash muolajasini amalga oshirishdan iborat bo‘ladi.

Birinchi bosqichda tokni uzish tok uzgichdan, saqlagich tiqini burab yoki uzg‘ichni ajratib, rozetkadan sanchqini tortib ajratish orqali tok uzib qo‘yiladi. Nam kiyimdagi shikastlangan kishi ustiga quruq arqon, rezinali shlang, himoya qoplamasi mavjud o‘tgazgich sim kabi tok o‘tkazmas ashyolarni birini uloqtiriladi va ular yordamida kuchlanish ostidagi kishini undan tortib chiqariladi. Shuningdek tokli sim ostidagi odamni qutqaruvchi kishi qo‘lining kafti bilan itarib yuborib ozod qilsa bo‘ladi. Bu usul bilan kiyimi nam bo‘lgan jabrlanuvchini qutqarish ham mumkin, ammo bunda qutqarayotgan odam qo‘lini quruq kiyim bilan yoki boshqa tokdan himoyalovchi buyum bilan o‘rab olishi kerak bo‘ladi. Jabrlanuvchini yuqorida ko‘rsatilgan tokdan ozod qilish usullarini qo‘llashning iloji bo‘lmagan taqdirda quruq yoki himoyalangan dastali bolta, chopqi, belkurak, ombur yordamida tezlikda kesish kerak. O‘tkazgich simini kesish paytida unga qaramaqarshi o‘girilgan holatda turish tavsiya etiladi, chunki kesish jarayonida qisqa tutashuv ro‘y berib, uchqun sachrashi va kishi yuziga urilishi oqibatida yuz terisi kuyishi mumkin va kuchli yarqirash kishini ko‘zini qamashtirib vaqtinchalik ko‘rish qobiliyatini susayishiga olib keladi. O‘tkazgich simni quruq yog‘och cho‘p, tayoq, taxta va tok o‘tkazmas predmetlar yordamida ham uloqtirib kishini tokdan ozod qilsa bo‘ladi.

Jabrlangan kishini tokdan qutqarishda ayrim hollarda yerga ulangan yalong‘och o‘tkazgich simni kuchlanish ostidagi yalong‘och simga otib yuborilib o‘tayotgan tokni yerga o‘tkazib yuboriladi, jarohatlangan kishining badanidagi tok kuchlanishi sezilarli xavfsiz darajaga pasaytiriladi va jabrlanuvchi kishi o‘zini qutqarish ehtimoliga ega bo‘lishi ham mumkin. Bu usulda shuningdek simlar tegib turgan joyida ataylab qisqa tutashuv hosil qilish bilan avtomat tarzda ishlovchi o‘chigik o‘z-o‘zidan tokni uzib qo‘yadi va natijada tok o‘tkazish tizimida kuchlanish yo‘qoladi.

Elektr tokidan jarohatlangan kishiga, agar u hushini yo‘qotgan bo‘lsa, jabrlanganga darhol sun’iy nafas berish kerak bo‘ladi. Sun’iy nafas berish quyidagi usullardan biri yordamida amalga oshiriladi: og‘izdan - og‘izga va og‘izdan – burunga. Sun’iy nafas berishni hatto qisqa vaqtga bo‘lsa ham, jabrlanuvchini biror joyga olib borishda ham to‘xtatmaslik kerak.

Sun’iy nafas berishga kirishishdan oldin, jabrlanuvchini tekis joyga olib boriladi va uni siqib turgan kiyimlari yechiladi yoki qayishlari bo‘lsa bo‘shatiladi. Keyin uni yelka kuraklarini tekkizgan holda chalqanchasiga yotqiziladi, kuraklari ostiga dumaloqlanib o‘ralgan kiyim yoki yostiq qo‘yiladi. Yordam beruvchi kishi chap qo‘lini uning gardani ostiga qo‘ygan holda uni kalasini mumkin qadar orqaroqqa oladi. Bu holatda jabrlanuvchining nafas yo‘llari gorizontal holatda bitta tekislikda bo‘lishiga harakat qilinadi.

Buning natijasida jabrlanuvchining iyagi biroz yuqoriga ko‘tarilgan vaziyatni egallagan holatida va og‘zi ochilga bo‘ladi. Yordam beruvchi 2-3 chuqur nafas olib, og‘zidan jabrlanuvchining og‘ziga yoki burniga toza qo‘l ro‘molcha yoki sterlizatsiyalangan doka orqali havo yuboriladi. Jabrlanuvchining og‘ziga nafas berilayotganda, yordam beruvchi uning burnini barmog‘i bilan qisib yopib turadi, burniga nafas berayotganida esa uning og‘zini berkitib turadi.



1-rasm. Sun’iy nafas berish

Sun’iy nafas berishning chastotasi bir daqiqada 12-16 martadan oshmasligi kerak. Jabrlanuvchining yurak urishi to‘xtagan bo‘lsa, sun’iy nafas berish bilan birga yuragini uqalash birga olib boriladi. Bu muolaja qon aylanish tizimi faoliyatini tiklaydi. Buning uchun ko‘krak qafasining pastki sohasiga chap qo’lni cho‘ziq holatida kafti qo‘yiladi. Kaftning ustiga bosim berishni kuchaytirish maqsadida boshqa qo‘lni qo‘yiladi. Bosim berganda ko‘krak qafasi 3-4 sm ga siljishini ta’minlash kerak bo‘ladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, bosim juda kuchli bo‘lmasligi va buning oqibatida jabrlanuvchining qovurg‘a suyaklari shikastlanmasligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Har bir bosim berilganda tezda qo‘lni

ko‘krak qafasidan olib, uni oldingi vaziyatini egallashiga sharoit yaratish kerak. Har bir bosim berish chastotasi taxminan bir soniyaga bir marta bo‘lishi kerak, 3-4 bosimdan keyin bir marta 2 soniyalik tanaffus qilanadi. Agar birinchi yordamni bir kishi bajarayotgan bo‘lsa, puls yo‘q bo‘lgan holatda jabrlanuvchiga 2-3 marta chuqur nafas yuboriladi, shundan 96 so‘ng 15-20 marta yuragi uqalanadi va yana 2-3 marta chuqur nafas berishga o‘tiladi va yurakni uqalashga o‘tiladi h.k. xuddi shunday takrorlanaveradi (1-rasm). Jabrlanuvchining yurak faoliyatining tiklanishi uning pulsidan, yuzi chakkalarida qizarishi paydo bo‘lishidan bilsa bo‘ladi. Nafas olishining tiklanishini jabrlanuvchining erkin holatida ko‘krak qafasining ko‘tarilishi va pasayishining takrorlanishidan bilsa bo‘ladi.

Insoniyat hozirgi informatsion texnolgiyalari asrida o‘zining hayot faoliyatining muhim masalalarini yechishda hisoblash va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaydi. Kompyuterlar asosida zamonaviy axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash uchun ularning o‘rni beqiyos ekanligiga hech shubha yo‘q. Ammo kopyuterlardan foydalanishda ularning ijobiy omillari bilan birga, salbiy omillari ham mavjudki, bular insonning sog‘lig‘iga yomon ta’sir qiladi.

Kompyuter texnologiyalarining salbiy tomonlarini insonning ish faoliyati va sog‘lig‘iga ta’siri bir nechta omillarining birgalikdagi ta’siri orqali nomoyon bo‘ladi. Bir necha omillarining birgalikdagi ta’siri natijasi “samaradorligi” bu omillarning alohida ta’siri natijalariga ko‘ra paydo bo‘lgan salbiy oqibatlari kuchliroq bo‘lishini ko‘rsatadi. Bizning nazarimizda salbiy omillarning shiddatli bo‘lishi natijasida ularni ta’siri, to‘planadi va akkumulyatsiya bo‘lish bilan kechadi. Bularning oqibatida inson organizmida funksional o‘zgarishlarni sodir etadi va organizmni kasallanishiga olib keladi.

Kompyuter bilan ishlayotgan kishiga ta’sir etuvchi salbiy omillardan biri elektromagnit nurlanish bo‘lib u turli diapozondagi elektromagnit spektriining nurlanishlaridan iborat: rentgen nurlari; optik nurlar, yuqori chastotali elektromagnit maydoni, juda kichik chastotali maydon; elektrostatik maydon ko‘rinishlarida bo‘ladi.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra elektromagnit nurlanishlarining turlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Elektromagnit nurlanishlarining turlari
(Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlari)

Nomlanishi	**Diapozoni**	**Nurlanishning yuqori chegarasi**	**Standart nurlanish**
Ionlashgan nurlar			
Rentgen nurlari	1,2 keV dan ko‘p	Qayd qilinmagan (ehtimolligi, 0,1 meV dan kam bo‘lishi mumkin)	5-10meV/soat
Optik nurlanish			
UF-A (Ultra binafsha)	315-400 nm	0,1 Vt/m^2	10 Vt/m^2
Ko‘rinadigan diapozon	400-700 nm	2,5 Vt/m^2 127 kd/m^2	10000 kd/m^2
Yaqin IQ (infra qizil) nurlar	700-1500 nm	0,05 Vt/m^2	100 Vt/m^2
Uzoq IQ (infraqizil) nurlar	1050 nm - 1 mm	4 Vt/m^2	10 - 100 Vt/m^2
Elektromanit nurlari va radiochastotali diapozonning maydoni			
VCh (Yuqori chastota), OVCh (Juda yuqori chastota) E – maydon N - maydon	3-300 MGs	 0,5 V/m 0,0002 A/m	 100 V/m 0,2 A/m
SCh (O‘rta chastota), NCh (past chastota), ONCh (Juda past chastota) E – maydon N – maydon	3kGs – 3MGs	 150 V/m	 600 V/m

		0,1 A/m	1,6 A/m
SNCh (Juda past chastota) E – maydon N – maydon	0 – 3 kGs	 65 V/m 0,2 A/m	 2 - 10 kV/m -
Eletrostatik maydon			
Elektrostatik maydon	-	15 kV/m	20 – 60 kV/m

Kompyuter atrofidagi magnit maydonlarining darajasi jadvalda ko‘rinib turibdiki, qoidaga ko‘ra, yo‘l qo‘yarli chegarasidan kam miqdorda, ammo displey qoplamasini himoya ekrani bilan to‘sish kerakligi aniqdir.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, elektromagnit nurlanish kataraktogenoz kasalligini keltirib chiqaruvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Kataraktani potensial rivojlantiruvchi elektromagnit nurlarining to‘rtta sohasi mavjud, bularga ionlashgan nurlar, ultra A - binafsha nurlar, infraqizil va mikroto‘lqinli nurlar kiradi. Bulardan ko‘rinadiki, ularning kasallikni keltirib chiqaruvchi “samaradorligi” ta’sir etish dozasiga bog‘liq degan xulosaga qilamiz.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Elektr energetika uskunalariga xizmat ko’rsatishda yuz bergan baxtsiz hodisalar oqibatida jarohatlanganlarga shifokordan oldin yordam ko’rsatish bo’yicha yo’riqnoma. «O’zdavenergonazorat» elektr energetikada nazorat bo’yicha davlat inspeksiyasi. -T. «Mehnat», 2016 y

2. U. S. Sirojiddinov. Elektr xavfsizligi. -T. «Lesson press» 2021 y

3. O. Qudratov, T. G’aniyev. Hayotiy faoliyati xavfsizligi, Toshkent «Mehnat», 2004 y

4. Mehnat xavfsizligi bo’yicha chiqarilgan qonun va qoidalar, yo’riqnomalar, elektr xavfsizligi burchaklari.

FEATURES OF PROPERTIES OF FINE-GRAINED CONCRETE BASED ON CEMENT WITH LOW WATER DEMAND

Karimov G.U
associate professor Samarkand State University of Architecture and Construction, Kaunas University of Technology Department of building materials
Gintautas Skripkiunas prof.
Yusupov H.V. prof. SSUAC,
Saidmurodova S.M. PHD student

Abstract. Introduction The widespread introduction of fine-grained concrete (FGC) into the practice of monolithic house construction is limited by their low crack resistance due to significant shrinkage. In order to reduce the harmful effect of shrinkage on the structure and properties of fine-grained concrete, it is proposed to use binders of low water consumption for their production. The use of FGC with improved physical and technical properties increases the manufacturability of construction of structures, reduces the labor intensity of concreting, and allows the introduction of structures of complex architectural forms.

Keywords: improvement of cement stone, low water demand cement, structure of cement stone formation, fine-grained concrete.

Materials and methods. In order to study the processes of formation of the properties of FGC, concrete mixtures were made based on medium-grained quartz sand, cement with low water demand, LWDC was prepared with mineral additives, ash dune sand and a JK-2 sand paste separator. For each composition, hardening conditions of a certain degree of humidity were simulated, followed by determination of the technical characteristics of concrete.

Results. The results of a study of the influence of various types of LWDC, differing in mineral composition, dispersion and degree of hydraulic activity on the magnitude and kinetics of shrinkage, parameters of the pore structure and strength of the FGC, have been established; the influence on the characteristics of the pore structure of the FGC and its strength indicators has been established. The influence of hardening conditions on FGC of various compositions during hydration on the technical properties of FGC was determined.

Conclusion. It has been established that the introduction of cements with low water demand makes it possible to obtain FGC with increased crack resistance, impermeability and durability.

Introduction. In connection with the intensive development of monolithic house construction in the Republic of Uzbekistan, the emergence of non-standard

original designs with complex geometric shapes requiring the use of densely reinforced structures, there is a need for wider introduction into construction practice of fine-grained highly mobile concrete mixtures. High-quality concreting for such structures is a difficult task due to the presence of hard-to-reach zones in the reinforcement frame, which make it difficult to distribute the concrete mixture evenly throughout the volume of constructed structural elements. The use of fine-grained concrete mixtures of cast consistency or self-compacting concrete mixtures allows not only to ensure high-quality concreting, but also to effectively use various types of concrete pumps, significantly reducing labor costs for the construction of complex monolithic reinforced concrete structures [1].

It is also necessary to widely introduce fine-grained concrete into construction practice due to the fact that in many regions of the Republic of Uzbekistan there is an acute shortage of high-quality coarse aggregate necessary for the preparation of self-compacting concrete. At the same time, sufficient experience has now been accumulated in the use of fine-grained concrete with strength classes B30 ... B60. However, with all the advantages of using FGC for monolithic house construction, a number of factors must be taken into account that limit their widespread use for the construction of building structures for various purposes, namely: increased consumption of cement and associated increased shrinkage, high porosity, low crack resistance. In addition, due to the absence of coarse aggregate in their composition, which forms a rigid frame in the structure of conventional concrete, FGC are characterized by increased creep and deformability. [2]

It requires the development and implementation of special design and technical solutions that reduce the effectiveness of the use of MZB in building structures.

An effective way to eliminate the harmful effects of shrinkage on the structure and properties of FGC is the use of low water demand cements (LCC). The introduction of cement with low water demand into the composition of FGC allows one to actively influence the development of the processes of structure formation of cement stone and concrete at an early stage of hardening. [2]

Of the entire variety of LWDCs, classified according to the chemical reactions underlying the development of hardening processes, the most effective and acceptable from a practical point of view is the use of LWDCs. Hydration of LWDC, which includes a denser component, is accompanied by two parallel processes: on the one hand, the development of all types of shrinkage deformations accompanying the hardening of cement, as a concomitant part of the hydration process during the formation of the structure of cement stone; on the other hand, the development of a dense system process, as a result of a chemical reaction during new formation and high strength density. [3]

The composition of LWDCs characterized by independent hydraulic activity, in addition to filling the intergranular voids of cement stone, exhibits such a positive factor as the ability to generate hydration neoplasms, which are additional density elements.

This reduces the total number of pores, and also increases the density of the “cement stone-filler” contact.

Improving the technical properties of FGC is possible due to the formation of an optimal grain composition of the binder, when the intergranular space of large grains is replaced by smaller particles. The use of LWDC of optimally selected compositions, in the intergranular space of LWDC particles, less water demand is ensured, LWDC is provided with a dense systemic structure, which becomes an important prerequisite for obtaining high-quality FGC.

When using LWDCs with high activity and low water demand, the density and strength of cement stone is increased due to the low water demand of the binder. In this regard, the use of LWDC has a complex effect on the development of the processes of structure formation of cement stone and the properties of FGC.

Studies of the properties of FGC were carried out on TsNV-55, with a normal density of 18.5%, which was considered as the base cement Navoi cement. Quartz sand from the Dzhumensky quarry with ρav=1.63 g/cm^3, ρis=2.63 g/cm^3, voidness P=39, fineness modulus Mk=2.8, water requirement Wp=7% was used as a fine aggregate.

The study of the properties of FGC with meta consistency was carried out on class B60 concrete. The research was carried out on the following concrete compositions: 1:2.1; 1:2.64; 1:2.9; at LWDC from 550 to 700 kg/m^3.

The influence of LWDC on the main FGC of strength class B60 with mobility P5, corresponding to a compressive strength of 77.6 MPa, was considered. Concrete mixtures were made with a water-cement ratio W/c = 0.36. The resulting mobility of the concrete mixture was 23.4 g/cm of cone melt, the average density of the freshly laid concrete mixture was 2165 kg/m^3. To study the properties of concrete, cube samples measuring 10x10x10 cm were made. The deformations of hardening FGC were determined on samples 4x4x16, at an ambient humidity of 60-80% and a temperature of 20÷22ºC. Measurements were carried out for 50 days until the deformations stabilized.

In accordance with this, studies have been carried out using LWDC on the properties of concrete mixture FGC with a composition of 1:2. The research results are presented in Table 1.

As can be seen from Table 1, the introduction of LWDC in the FGC composition increased the mobility of the mixture, and the strength increased from 58.3 to 77.1 MPa.

Composition and properties of the tested concrete mixture according to the basics of TsNV-55

No	Material consumption (kg/m^3)			V/C	Strength, 28 days MPa		Viscous fracture coefficient Ks, MPa m$^{1/2}$
	CNV	Sand (S)	Water (W)		R_r	R_s	
1	350	1000	140	0,4	3,96	48,3	2,57
2	400	1000	152	0,38	4,15	43,8	2,85
3	450	1000	166.5	0,37	4,72	49,3	3,05
4	500	1000	180	0,36	5,51	51,2	3,14
5	600	1000	210	0,35	6,35	57,3	3,64
6	650	1000	214.5	0,33	7,15	55,8	3,87

While maintaining the specified mobility, which allows for the effective use of FGC for the manufacture of structures with concrete strength class B60 and lower.

Analysis of the results of experimental studies showed that by ensuring careful care of FGC based on LWDC during the most active hardening period of up to 1 ... 14 days by creating optimal temperature and humidity conditions, it is possible to obtain concrete with high strength, crack resistance and durability.

Wet storage and careful care of hardening FGC based on LWDC must be ensured for at least a period of up to 7 days. after completion of concreting, until the strength of the LWDC matrix reaches the level required for the internal stresses arising during the development. (Fig. 1)




Figure 1. The influence of care conditions on the strength of the MZB.

1÷28 days in water;

1÷7 days in air-dry conditions upon reaching strength in % of brand.

Numerous studies of the process of formation of the FGC structure based on LWDC at a relative humidity of about 90% or when stored in water have shown that the kinetics of the process of FGC strength depends on the degree of hydration of the LWDC matrix and the amount of ettringite formed.

Thus, based on the above, we can draw the following conclusions, taking into account the features of the FGC technology based on LWDC, it is quite sufficient to ensure the specified quality of FGC based on LWDC; it is important to organize a high-quality follow-up after the completion of concreting.

Studies of the durability of prefabricated and monolithic reinforced concrete enclosing structures manufactured by FGC based on LWDC, which were operated for a long time in a dry, hot climate, showed that due to the development of shrinkage deformations, the loss of self-stress does not exceed the value, while maintaining the design strength indicators. At the same time, the preserved level of self-stress ensured the requirements for crack resistance, and the indicators for strength, water resistance and frost resistance were significantly higher than for conventional FGC concrete based on Portland cement.

It has been established that the use of LWDC in FGC technology makes it possible to obtain high-quality FGC of cast consistency, corresponding in its properties to dense FGC concrete mixtures.

The use of LWDC based makes it possible to obtain FGC with increased strength, crack resistance and durability.

References

1. Юсупов Х.В. Особенности свойств бетонных смесей на основе ВНВ в условиях сухого жаркого климата. Диссертация на соиск. учен. стен. к.т.н Москва 1992.

2. Karimov G. U. et al. ENERGY EFFICIENT BINDER OF LOW WATER DEMAND WITH MODIFIED MINERAL ADDITIVES BASED ON LOCAL AVAILABLE COMPONENTS //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 106-109.

3. Баженов Ю.М., Чернышов Е.М., Коротких Д.Н. Конструирование структур современных бетонов: определяюсцие принципы и технологические платформы (строительные материалы). 2014. №13. ст. 6-14.

4. Bakhriev N. F. et al. Bio Filler, Breathable Conglomerate, Thermo Physical Modeling, Bioresearches, Fractions, Shavings, Fibers, Gypsum, Dry Building Mixtures, Adhesion, Cohesion, Durability //JournalNX. – С. 393-401.

5. Федоров С.В. Применение вяжущих высокий активности с низкой водопотребностью (ВНВ) в технологии мелкозернистого песчаного бетона. Диссертация на учен. стен. к.т.н Москва 1990.

6. Агзамов Ф.А., Конесев Г.В., Хафизов А.Р. Применение дезинтеграторной технологии для модификации материалов, используемых при строительстве скважин. Часть II // Нанотехнологии в строительстве. – 2017. – Том 9, № 3. – С. 96–108. – DOI:dx.doi.org/10.15828/2075-8545-2017-9-3-96-108.

7. Karimov G.U., Yusupov Kh.V., Kamilov Kh.Kh., “Composition Optimization Low Water Demand Cements” ‘International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)’, ISSN: 2278-3075 (Online), Volume-9 Issue-7, May 2020, Page No. 769-772.

8. MEGAPLACT JK-02, JK-08, JK-15 суперпластификатор для бетона. Ташкент WWW.benton.uz

9. Бахриев Н.Ф. Каримов Г.У. Моделирование и оптимизация составов вяжущих низкой водопотребности для производства ячеистых бетонов BusinessCem Tashkent 2019 XVII международная центрально-азиатская конференция и выставка 3-6 ноябрь 2019, Ташкент Узбекистан Стр. 40-45.

10.Тулаганов А.А., Касимов И.У., Камилов Х.Х., Султанов А.А., Мухамедбаев А.А., Сайдуллаев А.Б., Абдазов Д.Р. Безобжиговое щелочное вяжущее – конкурент традиционному портландцементу / Архитектура. Строительство. Дизайн. Научно-практический журнал. ТАСИ. 2020. №1. С. 38-49.

11. Batrakov V. G., Modifitsirovannie betoni. Teoriya i praktika. 2-ye izd., pererab. i dop- M.1998.-B. 768.

УДК 624.044

РЕСПУБЛИКАМИЗ ВА ДУНЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ТЕРМИТЛАР ТОМОНИДАН ТУРАР-ЖОЙ БИНОЛАРИНИНГ ЁҒОЧ КОНСТРУКЦИЯЛАРИГА ЕТКАЗИЛАЁТГАН ЗАРАРИ

Саримсоқов Сардор Шойзақович.
Жиззах политехника институти


Аннотация: Мақолада, республикамиз ва дунё мамлакатларида термитлар томонидан турар-жой биноларининг ёғоч конструкцияларига етказилаётган зарари хақида қисқача маьлумотлар келтирилиб ўтилган. Термитлар келтираётган иқтисодий зарарлар хақида маьлумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: ҳимояловчи антисептиклар; термитлар; обектлар; кимёвий препаратлар.

Аннотация: В статье представлены краткие сведения об ущербе, наносимом термитами деревянным конструкциям жилых домов в нашей республике и странах мира. Приведены сведения об экономическом ущербе, причиненном термитами.

Ключевые слова: защитные антисептики; термиты; объекты; химические препараты.

Кириш. Республикамиз ва дунё мамлакатларида термитлар томонидан зарар етказилаётган турар-жой биноларнинг таҳлили. Ўзбекистонда термитлар томонидан турар-жой биноларига зарар етказилаётганлиги ҳақида турли маълумотлар мавжуд. Шу жумладан, 2023 йилги илмий тадқиқот ишлари натижасида Хивадаги 40 га яқин тарихий ёдгорликлар ва мамлакатнинг бошқа минтақаларидаги 30 мингга яқин турар-жой бинолари термитлар томонидан зарар етказилаётганлиги ҳақида мутахассислар томонидан маълумотлар берилган. Ўзбекистон Фанлар академияси Ўсимликлар ва ҳайвонлар дунёси генофонди институти қошидаги Республика термитларга қарши кураш маркази томонидан берилган маълумотларга қараганда термитларнинг қарийиб 3 минг тури мавжуд.



1-расм. Республикамиз ва дунё мамлакатларида термитлар томонидан зарар етказилаётган турар-жой бинолари

Иссиқ иқлими бўлган минтақаларда яшовчи бу ҳашаротлар ўсимлик қолдиқлари ва бошқа чиқиндилар билан озиқланади, экотизимларнинг барқарорлигини таъминлашда муҳим рол ўйнайди.

Дашт зоналарининг кенг миқёсда ривожланиши термитларнинг модификациясига ва яшаш жойларининг ўзгартиришига олиб келди. Натижада улар одамларга, айниқса тарихий обидаларга яқинлаша бошладилар.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги матбуот-хизмати маълумотларига кўра жойларда зарарли термитларга қарши курашиш ва зарарини камайтириш бўйича бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Қорақалпоғистон Республикаси, Қашқадарё, Сурхондарё, Самарқанд, Навоий ва Хоразм вилоятларида мутасадди хизматлар ҳамкорлигида аҳоли хонадонларининг термит билан зарарланганлик ҳолатини ўрганиш, зарарланган хонадонларга заҳарли ем-хўраклар ўрнатиш, ижтимоий-иқтисодий, тарихий ва маданий меърос объектларида термит тарқалишининг олдини олиш ҳамда зарарини камайтириш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилди. Тадбирлар давомида, аҳоли хонадонлари ва иқтисодий-ижтимоий, маданий ва тарихий обектларда кимёвий ишлов бериш ишлари олиб борилиб, 11430 м^2 термит тарқалган дала ва майдонларда зарарсизлантириш ишлари амалга оширилди. Юқорида кўрсатиб ўтилган ҳудудларда термит билан зарарланган аҳоли турар-жойлари, маданий-тарихий обидалар, ижтимоий-иқтисодий обектларни хатловдан ўтказиш, уларга кимёвий ишлов бериш ҳамда аҳоли ўртасида тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш тадбирлари давом эттирилмоқда.

Ўзбекистон ҳудудида *Anacanthotermes* авлодига мансуб 2та тур: Туркистон ва катта Каспий орти (A.turkestanicus Jacobs., A.ahngerianus Jacobs.) термитлари тарқалган бўлиб, айниқса кейинги 20-30 йил давомида республикамизнинг деярли барча вилоятларида ва Қорақалпоғистон Республикасида аҳоли хонадонлари, қишлоқ хўжалиги бинолари ва ҳатто тарихий обидаларга катта зарар етказмоқда. Бугунги кунда Республика бўйича жами 15 313та хонадон, 24та ижтимоий соҳа объекти, 75та ташкилот ҳамда 772 та (дала, чўл, қабристон) очиқ ер майдонлари термитлардан зарарланган. Дунё бўйича термитлар томонидан келтирилаётган зарар йилдан йилга ошиб бормоқда. Ғарбий Африкада термитларнинг биноларга келтираётган зарари жорий таъмирлаш учун сарфланадиган маблағнинг 10 фоизини ташкил қилса, АҚШда термитлар келтираётган зарар йилига 1,5 млрд, дунё бўйича эса 20 млрд долларни айрим маълумотларга қараганда 40 млрд долларни ташкил этади. Биргина, 100 см^3 ҳажмдаги 25 минг дона термитдан иборат бўлган битта оила бир йил давомида ўртача 50 минг см^3 ҳажмли турли кўринишдаги целлюлозани истеъмол қилиши аниқланган.

Хива шаҳридаги тарихий обидаларга термитлар томонидан етказилаётган зарарлар таҳлили. Марказий Осиёнинг дунёга машҳур Шарқ гавҳари ҳисобланмиш Хива шаҳридаги тарихий обидалар термитлар фаолияти натижасида катта зарар кўрмоқда. Хива Ичан-Қалъа давлат музей қўриқхонаси тасарруфидаги термитдан кучли зарар кўраётган Кўҳна Арк мажмуаси, Жума масжид, Шерғозихон, Қутлуғ Мурод Иноқ ва Матпанобой мадрасаларида термитлар фаолиятини ўрганиш мақсадида олиб борилган илмий изланишлар натижасида куз илиқ келган 2023 йилнинг ноябрь ойида ҳам бу обидаларнинг айрим қисмларида термитлар фаолият олиб бораётгани қайд этилди. Хоразм вилоятининг Хива шаҳар “Ичан-қалъа”, "Янги Турмуш”, “Мевастон” махаллалари, Гулистон махалласидаги Янгиобод шаҳарчаси, Кўшкўпир тумани “Янгилик” қишлоғи “Айронкўл” маҳалласдаги 74 та, Шовот тумани Шовот шаҳарчаси “Маданият” маҳалласидаги 14 та хонадонлар ҳамда Араб бобо қабристони, шунингдек Янгиариқ тумани Қўриқтом қишлоғи Пўрсанг маҳалласи, Хонқа туман Олажа маҳалласи, Ҳазорасп шаҳарчаси Ҳазорасп Қалъаси, Питнак туман Чингиз каби ҳудудлари термитлардан жиддий зарар кўрмоқда.

Термитлар келтираётган иқтисодий зарар ниҳоятда юқорилиги туфайли, термитлардан целлюлоза материалларини ҳимоя қилиш дунё бўйича ҳам ҳал қилиниши лозим бўлган долзарб муаммолардан ҳисобланади. Шу боис термитларга қарши янги чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Термитларга қарши курашнинг ҳозирда бир неча кимёвий, биологик, уйғунлашган ҳамда радиологик, ультра товушлар, термик, механик усуллари мавжуд бўлиб, бу усуллар термитлар сонини чеклаб, улар келтираётган зарарни қисман камайтириш билан чегараланади. Ҳозирги шароитда термитларга қарши курашнинг кимёвий усули бошқа усулларга нисбатан анча самарали ҳисоблансада бу усулнинг иссиққонли жониворларга, жумладан, инсонлар саломатлигига салбий таъсирини инобатга олсак, бу усулнинг самарасидан зарари кўплиги аён бўлади.

Ҳозирда дунёда энг долзарб муаммолардан бири термитларга қарши курашни такомиллаштириш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Маълумки, термитларнинг экобиологиясини мукаммал ўрганмасдан, билмасдан уларга қарши олиб борилган кураш кутилган натижа бермайди. Шу боис олимлар, термитларнинг маҳаллий табиий ландшафт шароитида уя камераларидаги фаунанинг таркибини ўрганиш ва уларга қарши курашда, камералардаги паразитлардан фойдаланишни йўлга қўйиш борасида тадқиқотлар олиб борилмоқдалар. Термитларга қарши курашнинг атроф-муҳит учун мутлоқа зарарсиз фақатгина ҳашаротларга, жумладан, сувараксимонлилар оиласи, чигирткалар, ипак қурти ҳаёти учун ҳалокатли таъсир этадиган *Beauveriya tenella BD 85* штамми замбуруғини қўллаш услуби орқали олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасида, ишлаб чиқилган ва амалиётга тадбиқ этилган.

Сурхондарё вилоятида термитлар томонидан зарар етказилаётган турар-жой биноларни таҳлили. Термитлар томонидан бир неча йиллардан бери Сурхондарё вилояти Термиз тумани Баҳористон қишлоғида 70-80 % аҳоли турар-жой бинолар билан бир қаторда уларнинг қоғоз, китоб ҳамда кийимларга ҳам катта зарар етказганлиги маълум қилинган. Қишлоққа қўшни бўлган Термиз аэропортига ҳам термитлар томонидан зарар етказилаётганлиги аниқланган.



2-расм. Термитлар томонидан зарар етказилаётганлиги аниқланган қурилиш материаллари.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, таркибида азот ва олтингугурт сақлаган органик бирикмалар синтези, уларни қўллашнинг ривожланиш итиқболлари ва замонавий муаммолари шунингдек, дунёда ҳамда республикамизда антисептикларни қўлланилиши асосидаги маълумотлар, таҳлиллар асосида ўрганилди. Шунингдек таркибида азот ва олтингугурт сақлаган органик бирикмалар синтез қилишнинг замонавий усуллар, рекция механизмлари ҳамда реакция жараёнларга таъсир этувчи омиллар таҳлил қилиш талаб этилади. Дунёда ва республикамизда ёғочни ҳар хил ички ва ташқи таъсирлардан ҳимояловчи антисептиклар сифатида қўлланиладиган кимёвий препаратларнинг қисқача таснифи ўрганиш талаб этилади. Ушбу таҳлиллар асосида республикамиздаги тарихий обидалар, бино ва иншоотларга етказилган зарарлар ҳамда уларни ҳимоялашнинг муаммолари ва уларнинг замонавий ечимлари ишлаб чиқилади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Қосимов Т.К. Ёғоч ва пластмасса конструкциялари. Ўқув қўлланма Самарқанд – 2018 й
2. Закон Республики Узбекистан “Об архитектуре и градостроительстве” Ташкент 22 декабря 1995г.
3. Sarimsoqov S.SH. Yog’ochning sirpanuvchanlik nazariyasiga asosan kuchlanish deformatsiya va vaqt o’rtasidagi bog’lanish. 292-295 bet. Zamonaviy qurilish sohasida ta’lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
4. Sarimsoqov S.SH. Qurilish hududini seysmik rayonlashtirish. 112-114 bet. . Zamonaviy qurilish sohasida ta’lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
5. R.D. Xamroqulov. S.SH.Sarimsoqov .Noyob va baland binolarning zilzilabardoshligi. Jizzax. O’quv qo’llanma 2023.
6. Махматқулов Т. Ёғоч конструкциялари.//Дарслик Тошкент (SAHHOF) .

ISSIQXONALARDA QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Mamatov Bakir Botir o‘g‘li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, tayanch doktorant,

Annotatsiya: Maqolada O’zbekistonda mavjud parnik qurilmalari uning konstruksiyaviy tuzulishini iqlim sharoitiga qarab tanlash, parniklarda quyosh nergiyasidan foydalanish va hosildorlikni oshirish imkonyatlari, ularning iqtisodiy va ekologik jihatlari batafsil bayon qilingan.

Kalit so’zlar: yopiq zamin, issiqxona, fotosintez , issiqlik akkumulyatorlari, isslqlik almashinuv, gidropon issiqxona, tuproqli issiqxona.

Kirish. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligining m'lumotlariga ko'ra bugungi kunda O’zbekistonda 6,5 ming gektarga yaqin issiqxonalar mavjud bo'lib, shundan 1,1 ming gektari (17%) gidropon usulida va 4,9 ming gektari (83%) tuproqli usulda mahsulot yetishtiriladigan issiqxonalardir. 2021 yili mamlakatimiz issiqxonalarida 271 ming tonna mahsulot yetishtirilgan, shun-

dan 167 ming tonnasi pomidor (issiqxonada yetishtirilgan jami mahsulotning 62 foizi)dir.

2022 yili O'zbekiston issiqxonalarida 342 ming tonna mahsulot yetishtirish rejalashtirilgan, shundan 199 ming tonnasi pomidor (issiqxonada yetishtiriladigan jami mahsulotning 58 foizi)dir. Shunday qilib, bu yil O'zbekistonda issiqxona mahsulotlari yetishtirishni o'tgan yilga nisbatan 26 foizga, issiqxona pomidori hajmini esa 19 foizga oshirish rejalashtirilgan.



1-rasm. Gidropon usulidagi issiqxona

Asosiy qism. Mamlakatning Buxoro, Xorazm, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi issiqxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismini pomidor tashkil etadi.

O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari sabzavot yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llamoqda. O'g'it va suv sarfini kamaytirish uchun tomchilatib sug'orish, masofadan boshqarish va ekinni gidropon usulida yetishtirish uslublari qo'llanyapti. Natijada, bunday issiqxonada yetishtirilgan hosil hajmi an'anaviy usulda yetishtirilgan ekinnikiga nisbatan 30 foizga ko'payib, suv va o'g'it sarfi esa 30-40 foiz kamaymoqda.

Tomchilatib sug'orish tizimi va gidropon usul joriy etilgan issiqxonalar uchun o'g'itlarni masofadan turib avtomatik kiritish tizimi, agrokimyo laboratoriyalari joriy qilinmoqda.

Oddiy issiqxona. Issiqxona va issiqxonalarda sabzavot yetishtirish muttasil ortib bormoqda. Skandinaviya mamlakatlari, Gollandiya, Germaniyada issiqxonalarda energiya iste'moli milliy energiya iste'molining 1-1,5% ni tashkil qiladi va qishloq xo'jaligida umumiy energiya iste'molining 20-35% ga yetadi.

An'anaviy issiqxonada quyosh energiyasi asosan fotosintez jarayoni uchun ishlatiladi, bunda o'simliklar tushayotgan quyosh nurlari energiyasining 10% gacha o'zlashtiradi va to'playdi. Shu bilan birga, quyosh nuri ta'sirida karbonat angidrid va suvdan uglevodlar va molekulyar kislorod hosil bo'ladi. O'simliklarning hayoti va o'sishi uchun zarur bo'lgan organik moddalar uglevod molekulalaridan hosil bo'ladi.




2-rasm. Oddiy issiqxonaning bir ko'rinishi

Oddiy issiqxonalarda shaffof sirtlarning katta maydoni tufayli sezilarli issiqlik yo'qotishlari yuzaga keladi, bu esa isitish tizimida ma'lum miqdorda yoqilg'i sarfini qoplashni talab qiladi. Issiqxonalarni issiq suv, suv bug'lari, isitiladigan havo, infraqizil nurlanish yoki yonish mahsulotlari bilan isitish mumkin.

Quyosh issiqxonasi. Quyosh issiqxonalarining ikki turi mavjud:

- uyning janubiy devoriga biriktirilgan;
- mustaqil quyosh issiqxonalari.

Quyida biriktirilgan issiqxonalarning turli geometrik shakllari ko'rsatilgan. Ular quyosh nurlanishidan foydalanish darajasi, ichki qismdan eng oqilona foydalanish va shunga mos ravishda dizayni bilan farqlanadi.




3-rasm. Binoga biriktirilgan quyosh issiqxonalarining turli sakllari: a - qiya shaffof qoplamali; b - silindrsimon shaffof qoplamali; c - qiya va vertikal old shaffof qoplamali; d -qiya va qiya old shaffof qoplamali; e - issiqlik izolyatsiyali va old qoplamali: 1 - shaffof izolyatsiya; 2 - shaffof tom; 3 - issiqlik izolyatsiyali devor.

Janubiy saffof sirtning ufqqa nisbatan burchagi hududning kengligiga bog'liq tanlanadi. M: Ozbekistonda 40-45° va Rossiyaning markaziy qismi uchun 50-60° ga teng, tom qismidagi shaffif sirtning ufqga nisbatan burchagi burchagi esa 2035 ° bo'lishi mumkin Tuproqning umumiy sirtini shaffof sirt maydoniga optimal nisbati 1:1,5 ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, optimal energiya balansi ta'minlanadi. Old devorning vertikal joylashishi bilan quyosh energiyasini maksimal

darajada ushlab turish ta'minlanmaydi.


Suvli issiqlik akkumulyatorli avtonom issiqxonalar. Issiqlik akkumulyatori sifatida suvdan foydalaniluvchi bunday issiqxonalarning bir turi quyidagicha: Issiqxonaning janubiy tomoni shaffof izolyatsiyaga ega. Shimoliy devor va tom shaffof bo'lmagan qurilish materiallaridan yasalgan va ichkaridan issiqlik izolyatsiyasi qatlami bilan qoplangan. Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun, devor va poydevorning tashqi yuzasi izolyatsiyalangan. Issiqxonaning shimoliy devorida issiqlik akkumulyatori mavjud, masalan, bir qator bochka yoki idishlarga suv solib qo'yilgan.



4-rasm. Issiqlik akkumulyatori sifatida suvdan foydalaniluvchi bunday issiqxonalarning bir turi: 1 - shaffof izolyatsiya; 2 - issiqlik izolyatsiyali old devor; 3 - issiqlik izolyatsiyali shimoliy devor; 4 - tom; 5 - issiqlik izolyatsiyasi; 6 - issiqlik izolyatsiyali poydevor; 7 - issiqlik akkumulyatori.

Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun, devor va poydevorning tashqi yuzasi izolyatsiyalangan. Issiqxonaning shimoliy devorida issiqlik akkumulyatori mavjud, masalan, bir qator bochka yoki idishlarga suv solib qo'yilgan. Sirtlarning ufqqa nisbatan burchaklarining optimal qiymatlari ma'lum bir mintaqa uchun qish oylarida Quyosh balandligining maksimal burchagiga qarab tanlanadi. Quyosh energiyasini maksimal darajada ushlab turish uchun tomning tizmasi sharq-g'arbiy o'q bo'ylab yo'naltirilishi kerak.

Qayroqtoshli issiqlik akkumulyatorga ega quyosh issiqxonasi. Qayroqtoshli issiqlik akkumulyatorga ega quyosh issiqxonasi ning bir turi quyidagicha: Shimoliy devorning ichki yuzasi yorug'lik nurlarini qaytaruvchi qoplamaga ega, ya'ni oq bo'yoq bilan bo'yalgan. Bu issiqxonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi va issiqlik yo'qotilishini kamaytiradi. Shimoliy devorning issiqlik izolatsiyasi bilan qoplangani issiqxonaning issiqlik iste'molini 2 barobar kamaytiradi.



5-rasm. Qayroqtoshli issiqlik akkumulyatorga ega quyosh issiqxonasi; 1 - shaffof qoplama; 2 - tayanch devor; 3 - shimoliy devor; 4 - issiqlik izolyatsiyasi; 5 - qayroqtoshli issiqlik akkumulyatori; 6 - ko'chat o'suvchi qutilar; 7 - himoyalangan zamin; 8 - issiqlik izolyatsiyalangan poydevor.

Havo almashinuvini oldini olish uchun eshiklar, derazalar, shamollatish teshiklari zich yopilgan bo'lishi kerak. Biroq, 0,5-1 soatda havo almashtirilib turilishi kerak, chunki, chunki odamlar va o'simliklar hayoti uchun toza havo oqimi zarur.

Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish yo'llari.


Quyosh issiqxonasini yaratishda, birinchi navbatda, issiqlik izolatsiyasini qo'llash orqali issiqlik yo'qotilishining sezilarli darajada kamayishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, quyosh energiyasining maksimal ravishda tutib olish va ortiqcha issiqlikni to'plashni ta'minlash kerak.

Quyosh issiqxonasining o'zi passiv quyosh isitish tizimi sifatida xizmat qiladi. Uning samaradorligini oshirish uchun issiqlik akkumulyatoridan foydalanish kerak.

6-rasmda ikki qavat shaffof qoplamali tuproq akkumulyatorli quyosh issiqxonasning sxemasi tasvirlangan. Issiqlik izolyatsiyali shimoliy devorining ichki yuzasida qaytaruvchi qoplama mavjud va issiqxona tuproqli issiqlik akkumulyatoriga ega. An'anaviy plyonkali quyosh issiqxonasi yer osti issiqlik akkumulyatoriga ega bo'lishi mumkin. Bunday turdagi issiqxonaning maydoni 500 m^2 bo'lib, akkumulyator issiqxona ostida 0,5 m chuqurlikda joylashgan. Kengligi 5,4 m, uzunligi 80 m va chuqurligi 1,2 m bo'lgan o'rada joylashtirilgan o'lchami 150-200 mm. bo'lgan granit toshlar issiqlik akkumulyatori rolini o'ynaydi.



6-rasm. Ikki qavat shaffof qoplamali tuproq akkumulyatorli quyosh issiqxonasi.



7-rasm. Tuproq issiqlik akkumulyatorli va plyonkali qoplamaga ega quyosh issiqxonasi: 1 - issiqxona; 2 - issiqlik akkumulyatori; 3, 4 - kanallar; 5, 6 - quvurlar; 7 - ventilyator.

An'anaviy plyonkali quyosh issiqxonasi yer osti issiqlik akkumulyatoriga ega bo'lishi mumkin. Bunday turdagi issiqxonaning maydoni 500 m^2 bo'lib, akkumulyator issiqxona ostida 0,5 m chuqurlikda joylashgan. Kengligi 5,4 m, uzunligi 80 m va chuqurligi 1,2 m bo'lgan o'rada joylashtirilgan o'lchami 150-200 mm. bo'lgan granit toshlar issiqlik akkumulyatori rolini o'ynaydi. Akkumulyator g'ishtdan yasalgan kanallarga ega bo'lib, ular issiqxona bilan diametri 350 mm bo'lgan quvurlar orqali bog'langan. Kanallarning birida 0,1 kVt quvvatga ega ventilyator o'rnatilgan.

Quyosh issiqxonasidan chiqadigan issiq havo birinchi kanaldan o'tib, issiqlikning bir qismini issiqlik akkumulyatorga beradi va keyin ikkinchi kanal orqali yana ventilyator tomonga qaytadi. Kunduzi issiqlik akkumulyatori issiqlikni to'playdi va kechasi bu issiqlikni chiqaradi. Yillik yoqilg'i tejamkorligi 1 gektar ekin maydoniga 400-500 tonna shartli yoqilg'ini tashkil etadi. Quyosh issiqxonasida energiya sarfi ikki qavatli oynalar, siljuvchi issiqlik izolatsiyasi va qurilmani takomillashuvi hisobiga kamayadi.

Xulosa. Quyosh issiqxonasi ostida tuproqda issiqlik to'planishini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kun davomida quyosh kollektorida isitiladigan suv biroz chuqurlikda yerga yotqizilgan plastik quvurlar tizimidan o'tkaziladi, shu sabab issiqlik akkumulyatorida issiqlik to'planadi. Kechasi to'plangan issiqlikdan foydalanish uchun quvurlarga sovuq suv yuboriladi; sovuq suv isib to'g'ridan-to'g'ri, u to'g'ridan-to'g'ri yoki qo'shimcha isitishdan keyin quyosh issiqxonasini isitishga yo'naladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, Q. Y., Aymatov, R. R., & Mamatov, B. B. (2023). ISSIQXONADA QUYOSH PANELLARINI QO'LLASH IMKONIYATLARI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(4), 21-22.

2. Ҳусанов, Ҳ. Г., Исмоилов, А. И., & Маматов, Б. КЎП ҚАВАТЛИ ЯШАШ УЙ-ЖОЙЛАРНИ, МАЪМУРИЙ ВА ЖАМОА БИНОЛАРИНИ НОАНЪАНАВИЙ ҚАЙТА ТИКЛАНУВЧИ ЭНЕРГИЯ МАНБАИ ҲИСОБИДАН ИССИҚ ҲАВО ОРҚАЛИ ИСИТИШ.

3. Aymatov, R. R., Qo'shoqov, S. O., & Mamatov, B. B. (2023). YOQILG 'I-ENERGETIKA MAJMUASI TARMOQLARINING ATMOSFERAGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(4), 5-9.

4. Aimatov, R. R., Mamatov, B. B., & Barotov, Q. (2021). Development of an economic and mathematical model for the optimal development of gas supply systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Published, 12-29.

5. Hassanien, R. H. E., Li, M., & Lin, W. D. (2016). Advanced applications of solar energy in agricultural greenhouses. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, *54*, 989-1001.

TABIATNI MUHOFAZA QILISH, SOG'LOMLASHTIRISH VA REKREATSIYA MAQSADLARIGA MO'LJALLANGAN YERLARNING AHAMIYATI

Gulmurodov Farrux Eshmurodovich
SamDAQU "Geomatika" kafedrasi t.f.n., (PhD)
Tursunov Bekzod Abdimuminovich,
SamDAQU, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ilmiy maqolada tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning kadastr hujjatlarini yuritishni zamonaviy usullar orqali takomillashtirish, ilmiy uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda kartografik vositalarini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash kabi masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiat, muhofaza okruglari, kadastr, kartografiya, rekreatsiya, sog'lomlashtirish, davolash-kurorti.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolish va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasining ahamiyati tabiatni muhofaza qilish hamda sog'lomlashtrish rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning qanchalik dolzarb mavzu ekanligini ko'rsatib turibdi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma

harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o‘zgarishi, ekzogen jarayonlar ta’siri, organik dunyoning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ta’sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o‘zaro ta’sir etib turuvchi ko‘p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog‘liq [7]. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya’ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o‘simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog‘ jinslari, relyef, tuproqlarga bog‘liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o‘zgarish ro‘y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ba’zan, tabiatning biror komponentiga ko‘rsatilgan arzimagan ta’sir hech kutilmagan katta o‘zgarishlarga, xususan, xavfli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham muhtaram yurt boshimiz tomonidan, O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to’g’irisida”gi Farmoni, “O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi faoliyatini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’irisida” va “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’irisida”gi qarorlari qabul qilindi. ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning muhimligini oxirgi yillarda nihoyatda faollashayotgan qator muhim omillar, fan va texnikani jadal rivojlanishi, uning yutuqlarini amaliy faoliyatda keng-ko‘lamda qo‘llanilishi, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni murakkablashganligining ta’sirini o‘sganligi bilan bog‘liqdir.

Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar. Bu toifadagi yerlar maydonining asosiy qismini qo‘riqxonalar va milliy hamda dendrologiya bog‘lari egallaydi.. Bu toifaga kiruvchi yerlarga davlat qo‘riqxonalari, milliy tarixiy-tabiiy va yodgorlik bog‘lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari, botanika bog‘lari, dendrologiya bog‘lari, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanishga berilgan yer uchastkalari kiradi. Bularning barchasi alohida muhofaza etiladigan hududlar hisoblanadi va ularning foydalanish maqsadiga zid faoliyat ta’qiqlanadi. Foydalanish maqsadi - tabiiy jarayon va hodisalarni, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning turlarini tabiiy holatda saqlab qolish, sonini ko‘paytirish va o‘rganish, tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yerlarda kasalliklarning oldini olish va davolashni tashkil etish, turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etishdan iboratdir [2]. 2021 yil 1 yanvar holatiga umumiy maydoni 704,4 ming gektarni tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar tashkil qiladi.


O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (ming ga. hisobida) 01.01.2021y.

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	20261,6	45,13	4198,9	9,35
2	Aholi punktlarining yerlari	221,2	0,49	50,9	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa	857,1	1,91	12,4	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	704,4	1,57	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,3	0,03		
6	O‘rmon fondi yerlari	11153,3	24,84	41,8	0,09
7	Suv fondi yerlari	833,7	1,86	4,7	0,01
8	Zaxira yerlar	10846,8	24,16	2,2	0,005
	Jami yerlar:	**44892,4**	**100**	4311,5	**9,6**


1- jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, yer fondi quyidagi 8 ta toifaga bo‘linadi:1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar; 2) aholi punktlari yerlari; 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;4)tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar; 5) tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar; 6) o‘rmon fondi yerlari; 7) suv fondi yerlari; 8) zahira yerlar;

O'zbekiston Respublikasining yer fondining yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi (01.01.2022yil)

T.r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydoni		Shu jumladan sug'oriladigan	
		jami	Foiz hisobida	jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	27148,5	60,48	4220,5	9,4
2	Aholi punktlarining yerlari	224,1	0,50	50,5	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar yerlar	879,6	1,96	12,7	0,04
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	731,6	1,63	0,8	0,002
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,6	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	12057,3	26,86	45,4	0,10
7	Suv fondi yerlari	827,1	1,84	4,6	0,01
8	Zaxira yerlar	3009,6	6,70	2,1	0,005
	Jami yerlar:	**44892,4**	**100**	4311,5	**9,7**



Yer fondi toifalarining 2022 yil 01 yanvar holati bo'yicha taqsimlanishi



Yer fondi toifalarining 2022 yil 01 yanvar holatiga bo'yicha yer turlarining taqsimlanishi

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rnadiki yer resurslarini boshqarishda zururiy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar orqali har yili yer rusurslarida bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib borish, ma'lumotlarni elektron shaklda bazalarga kiritib borish, joylardagi mahalliy hokimiyat organlarini vaqtida kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash kabi bir qancha muammolarni yechim topishida katta ahamiyatga egadir.

Samarqand viloyatida Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yer maydonlari to'g'risida
M A 'L U M O T

2024 yil 1-yanvar holatiga

№	Yerdan foydalanuvchilar nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yeri			Shu jumladan				Yaylovlar	Axoli tomorqasi		Bog' va sabzavotchilik uyushmalari yerlari	Melioratiy xolati yomon yerlar	Ixota daraxtzorlar	Terakzorlar	Qishloq xo' jaligida foydalanilmaydigan yerlar
			jami	sh.j. xolati yomon yerlar	Ko' p yillik daraxtzorlar jami	bog'lar	uzumzorlar	tutzorlar	boshqa ko'p yillik daraxtzor		Xo'jaliklar soni (ta)	Jami tomorqa yerlari					
I	Paxtachi tumani																
1	"Orlyonok" bolalar oromgoxi (Sh.Qaxxorov massivi)	14,04			6	6											8,04
2	Dabusiya qal'asi (Nazarov)	55,85															55,85
3	Markaziy shifoxona (A.Allayarov massivi.)	3,65															3,65
4	Sultonobod uchastka shifoxonasi	2,7															2,7
5	Toshko'prik jom masjidi	1															1
5	Tuman bo'yicha jami:	**77**			**6**	**6**											**71**
II	Qo'shrabot tumani																
1	"Baliqchi ota" masjidi	2,0															2,0
2	"Gujum ota" masjidi	1,0															1,0
3	Urush qatnashlari yodgorligi	2,0															2,0
III	Tuman bo'yicha jami:	**5**															**5**
IV	Viloyat bo'yicha jami:	**82**			**6**	**6**											**76**

Respublikamizda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning quydagi asosiy guruhlari mavjud.

Bular quydagilar:

**Davlat qo`riqxonalari.** Bugungi kunda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar» tizmida qo`riqxonalar markaziy o`rinni egallab, ularning umumiy maydoni 2164 kv.km.ni tashkil etadi. Davlat qo`riqxonalari qadimiy va eng kuchli tartibda muhofaza qilinadigan hududlardan bo`lib, doimiy harakatda bo`lgan muhofaza qilinadigan mintaqalarni nomoyon etadi. Bu hudud ayrim o`simlik va hayvon turlarini yoki ekotizmlarni himoya qilishga qaratigan. Ularda har qanday xo`jalik faoliyati man qilinadi (nazorat qilinadigan ilmiy tadqiqot ishlaridan tashqari) [5]. Respublikamizda qo`riqxonalar soni 9 ta bo`lib ular *Zomin, Chotqol Surxon, Qizil-Qum, Baday-To`qay, Zarafshon, Nurota, Kitob, Hisor* kabi davlat qo`riqxonalardir.

**Milliy bog`lar.** Hududlarni muhofaza qilishning bu turi 1976-yilda *Zomin* va 1990-yilda *Ugam-Chotqol* milliy bog`larining tuzilishi tufayli joriy etilgan. Milliy bog`lar muhofaza qilinadigan hududning 30% ni tashkil etib, 6061 kv.km. maydonni egallaydi. Milliy bog`larning asosiy maqsadi bioxilma-xillikni saqlash, tabiatdan oqilona foydalanish (turizm, aholi dam olishi, qishloq xo`jaligi, o`rmon mahsulotlarini tayyorlash) hududni kuchli himoya qilishdir. Respublikamizda milliy bog`lar soni 2 ta ular yuqoridagilardir.

Davlat buyurtmaxonalari. Doimiy bo`lmasdan**,** ayrim paytlarda mavsumli qo`riqlash tartibiga ega bo`lgan mintaqalarni o`z ichiga oladi. Davlat buyurtma xonalari qisqa vaqt (5-10 yilga) tashkil qilinadi. Maydoni 12186,5 kv.km. bo`lib, bugungi kunda o`ndan ortiq davlat buyrtmaxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularning vazifasi turli hayvonlarni yetkazib berish, ko`paytirish va himoya qilishdan iborat. Mamlakatimizda *Qorako`l, Qamabcho`l, Sayg`oq, Sudoche, Qo`shrabod, Qoraqir, Sarmishsoy, Arnasoy, Dengizko`l, Muborak, Oqtov, Nurobod* kabi davlat buyurtmaxonalari muhim ahamiyatga ega.

Davlat tabiat yodgorliklari. Bu hududning maydoni juda kam bo`lib, umumiy muhofaza qilinadigan hududlarning 0,1%ini tashkil qilib, o`rtacha 35 kv.km. ni tashkil qiladi. Davlat tabiat yodgorliklari respublikamizda uchraydigan tabiiy obidalardan darak berib, ularni muhofaza qilish, zararlanishdan saqlash, ichki va tashqi turizmni rivojlanishi uchun xizmat qilishdan iborat. Bugungi kunda yurtimizda ko`plab tabiat yodgorliklari mavjud bo`lib ular *Vardanzi, Yozyovon, Qirqqiz, Parpi ota, Peshag`or*lar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, *Jayron* ekomarkazi va *Chotqol* biosfera rezervati ham mavjud.

Xulosa va takliflar: Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik faoliyati rivojlanib borayotgan bir davrda tabiatni muhofaza qilish va sog'lomlashtrish jarayonlarini boshqarishni takomillashtrish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni talab etadi;
- Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishi va o'rganishlari kerak;

Adabiyotlar:

1. Kadastr xizmatidagi geodezik ishlar D.O.Jo‘rakulov, I.M.Pirnazarov. V.N.Niyazov. O.A.O‘roqov. ”Fan va Texnologiya” nashiryoti 2016 yil.

2. Gulmurodov, F. E., Umarov, N. S., & Khamidova, P. J. (2021). 3D models development of tourism facilities. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 572-578.

3. Turayev R. A. Sug‘oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish: // Texnika fanlari doktori (DSc)

4. Ergashev, R. K., and A. D. Ravshanov. "Ways of Strategic Development and Increase of Competitiveness of Agricultural Enterprises." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 99-105.

5. Musayev I.M., Abduraxmonov S.N. ArcGIS dasturi asosida qishloq xo‘jaligi karta va planlarini tuzish // O‘zbekiston Respublikasi “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi axborotnomasi. 2–son. – Toshkent., 2013. –B. 18–19.

6. Tuvshinbayar D. Kartograficheskaya sistema – odna iz sistem gosudarstvennogo zemelnogo kadastra Mongolii // Sb. nauchnых trudov aspirantov i molodых uchyonых Sibirskoy gosudarstvennoy geodezicheskoy akademii. Vыpusk 3 – Novosibirsk: SGGA, 2008 g. – S. 19–22.

7. D.S. Yarmatova, A.R. Bobojonov, A.R. Raximov davlat kadastri asoslari.

MURAKKAB KIMYOVIY TARKIBLAR BILAN SHIMDIRILGAN YOG‘OCH MATERIALLARNI YELIMLASH TEXNOLOGIYASI

Maxmatqulov Turdimurod Maxmatqulovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Qurilish muhandisligi” kafedrasining professori.
Razzoqov Nu’monxon Saidmaxsudovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Qurilish muhandisligi” kafedrasining katta o‘qituvchisi.
Aslonov Murotjon Muxamadiyevich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Qurilish muhandisligi” kafedrasining katta o‘qituvchisi.
Ibragimov Nizom Xusenovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Qurilish muhandisligi” kafedrasining doktoranti.

Annatatsiya: Bugungi kunda qurilishda yengil, samarador yog‘och materiallardan foydalanish, ulardan elementlar va konstruksiyalar tayyorlash istiqbolli yo’nalishlardan bir hisoblanadi. Ayniqsa, past sifati yog‘och materiallardan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Past sifatli yog‘och materiallarni mustahkamligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ularni murakkab kimyoviy tarkiblar bilan modifikatsiyalash hisoblanadi. Maqolada modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash texnologiyasi yuzasida ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Samarador yog‘och materiallar, istiqbolli yo‘nalish, past sifatli yog‘och materiallar, mustahkamligini ta’minlash, murakkab kimyoviy tarkiblar, modifikatsiya qilish, tahlil natijalari.

Аннотация: В настоящие время одним из перспективных направлений в строительстве являются применение деревянных элементов и конструкций. Особенно важным являются применение низкосортних деревянных материалов в строительстве. Одним из перспективным направлением являются модификация деревянных материалов с сложными химическими составами. В статье приводятся результаты анализа о технология склеивание модифицированных деревянных материалав.

Ключевые слова: Эффективные деревянные конструкции, перспективные направление, низкосортные материалы, обеспечение прочности, сложные химические составы, модификация древесины, итоги анализа.

Annotation: Currently, one of the promising areas in construction is the use of wooden elements and structures. The use of low-grade wooden materials in construction is especially important. One promising area is the modification of wooden materials with complex chemical compositions. The article presents the results of an analysis of the technology for gluing modified wooden materials.

Key words: Effective wooden structures, promising directions, low-grade materials, ensuring strength, complex chemical compositions, wood modification, analysis results.

Modifikatsiyalangan yog‘och materiallar turli elementlar va konstruksiyalar tayyorlash uchun samarador materiallardan biri hisoblanadi. Chunki, bu turdagi materiallarning turli salbiy ta’sirlarga yuqori darajadagi chidamliligi, yuksak fizik–mexanik xossalari ularni oddiy yog‘och materiallarga qaraganda qator afzalliklarga ega ekanligini belgilaydi [1].

Oxirgi yillarda modifikatsiyalangan yog‘och materiallardan foydalanish darajasi kengayib borayotganligi sababli, ularning yaxshi o‘rganilmagan xususiyatlarini tahlil qilish, ayniqsa, ularni yaxshilash, yelimlash texnologiyalarini takomillashtirish, muhim ekspluatatsiya sharoitlariga javob beradigan usullarni joriy etish, yelimlash mexanizmini va bu talablarga javob beradigan yelim turlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir [2].

Ma’lumki, modifikatsiyalangan materillar o‘z ichiga tabiiy yog‘och va plastmassa materiallarning xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Shu sababli, ularni bu xususiyatlarini birgalikda o‘rganish, yog‘och materiallarga qaraganda sovuq va issiq holda qotish xususiyatiga ega bo‘lgan yelimlarning keng assortimentidan foydalanishni taqoza etadi.

Yog‘och materiallarni sovuq holda yelimlash xona haroratida, ya’ni 15-20 ℃ bajarilsa, issiq holda yelimlash ishlari uchun harorat 120-180 ℃ gacha yetkaziladi. Modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash uchun esa asosan sovuq holda yelimlash texnologiyalaridan foydalaniladi [3]. Chunki, yelimlarni va yog‘och materiallarni qizdirish ularning fizik-mexanik xususiyatlariga, yelimlarning va modifikatorlarning xossalarini

o‘zgarishiga, tarkibidan taksik moddalarning ajralib chiqishiga, eskirishini tezlashishiga olib kelishi mumkin. Issiqqa chidamli termoreaktiv polimerlardan foydalangan holda yelimlash bundan mustasno hisoblanadi [1].

Yelim komponentlari turli qo‘shimchalardan, shu jumladan, qotiruvchi plastikligini oshiruvchi moddalar, ya’ni, oligomer va monomerlardan iborat polimer birikmasidan tayyorlanadi. Aksariyat hollarda termoreaktiv oligomerlardan foydalanib tayyorlangan sovuq va issiq holda qotish xususiyatiga ega bo‘lgan yelimlardan foydalaniladi. Bundan yelimlardan biri ED-16 smola asosli epoksid yelim hisoblanadi. Oxirgi yillarda bu yelimlarning ED-20, E-40, EIS-1 tipidagi tarkiblaridan ham foydalanilmoqda.

Modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni xona haroratida yelimlash uchun qotiruvchi modda sifatida polietilenpoliamin, aminfenol va past malekulali poliamidlardan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqori haroratda yelimlash uchun esa, dikorbon yoki yantar kislotasining angidridlaridan foydalaniladi. Yelimlash texnologiyasid, komponentlarini tayyorlashda uni suyuq oquvchan holatga keltirish, ya’ni, “yashash” muddatini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, yelim komponentlariga organik erituvchi moddalar - aseton, ksilol, skipidar va boshqalarning tegishli nisbatida aralashtirish tavsiya etiladi [4].

Belgilangan talablar darajasida tayyorlangan yelimlarning “yashash” muddati normal xona haroratida 1,5-2 soatni, bundan yuqori hararatda esa 24 soatni tashkil etadi. Tayyorlangan yelimning qotish muddati 18-20 ℃ haroratda 24 soatgacha bo‘lishi o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan.

Issiq usulda yelimlash uchun mo‘ljallangan yelimlarni tayyorlashda smolalarni turiga mos ravishda ular belgilangan haroratgacha qizdirilishi tavsiya etiladi, ya’ni, bu ko‘rsatkich malein angidridi uchun 60 ℃ gacha, ftol angidridi uchun esa 135 ℃ gacha bo‘ladi. Yelimlangan elementlarning mustahkamliginii ta’minlash uchun ular 120 ℃ haroratda 6-8 sutka davomida 0,05-0,3 MPa bosimda ushlab turilishi kerak.

Modifikatsiyalangan yog‘och materiallarni yelimlash uchun tayyorlangan tarkiblarning mustahkamligi ko‘p jihatdan yelim choklarining plastikligini oshiruvchi moddalarning turiga va ularning foiz miqdoriga bog‘liq. Masalan, plastifikator dibutilftalat bo‘lsa 15-20 %, poliefir 20 % gacha, suyuq tiokol 10-50% gacha bo‘ladi. Shu sababli, tarkibiga qo‘shiladigan moddalarning turiga qarab yelimlar ham turli nomlanadi. Poliefirli-EPS, tiokol-K-153, pastmalekulali kauchuk-K-147, furfurasetatli-BOV- deb nomlanadi va ularning barchasi uchun kotiruvchi modda sifasida normal haroratda 10-12% miqdorida polietilenpoliamindan foydalaniladi.

Ma’lumki, oddiy yog‘och materiallarni yelimlashda malekulyar massasi 400-800 bo‘lgan suyuq rizolli oligomer asosli fenolformaldegid yelimlar samarador hisoblanadi. Bu yelimning asosiy afzalliklaridan biri uy haroratida yelimlash mumkinligi va erituvchi sifatida esa aseton, spirt va oddiy suvdan foydalanish imkoniyatidir. Bu turdagi yelimlarning tannarxini kamaytirish imkoniyatini beruvchi to‘ldiruvchilarning turini to‘g‘ri tanlash va uning foiz miqdorini qabul qilish ham muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. To‘ldiruvchilar sifatida yog‘och uni, bur va legnin kabi materiallardan foydalaniladi. Yog‘och materiallarga metall, asbestsement va fanera kabi materiallarni yelimlashda keng qo‘llanilayotgan EPS-1 va BF tipidagi yelimlar uchun esa markasi M-400 bo‘lgan portlandsement eng samarador to‘ldiruvchi hisoblanadi. Ayrim noyob xususiyatli yelimlar toifasiga kiruvchi VIAM-B-100 va VIAM-F-9 tarkiblar uchun qotiruvchi sifatida neft mahsulotlarining qoldig‘idan olinadigan kerasinli Petrov kontaktidan foydalaniladi [3].

Bugungi kunda foydalanilayotgan yelimlarning eng xavfsiz turi sifatida KB-3 yelimini aytish mumkin, chunki, bu yelimda erkin fenolning foiz miqdori 4 % atrofida bo‘ladi va uning asosini SFJ-3016 markali smola tashkil etadi. Qotiruvchi modda Petrov kontaktining foiz miqdori yelimlash haroratiga bog‘liq bo‘lib, 15-16 ℃ da 25% ni, 18- 20 ℃ da 20% ni, 22-25 ℃ da esa 15% ni tashkil etishi ilmiy asosda tasdiqlangan.

Barcha turdagi yog‘och materiallar, shu jumladan, modifikatsiya qilingan materiallarni yelimlash uchun tarkibi KB-3 tipidagi fenolformaldegid yelimiga yaqin bo‘lgan FR-12 va FRF-50 tipidagi fenolrezorsinli yelimlar samarador hisoblanadi va ular uchun to‘ldiruvchi sifatida yog‘och uni va syellyulozadan, plastifikator sifatida esa gliserin va dietilenglikol ishlatiladi.

As for determining the coordinates of geodetic networks measured around the Muruntau mining site, there were no barriers to receiving signals from satellites. At the control site, navigation measurements were made with less cycles and shorter intervals. As a result, the accuracy and dispersion of the coordinate were satisfactory without filtering.

Figure 7-8 shows the differences in the values of the geodetic base point coordinates measured in Zarmitan and Muruntau due to detailed filtering and detailed evaluation.




Figure 8. Graph of changes in coordinates of polygon network: a, b - along the horizontal component, c - vertical component height

As a result of processing the GNSS array of checkpoint measurements, the mean values of the rectangular coordinates, the altitudes, and their errors are summarized in Table 1.

Table 1. WGS84 coordinates (φ, λ), geodetic height (H) and mid-square errors

Name of the item	*WGS84 coordinates*		
	φ	*λ*	*H*
Kanavniy	41°30'18.34773"N	64°32'16.85551"E	561.1424
Solnichni	41°30'34.03740"N	64°37'23.75033"E	550.1194
Murin zap	41°31'58.21513"N	64°33'19.97628"E	779.8565
AERO	41°28'51.27307"N	64°37'33.78397"E	430.3816

Reference point	*Rover*	*Attachments*			*Standard errors*		
		Δx	*Δy*	*Δz*	*x*	*y*	*z*
Murin zap	solnichni	-4440.8487	3825.3577	-2096.8802	0.0002	0.0003	0.0002
kanavniy	solnichni	-6569.9310	2758.0166	355.2122	0.0002	0.0003	0.0003
solnichni	1AERO	651.5280	1916.7526	-2454.1663	0.0002	0.0002	0.0002
Murin zap	AERO	-3789.3215	5742.1106	-4551.0465	0.0002	0.0003	0.0003
kanavniy	AERO	-5918.4028	4674.7702	-2098.9540	0.0002	0.0004	0.0003
kanavniy	Murin zap	-2129.0818	-1067.3403	2452.0923	0.0001	0.0002	0.0002

Reference point	*Rover*	*Medium quadratic error*			*Vectors*	*Vectors error*
		x, y	*z*	*x, y, z*		
Murin zap	solnichni	0.0002	0.0003	0.0004	6225.062	0.0001
kanavniy	solnichni	0.0002	0.0004	0.0005	7134.201	0.0001
solnichni	1AERO	0.0002	0.0003	0.0004	3181.408	0.0001
Murin zap	AERO	0.0002	0.0004	0.0005	8248.806	0.0002
kanavniy	AERO	0.0003	0.0004	0.0005	7828.574	0.0002
kanavniy	Murin zap	0.0001	0.0002	0.0003	3418.327	0.0001

ACKNOWLEDGEMENTS

Conclusion. Based on the geodetic measurements performed, the locations of the geodetic networks selected during the inspection and their coordinates were determined using the GNSS receiver.

A graphical and analytical analysis of changes in the coordinates of the points, depending on the duration of the observation cycle and the impact of buildings and structures on the accuracy of measurements were performed. The geodetic heights were obtained with respect to the coordinate system WGS84 and the Krasovsky ellipsoid.

It can be used to determine the coordinates and heights of the WGS84 geodetic networks, the coordinates of the checkpoints and the intermediate networks of the total station path and the junction net, as well as the subsequent geodetic networks. They can be used as basic information for conducting surveying-geodetic and geological surveys, geo informatics and geodetic research.

In the future, it is planned to install geodetic signs, signals and pyramids around the established points for optimization of geodetic points, longitudinal and transverse movement and identification of centrifugal corrections.

Repeat GNSS measurements should be performed to clarify coordinates and to determine the rate of deformation of coordinates of these points over time.

References

1. Antonovich K.M. The use of satellite radio navigation systems in geodesy. Part 1.- M .: FGUP Cartecenter, 2005.

2. Demyanov G., MayorovAN. Копоперные общество общееземной системы Normalx version // Geodesy,

aerospace image and cartography. Physics geodesy. -M .: TsNIIGAiK, 2004.

3. Geodetic networks primitives and reconstructions of the installation (GKKINP-01-014-98). - Tashkent: Uzgeodezcadastre, 1998.

4. Instructions in the classification I, II, III and IV classes. - M.: Nedra, 1974.

5. Centrifugal and repertoire state geodesic set USSR. M. Nedra, 1973 d.

6. Center geodesic networks for territorial terrain, polarity and promising area. - M.: Nedra, 1972.

AHOLI KARTALARINI YARATISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

O.X.Omonov, A.M.Axunjonov, D.O. Hamdamova
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining hududiy bo‘linishi, o‘rnashgan joyiga bog‘liqligi, aholining o‘rni, xo‘jaliklardagi rivojlanishi hamda milliy iqtisodiy tuzilishi va, aksincha iqtisodni rivojiga aholi o‘rnini to‘g‘ri ta’siri o‘rganilgan. Aholi xaritalarini tuzish uchun kartografik usullarni tahlil qilib to‘liq o‘zlashtirish va zamonaviy kompyuter dasturlarini qo‘llagan holda aholi elektron xaritasini yaratish, kartografiya sohasida ishlab chiqarishni samaradorligi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Maqolada aholi kartalarini tuzish uchun kartografik usullarni va ularni tahlil qilish, ularni to‘liq o‘zlashtirish va zamonaviy kompyuter dasturlarini qo‘llagan holda aholi elektron kartasini yaratish, bu bilan kartografiya sohasidagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishish.

Maqsadni amalga oshirish uchun maqolada quyidagi vazifalar belgilangan va yechilgan.

- aholi va uni statistik o‘rganish;
- aholining tabiiy harakati;
- aholi migratsiyasi;

kartografik belgilarni tahlil qilish va ularni qo‘llash imkoniyatlari.

Kalit so‘zlar: aholi, elektron xarita, kompyuter dasturlari, kartografiya.

Kirish

Aholi muayyan bir hududda yashovchi kishilarning umumiyligi, birligi bo‘lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi va ayni vaqtda u o‘zi yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarning iste’molchisidir. Shu sababli aholini zichligini, geografik joylashishini, aholini o‘sishini, migratsiyasini, aholining tarkibini va boshqa xususiyatlarini chuqur o‘rganib, ularni tasvirlash usullarini to‘g‘ri tanlab so‘ng kartasini yaratish lozim. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda va ishlab chikarish kuchlarini joylashtirishda aholi kartalarini roli katta. Shu jihatdan kelib chiqqan holda aholini kartografiyalash, mehnat resurslarini hisobga olishda va ulardan unumli foydalanishda, aholi tarkibini aniqlashda, aholining atrof muxit ekologiyasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini aniqlashda, aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash kabi muammolari hal etishda, hamda statistik ma’lumotlar tuzishda qo‘llanilishi mumkin.

E’tiborlisi yana shundaki, O‘zbekistonda aholi o‘sishi faqat uning tabiiy ko‘payishi natijasida sodir bo‘lmoqda. Tabiiy ko‘payish respublika aholisi sonining o‘sishini ta’minlabgina qolmay, balki tashqi migratsiyaning manfiy qoldig‘ini ham qoplaydi. Shu bois aytish mumkinki, respublikamizning demografik rivojlanishida ham o‘ziga xos o‘tish davri kechmoqda va ushbu holatni o‘rganish mazkur mavzuning dolzarbligini asoslab beradi. Mazkur masalani yechish uchun elektron ko‘rinishdagi aholi kartalarini yaratishga harakat qilmoq lozim.

Adabiyotlar tahlili va usullari

Aholishunoslikning ko‘pgina masalalari va muammolari bilan MDH davlatlari olimlaridan A.Ya.Boyarskiy, D.I.Valentey, A.G.Vishnevskiy, A.Ya.Kvasha, A.I.Kozlov, S.A.Kovalyov, V.V.Pokshishevskiy, A.E.Sluka, A.I.Alekseev B.S.Urlanislar va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar. Ayni vaqtda, respublikamizda ham aholishunoslikning ayrim muammolari bo‘yicha I.R.Mullajonov, R.A.Ubaydullaeva, G.R.Asanov, O.B.Otamirzaev, M.R.Bo‘rieva, X.S.Salimov, A.S.Soliev, A.A.Qayumov, Z.A.Rayimjonov kabi mutaxassislar shug‘ullanishgan. Uni kartografiyalashda esa MDH olimlaridan K.A. Салищев, N.N. Baranskiy, A.I. Preobrajenskiy, A.M. Berlyant, O.A. Yevteev, Yu.S. Bilichlar shug‘ullanishgan bo‘lsa, respublikamiz olimlaridan T.Mirzaliev, E.Yu.Safarov, A. Egamberdiev va boshqalar shug‘ullanishgan.[59]

Aholi kartografiyalash muammolari bilan ko‘pgina olimlar izlanishlar olib borganlar. Ammo, e’tirof etish lozimki, aholini kartografiyalash bilan shug‘ullangan mutaxassislar tadqiqotlarida aholini kartografiyalashda qo‘llaniladigan kartografik usullarni taxlili deyarli ko‘rib chiqilmagan.

Shu bilan birga respublikamiz viloyatlarining mustaqillik yillaridagi demografik rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar G.Xodjaeva, I.Atajanov, Z.Tojieva, I.Musaev, Sh.Jumaxonov va boshqalarning ilmiy ishlarida ham tahlil qilingan.

Natija

Keyingi yillari O‘zbekistonda geoaxborotli tizim aholi punktlarini kartalashtirish uchun keng qo‘llanila boshlanadi. Shaharda geoaxborotli tizim yaratish katta

hajmlardagi moddiy va mehnat xarajatlarini talab qiladi. Geoaxborotli tizimni yaratish uchun quyidagilar talab qilinadi:


– hisoblash texnikasi (sotib olish, to‘g‘rilash va xizmat ko‘rsatish);

– dasturli ta’minot (sotib olish, maxsus dasturlar yaratish, to‘g‘rilash va xizmat ko‘rsatish);

– mutaxassislar (o‘qitish, qayta tayyorlash);

– ma’lumotlar (yaratish va yuritish).

Ma’lumotlar grafik bazasini yuritishning "qatlamlik" imkoniyati ma’lumotlarning shahar bazasi qatnashchisiga o‘zining butun kuchini o‘z muammolarni yechishga to‘plashga hamda juda ko‘p sonli turli manbalardan hudud to‘g‘risidagi jamlangan axborotlarni ishlab chiqarish masalalari uchun foydalanishga imkon beradi.



1-rasm.

Bugungi kunda demografik ma’lumotlarini to‘plash, ularga muvofiq ma’lumotlar bazasini shakllantirish ishlari ArcGis, MapInfo, Panorama,


GeoDraw, GeoGraph, Atlas Gis, Win Gis, ArcInfo va boshqa dasturlar asosida olib borilmoqda [10].

Tadqiqot ishida oldimizga qo‘ygan masalalarni hal etishda keltirilgan talablarga mos keladigan GAT oilasiga mansub ArcGis dasturiy ta’minotdan faydalanildi. Yuqorida tadqiqot ishining ikkinchi bobining uchunchi bo‘limida ishlab chiqilgan DemoGIS raqamli demografik kartalarni yaratish texnologiyasi negizida kartalarni tuzish ishlari olib borildi.

Dasturda yaratilgan yangi kartografik asosga yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasi, ya’ni geolokatsiya usuli yordamida markaziy ma’lumotlar bazasiga to‘plangan statistik ma’lumotlar joylashtirib o‘zaro bog‘landi. So‘ngra kartografik tasvirlash usullaridan foydalangan holda O‘zbekistonni aholi soni deb nomlangan ilk karta tuzildi.

Mintaqa demografik jarayonlar kartalarini yaratishda to‘plangan ma’lumotlar bazasi aholi bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni, ya’ni tug‘ilish, tabiiy ko‘payish, urbanizatsiya darajasi, aholining soni, tarkibi, joylashishi kabi ma’lumotlar viloyat bo‘yicha kartografik asarlar yaratishda keng foydalanish lozim.

Innovatsion, kompyuter texnologiyasi davrida turli sohalarda kuzatilayotgan o‘zgarishlarni kuzatish, ularni



2-rasm.

Vizualizatsiya bugungi kunga kelib har bir sohalarda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy GAT texnologiyalari asosida vizual tasvir yaratish har bir soha singari aholi kartalarini tuzishda ham ko‘plab yutuqlarga erishish uchun zamin bo‘la oladi. Buning uchun vizualizatsiyadan foydalanish orqali zamonaviy vizaul ekvivalent yaratiladi. Ma’lumotlar manbalari axborot grafikasi, axborotlarni tasvirlash, tadqiqot ma’lumotlarni tahlil qilish va statistik grafikalar bilan bog‘liq. Bu esa o‘z-o‘zidan tadqiqot ishini mukammalligini oshirishda axborotlarni vizual tasavvurda izlanishlarga undaydi.

Fazoviy demografik ma’lumotlarni qatlamli tashkil qilishda quyidagi ustunliklarga ega ekanligini aniqladik:

- demografik kartani vizuallashtirishda qatlamlarning ko‘rinarlilik holatini o‘zgartirish imkoniyati;
- demografik kartani vizuallashtirishda qatlamlarning tartibini o‘zgartirish imkoniyati;
- kartalarni tuzishdagi mavjud har bir qatlamni vizuallashtirish parametrlarini mustaqil ravishda sozlash imkoniyati;
- demografik kartalar qatlamlari bo‘yicha mustaqil fazoviy tahlil imkoniyati;
- dasturiy vositalar asosida turli darajadagi detallangan va natijaviy qatlamlardan kartalarni shakllantirish imkoniyati.

Muhokama


Fazoviy demografik ma’lumotlarni karta ko‘rinishida vizuallashtirish va 3D o‘lchamli vizuallashtirishning xususiyatlaridan kelib chiqish talab etiladi.

Shunday qilib, elektron raqamli kartalarni tuzish va demografik jarayonlarni vizuallashtirishda geoma’lumotlar bazasiga axborotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiya qilish strukturasini ishlab chiqishga hamda avtomatik tahliliy ishlarni olib borish ishlari bilan birga masofadan zondlash materiallarini qayta ishlash va bunda barcha imkoniyatlardan kelib chiqib fazoviy ma’lumotlarni kartografik tasvir asosida ifodalashga imkon yaratildi .


tezkorlik bilan tahlil qilish va izlanishlarni olib borish raqamli kartalarni tuzish hamda ma’lumotlar bazasini yaratish muhim o‘rin egallaydi.

Demografik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar, bandlikka ko‘maklashish, sog‘liqni saqlash kabi masalalarni hal etishda va yaxshilashda kartografik manbalardan foydalanish zarur. Chunki aholi kartalarida kechayotgan vaziyatni ilmiy baholash,

rivojlantiruvchi omillar, sharoitlarni aniqlash, bashorat natijalaridan boxabar bo‘lishga imkon yaratadi.



3-rasm.



4-rasm.

Hudud bo‘yicha davriy o‘zgarish xususiyatlari bo‘yicha doimiy monitoring olib borish zarur. Demografik holatni yaxshilash va chora tadbirlar ishlab chiqishda aerokosmik metodlar asosida monitoring ishlarini olib borish hamda ularni natijalari bo‘yicha aholi kartalarini ishlab chiqish lozim.

Bunday tadqiqotlarni olib borishda GAT texnologiyalarida tizimli kartalarni yaratish aerokosmik suratlardan foydalanib ishlab chiqilgan kartalarni tezkorlik bilan yangilab borish, atributiv ma’lumotlarni shakllantirish va ma’lumotlar bazasi (server)ga geolokatsiyalashda *“Geodezist”* dasturi yordamidan foydalanish, holatni modellashtirish va prognoz kartalarini yaratildi.



5-rasm.

Xulosa

Elektron raqamli kartalarni tuzish va demografik jarayonlarni vizuallashtirishda geoma’lumotlar bazasiga axborotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiya qilish strukturasini ishlab chiqishga hamda avtomatik tahliliy ishlarni olib borish ishlari bilan birga masofadan zondlash materiallarini qayta ishlash va bunda barcha imkoniyatlardan kelib chiqib fazoviy ma’lumotlarni kartografik tasvir asosida ifodalashga imkon yaratildi.

Adabiyotlar

1. Suyunov, A., Khushmurodov, F., Suyunov, S., Hamdamova, D., & Aminjanova, M. (2023). Ecological and geographical aspects of land using in forming agrolandscapes. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 463, p. 02006). EDP Sciences.
2. Obidova, D., Hamdamova, D., & Norboyev, N. (2024). Digitization of Precipitation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, *26*(1), 10-21070.
3. Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). ASSESSMENT OF RAINWATER HARVESTING POSSIBILITIES USING GIS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 285-288.
4. Bobokalonov, M. K., Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). CREATING A GEODETIC REFERENCE NETWORK USING AN ELECTRONIC TOTAL STATION. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 30-35.
5. кизи Хамдамова, Д. О., & Худайназарова, Г. Х. (2023). АВТОМАТИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ ТОЧНОСТИ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ВОЗВОДИМЫХ КОНСТРУКЦИЙ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ КОМПЛЕКСА КАРАВАН САРАЯ «ВЕЧНЫЙ ГОРОД». *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, *2*(12), 28-33.
6. Обидова, Д. Д., & Хамдамова, Д. О. (2023). ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ ПОДЗЕМНЫХ КОММУНИКАЦИЙ. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 122-123).
7. Хамдамова, Д. О., & Норбоев, Н. А. (2023). МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ СХЕМАТИЧЕСКОЙ КАРТЫ РАСПОЛОЖЕНИЯ ШКОЛ ГОРОДА САМАРКАНД С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММЫ ARC-GIS. *Экономика и социум*, (7 (110)), 570-576.
8. Obidova, D., & Khamdamova, D. (2023). THE PROCEDURE FOR PERFORMING CORRELATE EQUALIZATION OF A TRIANGULATION GRID USING MICROSOFT EXCEL. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 302-312.
9. Bobokalonov, M. X., Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). SAMARQAND SHAHRIDAGI MAKTABLARNING SXEMATIK JOYLASHUV XARITASINI ARC-GIS DASTURI YORDAMIDA YARATISHDA KARTOGRAFIK METODLARDAN FOYDALANISH. *Journal of marketing, business and management*, *1*(12), 69-74.
10. Муллоджанова, Г. М. (2020). Мавзули хариталарни яратишда маълумотлар базасини шакллантириш. *Журнал Агро Процессинг*, (SPECIAL ISSUE).
11. Bobokalonov, T. M. K. (2022). The procedure for performing parametric equalization of a triangulation grid using Microsoft Excel. *The Peerian Journal*, *11*, 19-30.

12. Bobokalonov, M. K., & Khamdamova, D. (2022). Using arcgis software to create a land reclamation map. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, *2*(11), 385-388.

13. Tojidinova, F. M., Hamdamova, D. O., & Olimova, O. (2024). Land Surveying Plot Production Technology. *Journal of Adaptive Learning Technologies*, *1*(1), 25-33.

14. Хусанова, М. И., Исаков, М. К., Омонов, И. Х., & Обидова, Д. Д. (2022). ОФОРМЛЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ КАДАСТРОВОЙ СЪЕМКИ. *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 271-275.

15. Мирзаев, А. А., Обидова, Д. Д., & Михеев, Д. О. (2020). Метрологический контроль электронных тахеометров на эталонном геодезическом базисе. *Журнал Агро Процессинг*, (SPECIAL ISSUE).

16. Хусанова, М. И., Исаков, М. К., Омонов, И. Х., & Обидова, Д. Д. (2022). ОФОРМЛЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ КАДАСТРОВОЙ СЪЕМКИ. *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 271-275.

17. MARDONOVICH, P. I., DAVRONZODA, O. D., & OGLU, K. M. M. (2020). Update Of Agricultural Electronic Digital Maps. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, *7*(4), 1-3.

18. Хусанова, М. И., Исаков, М. К., Омонов, И. Х., Обидова, Д. Д., Толибоева, Ф. Ф., & Жонмирзаева, Д. Н. (2022). ПОДГОТОВКА КАРТ И ПЛАНОВ ДЛЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЦЕЛЕЙ СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДАМИ. *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 266-270.

19. Bobokalonov, M. K., Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2024, February). Development of the method of creating an agriculture web map of the Republic of Uzbekistan. In *Third International Conference on Optics, Computer Applications, and Materials Science (CMSD-III 2023)* (Vol. 13065, pp. 216-221). SPIE.

20. Геодезическое обеспечение при строительстве мостов V. A. Kogiya, V.V. Gruzinov , Malkovskiy O.N., Petrov V.D.

21. Мосты и тоннели S.A.Popov, Osipov V.O., Bobrikov B.V. Xrapov V.G. va boshqa.

22. Merojidinovna, T. F., & Qizi, H. D. O. (2024). Technology of Production of Land Surveying Plots. *Innovative Construction and Petrochemical Technologies*, *1*(1), 1-9.

23. qizi Hamdamova, D. O., & Norboyev, N. A. (2024). GEODESIC MONITORING OF HIGH FLOOD RISK AREAS OF SAMARKAND CITY. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827)*, *2*(5), 38-42.

24. Abdukarim o‘g‘li, N. N. (2024). Analysis and Accuracy Assessment of Execution of Symbols in the Method of PAC (Planning, Analysis, and Control). *ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA MUHANDISLIK ILMIY JURNALI*, *1*(1), 28-33.

O'ZBEKISTON VILOYATLARIDA «GAT» DASTURLARIDAN FOYDALANIB, GNNS SUN’IY YO’LDOSH GEODEZIK TARMOQLARINI JOYLASHTIRISH USLUBINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Obidova D.D.
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: So`nggi o`n yilliklarda ilm-fan va texnalogiyaning jadal rivojlanishi davrida geodezik koordinatalar aniqlash va o`lchashning prinsipial yangi usuli -sun`iy yo`ldosh tizimini yaratishga imkon beradi. Ushbu usulda geodeziya tarmog`ining koordinatalarini sun`iy yo`ldoshlardan foydalanib aniqlash ishlari yaratilgan. Respublikaning yangi sun'iy yo'ldosh tarmog'ining yangi tayanch punktlari koordinatalarini hisoblashda yuqori aniqlikdagi joylashishni aniqlash usulidan keng foydalanilyapti. GNSS sun'iy yo'ldoshlaridan o'z ishlarida signal ishlatadigan qurilmalarni professional, yuqori aniqlikdagi joylashuvga va uy xo'jaliklariga bo'lish mumkin. Birinchisi asosan harbiy maqsadlarda, geodeziya va kartografiya uchun ishlatiladi, ikkinchisi zamonaviy hayotning turli sohalarida keng qo‘llanadi.

Kalit so`zlar: Sun'iy yo'ldosh, GLONASS, WGS-84, geodezik koordinata, rekognossirovka, interpolasiya usul, triangulyatsiya.

Abstract: In recent decades, the rapid development of science and technology has allowed the creation of a fundamentally new method of determining and measuring geodetic coordinates - a satellite system. This method has created work on determining the coordinates of the geodetic network using satellites. The method of high-precision positioning is widely used in calculating the coordinates of new base points of the new satellite network of the republic. Devices that use signals from GNSS satellites in their work can be divided into professional, high-precision positioning and household. The first is used mainly for military purposes, for geodesy and cartography, the second is widely used in various areas of modern life.

Key words: Satellite, GLONASS, WGS-84, geodetic coordinate, reconnaissance, interpolation method, triangulation.

KIRISH

Sun'iy yo'ldosh qabul qiluvchisi (shuningdek, GNSS qabul qiluvchisi)-navigatsiya tizimlarining yo'ldoshlari tomonidan chiqarilgan radio signallarining kelishi vaqt kechikishi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, qabul qiluvchining antennasining hozirgi joylashuvining geografik koordinatalarini aniqlash uchun radio qabul qilgich. Amaldagi navigatsiya tizimiga qarab, ular GPS qabul qiluvchilariga, GLONASS qabul qiluvchilariga va boshqalarga bo'linadi, ammo hozirgi vaqtda ko'pchilik iste'molchi va professional sun'iy yo'ldosh qabul qiluvchilari bir nechta sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari bilan ishlashga qodir.

O'lchov aniqligi. Xatolarning ikkita asosiy manbai mavjud. Birinchisi, qabul qilgichda, sun'iy yo'ldoshdan farqli o'laroq, muntazam sinxronlashni talab qiladigan kamroq aniq kvarts soati ishlatiladi. Sun'iy yo'ldoshga o'xshash atom soatlaridan foydalansangiz, xatoni tuzatishingiz mumkin. Lekin, birinchi navbatda, bu noqulay, ikkinchidan, qimmat - ularning narxi 100 000 dollar. Yana bir yechim — kamida to'rtta sun'iy yo'ldoshdan aniq vaqt signallarini qabul qilib, qabul qiluvchining soatidagi xatoni matematik tarzda olib tashlash. Ushbu usul sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlarida qo‘llanadi. Endi bu ma'lumot ahamiyatsiz, chunki barcha qabul qiluvchilar bir necha yuz metr — birinchi kilometr ichida joylashgan aholi punktida mahalliy tayanch stantsiya bilan aloqa orqali vaqt olishadi. Ikkinchi xato manbai-qabul qilgichdagi signalni qayta ishlash vaqti, bit vaqti deb ataladi. Oddiy GNSS qurilmalari uchun aniqlik bit vaqtining bir foiziga to'g'ri keladi, bu 10 nanosaniyaga to'g'ri keladi, yorug'lik tezligi uchun — bu 3 metr masofa. Bunday aniqlik erni yo'naltirish uchun etarli, ammo qurilish uchun mos emas. Professional geodezik qurilmalarda yoki harbiy maqsadlar uchun yanada rivojlangan qabul qiluvchilar bir necha tartibda aniqlikka ega va 300 mm aniqlik bilan pozitsiyani aniqlaydi.

Amalda, maishiy qabul qiluvchilarni o'lchashning maksimal aniqligi har doim bit vaqti bilan cheklanadi va SBAS tizimlari va mahalliy tuzatish uzatish tizimlaridan foydalanishda ham 3-5 m ni tashkil qiladi. Yer stantsiyasidan stantsiyalar orasidagi 1 km masofada (differentsial usul). 2000-yil 1-maygacha GPS aniqligi sun'iy yo'ldosh orqali uzatiladigan signallarga soxta tuzatishlar kiritish orqali sun'iy ravishda kamaytirildi.

Adabiyotlar tahlili

Серапинас Б.Б. Глобальные системы позиционирования. — М. : ИКФ "Каталог", 2002. — 106 с. 2.Ehgamberdiev Sh., Eshonkulov S., Litvinenko E. Kitab as One of the Five Stations of the ILS: History and Present // Polar Motion: Historical and Scientific Problems ASP Conference Series, 2000. - Vol. 208. -rr.163-168. 2.Fazilova D.SH. Razvitie geodezicheskoy infrastrukturы respubliki Uzbekistan na osnove GNSS dannыx v ramkax mejdunarodnыx proektov// Globalnaya sputnikovaya sistema opredeleniya mestopolojeniya GPS i ee primenenie v geodezii. -M.: Kartgeotsentr, 2004. - 350 s. 4.Makarenko N.L. Demyanov E.V., Novikov G.V. Edinaya gosudarstvennaya sistema geodezicheskix koordinat 1995 goda (SK-95) / Pod red. A.A. 5.Drajnyuka. – M.: Federal. slujba geodezii i kartografii Rossii, 2000. – 34 s. 6.Pomeransev I.I. O figure geoida v rayone Ferganskoy oblasti // Zapiski VTO. 1897, ch. LIV, -C.76-121. 7.Fazilova D.SH. Razvitie geodezicheskoy infrastrukturы respubliki Uzbekistan na osnove GNSS dannыx v ramkax mejdunarodnыx proektov// "Pulkovo-2012":

METODLAR

SK-42 va WGS-84 tizimlari o'rtasidagi o'tish parametrlarini aniqlash, vaqt ketma-ketliklarining tuzilishini aniqlash va normal balandliklarning raqamli modelini yaratish uchun murakkab tadqiqot usullari, shu jumladan nazariy umumlashtirish va matematik modellashtirish, eksperimental tadqiqotlar, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, shuningdek spektral tahlil usullari qo'llanilgan. .

Triangulyatsiya usulidan farqli o'laroq, usullar yordamida qurilgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash-GNSS mos yozuvlar tarmog'ining geometriyasiga kamroq sezgir, ammo bu holda ham talab qilinadi. Geometriya bilan qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini qurishga intiladi. Geometriya tarmoq yangi va kuchli nuqtalarni bog'lashning oqilona kombinatsiyasini nazarda tutadi vaetarli miqdordagi tugun nuqtalarining mavjudligi va ortiqcha o'lchovlar. Malumot va belgilangan nuqtalardan foydalanganda tarmoq geometriyasi qoniqarsiz bo'lishi mumkin IN taqdim etilgan misolda, faqat bitta tugun nuqtasi mavjudligi aniq yalpi mavjudligida tarmoqdagi sezilarli deformatsiyalar va xatolarga olib keladi. Bu nuqtada o'lchash xatolar. Ma'lumotnomalar orasidagi qo'shimcha o'lchovlarnuqtalar asosiy tarmoqning sifatini nazorat qilish uchun zarur.

NATIJA

O'zbekiston Respublikasining mavjud balandlikdagi davlat bazasi MDHdagi umumiy tekislash tarmog'ining bir qismidir va 1977 yilda Baltic tizimidagi balandliklar tizimiga asoslanadi. Boltiq balandliklari tizimining yo'naltiruvchi nuqtasi Kronshtadt poygalarining nolidir. Yuqori balandlikdagi sun'iy yo'ldosh tarmog'ini amalga oshirish bosqichida bo'lganligi sababli, SGS-0 punktlarida faqat BNZ Industrial Support tashkiloti tomonidan nazorat o'lchovlari o'tkazildi, ularning ma'lumotlari tadqiqot uchun ishlatilgan. GPS o'lchovlari Lieca GS10 qabul qilgichlari yordamida amalga oshirildi.


Nuqtalarning joylashishi (1-jadval) va ular orasidagi masofa 1-rasmda keltirilgan.

1-jadval

Farg'ona vodiysida respublikaning stansiya tarmog'i

Punkt	Nazvanie	SHirota	Dolgota	Vыsota
KOKA	Kokand	40° 32' 37.27797"	70° 55' 11.00149"	366,248

GALA	Galaba	40° 35' 18.13868"	71° 23' 18.21454"	347,265
YAZV	YAz’yavan	40° 38' 58.57766"	71° 43' 13.49233"	383,634
FARD	Fergana	40° 23' 40.35757"	71° 46' 06.16906"	528,208
CHUS	CHust	40° 59' 21.10144"	71° 15' 44.00128"	595,747
YANN	YAngikurgan (N	41° 13' 0.00422"	71° 42' 5.04581"	737,545
NAMD	Namangan	40° 59' 37.33207"	71° 39' 44.90001"	383,22
HAKK	Xakkulabad	40° 54' 22.46929"	72° 06' 50.49502"	397,971
ASAK	Asaka	40° 39' 55.86954"	72° 11' 09.74972"	437,589
KURG	Kurgantepa	40° 43' 43.60452"	72° 46' 16.11301"	678,379




1-rasm. Farg'ona vodiysi tarmog'ining joylashishi

EGM2008 geoid anomaliyalari Xalqaro yer usti modellari xalqaro markazining (ICGEM) Germaniya GFZ hisoblash xizmati tomonidan onlayn-servis yordamida hisoblab chiqilgan. Ushbu xizmat geopotentsialning sferik harmonikasiga asoslanib, taniqli hududning taniqli hududning tortishish maydonining (CM GPZ) raqamli modelini tashkil etadi. CM GPZ kvazigoid balandligi (VKG), tortishish anomaliyalari (AST) va meridianlar va parallellarning yagona tarmog'i tugunlarida vertikal chiziqning (VOL) og'ishi shaklida berilgan [142; 56-61-betlar], kompyuter xotirasida saqlash uchun qulay shaklda taqdim etilgan. Ushbu qiymatlarni turli xil interpolatsiya usullari yordamida oraliq panjara qiymatlariga o'tkazish mumkin. Statistik ma'noda urning minimal balandligi farqi bo'lgan model Yerning tortishish maydonining eng yaxshi modeli sifatida tanlanadi.. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida aytib o'tilgan tizimli va tasodifiy ta'sirlar ham natijalarning aniqligiga ta'sir qiladi va kelajakda tarmoqni qurishda eng kam kvadratlar usuli bilan minimallashtirilishi kerak.


Raqamli balandlik modeli, raqamli sirt modeli haqida tushunchalar, GNSS usullari yoki klassik o'lchovlar, qurilish bo'yicha aniqlanadi. Geometrik GNSS tekislash usuli bo'yicha kvazigeoid yuzalar asosan interpolyatsiya yuzasi tushunchasidan foydalanadi. Oddiy balandliklarni aniqlash uchun sirt interpolyatsiya usullarining xususiyatlarini o'rganish uchun tabiiy qo'shni, teskari masofani o'lchash, Kriging va topo rastr yordamida olingan ma'lumotlar balandlik anomaliyalarini taqqoslash orqali baholandi GPS tekislash va global tortishish modeli EGM2008 ma'lumotlari yordamida hisoblab chiqilgan. Hisoblangan va interpolatsiyalangan balandliklar orasidagi farq tahlil qilinadi. Hozirgi vaqtda ArcGIS dasturiy ta'minoti paketi foydalanuvchilarga sirtqi interpolyatsiyaning bir necha usullarini taklif qilmoqda (eng yaqin qo'shni, masofani o'lchash, kriging va topo top).


Uzluksiz (bashorat qilingan) sirtni yaratish ma'lum bir nuqtada haqiqiy o'lchovlar mavjudligidan qat'i nazar amalga oshirilishi kerak. Bunday holda, manba ma'lumotlari muntazam tarmoqlarda ham, stoxastik tarzda ham taqsimlanishi mumkin. Interpolatsiya yuzalaridan foydalanish imkoni bo'lmagan (ayniqsa tog'li) hududlar uchun iqtisodiy. Buning uchun tegishli interpolatsiya modelini tanlang. ArcGis vositalari bugungi kunda interpolyatsiya usullarining ikki turini taklif qiladi: deterministik va geostatistik. Deterministik usullarda o'rganilayotgan ob'ekt yaqinida tushgan ma'lumotlardan foydalanadigan tekislash yuzalarining matematik modellari qo'llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi: teskari masofa tortish, tabiiy qo'shni geostatistik metodlar avtokorrelyatsiyani tahlil qilish va yaratilgan interpolatsiya yuzasining ishonchliligini tekshirishga asoslanadi. Ular orasida Kriging relyefini yaratish usuli tanlangan. Sharh 1-bo'limda berilgan. Interpolatsiya usullarining uchinchi sinfi konturlar (kontur chiziqlari) qurilishi asosan gidrologik tahlil uchun ishlatiladi.

Tabiiy qo'shni (NN), teskari masofani o'lchash (IDW), Kriging (KR) va Topo to Raster (TR) tanlangan usullaridan foydalangan holda interpolyatsiya natijalari. anjir shaklida berilgan. (2-3-rasm).




2-Natural Neighbor usuli bilan hisoblangan normal balandliklarning qiymatlari.






3-Teskari masofani o'lchash usuli bo'yicha hisoblangan normal balandliklarning qiymatlari Inverse Distance Weighting.



4-Topo to Raster usuli bilan hisoblangan normal balandliklarning qiymatlari



5 Kriging usuli bilan hisoblangan normal balandliklarning qiymatlari.Tar to'rtta tanlangan usul o'rtasidagi farq 2 o'lchovli grafik kartalarda aniq ko'rinadi. Birinchi taxminda biz turli xil interpolatsiya usullari mintaqaning yassi qismini deyarli tenglashtiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin (ASAK, GALA, KOKA, NAMI, HAKK nuqtalari), tog'li hududlar uchun turli echimlar orasidagi farq aniq ko'rinadi (KURG, CHUS, YANN). , FERG), interpolyatsiya usuliga bog'liq. Natija ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bu tog'li hududlarda klassik geometrik tekislash o'lchovlari taqsimlanishining heterojenliligi va shunga mos ravishda ushbu hududlarni yaxshi bilmaslikdir.

2 jadvalda ICGEM yordamida hisoblangan EGM2008 modeliga muvofiq ellipsoid balandliklar va geoid anomaliyalarining qiymatlari berilgan.

3-jadval

EGM2008 modeliga muvofiq Ellipsoid balandliklari va geoid balandliklari Farg'ona vodiysi punktlari uchun

Punkt	**SHirota B,**	**Dolgota L,**	H^{GPS}**, m**	**EGM2008, m**
ASAK	40,6655	72,1860	437,589	-47,73590012
GALA	40,5884	71,3884	347,265	-48,57845375
KOKA	40,5437	70,9197	366,248	-47,40629863
KURG	40,7288	72,7711	678,379	-44,70985098
NAMI	40,9937	71,6625	383,22	-47,50214008
HAKK	40,9062	72,1140	397,971	-48,01803154
CHUS	40,9892	71,2622	595,747	-46,14539992
YANN	41,2167	71,7014	737,545	-45,05621435
FERG	40,3945	71,7684	528,208	-46,33632449

3-jadvalda ur bilan aniqlangan normal balandliklar orasidagi farqni hisoblash natijalari keltirilgan. (3) va interpolyatsiya usullari yordamida olingan balandliklar. Olingan natijalar 17 m dan 47 m gacha bo'lgan xato darajasini namoyish etadi .. Minimal balandlik farqi -23 m dan -94 m gacha, maksimal farq esa 9 m dan 47 m gacha.Bu natijalar asosida yaqin qo'shnining usuli haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi uchun balandlik aniq ko'rsatilgan. Ta'kidlash joizki, "Topo to Raster" usuli (RMS = 22 m), Inversive Weighted Masofa, Kriging usullarining hisoblash samaradorligini birlashtirib, er yuzasining notekisligini (masalan, daralar, tizmalar, tik qoyalar) aniqroq taxmin qilish imkonini beradi.

4-jadval.

Turli xil interpolyatsiya usullari bilan olingan va hisoblangan (GPS-model) balandliklar orasidagi farq (m)

Punkt	□□, m			
	NN	KR	IDW	TP
ASAK	-35,6451	-61,3351	-36,2731	-23,6421
GALA	-15,7075	-63,9285	-68,2415	24,3755
KOKA	17,5253	-39,0817	-0,1957	43,2063
KURG	1,0708	-94,4412	-52,4921	42,6509
NAMI	3,0091	-93,4589	8,9881	11,8561
HAKK	3,8710	-33,7870	4,5140	6,1010
CHUS	23,2184	34,2544	9,1104	22,9424
YANN	2,0052	31,4292	-41,5348	47,8752
FERG	6,0403	-68,2697	-0,6647	8,8483
SKO,m	17,4141	47,7139	29,9273	22,7567
Minimal qiymat, m	-35,6451	-94,4412	-68,2415	-23,6421
Maksimal noe qiymat, m	23,2184	34,2544	9,1104	47,8752

Shunday qilib, NN va TR ikkita usul normal balandlikni aniqlash uchun eng mos keladi va amaliy geodezik dasturlarda qo'llanilishi mumkin. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, normal balandlikni o'rnatishning aniqligi manba ma'lumotlarini taqsimlash zichligiga, interpolatsiya usuli va relefiga bog'liq. Yerning global tortishish modellari, kabi EGM2008 tarmog'ini sozlash va mahalliy geoidni tozalash bosqichida foydalanish mumkin. Mamlakatning tog'li hududlari uchun tarmoq konfiguratsiyasini optimallashtirish kerak.

XULOSA

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki EIGEN-6C4 va EGM2008 Yerning global gravimetrik modellarining aniqligi GPS o'lchovlari bilan birgalikda respublikada normal balandliklarni aniqlash va sun'iy yo'ldoshni tekislashga o'tishning klassik usullariga alternativa sifatida o'rganildi. [7A, 9A, 10A, 31A, 32A, 36A] da nashr etilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

Joriy SK-42 koordinatali ma'lumot tizimi Krasovskiy ellipsoidiga asoslanib, statik bo'lib, blok chegaralarida sezilarli darajada deformatsiyaga uchraydi, bu zamonaviy aniqlik darajasiga javob bermaydi. Biroq, shunga qaramay, ushbu tadqiqot Kitaba shahridagi Xalqaro kenglik xizmati doirasidagi ishlarga asoslanib, O'rta Osiyo mintaqasidagi klassik astronomik va geodezik ishlarni yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh o'lchovlari bilan plumb chizig'i og'ishining o'zgaruvchanlik naqshini o'rganish, Yerning geopotentsial parchalanishining uzoq muddatli shartlarini birlashtirish zarurligini asoslaydi. tog'li relefli hududlar uchun kvazigeoid modellarini qurish.

O'zbekiston Respublikasini davlat geodezik qo'llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilish, yagona yo'naltirilgan koordinatalar tizimi sifatida, O'zbekistonning er uchastkalarini joylashishni aniqlashning koordinatalar tizimini rivojlantirishning UzPOS (Uzbekistan Positioning) tarkibiy sxemasi, ikkita mustaqil tarkibiy qismni o'z ichiga olgan: UzGRS geodezik ma'lumot tizimi (Uzbekistan Geodeziya Reference) (Tizim) va O'zbekistonning Balandlik havolasi tizimi UzVRS (Uzbekistan Vertical Reference System).

7 parametrli Helmert va Molodenskiy o'tish formulalaridan foydalangan holda mahalliy SK-42 va geosentrik WGS-84 koordinatali tizimlari o'rtasidagi o'tish parametrlariga mahalliy relef va hududiy omillarning ta'siri baholanmoqda. SK-42 tizimida ma'lumotlarning etishmasligi va kelajakda mahalliy ellipsoidni qurish uchun past chiziq bilan bog'lanish zarurligini hisobga olib, Kitob stantsiyasining astronomik koordinatalari va topografik xarita ma'lumotlari yordamida "umumiy" nuqtalarni aniqlash uchun alternativ usul taklif etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 sentyabrdagi “Milliy geografik axborot tizimini yaratish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2045 sonli qarori;

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 nyundagi “O‘zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-1989-sonli qarori

3.(O‘zbekistonni hududiy rivojlantirish yagona kompleks strategiyasini shakllantirishning 2007-2011 yillarga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqish bo‘yicha komissiyasining 2006 yil 16 avgustdagi 02/1-262-sonli 2-bayonnomasi).

4. O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va kadastr davlat qo‘mitasining 18.02.2016 yil 44-sonli bo‘yrug‘i.

5.Обидова, Д. Д., & Хамдамова, Д. О. (2023). ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ ПОДЗЕМНЫХ КОММУНИКАЦИЙ. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 122-123).

6. Bobokalonov, M. X., Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). SAMARQAND SHAHRIDAGI MAKTABLARNING SXEMATIK JOYLASHUV

XARITASINI ARC-GIS DASTURI YORDAMIDA YARATISHDA KARTOGRAFIK METODLARDAN FOYDALANISH. *Journal of marketing, business and management*, *1*(12), 69-74.

7.Obidova, D., Hamdamova, D., & Norboyev, N. (2024). Digitization of Precipitation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, *26*(1), 10-21070.

8. Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). ASSESSMENT OF RAINWATER HARVESTING POSSIBILITIES USING GIS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 285-288.

9. Mardonovich, P. I., Davronzoda, O. D., & Oglu, K. M. M. Update of agricultural electronic digital maps. international journal of innovations in engineering research and technology, 7(4), 1-3.

10. Мирзаев, А. А., Обидова, Д. Д., & Михеев, Д. О. (2020). Метрологический контроль электронных тахеометров на эталонном геодезическом базисе. журнал агро процессинг, (special issue).

11. M.x, B., D.d, O., & D.o, H. (2023). SAMARQAND SHAHRIDAGI MAKTABLARNING SXEMATIK JOYLASHUV XARITASINI ARC-GIS DASTURI YORDAMIDA YARATISHDA KARTOGRAFIK METODLARDAN FOYDALANISH. Journal of Marketing, Business and Management, 1(12), Article 12.

12. Хусанова, М. И., Исаков, М. К., Омонов, И. Х., & Обидова, Д. Д. (2022). ОФОРМЛЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ КАДАСТРОВОЙ СЪЕМКИ. *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 271-275.

13. Askarovich, K.Z., Mardonovich, P. I., Samankulov, S. R., & Ogli, B. A. Z. (2021). THEME: DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY CREATION OF DIGITAL TOPOGRAPHIC PLANS OF TERRAIN INCLINATION. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 202-207.

14.Djavatov,S., Samankulov, Sh., & Xushnud, T. (2023). PONYaTIYe OB OPTIMALNOM EKSPERIMENTE V GEODEZII. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 1(1), 1-6.

15. Husanov, B., & Samankulov, S. R. (2023). Shaharlarning Geografik Koordinatalari Uzunlama Va Kenglamalarini Beruniy Asarlarida Berilishi. Miasto Przyszłości, 35, 423-426.

16. Safarov, T. U., Samankulov, Sh. R., Xudaykulov, Sh. Sh., & Berdikulov, U. A. (2023). Metodika Yustirovki Mnogo Fasetnых Geliostatov. Open Academia: Journal of Scholarly Research, 1(1), 69-73.

17. Samankulov, S. R., & Nomozov, A. (2019). The role of modern laser scanners in the geodetic detection and planning of underground utilities. In Bridge to science: research works (pp. 201-205).

18. Suyunov, A., Tukhtamishev, S., Suyunov, S., Manoev, S., & Samankulov, S. (2023). Innovative solutions in creating noise maps in cities. In E3S Web of Conferences (Vol. 463, p. 02007). EDP Sciences.

19. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 193-197.

BINOLARNI ISITISH TIZIMDAGI NOSOZLIKLAR VA ULARNI OLDINI OLISH HAMDA BARTARAF ETISH

Omonqulov Orifjon Xolmuxammad og'li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universetiti, "Mexanika muhandisligi" kafedrasi o'qituvchisi
Abduraxmonov Abdulazizxon Abdunabixon o'g'li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universetiti, "Qurilish" fakulteti talabasi

Аннотация: Бу макалода бино ишидаги иситиш тизимининг асосий носозликлар сабаблари ва уларни бартараф этиш усуллари кўриб чикилган ва гидропневматик усулда ювиш ёки тозалаш билан бартараф қилиш айтилган.

Калит сўзлар: Коррозия, иссиқлик изоляцияси ишлари, патрубок, Гидропневматик

Abstract: In this article, the causes of the main malfunctions of the heating system in the building work and the methods of their elimination are considered, and elimination by hydropneumatic washing or cleaning is mentioned.

Key words: Corrosion, thermal insulation work, gas pump, Hydropneumatic

Аннотация: В данной статье рассмотрены причины основных неисправностей системы отопления в строительных работах и способы их устранения, а также упомянуто устранение гидропневматической промывкой или очисткой.

Ключевые слова: Коррозия, теплоизоляционные работы, бензонасос, гидропневматика.


Respublikamizda issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash hamda aholini issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda..

Shu bilan birga, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi bosqichi issiqlik ta'minoti tizimini kompleks modernizatsiya qilish va energiya tejovchi zamonaviy texnologiyalar asosida uning texnik darajasini oshirish zarurligini taqozo etmoqda.

Isitilayotgan binodagi haroratning hisobiy haroratga nisbatan pasayishi va tizim elementlari germetikligining buzilishi isitish tizimining asosiy nosozliklari hisoblanadi.

Quyidagi sabablar: issiqlik eltkich aylanishining buzilishi, boshqarish tugunining buzuqligi, o'zboshimchalik bilan qo'shimcha isitish asboblarini ulash natijasida binodagi harorat pasayishi mumkin. Xonalardagi harorat pasayganda birinchi navbatda termometr bilan isitish tizimiga uzatilayotgan issiqlik eltkichning haroratini tekshirib ko'rish lozim. Agar issiqlik eltkich harorati talab qilinganidan past bo'lsa, u holda buzuqlikni boshqarish tugunidan axtarish lozim. Agar issiqlik eltkich harorati normada belgilanganiga

to’g’ri kelsa, unda isitish tizimining buzuqligi issiqlik eltkichning aylanishi buzilishidan yoki tizimning noto’g’ri rostlanishidan iborat.



Issiqlik eltkichning aylanishi quyidagi hollarda buziladi: quvur, isitish, asboblariga kelgan quvurlar to’la yoki qisman ifloslanganda, tizimga havo kirib qolganda (tizimning «havo bilan to’lib qolishi») tizim muzlab qolganda, quvurlar, armaturalar noto’g’ri tarmoqlangan joylarda, isitish asboblariga keluvchi pastki suv keltirish quvurlarida, gorizontal qismlarda joylashgan jo’mraklarda, krestovina va uchlanmalarda, o’tish joylarda vujudga keladi. Quvurga (alohida asbobga), ifloslik tiqilib qolganda odatda isitish tizimlari qismlariiing qarshiligi ortadi va unda aylanayotgan issiqlik eltkich sarfi kamayadi, natijada bu qismlardagi isitish asboblarining o’rtacha harorati pasayadi.

Ikki quvurli isitish tizimi. Ikki quvurli isitish tizimida quvur ifloslanishiga qadar shu stoyanka tutashgan barcha isitish asboblarining sirtida qulay harorat saqlanib turadi (ifloslanishga qadar aylanish buzilmaydi). Ifloslangandan so’ng harorat keskin pasayadi, bu esa tizimning isitish asboblarida issiqlik eltgich sarfi kamayishi yoki asboblar orqali aylanishning butunlay to’xtab qolishi natijasida yuz beradi.

Bir quvurli isitish tizimi Bir quvurli tizimlarda haroratni o’lchash yo’li bilan quvurdagi tikinni qidirib topish odatda ijobiy natija bermaydi, chunki issiqlik eltkich tiqin hosil bo’lguncha va u hosil bo’lgach, butun quvur bo’ylab bir tekis soviydi.

Tiqin joylashgan joy aniqlangach, u gidravlik, gidropnevmatik usulda yuvish yoki tozalash bilan bartaraf qilinadi.


Yuvish oldidan barcha tizim ko’zdan kechiriladi: uning germetikligi tekshirib ko’riladi, boshqarish tugunlaridagi kir tutkichlar qismlarga ajratiladi, tozalanadi va hokazo.

Gidravlik yuvish usuli ifloslangan quvur orqali suvni doimiy oqizish yo’li bilan katta tezlikni vujudga keltirishni ko’zda tutadi. Buning uchun jo’mrak ochiq turgan vaqtda suv jo’mrak orqali drenajga oqizib yuboriladi. Ayrim holarda tezlikni oshirish uchun sirkulyasion yoki boshqa nasoslardan foydalaniladi.

Yuqorida bayon qilingan yuvish usuli yengil zarrachalar hosil qilgan tiqinlarni yo’qotishga hamda suvning tezligi nisbatan katta bo’lgan joylarda quvurni tozalashga imkon beradi. Suvning oqimi kam bo’lgan hududlarda (radiatorlarda, katta diametrli quvurlarda) yuvish samara bermaydi, chunki og’ir zarrachalar yuvayetgan suv oqimidan cho’kib qoladi. Tezlik (kam bo’lganligi sababli oqim tizimdan foydalanish davrida quvurlarda cho’kib, o’tirib qolgan zarralarni ajratib ola olmaydi va oqizib keta olmaydi.

Gidropnevmatik usulda yuvishda bunday kamchiliklar yo’q va maxsus jihozlardan foydalanishni talab qilmaydi Bu usul suv to’ldirilgan quvurga siqilgan havo yuborish yo’li bilan bajariladi. Bu havo suv aralashmasi tezligini oshirishni va yuqori turbulentlik bilan harakatlanishni ta’minlaydi, bu esa o’z navbatida cho’kindilarni yumshatadi va ularni tizimning ichki bo’shligidan olib ketadi.

Gidropnevmatik usulda yuvishda suv va siqilgan havo yuborish uchun uzatuvchi quvurga jo’mragi va teskari klapani bor diametri 20 ...40 mm li tarnovlar 3, 4 o’yib tutashtiriladi. Kichik tizimlarda havo va suvni tizimdagi mavjud tarnovlar orqali uzatish mumkin.



1-rasm. Quvur yo’llarni yuvish sxemasi: 1,2,5,6-zadvijkalar, 3,4-mos ravishda suv va siqilgan havo uzatish patrubkalari, 7-to’kish patrubogi, 8,10-jo’mraklar 11-havo chiqarish ventili.

Suvni chiqarib yuborish uchun teskari quvurga to’kish patrubogi 7 o’yib tutashtiriladi yoki tizimning to’kish jo’mragidan foydalaniladi.

Elevatorli isitish tizimini yuvishda elevatorning konusi va stakani oldindan chiqarib olinishi zarur. Siqilgan havo ish unumi 3..6 m3/min bo’lgan avtokompressor bilan uzatilib, u 0,6 MPa gacha havo bosimni vujudga keltiradi. Siqilgan havo quvuriga teskari klapan o’rnatilib, u isitish sistemasidan kompressorning reversiga suv tushishiga yo’l qo’ymaydi, uzatuvchi va teskari quvurlarga esa shkalasi 1,0 MPa gacha bo’lgan manometrlar o’rnatiladi. Tizimni gidropnevmatik yuvish ikki usuldan biri: oqim bilan yuvish yoki to’ldirib yuvishni qo’llab bajariladi. Oqim bilan yuvish usuli quyidagicha bajariladi (1-rasm). Zadvijkalar 1, 2, 6 berkitiladi, zadvijka 5 va jo’mraklar 8, 10 esa ochiladi. Tarnov 3 orqali tizim suv bilan to’ldiriladi, bunda havo chiqarishning ventili 11 ochiq bo’lishi lozim. Tizim suv bilan to’ldirilgandan so’ng jumrak 11 berkitiladi. Tarnov 3 ochiqligida tarnov 4 orqali siqilgan havo uzatiladi va to’kish patrubogi 7 ochiladi. Suv-havo aralashmasi quvurlarga to’xtovsiz uzatib turiladi, u quvurlar va isitish asboblaridan o’tib, shundan so’ng tarnov 7 orqali to’kiladi. Yuvish tarnov 7 dan toza suv tushguncha davom ettiriladi. Issiq suv quvuri tizimlari ham ayni shu usulda yuviladi. To’ldirish usulini qo’llab gidropnevmatik usul bilan yuvish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi. Pastki tarmoqli tizimlarda zadvijkalar 1, 2. 6 berkitiladi, zadvijka 5 va jo’mraklar 8. 10 hamda

jumrak 11 ochiladi. Keyin tarnov 3 orqali tizim balandlikda to’ldirilib, so’ng tarnov 3 berkitiladi. Tarnov 4 orqali 5... 15 min davomida (yuviladigan tizimning iflosligi va hajmiga qarab) siqilgan havo uzatiladi. So’ngra siqilgan havo to’xtatilib, jumrak 11 berkitiladi, tarnov 3 ochiladi va to’kish patrubogi 7 orqali tizimni havo yordamida tozalash vaqtida suv bilan birga qatlam-qatlam bo’lib chiqqan iflosliklar chiqarib tashlanadi.

Tizim obdon toza bo’lguncha bir necha marta yuviladi. Yuqorigi tarmoqli tizimlarda yuvish pastda joylashgan teskari quvurga tutashgan tarnov orqali suv uzatish vaqtida amalga oshiriladi, to’kish patrubogi esa uzatuvchi quvurga tutashtiriladi.

Tizimning konstruksiyasi va ifloslanish darajasiga qarab stoyaqlar, stoyaklar guruhi, uchastkalar alohida-alohida yoqi barcha tizim obdan yuviladi. Odatda iqqi-beshta stoyakdan iborat guruh bir vaqtda yuviladi, qolgan quvurlar yerto’lada jo’mraklar vositasida berkitiladi.

Quvurlarni iflosliklarini tozalash Binoning isitish tizimidagi iflosliknі yuvib ketkazishning iloji bo’lmasa, ular tozalanadi. Buning uchun quvurning ifloslik yig’ilishi taxmin qilingan qismi uzib qo’yiladi va undan suv tushirib yuboriladi.

Tizimlarga havo kirib qolishi Tizimga havo kirib qolishiga (ko’piklanish) issiqlik eltkichning aylanishlanishiga halaqit beruvchi havo tikinini vujudga keltiradi. Suvning tarkibida erigan havo bo’lishi, isigan vaqtda undan pufakchalar shaklida ajralib, quvur yo’lning yuqorigi qismlariga ko’tarilishi, bu yerda to’planib havo tikinlarini vujudga keltirishi natijasida ko’piklanish hosil bo’ladi.

Isitish tizimiga havo undagi bosim pasayganda, ham kirishi mumkin, natijada tizim qisman bo’shaydi, shuningdek quvur yo’llar teshilganda va tuzatish uchun tizimni bo’shatgan vaqtda ham tizim bo’shab qoladi.

havo tikini hosil bo’lgan joyni izlashda quvurlar va isitish asboblari yengil bolg’acha bilan urib ko’riladi. Katta havo tiqinlari joylashgan joylarda tovush kuchli va jarangli eshitiladi.

Quvur yo’li va armaturalarni montaj qilishda yo’l qo’yilgan. xatoliklar, ularning buzuqligi oqim qismi yuzasining kichrayishiga hamda aylanishning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. V.N.Isayev, V.N.Geyko. Binolar sanitariya texnikasi tizimlaridan foydalanish va ularni tuzatish. T. O’qituvchi. 1990 yil 184 b.
2. K.V.Tixomirov «Teplotexnika, teplogazosnabjeniye i ventilyasiya». Uchebnik dlya vuzov – 4-ye izdaniye. M.: Stroyizdat – 1989 g
3. Usmonov, S. A., Omonqulov, O. X., & Taniberdiyev, S. X. (2023). Mahalliy kichik qozonlarda issiqlik samaradorligini oshirishni tadqiq qilish. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(3), 93-96.
4. Omonqulov, O. X. (2023). Issiqlik bilan ta’minlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(4), 23-25.
5. Khalmanov, A., Aymatov, R., Omonkulov, O., & Khudaykulov, A. (2020). LASERS AND THEIR APPLICATION IN HEATING TECHNOLOGY. Problems of Architecture and Construction, 2(4), 132-134.
6. Makhmudov, R. M., Fayziev, Z. X., Kholmuradova, Z. I., Uzboev, M. D., & Taniberdiyev, S. X. (2024). Experimental study in heat accumulators with a phase transition of matter. In E3S Web of Conferences (Vol. 524, p. 01002). EDP Sciences.

УДК 624.5

ОСМА ВА ВАНТАЛИ КЎПРИКЛАРНИНГ ПЎЛАТ АРҚОНЛАРИ ВА АНКЕРЛАРИ

Холмуродов Аслон Ибрагимович
Самарқанд Давлат архитектура-қурилиш университети, т.ф.н., доцент
Абдуазизов Иномжон Алишерович
Самарқанд Давлат архитектура-қурилиш университети докторанти

Аннотация: Осма ва вантали кўприклар барпо қилинишида канатларнинг бикир конструкция(йул утказгич, пилон)ларга уланиш тугунларининг мустаҳкамлигини ва ишончлилигини таъминлаш ута муҳум масала ҳисобланади. Маколада, «GeoFundamentProject» илмий тадкикот, лойиҳа корхонаси томондан лойиҳаланган Самарканд шахри «Навруз» МФЙ ҳудудида жойлашган, дарғом каналидан утувчи пиёдалар учун мўлжалланган 132 м равокли осма-вантали кўприкнинг канатларини ва анкерларини синалиши келтирилган.

Пиёдалар учун мўлжалланган осма-вантали кўприк ЛИРА-САПР дастури ёрдамида, конструкцияни ночизикли ишлашини ҳисобга олган ҳолда лойиҳаланган.

Калит сўзлар: Осма, оралиқ, канат, пўлат, тугун, зўрикиш, солқиик, дефформация, ночизиқли, вертикал, горизантал, анкер.

Аннотация: Для вантовых и висячих мостов, подбор канатов и анкерных устройств а так обеспечение прочности и надежности играет ключевую роль в создании подобных конструкий. В статье приводятся результаты статического испытания каната и анкерных устройств для запроетированного проектной организацией «GeoFundamentProject» и возводимого близ г.Самарканда через канал «Даргом» пешеходного вантово-висячего моста пролетом 132м.

Порбор сечений несущих элементов вантово-висячего пешеходного моста производился по программе ЛИРА САПР с учетом геметрической нелинейности работы конструкции.

Ключевые слова: Висячий, пролёт, канат, сталь, узел, напряжение, прогиб, деформация, нелинейный, вертикальный, горизонтальный, анкер.

Annotation: In the construction of suspension and cable-stayed bridges, it is a very important issue to ensure the strength and reliability of the connection nodes of the cables to the single structures (overpass, pylon). The article presents the testing of wings and anchors of the 132 m arched suspension-valve bridge designed by the scientific research and project enterprise "GeoFundamentProject" and located in the territory of the "Navruz" MFY of Samarkand city, designed for pedestrians crossing the Dargom canal.


The suspension-valve bridge intended for pedestrians was designed using the LIRA-CAD program, taking into account the non-linear operation of the structure.


Key words: Suspension, span, wing, steel, knot, tension, sag, deformation, nonlinear, vertical, horizontal, anchor.

Кириш. Осма ва вантали кўприкларда пўлат арқонларнинг (канатларнинг) пилонга хамда йул утказгич конструкцияларига уланиш тугунларининг мустаҳкамлигини ва ишончлилигини таъминланиши кўприклар курилишида ута муҳум масала ҳисобланади.

Пўлат арконларнинг вакт мобайнида релаксация натижасида чўзилиши хамда канатни ташкиллаштирувчи симларини зичлашиши натижасида ҳосил бўладиган деформацияларни олдини олиш зарур. Бунинг учун канатларни пилонга ва йул утказгич конструкцияларига уланиш тугунларида канатларни тортилишини таъминловчи ускуналар ўрнатилади(1-расм).

Айни пайтда мазкур тугунларнинг бир қатор конструктив шакллари ишлаб чиқилган. Шунга қарамай мазкур тугунлар муайян кўприкларда қўлланилишига қараб синовдан утказилиши лозим.






1-расм. Осма кўприк пўлат арконларининг анкерланиш турлари:
а-бурчакликлардан, б-швеллерлардан, в-қувурдан, г-профилдан,
д-қуштаврдан, е- қисқичли(зажем).

Ушбу масалани тўғри ечиш иншоотнинг техник-иқтисодий кўрсаткичларига, асосан, кўприк курилиш тан нархига, унинг ишончлилигига, узок муддатда эксплуатация қилишнишига ва ташқи кўринишига таъсир кўрсатади.

Асосий қисм. Осма ва вантали кўприклар барпо қилинишида ТК 1·37·(1+6+12+18) ГОСТ3064-80 ва ЛК-РО 6х36(1+7+7/7+14)+7·7(1+6) ГОСТ7669-80 турдаги пўлат арқонлар ишлатилади (2-расм). Улар юқори мустаҳкамликка эга бўлган 1-5мм диаметри пўлат симлардан тайёрланади.



2-расм. ЛК-РО турдаги пўлат арқон: а-бўйлама кўриниши; б-кўндаланг кесими; 1-сим; 2- симлар ўрами; 3-ўзаги.

Самарканд шаҳри «Навруз» МФЙ ҳудудида жойлашган(3-расм), дарғом каналидан утувчи пиёдалар учун мўлжалланган 132м (22,5+81+28,5) равоқли осма-вантали кўприк канатлари ва анкерлари танланиб, синовдан утказилган. Осма-вантали кўприкнинг асосий юк кутариб турувчи конструкциялари ЛИРА-САПР дастури ёрдамида, конструкцияни геометрик ночизикли ишлашини ҳисобга олган ҳолда аниқланган.



3-расм. Осма-вантали кўприкнинг умумий куриниши.

Осма кўприкларни геометрик ночизиқли ҳисобланишига қуйидаги омиллар сабаб булди:

-пўлат арқонларнинг эластиклик модули (E=160000 МПа) стерженли конструкцияларнинг эластик модулига (E=210000 МПа) нисбатан кичик булганлиги учун, чузилувчан бўлади.

-қурилиш майдонига олиб келинган урамли(витый) канатлар ғовак бўлганлиги туфайли, 2-8% ноэластик чузилиш хусусиятига эга. Осма кўприк канатларида ҳосил бўладиган зуриқишнинг киймати эса, канатнинг горизонтга нисбатан солқилиги (*f*)га боғлик.

Мазкур кўприкни лойиҳалаш давомида бир катор муаммоларни ечишга туғри келди:

-кўприк қуриладиган ҳудуд муракаб рельефли бўлганлиги учун, конструкциялар алоҳида монтаж элементлари куринишида қурилиш майдониига ташилиб (кўчаларнинг эни тор бўлгани учун), конструкциялар қурилиш майдонида ясалишини таъминлаш;

-кострукцияларни боскичма-боскич монтаж килинишида, ҳисобий схемани узгаришини эътиборга олиш;


-осма-вантали кўприк тўлиқ монтаж қилиб бўлингандан сўнг, йул утказкич конструкцияни солқилигини горизонтал (лойиҳада белгиланган) ҳолатга келтириш;

Натижалар. Ҳисоблаш натижасида аниқланган кўприк ванталари бирикиш тугунлари (анкерлари) билан бирга **CMT-300** электромеханик синов машинаси ёрдамина синалди. Канатнинг ноэластик чўзилишини камайтириш мақсадида, монтаж жараёнини амалга ошираётган корхонанинг таянч базасида 72 соат мобайнида канатлар ҳисобий каршилигининг(разрывное усилие 150 кн/см^2) 70%(10,5кН) куч билан тортилиб қуйилди.

Осма ва ванта учун керакли канатларни (Ø16, Ø26) пилонга ҳамда йул утказгич конструкцияга уланиш тугунлари, кўприкни максимал юкларга синагандан сўнг хамда вакт мобайнида канатларни ноэластик чўзилишини олдини олиш мақсадида мазкур тугунларда канатларни тортадиган ускуналар булиши лозим.



4-расм. Диаметри-16 мм. ЛК-РО 6x36(1+7+7/7+14)+7·7(1+6) канатнинг пресс ёрдамида синов жараёни:




5-расм. ЛК-РО маркали канатнинг синалиш жараёнидаги кучланганлик –деформация графиги.

Канатни синалишини куйидагича таҳлил қилиш мумкин: Дастлабки 12 кН юк таъсирида канатда чўзилиш юзага келди, канатдаги ғоваклик камайиб, зичлашиш ортиб боришини график(5-расм)да кўриш мумкин. Чўзиш кучи 126 кН га етганда деформацияни чизиқли деб ифодалаш мумкин. Охирги боскич чўзилиши, эластик-пластик бўлиб намунаў(уч дона намуна синалди)лар уртача 152 кН юкланишда мустахкамлигини йуқотди. Бу киймат сортаментда берилган канатнинг вактичали каршилигига тўғри келди (152 кН).



6-расм. ЛК-РО 6х36(1+7+7/7+14)+7·7(1+6) канатнинг ферма билан уланиш тугуни:



7-расм. Пўлат арқоннинг анкерланиши: а-пўлат арқон; б-қисқич(зажем); 1-канат; 2- қисқич(зажем); 3-ғилоф(коржек).

Муҳокама. Осма тизимларда канатларнинг юк таъсирида деформацияланиши канатлардаги зўриқишларни узгаришига олиб келади. Канатнинг юк таъсирида узайиши ноэластик ҳамда эластик узайишлардан иборат бўлади. Ноэластик узайиш-канатларни ташкиллаштирувчи пўлат симлар, урамаларида ғоваклар бўлиши сабабли юзага келади. Ташқи чўзувчи куч таъсирида симлар оралиғидаги бўшлиқлар зичлашганлиги туфайли пўлат арқонлар 2% дан 8% гача чўзилиш хусусиятига эга. Бу ҳодиса уз навбатида пўлат арқонлардаги зўриқишларни кескин узгартириб, осма кўприкни меъёридан ортик солкинланишига олиб келади. Ноэластиик чўзилишларни камайтириш мақсадида канатларни монтаж қилинишидан олдин 72 соат мобайнида, канатларнинг хисобий қаршилигини 70% қийматига тенг куч остида тортиб қуйиш зарур. Мазкур тадбир утказилишидан кейин хам пўлат арқонлар осма кўприк таркибида маълум миқторда ноэлатик чўзилиши мумкин. Самарканд шахар «Навруз МФЙ» худудида қўрилаётган осма-вантали кўприк (ЛК-РО 6х36(1+7+7/7+14)+7·7(1+6) GOST7669-80) канатларини кучланганлик деформация ҳолатини текшириш мақсадида, уч дона 80 см узунликдаги пўлат аркон намуналари чўзувчи прессда **СМТ-300** тортилиб синалди. Синаш натижалари 5-расмда график кўринишда келтирилган.

ХУЛОСА:

1. ЛК-РО 6х36 маркали канатнинг ноэластик деформацияси, вактинчалик қаршиликка нисбатан уртача 8% ташкил қилди. Канатнинг дастлабки мазкур чўзилишини камайтириш учун, канатлар олдиндан 72 соат мобайнида вактинчали қаршиликнинг 50% чўзилиш кучи таъсири остида сақланиши лозим.

2. Осма кўприкларнинг солқилигини камайтириш учун, йул уткагични пўлат арқонларга бирлаштириб турувчи стерженларни қисқартириш усули ёрдамида зўриқтириш мумкин.

Адабиётлар:

1. Вантовые мосты / А.А. Петропавловский [и др.]; под ред. А.А. Петропавловского. – М. : Транспорт, 1985. – 224 с.
2. Кирсанов, Н.М. Висячие и вантовые конструкции / Н.М. Кирсанов. – М. : Стройиздат, 1981. – 158 с.
3. Сильницкий Ю.М. Расчет висячих мостов по деформированной схеме : учеб. пособие / Ю.М. Сильницкий. – Л. : ЛИИЖТ, 1967. – 207 с.
4. Барановский, А.А. Мосты больших пролетов. Проектирование висячих и вантовых мостов : курс лекций / А.А. Барановский. – Петербург : ПГУПС, 2005. – 272 с.
5. Бахтин, С.А. Проектирование висячих и вантовых мостов : учеб. пособие / С.А. Бахтин. – Новосибирск : Сиб.ГАПС, 1995. -- 121 с.
6. ШНК 2.05-02-07. Кўприклар ва тунеллар. «Автомобильные дороги» Госархитектстрой, г. Ташкент, 2008 г.90 стр.
7. ЛИРА-САПР-2022.

АНАЛИЗ МЕТОДА И ТОЧНОСТИ ТОПОГРАФО-ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ СЪЕМОК В ГОРОДЕ “САМАРКАНДЕ”.

Обидова Д.Д.,
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет, кафедры «инженерная геоматика», преподаватель.

Аннотация: В настоящее время в мире широко используются цифровые технологии и геопространственные данные для предоставления точной и достоверной информации об административной территории, определения границ территориальных единиц, решения проблем, связанных с территориальными границами.

В принятых в нашей республике указах и решениях цифровизация всех отраслей экономики страны и дальнейшее повышение качества обслуживания населения, а также рациональное и эффективное использование земельных ресурсов, правильная организация землеустройства и мониторинга земель, особенности границы административно-территориальных единиц. Принимаются комплексные меры по определению и точному ведению земельного учета и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Республики Узбекистан «Новый Узбекистан» на 2022-2026 годы в том числе «определение содержания открытых данных в государственном реестре и внедрение общедоступного геопортала на основе открытых данных, а также предоставление информации государству и экономике посредством Определены важные задачи Национальной геоинформационной системы по разработке порядка представления в органы управления и физические и юридические лица». В реализации этих задач важно провести научные исследования по совершенствованию метода определения границ административно-территориальных единиц на основе цифровых технологий в области рационального и эффективного использования земельных ресурсов, точного учета земель. Постановлением Президента Республики Узбекистан от 28 апреля 2020 года № PQ-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» предусмотрено внедрение в республике геоинформационной системы (ГИС). Каракалпакстана и регионов, информация» Определены задачи интеграции с системой «электронного правительства». Исходя из вышеизложенного, становится актуальным проведение научных исследований по созданию цифровых карт, привязывающих границы территориальных единиц к единой системе координат, на основе использования цифровых технологий при определении границ административно-территориальных единиц.

Ключевые слова: Административно-территориальный, жилые районы, топографическое съёмок, Panarama, карта, тахеометр.

Abstract: Currently, digital technologies and geospatial data are widely used in the world to provide accurate and reliable information about the administrative territory, determine the boundaries of territorial units, and solve problems related to territorial boundaries. The decrees and decisions adopted in our republic digitalize all sectors of the country's economy and further improve the quality of public services, as well as rational and efficient use of land resources, proper organization of land management and land monitoring, features of the boundaries of administrative-territorial units. Comprehensive measures are taken to determine and accurately maintain land records and achieve certain results. In the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan "New Uzbekistan" for 2022-2026, including "defining the content of open data in the state register and introducing a publicly available geoportal based on open data, as well as providing information to the state and the economy through The important tasks of the National Geographic Information System are defined to develop the procedure for submission to governing bodies and individuals and legal entities." In implementing these tasks, it is important to conduct scientific research to improve the method for determining the boundaries of administrative-territorial units based on digital technologies in the field of rational and efficient use of land resources, accurate land accounting. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 28, 2020 No. PQ-4699 "On measures for the widespread introduction of the digital economy and e-government" provides for the introduction of a geographic information system (GIS) in the republic. Karakalpakstan and regions, information "The tasks of integration with the "e-government" system are defined. Based on the above, it becomes relevant to conduct scientific research to create digital maps that link the boundaries of territorial units to a single coordinate system, based on the use of digital technologies in determining the boundaries of administrative-territorial units.

Key words: Administrative-territorial, residential areas, topographic survey, Panarama, map, tacheometer.

ВВЕДЕНИЕ

Проводит подготовительную и наблюдательную работу по разграничению административно-территориальных единиц;

- готовит предложения по установлению границ;
- формирует линию границы в штате и системе координат WGS-84 в геоинформационной базе данных (формат *.gdb, *.mxd);
- готовит картографические материалы с указанием линий границ;
- создает описание межевой линии и каталог координат точек поворота;
- готовит документы для согласования и подтверждения границ;
- готовит ортофотопланы, подготовленные на основе имеющихся картографических и аэро- или космических фотографий с изображением линий границы, а также описание линии границы и топографических карт соответствующего масштаба;
-в ходе полевого наблюдения проведена граница по обе стороны от линии границы в масштабе 1:10 000 на орошаемых площадях, а на остальных участках в масштабе 1:25 000 и 1:50 000 граница линия была проведена по обе стороны границы, линия принимает и готовит выписки;

- при отсутствии обновленных топографических карт работы с использованием ортофотопланов, созданных на основе аэрофотоснимков или космических снимков;

- проверяет пропорциональность координат точек поворота при определении границ;

- проверяет, не пересекает ли линия границы здания и сооружения и земельные участки, на которых они расположены;

- в случае возникновения разногласий по установлению границ осуществляется сбор дополнительных материалов о землевладельцах, землепользователях, арендаторах и собственниках на спорных участках и видах земель, собранные материалы передаются рабочим органом в комиссии приграничные районы (на основании соглашения) готовятся к рассмотрению на совместном заседании;

- для определения согласованной линии границы линия границы составляет 1:10 000 на орошаемых территориях, 1:25 000 на других территориях, с использованием электронной программы, привязывая аэрофотоснимки или космические фотографии к государственной системе координат, по условным обозначениям, принятым для топографические карты и чертится на ортофотоплане масштаба 1:50 000, описание утвержденной линии границы административно-территориальных единиц наносится на топографическую карту;

- при описании линии границы названия географических объектов принимаются по топографической карте, названия автомобильных и железных дорог, каналов и рвов, названия географических объектов принимаются на основании государственного реестра и других официальных сведений;

- подготавливает итоговые документы по разграничению административно-территориальных единиц для рассмотрения Комиссией;

- готовит сводку в трех экземплярах для предоставления в соответствующие организации по вопросам демаркации границ административно-территориальных единиц.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ СПИСОК.

1. Instruksiya po sostavleniyu texnicheskix otchetov o geodezicheskix, astronomicheskix, gravimetricheskix i topograficheskix rabotax, GKKINP-17-098-03, izdanie 2006 god, Tashkent.

2. Avchiev SH. Q. Toshpulatov S.A. Injinerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent. TAQI, 2000 yil.

3.Avchiev SH. Q. Amaliy geodeziya. Toshkent. Voris, 2010 yil.

МЕТОДЫ

Основной целью редактирования карт является обеспечение выполнения элементов административно-территориальных карт с высокой точностью и их оформление в соответствии с нормативно-техническими руководствами. Редактирование карт включает в себя следующие шаги:

- подготовительные работы к редактированию; - этапы редактирования при подготовке карт к публикации;

Подготовка к редактированию включает в себя следующие этапы:

- сбор и анализ картографических материалов и других литературных данных для составления карт;

- картографирование и съемка территории;

- разработка инструкций по редактированию;

- подготовка сотрудников исправительных учреждений.

Содержание инструкции по редактированию должно включать:

- краткая географическая классификация субъектов картографии республики;

- общая техническая информация;

- модель компановки;

- картографическое и информационное содержание и этапы их использования при составлении карт.

- технология подготовки и оформления к публикации;

К руководству по редактированию прилагается таблица подстановочных знаков.

Составление административно-территориальных карт и подготовка к изданию.

Работа по составлению элементов карты производится на основании процедур, предусмотренных следующими нормативными документами:

1. Руководство по созданию общегеографических атласов (курсовое).


2. Руководство по нанесению географических терминов на топографические карты, планы и другие материалы. Топографо-геодезические работы ориентированы на получение информации о рельефе и объектах рельефа. В результате работы заказчик получает достоверные топографические карты и планы рельефа, фотодокументы (ортофотокарты, фотосхемы), цифровые модели рельефа и рельефа, трехмерные модели, специальные карты и планы (схемы инженерных коммуникаций).

Топографическая съемка – это специальная съемка, которая проводится с целью составления карты земельного участка для определения межевой линии, описания ее деталей на топографическом плане, определения площади участка и его частей, а также зоны ограничения.Геодезические работы выполняются в национальных и местных системах координат. Геодезические работы, выполняемые в местных системах координат, должны быть надежно связаны с национальной системой координат. Объектами топографического изучения являются земельные участки или их часть, зафиксированные в правовых документах или городских (районных) земельно-топографических книгах, вновь предоставленные земельные участки.

Заказчики топографических изысканий - лица, имеющие право собственности, пользователи, имеющие законное право на земельные участки, а также юридически неограниченные предприятия, организации, учебные заведения, товарищества, кооперативы, ассоциации, организации государственного управления, в том числе предприятия с иностранными инвестициями, международные объединения, организации, иностранные юридические и физические лица.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Граница земель, подлежащих передаче из Пастдаргомского района Самаркандской области в город Самарканд, от А до Б граничит с землями Самаркандского района, от Б до V граничит с землями города Самарканд, от V до G граничит с землями Самаркандского района. земли Самаркандской области, от G до D земли города Самарканда граничит, от D до E граничит с землями Самаркандской области, от E до Y граничит с землями города Самарканда, от Y до A граничит с землями Пастдаргомского района описание следующее: За отправную точку 1 принят пересечение западной стороны автодороги M-37A (линия границы проходит в 20 метрах от оси этой дороги) и линий границы Пастдаргомского района и Самаркандского района (в координатах WGS-84). , координаты северной широты 39° 43' 038,435", координаты восточной долготы 66° 52' 19,417").



1-Рисунок. Карта границ города Самарканда, Самаркандская область

5600 метров в юго-восточном направлении от точки 1 с учетом поворотов по нынешней границе Пастдаргомского района и Самаркандского района.

Он соединяется с точкой 2 (координаты северной широты 39° 45' 28,930 дюйма, координаты восточной долготы 66° 55' 45,195 дюйма).

От точки 2, с учетом поворотов по нынешней границе Пастдаргомского района и города Самарканда, она соединяется с точкой 3 в южном направлении на расстоянии 5858 метров (координаты северной широты 39° 40' 21,568", восточной долготы). координаты 66° 55' 38,676").

От точки 3 линия границы соединяется с точкой 4, расположенной на расстоянии 583 метра в южном направлении (координаты северной широты 39° 40' 9,673", координаты восточной долготы 67° 58' 29,117") с учетом поворотов. вдоль нынешней границы Пастдаргомского и Самаркандского районов.

От точки 4 по нынешней границе Пастдаргомского района и Самаркандского района с учетом поворотов с северной стороны улицы Нарпай она соединяется с точкой 5, расположенной на расстоянии 855 метров в западно-северо-западном направлении (координаты северной широты). 39° 45' 19,440 дюйма, координаты восточной долготы 67° 51' 54,693 дюйма).

Из точки 5 она соединяется с точкой 6 на расстоянии 2538 метров в направлении запад-северо-запад с учетом поворотов по нынешней границе Пастдаргомского района и города Самарканда (координаты северной широты 39° 40' 34,021", Координаты восточной долготы 66° 55' 25,926"). .

2813 метров в юго-восточном направлении от точки 6 с учетом поворотов по нынешней границе Пастдаргомского района и города Самарканда.

7 - точка (координаты северной широты 39° 39' 44,916", координаты восточной долготы 68° 51' 32,232").

От точки 7 по нынешней границе Пастдаргомского района и Самаркандского района по течению воды Даргомского канала по правому берегу канала, с учетом изгибов русла, он соединяется с точкой 8, расположенной на расстоянии 1566 метров в юго-восточное направление (координаты северной широты 39° 39' 15,755", координаты восточной долготы 66° 51' 58 395").



2-Рисунок Границы территории, переданной от Пастаргомского района Самаркандской области до города Самарканда.

От точки 8, с учетом поворотов по нынешней границе Пастдаргомского района и города Самарканда, она соединяется с точкой 9, расположенной на расстоянии 2057 метров в западно-юго-западном направлении (координаты северной широты 39°38' 58,595 ", координаты восточной долготы 66° 51' 0,446") .

От точки 9 она соединяется с западной стороной Самаркандской автомобильной дороги общего пользования в форме дуги (линия границы проходит на расстоянии 16 метров от оси этой дороги) в

северо-северо-западном направлении на расстоянии 780 метров до точка 10 (координаты северной широты 39° 39' 11,258 дюйма, координаты восточной долготы 66° 50' 32,115 дюйма).

От точки 10 линия границы составляет 2722 метра в северо-северо-восточном направлении с западной стороной Самаркандской национальной автодороги (линия границы проходит на расстоянии 14 метров от оси этой дороги).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

При определении территориального единства и административно-территориальных границ нашей республики мы понимаем, что линии границ субъектов определяются и обозначаются специальными знаками.

Для определения административно-территориальных границ специальным приказом нашего государства создана комиссия и проводится обширная работа. В состав этой комиссии входят представители всех соответствующих министерств, комитетов и ведомств, в том числе представители геодезии и картографии.

проанализировали задачи по обеспечению геодезически-картографическими данными, быстро создаваемыми, качественными и высокоточными картами и геодезическими данными представителей области геодезии и картографии.

Определенные в соответствии с порядком линии границы наносятся на специальные административно-территориальные карты и являются официальным юридическим документом.

Топографические карты административно-территориального устройства субъектов Республики Узбекистан создаются и служат информационно-информационным справочником.

Основная задача этих топографических карт – предоставить государственным органам единую и полную информацию. Топографические карты служат для руководства государственными органами в административно-территориальном устройстве территории или субъекта, территориальном управлении, информации о том, кому принадлежит административно-территориальный объект, обеспечении субъектов транспортными средствами и других задачах.

Административно-территориальные топографические карты достоверны, точны по масштабу, а также проанализированы технологии создания карт с целью показать субъектам современную территорию административно-территориальной территории.

Кроме того, изучалось геодезическое обеспечение для определения территориального единства и административно-территориальных границ субъектов.

Освещены общие правила безопасности труда и охраны окружающей среды, безопасности труда и охраны окружающей среды, методы и функции управления охраной труда, вопросы охраны окружающей среды и ее формы.

Экономика предприятий, выполняющих геодезические работы в железнодорожном строительстве, в разделе экономика геодезических работ. Показаны методы и концепции повышения производительности труда и правила составления сметы для расчета стоимости выполняемых работ.

В процессе выполнения дипломного проекта я усвоила много материала и думаю, что результаты учебы помогут моей коктейльной деятельности в будущем.

Литература

1.Norxujaev Q. N. Injinerlik geodeziyasidan praktikum, Toshkent. O‘qituvchi, 1976 yil.

2.Norxujaev Q. N. Injinerlik geodeziyasi. Toshkent. O‘qituvchi, 1984 yil.

3.Qo‘ziboev T. Geodeziya. Toshkent. O‘qituvchi, 1975 yil.

4.Avchiev SH. Q. Amaliy geodeziya. Toshkent. Voris, 2010 yi.

5.(O‘zbekistonni hududiy rivojlantirish yagona kompleks strategiyasini shakllantirishning 2007-2011 yillarga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqish bo‘yicha komissiyasining 2006 yil 16 avgustdagi 02/1-262-sonli 2-bayonnomasi).

6. O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va kadastr davlat qo‘mitasining 18.02.2016 yil 44-sonli bo‘yrug‘i.

7.Обидова, Д. Д., & Хамдамова, Д. О. (2023). ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ ПОДЗЕМНЫХ КОММУНИКАЦИЙ. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 122-123).

8.Bobokalonov, M. X., Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). SAMARQAND SHAHRIDAGI MAKTABLARNING SXEMATIK JOYLASHUV XARITASINI ARC-GIS DASTURI YORDAMIDA YARATISHDA KARTOGRAFIK METODLARDAN FOYDALANISH. *Journal of marketing, business and management*, *1*(12), 69-74.

9.Obidova, D., Hamdamova, D., & Norboyev, N. (2024). Digitization of Precipitation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, *26*(1), 10-21070.

10 Obidova, D. D., & Hamdamova, D. O. (2023). ASSESSMENT OF RAINWATER HARVESTING POSSIBILITIES USING GIS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 285-288.

11. Mardonovich, P. I., Davronzoda, O. D., & Oglu, K. M. M. Update of agricultural electronic digital maps. international journal of innovations in engineering research and technology, 7(4), 1-3.

12. Мирзаев, А. А., Обидова, Д. Д., & Михеев, Д. О. (2020). Метрологический контроль электронных тахеометров на эталонном геодезическом базисе. журнал агро процессинг, (special issue).

13. M.x, B., D.d, O., & D.o, H. (2023). SAMARQAND SHAHRIDAGI MAKTABLARNING SXEMATIK JOYLASHUV XARITASINI ARC-GIS DASTURI YORDAMIDA YARATISHDA KARTOGRAFIK METODLARDAN FOYDALANISH. Journal of Marketing, Business and Management, 1(12), Article

14.Хусанова, М. И., Исаков, М. К., Омонов, И. Х., & Обидова, Д. Д. (2022). ОФОРМЛЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ КАДАСТРОВОЙ СЪЕМКИ. *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 271-275.

15. Askarovich, K.Z., Mardonovich, P. I., Samankulov, S. R., & Ogli, B. A. Z. (2021). THEME: DEVELOPMENT OF

A METHODOLOGY CREATION OF DIGITAL TOPOGRAPHIC PLANS OF TERRAIN INCLINATION. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 202-207.

16.Djavatov,S., Samankulov, Sh., & Xushnud, T. (2023). PONYaTIYe OB OPTIMALNOM EKSPERIMENTE V GEODEZII. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 1(1), 1-6.

17. Husanov, B., & Samankulov, S. R. (2023). Shaharlarning Geografik Koordinatalari Uzunlama Va Kenglamalarini Beruniy Asarlarida Berilishi. Miasto Przyszłości, 35, 423-426.

18. Safarov, T. U., Samankulov, Sh. R., Xudaykulov, Sh. Sh., & Berdikulov, U. A. (2023). Metodika Yustirovki Mnogo Fasetnых Geliostatov. Open Academia: Journal of Scholarly Research, 1(1), 69-73.

19. Samankulov, S. R., & Nomozov, A. (2019). The role of modern laser scanners in the geodetic detection and planning of underground utilities. In Bridge to science: research works (pp. 201-205).

20. Suyunov, A., Tukhtamishev, S., Suyunov, S., Manoev, S., & Samankulov, S. (2023). Innovative solutions in creating noise maps in cities. In E3S Web of Conferences (Vol. 463, p. 02007). EDP Sciences.

21. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 193-197.

DAVLATLARARO TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH

P.A.Nurmatov., A.H.Rajabov., D.A.Sabirova., D.B.Rustamova
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda nafaqat O'zbekiston va Markaziy Osiyoda balki butun dunyoda dolzarb muammo bu insonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minnlsh, shuningdek, dehqonchilik uchun zarur bo'lgan suv muammosining ba'zi bir Markaziy Osiyo, hususan, O'zbekiston va unga qo'shni mamalakatlarda yechish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: suv, transchegaraviy, davlatlararo, aholi, okean, dengiz, ko'l, iqlim, cho'llar, mintaqa.

Kirish. Yer yuzida hayot mavjudligining asosiy manbai suvdir. Ma'lumki, insoniyat, o'simlik va hayvonot olami, umuman, hech bir jonzot suvsiz yashay olmaydi. Yer sharining uchdan ikki qismi suv bilan qoplangan bo'lsa-da, uning 97,45 % sho'r suvlar bo'lib, ishlatishga yaroqsizdir. Qolgan 2,55 % chuchuk suv resurslarini tashkil etib, uning 69 % muzliklar, 30 % yer osti suvlari, atigi 0, 3 % esa daryo va ko'llar hissasiga to'g'ri keladi[6, 19-b.].

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo aholisining har 10 nafardan 4 nafari toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashaydi. BMT ekspertlari tomonidan 2030 yilga borib Yer shari aholisi 8, 6 milliardga, 2050 yilda esa 9, 8 milliardga yetishi bashorat qilinmoqda. Tabiiyki, insoniyat ko'paygan sari suvga bo'lgan talab ortib boradi.

Asosiy qism. Okean va yirik dengizlardan ancha olisda, qurg'oqchil mintaqada joylashgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham suvning ahamiyati benihoya katta. Global iqlim o'zgarishlari sababli Tojikistondagi mavjud 8 mingdan ortiq muzliklar maydonining 30 %, Qirg'izistondagi 10 mingga yaqin muzliklar maydonining 16 % erib ketgan. 2030 yilga borib muzliklarning yana 15-20 % yo'qolib ketishi bashorat qilinmoqda. Shu bilan birga, so'nggi paytlarda mintaqamizda suv kam bo'lgan yillar soni tobora ko'payib bormoqda. Agar 2000 yillarga qadar har 6-8 yilda suv taqchilligi takrorlangan bo'lsa, keyingi vaqtlarda bunday holat har 3-4 yilda kuzatilyapti. Bundan ko'rinadiki, suvning har tomchisidan oqilona va unumli foydalanish bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarida, balki butun dunyoda eng dolzarb muammoga aylanmoqda.

Bunday suv tanqisligi Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida kuzatilmoqda. Shu bilan birga Suv resurslari mintaqa doirasida bir tekis taqsimlanmagan. Katta maydonlarini cho'l zonasi egallagan Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistondagi suv resurslarining asosiy manbai qo'shni tog'li mamlakatlar Tojikiston hamda Qirg'iziston hisoblanadi. Bu esa qurg'oqchil hisoblangan mintaqa mamlakatlari zimmasiga suv resurslaridan oqilona foydalanish, barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga olgan holda suv boyliklarini to'g'ri taqsimlashdek dolzarb vazifani qo'yadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) mutaxassislarining ma'lum qilishicha, qayta tiklanadigan suv manbalariga nisbatan eng yuqori suv iste'moli Yaqin Sharq mamlakatlarida kuzatiladi. [13]

Foydalanilayotgan asriy suv resurslarining qayta tiklanadigan suv manbalariga nisbati O'zbekiston (115,7 %), Turkmaniston (99,59 %), Tojikiston (74,84 %), Qirg'iziston (42,37 %) da ancha yuqori bo'lsa, Belarus (4,81 %), Rossiya (1,46 %), Estoniya (1,23 %), Litva (1,07 %), Latviya (0,81%) kabi Yevropa mamlakatlarida kichik ulushlarga teng. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki Dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotining 88 % ini ishlov beriladigan yerlardan olinmoqda, Mamlakatimizda foydalaniladigan suv resurslarining 80 % ga yaqini (taxminan 41,5 km^3/yil) qo'shni respublikalar hududidagi muzliklar hisobiga shakllanadi.

Shu kungacha dunyo miqyosida transchegaraviy va mahalliy suv ob'ektlari suv resurslarini hisobga olish, ularni boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha mingdan ortiq turli me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida ish olib borilmoqda. Shulardan eng asosiylari

Yevropa Hamjamiyatining “Xalqaro ko’llar va transchegaraviy suv arteriyalaridan foydalanish va muhofaza qilish Konvensiyasi” si (Xelsinki shahrida 1992 yili 17 martda qabul qilingan) va BMTning “Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” si (Nyu-York shahrida 1997 yil 21 martda qabul qilingan) hisoblanadi. Ushbu konvensiyalarning asosiy tamoyillari - barcha davlatlarning manfaatlarini birdek hisobga olish, transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish va qo’shni davlatlarga “zarar yetkazmaslik” dir.

O’zbekistonda foydalaniladigan suv resurslarining asosiy manbalarini Amudaryo, Sirdaryo va ularning irmoqlari tashkil etadi. Orol dengizi havzasidagi barcha daryolarning o’rtacha ko’p yillik suv oqimi hajmi yiliga 116,02 km^3 bo’lib), shundan 79, 4 km^3 Amudaryo havzasida (67,4%) va 36,6 km^3 (32,6%) Sirdaryo havzasida shakllanadi.

“Transchegaraviy suv obyektlari” - ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o’tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv obyektlari.

Suv zaxiralarning deyarli barchasi mamlakatlar tomonidan turli xil ehtiyojlar uchun foydalanishga olingan. Daryo havzasidagi har bir mamlakat foydalanish uchun suv olishning kelishilgan ulushi (limiti)ga ega. Masalan, “Amudaryo va Sirdaryo daryolarining o’tgan asrning 80-yillarda ishlab chiqilgan havzaviy sxemalarida har bir mamlakatning ulushi, belgilangan suvni olish miqdori hanuzgacha mintaqaning barcha respublikalari tomonidan tan olinadi”.

Orol dengizi havzasining asosiy daryolaridan O’zbekistonning suv olish ulushi. mintaqada hosil bo’lgan jami suv resurslarining 49 % ni tashkil qiladi. So’nggi yillarda O’zbekistonda foydalaniladigan suv resurslarining yillik hajmi o’rta hisobda 51-53 km^3 ni tashkil etmoqda. Bu umumiy olingan suv hajmining jiddiy tarzda qisqarganidan dalolatdir (20%). Ayni holat iqlim o’zgarishi ta’siri ostida, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli daryo suvlarining kamayib ketganligi bilan bog’liq. Mintaqada ishlatilayotgan jami suv resurslarining o’rtacha 90 % qishloq xo’jaligida, 4,5 % kommunal-maishiy xo’jalik sohasida, 1,4 % sanoatda, 1,2 ‘% baliqchilikda, 0,6 % issiqlik energetikasida, 2,3 % esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalaniladi.

Global iqlim o’zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so’nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 % ga qisqargan. Taxminlarga ko’ra, harorat 2 ^oC ga ortganda muzliklar hajmi 50 % ga, 4 ^oC ga isiganda esa 78 % ga kamayadi. Hisob-kitoblarga ko’ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 % ga, Amudaryo havzasida 15 % gacha kamayishi kutilmoqda. Tahlillar iqlim o’zgarishi mintaqada suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurg’oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko’payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo’lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko’rsatmoqda. Shuningdek, mintaqada aholi sonining ko’payishi kommunal sohani yildan yilga suvga bo’lgan talabini ortishiga olib keladi. Oqibatda, so’nggi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta’minoti 3,5 marta qisqardi.

Mintaqada suv ta’minoti bilan bog’liq mavjud vaziyat asosan quyidagi muammolar va keskinliklar bilan xarakterlanadi:

- suv resurslari cheklangan va o’ta notekis tarqalgan;
- iqlimning o’zgarishi ta’sirlari, muzliklar zaxirasining kamayib borishi va suv resurslarining kutilayotgan 10-15% kamayishi, favqulodda vaziyatlari sonining ortishi;
- yer-suv resurslari degradatsiyasi, ekotizimlarning buzilishi, cho’llashish, suv resurslari ifloslanishi va bioxilma-xillikni yo’qolishi jarayonlari;
- Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi aholi sonining tez o’sishi;
- mintaqada iqtisodiy jarayonlarning intensivlashishi, suv resurslari taqchilligining ortishi (kishi boshiga suv bilan ta’minlanganlik ko’rsatkichi 3,5 marta kamaydi, bugungi kunga kelib suvga bo’lgan qo’shimcha talab 700-800 mln.m^3/yil ni tashkil etadi);
- suv resurslariga bo’layotgan tabiiy va antropogen ta’sirlar ostida tabiat va jamiyat o’rtasida suvga bo’lgan talabdagi tafovutlar ortib bormoqda;
- umumiy suv resurslarini hamkorlikda boshqarish, ulardan birgalikda foydalanish suvdan foydalanish bilan bog’liq (transchegaraviy) masalalarda keskinliklar mavjud.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida mamlakatlar o’rtasida ikki tomonlama Ishchi guruhlar tuzilib, kelishuvlarga erishilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyoning Davlatlararo suv xo’jaligini muvofiqlashtiruvchi Komissiyasi (1992-yildan) hamkorlikni amalga oshirmoqda.

Mintaqaning transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish sohasida davlatlararo hamkorlikni takomillashtirish va yanada rivojlantirish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish zarur:

markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarishning o’zaro maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish;

transchegaraviy suvlar bo’yicha BMT konvensiyalari normalari va tamoyillarini ilgari surish;

amaldagi qonuniy kelishuvlar, shu jumladan, Sirdaryo, Amudaryo va boshqa transchegaraviy daryolar miqyosida suv o’lchashni takomillashtirish dasturini amalga oshirish uchun qo’shma monitoring olib borish va ochiq ma’lumotlar almashish mexanizmini yaratish;

mintaqa mamlakatlari o’rtasida suvdan foydalanish bo’yicha axborot almashinuvini doimiy ravishda yo’lga qo’yish;

mintaqa davlatlari tomonidan umummanfaatlarni inobatga olgan holda yirik gidrotexnika inshootlarini qurish bo’yicha yagona yo’l xaritasini ishlab chiqishni ilgari surish;

mintaqaviy suv resurslarini boshqarish bo’yicha qo’shma rejalarni ishlab chiqish va istiqboldagi vazi-

falarni belgilash, shu jumladan, iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ko'rish va o'zaro manfaatlarni ifoda etuvchi sohalarda tajriba almashish.

Umuman transchegaraviy suv resurslaridan foydalanuvchi davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar bo'lishi tabiiy. Zero ayrim hollarda umumiy suv resurslaridan foydalanuvchi xalqlar manfaatlari ayrim zid kelishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bunday sharoitlarda suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston rahbarining BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi bayonotida ilgari surilgan tashabbus va takliflar jahon shu jumladan mintaqa hamjamiyatining diqqat markazida turibdi.

Xulosa va takliflar:

Davlatlararo transchegaraviy suv serurslaridan foydalanishda har bir davlat o'z xududidan oqib o'tuvchi daryolar, kanallar va boshqa suv havzalaridan oqilona hamda samarali foydalanishni yo'lga qo'yishi, shuningdek, mavjud kelishuv shartnomalari va imzolangan bitimlar asosida ish tutishlari lozim.

Suv resurslaridan foydalanishda global suv yetishmovchiligi muammolarning oldini olishda imzolangan bitimlar, xalqaro tajribalar va mahalliy qonun-qoidalar asosida ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmatov P.A., Norqulov B.M., Rustamova D.B. Suv o'tkazish inshootlarining harakatlanuvchi to'siqlari, xarakteristikalari va qo'llanilish sohalari // Me'morchilik va qurilishi muammolari – № 3 – 2021. – 29–34 b.

2. Норкулов, Б. М., Нурматов, П. А., Суюнов, Ж. Ш., Таджиева, Д. Методы определения убытков внутренних последствий систем водоснабжения. Me'morchilik va qurilish muammolari – № 2 (2) – 2021.– 62 b.

3. Нурматов П.А., Хидиров С.К., Артикбоева Ф.К. Характерные особенности амударьи в юсте аму-бухарского машинного канал// Me'morchilik va qurilish muammolari – № 4 (2) – 2022. – 84–87 b.

4. Образовский А.С. К учёту местного увеличения удельных расходов за рисбермами водосливных плотин // Гидротехническое строительство, № 12. –1957. – с. 23–34.

5. Образовский А.С. Усиление растекания струй за быками плотины при помощи ломаной водобойной стенки. // В сб.: Труды гидравлической лаборатории ВОДГЕО, – вып.5. –1957. – с. 50–57.

6. Орехов Г. В. Характеристики потока и особенности кавитатsionных явлений в контрвихревых гасителях энергии гидротехнических сооружений //Вестник евразийской науки. – Т. 11. – №. 2. – 2019.– с. 1–18.

7. Namazovich, M. M., Baxriddinovich, A. X., & Hamza o'g, G. O. B. (2023). Oqova suvlarni tozalash inshootlaridan chiqayotgan oqova suvlarni qayta sug'orishga foydalanish ishini tahlil qilish. Journal of engineering, mechanics and modern architecture, 679-681.

8. Xushvaktov, B., Xolov, F., & Artikboyev, X. (2023). GILAM ISHLAB CHIQARISH KORXONASI OQOVALARINI FIZIK– KIMYOVIY USUL BILAN TOZALASH. Interpretation and researches, 2(3).

9. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. OQIM ENERGIYASINI SO'NDIRISH UCHUN HAR XIL TURDAGI ENERGIYA SO'NDIRGICHLARNING KONSTRUKTIV SXEMALARI TAHLILI. 2024 yil. https://conf.innovascience.uz/index.php/medicine

10. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. KONUSLI ZATVORLAR BILAN JIHOZLANGAN GIDROTEXNIK INSHOOTLARDA MAHALLIY YUVILISHLAR. 2024 yil. https://conf.innovascience.uz/index.php/medicine

11. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. SUV CHIQARISH INSHOOTLARIDA ENERGIYA SO'NDIRGICHLARNI QO'LLASH SHARTLARI. // Me'morchilik va qurilishi muammolari – № 3 – 2024. – 239–241 b.

HAVO SIFATINI O'LCHASH VA KONTSENTRATSIYANI HISOBLASH

P.A.Nurmatov., A.H.Rajabov., F.M.Xolov., M.N.Mirzayev
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Havoning ifloslanishi atmosferada odamlar va boshqa tirik mavjudotlar sog'lig'iga hamda iqlimga zarar yetkazuvchi moddalarning mavjudligi sababli kelib chiqqan ifloslanishdir. Havoning ifloslanishi odamlarni kasalliklarga yo'liqtirishi, ularda allergiyalarni paydo qilishi va hatto o'limga olib kelishi mumkin. U hayvonlar va oziq-ovqat ekinlari kabi boshqa tirik organizmlarga hamda tabiiy muhitga (masalan, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi yoki yashash muhitining buzilishi) yoki atrof-muhitga (masalan, kislotali yomg'ir orqali) zarar yetkazishi mumkin. Atmosferaning ifloslanishiga inson faoliyati ham, tabiat hodisalari ham sabab bo'la oladi.

Kalit so'zlar. havo, ifloslanish, zararli modda, konsentratsiya, chiqindilarni yoqish, metan, karbonat angidrid, xlorftorokarbonlar.

Kirish. Atmosfera havosining ifloslanish muammosi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Uzoq vaqt davomida yog'ingarchilikning yo'qligi, kuchsiz shamollar, haroratning inversiyasi atmosfera havosining turg'unligiga imkon beradi, bu esa ifloslantiruvchi moddalarning to'planishi uchun sharoit yaratadi.

Respublikamizda havoning chang bilan ifloslanishi nafaqat tabiiy xususiyatlar (quruq iqlim, qumli va qumloq tuproqlar), balki antropogen ifloslanish (avtomobil chiqindilari, sanoat, qurilish, issiqlik elektr stansiyalari) bilan ham bog'liq.

Shahardagi atmosfera bo'shlig'ining past shamollatilishi, shahar transportining ko'pligi, yo'llarning tirbandligi, keng ko'lamli qurilishlar, shuningdek, daraxtlarni kesish, maysazorlar va magistral yo'llarning keng ko'lamda sug'orilishining mavjud emasligi - bularning barchasi meteorologik sharoitlar va antropogen yuklanishga, havoning yuqori ifloslanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Havoning ifloslanishi nafas olish yo‘llari infeksiyalari, yurak kasalliklari, insult va o‘pka saratoni kabi ifloslanish bilan bog‘liq bir qator kasalliklar uchun muhim xavf omilidir. Mavjud muammo borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, havo ifloslanishi IQ ko‘rsatkichlarining pasayishi, idrokning buzilishi, ruhiy tushkunlik va perinatal salomatlikka zarar yetkazish kabi psixiatrik kasalliklar xavfining oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Havoning yomon sifati inson salomatligiga ta’siri juda keng bo‘lib, asosan tananing nafas olish tizimi va yurak-qon tomir tizimiga ta’sir qiladi.


Faqat qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan tashqi havo ifloslanishi har yili 3,61 million kishining o‘limiga sabab bo‘ladi, bu antropogen ozon va $PM_{2,5}$ bilan birga (2,1 million) inson o‘limiga eng ko‘p hissa qo‘shuvchilardan biriga aylangan. Havoning sifati odatda havodagi $PM_{2,5}$ zarralari konsentratsiyasi bilan o‘lchanadi, bu odatda diametri 2,5 mikrometr yoki undan kichik bo‘lgan, nafas bilan yutiladigan mayda zarralarni tavsiflaydi. JSST standart me’yori — 10 mkg/m^3 ni tashkil qiladi.

Havoning ifloslanishi natijasida hosildorlikning yo‘qolishi va hayot sifatining yomonlashishi jahon iqtisodiyotiga yiliga 5 trillion dollarga tushadi. Havo sifatining yomonlashuvini kamaytirish uchun ifloslanishlarni turli xil nazorat qilish texnologiyalari va strategiyalari mavjud. Atmosfera ifloslanishining salbiy oqibatlarini cheklash uchun bir qancha xalqaro va milliy qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Mahalliy qoidalar to‘g‘ri bajarilganda, sog'liqni saqlash sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Ushbu sa’y-harakatlarning ba’zilari jumladan, ozonosferani buzuvchi zararli kimyoviy moddalarning chiqarilishini ozaytiradigan Monreal protokoli va oltingugurt emissiyasini kamaytiradigan 1985-yildagi Helsinki protokoli xalqaro darajada muvaffaqiyatli bo‘lib, iqlim o’zgarishi bo’yicha xalqaro harakatlar bundan mustasno.

Tadqiqot natijalari: Atmosferani ifloslantiruvchi emissiya omillari bu atrof-muhit havosiga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini ushbu ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi bilan bog‘liq faoliyat orqali bog‘lashni maqsad qilgan reprezentativ qiymatlar. Ifloslovchining og‘irligi, ifloslantiruvchi moddalarni hosil qiluvchi faoliyatning birlik og‘irligiga, hajmiga, masofasiga yoki vaqtiga qarab bo‘linadi. Ushbu mezonlar turli xil ifloslanish omillaridan hosil bo‘luvchi chiqindilarni baholashni osonlashtiradi.

Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar ro‘yxatida 12 ta birikma mavjuddir. Dioksinlar va furanlar ulardan ikkitasi bo‘lib, plastiklarning ochiq yonishi kabi organik moddalarning yoqilishi natijasida maqsadli yaratiladi. Bu birikmalar ham endokrin buzuvchidir va inson genlarini mutatsiyaga olib kelishi mumkin.





Havoni ifloslantiruvchi moddalar inson va ekotizimga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan havodagi materialdir. Modda qattiq zarralar, suyuq tomchilar yoki gazlardan iborat bo‘ladi. Ifloslantiruvchi tabiiy kelib chiqishi yoki texnogen bo‘lishi mumkin. Ifloslantiruvchi moddalar birlamchi va ikkilamchi deb tasniflanadi. ***Birlamchi ifloslantiruvchi moddalar*** odatda vulqon otilishi natijasida hosil bo‘luvchi kul kabi jarayonlar natijasida hosil bo‘ladi. Boshqa misollar orasida avtoulov chiqindisidan chiqadigan uglerod oksidi yoki fabrikalardan chiquvchi oltingugurt dioksidi kiradi.

Ikkilamchi ifloslantiruvchi moddalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hosil bo‘lmaydi. Aksincha, ular asosiy ifloslantiruvchi moddalar reaksiyaga kirishganda yoki havoda o‘zaro ta’sirlashganda hosil bo‘ladi. Troposferik ozon ikkilamchi ifloslantiruvchi moddalarning yorqin namunasidir. Ba’zi ifloslantiruvchi moddalar ham birlamchi, ham ikkilamchi bo‘lishi mumkin.

Inson faoliyati natijasida atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalarga quyidagilar kiradi:

a) **Karbonat angidrid (CO_2):** Issiqxona gazi roli tufayli u yetakchi ifloslantiruvchi va eng yomon iqlim ifloslantiruvchisi sifatida tavsiflangan. Karbonat angidrid atmosferaning tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, o‘simliklar hayoti uchun zarurdir va inson nafas olish tizimi tomonidan hosil bo‘ladi. Yer atmosferasida CO_2 ko‘payishi tez suratlarda oshmoqda.

b) **Oltingugurt oksidlari (SO_x):** ayniqsa oltingugurt dioksidi, SO_2 formulali kimyoviy birikma. SO_2 vulqonlar va turli sanoat jarayonlarida hosil bo‘ladi. Ko‘mir va neft ko‘pincha oltingugurt birikmalarini o‘z ichiga oladi va ularning yonishi oltingugurt dioksidini hosil qiladi. SO_2 ning keyingi oksidlanishi,

odatda, NO_2 kabi katalizator ishtirokida, H_2 SO_4 hosil qiladi va shu bilan kislotali yomg‘ir hosil bo‘ladi. Bu yoqilg‘ilardan energiya manbalari sifatida foydalanishning atrof-muhitga ta’siri haqida tashvishlanish sabablaridan biridir.

c) **Azot oksidi (NO_x):** Azot oksidi, xususan, azot dioksidi yuqori haroratli yonish natijasida chiqariladi, shuningdek, momaqaldiroq paytida elektr zaryadsizlanishi natijasida hosil bo‘ladi. Azot dioksidi NO_2 formulasiga ega kimyoviy birikma. Bu bir nechta azot oksidlaridan biridir. Atmosferani ifloslantiruvchi moddalardan biri bo‘lgan bu qizil-jigarrang zaharli gaz o‘ziga xos o‘tkir hidga ega.

d) **Uglerod oksidi (CO):** CO formulali rangsiz, hidsiz, zaharli gazdir.[70] Bu tabiiy gaz, ko‘mir yoki o‘tin kabi yoqilg‘ining yonish mahsulotidir. Avtoulov chiqindisi atmosferaga chiquvchi uglerod oksidining katta qismini tashkil qiladi. Bu havoda ko‘plab o‘pka kasalliklari hamda tabiiy muhit buzilishi va hayvonlarga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan tutun turini hosil qiladi.

e) **Uchuvchi organik birikmalar (UOB):** UOBlar tashqi havoni ifloslantiruvchi moddalardir. Ular metan (CH_4) yoki metan bo‘lmagan moddalar bilan tasniflanadi. Metan global isishning kuchayishiga hissa qo‘shadigan shiddatli issiqxona gazidir. Boshqa uglevodorodlar ham ozon yaratish va atmosferada metanning umrini uzaytirishdagi roli tufayli muhim issiqxona gazlari hisoblanadi. Bu ta’sir mahalliy havo sifatiga qarab o‘zgaradi. Aromatik benzol, toluol va ksilen uzoq vaqt davomida ta’sir qilish bilan leykemiyaga olib kelishi mumkin. 1,3-butadien ko‘pincha sanoatda foydalanish bilan bog‘liq yana bir xavfli birikma hisoblanadi.

Zarralar, shuningdek, zarrachalar (PM), atmosfera zarrachalari (APM) yoki mayda zarralar deb ham ataladi, gaz tarkibidagi mikroskopik qattiq yoki suyuq zarralardir. Boshqa tomondan, aerozol zarralar va gaz aralashmasidir. Vulqonlar, chang bo‘ronlari, o‘rmon va o‘tloq yong‘inlari, tirik o‘simliklar zarrachalarning manbalaridir. Aerozollar avtoulovlarda, elektr stantsiyalarda va ko‘plab sanoat jarayonlarida qazib olinadigan yoqilg‘ining yonishi kabi inson faoliyati natijasida hosil bo‘ladi. Dunyo bo‘yicha o‘rtacha, antropogen aerozollar — inson faoliyati natijasida yaratilgan. Hozirgi vaqtda havoning taxminan 10 % ni tashkil qiladi. Havodagi mayda zarrachalarning ko‘payishi yurak xastaligi, o‘pka funktsiyasining o‘zgarishi va o‘pka saratoni kabi sog‘liq uchun zararli kasalliklarni olib keladi. Zarrachalar nafas yo‘llarining infektsiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, astma kabi kasalliklarga chalinganlar uchun xavfli bo‘lishi mumkin.

Odamlar asosiy vaqtlarining ko‘p qismini o‘tkazuvchi binolarda ventilyatsiya yetishmasligi havoning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Radon (Rn) gazi, kanserogen bo‘lib, ma’lum joylarda yerdan ajralib chiqadi va uylar ichiga joylashadi. Qurilish materiallari, shu jumladan gilam va faner formaldegid (H_2CO) gazini chiqaradi. Bo‘yoq va erituvchilar quriganida uchuvchi organik birikmalarni (UOB) hosil qiladi. Qo‘rg‘oshin bo‘yog‘i changga aylanishi va odamlar undan nafas olishi mumkin. Havoni qasddan ifloslantirish xushbo‘y havo purkagichlari, tutatqilari va boshqa xushbo‘y narsalardan foydalanish bilan kiritiladi. Oshxona pechlari va kaminlarni nazoratli yoqish natijasida havoga, ichkariga va tashqariga sezilarli miqdorda zararli tutun zarralarini chiqarish mumkin. Ichkarining ifloslanish xavflariga pestitsidlar va boshqa kimyoviy purkagichlarni to‘g‘ri ventilyatsiya qilinmagan holda ishlatish sabab bo‘lishi mumkin.

Uglerod oksidi bilan zaharlanish va o‘lim holatlari ko‘pincha shamollatish teshiklarining noto‘g‘riligi yoki yopiq joylarda ko‘mirni yoqish natijasida yuzaga keladi. Surunkali uglerod oksidi bilan zaharlanish hatto noto‘g‘ri sozlangan chiroqlardan ham kelib chiqishi mumkin.

Amerika Qo‘shma Shtatlari regulyatorlari tomonidan xavfsiz deb hisoblanganidan havo ifloslanishining uchta komponenti bo‘lmish mayda zarrachalar, azot dioksidi va ozonning ta’siri yurak va nafas olish kasalliklari bilan bog‘liq. 2020-yilda ifloslanish (shu jumladan havoning ifloslanishi) Yevropada har sakkizinchi o‘limning sababi bo‘lgan va ifloslanish bilan bog'liq kasalliklar, shu jumladan yurak kasalliklari, insult va o'pka saratoni uchun muhim xavfli omil edi. Havoning ifloslanishi natijasida kelib chiqadigan sog‘liqqa ta’siri nafas olish, xirillash, yo‘tal, astma va mavjud nafas olish va yurak kasalliklarining yomonlashishini o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu ta’sirlar dori vositalaridan foydalanishning ko‘payishiga, shifokor yoki tez yordam bo‘limiga tashrif buyurishning va kasalxonadagi bemorlarning ko‘payishiga hamda erta o‘limga olib kelishi mumkin. Havoning yomon sifati inson salomatligiga ta’siri katta bo‘lib, asosan tananing nafas olish tizimi va yurak-qon tomir tizimiga ta’sir qiladi. Atmosfera ifloslanishining eng keng tarqalgan manbalariga zarrachalar, ozon, azot dioksidi va oltingugurt dioksidi kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi besh yoshgacha bo‘lgan bolalar ichki va tashqi havoning ifloslanishi bilan bog‘liq jami o‘limlar bo‘yicha eng zaif aholi hisoblanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2014-yilgi hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili havoning ifloslanishi dunyo bo‘ylab 7 millionga yaqin odamning bevaqt o‘limiga sabab bo‘lgan. 2019-yil mart oyida chop etilgan tadqiqotlar bu raqam 8,8 million atrofida bo’lgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. 2022-yilgi tahlil havoning ifloslanishi 2019-yilda 6,67 (5,90-7,49) million erta o‘limga sabab bo‘lgan degan xulosaga keldi. O‘lim sabablari orasida qon tomirlari, yurak kasalliklari, o‘pka saratoni va o‘pka infektsiyalari mavjud.

Shahar havosining ifloslanishi har yili dunyo bo‘ylab 1,3 million kishining o‘limiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bolalar nafas olish organlari tizimining yetilmaganligi tufayli xavf ostidadir. 2015-yilda tashqi havoning, asosan, $PM_{2,5}$ bilan ifloslanishi, dunyo bo‘ylab Osiyoda yiliga 3,3 (95 % CI 1,61-4,81) million erta o‘limga olib kelishi taxmin qilingan. 2021-yilda JSST tashqi havoning ifloslanishi 2016-yilda dunyo bo‘ylab 4,2 million erta o‘limga sabab bo‘lishi taxmin qilinganini ma’lum qilgan. 2020-yilgi tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, 2015-

yilda havo ifloslanishidan umr ko‘rish davomiyligining qisqarishi 2,9 yilni tashkil etgan, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlikning barcha shakllaridan sezilarli darajada ko‘proq ekanligini ko‘rsatadi.

2022-yilda *GeoHealth*da chop etilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Qo‘shma Shtatlarda energiya bilan bog‘liq qazib olinadigan yoqilg‘i chiqindilarini yo‘q qilish har yili 46,900-59,400 erta o‘limning oldini oladi va $PM_{2.5}$ bilan bog‘liq kasalliklar va o‘limning oldini olish uchun 537-678 milliard dollar foyda keltiradi.

Havoning ifloslanishi, ifloslantiruvchi moddalar darajasi eng yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda insult uchun xavf omili sifatida paydo bo‘lgan. 2007-yilgi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ayollarda havo ifloslanishi gemorragik emas, balki ishemik insult bilan bog‘liq.

Havoning ifloslanishi markaziy asab tizimiga ham ta’sir qilishi haqida ma’lumotlar to‘planib bormoqda. Havoning ifloslanishi 50 yoshdan oshgan odamlarda demans xavfini oshiradi. Ichki havoning ifloslanishi bolalalarda kognitiv funktsiya va neyrorivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Atmosferaning ifloslanishiga olib kelmaydigan jamoat transporti shakllarini qo‘llab-quvvatlash, ulardan foydalanish va infratuzilmasini kengaytirish ifloslanishning muhim alternativi bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda havo ifloslanishining asosiy sabablariga amaliy alternativalar mavjud:

- Jamoat transporti turlaridan, velosipeddan hamda infratuzilmalardan foydalanish (shuningdek, masofaviy ish, ishlarning qisqarishi, boshqa joyga ko‘chishi bilan almashtirish va mahalliylashtirish)
- Yoqilg‘i vositalaridan bosqichma-bosqich voz kechish barqaror transportga o‘tishning muhim tarkibiy qismidir; Biroq, elektr transport vositalari kabi shunga o‘xshash infratuzilma va dizayn qarorlari ishlab chiqarish, shuningdek, ko‘p miqdordagi zarur akkumulyatorlar uchun kon va resurslardan foydalanish ifloslanish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.
- Kema harakatini tabiiy gaz kabi toza yoqilg‘iga o‘tkazish mumkin.
- Qazib olinadigan yoqilg‘ilarning yonishi natijasida hosil bo‘ladigan elektr energiyasi yadro va qayta tiklanadigan energiya bilan almashtirilishi mumkin. Mintaqaviy havoning ifloslanishiga sezilarli hissa qo‘shadigan isitish va uy pechlari rivojlanmagan mamlakatlarda tabiiy gaz yoki qayta tiklanadigan energiya kabi toza yoqilg‘i bilan almashtirilishi mumkin.
- Shahar havosining ifloslanishining asosiy omili bo‘lgan qazib olinadigan yoqilg‘i bilan ishlaydigan avtotransport vositalarini elektr transport vositalari bilan almashtirish mumkin.
- Avtotransportda sayohatni qisqartirish ifloslanishni cheklashi mumkin.

Quyidagi elementlar odatda sanoat va transport tufayli ifloslanishni nazorat qilish manbalari sifatida ishlatiladi. Ular ifloslantiruvchi moddalarni yo‘q qilishlari yoki atmosferaga chiqarilishidan oldin ularni egzoz oqimidan olib tashlashlari mumkin.

Xulosa: Atmosfera havosini zararli gazlardan himoya qilish hamda barcha tirik organizmlarni toza havo bilan ta’minlash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Ishlab chiqarish korxonalari va avtomobil transporti soxasidan tabiiy atrof-muhitga tashlanayotgan zararli moddalarning chegaraviy ruxsat etilgan me’yorlarni (CHREM) me’yorlashtirish va bu borada chora-tadbirlarni kuchaytirish talab etiladi.

Atmosfera havosining ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy tahdid soladi, ko‘plab tana tizimlariga ta’sir qiladi va turli kasalliklar xavfini oshiradi. Ushbu muammoni hal qilish davlat me’yoriy-huquqiy hujjatlari, sanoat hamkorligi va individual javobgarlikni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Qattiqroq standartlarni joriy etish, toza texnologiyalarni qo‘llash va aholining xabardorligini oshirish orqali biz havo ifloslanishi bilan bog‘liq sog‘liq uchun xavflarni kamaytirishga va barcha uchun sog‘lom muhit yaratishga harakat qilishimiz zarurdir.

Adabiyotlar

1. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 13.03.2019 yildagi O‘RQ-529-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasi.

3. A.Ergashev. Umumiy ekologiya. Darslik. 2003 yil .Toshkent.

4. Z.Sattorov. Qurilish ekologiyasi. Darslik. 2017 yil. Toshkent.

5. P.A.Nurmatov. Atrof muhit muhandisligi. Monografiya. 2022 yil. Republic of Moldova, Evrope.

6. P.A.Nurmatov. “Atmosfera havosini himoya qilish texnologiyasi” fanidan amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun o’quv qo’llanma. 2023 yil. Toshkent.

7. Ахмедова, Ф. И., Холов, Ф. М., & Ражабов, А. Х. (2024). Загрязнение и охрана окружающей среды. Interpretation and researches.

8. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. Oqim energiyasini so‘ndirish uchun har xil turdagi energiya so‘ndirgichlarning konstruktiv sxemalari tahlili. 2024 yil. https://conf.innovascience.uz/index.php/medicine

9. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. Konusli zatvorlar bilan jihozlangan gidrotexnik inshootlarda mahalliy yuvilishlar. 2024 yil. https://conf.innovascience.uz/index.php/medicine

10. Nurmatov P.A., Artikboyev X.B. Suv chiqarish inshootlarida energiya so‘ndirgichlarni qo‘llash shartlari. // Me’morchilik va qurilishi muammolari – № 3 – 2024. – 239–241 b.

YENGIL SANOAT OQOVA SUVLARNI ULTRAFILTRATSIYA USLUBIDA MAKKAJO'XORI KRAXMALINI QO'SHISH ORQALI DINAMIK MENBIRANA (DM) HOSIL QILISH.

Qayumova Lobar Shodimurodovna
SamDAQU doktorant,
Jurayev Olmos Jonikulovich
SamDAQU t.f.n.,proffessor.

Annotatsiya. Makkajo'xori kraxmalidan foydalangan holda dinamik membranalarning (DM) shakllanishi va ishlashi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, yengil sanoat korxonasining rangli oqova suvlarini tozalash ultrafiltratsiya membranalardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Shuning uchun ma'lum bir usul bilan olingan dinamik membranalarda [2] yengil sanoat ishlab chiqarish korxonasi oqova suvlarini kompleks qayta ishlash, ya'ni ajratish filtirlash va kimyoviy mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash mumkin.

Kalit so'zlar. Makkajo'xori kraxmali, yopiq zanjirli tizim, mikrofiltratsiya, adsorbsiya, ultrafiltratsiya, dinamik membrana, sirt faol moddalar, bo'yoqlar.

Аннотация. Результаты исследований формирования и функционирования динамических мембран (ДМ) с использованием кукурузного крахмала свидетельствуют о целесообразности использования ультрафильтрационных мембран для очистки цветных сточных вод предприятия легкой промышленности. Следовательно, в динамических мембранах, полученных определенным методом [2] может быть обеспечена комплексная переработка сточных вод предприятия легкой промышленности, то есть использование сепарационной фильтрации и химических продуктов.

Ключевые слова. Кукурузный крахмал, система с замкнутой цепью, микрофильтрация,адсорбция, ультрафильтрация, динамическая мембрана, поверхностно-активные вещества, красители.**Abstract.** The results of studies on the formation and operation of dynamic membranes (DMs) using cornstarch indicate that the treatment of colored effluents of a light industrial enterprise is advisable to use ultrafiltration membranes. Therefore, in dynamic membranes obtained by a certain method [2] it is possible to ensure the complex processing of wastewater of a light industrial production enterprise, that is, the use of separation filtration and chemical products

Keywords. Corn starch, closed chain system, microfiltration, adsorption, ultrafiltration, dynamic membrane, surfactants, dyes.

Davlatimizning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti dastur hujjatlarida Respublikamizda yetishtirilayotgan paxta xom ashyosini to'lig'icha qayta ishlab tayyor mahsulot holatida yurtimiz ehtiyoji va chet elga eksport qilish masalasi dolzarb masala qilib qo'yilgan. Tabiiyki, bu sohani rivojlanishi yengil sanoat korxonalari sonini oshishiga turtki bo'ladi. Ma'lumki yengil sanoat texnologik jarayonlariga ko'plab toza suv iste'mol qiladigan sanoat xo'jaligi hisoblanadi.

Yengil sanoatning texnologik jarayonlarida yuvush, bo'yash hamda to'qish va tayyor mahsulot holatiga keltirish kabilarga katta miqdordagi toza suv sarflanadi. Bu jarayonlardan so'ng tarkibida bo'yoqlar, sirt faol moddalar, mineral tuzlar bo'lgan murakkab tarkibli oqova suv hosil bo'ladi. Bunday oqova suvlarni shahar kanalizatsiyasiga yoki ochiq suv havzalariga tozalamasdan tashlab bo'lmaydi. Yengil sanoat oqova suvlarini mavjud an'anaviy tozalash usullari, yani adsorbsiya, flotasiya, destruktiv oksidlash tizimini qo'llash ekspluatatsiya xarajatlarini oshishiga olib keladi va har doim ham kutilgan natijani beravermaydi [1].

Bugungi kunda bunday muammolarni hal qilish usullaridan biri yangi fizik kimyoviy usullardan biri ulrtafiltratsiya usullarini qo'llashdir. Bu usullarni amalda qo'llanilishiga to'siq bo'layotgan omillar, agressiv muhitga chidamli yuqori selliktivlikga ega, hamda yuqori haroratga chidamli membranalarning yo'qligi sabablidir. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llaridan biri dinamik membranalarni (DM) amaliyotga qo'llashdir.

Dinamik membranalarning suv o'tkazuvchanligi polimer membranalarga nisbatan 1-2 daraja yuqori bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, dm ning ishlash muddati deyarli cheklanmagan. Membrana har doim yarim o'tkazuvchan bo'ladi. Ajratiladigan oqova suv yoki uning modeli eritmada dispers materialning aralashmalari mavjud bo'lsa.

Dm ning statik membranalarga nisbatan asosiy afzalliklaridan biri ularning yangilanishidir, kichik mexanik shkastlanish bo'lgan holatida membranada yangi DM hosil qilish orqali membranani o'z-o'zini ushlab qolish mumkin [2]. Filtrlash jarayonida DM qatlami umumiy muhitga qarshi ta'sir qiladi, chunki ular maxsus kiritilgan yoki eritmaning o'zida mavjud polimerlar hisobiga membrana hosil qiluvchi bo'lakdan hosil bo'ladi.

Yopiq tizim yaratish uchun (DM) dan foydalanish yengil sanoat ishlab chiqarish oqova suvlarini qayta ishlash tizimlariga qo'yiladigan yuqori selektivlikni ta'minlashi mumkin. Membranalarning suv o'tkazuvchanligi, ularning chidamliligi, uzoq muddatga barqaror ishlash davri. [3]Shu munosabat bilan tozalash muammosini hal qilish uchun yengil sanoat bo'yash sexlarining oqava suvlari ultrafiltratsiya usuli bilan tozalash ishlab chiqarishga, qo'llanilsa quyidagi asosiy masalalarni hal qilish kerak:

- dm hosil qilish uchun qo'llaniladigan qo'shimchalar (MHQQ) dan foydalanishning maqsadli turlarini tanlash va asoslash;
- dm shakillantiruvchi qo'shimchadan DM hosil bo'lishining optimal parametrlarini aniqlash;

- asetatsellyuloza membranalarida, oqova suvlarni tozalashni texnologik samaradorligiga ta'sirini o'rganish;

- dm yordamida sirt faol moddalar va bo'yoqlardan oqava suvlarni membrana bilan tozalash uchun mumkin bo'lgan sxemalarni ishlab chiqish;

Yengil sanoat korxonalarida suv erituvchi va yuvish sifatida ishlatiladi (bo'yash, oqartirish eritmalarini tayyorlash, yuvish).

Yengil sanoat korxonalar oqova suvlarini (chuqur tozalashda ranglardan tozalangan oqova suvlarni ishlab chiqarishga qayta ishlatish uchun qaytarish yoki suv havzalariga tashlash, qimmatbaho kimyoviy reagentlar hamda bo'yoqlarni texnologik jarayonga yoki boshqa maqsadlar uchun ishlatishga qaytarish).

Yengil sanoat korxonalarida yopiq aylanma tizimlarni yaratish mumkinligi ko'rsatadi. Bunday kamchiliklarni bartaraf qilishda samarali usullardan biri ultrafiltratsiya usulini qo'llab dinamik membranalardan foydalanish tavsiya qilindi

Yengil sanoat oqova suvlarini tozalashda ultrafiltratsiya usulida tozalash uchun oqova suv tarkibiga mos bo'lgan model eritma tayyorlab olindi va tajribalar o'tkazildi [4]. Model eritma oddiy ichimlik suviga 0.25mg/l kraxmalni 4-5 sekunt davomida , aralashtirilib suvdagi eritmasi tayyorlandi. 5 litrli standart idishda o'lchab olindi va kimyoviy idishga solindi. Jihoz ishga tushgach tahlil olish boshlandi. Har soatda ultrafiltratsiya jihozidan tozalangan oqova suv jihoz filtirdan chiqadigan filtratni 100ml standart ulchovli kimyoviy idishda laboratpriya tahlili uchun oldik. Olingan filtratni kimyoviy tahlil qilib chiqdik shuningdek, jihozdan chiqgan filtratni tezligini, temperaturasi qayt etib borildi.


Rangli oqova suvlarni ultrafiltratsiya usulida tozalash uchun 1-model eritma quyidagi tarkibda tayyorlandi. 5 litr suvga NaCl-0,25 mg/l, bo'yoq-0,25 mg/l, kraxmal-0.25mg/l tayorlanadi.


1-jadval. 1- model eritmada o'tkazilgan ultrafiltratsiya natijalari.
(H_2O -5 l, NaCl -0.25 mg/l , Kraxmal-0.25 mg/l, **bo'yoq-0.25 mg/l**)

Namuna olish vaqti soatda	Filtrat NaCl mg/l	Bo'yoq φ mg/l	100 ml filtrat olish uchun ketgan vaqt sekund, t	pH metrdagi ko'rsatilgan	Oqova suv Hararot, C°	Ultrafiltratsiya jihozidagi ishchi bosim P, paskal
1	0.13	0.005	39	7,5-10	38	275
2	0.15	0.005	40	7,5-10	37,8	275
3	0.12	0.005	50	7,5-10	37,6	275
4	0.1	0.005	45	7,5-10	37,2	275
5	0.1	0.004	45	7,5-10	37,3	275
6	0.1	0.004	44	7,5-10	37,4	275
7	0.1	0.004	43	7,5-10	37,5	275
8	0.1	0.004	44	7,5-10	37,6	275
9	0.1	0.004	44	7,5-10	37,6	275
10	0.1	0.004	44	7,5-10	37,6	275

2-jadval. 2- model eritmada o'tkazilgan tajribalar tahlili natijalari.
(H_2 O -5 l, **NaCl-0,5mg/l**,.Bo'yoq-0,5mg/l, Kraxmal-0.5 mg/l)

Namuna olish vaqti t, soat	Filtrat NaCl mg/l	Tozalangan suvning tezligi, t, sek	Bo'yoq φ,Mg/l	pH metrdagi ko'rsatilgan	Oqova suv harorati C°	Ultrafiltratsiya jihozidagi ishchi Bosim P, paskal
1	0,05	85	0,05	7,5-10	37,2	278
2	0,01	46	0,05	7,5-10	37,3	278
3	0,013	46	0,08	7,5-10	37,5	278
4	0,017	44	0,07	7,5-10	37,6	278
5	0,017	46	0,07	7,5-10	37,5	278
6	0,017	45	0,07	7,5-10	37,7	278
7	0,017	40.5	0,07	7,5-10	37,7	278
8	0,017	51	0,07	7,5-10	37,9	278
9	0,017	52	0,07	7,5-10	37,9	278
10	0,017	52	0,07	7,5-10	37,9	278





Yuqorida qayd etilgan model eritmalari ultrafiltratsiya jihozi yordamida filtrlab filtrat tarkibidagi rangi tuz miqdori (NaCl), suvning tezligi, pH ko'rsatgichi va harorati laboratoriya sharoitida tahlil qilindi hamda qayt etib borildi. Biz DM hosil bo'lganini NaCl va bo'yoq iyonlarining filtratdagi qiymatiga qarab aniqlaymiz. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, dinamik menbirana (DM) makkajo'xori kraxmali solingan vaqtdan to'rt soat o'tib hosil bo'ldi. Jihozni ishga tushirganimizdan so'ng boshlang'ich filtratni olamiz va keyingi har bir soatda filtrat namunasi tahlil uchun olib chiqildi va natijalar quyidagi jadval va grafik shakilda keltirilgan [5].

1-2-jadvallarda keltirilgan NaCl va bo'yoq ionlari bo'yicha olingan natijalari shuni ko'rsatdiki, makkajo'xori kraxmali qo'shilganda barqaror dinamik membrana (Dm) hosil bo'lganligi kuzatildi. DM hosil bo'lgandan so'ng filtratning tarkibi deyarli bir xil o'zgarmas natijani ko'rsatdilar. DM hosil qilish natijasida statik membrana filtrning ishlash davomiyligini va membrana selektivligi oshganligini va filtrat tarkibi o'zgarmaganligini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida tozalangan suvdan ishlab chiqarish jarayonida qayta foydalanish imkonini berib yopiq zanjirli tizim yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, makkajo'xori kraxmalidan foydalanib DM hosil qilish. DM ning afzalliklaridan bu filtratni yuqori o'tkazuvchanligi bo'lib, soatiga kvadrat metr uchun yuzlab litrga yetadi, bu esa asetatsellyuloza membranasi o'tkazuvchanligidan ancha yuqori. DM ning ishlash muddati deyarli cheklanmagan. Bu filtrlarning ishlash davomiyligini oshiradi va shu bilan birgalikda yopiq zanjirli tizim orqali tozalangan oqova suvdan qayta foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1.Жураев О.Ж. Очистка сточных вод текстильного производства с помощью динамических мембран. Самарканд-2020

2. Jurayev O.J., Qayumova L.Sh., Axmedova F.I "Ультрафильтрация растворов пав без красителей" Memorchilik va qurilish muammolari ilmiy – texnik jurnal. Samarqand -2022.

3. Jurayev Olmos., Qayumova L.Sh "Promising Methods for Treating Colored Wastewater in Light Industry Enterprises" International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJJITEE), ISSN: 2278-3075 (Online), Volume-9 Issue-5, March-2020. at:https://www.ijitee.org/download/volume-9-issue-5/

4. Jurayev O.J., Qayumova L.Sh "Determination of sorption ability of acetate cellulose membrane and polymer additives" Journal of Advanced Scientific Research (ISSN:0976-9595) https://doi.org/10.5281/zenodo.5770585.11-19 Pag

5.Jurayev O.J., Qayumova L.Sh. Yengil sanoat oqova suvlarni tozalash uchun takomillashgan ultrafiltratsiya usulini qo'llash . // " Kimyo va tog'-kon sanoatining dolzarb muammolarining innovatsion yechimi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferinsiya 2023 yil 20 noyabr 133-135 b. Nukus 2023 y.

QUDUQLAR KOLMATATSIYASINING EVOLYUTSION XARAKTERI

Professor **Gadayev Abror Niyazovich**
Tayanch doktorant **Usanova Sevara Abdivaitovna.**
Samarqand Davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Suv resurslari geografik joylashuvi va manbalardan to'yinishi hamda iqlim o'zgarishi tufayli cheklangan. Markaziy Osiyo mintaqasining quruq va issiq iqlimi shahar va sanoat korxonalari suv ta'minoti tizimi uchun yer osti suvlaridan foydalanishni talab qiladi. Hududdagi ko'p minglab quduqlar va ularning murakkab sharoitda ishlashi ular debitini barqarorligiga salbiy tasir ko'rsatadi. Quduqlar filtr va filtroldi sohasida mexanik, kimyoviy va biologik cho'kmalar hosil bo'lishi va ularni filtratsiya sohasida tiqilib qolish jarayonlarining birgalikdagi ta'siri tufayli suv olish quduqlarining suv oqimi vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada pasayadi, bu esa "kolmatant" deb ataladigan murakkab tarkibli va strukturali cho'kmalarni yer osti suvining harakat yo'nalishidagi g'ovakliligida va filtrlarda cho'kishiga olib keladi. Ushbu maqola tiqilib qoladigan kolmatantni sedimentatsiya jarayonining hosil bo'lishi va quduqning debiti pasayib ketishi bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar. Suv resurslari, yer osti suvlari, suvli qatlam, suv quduqlari, kolmatant, suv oqimi, filtrlash, debet, quduqlarni tozalash samaradorligi.

Kirish. Artezian quduqlarining bir tekis va yuqori samara bilan ishlashi quyidagi sabablarga ko'ra pasayishi mumkin:

- suv ko'tarish qurilmalari (nasos) nosozligi;
- filtr va filtroldi suv yo'llarining qum bilan to'lib qolishi;
- quduq filtrining ichki va tashqi sirtiga va filtroldi sohasidagi suv yo'llariga tuzlar cho'kib qolishi natijasidagi kolmatatsiya;
- quduq filtrini kimyoviy va elektrokimyoviy korroziyasi;
- manbadagi suv sifatining keskin yomonlashuvi.

Nasoslar nosozligining asosiy sabablaridan biri uning ishchi g'ildiragi va zichlash moslamalari orasidagi masofaning me'yoridan oshib ketishidir. Bu esa nasosning ishchi g'ildiragi labirintlarini va kurakchali xalkalarni yemirilishi natijasida suvni aylanadigan jihozlar va harakatlanmaydigan qismlar oralig'idan oqib o'tishi va xaydaladigan suv xajmi pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Bu hol 10-12 oy davom etsa, artezian qudug'ining nasosi o'zining boshlang'ich quvvatini 20-30%ga kamaytiradi. Quduqlardan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, agar quduq nasos nosozligi sababli o'z samaradorligining 25% dan ortiq miqdorda pasaytirsa undan foydalanish iqtisodiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq emas. Bu holda quduqning nasos jihozlarini almashtirish kerak.

Quduqning suv yo'llari qumga to'lib qolishi natijasida samaradorligini pasayishi odatda quduq ekspluatatsiyasining boshlang'ich davrida kuzatiladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- filtrlarning noto'g'ri tanlanishi va o'rnatilishi;
- filtrlarning suv beruvchi qatlam va oqib kelayotgan suv tomonidan ko'rsatilgan ta'sirga chidam bermasligi va undagi butunlikning yo'qolishi (yirtilish, yorilish va hokazo);
- yer osti suvlarining filtr orqali katta tezlik bilan harakatlanishi hamda kimyoviy elektrokimyoviy korroziya natijalarida filtr yemirilishi;
- quduq devorlarini tashkil qiluvchi quvurda teshik va yoriqlar hosil bo'lishi;
- quduqoldi devoridagi sementlovchi qavatning yemirilishi, yorilishi va ular orqali filtrlanmagan suvlarning quduqqa oqib kirishi.

Bu hollarda quduqni kapital ta'mirlash talab etiladi. Suv beruvchi qatlam har xil yiriklikdagi qumlardan tashkil topgan va quduqdagi filtr hamda filtroldi sohasini tashkil etuvchi grunt qavati noto'g'ri loyihalashtirilganda suv bilan birga quduqqa turli (mayda, yirik, o'rtacha yiriklikdagi) qum zarralari oqib keladi. Oqim bilan quduqqa kirib kelgan mayda qum zarrachalari suv bilan birga ko'tariladi, lekin yirik qum donalari quduq tindirgichiga cho'kib qoladi. Bu hol tez orada quduq tindirgichining va filtr joylashgan sathning to'lib qolishiga sabab bo'ladi. Natijada filtrlash yuzasi kamayib, quduqqa yer osti suvlarining oqib kelishi, ya'ni uning debiti pasayib ketadi. Bunday kamchiliklarni joriy ta'mirlash va sozlashlar orqali bartaraf etish mumkin, lekin ularni umuman yo'qotib bo'lmaydi, chunki quduq filtri va filtroldi sohasi tog' jinslarini almashtirishning iloji yo'q.

Quduqlardan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, uning filtri, devorlari, devorini tashkil etuvchi quvurlarnish teleskopik ulanadigan qismidagi salniklar va quduqorti sement qatlamining ba'zi ta'sirlar ostida mustahkamligi pasayishi, ya'ni ular «yorilishi» yoki «teshilishi» natijasida quduqqa filtrlanmagan suvlarning tushishi uning 30-40 m uzunlikdagi qismining qum bilan to'lib qolishiga olib keladi va quduqning umuman ishdan chiqib qolishiga sabab bo'ladi.

Artezian suvlari tarkibining yuqori darajada minerallashgan bo'lishi, unda Fe, Ca, Mg elementlari tuzlari, karbonatlar va bikarbanatlar miqdorining oshishi quduq devorlari yuzasi va filtroldi sohasidagi suv yo'llarining tuz cho'kmalari bilan qoplanib qolishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon quduq filtrining suv ta'siridagi korroziyasi natijasida yanada jadallashadi, chunki korroziya mahsuli va tuz cho'kmalari uzoq muddat davomida o'zaro birikib mustahkam sementsimon suv o'tkazmaydigan qobiq hosil qiladi. Bunday qobiqlarning hosil bo'lish sohasi quduqdan radius bo'yicha 0,3...0,7 m gacha bo'lishi mumkin. Tuz cho'kmalari cho'kishi natijasidagi bunday kolmatatsion qobiq quduq debitining pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, quduqlar kolmatatsiyasi tabiiy jarayondir. Bu jarayonning borish tezligi suvning sifati, suv beruvchi qatlam tafsiloti va quduqning ishlash tartibiga bog'liq.

Quduqning ishlash samaradorligining pasayishi undagi asosiy ko'rsatgichlar solishtirma va umumiy debit, suvning statik va dinamik satxlaridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarish tafsiloti asosida quduqlarga tashxis qo'yish va ish samaradorligini pasayish sabablarini aniqlash mumkin. Quduqorti sementatsiyasi sifatsiz bajarilishi quduq suvida erigan gazlar kontsentratsiyasining oshishiga sabab bo'ladi. Bunday gazlar: serovodorod - suvning mazasiz bo'lishiga, metan - yuqori miqdorlarda to'planishi portlash xavfini yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida quduq, ekspluatatsiyasini samarasiz va xavfli bo'lishga olib keladi.


Quduq unumdorligining pasayish sabablarini aniqlash jadvali

1-jadval

Unumdorlikning pasayish belgilari			Unumdorlik pasayishining sabablari:
Statik sath	Dinamik sath	Solishtirma debit	
O'zgarmagan	Avvalgidan past	O'zgarmagan	Nasos jihozlari nosozligi
Doimiy pasayish	Doimiy pasayish	O'zgarmagan	Qatlamlararo o'zaro ta'sir
Davriy pasayish	Davriy pasayish	O'zgarmagan	Quduqlarning o'zaro ta'siri
O'zgarmagan	Avvalgidan past	Kamaygan	Filtrdagi kamchilik

Avvalgidan past	O'zgarmagan	O'zgarmagan	Dinamik sathdan yuqoridagi kamchlik
Avvalgidan past	Avvalgidan past	Kamaygan	Dinamik sathdan pastdagi kamchlik

Quduq devorlarida va quvurlarning tutashtirilgan qismlarida nosozliklar bo'lishi quduq suvlariga bakterial ifloslangan suvlar oqib kelishi ehtimolini oshiradi. Bu kabi muammolar oldi olinishi uchun mas'ul shaxslar tomonidan, ishlash samaradorligi pasaygan, ish tartibi o'zgargan yoki umuman ishdan chiqib qolgan artezian quduqlari mukammal gidrogeologik va boshqa tekshiruvlardan o'tkazilishi hamda ushbu kamchiliklarning bartaraf qilinish choralari ko'rilishi kerak.



Suv qabul qilish quduqdarini regeneratsiya qilish, ya'ni ular samaradorligini qayta tiklash usullari va ularni amalga oshirish texnologiyasi ilmiy asoslangan hamda takomillashtirilgan usullar asosida ishlab chiqilgan. Filtrlar bilan jihozlangan quduqlar debitini qayta tiklashdan asosiy maqsad - bu filtr va filtroldi sohasidagi suv yo'llariga cho'kib qolgan tuz va boshqa qoldiqlardan iborat kolmatantni (tuz, qum, va metall zanglaridan iborat murakkab tarkibli) yo'qotish, ya'ni yer osti suvlarining quduqqa oqib kelishiga ko'rsatiladigan qo'shimcha qarshiliklarni kamaytirishdan iborat jarayonlar majmuasini muvofiqlashtirishdir. Ushbu jarayonning o'ziga xos qiyinchiligi shundan iboratki, filtrning tashqi yuzasiga va filtroldi sohasi gruntlari g'ovakliklaridagi cho'kmalarni tozalash birmuncha murakkab hisoblanadi.

Ushbu masalaning ijobiy yechimiga kolmatantni hosil qiluvchi tuzlar, mayda qum zarralari va quduq metall jihozlari korroziyasi mahsuloti bo'lgan zanglardan tashkil topgan sementsimon qattiq cho'kmalarni reagentlar yordamida eritish, yoki ularga turli impulslar yordamida ta'sir etib maydalash, hamda ularni gidrooqimlar yordamida olib chiqish orqali erishiladi. Mustahkam cho'kmalarni maydalashda ular zarralari o'lchami suv harakatlanadigan g'ovaklar o'lchamidan kichik bo'lishiga erishish talab etiladi. Quduq filtri va filtroldi sohasi (ya'ni shag'al qatlam)dagi cho'kmalarning yo'qotilishi samaradorligi har bir usulda turli darajada bo'lishi mumkin.

Quyida yer osti suvlarining quduqqa oqib kelish samaradorligini, ya'ni quduq debitini tiklash usullari haqida mukammal to'xtalib o'tamiz.

Quduqlar samaradorligini tiklash jarayonida ular filtrlariga va filtroldi sohasiga ko'rsatiladigan ta'sir turlariga bog'liq holda ularni reagentli, impulsli va impulsli-reagentli usullarga ajratish mumkin. Klassifikatsiyadagi birinchi guruh usullari, ya'ni reagentli usullar quduq samaradorligining pasayishiga sabab bo'lgan kolmatantni turli reagentlar yordamida eritishga asoslanadi. Bu usullarga asosan regeneratsiya jarayoni quduq, tafsilotiga, uning filtri va boshqa jihozlari yasalgan ashyolarga bog'liq holda reagent turini tanlash hamda texnologik jarayon samaradorligini ta'minlovchi parametrlarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunday parametrlarga reagent kontsentratsiyasi, uning kislotali yoki ishqorli muhitini ko'rsatadigan pH ko'rsatgichi, ishlov berish vaqti va harorati metall jihozlarining korroziyasi oldini olish tadbirlari kiradi. Bundan tashqari quduqqa ishlov berish jarayonini nazorat qilish va uning tugash vaqtini belgilash ham muhim ahamiyatga ega. Reagentli usullar yordamida quduqqa ishlov berish va uni debitini tiklash uchun turli reagentlardan foydalaniladi. Ular jumlasiga neytrallovchi, qaytaruvchi va kompleks hosil qiluvchi reagentlar kiradi. Ushbu reagentlar va ularning ta'siri jarayonlari bilan mahsus adabiyotlar orqali tanishish mumkin. Reagentli usullar cho'kmalarni eritish orqali quduqning suv yo'llarini tozalashga asoslangan. Ushbu usulning murakkabligi har bir quduq uchun reagentning alohida tanlanishi va foydalaniladigan reagentning kontsentrtsiyasi aniqlashdan iborat. Reagentlar asosan quduq filtri va filtroldi sohasidagi cho'kmalarning kimyoviy, mineralogik tarkibiga bog'liq xolda tanlanadi. Bundan tashqari cho'kmaga ta'sir etuvchi reagent quduq jixozlariga, devorlariga va suvli qatlamni hosil qilgan jinslarga ham ta'sir etishini, hamda ular mustahkamligining pasayishiga sabab bo'lishini ham hisobga olish kerak. Buning oldini olish uchun maxsus korroziya ingibitorlari (reagentning korrozion ta'sirini pasaytirish uchun ishlatiladigan maxsus qo'shimcha) qo'shiladi, lekin bunday usul hamisha ham maqsadga muvofiq emas, chunki bu birinchidan quduqdagi kimyoviy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ikkinchidan har qanday reagent qo'shimcha sarf xarajat demakdir.

Reagentli usullarning kamchiligi foydalanilishi muljallangan reagent eritmasining quduq atrofi suv yo'llariga yetarlicha singib bormasligidir. Chunki yer osti suvlarini gidrostatik bosimi eritmaning singish radiusini oshirishga xalaqit beradi. Reagent eritmasini quduqda uzoq, muddatga saqlab turish natijasida (ya'ni reagentli vanna usuli) ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, lekin eritmaning quduqda uzoq, saqlanishi uni quduq jihozlari mustahkamligining pasayishiga sababchi bo'ladi. Reagent eritmasining havo yordamida quduq atrofidagi sohaga xaydalishi erituvchi reagentning qo'shimcha oksidlanishiga va uning ta'sir etish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Quduqlarni impulsli usullar yordamida regeneratsiya qilish - bu ishlov berilayotgan quduqda talab etilgan kuchga ega bo'lgan (ya'ni cho'kmani maydalash

yoki uzatish qobiliyatiga ega bo'lgan) impuls hosil qilinadi va ushbu jarayon bir necha bor takrorlanadi. Impulsli regeneratsiya usullaridan foydalanib quduqlar samaradorligini tiklashda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- -kolmatantning mustahkamlik darajasi va uni maydalash uchun talab qilinadigan impuls kuchini oldindan aniqlash;
- -filtr va quduqning boshqa jihozlarining ta'sir etadigan impulsga chidamlilik darajasini o'rganish:
- -ishlov berish uchun talab etiladigan va sarflanadigan elektr energiyasining minimizatsiya chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Impulsli usulda quduqni regeneratsiya qilishda filtr va filtroldi sohasida oddiy bosim o'zgarishi yuzaga keladi. Bunung natijasida suv yo'llari va filtr yuzasidagi sementsimon kolmatant parchalanishi va maydalanib ezilishi yuz beradi. Impuls hosil qiluvchi zarba natijasida maydalangan va ezilgan cho'kmalar hamda hosil bo'lgan ishlov mahsulotlari gidrooqim yordamida quduqqa keltiriladi va chiqarib tashlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

[1] Gadaev, A., Juraev, A., Usanova, S. Water wells: Sustainable usage and rehabilitation technology https://www.scopus.com/authid/detail.uri? authorId=58574896900

[2] Gadaev, A. Usanova, S. O'zbekiston sharoitida quduqlar samaradrligi muommolari va uni yechimlari bo'yicha taxliliy tavsiyalar, "Me'morchilik va qurilish muommalari" ilmiy texnik jurnal. 2023 yil, 2-son, 202-205 betlar."

[3] Gadaev, A. Usanova, S., Evolution of the formation of clogging deposits on the surface and in the pores of well filters. https://www.silkroadcongress.co.uk/

[4]. Fleckenstein, J.H.; Krause, S.; Hannah, D.M.; Boano, F. Groundwater-surface water interactions: New methods and models to improve understanding of processes and dynamics. Adv. Water Resour. 2010, 33, 1291–1295.

[5]. Harter, T.; Hopmans, J.W. Role of vadose-zone flow processes in regional-scale hydrology: Review, opportunities and challenges. In Unsaturated-Zone Modelling: Progress, Challenges and Applications; Feddes, R.A., de Rooij, G.H., van Dam, J.C., Eds.; Springer: Springer: Dordrecht, The Netherlands, 2004; Volume 8, pp. 179–208. [6]. Sophocleous, M. Interactions between groundwater and surface water: The state of the science. Hydrogeol. J. 2002, 10, 52–67.

[7]. Leong E.C.; Rahardjo H. Review of Soil-Water Characteristic Curve Equations. J. Geotech. Geoenviron. 1997, 123, 1106–1117.

AVTOMOBIL YO'LLARIDA YO'L POYINING MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ravshanov Jo'rabek Ravshan o'g'li
Jizzax politexnika instituti, Yo'l muhandisligi kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Avtomobil yo'llarining kengaytiriladigan qismlarida yo'l poyining turg'unligi va mustaxkamligini taьminlash loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan xamda qish va yoz oylarida yog'iglarning miqdorini xisobga olgan xolda qurilish ishlari olib boriladi. Bunda yog'inlarning miqdori, iqlim sharoiti xisobga olingan xolda xamda yo'lning o'tish qismini kengaytirish mashina va mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi.

Tayanch so'zlar: gruntlar, kengaytirilgan, uzoq muddatli, yo'l poyi, zichlik, yog'in mavsumi

Аннотация: Для обеспечения плотности и долговечности в ущерённой части земполотна автомобильных дорогах по сметно-расчётных документациям предлагается несколько рекомендаций. В том числе, проезжей части автомобильных дорогах ведется наблюдение за морозных и осадочных периюдах. Строительство земполотна в летный и осенний период продолжается по графику и должен обеспечивать прочность проезжей части автомобильной дороги.

Ключевые слова: грунты, ущерённые, долговечность, земполотно, плотность, осадочный период

Abstract: Enhanced stability of road sections in the extended sections of roads is provided in the design and estimate documentation and construction works are carried out taking into account the amount of precipitation during tye winter and summer months.

Key words: grounts, expanded, long period, road state, density, amount of precipitation.

Yo'lning kengaytirilayotgan uchastkasidagi suv-issiqlik tartibini boshqarish bo'yicha tadbirlarni qo'llash yo'lni qatnov qismi bo'yicha bir xil muzlashi va cho'kishini ta'minlash, shuningdek qatnov qismini kengligi bo'yicha yo'l to'shamasini bir xil mustahkamligiga erishish yo'llarini belgilashga taalluqli masalalarni echish bo'yicha vazifalarni hal qiladi.


Takidlash joizki, gruntlari mavsumiy muzlaydigan tumanlarda yo'llardan foydalanish davrida gruntlarni zichligi va namligi o'zgaradi. Umumiy holatda bu jarayon to'rtta asosiy davr: kuzda ko'pchish; qishda muzlashdan ko'pchish; bahor va yozda gruntlarni erishi va uni qurishida hajmini kichraytirishda cho'kishidan iborat.Yoz oylarida yo'llardan foydalanish jarayonida gruntlarni zichligi qurilish davrida erishilgan zichlikka nisbatan kamayishi mumkin. Gruntlarni zichligini kamayishi kuzda ularni ko'pchishi + qishda muzlab kengayishi + bahorda gruntlarni erishidagi cho'kish va yozda qurishidan hajmini torayishining yig'indisidan kata bo'lsa yuzaga keladi. Gruntlarni hajmini kamayishi tahminan 5-10 yil davomida kuzatiladi, undan keyin bu jarayon to'xtaydi va yoz oylarida «maishiy zichlik» deb ataluvchi o'zgarmas zichlik yuzaga keladi.

$$K_{y(б)} = K_{y(min)}/(1 - e_{ycaд}), \quad (1)$$

Bu yerda $K_{y(б)}$– «maishiy» zichlikka mos keluvchi zichlashtirish koeffitsienti;

$K_{y(min)}$– yoz oylarida gruntlarni cho‘kishdan so‘nggi zichlashtirish koeffitsientini minimal qiymati; $e_{уса∂}$– yoz oylaridagi gruntlarning hajmini kichrayishini nisbiy qiymati. 1-ifodadagi $K_{y(min)}$ ning qiymati 1-rasdagi grafikdan qurilish davrida erishilgan boshlang‘ich zichlik va yo‘l poyi gruntiga tushuvchi to‘shama va gruntning ustida yotuvchi bosimga bog‘liq ravishda keltirilgan.

Yo‘l poyining ishchi qatlamini 1-chi namlanish chizmasida qishda gruntlarning muzlab ko‘pchishi, odatda, bahorda erishida va yozda qurib hajmini toraytirishidagi gruntlarning cho‘kishini yig‘indisining qiymatidan oshmaydi. Shuning uchun yozning oxirida gruntlarni zichligi yo‘lning qurilishida erishilgan zichlik qiymatiga etadi. Har yili bunday hodisa inshootlardan foydalanish davrida yuz beradi. Yo‘l poyining ishchi qatlamini 2 va 3 namlanish chizmasida yo‘ldanfoydalanish davrida yo‘l poyi gruntining zichligini «maishiy» zichlik miqdoriga kamayishi yuz beradi.



1-rasm. Gruntning cho‘kkandan so‘ng zichlashtirish koeffitsienti minimal qiymatini aniqlash uchun grafik. a – mayda qum; b – changli qum; v – supes; g – yengil suglinok; d – og‘ir suglinok; e – gil

Yuqorida ta’kidlanganlarga asosan yo‘l poyi gruntining zichligi yo‘l poyining ishchi qatlamini 2-chi va 3-chi namlanish chizmasi bo‘yicha yo‘ldan foydalanish jarayonida kamayadi. Yo‘llarni kengaytirishda, ulardan foydalanish davri 5-10 yildan kam bo‘lmaganda, amaldagi yo‘l poyi gruntining zichligi «maishiy» zichlikka teng bo‘ladi. Yoz mavsumida gruntlarning zichligini bunday qiymati yo‘lni kengaytirish jarayoni tugallangandan so‘ng ham saqlanadi.

Yangi qurilgan yo‘l poyida yoz oylarida gruntlarni zichligi o‘zgarmas doimiy miqdor bo‘lib qolmasdan, avval ta’kidlanilganidek, yo‘llardan foydalanish davrida kamayadi. Gruntlarni zichligi o‘zgarganda uning muzlashdan ko‘pchishi ham o‘zgaradi.

Har yili bunday sharoitni bo‘lishi amaldagi va yangi qurilgan yo‘l to‘shamasi ostidagi gruntlarni muzlashdan ko‘pchish qiymatini o‘zaro nisbatini o‘zgartiradi. Buning natijasida yo‘l to‘shamasi yo‘lning qatnov qismini kengligi bo‘yicha har xil muzlashga qarshilik qiladi. Bunday holat yo‘l to‘shamasi mustahkamligida ham kuzatiladi. Har yili yo‘ldan foydalanish davrida amaldagi yo‘l to‘shamasini elastiklik moduli va kengaytirilgan uchastkadagi yo‘l to‘shamasini elastiklik moduli orasidagi nisbat o‘zgaradi. Buning natijasida qatnov qismini kengligi bo‘yicha amaldagi va yangi qurilgan yo‘l to‘shamasi har xil mustahkamlikka ega bo‘ladi.

Yo‘llarni kengaytirishda yo‘l konstruksiyasini loyihalashni asosiy muammosi qatnov qismini hamma kengligi bo‘yicha bir xil muzlashga qarshilik, cho‘kishga turg‘unlik va bir xil mustahkamlikka erishishdir.Yo‘l to‘shamasini muzlashga qarshilik, cho‘kishga turg‘unlik va mustahkamlikka tekshirish konstruksiya ishini 3 ta hisobiy yili uchun olib boriladi. Bu quyidagi yillardir: yo‘lni kengaytirgandan so‘ng birinchi yili; yo‘lni kengaytirilgan uchastkasida gruntlarni muzlashdan ko‘pchishini maksimal qiymatiga erishilgan yil; yo‘lni kengaytirilgan uchastkasida gruntlarni «maishiy» zichligi aniqlangan yili. Ko‘rsatilgan hisobiy yillarda quyidagilar aniqlanadi: qatnov qismini kengligi bo‘yicha, yo‘l poyini muzlashdan avval gruntlarni namligi va zichligini epyurasi; qish davrida qatnov qismini kengligi bo‘yicha gruntlarni namligi va zichligi va uning muzlashdan ko‘pchishini epyurasi; bahor davrida yo‘l poyini erishida qatnov qismini kengligi bo‘yicha gruntlarni namligi va zichligi va uning muzlashdan ko‘pchishini epyurasi; bahor va yoz oylarida yo‘l poyini qurish davrida va kuz davrida yo‘l poyini namlanganida gruntlarning namligini o‘rtacha tortilgan qiymati; yilning har xil davrlarida qatnov qismini kengligi bo‘yicha gruntlarni mustahkamlik va deformasion tavsiflarni qiymatlari. Hisob ishlarida amaldagi yo‘l poyi gruntini zichligini «maishiy» zichlikka teng deb olish mumkin, ammo yo‘lni kengaytirish bo‘yicha o‘lchangan qiymatdan kam emas. Olingan ma’lumotlarga asoslanib loyihalangan yo‘l poyini suv-issiqlik tartibini boshqarish bo‘yicha tadbirlar natijasida qatnov qismining kengligi bo‘yicha gruntlarni ruxsat berilgan muzlashdan ko‘pchish epyurasi, shuningdek yo‘l to‘shamasini bir xil mustahkamligi ta’minlanadi. Yo‘l konstruksiyasini loyihalash jadvalda keltirilgan kengay-tiriladigan yo‘l uchastkalaridagi gruntlarni hisobga olib bajarilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. C.A.O’Flaherty. Hayways: The location, Design, Conctuction, and Maintenance of Pavements.UK, by Butterworth Heinemann, 2005, 553 r.

2. Алиев. А.М. Строительство автомобильных дорог и аэродромов: монография в 4 т., Т.1 и 2. – М., 2013.-360 и 340 с.

3. Справочная энциклопедия дорожника. Строительства и реконструкция автомобильных дорог. Под редакции А.П. Василева. М. 2005. 1519 с.

4. Смирнов А.В. Конструкции и технологии строительства автомобильных дорог в сложных природных условиях. Омск. СибАДИ. 2005.172 с.

5. Силькин В.В. Технология и организация работ на производственных предприятиях дорожного строительства: М.: АСВ, 2005. 350 с.

6. Бабаскин Ю.Г , И.И.Леонович. Технология строительства дорог. Практикум. Минск. БНТУ. 2010. 363 с.

7. R.Robinson, U.Danielson, M.Snaith. Road Maintenance Management, Concepts and Systems. Taylor & Francis. Oxford 2013. 1460 r.

8. ШНК 3.06.03-2008. Автомобильные дороги.

YANGI AVLOD BETONLARINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI.

Saidmuratov Baxtiyor Ibragimovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Qurilish muxandisligi" kafedrasi dosenti,
G'ulomova Xamida Ashurmamatovna
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada a'nanaviy beton tarkiblarida qatnashadigan tashkil qiluvchilarning soni va sifat darajasi ortib yangi yanada mukammalroq ko'p komponentli yangi avlod betonlar to'g'risida fikr yuritiladi. Tadqiqotchilar tomonidan doimiy izlanishlar olib borilishi natijasida an'anaviy betonlarni sifat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida tarkibini tashkil qiluvchi komponentlari soni va sifatini ortishi, yangi turdagi betonlarni yaratib hayotga tadbiq etish to'g'risida, ularni afzalliklari va kamchiliklari xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy, o'tish va yangi avlod beton, yuqori mustahkam beton, ko'pkomponentli beton, dispersli komponentlar, tolali beton, mustahkamlik, tolalar.

Annotation: Annotation. In this article, the number and quality of the constituents involved in traditional concrete compositions have increased, and the new generation of multi-component concretes is considered to be more perfect. As a result of continuous research conducted by researchers, information on increasing the number and quality of the components that make up the composition of traditional concrete in order to increase the quality indicators, the creation and implementation of new types of concrete, and their advantages and disadvantages is presented.

Keyingi yillarda O'zbekistonda qurilish sohasiga davlat investisiya dasturlari va chet el investisiyalarini jalb qilinishi ushbu sohani ishonch bilan rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qurilish ishlarini bajarilish hajmlarini keyingi 2021 yildan 2024 yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlar taqqoslansa, o'sish dinamikasini kuzatish mumkin. 2021 yilda respublika bo'yicha 9.1 mlrd.dollarlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 21 mlrd.dollarga yaqin va 2023 yilda 80 trillion so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin. 2024 yilda esa bu ko'rsatkichlar oshishi mumkin. [8]

Hozirgi zamonaviy har qanday ko'rinishdagi qurilayotgan bino- inshootlarni beton temirbeton buyum, konstruksiyalarsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular qurilishning asosi bo'lib, qo'llanish doirasi keng va narxi yetarli darajada arzonligidadir. O'zining xossalariga ko'ra beton mustahkam va umrboqiy material hisoblanadi. Eng asosiysi ushbu materialni tanlash davrida talab qilinadigan vazifa va xususiyatlarga rioya qilgan holda to'g'ri tanlash va qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan qo'llanilayotgan betonlarning sifat darajasini yanada oshirish va ularga qo'yiladigan talablarni bajarilishini ishonchlilik darajasini oshirish uchun makro va mikro darajada uning ko'p tarkibli tashkil etuvchi tarkibiga turli qo'shimchalarning ta'sirlarini o'rganib, optimal variantlarini ishlab chiqarishga tadbiq qilishlari lozimdir. Bu esa yangi bilimlarni talab qiladi, rivojlangan davlatlarning bu sohadagi ilg'or tajribalarini o'rganishini talab qiladi.

Turli maqsadlarda qo'llaniladigan organo-mineralli yuqori sifatli betonlarni tarkibini qabul qilishda barcha tashkil qiluvchilar amaldagi davlat standartlari va qurilishga oid me'yoriy hujjatlar asosida tanlanishi va rioya qilinishi kerak.

Zamonaviy qurilish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, beton va temir-beton qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy tarkibida ustvor o'rinni egallab, uy-joy, fuqorolik, transport, gidrotexnika, energiteka va qurilishning boshqa sohalarida keng qo'llaniladi. Turli manbalarga ko'ra dunyoda beton ishlab chiqarish yiliga 3.5-4 milliard m^3 (8-10 milliard tonna)ni tashkil qilarkan. Hyech bir qurilish ashyolari bunday o'lkan hajmda ishlab chiqarilmaydi. [9]

Ushbu ashyolarini qo'llanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak birlamchi- sement, suv, yirik va mayda to'ldiruvchi tarkibli texnologiyadan XX-asrning oxirlarida boshqacha nazar bilan qarash, oldin kuzga tashlanmagan va foydalanilmagan imkoniyatlarni yaratdi. Betonshunoslikda beton material to'g'risida birlamchi tasavvurni uning mikrotizimiga kirib borish natijasida u haqida tushunchalarni kengaytirib o'zgartirishga va natijada ashyoning fizik-mexanik xossalarini, xususan mustahkamlik, deformasiyalanish, umrboqiylik kabi ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini yaratdi. Sement klinkeri minerallarini gidratasiyasi va sement toshining shakllanish jarayonlari ilmiy asoslangan tizimi ishlab chiqildi. [1,2,3]

Ushbu ilmiy asoslardan kelib chiqib beton va temirbetonlarni korrroziyadan himoyalash va uning umrboqiyligini oshirish bo'yicha ilmiy uslubiy qoida asoslari ishlab chiqildi.

The vehicle flow detection system consists of wireless magneto-resistive sensors designed to detect vehicles. The sensor is installed on the road surface and transmits detection data in real time.



Picture 1. Monitoring of traffic flow through video surveillance cameras




Picture 2. Control of traffic flow by video surveillance cameras

2. Active traffic flow management and optimization methods

The main task of active traffic flow management and optimization is continuous monitoring and regulation of traffic using automated systems. Traffic conditions change over time, and accordingly, ITM systems improve safety and optimize traffic efficiency by applying dynamic traffic management strategies. Continuous monitoring and coordination of ITM systems provides a holistic approach to the management of transport facilities [5].

3. Flexible traffic light system.


Intelligent traffic management system reviews for traffic congestion relief show that traffic congestion is caused by the increase in the number of vehicles on the road. This wastes time, energy and the environment. Traditional traffic lights with predetermined red and green phases are not sufficient to reduce traffic congestion, as traffic varies with peak load times of the day. City planners and urban planners prefer to implement more automated, intelligent systems that control traffic lights based on the density of vehicles on the road. For this purpose, traffic sensors are installed at intersections that monitor the density of vehicles and control traffic according to the traffic situation.



Picture 3 Control of traffic lights by optimization control

4. Optimization of traffic light management

Optimization of traffic light control is done using adaptive traffic light control. This process is carried out by continuously changing the time of the traffic lights depending on the traffic. Depending on the expected flow of vehicles coming to the intersection, the traffic light will give a green light in each direction. Depending on the change in traffic flow in each period, the duration of green time allocated for each direction will change. Adaptive Traffic Light Control (ATSC) improves the efficiency of the transportation system by reducing traffic congestion and extending the service life of the existing roadway[8]. This method reduces the need to add additional lanes to increase road capacity. Reduced congestion improves vehicle fuel efficiency and ultimately lowers vehicle emissions, helping to create sustainable transportation.



Picture. 3 Data processing and management in monitoring

Working area for car sensor detection: 3 meters to the sensor and 3 meters in both directions. The data received from the road sensors are transmitted through a radio channel to a radio receiver or intermediate repeaters installed on supports. The final radio receiver collects data from the network of sensors and provides further transmission of data to the system controller using CAT5 twisted pair cables or wireless communication over the radio channel. The received data is combined in a controller controlled by Linux OS. The data is then forwarded to a server for remote control and monitoring. The Sensys vehicle flow detection system transmits data to the server using the **FLEX-AP-D-XC** access point[9].

Traffic flow studies to evaluate the optimization of traffic light systems are usually carried out by conducting studies on a given section of road. In these studies, total travel and delay times are observed and the main types of delays are identified. The results of the study will be used to compare existing road conditions before and after improvements. Such studies are usually carried out using statistical methods and are used to evaluate traffic conditions in the past.

All sensors can be connected to a single monitoring center and display statistics and manage data collection from sensors using a convenient web interface.

ATSC (Adaptive Traffic Signal Control) works based on real-time data. Traffic sensors installed at intersections collect data and use it to optimize and update signal timing. This data is then evaluated, analyzed and new signal time improvement measures are developed. Updates will be made. This process is constantly repeated using a special program. The ATSC system communicates with each other and makes the necessary changes to the signal timing schedule for smooth traffic management. Traditional alarm time adjustment is repeated every 3-5 years. Traditional alarm timing is based on manually collected historical data. This did not take into account the unexpected daily traffic demands and resulted in high time consumption, driver dissatisfaction, customer complaints, delays and excessive human effort[9].

Traffic flow includes the use of surveillance systems and closed circuit cameras. The main purpose of ATM is to reduce time standards by reducing traffic congestion. To do this, real-time information is analyzed based on information provided to drivers.

Antennas - signal reception/transmission:

Repeaters that allow collecting data from remote sensors (more than 150 meters) and transmitting the collected data to the last radio receiver; A radio modem eliminates the wired connection and allows the master controller to establish a complete wireless data network;

The short detection radius sensor is designed for installation in special lanes, detects only bicycles and small vehicles, and can also be used to monitor the occupancy of parking spaces; We use video cameras to record traffic conditions. The traffic flow detection system is flexible and can be used on both low-volume roads and high-speed multi-lane highways, as well as tunnels and bridges. If there is interference in the propagation of radio signals near the highway, additional an-

tennas and repeaters can be installed to guarantee a reliable continuous signal. If the road sensor signal is lost, all the data is written to its internal memory, and after the connection is restored, the received information about the events starts to be retransmitted to the server[10].

Conclusion. This paper proposes two ways to reduce traffic congestion using intelligent transportation systems. These methods include adaptive traffic control signalling and active traffic control to reduce congestion. These systems combine real-time data to efficiently use available road space and improve safety standards. Experiments on adaptive traffic control signalling have shown that this method can significantly reduce traffic congestion.

Intelligent Transportation Systems (ITS) are becoming more and more essential as the world develops. They make the most efficient use of the road infrastructure and reduce the need to build additional highways. By applying real-time data to traffic lights, traffic flow is improved, congestion is reduced by up to 40%, travel time is reduced by up to 25%, fuel consumption is reduced by 10%, and gas emissions are reduced by up to 22% (Radwan, 2015). The use of ITT allows government transportation agencies to collect the real-time data needed to improve transportation infrastructure, which is critical to infrastructure reform and increases accountability for those who provide it.[11]

The use of different types of sensors in the motion control system is considered. This sensor uses the IMTR-A1 radar detector to ensure that all traffic flows without stopping.

Summary. This paper proposes two ways to reduce traffic congestion using intelligent transportation systems. These methods include adaptive traffic control signaling and active traffic control to reduce congestion. These systems improve safety standards by integrating real-time data, making efficient use of available road space. The results of the experiment on the adaptive traffic control signal showed that this method significantly reduces traffic jams.

Intelligent transportation systems (ATTs) remain essential in the developing world. They make the most efficient use of road infrastructure and reduce the need to build additional highways. This improves the economic efficiency of the transport flow.

- traffic jams will be reduced by 40%.
- the time spent is reduced to 25%.
- fuel consumption is reduced by 10%.
- exhaust gases released into the environment will be reduced by 22%.

The use of different types of sensors in the motion control system is considered. This sensor will be implemented using the IMTR-A1 radar detector, so that the use of ATT can improve the transport infrastructure and ensure the uninterrupted movement of all traffic.

Literature:

1President Of The Republic Of Uzbekistan PD-98 22.01.2022

2. Azizov Q.X. «Shahar yo‘llarida harakat xavfsizligini tashkil etish", Darslik, TDTrU bosmaxonasi, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘ch., 1. 2021-y.

3. Формирование транспортных потоков в условиях координированного управления. В.В. Петров; Автореферат.

4. Kapitanov V.T., Xilajev E.B. Shaharlarda transport oqimini boshqarish. M.: Transport, 1985. 94 b.

5. Mixaylov A.Yu., Golovnix I.M. Yo'l tarmoqlarini loyihalash va rekonstruksiya qilishning zamonaviy tendentsiyalari. Novosibirsk: 2004. 266 b.

6. Edvard B. Liberman va Kerroll J. Messer. NCHRP

7. 38(4) Yakuniy hisobot: Haddan tashqari to'yingan tarmoqlar uchun ichki o'lchash siyosati. TRB, Milliy tadqiqot kengashi, Vashington, 1992 yil.

8. Cai, C., Wong, C. K., & Heydecker, B. G. (2009). Adaptive traffic signal control using approximate dynamic programming. *Transportation Research Part C: Emerging Technologies*, *17*(5), 456–474.

9. Improta, G., & Cantarella, G. E. (1984). Control system design for an individual signalized junction. *Transportation Research Part B: Methodological*,*18*(2), 147–167.

10. Ekeila, W., Sayed, T., & Esawey, M. E. (2009). Development of dynamic transit signal priority strategy. *Transportation Research Record*, *2111*(1), 1–9.

11. Arel, I., Liu, C., Urbanik, T., & Kohls, A. G. (2010). Reinforcement learning-based multi-agent system for network traffic signal control. *IET Intelligent Transport Systems*, *4*(2), 128–135.

Internet sites:

1. https://rosap.ntl.bts.gov/view/dot/20661
2. http://top.rbc.ru/society/29/10/2010/490092.shtml
3. http://www.rg.ru/2010/10/25/sobjanin.html
4. https://scholar.google.ru/scholar?oibibs&cluster12599814287273840&btnI1
5. http://www.infrastructure.gov.au/transport/its/
6. www.fhwa.dot.gov/tfhrc/safety/tms.htm

I SINF BALANDLIK TARMOQLARINI YARATISHDA GEODEZIK ISHLAR

Suyunov Shuhrat Abdusaliyevich
“Geomatika muhandisligi” kafedrasi t.f.b. (PhD) doktori, dotsent
Mirzayev Anvar Abdisaidovich
“Geomatika muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Omonov Ismoil Xolboyevich
“Geomatika muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Xudoyqulov Shoxruz Shuxrat o‘g‘li
“Geomatika muhandisligi” kafedrasi o‘qituvchisi
Hamzayev Saidakbar Saidmusoyevich
“Dempfer”MCHJ geodeziya bo’limi mudiri

Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU)

Annotatsiya. I sinf balandlik tarmoqlarini yaratishda geodezik ishlarni o‘lchash natijalarini tadqiq qilishni takomillashtirish ishlari olib borilgan.

I sinf balandlik punktlarini rekonstruksiya qilishda zamonaviy geodezik asboblar yordamida o‘lchash ishlarini olib borish, o‘lchov natijalarini qayta ishlash, elektron dasturlar yordamida joylashuv sxemalarini yaratish hamda nivelirlash aniqligini baholashni elektron usulda taqdim etilgan. Buning natijasida balandlik tarmog‘ini zamon talabida saqlab turish, yer yuzasining zamonaviy vertikal harakatlari, ishlab chiqarish, neft va gaz konlarining atrof-muhitga ta’siri, seysmik faollikni o‘rganishga erishiladi. Yangi nivelirlash chizig‘i asos punktlar orasida tenglashtirilib ko‘rsatib berilgan.

Kalet so‘zlar: polygon, relef, punkt, rekognossirovka, marka, grunt, , deformatsiya, masshtab fundamental reper.

Obyektning geografik joylashuvi – Zarafshon daryosi vodiysi va uning irmoqlari.

Relyefi– relyefi tekis, tog‘ oldi.

Gidrografiyasi – obyekt hududida Zarafshon, Oqdaryo va Qoradaryo daryolari joylashgan. Bu daryolardan tizimli ravishda tarqalgan ko‘plab sug‘orish kanallari (Darg‘om, Bulung‘ur, Narpay va boshqalar), kollektorlar, ariqlar mavjud, bundan tashqari sho‘r suvli ko‘llar mavjud. Kattaqo‘rg‘on, Oqdaryo, Qorasuv, Qoratepa suv omborlari bor. Viloyat hududida sug‘orish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatning dasht zonalarida ichimlik suvi olib kelinadi yoki sharoitga qarab qazilgan quduqlardan foydalaniladi. Shahar va tuman markazlari ichimlik suvi bilan ta’minlangan.

O‘simliklar dunyosi – dasht va yarimdashtlarda ekin ekilmaydigan maydonlar mavjud bo‘lib, u yerlarda yantoq va shuvoq o‘sadi. Aholi yashaydigan joylarda, sug‘oriladigan maydonlarda bog‘lar, uzumzorlar barpo qilingan, guruch va paxta ekiladi, Zarafshon daryosi bo‘ylarida qamishzorlar mavjud. Yo‘l va kanallar bo‘ylari bog‘ va ekinzorlar bilan qoplangan. Aholi asosan poliz ekinlarining hamma turini mavsumga qarab etishtiradi.

Aholi punktlari – viloyat markazi Samarqand shahri, tuman va tuman markazlari, shahar tipidagi posyolkalar, qishloqlar, ovullar, barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlaridan iborat. Eski, pala-partish qurilgan qishloqlardan tashqari loyiha asosida qurilgan qishloqlardan tashqari loyiha asosida qurilgan qishloqlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Deyarli barcha tuman markazlari loyiha asosida tartibga solingan yangi uy-joylar, mahallalar bilan kengaygan.

Yo‘l tarmog‘i – temir yo‘llardan, asfalt yotqizilgan shosse yo‘llardan, aholi punktlarini bir-biri bilan bog‘laydigan yo‘llar va ko‘plab Qo‘qon-Uchqo‘rg‘on, Qo‘qon-Andijon temir yo‘llari, asfaltlangan yo‘llar va ko‘plab tuproq yo‘llardan iborat. Xalqaro ahamiyatga ega M-39, M-37 avtomobil shosse yo‘llari, Nukus-Urganch-Toshkent, Qarshi-Toshkent, Buxoro-Toshkent temir yo‘llari o‘tgan.

Tuproqlari – sertuproq va qumoq tuproqli, daryo bo‘ylari – yotqiziq tuproqli.

Iqlimi – sutkalik va mavsumiy haroratlari katta tebranishli, o‘rtacha yog‘in miqdorli kontinental iqlim. Issiq, quruq, davomli yoz va mo‘tadil qish bilan ifodalanadi.

Dala mavsumining davomiyligi – 10 oy (1 fevral-1 dekabr) hisoblanadi, tog‘li hududlarida 6,5 oy.

I sinf nivelirlash chizig‘i Samarqand shahridan boshlanib, M-39 Samarqand – Termez shosse yo‘li bo‘ylab o‘tadi. I sinf nivelirlash chizig‘i Zarafshon daryosi vodiysining tekis qismidan 24 km o‘tib, 8519 fundamental repergacha boradi.

Obyekt hududida avvalgi yillarda ko‘plab triangulyatsiya va nivelirlash ishlari bajarilgan. Triangulyatsiya ishlarining asosiy qismi 1990-yillargacha bajarilgan.

Obyekt hududi bo‘ylab yuqori aniqlikdagi nivelirlash ishlari bajarilgan bo‘lib, bu haqidagi ma’lumotlar 3 – jadvalda berilgan.

Obyekt hududida 2002 yilda SamAGK tomonidan bajarilgan I sinf Samarqand-G‘uzor nivelirlash chizig‘i o‘tilgan.

Samarqand aerogeodeziya korxonasi tomonidan 2011-2013 yillarda “Samarqand viloyati hududida SGT-1 sinf tarmog‘ini yaratish” obyektlarida SGT -1 sinf punktlari o‘rnatilib, II sinf nivelirlash ishlari bajarilgan.

I sinf Samarqand-G‘uzor nivelirlash chizig‘ining 5885 fundamental reperidan to 8519 fundamental repergacha bo‘lgan qismi tadqiqot obyekti sifatida olindi. Yangi nivelir chizig‘i ushbu avval bajarilgan nivelirlash chizig‘ini yangilaydi. Nivelirlash jarayonida avvalgi saqlangan reperlardan foydalanildi va o‘lchash ishlari davomida nazorat qilib borildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ish turlari bajariladi: ishchi loyiha tayyorlash, nivelir chizig‘ini rekognossirovka qilish, reperlarni tekshirish, reperlarini o‘rnatish, GPS-o‘lchov usuli orqali reperlar koordinatalarini aniqlash, I sinf nivelirlash.

Ishchi loyihani tayyorlash vaqtida har bir ish turi uchun marshrutlar yo‘nalishi aniqlandi. Ishchi loyiha uchun geodezik asos materiallaridan foydalanildi. Ishchi loyihada qisqa tushuntirish xati va bajariladigan ishlarning sxemalari tayyorlandi.

2022-2023 yilda Samarqand – G‘uzor I-sinf nivelirlash chizigining 5885, fundamental reper- 8519, fundamental reper uchastkasida quyidagi ishlar bajarildi: I-sinf nivelirlash chizig‘ini rekognossirovka qilish, nivelir belgilarini tekshirish, nivelir belgilarini o‘rnatish, reperlarning koordinatalarini aniqlash ishlari.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi –Davlat balandlik tarmoqlarini rivojlantirish, ishchi holatida saqlab turish, xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlarida, kadastr

o‘lchov ishlarida, qurilishda, geodeziya va topografiyaning asosini ta’minlashdan iborat.

2022 yilda reperlami o‘rnatish jarayonida *5885, fundamental reper- 8519, fundamental reper* I sinf takroriy nivelirlash chizig‘ida reper (nivelirlash belgi)larini dastlabki tekshirish ishlari bajarildi. Tekshirish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, I sinf nivelirlash chizig‘i punktlari o‘rnatilganligiga ko‘p yillar bo‘lganligi, asosiy qismi aholi punktlarida, yo‘l bo‘yida joylashganligi va qurilish ishlari sababli 2 ta reper yo‘qotilgan. Ularni o‘rniga 2 ta yangi gorizontal turdagi markalar o‘ranatildi.

Yangi o‘rnatilgan reperlarning xomaki chizmasi (abris) lari tuzildi va 1,1a,2,2a- rasmlarda berildi.

Rekognosirovka barcha sinflar bo‘yicha nivelirlash chiziqlarida o‘tkazilishi shart. Ushbu ishlarni reperlarni o‘rnatish bilan birga bajarishga ruxsat beriladi. [5].

Rekognossirovkada aloqa liniyalari va tugunlari uchun maqbul variantlar izlanadi, reper turlari va ularni o‘rnatish joylari belgilanadi, shuningdek keyingi ishlarni tashkil qilish va bajarish uchun zarur ma’lumotlar to‘planadi.

1.Punkt haqida umumiy ma’lumot

1.1 Punkt nomi

Punktni nomlanishi	*437*		
Markaz turi	*145*		
Punkt raqami			
Punkt kodi			
O’rnatilgan punktni marka nomeri	*Gor.marka*		

1.2 O’rnatilgan punktning yaqinlashtirilgan koordinatasi

	Kenglik B	*Uzoqlik L*	*Balandlik H м.*
WGS-84			
CK-42			

1.3 Geodezik punktning joylashuv tavsifi

Viloyat: Samarqand Tuman: Samarqand
Aholi punkti: Galaosiyo qishlog’i Трапеция: J-42-15

Samarqand viloyati Samarqand tumani Galaosiyo qishlog’idan 300metr shimoliy-sharqda, ko‘prikning perillasidan 1.90m janubiy-sharqda

1.4 Punktni joyida o’rnatishdagi ma’lumotlar

O’rnatilgan kun: boshlanishi 10.04.2022 y. tugashi 10.04.2022 y.
O’rnatish vaqtidagi o’rtacha harorat 25°C dan 28°C gacha
Kovlangan chuqurlikdagi tuproq harorati 70 sm 19°C
Tuproqning muzlash chuqurligi 20 sm dan 40 sm gacha.
Aniqlash usuli va Ishonchlilik darajasi (burg’ulash,tadqiqot)

2. O’rnatilgan punkt joylashgan hududning xususiyatlari

2.1 Relyefi (cho’qqi, qiyalik, tekislik, tik qiyalik va boshqalar.)

O’rnatilgan punkt	*Tip 145*
	Ko‘prikda
Markaz №1	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №2	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №3	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

2.2 O’simliklar (sho’r, o’t qoplamli, to’qay va boshqa.)


O’rnatilgan punkt	*Tip 145*
Markaz №1	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №2	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №3	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

2.3 Tuproq (tosh, o’rmon, qum, to’kilgan va boshqalar.)


O’rnatilgan punkt	*Tip 145*
	Bo`z tuproq
Markaz №1	*Ko’zda tutilmagan*
Nazorat punkti	
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №2	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №3	
Nazorat punkti	*Ko’zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

2.4 O’rnatilgan punkt belgilari

Tashqi belgi haqida ma’lumot	*Gorizontal marka*
Markaz haqida ma’lumot	*145 tipli punkt ko‘prikning bordyuriga devoriy marka sifatida mahkamlangan.*



Abris. Geodezik punktning joylashuvi.



1.Punkt haqida umumiy ma'lumot

1.1 Punkt nomi

Punktni nomlanishi	*103*		
Markaz turi	*145*		
Punkt raqami			
Punkt kodi			
O'rnatilgan punktni marka nomeri	*Gor.marka*		

1.2 O'rnatilgan punktning yaqinlashtirilgan koordinatasi

	Kenglik B	*Uzoqlik L*	*Balandlik H м.*
WGS-84			
CK-42			

1.3 Punktning joylashuv tavsifi

Viloyat: Samarqand Tuman: Samarqand
Aholi punkti: Sho'rboi qishlog'i Tpaneцuya: J-42-15

Samarqand viloyati Samarqand tumani, Sho'rboi qishlog'idan 200 metr shimoliy-sharqda, simyog'ochdan 3.55metr shimolda, asphalt yo'ldan 2.75metr janubda joylashgan

1.4 Punktni joyida o'rnatishdagi ma'lumotlar

O'rnatilgan kun: boshlanishi 10.04.2022 y. tugashi 10.04.2022 y.
O'rnatish vaqtidagi o'rtacha harorat 30°C dan 34°C gacha
Kovlangan chuqurlikdagi tuproq harorati 70 sm 24°C
Tuproqning muzlash chuqurligi 20 sm dan 40 sm gacha.
Ishonchlilik darajasini aniqlash usuli (burg'ulash,tadqiqot)

2. O'rnatilgan punkt joylashgan hududning xususiyatlari

2.1 Relyefi (cho'qqi, qiyalik, tekislik, tik qiyalik va boshqalar.)

O'rnatilgan punkt	*Tip 145*
	Simyog'och ustunida
Markaz №1	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №2	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №3	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

2.2 O'simliklar (sho'r, o't qoplamli, to'qay va boshqa.)

O'rnatilgan punkt	*Tip 145*
	o't qoplamli
Markaz №1	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №2	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	
Markaz №3	
Nazorat punkti	*Ko'zda tutilmagan*
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

2.3 Tuproq (tosh, o'rmon, qum, to'kilgan va boshqalar.)

O'rnatilgan punkt	*Tip 145*
	Bo`z tuproq
Markaz №1	*Ko'zda tutilmagan*
Nazorat punkti	
Yordamchi punkt	
(Kerakligi ostiga chizilsin)	

Markaz №2 *Nazorat punkti* *Yordamchi punkt* *(Kerakligi ostiga chizilsin)*	
	Ko'zda tutilmagan
Markaz №3 *Nazorat punkti* *Yordamchi punkt* *(Kerakligi ostiga chizilsin)*	
	Ko'zda tutilmagan

2.4 O'rnatilgan punkt belgilari

Tashqi belgi haqida ma'lumot	*Gorizontal marka*
Markaz haqida ma'lumot	*145 tipli punkt simyog'och ustuniga devoriy marka sifatida mahkamlangan*

Abris
Geodezik punktning joylashuvi.



Yotqiziladigan chiziqqa yoki nazorat tarzidagi nivelirlashga kiritilishi rejalashtirilgan ilgari bajarilgan nivelirlashning reperlari joylarda koordinatalar, yirik masshtabli xarita, chizma, aerofotosuratga olish materiallari va planli-balandlik tayyorgarligi materiallari, geodeziya yoki fotogrammetrik koordinatalar, shuningdek mahalliy aholidan olish mumkin bo'lgan tavsif, tashqi ko'rinish va reperlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha qidiriladi.

Reperlarni o'rnatish joylari o'ziga xos konturlar va orientirlar yonida belgilanadi, bu kelajakda ularni aerofotosuratga olish materiallaridan tanib olishni ham osonlashtiradi.

Reperlarni uzoq muddatli but saqlanishi va mustahkamligini ta'minlash maqsadida, reperlarni qoyali tog' jinslariga va tosh, beton va temir-betondan qurilgan kapital binolar va inshootlarga o'rnatish eng maqbul hisoblanadi.

Shudgor qilinadigan yerlarda reperlar yo'llarning chekkalarida va chorrahalari yonida, elektr uzatish va aloqa liniyalari ustunlari yonida, o'rmon dalani ihotalovchi chiziqlar va kichik o'rmonlar yonida, ma'muriy chegaralar va yerdan foydalanuvchilar chegaralari yonida o'rnatiladi.

Shahar va aholi punktlarida yerga o'rnatiladigan reperlarni faqat mustahkam binolar bo'lmagan uchastkalarda, gavjum ko'chalardan uzoqda (istirohat bog'larida, xiyobonlarda va boshqa daraxt ekilgan joylarda) o'rnatishga ruxsat beriladi. Bunday reperlarni o'rnatish joylarini tanlash arxitektura boshqarmasi va yer osti kommunikatsiyalari uchun mas'ul tashkilotlar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
2.I, II III va IV sinf nivelirlash bo'yicha yo'riqnoma, Moskva, Nedra-1990y.
3. Geodeziya, topografiya va kartografiya ishlarini nazorat qilish va qabul qilish
bo'yicha yo'riqnoma, GKKYMQ-17-065-03, Toshkent 2003 y.
4. Nurmatov È., O'tanov O'. Geodeziya. Toshkent, O'qituvchi, 2010.
5.Avchiyev Sh.K., Nazarov B. Yuqori aniqlikdagi geodezik ishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent., 2003
6. I, II, III, IV sinflar bo'ycha nevilirlash yo'riqnomasi ,Toshkent-2021yil.

SAMARQAND HUDUDIDAGI MAVJUD I SINF BALANDLIK PUNKTLARIDA GEODEZIK ISHLARNI BAJARISH.

Suyunov Shuhrat Abdusaliyevich
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi t.f.b. (PhD) doktori, dotsent
Omonov Ismoil Xolboyevich
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi katta o'qituvchisi
Xudoyqulov Shoxruz Shuxrat o'g'li
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi o'qituvchisi
Xusanova Mashxura Islomovna
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi katta o'qituvchisi
Xo'jaqulov Qilichbek Shavkat o'g'li

3- kurs GKK 1770-02- guruh talabasi
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU)

Annotatsiya. Samarqand hududidagi mavjud I sinf balandlik punktlarida geodezik ishlarni bajarish va o'lchash natijalarini tadqiq qilishni takomillashtirish ishlari olib borilgan. Obyektning tabiiy sharoitlari tahlil qilinib, fizik-geografik tavsifi o'rganilgan, geodezik o'lchash natijalari tadqiq qilish uslubiyatini ilmiy-metodologik asoslari tahlil qilindi. O'rnatilgan punktlarning balandliklarini aniqlash va elektron ko'rishidagi vedomosti tuzilgan.

I sinf balandlik punktlarida geodezik ishlarni bajarishda zamonaviy geodezik asboblar yordamida o'lchash ishlarini olib borish, o'lchov natijalarini qayta ishlash, elektron dasturlar yordamida joylashuv sxemalarini yaratish hamda nivelirlash aniqligini baholashni elektron usulda taqdim etilgan[2]. Buning natijasida balandlik tarmog'ini zamon talabida saqlab turish, yer yuzasining zamonaviy vertikal harakatlari, ishlab chiqarish, neft va gaz konlarining atrof-muhitga ta'siri, seysmik faollikni o'rganishga erishiladi. Yangi nivelirlash chizig'i asos punktlar orasida tenglashtirilib ko'rsatilgan.


Kalit so'zlar: texnogen, marka, grunt, poligon, deformatsiya, reper, masshtab, vertikal, punkt.

O'zbekistonning davlat nivelirlash tarmog'i I,II,III va IV sinflar bo'yicha nivelirlash tarmoqlariga bo'linadi.

Butun O'zbekiston hududida balandliklarni hisoblab chiqish balandliklarning normal tizimida Kronshtadt futshtoki (sath o'lchagichi) nolidan amalga oshiriladi (Rossiya bilan birga). Ushbu tizim Baltika tizimi deb nomlanadi. Kronshtadt futshoki noli sifatida futshtokning mis plastinasidagi gorizontal chiziq qabul qilingan[3].

I va II sinflar bo'yicha davlat nivelirlash tarmoqlari - O'zbekistonning asosiy balandliklar asosidir. Ushbu tarmoqlar asosan yo'llar yoki temir yo'llar bo'ylab, ular bo'lmaganda daryo qirg'oqlari, so'qmoqlar va dala yo'llari bo'ylab yotqiziladi.

Samarqand viloyati hududidan o'tgan I sinf balandlik tarmoqlari chizmasi 1-rasmda berilgan.



1-rasm

Samarqand viloyati hududida jami 109 ta I sinf balandlik tarmoqlari punktlari bo'lib, ulardan 9 tasi fundamental reperlardir. Bundan tashqari 54 ta grunt reperlari, 16 ta devor markalari, 19 ta devor reperlari, 2 ta qoya reperlari, 9 ta gorizontal markalar mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra ularning barchasi saqlangan, chunki barcha liniyalar yangilangan[4].

Fundamental reperlarni o'rnatish joylarini tanlash alohida e'tiborni talab qiladi. Buning uchun tuproq tarkibi va gidrogeologiya (yer osti suvlari darajasi) bo'yicha ma'lumotlar to'planadi[6].

Iloji boricha o'rnatish joylari uchun qattiq tuproqli yoki mustahkam qumli gruntlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Samarqand viloyatida fundamental reperlar uchun chuqurligi 2,5 m, ustuni balandligi 1,5 m bo'lgan 161 opoznak tipidagi markazlar o'rnatilgan. Fundamental reperlarga 50-150 m uzoqlikda yo'ldosh-grunt reperlari o'rnatilgan.

Grunt reperlari uchun 160 opoznak tipidagi reperlar o'rnatilgan. Bundan tashqari joyning holatiga qarab har xil nivelir belgilari o'rnatilgan.

Qo'llanma [*O'zbekiston Respublikasi hududida davlat geodeziya va nivelir tarmog'i punktlari va reperlarini o'rnatish qoidalari bo'yicha texnik qo'llanma, GKKINP-01-110-04, 2004 y.*] talablariga ko'ra tuproq mavsumiy muzlaydigan zonalarda fundamental reperning asosi tuproq muzlashining eng yuqori chegarasidan 100sm pastroqda o'rnatilgan, grunt reperlari esa 50sm pastroqda o'rnatilgan.

Fundamental reper markazining yuqori qismi yer yuzasi sathidan 100sm pastda, grunt reperlariniki esa 50 sm pastda joylashgan.


Fundamental reper yuqori asosi yuzasiga nazorat markasi o'rnatilgan.

Yuqori va pastki markalar orttirmasi nivelir yordamida asbob gorizontini o'zgarishi bilan ikkita usulda aniqlanadi. O'lchash natijasi o'rnatilgan reperning kartochkasiga yoziladi.


Fundamental va grunt reperlarining o'rnatish tartibi, tashqi ko'rinishini rasmiylashtirish [*I, II III va IV sinf nivelirlash bo'yicha yo'riqnoma, 1990y.*] yo'riqnomaning 33-34 betlaridagi chizmalarga muvofiq bajariladi.

Reperlarni uzoq vaqt saqlab qolish va ularni yemirilishdan himoya qilish uchun ustunlar korroziyaga qarshi birikma bilan qoplangan. Reperlarni himoya qilish bo'yicha tavsiyalar [*I, II III va IV sinf nivelirlash bo'yicha yo'riqnoma, 1990y.*] yo'riqnomaning 5-ilovasida keltirilgan.

Reperlarning chizmalari va ularning tashqi holati 2-rasmda berilgan.



2-rasm.
Shartli belgilar:



Samarqand hududidagi mavjud I sinf balandlik tarmoqlarining yaratilish tarixi mustaqillikdan avvalgi yillarga borib taqaladi. Yuqori sinf nivelirlash tarmoqlari dastlab 1974-1975 yillar bajarilgan, keyinchalik juda ko‘plab nivelir tarmoqlari o‘tgan. 1987-1989 yillar Xovost-Navoi-Kogon-Chorjuy I sinf balandlik tarmog‘i, takror 2004-2007 yillar Xovost-Jizzax-Navoi-Kogon-Qorako‘l I sinf balandlik tarmog‘i; 2001 yil Samarqand-Juma I sinf balandlik tarmog‘i; 2002 yilda Samarqand-G‘uzor I sinf balandlik tarmog‘i, takror 2022 yilda Samarqand-G‘uzor I sinf balandlik tarmog‘i o‘tgan. Avvalgi yillarda bajarilgan nivelirlash ishlarining ro‘yxati 3-jadvalda berilgan.

Barcha I sinf bo‘yicha liniyalar har 25 yildan keyin, seysmik faol hududlarda har 15 yildan keyin takroran nivelirlanadi.

Tog‘li hududlarda takroriy nivelirlash natijalaridan Yer qobig‘ining tuzilishini o‘rganish, alohida bloklarning harakatlanish tezliklari va yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumot olish, Yer qobig‘idagi faol yoriqlar va yorilishlarni aniqlash uchun foydalaniladi[5].

I va II sinflar uchun nivelirlash chiziqlari asosan shosse yoki temir yo‘llar bo‘ylab, ular mavjud bo‘lmaganda daryo qirg‘oqlari, so‘qmoqlar va qishki yo‘llar bo‘ylab yotqiziladi. Barcha holatlarda, I va II sinflar bo‘yicha nivelirlash chiziqlari ushbu hudud uchun yer sharoitlari eng qulay va murakkabligi eng kam bo‘lgan trassalar bo‘ylab yotqiziladi[7].

Shaharlarda nivelir tarmog‘ining bir-biridan eng uzoq joylashgan reperlari o‘rtasidagi nisbiy balandlik 30 mm dan ortiq bo‘lmagan xató bilan o‘lchanichi kerak.

Hududi 500 km.kv. dan ortiq bo‘lgan shaharlarda I sinf bo‘yicha nivelirlash tarmog‘i yaratiladi. Shaharlarda I sinf bo‘yicha nivelirlash tarmoqlarini qurish sxemalari turlicha: bu yoki poligonlar tizimi yoki kesishgan chiziqlar tizimi.Tarmoq turi va chuziqlarning joylashishi shahar hududining shakliga bog‘liq. Tarmoqni zichlashda davom ettirish II,III va IV sinflar bo‘yicha nivelirlash orqali amalga oshiriladi. Shaharlarda I va II sinflar bo‘yicha balandlik tarmoqlari har 15 yilda takroran nivelirlanadi.

1-jadval

Nivelirlash sinflari	O‘rtacha kvadratik xatolik		Poligonlarda va chiziqlar bo‘yicha ruxsat etilgan
	Ŋ tasodifiy, mm/km	σ sistematik, mm/km	
I	0.8	0.08	±3mm√L
II	2.0	0.20	±5mm√L
III	5.0	-	±10mm√L
IV	10.0	-	±20mm√L

I sinf bo‘yicha nivelirlash zamonaviy asboblar va kuzarish usullarini qo‘llagan holda olish mumkin bo‘lgan eng yuqori aniqlikda bajariladi, bu esa nivelirlashdagi sistematik xatolarni to‘liq istisno etishga imkon beradi. I sinf bo‘yicha nivelirlash natijalarini qayta ishlashdan olingan sistematik va tasodifiy o‘rtacha kvadratik xatolarning qiymatlari va I sinf bo‘yicha poligonlarda ruxsat etilgan bog‘lanmaslik 1-jadvalda keltirilgan qiymatlardan oshmasligi kerak[8].

II sinf nivelirlash tarmog‘i I sinf ko‘pburchaklar ichida alohida liniyalar sifatida ham, kopburchaklarni tashkil etuvchi tugun nuqtalari bo‘lgan liniyalar tizimi sifatida ham yaratiladi. Qayta ishlash natijasida olingan tasodifiy va tizimli o‘rtacha kvadratik nivelirlash xatolarining qiymatlari, ruxsat etilgan qoldiqlar, ko‘pburchaklar va ularning perimetrlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

Nivelirlashning o‘rtacha kvadratik xatolari quyidagi formulalar bo‘yicha hisoblab chiqiladi:

tasodifiy $\eta^2 = \frac{1}{4n}\frac{\sum d^2}{r}$, *sistematik* $\sigma^2 = \frac{1}{4\sum L}\frac{\sum S^2}{L}$, *bu yerda* $d = h_{to} - h_{tes}$;

h_{to}- h_{tes} – to‘g‘ri va teskari nivelit yo‘llaridandan olingan seksiyalar bo‘yicha nisbiy balandlik;
r- seksiya uzunligi, km,
n- seksiyalar soni,
S- liniya bo‘yicha farqlarning jamlanmasi, mm;
L- liniya uzunligi , km da.
Liniya uzunligi 100 km dan kam bo‘lmasligi kerak.

Ish bajarilayotgan hududga va boshqa sharoitlarga qarab nivelirlash poligonlarining perimetrlari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Nivelirlash sinflar bo‘yicha	Nivelirlash poligonlarining perimetrlari, km				
	O‘zlashtirilgan hududlar	Kam o‘zlashtiril-gan hududlar	Mahalliy va maydonli geodinamik poligonlar	Shaharlar	
				Binolar qurilgan hudud	Binolar quril-magan hudud
I	1200	2000	40	Shahar hududi shakliga qarab	Shahar hududi shakliga qarab
II	400	1000	20	50	80
III	60-150	100-300	-	25	40
IV	20-60	25-80	-	8	12

2-jadvalda ko‘rsatilgan I sinf bo‘yicha poligonlar perimetrlariga alohida poligon uchun oxirgi qiymatlar sifatida emas, balki yondosh poligonlar guruhining o‘rtacha perimetri sifatida qaralishi kerak[9]. Agar I sinflar bo‘yicha yonma-yon poligonlar orasida tugun hosil bo‘lishu natijasida hosil bo‘lgan “mitti” poligonlar, vertikal deformatsiyalarni o‘rganish uchun yaratilgan poligonlar va sh.k. bo‘lsa, u holda bu poligonlar yonma-yon poligonlarning o‘rtacha perimetrini hisoblab chiqishda ishtirok etmaydi.

I sinf bo‘yicha, asosiy balandlik asosining I va II sinflar bo‘yicha nivelirlash chiziqlarining yangidan yaratilayotgan aloqa tugunlari yer yuzasining katta vertikal deformatsiyalariga (yiliga 4 mm dan ortiq) duch kelmaydigan hududlarda shakllantirilishi kerak, bu vertikal deformatsiyalarning poligonlarda nisbiy balandliklar bog‘lanmasligiga minimal ta’sirini ta’minlashi kerak.

Yer yuzasining texnogen vertikal deformatsiyalari hududlarida joylashgan mavjud I va II sinflar bo‘yicha nivelirlash chiziqlarining aloqa tugunlari(uzel reperlari) deformatsiya hududlaridan ko‘chirilishi va yangi aloqa tugunlari shakllantirilishi kerak[10].

Samarqand hududidagi mavjud I sinf balandlik punktlarini rekonstruksiya qilish va tekshirish barcha sinflar bo‘yicha nivelirlash chiziqlarida o‘tkazilishi shart. Ushbu ishlarni reperlarni o‘rnatish bilan birga bajarish mumkin.

Rekonstruksiya qilishdan oldin ish bajariladigan hududda mavjud bo‘lgan nivelirlash chiziqlari to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni to‘playdi: chiziqlar sinflar bo‘yicha va nomi, nivelirlashni amalga oshirgan tashkilot nomi, bajarilgan yili, chiziqlar joylashish sxemalari, reperlar joylashgan joy tavsifi va abrislari, shuningdek ularning turlari (chizmalari);

Kataloglardan va hisobotlardan ko‘chirmalar, reperlar tushirilgan eng yirik masshtabdagi xaritalar yoki ulardan ko‘chirilgan nusxalar.

Reperlar quyidagi holatlarda rekonstruksiya qilinadi:
– reper holati, uning but saqlanishi va ushbu turdagi reperning zamonaviy talablariga javob bermasligi, tashqi ko‘rinishining buzilishi, markalarning mustahkam emasligi;
– devoriy reper uchun o‘rnatilgan inshootning yaroqsizligi, devorlarda yoriqlar mavjudligi, poydevorning ko‘zga ko‘rinadigan buzilishlari va boshqalar aniqlansa;
– reperning barqarorligiga muhandislik-geologik omillarning ta’siri aniqlanganda;
– mahalliy aholi tomonidan nivelir belgilariga zarar yetganda;
– tuproqning turi, mexanik tarkibi va deformatsiyalar ta’siri aniqlanganda;
– yer osti suvlari chuqurligi va ular sathining o‘zgarishi.

Rekonstruksiyada imkon qadar tiklash ishlari bajariladi: pilonning ko‘chib tushgan qirrasini betonlash, marka va quvur tepa qismining zanglashga qarshi bo‘yash, qoyaga yozish, qo‘riqlanishi haqidagi yozuvlar bilan tanituvchi ustunni o‘rnatish.

Quvurlar va betonni zanglashdan himoya qilish uchun ular bitum, epoksidli qatron, xlorvinilli yopishqoq lenta va boshqa vositalar bilan qoplanadi.Mexanik yoki kimyoviy tozalash natijasida quvur yuzasidan zang, moy izlari yaxshilab tozalangan taqdirdagina bitum qoplamasi samarali bo‘ladi. Mexanik tozalash qumpurkagich, po‘lat cho‘tkalar, qirg‘ichlar va shu kabilar yordamida amalga oshiriladi. Kimyoviy tozalash quvurlarni oltingugurt(15-20%), xlorid (10-12%) yoki fosforli (10-15%) kislota eritmasiga botirib, so‘ngra suv bilan chayish va 5% kalsiylangan suv eritmasi bilan zararsizlantirishdan iborat[10].,[9]..

Biz tadqiqot o‘tkazayotgan Samarqand-G‘uzor I sinf niveirlash chizig‘ida reper va markalarning 2-rasmda berilgan tiplari o‘rnatilgan. Ularning holati tadqiqot jarayonida tekshirib borildi va ta’mirtalab nivelir belgilari rekonstruksiya qilindi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi 389-sonli “Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

2. Musaev I., Muxtorov O‘., Ergashov M., “Geoaborot tizim va texnologiyalari”. Toshkent. TIMI, 2015. - 59 b.

3. Suyunov A.S., Suyunov Sh.A. i dr. Kartografiya. (Uchebnik). «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi». T.2021, 17,1 b.t.

4. Suyunov A.S., Tukhtamishev Sh.Sh., Uroqov O.A. “Source of Noise and its Distribution and its Description” // www.ijarset.com International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Texnology Vol.8 Issue 5 May 2021 ISSN:-2350-0328.

5. Suyunov A.S., Salahiddinov A.A., Suyunov Sh.A .Analysis of the influence of the atmosphere surface layer on the measurement made by electronic total stations.// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 4, Issue 1, January 2017. P. 3098-31018.

6. Suyunov, A. S., Mirzaev, A. A., Urakov, O. A., & Suyunov, S. A. (2023, January). Field studies of electronic total stations in a special reference satellite geodetic basis. In 2nd International Conference on Computer Applications for Management and Sustainable Development of Production and Industry (CMSD-II-2022) (Vol. 12564, pp. 208-213). SPIE

7. Суюнов, А. С., & Суюнов, Ш. А. (2017). О точности геодезического измерения в условиях Республики Узбекистан. Узбекское агентство по печати и информации Типографии ООО «ILM NUR-FAYZ, 2017.

8. Суюнов, А. С., & Хушмуродов, Ф. М. (2022). Қашқадарё вилоятининг лалмикор ерларидан фойдаланиш имкониятлари. Conferencea, 35-39. 5. Suyunov, A. S., & Karjavov, Z. K. (2022). The Main Ways to Ensure the Sustainability of the Financial Position of Contracting Construction Organizations in Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 97-102.

9. Suyunov, A., Suyunov, S., Aminjanova, M., & Rakhmatullaeva, K. (2021). Improvement of the method for comparing subsidence of structures using the Fischer’s F-test and the FosterStuart test. In E3S Web of Conferences (Vol. 227, p. 04005). EDP Sciences

10. Stuart test. In E3S Web of Conferences (Vol. 227, p. 04005). EDP Sciences. 11.Suyunov, A., Suyunov, S., & Urokov, O. (2021). Application of GIS on Research of Horizontal Refraction in Polygonometry on Network. In E3S Web of Conferences (Vol. 227, p. 04003). EDP Sciences

NASOS STANSIYALARIDA KAVITATSIYA JARAYONINING NASOS QURILMALARIGA SALBIY TA’SIRI


Suyunov.J.Sh. t.f.f.d.(PhD),
Qamarov A.Z., magistr
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Nasos agregatlarni suv tanqis bo’lgan hollarda kavitatsiya rejimi sodir bo’ladigan salbiy jarayonlardan saqlash chora-tadbirlari ushbu maqolaning umumiy maqsad va vazifalarini o’zida jamlaydi. Ushbu maqolada kavitatsiyaning qanday shaklda sodir bo’lishi va unga ta’sir etuvchi omillar batafsil yoritilgan. Shuni ta’kidlab o’tish lozimki suv tanqis hududlarda suv havzasining me’yoriy sathdan tushib ketishi natijasida nasos so’rib oluvchi bosimli quvuri havo so’ra boshlaydi, natijada nasos parraklarida va quvur tizimida shovqin kuzatilishi, bu jarayon o’z navbatida bartaraf etilmasa, nasos agregatini nosoz holga olib kelishi kuzatiladi.

Kalit so’zlar: nasos agregati, parraklar, quvur, kavitatsiya jarayoni, shovqin, mobil qurilma;

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini jadal rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda, bu esa o'z navbatida Respublikamizning suvga bo'lgan ehtiyojini ham keskin ortishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, global iqlim o'zgarishlari, aholi soni o'sib borayotgani, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kuzatilayotgan jadal rivojlanish va ulardagi suvga bo'lgan talab o'sishi tufayli O'zbekistonda suv resurslari taqchilligi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu sababdan aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash tizimlarini tubdan isloh qilish va yangi innovatsion loyihlarni tatbiq etish lozim.

Bugungi kunga kelib nasos qurilmasi bir qancha sohalarning hamda texnika va texnologiyalarning ajralmas, asosiy qismiga aylanib qolgan. Nasos qurilmasidan keng miqiyosida foydalanadigan bir soha borki, albatta barchamiz unga murojaat qilganmiz ya’ni suv ta’minoti tizimi. Jumladan, nasos qurilmasi suv ta’minotida keng miqiyosida qo’llanilar ekan, tizimda turli xil kamchilik va nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Nasos agregatlarini kavitatsiya jarayonida ishlashga olib keluvchi sabablardan biri so’rib oluvchi quvur orqali havoni so’rilishi bu asosan, suv havzasida yetarlicha suv bo’lmaganda, asosan ushbu jarayon tez-tez suv satxi o’zgaruvchi manbalarda kuzatiladi.





1-rasm. Nasos agregatlarining kavitatsiya rejimida ishlashi natijasida ichki mexanizmga zararli ta'siri.

Suyuqlikda pufakchalar yoki bo'shliqlar paydo bo'lganda, bosim tezda bug' bosimidan pastga tushadi va kavitatsiya paydo bo'ladi. Pufakchalar yuqori bosimga ega bo'lganda, ular qulab tushadi va vaqt o'tishi bilan qismlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mayda zarba to'lqinlarini yaratadi. Ushbu bosim to'lqinlari qismlardan teshiklarni hosil qiladi. Nasos agregatlarining kavitatsiya rejimda ishlashini oldini olishning eng yaxshi usuli bu suv olish manbasidagi suv sathining bir me'yorda bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

Nasos agregatida qattiq shovqinli ovoz paydo bo'ladi va haddan tashqari bosim ko'tariladi, bu ko'pincha yaqin atrofdagi sirtlarga zarar yetkazadi. Hatto chidamli metallar ham kuchli, mahalliylashtirilgan pufakcha portlash oqimi ta'sirida korroziyaga uchraydi. Agar qisqa muddatda qarshi choralar ko'rilmasa, nasos oxir-oqibat ishdan chiqishi mumkin. Nasoslar ichida kavitatsiya ko'pincha harakatlanuvchi qismning orqasida paydo bo'ladi, bu yerda past bosimning mahalliy joylarida hosil bo'ladi. Ko'pincha foydalanuvchi tomonidan sezilmaydigan, barqaror, kuchli kavitatsiya nasos ichidagi qismlarga zarar etkazishi mumkin.

Ayniqsa, nazorat klapanlari juda yuqori vakuum hosil qilmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak. Yuqori suyuqlik tezligi va past bosimli kavitatsiya zonalariga olib keladigan cheklovlarni minimallashtirish uchun ichki oqim yo'llarini loyihalashga alohida e'tibor beradi. Optimallashtirilgan suyuqlikni boshqarish kavitatsiya ehtimolini va uning halokatli ta'sirini kamaytiradi.

Gidrodinamik kavitatsiya - suyuqlik oqimidagi bosimning pasayishi natijasida suyuqlikda gaz yoki bug ' bo'shliqlarining paydo bo'lishi va yuqori bosimli hududga kirganda bu bo'shliqlarning keyingi qisqarishi, bu hodisa suyuqlikning tezligi oshganida, masalan, suyuqlik nasosning rotori yoki stator qismlari orasidan o'tganda yoki u to'siq atrofida o'tganda paydo bo'ladigan bosimning pasayishi tufayli yuzaga keladi.

Gidrodinamik kavitatsiyaning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Bosimning tushishi: suyuqlik tezligi oshganda, uning bosimi Bernulli tenglamasiga muvofiq kamayadi. Bu pasaytirilgan bosim suyuqlikda gaz yoki bug' bo'shliqlari (kavitatsiya pufakchalari) paydo bo'lishiga olib keladi.

2. Bo'shliqlarning kengayishi va qisqarishi: suyuqlik tezligi pasayganda yoki bosim kuchayganda, bu bo'shliqlar qisqaradi yoki portlaydi. Bu jarayon suyuqlikning ichki qismlariga kuchli ta'sir qiladi va nasos korpusiga yoki qanotlariga zarar yetkazishi mumkin.

3. Ta'siri: Kavitatsiya pufakchalarining qisqarishi yoki yorilishi suyuqlik ichida kuchli kesish kuchlarini hosil qiladi, ular aralashtirish, hujayra buzilishi va boshqa jarayonlarda qo'llaniladi.

Nasosda kavitatsiya paydo bo'lganda, odatda shovqin, tebranish va ishlashning pasayishi kabi ko'rsatkichlar paydo bo'ladi. Ushbu ogohlantirishlar paydo bo'la boshlaganda, muhandislar asbob-uskunalarni tekshirishlari kerak, bunda korroziya mavjudligi tekshiriladi, odatda shovqin, tebranish, moddiy zarar va nasos-turbin blokida ishlash nobarqarorligiga olib keladi. Kavitatsiyaning yomon ta'sirini kamaytirish uchun nasos-turbinaning nasos rejimida kavitatsiya harakati eksperimental va raqamli tekshiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich kavitatsiya sonining eng yaxshi diapazoni va kritik kavitatsiya sonining eng yaxshi diapazoni hech qanday kesishmaga ega emas.

Xulosa. Bugungi kunda Respublikamizdagi mavjud suv ta'minotidagi nasoslarda kuzatiladigan kavitatsiya hodisasi natijasida nasos qurilmalarining ishdan chiqishiga olib keladigan va ishlash samardorligiga ta'sir etadigan eng asosiy salbiy sabab ekanligi barchamizga ma`lumdir. Binobarin, suv tanqis bo'lgan hududlarda bu kabi holatlar tez-tez takrorlanishini, inobatga olgan holda, nasos qurilmasiga avtomatik ishlaydigan datchikni o'rnatish va uni mobil qurilmaga integratsiya qilish, eng maqbul yechim ekani bir qancha amaliy va nazariy tadqiqot ishlari natijasida aniqlandi. Albatta, ushbu datchik qurilmasi nafaqat suv tanqis bo'lgan hududlarda, balki suv ta'minoti nasos agregatlariga o'rnatish ham mumkin. Zero, bugungi kunda suv tanqisligi ortib borgani sayin, ushbu sohada eng ilg'or texnika, texnologiyalarni qo'llash va smart texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. B. Uralov, M. Li, E. Qalqonov, Z. Ishankulov, M. Akhmadi and L. Maksudova, "Hydraulic resistances experimental and field studies of supply canals and pumping stations structures" in E3S Web of Conferences 264, 03075 (2021), doi.org/10.1051/e3sconf/202126403075

2. M. Mamajanov, B. Uralov, M. Li, E. Qalqonov, P. Nurmatov and A. Gayur, "Irrigation pumping stations according to the hydraulic and operational indicators of pumping units", in E3S Web of Conferences 264, 03074 (2021), doi.org/10.1051/e3sconf/20212640307417.

3. Norkulov, B. M., Khidirov, S. K., Suyunov, J. S., Nurmatov, P. A., Tadjieva, D. O., & Rustamova, D. B. (2023, March). Determination of dynamic forces affecting floating structure in pump station water supply channel. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2612, No. 1, p. 020020). AIP Publishing LLC.

4. Suyunov, J., & Bobomurodova, M. (2021). Purpose of floating structures for all types of water supplying structures. European Scholar Journal, 2(12), 126-129.

5. Study of kinematic structure of low flood of water supply facilities BM Norkulov, SK Khidirov, D Tadjieva, P Nurmatov, J Suyunov AIP Conference Proceedings 2612 (1)

6. Ergashev R.R., New aspects of reliability function of irrigation pumping stations. //European Sciencce review Scientific journal Austria, Vienna. № 1-2 2017 P.247-249.

7. Sh, Suyunov J., and D. Ismoilova. "NASOS STANSIYALARI VA NASOS AGREGATLARIGA QO 'YILADIGAN XAVFSIZLIK TALABLARI." *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE* (2023): 144-146.

UDK 697.10

TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA SAMARALI VA TEJAMKOR USULLAR

Taniberdiyev Sherali Xudoyberdiyevich o'qituvchi.
Uzboyev Maftun Dustyorovich katta o'qituvchi.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotasiya: Maqolada tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishdan atmosferaga chiqarib yuborilayotgan bio-xilmaxil zararli gazlar natijasida yer iqlimining global isishi va ozon qatlamining yoritilishini oldini olish maqsadida imkoniyati mavjud bo'lgan muqobil qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shu jumladan biogaz texnologiyalaridan foydalanish. Biogaz texnologiyalaridan foydalanayotgan davlatlar, ular foydalanish darajasi haqida ma'lumotlar va biogazdan foydalanish natijasida yoqilg'i va yonilg'i resurslarni tejash asrab avaylab samarali foydalanish haqida fikrlar bildirildi.

Annotation: In the article, the use of alternative renewable energy sources, including biogas technologies, in order to prevent the global warming of the earth's climate and the depletion of the ozone layer as a result of the biodiverse harmful gases released into the atmosphere from the rational and efficient use of natural resources. Countries using biogas technologies, information on the level of their use, and opinions on the efficient use of fuel and fuel resources as a result of the use of biogas were expressed.

Asosiy qisim: Mamlakatning rivojlanishi fan va texnikaga asoslangan holda, ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishi taqoza etadi. Har bir ishlab chiqarish jarayoni biror turdagi xom-ashyo asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonalariga tejamkor va ekologik ma'qbul texnologiyalarda foydalanishni talablari qo'yilmoqda. Hozirgi ko'nning ekalogik muammolaaridan hisoblangan yer iqlimining global isishi hamda ozon qatlamining yemirilishi atrof-muxitning me'yoriy xolatini buzilishiga, bioxilma-xillikning kamayishga sabab bo'lmoqda.

XII asr boshlanish davriga kelib bu muammolar BMT ning atrof muxit bo'yicha xalqaro dasturi – UNEP ning asosiy masalasiga aylandi. UNEP atrof – muxit tug'risidagi bilimlar va axborotlar tuplashga yordamlashish u tomonidan rahbatlantirilgan va muvofiqlashtirilgan ekologik axborotlarni o'rganish, taxlil qilish. Atrof muxitning holati haqida ko'plab ma'ruzalar yaratilishiga olib keldi hamda bugun jaxon miqyosida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar tug'risidagi tushunchani ishlab chiqdi.

Ekologik muammolar yuzaga kelishida ishlab chiqarish korxonalari, texnika va texnalogiyalarning ko'payishi asosiy omil deb qarash mumkin.

Yerdagi xayotni ultrabinafsha nurlardan himoyalovchi, ozon qatlamining yemirilishini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalaridagi ozon yemiruvchi chiqindi gazlar miqdorini kamaytirish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, bu borada 2012 yilning 16 sentabr ko'ni tasdiqlangan.

Monreal protokolida BMT ga a'zo davlatlar barchasida bu masalaga jiddiy e'tibor berilishi ko'rsatib o'tilgan. Bulardan tashqari iqlimning isib borishi, ya'ni global muammolarga aylanib borishi yuzasidan ham bitim tuzilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib sanoat ishlab chiqarish korxonalariga, unda ishlatilayotgan xom-ashyo tejamkorligiga, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelayotgan har qanday ko'rinishdagi chiqindi gazlarga aloxida e'tibor qaratish zarurligi to'g'iladi va har qanday sanoat ishlab chiqarishda zamonaviy tejamkor texnologiyalar va uskuna jihozlarini amalda qo'llash kerakligini anglab yetish mumkin.

Bugungi kunda dunyo yoqilg'ida foydalanish miqdori yiliga 12 mld tonna neft ekvivalentini tashkil etadi. (taxminan bir kishiga 2 tonna ekvivalenti). Organik yoqilg'iga bo'lgan talab esa jadal suratlarda yanada ortib boraveradi. Neft, tabiiy gaz, ko'mir, va uran kabi qazib olinadagin yoqilg'i turlari ayni paytda jahon energetika balansining negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qolada. Vaholanki, ushbu yoqilg'ilarning resurslari ularga ishlov berish hamda foydalanishi sababli tobora kamayib bormoqda. Energiya resurslarida hozirgi foydalanish miqdori darajasida jahonda neft zaxirasi 45-50, tabiiy gaz 70-75, toshko'mir 165-170 yilga va yadro yoqilg'isi esa nisbatan ko'proq yillarga yetadi.

Shubhasiz, energiyani samarali ishlab chiqarish va undan oqilona foydalanish tabiiy resurslarimizni asrab avaylash va atrof muxit yemirilishinining oldini olish borasidagi eng qulay usullardir. Yangi energetika texnalogiyalarini rivojlantirish va joriy etish, keng miqyosida energiya ishlab chiqarish jarayonida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini oshirish borasida o'lkan ishlar amalga oshirilmoqda 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish, milliy ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va sinovdan o'tgan xalqaro energotnjamkor elg'or texnologiyalar tadqiqotlarini amaliyotga maqsadli joriy etish soxasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni ro'yobga chiqarish belgilab berildi.

Ushbu dastur asosida Respublikamiz qayta tiklanuvchi energo manbalaridan ya'ne quyosh energiyasi, shamol energiyasi suv va yer energiyasidan foydalanish bo'yicha bir qancha loyihalar ishlab chiqildi.

Bular qatorida O'zbekistonda xom-ashyo resurslariga boy bo'lgan biogaz "AI texnologiyadan" foydalanish ham keng yo'lga qo'yilib boshladi.

Biogazli texnologiyalar – bu keskin, ekologiya sof, chiqindisiz qayta ishlash usulidir. Hozirgi dunyoda 60 dan ortiq biogaz texnologiyalardan foydalanish bilan birga ularni yangi asoslarini yaratish ishlarri olib borilmoqda. Jahonda 1990 yillarda 150 mld kubometr biogaz ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000 yilga 700 mld kubometrdan ortiq olinganini bilamiz.

Biogazning issiqlik yaratish salohiyati 1 kubometr biogazda 55 foizdan ortiqroq metan gazi bo'lishini hisobga olsak, bu 0,6 kubometr tabiiy gazga, 0,7 kg mazutga va 0,4 litr benzinga to'g'ri kelishi ma'lum. Demak biogaz ishlab chiqarish xalqimizning energetika iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarini hal etishda muhim rol o'ynaydi, biogazdan yoritishda, isitishda va biobenzin tayyorlashda komponent sifatida foydalanish mumkin. Misol tariqasida, Shvesiyada dunyoda eng ekologik sof yo'lovchi poyezda biogaz quvvatida soatiga 130 km. Tezlikda 600 km masofani bosib o'tmoqda. Shunindek 1000 dan ortiq avtobuslar biogaz bilan quvvatlanadi. Biogaz ishlab chiqarishdan olinadigan qo'shimcha maxsulot sifatida qishloq xo'jaligi uchun juda yuqori sifatga ega bo'lgan organik o'g'itni ko'rsatish mumkin. Biogaz texnologiyalari qadimgi Xitoyda qo'llaniladigan bo'lib u "Unitilgan energiya" manbalaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtda qayta kashf etildi va boshqa tiklanadigan energiya manbalari orasidan o'rin egalladi.

Biogaz texnologiyalari hozirgi kunda eng yuqori ko'rsatkichi ega holda; Xitoyda 40 mln dona, Hindustonda 3.8 mln dona, Nepalda 20 ming dona, Germaniyada AQSh,Pokiyegan, Bengladaj, Tayland, Flipin va boshqalar bir qancha davlatlarda. 8 ming dona yirik biogaz qurilmalari ishlab turibdi.

Xuddi shuningdek energo tejamkorlik Davlat siyosatidagi dolzarb masala bo'lganligini inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining "2017-2019 yillar davrida Respublikada biogaz qurilmalari ishlab chiqarish va joriy etishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasiga asosan Samarqand viloyatining Urgut erkin iqtisodiy zonasi hududida Xitoylik biogaz texnologiyalari ishlab chiqaruvchilar bilan "Biogaz texnologiyalari ishlab chiqarish va servis xizmat ko'rsatish" qo'shma korxonasini teshkil etilishi natijada Respublikasmizning 726 yirik parrandachilik va chorvachilik xo'jaliklarida joriy qilish nazarda tutidi.

Hozirgi kunda Respublikamizning boshqa viloyatlari singari, Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida, Namangan viloyatining Turaqurg'on tumanlarida issiqxonani isitish hamda Samarqand viloyatining Jomboy tumanida chorvachilik fermalarida foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, biz energiyadan yanada oqilona va samarali foydalanishimiz darkor. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish resurslar tejamkorligining asosiy omili bo'lishini hisobga olgan holda, ulardan oqilona foydalanish uchun albatta, tabbiy yoqilg'ilar o'rniga biogazdan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarida yo'lga qo'yilishi mumkin. Bu usul bilan yerdagi iqlimning isitishga sabab bo'layotgan atmosfera havosi tarkibidagi asosiy kimyoviy birikma-karbonat angrdrid gazining miqdorini kamayishiga hamda tabiiy yoqilg'i va yonilg'ilarni tejashga erishamiz.

Adabiyotlar

1. BMT taraqqiyot dasturi, Toshkent 2007 y.
2. "Енергообеспечение и енергосбережение – региоланлный аспект» ХИИ Всероссийское совещание: материале докладов. ТОМСК; изд-во «СПБ Графике» 2011 г.
3. Energo – tejamkor issiqxonalarni qurish va ulardan foydalanish bo'yicha qo'llanma Toshkent – 2013 y.O'z.Res.Savdo sanoat palatasi raisi A.E.Shayxov.
4. Chorvachilikda Biotexnologiya. "O'zbekisiton milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2009 y". M.Aberqulov, F.Djasimov.
5. Mahmudovich, M. R., Azzamovich, U. S., Dustyorovich, U. M., & Turopov, U. A. (2022). Problems and their solutions in ensuring the uninterrupted, cost-effective and cost-effective supply of natural gas to consumers. European Scholar Journal, 3(2), 19-22.
6. Dusyarovich, U. M., & Xaydarovich, F. Z. (2023). Yuqori samaradorlikka ega siklonlarning gidravlik qarshiligini aniqlash. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(3), 55-60.

YER OSTI INSHOOTLARI OBYEKTLARINI, DAVLAT KADASTRI GEOFAZOVIY MA'LUMOTLARI TIZIMINI YARATISH

Tuxtamishev Shuhrat Shermanovich
SamDU t.f.f.d (PhD) dotsent
Nurfayziyev Elyorbek Zayniddinovich
SamDAQU II bosqich magistranti

Annotatsiya. Актуальным вопросом остается создание данных для включения в кадастровую базу данных очистных сооружений городов. Необходимо уточнить размеры, тип материала, пропускную способность труб, схему расположения и другую информацию надземных и подземных трубопроводов. В городе Самарканде проводятся работы по проектированию плана водоотведения, геодезическим исследованиям, организации геодезических работ и обеспечению их точности, а также подбору необходимых инструментов исследований и размещению их в единой кадастровой системе. на основе

полученных данных. Важнейшим фактором проведения и ведения кадастровых работ не уделяется внимание решению таких вопросов, как граница земельного участка, атрибутивная информация, размер и емкость, кадастровый номер, цифровые слои..

Ключевые слова: Kommunikatsiya, siyomka, kollektr, atributiv, ma'lumotlar bazasi, quvuq, drenajlar, mahalliy koordinata tizimi, ArcGIS dasturi, kadast.

Annotation

The creation of data for inclusion in the cadastral database of wastewater treatment plants in cities remains an urgent issue. It is necessary to clarify the size, material type, pipe capacity, location scheme and other information of the above-ground and underground pipelines. In the city of Samarkand, work is being carried out in the design of the waste water plan, geodetic research, organization of geodetic work and ensuring their accuracy, as well as the selection of the required research tools and their placement in the unified cadastral system based on the received data. The most important factor in carrying out and maintaining cadastral works is not paid attention to solving issues such as the boundary of the land, attributive information, size and capacity, cadastral number, digital layers.

Key words and expressions: Communication, survey, collector, attributive, database, bladder, drains, local coordinate system, ArcGIS program, cadastre.

Kirish Respublikamizda mustaqillikdan keyin turli tarmoqlarida bunyodkorlik va qurilish obektlarini milliy va zamonaviy usuldagi turar joy binolari, fuqarolar qurilishi, shaharsozlik va yer osti kommunikatsiya tarmoqlari qurilishi va uni kadastr xisobiga kiritish bugungi kunni dolzarb vazifasi xisoblanmoqda. Shaxarsozlikda bajariladigan injenerlik qidiruv ishlari, bino va inshootlar loyihasini joyga ko‘chirish, qurilish ishlarini geodezik ta'minlash ishlarga bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘z vaqtda bunday bino va inshootlar mustaxkam turishi va xozirgi zamon talabiga binoan yuqori aniqlikda bo‘lishi uchun geodezik qidiruv muxandislik ishlarini olib borishni talab qiladi. Yurtimizda ko‘cha va yo'lak qismida kommunikatsiya tarmoqlari o'tkazilib, kanalizatsiya, suv, gaz, elektr, kabel tarmoqlarini tamirlash va qurish natijasida joyining o'zgarish natijasida yer osti kommunikasiya tarmoqlari planga tushmay qoladigan xolatlarda, yer osti inshootlari obyektlari davlat kadastri geofazoviy ma'lumotlarni yaratish dolzarb vazifadir.

Masalaning qo'yilishi Kadastrda muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari ob'ektlar to‘g‘risida tizimli ma'lumot to‘plash masalalaridan biridir. Kadastr ishlarini olib borish va yuritishda eng asosiy omil bo‘lgan yerning chegarasi, atributiv ma'lumotlar, kommunikasiya tarmoqlari, koordinata tizimi, kartalar masshtabi, yerlarni karta va planlarda aks ettirishda relef tushunchasi, kadastr raqami, raqamli qatlamlar kabi masalalarga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan. Holbuki, ushbu ma'lumotlarsiz kadastr tushunchasini ta'riflab bo‘lmaydi. Tadqiqotda davlat kadastrlarini yaratishning umumiy tamoyillarini aniqlash, ularning rasmiy ta'rifini berish va ular asosida ob'ektlarni hisobga olish uchun kadastr tizimlariga bo‘lgan talablarni ishlab chiqish kabi maqsad va vazifalarini belgilashga imkon beradi. Yer osti kommunikatsiya oqova suvlarini Davlar kadast yogona tizimiga olisimizada Samarqand shaxridagi oqova kanalizatsiya tamoqlarining topografik plan asosida, yer usti va yer osti tarmoqlarni tizimga joylash imkoniyati paydo bo'ladi. Quvurlarning o'lchami, material turi, quvur sig'imi, joylashuv sxemasi va boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Samarqand shaxrida oqova suvlarni planini loyixalashda, geodezik qidiruv ishlarida, loyixani joyga ko‘chirish va montaj xamda ijroviy s'yomka ishlarida geodezik ishlarni tashkillashtirish va ularning aniqliklarini ta'minlash xamda talab etiladigan qidiruv asboblarini tanlash va olingan ma'lumotlar asosida Kadastr yagona tizimiga joylash ishlari amalga oshirilmoqda.

Quvuro‘tkazgich kommunikatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- suvo‘tkazgich - istemolchini ichimlik suvi bilan taminlash tizimidir;
- kanalizatsiya - ifloslangan oqava suvlarni shahar tashqarisiga chiqarish va suvni iflosdan tozalangach suv xavzalariga yo‘naltirish tarmoqlari;
- drenajlar - sizot suvlari satxini kamaytirish tarmoqlari;
- gazo‘tkazgich tarmoqlar - gaz bilan ta'minlash quvur-tarmoq to‘ri;
- issiqlik ta'minoti tarmoqlari - issiqlik energiyasini yashash binolarga, korxona va tashkilotlariga uzatish to‘ri;
- neft o‘tkazgich va benzin o‘tkazgich tarmoqlar - neft olinuvchi joydan va neftni qayta ishlovchi zavodlardan keluvchi va istemolchini yonilg'i bilan ta'minlovchi tarmoqlar to‘ri;
- irmoq va anxor suvlarini yo‘naltiruvchi quvurlar-shahar xo‘jaligi va qurilishida irmoq va anxor suvlarining salbiy ta'sirini kamaytirish yoki suvlarni chetlatish maqsadida yotqizilgan tizim ;

oziq-ovqat o‘tkazgich tarmoqlar va boshqalar. Oziq-ovqat o‘tkazgich tarmoqlari asosan mahalliy xususiyatga ega bo‘lib, asosan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ichida barpo qilinadi.

Shaxar kanalizatsiyasi tarmoqlari yerostidan o'tuvchi quvur tarmoqlaridan iborat bo'lib, u ifloslangan oqova suvlarni shahar tashqarisiga chiqarish va suvni iflosdan tozalangach suv xavzalariga yo'naltirish uchun xizmat kiladi.

Qanday suvni oqova qilish kategoriyasiga qarab kanalizasiya uchta tizimga bo'linadi: umumoqova, ajratilgan va yarim ajratilgan tizimlar.


O'zioqar kanalizasiya tarmog'ida keramikadan, g'ishtdan, temirbetondan yoki asbestosementdan yasalgan quvurlar qo'llanadi. Yer osti quyurlarni

topishimizda 1-rasmdagi kabi qidiruv ishlarini olib borishimiz mumkin.




1-rasm

Kommunikasiya tarmoqlarini bino va inshootlarga, hamda daraxtzorlarga nisbatan joylashtirishda shaharni planlashtirish va qurish qoida va me'yorlariga amal qilinishi kerak. Samarqand shaxar Gagarin ko'chisida oqova suvlarni shaxarda chiqarib yuborish uchun yangidan quvurlar yotqizildi. Ko'chadagi barcha kommunikatsiya tarmoqlari meyoriy talablar asosida joylashtirilgan. 2-rasm




2-rasm Samarqand shahar "Gagarin" ko'chasidagi yangi oqova suv

Yerosti kommunikatsiya tarmoqlarining atributiv ma'lumotlarini yig'ishda davlat kadastrining har bir turi bo'yicha axborotni to'plash va unga ishlov berish ishlarining bajarilishiga asosan shakllantirilishi va ularning nazorat holatida yuritilishi ta'minlanishi zarur. Shaxardagi barcha oqova suv tarmoqlari plan va ro'yxatga olingan. Milliy geografik axborot tizimiga tegishli tematik qatlamlar davlat kadastrlarining har bir turi bo'yicha bazaviy kartografik asosdan foydalanib, obyekt turlari va axborot turlari (ro'yxatdan o'tkazishga oid, hisobga olishga oid, baholashga oid) bo'yicha, ArcGIS dasturiy ta'minotida (*.shp, *.gdb, *.mdb formatlarda) shakllantiriladi. Geografik axborot tizimining bazaviy kartografik asosi 1:200000 masshtabdagi kartaga muvofiq kommunikatsiya tarmoqlarining tematik qatlamlardan tashkil topadi:



3-rasm



4-rasm

Davlat yer kadastri tematik qatlamlarining atributiv ma'lumotlari jadvallari Respublika uchun yagona texnologiya bo'yicha yaratiladi hamda Davlat kadastrlari yagona tizimiga davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha «Kadastr» agentligi tomonidan vakolatli organlari ("Hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr xizmatlari" davlat korxonalari) tomonidan Geodeziya va kartografiya milliy markaziga quyidagi 9.1-shaklda va - yilning har choragida taqdim etiladi:

Binolar va inshootlar **davlat kadastri geografik axborot tizimini kartografik taminlashda** DKYaT GATga tegishli tematik qatlamlarni shakllantirishda vektorli obyektlarning (nuqtalar, chiziqlar va poligonlarning) o'zaro bog'liqligi va yondoshligi ularning fazoviy joylashuvini inobatga olgan holda tasvirlanadi (4-rasm).DKYaT GATga tegishli tematik qatlamlarning atributiv ma'lumotlari davlat tilida yuritiladi. DKYaT GATni yuritish O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimi obyektlari to'g'risidagi tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari Respublika uchun yagona texnologiya bo'yicha yaratiladi (1.1-jadval) hamda Davlat kadastrlari yagona tizimiga davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha vakolatli organlar tomonidan «Kadastr» agentligining Geodeziya va kartografiya milliy markaziga quyidagi shakllantirladi.

1.1-jadval

«Binolar va inshootlar» tematik qatlamining atributiv ma'lumotlari jadvali

T/r	Bino va inshootning kadastr raqami	Obyektning nomi	Joylashgan joyi (pochta manzili)	Yuridik shaxsning nomi yoki fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi	Huquqdagi ulushi (%)	Mulk shakli	Bino, inshootga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar
1	2	3	4	5	6	7	8
188	14:16:03:36:04:0773:004	"Burxonid din Sagirdji maqbarasi"madaniy meros obyekti	Samarqand sh. Registon ko'chasi, 41-uy	Samarqand viloyat madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi	100	Davlat	O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining 1982-yil 1 oktyabrdagi № 663-Q sonli qarori

1.1-jadvalning davomi

Huquq turi	Ro'yxatdan o'tkazish sanasi va raqami	Bino va inshootning umumiy maydoni (qurilish osti), (kv.m)	Bino va inshootning foydali maydoni, (kv.m)	Funksional vazifasi	Qavatlar soni	Bino joylashgan qavati
9	10	11	12	13	14	15
Xo'jalik boshqaruv	18.02.2017-yil№ 263-376-188	2269.1	2269.1	Madaniy meros obyekti-turizm-ekskursiya	1	1

1.1-jadvalning davomi

Muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlanuvi	Ekspluatasiyaga topshirilgan sana (k.o.y)	Jismoniy eskirishi (%)	Kapitalligi	Konstruktiv turi	Zilzilaga bardoshliligi (ball)	Nizoli masalalar	Bino va inshootga bo'lgan huquqning cheklanishi	Bino va inshootning qiymat jihatdan bahosi (ming so'm)	Bino va inshootning baholangan sanasi	Inventar qiymati (so'm)
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
Elektr, suv, oqova	Tarixiy, madaniy meros obyekti	-	-	-	-	-	Samarqand viloyat madaniy meros obyektlar.	-	-	-

Yer osti kommunikatsiya tarmoqlari**,** Binolar va inshootlar» tematik qatlamining atributiv ma'lumotlari jadvalining 16 ustunida joylashgan. Yer osti kommunikatsiya tarmog'i Muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash bandini besh turdagi tarmoqdga oldik 1.2-jadvalda

1.2-jadvat

16. Muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash					
	1	2	3	4	5
№	Suv taminiti	Kanalizatsiya	Gaz tarmog'i	Issiqlik taminoti	Elektr va telefon kabel
1		1.0			

1.2-jadvaldan oqava suv (kanalizatsiya) tarmog'ini tanlab olib o'tkazuv sig'imi bo'yicha 1.3-jadval asosida umumoqova, ajratilgan, yarim ajratilgan tizimlarga bo'linadi.

1.3-jadval

Kanalizatsiya			
	1	2	3
Material turi	umumoqova	ajratilgan	yarim ajratilgan tizimlar

keramikadan			0.5
g'ishtdan			
temirbetondan		1.0	
asbestosementdan	1.0		

Kanalizatsiya tarmog'ini 1.3-jadvalda quvur materiali va diametri aniqlanib ma'lumotlat yoritilib boriladi. Bunda quvurni turi joylashuv o'rni, ko'chaning nomi to'liq yoritilishi kerak.

Yer va bino – inshootlarga bo'lgan huquqlarni va ma'lumotlarni "Ko'chmas mulk 3.1 S" dasturi yordamida DKYaT ma'lumotlari bazasiga kiritamiz. Dasturni ishchi holatga tushirganimizdan so'ng, ekranda hosil bo'lgan menyusida mavjud "Polzovatel:" darchasiga biz uchun berilgan login va "Parol:" darchasiga esa biz uchun berilgan parolni kiritamiz va shundan so'ng ushbu dastur to'liq ravishda ishchi holatga keladi hamda dasturda biz uchun DKYaT ma'lumotlar bazasining online tizimiga ma'lumotlarni kiritish yoki o'zgartirish imkoniyati hosil bo'ladi.

Xulosa. Samarqand shaxridagi oqova kanalizatsiya tamoqlarining topografik plan asosida, yer usti va yer ostiq quvurlarning o'lchami, material turi, quvur sig'imi, joylashuv sxemasi va boshqa ma'lumotlarni yoritish dolzarb masaladir.

Samarqand shaxrida oqova suvlarni planini loyixalashda, geodezik qidiruv ishlarida, geodezik ishlarni tashkillashtirish va ularning aniqliklarini ta'minlash xamda talab etiladigan qidiruv asboblarini tanlash va olingan ma'lumotlar asosida Kadastr yagona tizimiga joylash ishlari amalga oshirilmoqda. Kadastr ishlarini olib borish va yuritishda eng asosiy omil bo'lgan yerning chegarasi, atributiv ma'lumotlar, kommunikasiya tarmoqlari turi, o'lchami va sig'imi, kadastr raqami, raqamli qatlamlar kabi masalalarga yechishga ahamiyat qaratilmagan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. - 128 b.

2. Avchiev S'H. Amaliy geodeziya. Darslik. Voris – nashriyot, 2010 y.

3. Avchiev Sh.K., Toshpo'latov S.A. «Amaliy geodeziya» 1, 2-qism, Toshkent, 2002.

4. Jurakulov D.O., Gulmurodov F.E., Umarov N.Sh., Ibragimov L.T., Raximo U.A Davlat yer kadastri. darslik. «Zamon poligraf» Toshkent. 2024 y. 362 bet.

5. Suyunov A.S. Muhandislik geodeziyasi. Darslik. Innovatsiya nashriyot, 2021y.

6. Juraqulov D.O., Pirnazarov I.M., Niyazov V.R., Urokov O.A. "Kadastr xizmatidagi geodezik ishlar" O'quv qo'llanma: Toshkent: "Fan va texnika"2016.

7. Jurakulov D.O., Rasulov B.B., Gulmurodov F.E., Yarkulov Z.R. Ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati va hisobi. Darslik. 2023 y. 373 bet.

8. Qodirov A. "Er osti kommunikatsiyalarini planga olish". Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2010.

9. Mirmaxmudov E.R., Abdullaev T.M.,Fozilova D.Sh. GNSYT. Toshkent, O'zMU, 2016 y.

QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI LOYIHALASHNING AVTOMATLASHGAN TIZIMI VA UNING YER TUZISHDAGI O'RNI

Tuxtamishev Sh.Sh., Berdikulov U.A.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jalik yerlarini loyihalashda avtomatlashtirilgan tizimlarning ahamiyati, vazifalari va ularning yer tuzish jarayonidagi o'rni keng muhokama qilinadi. Aholi sonining doimiy o'sishi va resurslarning cheklanganligi tufayli, qishloq xo'jalik mahsulotlarini intensiv ishlab chiqarishni tashkil etish zaruriyati ortib bormoqda. Bu maqsadga erishish uchun yer tuzishni avtomatlashtirish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Loyihalash, modellash, matematik dasturlash, avtomatlashtirish, kartografik, tarmoqli loyihalash, optimal strategiya.

Respublikada aholi sonining to'xtovsiz o'sib borishi oziq ovqat mahsulotlariga va xalq iste'mol mollariga bo'lgan talab-ning doimiy oshib borishiga olib keladi. Bu talabni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni muntazam ko'paytirib borish, ularning sifatini yaxshilash va turlarini ko'paytirish evaziga qondirish mumkin. Agar respublikamizda qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalari bo'lgan yer va suv resurslarining cheklanganligini hisobga olsak, qishloq xo'jalik mahsulotlarini muntazam ko'paytirib borishning yagona yo'li qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish va uni industrial asosga o'tkazish bo'lib qoladi. Yerdan samarali foydalanishni tashkil qilish, tuproq unumdorligini doimiy oshirib borish, dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratish, yerni va atrof muhitni qo'riqlash hozirgi vaqtda yer tuzishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ma’lumki, yer va suv qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalari bo‘lishi bilan bir qatorda ulardan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari ham bor. Ishlab chiqariladigan mahsulotning miqdori, sifati va tannarxi asosan qishloq xo‘jalik korxonasidagi yerning maydoniga, unumdorligiga, yer turlari tarkibiga, shakliga, yo‘l va tashqi aloqa manzillariga nisbatan joylashgan o‘rniga bog‘liq. Shuning uchun ham, yer tuzish loyihalari qishloq xo‘jalik korxonalari hududlarining tashkil topishida, tartibga solinishida va takomillashishida juda katta ahamiyatga ega[1].

Yer tuzish jarayoning asosiy bo‘g‘ini yer tuzishni loyihalash hisoblanib, uning asosiy maqsadi yerdan foydalanishda, yerlarni berish va qaytarib olish, sotish-olishda ulardan samarali foydalanishni tashkil etish va muhofazalashda tartib o‘rnatishdan iborat bo‘lib, bunga quyidagi yer tuzish ishlarini bajarish orqali erishiladi:

- tuman yer tuzish chizmalaridagi istiqbolga mo‘ljallangan va loyiha oldi hisoblashlari;
- xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihalarini ishlash;
- yer tuzish tadbirlarini amalga oshirish uchun ishlanadigan ishchi loyihalarni tayyorlash;
- loyihalarni joyiga ko‘chirish va ularning amalga oshirilishi ustidan mualliflik nazorati.

Respublikamiz mustaqillikka erishib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘yicha iqtisodiy islohotlarni boshlab yuborishi bilan bog‘liq agrar sohada yuz berayotgan o‘zgarishlar, yer tuzish ishlari hajmini keskin oshirib yubordi. Bu davrda yer tuzishning axborot ta’minoti o‘sishi uning sifat jihatdan takomillashishi zaruratini keltirib chiqardi. Yer tuzish bilan bog‘liq loyiha qidiruv ishlarining hajmi ham yangi tashkil bo‘layotgan va qayta tuzilayotgan xo‘jaliklar, fuqarolarga va boshqa maqsadlar uchun yer ajratish loyihalarini ishlash hisobiga keskin oshdi.

Mavjud an’anaviy usullar va vositalar bilan ishlayotgan yer tuzish xizmati bu vazifalarni tez bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmay qoldi. Loyihalash ishlarini tezlashtirish zaruriyati bir tomondan, yer tuzuvchi plan — xarita, yer kadastri me’yoriy va boshqa ma’lumotlarni olish, ularni tahlil qilish va loyihalashda foydalanish vaqtidan to joylarda yer ajratish va yerga bo‘lgan egalik qilish yoki foydalanish huquqlarini tasdiqlovchi yer tuzish hujjatlarini berishgacha bo‘lgan vaqtni keskin qisqartirishni talab etsa, ikkinchi tomondan, yer tuzish ishlarining sifatiga, yerni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha optimal yechimlarni topishga qo‘yiladigan talabni oshiradi.

Loyihalash bilan bog‘liq masalalarni yechish katta hajmdagi xo‘jalikni miqdor va sifat jihatidan tavsiflovchi, hamda baho va huquqiy ma’lumotlarni o‘rganish dinamikasini tahlil qilish, yer monitoringini olib borish, iqtisodiy, ekologik va boshqa vaziyatlarni modellashtirish bilan bog‘liq. Shu maqsadda turli xil usullardan foydalaniladi:

- iqtisodiy-matematik modellash;
- tarmoqli loyihalash;
- matematik dasturlash;
- o‘yinlar nazariyasi,
- optimal strategiyani tanlash usullari va boshqalar.

Ulardan foydalanish uchun yer tuzish muammolarini, boshlang‘ich va me’yoriy ma’lumotlarni, yer tuzish masalalarini qo‘yishga noan’anaviy yondashuvni, ilmiy asosda tashkil etishni chuqur o‘rganish zarur[2].

Yer tuzuvchining ish unumdorligini oshirish va loyiha-qidiruv ishlarining sifatini yaxshilash, faqat yangi informatsion texnologiyalar, yer tuzish ishlarini kompyuter texnikasidan va zamonaviy dasturiy ta’minotdan foydalanish asosidagina mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, faqat ekspertlarning bahosiga asoslangan an’anaviy usullardan farqli ravishda rejalash, hisobga olish, tahlil qilish va loyihalash masalalarining yangi darajadagi kompleks yechimini olish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar loyihani ishlash muddatini qisqartirish, loyihalarning sifatini yuqori ko‘tarish, loyihachilar ishini yengillatish, ularni zerikarli yarim mexanik tarzdagi ishlardan qutqarish, imkoniyatlarini loyihaning ijodiy qismiga ko‘proq qaratish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari zamonaviy kompyuter texnikasi nafaqat texnik-iqtisodiy masalalarni sifatliroq yechish, balki iqtisodiy-matematik usullar va modellardan yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha tadbirlarni bashoratlash, rejalash va loyihalashda erkin foydalanish imkonini yaratadi.


Iqtisodiy-matematik usullar loyihalash texnologiyalariga kiritilsa va kompyuterlarda yechilsa, loyihaviy yechimlarda subyektivizmdan saqlanish bilan bir qatorda ko‘p variantli yechimlarni tahlil qilish va optimal yechimni topish imkonini beradi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishda va ilmiy izlanishlarda avtomatlashtirish vositalaridan va kompyuter texnologiyalaridan, turli xil dasturiy mahsulotlardan foydalanish odatiy tusga kirmoqda. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yer tuzishda avtomatlashgan tizimlar, faqat rejalash, hisob, tahlil, loyihalash va tartibga solish masalalari birgalikda (ma’lumotlarni yig‘ishdan yechimni olishgacha) yechilsagina, yaxshi samara beradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi faoliyati yagona kompleks matematik model bilan ifodalanishi va uning asosida xususiy modellar ishlanishi, yer tuzishni loyihalash masalalari qo‘yilishi va yechilishi kerak. Bunga esa o‘z navbatida, loyihaviy yechimlarni asoslashga tizimli yondashuv yordamida erishiladi [1].

Murakkab tizimlarni yaratish va foydalanish hamda ularni avtomatlashtirish nazariyasidan kelib chiqib, prof.S.N.Volkov yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimiga quyidagi ta’rifni bergan: “Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi- bu loyiha tashkiloti bo‘limlari bilan o‘zaro bog‘liq holda, loyihalash ishlarini avtomatik tartibda EHM larda bajaradigan, loyihalashni avtomatlashtirish vositalari majmuidan iborat tashkiliy-texnik tizimdir”. U optimallash masalalarini modellashtirish va yechish asosida ko‘p yechimli

loyihalash usullaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hisobiga, yer tuzishdagi loyiha-qidiruv ishlari sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat sarfini kamaytirish va loyihalash muddatini qisqartirishga qaratilgan.

Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi tarkibiga quyidagilardan iborat bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi tarkibi/

Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimidan foydalanish personal EHM larda yoki ularning lokal tarmoqlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda kompyuterlarga ulanadigan qo‘shimcha qurilmalardan (digitayzer, plotter, skaner va boshqalar.) foydalaniladi. Bu tizimning birlamchi elementi — yer tuzuvchi-loyihachining avtomatlashtirilgan ishchi o‘rni hisoblanadi.

Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimini yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, yerlardan oqilona foydanish va ularni muhofaza qilish masalalarini, loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish hisobiga qabul qilinadigan yechimlarni olishning tezkorligini oshirish, ular sifatini yaxshilash va mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradigan, sifat jihatdan yuqori darajada ma’lumotlarni olish, tahlil qilish va optimallashtirish texnologiyalarini qo‘llash hisobiga, yechishdan iborat.

Avtomatlashgan tizimga o‘tkazish obyekti sifatida yer tuzishni loyihalash jarayonlari, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, loyihaviy yechimlarni asoslash, loyihaviy hujjatlarni shakllantirish masalalari qabul qilingan.

Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi yer tuzish bo‘yicha loyiha-qidiruv tashkilotlarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni ta’minlashga, loyihaviy hisoblashlarni avtomatlashtirishga, xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihalarini va ishchi loyihalarni tuzish hamda loyihalarning hayotga tatbiq etilishi ustidan mualliflik nazoratini amalga oshirishga, qabul qilingan yechimlarning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimini amaliy yaratishda yer – ishlab chiqarish—aholi—ekologiya tizimidagi o‘zaro bog‘liqlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va o‘zaro aloqalar tizimini to‘g‘ri belgilash hamda yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi qo‘shni yoki funksional bog‘langan yuqori darajadagi boshqa avtomatlashgan tizimlar bilan aloqalarini hisobga olish zarur.

Yer tuzish juda murakkab jarayon bo‘lib, yer tuzish loyihalari doimiy o‘zgarib turuvchi: ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, yerlardan oqilona, samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq juda ko‘p yozma va chizma hujjatlardan iborat bo‘ladi. Shu sababli, yer tuzishni loyihalash bir martalik yoki davriy harakat bo‘lmay, balki, loyihani ishlash, takomillashtirish va amalga oshirish bilan bog‘liq to‘xtovsiz jarayondir. Demak yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi ham yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni tashkil etish jarayonini tartibga soluvchi umumiy davlat tizimi bilan ajralmas bog‘langan doimiy harakatdagi va rivojlanishdagi avtomatlashgan tizim sifatida tashkil etilishi kerak.

Yer tuzishni loyihalash jarayonining yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, u juda murakkab bo‘lib, unda ko‘p raqamli muqobil yechimlarni, o‘zaro aloqalarni miqdor va sifat jihatdan hisobga olishga to‘g‘ri keladi. O‘zaro sifatiy aloqalarni raqamli ta’riflash qiyin bo‘lganligi sababli, yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi inson -mashina tizimi shaklida yaratilishi maqsadga muvofiq. Bu tizimda sifatiy (raqamlarda ifodalash mumkin bo‘lmagan) ma’lumotlarni tayyorlash va yechimni qabul qilish jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori malakali mutaxassis tomonidan, raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, yangilash va berish, hisoblash operatsiyalarining mos texnik vositalaridan foydalanilgan holda, kompyuter dasturlari yordamida bajarilishi kerak[4].

Yer tuzish loyihalarini ishlash, yer tuzish ishlarining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Undan tashqari bu tarkibga quyidagilar ham kiradi:


- davlat yer kadastri, monitoringi va yerlarni baholash ishlarini olib borish. Ularning ma’lumotlari yer resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda axborot asosi sifatida xizmat qiladi;
- plan-xarita materiallarini yaratish va yangilash, yer tuzish va yer kadastri ishlarini bajarish uchun zarur maxsus izlanish va qidiruvlarni o‘tkazish;
- yer tuzish va yer kadastri uchun zarur topografik-geodezik ishlarni bajarish;

- yer resurslaridan foydalanishni rejalash va bashoratlash;
- yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlash va amalga oshirish;
- yer tuzish loyihalari asosida yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish;
- yer munosabatlarini tartibga solishning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari vazifalarini amalga oshirish;
- yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini olib borish.

Yer tuzish xizmatining ishi va unda yaratiladigan avtomatlashtirilgan tizimlarning samaradorligi barcha yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar birgalikda yechilsagina yuqori bo‘ladi[4].

Iqtisodiy islohotlar o‘tkazilayotgan yangi tizimda yer tuzish xizmatining vazifalari doirasi keskin kengaydi. Bu esa o‘z navbatida bir biri bilan aloqador, ko‘p bosqichli tarkibga ega va nafaqat ichki foydalanuvchilar, balki tashqi standart va nostandart so‘rovlar uchun ham ochiq avtomatlashgan tizimlarni yaratish zaruratini tug‘diradi. Bunday avtomatlashgan tizimlar 2-rasmda keltirilgan.

Bu bo‘linishdagi ayrim tizimlar boshqa tizimlar tarkibiga kirishi ham mumkin (masalan TGMIBAT YEKAT tarkibiga kirishi mumkin). Biroq ularning asosiy funksional vazifalari (1-rasm) ularning yuqori tizim tarkibida ham yetarli darajada mustaqil ishlash imkonini beradi. TGMIBAT ma’lumotlarni elektron taxeometrlar, yer yo‘ldoshlari tizimlari, digitayzerlar, skanerlar, an’anaviy usullar va vositalardan foydalanib, aerotasvirgeodezik va yerda tasvirga olish usullari yordamida olishga mo‘ljallangan. Uning yordamida olingan obyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida topografo-geodezik ma’lumotlar banki yaratiladi.



2-rasm. Yer tuzishni loyihalashda avtomatlashgan tizimi bilan bevosita bog‘liq avtomatlashgan tizimlar.

Kartografik ma’lumotlarga ishlov berish tizimi (KMIBAT) kartografik materiallarning raqamli ma’lumotlarga aylantirish va hududning raqamli modelini yaratish, yaratilgan yoki boshqa tizimlardagi hududning raqamli modellaridan kartalarni tuzishda, ularni ko‘paytirishda grafikaviy tahrirlashda foydalanish uchun qo‘llaniladi.

Yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimi (YEKAT) yer uchastkalarining son va sifat tavsiflari bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zida mujassamlaydi va yer hisobini olib borishga, yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni ro‘yxatga olishga, tuproq bonitirovkasini o‘tkazishga, yerlarni baholashga, yerlardan foydalanish ustidan nazoratni olib borishga va davlat organlarini yer munosabatlarini huquqiy tartibga solish, iqtisodiy ta’sir va rag‘batlantirish usullaridan foydalanishlari uchun axborot bilan ta’minlashga qaratilgan.

RETHAT yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni rejalash va bashoratlashga, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasidagi maqsadli davlat dasturlarini ishlashga, yer munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini joriy etishga, standart va nostandart so‘rovlarni ma’lumotlar bilan ta’minlashga qaratilgan.


YTLAT esa yer tuzish masalalarini yechishning asosiy tizimi bo‘lib, u xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzish ishlarini bajarishda, ishchi loyihalarni amalga oshirish ustidan mualliflik nazoratida foydalaniladi.

3-rasmda keltirilgan tizimlar orasidagi aloqalarni va yangi bozor iqtisodiyoti sturlioitidagi yer tuzish ishlari mazmunini tahlil qilish “O‘zbekiston yer resurlarini boshqarish” super tizimining modelini yaratish mumkinligini ko‘rsatadi va ushbu super tizim tarkibida YTLAT ning o‘rnini aniqlaydi.

Yer tuzishni loyihalash ishlari bilan “O‘zdaverloyiha” instituti va uning viloyatlardagi bo‘linmalari shug‘ullanishlarini hisobga olib YTLAT ni ushbu institutda va uning viloyat bo‘linmalarida tashkil etish

maqsadga muvofiqdir [2].

Xulosa: Qishloq xo‘jalik yerlarini loyihalash jarayonini avtomatlashtirish, yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning zaruriyati va imkoniyatini oshiradi. Ushbu avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali loyihalashning tezligi va sifati yaxshilanishiga yordam beradi, loyihachilarning samaradorligini oshiradi va mehnat sarfini kamaytiradi. YTLAT kabi avtomatlashtirilgan tizimlar, yer tuzishni loyihalash jarayonini samarali boshqarish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu tizimlar yer resurslarini boshqarish, ekologik va iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yer tuzish jarayonida ko‘p bosqichli va keng qamrovli ishlarni amalga oshirishda kompleks yechimlarni ta’minlaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlarni yanada keng joriy qilish orqali O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish imkoniyati mavjud.



3-rasm. Yer resurslarini boshqarishda qo‘llaniladigan avtomatlashgan tizimlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. C.Doktor Avezbaev Yer boshqaruvi va qayta tiklangan yerlarni xaritalash. O‘quv qo‘llanmasi. T.: Agrosanoat axboroti, 2000 – 414 s.

2. Avezbayev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002 – 784 b.

3. Abdurakhmonov, S., Ochilov, S., Tukhtamishev, S., Urokov, O., Berdikulov, U., & Azzamov, G. (2024). Cartographic modeling of demographic processes using remote sensing data. In E3S Web of Conferences (Vol. 497, p. 02030). EDP Sciences.

4. Andreas C. Land Information systems.Germany, 2016

5. Usmanovich S.T., Rashitovich S.S., & Adkhamovich B.U. (2022). It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 193-197.

УДК 624.044

ЁҒОЧ ВА ПЛАСТМАССА ҚУРИЛМАЛАРИНИ ЧЕГАРАВИЙ ҲОЛАТЛАР БЎЙИЧА ҲИСОБЛАШ

Убайдуллаев Абдилбасе Сувонқулович
катта ўқитувчи
Саримсоқов Сардор Шойзақович
Жиззах политехника институти

Аннотация: Мақолада, ёғоч қурилмаларни биринчи гуруҳ-чегаравий ва иккинчи гуруҳ чегара ҳолатидаги хисоб ишлари хақида маьлумотлар келтирилиб ўтилган. Ёғоч қурилмаларни ҳисоблаш учун юкларни аниқлаш ва юкларни аниқлашда қўлланиладиган ишончлилик коэффицентлари хақида маьлумотлар келтирилиб ўтилган.

Калит сўзлар: чегаравий ҳолат; ишончлилик коэффицентлари; норматив юк; ҳисобий юк; лаборатория; ҳисобий қаршилиги.

Аннотация: В статье приведены сведения о расчетах деревянных устройств в первой группе предельных и второй группе предельных состояний. Представлены данные по определению нагрузки и коэффициенты надежности, используемые при определении нагрузки для расчета деревянных устройств.

Ключевые слова: предельное состояние; коэффициенты надежности; нормативное бремя; расчетное нагрузка; лаборатория; расчетное сопротивление .

Кириш. Ёғоч қурилмалар Қурилиш меъёрий қоидалари ҚМҚ 2.03.08-98 «Ёғоч конструкциялари»га асосан икки чегаравий ҳолатлар бўйича ҳисобланади.

Чегаравий ҳолат бу шундай ҳолатки, қурилмалар бу ҳолатга етганда уларга қўйилган талабларни қоноатлантирмай қолади ва уларни кейинчалик ишлатилиши мумкин бўлмай қолади. Бу ҳолатга келтирувчи сабаб, ташқи юк ва ички кучланишлардир.

Биринчи гуруҳ-чегаравий ҳолати қурилмаларнинг юк кўтариш қобилиятини йўқотиши ва кейинчалик ишлатилиши мумкин бўлмаслигидир. Биринчи гуруҳ - чегаравий ҳолатида қурилмалар ҳисобий юкларга ҳисобланади. Бу ҳолат қурилмаларнинг турғунлигини йўқотиши, йиқилиши ва ағдарилиши кўринишида намаён бўлади.

Мустаҳкамликли шарти қўйидаги кўринишда бўлади.

$$\sigma, \tau \le R_c, R_ч, R_э, R_ё \qquad (1)$$

бу урда σ ва τ – нормал ва урунма кучланишлар; R_c, $R_ч$, $R_э$, $R_ё$ мос равишда ёғочнинг сиқилиш, чўзилиш, эгилиш ва ёрилишга бўлган қаршиликлари.

Демак, қурилмаларнинг кесим юзасидаги нормал ва уринма кучланиш материал учун нормада берилган ҳисобий қаршиликдан кичик ёки тенг бўлиши керак.

Иккинчи гуруҳ чегара ҳолатида норматив юкдан пайдо бўладиган деформация ва кўчиш қурилма учун берилган нормадаги қийматдан кичик ёки тенг бўлиши керак. Бу шарт қўйидагича ифодаланади.

$$f \le [f]; \quad \frac{f}{l} \le \left[\frac{f}{l}\right] \qquad (2)$$

бу ерда l – равоқ оралиғи; f – нисбий эгилиш.

Демак, салқиликнинг равоқ оралиғига нисбати қурилмаларда турлича бўлади. Масалан, сарровлар учун 1/200, тўсинлар учун 1/300 панжаралар учун эса 1/300 га тенгдир.Қурилмаларни ҳисоблаш учун юкларни аниқлаш.

Ёғоч қурилмалар ҳам бошқа қурилиш қурилмалари қатори "Қурилиш меъёрий қоидалари"га асосан, яъни доимий (q), ўз оғирлигидан ($q_{ўз}$), қор оғирлигидан ($p_к$), шамол таъсиридан (w) ва бундан ташқари одамлар ҳамда ускуналар оғирлигидан пайдо бўладиган юкларни эътиборга олган ҳолда ҳисобланади. Юкларнинг асосини норматив қиймат ташкил қилади ($q^н$). Ҳисобий юк эса икки қисмдан иборат бўлиб норматив юкка нисбатан ортиқча юкланиш коэффицентини (n) кўпайтириб аниқланади.

$$q_х = q^н \cdot n, \qquad (3)$$

бу ерда: $q_х$ ва – ҳисобий ва меъёрий юк; n – ортиқча юланиш коэффициенти.

Норматив юкларнинг қиймати аниқланиб, шу асосда қурилмаларнинг ўз оғирлиги аниқланади.

$$Q_{ўз.оғ.} = q^н + p_к^н /1000 \cdot \gamma_{ўз} \cdot l, \qquad (4)$$

бу ерда: $\gamma_{ўз}$ – ўз оғирлигини эътиборга олувчи коэффицент.

Ҳисобий юкларни аниқлашда қўлланиладиган ишончлилик (мустаҳкамлик) коэффицентининг қиймати нормага асосан қўйидагича бўлади, яъни ўз оғирлигини эътиборга олувчи юк учун $\gamma = 1.1$, иситгич материал ва том ёпмаси юки учун $\gamma = 1{,}3$ га тенг.

Норматив қор юки $[p^н]$ эса қор тўшамининг норматив қийматига боғлиқ бўлиб (p_0), бу қурилиш ҳудудини ва томнинг қиялигини эътиборга олувчи коэффицентга (μ) кўпайтириб топилади.

Демак, $p_к^н = p_0 \cdot \mu$ га тенг. Агар том қиялиги $\alpha=25^0$ бўлса, μ = 1 га, α=0 га, 60>α>25 бўлса, μ = 60 – α/360 га тенг бўлади.

Ҳисобий қор юки ҳам юкнинг норматив қийматига мустаҳкамлик коэффицентини кўпайтириб аниқланади. Ёғоч ва пластмасса қурилмалар учун агар норматив доимий юкнинг (q^n), қор юкининг норматив қийматига (p^n) нисбати q^n/p^n = 0,8 га тенг бўлса, γ = 1,6 га тенг бўлади. Бундан катта нисбатларда эса γ = 1,4 га тенгдир.

Ҳисоблашда одам оғирлигидан (одам ва у кўтарган осбоб ускуналар билан) пайдо бўладиган юкларнинг норматив ва ҳисобий қийматлари қўйидагича бўлади.

q^n = 0,1 кН ёки 100 кг;

$q_x = q^n \cdot \gamma = 0{,}1 \cdot 1{,}2 = 0{,}12$ кН ёки 120 кг;

бу ерда γ = 1,2 мустаҳкамлик коэффициенти.

Шамол юки актив (w_+^n) ва пассив (w_-^n) босимлардан иборат бўлади. Шамол юкининг ҳисобий қиймати (w^n)шамолнинг норматив юкига иморатнинг бадандигини эътиборга олувчи k коэффицентга ва уни шаклини эътиборга олувчи c коэффицентига кўпайтириб аниқланади. Агар иморатнинг баланлиги 10 м. гача бўлса k = 1 га тенг бўлади. Шундай қилиб $w^n = w \cdot c$ га тенг. Ҳисобий шамол юки эса $w = w^n \cdot \gamma$ га тенг.

Ёғоч материалларнинг норматив қаршилиги (МПа) уларнинг асосий кўрсаткичларидан бири бўлиб, кичик лаборатория намуналарини қисқа муддатли юклар таъсирига синаш натижасида аниқланади. Текширишда лаборатория нусхаларининг намлиги 12% га келтирилади.

Демак, $R^n = R_в^{ур} \cdot (1 - 2{,}25 \cdot G_\sigma)$ (5)

бу ерда G_σ – кўрсаткичларни ўзгаришини эътиборга олувчи коэффицент.

Ёғочнинг ҳисобий қаршилиги (R) эса унинг норматив қийматига юкнинг таъсир муддатини эътиборга олувчи коэффицентга (m_g) кўпайтириб, материалнинг ишончлилик коэффицентига бўлиб топилади.

$$R = R^n \cdot \frac{m_g}{\gamma} \qquad (6)$$

бу ерда γ = коэффициетнинг қиймати бирдан катта бўлади ва материалларнинг таркибидаги нуқсонлар таъсирида мустаҳкамликни камайишини эътиборга олади. Масалан: қарағай ёки қора қарағайнинг (II тоифали) сиқилишдаги ҳисобий қаршилиги қўйидагича бўлади.

$$R = R^n \cdot \frac{m_g}{\gamma} = 0{,}25 \cdot \frac{0{,}66}{1{,}25} = 13 \text{ МПа} \qquad (7)$$

Пластмасса ва фанера материалларининг ҳам норматив ва ҳисобий қаршиликлари ҳам худди шу тартибда аниқланади. Ёғочнинг сиқилишдаги ҳисобий қаршилиги R = 13 МПа бўлса, фанера учун эса бу қиймат $R_ф$ = 12 МПа га тенг бўлади. Ёғоч конструкцияларни ҳисоблашда юк бўйича ишончлилик коэффициентларни қўллаш мухим хисобланади.

Адабиётлар

1. Қосимов Т.К. Ёғоч ва пластмасса конструкциялари. Ўқув қўлланма Самарқанд – 2018 й
2. Закон Республики Узбекистан "Об архитектуре и градостроительстве" Ташкент 22 декабря 1995г.
3. Sarimsoqov S.SH. Yog'ochning sirpanuvchanlik naz-ariyasiga asosan kuchlanish deformatsiya va vaqt o'rtasidagi bog'lanish. 292-295 bet. Zamonaviy qurilish sohasida ta'lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
4. Sarimsoqov S.SH. Qurilish hududini seysmik ray-onlashtirish. 112-114 bet. . Zamonaviy qurilish sohasida ta'lim, ilm va inovatsiya: xalqaro ilmiy-texnik anjumani; Toshkent arxitektura qurilish universiteti.
5. R.D. Xamroqulov. S.SH.Sarimsoqov .Noyob va baland binolarning zilzilabardoshligi. Jizzax. O'quv qo'llanma 2023.
6. Махматқулов Т. Ёғоч конструкциялари.//Дарслик Тошкент (SAHHOF) .

SAMARQAND VILOYATIDA "CORS" STANSIYALARINING OPTIMAL SONINI ANIQLASH HAMDA ULARNING QAMROV HUDUDINI KENGAYTIRISH UCHUN MATEMATIK MODEL ISH-LAB CHIQISH

Urakov.O.A, Azzamov.G'.X

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье анализируется начальная формула для определения оптимального числа CORS станций и ее ограничения. Затем вводится усовершенствованная формула, учитывающая сложность рельефа, плотность населения и другие факторы. Эта формула обеспечивает эффективное покрытие, принимая во внимание плотность населения и сложность рельефа. Для обеспечения полного охвата территории также представлены методы математического моделирования, такие как диаграммы Вороного и триангуляция Делоне. Эти подходы повышают эффективность определения оптимального числа и расположения CORS станций.

Ключевые слова: CORS станции, математическая модель, оптимальное число, GNSS, зона покрытия, сложность рельефа, плотность населения, геодезические измерения, диаграммы Вороного, триангуляция Делоне, навигация, сельское хозяйство, строительство, транспорт.

Annotation: This article analyzes the initial formula for determining the optimal number of CORS stations and its limitations. Then, an improved formula is introduced, which takes into account terrain complexity, population density, and other factors. This formula ensures effective coverage by considering population density and terrain complexity. To ensure comprehensive coverage of the area, mathematical modeling methods such as Voronoi diagrams and Delaunay triangulation are also presented. These approaches enhance the efficiency of determining the optimal number and placement of CORS stations.

Keywords: CORS stations, mathematical model, optimal number, GNSS, coverage area, terrain complexity, population density, geodetic measurements, Voronoi diagrams, Delaunay triangulation, navigation, agriculture, construction, transportation.

Samarqand viloyatida CORS (Continuously Operating Reference Stations) stansiyalarining optimal sonini aniqlash va ularning qamrov hududini kengaytirish uchun matematik model ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon yuqori aniqlikdagi geodeziya o‘lchovlarini ta’minlash, navigatsiya tizimlarini takomillashtirish va turli sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi, qurilish va transport sohasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

CORS stansiyalari doimiy ishlovchi tayanch nuqtalari bo‘lib, ular GNSS (Global Navigation Satellite System) signallarini qabul qiladi va real vaqt rejimida yoki keyingi ishlov berish uchun tuzatish ma’lumotlarini uzatadi. Bu tuzatishlar ionosfera va troposfera kechikishlari, sun’iy yo‘ldosh orbitasi xatolari va boshqa omillarni hisobga olib, aniqlikni oshiradi.


CORS stansiyalarining optimal sonini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

1. Geografik xususiyatlar: Joyning relyefi, tog‘lar, vodiylar va boshqa tabiiy to‘siqlar signallarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadi.


2. Aholi zichligi va infratuzilma: Aholi zich joylashgan hududlarda yuqori aniqlikdagi xizmatlarga talab yuqori bo‘lishi mumkin.

3. Iqtisodiy faoliyat: Qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport sohalaridagi faoliyatlar CORS xizmatlariga ehtiyojni belgilaydi.


Optimal joylashuvni aniqlashda matematik modellashtirish usullari qo‘llaniladi. Bu jarayonda Voronoy diagrammalari, Delaunay uchburchaklashuvi va qamrov tahlili kabi metodlardan foydalaniladi. Shuningdek, signal tarqalishi va to‘siqlarni hisobga oluvchi radio to‘lqin tarqalishi modellari ham e’tiborga olinadi.



1-rasm Voronoy diagrammasi



2-rasm Voronoy diagrammasi



3-rasm Delaunay uchburchaklari

CORS stansiyalarining qamrovni kengaytirish uchun qo‘shimcha stansiyalarni haraktiri murakkab bo‘lgan joylarga o‘rnatish zarur. Bu jarayonda mavjud infratuzilma, elektr ta’minoti va telekommunikatsiya imkoniyatlari hisobga olinadi.

Samarqand viloyatida CORS stansiyalarining aniq sonini va optimal joylashuvini aniqlash va qamrov hududini kengaytirish uchun Samarqand viloyatining hududiy kattaligidan kelib chiqqan holda CORS stansiyalarini joylashtirishni matematik modeli qo‘llangan. Bu usul yuqori aniqlikdagi geodeziya va navigatsiya xizmatlarini ta’minlashga, shuningdek, turli sohalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy CORS (Continuously Operating Reference Stations) stansiyalari odatda taxminan 50-100 km radiusda ishonchli aloqa tarqatadi. Biroq, bu radius turli omillarga, masalan, yerning relyefi, ob-havo sharoitlari, stansiya jihozlarining quvvati va foydalanilayotgan aloqa tizimiga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin. Optimal sharoitlarda ba'zi CORS stansiyalari bundan uzoq masofalarda ham aloqa ta'minlashi mumkin, lekin aniqlik past bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Relyefi murakkab bo‘lgan joylarda, masalan, tog‘li yoki tepaliklar bilan o‘ralgan hududlarda CORS stansiyalarining qamrovini ta'minlash uchun ular orasidagi masofa qancha bo‘lishi kerak?

Relyefi murakkab bo‘lgan joylarda, masalan, tog‘li yoki tepaliklar bilan o‘ralgan hududlarda CORS stansiyalarining qamrovini ta'minlash uchun ular orasidagi masofani qisqartirish tavsiya etiladi. Bunday joylarda stansiyalar orasidagi masofa odatda 20-30 km atrofida bo‘lishi kerak.

Murakkab relyef GPS/GNSS signalini to‘sib qo‘yishi mumkin, shuning uchun qamrovni yaxshilash uchun CORS stansiyalarini nisbatan baland va ochiq joylarga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, qo‘shimcha stansiyalar o‘rnatish orqali signal uzluksizligini ta'minlash va aniqlikni oshirish mumkin.

Agar mavjud bo‘lgan sharoitlar to‘liq tahlil qilinmasa, aniq masofani belgilash qiyin bo‘lishi mumkin, lekin yuqorida keltirilgan masofa murakkab relyefli joylar uchun o‘rtacha tavsiya etiladi.

Samarqand viloyatida CORS stansiyalarining aniq soni va optimal joylashuvini aniqlash uchun formula ishlab chiqish

CORS stansiyalarining sonini aniq hisoblash va hududni samarali qamrab olish masalasi, ayniqsa keng va murakkab relyefli hududlarda, o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Samarqand viloyati misolida bu jarayon yanada dolzarb, chunki hududda tog‘li va tekisliklar birgalikda uchraydi. Bu holatda CORS stansiyalarini joylashtirishda oddiy formulalar yetarli natijani bermaydi va yanada mukammal yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, avval oddiy formulani va keyin takomillashtirilgan formulani tahlil qilib chiqamiz.

Dastlabki hisob ishlari

Stansiyalar sonini dastlabki hisoblash uchun eng oddiy formuladan foydalaniladi:

$$N = \frac{L \cdot W}{(2R - O)^2}$$

Bu yerda:

- **L** va **W** — hududning uzunligi va kengligi,
- **R** — har bir stansiyaning qamrov radiusi,
- **O** — stansiyalar orasidagi qoplanish masofas

Ushbu formula stansiyalarni joylashtirishda hududni to‘liq qamrab olish uchun yetarli miqdorda stansiya sonini hisoblashga yordam bersa-da, relyefning murakkabligi, aholi zichligi va qoplanish masofasi kabi omillarni hisobga olmaydi. Samarqand viloyati kabi geografik jihatdan relyefi murakkab va aholi soni zich joylashgan hududlarda bunday yondashuv o‘zini oqlamaydi. Oddiy formula orqali olingan natijalar dastlabki bosqichda foydali bo‘lishi mumkin, ammo aniq va optimal stansiyalar sonini belgilash uchun bu natijalar ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi va yanada to‘liq yondashuvni talab qiladi.

Takomillashtirilgan formula

Bu muammoni bartaraf etish va natijalarni aniqroq qilish uchun quyidagi takomillashtirilgan formula ishlab chiqilgan:

$$N = \frac{L \cdot W \cdot D}{\pi(R_{qam} - C_{qop})^2 \cdot K_{\text{mur}}}$$

- **L va W** — hududning uzunligi va kengligi,
- **D** — aholi zichligi koeffitsiyenti, hududning qaysi qismida stansiyalarga ko‘proq ehtiyoj borligini ko‘rsatadi,
- R_{qam}— har bir stansiyaning samarali qamrov radiusi, bu oddiy qamrov radiusidan farq qilib, haqiqiy qamrovni hisobga oladi,
- C_{qop}— stansiyalar orasidagi o‘zaro qoplanish masofasi, bu qoplanish zonasining qanchalik kengligini ko‘rsatadi,
- K_{mur} — relyef murakkabligi koeffitsiyenti, hududning tog‘li yoki tekislik bo‘lishini hisobga oladi va stansiyalarning qamroviga ta’sir etadi.

Takomillashtirilgan formulaning afzalliklari

Takomillashtirilgan formula oddiy formuladan farqli o‘laroq, hududni to‘liq va samarali qamrab olish uchun stansiyalar sonini yanada aniq hisoblaydi. Bu yondashuv:

1. Aholi zichligini hisobga oladi — shahar markazlari kabi zich aholi yashaydigan hududlarda stansiyalar ko‘proq kerak bo‘lishi mumkin.

2. Relyef murakkabligini hisobga oladi — tog‘li va notekis hududlarda stansiyalarning qamrov radiusi cheklangan bo‘lishi mumkin, bu esa stansiyalarning o‘zaro aloqasini qiyinlashtiradi.

3.Qoplanish masofasini inobatga oladi — stansiyalar orasidagi qoplanish masofasi aniqlik va ishonchlilikni oshirish uchun optimallashtiriladi.

Xulosa. Samarqand viloyatida CORS stansiyalarining aniq sonini aniqlash va ularni samarali joylashtirish yuqori aniqlikdagi geodezik va navigatsiya xizmatlarini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Oddiy formula dastlabki hisob-kitoblar uchun foydali bo‘lishiga qaramay, relyefi murakkab va aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlar uchun yetarli emas. Shu sababli takomillashtirilgan formula ishlab chiqilgan bo‘lib, bu formula aholi zichligi, relyef murakkabligi va stansiyalar orasidagi qoplanish masofasini hisobga oladi. Takomillashtirilgan yondashuv Samarqand viloyati kabi giografik jihatdan murakkab bo‘lgan hududlar uchun CORS stansiyalarining aniq va samarali joylashuvini aniqlashga imkon beradi. Ushbu matematik model hududni to‘liq va ishonchli qamrab olishni ta’minlashga yordam beradi, bu esa turli sohalarda samaradorlikni oshiradi va ishonchli geodezik ma’lumotlar yig‘ishga zamin yaratadi.

Maqolada keltirilgan yondashuv va hisob-kitoblar CORS stansiyalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish strategiyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin. Shu orqali, Samarqand viloyatida yuqori aniqlikdagi va ishonchli geodezik ma’lumotlar ta’minlanadi, bu esa infratuzilma va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Kaplan, E. D., & Hegarty, C. J. (2017). Understanding GPS/GNSS: Principles and Applications. Artech House.

2. Hofmann-Wellenhof, B., Lichtenegger, H., & Wasle, E. (2008). GNSS – Global Navigation Satellite Systems: GPS, GLONASS, Galileo, and more. Springer-Verlag.

3. Okabe, A., Boots, B., Sugihara, K., & Chiu, S. N. (2000). Spatial Tessellations: Concepts and Applications of Voronoi Diagrams. John Wiley & Sons.

4. Leick, A., Rapoport, L., & Tatarnikov, D. (2015). GPS Satellite Surveying. John Wiley & Sons. — CORS stansiyalari va GPS o‘lchovlarining yuqori aniqligini ta’minlash haqida.

5. Suyunov A.S., Mirzaev A.A.,Urakov O.A., Mullodjanova G.M. The results of

6. the analysis of the accuracy of the permanent satellite state geodetic network in the Republic of Uzbekistan//Proceedings of SPIE – The International Society for Optical Engineering 12564, 2nd International Conference on Computer Applications for Management and Sustainable Development of Production and Industry (CMSD-II-2022), 125640Y (5 January 2023); doi: 10.1117/12.2669919

UDK 62

DEVORLARI GOFIRLANGAN METALL TO‘SIQLARNING ISHLASHINI O‘RGANISH SHARHI

Usmanov Baxodir
Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti *dotsenti*
Sanayeva Nargiza Payzullayevna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti *(PhD) dotsenti*
Almardanov Shaxzod Mengkobilovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti *o‘qituvchisi*

Annotasiya. Gofrlangan devorli to‘sinlar birinchi bo‘lib kemasozlikda undan keyin qurilish sohasigacha kirib keldi. Ayni paytda bunday to‘sinlar qurilish firmalarida, turli bino va inshootlarni qurishda katta rol uynaydi.

Natijada, olib borilgan tadqiqotlar asosida gofrlangan devorli to‘sinlar ta’sir etuvchi yuklarni ancha samarali qabul qilishi hamda yassi devorli to‘sinlarga nisbatan tejamli ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: metall, profil, bino, inshoot, qurilish, loyiha, konstruksiya, texnologiya, to‘sin, to‘sin devori.


Metall konstruksiyalarni loyihalashda va qurilishda ekspluatatsiya sharoitlari; ishonchliligi; yengilligi; metall samaradorligi; texnologik hamda chidamliligi hisobga olinishi kerak. Bu talablarning barchasi fan va amaliyot tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash tamoyillari va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari asosida olib boriladi. Metall konstruksiyalarni loyihalashda quyidagi ko‘rsatkichlarga javob berishi kerak: ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, mehnat sarfi va montaj muddatlarini kamaytirish, bu esa konstruksiya qiymatini belgilaydi. To‘sinlarda po‘lat sarfini kamaytirishga to‘sinlarni oldindan tortqilar yoki shprengellardan foydalanish yordam beradi. Metall sarfini kamaytirish uchun eguvchi moment epyurasining shakliga muvofiq, to‘sin kesimining uzunligi bo‘yicha o‘zgarishini hisobga olish samara beradi. Devorning egiluvchanligini oshirish bilan bir vaqtda mahalliy turg‘unlikni oshirish uchun, to‘sinlarning qo‘sh tavrli kesimlari devorlarini oldindan zo‘riqtirishlishi olib borilgan tadqiqotlardan mu’lum edi.

Bundan tashqari, to‘sin devorining qalinligini kamaytirish orqali po‘latni sezilarli darajada tejashga erishiladigan to‘sinlarning konstruktiv yechimini yana bir takomillashtirishni xozirgi tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqamiz. Bular gofrlangan devorli to‘sinlar deb ataladi. To‘sin dyevorning qalinligi to‘sin balandiligi va ko‘ndalang kuch bilan belgilanadi, payvandlash yoki prokatlash talablari, shuningdek mahalliy ustivorligini ta’minlash zarurligi bilan belgilanadi. Devorlari gofrlangan to‘sinlarda mahalliy turg‘unlik devor bo‘ylab gofrlar o‘rnatish bilan ta’minlanadi. To‘sin devori bo‘yicha gofrali to‘sinlarning ko‘plab konstruktiv yechimlari ma’lum. Gofralar devorning egiluvchanligini tekis variantga va uning balandligi va qalinligining bir xil nisbatiga nisbatan sezilarli darajada kamaytiradi [1].

Po‘lat gofra-to‘sinlarda ko‘p hollarda devorlarni to‘lqinsimon gofralash usulidan foydalaniladi. To‘sinlardagi yassi devorni gofrlangan devorga almashtirish haqida gapiradigan bo‘lsak, bunday yechim yupqa varaqli prokatdan foydalanish va o‘z vaqtida faqat tayanch kesimlarda va to‘plangan yuklar qo‘yilgan joylarda o‘rnatiladigan ko‘ndalang bikrlik qobirg‘alari sonini kamaytirish tufayli konstruksiyalarga po‘lat sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Mehnat sarfini kamaytirish gofrlash va avtomatik payvandlash qurilmalarining paydo bo‘lishi, gofrli to‘sinlarni ishlab chiqarish orqali sodir bo‘ladi, bu esa bunday konstruksiyalarni ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi [2].

Eksperimental tadqiqotlarni ko‘rib chiqsak. Gofrlangan to‘sinlarni tadqiq qilish masalalari bilan uzoq vaqt davomida sovet olimlari faol shug‘ullanganlar.

Sovet Ittifoqida qurilish konstruksiyalari sifatida BGS dan foydalanishni taklif qiluvchi gofrlangan to‘sinlarni o‘rganish bo‘yicha birinchi ish V.N. Gornov tomonidan amalga oshirilgan [1]. Barcha to‘sinlarning oraliq masofasi 110 sm ga teng bo‘lib, balandligi 10,5 sm dan 20,5 sm gacha o‘zgargan (1-rasm).




1-rasm - Turli balandlikdagi to‘lqinsimon devorli ikki tabaqali to‘sin

Sinovlar natijasida V.N.Gornov to‘lqinsimon devor bo‘ylama yo‘nalishda normal kuchlanishlarni qabul qilmaydi va sof siljish sharoitida bo‘ladi degan xulosaga keldi (2-rasm).

Uning 1937 yilda e’lon qilgan maqolasida to‘lqinsimon devorli balka bir xil mustahkamlikda bo‘lsa, xuddi shunday prokat balkalaridan taxminan 2 marta yengil ekanligi aytilgan edi.

Ammo o‘sha uzoq 1940-1950 yillarda qurilish sohasida gofrlangan to‘sinlar g‘oyasi, afsuski, o‘z tatbiqini topmadi [3].



2-rasm - Gofro-to‘sin kesimida kuchlanishlarning taqsimlanish xarakteri

1940 yilda A.A.Podorojniy toza siljish sharoitida yassi varaq bilan mustahkamlangan ko‘p sonli gofrlangan plastinalarni sinab ko‘rdi. Sinovlar shuni ko‘rsatdiki, gofrlangan varaq siljish kuchini yaxshi qabul qiladi [4].

1956 yilda Yu.I.Yelovkov, Ye.A.Pavlinova va M.V.Filippeolar sinovlar davomida gofrlangan devor gofrlarning yo‘nalishidan qat’i nazar, kesish kuchini to‘liq qabul qilishini aniqladilar [4]: namunalar konsentratsiyalangan kuch bilan yuklangan konsolli to‘sinlar sifatida sinovdan o‘tkazildi. Gofrlar gorizontal joylashganda, moment balkaning butun kesimi bilan, vertikal joylashganda esa faqat belbog‘lar bilan qabul qilgan. Bu natijalar [4, 5] ishlarida o‘z aksini topgan.

1960 yilda nashr etilgan ma’lumotnomada [6] gofrlangan devorlarni ularning tekisligidagi kuchlar ta’siriga hisoblashning umumiy usullari umumlashtirilgan va tavsiflangan.

1963 yilda G.A.Ajermachev [7] o‘z maqolasida to‘lqinsimon devorli to‘sinlarning egilishi va buralishini sinovdan o‘tkazdi. Uning xulosasi quyidagicha: gofrlangan devor, devor qalinligining uning balandligiga nisbati kichik bo‘lishiga qaramay, yuqori mahalliy barqarorlikka ega, shuningdek, u gofrlangan devorli to‘sinlarning buralishga va buralish bilan egilishga yuqori bikrlikka ega ekanligidan dalolat beradi.

G.A.Ajermachev tomonidan o‘tkazilgan eksperimental sinovlar [7,8], V.N.Gornovning devor deyarli normal kuchlanishlarni qabul qilmaydi degan xulosasini tasdiqladi, kamarlarga tutashgan zonalardan tashqari, shuningdek, gofrlangan devorli to‘sinlar buralishga va buralish bilan egilishga yuqori bikrlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. G.A.Ajermachev bunday to‘sinlarning kran osti to‘sinlari, ko‘prik to‘sinlari va boshqa shunga o‘xshash konstruksiyalarda amaliy qo‘llanilishini tasdiqladi.

Birinchi o‘rinda uch burchakli gofrlangan devorli siqilgan, cho‘zilgan, siqilgan-bukiladigan va egiluvchi elementlarni loyihalash masalalari turadi. Uchburchakli gofrlangan devorli to‘sinlarni loyihalash ham alohida bob sifatida ajratilgan. To‘sinlar belbog‘idagi normal kuchlanishlarni, devordagi urinma kuchlanishlarni tekshirish, gofrlangan devorning mahalliy va umumiy turg‘unligini tekshirish, gofrlangan devorli to‘sinlar belbog‘larining turg‘unligini tekshirish uchun asosiy hisoblash formulalari hujjatlarda[1] keltirilgan

Adabiyotlar

1. Основы философии науки/Под ред. С.А. Лебедева. М.,2005. С.26.

2. Лешкевич Т.Г. Философия науки: традиции и новации. М., 2001. С. 19–20.

3. Горнов В.Н. Новые тонкостенные конструкции //Проект и стандарт. –1937.–No4.–С. 25–28

4. Васильев А.Л., Глозман М.К., Павлинова Е.А., Филиппео М.В. Прочные судовые гофрированные переборки. –Л.: Судостроение, 1964. –316 с.

5. Справочник по строительной механике корабля (в 3 томах) / Под общ. ред. Ю.А. Шиманского. –Л.: Судпромгиз, 1960

6. Справочник проектировщика промышленных, жилых и общественных зданий и сооружений. Расчетно-теоретический. Книга 2 / Под ред. А.А. Уманского. – М.: Изд-во литературы по строительству, 1973.– 417 с.

7. Ажермачев Г.А. Балки с волнистыми стенками // Промышленное строительство. –1963. –No4.–С. 54–56.

8. Ажермачев Г.А. Об устойчивости волнистых стенок двутавровых балок при действии касательных усилий // Известия ВУЗов. Серия «Строительство и архитектура». –1968. –No5. –С. 44–46.

9. Usmanov V.F., Sanayeva N.P.,“Influence of step-by-step rise and loading on stress-deformed state structures of multi-storey buildings in the conditions of dry hot climate of Central Asia”//Proceedings of Multidisciplinary International Scientific-Practical Conference "Current Issues of Science, Education and Industry in Modern Research" Organised by SamSACI, Uzbekistan ISSN: 2581-4230 In Association with NovateurPublication India's A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal journalnx.com 10 -12th December 2020 JournalNX Journal Impact Factor 7.223. Pages:148-151

10.USMANOV B. DESIGN OF LIGHT METAL TRUSSES. Nexus : Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume: 02 Issue: 05 | 2023 ISSN: 2751-7578
http://innosci.org/ Pages:68-72.

MULTI-COLORED SOLAR PANELS - NEW POSSIBILITIES FOR DESIGN OF ENERGY-EFFICIENT BUILDINGS.

Senior teacher **Uzboyev M.D.,** student **Uralov R.**
Samarkand state architecture – construction university named after M.Ulughbek

Annotatsiya: Zamonaviy shaharlarni barpo etishda asosiy etiborni binoraning dizayniga va undagi qo‘llanilgan zamonaviy texnologiyalarni etiborga olinadi. Binolarni tashqi ko‘rinishiga bezak berishda har-xil ko‘rinishdagi qo‘rilish materiallaridan foydalaniladi. Ushbu materiallar o‘rniga, quyoshdan quvvat oluvchi batareya va kollektorlardan foydalanilsa binoning energiya tejamkorligi va ekologik toza binolar barpo etsa bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: mikrometr, kremniy qalinligi, yarim o‘tkazgich, o‘tkazuvchan oksid, quyosh energiyasini o‘zgartirgichlar, quyosh panellari, qora yoki kulrang quyosh panellari.

Annotation: In the construction of modern cities, the main attention is paid to the design of the building and the modern technologies used in it. Construction materials of various types are used to decorate the exterior of buildings. Instead of these materials, if solar batteries and collectors are used, it is possible to build energy-saving and environmentally friendly buildings.

Key words: Micrometer, thickness silicon, semiconductor, conductive oxide, solar energy converters, solar panels, black or gray solar panels.

Until now, designers could only use black or gray solar panels for the facades and roofs of buildings, especially not to be chosen.

The installation of standard solar panels for the production of electricity on the roofs and facades of buildings significantly changes the appearance of buildings, and not always for the better. At the moment, only dark solar panels are widely represented on the market.

However, now, thanks to a high-tech thin film, the developers were able to turn solar energy elements into colorful panels, providing great scope for creativity. "So far, enough work has been done to integrate solar energy converters and design elements, which would enable us to create individual design solutions," says Kevin Füchsel, manager of the Fraunhofer Institute for Applied Optics and Precision Engineering in Jena, Germany.

But the state of things is changing for the better. The physicists of the research institute have been working for four years on the development of solar cells with a nanostructure that could be produced for the mass market. Together with the team of researchers at the Fraunhofer Institute, scientists from the University of Friedrich Schiller in Jena are developing inexpensive production technologies that will not only increase the efficiency of solar batteries, but also significantly expand the possibilities for designers and architects.


Silicone plates, thick with a paper sheet, will color the solar panels in different colors. K. Füchsel is currently working on the creation of multicolored solar cells based on the finest silicone wafers, no thicker than a sheet of paper. Such batteries will provide space for creativity in the decoration of facades and roofs of houses.

How it works: A silicone semiconductor, only a few micrometers thick, absorbs sunlight and turns it into electricity. In order for a large amount of light to flow to the silicone substrate, the semiconductor layer is provided with an optically neutral protective barrier (insulator), on which an oxide layer with a thickness of one hundred nanometers is applied.

This translucent conductive oxide (ACO) conducts electricity, it is necessary in order to collect and direct as many light particles as possible onto the semiconductor layer below.

SPO has a lower reflective index, compared with silicone, so it works as an antireflection coating.

The simple design of such a SIS (semiconductor insulator-semiconductor) solar cell, with a transparent top layer, has several advantages: in addition to the fact that such a panel is capable of collecting more sunlight, it can also be made in different colors and shapes.



Project of the facade of the building using designer solar panels.

Color varies due to the change in the thickness of the transparent layer of conductive oxide, which affects its reflective index. Thus, the researchers were able to connect the silicone plates with converters of sunlight, the thickness of the film.

They also managed to move forward in the use of innovative coating materials. Oxide India-Tin is the most common material to date, but it is quite expensive. Researchers are working on the use of cheaper zinc oxide with the addition of aluminum, which will significantly reduce the cost of production, and offer more favorable prices to consumers.

Literature

1. Golden rules of design .- M., 2005.
2. Architectural and design designing.Shimko V.T. Moscow., 1991.
3. The design of exhibitions .- M., 2006.
4. Individual solar installations. Kharchenko N.V. Moscow, Atomizdat, 1991.
5. Mahmudovich, M. R., Azzamovich, U. S., Dustyorovich, U. M., & Turopov, U. A. (2022). Problems and their solutions in ensuring the uninterrupted, cost-effective and cost-effective supply of natural gas to consumers. European Scholar Journal, 3(2), 19-22.
6. Dusyarovich, U. M., & Xaydarovich, F. Z. (2023). Yuqori samaradorlikka ega siklonlarning gidravlik qarshiligini aniqlash. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(3), 55-60.

SANOAT PECHLARIDA QO'LLANILADIGAN GAZ YONDIRGICHLARDA YOQILG'INING YONUV JARAYONLARINING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH

Xalmanov Aktam Toshquvatovich
Samarqand davlat arxitektura–qurilish universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor.
Aymatov Rustam Ruzibayevich
Samarqand davlat arxitektura–qurilish universiteti, katta o'qituvchi.

Annotasiya. Ushbu maqolada gazni yoqish jarayonlarini raqamli modellashtirish texnikasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish, shuningdek amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashga bag'ishlangan. Sanoat pechlarida gaz yoqilg'isining yonish samaradorligini oshirishda energotejamkor gaz yondirgich yaratishda va sinab kurishda lazer spektral usuldan foydalanish ishlab chiqilgan. Gaz va havo sarfi bo'yicha olingan tajriba natijalari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat pechlarida gaz yoqilg'isini yoqish jarayonida qo'llashda hisobga olingan.
Kalit so'zlar: yonish jarayoni, yonish samaradorligi, matematik model, raqamli modellashtirish,chiziqli regressiya, gaz aralashmalari, turbulent oqim.
Аннотация. Данная статья посвящена разработке и апробации методов численного моделирования процессов горения газов, а также их применению при решении практических задач. Применение лазерного спектрального метода было развито при создании и испытаниях энергоэффективной газовой горелки для повышения эффективности сгорания газового топлива в промышленных печах. Полученные экспериментальные результаты по расходу газа и воздуха были учтены в процессе сжигания газового топлива в промышленных печах при производстве строительных материалов.
Ключевые слова: процесс горения, эффективность горения, математическая модель, численное моделирование, линейная регрессия, газовые смеси, турбулентное течение.
Abstract. This article is devoted to the development and testing of techniques for numerical modeling of gas combustion processes, as well as their application in solving practical problems. The use of the laser spectral method was developed in the creation and testing of an energy-efficient gas burner for increasing the combustion efficiency of gas fuel in industrial furnaces. The experimental results obtained on gas and air consumption were taken into account in the process of burning gas fuel in industrial furnaces producing building materials.
Keywords: combustion process, combustion efficiency, mathematical model, numerical modeling, linear regression, gas mixtures, turbulent flow.

Kirish: Yonish jarayonlari tabiatda va texnologiyada juda keng tarqalgan. Metallurgiya, qurilish materiallari, elektr energiya ishlab chiqarish, issiqlik ta'minoti va transport kabi ko'plab sanoat sohalarida gazni yoqish jarayonlari qo'llaniladi. Bunday tizimlarning rivojlanishi va samaradorligini oshirish yonish jarayonini va tegishli jarayonlarni batafsil o'rganmasdan mumkin emas. Murakkab jarayonlarni eksperimental o'rganish juda qimmat, ko'p vaqt talab qiladi va texnologik tizimlarni loyihalash va optimallashtirishda ko'pincha erishib bo'lmaydi. Shu sababli, hisoblash suyuqliklari dinamikasi usullari sanoatda tobora keng tarqalmoqda [1-2,10].

Ushbu maqolada gazni yoqish jarayonlarini raqamli modellashtirish texnikasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish, shuningdek, uni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashga bag'ishlangan. Gazning yonishini modellashtirish hisoblash suyuqliklari dinamikasi uchun eng qiyin muammolardan biridir, chunki bu ko'p komponentli gaz aralashmalarining turbulent oqimlarida issiqlik, massa almashinuvi va kimyoviy jarayonlarning birgalikdagi ta'siri bilan belgilanadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Gazni yoqish jarayonini mos ravishda tadqiq qilish uchun ushbu jarayonlarning kombinasiyasi hisoblash modelida ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishini talab qiladi.

Ekologik talablarning ortib borishi va issiqlik elektr stansiyalarining samaradorligini oshirish zarurati bilan bog'liq holda, murakkab fazoviy geometriyaga ega bo'lgan real birliklarga nisbatan issiqlik va massa uzatish jarayonlarini o'rganish uchun matematik modellashtirish usullaridan foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Kanallardagi oqimlarni modellashtirishda odatda dekart yoki silindrsimon koordinatalardan foydalaniladi, bu esa umuman olganda, geometrik jihatdan oddiy sohalarda yechilishi kerak bo'lgan muammolar sinfini cheklaydi.

Hodisa va jarayonlar orasidagi bog'lanishlar odatda bir va ko'p o'zgaruvchili, chiziqli yoki chiziqsiz bo'lishi mumkin. Avvalo, bir o'zgaruvchili, ya'ni oddiy chiziqli bo'lgan holni qaraylik. Oddiy chiziqli regressiyani $y=b_0+b_1x$ ko'rinishdagi qat'iy funksiyadan farq qilish uchun quyidagicha belgilaymiz:

$$Y = b_0 + b_1 * x \qquad (1)$$


Kuzatilgan yoki tajribaviy ma'lumotlar asosida ushbu emperik formulani qurish quydagi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Aytaylik, x faktorning har bir qiymatiga y natijaviy ko'rsatgichning biror qiymati mos keladigan bo'lsa va quyidagi 1-jadvalda ifodalanadi:

1-jadval

x	x_1	x_2	……..	x_i	x_n
y	y_1	y_2	……..	y_i	y_n

1-jadval asosida emperik formulani, ya'ni regressiya funksiyasini topish uchun birinchi navbatda tajribaviy ma'lumotlarni grafigi bilan nazariy funksiyalarning grafiklari taqqoslanib, regressiya tenglamasini shakli

tanlanadi. Ikkinchi navbatda esa tanlangan regressiya tenglamasidagi parametrlarning qiymatlari topiladi. (1) chiziqli regressiyani grafik ko'rinishda 1- rasmdagidek ifodalash mumkin.



1-rasm. Chiziqli regressiyaning grafik ko'rinishi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, b_0-regressiya chizig'ini ordinata o'qi bilan kesishish nuqtasini bildiradi.

b_1=txgγ regressiya koeffisiyenti deyiladi va to'g'ri chiziqning absissa o'qiga nisbatan og'ishini bildiradi.

Rasmdagi γ to'g'ri chiziqning OX o'qiga nisbatan og'ish burchagi. Y_i va $\check{Y}_i$ lar natijaviy ko'rsatgichning x_i nuqtadagi tajribaviy va hisoblangan qiymatlari hisoblanadi. Bu koeffisiyentlarni topish uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi, ya'ni;

$$\sum_{i=1}^{n}(Y_i - \hat{Y}_i)^2 \to \min \quad (2)$$

(1) ni (2) ga quysak quydagini olamiz:

$$S(b_o, b_1) = \sum_{i=1}^{n}(y_i - b_o - b_1 x_i)^2 \to \min \quad (3)$$

(3), bajarilishining zaruriy sharti: birinchi tartibli hosilasi nolga teng va ikkinchi tartibli hosilasi esa musbat bo'lishi kerak.

Demak,

$$\frac{\partial S}{\partial b_o} = 2\sum_{i=1}^{n}(y_i - b_o - b_1 x_i) = 0 \quad (4)$$

$$\frac{\partial S}{\partial b_1} = 2\sum_{i=1}^{n}(y_i - b_o - b_1 x_i)x_i = 0 \quad (5)$$

$$\frac{\partial^2 S}{\partial b_0^2} = 2n > 0, \frac{\partial^2 S}{\partial b_1^2} = 2\sum x_i^2 > 0$$

Funksiya minimumga ega bo'lishining yetarli sharti esa quydagicha:

$$\frac{\partial^2 S}{\partial b_0^2} * \frac{\partial^2 S}{\partial b_1^2} - (\frac{\partial^2 S}{\partial b_1^2})^2 = 4n\sum_{i=1}^{n}(x_i - x)^2 > 0 \quad (6$$

(3) funksiya (6) shartni bajaradi. Buni tekshirish uchun ikkinchi tartibli aralash hosilalarni olib (7) ga quysak, quydagini hosil qilamiz:

$$2n * 2\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - (2\sum_{i=1}^{n} x_i^2)^2 > 0$$

Buning to'g'riligini quyidagicha isbotlash mumkin:

$$4n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - (2\sum_{i=1}^{n} x_i^2)^2 = 4n\left[\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \frac{(2\sum_{i=1}^{n} x_i^2)^2}{n}\right] =$$

$$= 4n\left[\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \frac{2(\sum_{i=1}^{n} x_i)^2}{n} + \frac{(\sum_{i=1}^{n} x_i)^2}{n} * \frac{n}{n}\right] =$$

$$= 4n\left[\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - 2\sum_{i=1}^{n} x_i * \frac{\sum_{i=1}^{n} x_i}{n} + n(\frac{\sum_{i=1}^{n} x_i}{n})^2\right] =$$

$$= 4n\left[\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \sum_{i=1}^{n} x_i x + nx^2\right] = 4n\left[\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \sum_{i=1}^{n} 2x_i x + \sum_{i=1}^{n} x^2\right] =$$

$$4n\sum(x_i^2 - 2x_i x + x^2) = 4n\sum_{i=1}^{n}(x_i - x)^2 > 0$$

Demak (4) va (5) larni soddalashtirib, quydagi tenglamalar sistemasini olishimiz mumkin:

$$nb_0 + b_1\sum_{2-1n}^{n} x_i = \sum_{i=1}^{n} y_i \quad ; b_0\sum_{2-1}^{n} x_i + b_1\sum_{2-1}^{n} x_i^2 = \sum_{2-1}^{n} x_i y_i \quad (7)$$

(7) ifoda tenglamalar sistemasi bo'lib, bu tenglamalar sistemasini Kramer yoki Gauss usullari bilan osongina yechish mumkin.

Gazning yonish jarayonini temperatura, o'rganilayotgan element atomlaridan kuzatilayotgan signal (U) va boshqa parametrlar orasidagi bog'lanishlar odatda bir va ko'p o'zgaruvchili, chiziqli yoki chiziqsiz bo'lishini nazariy jihatdan o'rganish mumkin. Biz bir o'zgaruvchili, chiziqli bog'lanish bo'lishini ko'rib chiqamiz. Aytaylik, gazning sarfi V ning har bir qiymatiga temperatura t natijaviy ko'rsatgichning biror qiymati mos kelsin va quyidagi *2-jadvalda* ifodalangan bo'lsin:

2-jadval

$V_{yo.g}$,*l/min*	*T, S*	T_h,*S*
0,25	1100	1147,8
0,3	1400	1361,2
0,35	1600	1575
0,4	1800	1708,3
0,45	2000	1921,81
0,48	2100	2050
0,5	2220	2135
Σ 2,73	Σ 12220	

Agar t ning V ga bog'liqligini quydagi ko'rinishda izlasak, ya'ni $t_i = a + b * V$ u holda a va b doimiy sonlarni aniqlash uchun yettita shartli tenglamalarni hosil qilamiz va quyidagicha yozamiz:


$$t_i = a + b * V_j$$

Bu yerda V_j va t_i lar V va t larga mos bo'lgan qiymatlar hisoblanadi. Normal tenglama quydagicha $a + /V/b = /t/$ va $/V/a + /V^2/b = /tV/$ yoki $7a + 2{,}73b = 12220$ va $2{,}73a + 1{,}1179b = 4993$


Bu tenglamalarni yechgandan so'ng, a=80,15 va b=4270,68 qiymatlarni olamiz. T ning qiymatlarini quydagi formuladan $t_x = 80{,}15 + 4270{,}68V$ dan topiladi va topilgan qiymatlar 2-jadvalning oxirgi ustunida keltirilgan.

Tirqishli va injektorli gorelkalarda tajribalar olib borildi va yonuvchi gazning yonish jarayonini yuqori samaradorlikga erishish tadbiq qilindi.

Standart eritmadagi va namunadagi nomal'um konsentrasiya spektral chiziqlar intensivligini tenglashtirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu usulda spektral chiziqlar intensivligi o'rnida lazer nurining element atomlari bilan selektiv ta'siri natijasida hosil bo'layotgan doimiy tokni raqamli voltmeterda o'lchash orqali ionizasion signal nazarda tutilmoqda. Dastlab tekshirilayotgan elementdan ionizasion signal kuzatiladi va ionizasion signalning qator konsentrasiyaga bog'liqligi o'rganiladi. 2 va 3-rasmlarda seziy va natriy atomlaridan kuzatilayotgan signalning yonuvchi gaz sarfiga bog'liqligi keltirilgan. Optimal sharoitda atom-ionizasion spektrometerni darajalash grafigi natriy va seziy atomlari uchun 4-rasmda keltirilgan. Olingan natijalar propan-butan-havo va asetilen-havo alangasida olib borilgan. 4 va 5-rasmlarda ko'rinib turibdiki seziy va natriy atomlaridan kuzatilayotgan signalning intensivligi propan-butan-havo alangasida kattaroq ekanligini ko'rish mumkin [3-14].




1.2-rasm. Natriy atomidan kuzatilayotgan signalning yonuvchi gaz sarfiga bog'liqligi.




1.3-rasm. Laminar alanganing tuzilishi;
1) Gaz konsentrasiyasi, 2) Havo konsentrasiyasi

Gazsimon yoqilg'ining yonishi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik miqdorini hisoblash lazer spektral usul yordamida olingan tajriba natijalari asosida olib borildi [4-14].

Gazsimon yoqilg'i va yonuvchi gazlarning o'ziga xos yonish issiqligi J/kg o'lchamdagi gazsimon yoqilg'i va boshqa ba'zi yonuvchi gazlarning o'ziga xos yonish issiqligi 2-jadvalda keltirilgan. Ko'rib chiqilgan gazlardan eng katta massa o'ziga xos yonish issiqligi farqlanadi. Ushbu gazning bir kilogrami to'liq yonishi bilan 119,83 MJ issiqlik chiqariladi. Shuningdek, tabiiy gaz kabi yoqilg'i yuqori kaloriya qiymatiga ega - tabiiy gazning o'ziga xos yonish issiqligi 41 ... 49 MJ / kg (*sof 50 MJ / kg uchun*).



1.4-rasm. Natriy atomidan kuzatilayotgan signalning yonuvchi gaz sarfiga bog'liqligi.



1.5-rasm. Turbulent alanga tuzilishi;
a) Gaz konsentrasiyasi, b) Havo konsentrasiyasi v) Yonish mahsulotlarining konsentrasiyasi

Gaz yondirgichda yonuvchi gaz propan-butan gazi yonganda ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori Q ni hisoblash mumkin. Buning uchun quydagicha hisoblashimiz kerak bo'ladi. 1Hol uchun 1soatda V=800l propan-butan gazi yongan taqdirda, n=V/22,4=35,7 mol' modda miqdori kelib chiqadi. Propan-Butanning molyar massasini $C_3H_8+C_4H_{10}$=102kg/kmol tengligini hisobga olsak 35,7*102=3643=3,6kg gaz ishlatilganligi kelib chiqadi.

Gaz yonganda ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = q * m$$

Bu yerda Q yonuvchi gazning solishtirma yonish issiqligi, j/kg; m gazning massasi, kg larda o'lchanadi.

U holda siqilgan gaz ya'ni propan-butan gazi uchun q=45x10^6 J/kg, m=3,6kg bo'lsa, Q=45x10^6 x3,6=162x10^6 J ga teng bo'ladi.

2 Hol uchun 1soatda V=400l propan-butan gazi yongan taqdirda, n=V/22,4=17,86mol' modda miqdori kelib chiqadi. Propan-Butanning molyar massasini $C_3H_8+C_4H_{10}$=102kg/kmol' tengligini hisobga olsak

17,86x102=3643=1,82kg gaz ishlatilganligi kelib chiqadi.

Gaz yonganda ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = q * m$$

Bu yerda q yonuvchi gazning solishtirma yonish issiqligi, J/kg; m gazning massasi, kg larda o'lchanadi. U holda siqilgan gaz yani propan-butan gazi uchun $q=45x10^6$ J/kg, m=1,82kg bo'lsa, $Q=45x10^6$ $x1,82=81,9x10^6$ J ga teng bo'ladi. Demak ishlatilayotgan gazning hajmi kamaysa gaz yonganda ajralib chiqayotgan energiya kamayar ekan.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sanoat pechlarida gaz yoqilg'isining yonish samaradorligini oshirishda energotejamkor gaz yondirgich yaratishda va sinab kurishda lazer spektral usuldan foydalanish mumkin. Gaz va havo sarfi bo'yicha olingan tajriba natijalari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat pechlarida gaz yoqilg'isini yoqish jarayonida qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Jila V.A.* Gazosnabjeniye. Uchebnik dlya VUZov. M: Izdatelstvo ASV, 2014. -368 s.
2. *Karyakin Ye.A., Udovenko V.Ye. i dr.* Promыshlennoye gazovoye oborudovaniye: Spravochnik – Saratov, 2002. – 623s.
3. *Khalmanov A.T., Toshkuvatova N***.** Modern methods for identification of atoms, molecules, and aerosols in various objects. Industrial laboratory. Diagnostics of materials. 2023;89(6):23-34. (In Russ.) https://doi.org/10.26896/1028-6861-2023-89-6-23-34
4. *Chekalin N. V, Khalmanov A., Marunkov A. G., et al.* Determination of Co, Cr, Mn and Ni traces in fluorine containing materials for optical fibers using laser enhanced ionization techniques with flame and rod-flame atomizers / Spectrochim. Acta, Part B. 1995. Vol. 50. N 8. P. 753 - 761. DOI: 10.1016/0584-8547(94)00168-U
5. *Khalmanov A. T., Khamraev Kh. S.* Laser atomic ionization spectrometer in flame / Zavod. Lab. Diagn. Mater. 2001. Vol. 67. N 10. P 16 - 19 [in Russian].
6. *Khalmanov A. T., Khamraev Kh. S., Tursunov A. T., Tukhlibaev O.* Study of traces of elements on a universal laser photoionization spectrometer / Opt. Spectrosc. 2001. Vol. 90. N3.P 344 - 347. DOI: 10.1134/1.1358438
7. *Khalmanov A.* Laser spectroscopy of ultrasmall concentration of atoms and aerosols in various phase states of substance / Theor. Appl. Sci. 2019. Vol. 75. N7.P 225 - 239. DOI: 10.15863/TAS.2019.07.75.38
8. *Khalmanov A., Boboev S., Burxonov X***.** Calculation of a polluting substance released into the atmosphere from asphalt-concrete plants / Theor. Appl. Sci. 2019. Vol. 76. N 8. P. 246 - 249. DOI: 10.15863/TAS.2019.08.76.34
9. *Khalmanov A. T., Do-Kyeong Ko, Jongmin Lee,* et al. Study of Traces of Au and Ag Atoms by Resonant Laser Step- wise Ionization Spectroscopy / J. Korean Phys. Soc. 2004. Vol. 44. N 40. P. 843 - 848.
10. *Aymatov R.R.* Sjiganiye gazovogo topliva v promыщlennыx pechax pri proizvodstve stroitelnыx materialov v Respublike Uzbekistan. BST: Byulleten Stroitelnoy Texniki. g Moskva, 2019g.
11. *Aymatov R.R.* Matematicheskoye modelirovaniye prosessa goreniya. Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii na temu "Problemы i ressheniya vnedreniya innovasionnыx texnologiy v sfere injenernыx kommunikasiy". Samarkand, 2020g.
12. *Aymatov R.R.* Investigation of the efficiency of using gaseous fuel in the production of lime in rotary kilns. International Journal of Progressive Sciences and Technologies. Vol. 27 No. 1. http://ijpsat.ijs'ht-journals.org
13. *R.R. Aymatov, B.Mamatov, Q. Barotov*. Development of an economic and mathematical model for the optimal development of gas supply systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Published 2021-12-29.
14. *Aymatov R.R, Omonkulov O.X, Radjabov U*. Environmental Impact of Fuel energy Complex Networks and Measures to Reduce It. Publisher: «World of Conferences»Published 2022-12-22.

UDK 373.1:373.2

QAYTA TIKLANUVCHAN MANBALI ELEKTR TA'MINOTI TIZIMI REAKTIV QUVVATINI FUNKSIONAL-PARAMETRIK NAZORAT VA BOSHQARUV O'ZGARTKICHLARINI KATTALIK VA PARAMETRLARI HAMDA ULARNING AMALIY TADQIQI

Xonto'rayev Ikrom Munavvarovich
Jizzax politexnika institute, Energetika kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya. Qayta tiklanuvchan manbali elektr ta'minoti tizimining reaktiv energiyasini nazorati va boshqaruvi hamda monitoring qilishda birlamchi yuklama toklari qiymatini kuchlanish ko'rinishdagi chiqish signallariga funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkich qurilmalarini tahlil qilishda modellashtirishning funksional-tuzilmaviy yondoshuvi asos qilib olingan. Funksional-tuzilmaviy yondoshuv negizida tadqiq etilayotgan funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkichning element, qurilmalarining tuzilishida va o'zgartirish jarayonlarida qo'llanilgan fizik-texnik effektlarni o'zaro aloqasini aks ettiradigan graf modeli tuzilgan.

Kalit so'zlar: elektr energiya, tok, o'zgartkich, nazorat, boshqarish, kuchlanish, signal, magnit oqim,

Аннотация. При анализе функционального параметрического управления устройствами электромагнитного преобразователя первичных значений токов нагрузки по выходным сигналам в виде напряжения в системах контроля и управления реактивной энергией системы возобновляемого электроснабжения за основу принято функционально-структурный подход моделирования. На основе функционально-структурного подхода создана графовая модель, отражающая взаимодействие физических и технических эффектов, используемых в структуре элементов и устройств исследуемого электромагнитного преобразователя тока функционально-параметрического управления.

Ключевые слова: электроэнергия, ток, преобразовател, контроль, управление, напряжение, сигнал, магнитный поток.

Annotation. In the analysis of the functional parametric control of the devices of the electromagnetic transducer of the primary values of the load currents by the output signals in the form of voltage in the systems of control and management of reactive energy of the renewable power supply system, the functional-structural approach to modeling is taken as a basis. Based on the functional-structural approach, a graph model is created that reflects the interaction of physical and technical effects used in the structure of elements and devices of the electromagnetic transducer of the current of the functional-parametric control under study.

Keywords: electric energy, reactive power, current, transducer, control, management, voltage, signal, magnetic flux.

Kirish. Elektr ta'minoti tizimi reaktiv quvvatini nazorot va boshqaruv tizimlarida qo'llaniladigan funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkichlarda birlamchi toklarni ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish jarayonini o'zgartkichning asosiy o'zgartirish bo'lagining tuzilishini hisobga olish zarur.


Elektr ta'minoti tizimida funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkich o'lchash texnikasi sifatida bir, ikki, uch va undan ko'p fazali elektr tarmoqlarida birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish orqali hisoblashda hamda himoyalash va nazorat qilish tizimlariga signal etkazish uchun xizmat qiladi.

Funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkich tuzilmasi sodda va tayyorlash texnologiyasi bir muncha ixchamlashtirilgan bo'lib, signal bilan ta'minlashashda katta aniqlikda o'zgartirish va o'lchov imkoniyatlarini yaratib beradi. [1,3,4].


Elektr ta'minoti tizimlari reaktiv quvvatni boshqaruv va nazoratida birlamchi toklarning qiymatini kuchlanish ko'rinishdagi chiqish signaliga o'zgartiradigan o'zgartkichlarni tavsiflarini tahlil qilishda chiqish kuchlanishini U_{echiq} signalining ko'rinishini funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkichning turli parametrlariga bog'liqligi tadqiq etildi. funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkich asosida birlamchi toklarni ikkilamchi kuchlanishga o'zgartkichlar 1- rasmdagi ko'rinishga ega.

Elektr tarmog'ining bitta fazasi toki I_A, ikkita fazasi toki I_A, I_B yoki uchta fazasi toki I_A, I_B, I_C hosil qilgan magnit oqimlari $\Phi_{\mu 1}$, $\Phi_{\mu 2}$, $\Phi_{\mu 3}$ umumiy asosga ega bo'lgan magnit o'tkazgichning chuqurchalarida elektr tarmog'i tok o'tkazgichlari joylashtirilgan bo'lib, bu tok o'tkazgichlardagi toklar haqidagi ma'lumotlarni U_A ,U_B , U_C kuchlanish ko'rinishida yassi o'lchov cho'lg'amlari orqali olish imkonini beradi.

Magnit o'tkazgichning bitta asosga ega bo'lgani bu o'zgartkichning o'lchov cho'lg'amlarining kam bo'lishiga olib keladi, hajmini kichiklashtiradi va funksional imkoniyatlarini oshiradi [1-2].



a) funksional parametrik boshqaruv elektromagnit tok o'zgartkich




b) yassi o'lchov cho'lg'amlari

Metod. Qayta tiklanuvchan manbali elektr ta'minoti tizimining reaktiv energiyasini nazorati va boshqaruvi hamda monitoring qilishda qo'llaniladigan funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkichni tuzilmaviy tadqiq va loyihalashtirish uchun graf ko'rinishidagi tadqiqot vositasi qabul qilingan. Graf ko'rinishida tadqiqot modelini qurishda funksional parametrik boshkaruv elektromagnit tok o'zgartkichlarning yangi turkumlarini ishlab chiqishning texnik-iqtisodiy imkoniyatlari, dolzarbligi va samaradorligi nuqtai nazaridan mavjud turkumlarini o'rganish va tahlil qilish talab etiladi [4,5,6]

Qayta tiklanuvchan manbali elektr ta'minoti tizimining reaktiv energiyasini funksional-parametrik nazorati va boshqaruvi uchin uch fazali tok o'zgartkichning tarqalgan parametrli uch fazali uchta sezgir

elementli chiqish kuchlanishini hosil qilish graf modeli 2-rasmda keltirilgan:



2-rasm. Qayta tiklanuvchan manbali elektr ta'minoti tizimining reaktiv energiyasini funksional-parametrik nazorati va boshqaruvi uchin uch fazali tok o'zgartkichning tarqalgan parametrli uch fazali uchta sezgir elementli chiqish kuchlanishini hosil qilish graf modeli

Qayta tiklanuvchan manbali elektr ta'minoti tizimining reaktiv energiyasini funksional-parametrik nazorati va boshqaruvi uchin uch fazali tok o'zgartkichning yig'ilgan parametrli bir fazali bitta sezgir elementli chiqish kuchlanishini hosil qilish graf modeli asosida hosil qilingan analitik ifodani keltirib chiqaramiz

M.YU.K lar quyidagicha topiladi:

$$F_{\mu 11} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_A$$
$$F_{\mu 21} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_B \quad (1)$$
$$F_{\mu 31} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_C$$

Model tugunlari orasidagi magnit oqimlar quyidagicha xosil qilinadi.

Model uchun qabul qilingan shartlar

$$F_{\mu 15} \approx F_{\mu 24} \approx F_{\mu 16} \qquad F_{\mu 25} \approx F_{\mu 34} \approx F_{\mu 26}$$

O'zgartkichning o'zgartirish tizimining magnit o'zagi (sterjen) va havo oraliqlarida kiymatlari quyidagicha aniqlanuvchi magnit oqimlar va sezish elementlarida ularga mos chiqish signallari – kuchlanishlari quyidagicha hosil qilinadi [12, 16]:

$$U_A = 4{,}44 \cdot f \cdot W_1 \cdot \Phi_{\mu A} = 4{,}44 \cdot f \cdot W_1 \cdot \frac{F_{\mu 11} - F_{\mu 24}}{\Pi 2_{\mu_0 13}} \quad (5)$$

$$U_B = 4{,}44 \cdot f \cdot W_2 \cdot \Phi_{\mu B} = 4{,}44 \cdot f \cdot W_2 \cdot \frac{F_{\mu 24} - F_{\mu 34}}{\Pi 2_{\mu_0 23}} \quad (6)$$

$$U_C = 4{,}44 \cdot f \cdot W_3 \cdot \Phi_{\mu C} = 4{,}44 \cdot f \cdot W_3 \cdot \frac{F_{\mu 34} - F_{\mu 44}}{\Pi 2_{\mu_0 33}} \quad (7)$$

Natija. ETTni nazorati va boshqaruvi uchun funksional parametrik boshqaruv elektromagnit tok o'zgartkichlarining fizik modellari ishlab chiqilgan. Ushbu ishlab chiqilgan uch fazali elektromagnit tok o'zgartkichlarining tavsiflariga asosan elect ta'minoti tizimi toklarini yuqori aniqlikda tavsiflashi aniqlandi. Xar bir faza uchun mos, bitta sezgir element xalqasiga

$$\begin{cases} \Phi_{\mu a} = \dfrac{F_{\mu 14} - F_{\mu 24}}{\Pi 2_{\mu_0 13}} \\ \Phi_{\mu в} = \dfrac{F_{\mu 24} - F_{\mu 34}}{\Pi 2_{\mu_0 23}} \\ \Phi_{\mu c} = \dfrac{F_{\mu 34} - F_{\mu 44}}{\Pi 2_{\mu_0 33}} \end{cases} \quad (2)$$

Modelning analitik ifodasi xisoblashda tugunlar uchun xisoblashlarni amalga oshiramiz


$$\begin{cases} \dfrac{F_{\mu 11} - F_{\mu 12}}{\Pi 1_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 11} - F_{\mu 21}}{\Pi 2_{\mu 11}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_A \\ \dfrac{F_{\mu 12} - F_{\mu 11}}{\Pi 1_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 12} - F_{\mu 13}}{\Pi 1_{\mu_0 11}} + \dfrac{F_{\mu 12} - F_{\mu 22}}{\Pi 2_{\mu_0 12}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 13} - F_{\mu 12}}{\Pi 1_{\mu_0 11}} + \dfrac{F_{\mu 13} - F_{\mu 14}}{\Pi 1_{\mu 12}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 14} - F_{\mu 13}}{\Pi 1_{\mu 12}} + \dfrac{F_{\mu 14} - F_{\mu 24}}{\Pi 2_{\mu_0 13}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 22}}{\Pi 1_{\mu 21}} + \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 31}}{\Pi 2_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 11}}{\Pi 2_{\mu 11}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_B \\ \dfrac{F_{\mu 22} - F_{\mu 21}}{\Pi 1_{\mu 21}} + \dfrac{F_{\mu 22} - F_{\mu 12}}{\Pi 2_{\mu_0 12}} + \dfrac{F_{\mu 22} - F_{\mu 23}}{\Pi 1_{\mu_0 21}} + \dfrac{F_{\mu 22} - F_{\mu 32}}{\Pi 2_{\mu_0 22}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 23} - F_{\mu 22}}{\Pi 1_{\mu_0 21}} + \dfrac{F_{\mu 23} - F_{\mu 24}}{\Pi 1_{\mu 22}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 24} - F_{\mu 14}}{\Pi 2_{\mu_0 13}} + \dfrac{F_{\mu 24} - F_{\mu 23}}{\Pi 1_{\mu 22}} + \dfrac{F_{\mu 24} - F_{\mu 34}}{\Pi 2_{\mu_0 23}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 32}}{\Pi 1_{\mu 31}} + \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 21}}{\Pi 2_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 41}}{\Pi 1_{\mu 31}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_C \\ \dfrac{F_{\mu 32} - F_{\mu 31}}{\Pi 1_{\mu 31}} + \dfrac{F_{\mu 32} - F_{\mu 22}}{\Pi 2_{\mu 22}} + \dfrac{F_{\mu 32} - F_{\mu 33}}{\Pi 1_{\mu_0 31}} + \dfrac{F_{\mu 32} - F_{\mu 42}}{\Pi 2_{\mu_0 32}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 33} - F_{\mu 32}}{\Pi 1_{\mu_0 31}} + \dfrac{F_{\mu 33} - F_{\mu 34}}{\Pi 1_{\mu 32}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 34} - F_{\mu 33}}{\Pi 1_{\mu 32}} + \dfrac{F_{\mu 34} - F_{\mu 24}}{\Pi 2_{\mu_0 23}} + \dfrac{F_{\mu 34} - F_{\mu 44}}{\Pi 2_{\mu_0 33}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 42} - F_{\mu 41}}{\Pi 1_{\mu 41}} + \dfrac{F_{\mu 42} - F_{\mu 32}}{\Pi 2_{\mu_0 32}} + \dfrac{F_{\mu 42} - F_{\mu 43}}{\Pi 1_{\mu_0 41}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 43} - F_{\mu 42}}{\Pi 1_{\mu_0 41}} + \dfrac{F_{\mu 43} - F_{\mu 44}}{\Pi 1_{\mu_0 42}} = 0 \\ \dfrac{F_{\mu 44} - F_{\mu 43}}{\Pi 1_{\mu_0 42}} + \dfrac{F_{\mu 44} - F_{\mu 34}}{\Pi 2_{\mu_0 33}} = 0 \end{cases} \quad (3)$$

$$\begin{cases} \dfrac{F_{\mu 11} - F_{\mu 12}}{\Pi 1_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 11} - F_{\mu 21}}{\Pi 2_{\mu 11}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_A \\ \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 22}}{\Pi 1_{\mu 21}} + \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 31}}{\Pi 2_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 21} - F_{\mu 11}}{\Pi 2_{\mu 11}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_B \\ \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 32}}{\Pi 1_{\mu 31}} + \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 21}}{\Pi 2_{\mu 11}} + \dfrac{F_{\mu 31} - F_{\mu 41}}{\Pi 1_{\mu 31}} = K_{I\ni F\mu} \cdot I_C \end{cases} \quad (4)$$

ega bo'lgan uch fazali elektromagnit tok o'zgartkichning kirish va chiqish uchlari soni 6 tani tashkil etadi.

Elektr ta'minoti tizimini nazorat qilish va boshqarish uchun tizimda hosil bo'luvchi nosimmetrik va yuqori garmonika toklari haqida ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi. Tizimining reaktiv quvvatiga ta'sir ko'rsatuvchi nosimmetrik va nosinusoidal toklari to'g'risidagi ma'lumotlarni uzluksiz signal ko'rinishida ta'minlash imkoniyatiga ega. Elektr ta'minoti tizimini reaktiv quvvatining nosimmetrik va yuqori garmonika toklarini qiymatini aniqlash, uch fazali elektromagnit tok o'zgartkichdan chiquvchi, nazorat va boshqaruv qurilmalari uchun me'yorlangan kuchlanish orqali amalga oshiriladi. Bevosita ushbu me'yorlangan chiqish kuchlanishning miqdori elektromagnit tok o'zgartkichning o'ramlar soniga va ikki yoki undan yuqori bo'lgan sezgir element xalqalarining o'zaro ulanish usullariga bog'liq bo'ladi.

ETTni nazorati va boshqaruvi uchun xar bir faza uchun mos sezgir element xalqalariga ega uch fazali elektromagnit tok o‘zgartkichining tadqiq etilgan amaliy va nazariy statik tavsiflari quyida keltirilgan.



3-rasm. Uch fazali tok o‘zgartkichning statik tavsifi.

Mulohazalar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan elektr ta’minoti tizimidagi reaktiv quvvatiga bog‘liq, uch fazali elektromagnit tok o‘zgartkich chiqish kuchlanish signallarining amaliy aniqlangan qiymatlarni nazariy aniqlangan qiymatlarga nisbatan farqi, ish rejimlari oralig‘ida 1.472 % dan 0.245 % hamda nominal va yuklama rejimlari oraliqlarida 0.245 % dan 0.617 % o‘zgarishi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Ushbu chora-tadbirlar natijasida elektron hujjat aylanishi joriy etildi, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasida normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Shubhasiz, iqtisodiy sektorni raqamlashtirish tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, hajmi va raqobatbardoshlikni keskin oshirish hamda vaqtni tejash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda raqamli texnologiyalar bank tizimi, chakana savdo, transport, energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda qo'llanilmoqda.

Prezidentimizning Parlamentga navbatdagi Murojaatnomasida ham hayotimizning ko'pgina jabhalarini raqamlashtirish bo'yicha qator maqsadlar aytib o'tildi. Jumladan, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, arxiv sohalarini to'liq raqamlashtirish. "Elektron hukumat" tizimining barcha tashkiliy va institusional masalalarni kompleks yechish, Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida "IT-park"lar tashkil etish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilishi boshlangan "Bir million dasturchi" loyihasini davom ettirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, yaqin 2 yil ichida barcha qishloq va mahallalarni tezkor internet bilan ta'minlash, 12 mingta muassasani tezkor internetga ulash, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqishni ikki oy muddatda yakunlash bo'yicha ko'rsatma berilgan.

Prezidentimizning ushbu tashabbuslari – bugun O'zbekiston rivojlanishning yangi bosqichini boshlayotgani, yaqin kelajakda davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatdan tubdan yaxshilanishi, turli ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi hamkorlik rivojlanishining garovidir.

Raqamli transformasiya bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlariga ta'sir qiladi. Yetakchilik va xavf-xatarni qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishining oldini olish uchun mamlakatimizda mumkin bo'lgan jiddiy ishlar olib borilmoqda. Raqamlashtirish jarayonining ko'lami o'ziga xos tarmoqni emas, balki davlat, biznes va jamiyat taraqqiyoti uchun yangi modelini shakllantirishdir.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy ishlab chiqarish loyihalari Xitoy va Qo'shma Shtatlarda faol amalga oshirilmoqda, bu esa yevropaliklar uchun uni tezlashtirish zarurligini taqozo yetadi. Raqobatbardoshlikni oshirish va qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun O'zbekiston o'z sa'yi-harakatlarini rivojlangan davlatlar tajri-basidan foydalanish muhimligiga katta e'tibor qilmoqda.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot eng ko'p rivojlangan mamlakatlar bu AQSh va Xitoy ekanligi, dunyo bo'yicha blokcheyn esa texnologiyalarga doir patentlarning 75 foizi aynan shu davlatlarga to'g'ri

kelishini aytdi. O'z navbatida internet mahsulotlarining 50 foizini shu davlatlar aholisi iste'mol qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda, "Industriya 4.0" dasturini amalga oshirishda rivojlangan malakatlarning ijobiy yutuqlari mavjud. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlari industriya Internet konsorsiumi yaratdi. Xitoy xalq Respublikasi esa "Xitoy ishlab chiqarish-2025" industriya g'oyasini tashkil etib, uni "industriya 3.0" darajasiga oshirish va 2025 yil esa to'rtinchi industriya tartibiga erishishi maqsad qilib qo'yilgan .

Germaniyada 2021-2022 yilda "Industriya 4.0" tamoyili bo'yicha kompaniyalar mamlakatda mehnat resurslari faoliyatini o'rtacha 18 % ga oshirishi mumkin ekan.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi to'lqinsimon xarakterga ega bo'lishi va muhandislik jarayonlari va ishlab chiqarishni boshqarish texnologiyalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, loyiha ishlab chiqarish samaradorligini o'rtacha tahminan 30% ga oshirish va mashina va uskunalarning Rossiya eksportini 8% dan 13% gacha oshirish kutilmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarda raqamlashtirish kichik va o'rta biznes, innovasion startaplar, shu jumladan qurilish sohasida ham imkoniyatla ochilmoqda.

Qurilishda samarali boshqarish uchun uni avtomatlashtirish ham katta yordam beradi. Unda materiallarni xarid qilish va xarajat qilish, zamonaviy qurilish asbob-uskunalaridan foydalanish, hamda ish soatlarini qisqartirishni nazorat qilish ko'zda tutilgan. Bunda, innovasiyalardan biri ishchilarning harakatlari, sog'lig'i va ish yukini kuzatib boradigan maxsus qurilish ishchilarining brasletlari orqali nazorat qilinishi tadbiq etilmoqda. Bu esa, dasturiy ta'minot qurilish jarayonini yanada samarali nazorat qilish va normallashtirish imkonini beradi.

3D bosib chiqarish: Ishlab chiqarish taromg'i miqyosida amalga oshirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali yechimlarni topiladi va tanlab olinadi. Bu dastur orqali ilhor davlatlarda g'isht va betondan tayyorlangan binolar allaqachon chop etilmoqda va ularning boshqa texnologik yechimlari ham mavjud.

Hozirgi kunda, obyektlarni hayot sikli davomida samarali boshqarish uchun turli mamlakatlar raqamli modellashtirish ((BIM) texnologiyasiga o'tish rejalashtirilgan. Modellashtirish qoidalari, axborot xavfsizligi talablari, sifat nazorati, ishga tushirish yoki tugatish uchun investisiyalash kabi boshqa hujjatlar "raqamli qurilish" loyiha dasturi orqali tuziladi.

Raqamli texnologiyalarning keng ko'lamli rivojlanishi yangi axborot tizimlarining ishlashiga yordam berdi. Ularga qurilishda narxlashning davlat tizimiga kiritish vazifasi va davlatning tarkibiy qismlari uchun qurilish resurslarini kuzatishdir. Bugungi kunda, ko'pgina mamlakatlar qurilish tizimda materiallar, inshootlar, mashina, asbob-uskunalar va boshqalar uchun qariyb 69 ming banddan iborat qurilish resurslarining yangi klassifikatori qo'llaniladi.

Axborot texnologiyalarini - qurilish industriyasi bilan birlashtirishning yorqin kelajagi "aqlli" uylar, shaharlar, viloyatlar va mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Bu aqlli uy esa resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi va inson qulayligi darajasini oshiruvchi tizimlar majmuini o'z ichiga oladi. Yagona axborot platformasi tomonidan birlashtirilgan turli sensorlar tufayli real vaqtda barcha tizimlarning monitoringi ma'lumotlarni minimal darajada inson ishtiroki bilan qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ularni real sharoitlarda tekshirish va sinovdan o'tkazish hamda turli ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish tashkilotlari bilan muvofiqlashtirish zarurati tufayli to'liq yakunlanishi hal ham aniq emas.

Tarmoqning raqamli iqtisodiyot modeliga o'tish insonning hayoti va madaniyatini, shuningdek, jamiyat va davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlar tizimini o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Yangi texnologik tartib O'zbekistonning dunyoda yetakchi bo'lishi uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etmoqda..

Bugungi kunda ijtimoiy ta'sirni qamrab olgan raqamli iqtisodiyotning samaradorligini baholashning aniq usullari yo'q. U nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlarga (YaIM va mehnat unumdorligi darajasiga), balki hayotni yanada qulay va yuqori sifatli qila oladigan sifat ko'rsatkichlariga ham asoslanishi kerak.

Tarmoqlar majmuasi tizimlarida rejalashtirish uchun maxsus dasturiy ta'minotga ehtiyoj juda yuqori. Loyihani o'z vaqtida amalga oshirish va resurslardan imkon qadar samarali foydalanish uchun eng yaxshi yo'lni topish asosiy muvaffaqiyat omillari bo'lib, raqobat har kuni o'sib borishi bilan tashkilotlarning rivojlanishiga tajribalar ko'rsatib bormoqda.

Biz intilayotgan "raqamli inqilob" natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning aksariyati avtomatlashtirilgan servislar yordamida amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, aholiga xizmat ko'rsatish jarayonida inson ishtirokini keskin kamaytirib, uzoq yillar davomida yurtimiz ravnaqini ortga surib, aholi turmush sifati va farovonligiga salbiy ta'sir etib kelgan byurokratiya, qog'ozbozlik hamda korrupsiyaning sezilarli darajada kamayishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, T. 28.04.2020.

2. Иващенко А.В., Андреев М.В. Программная платформа для оператора 6PL // Программные продукты и системы, 2015. - № 3 (111).- с. 171 – 174.

3. Гасанова, Н.М. Совершенствование методики управления реализацией работ инновационного строительного проекта / Н.М. Гасанова, Т.М. Алиева // Транспортное дело России - 2009. - № 1.- с. 66-69.

4. Гласман, К.Ф. Цифровое наземное телевизионное вещание Электронный ресурс] / К.Ф. Глассман // Новостной бизнес портал 625-net. - 2016. — Режим доступа: http://625-net.ru.

5. Евгений Кисляков «Как строится проектное управление цифровой экономикой» руководитель аналитического центра при Правительстве Российской Федерации, 09.01.2018.

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ҚУРИЛИШ ОБЪЕКТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА РАҒБАТЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

Диярова Маҳлиё Исламовна
СамДАҚУ, таянч докторант

Аннотация. Ушбу мақолада қурилиш объектларини самарали бошқаришда Тизимли таҳлилдан фойдаланиш натижасида бошқарувнинг блок схемасини тузиш, улар ёрдамида бошқарув жараёни амалга оширилиши мумкин бўлган Моделлар ёрдамида қурилишни ривожлантиришнинг асосий тенденцияси, шунингдек, етарли кўрсаткичлар орасидаги оғишлар аниқланган. Бунда асосий эътибор математик ва статистик назорат усулларидан фойдаланишга қаратилган ҳолда тизимли таҳлил усулни моделлаштириш учун асос сифатида эътироф этилган.

Калит сўзлар. Бошқарув тизими, бошқарув мақсади, рағбатлантириш, назорат қилиш, тизимли таҳлил, спектрал таҳлил, блок-схема, вақт қаторлари, қарор қабул қилиш, молиявий натижалар, прогнозлаш.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование системного анализа для эффективного управления строительными объектами, что позволяет построить блок-схему управления. С помощью моделей, на основе которых может быть реализован процесс управления, были выявлены основные тенденции развития строительства, а также отклонения между значимыми показателями. Основное внимание уделено использованию методов математического и статистического контроля, при этом системный анализ признан основой для моделирования.

Ключевые слова: система управления, цель управления, стимулирование, контроль, системный анализ, спектральный анализ, блок-схема, временные ряды, принятие решений, финансовые результаты, прогнозирование.

Annotation. This article discusses the use of systems analysis for effective management of construction projects, enabling the creation of a management flowchart. With the help of models through which the management process can be implemented, key trends in construction development, as well as deviations among significant indicators, have been identified. The main focus is placed on using mathematical and statistical control methods, with systems analysis recognized as the foundation for modeling.


Keywords: Management system, management objective, incentivization, control, systems analysis, spectral analysis, flowchart, time series, decision-making, financial results, forecasting.

Инновацион иқтисодиёт шароитида қурилиш объектларини бошқариш ва уларни янада ривожлантириш қурилиш объектларининг ишлаб чиқариш-хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш билан боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Тасдиқланган кўрсаткичлар ва нормативларни бажариш ёки бажармаслик натижалари асосида амалга оширилган таҳлил шуниси билан мураккабки, у инсоннинг бошқарилаётган жараёнлардаги фаолияти ҳамда тузатиш киритиш ёрдамида шовқинларни йўқ қилиш имконияти ва бошқа кўплаб омилларга боғлиқдир.

Бошқарув деганда қўйилган вазифаларга мос равишда қурилиш жараёнга мақсадли йўналтирилган таъсир этувчи омиллар йиғиндиси тушунилади.

Корхонанинг қурилиш объекти бозор шароитида иқтисодиётни тизимлиб самарали бошқариш ва ташкил этиш шакли сифатида, бозорни бошқариш усули сифатида ҳаракат қилганлиги сабабли, рағбатлантириш ва назорат қилиш вазифаларини ҳам бажаради, шунинг учун у бошқарув тизими ҳисобланади. Бу эса шуни англатадики, назоратсиз бошқарувни тақкослаб бўлмайди. Мавҳум равишда, кибернетик тизим билан бир хил бўлган қуйидаги бошқарув структураси олинади (1-чизмага қаранг).

Бозор шароитида бошқарув компаниясига кўрсаткичлар ва стандартлар тизимига риоя қилган ҳолда турли даражадаги иқтисодий жараёнларга таъсир ўтказиш ва уларни бошқариш вазифаси юклатилган. Тизим таҳлилидан фойдаланган ҳолда иқтисодий тизимларни ўрганиш бир вақтнинг ўзида оптимал бошқарув вариантини топиш мумкин бўлган моделларга олиб келади. Иқтисодиётдаги жараёнларни ўрганишда абстракция усулига талаблар жуда юқори, чунки жараёнлар комплексли, мураккаб ва стохастик хусусиятга эга[1].



1-чизма. Корхонанинг қурилиш объектини бошқариш жараёни чизмаси

Шунга асосланиб, батафсил чуқур тадқиқотлар (микро-босқич) ўтказилади. Шунингдек, босқичнинг ечими тавсифланади. Бунинг ортидан оптимал бошқарув тизимини яратиш учун макро ва микро тадқиқотларга асосланган босқич келади. Шундай қилиб, таҳлил яхлитликдан қисмга ва синтез орқали бутунга қайтади. Иқтисодий тизимни синтез қилиш ва таҳлил қилиш услубияти қуйида келтирилган. Тизимли таҳлилда фойдаланиладиган кибернетиканинг асосий босқичлари ва ёрдамчи воситалари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал


Тизимли таҳлилда фойдаланиладиган кибернетика ёрдамчи воситалари ва асосий тадқиқот босқичлари

Т/р	Асосий босқичлар	Кибернетика ёрдамчи воситалари	Натижалар
1	Ўрганилаётган объектнинг мазмуни. Бошқарув тизимининг вазифаси ва мақсадини белгилаш	- -	оғзаки тавсиф мақсадлар, вазифалар ва кўрсаткичлар дарахтини тузиш
2	Вазифалар ва мақсадларни амалга ошириш учун элементларни аниқлаш ва уларни зарур мослаштириш	тизимлар назарияси ахборот назарияси	жадвал кўринишидаги графиклар
3	Функционал структура мақсадида элементларнинг ўзаро алоқаларини ўрганиш	ахборот назарияси	назарий бошқарув структураси
4	Таҳлил (тафовутлар): а) элементлар ўзаро алоқасида; б) элементлар иш самарадорлиги; в) кўрсаткичларга салбий таъсир этувчи омиллар	бошқарув назарияси алгоритмик назария	жадваллар, расмлар, схемалар
5	Яхшилаш: а) қоидабузарликлар учун компенсация б) мослашиш қобилияти с) рационализация ва алгоритмлаш д) ишончлилик ва барқарорлик	бошқарув назарияси алгоритмик назария ўйин назарияси	бошқарув структуралари; жадваллар, алгоритмлар, эвристик схемалар
6	Амалда эришилган натижалар устидан назорат	кибернетика усуллари	ишбилармонлик ўйинлари, имитацион моделлар

Асосий босқичлар деталлаштирилиши ва мантиқий тўлдирилиши мумкин. Бунда вазифа ва мақсадни фарқлаш зарур.

Вазифа деганда жараённи амалга ошириш фаоллиги, мақсад деганда эса – у бўйича вазифа бажарилиши лозим бўлган мезон, яъни унинг қандай самарадорлик билан бажарилиши тушунилади.

Вазифанинг қўйилиши ва мезонни шакллантириш оптималлаштириш ва бошқаришда асос ҳисобланади. Қурилиш корхоналарида мақсад ва оптимал бошқарув стратегияси ўртасида тўғридан-тўғри алоқа бўлиши керак[2]. Чунки мезонлар ёрдамида вазифаларни бажариш самарадорлигига баҳо берилади. Бундан ташқари барча вазифалар, мезонлар ва уларнинг кўрсаткичларини турли мақсадлар дарахти кўринишида ифодалаш мумкин.



2-чизма. Оптимал бошқарув стратегияси ва мақсадининг боғлиқлиги чизмаси

Юқорида айтиб ўтилган қурилиш корхонасига нисбатан тизимли таҳлилнинг $А_с Б$ асосий босқичлари ва $Ш_{y1}$ мантиқий шартларини янада ажратиш блок-схема билан ифодаланиши мумкин бўлиб, унда:

$А_с Б_1$ - объект (қурилиш корхонаси) тавсифномаси;

$А_с Б_2$ - вазифаларни вазифалар дарахти кўринишида тақдим этиш;

$А_с Б_3$- тизим мақсадларини мақсадлар дарахти орқали ифодалаш. Мақсадлар баҳолаш

кўрсаткичлари, масалан, фойда, самарадорлик, меҳнат унумдорлиги сифатида тақдим этилади;

$А_сБ_4$- кўрсаткичлар тизимини мақсад ва вазифалардан келиб чиқиб, кўрсаткичлар дарахти тузиш асосида тақдим этиш;

$А_сБ_5$- тизимнинг $А_сБ_2$ шарти билан назорат ва бошқарувни амалга ошириш учун зарур бўлган энг муҳим элементларини аниқлаш;

$А_сБ_6$- мақсадларнинг амалга оширилишини таъминлайдиган тизим элементларини аниқлаш;

$А_сБ_7$ - бошқарув назарий структурасини тақдим этиш;

$А_сБ_8$- тизимга ташқаридан таъсир кўрсатадиган ва кўрсаткичлар бажарилишига халақит берадиган оғишларни таҳлил қилиш;

$А_сБ_9$ - элементлар ўзаро алоқасига таъсир этадиган ва кўрсаткичлар бажарилишига халақит берадиган оғишларни таҳлил қилиш;

$А_сБ_{10}$- элементларнинг ишлаш усулига таъсир этадиган ва кўрсаткичлар бажарилишига халақит берадиган оғишларни таҳлил қилиш;

$А_сБ_{11}$ - маълум бир барқарор оралиқ соҳаларини аниқлаш, яъни йўл қўйиш мумкин бўлган оғишлар қийматини аниқлаш;

$А_сБ_{12}$ - барқарор соҳа доирасидан чиқиш ҳлатларидаги чора-тадбирлар ишлаб чиқиш;

$А_сБ_{13}$- мослашиш ва ўқитишга қодирлик улар ёрдамида таъминланадиган элементларни танлаш;

$А_сБ_{14}$ - бошқарувнинг энг яхши назарий структурасини таққослаш;

$А_сБ_{15}$ - тизимнинг алоҳида элементларининг иш алгоритмини ишлаб чиқиш;

$А_сБ_{16}$- эрилишган натижаларни тўғридан-тўғри амалиётга жорий қилиш.

$Ш_у$ шартларни тадқиқ этиш


$Ш_{у1}$ - тизимнинг мақсад ва вазифалари жамият эҳтиёжларига мос келадими?

$Ш_{у2}$- тизим ва элементларнинг мослашиш ва ўқиш қобилияти таъминланганми?

$Ш_{у3}$ - мақсад ва вазифаларни амалга ошириш кўрсаткичлари устидан назорат бўлиши мумкинми?

$Ш_{у4}$- бошқарувнинг назарий структураси ёрдамида вазифаларнинг бажарилиши такрор ишлаб чиқариладими?

$Ш_{у5}$- бошқарувнинг назарий структурасида мақсадлар тўғри акс эттириладими?



3-чизма. Қурилиш корхонасини тизимли таҳлил этишнинг блок-чизмаси


Ляпунов бўйича операторлик ёзув усулида схема қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$\downarrow^1 А_сБ_1А_сБ_2Ш_{у1} \uparrow^1 А_сБ_3А_сБ_4А_сБ_5А_сБ_6А_сБ_7А_сБ_8А_сБ_9А_сБ_{10}А_сБ_{11}А_сБ_{12} \downarrow^2 А_сБ_{13}Ш_{у2} \uparrow^2$$
$$Ш_{у3} \uparrow^2 Ш_{у4} \uparrow^2 Ш_{у5} \uparrow^2 А_сБ_{14}А_сБ_{15}.$$

Якуний режа тегишлича мантиқий шартли кўринишга эга бўлади.

Ушбу эвристик дастур таҳлил ва синтез қилишда ёрдамчи восита ҳисобланади, бунда кўрсаткичлар тизими ҳар бир бўғини тавсифлайди.

Тизимли таҳлилдан фойдаланиш натижасида улар ёрдамида бошқарув жараёни амалга оширилиши мумкин бўлган моделлар олинади. Вазиятга қараб, айрим вазиятлар ва қарор қабул қилиш имитация қилиниши мумкин. Бошқарув жараёнида қарорни танлаш қуйидаги схема билан ифодаланиши мумкин:



4-чизма. Моделдан фойдаланишда қарор қабул қилиш жараёнининг блок-чизмаси.

Бунда қуйидагиларни аниқлаштириш керак:

$Ш_{у1}$ - амалдаги ва режа кўрсаткичлари ҳажми бўйича мос келадими?

$Ш_{у2}$ - компенсация чоралари маълумми?

$Ш_{у3}$ - моделда танланган чора-тадбирлар ижобий ўзгаришларга олиб келдими?

$Ш_{у4}$ - танланган чора-тадбирлар асосида ҳолатга эришилдими?

$А_с Б_1$ - чора-тадбирларни танлаш;

$А_с Б_2$ - моделга тузатиш киритиш ҳозирги даврдаги иқтисодий ҳодисаларнинг асосий тенденцияларини ва уларнинг келажакка қайтишини ўрганиш асосида вақт қаторларини таҳлил қилиш ёрдамида қурилиш миқдори, харажатлар, меҳнат унумдорлиги, фойда, хом ашё захиралари, алоҳида иқтисодий корхоналарнинг илмий-техник ишланмаларини молиялаштириш учун маблағларни аниқлаш мумкин. Ушбу моделдан молиявий кўрсаткичларни ҳисоблаш учун ишлатилиши мумкин бўлган маълумотларни таҳлил қилиш мумкин бўлади.

Моделлар ёрдамида қурилишни ривожлантиришнинг асосий тенденцияси, шунингдек, етарли кўрсаткичлар орасидаги оғишлар аниқланади.

Вақт қаторлари ёрдамида таҳлил қилишнинг асосий шарти сиёсий иқтисодий назария саналади. Таҳлил қилинадиган ва кўриб чиқилаётган бутун вақт давомида тенг бўлиши мумкин бўлган ҳодисалар, кўрсаткичлар ва ҳоказоларнинг аниқ бўлиниши (дифференциацияси) у билан чамбарчас боғлиқдир.

Тренд иқтисодий жараён ривожланишининг асосий узоқ муддатли тенденцияларини очиб беришга хизмат қилади. Бунда X_t иқтисодий ҳодиса t вақт функцияси сифатида кўриб чиқилади. Бундан ташқари, чизиқли ва чизиқли бўлмаган функцияларни шакллантириш мумкин, кейинчалик улар энг кичик квадратлар усули ёрдамида аниқланади[3]. Ушбу функциялар ёрдамида ҳисобланган қийматлар кейинчалик қурилишдаги турли хил иқтисодий ҳодисаларни таҳлил қилиш ва башорат қилиш учун қўлланиши мумкин.

Қурилишда қўлланилиши мумкин бўлган вақт қаторлари ёрдамида таҳлил қилишнинг кейинги усули бу трендни ҳисоблашдир. Бунда вақт қатори текисланади ва унинг ривожланиш тенденциялари аниқланади. Сирпанувчи ўртача кўрсаткичлар асосан тасодифий ўзгарувчан тенденцияларга, тасодифий оғишларнинг катта таъсирисиз қўлланилади.

Оддий сирпанувчи ўртача кўрсаткичлардан фарқли равишда, экспоненциал текислашнинг афзаллиги шундаки, кўпроқ сўнгги маълумотлар ҳисобга олинади ва бу ўтган маълумотларнинг таъсирини аста-секин камайтиради.

Тренд учун ва тренд параметрларини аниқлаш учун экспоненсиал функциядан фойдаланган ҳолда вақт қатори маълумотлардан фойдаланиш вақт қаторини экстраполяция қилиш учун жуда мослашувчан восита бўлиб, бир вақтнинг ўзида ўтмишда пайдо бўлган узоқ муддатли тенденцияларга эътибор қаратади.

Шундай қилиб, сирпанувчи ўртача кўрсаткич усули ва тренд иқтисодий вақт қаторларини прогнозлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади ва қурилиш корхоналарида асосиланган режали ва бошқарув қарорларини тайёрлашда хизмат қилиши мумкин.

Вақт қаторларининг ривожланишидаги умумий тенденция билан бир қаторда, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва оғишлари қизиқиш уйғотади, биринчи навбатда, узоқ муддатли ўзгаришларни ажратиб кўрсатиш керак. Бу турли йўллар билан амалга оширилиши мумкин. Энг оддийси - вақт қаторидан тренднинг бир турини олиб ташлаш.

Иқтисодий вақт қаторларини амалий ўрганиш учун вақт қаторлари маълумотларидаги оғишларни ўрганишда аниқ ривожланиш тенденцияларини аниқлаш кифоя. Ушбу шартлар орасида автокорреляция яхши тадқиқот ёрдамчиси бўлиб хизмат қилади. Бу вақт қаторининг ички структураси ва мавсумий ўзгаришлар ҳақида муҳим маълумотларни беради.

Вақт қаторини таҳлил қилишнинг яна бир зарур усули спектрал таҳлил ҳисобланади.

Спектрал таҳлил натижалари тизимнинг қайси таркибий қисмларини ва вақт қаторлари қандай нисбатда тузилганлигини кўрсатиши мумкин. Моделни намойиш қилишда ушбу таркибий қисмлардан кўриб чиқилаётган иқтисодий жараён моделининг асосий таркибий қисмлари сифатида бошлаш керак. Моделлаштириш ва моделларни таққослаш жараёнида спектрал таҳлил назорат функцияларини бажаради. Гарчи спектрал таҳлилнинг бутун аппаратидан (интеграл тенглама ва ҳ.к.) фойдаланиш қийин бўлсада. IT спектрал таҳлилдан қурилиш корхоналарида вақт қаторларининг даврий тебранишларини тадқиқ этиш учун кенг кўламда фойдаланиш имкониятини беради. Масалан, спектрал таҳлил ёрдамида қурилиш корхоналари ишлаб чиқаришдаги оғишларни таҳлил қилиши, тўғрироғи, бартараф этиши ва бу оғишларнинг сабабларини аниқлаши мумкин. Шундай қилиб, спектрал таҳлил – қурилиш корхонасини бошқаришда зарурий воситадир[4].

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, қурилиш ҳажмини тартибга солиш учун моделдан фойдаланиш шакли ва мазмуни бўйича қурилиш корхоналари фаолиятини прогноз қилишда зарур восита сифатида қурилишни ривожлантиришнинг мақбул суръатларининг қиймати бўлиши керак.

Вақт қаторини таҳлил қилиш моделнинг махсус соҳаси ҳисобланади. Чунки вақт қаторларини таҳлил қилиш прогнозлаш ва бошқаришда етарли даражада қўлланилмайди.

Иқтисодий ҳодисалар ва жараёнлар узоқ вақт давомида узлуксиз бўлиб келган. Ушбу узлуксизлик иқтисодий ҳодисаларнинг, айниқса қурилиш корхоналарининг асосий иқтисодий кўрсаткичларининг оптимал таъсирига асосланади. Улар истеъмолчиларнинг (қурилиш объектлари учун

буюртмачиларнинг) тобора ортиб бораётган эҳтиёжларини қондириш манфаати учун иқтисодиётдаги тартибсиз ўзгаришларни истисно қиладилар.

Узлуксиз иқтисодий ҳодисаларнинг қурилиш корхоналарининг асосий иқтисодий кўрсаткичларининг оптимал таъсирини эътиборга олиш орқали буюртмачиларнинг тобора ортиб бораётган эҳтиёжларини қондиришнинг оптимал варианти ишлаб чиқилди. Натижада қурилиш объектларига истеъмолчи-буюртмачиларнинг талабларини қондириш ўрта ҳисобда 26 кунга қисқартиришга эришилди.

Адабиётлар рўйхати

1. Купчеков, А. М. Проблемы субъектов малого и среднего предпринимательства в строительной сфере / А. М. Купчеков, О. В. Лустина // Молодой ученый. – 2016. – № 17(121). – С. 430-433.

2. Стулов А.В. Управление развитием рынка жилой недвижимости [Электронный ресурс]: Дис. … канд. экон. наук: 08.00.05.- М., 2004.- 160 с.

3. DotduevaA.U. Development of innovation activities in the construction industry // International Student Scientific Journal. (2017). Vol. 7. URL: https://scienceforum.ru/2013/article/2013008779 (accessed 04.10.2018).

4. Diyarova M.I., Zaynalov J.R. Regulating the specific characteristics of residential real estate. // SILK ROAD 3nd International Scientific Research Congress. 2024., 6-7-March. Pg. 622-627.

TURIZM XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Abdixoliqov Jamshid Abdixalil o’g’li
SamDAQU, “Ko’chmas mulkni boshqarish” kafedrasi o’qituvchisi.
Mirzaxadjayeva Shaxzoda Shuxratovna
SAMDAQU, “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.

Anotatsiya. Ushbu maqolada turizm xizmatlar bozorini rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish orqali, O’zbekiston Respublikasida ichki turizmga xos asosiy muammolarni aniqlanganligi ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar. Turizm xizmatlar bozori, limitlashtiruvchi omillar, demografik omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, rag’batlantiruvchi omillar, ekologik cheklovlar, turistik destinatsiya.

Аннотация. В данной статье путем анализа факторов, влияющих на развитие рынка туристических услуг, показано, что выявлены основные проблемы, характерные для внутреннего туризма в Республике Узбекистан.

Ключевые слова. Рынок туристических услуг, ограничивающие факторы, демографические факторы, экономические факторы, социальные факторы, стимулирующие факторы, экологические ограничения, туристская дестинация.

Annotation. In this article, by analyzing the factors affecting the development of the tourism services market, it is shown that the main problems specific to domestic tourism in the Republic of Uzbekistan have been identified.

Key words. Tourism services market, limiting factors, demographic factors, economic factors, social factors, encouraging factors, environmental restrictions, tourist destination.

O’zbekison Resublikasida 2025 yilgacha bo’lgan davrda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga ko’ra, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirish asosida turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlanishiga erishishni ta’minlashga qaratilgan.

Turizm xizmat bozori turistik xizmatlarning xaridori (talabni taqdim etuvchilar) va sotuvchilarni (mahsulot bilan ta’minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraladi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o’laroq, turizm xizmat bozorida tovarning sotuvchidan xaridorga ko’chishi kuzatilmaydi, balki xaridorlar, ya’ni turistlar tayyorlangan xizmatlarni, turmahsulotni olish uchun belgilangan manzilga qarab harakat qilishadi. Turizm xizmat bozori subyektlari, ya’ni turistik mahsulot ishlab chiqaradigan va iste’mol qiladigan jismoniy va yuridik shaxslarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, turizm xizmat bozorining iqtisodiy mohiyati ko’p jihatdan turizmda keng qamrovli bo’lgan multiplikativ samara ta’siriga asoslanadi. Turizm nazariyotchilaridan biri bo’lgan Irena Endjeychikning ta’kidlashicha, “multiplikativ samaraning ta’siri natijasida turizmda yaratilgan bitta ishchi o’rni turizm bilan hamkorlik tizimi orqali bog’langan boshqa soha va tarmoqlarda ettita yangi ishchi o’rnini yaratadi” .

Turizm xizmatlar bozori mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasi bo’lib, turizm industriyasining milliy iqtisodiyotdagi asosiy o’rni va uni rivojlantirish butun iqtisodiyotni rivojlanishi bilan bog’liqligi tushuniladi. Milliy iqtisodiyotda turistik xizmatlar bozorining shakllanishi uchun qator shartlarni amalga oshirish zarur. Ushbu shartlar quyidagilardan iborat: tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy (1-jadval).

1-jadval

Turizm xizmatlar bozorining shakllanish shart-sharoitlari

Tabiiy-geografik	Madaniy-tarixiy	Tashkiliy-iqtisodiy	Ijimoiy-iqtisodiy
mamlakat yoki hududning tabiiy-geografik joylashuvi	diniy, madaniy, tarixiy va diqqatga sazovor joylarning mavjudligi	me'yoriy-huquqiy baza	aholi soni va tarkibi
tabiiy, inson qo'li bilan yaratilmagan turistik-rereatsion resurslarning mavjudligi	yangi bilim va sayohatga undovchi madaniy qadriyatlarning mavjudligi	soliq-kredit siyosati	
iqlm sharoiti, tabiiy tog'lar daryolar va cho'larning mavjudligi		innovatsion-investitsiya muhiti	aholining daromadlar darajasi
	ekologik madaniyatning o'sishi	dotatsiya va subsidiyalar, faoliyatni litsenziyalashtirish	xududlarning ijtimoiy xavfsizligi

Turistlar uchun bugungi kunda quyidagi tabiiy-turistik resurslar jozibador bo'lib qolmoqda (masalan, Tashkent viloyati yoki Farg'ona vodiysi va shu kabilar). Og'ir iqlim sharoiti yoki geografik jihatdan uzoq joylashuv bo'lsa, hatto diqqatga sazovor joylarning ko'pligiga qaramasdan yil bo'yi barqaror turistik oqimni ta'minlab bo'lmaydi.

Madaniy-tarixiy shart-sharoitlar turizm rivojlanishiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, tarixiy yodgorliklar (Samarqand, Buxoro va Xiva) va ob'ektlarning tabiiy saqlanib qolganligi bilan destinatsiyani turistlar oqimi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, turistik talab aholining savodxonlik darajasining ortishi, madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish, aholining yangi bilimlarni to'plash va boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqaga kirishish istagini oshiradi. Keyingi shart-sharoitlar guruhi tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu erda asosiy o'rinda davlatning roli turadi.

Davlat tomonidan turizm industriyasi va mehmonxona xo'jaligi bo'yicha qonunchilik bazasi shakllantiriladi. Aynan davlat tomonidan ma'muriy va iqtisodiy boshqaruv usullari orqali qulay soliq-kredit va innovatsion-investitsiya muhiti yaratiladi.

Ma'muriy tartibga solish usullari turizm va mehmondorchilik industriyasi korxonalari faoliyatini tartibga solish (me'yoriy-huquqiy baza, faoliyatni litsenziyalash, monopoliyaga qarshi tartibga solish)ni ko'zda tutadi. Iqtisodiy tartibga solish usullari asosida soha korxonalari va barcha manfaatdor tomonlar faoliyatini turistik bozorda faoliyat olib borishga rag'batlantirish (soliq va soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, dotatsiya va subsidiyalar, loyihaviy moliyalashtirish, davlat buyurtmalari) amalga oshiriladi.

Bundan tashqari davlat tomonidan soha korxonalarining jamoatchilik xavfsizligi ham ta'minlanadi. Mamlakatda yoki uning hududlaridagi ijtimoiy xavfsizlik kiruvchi, shu jumladan chiquvchi turizmning rivojlanishini ham rag'batlantiradi. Mamlakatdagi siyosiy beqarorlik va ijtimoiy xavsizlikning pastligi mamlakat va uning hududlarida dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan diqqatga sazovor joylar bo'lishiga qaramasdan turistlar oqimining kamayishiga olib keladi. Mamlakat va uning hududlaridagi o'zaro naf keltiruvchi tashkiliy –iqtisodiy shart-sharoitlar raqobatni rivojlantirish va taklif etilayotgan turistik xizmatlarning diversifikatsiyalashuvini ta'minlab beradi.

Turizm xizmatlar bozori shakllanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlardan biri ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardir. Aholi soni va tarkibi, daromadlar darajasi turistik bozor hajmini belgilab beradi. Urbanizatsiya, ish vaqtining uzayishi, turmush tarzining zamonaviy shahar uslubiga transformatsiyalashuvi yangi iste'molchilar jamiyatini shakllantirdi va turli taassurotlar, bilim va qo'shimcha xizmatlarga bo'lgan talabning shakllanishiga turtki beradi. Natijada turistik xizmatlar bozorining iqtisodiy qonuniyatlaridan biri bo'lgan Engel qonuni xosil bo'ladi, unga ko'ra daromadlar darajasining ortishi bilan aholining birinchi darajali iste'mol tovarlariga bo'lgan sarflarining kamayishi va ma'naviy rivojlanishga hamda hashamga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi (jumladan turizmga) .

Turizm xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishida rag'batlantiruvchi va limitlashtiruvchi omillarga quyidagilar kiradi Rag'batlantiruvchi omillar demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi.

Demografik omillarga turistik xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar dunyo bo'yicha ahol sonining o'sishi, urbanizatsiya, harakatchan turmush tarzi stereotipning shakllanishi, til bo'yicha to'siqlarning yo'qolib borishini kiritish mumkin.

Turistik xizmatlar bozorining rivojlanishida xalqaro iqtisodiy omillarning ham ahamiyati katta bo'lib, bu jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqiyotning jadallashuvi, aholi daromadlarining o'sishi, turizm moddiy-texnik bazasining rivojlanishida aks etadi. Natijada moddiy ishlab chiqarishning nomoddiy ishlab chiqarishga transformatsiyasi kuzatiladi va xizmatlar iste'moli, jumladan turistik xizmatlar iste'moli ham ortib boradi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi xizmat ko'rsatishning yangi yo'nalishlarining paydo bo'lishiga, internet tarmog'i bo'ylab turizm infratuzilmasining rivojlanishiga olib keldi (Onlayn bronlash tizimlari, internet marketing).

Ijtimoiy omillar – bu insonlarning turmush sharoiti bilan bog'liq omillardir. Xalqaro turizm rivojlanishiga haq to'lanadigan ta'tillar sonining ko'payishi, jumladan ta'tillarning ikki qismga bo'linishi insonlarning yil

davomida sayohat uyushtirishga imkon beradi.

Me'yorlovchi omillarni xalqaro va mahalliy omillarga bo'lish mumkin. Xalqaro omillarga mavsumiylik, siyosiy vaziyat, iqtisodiy va tabiiy shart-sharoitlar kiradi. Turizm bozorining muhim xususiyatlaridan biri turistik talab va taklifning mavsumiyligidir.

Keyingi o'n yillikda xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida turizmning mavsumiylik masalalariga etarlicha to'xtalib o'tilgan, chunki bu omil hududlarda turistik bozorning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, uning ta'sir darajasi esa turizmni boshqarish sohasiga oid davlat dasturlari asosida tartibga solinadi.

Mavsumiylikning muhim jihatlaridan biri turistik taklifni mavsum xusuyatlariga ko'ra qondirish imkoniyatining yo'qligi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan "o'lik" mavsumlarda foydalanish imkoniyatining yo'qligidir. Turdosh tarmoqlar ham mazkur muammodan katta aziyat chekadi, chunki ular ushbu muammodan xalos bo'lish maqsadida doimiy yashash joyini o'zgartirish imkoniyatiga ega emas.

Mamlakatimiz turizm industriyasining faoliyatida mavsumiylik omili mavjudligi O'zbekistonning iqlimiy shart-sharoitlari va turistik mahsulotni shakllantirishda aynan tabiiy-iqlimiy omillar muhim rol o'ynashi bilan izohlanadi

Yilning yanvar, fevral va dekabr oylarida turistlar oqimining keskin pasayishi turoperatorlarimiz tomonidan tayyorlangan dasturlar ta'sirchanligining pastligi va ushbu oylarda turistlarni jalb qiladigan ommaviy tadbirlarning yo'qligi bilan baholanadi, bu esa oilaviy va guruh bo'lib keladigan sayohatlarning turizm bozoridagi o'rnini yo'qotishga olib kelmoqda.

O'zbekiston turistik xizmatlar bozorida xalqaro hamjamiyat tomonidan "turistik inqilob" deya tariflanadigan turmahsulotlarga o'sib borayotgan talab ayniqsa "turistik mavsum" ya'ni (mart-iyun, sentyabr-noyabr) oylarida 100 % ga to'ladi va mavjud joylashtirish vositalari mavsum davrida ushbu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, natijada turistlarga past sifatli xizmatlar taklif qilinadi.

Mavsumiylikka, jumladan turistik bozorning mavsumiylik xarakteriga shuningdek davlatning ichki siyosati, xalqaro aloqalar, harbiy mojaro va turli terrorchilik xurujlari ham sabab bo'ladi.

Turistik bozor rivojlanishiga limmitlovchi ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy omillarga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini ham kiritishi mumkin. Mamlakatda ichki va xalqaro turizm qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, ushbu mamlakatda turizm infratuzilmasi ham boy moddiy-texnik bazaga ega bo'ladi hamda aholining turmush farovonligi ham yuqori bo'ladi.

Tabiiy omillarning ta'siri turli tabiiy hodisalar bilan bog'liq. Bularga zilzila, to'fonlar, sel kelishi, yong'in, ko'chki va shu kabilar kiradi. Tabiiy omillar nafaqat turizm infratuzilmasiga, balki hududdagi ekologik vaziyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy omillarga turistik talab va taklifning cheklanishi (bu holat asosan mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va turizm infratuzilmasi rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin); ekologik cheklovlar (shovqin darajasining cheklanishi, antropogent ta'sirning oldini olishga qaratilgan siyosat va shu kabilar); turistik destinatsiyalar to'g'risida ma'lumotlarning yetarli emasligi hamda turistik resurslar taqchilligini kiritish mumkin.

Turizm xizmatlar bozorini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasida ichki turizmga xos quyidagi asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi:

turizm industriyasi korxonalarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan rejalashtirish faoliyatida tub o'zgarishlarning mavjud emasligi;

mahalliy turistik resurslarni takror ishlab chiqarishning mavjud emasligi natijasida resurslarning bozor qiymati va narxi pasayib bormoqda;

taqdim etilayotgan turistik xizmatlarning raqobatbardosh emasligi bois, bozor mavqeini yo'qotib borayotganligi;

hududlarning turistik salohiyatidan etarli darajada foydalanilmayyotganligi.

Turizmning yana bir xususiyati shundan iboratki, eksport qilingan turistik xizmatlar chetga chiqib ketmaydi, balki, mamlakatning o'zida iste'mol qilinadi. Turmahsulot iste'molchisi turmahsulotgacha bo'lgan masofani o'zi bosib o'tib keladi. Turizm xizmatlar savdosi sifatida jahon bozorida ko'rinmas eksportni aks ettiradi. U mamlakatning jahon bozoridagi to'lov balansiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Turmahsulotga xorijiy bozorlar bo'ylab siljitishda mamlakat hukumati tomonidan tashabbus ilgari surilishi kerak. Chunki davlat mazkur bozorlar o'rtasidagi ommaviy axborot vositalari va boshqa vositalar orqali aloqalarni tiklaydi va yo'lga qo'yadi.

Turizm mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omili sifatida ham qaraladi.

Hududlar misolida boy tabiiy-rekreatsion salohiyat, noyob madaniy-tarixiy yodgorliklar, qulay transchegaraviy joylashuv jihatdan boshqa viloyatlarga nisbatan ustunligi, sohaga kadrlar tayyorlashning rivojlangan tizimiga ega bo'lgan Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash doirasida mazkur masalalarni kompleks yondashuv asosida hal etish xamda istiqbolda tashrif buyuradigan xorijiy va ichki turistlar uchun yanada qulay shart-sharoitlarga ega turizm infratuzilmasini barpo etish lozim. Shu tufayli Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar xilma-xilligini oshirish va sifatini ta'minlash, yangi turizm infratuzilmasi ob'ektlarini barpo etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda turizmni rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish

usullarini qo’llashda quyidagi vazifalarni bajarish lozimligi taklif qilindi:

iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalari bilan hamkorlikning zamonaviy usul va mexanizmlarini yo’lga qo’yish;

hozirgi o’zgaruvchan sharoitda boshqaruv qarorlarning yangi modelini joriy qilish lozim;

tabiiy va inson resurslaridan samarali va ratsional foydalanish;

O’zbekiston turistik bozorining innovatsion-investitsiya jozibadorligini oshirish.

Asosiy vazifa shundan iboratki, ichki va kiruvchi turizm faoliyatini ishlab chiqarishning boshqa sohalari bilan uzviy bog’liqlikda rivojlantirish lozim. SHundagina turizm infratuzilmasining oldida turgan muammolarini aniqlash, ta’sir etuvchi omillarni xolis baholash va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish mumkin bo’ladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Qulmatova B., Abdurazzaqov J. RAQAMLASHTIRISH–YANGI IQTISODIY TEXNOLOGIYALARNING ASOSIY TAMOYILLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 25-27.

2. Xashimova N. IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O’ZBEKISTON MAKROIQTISODIY O’SISH ISTIQBOLLARI //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 69-74.

3. Yurnusova M. A. DEVELOPMENT TRENDS AND SPECIFIC FEATURES OF SERVICE INDUSTRIES DURING THE TRANSITION TO THE PATH OF INNOVATIVE DEVELOPMENT //Publishing House “Baltija Publishing”. – 2023.

4. Isomiddin o’g’li S. S. RAQAMLI IQTISODIYOT BUGUNGI KUNDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 18. – №. 1. – С. 243-248.

5. Qaxramon o’g’li R. B. RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 215-220.

6. Rasulev D. XXI ASRDA JAHON IQTISODIYOTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

7. Qulmatova B., Abdurazzaqov J. RAQAMLASHTIRISH–YANGI IQTISODIY TEXNOLOGIYALARNING ASOSIY TAMOYILLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 25-27.

8. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

9. Yo’ldoshmaxmudov S. et al. DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PROSPECTS //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 951-955.

10. Komilova Mukammal Shavkatovna Abdixoliqov Jamshid Abdixalilovich. "USE OF MARKETING STRATEGY AS A FACTOR OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF CONSTRUCTION ENTERPRISES." International journal of advanced research in education, technology and management 2.3 (2023).

11. Komilova, M. Sh. "O’ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SALOHIYATINI OSHIRISH YO’LLARI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 575-584.

12. Sh, Komilova M. "RAQAMLI IQTISODIYOTNING TIZIMLI RIVOJLANISHIDA BOSHQARUV USLUBLARINING O’RNI." Journal of marketing, business and management 1.5 (2022): 53-57

13. Karjavovich, K. Z., Raimkulovich, N. M., Norboevich, J. S., & Erkinovna, O. L. (2022). NATIONAL ACCOUNTING SYSTEM MACRO AND MICROECONOMIC INDICATORS AND GROSS DOMESTIC PRODUCT. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *2*(04), 203-206.

OLIY TA'LIMDA KADRLAR RAQOBATI

Abdusamatov B.K.
SamDAQU "Biznesni boshqarish" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Maqolada "bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limda kadrlarni tayyorlashda raqobatni rivojlantirishning zarurligi to'g'risida muommalat o'rganilib, takliflar hamda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ya'ni ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda Respublikamizdagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti bo'lg'usi yosh kadrlarga yaratilayotgan shart – sharoit va imkoniyatlar uchinchi Renessansning albatta amalga oshishi to'g'risida mulohazalar keltirilgan.

Annotatsiya: В статье изучается вопрос о необходимости развития конкуренции в подготовке кадров в высших учебных заведениях Республики Узбекистан, предложения и приоритеты развития социальной сферы, то есть Самаркандской государственной архитектурно – строительного университета, нашей республике в развитии сферы образования и науки - условия и возможности, созданные для будущих молодых кадров строительного вуза, даются комментарии по уверенной реализации третьего ренессанса.

Abstract: The article "studies the issue of the need to develop competition in training personnel in the higher education system of the Republic of Uzbekistan today, proposals and priority areas for the development of the social sphere, that is, the conditions and opportunities created for future young personnel in the development of the sphere of education and science in our republic - the conditions and opportunities of the third Renaissance, opinions on its implementation are presented.

Kalit so'zlar: Renessans, integratsiya, raqobat, innovatsion texnologiyalar, islohotlar, ta'lim sifati, klaster, modernizatsiya, mehnat unumdorligi, shaffof.

Kirish. Respublikaning iqtisodini rivojlantiruvchi va yangi ish o'rinlari yaratuvchi muhim omillaridan biri qurilish sohasidir. Har doim har bir mamlakat uchun mutaxassislar tayyorlash, etuk kadrlarni voyaga etkazish muhim vazifalardan biri sifatida qaralgan. SHu bois ham oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratish, pedagog kadrlarga e'tibor berish, mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish muhimligi bugungi kunning dolzarb bo'lib turgan asosiy masalalaridan biridir.

Bugungi kunda arxitektura - qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy - tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish hamda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini yanada mustahkamlash echimini topish uchun zarur bo'lgan asosiy masalalardan biriga aylanib turibdi.

Prezidentimizning 2022-yil 8-noyabrdagi "Arxitektura - qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-sonli Qarorida bu muammoning echimi ta'minlashning mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

Buyuk olim Arximed: "Menga tayanch nuqtasini beringiz, erni siljitaman", deb aytgan ekan. Oliy ta'limning sifatini oshirishni nimadan boshlash kerak? Bu "masala"ning tayanch nuqtasi qaerda?

Bugungi kunda mamlakat taraqqiyotini malakali mutaxassislar belgilaydi. Zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan - texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni etishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi. 2020 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi asosida tashkil etilgan uzluksiz ta'lim tizimi, har tomonlama bilimli, intellektual salohiyati, ma'naviyati yuksak, barkamol avlodni shakllantirish mexanizmi mamlakatimizda kuchli demokratik davlat barpo etish va rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Oliy ta'lim — ilm-fan — ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. E.Wagner va J.M. Ferreira tadqiqotlari oliy ta'lim muassasasida raqobatdosh ustunliklarni aniqlash jarayonini tushuntiruvchi kontseptual modelni taklif qilingan. Unda ta'lim muassasalarini boshqaruvchi tashkilotlarning raqobatdosh ustunlikni yaratadigan ichki va tashqi omillarni aniqlangan. Ushbu tadqiqotning asosiy hissasi biznes strategiyasi sohasidagi uchta nazariy yondashuvni oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan asosiy ilmiy yangiligi esa Oliy ta'lim muassasi hudud va manfaatdor tomonlar o'rtasida kuchliroq aloqaga ega bo'lgandagina raqobatda ustunlik qilishi aniqlangan [3].

Davlat universitetlari o'zlarining yangi muhitiga moslashishi va turli manfaatdor tomonlarni hisobga oladigan va uchinchi tomon institutlarini jalb qiladigan proaktiv marketing strategiyalaridan foydalanish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari S. El Nemar va D. Vrontis [4] tadqiqotlarida, o'rganilgan.

"Malakali mutaxassislar tayorlashga alohida e'tibor berish kerak, ularni chet davlatlarga o'qishga yuborish kerak. YAngi materiallar va texnologiyalar hamda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar O'zbekiston korxonalarining chet el qurilish xizmatlari bozorlariga chiqishiga imkoniyat yaratishi mumkin" shu bilan birga, Respublikadagi qurilish tashkilotlari zamonaviy binolarni qurishda va loyihalashda eski standartlardan voz kechib — evrokondlar va evrostandartlar asosida loyihalash va qurishni amalga oshirish zamon talabi ekanligini aytgan [5].

G.S.Sa'dullaeva tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarini guruhlariga ajratgan holda alohida marketing strategiyalari taklif etilgan [6]. Ta'lim sifati va raqobatbardoshligi oshirish borasida O'zbekistonda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, Oliy ta'limda kadrlar raqobati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar bo'yicha kam ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ya'ni ularning bugungi kundagi natijalari o'rganilmagan.

Tahlil va natijalar: 2018 yilda "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish, qurilish tarmog'i kadrlarini professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligini oshirish" bo'yicha Prezidentimiz farmonlari qabul qilingan.

Prezidentimizning bu farmonida loyihalash va qurilish sohasidagi kadrlarning, shu jumladan, professor va o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda albatta amaliyot o'tkazishini tashkil etgan holda uzluksiz, shu jumladan, masofaviy kasbga o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish;

- loyihalash va qurilish sohasida ishlaydigan arxitektorlar va muhandislar malakasiga talablar qo'ygan va ularning javobgarlik, shu jumladan, moddiy javobgarlik darajasini belgilagan holda qurilish tarmog'ini professional jihatdan tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar berilganligi quvonarli holdir.

Hozirgi sharoitda texnologik zanjir bilan bog'langan xomashyo etkazib beruvchilar va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hududiy birlashmasi asosidagi korxonalar majmui, o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar guruhini birlashtirgan hududiy hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liklar, birinchidan, samarali bo'lsa, ikkinchi tomondan, ilmiy-texnik jarayonlar amalga oshiriladi, uchinchidan, oliy ta'limining intellektual salohiyatidan bevosita foydalanish imkonini beradi.

Oxirgi etti yilda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan oliy o'quv yurtlari soni 77 tadan 211 taga etdi, 30 ga yaqin xorijiy oliy ta'lim muassasalarining faoliyati yo'lga qo'yildi, xususiy sektorga katta imkoniyatlarning taqdim etilishi natijasida xususiy oliygohlar soni oshdi. Qamrov darajasi kengaydi. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida fan, ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash, oliy ta'lim bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish borasida Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularda fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida bog'liqlikni ta'minlashning mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

SHu bilan birga, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxona – oliy ta'lim - ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etishga alohida urg'u berilgan.

Xalqaro amaliyot ko'pgina rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash "fan - ta'lim - ishlab chiqarish"gagi bog'liqlikni amalga oshiruvchi tizimga asoslangani, shuningdek, nazariy ta'limni amaliyotga yaqinlashtirish, yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni qondirishga qaratilayotgani bilan tavsiflanadi.

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida "fan - ta'lim - ishlab chiqarish" uyg'unligini amalga oshirish yangicha yondashuv va munosabatlarni taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha Oliy ta'lim kadrlari o'rtasidagi raqobotbardoshliga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagicha belgilash mumkin degah fikrdamiz:

1-jadval

Oliy ta'limda talabalarning o'qish faoliyatidan professor – o'qituvchilar qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash indikatorlari (ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha)

t/r	Omillar	Indikatorlar
	Talabalarning bilim saviyasi va madaniyati	1. Talabalarning o'z yo'nalishi bo'yicha bilim darajasi 2. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi 3.Talabalarning bilim egallashiga individual yondoshuvi 4. Bilimlarni uzviy va mantiqiy ketma-ketlikda olish 5. Talabalarning o'zlarini tutuish ma'naviyati va madaniyati darajasi 6. Talabalarning darslarga o'z vaqtida kelishi
	Talabalar bilimini baholashi	1. Talabalar bilimini baholash uslubini oldindan xabardor qilinganligi. 2. Talabalar bilimini baholashda adolat mezonlariga rioya qilinib baholas. 3. Talabalar bilimini baholashda tanish-bilishchilik va ta'magirlik holatlariga yo'l qo'ymaslik. 4. Talabalar bilimini baholash uslubi bilim olishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirishdan kelib chiqilganligi.
	Talabalar o'tilayotgan fanlarni o'zlashtirishligi	1. Fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirganligi 2. Fanni o'zlashtirish jarayonidagi muammolarni o'qituvchinig ko'magisiz echa bilishi. 3. Fanni o'zlashtirish uchun yetarli va sifatli o'quv materiallaridan foydalana bilishi.

		4. Fanni o'zlashtirish mavzuga oid resurslarni doimiy ravishda taqdim eta bilishi 5. Fanni o'zlashtirish mavzuga oid material va resurslardan to'g'ri foydalanib taqdimot qila bilishligi.

Bu omillarning kelib chiqish sabablari bizning fikrimiz bo'yicha quyidagilar bo'lishi mumkin:

- asosiy omillaridan biri talabalarni boshlangich salohiyati bo'lib, oliy ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati yetarli bo'lmaganligi;

– ta'limning barcha bosqichlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari va global talablarga muvofiq samarali isloh qilishni ta'minlaydigan yangi boshqaruv tizimini yaxshi tashkil etilmaganligi;

- ayrim o'quv xonalarini belgilangan standartlarga javob bermasligi, ayniqsa bu kompyuter ilmlari bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi;

- talabalarga zarur bo'lgan xizmatlarni yetarli darajada ko'rsatish imkonini etarli darajada mavjud emasligi;

- oliy ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi moddiy manbalarni yetarli emasligi;

- oliy ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi muassasalarni mas'uliyatsizligi;

- oliy ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi o'qitish usullari;

- oliy ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi ta'lim xizmatlarining bevosita iste'molchisi bo'lgan talabalarning fikri, ularning qoniqish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga egaligi e'tiborga olinmaganligi;

- Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini monitoring qilib borilishi.

Oliy ta'lim talabalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan amalga oshirilayotgan boshqaruv strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Oliy o'quv yurtining ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi tayyorlangan mutaxassislarning sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Demak, oliy ta'limda bilim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini "talabalar qoniqishi" va "Talabalarning Oliy ta'lim muasassasiga sadoqati" mezonlari orqali baholash talabalar o'rtasida raqobat muhitini yaratadi va talabalar o'rtasida raqobot paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasining rivojiga kadrlar tayyorlash bo'yicha o'z hissasini qo'shib kelayotgan 1962 – 1983 yillarda qurilib faoliyat yuritayotgan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektur – qurilish unuversitetida 2019-2023 yillarda bitirgan talabalarga bir nazar tashlaylik (2-jadval).

2-jadval

2019 – 2023 yillarida Samarqand davlat arxitektur – qurilish unuversitetini bitirgan talablar to'g'risida ma'lumot

t/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1	OTM bakalavriat bitiruvchilari	1136	1125	1488	1080	1166
2	Ishga joylashganlar umumiy ulushi (%)	88,4	88,5	88,1	91,2	92,7
3	Mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashganlar soni (nafar)	1004	996	1311	984	1038
4	Ta'limning keyingi bosqichiga qabul qilinganlar soni (nafar)	53	48	67	7	43

Bu ta'lim olgan kadrlar ertaga sohada erishiladigan yangi – yangi yutuqlarni ta'minlaydi va ularning bilimini, soha egalarining malakasini yanada oshirib borish, tizimni zamonaviy mutaxassislar bilan ta'minlashda qo'l keladi.

Prezidentimiz xalqimiz va yoshlarga qarata:

"Og'ir yil kutib turibdi. Qilsak bo'ladi, lekin xalqimiz ta'biri bilan aytganda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, tanlagan yo'limizdan qaytmasligimiz shart. Nega deganda hayotda hech narsa o'z o'zidan bo'lmaydi. O'zimiz harakat qilmasak, hech kim bizga beg'araz yordam bermaydi. Bugun gap xalqimiz, vatanimiz, bolalarimiz kelajagi haqida bormoqda. Barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, barcha tajribamizni vatanimizga safarbar etishimiz kerak. O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasligimiz kerak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol ishlasak, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga albatta etamiz" [2] deya so'zini yakunlagan.

Bu so'zlar ham uchunchi Renessans g'oyasini albatta amalga oshishiga ishonchning paydo bo'lishidan dalalot berib turibdi.

So'nggi 3 yilda tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalar soni:

- 6 ta • oliy ta'lim muassasasi;
- 17 ta • oliy ta'lim muassasalarining filiallari;
- 14 ta • xorijiy oliy ta'lim muassasalari.

Bakalavriat talabalarining bilim sohalari bo'yicha taqsimoti (foizda):

- ✓ 54,8 % • gumanitar va pedagogik
- ✓ 5,2 % • ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
- ✓ 25,2 % • ishlab chiqarish-texnik
- ✓ 5,9 % • qishloq va suv xo'jaligi
- ✓ 4,4 % • sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
- ✓ 4,5 % • xizmat ko'rsatish

So'nggi 3 yilda 1693 ta ilmiy ish himoya qilindi

- ✓ Ilmiy darajalilar soni jami 9636 nafar

Xulosa va takliflar: Bu Prezidentimiz tamonidan amalga oshirilayotgan ishlarning natijasida, ya'ni uchinchi Renessans g'oyasi albatta amalga oshishidan dalolat beradi.

Buning uchun:

- oliy ta'lim muassasalari xorijiy ta'lim dargohlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarurdir;

- oliy o'quv yurtlari nufuzini yanada oshirish uchun, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirish lozim;

- oliy ta'lim muassasalarida sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etib bilim berish jarayonida raqobatni kuchaytirishni talab etadi;

- oliy ta'lim muassasalaridagi yoshlarga o'zini – o'zi boshqarish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish kerak;

- oliy ta'limda yoshlarning o'rni borligini ularga singdirish zarur (chunki ular doimo qo'rqib harakat qiladi);

- qurilish sohasining rivojida yoshlarga xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini anglay bilishiga yordam berishni tashkil etish lozim;

- qurilish sohasini o'rganayotgan yoshlar, o'z bilimini oshirish uchun ko'proq amaliyot bilan bog'lab o'tish vaqti kelganligini bilishi zarur;

- yoshlar shu sohaning kelajagi ekanligini bilishi kerak albatta.

Respublikamiz Oliy ta'lim tizimida ham amalga oshirilmagan ishlar mavjud, jumladan:

- o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari etarli darajada tashkil etilmagan;
- oliy ta'lim muassasalarida fan olimpiadalarini o'tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g'oliblari bilan tizimli ravishda ishlash yo'lga qo'yilmagan;
- oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;
- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.
- Iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shuningdek istiqbolda oliy ta'lim muassasalarining reytingi va o'z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha to'lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;
- ta'lim va ilmiy jarayonlarni o'quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek, laboratoriya materiallari (reaktivlar, butlovchi, biologik materiallar va boshq.), zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan muntazam ravishda ta'minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;
- imkoniyati cheklangan talabalarga oliy ta'lim muassasalari va talabalar turar joylari binolarida qo'shimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;
- o'quv jarayoni, ta'limni tashkil etishdagi muammolar bo'yicha talabalar fikrlarini o'rganish, bitiruvchilar malakasining ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash, kadrlar tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'rganish maqsadida talabalar va kadr buyurtmachilari o'rtasida har yili respublika miqyosida doimiy ravishda milliy so'rov o'tkazib borish zarurdir.
- Professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi byurokratik omillarni bartaraf etish, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirish, talabalar bilimini baholashda adolatni ta'minlash;
- malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish, nazorat-monitoring, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va tizimdagi boshqa jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash;
- ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini doimiy yo'lga qo'yish;
- professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini optimallashtirish, kasbiy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida oliy ta'lim tizimi xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish;

Bugun oliy ta'lim tizimida talabalar raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki buni bugungi kun talab etmoqda.

Yurtimizda jahonning eng rivojlangan davlatlar tajribasi asosida oliy ta'limni rivojlantirishning uchta ustuvor yo'nalishi belgilandi. Birinchisi, oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik, kadrlar tanlash va boshqaruvda mustaqillikni berilishi bilan bog'liq. Ikkinchisi, yangi o'qitish tizimini ijoriy etishni nazarda tutadi. Uchinchisi, oliy ta'limni jozibadorligini oshirishga qaratilgandir. Mana shu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, bugun oliy ta'limni raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyasini ishlab chiqish, ayniqsa o'sish startegiyasidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Ushbu tizim, bir tomondan, ta'limda sifatli o'quv jarayonining mavjud bo'lishini va uning doimo ishlab chiqaruvchilar ehtiyoji asosida takomillashtirib borilishini talab etsa, ikkinchi tomondan, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni vujudga keltiradi, uchinchidan, shiddat bilan jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlariga

yuqori malakali soha mutaxassislarini etkazib beradi [7].

Natijada mamlakat oliy ta'lim tizimidagi yangicha yondashuv yurtimizda uchinchi Renessans poydevorini shakllantirib, yangi O'zbekistonga munosib bilimli avlodni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori.
2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirzieening Oliy Majlisga Murojatnomasi" Toshkent shahri 2018 yil, 28 – dekabr.
3. Emerson Wagner Mainardes, João M. Ferreira. Creating a competitive advantage in Higher Education Institutions: proposal and test of a conceptual model. Int. J. Management in Education, Vol. 5, Nos. 2/3, 2011.
4. S. El Nemar, D. Vrontis, A. Thrassou. An innovative stakeholder framework for the Student-Choice Decision making process Journal of Business Research, November (2018), pp. 1-15, 10.1016/j.jbusres.2018.11.053.
5. Read more: https:// sputniknews-uz.com/ economy /20161025/3972220 /Ketmonov - qurilish -sohasida -evropa-standartlari -kiritish-tarafdori.html
6. Sa'dullaeva G.S. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi. 08.00.11 – Marketing, 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent, TDIU., 2021 y.
7. D.Sh.Nishonov "Oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 yil. 293-302 b.
8.Solidjonovich, M. N., O'g'li, I. S. R., O'gli, F. V. O., & O'g'li, S. A. N. (2023). Sun'iy intellekt vositalarini ta'limni nazorat qilish va baholashda qo 'llash. Al-Farg'oniy avlodlari, 1(4),
9.Husenov S., Haydarov R., Xushvaqtov X., Qodirov M., Boboyev N. Professor-o'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini baholash. Monografiya. – Samarqand: "FAN BULOG'I" nashriyoti, 2021. – 120 B.

QURILISHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Buranov O.B. i.f.n., dotsent
Jumanov Sh.N. – SamDAQU katta o'qituvchisi
Abdusamatov Sh.B. SamDAQU doktaranti

Annotatsiya. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qurilish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotimizga sarmoyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Investitsiyalar iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish tezligi va hajmiga ta'sir ko'rsatadi, ilmiy-texnika taraqqiyotini va aholining asosiy qismini ish bilan ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o'zgarishlar; mehnat resurslarini oqilona va maqbul joylashtirish va rivojlantirish ko'p hollarda investitsiya faoliyatiga bog'liq.

Mazkur maqolada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan markazlashmagan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm va usullar majmuidan iborat. . loyihalar. Shuni inobatga olib, kapital qurilishga yo'naltirilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish modeli va mexanizmini ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman.

Kalit so'zlar: kapital qurilish, investisiya, iqtisodiyot, mexanizm, samaradorlik, usul, investisiya faoliyati

Аннотация. В условиях рыночной экономики модернизация и диверсификация отраслей капитального строительства, привлечение инвестиций в нашу экономику и их эффективное использование приобретают как социальное, так и экономическое значение.

Инвестиции влияют на скорость и объемы воспроизводства в экономике, обеспечивают научно-техническое развитие и занятость основной части населения. Одной из основных причин этого являются коренные структурные изменения в нашей экономике, рациональное и оптимальное размещение и развитие трудовых ресурсов во многих случаях зависят от инвестиционной активности.

В данной статье инвестиционная политика, проводимая руководством нашей страны, представляет собой совокупность механизмов и методов, направленных на развитие и поддержку приоритетных отраслей экономики, переход от централизованного инвестиционного процесса к децентрализованному инвестиционному процессу, поддержку приоритетного инвестирования. проекты. Учитывая это, считаю, что необходимо разработать модель и механизм повышения эффективности инвестиций в капитальное строительство.

Ключевые слова: капитальное строительство, инвестиции, экономика, механизм, эффективность, метод, инвестиционная деятельность.

Abstract. In a market economy, modernization and diversification of capital construction industries, attracting investments into our economy and their effective use acquire both social and economic importance.

Investments influence the speed and volume of reproduction in the economy, ensure scientific and technological development and employment of the main part of the population. One of the main reasons for this is the fundamental

structural changes in our economy; rational and optimal placement and development of labor resources in many cases depend on investment activity.

In this article, the investment policy pursued by the leadership of our country is a set of mechanisms and methods aimed at developing and supporting priority sectors of the economy, the transition from a centralized investment process to a decentralized investment process, and support for priority investment. projects. Taking this into account, I believe that it is necessary to develop a model and mechanism for increasing the efficiency of investments in capital construction.

Key words: capital construction, investment, economics, mechanism, efficiency, method, investment activity.

Kirish. Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta yoki takror ishlab chiqarish sur'atlari va hajmiga ta'sir qiladi, ilmiy-texnik rivojlnishni va aholining asosiy qismining band bo'lishini ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o'zgarishlar, mehnat resurslarining ratsional hamda optimal joylashtirilishi va rivojlanishi ko'p hollarda investitsion faoliyatga bog'liq.

Samarqand viloyatida ham qurilish sohasini samarali rivojlantirish va Samarqand viloyatining tadbirkorlik hamda investitsiya salohiyatini rivojlantirish uchunqulay shart-sharoitlar yaratish chora – tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQL-511/20-4 sonli qaroriga ko'ra "Samarqand viloyatida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik va investisiya salohiyatini yanada oshirish, xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish orqali zamonaviy asbub-uskunalar va texnologiyalarga asoslangan korxonalar tashkil etish va yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida:

1. Samarqand viloyati hokimligi, Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi va "Davergeodezkadastr" qo'mitasining Samarqand viloyatida ilovaga muvofiq investisiya va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish sharti bilan investisiya loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyektlariga sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini ajratish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin"[1] deb ta'kidlab o'tilgan. Shu o'rinda Samarqand viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining 2023 yil noyabr holatiga ko'ra: [2] Samarqand viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun olingan manbaga asosan quyidagini tashkil etadi.

Jami o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 19058, 5 mlrd so'm bo'lib 121, 2 foizni tashkil tashkil etgan. Jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:

-markazlashgan investitsiyalar-1880.0 mlrd so'm;

-Markazlashmagan investitsiyalar-17178,1 mlrd so'm.

Samarqand viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (shahar va tumanlar kesimida) 1–jadval.

Tartib raqami	Viloyat shahar va tumanlari	Investitsiyalar foizda
1.	Samarqand shahri	24,0
2.	Kattaqo'rg'on shahri	1,4
3.	Kattaqo'rg'on tumani	20,7
4.	Samarqand tumani	18,8
5.	Tayloq tumani	2,4
6.	Urgut tumani	4,4
7.	Bulungur tumani	2.0
8.	Poy-ariq tumani	2,3
9.	Oqdaryo tumani	0,9
10.	Pastdarg'om tumani	6,7
11.	Ishtixon tumani	1,0
12.	Qo'shrabot tumani	2,4
13.	Narpay tumani	1,4
14.	Paxtachi tumani	1,6
15.	Nurobod tumani	6,4

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab – quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustivor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib Samarqand turizm shahri ekanligi inobotga olinib, 2023-yil yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida jami 5,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Ulardan 61,7 % i yangi qurilishlarga yo'naltirilgan bo'lsa, kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish bo'yicha 32,6 % hamda boshqa xarajatlarga 5,7 % investitsiyalar yo'naltirildi [3].

Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta yoki takror ishlab chiqarish sur'atlari va hajmiga ta'sir qiladi, ilmiy-texnik rivojlnishni va aholining asosiy qismining band bo'lishini ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o'zgarishlar, mehnat resurslarining ratsional hamda optimal joylashtirilishi va rivojlanishi ko'p hollarda investitsion faoliyatga bog'liqligini inobotga oladigan bo'lsak capital qurilishga investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish ishimizning dolarbligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning qo'yilgan maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

-investitsiya ularniy mazmun-mohiyatini va tasniflashini o'rganish;

-investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslarini tekshirish;

-investitsiyalarning xodimlarini boshqa narsalarni o'rganish;

-korxona investitsion siyosatining samaradorligini baholash metodikasi o'rganish;

-dunyodagi rivojlangan davlatlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos foydalanuvchilari o'rganish;

-Samarqand viloyatida chet elni ishga tushirishning saqlanishi;

-investitsiya tarmoqlari va sohalarini asoslarini tuzatish;

Tadqiqot ning ilmiy yangiligi:

- faoliyatni isloh qilish va samaradorlikni oshirishning mazmun-mohiyati ochib

berildi;

tiklashnini qo'llab-quvvatlash va samarador yorilish uchun yordam berishning qurilishiy asoslari ochib berildi;

- respublikada asosiy kapitalga hajmining 2025 yilgacha ilmiy asoslangan prognozi ishlab chiqildi;

- natijalarni yaxshilash va samaradorlikni oshirishni rejalashtirish va tavsiyalar ishlab chiqildi. O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etilgan.

Kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirish yo'llari.

Kapital qo'yilmalarning samaradorligi to'rt bosqichda:

- kapital qo'yilmalarni rejalashtirishda,
- kapital qurilishni loyihalashda,
- qurilish ishlab chiqarishida va yangi ishga tushirilgan loyiha quvvatlarini o'zlashtirish jarayonlarida shakllanadi.

Shunga ko'ra, investitsiya jarayonining har bir bosqichida kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirishning maxsus usullarini aniqlash mumkin:

• rejalashtirish bosqichi - kapital qo'yilmalarning tarmoq tarkibini takomillashtirish, ularni sanoatning ilg'or tarmoqlarini rivojlantirishda ustuvor yo'nalish; sanoatni texnik qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish va kengaytirishga kapital qo'yilmalar ulushini oshirish; kapital qo'yilmalarni rejalashtirilgan davrda ishga tushiriladigan ishga tushirish ob'ektlariga jamlash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish;

• sanoat ishlab chiqarishini loyihalash bosqichi - fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanish; standart loyihalardan maksimal darajada foydalanish; integratsiyalashgan dizayn printsipiga muvofiqligi; binoning strukturaviy elementlarini keng birlashtirish;

• sanoat korxonalarini qurish bosqichi - qurilish ishlab chiqarishini kompleks sanoatlashtirish; qurilish-montaj ishlarini tashkil etish va texnologiyasini takomillashtirish; qurilishda ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasini oshirish; qurilish sifatini oshirish; qurilish ishlab chiqarishini rejalashtirish, boshqarish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

• yangidan foydalanishga topshiriladigan sanoat korxonalari va obyektlarini ishga tushirish bosqichi – asosiy fondlar va turdosh ishlab chiqarishlarni kompleks ishga tushirishni, yangi qurilayotgan korxonalar uchun kadrlar va aylanma mablag'larning zarur elementlarini (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i) malakasini oshirishni ta'minlash; mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan texnologiyani o'z vaqtida ishlab chiqishni tashkil etish.

Kapital qo'yilmalar va asosiy fondlar samaradorligini oshirishning ko'pgina yo'nalishlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun umumiydir. Biroq, muayyan qonuniyatlarning o'ziga xos namoyon bo'lishi ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga, mahsulotning maqsadiga va foydalaniladigan mehnat vositalari va ob'ektlariga bog'liq.

Xulosalar

1. Investitsiyalar - foyda (daromad) va ijobiy ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni mamlakat ichida ham, chet elda ham qo'yish. Investitsiyalar naqd pul, maqsadli bank depozitlari, qimmatli qog'ozlar, kreditlar, ssudalar, garov, texnologiyalar, yer, binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, tovar belgilari, boshqa har qanday mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual qadriyatlar shaklida bo'lishi mumkin.

2. Investitsiya faoliyati - bu investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar majmuidir. U korxonaning o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zahiralari, shuningdek, investorlardan olingan va jalb qilingan moliyaviy mablag'lar, davlat byudjetidan ajratiladigan investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

3. Investitsiya faoliyati kapital tashkil etuvchi va moliyaviy qo'yilmalar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Kapital tashkil etuvchi investitsiyalar korxonaning ishlab chiqarish moddiy va nomoddiy aktivlarini ko'paytirishni nazarda tutadi. Odatda uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan asosiy fondlarni yaratish va qayta ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiyalar kapital qo'yilmalar deb ataladi. Moliyaviy (portfel) investitsiyalar - mablag'larni korxonaning moliyaviy aktivlariga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida joylashtirish.

4. Kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholash uchun o'zini oqlash muddati ko'rsatkichlari va kapital qo'yilmalarning samaradorligi koeffitsientlari qo'llaniladi. Pul mablag'lari xarajatlari va daromadlarining vaqt komponentini hisobga olish diskontlash usullari bilan ta'minlanadi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti qarori PQL-511/20-4. Samarqand viloyatining tadbirkorlik va investisiya salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida.

2. Мухаммадиев, У. А., Ш. Н. Жуманов, and З. А. Мирзаев. "В СТРОИТЕЛЬСТВЕ КРУПНЫХ КОМПЛЕКСОВ СВОЕВРЕМЕННОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ФРОНТОВ РАБОТ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА." Евразийский журнал академических исследований 2.6 (2022): 1238-1240.

3. Abdalimovich, Mirzaev Zafar, Rakhmonova Feruza Musakulovna, and Jumanov Sherzod Norboevich. "Principles of Doing Business in the Digital Economy." Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance 4.10 (2023): 131-136.

4. Хикматов, Хакимхон Хамзаевич, et al. "Модель и методические рекомендации по рекламе оптимального использования ресурсов в горных регионах республики

Узбекистан." Управление социально-экономическими системами: теория, методология, практика. 2020.

5. Усманов, Илхом Ачилович, and Шерзод Норбоевич Жуманов. "ҚУРИЛИШ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИДА КИРИШ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ." Science and innovation 1.Special Issue 2 (2022): 384-386.

6. Usmanov, I. A., and N. Jumanov Sh. "WAYS TO IMPROVE ACCESS CONTROL IN CONSTRUCTION DEVELOPMENT." Science and innovation 1 (2022): 384-386.

7. Usmanov, Ilhom Achilovich, and Sherzod Norboevich Jumanov. "WAYS TO IMPROVE QUALITY CONTROL OF CONSTRUCTION AND INSTALLATION WORKS." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.10 (2021): 651-658.

8. Manba: samstat.uz (https://t.me/samstat/17777)

9. **samstat.uz**›uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar…

10. Хикматов, Х. Х., З. А. Мирзаев, and Ш. Н. Жуманов. "ИННОВАЦИОН ТАРМОҚ ТИЗИМИ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШ ТАВСИЯЛАРИ." Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини модернизациялаш ва инновацион ривожлантириш шароитида қурилиш комплекси ва кўчмас мулк бозорини ривожлантиришнинг иқтисодий муаммолари (2020): 67.

УДК 336.5

ТЎЛОВ ТИЗИМИДА МАРКАЗИЙ БАНКЛАРНИНГ ИШТИРОКИ

Джураева Махзуна ўқитувчи Сам ДАҚУ
Тураева Малика ўқитувчи Сам ДАҚУ

Аннотация. Мазкур мақолада муаллиф Тўлов тизимида Марказий банкларнинг иштироки ҳақида таҳлил қилишга ҳаракат қилган.

Annotation. This article was written by the author over a long period of time in a Central banking institution and legal participation was analyzed.

Аннотация.Данная статья была написана автором в течение длительного периода времени в Центральном банковском учреждении проанализировано законное участие.

Таянч иборалар: тўлов карточкалари нақд пулсиз хисоб китоблар кредит карталар

Тўлов тизимида Марказий банкларнинг иштироки турлича бўлишига қарамай, уларнинг мақсадлари деярли ўхшаш, хусусан, камроқ харажат қилиб минимал таваккалчилик асосида фойдаланувчиларнинг эҳтиёжларини қондирувчи тизимни таъминлашдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикаси тўлов тизими ҳам Марказий банк томонидан ташкил қилиниб, тизимнинг ҳаракати ҳисоб-китоб марказлари орқали амалга оширилади. Республика Марказий банки ҳисоб-китоб маркази фаолиятини мувофиқлаштириб, назорат олиб боради.

Иқтисодиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар маълум тизим асосида олиб борилади. Нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тизими ўз ичига ҳисоб-китобларни ташкил қилиш тамойиллари, шакллари, усуллари ҳамда нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил қилиш олдига қўйилган талабларни олади. 1930-32-йилларда ўтказилган кредит ислоҳоти даврида киритилган ва Собиқ Иттифоқ даврида мавжуд бўлган нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тизими иқтисодиётни бошқаришнинг маъмурий буйруқбозлик усулларига асосланган эди.

Нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тизими биринчи навбатда ишлаб чиқариш ва сотиш режаларини бажариш нуқтаи назаридан маҳсулот сотувчи корхона қизиқишларига хизмат қилар эди. Нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил қилиш тамойиллари корхоналарнинг шартнома мажбуриятларини бажариш учун иқтисодий қизиқишлари ва жавобгарлигини чегараланган қатъий қилиб белгиланган эди. Бу тамойиллар қуйидагича белгиланган:

– банк нақд пулсиз-ҳисоб китобларни ташкил қилади ва уларнинг бажарилиши устидан назорат қилади;

– тўлов вақти қатъий белгиланган, яъни барча тўловлар товарлар жўнатилгандан кейин ёки хизмат бажарилгандан сўнг ўтказилади. Аванс тўловлари тижорат кредитига рухсат этилмас эди;

– тўловчининг розилиги тўлов ўтказилишининг асоси сифатида тан олинган;

– қайси соҳада қайси ҳолларда нақд пулсиз ҳисоб-китоб шаклларини ишлатилиши, уларни ташкил қилиш тамойиллари тўловчининг тўловга ва кредитга лаёқатлилик қобилиятини ҳисобга олмас эди.

Ҳозирги кунда нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг биринчи тамойили мулкчилик шаклидан қатъий назар, хўжалик юритувчи субъектлар ўз маблағларини банкдаги ҳисобварақларда сақлашлари ва барча операцияларни банк орқали ўтказишлари лозимлигини билдиради. Бозор муносабатлари шароитида ҳисоб-китобларнинг банк орқали ўтказилиши бозор иштирокчиларининг иқтисодий мустақиллиги билан қўшиб олиб борилиши керак.

Нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил қилишнинг иккинчи тамойили шундан иборатки, мижозларнинг ҳисобварақларидан пул маблағларини кўчириш, уларнинг топшириғи ёки розилигига асосан ҳисобварақдаги маблағлар миқёсида бажарилади.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг ишлаб чиқилиши ва жорий этилиши муносабати билан Марказий банк томонидан

мижозларнинг ҳисобрақамлари бўйича операциялар ўтказиш тартиби белгиланган. Ҳисобварақлардан маблағларни ўтказиш ҳисобварақ эгасининг топшириғига биноан бажарилади. Мижозларнинг буйруғисиз ҳисобварақлардаги пул маблағлари фақат суд қарорига биноан, қонунда белгиланган тартибда банк ва мижоз ўртасидаги шартномага асосан кўчирилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексига асосан мижозларнинг ҳисобварақларида барча талабларни бажаришга пул маблағлари етарли бўлган ҳолларда пул кўчириш бўйича мижознинг топшириғи ва бошқа ҳужжатларнинг келиб тушиши тартибида ҳужжатлар тўланиши лозим. Мижоз ҳисобварақдаги барча талабларни тўлашга маблағлар етарли бўлмаган тақдирда ҳужжатларнинг тўланиши Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2012 йил 15 мартда рўйхатга олинган 2342-сонли “Хўжалик юритувчи субъектларнинг банк ҳисобрақамларидан пул маблағларини ҳисобдан чиқариш тартиби тўғрисида”ги йўриқномага биноан амалга оширилади.

Агар мижоз билан банк ўртасида кредит шартномаси тузилган бўлса, тўловлар банк кредити ҳисобидан амалга оширилиши мумкин.

Нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил қилишнинг учинчи тамойили шундан иборатки, маблағлар тўловчининг ҳисобварағидан ўчирилгандан сўнг олувчининг ҳисобварағига ўтказилади. Тижорат банкларининг ҳисоб чеклари бўйича пул ўтказиш бундан мустасно.

Ҳисоб-китоблар бўйича хўжалик юритувчи субъектлар орасидаги ўзаро эътирозлар белгиланган тартибда банк иштирокисиз кўриб чиқилиш ҳисоб-китобларни ташкил қилишнинг тўртинчи тамойилидир. Банклар ўз вақтида тўланмаган ҳужжатлар бўйича пеняларни ҳисоблаш ва ундиришга жавобгар эмас. Тўловчи юклаб жўнатилган маҳсулотлар учун ўз вақтида тўланмаган суммага ҳисобланган пеняни тўловчи ва маҳсулот етказиб берувчи ўртасида тузилган хўжалик шартномасида кўзда тутилган тартибда тўлайди. Агар банк билан мижоз ўртасидаги шартномада пеня ҳисоблаш ва ундириш кўзда тутилган бўлса, бу ҳолда банк ўз вақтида тўланмаган ҳужжатлар бўйича пеня ҳисоблаш ва маҳсулот сотувчи корхона фойдасига ундириб бериши мумкин.

Нақд пулсиз ҳисоб-китобларни олиб боришнинг бешинчи тамойили ҳисоб-китоб шаклларини танлаш билан боғлиқ. Мулкчилик шаклларининг хилма-хиллиги шароитида хўжалик юритувчи субъектларнинг фаолияти товар-пул муносабатлари ривожланиши шароитида нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил қилиш хўжалик органлари томонидан ҳисоб-китобни эркин танлаш тамойилидан келиб чиқади ва улар шартномаларда мустаҳкамланади. Хўжалик органларининг шартномавий муносабатларига банк аралашмайди. Бу тамойил ҳисоб-китоб иштирокчиларининг ўзаро муносабатларининг ижобий натижалари учун моддий жавобгарлигини оширишга, ҳисоб-китоб ва шартномавий муносабатларини ташкил қилишда иқтисодий мустақиллигини мустахкамлашга хизмат қилади.

Нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг олтинчи тамойили тўловнинг муддатлилигидир. Бу тамойил катта амалий аҳамиятга эгадир. Хўжалик юритувчи субъектлар тўловнинг қандай муддатга келиб тушиши тўғрисидаги ахборотга эга бўлган ҳолда хусусий маблағларининг айланишини оқилона ташкил этиш, қарз маблағларига бўлган заруратни ҳисоблаб кўриши, шу билан бирга, ўз балансининг ликвидлигини бошқариб бориши мумкин бўлади. Маҳсулот сотувчи ва олувчи томонлар келишувига кўра тўловлар муддатли, муддатидан олдин ҳамда муддати кечиктирилган бўлиши мумкин.

Муддатли тўловлар қуйидаги ҳолларда амалга оширилади:

– товарлар жўнатилмасдан ёки хизматлар бажарилмасдан олдин, бундай тўловлар аванс тўловлари ёки олдиндан тўлов кўринишида амалга оширилади;

– товар жўнатилгандан кейин, яъни товарни бевосита акцепт қилиш йўли билан;

– йирик суммада тузилган шартномаларда кўрсатилган суммаларни бўлиб-бўлиб тўлаш йўли билан амалга оширилади. Муддати узайтирилган тўловлар белгиланган муддатда тўловни амалга оширолмай қолган ҳолларда, тўлов муддатини муайян муддатга чўзиш, яъни янги тўлов муддатини белгилашни билдиради. Муддати узайтирилган тўловлар томонларнинг молиявий аҳволига зарар етказмаган ҳолда шартномавий муносабатлар доирасида бўлиши лозим.

Адабиётлар

1. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. - Т.: “Иқтисод-молия”, 2007. 348 б.

2. НАҚД ПУЛСИЗ ХИСОБ КИТОБЛАР ТИЗИМИ Джураева М.А., стажер-ассистент СамДАҚУ

3. Алиева Н.Б., стажер-ассистент СамДАҚУ

4. ПУЛ, ПУЛНИ КЕЛИБ ЧИКИШ ТАРИХИ, ЖАМИЯТДА ТУТГАН УРНИ ВА МОХИЯТИ ХАҚИДА

5. Тураева М.Х , ассистент СамДАКУ Джураева М.А, стажер-ассистент СамДАҚУ

6. Халқаро амалиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоб шакллари Джураева Махзуна ўқитувчи Сам ДАҚИ Шерзодова Диёра 301иқтисод талабаси Сам ДАҚИ

7. НАҚД ПУЛСИЗ ҲИСОБ-КИТОБ ШАКЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Джураева М.А., стажер-ассистент СамДАҚИ

Eshmurodov Mas'udjon Xikmatillayevich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand, Uzbekistan.
Murodov Rustam Tohir o'g'li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand, Uzbekistan.
Haydarov Sarhad Nazirjonovich
SamDAQU "Menejment" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot elektron tijorat, raqamli marketing, raqamli moliyaviy xizmatlar, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, kompyuter o'yinlari va bulut xizmatlarini o'z ichiga olgan keng doiradagi sektorlarda iqtisodiy va biznes faoliyatini amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalar va elektron aloqadan foydalanadigan innovatsion iqtisodiyot sifatida paydo bo'ldi. . Raqamli texnologiyalar va elektron aloqalardan foydalanish onlayn biznes o'zaro munosabatlariga sezilarli siljish olib keldi, bu esa foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga, qayta ishlashni tezlashtirishga va xizmatlar va mahsulotlarga kirishni osonlashtirishga olib keldi. Raqamli iqtisodiyot ko'plab ilg'or mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili sifatida tan olingan va iqtisodiy va biznes faoliyatiga sezilarli ta'siri tufayli doimiy ravishda kengayib bormoqda. Ushbu tadqiqotda biz raqamli iqtisodiyotni va uning biznes va foydalanuvchilarga ta'sirini o'rganish, samaradorlik va samaradorlikni oshirishga olib keladigan mahsulot va xizmatlarga oson va tez kirish imkoniyatini baholashni maqsad qilganmiz. Raqamli iqtisodiyot turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarga, jumladan, odamlarning ishlash va bir-birlari bilan o'zaro munosabatidagi o'zgarishlar, yanada moslashuvchan va masofaviy ish tartibini targ'ib qilish va global aloqani oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot ta'lim, sog'liqni saqlash, ko'ngilochar va boshqa sohalarga ta'sir ko'rsatdi. Texnologiya va elektron aloqa sohasidagi yutuqlar global iqtisodiyotni raqamlashtirishga olib keldi va raqamli iqtisodiyotning global raqamlashtirishni rivojlantirishdagi roli juda muhim. Kelgusi yillarda uning ta'siri kuchayishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, Tibbiy turizm innovatsiyasi, Raqamli texnologiyalar, Blokcheyn.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalar va elektron aloqalardan foydalanadigan iqtisodiy va tijorat faoliyati to'plamini anglatadi. Ushbu turdagi iqtisodiyot odatda elektron tijorat, raqamli marketing, raqamli moliyaviy xizmatlar, raqamli kontent ishlab chiqarish, dasturiy ta'minot, kompyuter o'yinlari, bulut xizmatlari va boshqalar kabi faoliyatni o'z ichiga oladi [1-3] . Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy va tijorat faoliyatlari raqamli texnologiyalar va elektron kommunikatsiyalar asosida amalga oshiriladi, buning natijasida onlayn va raqamli biznes o'zaro munosabatlariga kuchli siljish bo'ladi. Bu yangi iqtisodiyot ba'zi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili sifatida e'tirof etilgan va raqamli texnologiyalarning alohida ahamiyati tufayli u o'sish va kengayishni boshdan kechirmoqda [4-6] . Raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlariga elektron tijorat, raqamli marketing, raqamli moliyaviy xizmatlar, raqamli kontent ishlab chiqarish, dasturiy ta'minot, kompyuter o'yinlari va bulut xizmatlari kiradi. Natijada, Raqamli Iqtisodiyot foydalanuvchilar va korxonalarga xizmatlar va mahsulotlarga oson va tez kirish va umuman foydalanuvchi tajribasini yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi. Raqamli iqtisodiyot doimo rivojlanib bormoqda va turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Texnologiya va elektron aloqalarning rivojlanishi jahon iqtisodiyotini raqamlashtirishga olib keldi [7-9] . Raqamli iqtisod yangi va innovatsion iqtisodiyot sifatida raqamli texnologiyalar va elektron kommunikatsiyalardan foydalanadigan iqtisodiy va tijorat faoliyatlarini qamrab oladi. Iqtisodiyotning bu turida iqtisodiy va tijorat faoliyati raqamli texnologiyalar va elektron kommunikatsiyalar asosida olib boriladi, buning natijasida onlayn va raqamli biznes o'zaro munosabatlariga kuchli siljish bo'ladi [10-14] . Raqamli texnologiyalarning raqamli iqtisodiyotdagi alohida ahamiyati tufayli u o'sish va rivojlanishni boshdan kechirmoqda va ayrim mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili sifatida tan olingan. Ushbu maqolada Raqamli Iqtisodiyotning yangi iqtisodiyotdagi muammolari va imkoniyatlari ko'rib chiqiladi [15-21] . Raqamli texnologiyalar va elektron kommunikatsiyalar iqtisodiy va tijorat faoliyatimizni o'zgartirishda davom etar ekan, Raqamli Iqtisodiyot o'sish va rivojlanishga turtki beruvchi kuchli kuch sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu iqtisod elektron tijorat, raqamli marketing va raqamli moliyaviy xizmatlar kabi keng doiradagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi va foydalanuvchilar va korxonalarga xizmatlar va mahsulotlarga tezkor kirishni taklif qiladi. O'zining doimiy evolyutsiyasi va turli sohalarga sezilarli ta'siri bilan Raqamli Iqtisodiyot global iqtisodiyotni raqamlashtirish sari yetaklayotgan yangi va innovatsion iqtisodiyotdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot va uning biznes va foydalanuvchilarga ta'sirini o'rganishdir. Xususan, biz samaradorlik va mahsuldorlikni oshirishga olib keladigan mahsulot va xizmatlarga oson va tez kirish imkoniyatini baholashni maqsad qilganmiz. Raqamli iqtisodiyot turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, jumladan, odamlarning ishlashi va bir-biri bilan o'zaro munosabatidagi o'zgarishlar, yanada moslashuvchan va masofaviy ish tartibini targ'ib qilish va global ulanishni oshirish. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot ta'lim, sog'liqni saqlash, ko'ngilochar va boshqa sohalarga ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyotning global raqamlashtirishni boshqarishdagi rolini va uning iqtisodiy o'sish va rivojlanish salohiyatini tushunishga hissa qo'shishga intiladi.

2. Materiallar va usullar

Raqamli iqtisodiyot va unga aloqador masalalarni tadqiq qilishda turli materiallar va usullar mavjud. Raqamli iqtisodiyot haqida ma'lumot to'plash uchun kitoblar, ilmiy maqolalar, biznes hisobotlari, intervyular, hukumat hisobotlari va boshqa tegishli manbalar kabi ma'lumot manbalaridan foydalanish mumkin. Muayyan mamlakatdagi raqamli iqtisodiyot holatini o'rganish uchun ekspertlar, biznes xodimlari va mijozlar bilan suhbatlar shaklida birlamchi tadqiqotlar o'tkazilishi mumkin. Bu usul inson tadqiqotida fundamental yondashuv hisoblanadi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli iqtisodiyot mavzusiga oid natijalarni olish uchun statistik usullar va tegishli dasturiy ta'minotdan foydalaniladigan ba'zi tadqiqot ishlarida usul sifatida ishlatiladi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun ma'lumotnoma holatlari, birlamchi tadqiqotlar va tahlillar kombinatsiyasi qo'llaniladi, kerakli natijalarga erishish uchun ma'lumotlardan foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyot sohasida turizm iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hal qiluvchi sohadir. Bu sohada onlayn bron qilish tizimlari, elektron to‘lov tizimlari, mehmonxona va restoranlarni boshqarish tizimlari, onlayn turizm xizmatlari kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish sayyohlik tajribasini oshirish va turizm sanoatida operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, virtual va kengaytirilgan reallik kabi raqamli texnologiyalarni o‘z ichiga olish ko‘proq sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi va shu bilan iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish va turizm bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) hisobotiga ko‘ra, 2019-yilda dunyo bo‘ylab 1,4 milliard xalqaro sayyoh sayohat qilib, 1,56 trillion dollardan ortiq daromad keltirgan. So‘nggi so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, turizm sohasida onlayn bron qilish platformalaridan foydalanish sayyohlik tajribasini yaxshilagan va turizm biznesining daromadlarini oshirgan. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi va sayohat cheklovlari tufayli butun dunyo bo‘ylab turizm sanoati pasayib ketdi, bu ko‘plab mamlakatlar uchun daromadlarning qisqarishiga olib keldi. Bunday tanazzulga qaramay, ba'zi turizm korxonalari onlayn xizmatlarni taqdim etish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va puxta o'ylangan operatsion rejalarni amalga oshirish orqali gullab-yashnashi mumkin edi.

2.1. Keys tadqiqoti

1-jadvalda turizm sanoatining o'sishi va turli mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot va turizm haqidagi iqtisodiy o'sish ko'rsatilgan. 1-jadvalda AQSh, Xitoy, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda turizm sanoatining foiz o'sishi va iqtisodiy o'sish ko'rsatilgan. Turizm sanoatining o'sishi iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismidir va turizm sanoatiga raqamli texnologiyalarning kiritilishi sayyohlik tajribasini oshirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega. 1-jadvalda turizm industriyasining o'sish sur'atlari va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'lgan mamlakatlarning foiz nisbati taqqoslanishi ko'rsatilgan.

1-jadval

Mamlakat	Iqtisodiy o'sish (%)	Turizm sanoatining o'sishi (%)
Xitoy	6.5	33.0
Amerika	6.4	25.0
Yaponiya	2.8	20.0
Braziliya	4.1	22.0
Angliya	4.1	15.0
Germaniya	3.6	22.0

Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish va turizm bo'yicha Xitoy boshqa mamlakatlardan yuqori o'rinda turadi, iqtisodiy o'sish 6,5% va turizm sanoatida 33% o'sish. AQSh 6,4% iqtisodiy o'sish va turizm sanoatida 25% o'sish bilan ikkinchi o'rinda turadi. Bu ma’lumotlar raqamli iqtisodiyotdagi turizm sanoati iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlarini yaratish uchun ulkan salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o'sish va turizm sanoatining o'sishiga asoslanib, mamlakatlarni ikki toifaga bo'lish mumkin: iqtisodiy o'sish uchun "yuqori o'sish" va "past o'sish" va o'sish uchun "rivojlanayotgan turizm sanoati" va "past o'sish turizm sanoati" turizm industriyasidan. Bu ikki toifani birlashtirganda to‘rt toifaga erishiladi: “yuqori o‘sish va farovon turizm sanoati”, “yuqori o‘sish va kam rivojlangan turizm sanoati”, “past o‘sish va gullab-yashnagan turizm sanoati”, “past o‘sish va kam rivojlangan turizm sanoati”. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ma'lumotlar turli xil o'zgaruvchilarga qarab toifalarga bo'linishi mumkin va ishlatiladigan toifalar mavzu va kerakli ma'lumotlarga qarab farq qilishi mumkin. 2021 yilda iqtisodiy o'sish va turizm sanoatining o'sishiga oid ma'lumotlar raqamli iqtisodiyotda o'sish va rivojlanish salohiyatini ta'kidlaydi (2-jadval va 3-jadvalga qarang).

Taqdim etilgan ma’lumotlar 2021-yilda ko‘rib chiqilayotgan mamlakatlarda sezilarli iqtisodiy o‘sish kuzatilmagani va ularning turizm industriyasining o‘sishi boshqa mamlakatlarga nisbatan nisbatan past bo‘lganini ta’kidlaydi. Ma’lumotlar 2021-yilda turizm sanoatining iqtisodiy o‘sishi va o‘sishiga tegishli.

2.2. Iqtisodiy o'sish va turizm sanoati: qiyosiy tahlil

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda ayrim mamlakatlarda sezilarli iqtisodiy o‘sish kuzatilgan va ularning turizm sanoati ham boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlariga ega. "Yuqori o'sish va rivojlanayotgan turizm sanoati" va "yuqori o'sish va past turizm sanoati" deb tasniflangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga oid qo'shimcha ma'lumotlar quyida keltirilgan. Iqtisodiy o'sish ma'lumotlari 2021 yilga tegishli. Butan, Qatar va Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar 2021 yilda yuqori iqtisodiy o'sish

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni O‘zbekiston bank sektorida, shuningdek, jahonning yetakchi bank tuzilmalarida qo‘llash sohalari, bank biznesini raqamlashtirish muammolari va istiqbollari yoritilgan bo’lib, bank tizimini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank, elektron muomala, mobil aloqa, internet, neobank, tijorat banki, bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, zamonaviy bank xizmatlari, raqamli texnologiyalar.

Annotation. In this article, the areas of application of digital technologies in the banking sector of Uzbekistan, as well as in the world's leading banking structures, the problems and prospects of digitalization of banking business are highlighted, suggestions and recommendations are given for improving banking innovations in the conditions of digitalization of the banking system.

Keywords: digital banking, electronic transaction, mobile communication, internet, neobank, commercial banking, banking services, remote banking services, modern banking services, digital technologies.

Анотация. В данной статье освещены области применения цифровых технологий в банковском секторе Узбекистана, а также в ведущих банковских структурах мира, проблемы и перспективы цифровизации банковского бизнеса, даны предложения и рекомендации по совершенствованию банковских инноваций в условиях цифровизации банковской системы.

Ключевые слова: цифровой банкинг, электронные транзакции, мобильная связь, интернет, необанк, коммерческий банкинг, банковские услуги, дистанционное банковское обслуживание, современные банковские услуги, цифровые технологии.

Kirish. Iqtisodiyotni raqamlashtirish amaldagi biznes modellari, jumladan, hozirda butun dunyo bo‘ylab transformatsiya jarayonidan o‘tayotgan bank tizimining tarkibiy bo‘linmalari uchun jiddiy muammolar tug‘dirmoqda. Mijozlarga e’tibor qaratish va taklifni shaxsiylashtirish, raqamli bank strategiyasining asosiy komponentlari hisoblanadi. Uni samarali amalga oshirish uchun mijozlarning to‘plangan tajribasiga, shuningdek, mijozlar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi innovatsiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish zarur.

Hozirgi davrdagi tezkor va shiddatli rivojlanish hamda iqtisodiyotdagi tub o‘zgarishlar davrida raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha ilg‘or raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Shu sababli aholining turmush tarzini yanada yaxshilash va osonlashtirish, kompyuterlashtirish va mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublikamiz rahbariyati bir qancha qarorlarni qabul qildi va “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmonida “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining

samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Raqamli bank texnologiyalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ulardan samarali foydalanish yo'llari hamda mexanizmlari bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.V. Dubininning fikricha, bank texnologiyalari – bu banklarda ishlatiladigan turli xil telekommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, ichki protseduralar, risklarni boshqarish modellari va boshqalar. "Bank texnologiyasi" atamasi banklarga o'z mijozlariga xavfsiz, ishonchli va arzon narxlarda yaxshiroq xizmatlarni taklif qilishi hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishishi uchun zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi.

O.Melikov tomonidan raqamli bank texnologiyalari va ularning tarkibi hamda elementlari keng yoritilib, bank texnologiyalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan va mualliflik fikrlar bildirilgan. Shuningdek, bugungi kunda dunyo banklarida foydalanib kelinayotgan Automated Teller Machine (ATM), Mobile Banking, Internet Banking, Video Teller Machine (VTM), Secure Short Messaging Service (SSMS), SIM Application-toolkit, RFID Technology, Mobile Money kabi bank texnologiyalari keltirilgan va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda afzalliklari ochib berilgan.

M.Madraximov tomonidan masofaviy bank xizmatlarining bank faoliyatigadgi ahamiyati, ularni ko'rsatish kanallari va buni yanada kengaytirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o'rganib chiqilgan O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish holati to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha har bir tijorat banki o'zining strategik dasturini ishlab chiqish kerak. Mazkur dasturda qadamma-qadam barcha xizmat turlarini masofaviy hamda onlayn rejimga o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish lozimligi, mazkur yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni moliyalashtirish manbasi, amalga oshirish muddatlari, amalga oshirish uchun mas'ul boshqarma hamda loyihani ishga tushirish muddati kabilar keltirib o'tilishi zarurligi ta'kidlangan.

Tahlil va natijalar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalari yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, yangi filiallar va xizmatlar markazlarining ommaviytartibda ochilishiga zamin yaratmoqda. Bu orqali esa, bank xizmatlarini ko'rsatish modelida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Buning natijasida esa tizim holati sifat jihatidan yaxshilanishini va yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini ochmoqda.

«Raqamlashtirish» atamasi axborotni raqamli shaklga o'tkazishni anglatadi. Biroq, biznes sohasida esa raqamlashtirish operatsion modellardagi o'zgarishningikki turini bildiradi: Birinchisi – aloqalarni raqamli kanalga o'tkazish; ikkinchisi – doimiy operatsiyalarni avtomatlashtirish. Bu o'zgarishlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holat bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bank sektori rivojlangan mamlakatlardagi bank sektori kabi oldinga qarab intilmoqda. Xizmat ko'rsatish modellari raqamli texnologiyalar (sun'iy intellekt, blokcheyn, R2R kreditlash), shuningdek, intergatsiyalashgan tarmoq iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida sezilarli darajada o'zgarmoqda. Sektorga bankdan tashqari ishtirokchilarning kirishi uchun to'siqlar yildan-yilga kamayib, telekommunikatsiya va IT kompaniyalari o'zvakolatlaridan kelib chiqqan holda, moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni bank sektoriga integratsiyalashuvini keng yo'lga qo'ymoqda. Bank innovatsiyalariga bo'lgan talab asosan uning iste'molchilari tomonidan belgilanadi. Iste'molchilarning asosiy talablari – bank operatsiyalarini bajarishvaqtini qisqartirish, ularni 24/7 rejimida ishlash imkoniyati, bank mahsulotlari va xizmatlaridan yanada qulay foydalanish, yagona bank interfeysidan foydalangan holda bank xizmatlari bilan bir qatorda boshqa xizmatlardan ham foydalanish imkoniyatlarini oshirishdan iborat. Ushbu talablar bankda innovatsiyalarni rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bugungi kunda yangi texnologiyalar, g'oyalar va modellarning rivojlanish sur'ati juda yuqori, shu sababli, raqobatbardoshlilik sharoitida va mijozlarni saqlab qolishning asosiy omillari bu – xizmatlarning sifati va ularni bozorga chiqarish tezligi hisoblanadi. Bank sektori bu – raqamli va texnologik innovatsion yechimlarni joriy etishni jonlantiruvchi kuchi va boshqa tarmoqlarga kadrlar yetkazib beruvchisi bo'lib hisoblanadi. Raqamli transformatsiyani amalga oshirayotgan yirik tijorat banklari o'zlari yaratgan tizim doirasida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. O'rta va kichikroq banklar esa yirik banklarning tizimlaridan tashqari segmentlashgan ishtirokchilarga aylanadi. Bankdan tashqariishtirokchilar (telekommunikatsiya va IT kompaniyalar) tobora ko'proq moliyaviyxizmatlar ko'rsatadilar va an'anaviy banklarning to'laqonli raqobatchisiga aylanadilar . Mijozlar esa o'z navbatida, xizmat ko'rsatuvchi banklarida telekommunikatsiya, chakana savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga oid ko'shimcha xizmatlarni olish imkoniyatlari ochiladi. Takliflar esa xususiylashtiriladi, bankamaliyotlari tezligi sezilarli darajada oshiriladi

Moliyaviy texnologik kompaniyalar va nobank tashkilotlar sonining ortishi natijasida, sohada raqobat kuchaymoqda. Buning natijasida an'anaviy bank xizmatlarining rentabellik darajasi pasayib bormoqda va bozor ishtirokchilarioldida yangi daromad manbalarini izlash masalasi turibdi. Yangi daromad manbai esa raqamli bank mahsulotlari va IT kompaniyalari bilan hamkorlikda yaratilganinnovatsion mahsulotlarda bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz.

O'zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Buning natijasida yildan yilga masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalanuvchi mijozlar soni ortib bormoqda. Mamlakatimizda mobil va internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 10 153,4 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yil 1 yanvar holatiga bu ko‘rsatkich qariyb 3 barobarga oshib, 30 001 mingtani tashkil etgan. Biroq, mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarining qamrab olish darajasi hanuzgacha internet bilan qamrab olish darajasidan ortda qolmoqda. Bu esamasofaviy bank xizmatlari bilan qamrab olish darajasini jiddiy o‘sishiga halisalohiyat va imkoniyat bor ekanligini anglatadi. O‘zbekistonda tijorat banklarining mijozlarga xizmat ko‘rsatishda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashuviga ko‘plab omillar yordam beradi. Shu jumladan, internet bilan qamrab olish darajasining oshishi.

Bugungi kunda O‘zbekiston bank sektorida Anorbank, Uzumbank va Gruziyaning TBS banki kabi raqamlashtirish imkoniyatlaridan faol foydalanadigan yuqori texnologiyali banklar guruhi shakllantirilmoqda, bu esa umumiy IT platformalarida sinxronlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, so‘nggi 20 yil ichida texnologiya butun dunyoda bank sohasiga ham tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarishlarni olib kirdi. Internet va mobil aloqa butun dunyodagi odamlar va tashkilotlarni bog‘laydigan eng chekka burchaklarga etib keldi. Bu esa mijozlarning uzoq navbatlardagi kutishlarini va tashkilotlarning ishlash prinsiplarini o‘zgartirdi. Mobil aloqa va tegishli infratuzilmalar yordamida esa fintech texnologiyasi(moliyaviy texnologiyalar) bank sektoriga kirib, xaridorlarga qulay bo‘lgan turli xil mahsulotlarni ishga tushirdi.

Raqamli texnologiyalarni turli darajada rivojlantirish har qanday kredit muassasasi tomonidan amalga oshiriladi, jahon bank xizmatlari bozorida 2018 yilda to‘liq 4.0 bank modeliga o‘tishga qaror qilgan banklarning ko‘plab misollari mavjud. Buddybank raqamli bankining yaratilishi, UniCredit a Espone guruhi tashabbusi bilan yaratilgan loyiha ajoyib loyiha edi. Bank smartfon orqali masofadan turib joriy hisobvaraq ochish, debet yoki kredit kartasini chiqarish, to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi onlayn yordamchi sifatida joylashtirilgan va ko‘plab virtual bank xizmatlarini taqdim etadi.

Hozirgi vaqtda gorizontal biznes madaniyatiga asoslangan samarali boshqaruv va operatsion modelni yaratish bilan bir qatorda, eng ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tubdan yangi IT-platforma asosiy mahsulotdan foydalanish muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

Shuni hisobga olish kerakki, O‘zbekistonda Internetga kirishning nisbatan past ko‘rsatkichlari mavjud – 70%, Evropa mamlakatlarida esa bu taxminan 90% ni tashkil qiladi, shuning uchun mavjud bo‘lganlar ko‘lamini kengaytirish va yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish uchun, Internet mavjudligini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur, moliyaviy tashkilotlarning ham bir-biri bilan, ham mijozlar bilan munosabatlarini to‘liq raqamlashtirish rejalashtirilgan, bu esa banklarni ochiq ekotizimlarga aylantiradi, bunda hamma ko‘ra oladi.

Biroq, bank sektorini raqamlashtirishdagi o‘zgarishlar ikki xil xarakterga ega:

- bir tomondan, raqamlashtirish ijobiy natijalar beradi, xususan, banklar va ularning mijozlari shubhali noqonuniy operatsiyalarda ishtirok eta olmaydi;
- boshqa tomondan, bank sektorining virtual makonga o‘tishi yangi inqirozning paydo bo‘lishiga yordam berishi mumkin.

Kelajakdagi tahlilchi olimlarning fikricha, ushbu sohada raqamli banklar 2025 yilga kelib an’anaviy bank institutlarini bozordan butunlay siqib chiqarishi mumkin, bu esa moliya tizimida tub o‘zgarishlarga olib keladi. Raqamli sektor bugungi kunda moda tendensiyasi emas, balki bozorda mavjud bo‘lish uchun zarur shartdir.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy ta’minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytiri kabi ijobiy ta’sirlari ham mavjud. Jumladan, muammoli kreditlarni tahlil qilish va ular bo‘yicha ishlashni avtomatlashtirish asosida juda ko‘p sonli muammoli kreditlar bilan ishlashni oson va qisqa vaqtda amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, kreditlarning asosiy qarz va ustama foiz mablag‘larini talash muddatlarini ogohlantiruvchi avtomatik SMS xabarlar yuborish, so‘ndirish muddati o‘tib ketgan muammoli kreditlar bo‘yicha sud xujjatlarini avtomatik tayyorlash va elektron yuborish kabilar.

1. Banklar o‘z strategiyasini qayta ko‘rib chiqishlari va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashlari kerak. Katta ehtimol bilan, yirik banklar uchun bu tizim ko‘rinishidagi biznes jarayonlarini keyinchalik o‘zgartirish va yaratish bilan bog‘liq to‘liq qamrovli raqamli transformatsiyadir. Yetarli kapitalga ega bo‘lmagan boshqa banklar uchun eng to‘g‘ri yechim xorijiy investitsiyalar asosida asosiy xizmatlarni taqdim etish bo‘lishi mumkin. Har bir bank innovatsiyalar bilan ishlashi uchun uning ichida qulay muhit yaratilishi lozim. Bunga esa quyidagilar orqali erishish mumkin:

2. Aniq strategiya va natijaga yo‘naltirilgan maqsadni belgilash. Raqamli transformatsiya dasturi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi kerak: ulkan maqsadlar, yangi biznes modellarini yaratish va rivojlantirish jarayoni, dasturni amalga oshirish xarajatlarining aniq hisobi, raqamlashtirish tadbirlari va raqamli transformatsiyadan kelib chiqadigan xavflarni aniqlash. Shuning uchun strategiya uchta turdagi innovatsiyalar uchun rivojlanish rejasini o‘z ichiga olishi kerak: mahsulot, jarayon va biznes modeli innovatsiyasi.

3. Hamkorlik shartnomalarini tuzish. Banklar, moliyaviy texnologik kompaniyalar, nobank tashkilotlar, telekommunikatsiya va IT kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, Markaziy bank bilan faol hamkorlik qilish orqali innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay shartsharoitlarni yaratishda tartibga soluvchi sifatida xizmat qilishi mumkin. Banklar startaplar bozoridagi loyihalarni diqqat bilan kuzatib borishi va baholashi, eng istiqbollilarini aniqlashi va ularni sotib olishi yoki ular bilan strategik hamkorlik aloqalarini yaratishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF -5992 sonli Farmoni,12.05.2020 yil.
2. Дубинин М.В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.
3. Vadlamani R. Introduction to banking technology and management // Institute for development and research in banking technology. May 2011. DOI: 10.4018/978-1-599046754.ch001.
4. O.M.Melikov. Raqamli bank texnologiyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil.
5. M.Madraximov. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4, ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor, SJIF 2021: 5.423.
6. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 151-156.
7. Yo‘ldoshmaxmudov S. et al. DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PROSPECTS //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 951-955.
8. Komilova Mukammal Shavkatovna Abdixoliqov Jamshid Abdixalilovich. "USE OF MARKETING STRATEGY AS A FACTOR OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF CONSTRUCTION ENTERPRISES." International journal of advanced research in education, technology and management 2.3 (2023).
9. Komilova, M. Sh. "O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 575-584.
10. Sh, Komilova M. "RAQAMLI IQTISODIYOTNING TIZIMLI RIVOJLANISHIDA BOSHQARUV USLUBLARINING O'RNI." Journal of marketing, business and management 1.5 (2022): 53-57
11. https://www.cbu.uz
12. https://www.oriens.uz

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BILAN TA'MINLASH SHART-SHAROITLARI

Komilova Mukammal Shavkatovna,
SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, katta o’qituvchi,
Jonibekov Ma'ruf Sobir o'g'li,
SamDAQU “Iqtisodiyot”yonalishi magistranti

Annotasiya: Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotiga investisiyalarni moliyalashtirish masalalari, tadbirkorlikni moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimi va investision faolligini oshirish, kichik biznesni moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida bank kreditlarini olishdagi mavjud muammolar va ular yechimidagi yondoshishlar ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari; investision moliyalashtirish; moliyaviy qo’llab-quvvatlash tizimi; investision faollik; bank kreditlari.

Annotasiya В статье рассмотрены вопросы финансирования инвестиций в экономику нашей страны, система финансовой поддержки предпринимательства и повышения инвестиционной активности, существующие проблемы получения банковских кредитов как одного из источников финансирования малого бизнеса, а также подходы к их решению.

Keywords: small business and private entrepreneurship structures; investment financing; financial support system; investment activity; bank loans.

Annotation: The article describes the issues of financing investments in the economy of our country, the system of financial support for entrepreneurship and increasing investment activity, the existing problems in obtaining bank loans as one of the sources of financing for small businesses, and the approaches to their solution.

Keywords: small business and private entrepreneurship structures; investment financing; financial support system; investment activity; bank loans.

Investisiyalar iqtisodiyotni modernizasiyalash, texnik va texnologik yangilashda, uning tarkibiy tuzilishini tubdan o’zgartirish va diversifikatsiya qilishda, yuqori barqaror va mutanosib iqtisodiy o’sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda investisiya siyosati doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- sanoat korxonalarini barpo etish jarayonlarini tezlashtirish;
- sanoat obyektlari qurilishini moliyalashtirishda xususiy kapital ishtirokini rag’batlantirish;

- qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tarmoqda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihozlash;
- ijtitmoiy infratuzilma sohalarini, transport-kommunikasiya tizimini yanada rivojlantirish, rekonstruksiya qilish, qishloq joylarida namunali loyihalar asosida uy-joylar qurish;
- iqtisodiyot subyektlarining erkin faoliyat yuritishiga imkon yaratish;
- investisiyaviy faoliyatga taalluqli axborot va ma'lumotlar olishni yanada erkinlashtirish;
- sanoat korxonalari faoliyatini baholash.

O'zbekistonda faol investisiya siyosatining amalga oshirilishi natijasida so'nggi besh yil mobaynida investisiyalarning o'rtacha yillik o'sishi sur'ati 12 foizdan ziyodni tashkil qilmoqda va bu dunyoda yuqori, barqaror ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Investisiyani moliyalashtirish manbalarining tuzilmasi asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik (asosan soliq qonunchiligi), investisiyani jalb qilish infratuzilmasi ahvoliga borliq bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik tuzilmalari investitsion bazasining rivojlanishi ko'p jihatdan tadbirkorlikni moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati o'tkazilayotganligi bilan borliqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish, ularning erkin faoliyatini ta'minlash, investision siyosatni faol olib borish iqtisodiyotimizdagi barqarorlikni, tarkibiy va sifat o'zgarishlarini belgilovchi muhim omil bo'lishiga va amalga oshayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan Farmoni [1] kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor darajada rivojlantirishni mamlakat iqtisodiy hayotida davr taqozasiga aylantirdi.

Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan hozirgi bosqichda korxonalar uchun investitsiyani qaysi manbalar hisobidan moliyalashtirish ustidan bosh qotirishlari zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarida, xususan xususiy korxonalarda o'z mablarlarining yetishmovchiligi investisiyalashda kreditlarga ehtiyoj uyrotadi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun kredit kapitalini ishlatish amaliy jihatdan ancha qiyin kechadi, chunki banklar kreditlarni yuqori foiz miqdorida taklif qiladilar. Yuqori foizli kreditlar barqaror ishlayotgan korxonalarni orir moliyaviy ahvolga solib qo'yadi. Kreditlarni rasmiylashtirishdagi ortiqcha moliyaviy xarajatlar (kredit summasidan muayyan foizda sururta uchun, notarial rasmiylashtirish uchun to'lanadi) ham qo'shimcha yukdir. Bank bu rasmiylashtirishlarsiz o'z kreditini bermaydi. Xalqaro moliya korporasiyasi o'tkazgan so'rovlar natijalariga ko'ra, banklardagi rasmiyatchilik eng asosiy muammo bo'lib qolayotganligini 35% respondentlar tasdiqlagan [2]. Shu sabab, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning investisiyadagi ulushi ancha kamdir va yildan-yilga bu darajaning o'zgarishida sezilarli siljish kuzatilmayapdi.

Hamma kreditlar asosiy fondlar garovi ostida beriladi, ularning mavjudligi esa chegaralangandir. Shuning uchun, qarz mablarlari qisqa muddatli kreditlar ko'rinishida asosan aylanma mablarlarni to'ldirish yoki savdo-vositachilik operasiyalarida foydalaniladi.

Kichik tadbirkorlikda innvestisiyani moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida bank kreditlarini olishda tijorat banklarining loyihalarga ishonchli kafilliksiz kredit berishni istamasliklari muammolari uning rivojlanishida va raqobatdoshligini ta'minlashda to'siq bo'lib qolmoqda. Vaholanki, kichik biznesni banklar tomonidan bu masalada rarbatlantirilishi shubhasiz, yuqori samarali bozor iqtisodiyotiga o'tishning amaliy shart-sharoiti bo'lib hisoblanadi. Kichik korxonalarda kreditlar olish uchun zaruriy garov imkoniyatlarining yo'qligi, kafolat tizimi va lizing mexanizmini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bozor strategiyasi odimlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, tadbirkorlikni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bosh sabablardan biri - eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi bozor islohatlarini chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishida sustkashlik qilayotganligidir. Vaholanki, Germaniyada kichik va o'rta kompaniyalarni rivojlanishida qo'llabquvvatlash va ko'mak ko'rsatish maqsadida ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradigan xususiy banklar davlat tomonidan rarbatlantiriladi. Bu mamlakatda 2 mln. kichik va o'rta firmalar ishlab chiqargan mahsulotlar YaIMning 50%ini tashkil etadi. Bu firmalar yirik korxonalar bilan ishlab chiqarishni boshqarish va yangi texnika va texnologiyalarni tatbiq etishda raqobatlashmoqdalar [3]. Moliya-kredit tizimining faol harakati esa kichik va xususiy biznesga barqaror ishlayotgan korxonalar bilan muaffaqiyatli raqobatga kirishga imkon berar edi. Kichik va xususiy biznesda boshlanrich kapitalni shakllantirish uchun moliyaviy resurslar taqchilligi ularning investision faolligini chegaralab turibdi va afzal darajada vositachilik sohasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat ko'magining bir ko'rinishi sifatida investision faollikni oshirish manbalaridan bo'lgan kredit mablarlari bilan ta'minlash shart-sharoitlarini yaratish va bu ishlar rarbatlantirilishi zarur. Bu borada qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir va ular jumlasiga, fikrimizcha, quyidagilar kiradi:

- kichik va xususiy biznesni rivojlantirish uchun boshlanrich kapitalni imtiyozli kreditlar asosida shakllantirish;
- kichik korxonalarni moliyalashtirish uchun turli xil manbalardan mablarlarni jalb ettirishning ilror tuzilmalarini shakllantirish;
- kichik va xususiy biznes korxonalariga kreditlar berishni sururta qilish maxsus tuzilmalarini tashkil etish;

- kichik va xususiy biznes subyektlari loyihalari ostida kredit beruvchi moliya-kredit muassasalariga kafillik beruvchi kafolat fondlarini yaratish;

- kredit olish va uni qoplash bilan borliq xarajatlarni tannarx tarkibiga kiritish bilan kichik korxonalarga imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni ta'minlashga, xususiy mulkni har tamonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida‖ gi Farmoni –T.: 2016 yil 5 oktyabr, PF-4848-son.
2. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF -5992 sonli Farmoni,12.05.2020 yil.
2. Дубинин М.В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.
3. Vadlamani R. Introduction to banking technology and management // Institute for development and research in banking technology. May 2011. DOI: 10.4018/978-1-599046754.ch001.
4. O.M.Melikov. Raqamli bank texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil.
5. M.Madraximov. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4, ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor, SJIF 2021: 5.423.
6. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
7. Yo'ldoshmaxmudov S. et al. DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PROSPECTS //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 951-955.
8. Komilova Mukammal Shavkatovna Abdixoliqov Jamshid Abdixalilovich. "USE OF MARKETING STRATEGY AS A FACTOR OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF CONSTRUCTION ENTERPRISES." International journal of advanced research in education, technology and management 2.3 (2023).
9. Komilova, M. Sh. "O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 575-584.
10. Sh, Komilova M. "RAQAMLI IQTISODIYOTNING TIZIMLI RIVOJLANISHIDA BOSHQARUV USLUBLARINING O'RNI." Journal of marketing, business and management 1.5 (2022): 53-57
11. https://www.cbu.uz
12. https://www.oriens.uz

DIGITAL TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN'S PUBLIC SECTOR: PATHWAY TO AN INNOVATIVE ECONOMY

Mamaradjabov Farkhod Bakhtiyarovich
Doctoral student of Samarkand State University of Architecture and Construction

Abstract: This study investigates the digital transformation of Uzbekistan's public sector as a foundational step towards establishing an innovative economy. The increasing adoption of digital platforms by governmental institutions reflects Uzbekistan's commitment to modernization, aligning with its strategic development goals. Despite progress, a clear knowledge gap persists concerning effective integration methods and the readiness of regional governments for digitalization. This research adopts a qualitative approach, analyzing current government initiatives, legislative frameworks, and case studies of digital platforms, such as e-government services and tax systems. Key findings reveal that while Tashkent and other prominent regions have made strides in deploying digital infrastructure, disparities remain across Uzbekistan's regions, especially in rural areas, posing challenges to consistent digital service delivery. Additionally, the study identifies that successful digital transformation requires not only technology but also a skilled workforce capable of managing and operating these systems. The results emphasize that for Uzbekistan to achieve nationwide digital maturity, a multi-faceted approach is essential—addressing regional disparities, promoting digital literacy, and fostering interagency cooperation. The implications of this transformation extend beyond enhanced public services, contributing to a resilient, tech-driven economy and positioning Uzbekistan as a regional leader in digital governance. This study underscores the need for targeted policies that support equitable digital infrastructure and capacity-building initiatives across all regions.

Keywords: Uzbekistan, digital transformation, public sector, innovative economy, e-government, regional disparities, digital infrastructure, digital literacy, workforce development, digital governance

Introduction

Uzbekistan is undergoing a digital transformation of its public sector, aiming to modernize governance and enhance economic competitiveness [1]. The government is focusing on developing digital infrastructure, implementing e-government initiatives, and promoting digital entrepreneurship [2]. Key strategies include digitizing 100% of government services, creating a single center for public services, and optimizing governance and administration [4]. Despite progress in e-government indicators, challenges remain, including a design-reality gap in digitizing public services and limited interoperability between government authorities [3]. To address these issues,

Uzbekistan is investing in infrastructure improvements, human resource expansion, and ecosystem development [5]. The country aims to achieve digital government implementation by 2025, with the goal of entering digitalization at the level of advanced countries by 2030 [6].

Recent studies have examined digital transformation in Uzbekistan's public sector, highlighting both progress and challenges. The government has initiated e-government projects to enhance public service delivery, particularly in urban areas [3][4]. These efforts aim to improve infrastructure, increase human resources, and optimize governance through digitization [7]. However, research reveals a design-reality gap in implementing e-government services, with limited interoperability between government authorities and underdeveloped transactional services [3]. While digital transformation can improve efficiency and citizen engagement, it may also exacerbate the digital divide, potentially marginalizing groups without access to or familiarity with digital platforms [5]. To address these challenges, studies suggest focusing on technological readiness, inclusive service delivery, and data security [5]. Uzbekistan aims to achieve full digital government implementation by 2025, with expectations to reach the level of advanced countries by 2030 [4].

This research anticipates that findings will reveal regional disparities in digital readiness, particularly between urban and rural areas[8], which influence the accessibility and functionality of digital services. Additionally, the study is expected to show that successful digital transformation requires more than technology alone; a skilled workforce capable of managing and scaling digital systems across Uzbekistan is critical. Findings should underscore the need for targeted policies that prioritize training, improve infrastructure, and promote regional equity in digital development[9].

The implications of this study extend beyond government efficiency, as digital transformation in the public sector supports economic resilience and positions Uzbekistan as a competitive regional player in digital governance. By addressing disparities in digital readiness and fostering inclusive digital literacy programs, Uzbekistan can enhance public service delivery and drive economic modernization. This research contributes to the literature by providing insights into the unique challenges and opportunities associated with digital transformation in Uzbekistan, highlighting actionable steps for policymakers to support equitable digitalization across all regions[10].


Methods

The methodology for this study on digital transformation in Uzbekistan's public sector employs a qualitative research design to capture in-depth insights into the current state and regional disparities of digitalization efforts. Data was collected from a range of secondary sources, including government reports, policy documents, and official statistics on digital infrastructure, as well as case studies of specific digital platforms such as e-government services and digital tax systems. This data allowed for a comprehensive analysis of Uzbekistan's digital transformation landscape, particularly in understanding the role of government initiatives in promoting technology adoption across different regions. Additionally, legislative and policy frameworks were examined to assess how supportive measures are structured and implemented to encourage a shift towards digital governance.

The study further employed a content analysis approach to examine how well these initiatives align with Uzbekistan's strategic goals for modernization and regional development. By coding and categorizing the content from these sources, the analysis identified key themes and challenges, such as infrastructure limitations, workforce readiness, and digital literacy disparities, particularly between urban and rural areas. Through this qualitative approach, findings were contextualized to reveal not only the achievements but also the barriers within Uzbekistan's digital transformation journey. The methodology thus ensures a nuanced understanding of the implications of digitalization efforts on economic and administrative modernization, aiming to provide a foundation for informed policy recommendations that support equitable and sustainable digital development across Uzbekistan.

Results and Discussion


The results of this study underscore the varied progress of digital transformation in Uzbekistan's public sector, revealing significant disparities in digital infrastructure, regional readiness, and citizen engagement. Urban areas, particularly Tashkent, exhibit higher levels of digital maturity, with well-developed platforms such as e-government services and online tax systems, indicating a promising shift towards efficient public service delivery. However, in contrast, rural regions face pronounced challenges, including limited internet connectivity, low levels of digital literacy, and insufficient local government support for digital initiatives. These disparities highlight a gap in the digital transformation process, suggesting that while progress is notable in urban centers, more inclusive strategies are required to achieve nationwide digital equity.



Number of Digital Transformation Projects Initiated Under 'Digital Uzbekistan 2030': This chart would display the total number of projects launched

annually since the inception of the "Digital Uzbekistan 2030" strategy. For instance, as of 2020, the strategy outlined the implementation of 1,627 projects over the next three years.

A key finding of this study is the role of digital literacy and workforce readiness in sustaining digital transformation. The success of digital platforms in Uzbekistan hinges not only on technological deployment but also on the presence of a skilled workforce capable of managing and advancing these systems. Presently, the lack of digital training programs and limited technical expertise within local administrations pose challenges to sustaining digital advancements. Addressing this gap requires targeted investment in capacity-building initiatives, particularly in regions with low digital adoption rates. This aligns with the Technology Acceptance Model (TAM), emphasizing the importance of user education and support for effective technology integration.




Digital Transformation Initiatives Across Public Sectors: A bar chart illustrating the number of digital initiatives across various sectors such as telecommunications, public services, healthcare, and the state cadastre. The "Digital Uzbekistan 2030" strategy addresses a wide range of long-term issues related to the introduction of digital technologies in these areas.

Source: ISRS.uz (2024)

Moreover, the study points to a knowledge gap in understanding the long-term socio-economic impacts of digital transformation on Uzbekistan's public sector. Existing research primarily documents the implementation phase of digital platforms, but comprehensive assessments of their effectiveness in promoting transparency, citizen participation, and economic resilience remain scarce. To bridge this gap, future research should focus on longitudinal studies that monitor the impact of digital services on public sector performance and citizen satisfaction over time. This approach would provide valuable insights into the scalability and adaptability of Uzbekistan's digital transformation efforts, offering a deeper theoretical foundation for the ongoing discourse on digital governance.


Practically, the findings emphasize the need for a decentralized approach that tailors digital transformation strategies to the unique needs of each region. Rather than a one-size-fits-all model, regional governments require flexibility in implementing digital platforms, allowing adjustments that consider local infrastructure capabilities, citizen demographics, and workforce skills. This approach could mitigate existing disparities and promote balanced development, ensuring that digital transformation contributes to the broader goal of socio-economic equity.



Growth of ICT Companies and Employment in Uzbekistan (2018-2022): *A bar chart illustrating the number of digital initiatives across various sectors such as telecommunications, public services, healthcare, and the state cadastre. The "Digital Uzbekistan 2030" strategy addresses a wide range of long-term issues related to the introduction of digital technologies in these areas.*

Source: https://isrs.uz/

For further research, an interdisciplinary approach could deepen understanding of the socio-cultural factors influencing digital adoption in rural regions. Integrating insights from sociology, economics, and public administration, future studies could explore how community attitudes towards technology, economic incentives, and local governance structures impact digital transformation. Additionally, research that focuses on the cybersecurity challenges within Uzbekistan's digital platforms would be valuable, given the growing global emphasis on data protection and privacy in public services.



Annual Investment in Digital Infrastructure in Uzbekistan (2020-2022): A bar chart depicting the annual investments or budget allocations for digital infrastructure. During 2020-2022, it was planned to attract investments amounting to $498.1 million in information technology and communications.

In conclusion, while Uzbekistan's public sector has made commendable strides in digital transformation, achieving a fully integrated and equitable digital environment remains a challenge. This study highlights the importance of addressing regional disparities, enhancing digital literacy, and expanding research into the socio-economic effects of digitalization. By addressing these gaps, Uzbekistan can foster a more inclusive and resilient digital economy, paving the way for sustained growth and improved governance across all regions.

Conclusion

In conclusion, this study on Uzbekistan's digital transformation in the public sector reveals significant progress in urban centers, particularly in Tashkent, where advanced digital platforms and e-government initiatives have begun to streamline public services. However, a pronounced disparity exists in rural areas, where limited infrastructure and digital literacy continue to hinder equitable digital access. These findings underscore the importance of tailored strategies that address regional needs and prioritize digital literacy and workforce development to sustain technological advancements. The implications of this digitalization effort extend beyond improved public service delivery; they contribute to Uzbekistan's broader goal of establishing an innovative, resilient economy. To fully realize these benefits, further research should investigate the socio-economic impacts of digital transformation over time, explore region-specific challenges in technology adoption, and examine the role of cybersecurity in supporting sustainable digital governance. Such studies would provide critical insights for policymakers aiming to bridge the digital divide and foster a balanced, inclusive digital landscape across Uzbekistan.

References:

1. Atamirzaevich, O. A. (2024). TRANSFORMATION OF THE ECONOMY IN THE DIGITAL ERA: EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND DEVELOPMENT STRATEGIES. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 4(03), 18-32.
2. B. E. Kolko, "International IT implementation projects: policy and cultural considerations," Proceedings. IEEE International Professional Communication Conference, Portland, OR, USA, 2002, pp. 352-359, doi: 10.1109/IPCC.2002.1049117.
3. Kuldosheva, G. (2021). Challenges and opportunities of digital transformation in the public sector in transition economies: Examination of the case of Uzbekistan.
4. Sang-Chul, S. H. I. N., & Rakhmatullayev, Z. M. (2019, February). Digital transformation of the public service delivery system in Uzbekistan. In 2019 21st International Conference on Advanced Communication Technology (ICACT) (pp. 703-709). IEEE.
5. Shin, S. C., Ho, J. W., & Pak, V. Y. (2020, February). Digital transformation through e-Government innovation in Uzbekistan. In 2020 22nd International Conference on Advanced Communication Technology (ICACT) (pp. 632-639). IEEE.
6. Latupeirissa, J. J. P., Dewi, N. L. Y., Prayana, I. K. R., Srikandi, M. B., Ramadiansyah, S. A., & Pramana, I. B. G. A. Y. (2024). Transforming public service delivery: A comprehensive review of digitization initiatives. Sustainability, 16(7), 2818.
7. Sang-Chul, S. H. I. N., & Rakhmatullayev, Z. M. (2019, February). Digital transformation of the public service delivery system in Uzbekistan. In 2019 21st International Conference on Advanced Communication Technology (ICACT) (pp. 703-709). IEEE.
8. TashpulatovaL., M., & SuyunovaF., B. (2024). DIGITAL TRANSFORMATION IN TOURISM: TRENDS, CHALLENGES, AND OPPORTUNITIES. International Journal of Global Economic Light.
9. Raimjanova, M. A., Shadiyeva, D. K., Zoyirov, L. S., Saidov, R. B., & Askarova, M. T. (2021). Digitalization of the economy in the geography of the Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 244, p. 10044). EDP Sciences.
10. Kurolov, M. (2023). ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES ON IMPROVING PATIENT SATISFACTION AND HEALTHCARE DELIVERY IN UZBEKISTAN: A SWOT ANALYSIS APPROACH. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(4), 107-111.

AHOLIGA KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mardanova Mohidil Otabek qizi
SamDAQU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Tadqiqot ishida aholiga kommunal xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish vositalari va mehnatning minimal hajmi bilan maksimal natijalarga erishishdir.

Kalit so'zlar: kommunal xizmat, xizmat ko'rsatish samaradorligi, samaradorlik ko'rsatkichlari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

Аннотация. Чтобы повысить эффективность коммуналных служба в научно-исследовательской работе, необходимо добиться максимального результата при минимальном обьеме производственных средств и труда.

Ключевые слова: ЖКХ, эффективность услуг, показатели эффективности, повышение экономической эффективности.

Annotation. In order to increase the efficiency of public utility services in the research work, it is to achieve the minimum volume of production means and labor.

Keywords: utility service, service efficiency, efficieney indicators, economic efficiency improvement.

Kirish. Aholining barcha qatlamlari turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy muhit muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Yaratilgan mustahkam meyoriy-huquqiy bazaga muvofiq tarkibiy islohatlarning izchil amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishning mutloqo yangi tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko'p xonadonli uylarga xizmat ko'rsatmoqda. Uy-joylarni , avvalo , ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko'lami kengaymoqda. Bu o'tgan davr mobaynidi aholi nufusli muttasil o'sib borishiga qaramasdan, aholini uy-joy bilan taminlash darajasini kishi boshiga 1991 yildagi 12,4 kvadrat metr o'rniga o'rtacha 15,2 kvadrat metrga yetkazish imkonini beradi.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida markazlashtirilgan davlat kapital qo'yilmalarini yo'naltirish va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan.


Xorij investitsiyalarini jalb etish orqali suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti tizimlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar kommunal xizmat ko'rsatish infratuzulmasi tajribalari o'rganilib, ulardan foydalanish imkoniyatlari nazariy jihatdan yoritilib, kommunal xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlari aniqlangan va ilmiy asoslangan.

Kommunal xizmat – bu jamiyat a'zolarining turmush kechirishi uchun zarur moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi hamda ular farovonligini oshirish imkoniyatini yaratuvchi xizmat ko'rsatish faoliyatidir.

Kommunal xizmat ko'rsatish samaradorligi – bu jamiyat manfaatlari uchun ishlab chiqarish vositalari va mehnatning minimal hajmi bilan maksimal natijalarga erishishdir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda amalda bo'lgan MST 2015 klasifikatori bo'yicha aholiga kommunal xizmat ko'rsatish xizmatlari alohida ajratib ko'rsatilmagan. MST 2015 klasifikatorini o'rganib chiqganimizda aholiga kommunal xizmat ko'rsatish xizmatlari boshqa xizmatlar hamda ishlab chiqarish yo'nalishlari tarkibidaligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizcha, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish xizmatlarini klasifikatorda alohida keltirib o'tish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Aholiga ko'rsatiladigan asosiy kommunal xizmatlar turlari

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida kommunal xizmat ko'rsatishning samarali amal qilishi bir qator omillarga bog'liq. Bizning nazarimizda, kommunal xizmatlar sohalarida xizmat ko'rsatishning boshqa sohalariga nisbatan past darajada rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, kommunla xizmat subyektlari o'rtasidagi munosabatlar ularning huquqlari va majburiyatlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar. Tahlillar natijasida mintaqaning kommunal xizmat ko'rsatishni o'rganishning muhim metodologik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi, kommunal xizmat ko'rsatish infratuzilmasini boshqarish, kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida boshqa xizmatlarning ajralmasligi, ijtimoiy ahamiyati va raqobatning rivojlanish darajasi kabi omillar shular jumlasidandir. Shu maqsadda, kommunal xizmat ko'rsatishning tasnifi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishning tasniflanishi

№	Tasniflash belgilari	Tasniflanishi
1	Faoliyat turiga ko'ra	-ishlab chiqarish -xizmat ko'rsatish
2	Mulk shakliga ko'ra	-davlat mulkiga asoslangan -jamoa mulkiga asoslangan -xususiy mulkka asoslangan -aralash mulkka asoslangan
3	Joylashuviga ko'ra	-shaharlarda -qishloqlarda
4	Tashkiliy tuzilishiga ko'ra	-tizimda -mustaqil
5	Faoliyat muddatiga ko'ra	-doimiy -mavsumiy

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biridir. Kommunal xizmatlarining narxi, xilmaxilligi, mavjudligi va sifati fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta'minlashning eng muhim xususiyatlaridir.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlash mumkin:

kommunal xizmat ko‘rsatish obyektlarining texnik holati darajasi;

aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishning uzluksiz ishlash xususiyatlari;

kommunal xizmatlarning takror ishlab chiqarish darajasi;

kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi infratuzilma loyihalar bo‘yicha innovatsiyalarga sarflanadigan xarajatlar ulushi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligining ajralmas ko‘rsatkichlari korrelyatsion ta’siri quyidagi birlashtirilgan elementlar bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval

Kommunal xizmat ko’rsatish samaradorligi ko’rsatkichlari

Kommunal xizmat ko’rsatish samaradorligini aniqlovchi ko’rsatkichlar			
Integral samaradorligi ko’rsatkichlari $I_{jami}=I_1+I_2+I_3$	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatishning xuquqqiy sohasini rivojlantirish samaradorligi I_1	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatishni investitsiya va iqtisodiy rivojlantirish samaradorligi I_2	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish infratuzilma samaradorligi tuzilmalari I_3
Agregatli samaradorligi ko’rsatkichlar I_1, I_2, I_3	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish sohasida o’zini o’zi boshqarishni rivojlantirish	Kommunal xizmatlari iste’molchilarining qarzdorlik darajasi	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish ob’yektlarining texnik holati darajasi
	Iqtisodiyotda va sohada bozor mexanizmlarini rivojlantirish	Moliyalashtirish miqdori	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish ob’yektlarining uzluksiz ishlashi
Umumiy samaradorligi ko’rsatkichlar	Kommunal xizmat ko’rsatish xodimlarining kasbiy tayyorgarligi	Kommunal xizmatlar hajmi	Infratuzilmani rivojlantirish
	Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish kommunal xo’jaligida davlat-xususiy sheriklik resurslari	Jalb qilingan investitsiyalar hajmi	Infratuzilmani innovatsion xarajatlar usuli
Xususiy samaradorligi ko’rsatkichlar	Kommunal xizmat tashkilotlarini qo’llab-quvvatlash institutlarini rivojlantirish	Kommunal xizmatlar narxini yangilash	
	Kommunal xizmat masalalarida aholining savodxonligi	Amaldagi ta’riflarining narxini pasaytirish	
		Aholiga kommunal xizmat ko’rsatish xizmatlari narxlari va ta’riflarining nisbati	

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish subyektlari o‘rtasida kommunal xizmatlarni o‘z vaqtida sifatli amalga oshirish, sotish, ular uchun to‘lovlarni raqamlashtirish asosida hamda to‘lovlarning to‘liqligini ta’minlaydigan boshqaruv nazorati bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

kommunal xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda davlatning rolini kuchaytirish va oshirish;

uy-joy mulkdorlari shirkatlari, boshqaruv tashkilotlari va kommunal xizmat resurslarni yetkazib beruvchi korxonalarning raqamli ko‘rinishga o‘tish jarayoniga tayyorlash;

kommunal xizmat ko‘rsatish bozorini baholash uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;

kommunal xizmat ko‘rsatishda “Aqlli shahar”, “Xavfsiz shahar” milliy loyihasini amalga oshirish;

aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishda nazorat axborot muhitini shakllantirish;

kommunal xizmat ko‘rsatishda blokcheyn texnologiyalari va aqlli robot tizimlarini joriy etish;

qayta tiklanadigan energiya man’balaridan foydalanish holati va istiqbollarini tahlil qilish;

kommunal xizmat ko‘rsatishni issiqlik bilan ta’minlash, favqulodda vaziyatlarda qarorlarni qo‘llab-quvvatlashning aqlli tizimlarini rivojlantirish;

shahar kommunal xizmatlarining monitoring va nazorat qilishning yagona axborot-tahlil tizimini shakllantirish vazifalarini ishlab chiqish.

Hozirgi davrda mamlakatimizda kommunal xizmat ko‘rsatish faoliyati samaradorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishini taminlash maqsadida bir qator davlat dasturlari, qarorlar va farmonlar ishlab chiqilib qabul qilinmoqda.

Xulosa

Mamlakatimizda kommunal xizmat ko’rsatish faoliyati samaradorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo’nalishlaridan biri bo’lib, kommunal xizmat ko’rsatish sohasi rivojlanishini ta’minlash maqsadida qator davlat dasturlari, qarorlar va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari dunyoning rivojlangan davlatlari tajribalari o’rganilib amalyotda qo’llab ko’rish ko’zda tutilgan.

Adabyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, PF-158-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017. "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish" Farmoni, PF-5017-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni, PF-60-son.
4. Q.J. Mirzayev, E.Sh. Shavqiyev, B.K.Janzakov. Innovatsiyon iqtisodiyot. (O'quv qo'llanma)-T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020-298bet.
5. Усманов, Илхом Ачилович, and Шерзод Норбоевич Жуманов. "ҚУРИЛИШ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИДА КИРИШ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ." Science and innovation 1.Special Issue 2 (2022): 384-386.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИИ КАК ВАЖНАЯ МОДЕЛЬ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Мукумова Наргис Нуриддиновна
Старший преподаватель, Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет,
Олимова Лола Эркиновна
Преподаватель, Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет,
Абдухоликов Жамшед Абдихалилович
Преподаватель, Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет,

Аннотация: в статье описываются цифровые стратегии по использованию новых технологий в вузах. Рассмотрена цифровая трансформация университета как стратегический процесс комплексных организационно-технических преобразований. В настоящее время существует необходимость подготовки кадров, владеющими навыками работы с современными технологиями. Создание необходимых условий для этого условий на фоне быстрого развития знаний и новых технологий, способствуют существенным трансформациям систем образования, и в частности высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, трансформация, цифровизация, цифровая экономика, API экономика. изменения, новые технологии, электронное обучение, научные исследования,

Введение. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своем обращении к Олий Мажлису отметил о важнейших приоритетах развития цифровых технологий в стране «…..повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана» » [1].

В настоящее время на основные тенденции развития экономики влияет ее цифровизация, ведущая к изменениям роли отдельных видов экономической деятельности, общественной жизни, сферы образования в том числе. Взгляды многочисленных ученых сводятся к тому, что в условиях цифровой экономики, роль человека и непрерывного обновления его знаний неуклонно возрастают. Рост темпов развития цифровой экономики в современном мире весьма стремительны, в силу чего укорачиваются сроки существования ряда профессий, а изменение содержания труда способствует появлению новых. По результатам научных исследований, можно сказать, что в ближайшие 10–25 лет перестанет существовать около 50% профессий, а 67% сегодняшних школьников будут работать в тех профессиях, которые сегодня попросту не существуют. Широкое распространение информационных технологий неизбежно ведет к существенным изменениям в различных сферах человеческой жизнедеятельности.

Изменения требований к подготовке новых кадров обусловлены не только тем, что ряд профессий потеряют свою значимость или вообще исчезнут в новых условиях, но и как отмечается в работе от степени согласованности конкретных знаний, навыков и умений, полученных в процессе обучения, с форматом цифровой экономики, который сам будет претерпевать постоянные и достаточно кардинальные изменения.

Все выше сказанное, может говорить о том, что существует необходимость подготовки кадров, владеющими навыками работы с современными технологиями. Создание необходимых условий для этого условий на фоне стремительного развития знаний и новых технологий, а также многих других причин способствуют существенным трансформациям систем образования, и в частности высшего образования.

Основная часть.

Как известно, на сегодняшний день отсутствует единое, утвержденное понятие цифровой экономики. В связи с этим возникают проблемы измерения.

Для характеристики происходящих технологических изменений употребляются различные термины. Если в Европе более распространенно название «цифровая экономика», то американская часть мирового сообщества более склонна использовать технологическое название – API экономика.

В нашей стране официально признанным названием является «цифровая экономика». Организации, изучающие процессы интернетизации

общества, а также влияние интернета на экономику и социальную сферу используют разные подходы. Исследования ведутся в двух основных направлениях: изучение факторов, влияющих на развитие цифровой экономики и изучение влияния интернет-технологий на экономику.

Основой информационного общества считаются новые цифровые технологии. Информационное общество же воспринимается как общество, в котором большинство его членов занимается производством, хранением и обработкой информации.

Сегодня высшие учебные заведения разрабатывают целенаправленные цифровые стратегии по использованию новых технологий в учебно-воспитательном процессе высшего учебного заведения. Вот почему нужна цифровая организация учебного процесса и развитие цифровых компетенций студентов и преподавателей, определение цифровизации общества в качестве основных тематик педагогических исследований.[3]

Разрабатываемые технологии, такие как электронные «умные» устройства и датчики, облачные технологии, передовые аналитические инструменты меняют содержание высшего образования. Эти технологии открывают новые возможности для совершенствования процесса обучения. При этом важна цифровая грамотность педагога, под которой подразумеваются «знания и навыки преподавателя при использовании доступных технологий и устройств, для достижения желаемых результатов».

Университеты в современных условиях несут ответственность за то, чтобы научить студентов извлекать максимальную пользу из цифровых технологий в процессе обучения.

Вузы, которые разрабатывают правильную стратегию обучения, могут открыть множество новых интересных возможностей для взаимодействия со студентами и профессорско-преподавательским составом. Не существует единого способа достижения конкретных результатов с помощью цифровых технологий. Предоставляя отдельным педагогам возможность опробовать новые способы работы с цифровыми технологиями, и оказывая им необходимую поддержку, педагогический вуз может стать динамичным учреждением с собственной цифровой индивидуальностью. Использование преимуществ цифровой эры зависит от каждого преподавателя.

Цифровизация образования ведёт к изменениям на рынке труда, в образовательных стандартах, выявлению потребностей в формировании новых компетенций населения и ориентирована на реорганизацию образовательного процесса, переосмысление роли педагога. С одной стороны, цифровизация подрывает унаследованную из прошлого методическую основу школы, с другой, порождает доступность информации в различных её формах, не только в текстовой, но и звуковой, визуальной.

Следовательно, цифровизация образования напрямую зависит от уровня владения цифровыми технологиями педагога с целью их продуктивного применения в образовательной деятельности [6]. У педагога необходимо формировать умения ориентироваться в потоке цифровой информации, работать с ней, обрабатывать и встраивать в новую технологию.

В образовании цифровизация направлена на обеспечение непрерывности процесса обучения, так называемое обучение в течение жизни, а также его индивидуализации на основе технологий продвинутого обучения [5]. Цифровые инструменты, обеспечивающие процесс обучения, дают возможность вести персонифицированный учёт достижений в цифровом формате, позволяющий учиться не только в строго отведённое календарное время, но и за его рамками.

Это, в свою очередь, приводит к изменению формата учебного плана – он становится реально индивидуализированным, учитывающим общее время обучения, но без указания конкретных недель и семестров. (рис 1.)




Рис 1.Технологическая модель электронного обучения

Такой подход позволяет обучающемуся выстраивать собственную траекторию индивидуального развития, фиксировать с помощью цифровых следов действия обучающих и обучающихся в различных форматах (презентации, блоги, обсуждения, видеофакты) и действия коллег (комментарии, рекомендации, размещение дополнительных источников информации), педагогу - соотносить свои результаты и результаты профессионального развития коллег. Таким образом обеспечивается создание усовершенствованного продукта деятельности (программы, электронного курса, курсового проекта) и возможность фиксировать профессиональное развитие педагога в динамике.

В Узбекистане действую более 200 вузов, в каждом из них поэтапно вводится модуль цифрового обучения и открываются инкубационные центры.

Принята программа развития IT-образования, направленная на создание новой системы вертикального обучения. В 2020 году в республике была запущена программа «Один миллион программистов», предоставляющая возможность бесплатного обучения навыкам программирования, в рамках которой проходят обучение более 130 тысяч слушателей.

В районах страны создаются учебные IT-центры, их открыто уже более 100, в них прошли обучение более 85 тысяч слушателей. В 2021 году предусматривается открытие дополнительно около 200 таких центров. Для IT-компаний до 2028 году предоставлены льготы по принципу экстерриториальности (льготы в IT-парках: подоходный налог — 7,5%, корпоративный и социальный налог — 0%, таможенные платежи при импорте товаров и услуг — 0%).

Цифровой подход к реализации таких направлений, как виртуальный ректорат, академическое управление, прием абитуриентов, ресурсный центр, услуги преподавателям, контроль студенческой деятельности, открывает возможность постоянно совершенствоваться по принципу услуг «Единое окно» как с физическим присутствием, так и с использованием информационных ботов. Университет - одно из первых образовательных учреждений, открывших собственный дата-центр по стандарту Tier II и предоставляющих различные услуги хостинга и коллокации [3].

Заключение.

Цифровая трансформация университета рассматривается как стратегический процесс комплексных организационно-технических преобразований в инфраструктуре, управлении, учебном процессе и взаимоотношениях со студентами и работниками университета на основе масштабного использования цифровых данных для формирования новой концептуальной парадигмы «Университет как цифровая платформа».[4]

Цифровую трансформацию университета можно рассматривать как дальнейшее развитие концепции Электронного кампуса, исторически принятой к реализации в качестве корпоративной стратегии. Электронный кампус – это тоже цифровая платформа, но с акцентом на ее реализацию в электронном виде с учетом активного вовлечения клиентов и работников. Технологической основой модернизированной цифровой платформы Электронного кампуса (ЭК) останутся облачные технологии, виртуализация, мобильные сервисы, интеллектуальные сервисы и приложения, к которым нужно добавить то новое, что появилось в последние годы, – это аналитика больших данных и искусственный интеллект, использование социальных сетей, виртуальная реальность.

В центре этой платформы, как и прежде будут клиенты (абитуриенты, студенты, выпускники) и работники, с которыми нужно выстроить по-новому цифровые каналы взаимодействия (через сайт, мобильные приложения, чат-боты в роли консультантов, социальные сети, образовательные среды и т.п.) и научиться применять аналитику образовательных данных для принятия решений в управлении и персонализации обучения (рис 2.).



Рис.2. От информатизации к цифровому университету

Результатом цифровой трансформации университета должен стать переход к модели Цифрового кампуса, обеспечивающего создание продуктовой ценности для клиента, ведущий к изменению модели образовательной деятельности и формирующий цифровую культуру клиентов и сотрудников.

Таким образом, обобщив все вышесказанное можно сделать вывод: Цифровая компетенция – вот основное требование, предъявляемое к подготовке высококвалифицированных кадров в учреждениях высшего образования. Это является краеугольным камнем цифровизации экономики. Не секрет, что проблема нехватки квалифицированных кадров в сфере цифровизации довольно острая. Необходимо, чтобы работала система «Цифровая школа» и как ее последующий этап – «Цифровая высшая школа».

Ведь именно на этих двух этапах образования строится вся цифровая инфраструктура общества и, в частности, экономики.

Литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Мирзиеёва Ш.М. от 25 января 2020 года.

2. Zakirjanovna, Yuzbaeva Makhfuza, and Mukumova Nargis Nuriddinovna. "Trends of innovative development in the Republic of Uzbekistan." American Journal of Business Management, Economics and Banking 8 (2023): 96-100.

3. Камнева В.В., Коняева Е.А. Цифровая экономика в образовании // Вопросы студенческой науки, 2018. № 3 (19) март. С. 101-105.

4. Корсаков Г.О., Михайлова И.П. Профиль цифровой зрелости университета как инструмент цифровой трансформации системы высшего образования.// Научный журнал «Инновации и инвестиции». № 7 .2022 с.53-57

5. Nuriddinovna, Mukumova Nargis. "The transformation of higher education during the pandemic." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.6 (2022): 977-987.

6. Мукумова, Наргис Нуриддиновна. "Высшее образование в эпоху цифровизации." Наука, техника и образование 6 (81) (2021): 54-57.

7. Турсунходжаев М.Л., Тарахтиева Г.К. Цифровая экономика как новая форма инновационных экономических отношений Республики Узбекистан // Вестник науки и образования, 2019. № 10 (64). Часть 4. С. 35-37 7.

8. Мухаммадиев, У. А., Ш. Н. Жуманов, and З. А. Мирзаев. "В СТРОИТЕЛЬСТВЕ КРУПНЫХ КОМПЛЕКСОВ СВОЕВРЕМЕННОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ФРОНТОВ РАБОТ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА." *Евразийский журнал академических исследований* 2.6 (2022): 1238-1240.

9. Хикматов, Х. Х., Мирзаев, З. А., Жуманов, Ш. Н., & Ахмедова, А. Э. (2020). Модель и методические рекомендации по рекламе оптимального использования ресурсов в горных регионах республики Узбекистан. In *Управление социально-экономическими системами: теория, методология, практика* (pp. 73-75).

QURILISH TASHKILOTIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Pulatov Sh.A.,
SamDAQU Biznesni boshqarish kafedrasi doktoranti,
Komilov F.Q.
SamDAQU Biznesni boshqarish kafedrasi doktoranti,

Annotasiya. Ushbu maqola qurilish tashkilotida sifatni boshqarish tizimini shakllantirish va uni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Maqolada qurilishda sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilishning asosiy sabablari, qurilish tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalarida o'zgarish kiritish orqali sifatni boshqarish kabi masalalar ko'rib chiqilgan hamda qurilish tashkilotining sifatni boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmasi taklif qilingan.

Kalit so'zlar: qurilish tashkiloti, sifatni boshqarish, sifat menejmenti tizimi, ISO standatrlari.

Аннотация. В данной статье описаны проблемы, связанные с формированием и развитием системы менеджмента качества в строительной организации. В статье рассмотрены основные причины внедрения систем менеджмента качества в строительстве, такие вопросы, как управление качеством путем внесения изменений в организационные структуры строительных организаций, а также предложена организационная структура строительной организации, ориентированная на управление качеством.

Ключевые слова: строительная организация, менеджмент качества, система менеджмента качества, стандарты ISO.

Abstract. This article describes the problems associated with the formation and development of a quality management system in a construction organization. The article examines the main reasons for the implementation of quality management systems in construction, such issues as quality management by making changes to the organizational structures of construction organizations, and also proposes an organizational structure of a construction organization focused on quality management.

Keywords: construction organization, quality management, quality management system, ISO standards.

Kirish. Mamlakatimiz qurilish sohasi Yangi O'zbekistonni jadal rivojlantirish strategiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston-2030 strategiyasida "Xududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizasiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish" vazifasini ro'yobga chiqarishda aynan qurilish sohasining ahamiyati beqiyosdir. 2023 yilda mamlakatimizda 149 864,1 mlrd.so'm qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo'lib o'tgan 2022 yilga nisbatan o'sish sur'ati 6,4% ni tashkil qilgan.

Qurilish sohasida sifatni ta'minlash masalasiga hukumat darajasida ko'p yillardan buyon katta e'tibor berib kelinmoqda. Buning natijasida qurilish me'yorlari va qoidalarining uchinchi qismida hamda O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining me'yoriy hujjatlarida sifatni ta'minlashga qaratilgan tizimlar, tartiblar va talablar o'z aksini topgan. Bunda ijrochilar va manffatli tashkilotlarning mas'uliyatini belgilash bilan birgalikda siftani ta'minlash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha talablar ham aniq ko'rsatib berilgan. Davlat miqyosida qurilish mahsuloti sifatinining ta'minlanishi jamiyat manfaatlarining himoya qilinishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Qurilish ishlarining sifatini tadqiq qilishga Yu.B.Monfred, V.V. Buzыrev,

N.T.Mazanik, I.G.Lukmanova, E.A.Горбашко, A.B.Тебекин, A.X.Bayburin kabi olimlarning izlanishlari bag‘ishlangan. Mamlakatimizda qurilish sohasida sifatni boshqarish tizimlarini rivojlantirish masalalari R.I.Nurimbetov, A.S.Suyunov, X.T.Buriyev, I.A.Usmanov kabi olimlarning asarlarida yoritilgan.

Asosiy qism. Bugungi kungacha ko‘pchilik qurilish tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi shundaki, sifatni boshqarish tizimi tashqilotning sifat bilan bog‘liq xarajatlarini kamaytirishga qaratiladi, demak tashkilotning funksional boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanishi lozim. Xarajatlarni boshqarish odatda korxonaning ichki muammolari hisoblanadi va tashqi boshqaruv tomonidan tartibga solinmaydi. Lekin hozirgi davrda raqobat kurashining asosiy yo‘nalishlari aynan xarajatlarni boshqarish sohasida bo‘lmoqda. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi uning tarkibidagi korxonalardagi xarajatlarni pasaytirish siyosatidan kelib chiqmoqda.

Bugungi kunga kelib sertifikatlashgan sifat menejmenti tizimining mavjudligi shartnoma tuzish davrida uning bajarilmaslik tavakkalini pasaytiruvchi asosiy omillaridan hisoblanadi va jahon bozorida majburiyatlarning muhim elementi sifatida qabul qilinadi. ISO 9000 korxonalarda sifat menejmenti tizimini yaratish va uni sertifikatlash borasidagi vosita bo‘lib qoldi. Korxonada sifat tizimini joriy qilishning asosiy masalasi korxona rahbariyati, mijozlar va sheriklarda shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda belgilangan sifatdagi mahsulotni yetkazib berishga ishonch hosil qilishdir.

ISO 9000 standartlar seriyasi oltita standartlardan iborat bo‘lib ularni har qaysisi o‘zining ta’sir doirasiga ega:

1) ISO 8406 sifat sohasidagi barcha atama va tushunchalarini belgilab beradi (hozirgi kunda ISO 9000 tarikibiga kiritilgan);

2) ISO 9000 korxonaga boshqa standartlardan qaysi birini tanlash va qo‘llash bo‘yicha uslubiy yordam ko‘rsatadi;

3) ISO 9001 mahsulotning to‘liq hayotiy siklini amalga oshirayotgan korxonalarga talablarni o‘z ichiga oladi;

4) ISO 9002 mahsulotni tayyor texnik yechimlar asosida mahsulot ishlab chiqishni amalga oshirayotgan korxonalarga talablarni o‘z ichiga oladi;

5) ISO 9003 sinov laboratoriyasiga va markazlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi;

6) ISO 9004 ikki qismdan iborat. Birinchi qismi sifat menejmentining asosiy elementlarini belgilaydi va TQM konsepsiyasiga o‘tish uchun asos yaratadi. Ikkinchi qismi turli shakldagi xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning sifat menejmentiga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

Shuni qayd qilish joizki, ISO standartlarini qo‘llash ixtiyoriydir, ya’ni ular milliy standartlar tizimiga kiritilsada, belgilangan talablarni qabul qilish yoki qilmaslik korxona rahbariyatiga bog‘liq.

Sifat menejmenti tizimini korxonada joriy qilishga hech kim majbur qila olmaydi, ammo raqobat kurashi va jamiyat tomonidan sifatning rag‘batlantirishi ishlab chiqaruvchilarni doimiy ravishda sifatni yaxshilashga va bunga tayyor bo‘lganligini tasdiqlashga undaydi.

Qurilishda sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

a) Buyurtmachilar tomonidan qurilish korxonalarida sertifikatlashtirilgan sifat menejmenti tizimiga ega bo‘lish talabi;

b) Yirik dasturlar va tenderlarda ishtirok etish shartlariga sifat menejmenti tizimining mavjudligi kiritilishi;


v) Sifat menejmenti tizimini mavjudigi investisiya kiritish yoki imtiyozli moliyalashtirish sharti hisoblanishi;

d) Qurilish korxonasi rahbariyati tomonidan mahsulot sifatini raqobatda ustunlikka erishishning eng samarali yo‘li bo‘lishiga ishonch hosil qilishi.

Sifatni boshqarish konsepsiyasi avvalo sifatni shakllanishning barcha bosqichlari va barcha ish joylarida uzluksiz takomillashuv tamoyiliga rioya qilinishini taqozo qiladi. Ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda taxlil qilib boriladi va taxlil natijalari bo‘yicha zudlik bilan aniq choralari ko‘riladi.

Qurilish tashkilotlarida sifatni boshqarish ularning tashkiliy tuzilmalarida o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi (1-rasm). Bunda qurilish tashkiloti boshqaruvining bosh tamoyiliga o‘zgartishlar kiritiladi, ya’ni qurilish ishlarining bajarilishi emas balki yuqori sifatli ishlarni bajarish bosh maqsad bo‘lishi lozim.

Xulosa. Qurilish tashkiloti rahbarining birinchi o‘rinbosari etib sifat bo‘yicha menejer tayinlanadi. Barcha boshqaruv jarayonlari sifat markazi tomonidan rejalashtiriladi va nazorat qilinadi. Shunda tashkilot faoliyatining barcha jabhalarida sifat falsafasining tarqalishi ta’minlanadi. Qurilish tashkilotida sifatni boshqarish tizimi shakllantiriladi va uning tarkibiga sifatni rejalashtirish, sifatni ta’minlash va sifatni tahlil qilish bo‘g‘inlari kiritiladi.



1-rasm. Qurilish tashkilotining sifatni boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilma.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бузырев, В. В. Экономика отрасли: управление качеством в строительстве : учеб. пособие для СПО / В. В. Бузырев, М. Н. Юденко ; под общ. ред. М. Н. Юденко. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 198 с.

2. Мазаник Н.Т. Система менеджмента качества строительных организаций: учеб. пособие. – Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2013. – 95 с.;

3. Лукманова И.Г., Нежникова Е.В. Комплексная оценка системы менеджмента качества в строительстве. Фундаментальные исследования, №10, 2013г. -1791 с.;

4. Байбурин А.Х. Обеспечение надежности строительно-монтажных работ по параметрам качества продукции. - Предотвращение аварий зданий и сооружений. Электрон журнал, 2009 й.

5. Горбашко, Е. А. Управление качеством : учебник для академического бакалавриата / Е. А. Горбашко. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 352 с.

6. Тебекин, А. В. Управление качеством : учебник для бакалавриата и магистратуры / А. В. Тебекин. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 410 с.

7. Нуримбетов Р.И. Повышение эффективности управления привлечением инвестиций в промышленные предприятия строительных материалов / Р.И. Нуримбетов, А.Д. Мэтякубов, Д.Ю. Матризаева // «Вопросы современной науки»: коллект. науч. монография; [под ред. Н.П. Ходакова]. – М.: Изд. Интернаука, 2021. Т. 67.

8. Суюнов А.С. и другие. Модернизация экономики капитального строительства Самаркандской области на основе совершенствования инвестиционных процессов Монография. - Самарканд, 2021. - 215 с.;

9. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства. Монография. – Т.: ООО “Lesson press”, 2020.- 216с.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ДЕПОЗИТ СИЁСАТИ ФУНКЦИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ АМАЛ ҚИЛИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Раҳимов Санжар Абдулаҳодович, СамДАҚУ, доцент

Аннотация. Ушбу мақолада тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини таъминлаш бўйича тижорат банклари депозит сиёсатининг умумий функциялари таҳлил қилинган бўлиб, унга асосан тижорат банкларида депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи, назорат ва тижорат, бошқариш, харажатларни пасайтириш, депозит жараёнини ривожлантириш ва янада такомиллаштириш функцияларини бажариши эътироф этилган. Шу қаторда тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини таъминлашда эришилиши лозим бўлган асосий йўналишлар белгилаб берилган.

Калит сўзлар. Депозит, депозит сиёсати, пассив операциялар, тижорат функцияси, рағбатлантирувчи, бошқарув ва назорат функциялари, банк ресурс базаси, банк баланси, ликвидлилик.

Аннотация. В данной статье проведен анализ общих функций депозитной политики коммерческих банков, обеспечивающей эффективность депозитной политики коммерческих банков. На основе анализа признано выполнение функций стимулирования, контроля и коммерции, управления, снижения расходов, развития и совершенствования депозитного процесса в коммерческих банках. Кроме того, определены основные направления, которые необходимо достичь для обеспечения эффективности депозитной политики коммерческих банков.

Ключевые слова. Депозит, депозитная политика, пассивные операции, коммерческая функция, стимулирующая, управляющая и контрольная функции, ресурсная база банка, баланс банка, ликвидность.

Annotation. This article analyzes the general functions of commercial banks' deposit policies to ensure their effectiveness. Based on this analysis, it recognizes that commercial banks' deposit policies perform functions such as incentivizing, controlling and commercializing, managing, reducing expenses, developing, and further improving the deposit process. Additionally, the main directions that need to be achieved to ensure the effectiveness of commercial banks' deposit policies are outlined.

Keywords: Deposit, deposit policy, passive operations, commercial function, incentive, management and control functions, bank resource base, bank balance, liquidity.

Мамлакатимизда бозор муносабатларининг чуқурлашуви ва иқтисодий ислоҳотларнинг кенг қамровлилиги, шунингдек, жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози тижорат банклари пассив операциялари, ёинки уларнинг депозит сиёсатининг аҳамиятини оширмоқда. Тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини таъминлаш бевосита уларнинг молиявий жиҳатдан барқарор ресурс базасини шакллантириш имкониятини беради. Мамлакатда амалга амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг самарадорлиги тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлиги ва базасининг мустаҳкамлигига бевосита боғлиқдир.

Тижорат банклари депозит сиёсатининг иқтисодий моҳияти унинг умумий функцияларида янаям аниқроқ намоён бўлади. Иқтисодий адабиётларда депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи, назорат ва тижорат функциялари мавжудлиги эътироф этилади. Булар бир-бири билан узвий боғлиқ функциялардир. Шунинг учун унинг чизмасини қуйидагича ифодалаш мумкин (1-расм).



1-расм.Тижорат банклари депозит сиёсати функциялар[4].

1-расмдан тижорат банклари депозит сиёсатининг функциялари келтирилган. Улар асосан рағбатлантирувчи, назорат ва тижорат функциялари эканлиги расмдан кўриниб турибди. Депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи функцияси асосан мамлакат молия ва фонд бозорларида вақтинчалик бўш пул маблағларини банкларда сақлаш учун тақдим этаётган жисмоний ва юридик шахсларга нисбатан жорий этилади.

Тижорат банкининг депозит сиёсати фақатгина банкнинг молиявий ресурсларга бўлган талабини қондириш, уларни арзон ва узоқ муддатга жалб этиш масаласига қаратилмаслиги лозим. Бу тижорат банкининг узоқ муддатли депозит сиёсатини амалга ошириш имкониятларига салбий таъсир кўрсатади. Шу боис тижорат банклари депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи функцияси айнан мана шу масаланинг ижобий ечимига бағишланган бўлиб, банкнинг келажакда ҳам барқарор ва молиявий жиҳатдан бақувват омонатчилар, инвесторлар ва мижозларнинг иқтисодий манфаатдорлигини ҳимоя қилиш воситаси сифатида майдонга чиқади.

Тижорат банклари депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи функцияси иқтисодиётда кучли рақобат шароити таъминланганда, миллий валютани сотиб олиш қобилияти юқори бўлганда, аҳолининг банк тизимига ишончи мустаҳкам бўлса самарали амал қилади. Ушбу омиллар депозит сиёсатининг рағбатлантирувчи функциясига бевосита ва билвосита таъсир қилади. Хусусан, биргина иқтисодиётда кучли рақобат шароити таъминланган ҳолатини оладиган бўлсак, бу шароитда барча тижорат банкларининг мамлакат молия ва фонд бозорларидан молиявий ресурсларни жалб этишга эҳтиёжи юқори даражада бўлади. Шу боис омонатчилар, инвесторлар ва мижозларга турли имтиёзлар, хизмат турларини таклиф этади[1].

Тижорат банклари депозит сиёсатининг назорат функцияси банкга жалб қилинаётган маблағларнинг ҳажми, таркиби, муддати, улар бўйича тўланаётган фоиз тўловлари, шунингдек, банк омонатчилари таркиби ва уларнинг истиқболдаги ҳолати устидан назоратни амалга оширади. Назорат функциясининг самарадорлик кўрсаткичи тижорат банкларининг ликвид маблағларга бўлган талабининг қондирилиши, жалб қилинган маблағларнинг муддати жиҳатидан узоқ муддатлилиги кабилар билан белгиланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бозор иқтисодиёти шароитида тижорат банклари депозит сиёсатининг назорат функцияси қатор долзарб вазифаларни бажариши лозим бўлади. Улардан энг асосийлари банкни узоқ муддатли, барқарор ва нисбатан арзон маблағлар билан таъминлаш масаласи ҳисобланади.

Шу жиҳатдан, тижорат банклари депозит сиёсати функциясининг самарали амал қилиш масаласига икки томонлама ёндашиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Биринчидан, тижорат банклари фаолияти давомида амалга ошираётган депозит сиёсатининг самарадорлиги таъминланганлигида, иккинчидан, Марказий банк мамлакатда тижорат банклари депозит сиёсатини амалга ошириш юзасидан яратган иқтисодий шароит ва таклиф этилаётган молиявий ресурслар етарли даражада бўлиши муҳим аҳамият касб этади .

Тижорат банклари депозит сиёсати функциясининг биринчи жиҳатига эътибор қаратадиган бўлсак, унинг самарадорлигини таъминлашнинг асосий қисми Марказий банкнинг тижорат банкларига депозит операциялари бўйича яратган шароит ва таклиф этаётган ресурсларига боғлиқ. Бироқ, улардан ташқари тижорат банклари мавжуд имконият ва иқтисодий механизмлардан фойдаланган ҳолда депозит сиёсатининг назорат функцияси самарадорлигини оширишга эришиш имкониятларига эгадирлар. Хусусан, муомалага узоқ муддатли субординар қимматли қимматли қоғозларни чиқариши, депозит сертификатларини таклиф этиш орқали қўшимча ресурсларни жалб қилиш шулар жумласидандир. Шу билан бирга, аҳолининг банк тизимига ишончини ошириш орқали улардан нақд пулларни омонатларга жалб этиш ҳам зиддиятли ҳолат сифатида сақланиб турибди.

Буларнинг барчаси мамлакатимиз тижорат банклари депозит сиёсатининг назорат функцияси

юзасидан қатор муаммолар мавжудлигидан далолат беради. Жумладан, тижорат банклари депозит маблағлари таркибида узоқ муддатли маблағлар улушининг пастлиги, муддатли депозит маблағларнинг ҳам асосий қисмининг муддати бир йилдан ошмаслиги, самарали инвестицион лойиҳаларни кредитлаш бўйича молиявий ресурсларнинг тақчиллиги каби ҳолатлар шулар жумласидандир.

Тижорат банклари депозит сиёсати назорат функциясининг самарали ишлаши учун Марказий банкнинг мамлакатда банкларга яратаётган иқтисодий шароит ва таклиф этилаётган молиявий ресурслари ҳолатига эътибор қаратадиган бўлсак, бу борада ҳам айрим муаммолар мавжудлигининг гувоҳи бўламиз. Жумладан, иқтисодиётда монетизация коэффициенти даражасининг сезиларли даражада пастлиги, қайта молиялаш ставкаси ва тижорат банкларига ўрнатилган мажбурий захиралар нормасининг нисбатан юқорилиги каби масалалар шулар жумласидандир. Мазкур ҳолатлар мамлакатимиз тижорат банклари депозит сиёсатига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатадиган иқтисодий ҳолатлар бўлиб, эътиборлиси пандемия шароитида қатор мамлакатларда Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкаси ноль даражага туширилаётган бир пайтда мамлакатимизда ушбу миқдор юқорилига (13.5 фоиз) қолмоқда.

Тижорат банклари депозит сиёсати тижорат функцияси унинг актив операцияларида ўзининг ифодасини топади. Маълумки, тижорат банклар пассив операциялари таркибида депозит оперциялар уларнинг актив операциялари учун молиявий манба бўлиб ҳисобланади. Ўз навбатида тижорат банклари актив операциялари банкнинг даромад манбаи ҳисобланиб, банк даромади таркибида рискка тортилган активлар ҳисобидан шаклланаётган даромадлар асосий салмоқни ташкил этади[2].

Бу таҳлил натижасида мамлакатимиз тижорат банклари депозит сиёсатининг тижорат функцияси самарадорлиги нисбатан паст даражада деган хулосага келишимиз мумкин.


Тижорат банклари депозит сиёсати функциялари борасида амалга оширилган тадқиқот ишлари натижасида таъкидлашимиз мумкинки, депозит сиёсати рағбатлантириш, назорат ва тижорат функцияларидан ташқари *депозит операцияларни бошқариш, депозит оперциялар бўйича харажатларни пасайтириш ва депозит жараёнини ривожлантириш ва янада такомиллаштириш функцияларини* бажаради.

Тижорат банклари депозит сиёсатининг *депозит операцияларни бошқариш функцияси* муҳим иқтисодий аҳамиятга эга. Бунда асосий эътибор депозит операциялари жараёнида шакллантирилган маблағларни банкнинг даромад келтирадиган ва даромад келтирмайдиган актив операцияларига тақсимлаш, шунингдек, банк кредиторлари ва мижозларнинг талабларини бажариш бўйича тегишли манбаларни излаб топишда айнан банкнинг депозит операцияларни бошқариш функцияси майдонга чиқади. Мамлакатимизда бозор муносабатларининг такомиллашуви ва иқтисодий рақобатнинг чуқурлашуви тижорат банклари ресурсларини барқарор манбалар ҳисобидан шаклланишини ва уларни самарали мақсадларга жойлаштиришни талаб этмоқда. Буларнинг барчаси тижорат банклари депозит операцияларини самарали бошқаришни ташкил этишни талаб этади. Чунки, бозор муносабатлари шароитида ҳар қандай фаолият ва иқтисодий муносабатларда ижобий натижага эришиш учун самарали бошқаришни йўлга қўйиш жуда муҳимдир**.**

Депозит сиёсатининг депозит операцияларни бошқариш сиёсатининг самарадорлигини аниқлашда банк халқаро ва маҳаллий фонд ва молия бозорларидан актив операцияларни бажариш учун зарур бўлган молиявий ресурсларни излаб топиш, улар бўйича оптимал харажатлар даражасини шакллантириш каби масалаларда муаммоларнинг туғилмаслигида намоён бўлади[3]. Шу билан бирга, таъкидлаш жоизки тижорат банкида депозит сиёсатини ташкил этиш устидан назоратни амалга оширишда масъул ходимлар бевосита этиши лозим бўлади. Чунки депозит операциялар бўйича шакллантирилган маблағлардан самарали фойдаланиш устидан нафақат банкнинг актив операциялари бўйича масъул ходимлар, балки депозит маблағларини шакллантиришда масъул бўлган ходимларнинг ҳам вазифаси ҳисобланади.

Маълумки, тижорат банклари депозит сиёсати банкнинг пассив операцияларининг таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Банкнинг пассив операциялари, шу жумладан депозит операциялар тегишли харажатларни амалга оширишни талаб этади. Шу жиҳатдан, тижорат банклари депозит операциялар ва актив операциялари ўртасидаги харажат ва даромадлар меъёрини сақлаган ҳолда банкнинг фойдалилик даражасини таъминлаш лозим. Ушбу вазифа тижорат банклари депозит сиёсатининг *депозит операциялар бўйича харажатларни пасайтириш* функцияси асосида амалга оширилади.

Тижорат банклари депозит сиёсати функциялари ва уларнинг амал қилиш ҳолатини таҳлил қилиш асосида мазкур жараённинг самарадорлигини ошириш бўйича бир қанча натижаларга эришиш мумкинлиги асосланди. Буларга қуйидагиларни киритиш мумкин (2-расм):



2-расм. Тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини ошириш бўйича эришилиши лозим бўлган натижалар[4].

2-расмда тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини таъминлашда эришилиши лозим бўлган асосий йўналишлар келтирилган. Хусусан:

-банк ресурс базасини барқарор ва оптимал даражасини таъминлаш мақсадга мувофиқ. Маълумки, тижорат банклари бошқа хўжалик юритувчи субъектларидан фарқли ўлароқ фақат пул маблағлари асосида фаолият юритади ва ўзининг тегишли фойдасини шакллантиради. Соддароқ қилиб айтадиган бўлсак, тижорат банкларининг «хом ашёси» бу молиявий ресурслар ҳисобланади, шундай экан банкда «хом ашё» етарли даражада мавжуд бўлиши лозим. Унинг етарли даражада бўлишида банкнинг депозит операциялари алоҳида аҳамият касб этади.

-банк баланси жорий ликвидлилигини таъминлаб туришга эришиш лозим. Банкларнинг фаолиятида жорий ликвидлиликни таъминлаш масаласи муҳим вазифалардан бири ҳисобланади, банкларда ликвидлиликни таъминланмаслиги банкларга нисбатан аҳолининг ишончини йўқолишига, молиявий ҳолатларнинг заифлашишига ва охир оқибат инқироз ҳолатига тушиб қолишга олиб келади;

-банкнинг фойда даражасини ўсиб боришини таъминлаш лозим. Бозор иқтисодиёти шароитида барча хўжалик юритувчи субъектлардаги каби банкларнинг асосий мақсади қўшимча фойда олишга қаратилади. Депозит операциялари натижасида шакллантирилган узоқ муддатли барқарор молиявий ресурслар актив операцияларга жойлаштирилиши орқали банкнинг тегишли даромадларини шакллантиради. Албатта ушбу даромад банкнинг фаолиятини ташкил этиш ва депозит операциялари билан боғлиқ харажатларидан чегириб ташланиши натижасида фойда вужудга келади. Демак, тижорат банклари депозит операциялари нафақат банк фойдасини шакллантиришга балки, уни барқарор даражада ўсиб боришини таъминлаши лозим;

-депозит ва актив операциялар ўртасида муддати ва сўммаси ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таъминлаш лозим. Тадқиқотларимиз давомида мамлакатимиз тижорат банкларида муддатли маблағлар ва рискка тортилган активлар ўртасидаги нисбатни таҳлил этганимизда, бу борада айрим муаммолар мавжудлиги аниқланди. Шу жиҳатдан айтиш мумкинки, тижорат банклари депозит сиёсатининг самарадорлиги айнан шу муаммонинг бартараф этилганлигида намоён бўлади;

-банк депозитлари таркибида узоқ муддатли маблағлар улушининг ортиб боришига эътибор қаратиш лозим. Тижорат банклари депозитлари таркибида узоқ муддатли маблағлар улушининг юқорилиги банкнинг депозит сиёсати самарадолигини белгиловчи кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Шунинг учун тижорат банклари депозит сиёсатини амалга оширишда шу масалага катта эътибор қаратиш лозим;

-банкнинг депозит операциялари бўйича хизматлар турини кўпайтириш ва уларнинг сифатини ошириш лозим. Иқтисодиётнинг модернизациялашуви, шунингдек, жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози тижорат банклари олдига қатор вазифаларни қўймоқда. Уларнинг асосийларидан бири, банкларнинг депозит операциялари бўйича хизмат тури ва сифатини оширишдир. Бу тижорат банклари депозит сиёсатини доимий равишда такомиллаштириш заруриятини келтириб чиқаради. Хулоса қилиб айтганда, тижорат банклари депозит сиёсатининг моҳияти унинг қатор функцияларида намоён бўлиб, уларнинг тўлиқ ва самарали амал қилиши банкнинг молиявий барқарорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, тижорат банклари депозит сиёсати функциялари ва уларни самарали амал қилиши учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим деб ҳисоблаймиз:

банк ресурс базасини барқарор ва оптимал даражасини таъминлаш мақсадга мувофиқ;

банк баланси жорий ликвидлилигини таъминлаб туришга эришиш лозим;

банкнинг фойда даражасини ўсиб боришини таъминлаш лозим;

депозит ва актив операциялар ўртасида муддати ва сўммаси ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таъминлаш лозим;

банк депозитлари таркибида узоқ муддатли маблағлар улушининг ортиб боришига эътибор қаратиш лозим;

банкнинг депозит операциялари бўйича хизматлар турини кўпайтириш ва уларнинг сифатини ошириш лозим.

Адабиётлар

1. Горбенко М.М. Депозитная политика современных коммерческих банков // Проблемы экономики и менеджмента. 2013. № 5. С. 85-90. http://icnp.ru/sites/default/files/PEM/PEM_21.pdf

2. Омонов А.А. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. Монография. –Тошкент, Fan va texnologiya. –2008. –257 б.

3. Рузметов Ш.Б. «Ўзбекистон тижорат банклари депозит базасини мустаҳкамлаш йўллари» мавзусидаги иқт.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: 2009 й. 116 б.

4. Rakhimov S.A. Attract deposits to Commercial Banks and Strengthen their Resource Base//International journal of Multicultural and Multireligious Understanding, https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/1849, ISSN: 2364- 5369. Volume 7, Issue 7 August, 2020. — 247-254 p. (№18; GIF-0,676).

IQTISODIYOT SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI O'ZGARTIRISH

Raxmonova Feruza Musaqulovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Biznesni boshqarish kafedrasi katta o'qituvchisi
Mirzayev Zafar Abdalimovich
Biznesni boshqarish kafedrasi o'qituvchisi
Olimova Lola Erkinovna
Biznesni boshqarish kafedrasi o'qituvchisi
Turdiboyev Zohidjon To'liboy o'g'li
SamDAQU "Menejment" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Iqtisodiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimining evolyutsiyasi zamonaviy ta'lim nutqining muhim yo'nalishi sifatida paydo bo'ldi. Tez texnologik taraqqiyot va o'zgaruvchan bozor talablari bilan tavsiflangan davrda, bo'lajak iqtisodchilarni kerakli malakalar bilan samarali jihozlash uchun an'anaviy ta'lim asoslari jiddiy o'zgarishlardan o'tishi kerak. Binobarin, ushbu maqola iqtisodiy ta'limni isloh qilishga ta'sir etuvchi ko'p qirrali omillarni, jumladan, o'quv dasturlariga tuzatishlar, pedagogik innovatsiyalar va fanlararo yondashuvlarning integratsiyasini o'rganishga qaratilgan. Ushbu elementlarni o'rganib chiqib, ta'lim amaliyotini real iqtisodiy muammolar bilan uyg'unlashtirish zarurligini aniqlash mumkin, bu esa bitiruvchilarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishini, balki doimiy o'zgaruvchan bozorda moslashuvchanlik va chidamlilikni rivojlantiradigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashi mumkin. Oxir oqibat, ushbu tadqiqotdan olingan tushunchalar iqtisodiy landshaftning dinamik ehtiyojlariga yaxshiroq xizmat qilish uchun ta'lim tizimlarini qanday qayta qurish mumkinligini yanada mustahkamroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy ta'lim evolyutsiyasi, tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar, kompetentsiya, globallashuv, sinergik aloqa, innovatsiya, transformatsiya.

Kirish

Iqtisodiy ta'lim evolyutsiyasi globallashuv va texnologik taraqqiyot bozorlar va tarmoqlarni qayta shakllantirgani sababli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy o'quv dasturlari tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga urg'u berib, jahon iqtisodiyotining dinamik manzarasiga moslashishi kerak. Ta'lim muassasalari akademik ta'lim va real iqtisodiy muammolar o'rtasidagi tafovutni yaxshiroq bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich kompetensiyaga asoslangan ta'limga e'tibor qaratmoqda. Masalan, korporativ universitetlarning joriy etilishi tashkilotlarning inson kapitalini samarali rivojlantirish zarurligining ortib borayotgan e'tirofini aks ettiradi. Ushbu korporativ ta'lim tashabbuslari moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha kompaniyalarning strategik maqsadlari bilan yaqindan bog'lanib, xodimlarning imkoniyatlarini oshiradi (Andreeva va boshq., 2019). Bundan tashqari, tashkilotlar inson kapitalini boshqarishga sarmoya kiritish muhimligini tan olganligi sababli, iqtisodiy ta'lim ham motivatsiyalangan ishchi kuchini (Ion PETRESCU) rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tenglik va ish va hayot muvozanati kabi qadriyatlarni qamrab olish uchun rivojlanmoqda.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan iqtisodiy sharoitda malakali kadrlarning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Laroche (1998) ta'kidlaganidek, globallashuv kompaniyalarning inson resurslarini qanday boshqarishini qayta belgilaganini ta'kidlaganidek, tashkilotlardan murakkab madaniyatlararo dinamikalarni boshqarish talabi tobora ortib bormoqda. Turli muhitlarga muvaffaqiyatli moslashish nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki madaniy malakalarga ham ega bo'lgan ishchi kuchini talab qiladi. Bundan tashqari, sintetik bo'yoqlar misolida kuzatilgan va (Murmann va boshq.) tomonidan qo'llab-quvvatlanganidek, muayyan davlatlarda yetakchi firmalarning klasterlanishi malakali xodimlar va sanoat rahbariyati o'rtasidagi sinergik aloqani ta'kidlaydi. Bu munosabatlar juda muhim, chunki mamlakatlar o'zlarining ilmiy va sanoat institutlaridan foydalangan holda innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Binobarin, malakali kadrlar tayyorlash tizimini o'zgartirish nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki globallashgan iqtisodiyot talablariga samarali javob berish uchun moslashish va madaniy xabardorlikni oshirishga ham e'tibor qaratishi kerak.

Iqtisodiy ta'lim evolyutsiyasi mahalliy amaliyotga xalqaro ta'sirlarning murakkabligini aks ettiruvchi tarixiy va global omillar ta'sirida chuqur shakllangan . Sanoat inqilobi tez o'zgaruvchan iqtisodiy landshaftlarda harakat qila oladigan o'qitilgan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlab, muhim o'zgarishlarni belgilab berdi . Binobarin, ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini rivojlanayotgan iqtisodiy nazariyalar va boshqaruv amaliyotlarini o'z ichiga olish uchun moslashtira boshladilar. Bu o'tish faqat mahalliy talablarga javob emas edi; unga global turizm va savdodagi sezilarli o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatdi , bu esa iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishni talab qildi ((S. Sardak va boshq., 2016)). Ushbu global jarayonlarning o'zaro ta'siri iqtisodiy sektorda innovatsiyalar va moslashuvchanlikni ta'minlaydigan mustahkam ta'lim tizimi zarurligini ta'kidladi. Oldingi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, G'arb metodologiyalari va mahalliy moslashuvlardan foydalanish Xitoyning noyob iqtisodiy muammolariga barqaror yechimlarni ishlab chiqish, nazariy asoslarni amaliy qo'llash bilan bog'lash uchun juda muhimdir ((Fan va boshq., 1998)). Shunday qilib, iqtisodiy ta'limning tarixiy konteksti mahalliylashtirilgan

ehtiyojlar va global tendentsiyalar o'rtasidagi dinamik o'zaro bog'liqlikni ochib beradi.

O'nlab yillar davomida iqtisodchilarni tayyorlash tizimlarining evolyutsiyasi

Key words: organizational-economic relationship, Competitive environment, Contractual communication, Project-estimate documents, Digital technologies

Kirish. Qurilish sohasi murakkab tizim bo'lib, unda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning to'g'ri tashkil qilinishi juda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda qurilishda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va amaliy usullari, xususan, qurilish loyihalari iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda qurilish sohasini rivojlantirishga oid Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qator farmon va qarorlar qabul qilinganki, ushbu hujjatlar qurilish sohasini jadal rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 noyabrdagi "O'zbekiston respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmonlari.

Qurilish sohasi yillar davomida qator o'zgarishlarni boshidan kechirgan va raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan. Shu bois, mavjud tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni tanqidiy o'rganish, ularning kuchli va zaiф tomonlarini aniqlash muhim. Bu qurilish loyihalarini samarali amalga oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Yetishmovchiliklar: Qurilish loyihalarining iqtisodiy baholashda kamchiliklarning mavjudligi, moliyaviy mablag'lar etishmasligi, shartnomalardagi aloqalarning aniq belgilanmasligi.

Samarali jihatlar: Qurilish tashkilotlarining yuqori kompetentligi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish.


Raqobat muhiti: Qurilish sohasida kuchli raqobat, yangi texnologiyalarni joriy etish, sifat va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish talablari.

Adabiyotlar tahlili.

Qurilishda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo`llari A.Striklend, K.Makkonnell, R.Fatxutdinov I.Lukmanova, M.Babarin, V.Buzыrev, E.Mazilkina, G.Panichkina, A.Lukina kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularda investision-qurilish jarayonida korxonalarning tashkiliy iqtisodiy muosabatlatlari hamda raqobatbardoshligini oshirish yo'llari aniqlashtirilgan. [4,7,9,10,12,13,14].

Xususan, O'zbekistonda ushbu masala bo`yicha: N.M.Maxmudov, M.A. Maxkamova, G.J.Allayeva, N.G.Akbarov, Z.T.Gaibnazarova, A.U.Burxonov, G.A.Bekmurodova, E.X.Maxmudov, R.I.Nurimbetov, X.Xalilova, M.A.Xusainov va boshqa iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. [5,6,8,11].

Tahlil va natijalar. Qurilishda tashkiliy iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo`lining asosiy yo`nalishi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish uchun asosiy yo`nalishlar

Shartnomaviy aloqalar - shartnomalar tuzishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish, sub'ektlar o'rtasidagi majburiyatlarni aniq belgilash, iqtisodiy jarimalar va stimullarni joriy etish.

Loyiha-smeta hujjatlari - loyihalarning iqtisodiy asoslanganligini mustahkamlash, qiymati rejalashtirilganidan ortib ketishining oldini olish, tanlovlar tizimini takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalar - avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, BIM texnologiyalaridan foydalanish, onlayn monitoring va hisobotlarni tadbiq qilish.

Shartnomalarga asoslangan aloqalarni mustahkamlash. Bu qurilishda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni yaxshilashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shartnomalar sub'ektlar o'rtasidagi majburiyatlar, javobgarliklar, huquqlar va rag'batlantirish choralari aniq belgilab berilishi lozim.

Shartnomaviy majburiyatlar. Loyihani amalga oshirish, ishlarni bajarish, resurslarni ta'minlash, sifatni nazorat qilish, vaqtni saqlash va boshqa tomonlarning majburiyatlari.

Rag'batlantirish choralari. Sifat va muddatlarni saqlash uchun mukofotlar, normativlardan og'ish holatlari uchun jarima sanksiyalari, belgilangan qoidalardan chetga chiqishga ruxsat berish mexanizmlari.

Subyektlar manfaatlari. Har bir tomonning manfaatlari (qiymat, muddatlar, sifat, xavfsizlik va h.k.) shartnomada aniq belgilanishi, ularning bajarilishini kuzatish tizimi yaratilishi zarur.

Qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish. Buniung uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu ishlar loyihalash bosqichidan boshlab amalga oshirilishi va qurilish loyihasining butun hayot bosqichlariga tatbiq etilishi kerak.

Loyiha tayyorlash. Loyihalash bosqichida iqtisodiy asoslanganlikni kuchaytirish, loyihaning qiymatini rejalashtirilganidan oshmasligi uchun samarali chora-tadbirlarni ko'rish.

Qurilish ishlari. Qurilish bosqichida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, xarajatlarni qisqartirish, sifatni yaxshilash va shikastlanishlarning oldini olish.

Ekspluatatsiya. Foydalanish bosqichida loyiha xarajatlari va daromadlarini yanada optimal muvozanatlash, qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Xulosa: Olimlarning nazariy va amaliy izlanishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qurilishda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirshning asosiy yo`nalishlari sifatida Shartnomaviy aloqalar, Loyiha-smeta hujjatlari, Raqamli texnologiyalar xizmat qiladi. Pirovard natijada sifat va uni ta’minlovchi munosabatlar qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini belgilab beradi. Shu bilan birga iqtisodiy faoliyatni oshirishning maqsadga muvofiqligi korxonaning tshkiliy ustunlikka erishish zarurligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 noyabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni.

3. Бузырев В.В. Управление качеством в строительстве: учебное пособие для прикладного бакалавриата / В. В. Бузырев, М.Н. Юденко; под общей редакцией М.Н.Юденко. — 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 198 с.

4. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Повышение качества строительства в Республике Узбекистан. *Россия: тенденции и перспективы развития* 17-1 (2022): 363-371.

5. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства: Монография. (2020).

6. Верстина Н.Г., Еленева Ю.Л. Обеспечение конкурентоспособности строительных предприятий на основе стоимостного подхода // Экономика строительства. 2004. № 4. С. 4.

7. Джабриев А.Н., Буриев Х.Т. Пути внедрения систем менеджмента качества. *Экономика и финансы (Узбекистан)* 1-2 (2010): 25-29.

8. Качество в истории цивилизации. Эволюция, тенденции и перспективы управления качеством. Под ред. Дж. Джурана. - В трех томах. - М.: РИА “Стандарты и качество”, 2004.

9. Monden Ya. Sistema menedjmenta Toyotы. - Moskva, Institut kompleksnых strategicheskix issledovaniy, 2007.- 216 s.

10. Nurimbetov R.I., Normurodov S.N., Ibrohimov B.R. Zamonaviy sifat menejmenti tizimi va uni joriy etish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali. № 3, 2021.

11. Портер М. Международная конкуренция: пер. с англ. / под ред. В.Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993. С. 143.

12. Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации. М.: Эксмо, 2004. С. 270.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINI BAHOLASH

XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

G'aniyev Karim Barovich
SamDAQU, "Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi professori, t.f.d.,
Turdibekov Yusuf Ibragimovich
SamDAQU, "Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi mudiri,
Normurodova Firuza Maxsudovna
SamDAQU, "Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi 2-bosqich magistranti.

Annotasiya: Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida baholash xizmatlarini ilg'or bosqichga olib chiqish uchun ushbu sohaga zamonaviy IT-texnologiyalarni faol qo'llash talab qilinadi. Baholash xizmatlari jarayonlarini avtomatlashtirish nafaqat baholash tashkilotining unumdorligi va daromadini oshiradi, balki baholovchining vaqtini tejaydi, hisob-kitoblar yoki imlo xatolarini kamaytiradi, bajarilgan hisobot sifatini yaxshilaydi va baholovchi-ekspert ishini qulayroq va samaraliroq qiladi. Shu sababli, baholovchilar baholash ob'ektining bozor va tugatish qiymatlarini hisoblashda turli yondashuvlarni qo'llashlari, dastlabki hisoblangan ko'rsatkichlar va yakuniy natija – ob'ekt qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashlari mumkin. Buning uchun maxsus dasturiy ta'minot bo'lishi va zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarni doimiy ravishda oshirib borish zarur. Baholash xizmatlari jarayonlarini avtomatlashtirish bir qator muammolarni hal qilish imkonini beradi, tashkilotning moslashuvchanligini ta'minlaydi, shu bilan birga jalb qilingan resurslardan maksimal darajada foydalanish va xarajatlarni minimallashtiradi. Baholash xizmatlarini raqamlashtirish baholash tashkilotiga ko'plab qulayliklar yaratadi. Bugungi avtomobillashuv jarayonining jadal rivojlanishi baholovchilar oldida katta vazifalarni qo'ymoqda. Bulardan biri – avtotransport vositalarini baholash xizmatlarini raqamlashtirish. Ushbu maqolada avtotransport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholash xizmatlarini raqamlashtirish tartib-taomillari berilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, elektron xizmat, avtomatlashtirilgan ish joyi, avtotransport vositalarini baholash xizmatlari, baholashning xarajat yondashuvi.

Аннотация: В условиях цифровизации экономики для выхода оценочных услуг на передовой уровень требуется активное применение современных IT-технологий в этой сфере. Автоматизация процессов оказания оценочных услуг не только повышает производительность и доходы оценочной организации, но и экономит время оценщика, уменьшает расчетные или орфографические ошибки, повышает качество заполняемого отчета, делает работу оценщика-эксперта более удобной и эффективной. Поэтому оценщики могут использовать разные подходы для расчета рыночной и конечной стоимости объекта оценки, определения взаимосвязи между исходными расчетными показателями и конечным результатом - стоимостью объекта. Для этого необходимо иметь специальное программное обеспечение и постоянно совершенствовать знания в области современных информационных технологий. Автоматизация процессов оценочного обслуживания позволяет решить ряд задач, обеспечивает гибкость организации, одновременно максимально используя задействованные ресурсы и минимизируя затраты. Оцифровка услуг по оценке приносит много удобств организациям, занимающимся оценкой. Быстрое развитие современного автомобильного процесса ставит перед оценщиками большие проблемы. Одним из них является цифровизация услуг по оценке транспортных средств. В этой статье представлены процедуры оцифровки услуг по оценке транспортных средств на основе затратного подхода.

Ключевые слова: цифровизация, электронный сервис, АРМ, услуги по оценке транспортных средств, затратный подход к оценке.

Abstract: In the conditions of digitization of the economy, the active application of modern IT technologies to the field is required to bring evaluation services to an advanced level. Automating appraisal service processes not only increases the productivity and income of the appraisal organization, but also saves the appraiser's time, reduces calculation or spelling errors, improves the quality of the completed report, and makes the appraiser-expert's work more convenient and efficient. Therefore, appraisers can use different approaches to calculate the market and final values of the appraised object, determine the relationship between the initial calculated indicators and the final result - the value of the object. For this, it is necessary to have special software and constantly improve knowledge in the field of modern information technologies. Automating the processes of assessment services allows solving a number of problems, ensures the flexibility of the organization, while at the same time the maximum use of the involved resources and the minimization of costs. Digitization of assessment services brings many conveniences to the assessment organization. The rapid development of today's automobile process poses great challenges to evaluators. One of these is the digitization of vehicle valuation services. This article provides procedures for digitizing vehicle valuation services based on a cost approach.

Keywords: digitization, e-service, automated workplace, vehicle valuation services, cost approach to valuation.

Kirish. Raqamlashtirish milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kirib bormoqda. Jumladan, baholash xizmatlari sohasi faoliyati ham avtomatlashtirilmoqda. Raqamlashtirish har qanday iqtisodiy faoliyat uchun

iqtisodiy samaradorlikni oshirishning negizini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoniga muvofiq iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi belgilab berilgan.

Jahonda bu masalaga bizdan ancha oldinroq e’tiborni qaratishgan, masalan, Rossiyada dastlab 1993-yilda Moskva kvartiralari qiymatini hisoblash uchun “Рынок-М” dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi. Keyinchalik baholash xizmatlarini avtomatlashtirish uchun keng ko‘lamli dasturiy yechimlarga mo‘ljallangan “Экспресс-оценка”, “ПРС: Глобал”, “СилверДАТ”, “АС: Смета”, “АВТОБАЗА”, “Оценщик ПРО”, “Оценка недвижимости 2.0” va boshqa dasturiy ta’minotlar yaratildi. O‘zbekistonda yaratilgan baholash xizmatlari uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotlar to‘g‘risida ma’lumot mavjud emas.

Metodologiya. Avtotransport vositalari qiymatini baholash xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini tadqiq qilishda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, mantiqiy yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hisobotning elektron shaklining joriy etilishi baholash tashkilotining barcha bo‘linmalarida bir vaqtning o‘zida elektron shakldagi hisobotlarni markazlashtirilgan nazorat qilishni tashkil etish imkonini beradi, bu esa risklarni kamaytirishning qo‘shimcha omili bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, hisobotning elektron shaklidan foydalanib, qiymatga ta’sir qiluvchi axborotlarni tiplari, turlari, hajmlari va boshqa xususiyatlari bo‘yicha tarkibiy saqlashni ta’minlash mumkin.

Ma’lumki, baholash tartib-qoidalarini o‘tkazish, qanday uslubiy yondashuv qo‘llanilishidan qat’i nazar, har doim modellar va baholash standartlariga asoslanadi. Baholashning asosiy prinsiplari, tushunchalari, usullari va bosqichlarini o‘z ichiga olgan baholash standartlari bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan o‘zgarishlarga duch keldi. Baholash yondashuvlari qonunchilikdagi o‘zgarishlarga, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashib, boshqa fanlardan o‘zlashtirgan yangi usullarni o‘zlashtirdi. Baholash xizmatlarini rivojlantirishda turli mamlakatlar baholovchilari tomonidan keng foydalaniladigan iqtisodiy va matematik modellashtirish usullari alohida ahamiyatga ega. Ushbu usullarni qo‘llash juda mashaqqatli va ko‘p vaqt talab etadi, ammo zamonaviy elektron hisoblash texnologiyasidan foydalanish ob’ektlarning narxini baholash uchun ushbu modellardan foydalanishni sezilarli darajada kamaytiradi va soddalashtiradi.

Baholash xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida axborot bilan ta’minlash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Yakuniy baholashning ishonchliligi va haqqoniyligini amaliyotchi baholovchilarga tegishli bozor ma’lumotlarisiz ta’minlab bo‘lmaydi. Yaqin kelajakda bozorning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qiladigan modellarning yetishmasligining sababi nafaqat turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar (matematik-dasturchilar, bozor tahlilchilari, mulk bo‘yicha iqtisodchilar va boshqalar) bilan jihozlangan tahliliy markazlarning yo‘qligi bilan bog‘liq, balki rasmiy statistik ma’lumotlar yo‘qligida ham. Ushbu statistik ma’lumotlarni to‘plash va shakllantirish jarayoni hech kim tomonidan belgilanmagan, hech kim tomonidan markazlashtirilmagan va hech qaerda nashr etilmagan. Shuni ta’kidlash kerakki, butun dunyoda baholash xizmatlarini axborot bilan ta’minlash masalalari davlat yoki mintaqaviy darajada axborot resurslaridan erkin foydalanish bilan hal qilinadi.

Agar baholovchining malaka darajasini belgilovchi zaruriy shartlardan biri kompyuter dasturlaridan foydalanish bo‘lsa, baholash xizmatlarining sifati kafolati sertifikatlangan dasturiy mahsulotlardan foydalanish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida baholash xizmatlarini isloh qilish amalga oshirilmoqda, bu esa nafaqat baholovchilarga, balki ular foydalanayotgan dasturiy ta’minotga ham yangi talablarni qo‘ymoqda.

Umumiy olganda, baholash xizmatlari uchun dasturiy mahsulotlar bozorining rivojlanishi bir qator ob’ektiv sababalarga bog‘liq:

– axborotlarni olish va qayta ishlash tezligiga bo‘lgan talablarning oshishi;

– baholash to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish uchun hujjatlarni qayta ishlash jarayonining tezlashishi;

– baholashning metodologik bazasining takomillashishi va yangi baholash standartlarining qabul qilinishi;

– qarorlar qabul qilishning qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllanishi va h.k.

Bugungi kunda baholash xizmatlarida MS WORD va MS EXEL dasturlaridan foydalangan holda ishlar amalga oshiriladi, bu esa ishlarning takrorlanishi natijasida xatoliklarning hamda mehnat sarfining oshishiga va natijada xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Baholash faoliyatini avtomatlashtirishning quyidagi ustunliklarini keltirish mumkin:

– tipovoy operasiyalarni bajarishning mehnat sig‘imini pasaytirish;

– hisob-kitoblar va o‘z-o‘zini nazorat qilishning mehnat sig‘imini pasaytirish;

– rasmiylashtirishni standartlash va unifikasiyalash;

– baholash xizmatlarining sifatini oshirish.

Turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish zamonaviy axborot texnologiyalari bozorining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Yangi texnologiyalar ishlab chiqaruvchilarga xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkonini beradi, iste’molchilarga esa yuqori sifatli tovar va xizmatlarni olish, ularni qidirish

va sotib olishga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, ba'zi hollarda moliyaviy xarajatlar ham kamayadi. Avtomatlashtirish mumkin bo'lgan sohalardan biri bu turli ob'ektlarning narxini baholash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdir. Bu sohada barqaror o'sish kuzatilmoqda: talab ortib bormoqda, bunga javoban baholovchilar soni ortib bormoqda, butun tarmoq asta-sekin kengayib, mashhurlikka erishmoqda. Shuning uchun turli ob'ektlarni onlayn baholashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb va o'xshashi bo'lmagan tijoriy foydali loyihadir.

Ushbu loyiha g'oyasi muvaffaqiyatli va o'z vaqtida amalga oshirilsa, mahsulot – onlayn baholash tizimi noyob bo'ladi, bozorda raqobatchilar yo'q. Onlayn baholash strategiyasidan foydalanganda texnik topshiriqni ishlab chiqishni boshlashdan oldin bozor tadqiqotlarini o'tkazish juda muhim qadamdir. Buning sababi, iste'molchi segmenti o'rganilmaganligi va ishlab chiqilayotgan mahsulotga qanday qiymat taklifi tomoshabinlarni jalb qilishi mumkinligini tushunish kerak. Tadqiqot natijalari asosida tizimga qo'yiladigan funksional talablar ishlab chiqilib, ularni kelgusida joriy etish va mahsulotni bozorga chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Ushbu loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad – turli sohalardagi ob'ektlarni onlayn baholashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va ushbu mahsulotni tijorat maqsadlarida bozorga olib chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun har bir bosqichda bir qancha kichik maqsadlarni o'z ichiga olgan bir necha bosqichlardan iborat reja ishlab chiqilgan.

Birinchi qadam – mavzuni o'rganish. Ushbu bosqichning maqsadi baholash jarayoni haqida ma'lumot to'plash, o'rganilayotgan sohadagi qonunchilikni o'rganish, shuningdek, ishlab chiqilayotgan tizimning potensial foydalanuvchilari haqida ma'lumot to'plashdan iborat. Mavzu sohasini o'rganish onlayn baholash tizimini ishlab chiqishning dolzarbligini tasdiqladi. Tizimning potensial foydalanuvchilarini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlar asosida bozor segmentasiyasi amalga oshirildi. Uch asosiy segment aniqlandi:

1. Professional baholovchilar;
2. Baholovchilar xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar;
3. Baholovchilar xizmatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar.

Ikkinchi bosqich – iste'molchi segmentlarini batafsil o'rganish. Ushbu bosqichning maqsadi tizimni amalga oshirish uchun eng istiqbolli segmentni tanlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun uchta segmentning har birida potensial foydalanuvchilarning so'rovi o'tkazildi. Baholovchilar o'rtasida ekspert suhbatlari o'tkazildi, jismoniy shaxslar uchun onlayn so'rov, yuridik shaxslar uchun telefon orqali so'rov o'tkazildi. So'rovlarning maqsadi quyidagi gipotezalarni sinab ko'rish edi:

1. Segment vakillari baholash xizmatlarini ko'rsatishda avtomatlashtirish zarurligini his qiladilar;
2. Segment vakillari mumkin bo'lgan tizim funksiyalari uchun variantlarni taklif qilishga tayyor;
3. Segment vakillari tizimdan foydalanish uchun pul to'lashga tayyor.

Respondentlarning anketalar savollariga bergan javoblarini tahlil qilib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning ishlab chiqilgan tizimga qiziqishi kam. Buning sababi, baholash xizmatlari iste'molchilarining faqat kichik bir qismi baholovchining xizmatlaridan qayta foydalanishiga, ya'ni boshqa ob'ektlarni baholashga murojaat qilishadi;
2. Mahsulotdan foyda olish nuqtai nazaridan bu segmentlar ham unchalik jozibador emas;
3. Baholovchilar baholash xizmatlarini ko'rsatishda avtomatlashtirish zarurligi haqidagi farazni tasdiqlaydilar;
4. Quyidagilar ustunlikka ega funksiyalar deb nomlandi: hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, ma'lumotnomalarga, qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi xabarlarga kirish; hisobotlarni avtomatik shakllantirish, mijozlar bilan onlayn muloqot qilish;
5. Ushbu segment vakillari hali bunday tizimdan foydalanish uchun pul to'lashga tayyor emaslar, chunki ular amalda zarur funksiyalarni amalga oshirishni ko'rmaydilar.

Eng istiqbolli bo'lib baholovchilar segmenti hisoblanadi. So'rov ma'lumotlariga asoslanib, maqsadli auditoriya uchun qimmatli taklif shakllantirildi: bitta mijoz bilan ishlash vaqtini qisqartirish, bosma shakldagi hujjatlar sonini kamaytirish, baholash jarayonini soddalashtirish..

Uchinchi bosqich – bozor segmenti hajmini baholash. Ushbu bosqichning maqsadi ushbu bozor segmentida tizimni joriy etishdan potensial foydani baholash uchun miqdoriy ma'lumotlarni olishdir. Muayyan ma'lumotlarni qidirish uchun Davlat aktivlarini boshqarish agentligidan malaka sertifikatini olgan baholovchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, taxminan 1200 kishi bor. Baholash faoliyati bilan 230 atrofida korxona shug'ullanadi. Ushbu ma'lumotlar turli ob'ektlarning narxini baholashning onlayn tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish imkonini beradi.

To'rtinchi bosqich – bu so'rovlar davomida bildirilgan maqsadli auditoriyaning istaklarini aks ettirishi kerak bo'lgan texnik topshiriqlarni ishlab chiqish. Loyihaning keyingi bosqichlarida mahsulotning o'zi yaratiladi – onlayn baholash tizimi. Va bir qator sinovlardan so'ng, mahsulot sotish uchun bozorga chiqariladi.

Oldingi bosqichlarda olib borilgan tadqiqotlar turli ob'ektlarning narxini baholash uchun onlayn tizimni ishlab chiqishning dolzarbligini tasdiqladi. Tanlangan iste'mol segmenti vakillari uchun qimmatli taklif shakllantirildi: tizim ob'ektni baholashga sarflangan vaqtni, bosma shakldagi hujjatlar sonini, shuningdek, ijrochilar va mijozlarning xarajatlarini kamaytiradi. Tizim o'z sohasida birinchi bo'lib, dastlabki bosqichda raqobatdan qochadi va bozorda yetakchi o'rinni egallaydi. Shuning uchun turli ob'ektlar uchun onlayn baholash tizimi, shubhasiz, innovasion va tijoriy foydali


loyihadir.

Baholash xizmatlari bir necha yo‘nalishlarga bo‘linadi va ularning har biri o‘ziga xos tomonlari mavjud. Ko‘chmas mulkni baholash, ko‘char mulkni baholash va biznesni baholash xizmatlarining ob’ektlari turlicha va ularni avtomatlashtirishda ham shu xususiyatlarini e’tiborga olish lozim.

Ko‘char mulklar ham bir-biridan keskin farq qiluvchi xususiyatlarga ega bir necha turlarga bo‘linadi va ularni bir metodika asosida baholash imkoniyati yo‘q, shu sababli biz tomonimizdan avtotransport vositalarini baholash uchun foydalaniladigan kompyuter dasturi ustida ish olib borildi. Natijada avtotransport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholashga mo‘ljallangan “Avtotrasport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholash uslubiyati (avtobaho.uz)” dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi. Bu dastur yuqorida ishlab chiqilgan avtotransport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholash metodikasi asosida ishlaydi. Avtotransport vositalarini qiyosiy va daromad yondashuvida baholash bo‘yicha dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni tadqiqotning keyingi bosqichlarida amalga oshirishni rejalashtirganmiz.

Avtotransport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholashga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot quyidagi tartibda ishlaydi (1-rasm):

1. Dastlab umumiy ma’lumotlar kiritiladi:
   – Hisobotni ro‘yxatga olish raqami;
   – Hisobot tuzilgan sanasi;
   – Baholash sanasi;
   – Baholash ob’ekti ma’lumotlari (rusumi, turi, davlat raqami, ishlab chiqarilgan yili, joylashgan manzili);
   – Baholash ob’ektining egasi;
   – Buyurtmachi;
   – Buyurtmachining manzili va rekvizitlari;
   – Baholashdan maqsad;
   – Baholash uchun asos;
   – Baholash ob’ektiga bo‘lgan huquq;
   – Baholash maqsadiga muvofiq bo‘lgan qiymat turi;
   – Cheklovchi shartlar;
   – Baholovchi tashkilot nomi;
   – Baholovchi tashkilot ma’lumotlari (manzili, rekvizitlari);
   – Baholovchining ismi-sharifi;
   – Baholovchi to‘g‘risida ma’lumot (sertifikat raqami, berilgan sanasi, sertifikat bergan tashkilot);
   – Baholovchining fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash polisi raqami, berilgan sanasi va sug‘urta tashkiloti);
   – Baholash sanasida chet el valyutalarining so‘mga nisbatan qiymati.
2. Baholash ob’ekti tavsifnomasi beriladi:
   – Avtotransport vositasi rusumi;
   – Avtotransport vositasi turi;
   – Davlat raqami;
   – Texnik pasporti raqami, qachon va kim tomonidan berilgan;
   – Dvigatel raqami;
   – Kuzov raqami;
   – Shassi raqami;
   – Rangi;
   – Ishlab chiqarilgan yili;
   – To‘la vazni;
   – Yuksiz vazni;
   – Dvigatel quvvati.



1-rasm. Avtotransport vositalarini xarajat yondashuvi asosida baholash dasturiy ta’minotining ishlash sxemasi

3. Baholanayotgan avtotransport vositasining tiklash qiymati hisoblanadi. Bunda mavjud ma’lumotlarga asoslanib, 4 usuldan biri tanlab olinadi:
   – almashtirish usuli;
   – turdosh avtotransport vositasi narxi bo‘yicha hisoblash usuli;
   – elementma-element hisoblash usuli;
   – qiymatni indeksasiyalash usuli.
4. Baholanayotgan avtotransport vositasining eskirish darajasi hisoblanadi. Bunda eskirishning 3 turi aniqlanadi: jismoniy, funksional va tashqi eskirish.

Jismoniy eskirish darajasini hisoblashda baholovchi o‘zining malakasi va bilimidan kelib chiqib, mavjud ma’lumotlarga tayangan holda quyidagi 6 usuldan biri tanlab oladi:
   – asosiy parametrlarning yomonlashuvi usuli;
   – normativ eskirish usuli;

– jismoniy eskirishni o‘lchashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri usuli;
– o‘rtacha o‘lchangan eskirish usuli;
– avtotransport vositalarining yoshi va ekspluatasiya boshidan bosib o‘tgan masofani hisobga olgan usul;
– ekspert-tahliliy usul.

Keyinchalik funksional (ma’naviy) va tashqi (iqtisodiy) eskirishlar darajalari aniqlanadi hamda uchala turdagi (jismoniy, funksional va tashqi) eskirish darajalarini umumlashtiruvchi jamlangan eskirish darajasi aniqlanadi.

5. Baholanayotgan avtotransport vositasining xarajat yondashuvida hisoblangan qoldiq qiymati tiklash qiymatini jamlangan eskirish darajasiga kamaytirish orqali aniqlanadi.

6. Barcha amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida baholanayotgan avtotransport vositasi bo‘yicha baholash to‘g‘risidagi hisobot shakli dasturiy ta’minot tomonidan taqdim qilinadi.

Xulosa. Ushbu dasturiy ta’minot onlayn tizim bo‘lib, bevosita internet tarmog‘i bilan bog‘langan holda ishlaydi va qaerda internet tarmog‘i mavjud bo‘lsa, undan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu dasturiy ta’minot Windows, MS-DOS, Unix, MacOS, OS/2 operasion tizimlarida ishlaydi, ya’ni bu dasturiy ta’minotdan nafaqat kompterda, balki planshet va smartfonda ham foydalanish mumkin. Buning uchun https://avtobaho.uz/ saytiga kiriladi va unga yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda baholanayotgan avtotransport vositasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish orqali xarajat yondashuvi asosida hisoblangan avtotransport vositasining qoldiq qiymatini aniqlash mumkin. Natijada pdf shaklidagi baholash to‘g‘risidagi hisobot shakli shallantiriladi, uni pdf shaklida saqlash va chop etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu dasturiy ta’minot avtotransport vositalarini bevosita baholovchilar hamda ushbu xizmat iste’molchilarining avtotransport vositalarining xarajat yondashuvida qiymatini aniqlash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standarti, T., 2023. https://lex.uz/ru/docs/6720235

2. Турдибеков Ю.И. Автотранспорт воситаларини баҳолаш хизматлари методикаси номли услубий кўрсатмалар. – Самарқанд: СамДАҚУ, 2023.- 40 б.

3. Turdibekov Yu.I. The Importance of Valuation Services in Today's Globalized Economy and Their Current Purpose. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES. Volume: 04 Issue: 06 Jun 2023 ISSN: 2660-5317. 198 – 201 p. https://cajotas.centralasianstudies.org

4. Turdibekov Yu.I. Considered factors when evaluating vehicles using a system approach Journal of Management Value and Ethics. Volume: 13 Issue 23 No 02 August ISSN-2249-9512. 69 – 73 p.

5. Turdibekov Yu.I. Certain Aspects of Value Assessment of Autotransport Vehicles in Innovation Economy. // International Journal of Business Diplomacy and Economy ISSN: 2833-7468 Volume 2 (No 6) June -2023. 161 – 163 p. https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/2147

ҚУРИЛИШ САНОАТИДА РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ПРОГНОЗЛАШ УСЛУБИЯТИ

Usmanov Ilxom Achilovich, t.f.n., professor.v.b.
Buriyev Xakim Toshimovich, i.f.n., professor.v.b.
Muxammadiyev Utkir Axmedovich, t.f.n., professor.v.b.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,

Аннотация. Қурилиш саноати корхоналарининг рабобатбардошлигини мамлакат миқёсида баҳолаш Ижтимоий-иқтисодий ривржланиш стратгиясини ишлаб чиқишда катта аҳамиятга эга, чунки қурилиш иқтисодиётнинг драйвер тармоқларидан бўлиб, ундаги ижобий ўзнаришлар бошқа тармоқлардаги ўсишнинг омили бўлиб ҳисобланади. Муаллиф томонидан олиб борилган тадқиқотлар қурилиш саноатида рақобатбардошликнинг асосий концепцияси бўлиб сифатни ошириш таклиф қилинган. Танланган илмий тахминда бугунги кунда қурилиш бозорида сифат менежментига бўлган эътиборнинг аҳамияти, тармоқда сифат менежменти тизимларининг паст самарадорлиги ҳамда сифтни оширишнинг концептуал услубий ёндашувларнинг ишлаб чиқилмаганлиги асос қилиб олинган. Илмий тахминни исботлаш жараёнида қурилиш саноати корхоналарида янги, яхлит илмий-услубий таклифлар яратилган бўлиб уларда сифат стратегияси, концепцияси, ташкилий-иқтисодий моделлар, механизмлар ва усуллар ўз аксини топган.

Яратилган услубиятнинг жорий қилиниши қурилиш махсулотининг сифатини узлуксиз ошириш самарасини аниқлашда ўзига хос ёндашувни қўллашни талаб қилади. Бунда қурилиш саноати тармоғининг кўрсаткичларини прогнозлаш ҳамда маълум тартиб бўйича натижаларни таҳрирлашга асосланган усулдан фойдаланиш зурур бўлади. Мазкур мақолада қурилиш саноати рақобатбардошлигининг умумлашган кўрсаткичини математик моделлаштириш орқали баҳолаш бўйича услубий ёндашув таклиф қилинган ва тармоқни истиқболлари аниқлаштирилган.

Калитли сўзлар: қурилиш саноати, рақобатбардошлик, сифат менежменти, прогнозлаш, математик моделлаштириш, сифат омили.

Аннотация. Оценка конкурентоспособности предприятий строительной отрасли на республиканском уровне имеет большое значение при разработке стратегии социально-экономического развития, поскольку

строительство является одной из движущих отраслей экономики, а позитивные изменения в нем рассматриваются как фактор роста в других отраслях. Исследования, проведенные автором, показали, что повышение качества является основной концепцией конкурентоспособности в строительной отрасли. Выбранное научное предположение основано на важности внимания к управлению качеством на современном строительном рынке, низкой эффективности систем управления качеством в отрасли, недостаточной разработанности концептуальных и методических подходов к повышению качества. В процессе доказательства научного предположения на предприятиях строительной отрасли были созданы новые, комплексные научно-методические предложения, отражающие стратегию качества, концепцию, организационно-экономические модели, механизмы и методы.

Внедрение созданной методики требует использования уникального подхода при определении эффекта постоянного улучшения качества строительной продукции. В этом случае необходимо использовать метод, основанный на прогнозировании показателей сети строительной отрасли и анализе результатов по определенной процедуре. В данной статье предложен методический подход к оценке обобщенного показателя конкурентоспособности строительной отрасли посредством математического моделирования и уточнены перспективы сети.

Ключевые слова: строительная отрасль, конкурентоспособность, управление качеством, прогнозирование, математическое моделирование, фактор качества.

Abstract. Assessing the competitiveness of construction industry enterprises at the national level is of great importance in developing a strategy for socio-economic development, since construction is one of the driving industries of the economy, and positive changes in it are considered as a growth factor in other industries. Research conducted by the author showed that improving quality is the main concept of competitiveness in the construction industry. The selected scientific assumption is based on the importance of attention to quality management in the modern construction market, low efficiency of quality management systems in the industry, and insufficient development of conceptual and methodological approaches to improving quality. In the process of proving the scientific assumption, new, comprehensive scientific and methodological proposals were created at construction industry enterprises, reflecting the quality strategy, concept, organizational and economic models, mechanisms and methods.

The implementation of the created methodology requires the use of a unique approach to determining the effect of continuous improvement in the quality of construction products. In this case, it is necessary to use a method based on forecasting the indicators of the construction industry network and analyzing the results according to a certain procedure. This article proposes a methodological approach to assessing the generalized indicator of competitiveness of the construction industry through mathematical modeling and clarifies the prospects of the network.

Keywords: construction industry, competitiveness, quality management, forecasting, mathematical modeling, quality factor.

Кириш. Қурилиш саноатида таклиф қилинаётган модел ва механизмларнинг қўлланиши ва уларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан сохадаги рақобат муҳити ва ташқи омилларнинг таъсир кучига боғлиқдир. Қурилиш саноатида рақобат муҳитининг ўзига хос жиҳати шундаки, вилоятлар ва худудлар ўртасида қатъий чегара мавжуд эмас. Бунинг натижасида қурилиш объекти учун рақобат кураши республика миқёсида олиб борилади. Рақобатбардошлик кўрсаткичлари хақида сўз юритар эканмиз, мамлакатимиз қурилиш бозорини ифодаловчи умумлашган кўрсаткични танлаш зарур бўлади. Бундан ташқари рақобатга таъсир қилувчи омилларни ҳам қурилиш саноати ва иқтисодиётнинг реал сохаларига таъсир кўрсатувчи салмоқли омилларни ажратиш ҳам илмий-услубий муаммолардан бири ҳисобланади.

Мавзу бўйича адабиётлар таҳлили. Қурилиш саноати корхона ва ташкилотларида рақобатбардошликни ошириш ҳамда сифатни бошқариш муаммолари хорижлик ва мамлакатимиз олимларининг тадқиқотларида кенг ёритилган. Хусусан, В.В.Асаул [1], М.Бабарин [2], Н.Г.Верстина [3], Д.С.Воронов [4], А.А.Петросян [5], М.А.Шуваев [6], М.А.Икрамов [7], Р.И.Нуримбетов [8], М.Р.Болтабоев [9], И.А.Усманов [10]. Ушбу илмий ишланмаларнинг аксариятида, қурилиш маҳсулоти сифатини нуқсонлик даражаси билан баҳолаш, нуқсонлар келтириб чиқарадиган омилларни ўрганиш, сифатни бошқариш харажатларини таҳлил қилиш ҳамда сифат рақобатбардошлиги муаммолари кўтарилган.

Материаллар ва методлар.

Олимларнинг ва экспертларнинг фикрларини умумлаштириган ҳолда, ҳамда қурилиш саноати статистикасини чуқур таҳлил қилиш натижасида бизлар қуйидаги хулосага келдик. Қурилиш саноатида рақобатбардошликнинг асосий умумлашган кўрсаткичи бўлиб қурилиш ишлари ҳажми ҳисобланади. Унга таъсир кўрсатувчи омиллар ичида асосий капиталга инвестициялар ҳажми, соҳадаги корхоналар сони, меҳнат ресурслари, қурилиш материаллари саноати, қурилиш маҳсулотининг айримлари бўйича физик ҳажмлар ва бошқаларни киритиш мумкин.

Тадқиқотнинг мақсади ва вазифалари доирасида бизлар қурилиш ишлари ҳажмининг ($У_1$) прогнозини яратиш учун қуйидаги омилларни регрессион тенгламага киритдик:

асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажми, млрд.сўм (X_1);

ишлаб чиқариш саноати ҳажми, млрд.сўм (X_2);

қурилиш материаллари ҳажми, портландцемент мисолида, минг тонна (X_3);

қурилиш ишларига киритилган инвестициялар ҳажми, млрд.сўм (X_4); ишга туширилган уй-жойларнинг умумий майдони, минг кв.м. (X_5);

ялпи ички маҳсулот ҳажми млрд.сўм (X_6).

Асосий қисм. Омилларнинг умумлаштирувчи кўрсаткичга таъсирини баҳолаш учун бизлар таянч нуқта сифатида 2010-2023 йиллар бўйича маълумотлар базасини танладик.

Иқтисодий-математик усулларни қўллаш ҳамда уларнинг хаққонийлигини текшириш бўйича тегишли ҳисобларни бажариш натижасида бизлар чизиқли дастурлаш математик моделидан фойдаланишга қарор қилдик ҳамда бажарилган ҳисобларнинг якунловчи натижаларини кўрсатишга қарор қилдик.

Регрессион тенглама 2010-2023 йиллардаги статистик маълумотларга асосланган бўлиб 2024-2030 йиллар прогноз даврини ўз ичига олган. Олинган натижалар бўйича регрессион тенглама қуйидаги кўринишда бўлади:

$$Y = -23136.0075-0.09093X_1 + 0.3447X_2 + 2.9934X_3 + 0.1307X_4 + 0.6909X_5-0.0491X_6.$$

Мазкур моделнинг иқтисодий тафсилотларига келсак, X_1 омилининг бирликка ошиши Y-нинг ўртача 0,0909 бирликка камайишига; X_2 омили бўйича - ўртача 0,345 бирликка кўпайишига; X_3 омили бўйича - ўртача 2,993 бирликка кўпайишига; X_4 омили бўйича - ўртача 0,131 бирликка кўпайишига; X_5 омили бўйича - ўртача 0,691 бирликка кўпайишига; X_6 омили бўйича - ўртача 0,0491 бирликка камайишига олиб келади. β-коэффициентининг энг катта миқдоридан (β_2=1.246) хулоса қиламизки Y натижасига X_2 омили энг катта таъсир кўрсатади.

Омилларнинг таҳлили бизларга қурилиш ишларининг прогнози кўринишида рақобатбардошлик даражасини олдиндан кўриш имконини яратади. Аниқланган регрессион тенглама асосида омилларнинг ўзгаришини ҳисобга оладиган бўлсак республика бўйича қурилиш ишлари ҳажмининг 2030 йилгача бўлган истиқболлик кўрсаткичларининг ҳисобини қуйидаги жадвалда амалга оширамиз (1-жадвал).

1- жадвал

Регрессион тенглама асосида Ўзбекистон Республикасида 2024-2030 йиллар учун қурилиш ишлари прогнози

Т.р	Йиллар	Қурилиш ишлари ҳажми, (млрд сўм)
1	2024	170795,14
2	2025	190797,68
3	2026	210800,21
4	2027	230802,75
5	2028	250805,29
6	2029	270807,83
7	2030	290810,36

Ушбу натижалар қурилиш саноатига умумий таъсир ўтказувчи омиллар асосида тузилган, яъни бу ерда корхоналарда сифат менежменти моделларини жорий қилиш ва рақобатбардошликни ошириш механизмлари ўз аксини топмаган. Шу билан бирга олдинги бобларда кўрсатиб ўтилгандек, таклиф қилинаётган рақобатбардошликни ошириш моделлари сифат харажатларини оптималлаштириш, йўқотишларни камайтириш ва меҳнат унумдорлигини оширишга хизмат қилади. Бизнинг фикримизча, барилган илмий тасиялар ва таклифларнинг самарадорлиги ушбу прогнозда жой олиши лозим. Шу сабабли мавжуд регрессион моделга қўшимча равишда сифат менежменти тизимларининг таъсирини кўрсатадиган элемент киритилиши лозим. Олиб борилган шахсий изланишлар ушбу элемент тузатувчи коэффициент шаклида бўлиши мумкин хулосага асос бўлди, яъни

$$Y = K_{smt}*(-23136.0075-0.09093X_1 + 0.3447X_2 + 2.9934X_3 + 0.1307X_4 + 0.6909X_5-0.0491X_6).$$

Бунда: K_{smt} – сифат менежмент тизимиларини такомиллаштириш натижасида сифат харажатларнинг камайишини ҳисбога олувчи тузатиш коэффициенти.

Ушбу коэффициентини ҳисоблаб чиқариш учун бизлар маълум тартибни жорий қилишга қарор қилдик.

2023 йил якунлари бўйича республикада жами 35297 қурилиш ташкилотлари фаолият кўрсатган, шулардан "Шаффоф қурилиш" тизимига киритилган ташкилотлар 17007тани, тизимга киритилмаганлар сони 18290 тани ташкил қилади.

Илмий тахминимиз қуйидагилардан иборат:

1. Сифат харажатларини тақоослама холатга келтириш мақсадида бизлар чегаравий шарт қилиб корхона ва ташкилотлар сонини ўзгармас деб қабул қиламиз. Шунда сифат менежментини такомиллаштириш натижасида корхона ва ташкилотлар ҳаракати ушбу мажмуа доирасида амалга оширилади.

2. О* тоифадаги корхона ва ташкилотларда сифат менежментининг "А" моделини босқичма-босқич жорий қилиш амалга ошириладиган бўлса йилига уларнинг 15%ни "Шаффоф қурилиш" тизимининг тенг хуқуқли аъзоси бўлишига асос бўлади, яъни электрон рейтингнинг Д категориясига киритилади.

3. Ўз навбатда Д категориясидаги пудрат ташкилотларида сифат менежментининг "Б" моделини босқичма-босқич жорий қилиниши, уларнинг камида 10%ни электрон рейтингда бир поғона кўтарилишига ва "С" категориясига ўтишига олиб келади.

4. Шу билан бирга, С категориясидаги пудрат ташкилотларида сифат менежментининг "В" моделини босқичма-босқич жорий қилиниши, уларнинг камида 5%ни электрон рейтингда бир поғона кўтарилишига ва В категориясига ўтишига олиб келади.

5. Ниҳоят, В категориясидаги пудрат ташкилотларида сифат менежментининг "Г" моделини босқичма-босқич жорий қилиниши, уларнинг

камида 3%ни электрон рейтингда бир поғона кўтарилишига ва энг юқори А категориясига ўтишига олиб келади.

Сифат менежменти тизимларини такомиллаштириш натижасида корхоналарнинг рейтинг тизимида бир поғона кўтарилиши сифат харажатларини камайтиришга олиб келади, яъни сифатни бошқариш харажатлари бир мунча кўпайсада, нуқсонлик билан боғлиқ йўқотишлир кескин камаяди. Эксперт сўровлари жараёнида ҳамда хорижий тажрибани ўрганиш натижасида бизлар корхоналарнинг сифат даражасига мос харажатларнинг эҳтимолий даражасини аниқладик, яъни А категориядаги корхоналар учун – 3 фоиз, Б категориядаги корхоналар учун – 6 фоиз, С категориядаги корхоналар учун – 10 фоиз, Д категориядаги корхоналар учун – 18 фоиз, “Шаффоф қурилиш” тизими даражасига эришлмаган корхоналар учун – 25 фоиз.

2-жадвал

Амалга оширилган чоралар натижасида сифат харажатлари даражасининг ўзгариши, %

Категориялар (тоифалар)	Сифат харажатлари, %	Базавий (2024)	1-чи йил (2025)	2-чи йил (2026)	3-чи йил (2027)	4-чи йил (2028)	5-чи йил (2029)	6-чи йил (2030)
А	**3**	0,2	1,2	2,3	3,7	5,2	7,1	9,2
В	**6**	67,4	76,8	89,0	104,1	122,4	144,0	168,9
С	**10**	380,9	482,5	594,5	714,6	841,2	972,7	1107,7
Д	**18**	2172,4	2449,0	2697,9	2922,0	3123,6	3305,1	3468,4
О*	**25**	4572,5	3886,6	3200,8	2514,9	1829,0	1143,1	457,3
Умумлашган сифат харажатлари		7193,3	6896,1	6584,5	6259,3	5921,5	5572	5211,4
Сифат харажатлари даражаси, %		20,38	19,55	18,65	17,73	16,78	15,79	14,76
Йиллик самара, %			**0,842**	**0,8831**	**0,9213**	**0,9569**	**0,9903**	**1,0215**
Жами самара, %								**5,6151**

Изоҳ: О* - Бугунги кунда фаолият олиб бораётган ва шаффоф тизимга кирмаган қурилиш корхоналари

Ушбу маълумотлардан фойдаланган холда олиб борган ҳисобларимиз юқоридаги илмий тахминларга мос келган холда қуйидаги натижаларга асос бўлди (2-жадвал).

Хулоса.Ушбу жараённи самарали олиб борилиши натижасида 2030 йилда электрон рейтингга кирмаган корхона ва ташкилотлар сони 10 баробар камайишига эришиш мумкин бўлади.

Олиб борилган илмий изланишлар шуни кўрсатадики, қурилиш саноатида алоҳида корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари кўп жиҳатдан чекланган бўлиб, минтақавий қурилиш саноати рақобатбардошлиги ҳақида сўз юритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунда сифат рақобатбардошлиги қурилиш саноат корхоналарининг барчасини ягона тартиб бўйича уйғунлашган сифат менежменти тизимига боғлашга асосланади.

Адабиётлар

1. Асаул В.В. Методология повышения конкурентоспособности строительных организаций. Автореферат. дис. … докт. экон. наук. – Санкт Петербург, 2007. – 44 с.;
2. Бабарин М.С. Формирование экономической модели стратегии качества организации. Автореферат. Санкт - Петербург – 2015. 24с.;
3. Верстина Н.Г., Еленева Ю.Я. Обеспечение конкурентоспособности строительных предприятий на основе стоимостного подхода // Экономика строительства. 2004. № 4. С. 3.;
4. Воронов Д.С. Конкурентоспособность предприятия: оценка, анализ, пути повышения. Екатеринбург: Изд-во УГТУ-УПИ, 2001. 96 с.;
5. Петросян А.А. Саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини бошқариш механизмини такомиллаштириш: автореф. дис . ...канд. экон. наук. М., 2010. 25 б.;
6. Шуваев М.А. Показатели конкурентоспособности строительных предприятий / М. А. Шуваев // Экономические и гуманитарные исследования ре гионов. - 2011. - № 6. - С. 342-348.
7. Икрамов М.А. Стимулирование роста конечных результатов деятельности промышленных предприятий в условиях рыночных отношений: диссертация ... доктора экономических наук: 08.00.05 / Санкт-Петербург. инж-экон. ин-т. - Санкт-Петербург, 1992.;
8. Нуримбетов Р.И. Замонавий сифат менежменти тизими ва уни жорий этиш масалалари // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 3, 2021. 71-80 б.;
9. Болтабаев М.Р. “Тўқимачилик саноати корхоналарининг рақобатдошлигини баҳолаш услубини такомиллаштириш”. Т:,“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2011, №1. 1-2 б.;
10. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства. Монография. – Т.: ООО “Lesson press”, 2020.-210 с.
11. Буриев Х.Т. Qurilish sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari. Monografiya. 2024, 130 b.

PRIORITY DIRECTIONS FOR TRANSFORMING MANAGEMENT SYSTEMS IN ECONOMICS AND ENGINEERING

Xayitboyev Muslim Xamidullayovich

SamSACU, Teacher of the Department of Foreign Languages

Annotation: This article examines the priority directions for transforming management systems in the fields of economics and engineering, emphasizing the importance of digitalization, data-driven decision-making, and innovation. As global industries continue to evolve, the need for adaptive and efficient management systems becomes more pressing. The research identifies the challenges and opportunities in aligning management practices with the dynamic requirements of both sectors. Key areas include integrating advanced technologies, optimizing resource allocation, and enhancing strategic planning processes. The study concludes that an effective transformation in these domains is essential for achieving long-term economic sustainability and competitive advantage.

Keywords: Management system transformation, economics, engineering, digitalization, innovation, economic efficiency, strategic planning, data-driven decision-making, sustainable development.

In the modern economic landscape, technological advances have reshaped the expectations and operational capabilities of industries worldwide. Management systems in economics and engineering are now required to become more adaptable, innovative, and responsive. To succeed, leaders in these fields must embrace transformative strategies that leverage technology, data, and sustainability. This paper discusses the critical priority directions for transforming management systems in these domains, ultimately leading to improved economic and operational outcomes.

Management systems in economics and engineering are frameworks that allow organizations to control, optimize, and improve their operations. In economics, management systems focus on planning, financial analysis, and resource allocation to achieve organizational goals effectively. Meanwhile, engineering management systems emphasize operational efficiency, technical accuracy, and process control in areas like production, design, and project management.

In today's rapidly evolving global environment, management systems in both fields must adapt to changing technologies, market conditions, and sustainability requirements. Here's a closer look at the core components and transformation priorities within each field: As industries undergo rapid technological advancements, management systems in economics and engineering face mounting pressure to adapt and improve. Effective transformation within these fields is crucial to harness technological advancements for increased productivity, cost efficiency, and sustainability.

The fields of economics and engineering each contribute uniquely to modern industry, but it is where they intersect that some of the most impactful advancements occur. Economics focuses on resource allocation, cost efficiency, and market dynamics, while engineering emphasizes problem-solving, design, and innovation. Together, they create a powerful combination that can tackle large-scale industrial and societal challenges. This paper analyzes how the integration of economics and engineering improves industrial outcomes and addresses emerging global issues such as environmental sustainability and technological disruption.

Economic principles guide resource allocation for innovation, determining which technological developments are financially viable. Engineering provides the technical foundation to turn these innovations into reality, creating products and processes that improve efficiency and add value. For instance, advancements in renewable energy technologies involve both economic analysis to ensure cost-effectiveness and engineering expertise to create efficient energy systems.

Economic theories help engineers prioritize projects based on cost-benefit analysis, optimizing resource use and maximizing economic returns. For example, infrastructure projects like highways or power plants require detailed economic feasibility studies to determine the best allocation of resources. Engineers then use these insights to develop designs that balance functionality, durability, and cost-effectiveness.

As global demand for sustainable practices grows, both economists and engineers play critical roles in developing eco-friendly solutions. Economists analyze the long-term costs and benefits of sustainability initiatives, while engineers design systems that reduce energy consumption, minimize waste, and lower environmental impact. For instance, the development of green building materials and energy-efficient manufacturing processes relies on both economic and engineering expertise.

Economic risk analysis is essential in large engineering projects, where the potential for cost overruns and delays can be high. By combining economic forecasting with engineering project management, companies can minimize risks and ensure project viability. Engineering feasibility studies supported by economic analysis help in understanding the potential returns and risks associated with complex projects like infrastructure development or large-scale technology implementations.

With the advent of big data and AI, both economics and engineering are embracing digital transformation to improve decision-making and operational efficiency. Economists analyze data to predict market trends, while engineers use it to optimize production processes and enhance product quality. Data analytics bridges the gap between economic strategy and engineering execution, enabling data-driven decisions that benefit the entire organization.

Emphasizing the importance of digital tools, AI, and automation to streamline processes, reduce human error, and improve operational efficiency. Fostering a culture of data collection, analysis, and real-time insights to support more informed, agile decision-making practices.Redesigning resource allocation processes, from material resources in engineering projects to

financial resources in economics, to improve operational efficiency.In architecture and engineering, curriculum relevance is essential to equip graduates with the knowledge and skills needed in a rapidly evolving industry. Yet, many educational programs fail to keep pace with technological advances, emerging sustainability requirements, and innovative design methodologies. This mismatch between education and industry needs can result in graduates who are less competitive and struggle to adapt to workplace demands.

Establishing partnerships with architectural firms, engineering companies, and technology providers can help educators align course content with industry demands. Collaborative programs like guest lectures, workshops, and real-world projects ensure that students are exposed to the latest practices and technologies. Developing a flexible, modular curriculum allows programs to incorporate updates more easily. Elective courses focused on emerging topics-such as renewable energy design or advanced computational modeling-offer students the chance to explore specialized skills without overhauling the entire curriculum.

Implementing sustainable practices across management systems to meet regulatory demands, reduce environmental impacts, and align with global sustainability goals.Focusing on adaptive strategies that can anticipate and respond to rapid market changes, including technological disruptions and shifts in consumer demand.Encouraging cross-sector collaboration between economics and engineering to develop comprehensive solutions to complex management challenges.

Digitalization has become an essential strategy for efficiency in management practices. Automation, AI, and digital tools can streamline processes, reduce operational costs, and minimize human errors. In engineering, automation of production and operational systems enhances precision and productivity, while in economics, digital tools improve financial modeling and forecasting capabilities.Informed decision-making is crucial for success in any industry, and this is particularly true in economics and engineering. Data analytics, machine learning, and real-time information systems enable companies to make more accurate, timely, and strategic decisions. By implementing systems that continuously collect and analyze data, organizations can anticipate trends, optimize operations, and adapt to market changes quickly.

Optimizing resources is fundamental to achieving sustainable growth. For engineering sectors, this includes the strategic allocation of materials and energy, whereas, in economics, financial resource optimization is vital. Lean management practices and waste reduction strategies can significantly enhance productivity while reducing operational costs, making these priorities across both fields.The growing importance of environmental and social governance (ESG) standards has highlighted the need for sustainable management systems. Companies are increasingly required to incorporate sustainable practices to meet regulatory requirements, reduce environmental impacts, and improve social responsibility. In engineering, sustainable design and production can minimize waste and energy use, while in economics, sustainable finance and investment strategies promote long-term value creation.

Economic volatility and technological disruptions have made traditional strategic planning less effective. Organizations now require adaptive and innovative strategies that can anticipate and respond to changing market dynamics. Strategic foresight and scenario planning enable companies to develop flexible approaches, thereby minimizing risks and capitalizing on emerging opportunities.

Collaboration between economics and engineering professionals can lead to innovative solutions that address complex challenges. By combining expertise in technical and financial aspects, organizations can create comprehensive management systems that are more resilient, efficient, and future-focused. Cross-disciplinary teams can leverage diverse perspectives to foster a more holistic approach to transformation.While these transformations are beneficial, organizations often encounter challenges in implementation. Common obstacles include high initial investment costs, the need for skilled personnel, and potential resistance to change. Addressing these challenges requires commitment from leadership, a clear transformation roadmap, and ongoing employee training.

The transformation of management systems within economics and engineering is crucial for sustainable growth, operational resilience, and competitive advantage. The key priority areas, such as digitalization, data-driven decision-making, and sustainability, provide a roadmap for organizations to thrive in a rapidly changing global environment. These transformations are not only beneficial but necessary to meet the demands of the future, ensuring organizations remain competitive, efficient, and adaptable. The priority directions discussed-digital transformation, data-driven decision-making, resource optimization, sustainability, innovative strategic planning, and interdisciplinary collaboration-provide a framework for organizations to enhance resilience and competitive advantage. Embracing these transformative approaches allows companies to address both current and future challenges while achieving sustainable growth and operational excellence.

References:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.

2. Davenport, T. H., &Ronanki, R. (2018). "Artificial Intelligence for the Real World." *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.

3. Drucker, P. F. (2006). *The Effective Executive: The Definitive Guide to Getting the Right Things Done*. HarperBusiness.

4. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th Edition). Pearson.

5. Schilling, M. A. (2020). *Strategic Management of Technological Innovation* (6th Edition). McGraw-Hill Education.

6. Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Liston, K. (2011). *BIM handbook: A guide to building information modeling for owners, managers, designers, engineers, and contractors*. Wiley.

7. Fischer, M., & Kunz, J. (2004). *The scope and role of information technology in construction*. In *Automationin Construction*, 13(4), 427-447.

8. Galloway, P. D. (2007). *The 21st-Century Engineer: A Proposal for Engineering Education Reform*. ASCE Press.

ZAMONAVIY MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA MAXSUS FANLARNI INTEGRATSIYALASHGAN TARZDA O'QITISHNING STATISTIK TAHLILI

Xikmatov X.X – TDIU Samarqand filiali dotsenti.,
Karjavov Z.K. – SamDAQU dotsenti.,
Qodirov Z.A., Ergashev F.B., – TDIU Samarqand filiali o'qituvchlari.

Annotasiya: Maqolada ko'tarilgan asosiy muammo – bu oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikka yetarlicha e'tibor qaratmasligi, ya'ni ta'lim va amaliy faoliyat o'rtasidagi integrasiyaning yo'qligi. Hozirgi kunda ushbu masalaga davlat darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda va shuning uchun uni hal qilish uchun aniq chora-tadbirlar qabul qilish zaruriyati kun tartibida turibdi. Shu munosabat bilan maqolada taklif etilgan yechimlardan biri – oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatishdir. Bu amaliyot ta'lim jarayonida zarur metodik materiallar ishlab chiqish va interaktiv o'qitish usullarini joriy etish orqali mustahkamlanishi kerak.

Bunday yondashuvni joriy etish mutaxassislarga nazariyani amaliyot bilan yaxshiroq uyg'unlashtirish, shuningdek, ularni haqiqiy amaliyotga yaqinlashtirish imkonini beradi[3].

Kalitli so'zlar: Integratsiya, innovatsiya, g'oya, texnik tizimlar, tekst, yangicha materiallar, uslublar, jarayon, amaliyot.

Kirish. Ushbu maqolani muammo sifatida ko'tarilishidan maqsad hozirgi kunlargacha oliy ta'lim mussasalarimizni ishlab chiqarishdan uzoqda va e'tiborsizligini salbiy ta'sirlarini yaqindan yana bir bora tahlil qilish hisoblanadi. Masalani ko'tarilishining eng yangi sabablaridan biri bu masalani davlat miqyosida ko'tarila boshlaganligi va bu masala yechimiga qo'yilgan talablardir.

Bu masalaning dastlabki yechim elementi sifatida maqolada asoslab berilganidek oliy ta'lim muassalalari ishlab chiqarish korxonalari bilan hamjihatlikda intratsiyalashgan ta'limni joriy etish va amaliyotga kechiktirmasdan kiritish, bu ta'limga zaruriy uslibiyotni ishlab chiqishni tashkil etishdir.

Zamon talabi, davr taqazosi, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, ma'lumot oqimining ko'payish tezligi, barcha sohadagi yangiliklarning o'sib borish tezligi vaqt resursini hayotiy jarayonlarning asosiy ko'rsatgichlardan biriga aylantib ulgurdi. Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlar dasturlari, o'zimizning ko'p yillik malaka va tajribalarimizga asoslanib qo'llab kelinayotgan ta'lim sohamizdagi ayrim muammolarni hal etishga yosh ijodkor xorijda amaliyot va ilmiy sohadagi tajribalarini oshirib kelganlik natijalariga asoslanib hal etish, ularning barcha sohalardagi innovatsion g'oyalarini ta'lim jarayoni, ayniqsa amaliyotga qo'llash orqali hal etish maqsadli deb hisoblanib ushbu mavzuni muammo sifatida ko'tarib hal etishga jamoa bo'lib urinib ko'rmoqchimiz[2].

Adabiyotlarni o'rganish. Mamalakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida amal qilinib kelinayotgan dasturlarning aksariyatida ananaviy o'quv dasturlarimiz, ya'ni barcha umumta'lim fanlari bilan birgalikda mutaxassislik fanlari ham OTM larining o'zida, deyarli amaliyotdan ancha uzoqdagi amaliyot maydonlari va laboratoriyalarda mashg'ulotlarni olib borayotganimiz hech kimga sir emas. Bu degani bizning oliy ta'lim dargohlarimiz amaliyotdan haligacha ancha uzoqdaligidan dalolatdir.

Tahlil. Amaldagi OTMlarimizni tugatib borgan yosh mutaxasislarimiz ish joylariga borganlaridan so'ng korxona va tashkilotlarning faoliyatlari bilan tanisha boshlaydi, o'zlari tugallab kelgan kasablari bilan endigina yaqindan tanisha boshlaydi, dastlab ularga juda ko'p kasblariga bog'liq ko'rsatgichlar yangi bo'lib ko'rinadi. Bu tushunarsiz holatlarni o'rganishlari uchun ancha izlanish, vaqt sarflashlariga to'g'ri keladi. Ayrim yosh mutaxasislar 4 yil egallashga harakat qilib o'rgandim deb hisoblagan kasblaridan voz kechib ketadi.

Bu yo'qotishning statistikasini tahlil etadigan bo'lsak, yosh mutaxasis talabalik davrida 4 yillik umri bilan birgalikda qancha miqdorda xarajat qilgan statistikasi o'rganilganda 1-jadvaldagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

1- Jadval

№	Xarajat turlari	Xarajatlarning aniq nomi	O'quv yillari 2021 -2022 o'quv yili	2022-2023 o'quv yili	2023-2024 o'quv yili	2024-2025 o'quv yili	Jami
1	Ta'lim muassasasiga to'lov	Davlat OTM	9 129 930	9 129 930	9 129 930	10 500 000	37 889 790
		Xususiy OTM	16 500 000	16 500 000	19 000 000	23 500 000	75 500 000
2	O'quv materiallari	Darslik	1 500 000	1 650 000	1 800 000	1 850 000	6 800 000
		qo'shimcha	650 000	700 000	750 000	800 000	2 900 000
3	Yashash xarajatlari	Oziq-ovqat va transport (ta'tillarni chiqarib 9 oyga hisoblaganda)	6 750 000	7 425 000	7 830 000	8 100 000	30 105 000
		Ijaraga uy olish yoki yotoqxonada yashash (ta'tillarni chiqarib 9 oyga hisoblaganda)	1 800 000	2 250 000	2 430 000	2 700 000	9 180 000
4	Amaliyot va stajirovka xarajatlari	Transport xarajatlari	350 000	840 000	900 000	1 410 000	3 500 000
		Ta'lim materiallari va texnika vositalari	200 000	250 000	300 000	400 000	1 150 000
5	Boshqa kutilmagan xarajatlar	Kurs va darslar uchun qo'shimcha materiallar Akademik to'lovlar va jarimalar bo'lishi mumkin	1 500 000	1 700 000	1 900 000	2 100 000	7 200 000
	Jami		**38 379 930**	**40 444 930**	**44 039 930**	**51 360 000**	**174 224 790**

Demak, O‘zbekistonda ta’lim olayotgan talabani to’rt yillik o’qish davri uchun jadvalda ko’rsatilgan xarajatlarni o'quv dargohining turiga qarab (davlat yoki xususiy), o'quv muddati va boshqa omillarga qarab to’liq o’qish davrida to’laydi. Jadvaldagi ma’lumotlarga qaraganda bitta talaba to’rt yillik o’qish davrida 174 224 790 ming so’m atrofida jadvalda ko’rsatilgan omillar asosida to’laydi deb hisoblashimiz mumkin.

OTM bitiruvchisi ishga joylashdi deb faraz qiladigan bo’lsak, yosh xodim kamida 2-3 oy ichida o’z xizmat vazifasidan kelib chiqib faoliyatini boshlanishigacha ish vaqtidan unimli foydalana olmaganligi sababli korxonasiga qancha zarar keltirishi mumkinligi statistikasini ham shakillantirib beradigan bo’lsak 2-jadval ko’rinishida bo’ladi.

Jadvaldagi ma’lumotlar 8 soat 5 kunlik ish rejimi statistikasini o’rganilgan jarayondagi statistik ma’lumotlar bo’lib, yosh mutaxassis ishga joylashgan korxonasidagi ish faoliyatini dastlabki oylarida 8 soatlik ish vaqtini ish o’rganish jarayoniga sarflagani sababdan korxonaga ko’rsatishi mumkin bo’lgan zararning hisoblash jarayoni aks ettiradi.

2-Jadval

	Oylar	Ish vaqti (soat)	Ish jarayoniga to'liq moslashib ketishi uchun qo'shimcha tarzda olinadigan ko'nikmalar uchun ketgan vaqt (soat)	Haqiqatda ish uchun ketgan vaqt (soat)	Ish haqqi (oylik) so'm	1 soat uchun ish haqqi so'm	Ish jarayoniga to'liq moslashib ketishi uchun qo'shimcha tarzda olinadigan ko'nikmalar uchun ketgan vaqt uchun hisoblangan ish haqqi so'm	Ish samaradorlik ko'rsatkichi foizda
1	1	168	42	126	3 500 000	20 833	875 000	75,0
2	2	168	42	126	3 500 000	20 833	875 000	75,0
3	3	168	42	126	3 500 000	20 833	875 000	75,0
4	4	168	42	126	3 500 000	20 833	875 000	75,0
5	5	168	31,5	136,5	3 500 000	20 833	656 250	81,3
6	6	168	31,5	136,5	3 500 000	20 833	656 250	81,3
7	7	168	31,5	136,5	3 850 000	22 917	721 875	81,3
8	8	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
9	9	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
10	10	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
11	11	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
12	12	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
13	13	168	21	147	3 850 000	22 917	481 250	87,5
14	14	168	10,5	157,5	4 235 000	25 208	264 688	93,8
15	15	168	10,5	157,5	4 235 000	25 208	264 688	93,8
16	16	168	10,5	157,5	4 235 000	25 208	264 688	93,8
17	17	168	10,5	157,5	4 235 000	25 208	264 688	93,8
18	18	168	10,5	157,5	4 235 000	25 208	264 688	93,8
19	19	168	5,25	162,75	4 235 000	25 208	132 344	96,9
20	20	168	5,25	162,75	4 235 000	25 208	132 344	96,9
21	21	168	5,25	162,75	4 658 500	27 729	145 578	96,9
22	22	168	5,25	162,75	4 658 500	27 729	145 578	96,9
23	23	168	5,25	162,75	4 658 500	27 729	145 578	96,9
24	24	168	5,25	162,75	4 658 500	27 729	145 578	96,9
Jami		4032	472,5	3559,5	96 229 000		10 592 313	

Yosh ishchi xodim o’z ish vaqtining ma’lum qismin samarasiz ketgan deb oladigan bo’lsak, masalan kunlik ish vaqtining ma’lum qismini ish joyida bo’lgan taqdirda, ya’ni ish davrini boshlang’ich davrida o’z vazifasidan boshqa faoliyatga sarflab boradigan bo’lsa korxonaga ma’lum miqdorda zarar keltirishi muqarrar,

ayna shu masalani hal etish maqsadida 2-jadvaldagi ma'lumotlar tahlil etilgan.

Yuqoridagi statistik kuzatishlarimiz natijalarini birgalikda tahlil qiladigan bo'lsak, hal etilishi kechiktirib bo'lmaydigan muammolarga duch kelganimizga amin bo'lamiz.

Bu muammoli masalalarni davlat miqyosida hal etishni eng so'ngi manbalardan izlashimiz mumkin. Davlat rahbarimiz Sh.M. Mirziyoyev, viloyat rahbarlarimizning OTMlariga tegishli barcha yig'ilishlarida bu muammolarning yechimiga asos bo'la oladigan hozirga kunda dolzarab masalalar sirasiga kirib borgan masalalarni ilgari surib kelishmoqda.

Aslini olganda bu muammolarni dolzarb masala bo'lib ko'tarilishiga OTMlar xodimlari sababchi bo'lishlari mumkin, chunki yosh xodimlar bizning mehnatimiz mahsuloti, OTMlari xodimlarning mehnati ma'suli hisoblanadi.

Bu muammonig dastlabki yechimi sifatida davlat barcha turdagi korxonalarda dastlabki OTMlari bilan korxonalar o'rtasidagi itegratsiyalashgan ta'lim shaklini joriy etilishi yuqoridagi statistik tahlillarimiz natijalariga asoslanib kechiktirilmaydigan masala deb hisoblab, maqolamizning dastlabki natijasi sifatida o'z taklifimizni shu soha xodimlari muhokamasiga havola etamiz.

Agarda bu taklifimiz hamkasblarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlansa muammoning ikkinchi qismi, itegratsiyalashgan ta'limni shakillantirish, ta'limning aniq va asoslangan rejasi haqidagi muammolarni yechimini izlaymiz. Bu muammoning yechimni biz mutaxasis tayyorlab beradigan korxonalar bilan ikki tomonlama shartnoma asosda hal etilishi eng asosli yo'l bo'ladi, chunki bu yo'l eng muqobil yo'l bo'lib, uni davlat rahbariyati tomononidan qo'llab-quvatlanishi ko'rinib turibdi.

Xulosa. Muammolarning yechimini dastlabki ko'rinishi sifatida barcha OTMlari mutaxassis kafedralari o'zlarining kafedra filallarini korxonalarda tashkil etib, amaliyot darslari, malakaviy amaliyot mashg'ulotlarini korxonalarda o'tkazishni amalga oshirishlari zarurligini birinchi masalalar sifatida rejalashtirib amalga oshirilishini ta'minlashlari kerak bo'ladi.

Masalani hal etilishi uchun katta mablag' uzoq vaqt talab etilmaydi, faqatgina izlanish, eng asosiysi innovatsion g'oyali harakatlar talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 11.07.2024 yildagi 415-son qarorlari.
3. Xikmatov X.X "Ta'lim va amaliyotda innovatsion g'oya elementlarni shakllantirish uslublari, https://t.me/ares uz, Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1, March, 2023
4. Xikmatov X.X. va boshqalar "Jamoat transport xizmati daromadini hisobga olish statistikasi va takliflar", International journal of economics, finance and innovation iqtisodiyot, moliya va innovatsiyalar xalqaro ilmiy jurnali, 12, 2023 y.
5. Xikmatov X.X., Sulaymanova N.E. "Ta'lim va amaliyotda innovatsion g'oya elementlarni shakllantirish uslublari" Academic Research in Educational Sciences (OAK №23).
6. Xikmatov X.X., Buriyeva S. M. " Formirovaniye innovastonnix idey u studenta na laboratornых i prakticheskix zanyatiyax", nauchno-metodicheskiy jurnal "AKADEMY» №7 (58), 2020 g.

QURILISH ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI

Boymanov Sohib Alisher o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti magistratura talabasi,
Usmonov Ilxom Achilovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti professor.v.b., texnika fanlari nomzodi,

Annotatsiya. Maqolada qurilishning iqtisodiy samaradorligi haqida umumiy ma'lumot beriladi hamda shu yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari, unga ta'sir etuvchi omillar va o'lchash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan qurilish tashkilotining foyda hamda rentabellik darajasi tahlil qilinib chiqilib baholanadi va tegishli takliflar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: samaradorlik, raqamli yechim, iqtisodiy samaradorlik, aktivlar rentabelligi, rentabellik koeffitsienti, moliyaviy barqarorlik.

Ключевые слова: эффективность, цифровое решение, экономическая эффективность, фондоотдача, рентабельность, финансовая устойчивость.

Key words: efficiency, digital solution, economic efficiency, return on assets, profitability ratio, financial stability.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlari sharoitida bozor muhiti va mintaqa taraqqiyoti barqarorligi, ularning iqtisodiy ahvoli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hududning rivojlanishi, raqobatbardoshlik

darajasi sohaning ichki va tashqi bozordagi mavqeini belgilab beruvchi samaradorlikka bog'liq bo'lib qolmoqda.

Qurilishning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi ko'p jihatdan mamlakat hududlaridagi qurilish ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq va samarali foydalanishga bog'liqdir. Umumiy holda, sanoat tarmoqari (qurilishni ham hisobga olganda) ning Jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shilgan qiymatining 26,0 foizi hamda umumiy bandlikning 23,1 foizi aynan shu sohalar hissasiga to'g'ri kelmoqda [1]. Xususan, O'zbekistonda qurilish tarmog'i 2023-yilda YaIM o'sishiga 0,4 foiz ijobiy hissa qo'shgan hamda umumiy qiymatga nisabatan 6,2 foiz ulushga ega bo'ldi [2].

Rivojlangan mamlakatlar YaIMining 13 foizi aynan qurilish ishlab chiqarish tarmog'ida yaratilayapti hamda prognozlarga ko'ra, dunyo mamlakatlarining 112 tasida 2023-2030 yillarda qurilish ishlab chiqarish hajmi yiliga o'rtacha 1,7% ga o'sishi kutilmoqda [3]. Bu esa o'z navbatida qurilish materiallariga, resurslarga bo'lgan talabni yanada oshishini anglatadi. Tabiiy resurslar cheklangan va ekologik inqirozlar ko'plab sodir bo'layotgan vaqtda muqobil resurslarni topish, ulardan samarali foydalanish bugungi kunning ham talabi, ham muammosidir. Qurilish industriyasini barqaror rivojlantirish uchun qurilish ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda, qurilish ishlab chiqarish rivojlangan davlatlarda samaradorlikni oshirish yo'llari sifatida innovatsion siyosatni amalga oshirish va milliy innovatsion tizimni shakllantirish, raqamli texnologiyalarni qo'llash, resurs tejamkorligi hamda ishlab chiqarish va loyihalarni boshqarish bilan bog'liq jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha tadbirlarga e'tibor qaratilmoqda [4].

Qurilish sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning boshqarish yo'nalishidagi o'zgarishlar, qurilish ishlab chiqarishning iste'mol sifatini yaxshilash bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish, arxitektura va rejalashtirish yechimlariga qaratilgan.

Islohotlarning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6119-sonli farmoni, 2019 yil 23 maydagi «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4335-sonli qarori va boshqa qarorlar tashkil qiladi. Xususan, innovatsion kadrlarni tayyorlash, qurilish sohasida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga 2022-yil 8-noyabrdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri to'g'risida"gi PQ-416-son qarori katta xissa qo'shganligini ta'kidlash lozim.

Iqtisodiyotda "Iqtisodiy samaradorlik" tushunchasi keng qo'llaniladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining xilma-xilligi tashkilot faoliyatini ham umumiy, ham resurslarning alohida turlari bo'yicha baholash imkonini beradi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari mahsulotning alohida turlari uchun ham, umuman tashkilotning natijalari uchun ham hisoblanadi. Qurilishga kelsak, turli ob'ektlarni qurishning iqtisodiy samaradorligini baholash buyurtmachi uchun qurilish loyihasining yuqori samaradorligini ta'minlaydigan dizayn yechimlari, texnologiyalari va qurilish ishlari turlarini loyihalashtirishga va qurilish tashkilotiga tender taklifini shakllantirishga imkon beradi va umuman qurilish tashkiloti samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan ishlarni ishlab chiqarishni tashkil etish [5].

Ishlab chiqarish samaradorligi — juda murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u natijani aks ettiradi, natija esa har qanday faoliyatning asosiy maqsadidir.

Ilmiy adabiyotlar obzori. P. Samuelson va V. Nordxausning fikriga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik - bu mavjud resurslardan maksimal mumkin bo'lgan foyda olish, foyda va xarajatlarni doimiy ravishda o'zaro bog'lash, shu bilan birga oqilona harakat qilish. Tovar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'z foydasini maksimal darajada oshirish va xarajatlarni kamaytirish bilan birga eng yuqori samaradorlikka intiladi [6].

"Ishlab chiqarish samaradorligi — korxona miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxona faoliyatining yakuniy natijasini ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat miqdori bilan o'lchash mumkin, lekin mehnat sarfini aniq o'lchash ancha qiyin. Shu sababli, ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish vositalaridan va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. *Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligining umumlashgan ko'rsatkichi tovar ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi hisoblanadi, undan tashqari puldagi xarajatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, balans foydaning asosiy va aylanma fondlar yigindisiga nisbati, to'la tannarx ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.* Mehnat unumdorligining o'sishi sur'atlari, mehnatni tejash va mahsulot hajmi o'sishida mehnat unumdorligi hissasi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Iqtisodiy samaradorlik masalalarini tadqiq qilishda mualliflar avvalo ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishning muhim usullaridan biri bo'lmish nazariy izlanishlar tahliliga asoslangan. Shu bilan birga, natijalarni qayta ishlashda statistik

axborotlar tahlili, umumlashtirish va dekompozitsiya usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Ishlab chiqarish samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash va yana qanday omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat [7]".

Qurilish tashkilotlarining samaradorligini oshirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda ekan, samaradorlikni baholash va tahlil qilish birinchi galda amalga oshiriladigan ishlardan biridir. Samaradorlikni baholash tashkilotning bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Bizga ilmiy-iqtisodiy adabiyotlardan ma'lumki, tashkilotlar iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Daromadlar-qurilish xizmatlari sotilishi orqali olingan daromadlar hajmi;
2. Xarajatlar-qurilish jarayonida ketadigan bevosita va bilvosita xarajatlar jamlanmasi;
3. Foyda-daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq;
4. Foyda darajasi-foydaning daromadga nisbati sifatida ifodalanadi;
5. Rentabellik-rentabellik koeffitsienti yordamida foydaning jami aktivlarga nisbati hisoblanadi.

Bundan tashqari qurilish tashkilotlarining bu ko'rsatkichlari bir necha asosiy yo'nalishlarida aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tashkilotning umumiy moliyaviy holati va faoliyat natijalarini baholash imkonini beradi. Quyida hisoblash usullari keltirilgan [7]:

1. Daromadlilik (profitability) ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkich tashkilotning qanchalik foydali ishlayotganini ko'rstadi. Sof foyda marjinasi (Net Profit Margin): Daromadga nisbatan sof foydani ifodalaydi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$NPM = \frac{Sof\ foyda}{Umumiy\ daromad} \times 100$$

Aktivlar rentabelligi (return on assets, ROA) aktivlarga nisbatan foydaning samaradorligini o'lchaydi:

$$ROA = \frac{Sof\ foyda}{Umumiy\ aktivlar} \times 100$$

Bu ko'rsatkich qurilish tashkilotining aktivlarni qanchalik samarali ishlatayotganini ifodalaydi.

O'z capital rentabelligi (return on equity, ROE) tashkilotning o'z kapitaliga nisbatan qancha foyda olishini ko'rsatadi:

$$ROE = \frac{Sof\ foyda}{O'z\ kapitali} \times 100$$

Bu ko'rsatkich ulushdorlarning investitsiyalangan mablag'lari qanchalik foyda keltirayotganini aks ettiradi.

2. Likvidlik ko'rsatkichlari. Qurilish tashkiloti qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun qancha likvid aktivlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Joriy likvidlik koeffitsienti (current ratio) joriy aktivlar va joriy majburiyatlar orqali hisoblanadi:

$$CR = \frac{Joriy\ aktivlar}{Joriy\ majburiyatlar}$$

Agar ko'rsatkich 1 dan kata bo'lsa, bu tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

3. Faoliyat samaradorligi (efficiency) ko'rsatkichlari. Qurilish tashkilotining resurslarni qanchalik samarali ishlatayotganini ko'rsatadi. Aktivlar aylanishi (asset turnover) aktivlar orqali qancha daromad qilinganini ko'rsatadi:

$$AT = \frac{Daromad}{Umumiy\ aktivlar}$$

Qarzdorlik aylanishi (receivables turnover ratio) mijozlardan qarzdorlikni tezda qaytarib olish samaradorligini baholaydi:

$$RT = \frac{Daromad}{O'rtacha\ qarzdorlik}$$

4. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. Qurilish tashkiloti o'z majburiyatlarini o'z kapitaliga qaraganda qanchalik qoplay olishini baholaydi. Umumiy qarz koeffitsienti (debt ratio) umumiy qarzlarning umumiy aktivlarga nisabatan ulushini ko'rsatadi:

$$DR = \frac{Umuiy\ qarz}{Umumiy\ aktivlar} \times 100$$

Bu ko'rsatkichlar qurilish tashkilotining iqtisodiy samaradorligini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi hisoblash usullaridan foydalangan holda tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan, qurilish sohasida 20 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan tashkilot, "Tolib Bobo AKT" MChJ ning foyda hamda rentabellik darajasi tahlil qilindi.

Foyda va rentabellik darajasi qurilish-montaj tashkilotlari faoliyatining yakuniy natijalarini har tomonlama tavsiflovchi, shuningdek bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ularning normal faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini belgilovchi umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlardir.

Tahlil qilish uchun dastlabki ma'lumotlar F-2 shaklidagi hisobotga muvofiq olinadi.

Foydani tahlil qilish jarayonida olingan balans foydasining umumiy summasi ham, yalpi daromad ham, ularning tarkibiy elementlari ham tekshiriladi.

Umumiy balans foydasi ishlab chiqarishdan tashqari natijalarni hisobga olgan holda qurilish tashkilotining balansida olingan foyda miqdori sifatida aniqlanadi. U quyidagilar orqali shakllanadi:

- tugallangan va topshirilgan ob'ektlar va ishlar majmualari;
- moddiy boyliklarni realizatsiya qilish;
- operatsion bo'lmagan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq.

Foydaning joriy darajasini tahlil qilishda foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatgan omillar aniqlanadi, yo'qotish sabablari, agar mavjud bo'lsa, ko'rsatiladi va yilning choraklari bo'yicha foyda (zarar)ning o'zgarish dinamikasi o'rganiladi. Foyda va uning o'zgarish dinamikasini o'rganish quyidagi jadvalda amalga oshiriladi:

“Tolib bobo AKT” MChJning balans foydasi 2019-yilda 1 552 838,7 ming so‘m, 2020-yilda 2 226 652,3 ming so‘m, 2021-yilda 4 901 717,9 ming so‘mni tashkil etdi. 2019-2021 yillar davomida tashkilotning balans foydasi oshdi. Shunday qilib, 2020 yilda balans foydasi 2019 yil darajasiga nisbatan 143,4 foizni, 2021 yilda 2019 yil darajasiga nisbatan 315,7 foizni tashkil etdi.

1-jadval

2021-2023 yillar uchun “Tolib bobo AKT” MChJ foydasi va uning o'zgarish dinamikasi

Ko’rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1.Foyda, ming so’mda: Asosiy faoliyatdan; Moliyaviy faoliyat bilan bog’liq xarajatlar; Moliyaviy faoliyat bo’yicha daromadlar;	1 552 838,7	2 226 652,3	4 901 717,9
2.Jami balansdagi foydasi	1 552 838,7	2 226 652,3	4 901 717,9
3.Balansdagi foyda o’zgarishi: O’tgan yilga nisbatan:	100,0	673 813,6/143,4	2 675 065,6/220,1
2021-yilga nisbatan:	100,0	673 813,6/143,4	3 348 879,2/315,7

Qurilish tashkilotining bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlay olish imkoniyatlarini baholash.

Qurilish tashkilotlarining bozor munosabatlari sharoitida bir me’yorda ishlay olish imkoniyati asosan uning foydalilik darajasi bilan baholanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida foyda mikdorini bajarilgan ish uchun to‘lovlar va qarz olingan kapital miqdoriga, ya’ni aylanma kapitalga nisbatan har bir hisoblash davri uchun aniqlash lozim.

Shunday qilib, foydalilik darajasini baholash uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- foydalilik miqdori;
- bajarilgan ishlar uchun hisoblashlar davri;
- qurilish tashkilotining aylanma kapital miqdorini.

Bozor munosabatlari sharoitida qurilish tashkilotlarining foydalilik darajasi foydaning yig‘indisini aylanma kapitalga bo‘lish yo‘li bilan topiladi:

$$\textbf{Foydalilik darajasi} = \frac{\textbf{Foyda}}{\textbf{Kapital aylanma miqdori}} \times 100$$

Bunda: F – foyda miqdori, ming so’mda;

Kayl – aylanma kapital miqdori, ming so’mda.

Pudratchining aylanma mablag'lari qiymati o'z-o'zidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining 25-35% ni tashkil qiladi. Bizning hisob-kitoblarimizda biz 30% hisoblangan ko'rsatkichni olamiz. Qurilish tashkilotining rentabellik darajasini hisoblash jadvalda keltirilgan:


2-jadval

“Tolib bobo AKT” MChJning 2021-2023 yillardagi rentabellik darajasi

Ko’rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1.Balansdagi foyda, ming so’mda	1 552 838,7	2 226 652,3	4 901 717,9
2.Aylanma kapital, ming so’mda	3 190 764,3	4 805 724,2	10 283 324,2
3.Foydalilik darajasi, %	48,7	46,3	47,7
4.Foydaning o’zgaruvchanlik darajasi: O’tgan yilga nisbatan	-	-2,4	1,4
2021-yilga nisbatan	-	-2,4	-1,0

“Tolib bobo AKT” MChJning rentabellik darajasi 2019 yilda 48,7 foiz, 2020 yilda 46,3 foiz, 2021 yilda 47,7 foizni tashkil etdi.

Uni quyidagi 1-diagrammada ko’rishimiz mumkin.



1-diagramma. "Tolib bobo AKT" MChJning 2021-2023 yillardagi foyda hajmi

Jadval va diagrammadan ko'rinib turibdiki, tahlil qilingan davrda rentabellik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. 2020 yilda rentabellik darajasi o'tgan yilga nisbatan 2,4 punktga, 2023 yilda 2021 yilga nisbatan 1,0 punktga kamaydi.

2021-2023 yillar uchun rentabellik darajasining pasayishi aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq.

2021 - 2023 yillar uchun umuman tashkilotning rentabellik darajasi 5% dan oshadi, ya'ni minimal qabul qilinadigan rentabellik darajasi. Umuman, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tashkilot 2021-2023-yillar mobaynida samarali faoliyat ko‘rsatgan va ijobiy foydalilik darajasiga erishgan va hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bemalol faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Yakuniy qism. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlil jarayonida tashkilotlar iqtisodiy samaradorligi ko’rsatkichlaridan faqatgina, foyda tahlilini hamda korxonaning rentabellik darajasi haqida ijobiy natijalarga ega bo’ldik. Tadqiqotimiz davomida yuqorida sanab o’tilgan samaradorlikning barcha ko’rsatkichlari bo’yicha tahlil qilib tashkilot samaradorligini baholaymiz.

Ushbu holatda qurilish tashkilotiga joriy holatini saqlab qolish uchun hamda yanada yaxshi natijalarga erishish uchun quyidagi takliflarni olg’a surmoqchimiz:

1. Tashkilot ichidagi ayrim jarayonlarni raqamlashtirish, ya’ni raqamli yechimlarni qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy biznes jarayonlarini qayta ko‘rib chiqish; raqamli yechimlarni sinovdan o‘tkazish va joriy etish jarayonini soddalashtirish;

2. Raqamli yechimlarga investitsiyalarni ko’paytirish: texnologik kompaniyalar bilan kelishuvlarini ko'rib chiqish, potentsial sarmoyaviy sheriklarni aniqlash;

3. Joriy IT tizimlarini tahlil qilish va ular yangi vositalarni qo'llab-quvvatlay olishini aniqlash; bo'shliqlarni aniqlash va ularni hal qilish vaqtini belgilash.

Adabiyotlar:

1. https://data.worldbank.org/indicator/NV.IND.TOTL.ZS
2. www.stat.uz ma’lumotlari-Prezident Huzuridagi Statistika Agentligi
3. Forecast Average Annual Growth Rates 2023-2030. https://www.databasedanalysis.com/global-construction-perspectives/#
4. Usmonov I.A., Boymanov S.A. Qurilish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo’llari bo’yicha o’tkazilgan tadqiqotlar tahlili.//Innova Science. 2023. №2. Sah. 356-363
5. О. С. Голубова. Показатели экономической эффективности строительных работ.// Экономика и управление народным хозяйством. 2018. №3. Стр. 130-138
6. Economics 19th Edition by Paul Samuelson (Author), William Nordhaus (Author). Publisher: McGraw Hill Edition. 19th Publication. Date April 8, 2019
7. Экономика строительного предприятия : учеб. пособие / [М. А. Королева, Е. С. Кондюкова, Л. В. Дайнеко, Н. М. Кара- ваева] ; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. — 202 с.

ZAMONAVIY MASSIVLARDA XIZMAT KO’RSATISHNI BOSHQARISHNING DASTLABKI RIVOJLANISHI

Ismailov Najmiddin Ilxamovich
SamDAQU tayanch doktaranti,

Annotasiya: Muallif tomonidan o’z izlanishidan kelib chiqqan holda, zamonaviy massiv tushunchasiga ta’rif berilgan. Massivlarning tashkily-amaliy jihatlariga tushuntirilgan. Zamonaviy massivlarda xizmat ko’rsatishni boshqarishning daslabki bosqichi va ilk ko’rinishi aks ettirilgan. Shaharlarning paydo bo’lishi hamda uning rivojlanishi ham qisqacha yoritib berilgan. Odatdagi shaharlarning funktsiyasiga ham to’xtalib o’tilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy massivlar, xizmat ko'rsatish, boshqarish, shahar aholi punktlari, qishloq aholi punktlari, rivojlanish, ishlab chiqarish, tashkil etish.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, xozirgi vaqtda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xizmat ko'rsatishga yangi innovatsiyalarni tadbiq etish asosida, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash va xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Buning natijasi mamlakatimizda aholining turmush darajasi oshdi. Albatta, bu mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning natijasidir. Mana shu olib borilayotgan islohatlarni tarkibida zamonaviy massivlarnig paydo bo'lishi va unda xizmatlarni oshishiga ham o'z ta'siri o'tkazayapti. Bu o'z o'rnida zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni boshaqarishni taqoza etadi. Shundan kelib chiqqan holda zamonaviy massivlarda tadqiqot olib borish muhim deb hisoblayman. Zamonaviy massivlar davlatning tarkibiy bir kichik ko'rinishi (qismi)ni o'zida mujassam etadi. Zamonaviy massivlar paydo bo'lishi va rivojlanishiga to'xtalib o'tish muhim deb hisoblayman.

Massivlar deb ko'plab aholini ma'lum hududga jalb qiladigan va birlashtiradigan manzilgohlarni tushunishimiz mumkin. Mana shu tushunchadan kelib chiqqan holda ma'lum ma'noda zamonaviy massivlar aholining yashayotgan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklari ishlab chiqariladigan va iste'mol etiladigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hamdir. Zamonaviy massivlarni boshqarishda har bir aholi massivlarida yashaydigan aholining sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi manzilgohlari, birinchi navbatda, aholining soniga qarab (bir necha kishi yashaydigan mayday qishloqlarda tortib, to bir necha million kishilik aholi bo'lgan eng yirik Shaharlargacha) klassifikatsiyaga ajratiladi.

Zamonaviy massivlarni boshqarishda yashaydigan aholining umumiy soniga emas, balki uning tartibini, xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini, shuningdek har bir massivning bajaradigan funktsiyasini, mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning boshqa aholi manzilgohlari bilan aloqasi, tabiiy geografik o'rnini analiz qilish muhimdir. Shunday qilib, zamonaviy massivlar aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqtirmasdan, balki ishlab chqarish, markazlari, xo'jalik markazlari, madaniy – siyosiy markazlar, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

Massivlar tashkiliy jihatdan shahar va qishloq aholi punktlarida tashkil topishi mumkin. Shahar va qishloq aholisi tafovutlari – har qanday mamlakat yoki hududning iqtisodiy geografik jihatdan ta'riflashning asosidir. O'tmishda shahar aholisi ham qishloq xo'jaligi bilan bevosita shug'ullangan. Lekin bizning zamonamizda aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi turli darajada rivojlangan davlatlarda industrial yoki agrar rivojlanish xususiyatini baholashda ahamiyat kasb etadi.

Shaharlar sonining o'sishi, Shahar aholisi salmog'ining ortishi, Shahar turmush tarzining keng joriy etilishi mamlakatning urbanizatsiyalashuvi deyiladi va ijtimoiy demografik jahududlarga, birinchi navbatda aholi takror barpo bo'lishi, yosh va jins tarkibi, migratsiya xarakteriga va boshqalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Urbanizatsiya darajasini aniqlashda "Shahar" tushunchasi mamlakatda qay tarzda qabul qilinishiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Masalan: Shahar maqomini olish uchun Rossiyada aholi punktida yashovchilar soni 12 ming kishidan oshgan holda ularning 85%i ishchi va xizmatchilar bo'lishi kerak. Daniya, Shvetsiya, Finlandiyada 200 kishilik aholi punkti Shahar maqomini oladi.

Hindistonda aholisi 5000 ming kishidan ortiq, zichligi 1 mil2 ga ming kishi bo'lgan va erkak aholining 15% i qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi punkti Shahar deb ataladi.

Shahar va qishloq aholisining turli ko'rsatkichlr bo'yicha tafovutlari mamlakatlarning ijtimoiy madaniy va iqtisodiy munosabatlarining tarixiy shakllanishi bilan bog'liqdir.

Shaharlar mamlakat va iqtsodiy hududlar geografiyasida o'rganilishi bilan bir qatorda ular alohida tadqiqot ob'ekti bo'lib ham xizmat qiladi. Bu borada, ya'ni Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish tartibi haqida ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'pgina taniqli olimlarning ko'rsatmalari mavjud. Albatta, Shaharlarni o'rgshanish avvalombor ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Natijada, asosan tarixiy manbalarga tayangan holda, o'rganilayotgan Shahar yoki Shaharlarning nima uchun aynan shu joyda va o'tmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi. Shaharlar ma'lum sabab, omil asosida vujudga keladi. Ularning paydo bo'lishi qulay geografik o'rin Bilan bir qatorda turli xil qazilma boyliklarni qazib olish, ilmu-fan, rekraetsiya, savdo-sotiq tarmoqlari, transport kabilarning rivojlanishi bilan bog'liq. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularning ahamiyati, ta'sir doirasi mazkur aholi manzilgohidan chetga chiqadi.

Qadimda Shaharlar savdo-sotiq va hunarmandchilik negizida paydo bo'lishgan. Keyinchalik bunga eng ko'p sanoat va transport sababchi bo'lgan. Qazilma boyliklar asosida shakllangan Shaharlarni ilmiy adabiyotlarga "Resurs shaharlar" deb yuritishadi. Bunday shaharlar, odatda, o'z atrofii, qishloq joylar bilan kam bog'langan bo'ladi.

Shaharlarning aksariyati bizning sharoitimizda, ya'ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda, qishloqlar asosida tashkil etiladi, ular muayyan talab darajasiga etganlaridan so'ng qonuniy ravishda bu rasmiy maqomni olishadi. Shaharlarning bunday genetik xususiyatlari urbanizatsiya jahududining, ayniqsa, qishloq urbanizatsiyasining "Sharqona" rivojlanishidan darak beradi.

Shaharlar kelib chiqishiga qarab, "Yangi" va "Eski" shahar bo'lishi mumkin. Biroq bu tushunchalar nisbiydir. Sababi yaqingacha biz sobiq sho'rolar davrida

vujudga kelgan shaharlarning barchasini "Yangi shaharlar" guruhiga kiritar edik. Hozir esa yangi shaharlarni mustaqillik davri bilan belgilash tug'riroqdir.

Biroq, aholi manzilgohining yuridik ravishda Shahar maqomiga ega bo'lishi uning haqiqiy yangiligini ifodalamaydi. Chunki bunday aholi yashaydigan joylar qadim-qadimdan mavjud. Masalan, Chust shahri so'nggi marta Shahar unvonini rasmiy ravishda 70-yillarda oldi, vaholanki uning real tarixi bir necha yuz yilliklarnio'z ichiga oladi. Huddi shunday, G'ijduvon, Pskent, Nurota, Rishton va hokazolar ko'p yillik tarixga ega.

Aslida olganda, yangi Shahar deyarli "bo'sh" joyda, yaqinda barpo bo'lgan, arxitektura qurilish, obodonchiligi bilan ajralib turadi. SHu bilan birga echki qishloqning yangi yirik qurilish tufayli o'z qiyofasini tubdan o'zgartirish, aholi sonini bir necha marta ko'paytirishi ham uning Yangi Shahar deb atalalishiga asos bo'ladi oladi.

Shaxarlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi. Bunda bosh mezon qilib Shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi, ya'ni qaysi sohada mehnat resurslari ko'proq (mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori) bo'lsa, o'sha yo'nalish mazkur Shaharlarning funksional tipini ifodalab beradi.

Odatda Shaharlar quyidagi funksional tiplarga bo'linadi.

1. Ko'p funksiyali siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt Shaharlar.
2. Ko'p funksiyali shaharlar – viloyat markazlari.
3. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
4. Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan Shaharlar.
5. Transport markazlari.
6. Agroindustrial shaxarlar.
7. Tuman markazlari.
8. Rekreatsiya shaxarlari.
9. Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va h.k.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishi, xususan mujassamlashuv natijada turli funksional tip va yiriklikdagi Shaharlarning bir joyda g'uj holda o'rnashgan shakli vujudga keladiki, ularni ilmiy adabiyotlarda Shahar aglomeratsiyasi deb ta'riflashadi. "Aglomeratsiya" so'zi geologiyadagi "aglomerat" ni eslatadi, ya'ni bir hududda to'p bo'lib joylashganlikni anglatadi, iqtisodiyot va ayniqsa g'arbda shakllangan mintaqaviy iqtisodda esa sanoat aglomeratsiya-sanoat korxonalarini bir nuqtada to'planganligini bildiruvchi tushuncha mavjud. Shunga mos ravishda aglomeratsion omil va aglomeratsion effekt (samaradorlik) ibarasi ham bor.

Aglomeratsiyaning vujudga kelishi taxminan quyidagi sxemada (tartibda) amalga oshadi. Qulay iqtisodiy geografik o'rniga ega bo'lgan Shahar asta-sekin yiriklashib boraveradi. Sababi – u o'ziga barcha yangi –yangi sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish muassasalari, oliy o'quv yurtlari, moliya-bank tashkilotlari va boshqalarni tortaveradi. Bu paytda shaharning tortish kuchi, markazga intiluvchi harakat avjda bo'ladi.

Shaharlarning yoyilib ketishi, qimmatni qishloq xo'jalik erlari hisobidan kengayishi ma'lum darajagacha davom etib boraveradi. Keyinchalik shahar hududining cheksiz kengayishi to'xtab "qoladi", u tog' yoki daryo, davlat chegarasi yoki dengiz kabi to'siqlarga duch keladi, shahar ichida esa uy-joy, transport, ekologiya muammolari keskinlashadi. Natijada o'ziga xos "revolyusion vaziyat" vujudga keladi: yirik shahar muhiti, uning fan-texnika, infrastruktura salohiyati o'ziga yangi-yangi korxonalarni jalb qiladi, biroq yuqoridagi qiyinchiliklar buni cheklab qo'yadi. Ana shunday tartibda, yirik Shaharga yaqin joyda uni to'ldiruvchi, ixtisoslashgan shahar va shaharchalar vujudga keladi. Bunday "yo'ldosh" Shaharlarda markaziy Shahar ehtiyojini qondiruvchi yoki unga xizmat qiluvchi ob'ektlar o'rnashadi. Shunday qilib, yirik shaar o'z rasmiy chegarachidan chiqadi, miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tadi, hududiy mujassamlashuv o'z shaklini o'zgartiradi va Shaharlarning hududiy to'plami paydo bo'ladi.

Ko'pgina dasturlar qurilish va me'moriy ish sohalarida xarajatlar va materiallar, xizmatlar iste'molchilar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Qurilish tashkilotlarining nazorat tizimlari texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib, tezkor boshqaruv tizimini joriy qilish, qurilish kompaniyalari iqtisodiy holatini yaxshilash uchun yordam beradi. Bunda eng sungi axborot texnologiyalaridan va kompyuter tizimlaridan hamda dasturiy ta'minotlarni yaratish, ishlab chiqish, undan amalda foydalanish muhim axamiyat kasb etadi.

Qurilishni tashkil etish uchun axborot texnologiyalarini sohalar buyicha qo’llash, qurilayotgan inshootlarini tartibga solish, boshqarish va qilinadigan xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Qurilish sohasida turli balkalar, fermalar va plitalarni hisob-kitoblarini amalga oshirishda avtomatlashtirilgan **Lira** dasturining xizmatlari beqiyosligicha qolmoqda.

Qurilish sohasida axborot texnologiyalarining o‘rni va samarasi juda kata bo’lib, ular quyidagi yo'nalishlarda o'zini namoyon etadi:

Loyiha boshqaruvi: Axborot texnologiyalari yordamida loyihalarni rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish jarayonlari samarali amalga oshiriladi. Bunga loyiha boshqaruv dasturlari (masalan, Microsoft Project) yordamida resurslarni taqsimlash va muddatlarni belgilash kiradi.

Model yaratish: 3D modellashtirish va BIM (Building Information Modeling) texnologiyalari qurilish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar loyiha davomida barcha ma'lumotlarni bir joyda to'plash va tahlil qilish imkonini beradi.

Komunikatsiya: Axborot texnologiyalari jamoa a'zolari o'rtasida tez va samarali aloqani ta'minlaydi. Masofadan ishlash imkoniyatlari, video konferensiyalar va onlayn kommunikatsiya vositalari yordamida jamoalar orasidagi o'zaro aloqalar yaxshilanadi.

Ma'lumotlar tahlili: Qurilish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xavf-xatarlarni boshqarish imkoniyatlari yaratiladi.

Xavfsizlik va sifatni nazorat qilish: Axborot texnologiyalari yordamida qurilish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash va sifatni nazorat qilish osonlashadi. Sensorlar va IoT (Internet of Things) texnologiyalari orqali real vaqtda ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi.

Moliya va budjet nazorati: Axborot texnologiyalari moliyaviy rejalashtirish va budjet nazoratini osonlashtiradi, bu esa qurilishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Bu omillar qurilish sohasidagi samaradorlikni oshirishga, vaqtni tejashga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Shular qatorida arxitektura qurilish sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qurilish jarayoni samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, binolarni loyihalashda va modellashtirishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari va modellashtirish dasturlari hamda 3D printerlardan foydalanishni aytib o‘tish lozim.

Masalan Zamonaviy 3D printerlar: Ultimaker B.V. tomonidan ishlab chiqarilgan Ultimaker 2 printeri 3D bosib chiqarish texnologiyasidan foydalangan. Ushbu model polietit, tormoz va xlorli polietilen (CPE)dan 223x223x205 mm gacha bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. 3D printerlar yordamida zamonaviy kichik modellarini qisqa vaqtda samarali yechim toppish imkonini beradi.



1-rasm. 3D printer Ultimaker 2.

Ananaviy boshqaruv va nazorat, ishlab chiqarilayotgan materiallar va qurilish ashyolarini o'z vaqtida joylarga yetkazib berish hamda zarur uskunalar bilan ta’minlash, loyihalash va boshqarish sohasiga mo'ljallangan maxsus dasturdan foydalanish ularni o’rganishga olib keladi. Axborot texnologiyalarini qurilish boshqaruvi uchun qo’llash jahon moliyaviy standartlariga javob beradi deb aytish mumkin.

Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ma’lumotlar bazasining o'rni barcha sohalarni rivojlantirishda beqiyos xizmat qilib kelmoqda, shunday ekan qurilish sohasida ham avtomatlashtirilgan tizimlarni tashkil qilishda ma’lumotlar bazasidan faydalanmasdan iloji yo‘q. Masalan, oddiy qurilish materiallarini elektron do‘konini tashkil qilishda ularni sotish, pul o‘tkazish va ko‘chirish, qurilish materiallarining elektron bazalari ustida amallar bajariladi. Qurilishni tashkil etish uchun ketadigan barcha turdagi materiallarni hisoblash va hisobotini chiqarish, agar yangi materiallar berilsa ularni qo‘shib borish va o‘xshash amallarni bajarish ma’lumotlar bazasidan foydalanish demakdir.

Shunday ekan qurilish sohasidagi ma’lumotlar bazasini yaratish hamda ular bilan ishlashdagi dasturlarni o’rni va samarasi beqiyos bo’lib ularni bir nechtasini keltirib o’tish mumkin:

1. **MySQL**: Ochiq manba ma’lumotlar bazasi boshqaruv tizimi, juda keng tarqalgan va ko'p dasturlar bilan mos keladi.
2. **PostgreSQL**: Yana bir ochiq manba tizim, yuqori darajadagi funktsiyalarga ega va murakkab ma’lumotlar tuzilmalarini qo’llab-quvvatlaydi.
3. **Microsoft SQL Server**: Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan, kuchli va keng ko’lamli funktsiyalarni taqdim etadi, ko'pincha biznes muhitida ishlatiladi.
4. **Oracle Database**: Katta korxonalar uchun mo'ljallangan, yuqori darajadagi xavfsizlik va kengaytiriladigan funktsiyalarni taklif etadi.
5. **SQLite**: Yengil va oson ishlatiladigan, ko’plab dasturlar uchun ichki ma’lumotlar bazasi sifatida qo’llaniladi.

6. **MongoDB**: NoSQL ma'lumotlar bazasi, hujjatga asoslangan modelga ega bo'lib, moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Bu dasturlar barcha sohalar kabi qurilish sohasidagi ma'lumotlar bazasini yaratish, turli maqsadlar va ehtiyojlar uchun mos keladi. Ushbu dasturlardan qurilish sohasida oqilona foydalanish mumkin.

Qurilish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash bir qator asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Jumladan:

- **BIM (Building Information Modeling)**: Qurilish loyihalarini 3D modellashtirish orqali rejalashtirish, dizayn va boshqarishni takomillashtiradi. Bu jarayonning barcha bosqichlarida ma'lumotlarni yaxlitlashtirish va boshqarish imkonini beradi.
- **Dronlar**: Dronlar qurilish maydonlarini kuzatish, o'lchovlar olish va xavfsizlikni ta'minlashda qo'llaniladi. Ular tez va aniq ma'lumotlarni taqdim etadi.
- **IoT (Internet of Things)**: Qurilish obyektlarida sensorlar yordamida ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu qurilishni monitoring qilish va energiya samaradorligini oshirishda foydalidir.
- **O'zaro aloqalar platformalari**: Qurilish jarayonida jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun onlayn platformalar yordamida loyiha ma'lumotlari, vaqt jadvallari va moliyaviy resurslarni boshqarish mumkin
- **VR va AR**: Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari loyihalarning vizualizatsiyasini taklif etadi, bu esa loyiha ijrochilari va mijozlarga yaxshiroq tushuncha berish imkonini yaratadi.
- **Ma'lumotlarni tahlil qilish**: Qurilish jarayonidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish va muammolarni oldini olish mumkin.
- **Moliya va resurslarni boshqarish tizimlari**: Qurilish xarajatlarini nazorat qilish va moliyaviy resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.
- **AI (Sun'iy intellekt)**:Qurilish jarayonlarida sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlar qilish mumkin. Bu loyiha muddatlari va xarajatlarni boshqarishda yordam beradi.

Bu texnologiyalar qurilish jarayonini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki axborot texnologiyalarining qurilish sohasida qo'llanilishi samaradorlikni oshirib, resurslarni yanada oqilona ishlatishga, shuningdek, sifatni yaxshilashga olib keladi. Kelajakda bu yo'nalish yanada rivojlanib, qurilish jarayonlarining yanada innovatsion va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1.U.A.Shadmanova, F.S.Islamova, E.Sh.Qurbonov. Qurilishda axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma TOSHKENT – 2018

2. http://www.deloros.ru/main.php Axborot texnologiyalari. [Elektron resurs]

3. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. 394 bet.

4. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: «Fan va texnologiya», 2018, 172 bet.

5. http://www.coinspot.io/analysis –Web sahifasi.

6. http://www.bitnovosti.com -Web sahifasi

ARXITEKTURAVIY LOYIHALASHDA BIM (Building Information Modeling) TEXNOLOGIYASINING ROLI

Toshtemirov Bobur Rovanovich
SamDAQU Arxitektura kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada BIM (Building Information Modeling) texnologiyasining afzalliklari hamda talabalarga real hayotdagi loyihalar bilan ishlash imkoniyatini berish, ularning tajribasini oshirish, amaliy mashg'ulotlar orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: BIM, kompyuter, grafika, 2D, 3D, texnika, dastur, resurs, texnologiya

Kirish. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi talabalarga bir qator afzalliklar taqdim etadi:

Yuqori sifatli o'qitish - BIM talabalarga loyiha yaratish jarayonida samaradorlikni oshirish va muammolarni oldini olish imkonini beradi. Bu, o'qitishda amaliy bilimlarni qo'llashni rag'batlantiradi.

Ko'p tomonlama ko'nikmalar - talabalar BIM orqali 3D modellashtirish, muhandislik, arxitektura va qurilish jarayonlari haqida keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishadi.

Hamkorlik - BIM jamoaviy ishlashni osonlashtiradi. Talabalar birgalikda loyiha ustida ishlash orqali jamoa ishining ahamiyatini tushunadilar.

Maqsadli o'qitish - BIM yordamida talabalar real loyiha misollarida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yaxshilaydi.

Innovatsion texnologiyalar - BIM texnologiyalari talabalarni zamonaviy dasturlarga va uslublarga o'rgatadi, bu esa ularga kelajakdagi ish bozorida raqobatbardosh bo'lishlariga yordam beradi.

Resurslarni boshqarish - BIM yordamida talabalarga resurslar va vaqtni samarali boshqarish ko'nikmalari o'rgatiladi, bu esa loyiha boshqaruviga tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega [1,3].

Asosiy qism. Bularning barchasi talabalarni qurilish sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlashga yordam beradi. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini talabalarga yuqori sifatli o'qitish bir necha asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi (1-jadval):

1-jadval

Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish	Interaktiv ta'lim	Jamoaviy loyihalar	Texnik bilimlar	Sertifikatlash	Tadqiqot va innovatsiyalar
Talabalarga real hayotdagi loyihalar bilan ishlash imkoniyatini berish, ularning tajribasini oshiradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash muhimdir	BIM dasturlarini ishlatish bo'yicha interaktiv darslar va seminarlar o'tkazish, talabalarni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Virtual va qo'llanmalar orqali o'qitish metodikasi samarali natijalar beradi	Talabalar jamoa bo'lib ishlashlari kerak, chunki BIM asosan hamkorlikda ishlashga mo'ljallangan. Bu ularga loyiha boshqarish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi	Talabalarga BIM texnologiyasining asosiy tushunchalari, dasturlari va metodologiyalari haqida chuqur bilim berish zarur. Bu o'z ichiga 3D modellashtirish, ma'lumotlarni boshqarish va loyiha analitikasi kiradi	Talabalarga BIM bo'yicha sertifikatlar taqdim etish, ularning malakasini oshirish va ish beruvchilar oldida raqobatbardoshligini ta'minlashga yordam beradi	Talabalarni BIM texnologiyalarini rivojlantirish va yangi yondashuvlar ustida tadqiqot olib borishga rag'batlantirish, ularning ijodkorligini oshiradi

Bu yondashuvlar orqali BIM texnologiyasini o'qitish, talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli bo'ladi, ularni kelajakdagi ishlariga tayyorlaydi. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi talabalarda bir qator tomonlama ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Texnik ko'nikmalar. Talabalar 3D modellashtirish, vizualizatsiya va ma'lumotlarni boshqarish kabi texnik ko'nikmalarni o'rganadilar. BIM dasturlarini ishlatish ularga zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi [4].

Loyiha boshqaruvi. BIM orqali talabalar loyiha rejalarini yaratish, muddatlarni belgilash va resurslarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularni samarali loyiha menejerlari bo'lishga tayyorlaydi.

Hamkorlik va jamoa ishlashi. Talabalar jamoaviy loyihalarda ishtirok etish orqali muammolarni hal qilish, fikr almashish va ishni birgalikda bajarish ko'nikmalarini egallaydilar.

Muammoni hal qilish qobiliyati. Real loyiha misollarida ishlash, talabalarni kreativ fikrlash va muammolarni tezda hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tahliliy fikrlash. BIM texnologiyalari yordamida loyihalarni tahlil qilish, ma'lumotlarni tushunish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshqaruv va innovatsiyalar. Talabalar yangi usullarni joriy etish va loyihalarda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Kompyuter ko'nikmalari. BIM dasturlarini o'rganish, talabalarni kompyuterda ishlash va dasturlash ko'nikmalarini oshiradi, bu esa ularning texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi [2].

Bularning barchasi talabalarni qurilish sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlaydi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi talabalarga loyiha boshqaruvini o'rgatishda quyidagi usullar va yondashuvlarni qo'llaydi (2-jadval):

2-jadval

1	**Loyihalash jarayoni**	Talabalarga loyiha hayoti davomida (konseptsiyadan to qurilishgacha) barcha bosqichlarni tushuntiradi. Bu bosqichlar ichida loyiha rejalashtirish, dizayn, qurilish va foydalanish o'rganiladi
2	**Resurslarni boshqarish**	BIM yordamida talabalar loyiha uchun kerak bo'ladigan materiallar, ishchilar va vaqtni rejalashtirish va boshqarishni o'rganadilar. Bu ko'nikma samaradorlikni oshirishga yordam beradi
3	**Xatolarni aniqlash va oldini olish**	Talabalar BIM yordamida loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan aniqlash va ularni hal etish usullarini o'rganadilar. Bu "conflict detection" va "clash detection" kabi imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi

4	**Ma'lumotlarni tahlil qilish**	Talabalar loyiha uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu qaror qabul qilish jarayonini yaxshilaydi
5	**Jamoaviy ishlash**	BIM platformalari orqali talabalar jamoa bo'lib ishlashni o'rganadilar. Bu ularning kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki loyiha muvaffaqiyati ko'pincha jamoaning birligi va koordinatsiyasiga bog'liq
6	**Vizualizatsiya va taqdimot**	Talabalar BIM yordamida loyihalarni vizualizatsiya qilish va taqdim etish ko'nikmalarini o'rganadilar, bu esa ularni investorlarga yoki boshqa manfaatdor tomonlarga taqdim etish jarayonida yordam beradi
7	**Iqtisodiy hisob-kitoblar**	Talabalarga loyiha xarajatlarini rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, iqtisodiy tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatadi. Bu moliyaviy boshqaruvning muhim qismidir

Revit dasturi va BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi talabalarga bir-biri bilan yaqindan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar taqdim etadi. Ularning aloqasi quyidagilardan iborat:

1. **BIM dasturi sifatida Revit**: Revit — bu BIM texnologiyasiga asoslangan dastur bo'lib, arxitektorlar, muhandislar va quruvchilar uchun loyiha yaratish va boshqarishda keng qo'llaniladi. Talabalar Revit orqali BIMning asosiy tushunchalarini amalda o'rganadilar.
2. **3D modellashtirish**: Revit dasturi talabalarga 3D modellar yaratish imkonini beradi. Bu, ularning loyiha dizaynini va muhandislik yechimlarini vizualizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
3. **Hamkorlik imkoniyatlari**: Revit yordamida talabalar jamoa bo'lib ishlashni o'rganadilar. Bir vaqtning o'zida bir necha mutaxassislar (arxitektor, struktural muhandis, MEP muhandisi) bir xil model ustida ishlashlari mumkin, bu esa ularga hamkorlikni va muammolarni hal qilishni osonlashtiradi.
4. **Ma'lumotlarni boshqarish**: Revitda yaratilgan modellar keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Talabalar bu ma'lumotlardan foydalanib, loyiha xarajatlarini, muddatlarini va resurslarni rejalashtirishni o'rganadilar.
5. **Simulyatsiya va tahlil**: Revit yordamida talabalar turli simulyatsiyalar (masalan, energiya samaradorligi, yoritish va akustik) o'tkazish imkoniyatlarini o'rganadilar, bu esa loyihalarni yanada samarali va ekologik jihatdan qulay qilishga yordam beradi.
6. **Professional tayyorgarlik**: Revit va BIM texnologiyalarini o'rganish orqali talabalar zamonaviy qurilish sohasida talab etiladigan ko'nikmalarni egallaydilar, bu esa ularni ish beruvchilar uchun raqobatbardosh qiladi.

Shu sababli, Revit dasturi BIM texnologiyasining amaliy vositasi bo'lib, talabalarga o'zlarining professional ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda loyihalash ishlarini BIM texnologiyalari bajarmoqda. Shu bilan birga 3d tasvirlar, yorug'lik va materiallarni sxematik ko'rinishdan fotorealistik ko'rinishga keltiradi. Hosil bo'lgan va real hayotdagi tasvirlar orasida deyarli farq bo'lmaydi. Videotasvirlarni yaratishda virtual kamerani huddi operator kabi harakatga keltiriladi. Tasvir sifati 1 sekunddagi kadrlar sonini ixtiyoriy yoki standartlar asosida sozlash mumkin. Videotasvirlar fototasvirlarga qaraganda loyiha haqida ancha to'liq ma'lumot beradi, ammo renderlash jarayonida ko'p vaqt sarf etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Петров М. Н. "Компьютерная графика", 2011 г.
2. Миловская О.С."3ds Max 2019. Дизайн интерьеров и архитектуры", 2019г.
3. Кристофер Б."3D-печат" 2020 г.
4. Babakandov, O. N., Xakberdiyev, A. M., & Toshtemirov, B. R. (2024). ZAMONAVIY ARXITEKTURADA SHAFFOF SHAKLLAR. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 93-96.

BO'LAJAK MUHANDISLARNI LOYIHALASH FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MULTIMEDIALI KONTENTLARDAN FOYDALANISH

Axmedova Aziza Erkinovna
SamDAQU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi,

Annotatsiya: Faktorli modelga ko'ra, multimediali taqdimot insonga axborot yordamida tasir etishning yagona va zamonaviy shakli hisoblanadi. Ushbu maqolada muhandislik sohasida ta'lim oluvchi talabalarning loyihalash faoliyatini o'zlashtirishda multimediali kontentlardan foydalanish samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muhandislik sohasida loyihalash bosqichi asosiy bosqichlardan biri ekanligini hisobga olib multimediali kontentlardan foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lib qomoqda.

Kalit so'zlar: elektron muhit, muhit, multimedia, tahsil muhiti, predmetli muhit "e-learning" ("e-Learning"), "e-education".

Аннотация: Согласно факторной модели, мультимедийная презентация является единственной и современной формой воздействия на людей с помощью информации. В данной статье представлена информация об эффективности использования мультимедийного контента при освоении проектной деятельности студентов инженерных специальностей. Учитывая, что этап проектирования является одним из основных этапов в области инжиниринга, использование мультимедийного контента сегодня приобретает большое значение.

Ключевые слова: электронная среда, среда, мультимедиа, среда обучения, предметная среда, “e-learning” (“e-Learning”), “e-education”.

Annotation: According to the factorial model, the multimedia presentation is unique and contemporary in the form of human behavior with help of information. This article presents information on the effectiveness of using multimedia content in mastering project activities of engineering students. Considering that the design stage is one of the main stages in the field of engineering, the use of multimedia content is of great importance today.

Key words: electronic environment, environment, multimedia, educational environment, subject environment, "e-learning" ("e-Learning"), "e-education".

Hozirgi vaqtda pedagogika nazariyasi va amaliyotida elektron ta‘lim muhit fenomenini o‘rganish turli jihatlarda amalga oshirilmoqda. Elektron ta‘lim muhitining pedagogik talqinini ko‘rib chiqish uchun dastlab muhit, elektron muhit singari tushunchalar mohiyatini ko‘rib chiqmasdan turib bu maqsadga erishish imkonsiz. Tadqiq qilinayotgan muhitning yo‘nalishga ega ekanini hisobga olib, jamiyat axborot-texnologik taraqqiyoti hozirgi darajasiga muvofiq uning tuzilmaviy-funksional xarakteristikasini aniqlashtirishni zarur deb hisoblaymiz. Pedagogikada muhit muammosi xorijlik olimlar tomonidan ham tahlil qilingan. Xususan barkamol shaxsni kamolga yetkazish uchun ijodiy ta‘lim muhiti‖ni yaratish maqsadga muvofiqdir deb hisoblagan. J. Dyui ta‘lim muhitida insonni erkin tarbiyalash muammosini tahlil qilgan. U o‘z tadqiqolarida, pedagog faoliyati davomida har bir tarbiyalanuvchi – individaulligini to‘la namoyon qilishi uchun maqbul sharoitlar‖ yaratishga qaratishi lozimligiga alohida ahamiyat qaratadi. Yigirmanchi asr oxiri – yigirma birinchi asr boshiga kelib, ta‘lim muhitining ichki tuzilmasini va uning shaxsga tahsirini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari ko‘paydi. Ushbu tendentsiya yuzaga kelishiga ta‘lim sohasini insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish hodisalari sabab bo‘ldi. Bundan tashqari uni mahalliy va xorijlik olimlarning muhitli yondashuvga e‘tiborini qaratishi, ta‘limning shaxsga yo‘naltirilganlik tavsifining kuchayishi, axborotlashish, eko va infopsixologiya rivoji bilan izohlash mumkin [1]. Qayd etish joizki, zamonaviy pedagogikada ta‘lim muhiti tushunchasining mazmun-mohiyati ijtimoiy-madaniy makonga mansublik, ta‘lim tizimlari, ularning unsurlari va ta‘lim jarayoni subhektlarining o‘zaro tahsirlashuvi orqali ochib beriladi. Ta‘lim muhiti mohiyati va tarkibini aniq belgilash borasida yagona yondashuv mavjud emas. SHu munosabat bilan tahkidlash joizki, ta‘lim makoni va ta‘lim muhiti‖ tushunchalari mazmuni, ko‘lamlari va nisbati haqida bahs yuritish va uni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish biz uchun ko‘proq qiziqarlidir. Bunday deyishimizga sabab ayrim mualliflar makon kategoriyasini “muhit” so‘ziga ma‘nodosh deb biladi. Biz esa, o‘z navbatida, ta‘lim makoni tushunchasini qamrovi jihatidan ancha keng deb hisoblaymiz. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda keltirilgan yondashuvlardan, bu tushuncha tahrifiga tizimlashtirish hamda ular orasida tarkibiy-ma‘noviy, funktsional va integrativ yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin [2]. Tarkibiy-ma‘noviy yondashuv ta‘lim makoni‖ tushunchasi mohiyatini kengroq ochish imkonini beradi. Bunda uning tarkibiga kiruvchi komponentlar, ularning bosh maqsad – shaxsni kamol toptirish va savodli qilishga erishish uchun o‘zaro aloqasi va hamkorligi tasviri va tahlili yordamiga tayaniladi. Funktsional yondashuv esa ta‘lim makoni tavsiflarini, uning hududiy mansubligi sifat va o‘ziga xosliklarini alohida ko‘rsatishni nazarda tutadi. Unga: insonning ta‘lim olish harakatlarini amalga oshirish uchun joy; ko‘plab munosabatlar va aloqalar amalga oshadigan, individ va uning ijtimoiylashuvini rivojlantirish borasida turli tizimlar (davlat, jamoat) maxsus faoliyatlar ko‘rsatadigan sotsiumdagi muayan joy deb ko‘rsatilgan. Integrativ yondashuv haqida fikrlar va uning mohiyati yuqorida tasvirlangan pozitsiyalarni sintez qilish g‘oyasi negizida ochib beriladi. Xususan, ta‘lim makoniga sotsium va jahon ta‘lim makonining yaxlit integrativ birligi deya baho berilib, bu birlik normativ va stixiyali qurilgan va o‘zining koordinatalar tizimiga ega deb tahriflangan. Ular shaxs voyaga yetishi turli bosqichlarida kamol topishi uchun imkoniyatlar taqdim etadi. Shunday qilib, biz ―ta‘lim makoni‖ tushunchasi ko‘p aspektli va bir ma‘noli tahrifga ega emas degan xulosaga keldik. Uning tahkidlashicha ta‘limi makoni atamasini ―ta‘lim muhiti‖ tushunchasiga ma‘nodosh sifatida; ta‘lim va ijtimoiy amaliyotdagi voqealar masshtabi bilan bog‘liq hududiy kategoriya sifatida; ta‘lim sohasidagi konstruktiv faoliyat samarasi sifatida; ijtimoiy makon darajasi sifatida olinishi mumkin[3]. Bizningcha, ta‘lim muhiti ta‘lim makoning komponentni sifatida namoyon bo‘ladi va quyida ko‘rib chiqiladigan barcha muhit turlari uchun o‘zak tushuncha hisoblanadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilishimiz natijasida chiqargan ikkinchi xulosamiz quyidagidan iborat: muhit va insonning o‘zaro tahsirlashuv mexanizmi oxirigacha tadqiq etilmagan hamda u doimiy davom etuvchi jarayon bo‘lib, uni har doim o‘rganib borish maqsadga muvofiqdir. Fanda muhit va inson aloqaga kirishuviga oid turli kontseptsiyalar mavjud. Ularni shartli ravishda ―faktorli va ―molekulyar kontseptsiyalarga ajratish mumkin. Birinchisi, insonning muhit bilan aloqasini

zarurat va majburiyat yuzasidan tadqiq etishni nazarda tutsa, ikkinchisi esa, subektga tanlash huquqini tadqim etuvchi munosabtlar erkin tavsifini o‘rganishga yo‘naltirilgandir. Faktorli modelga ko‘ra, muhit insonga tahsir etish stimuli va qo‘zg‘ovchisi sanalgan sharoit va komponentlar majmuasidir, muhitda - funktsiya bajaruvchi tizimlarda yuz beradigan o‘zgarishlarni tasvirlash imkonini beradi. Molekulyar modelga esa makon va zamon haqidagi tasavvurlarga tayanadi, joy kategoriyasi bilan aloqador va muhitning tarkibini ifoda etadi. Qayd etib o‘tilgan kontseptsiyalar esa bir birini to‘ldiradi. Shunga asoslangan holda ta‘lim muhitining tarkibiy tuzilmasini tavsiflaymiz va uning xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatamiz[4]. Keltirib o‘tilgan yondashuvlar tahlili bizga shunday xulosa qilish imkonini beradi, ta‘lim muhiti tarkibi quyidagi xarakteristikalar orqali belgilanishi shart: tashkil etish usuli (qanday?), o‘zaro tahsir turi (kim?), potentsial (nima?). Shunga yaqin pozitsiya tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan, unda ta‘lim muhit tarkibi ikki komponenti ajratib ko‘rsatilgan: ta‘lim jarayoni subhektlari va uning obhektlari. Birinchi komponent haqida gap ketsa, ta‘lim oluvchi va o‘qituvchilar tushuniladi; ikkinchi komponent boshqaruv sohasi, o‘qitish vositalar, metodikalar, moddiy baza orqali namoyon bo‘ladi[5]. Ushbu nuqtai nazarlarni umumlashtirib, tahkidlash joizki, aynan subhekt komponenti alohida ahamiyat kasb etadi. U muhitni tashkil etish va shakllantirishda tizim yaratuvchisi hisoblanadi. Aynan o‘zaro ta’sir omili muhitni yaratish uchun zarur shart hisoblanadi: atrof olamning subyekt o‘zaro ta’sirlashadigan muayyan qismi muhit sanaladi[6]. Ta‘lim yo‘nalishiga ega muhitning psixologik-pedagogik adabiyotda taqdim etilgan ma‘noviy tavsiflarini belgilab olamiz: voqeaviylik, vektorlilik; tizimlilik,to‘yinganlik, qurilganlik, istisno sanalgan qayishqoqlikva boshqalar.Ta‘lim yo‘nalishiga ega muhit tarkibi, uning xossalari, tavsiflarini ifodalovchi yagona yondashuvning yo‘qligi tarkibi bo‘yicha bir jinsli muhitlar sinflarini tizimlashitirish va ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lishini taqozo etdi[7]. Ayni vaqtda, qayd etish kerak, qathiy tasniflash haqidagi masala umuman to‘g‘ri emas. Ta‘lim yo‘nalishiga ega muhitlar sinflari o‘zaro kesishi va bir birini to‘ldirishga qodir. Ehtimol tipologiyaga ajratish uchun asos sifatida quyidagi tavsiflar tanlanishi mumkin: masshtablilik, tashkil etish usullari, bilimlarni yetkazish va ta‘lim jarayoni subhektlari o‘zaro tahsirlashuvi, turli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish. Bunday yondashuv esa ta‘lim muhitlarining quyidagi tipologiyasini ajratib ko‘rsatishga sharoit yaratdi. Shunday qilib, ta‘lim muhitini ta‘lim makonining tarkibiy elementi sifatida qarab, bu muhit o‘z tarkibi bo‘yicha bir jinsli emasligiga guvoh bo‘layapmiz. Muhitning bir jinsli emasligi eng avvalo uning ko‘p komponentli ekanligi bilan izohlanadi. Demak, tahsil muhiti, o‘quv muhiti, ta‘lim muhiti, predmetli muhit – ta‘lim muhitining tarkibi sifatida qaralishi mumkin[8]. Bu holatda aytib o‘tilgan tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga baho berish va ularning o‘ziga xosligini aniqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi[9]. Tahkidlash joiz, bu masala psixologik-pedagogik tadqiqot ishlarida bahsli mavzu sanaladi va Shunga munosib alohida e‘tibor qaratish lozim.

1-jadval.

Ta’lim muhitlarining tipologiyasi

Sifat belgisi	Turlari
Qulayligi	Mamlakat miqyosidagi ta‘lim muhiti
	Mintaqa miqyosidagi ta‘lim muhiti
	Ta‘lim muassasi ta‘lim muhiti: (oliy o‘quv yurti, proffessional va umumiy o‘rta maktab ta‘lim muhiti)
	Mashg‘ulotlar bo‘yicha ta‘lim muhiti
Tashkil etish usullari	Bir tamoyil bo‘yicha tashkil topgan muhit
	Turli xil tamoyillar bo‘yicha tashkil topgan muhitlar
	Variativlik tamoyili muhiti
Bilimlar taqdim etish, ta‘lim jarayoni subhektlari o‘zaro tahsirlashuvi	Bilim taqdim etishga yo‘naltirilgan muhitlar
	Bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan muhitlar
	Muhit aralash turlari
Kompyuterdan ta‘lim vositasi sifatida foydalanish	Axborot-ta‘lim muhiti
	Elektron axborot-ta‘lim muhiti
	Adaptiv ta‘lim muhiti
	Elektron ta‘lim muhiti
	Multimediyali ta‘lim muhiti
	Virtual ta‘lim muhiti
	Ochiq ta‘lim muhiti

Ta‘lim muhitlarini yaratish va amaliyotga qo‘llash masalalari kengroq o‘rganiladigan soha bo‘lib, tahsil muhitini dinamik tizim – bir-birining o‘rnini bosqichma-bosqich almashtiruvchi ta‘limiy vaziyatlar yig‘indisi sifatida tadqiq qilinadi. Shunday qilib, xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin, ta‘lim makoni, ta‘lim muhiti, tahsil muhiti, predmetli muhit tushunchalari umumiy belgilari asosida qiyoslanishi va o‘zaro muvofiq deb topilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Savurbaev, A., Dangalov, N. A., Shertoyloqov, G. M., & Eshonkulov, SH. U. (2014). Algoritm rascheta perexodnogo protsessa pri udare tsilindricheskogo kolg‘tsa o jestkoe poluprostranstvo. Molodoy uchenqy, (8), 246-250.

2. Savurbaev, A., Muxammadiev, M. T., Eshankulov, SH. U., & Guliev, A. A. (2015). Kosoy udar tsilindricheskogo kolg‘tsa o jestkoe poluprostranstvo. Molodoy uchenqy, (1), 97-102.

3. Eshonkulov, SH., Burliev, A., & Eshonkulova, SH. (2019). Nauchno-metodicheskiy podxod k sozdaniyu elektronnogo uchebnika.

4. Zaytseva, Ye.M. Texnologiya upravleniya razvitiem informatsionnoy kompetentnosti studentov radiotexnicheskix spetsialg‘nostey: diss. kand. ped. nauk: 13.00.08. Ijevsk, 2007. 194 s.

5. Eshonqulov, S. (2021). The Current State of Design and Develo‘ment Challenges and S‘ecial Activities in the E-Learning Environment. Central asian journal of mathematical theory and com‟uter sciences, 2(9), 48-50. Retrieved from

htt‘://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.‘h‘/CAJMTCS/article/view/104 14-15.03.2024 151

6. Eshonqulov, S., Jabborov, K., Kulmatov, A., & Eshonqulova, S. (2021). Fanlarni o‘qitishda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish uslubiyati. Jurnal innovatsii v nachalg‟nom obrazovanii, 2(3).

7. Eshonqulov, S., Yetmishov, X., Eshonqulova, S., & Mamurova, G. (2021). Innovatsion texnologiyalardan ta‘lim jarayonida foydalanish. Jurnal innovatsii v nachalg‟nom obrazovanii, 2(3).

8. Ummatovich, E. S., & Fozilovich, E. K. (2022, February). Design and training of future engineers in e-learning environment Pedagogical problems. In Conference Zone (pp. 92- 96).

9. Eshonqulov, S. U. (2023). Signal protsessorlarida parallellashtirish orqali algoritmi va dasturlash jarayoni.

SAMARQAND VILOYATINING O‘RTA ZARAFSHON VODIYSI HUDUDIDA JOYLASHGAN ARXEOLOGIK OB’EKTLARNI GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA ANIQLASH VA MONITORING QILISH

Tuxtamishev Shuxrat Shermanovich
SamDU t.f.f.d (PhD) SamDAQU katta o‘qituvchilari
Urakov Olim Abdig’ofirovich
Azzamov G‘iyos Xudoynazarovich

Аннотация: В данной статье анализируются применение и результаты использования технологий географических информационных систем (ГИС) и современных картографических методов в археологических исследованиях Самаркандской области и Среднезеравшанской долины. На примере Узбекско-Итальянского археологического проекта (UIAP) показана значимость технологий ГИС в изучении древних ирригационных систем, поселений и торговых путей. С помощью ГИС-приложений создаются точные карты, разрабатываются рекомендации по мониторингу и сохранению археологических объектов. Эти исследования представляют важные достижения в защите культурного наследия региона.

Ключевые слова: Самарканд, Средняя Зеравшанская долина, археологические исследования, ГИС-технологии, картографические методы, древние ирригационные системы, поселения, торговые пути, культурное наследие, мониторинг, карты, консервация, археологические объекты.

Annotation: The article analyzes the use and results of GIS technologies and modern cartographic methods in archaeological research in the Samarkand region and the Middle Zeravshan Valley. Using the example of the Uzbek-Italian Archaeological Project (UIAP), the significance of GIS technologies in studying ancient irrigation systems, settlements, and trade routes is demonstrated. Accurate maps were created using GIS applications, and recommendations were developed for monitoring and preserving archaeological sites. These studies present significant achievements in protecting the region's cultural heritage.

Keywords: Samarkand, Middle Zeravshan Valley, archaeological research, GIS technologies, cartographic methods, ancient irrigation systems, settlements, trade routes, cultural heritage, monitoring, maps, conservation, archaeological sites..

Kirish. Mazkur maqolada Samarqand viloyati va O‘rta Zerafshon vodiysi hududidagi arxeologik izlanishlarda geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari va ilg‘or kartografik usullardan foydalanish imkoniyatlari va amaliy natijalari tahlil qilingan. Samarqandning boy tarixiy va madaniy merosini o‘rganish va saqlash maqsadida olib borilgan Uzbek-Italyan arxeologik loyihasi (UIAL) misolida, GIS texnologiyalari asosida qadimiy sug‘orish tizimlari, yashash joylari va savdo yo‘llarini o‘rganishdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan. GIS ilovalari yordamida aniq xaritalar yaratilib, arxeologik ob’ektlarning monitoringi va saqlanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlar mintaqaning madaniy merosini himoya qilish va urganishda katta imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari arxeologiya sohasida yangi imkoniyatlarni yaratib, tarixiy ob’ektlarni aniqlash va ularni monitoring qilishda muhum ahamiyatga ega. Hozirgi kunda Samarqand viloyati hudida joylashgan o‘rta Zarafshon vodiysi kabi boy tarixga ega bo‘lgan madaniy hududlarni arxeologik jihatdan urganishda GIS texnologiyalaridan foydalanish ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va olingan ma’lumotlarni qayta ishlashga imkon bermoqda. Ushbu hududlar, qadimda Sug’diyona davlatini poytaxti sifatida tanilgan bo‘lib ko‘plab etnik guruhlar va madaniyatlarning chorrahasida joylashib ming yillar davomida boy tarixiy jarayonlarga guvoh bo‘lgan. Hozirgi kunda GIS texnologiyalarining zamonaviy usullari va ilg‘or kartografik metodlari yordamida bu hududda arxeologik ob’ektlarni topish va ularni saqlab qolish bo‘yicha yangi uslublar ishlab chiqilmoqda.

Loyiha hududdagi tarixiy va madaniy ob’ektlarni aniqlash va ularning holatini zamonaviy texnologiyalar yordamida monitoring qilish maqsadiga qaratilgan. Tadqiqotlar davomida GIS texnologiyalaridan foydalanilib, qadimiy sug‘orish tizimlari, yashash joylari va savdo yo‘llari haqida ma’lumotlar to‘plangan.

UIAL doirasida tadqiqotchilar Sovet davrida yaratilgan topografik xaritalar, 1970-yillarda olingan aerofoto suratlar, CORONA sun’iy yo‘ldosh tasvirlari

va zamonaviy LANDSAT hamda ESRI World Imagery kabi bepul sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga tayanilgan. Bu ma'lumotlar arxeologik ob'ektlarni aniqlash va ular joylashuv o'rnini aniq belgilash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Loyiha davomida, GIS texnologiyalarining ilovalari orqali 2500 kvadrat kilometr maydonda 2000 dan ortiq arxeologik obyekt aniqlangan. Ammo, bu ob'ektlarning 40 foiziga yaqini so'nggi yillarda infratuzilma qurilishi va qishloq xo'jaligi faoliyati tufayli yo'q bo'lib ketgan. Ayniqsa, Samarqand shahri atrofidagi aholi zich joylashgan hududlarda, paxtachilik, g'allachilika asoslangan qishloq xo'jaligi yerlari atrofida joylashgan arxeologik obyektlarda bunday holatlar juda ko'p uchraydi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari va kartografik usullar yordamida arxeologik ob'ektlarni aniqlash va monitoring qilishda quyidagi xarita turlaridan foydalanilgan.

1. Open Street Map – Ochiq manba xaritalar orqali asosiy geografik axborotlarni taqdim etadi.

2. ESRI World Imagery – Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlarini taqdim etib, hududning zamonaviy va batafsil ko'rinishini ta'minlaydi.

3. Mundialis TOPO-WMS va TOPO-OSM-WMS – Topografik va ochiq manba xaritalarini taqdim etuvchi qatlamlar, hududning rel'efi va tabiiy xususiyatlarini ko'rsatadi.

4. Sites - Kafir Kala va boshqa aniq ob'ektlar uchun maxsus xaritalar – qadimiy joylar uchun maxsus olingan ortofoto va DSM (raqamli yer modeli) tasvirlari, shuningdek, eski xarita rejalari (masalan, Masson area plan 1928, Nilsen site plan 1966).

5. Sites - Koytepa va Kurgan Kadirbek – Ortofoto va DSM xaritalari 2018-yil uchun, arxeologik hududlarning aniq o'rganilishi va joylashuvini aniqlash uchun foydalanilgan.


6. RS Detection (Sites_NMZV_RS) – Uzoq masofadan zondlash usullari orqali aniqlangan obyektlarni ko'rsatadigan qatlam.

7. Survey – Samarqand viloyatidagi ma'muriy tumanlar, UIAL tadqiqot maydonlari, va boshqa qamrovli hududlarni o'z ichiga oluvchi xaritalar.

8. Topographical Maps 10k – Topografik xaritalar, hududning detalli landshaft ma'lumotlarini berish uchun ishlatilgan.


Bu xarita turlari arxeologik izlanishlar uchun zarur bo'lgan hududiy tahlil va monitoring uchun boy ma'lumotlarni taqdim etishga yordam beradi. Arxeologik obyektlarga tahdid soluvchi muhim omillar qatoriga shaharsozlik, yo'l va sug'orish infratuzilmalari ham kiradi.

Shaxardagi arxeologik ma'lumotlarni 1-rasmda Open Street Map xaritalar orqali asosiy geografik axborotlarni ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlar natijasida shu aniqlandiki barcha tarixiy arxeologik ob'ektlarning bir qismini butunlay yo'q bo'lib ketgan.




1-rasm O'zbek-Italyan arxeologik loyihasi (UIAL) doirasida o'rganilishi kerak bo'lgan arxeologik obyektlarning xaritada ko'rsatilgan joylashuv sxemasi


UIAL tadqiqot natijalariga asoslanib, obyektlarni saqlash va ularning barqarorligini ta'minlash bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalar arxeologik obyektlarni monitoring qilish va muhofaza qilish ishlarini samarali tashkil qilish imkonini beradi.



2-rasmda ESRI World Imagery – Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlarini taqdim etib, hududning zamonaviy va batafsil ko'rinishini ko'rishimiz mumkin.



3-rasmda Mundialis TOPO-WMS va TOPO-OSM-WMS – Topografik va ochiq manba xaritalarini taqdim etuvchi qatlamlar, hududning rel'efi va tabiiy xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.




4-rasmda Desablet yordamida arxeologik manbalarni ko'rishmiz mumkin.

Ushbu dasturlar yordamida arxeologik manbalarni qatlamlar yordamida monitoring qilashimiz mumkin. Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq qilish jarayonida geodezistlar, arxeologlar, paleontologlar va tarixchilar bilan bir qatorda muhim vazifalarni bajaradilar. GIS texnologiyalari arxeologiya sohasida keng qo‘llanilib, tadqiqotlarni yanada samarali o‘tkazishga imkon yaratadi. Kofir Qal‘a yodgorligi bunday tadqiqotlar uchun yaxshi misol bo‘lib, u Samarqand shahridan 18 km janubda, Darg‘om kanalining chap sohilida joylashgan va umumiy maydoni 16 gektarga teng. Kafir Qal‘a va Boyssartepa hududlarida olib borilgan tadqiqotlar qadimiy sug‘orish tizimlari, yashash joylari va madaniy o‘zgarishlar haqida qimmatli dalillarni keltirdi. Kafir Qal‘adagi qazishmalar natijasida milodiy 7-asr oxiriga oid 700 dan ortiq loy muhrlar va ma’muriy arxiv topilib, bu hududning Arab istilosi davridagi muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbek-Italyan arxeologik loyihasi UIAL "OrientGIS"


Bugungi kunda UIAL "OrientGIS" nomli onlayn platformada o‘z tadqiqot natijalarini taqdim etmoqda. Ushbu platforma foydalanuvchilarga interaktiv xaritalar, fotosuratlar galereyasi va boshqa turli qatlamlarga kirish imkonini beradi. Bu vosita tadqiqotchilar va tarix ixlosmandlariga Samarqand va O‘rta Zarafshon vodiysidagi tarixiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini yaratadi. GIS texnologiyalari arxeologik ma’lumotlarni tezkor baholash va yetkazib berish imkonini berib, mintaqaning tarixiy merosini yanada samarali saqlash va o‘rganish imkonini yaratmoqda.



5-rasm Kofir-qal’a arxeologik yodgorligi “OrientGIS” onlayn platformasida qatlamlarda ko‘rinishi

GIS texnologiyalari arxeologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni yangi darajaga olib chiqib, tarixiy ob’ektlarni saqlash, aniqlash va monitoring qilish uchun innovatsion yechimlar taklif qilmoqda. UIAL kabi loyihalar Samarqandning boy tarixini chuqurroq tushunish va uning madaniy merosini asrab-avaylashda ulkan hissa qo‘shmoqda. Tadqiqotlar ilmiy jamoatchilik va madaniy merosni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek-Italyan arxeologik loyihasi (UIAL) Samarqand viloyatining janubiy va janubi-sharqiy qismida arxeologik tadqiqotlar faol olib bormoqda. Ushbu hududlar tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularda ko‘plab qadimiy yodgorliklar va arxeologik obyektlar joylashgan. GIS texnologiyalaridan foydalanish bu hududlarni o‘rganish, qadimiy ob’ektlarni aniqlash va ularning monitoringini o‘tkazishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Janubiy qismda olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, qadimiy sug‘orish tizimlari va yashash joylari kabi tarixiy obyektlarning o‘rganilishi, mintaqaning boy madaniy merosini yanada chuqurroq tushunish va saqlash imkonini beradi. To‘q sariq rang bilan belgilangan ushbu hududlarda olib borilayotgan izlanishlar, kelgusida mintaqaning madaniy va tarixiy ahamiyatini mustahkamlash uchun muhim ma’lumotlar taqdim etadi.



6-rasmda O'zbek-Italyan arxeologik loyihasi (UIAL) doirasida Samarqand viloyatida olib borilayotgan arxeologik tadqiqot hududi to'q sariq rangda belgilangan.

Xulosa: Samarqand viloyatidagi arxeologik tadqiqotlar doirasida GIS texnologiyalari va zamonaviy kartografik usullardan foydalanish natijasida. Uzbek-Italyan arxeologik loyihasi (UIAL)ning yutuqlari, qadimiy obyektlarning aniq joylashuvini aniqlash, monitoring qilish va saqlash bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Bu texnologiyalar infratuzilma loyihalari va boshqa tahdidlar fonida arxeologik merosni himoya qilish uchun muhim strategiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat ilmiy jamoatchilik uchun, balki mintaqaning tarixiy merosini kelajak avlodlarga yetkazish uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'lib, ularni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi) / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi A. O'rinboev. II-jild. – Toshkent, 2008.
2. Avesto / Fors tilidan Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent, 2015.
3. Abulabbos Ahmad ibn Yahyo al–Balozuriy. Xurosonning fath etilishi / Arab tilidan Sh.S. Kamoliddin tarjimasi. – Toshkent, 2017.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A. Ahmedov va H. Bobobekovlar. – Toshkent, 1997.
5. Hudud ulolam (Movarounnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatgichi muallifi O.Bo'riev. – Toshkent, 2008. O'zbekiston tarixi (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. – Toshkent, 2014.
6. Антонович К.М. Использованые спутникових радионавигационных систем в геодезии в 2 томах. ГОУ ВПО «Сибирская государственная геодезическая академич». –М.: ФГУП «Картгеоцентр», Т 1:2005. -334 ее.:ил., Т 2:2006. -360 с.: ил
7. Генике А.А., Побединский Г.Г. Глобальная спутниковая система определения местоположенеия GPS и её применение в геодезии. М.:Картгеоцентр-Геодезиздат, 1999 г
8. Safarov T.U., Samanqulov Sh.. APPLICATION OF SATELLITE NAVIGATION SYSTEMS IN OBSERVATION OF LANDSLIDE PHENOMENA. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), March - 2024.
9. Safarov T.U.,Samanqulov SH.,Berdiqulov U. It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. Evropen Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) 2022
10. Suyunov, A., Tukhtamishev, S., Suyunov, S., Manoev, S., & Samankulov, S. (2023). Innovative solutions in creating noise maps in cities. In E3S Web of Conferences (Vol. 463, p. 02007). EDP Sciences.

TOSHKENT VILOYATIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI GAT DASTURLARI YORDAMIDA MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH.

U.A.Raximov,
SamDAQU PhD, katta o'qituvchisi.
M.N.Jiyamuratov
SamDAQU Magistiranti.

Annotatsiya: Biz ushbu maqolamizda Toshkint viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarini GAT ma'lumotlaridan foydalangan holda ma'lumotlar bazasini yaratish bosqichlarini kurib chiqamiz va tizimlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan hamda ma'lum bir natijalarga erishilganligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Madaniy meros obyektlar, nomoddiy madaniy meros obyektlar, GAT, ArcGis, ArcMap.

Bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura obyekti, 625 tasi monumental san'at asari hamda 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi.

Toshkent viloyatida bunday muqaddas joylar, qadamjoylar juda ko'p. Jumladan, Zangiota yodgorlik majmui ziyoratgohi, Anbar bibi maqbarasi XIV-XV asrlar ziyoratgohi, Shohruxiya qadimgi shaharqala xarobasi va Shomil Qori ziyoratgohi, Sardoba ziyoratgohi, Qizilmozor ziyoratgohi, Ervalibobo ziyoratgohi, Masjid Ali ziyoratgohi (Kumushkon) va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ziyoratgohlar, tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, qadamjoylar, monumental sana't yodgorliklari va boshqalar. Bir so'z bilan aytganda bularning barchasi moddiy madaniy yodgorliklar turistik faoliyatning asosiy obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda Toshkent viloyati hududida 828 ta moddiy madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, ulardan 588 tasi arxeologiya, 7 tasi arxitektura, 74 tasi monumental sana't yodgorliklari, 159 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek, 223 tasi mahalliy va 605 tasi respublika ahamiyatidagi obyekt sirasiga kiradi.


GAT bizning sayyoramizga tegishli global, regional, milliy, kartografiya, masofadan zondlash, statistika, kadastr ma'lumotlari, gidrometeorologik ma'lumotlar, dala ekspedistion materiallarini kuzatish, burg'ulash natijalari, suv ostini zondlash va hokazolarni integrallashtirgan holda barcha jabhalarni egallab kelmoqda. Geoaxborotlar tizimining asosiy vazifalari bu fazoviy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash orqali

avtomatlashgan raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish va uni kelgusida tahlil qilish va bosmaga chiqarish uchun saqlashdan iboratdir.


Hozirgi an'anaviy qog'oz ko'rinishdagi xaritalarda ham joyning relyefi, joylashgan o'rni va yuzasi kabi bir qancha ma'lumotlar bilan birgalikda qo'shimcha diagrammalar va jadvallar kiritilgan. Qog'oz xaritaga ko'p miqdor va o'lchamda jadvallar, diagrammalar va boshqa ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda kiritib bo'lmaydi sababi bunday katta miqyosdagi ma'lumotlar anglashilmovchilikka olib kelishi mumkin.

Biz ushbu maqolamizda Toshkint viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarini GAT ma'lumotlaridan foydalangan holda ma'lumotlar bazasini yaratish bosqichlarini kurib chiqamiz.

I. ArcGis dasturida geografik ma'lumotlar bazasini yaratish uchun mazkur dasturning ArcCatalog ilovasidan foydalanildi. ArcCatalog ta'minotining ishchi oynasi ochilgach Catalog daraxti yordamida bizga kyerakli bo'lgan xotira diski yani D diski tanlanib olindi. Kuzatuv oynasining yordamchi bandlari hosil qilinadi. Hosil bo'lgan yordamchi banddan yangi qatoridagi Personal Geodatabase (shaxsiy ma'lumotlar bazasi) tanlanadi va unga O'zbekistan deb nom kiritildi (1-rasm).



1-rasm. Ma'lumotlar bazasini yaratish jarayoni



2-rasm. Toshkent viloyatining balandlik nuqtalari, geografik obyekt nomlari kiritilishi

Yaratib olingan O'zbekiston shaxsiy ma'lumotlar bazasi ichiga kiriladi va natijada hosil bo'lgan New Feature Dataset darchasiga Toshkent viloyati deb nom kiritiladi va navbatdagi koordinatalar tizimi kiritiladi.

Tanlangan hududga tegishli zona belgilanadi va Feature Dataset ichiga kirilib Feature Class qatori tanlanadi. Hosil bo'lgan New Feature Class ilovasi Name bo'shlig'iga nomlanadigan obyekt nomi kiritilsa Type bandidagi qatorlardan qatlam turiga qarab qatlam xili tanlandi va 5 ta baza yaratildi. Ular maydonli, chiziqli, nuqtali, yozuvli va o'lchamli deb nomlandi. Ushbu bazalar orqali biz ArcMap dasturida xaritalarni chizish uni shakillantirishda foydalanamiz.

II. ArcMapda xarita bilan ishlashning ikkita usuli mavjud: ma'lumotlar ko'rinishi va komponovka ko'rinishi. ArcMap yordamchi ilovada yangi xarita tayyorlash uchun quyidagilar amalga oshiriladi.


1. ArcCatalog yordamchi ilovasida yaratilgan ma'lumotlar bazasini ArcMap ilovasiga Add Data buyurug'i orqali yuklab olindi .

2. Add Data buyurug'i orqali Toshkent viloyatining 1:200000 masshtabli xaritasi yuklab olindi va Transformatsion usuli orqali hududning koordinatlari belgilab chiqildi.

3. Yuklab olingan xarita yordamida Toshkent viloyati hududi maydonli, chiziqli, qatlamlar orqali xarita chizib chiqildi. Nuqtali, yozuvli va o'lchamli qatlamlardan foydalanib Toshkent viloyatining balandlik nuqtalari, geografik obyekt nomlari kiritildi va atribut ma'lumotlari kirgizib chiqildi (2-rasm).

III. Komponovka jarayonida "Toshkent viloyati madaniy meros yodgorliklarining tarqalish xaritasi"ni chop etish uchun tayyorlanadi. Bunda dastlab Arcmap yordamchi ilovada "Layout View" ga o'tildi. Arcmap yordamchi ilova oynasida tayyorlangan xarita ramkaga olindi va A0 format tanlandi. Ish jarayonida xarita uchun zarur bo'lgan mavzu, shartli belgi, maydonli, yozuvli va chiziqli qatlamlar tushirildi. Masshtab 1:200000 qilib belgilandi. Ish so'ngida fayldan eksport buyurug'i tanlanib jpeg format tanlandi.

Arcmap yordamchi ilova oynasidagi barcha ishlar yakunlandi. "Toshkent viloyati tabiiy va madaniy yodgorliklarining tarqalish xaritasi" chop etish uchun tayyor (3-rasm).



3-rasm. Komponovka

Xarita tayyor bo'lganidan so'ng, ArcGis dasturida ArcScene yordamchi ilovasidan foydalanildi.

Toshkent viloyati madaniy meros yodgorliklarini o'rganishda GAT texnologiyalaridan foydalanish. Bugungi kunda har qanday GAT (geografik axborotlar tizimi) loyihalarini geoma'lumotlar bazasisiz tasavvur etish qiyin. Hozirda rivojlangan davlatlarda GAT ko'pgina ijtimoiy sohalarda, iqtisodiyotda, siyosatda, ekologiyada, tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish va tabiatni muhofaza qilishda, kadastr sohasida, ilm-fan va boshqa sohalarda qo'llanilib kelmoqda. Geoaxborotlar tizimining asosiy vazifalari bu fazoviy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash orqali avtomatlashgan raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish va uni kelgusida tahlil qilish va bosmaga chiqarish uchun saqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME'ROS OBYEKTLARI XARITALARINI GAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *1*(8), 255-257.

2. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po'latov, S. S. (2023). ISSUES OF FORMATION OF STATE CADASTRE DATA OF HIGHWAYS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *2*(7), 156-160.

3. Рахимов, У. А., & Хамдамов, М. С. (2023). ГЕОПОРТАЛ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО КАДАСТРА И ИХ ИНТЕГРАЦИЯ МЕЖДУ АГЕНТСТВАМИ. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 32-36.

4. Рахимов, У. А. (2022, September). МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ ЖОЙЛАШГАН ЎРНИНИ GNSS ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ АНИҚЛАШ. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 168-173).

5. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансанбля Регистан. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 96-100).

6. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). CREATION OF ATTRIBUTIVE DATA OF THEMATIC STRUCTURES OF THE STATE CADASTRE OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 1-5).

7. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARI DAVLAT KADASTRI BO'YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA'LUMOTLARINI YARATISH. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 8-12).

8. Ilmurodova, L. A., Umirzakov, Z. T., & Mirzayev, P. J. (2023). Development of a Methodology for Mapping the Cadastre of the World of Plants Using Geoinformation Systems. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(2), 288-292.

9. Исаков, Э. Х., & Ўроқов, О. (2012). Тарихий ёдгорликлар ҳақида маълумотлар банкини яратиш ва юритиш. *Ёш олимлар, магистрант ва бакалавриантларнинг анъанавий VIII республика илмий-назарий конференцияси. СамДАҚИ. Самарқанд*.

YER KADASTRI HISOBINI YURITISHDA GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI AXBOROTLARNI TAHLIL QILISH ORQALI MONITORING OLIB BORISH USULLARI

Umarov Nurali Shermatovich,
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi t.f.f.d. (PhD) v.b.dotsent
Gulmurodov Farrux Eshmurodovich
Sirtqi va masofaviy ta'lim markazi boshlig'i, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer kadastri obyektlarining ma'lumotlar bazasi o'tkazilgan statistik, kartografik tadqiqotlarga tayangan holda, "ArcGIS" dasturida shakllantirildi va "Google Earth Pro" dasturiga integratsiya qilindi hamda ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun mobil ilova yaratildi. Natijada foydalanuvchilarning to'g'ridan-to'g'ri qo'l telefoni orqali yerlardan foydalanish holatini o'rganish va kadastr kartalarini yangilash hamda turli tahlillar o'tkazishiga zamin yaratilganligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: yer fondi, "ArcGIS" , "Google EarthPro", raqamli kartalar, GPS va elektron taxeometrlar, "WGS_1984" koordinatalar, ma'lumotlar bazasi, KML va KMZ format

Davlat yer kadastri ishlarini yuritish va kartalarini yaratishda GAT texnologiyalaridan foydalanish jarayonida ma'lumotlar bazasini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yer kadastr ma'lumotlarini to'plash respublikamizda yer hisobini yuritish yagona uslubiyatiga tayangan holda amalga oshirildi. Bu respublikamizning turli hududlaridagi mavjud yer maydonlarida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida to'plangan ma'lumotlarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi. Bunda yer turlarini yagona uslubda tasniflash yer hisobi ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va guruhlashning yagona tizimi bo'yicha amalga oshiriladi [5.]. Bulung'ur tumani yer fondi hisobini olish uchun mavjud karta va planlar, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari hamda yerlarni yo'qlama qilish bo'yicha o'tkazilgan ishlar ma'lumotlaridan foydalanildi. Tumandagi qishloq xo'jaligi yer maydonlarining ma'lumotlar bazasini yer kadastr maqsadlarida shakllantirildi va GAT dasturlarida umumlashtirildi.

Shu maqsadda, Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qishloq xo'jaligi yer maydonlari yer kadastr kartalarini yaratishda maxsus GAT dasturlari yordamida yer kadastri obyektlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Bunda "ArcGIS" dasturidan foydalanildi.

Ma'lumki, ma'lumotlar bazasi bu o'rganilayotgan obyektning holati, xossalari va boshqa obyektlar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarning umumlashgan to'plami hisoblanadi. Uni yuritish maxsus texnik va dasturli vositalar hisobiga amalga oshiriladi [2]

Bulung'ur tumani qishloq xo'jaligi yer maydonlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratildi:

qishloq xo'jaligi yer maydonlarining konturlar bo'yicha joylashgan o'rnini bildiradigan fazoviy ma'lumotlar, ya'ni koordinata tizimiga asoslanish va boshqalar;

qishloq xo'jaligi yer maydonlari holatini miqdor va sifat jihatidan aniqlash (atribut ma'lumotlar);

hududda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni va hosildorligi to'g'risida ma'lumotlar;

olingan fazoviy va atribut ma'lumotlarining o'zaro integratsiyasini aniqlash;

tadqiqot davrida to'plangan ma'lumotlarni kartografik raqamlash orqali kompyuter xotirasiga kiritish va ularni qayta ishlash;

yaratilgan ma'lumotlar bazasini "Google EarthPro" dasturiga integratsiya qilish masalalariga.

Ma'lumki, yer kadastri tizimini kartografik ta'minlashda ma'lumotlar bazasini shakllantirish va zarur ma'lumotlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita almashish bo'yicha dasturlarni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega:

– qishloq xo'jaligi korxonalarida yer kadastri ishlarini yuritish maqsadida yuqori aniqlikdagi karta va planlarni ishlab chiqish;

– mavjud yer egalari hamda yerdan foydalanuvchi va ijarachilarni zarur masshtabdagi elektron raqamli kartalar bilan ta'minlash ishlarini tezlashtirish;

– elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi yordamida karta yaratish jarayonining boshqa dasturlarga nisbatan tezkorligi;

– ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni solishtirish imkoniyatini mavjudligi;

– markazlashgan axborotlarni erkin almashinish imkonini beradigan geoaxborotlar bazalarini yaratish;

– raqamli kartalarni masofadan turib tahrirlash imkoniyatining mavjudligi (internet tarmog‘i);

– GPS va elektron taxeometrlarga kartalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazish imkoniyati;

– to‘plangan ma’lumotlar bo‘yicha interaktiv xizmatlar ko‘rsatish;


– ma’lumotlar bazasining iqtisodiy jihatdan afzalligi va zarur ishlarni bajarishda vaqtni tejash imkoniyati [6.].

Tadqiqot davomida tuman yer kadastr kartalarini yaratish bo‘yicha tuzilgan ma’lumotlar bazasi ikki qismdan tashkil topdi.

Bazaning birinchi qismida hududdagi mavjud yer fondi, ulardan xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan, qishloq xo‘jaligida foydalanish holati, ekin turlari, hosildorligi, tuproq bonitirovka ballari va boshqa ma’lumotlar o‘z aksini topdi. Ikkinchi qismda esa asosiy e’tibor tumandagi qishloq xo‘jaligi yer turlaridan foydalanish subyektlari va yer fondidan foydalanish borasidagi huquqiy ma’lumotlarga asoslanildi [7.].

Raqamli kartalarni va ularning ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun birinchi navbatda kosmik suratlardan foydalanib, rastr yuklab olinadi. Joyning rastrli tasvirini yuklash uchun dasturda obyektni koordinatalari aniqlab olinadi. Koordinatasi ma’lum bo‘lgan rastrni kompyuter xotirasida saqlanadi. Kompyuter xotirasiga saqlaganimizdan so‘ng “ArcMap” ilovasiga rastr yuklab olinadi. Yuklash jarayonida va ma’lumotlarni bir tizimga keltirish uchun “WGS_1984” koordinatalar tizimidan foydalanildi. “ArcMap” ilovasi “WGS_1984” koordinatalar tizimiga rastrni tortish uchun “Arc Toolbox” oynasidan “Data Managment” bandiga kiriladi, “Projection and Transformation” qatoridan “Project” buyrug‘i tanlangach “WGS_1984” koordinatalar tizimiga rastrli tasvir avtomatik tarzda bog‘lanadi (1-rasm.)

Rastrli tasvirning koordinatalar tizimiga bog‘langanligini tekshirib ko‘rish zarur. Dala ishlari natijalari va olingan ma’lumotlarni ArcMap dasturiga yuklash va to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumotlar bazasi shakllanishi uchun asos bo‘ladi [3.].




1-rasm. Rastrli tasvirni koordinataga bog‘lash

GAT dasturlarida barcha ma’lumotlar shakllangach milliy geografik axborot tizimi geoma’lumotlar bazasiga zarur bo‘lganda eksport qilish lozim. Yaratilgan ma’lumotlar bazasining birinchi qismida asosiy e’tibor Bulung‘ur tumanidagi mavjud yer resurslari va ulardan foydalanish darajasiga e’tibor qaratildi [7.]. Ya’ni tumandagi mavjud yer fondi, ulardan xalq xo‘jaligining turli sohalarida jumladan qishloq xo‘jaligida foydalanish holati, ekin turlari, hosildorligi, tuproq bonitirovka ballari va boshqa ma’lumotlar shakllantirildi (2-rasm).

Tuzilgan ma’lumotlar bazasida tumanda faoliyat yuritilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalariga tegishli yer maydonlari va ulardan foydalanish holati batafsil yoritildi. Hozirda tumanda mavjud bo‘lgan 53728 gektar qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

tuzilgan ma’lumotlar bazasida o‘z aksini topdi [5.] (1-jadval).



2-rasm. Tumandagi mavjud fermer xo‘jaliklarining yer fondi holati bo‘yicha tuzilgan ma’lumotlar bazasining ko‘rinishi


1- jadval

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani qishloq xo‘jaligi yer maydonlari eksplikatsiyasi (2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha)

T/r	Yer turlari, nomi	Maydoni, ga
1	Jami qishloq xo‘jaligi yer turlari	53730
	Shu jumladan	
2	Ekin yerlari	28137
	Shundan	
	Sug‘oriladigan	15637
	Lalmi	12500
3	Ko‘p yillik daraxtzorlar	8357
	Shundan	
	Bog‘lar	5191
	Uzumzorlar	2278
	Tutzorlar	888
	Mevali ko‘chatzorlar va boshqa daraxtlar	-
4	Bo‘z yerlar	96
5	Yaylovlar	17140

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra 2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha tumandagi ekin yerlar maydoni 28135 gektarni tashkil etadi. Shundan 15637 gektari sug‘oriladigan yer maydonlari 12500 gektari esa lalmikor dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari hisoblanadi. Tumandagi ko‘p yillik daraxtzorlar miqdori 8357 gektar bo‘lib, ushbu maydonning 2191 gektarini bog‘lar va 2278 gektarini uzumzorlar, qolgan 888 gektarini esa tutzorlar tashkil etdi [5]

Ma’lumotlar bazasida mavjud sug‘oriladigan va lalmikor dehqonchilik qilinadigan yer maydonlarining massivlar bo‘yicha taqsimlanishi hamda unumdorlik holatiga ham e’tibor qaratildi. Bulung‘ur tumanidagi qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida o‘tkazilgan yer hisobi ma’lumotlari kartada o‘z aksini topdi (3-rasm).



3-rasm. To‘plangan ma’lumotlar asosida tuzilgan tuman kartasi

Bulung‘ur tumanidagi hozirgi kunda foydalanilayotgan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining holati bo‘yicha ma’lumotlar ham bazaga kiritildi.

Bunda so‘nggi 3 yil davomida tumandagi sug‘orilib haydaladigan yerlardan foydalanish darajasi, shuningdek 2021-yilda qishloq xo‘jaligi ekinlarini rejalashtirilgan maydonlari ham kiritilgan [3.].

Tumandagi mavjud qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilishi bo‘yicha ma’lumotlar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Tuman miqyosida qishloq xo‘jaligi ekinlarining yetishtirilishi, ga

t/r	Ekin turlari	Maydoni, ga		
		2020-y.	2021-y.	O‘sish sur’ati, %
1	Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydon, jami	19558	19509	-0,3
2	Don va dukkakli don ekinlari, jami	9854	9177	-6,9
3	Shundan boshoqli don ekinlari	9485	9103	-4,0
4	Shundan bug‘doy	9236	9056	-2,0
5	Arpa	249	48	-80,9
6	Makkajuxori don uchun	138	70	-49,3
7	Dukkakli don ekinlari	231	4	-98,2
8	Texnik ekinlar, jami	300	276	-8,0
9	Moyli ekinlar, jami	300	276	-8,0
10	Kartoshka	2140	3286	+53,5
11	Sabzavot, jami	6355	5673	-10,7
12	Poliz, jami	233	226	-3,2
13	Ozuqa ekinlari, jami	676	871	+28,8
14	Mevalar va rezavorlar maydoni, jami	6456	5172	-19,9
15	Tokzorlar maydoni, jami	6114	3190	-47,8

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra Bulung‘ur tumanida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan jami yer maydonlari 2020-yilda 19558 gektar, 2021-yilda esa 19509 gektarni tashkil etgan yoki 49 gektarga kamaygan. Ushbu yillarda tuman miqyosida don va dukkakli don ekinlari yetishtirilgan maydonlar 9854 gektardan 9177 gektarga yoki 677 gektarga kamaygan. Jadval ma’lumotlaridan tumanda ushbu yillarda kartoshka va ozuqa ekinlar maydoni oshganligini ko‘rish mumkin. Umuman olganda ma’lumotlar bazasini shakllantirishda tumandagi barcha qishloq xo‘jaligi yer turlari bo‘yicha ma’lumotlar alohida-alohida kiritildi [5.].

Tuzilgan ma’lumotlar bazasida tumanda faoliyat olib borayotgan fermer xo‘jaliklarining o‘zlariga tegishli bo‘lgan sug‘orilib haydaladigan yer maydonlaridan foydalanish holatiga ham e’tibor qaratildi. Ushbu yaratilgan ma’lumotlar bazasi mutaxassislarga va yer egalariga yerlardan foydalanish hamda rejalashtirish yuzasidan qulaylik yaratadi (4-rasm).

Ushbu bazada tumanda faoliyat olib borayotgan fermer xo‘jaliklari bo‘yicha yer maydonlaridan foydalanish holati bo‘yicha ma’lumotlar ham keltirildi [7].


Sug‘oriladigan yerlar hisobini yuritish va unumdorligini tahlil etishda ma’lumotlar bazasini tuzish muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi va shu bilan birgalikda yer resurslaridan oqilona foydalanishda muhim o‘rin tutadi. “ArcGIS” dasturlaridan foydalanib yaratilgan ma’lumotlar bazasining yana bir muhim imkoniyati shundaki, uning “Google EarthPro” dasturiga integratsiya qilinishidir.

Yaratilgan ma’lumotlar bazasini “Google EarthPro” dasturiga integratsiya qilish uchun “ArcGIS” dasturida yaratilgan ma’lumotlar bazasidagi har bir atributiv ma’lumotlarning koordinatalari tanlab olinib, KML va KMZ formatda saqlanadi.

Shu bilan bir qatorda, “Google Earth Pro” dasturida ma’lumotlar bazasidan foydalanishda foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida mobil ilova yaratildi. Endilikda foydalanuvchilar ushbu mobil ilovada to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l telefoni orqali yerlardan foydalanish holatini, kadastr kartalarini yangilash va turli tahlillar o‘tkazishiga zamin yaratadi.


Xulosa

Yer kadastri obyektlarining ma’lumotlar bazasi o‘tkazilgan statistik, kartografik tadqiqotlarga tayangan holda, “ArcGIS” dasturida shakllantirildi va “Google Earth Pro” dasturiga integratsiya qilindi hamda ma’lumotlar bazasidan foydalanish uchun mobil ilova yaratildi. Natijada foydalanuvchilarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l telefoni orqali yerlardan foydalanish holatini o‘rganish va kadastr kartalarini yangilash hamda turli tahlillar o‘tkazishiga zamin yaratildi.




4-rasm. Ma’lumotlar bazasidan foydalanish

“ArcGIS” dasturidagi barcha atributiv ma’lumotlar KMLyoki KMZ formatda birligida saqlangandan so‘ng “Google Earth Pro” dasturiga integratsiya qilindi. “Google Earth Pro” dasturiga yuklangan ma’lumotlar bazasi rastrli ma’lumotlar bilan ustma-ust tushadi (5-rasm).



a) Yerdan foydalanuvchilar



b) Tuproq sifat ko‘rsatkichlari

5-rasm. “Google Earth Pro” dasturiga yuklangan ma’lumotlar bazasi bilan ishlash jarayoni

Adabiyotlar

1. Gulmurodov, F. E., Umarov, N. S., & Khamidova, P. J. (2021). 3D models development of tourism facilities. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(12), 572-578.
2. Umarov, N. S. (2020). Land use and land cadaster in the community. In *NAUKA I OBRAZOVANIE: SOXRANYAYa PROSHLOE, SOZDAYOM BUDUЩIYeE* (pp. 235-237).
3. Umarov, N. S. (2021). Methodology of monitoring agricultural land of Bulungur district and creation of electronic digital cards for cadastre objectives. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(10), 1582-1590.
4. Jumanov, A., Khudayberganova, M., Mirazimova, G., Radjabov, Y., Umarov, N., & Samatova, G. (2023). Monitoring dynamics of green spaces in Surkhandarya region based on remote sensing data of climate change. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 02012). EDP Sciences.
5. Abdurakhmonov, S., Prenov, S., Umarov, N., Gulmurodov, F., & Niyozov, Q. (2023). Application of GIS technologies in the improvement of geodetic and cartographic works in land cadastre. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.
6. Umarov, N. S., & Tursunov, B. A. M. (2023). YER KADASTRINI YURITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *RESEARCH AND EDUCATION*, *2*(5), 114-119.
7. Shermatovich, U. N., & Ramonovich, Y. Z. (2021). THE USE OF GIS TECHNOLOGY IN RECORDING AND CREATING A DATABASE OF AGRICULTURAL LAND IN BULUNGUR DISTRICT. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, *2*(11), 30-39.
8. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME'ROS OBYEKTLARI XARITALARINI GAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI. Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke, 1(8), 255-257.
9. Ilmurodova, L. A., Umirzakov, Z. T., & Mirzayev, P. J. (2023). Development of a Methodology for Mapping the Cadastre of the World of Plants Using Geoinformation Systems. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 288-292.
10. Ilmurodova, L. A., Yarkulov, Z. R., Mirzayev, P., & Kosimov, S. (2023). GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI O 'RGANISH, TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA. *Scientific Impulse*, *1*(8), 153-157.
11. Tojidinova, F. M., Ilmurodova, L. A., & Raximov, B. A. (2023). EARTH REMOTE SENSING DATA IN NATIONAL SPATIAL INFORMATION INFRASTRUCTURE. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, *2*(5), 112-119.
12. Tojidinova, F. M., & Ilmurodova, L. A. (2023). NAVIGATSIONNЫYe SPUTNIKOVЫYe SISTEMЫ I SOSTOYANIYA ORBITALNЫX STRUKTUR. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, *2*(5), 106-111.

CREDO DAT DASTURIGA TEODALIT SYOMKASI MA'LUMOTLARINI KIRITISH VA UNI AUTO CADDASTURIGA EKSPORT QILISH


Xudoyqulov Shoxruz Shuxrat o'g'li
"Geomatika muhandisligi" kafedrasi o'qituvchisi (SamDAQU)
Hamzayev Saidakbar Saidmusoyevich
"Dempfer"MCHJ geodeziya bo'limi mudiri

Annotatsiya. Teodolit yordamida olingan s'yomka natijalarini Credo Dat dasturida bajarish jarayoni. Ma'lumotlarni tahlil qilish Credo DAT turli xil ma'lumotlarni uslubga mos ravishda tahlil qilish imkoniyatinini beradi. Binolar va infrastruktura ma'lumotlarini samarali qayta ishlaydi. CREDO DAT - muhandis-geodezik ishlarni kameral qayta ishlash tizimi. CREDO-DAT 3.0-topografik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan tizim. Qo'shimcha vazifasi: ZEMPLAN-er uchastkalari maydonlarini hisoblash, yerlarni qayd qilishda matn va grafik hujjatlarni tuzish va ularni pechatga chiqarish uchun dastur; TRANSKOR - geomarkaziy, geodezik, to'g'ri burchakli koordinatlarni qaytadan tuzish; ASTRO - astronomik azimut ma'lumotlarini qayta ishlash mumkin.

Kalet so'zlar: Credo Dat, relef, punkt, rekognossirovka, marka, grunt, , deformatsiya, masshtab fundamental reper.


Teodolit yordamida olingan s'yomka natijalarini Credo Dat dasturida bajarish jarayoni.Ishchi oynadan Credo Dat ni, ya'ni dasturni ishga tushirish uchun, ishchi oynadagi ustiga sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish yoki o'ng tugmasini bosib kontekstli menyudan Otkrit` tugmasini bosish orqali ishchi xolatga tushiramiz. Dasturni ishchi holatga tushirganimizdan so'ng, Fayl menyusidan Sozdat` tugmasidan Proekt Ctrl+N ni bosamiz va teodolitdan olingan sanoqlarni kiritamiz.Buning uchun Imya katakchasiga birinchi

stantsiyani S1 va teodolitni shimolga qaratib olgan nuqtamizni 101 deb nomini yozamiz. Masalan, S1 va 101 ning X,Y koordinatalarini va N balandliklarini kiritamiz (1-rasm).




1-rasm

Shundan keyin shu qatordan tanlab, Taxeometriyaga belgi qo‘yamiz va Stantsiya katakchasiga S1 ning, hamda 101 ni ma'lumotlarini birinchi jadvalga 2-rasmdagidek kiritamiz.



2-rasm




2.1-rasm

Bunda Hi – asbob va reyka balandligi.

Shundan so‘ng ekranda hosil bo‘lgan pastki, ya'ni ikkinchi jadvalga S1 dan turib kerakli nuqtalardan olingan sanoqlarni Sel` yacheykasiga teodolit s'yomkasini kiritishni boshlaymiz.


Shimolga qaratilgan nuqta 101 yozilgan qatorning gorizontal va vertikal stumlariga 00 kiritib, s'yomka jarayonida olingan nuqtalarni gorizontal, vertikal, masofa (Rastoyaniya) va Ny reyka balandligi stumlariga sanoqlarni kiritamiz (3-rasm).




3-rasm

Credo Dat dasturi ishchi oynasining o‘ng tomoni ekraniga sichqonchaning o‘ng tugmasini bosamiz, hosil bo‘lgan konteksli menyudan Pokazat` vse tugmasini bosamiz (4-rasm. A) va yana sichqoncha o‘ng tugmasini bir marta bosish orqali ushbu menyudan Svoystva proekta buyrug‘ini ishga tushiramiz(4-rasm. V).

Xosil bo‘lgan oynadan Masshtab s'yomki ni 1:500 masshtabga keltirib, OK tugmasini bosamiz (5-rasm.), natijada dasturning o‘ng tomonidagi oynada s'yomka qilingan nuqtalar tasvirlanadi (6-rasm).




4-rasm



A) **B)**

5-rasm. **6-rasm.**

S1 nuqtalaridan olingan sanoqlarni kiritib bo‘lgandan so‘ng S2 ya'ni ikkinchi stantsiyaga o‘tish uchun, tugmachasini ishga tushiramiz va Imya katakchasiga S1 va 101 dan pastki qatorga ikkinchi stantsiyaning nomini S2 deb yozamiz hamda S2 ning qiymatlarini ushbu dastur Credo Dat ning 2-jadvalida berilgan X,Y koordinata va N balandliklarini kiritamiz (7-rasm).




Имя	X	Y	Тип XY	Статус XY	H	Тип H	Статус H	Принадл. рель
C1	1600,000	-2890,080	Исходный	Уравненный	688,020	Исходный	Уравненный	Рельефный
101	1700,000	-2890,080	Исходный	Уравненный	688,020	Исходный	Уравненный	Рельефный
C2	1580,122	-2874,919	Исходный	Уравненный	687,511	Исходный	Уравненный	Рельефный

7-rasm.

Shundan keyin tanlab, Stantsiya katakchasiga S1 va 101 dan pastki qatorga S2 ni, Ni asbob balandligini dasturning birinchi jadvaliga 8-rasmdagidek

kiritamiz.



Станция	Hi	Место нул	Инструмен	X	Y	H
C1	1,500	0°00'00,00"	Default	1600,000	-2890,080	688,020
101	1,500	0°00'00,00"	Default	1700,000	-2890,080	688,020
C2	1,500	0°00'00,00"	Default	1580,122	-2874,919	687,511


8-rasm.

Shundan so‘ng ekranda hosil bo‘lgan pastki, ya'ni ikkinchi jadvalga Sel` yacheykasining birinchi qatoriga S2 dan turib S1 ning s'yomkaga olingan sanoqlarini kiritamiz va keyingi qatorlarga teodolit s'yomkasini, s'yomka jarayonida olingan nuqtalarni gorizontal, vertikal, masofa (Rastoyaniya) va Ny reyka balandligi stumlariga sanoqlarni kiritamiz. S2 dan turib s'yomkaga olingan oxirgi nuqtadan so‘ng uchinchi stantsiyaning sanoqlarini kiritib, X,Y va N larini ko‘chirib olamiz (9-rasm). Uchinchi statsiyaning nomini S3 deb kiritamiz.

	Цель	Круг	Гор. лимб	Верт. лимб	Превышен	Расст.	Hv	Метод определ.	X	Y	H	Принадл.р
	C1	Лево	241°05'00,00"	-1°10'00,00"		25,000	1,500	Горизонтальное г	1600,000	-2890,080	688,020	Рельефны
	15	Лево	252°35'00,00"			5,500	1,500	Горизонтальное г	1585,072	-2877,316		Рельефны
	16	Лево	314°00'00,00"			19,500	1,500	Горизонтальное г	1595,981	-2863,572		Рельефны
	17	Лево	350°10'00,00"			20,000	1,500	Горизонтальное г	1586,385	-2855,925		Рельефны
	18	Лево	9°27'00,00"			23,500	1,500	Горизонтальное г	1579,698	-2851,423		Рельефны
	19	Лево	15°23'00,00"			21,000	1,500	Горизонтальное г	1577,575	-2854,074		Рельефны
	20	Лево	16°10'00,00"			20,000	1,500	Горизонтальное г	1577,425	-2855,102		Рельефны
	21	Лево	324°53'00,00"			13,500	1,500	Горизонтальное г	1589,420	-2865,132		Рельефны
	22	Лево	322°30'00,00"			7,500	1,500	Горизонтальное г	1585,509	-2869,701		Рельефны
	23	Лево	313°35'00,00"			3,300	1,500	Горизонтальное г	1582,820	-2873,018		Рельефны
	24	Лево	18°55'00,00"			5,000	1,500	Горизонтальное г	1579,211	-2870,003		Рельефны
	25	Лево	1°14'00,00"			8,000	1,500	Горизонтальное г	1581,122	-2866,982		Рельефны
	26	Лево	4°10'00,00"			10,000	1,500	Горизонтальное г	1580,863	-2864,946		Рельефны
	27	Лево	353°12'00,00"			10,700	1,500	Горизонтальное г	1582,930	-2864,594		Рельефны
	28	Лево	26°11'00,00"			18,000	1,500	Горизонтальное г	1574,629	-2857,778		Рельефны
	C3	Лево	14°14'00,00"	-1°32'00,00"		24,400	1,500	Горизонтальное г	1577,649	-2850,645	676,885	Рельефны


9-rasm.

Oxirgi bosqichda s'yomka natijalarini kiritib bo‘lgandan so‘ng ekranning yuqori qismidan Fayl menyusiga kirib, Soxranit` yoki ushbu tugmacha yordamida faylga biror nom bilan faylni saqlaymiz va yana Fayl menyusiga kirib Eksport tugmasidan AutoCAD (DXF)buyrug‘ini tanlaymiz (10-rasm).



10-rasm.

Hosil bo‘lgan oynadan excport tugmasini bosamiz, yana hosil bo‘lgan oynaning pastki qismiga Fayl nomini kiritib, save tugmasini bosamiz. Shu bilan Credo Dat dasturda bajariladigan bosqichlar yakunlanadi(11-rasm).



11-rasm.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
2. П.И.Поспелов и др. "Основы автоматизированного проектирования автомобилных дорог. (на базе программного комплекса КРЕДО)". М. СП «Кредо-Диалог»: 2007. 340 с.
3. В.И.Пуркин. "Основы автоматизированного проектирования автомобилных дорог". М.МАДИ: 2000. 168 с.
4. КРЕДО. Проектирование автомобилных дорог. КАД-КРЕДО. Минск. 2000 г. Книга1.

INFORMATION TECHNOLOGIES AND FUTURE ENGLISH TEACHERS

Zayniyeva Nasiba Baxtiyarovna
SamSACU, department of Foreign Languages, a senior teacher

Abstract: Conditions of education modernization encourage the search for a new educational paradigm that requires professionals not only to be willing to solve professional problems, but also to ensure the use of modern information and communication technologies (ICT) in order to work with information during future professional activities and to be socially mobile. The modern interpreter must establish and solve educational and cognitive information retrieval problems on their own, as well as design and apply information resources and ICT for not just modeling and implementing novel educational processes, but also for personal and professional growth. To address these issues, the prospective interpreter's personality must be well developed, as it will allow them to anticipate the existing demand for knowledge through their own cognitive activity at any time.

Key words: ICT, future teachers, English, social media, digital teaching tools, self education.

Philology Rwodzi et al. (2020) proposed a novel usage of social media to teach English as a second language. Garcia Santiago (2016) uses blogs and wikis to prepare interpreters. Ahmed et al. (2020) emphasize the need of improving English language abilities and incorporating social media into language instruction, noting that instructors must develop new teaching methodologies that integrate digital teaching tools. The article discusses the use of internet resources, namely social networks, in a person's self education. Bihych and Strilets (2020) discuss the benefits and drawbacks of ICT translation tools: Translation databases (Reverso context); electronic dictionaries (ABBYY Lingv., multitran), required for improving and expanding potential interpreters' vocabulary; electronic text corpora as a source of authentic linguistic materials; machine translation systems (Google Translate); and CAT means (Trados, SmartCAT), capable of speeding up the compilation of the target text. Bernardini (2016) validates the use of ICT translation tools in courses that seek to improve thematic, technological, and informational abilities in information extraction for use as personal aids.

Where the concentration is on teaching foreign languages to interpreters (translation services, language, and multicultural Briales, Filsenger, and Alonso (2018) emphasize the relevance of the lexicographic, terminological, and documentary requirements encountered during the investigation. Student translators, unlike professional translators, believe that using mobile devices is highly persuasive and handy. According to Lara (2019), machine translation has typically been connected with a translator's technological expertise. New training needs are validated: Sanchez Ramos (2017) proposes using virtual corporations as resources for public service training and translation. The translation programs are evaluated for their accuracy and relevance to real-world professional practice according to the Spanish context by (Muñoz-Miquel, 2018). The essence of the stages of the interpreter's information competence formation is revealed according to the suggestions of (Amelina&Tarasenko, 2018). In a study by Kuzminskyi et al. (2019), the types of information needed in the postgraduate education system of faculty were classified. Electronic information resources of Olalla-Soler (2018) have been used for solving cultural translation problems. Schaeffer et al. (2020) offered a translation accuracy survey questionnaire: an on-line tool for researching interpreters, which formed the basis of the author's questionnaire. Olalla-Soler (2019) applied internalized knowledge about the culture of the source to solve problems of cultural translation in a quasi-experimental study of the translator's acquisition of cultural competence in different languages and cultures. Sycz-Opoń (2019) substantiated the informational behavior of translation students of Silesia University in the process of legal translation. Esfandiari et al. (2019) carried out an assessment of European Master's in Translation framework for its compatibility with the needs of a professional interpreter. The development of professional competence of future translator's in a two-way translation has been observed by modern methods (Popova, 2019). Despite the fact that a substantial number of scientific studies have contributed to the solution to this problem, it can be argued that the subject of professional training of future translators at the classical university has received insufficient attention in current educational research. The objective of this paper is to identify the characteristics of professional training for prospective translators at a classical institution. Thus, it is determined that the substantive basis of organizational and pedagogical conditions for the formation of information competency of future translators in professional training is multilevel information tasks of translators' professional activity, which create continuous methodological lines in learning concepts

and forming ways to solve translation and information problems.

It has been demonstrated that prioritizing active and interactive methods of developing future translators' information competency with the help of modern teaching aids creates conditions for personal growth and experience in performing translational and informational tasks in the role of a professional translator. The planned organizational and pedagogical circumstances for forming prospective translators' information competency during professional training mirror the peculiarities of professional training at a classical institution. Further study on this subject includes the introduction of simulation technologies, computer modeling, aspects of geographical information systems and mobile, cluster technologies, comparative analysis of existing foreign and domestic technologies for training translators, the use of modern high-tech tools, energy-efficient technologies, and telecommunications in education in order to determine the most effective ones for the development of information competency, further development of methodology aimed at the formation of information competency of students, improving the model of formation of information competency of translators.

References:

1. Ahmed, S. T. S., Qasem, B. T., & Pawar, S. V. (2020). Computer-Assisted Language Instruction in South Yemeni Context: A Study of Teachers' Attitudes, ICT Uses and Challenges. International Journal of Language Education, 4(1), 59-73. https://doi.org/10.26858/ijole.v4i2.10106

2. Amelina, S. M., & Tarasenko, R. O. (2018). The essence of the stages of forming the information competence of the translator. Information technologies and learning tools, 67(5), 44-55. https://doi.org/10.33407/itlt.v67i5.2276

3. Bernardini, S. (2016). Discovery learning in the language-for-translation classroom: corpora as learning aids. Cadernos de Tradução, 36(SI), 14-35. https://doi.org/10.5007/2175-7968.2016v36nesp1p14

4. Bihych, O. B., Strilets, V. V. Potential for the use of ict in teaching scientific and technical translation (2020). Information technologies and learning tools, 76(2), 86-95. https://doi.org/10.33407/itlt.v76i2.2812

5. Briales, I., Filsenger, G., & Alonso, E. (2018). I need this and I solve it like that. The needs and the tools of the students and of the professionals of the translation and the interpretation before the multilingual challenge digital. Tradumatica-traduccio i tecnologies de la informacio i la comunicacio, (16),1-23. https://doi.org/10.5565/rev/tradumatica.197 Formation of FutureSpecialists' Information Competence Ganna PLAKHOTNIUK, et al.

6. Esfandiari, M. R., Shokrpour, N., & Rahimi, F. (2019). An evaluation of the EMT: Compatibility with the professional translator's needs. Cogent Arts & Humanities, 6(1), 1601055. https://doi.org/10.1080/23311983.2019.1601055

7. Garcia Santiago, M. D. (2016). L'ús de blocs i wikis en la formació deltraductor. Tradumatica-traduccio i tecnologies de la informacio i la comunicacio, (14), 147-155. https://doi.org/10.5565/rev/tradumatica.69

8. Lara, C. P. (2019). SWOT Analysis of the Inclusion of Machine Translation and PostEditing in the Master's Degrees Offered in the EMT Network. Journal of specialised translation, (31), 260-280. https://www.jostrans.org/issue31/art_plaza.php.

PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQARISHGA BOG‘LASH METODIKASI

Do‘sbekov To‘ychi Mengnorovich TDMAU o‘qituvchisi
Mengnorov Quvonchbek To‘ychi o‘g‘li BDU talabasi

Kalit so‘zlar: ta’lim, tizim, texnologiya, axborot, pedagogika, qobiliyat, iqtidor, intellektual, fan rivoji, oliy o‘quv yurtlari.

Annotatsiya: O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li, bu-demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yo‘lidir. Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridayoq ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi.


Ushbu masala yechimida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, muvofiqlik, bir-birini to‘ldiruvchanlik bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li, bu-demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yo‘lidir.

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridayoq ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi. O‘g‘il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa’y-harakatlar zamirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir. Ta’lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi.

Ta’lim sohasida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan asosiy vazifalardan biri fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu masala yechimida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik,

muvofiqlik, bir-birini to‘ldiruvchanlik bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o‘z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim.



Shuningdek, fan rivoji oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi olimlarning faoliyatiga, ishlab chiqarish bilan hamkorligiga, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishiga bog‘liqdir.

Talaba ma’lumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, berilgan ma’lumotlarning o‘rtacha 20 foizini o‘zlashtiradi. Shu sababli agar ma’ruza faqat mavzuni og‘zaki tushuntirish shaklida (an’anaviy) o‘tilsa, talabalar darsda berilgan ma’lumotlarning 80 foizini esda saqlab qolmaydi va darrov unutishadi. O‘rtacha odam bir minutda 800 tagacha so‘zni eshitishi va tushunishi mumkin. Vaholanki, auditoriyadagi talabalar o‘qituvchi nutqiga nisbatan 4 marta tez eshitish qobiliyatiga ega. Demak, og‘zaki tushuntirish vaqtida vaqtning 75% qismida talaba eshitmaydi, u bo‘sh qoladi, agar o‘qituvchi faqat og‘zaki tushuntirib, ma’ruza qilsa talaba diqqatini yo‘qotadi. Shu sababli ma’ruzani faqat o‘qib berish yoki og‘zaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi.

Agar talaba ma’lumotlarni bir marta o‘zi o‘qisa u 25 foiz ma’lumotni eslab qoladi. Demak ma’ruzada, talabalar oldida ma’ruza qilish bilan birgalikda, ulardan mavzuning asosiy joylarini dars davomida o‘zlari o‘qishlari talab etilsa, ma’ruza samarasi ortadi.

Buning uchun slaydlar, tayanch iboralar, tarqatma materiallar zarur bo‘ladi va ma’ruza davomida ulardan talaba faolligi ta’minlangan holda foydalaniladi.

Agar berilayotgan ma’lumotlar ikki marta takrorlansa, talaba ma’lumotlarning 30 foizini eslab qoladi. Agar Siz ma’ruzada mavzuning asosiy, muhim joylarini ikki marta takrorlasangiz, o‘zlashtirish faqat o‘qib berishga nisbatan 10 foizga ortadi. Agar takrorlash slaydlar, o‘quv-vizual materiallar asosida bajarilsa darsning samaradorligi yanada ortadi, ya’ni asosiy tayanch iboralar ham ikki marta takrorlanadi, ham talabalar tomonidan o‘qiladi.

Agar talaba yozib, o‘qisa ma’lumotlarni 45 foizgacha o‘zlashtiradi. Demak ma’ruzaning tayanch iboralarini ma’ruza davomida yozdirib borilsa, o‘zlashtirish ikki marta ortadi.


Talaba o‘rtacha bir minutda 40 tagacha so‘z yozishi mumkin. Lekin, maqsad faqat tez yozdirish bo‘lib qolsa, natija yetarli darajada samarali bo‘lmaydi. Shuning uchun ma’ruzaning tayanch iboralari yozdirilayotganda, talabaga diqqatini jamlab,tushunib yozishi uchun vaqt berish kerak, ya’ni yozdirilayotgan iboralarni to‘xtab-to‘xtab, sekin ifoda etish zarur.

Ko‘pchilik muhokama, bahs jarayonida ma’lumotlarning 60 foiziga yaqinini o‘zlashtiradi, ya’ni o‘quv jarayoni oddiy ma’ruza o‘qishga nisbatan 3 marta samarali bo‘ladi. Agar ma’ruzada yuqoridagi uslublar (og‘zaki tushuntirish, qaytarish, o‘quv-vizual materiallar yordamida ko‘rsatish, talabadan o‘qishni talab qilish, tayanch iboralarni yozdirib borish) ma’lum bog‘liqli ketma-ketlik asosida birgalikda joriy etilsa o‘quv samarasi yanada ortadi.

Talaba berilayotgan ma’lumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali yetkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak bo‘lishi tushuntirilsa, mashg‘ulotda mavzuni real hayot bilan bog‘lab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu bo‘yicha berilayotgan ma’lumotlarni talabalar tomonidan 80 foizgacha o‘zlashtirishlariga erishish mumkin. Yaxshi pedagog o‘rtacha bir minutda 170 tagacha so‘z talaffuz etishi mumkin. O‘rtacha student minutiga 400 tagacha so‘zni o‘qishi va tushunishi mumkin. Bu shuni bildiradiki, o‘qituvchi ma’lumotlarni slaydlar ko‘rinishida yoki tarqatma materiallar ko‘rinishida tushuntirishdan oldin bersa, o‘qituvchi tushuntirguncha talabalar ushbu materiallarni ikki marta tez o‘qib ulguradilar. Talabalar o‘zlari ma’lum miqdorda bo‘lsada o‘qib olgach, ma’ruzachining tushuntirishlariga kam e’tibor berishadi. Shu sababli, agar oldin tushuntirib, keyin o‘quv-vizual materiallar orqali tushuntirish takrorlansa, eng yaxshi natijaga erishiladi.

Ayrim pedagoglar o‘qitishning interaktiv uslublari deganda zamonaviy o‘quv-vizual materiallar (oddiy, multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma’ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.) dan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va b) dan foydalanish, ma’ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo‘lib kelishini ta’minlash kabilarni tushunishadi.

O‘quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berish sifatini tubdan yaxshilash” dek o‘ta muhim vazifalar ta’lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil qilish zarurligini ko‘rsatadi.



An’anaviy uslublari:
Matnni o‘qib og‘zaki tushuntiradi, Faqat eshitib o‘zlashtiriladi -20%

O‘quv-vizual materiallar (slaydlar, tarqatma materiallar, modellar va boshqalardan) foydalani, Eshitadi,o‘quv-vizual materiallar orqali ko‘radi va o‘zlari yana bir marta o‘qiydi-25%

Oldin tushuntirib, keyin o‘quv vizual materiallar yordamida yana bir mart takrorlaydi, Tinglaydi, qayta tushunadi, slaydlar orqali ko‘radi va o‘zlari yana bir marta o‘qiydi-30%


Interaktiv uslub

Mavzuning asosiy va muhim (tayanch) iboralarini yozdirib boradi, Eshitadi, ko‘radi, o‘qiydi, yozib boradi-45%

Ma’ruzaning muhokama, bahs tashkil etadi, talabalarning ushbu masala bo‘yicha shaxsiy fikrlarini tinglaydi, Tinglaydi, ko‘radi, o‘qiydi, yozib boradi, savollar beradi va fikrlarini erkin bayon etadi-60%

Ma’ruzaning ma’lum qismini amaliy mashg‘ulotlar tarzida tashkil etadi, talabalarning to‘liq faolligi ta’minlanadi, Tinglaydi, ko‘radi, o‘qibdi, yozib boradi, savollar beradi va o‘z fikrlarini erkin bayon etadi, savollar beradi va amaliy topshiriqlarni bajaradi -75%

Yuqoridagi barcha uslublardan to‘liq foydalaniladi, mavzuni hayotiy misollar bilan bog‘laydi, talabalarning faolligini kuchaytiradi, Talabalar o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Fikrini erkin bayon etib, mavzu bo‘yicha bahs munozarada, ishtirok etadi, hayotiy amaliy ko‘nikma hosil qiladi-80%



Shu sababli, talabaning asosiy maqsadi, qanday bo‘lmasin baho olish emas, balki bilim olish, o‘qituvchining vazifasi esa baho qo‘yish emas, bilim berish bo‘lmog‘i lozim.

Adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-Toshkent, 2005.

2. Karimjonov I.A. va boshqa. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent,2002.

3. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llash.Toshket, 2000.yil.

4. Panfilova A.P. Innovatsionnie pedagogicheskie texnologii. Aktivnoe obuchenie/Uchebnoe posobie.-Moskva: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2009-y.

5. Psixologo-pedagogicheskoe soprovojdenie realizatsii innovatsionnix obrazovatelnix programm/Pod red. Yu.P.Zinchenko, I.A.Volodarskoy.-Moskva: Izd-vo MGU, 2007.-120 s.

6. Tolipov U .K,-, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”, 2005. - 205 b.

7. http://www.bj.pu.ru/method/4-13.html.

8. http://paidagogos.com/?p=124.

9. Dusbekov T M. Tarmoq texnologiyasi asosida masofaviy ta’lim shartlari va ta’lim jarayonini tashkil etish xususiyatlari. "Ekonomika i sotsium" №11(90) 2021 www.iupr.ru https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_51b31efcb4674ca9bdee672781ad2a1b.pdf?index=true

10.Dusbekov T.M. DISTANCE EDUCATION AND METHODS OF ITS ORGANIZATION GALAXY In Volume 9, Issue 8, Aug, 2021 ISSN (E): 2347-6915 https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/229/219

11.Dusbekov T M O‘zaro bog‘liqlik metodi, o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi tarmog‘i "Ekonomika i sotsium" №12(91) 2021 www.iupr.ru https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_fc5cd1ee91e4482890598bb1ea9cfe1b.pdf?index=true

LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA IT (AXBOROT TEXNOLOGIYALARI)NING O'RNI VA SUN'IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH

Turdiyeva Dilnoza Bobomurod qizi
Samarqand Davlat arxitektura-qurilish Universiteti "San'at" kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Landshaftni rejalashtirish, dizaynini yaratish hamda boshqarish jarayonlarida IT va SI texnologiyalarining integratsiyasining ahamiyati maqolada keltirib o'tildi. GIS (Geografik Axborot Tizimlari), 3D modellash va vizualizatsiya dasturlari, shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish, resurslarni optimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilg'or yechimlar keltirilgan. Shuningdek, maqola generativ dizayn, iqlim o'zgarishlarini prognozlash, o'simliklarni avtomatik identifikatsiya qilish kabi SI texnologiyalarining landshaft arxitekturasidagi imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari (IT)**,** sun'iy intellekt (SI)**,** geografik axborot tizimlari (GIS)**,** 3D modellash**,** generativ dizayn, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), dronlar va IoTlar.

KIRISH

Dunyo ilm-fanida vujudga kelib, ravnaq topayotgan har bir soha bugun hamma uchun birday yetib bormoqda. Axborot texnologiyalarining yangi bosqichga chiqishi hammani o'ziga jalb qilgan bo'lsa, "sun'iy intellekt"ning vujudga kelishi yana bir pog'onaga ko'ratilish bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, sun'iy intellekt juda ko'p yumushlarni yengillashtirish bilan bir qatorda, ko'plab yangi kasblar barpo bo'lishida va aksincha, ba'zi faoliyat turlarining bora-bora yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Yarim asrlik tadqiqotlardan so'ng, sun'iy intellekt texnologiyasi jamiyatning turli sohalarida, masalan, avtomatlashtirish ishlab chiqarish liniyasi va boshqalarda keng qo'llanila boshlandi. Sun'iy intellekt texnologiyasining ommalashishi va qo'llanilishi inkor etib bo'lmas yaxshi hayot yaratish imkoniyatidir. [1-3] Zamonaviy landshaft arxitekturasi va dizaynini yaratish ijodkordan badiiy tafakkur va zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan xabardorlikni talab etadi. Tabiiy va zamonaviylik uyg'unlashgan betakror shahar atmosferasini yaratish uchun shaharning ma'lum hududiga sun'iy ravishda o'zgartirish kiritadi. Bu jarayon o'z o'rnida o'simliklar, jamoat obyektlari, suv landshafti, qurilish konstruksiyalari va ko'plab bir-biriga yaqin jarayonlarni qamrab oladi. Ayni damda bu ketma-ketliklar "sun'iy intellekt" va IT orqali hal qilinsa, vaqt va mehnat samaradorligiga erishish mumkin. Landshaft arxitekturasi zamonaviy shaharsozlik va qishloq xo'jaligida, ekologik barqarorlikni saqlash, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega. IT va SI texnologiyalari bu sohalarda yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratadi, chunki ular real vaqtda ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt orqali landshaft dizaynlarini optimallashtirish, iqlim o'zgarishlarini prognozlash va ekosistemalarni boshqarishda ilg'or yechimlar taklif etiladi.

Ushbu maqolada, landshaft arxitekturasida axborot texnologiyalarining va sun'iy intellektning o'rni, ularning imkoniyatlari va samarali qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, IT va SI texnologiyalarining landshaftni rejalashtirish, dizayn qilish va boshqarishdagi roli, shuningdek, ular yordamida erishilgan innovatsion yutuqlar ko'rib chiqiladi. Maqola, shu bilan birga, landshaft arxitekturasining kelajagi va bu texnologiyalardan foydalanish orqali qanday yangi imkoniyatlar yaratish mumkinligi haqida ham fikrlar bildiradi.

Landshaft arxitekturasida IT(Axborot texnologiyalari)ning o'rni

Me'morchilikda 1990-yillarda kompyuterning kirib kelishi, 2D va 3D tasvirni ishlab chiqarish, loyihalarni kompyuter yordamida chizishga o'tish arxitekturani qayta jonlantirib, tez ravnaq topishiga yo'l ochdi. 2000-yilga kelib 3D modellashtirish va BIM texnologiyalarining vujudga kelishi arxitekturaviy jarayonlarni murakkablashtiribgina qolmay, yanada samaradorligi oshishiga sabab bo'ldi. 2010-yil boshlarida sun'iy intellekt va generativ dizayn qo'llanilishi boshlandi.

Generativ dizayn-bu kompyuter algoritmlari yordamida turli imkoniyatlarni yaratish va ishlab chiqish jarayonidir. Arxitektor va dizaynerlar bu texnologiyalardan foydalanib, optimal binolarni va inshootlarni, landshaft obyektlarini yaratishda ko'proq namunalarni sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, Autodesk Fusion 360 va Spacemaker kabi dasturlar generativ dizayn texnologiyalarini arxitektura va qurilishda integratsiya qilgan shaklidir.

Ayni damda keng qo'llaniladiladigan 3D modeling va VR (virtual reallik) arxitekturada nafaqat loyihalarni to'laqonli tasavvur etish imkonini beradi, balki xato-kamchiliklarni virtual holatida tahlil etib, tuzatib, ortiqcha xarajatlarning oldini oladi.

Geografik Axborot Tizimlari (GIS) avval boshdan landshaft arxitekturasining asosiy texnologiyalaridan

biri hisoblanadi. GIS yordamida yerning turli geografik, ekologik va iqlimiy xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi. Bu tizimlar landshaft rejalashtirishda va dizayn qilishda ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish hamda resurslarni boshqarish imkoniyatlarini beradi. GIS tizimlari orqali ma'lumotlarni to‘plash, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va xarita shaklida vizualizatsiya qilish mumkin. Bu yerning ekologik holatini, o‘simliklar qoplamini va boshqa tabiiy resurslarni tahlil qilishda, qolaversa, yerning turli resurslarini, masalan, suv, o‘simliklar, tuproqni boshqarish va ularning holatini nazorat qilishda, bir so’z bilan aytganda landshaftni barqaror boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada R. Masser va M.E.Millerlar bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O’zbekiston arxitekturasida qo’llanilayotgan axborot texnologiyalari

Babylon.js fizika dvigatellari (masalan, Cannon.js va Oimo.js) bilan integratsiya qilib, obyektlarning harakatlarini va to‘qnashuvlarini real tarzda simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Kutubxona PBR (Physically Based Rendering) texnologiyasini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa obyektlarning yoritilish va material ko'rinishini haqiqiy tarzda taqdim etishga yordam beradi. Bu esa foydalanuvchilarga yuqori sifatli grafikalar yaratish imkonini beradi.

Babylon.js foydalanuvchilarga sahnaga ovoz va video materiallarini qo‘shish imkoniyatini beradi, bu esa simulyatsiyalarni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Kutubxona foydalanuvchilarga o‘zaro faoliyat imkoniyatlarini taqdim etadi, masalan, klaviatura, sichqoncha va boshqa qurilmalar yordamida o‘zaro bog‘lanish. Babylon.js 3D sahnalarni boshqarish uchun qulay API taklif etadi, bu esa dasturchilar uchun sahnalarni oson yaratish va tahrirlash imkonini beradi.

Babylon.js ning o‘rganish jarayoni juda soddalashtirilgan va foydalanuvchilar uchun yaxshi hujjatlangan. Kutubxonaning rasmiy veb-saytida ko‘plab misollar, darsliklar va dokumentatsiyalar mavjud, bu esa dasturchilar uchun juda qulaydir.

Babylon.js turli modullar va plaginlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu dasturchilarga o‘z loyihalariga qo‘shimcha funktsiyalar qo‘shishga imkon beradi. Misol uchun, foydalanuvchilar sahnalarda boshqa kutubxonalardan modellarni yuklab olishlari yoki yangi materiallar va effektlar yaratishlari mumkin.

Three.js va Babylon.js har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklari bilan ajralib turadi. Tanlov qilayotganda loyihaning talablari, dasturchining tajribasi va kerakli funktsiyalarni hisobga olish muhimdir.

Arxitektura va interyer dizayn sohasida Three.js asosida yaratilgan simulyator foydalanuvchilarga o‘z uylarini yoki loyihalarini 3D formatda yaratish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilar xonalarni loyihalash, mebel joylashuvi va boshqa detallarga o'zgartirishlar kiritish orqali uyni vizual tarzda ko'rishlari mumkin. Bu arxitektorlar va dizaynerlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Three.js va Babylon.js bir biridan farqi va avzalliklari



1-rasm.Three.js asosida yaratilgan simulyatorda yasalgan uy loyihasi tasviri

WebGL - 3D grafikalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri veb-brauzerda aks ettirish uchun ishlatiladigan texnologiya. Three.js WebGL-ni soddalashtiradi, ammo uning asosiy prinsiplarini tushunish sahnalarda grafikani boshqarishni yaxshilaydi. WebGL 2D va 3D grafikalarni yaratishda tezlik va samaradorlikni oshirish uchun grafik kartadan (GPU) foydalanadi. WebGL asosan OpenGL ES (Embedded Systems) 2.0 kutubxonasiga asoslangan bo‘lib, bu grafik protsessor yordamida yuqori samaradorlikda ishlaydigan grafikalar yaratish uchun ishlatiladi. WebGL API matritsalar, vektorlar va boshqa matematik hisob-kitoblardan foydalanadi va shaderlar yordamida grafikalarni chizadi. WebGL sahifaga chiziladigan har bir obyektni buferlarga yuklaydi. Buferlar orqali GPU ob'ektlarning ma’lumotlarini tezroq va samarali ravishda qayta ishlaydi. Teksturalar esa obyektlar yuzasini qoplash uchun ishlatiladi.

WebGLning asosiy imkoniyatlari:

- 2D va 3D grafikalarni qo‘llab-quvvatlash
- WebGL yordamida dasturchilar ikki va uch o‘lchovli grafikalarni yaratishlari mumkin, bu esa veb-dasturlarni yanada jozibador va samarali qiladi.
- WebGL ning shader tizimi realistik yorug‘lik va soyalar yaratishda yordam beradi. Yorug‘lik manbalarini sozlash va soyalarni hisoblash orqali realistik 3D grafikalarni yaratish mumkin.
- WebGL interaktiv sahnalarni yaratish imkoniyatini beradi. Masalan, foydalanuvchi kiritgan har qanday harakatga yoki buyruqqa WebGL orqali javob berish mumkin.
- WebGL yuqori samaradorlik uchun grafik protsessor bilan ishlaydi, bu esa murakkab grafikalarni ham yuqori tezlikda ko‘rsatishga imkon beradi.

Xulosa

Tanlov qilishda loyihaning maqsadi va talablari, dasturchilarning tajribasi va kutubxonalar orasidagi muhim farqlarni hisobga olish zarur. Agar siz tezkor va yengil loyiha yaratmoqchi bo'lsangiz, Three.js yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. Agar siz kompleks, grafik

jihatdan rivojlangan va interaktiv simulyator yaratmoqchi bo'lsangiz, Babylon.js eng maqbul variant hisoblanadi.

Har ikkala kutubxona 3D web simulyatorlarini yaratishda samarali vositalar bo'lib, tanlov sizning maqsadlaringiz va ehtiyojlaringizga bog'liqdir. O'z ehtiyojlaringizga mos keladigan kutubxonani tanlash, loyihangizning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

1-jadval

O‘rganish Osonligi	Oson o‘rganish uchun soddalashtirilgan interfeys.	O‘rganish jarayoni murakkabroq, lekin yaxshi hujjatlangan.
Fizika Simulyatsiyasi	O‘zida standart fizika mexanizmlariga ega emas; lekin Cannon.js yoki Oimo.js bilan integratsiya mumkin.	Kengaytirilgan fizika simulyatsiyasi (Cannon.js, Oimo.js) bilan birga.
Grafik Sifat	Yaxshi, lekin PBR (Physically Based Rendering) qo'llab-quvvatlash cheklangan.	Yuqori sifatli grafikalar va PBR ni mukammal qo'llab-quvvatlaydi.
Interaktivlik	Oson interaktivlik, ammo murakkab o'zaro faoliyatni boshqarish qiyin.	Kuchli interaktivlik imkoniyatlari va foydalanuvchilar bilan o'zaro faoliyatni boshqarish oson.
Modullar va Plaginlar	Kengaytirilgan modullar va plaginlar mavjud.	Ko‘plab modullar va plaginlarni qo‘llab-quvvatlaydi, kuchli ekosistema.
Tarmoq va Jamoa	Katta jamoa va ko'plab resurslar mavjud.	Keng jamoa, lekin kamroq resurslar bor.
Ovoz va Video	Ovoz qo'shish mumkin, lekin video integratsiyasi cheklangan.	Ovoz va video materiallarini qulay qo'shish imkoniyati.
Mobil Qo'llab-quvvatlash	Mobil qurilmalarda yaxshi ishlaydi, lekin optimallashtirish talab qilishi mumkin.	Mobil qurilmalarda yuqori performans, yaxshi optimallashtirilgan.
Yangilanishlar	Doimiy ravishda yangilanadi, lekin ba'zida jiddiy o'zgarishlar kiritilishi mumkin.	Yangilanishlar doimiy ravishda taqdim etiladi, yangi funktsiyalar va yaxshilanishlar.

Three.js JavaScript kutubxonasi bo‘lgani uchun JavaScript tilini yaxshi bilish muhimdir. Obyektlar, funksiyalar, asinxron kod (async/await) va ES6 sinflari kabi asosiy JavaScript tushunchalarini bilish Three.js kodini tushunish va yozishda yordam beradi.

Agar tezkor va yengil loyiha yaratishni istasangiz, Three.js sodda va kuchli imkoniyatlari bilan yaxshi tanlov bo‘ladi. Three.js asosiy 3D grafikalar uchun yetarli va oson o‘rganiladi, shuningdek, JavaScript asoslarini yaxshi bilish uning samarali ishlashida yordam beradi. JavaScript va ES6 bilimlari, masalan, obyektlar, funksiyalar va asinxron kodlar (async/await) yordamida dasturiy kodni ishlab chiqish osonlashadi.

Agar esa murakkab va grafik jihatdan rivojlangan, yuqori interaktivlikka ega simulyator yaratish rejangiz bo‘lsa, Babylon.js yanada keng qamrovli vositalari bilan eng maqbul variant hisoblanadi. Bu kutubxona o‘yinlar va ilmiy dasturlarda murakkab grafikalar yaratish uchun ko‘proq imkoniyatlar taklif etadi va interaktivlikning yuqori darajasiga erishishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Mardonov B., Zikiryayev S. BA’ZI GEOMETRIYA MASALALARINI YECHISH USULLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 7. – C. 183-186.

2. Назаров У. А. Численное исследование детонационных волн в газовзвесях с неоднородным распределением концентрации частиц в резко расширяющихся трубах //современные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2019. – с. 15-18.

3. Axmadovich M. B. Sfera sirtida joylashgan uchburchaklarni yechishning ba'zi usullari //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 2. – C. 23-27.

4. Птоломей теоремасининг баъзи геометрия масалаларини ечишга тадбиқи Баходир Ахмадович Мардонов, Расулов Камол Карим ўғли «Архитектура ва қурилиш соҳаларида инновацион технологиялврни қўллаш истиқболлари» мавзусидаги халқаро илмий-техник конференцияси материаллари тўплами. 36-38

5. Ж Акилов, МС Джаббаров, БА Мардонов Циклические гидравлические воздействия промывочной жидкости на забой буровой скважины // Mexanika muammolari. O‘zbekiston jurnali. 3, 18-22

6. БА Мардонов, АХ Марданов Стюарт теоремасининг баъзи геометрия масалаларини ечишга тадбиқи // «Таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясида инновацион технологияларни қўллаш-мамлакат тараққиётининг муҳим омили» мавзусидаги XV республика илмий-техник конференцияси материаллари тўплами.

7. Математическое моделирование давления на плунжер при эксплуатации нефтяных скважин с глубинными насосами Ж Акилов, М Джаббаров, Баходир Мардонов // ME'MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI (ilmiy-texnikjurnal).

KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANISHNING XALQARO TAJRIBALARINI LOYIHALASH VA QURILISH ISHLARIGA JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

Rahmonov Navruzbek Ergashevich
Jizzax politexnika instituti Qurilish muhandisligi kafedrasi assistenti
Sarimsoqov Sardor Shoyzaqovich
Jizzax politexnika instituti Qurilish muhandisligi kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston qurilish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari va BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Raqamli transformatsiya orqali qurilish sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: BIM texnologiyasi, Qurilish jarayonlarini raqamlashtirish, Kompyuter grafikasining qurilishda qo‘llanilishi, Loyihalash va modellashtirish, 3D modellashtirish, Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) , Qurilishda ekologik barqarorlik, O‘zbekistonda qurilish sohasida raqamli innovatsiyalar

Kompyuter grafikasining zamonaviy qurilish va loyihalash jarayonlarida tutgan o‘rni juda katta va ko‘plab jihatlar bilan belgilanadi. Bu texnologiyalar nafaqat loyihalash va dizayn jarayonlarini aniqroq va samaraliroq qilishga yordam beradi, balki qurilishning umumiy sifatini oshiradi va barcha jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Kompyuter grafikasining zamonaviy qurilish va loyihalash jarayonlaridagi bir qancha asosiy o‘rinlari haqida misollar keltiradigan bo‘lsak: *Loyihalarni aniq modellashtirish va vizualizatsiya qilish* Kompyuter grafikasidan foydalanish qurilish loyihalarini aniq va realistik tarzda modellashtirish imkonini beradi. 3D modellar, vizualizatsiya va renderlar yordamida loyiha natijalari oldindan ko‘rib chiqilishi va tahlil qilinishi mumkin.

Bu jarayon mijozlarga va loyiha jamoasiga yakuniy natijani realistik tarzda ko‘rsatishga yordam beradi, natijada loyiha tuzilishi yoki dizayni bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilinadi.

BIM (Building Information Modeling) orqali hamkorlikni yaxshilash BIM texnologiyasi qurilish loyihasining barcha bosqichlarini raqamli ma'lumotlar orqali birlashtiradi va loyihada ishtirok etuvchi barcha tomonlarga o‘zaro hamkorlikni osonlashtiradi.

BIM orqali loyiha materiallar, xarajatlar, vaqt va xavfsizlik kabi omillar hisobga olinadi va optimallashtiriladi, shuningdek, loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni oldindan bartaraf etishga yordam beradi.

Loyiha boshqaruvida VR va AR texnologiyalaridan foydalanish: Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR) texnologiyalari qurilish sohasida muhim o‘rin egallaydi. VR yordamida loyihani oldindan "sayr qilish" yoki interaktiv tajribaga ega bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi.

AR texnologiyasi esa qurilish maydonchasida o‘zgarishlarni real vaqtda kuzatishga, o‘lchamlarni aniqlashtirishga va nazorat qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar dizayn sifatini yaxshilash va loyihani amalga oshirishni tezlashtiradi.

Resurslarni samarali boshqarish va xarajatlarni kamaytirish Kompyuter grafikasidan foydalanish orqali loyihadagi resurslar, vaqt va xarajatlar samarali boshqarilishi mumkin. Dasturiy ta’minotlar loyiha materiallari miqdorini, xarajatlarini va ularning eng optimal miqdorini aniqlab beradi. Bu texnologiyalar loyiha xarajatlarini kamaytirish va sarflangan materiallarni tejash imkonini beradi, natijada ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali bo‘ladi.

Murakkab loyihalarni samarali boshqarish va tahlil qilish Kompyuter grafikasidan foydalanish katta hajmli va murakkab loyihalarni samarali boshqarishga yordam beradi. Murakkab inshootlar yoki ko‘priklar kabi yirik loyihalarda geometrik tahlil va dinamik modellashtirish muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, loyiha jamoasi dizaynda o‘zgarishlar kiritish, detallarni sinchkovlik bilan tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Umuman olganda, kompyuter grafikasi qurilish va loyihalash sohasida samaradorlik, sifat va xavfsizlikni oshirishga katta hissa qo‘shadi.

Kompyuter grafikasining xalqaro qurilish va loyihalash jarayonlarida keng qo‘llanilishi butun dunyo bo‘ylab sanoatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter grafikasining xalqaro darajada loyihalash va qurilish jarayonlariga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida misollar keltiradigan bo’lsak *Xalqaro qo‘llanish* BIM tizimi yirik loyihalash va qurilish kompaniyalari orasida keng tarqalgan. Bu texnologiya AQSh, Kanada, Yaponiya va Yevropa davlatlarida davlat loyihalarida majburiy hisoblanadi. *Afzalliklari*

BIM qurilish jarayonining barcha bosqichlarini yagona platformada birlashtirib, loyihani rejalashtirish, texnik xizmat va ekspluatatsiya xarajatlarini aniq prognozlash imkonini beradi.

3D Modellashtirish va Vizualizatsiya 3D modellashtirish usullari dunyoning ko‘plab davlatlarida, ayniqsa, Dubay, Xitoy va Janubiy Koreyada keng qo‘llanilib, noyob va murakkab binolar yaratishda ishlatilmoqda. 3D modellar orqali loyiha batafsil tasvirlanib, mijoz va loyiha jamoasi uchun realistik ko‘rinish yaratiladi. Bu usul mijozlar ehtiyojlarini hisobga olishda va loyihani oldindan taqdim etishda juda qulay. *Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR)* AQSh va Yevropa mamlakatlarida VR va AR texnologiyalari loyihalarni namoyish qilishda keng qo‘llanilib, bu jarayonlarda mijozlarning to‘laqonli ishtirok etishiga imkon beradi. VR va AR yordamida loyihaning batafsil jihatlarini ko‘rish, o‘zgarishlar kiritish va loyiha sifatini nazorat qilish osonlashadi. Bu texnologiyalar mijozlarning talablari va xohish-istaklarini ko‘proq hisobga olishga xizmat qiladi. *Qurilish jarayonlarini simulyatsiya qilish* Bu texnologiya, asosan, AQSh va Yevropada keng qo‘llaniladi. Simulyatsiyalar orqali qurilish jarayonlarining vaqt va mablag‘ bo‘yicha optimallashtirilishi amalga oshiriladi. Qurilish jarayonlarining simulyatsiyasi potensial muammolarni oldindan ko‘rishga, resurslarni tejashga va vaqtni optimallashtirishga yordam beradi. Buning natijasida qurilish samaradorligi oshadi va kamchiliklar bartaraf etiladi. *Energiya samaradorligi tahlili va ekologik modellashtirish* Xalqaro miqyosda, ayniqsa, Yevropa davlatlarida binolarning energiya samaradorligini tahlil qilish va ekologik modellarni qurilish jarayonida ishlatish ustuvor hisoblanadi.

Energiya samaradorligini tahlil qilish binolar uchun qulay mikroiqlim yaratish, energiya iste’molini kamaytirish va ekologik ta’sirni minimallashtirishga imkon beradi.

O‘zbekistonda zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalarini loyihalash va qurilish sohasida qo‘llash borasida so‘nggi yillarda bir qator chora-tadbirlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar milliy raqamli iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish va innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali iqtisodiyotning turli sohalarini zamonaviylashtirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda ham bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda *BIM texnologiyalarini tatbiq etish Davlat dasturlari:* Davlat tomonidan qurilish va loyihalashda Building Information Modeling (BIM) texnologiyalarini qo‘llash rag‘batlantirilmoqda. Ushbu texnologiya yordamida loyihalarni raqamli asosda boshqarish, loyiha ma’lumotlarini real vaqtda kuzatish va resurslarni samarali boshqarish imkoniyati yaratilmoqda.

Loyiha samaradorligi: BIM qurilish loyihalarini tezlashtirishga, ularni to‘g‘ri rejalashtirishga va qurilish jarayonlarini optimallashtirishga yordam bermoqda.

Raqamli qurilish tizimini joriy qilish "Raqamli O‘zbekiston 2030" strategiyasi: Ushbu strategiya doirasida raqamli texnologiyalar, jumladan kompyuter grafikasi texnologiyalarini turli sohalarga, xususan, qurilish va arxitektura jarayonlariga kengroq kiritish ishlari olib borilmoqda. Bu strategiya qurilish jarayonlarining raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilishni maqsad qilgan. *Afzalliklari:* Mazkur dastur orqali ma’lumotlarning raqamli platformalarda jamlanishi loyihalarni ko‘p qavatli murakkab modellar asosida boshqarish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

3D Chop Etish Texnologiyasi 3D chop etish texnologiyasi kichik loyihalar va qismlarni yaratishda qo‘llanila boshladi. Qurilish elementlarini yoki loyihalarning o‘lchamli modellarini chop etish orqali ularning prototiplari sinovdan o‘tkaziladi, bu esa real inshootni qurishdan oldin imkoniyatlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Ta'lim va malaka oshirish kurslari O‘zbekistonning texnik universitetlarida BIM, 3D modellashtirish, va boshqa zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalari bo‘yicha ta'lim beradigan kurslar yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu kurslar mahalliy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatda zamonaviy texnologiyalarga ega malakali kadrlar yetishmasligini bartaraf etish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda malaka oshirish dasturlari o‘tkazilmoqda.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi Davlat qurilish sohasida kompyuter grafikasini qo‘llashni rag‘batlantirish maqsadida xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Qurilish kompaniyalariga raqamli transformatsiyani amalga oshirishda ko‘mak berish uchun soliq imtiyozlari, subsidiya va grant dasturlari tashkil etilgan.

Qonunchilikni takomillashtirish Qurilish va loyihalash sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni yengillashtirish maqsadida huquqiy asoslar yaratilmoqda. Ushbu huquqiy me'yorlar kompyuter grafikasi texnologiyalari, ayniqsa BIM, AR va VR kabi zamonaviy yondashuvlarning keng joriy etilishini rag‘batlantiradi va sohada raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tashabbuslar O‘zbekistonda zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalarini loyihalash va qurilish ishlariga keng tatbiq etish uchun muhim asos yaratadi. Hozirda texnologik infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va davlat xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik orqali qurilish sohasida samaradorlikni oshirish hamda zamonaviy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini qurilishga joriy etish bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, loyiha jarayonini samarali va tejamkor qiladi. BIM texnologiyasining qurilish sohasidagi asosiy afzalliklariga quydagilarni misol keltirishimiz mumkun:

Loyiha jarayonlarini birlashtirish va yaxlitlik BIM yordamida loyihaning barcha bosqichlari (dizayn,

loyiha, qurilish va ekspluatatsiya) yagona modelda birlashtiriladi. Bu esa barcha mutaxassislar va ishchilar uchun loyiha bo‘yicha to‘liq, aniq va aktual ma’lumotlar olish imkonini beradi. Barcha ish jarayonlari markazlashgan holda boshqariladi, shu sababli noaniqliklar va xatoliklar kamayadi.

Samarali rejalashtirish va vaqtni tejash BIM texnologiyasi loyiha bosqichlarini rejalashtirish va monitoring qilishni osonlashtiradi. Qurilish jarayoni uchun zarur bo‘lgan barcha ishlar oldindan aniq belgilanadi va vaqti bilan ta’minlanadi, bu esa ortiqcha vaqt yo‘qotilishining oldini oladi. Shuningdek, loyihani aniq jadval asosida boshqarish imkoniyatini beradi.

Xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy tejamkorlik BIM modeli yordamida qurilish materiallari va resurslar miqdori oldindan aniqlanadi, bu ortiqcha xarajatlar va mablag‘ yo‘qotilishining oldini oladi. Real vaqt rejimida xarajatlarni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyati mavjud, bu esa byudjet doirasida qolishga yordam beradi.

Xavfsizlikni oshirish BIM orqali qurilish jarayonida xavfsizlikni yaxshilash mumkin, chunki model yordamida qurilish maydonida xavfli zonalar va jarayonlar oldindan ko‘riladi va tahlil qilinadi. Xavfsizlik choralari avvaldan rejalashtiriladi, natijada baxtsiz hodisalar kamayadi.

Loyihada real vaqt tahlili va optimizatsiya BIM orqali loyihaning real vaqt rejimida o‘zgarishlarini kuzatish, ularga mos ravishda optimizatsiya kiritish imkoniyati mavjud. Agar qurilish davomida biror o‘zgarishlar kiritilsa, barcha mutaxassislar va guruhlar yangilangan ma’lumotlarni olishadi, bu esa loyihaning holatini doimiy kuzatib borishni va optimal qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi.

Hamkorlik va kommunikatsiyani yaxshilash BIM texnologiyasi loyihada ishtirok etayotgan barcha mutaxassislar va jamoalar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Loyiha doirasidagi barcha o‘zgarishlar va yangiliklar real vaqt rejimida barcha foydalanuvchilarga taqdim etiladi, natijada jamoalar o‘rtasida o‘zaro tushunish va aloqani yaxshilaydi.

Ekologik samaradorlik BIM texnologiyasi yordamida ekologik jihatdan toza materiallar va energiya tejamkor usullardan foydalanish imkoniyati oshadi. Modelda ekologik tahlil va simulyatsiyalar amalga oshirilishi mumkin, bu esa qurilish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi va “yashil qurilish” talablariga mos ravishda ishlashga imkon beradi.

Loyiha hujjatlarini boshqarish va saqlash BIM texnologiyasi loyihaning barcha hujjatlarini yagona platformada saqlash imkoniyatini yaratadi. Loyiha bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar (chizmalardan tortib texnik hujjatlar va smetalargacha) BIM tizimida to‘planadi va saqlanadi. Bu esa hujjatlarni tartibga solishga va kerakli ma’lumotlarni tez topishga yordam beradi.

O‘zbekistonda zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalarini loyihalash va qurilish sohasida rivojlantirishning istiqbollari keng imkoniyatlarni yaratishi kutilmoqda. Bu sohadagi asosiy istiqbollar va ularning afzalliklari haqida to‘xtaladigan bo’lsak:

Building Information Modeling (BIM) texnologiyasi qurilish jarayonlarining barcha bosqichlarini birlashtirib, inshoot haqida to‘liq ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi. O‘zbekiston qurilish kompaniyalari va arxitektura firmalari BIM texnologiyasini keng qo‘llashni boshlashmoqda, bu esa loyihalash va boshqaruvni yaxshilaydi va mablag‘ va vaqt tejash imkoniyatini beradi. Kelajakda BIMni qo‘llash nafaqat tijorat, balki davlat loyihalarida ham kengayadi.

3D Modellashtirish va Virtual Reallik (VR) texnologiyalari 3D modellashtirish va VR texnologiyalari loyihalarni real ko‘rinishda aks ettirish imkonini beradi. Mijozlar loyiha yakunida qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini avvaldan ko‘rib, kerakli o‘zgartirishlarni kiritishlari mumkin. Bu texnologiyalar yirik loyihalarda, xususan, shaharsozlik, infrastruktura va arxitektura loyihalarida keng qo‘llaniladi. O‘zbekiston bozorida VR texnologiyalarining rivojlanishi loyihalarning samaradorligini oshiradi va xalqaro tajribani joriy etish imkonini yaratadi.

Simulyatsiya va analitik dasturlardan foydalanish Qurilish jarayonida kompyuter yordamida simulyatsiya va analitik dasturlardan foydalanish jarayonlar xavfsizligi va sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Texnik simulyatsiyalar yordamida inshootlar mustahkamligi va bardoshliligi tekshiriladi, bu esa loyihalarning xavfsizligini ta’minlaydi. O‘zbekistonda bu texnologiyalardan foydalanish orqali xavfsizlikni oshirishga va resurslarni tejashga erishish istiqbollari mavjud.

Kadrlar malakasini oshirish O‘zbekiston texnik universitetlarida zamonaviy kompyuter grafikasi va dizayn yo‘nalishida ta’lim dasturlarini kengaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash sohasida imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash kelgusida O‘zbekistonda raqobatbardosh loyihalash va qurilish kompaniyalarining shakllanishiga yordam beradi.

Qonunchilik va davlat ko‘magi Zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani bu sohada yaxshi istiqbollarni ochib beradi. Qonunchilikda yangi texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan huquqiy asoslar va imtiyozlar, xususan, soliqlarni kamaytirish, moliyaviy yordam ko‘rsatish kabi yondashuvlar mavjud.

O‘zbekistonda zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalarining rivoji va joriy etilishi loyihalash va qurilish sohasida yuqori samaradorlikka, sifatga va zamonaviy me’morchilik talablariga javob beradigan loyihalarning yaratilishiga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning texnologik va iqtisodiy rivojlanishi ushbu texnologiyalarning keng qo‘llanishini ta’minlash uchun zarur asos yaratadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi. “BIM texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha milliy yo‘l xaritasi.” Qurilish Vazirligi, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari. “Raqamli O‘zbekiston 2030” Davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi, 2021.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizmidagi istiqbollari. R.N. Ergashevich
4. Zamonaviy shaharsozlikda quyoshli shaharlar qurishini joriy etishning jahon tajribalari
5. N.E. Rahmonov, M.U. Shodiqulova – 2024
6. O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi. “Qurilish va arxitektura sohasida raqamli transformatsiyalar to‘g‘risidagi hisobot.” Statistika Qo‘mitasi, 2021.

KOMPYUTER MODELLASHTIRISH “KOMPYUTER ILMI ASOSLARI” FANI O‘QITISHNING VOSITASI SIFATIDA

Haydarov Jonibek Kamol o’g’li
Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada qurilish universitetida mutaxassislarni geometrik va grafik tayyorlash samaradorligini oshirishning pedagogik shartlari muhokama qilinadi. Talabalarning ijodiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchi-ustoz rahbarligida geometrik va grafik fanlarni mazmuni, usullari va usullarida birlashtirgan grafik axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy dunyo axborot va bilimlar hajmining tez o'sishi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish avtomatlashtirish, robototexnika va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori texnologiyaga aylanmoqda. So’nggi yillarda, ijobiy natijalar muhandislik ta’lim kompyuter yordamida ta’lim foydalanish, kompyuterlar muhandislik va muhandislik ta’limida qo’llanilishi uchun juda zarur bo’lib qoldi. Kompyuterni o’qitish va kompyuter yordamida o’qitish kengaytirilishi kerak.

Kalit so’zlar. Kompyuter modellashtirish, Kognitiv, axborot texnologiyalari, ijodkorlik, geometriya va grafika, grafik axborot texnologiyalari, ta'lim muhiti, fazoviy fikrlash, metod.

Abstract. The article discusses pedagogical conditions for increasing the effectiveness of geometric and graphic training of specialists at the construction university. Opportunities for creative development of students can be realized in an innovative educational environment under the guidance of a teacher-mentor using graphic information technologies that combine geometric and graphic sciences in content, methods and methods. The modern world is characterized by a rapid increase in the volume of information and knowledge. Production is becoming high-tech using automation, robotics, and computer technology. In recent years, positive results have become very necessary for the use of computer-assisted education in engineering education, and the use of computers in engineering and engineering education. Computer education and computer-assisted education should be expanded.

Keywords. Computer modeling, Cognitive, information technologies, creativity, geometry and graphics, graphic information technologies, educational environment, spatial thinking, method.

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo‘lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo‘llashga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2020-yil yil 6-noyabrdida imzolangan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF- 6108 Farmonda ham Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish” mazkur sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Boshqa sohalar singari quruvchi muhandislarni tayyorlashda ham dolzarb vazifa bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun esa o‘qitish jarayonida ta’lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo‘llash orqali quruvchi muhandislarning bilim malakasini oshirish zarur bo‘ladi. Shu sababli bugungi kunda qurilish sohasidagi asosiy dolzarb masala yangi bilimlarga ega bo‘lgan quruvchi muhandislarni yangi innovatsion kompyuter dasturlari bilan qurollantirishdan iboratdir. Quruvchi muhandislarni tayyorlashda hozirgi kunda Auto Cad programmasini talaba yoshlarga o‘rgatish ularda qurilish chizmachiligini shakllantirish imkonini beradi.Chunki quruvchi muhandislarga ta’lim-tarbiya berish, ularni kasblarga yo‘naltirishda kompyuter texnologiyalarning o‘rni katta hisoblanadi. Shuning uchun ham malakali yetuk muhandis kadrlar tayyorlash uchun ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarni o‘qitish, ularga ta’lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo‘lib kelgan. Bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak – ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha

Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi.Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ta’lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga, ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va resurs-tejamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya

Jamiyatning barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun samarali texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyat turli xil maqsadlar uchun muhandis kadrlarni tayyorlash sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday sharoitlarda faoliyatning kasbiy va boshqa faoliyat sohalarida mutaxassislarni ijodiy shaxs sifatida shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Muhandislarning malakasi yangi uskunalar yaratish, zamonaviy yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish, texnik obyektlarni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishni optimallashtirish muammolarini ijodiy hal etish qobiliyati bilan tavsiflanadi [1].

Yuzaga kelgan vaziyat ko‘p jihatdan arxitektura, qurilish, ishlab chiqarish texnologiyasi, va boshqa sohalar uchun yuqori malakali, kompententli mutaxassislarni tayyorlash masalasida yangicha talablarni qo‘ydi. Oliy ta’lim tizimining yaxlitligini ilmiy asoslash talab etiladi, o‘quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimallashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbi bo‘yicha kompetentligini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalarining muhimligi ortadi. O‘zgaruvchan jamiyat, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlari sohasiga yangi talablarni ilgari suradi.O‘qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o‘zgarishiga, quruvchi muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog‘liq bo‘lgan ta’lim faoliyatining texnologiyalarini o‘quv faoliyatini tashkillashtirishning metodlari bilan transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi va mamlakatimizda bo‘lajak quruvchi muhandislarning kasbiy kompententlik faoliyatiga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvni bosqichma-bosqich tadbiq etishni shakllantiradi [2]. O‘qitish jarayonida talabalarni bo‘lajak quruvchi muhandislarning kasbiy kompententlik faoliyati asosini birlashtiradigan va tashkil etadigan narsalarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Jamiyatning bunday tartibi oliy o‘quv yurtida o‘qish davrida bo‘lajak quruvchi muhandislarning kasbiy kompententligini rivojlanishidagi asosiy o‘zgarishlarni aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etdi. Oliy o‘quv yurtidagi umummuhandislik tayyorgarligi ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi [.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak quruvchi muhandislarning professional tayyorgarligi masalalari U.N.Nishonaliyev, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjaboyev, R. Xasanov, N.Saidaxmedov, Q.O‘.Tolipov, S.S.Bulatov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ammo chizma geometriya; muhandislik grafikasi, loyihalash asoslari, muxandislik va kompyuter grafikasi va boshqa geometrik-grafik fanlarni o‘rganish muammolari bo‘lajak kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy fanlarga o‘qitish bilan bog‘liqlikda yetarlicha tahlil etilmagan. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zida o‘quv jarayonining tashkiliy – pedagogik, metodik va texnologik asoslarni jamlagan grafik fanlarini o‘zlashtirish bosqichida kasbga loyiqligi darajasini baholashning miqdoriy va sifat mezonlari hali ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi fikrlar bizni bo‘lajak quruvchi muhandis tayyorgarligining kasbiy kompententlik sifatiga talab yuqori bo‘lgan sharoitda alohida dolzarblik kasb etadigan oliy o‘quv yurtlari talabalari umum muhandislik- grafik tayyorgarligining tizimining samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undaydi.

Quruvchi muhandislarning grafik tayyorgarligi amaliy tajribasini umumlashtirishi va ilmiy-uslubiy ishlarning tahlili yuqori malakali bo‘lajak mutaxassislarning grafik tayyorgarligi jarayonida quyidagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlashga imkon berdi [3].

- quruvchi muhandislar va ishlab chiqarish texnologiyalari ta’limi sohasida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishning yaxlit uslubiy nazariyasi mavjud emas;
- kurs ishlari va bitiruv ishlarini bajarishda grafik bilimlaridan foydalanishning yuqori darajasini ta’minlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish hali ham kamligi;
- yosh quruvchi muhandislarni tayyorlashda amaliy, loyihaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish jarayonida grafik tayyorgarlik muammolari tahlil etilmaydi.

Bo‘lajak quruvchi muhandislarning oliy ta’lim muassasasida o‘qib yurgan davrida kasbiy kompententligi darajasi eng muhim xususiyati grafik tayyorgarligining sifati hisoblanadi. Qurilish yo‘nalishiga asoslangan Oliy ta’lim tizimida arxitektura va loyixalash asoslari fanini o‘qitish jarayonida kasbiy kompetentligini takomilashtirishning yangi ilmiy asoslangan shakllarini ishlab chiqish o‘qitish tizimidagi maqsad, tuzilish va bog‘liqliklarni tahlil etishga asoslangan[4]. So‘nggi paytlarda o‘qitish tizimida quyidagi kamchiliklar paydo bo‘lmoqda:

- ma’lumotlar ba’zasining kamligi;
- o‘rganish uchun ajratilgan kompyuter texnologiylarning zamonaviy dasturlarda ishlay olmasligi;
- qurilishga oid dasturlar (Auto Cad,Corel Draw, 3D Max) biladigan kadrlarning kamligi.

Natijalar

Arxitektura va qurilish sohasida muhandislarda kompyuter va texnologik modellashtirish ko'nikmalarini shakillantirishning bir qator tadqiqotlar va amaliy loyihalar orqali ko’rsatib berilgan. Ushbu sohada kompyuter va texnologik modellashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Quruvchi muhandislarni o‘qitishning tuzilishida ta’lim darajasini va yangi metodik usullarni amalga oshirishning yaxlitligi “Kompyuter ilmiga kirish” fani

mutaxassislarini tayyorlashning umumiy tizimiga integratsiyalashuviga imkon beradi. Talabalarning intellektual, ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish o‘quv materiallarining uzluksizligi me’yorlari asosida o‘qitishda yetakchi o‘rinni egallaydi.

O‘qitish shakllari va usullaridagi talabalar o‘quv va kognitiv faoliyati xarakterining ketma-ketligi izchilligi, uyg‘unligi hozirgi vaqtda yetakchi mutaxassislar - pedagoglar tajribasi ishlaridan foydalanishga hamda bo‘lajak muhandis mutaxassislarning professional tayyorgarligi oshiradi.

“Kompyuter ilmiga kirish” fanida deyarli barcha mavzular an’anaviy ravishda bir xil darajada o‘tiladi va talabalar o‘qishni va keyingi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun aynan nimani puxta egallashi kerakligini bilishga qaratilgan. Talabalar yakuniy nazoratlarga o‘zlari uchun manfaat sifatida qaraydilar. Ularning ko‘pchiligining ongida bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash tushunchasi shakillandi.

Umumtexnika fanlaridan biri sifatida “Kompyuter ilmiga kirish” quruvchi muhandis kadrlar tayyorlashda asosiy fan hisoblanadi. Uning har bir bo‘limida boshqa fanlar mazmuni bilan bog‘liq va ularni o‘rganishda ishtirok etadigan materiallar mavjud. Shuning uchun Kompyuter ilmiga kirish fanini o‘rganish jarayonida ushbu fanni Oliy o‘quv yurtining yuqori kurslardagi fanlar va talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy aloqani ta'minlash juda muhimdir.

Ta'lim jarayonida modellashtirishning o'rni. Zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilish universitetlarda keng dunyoqarashga ega bo'lgan, kelajakdagi ish sohasini yaxshi biladigan va ayniqsa kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga qodir bo'lgan bakalavrlarni tayyorlashga qaratilgan. O'quv jarayonini modernizatsiya qilishning yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, o'quv va eksperimental tadqiqot faoliyatini, axborotni qayta ishlash bo'yicha turli xil mustaqil ishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan uslubiy o'qitish tizimini yaratishdir. Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning xilma-xil usullaridan, ayniqsa, mahalliy va xorijiy o'quv jarayoni amaliyotida keng ommalashganligi sababli kompyuter modellashtirishdan foydalanishni alohida ta'kidlash kerak [2,5].

Oliy ta’lim samaradorligini oshirish zarurati uni zamonaviy kompyuter texnikasi bilan keng jihozlash va undan kompleks foydalanishni taqozo etdi. O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish mutlaqo har qanday turdagi sinflarda mumkin. Kompyuterlar bu erda materialning rivojlanishini jadallashtirish uchun vizualizatsiya vositasi, bilimlarni sinash uchun simulyatorlar va real jarayonlar va hodisalarni taqlid qiluvchi laboratoriya qurilmalari sifatida xizmat qilishi mumkin, bu, ayniqsa, qurilishda modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qoidaga ko'ra, modellashtirish fizik hodisani to'g'ridan-to'g'ri dala tadqiqoti imkonsiz yoki amaliy bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Kompyuterlardan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday modellashtirish o'quvchilarning o'quv materialiga qiziqishini oshiradi, uni o'zlashtirishni chuqurlashtiradi

Xulosa

Arxitektura va qurilish sohasidagi quruvchi muhandislarda kompyuter va texnologik modellashtirish ko'nikmalarini tashkil qilishning pedagogik asoslari mavzusidagi tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni keltirib o’tish mumkin:

Kompyuter modellarini yaratishda muhim nuqta - o'qituvchilarning talabalar bilan hamkorlik qilish qobiliyati, ularga "ta'lim jarayonining hammualliflari" pozitsiyasini berish istagi. Shuning uchun ularni bunday komplekslarni yaratishga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bu bo'lajak bakalavrlarni dizayn faoliyatiga tayyorlaydi, kasbiy muhandislik ko'nikmalarini shakllantiradi, ilmiy ish asoslarini yaratadi va rivojlantiradi, texnik echimlarni mustaqil izlashga o'rgatadi, kompyuterda axborotni qayta ishlash, turli qurilish jarayonlarni kompyuter modellari yordamida tasvirlash va o'rganish ko'nikmalarini singdiradi va mustahkamlaydi; yangi yaratilgan dizaynlarni har tomonlama, ko'rib chiqish uchun talabalarni yanada jiddiy ishlab chiqarish modellashtirishga yo'naltiradi

Xulosa qilib aytganda, kompyuter va texnologik modellashtirish ko'nikmalarini tashkil qilish arxitektura va qurilish sohasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va samarali tashkiliy yechimlar asosida tashkil etilishi lozim. Bu esa o’z navbatida, sifatli kadrlar tayyorlash hamda ushbu sohani jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Карпович Э., Учебное моделирование как основа развития профессиональных навыков будущих инженеров // ОБРАЗОВАНИЕ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА // УДК 631.371:621.1:658.264(075.8) 44-52.

2. Sharopov B.X. Bo‘lajak quruvchi muhandislarni kasbiy komponentligini rivojlantirishda axborot-komunikatsiya texnologiyalari o‘rni // "Экономика и социум" №5(108)-1 2023 // www.iupr.ru 300-305

3. Soner Seker. Computer - Aided Learning in Engineering Education /Procedia Social and Behavioral Sciences // P. 739-742.

4. Fatin A.P. Aznah N.A. Perception of Complex Engineering Problem Solving Among Engineerıng Educators //Centre for Engineering Education, Universiti Teknologi Malaysia, Johor, Malaysia P. 216-224.

5. Khaydarov J. K. Forming 3D Modelling Skills in Future Engineers Through BIM (Building Information Modeling) // American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637) // ISSN (E): 2993-2637 P 218-223.

INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION, PROSPECTS AND CHALLENGES AWAITING SOLUTION

Bakhtiyar Ibrahimovich Saidmuratov
Samarkand State University of Architecture and Construction named after Mirzo Ulugbek.

Shang Weilai, Mel Bin
Nanjing Polytechnic Institute (China)

Abstract: Integration of science, education and production, prospects and problems awaiting solution.

In this article, the role of the environment in the training of personnel, the transfer of scientific ideas and the improvement of the quality of education, the existing problems and their solutions are discussed in this article.

Keywords: science, education, production, integration, innovation, expert, competence, quality, learning process, technology.

Annotatsiya: Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, istiqbol va yechimini kutayotgan muammolar.

Ushbu maqolada ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kadrlar tayyorlashdagi, ilmiy g'oyalarni transfer qilish va ta'lim berish sifatini oshirishda muhitni o'rni, mavjud muammolar ularni yechimlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish, integratsiya, innovatsiya, mutaxassis, kompetensiya, sifat, o'quv jarayoni, texnologiya.

Аннотация: Интеграция науки, образования и производства, перспективы и проблемы, ожидающие решения.

В данной статье обсуждаются условия интеграции образования, науки и производства, трансфера научных идей и повышения качества образования, а также пути решения существующих проблем.

Ключевые слова: наука, образование, производство, интеграция, инновации, эксперт, компетентность, качество, процесс обучения, технологии.

Introduction. No one can deny that it is important to improve the quality of personnel training for the development of the country's economy. The issue of personnel serves as a key in the development of the economy of any country and in increasing its competitiveness. It is possible to achieve the desired goals only through the rapid development of production based on high technologies in the national economy, and the introduction of innovative technologies into the economy.

It is of great importance to ensure the integration of science, education and production in the training of quality personnel.

Currently, we are passing an important stage in the development of education at our university. Educational, research and production activity of students in the educational process is an important part of improving the system of higher education.

We will try to answer the question of what is educational integration and why it is necessary, first of all, educational integration is related to human activity and is a necessary phenomenon aimed at training quality specialists. Also, "integration" is closely related to the concept of "system", because in the process of integration, the system acquires a unique quality - integrity, a set of properties unlike its individual elements. Thus, integration is the process of interaction of various elements that leads to the formation of a new integrated complex.

PQ-916 of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 15, 2008 "On additional measures to encourage the application of innovative projects and technologies to production", February 17, 2017 "Organization, management and financing of the activities of the Academy of Sciences, research and development works" on further improvement measures" No. PQ-2789, dated July 27, 2017 "On measures to further expand the participation of economic sectors and sectors in improving the quality of training of highly educated specialists" No. PQ-3151, Resolutions PQ-4335 of May 23, 2019 "On additional measures for the rapid development of the construction materials industry" and Decree No. PF-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" , as well as the relevant clauses of the Decision PQ-416 of November 8, 2022 "On measures to further improve the personnel training system in the field of architecture and construction", the legal and regulatory frameworks defining the "prospects of the integration of science, education and production" in our country are defined.

In today's modern world, the security and independence of states is inseparable from their level of technological development. The role and importance of each country in the world economy directly depends on its possession of high technologies. The level of development of high technologies, in turn, depends on the country's economic situation and scientific-production potential.

The transition of the economy of developing countries to the path of technological development requires new approaches to the training of highly qualified personnel in technical engineering fields.

The rapid development of science and technology, the replacement of some technologies with new and better ones, and the strengthening of innovative processes in the production sector create the need for continuous improvement of new knowledge and skills in engineers being trained in higher education institutions.

The uniqueness of many universities in the world is that their main functions are the integration of education, science and production, in addition to the training of specialists. This factor, in theory, creates opportunities for scientists to realize their ideas in the form of finished products, for students to receive better

education, and for universities to see income from promising, high-tech venture investments.

The quality level of the graduates of higher educational institutions in the technical direction - the quality of the educational (training) program;

- the quality of personnel and scientific potential involved in the educational process;

- the quality of students (including applicants entering a higher education institution);

- to the quality of educational process tools (material, technical, experimental base);

Everyone knows that it depends on a number of factors, such as educational and methodological support. At the same time, it is necessary to look for a number of unused opportunities in the current era of rapid development.

The main idea of the modern development of the theory and practice of quality management of technical engineering education is that in order not to lag behind advanced technologies, it is necessary to abandon some unjustified traditional approaches to education.


Engineering and technical education does not limit quality management only to assessment and control, but also involves the creation of additional conditions that ensure this quality more fully. One of the components of this integrity is the integration of engineering and technical education with science and production.

Engineering education and manufacturing integration is a dynamic multi-component system. Each state of the system corresponds to certain connections between its components, which represent one or another form of integration.

In the conditions of integration of education, science and production, it is necessary to provide a network educational-methodical system with a model adapted to market requirements, which ensures training of modern engineers and independent education.

A number of steps have been taken to develop the integration of science, education and production at the Samarkand State University of Architecture and Construction named after Mirzo Ulugbek. As a specialist department, more than 10 higher educational and scientific research institutions, as well as 20 equipped with the most modern technologies, in order to train specialists in the educational direction "Technology of production of construction materials, products and structures" and to conduct scientific research on the creation of new types of construction materials close cooperation was established within the framework of "Integration of Science, Education and Production Enterprises" with enterprises producing construction materials.

Students of our university's "Production of construction materials, products and constructions" educational direction are being organized in these enterprises not only for their professional internships, but also for graduation diploma work and master's research work in production enterprises equipped with modern technologies. One of such main partners is "KARSHI CONCH CEMENT", "TASHKENT CONCH CEMENT" and "ANDIJON CONCH CEMENT" enterprises of "Anhui Conch Cement Company Limited" of the People's Republic of China in Uzbekistan (pic. 1).




"Integration of science, education and production" is the joint use of the existing capabilities of the parties for mutual benefit.

Pic. 1. Science-education-production integration

In the academic year 2021-2022, 21 graduates and 4 graduate students of this field of education were hired at the factory after qualifying practice at the "Karshi-Conch" cement plant, defending their diplomas and master's theses, and are currently working in various positions.

In the 2022-2023 academic year, based on the Decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 8, 2022 No. PQ-416 "On measures to further improve the personnel training system in the field of architecture and construction", after our institute received the status of a university, paragraph 9 of Appendix 2 of this decision, paragraph 3- points 1-2-3 of clause 18, clause 19, clause 2-3 and 4 of clause 32 and 2 professors of the department "Technology of construction materials, products and constructions" to ensure the implementation of internships of professors and teachers in modern equipped foreign enterprises - teachers, also, 20 students of the 4th year of the "Production of construction materials, products and constructions" were sent to the foreign enterprises "KARSHI CONCH CEMENT" and TASHKENT CONCH CEMENT for a one-month internship and "training for a special profession". Since 2019, continuous monitoring of graduates employed in these cement factories has been carried out. The management and specialists of the enterprise gave good conclusions, and it is noted that their professional competences are increasing year by year. The department has studied the personnel requirements of several cement plants until 2025, and the annual demand for only "engineer-technologists" in the cement plants of the Chinese company "Anhui Conch Cement Company Limited" is 60 to 80 people. Based on this request, based on the proposal of the above enterprises, it was agreed to train specialists for the enterprises of the Republic of China operating in Uzbekistan for the production of building

materials in cooperation with the Nanjing Polytechnic Polytechnic Institute of the People's Republic of China and the Samarkand State University of Architecture and Construction (Pic. 2).




Pic. 2. Integration of production and education in the example of Karshi-Conch

In addition, based on the relevant clauses of the cooperation agreement between the Chinese foreign company "HENGYUAN CEMENT" and the university, a group of students studying in the field of "Manufacturing of construction materials, products and structures" will spend two months from April 1 to May 31, 2023 in the city of Cyril, Kyzyl Horda region of the Republic of Kazakhstan. After passing special educational practical courses on "physical-chemical analysis and quality control" at the center of special vocational education and training of the Chinese state and successfully defending diplomas, they are currently working as engineers-technologists at this plant.

More than 60 of our graduates work in cement production plants built and operated by Chinese partners in Uzbekistan.

In the academic year 2023-2024, together with the Nanjing Polytechnic Institute of the People's Republic of China and the Chinese cement plants operating in our country, work is being carried out to implement the essence of the concept of "Science, Education and Production".

In collaboration with Samarkand State Architecture and Construction University, Nanjing Polytechnic Institute and three cement plants belonging to Anhui Conch Cement Company Limited, it was mutually agreed to establish a "Training and Research Center" at the base of the "KARSHI CONCH CEMENT" plant



Pic. 3. Activities of the Center for Integration in Cooperation

It is envisaged that this Center will start its activities in full from the 2025-2026 academic year. The 2+2 project is also envisaged in this cooperation. The personnel trained in this center will be fully covered by the Chinese cement factories operating in Uzbekistan, and the results of the conducted scientific research are expected to be applied in these factories as well (pic. 3).

Starting from 2023, our university is establishing cooperation with the leading cement production company "Ackerman" in Russia.

Currently, the university is preparing proposals for the establishment of close mutually beneficial cooperation with the Akhangoron cement plant of the Russian company Akkerman.

Obstacles and challenges:

- the lack of adaptability of the educational (curriculum) program, curriculum and lesson schedules based on the demand for production specialists (branches of the department) and the presence of elements of the bureaucracy of the educational system;

- the presence of differences between the level of preparation of graduates of the educational institution and the requirements for the quality of personnel of production;

- many students have a responsible attitude to the educational process and the lack of a deep logical connection to work on further professional activities (the goal is only to get a diploma);

- due to rapidly developing technologies, it is difficult to reach higher education;

- old and poorly equipped scientific research base of higher education institutions;

- the fact that the base of existing scientific laboratories is not accredited and certified and the necessary funds are not allocated;

- poor functioning of the system of transfer of developments and discoveries made by scientists to production;

- underestimation of the role of production in the educational system.

Summary.

- training of a modern engineer based on the systematic integration of education, science and production is not only a scientific problem, but also one of the main directions of state policy;

- the integration of education, science and production is the structure of the national innovative system;

- if cooperation in the integration of education, science and production is not based on the principles of compatibility of interested parties, this cooperation will remain superficial and the intended goals cannot be achieved;

- this integration theoretically creates opportunities for scientists to implement their ideas in the form of finished products, for students to receive better education and for universities to see income from promising, high-tech venture investments.

References

1. Sh. M. Mirziyoev – Toshkent : O‘zbekiston. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”

2. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. https://lex.uz/docs/4545884

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Sourse: https://press-servis.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, PQ-2789-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PK-4335 Qarori. –Toshkent, 2019 yil 23 may. https://lex.uz/

6. Saidmuratov B.I., Bo‘riboev Sh.A., Ibragimov X.M. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasida malakaviy amaliyotning tutgan o‘rni. SamDAQU ”Me’morchilik va qurilish muammolari”. Ilmiy-texnik jurnali, 2020, №4 b. 94-97.

6-SHO‘’BA. ARXITEKTURA VA MUHANDISLIK SOHALARIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMIL-LASHTIRISHNING MUAMMMO VA YECHIMLARI HAMDA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI

UNIVERSITETLARDA DIZAYNERLARNING IJODIY TAYYORGARLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MUAMMOLAR

Esan Muxamadiyev
SamDAQU Interyer dizayni kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqola talabalar va o'qituvchilar duch keladigan zamonaviy usullar, yondashuvlar va muammolarni tahlil qilib, universitetlarda dizaynerlarning ijodiy tayyorgarligiga bag'ishlangan. Tez o'zgaruvchan bozor sharoitida ijodiy va tanqidiy fikrlashning ahamiyati, shuningdek, kelajakdagi dizaynerlarning ijtimoiy javobgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydigan loyihalarni o'qitish, intizomlararo kurslar va amaliyotchilarning mahorat darslari kabi usullar ko'rib chiqiladi. Amaliy tajribaning etishmasligi muammolari va o'quv dasturlarini sanoat talablariga moslashtirish zarurati ham muhokama qilinadi. Maqolada universitetlarning kompaniyalar bilan muvaffaqiyatli hamkorligi va talabalarning tanlovlarda ishtirok etishi misollari keltirilgan, bu ularning kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Xulosa shuni ko'rsatadiki, nazariya va amaliyotni o'z ichiga olgan o'qitishga kompleks yondashuv dizayndagi muvaffaqiyatli martaba uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga qodir.

Kalit so‘zlar: yangi g’oyalar va yondashuvlar, zamonaviy dizayn atrof-muhit, arxitektura, grafika, Ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kompozitsiya, dizayn, ta’lim, badiiylik, axloqiy, ifoda.

Abstract:

The article focuses on the creative preparation of designers in higher education institutions, analyzing contemporary methods, approaches, and challenges faced by students and educators. In the context of a rapidly changing market, the importance of creative and critical thinking, as well as social responsibility, becomes crucial for future designers. Methods such as project-based learning, interdisciplinary courses, and workshops by industry professionals are discussed, highlighting the significance of practical experience. The article also addresses issues related to the lack of practical experience and the need to adapt curricula to industry demands. Examples of successful collaborations between universities and companies, as well as student participation in competitions, are presented as means of fostering professional growth. The conclusion emphasizes that a comprehensive approach to education, encompassing both theory and practice, is essential for preparing qualified specialists ready for successful careers in design.

Kirish. Vizual aloqa va innovatsion echimlar muhim rol o'ynaydigan zamonaviy dizayn dunyosida dizayn mutaxassislarini tayyorlash ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Universitetlarda dizayn talabalarini ijodiy tayyorlash-bu texnik va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayon. Ushbu maqolada biz oliy o'quv yurtlarida dizaynerlarning ijodiy tayyorgarligi qanday amalga oshirilayotgani, qanday usul va yondashuvlar qo'llanilayotgani, o'qituvchilar va talabalar qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Ijodiy tayyorgarlikning ahamiyati. Dizaynerlarning ijodiy tayyorgarligi nafaqat badiiy ko'nikmalarni rivojlantirishni, balki ijodiy fikrlashni, muammolarni hal qilish qobiliyatini va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu fazilatlar innovatsiyalar va moslashuvchanlik muhim bo'lgan dizayn sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun muhimdir

1.1. Ijodkorlik dizaynning asosi sifatida. Dizayndagi ijodkorlik nafaqat chiroyli narsalarni chizish yoki yaratish qobiliyatidir. Bu asl g'oyalarni yaratish va nostandart echimlarni topish qobiliyatidir. Ijodkorlikning muhim jihati, shuningdek, dunyoni yangi burchakdan ko'rish, vazifaning turli jihatlarini tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni taklif qilishdir.

1.2. Tanqidiy fikrlashning ahamiyati. Tanqidiy fikrlash talabalarga o'z g'oyalari va takliflarini tahlil qilish, ularni turli nuqtai nazardan baholash va tanlovni asoslash imkonini beradi. Bu nafaqat dizaynni yaratish, balki uni mijozlar va hamkasblar oldida himoya qilish uchun ham muhimdir. O'z qarorini asoslash va muqobil yondashuvlarni tanqidiy baholash qobiliyati mutaxassisni jamoada yanada qimmatli qiladi.

1.3. Dizaynerning ijtimoiy javobgarligi. Zamonaviy dizayner o'zining ijtimoiy mas'uliyatidan xabardor bo'lishi kerak. Dizaynerlar odamlar hayotiga, jamiyatga va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar va echimlarni yaratadilar. Talabalar dizayndagi axloqiy me'yorlarning ahamiyatini tushunishlari va barqaror va ijtimoiy echimlarni yaratishga intilishlari muhimdir.

2. Ijodiy tayyorgarlik usullari

2.1. Loyiha o'qitish usuli

Dizayn usuli dizaynerlarni tayyorlashning eng samarali usullaridan biridir. Bu talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradigan haqiqiy loyihalarni amalga oshirishga asoslangan. Ushbu usul ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam

beradi, chunki talabalar nostandart echimlarni talab qiladigan haqiqiy muammolarga duch kelishadi.

Dizayn usulini amalga oshirishga misol. Masalan, talabalar ma'lum bir mijoz uchun yangi mahsulotni ishlab chiqish loyihasi ustida ishlashlari mumkin. Tadqiqot bosqichida ular maqsadli auditoriya ehtiyojlarini o'rganadilar, bozorni tahlil qiladilar va keyinchalik prototip sifatida amalga oshiriladigan kontseptsiyani ishlab chiqadilar. Ushbu yondashuv talabalarga dizayn jarayoni va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

2.2. O'zaro intizomiy mashg'ulotlar. Zamonaviy dizayn psixologiyadan texnologiyagacha bo'lgan turli sohalardagi bilimlarni talab qiladi. Kross-intizom kurslari talabalarga dizaynni boshqa fanlar kontekstida o'rganishga imkon beradi, bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va noyob g'oyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Masalan, idrok psixologiyasi kursi talabalarga auditoriya vizual ma'lumotni qanday qabul qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2.3. Amaliyotchilarning mahorat darslari va ma'ruzalari. Master-klasslar va ma'ruzalar o'tkazish uchun soha mutaxassislarini taklif qilish talabalarga zamonaviy dizayn tendentsiyalari va talablari haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Amaliyotchilar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari, keng tarqalgan xatolar haqida gapirishlari va kasbiy rivojlanish bo'yicha maslahatlar berishlari mumkin.

2.4. Shaxsiy va guruh loyihalari. Shaxsiy loyihalar talabalarga dizayn uslubi va yondashuvini rivojlantirishga imkon beradi, guruh loyihalari esa jamoada ishlashga o'rgatiladi. Shaxsiy va guruh ishlari o'rtasidagi muvozanat turli xil sharoitlarga muvaffaqiyatli moslasha oladigan ko'p qirrali mutaxassisni shakllantirishga yordam beradi.

3. Texnik ko'nikmalar va ularning rivojlanishi.

3.1. Zamonaviy asboblarga egalik qilish. Zamonaviy dizaynda nafaqat ijodiy fikrlash, balki texnik ko'nikmalar ham muhimdir. Grafik dizayn, 3D modellashtirish, veb-dizayn va boshqa sohalar uchun zamonaviy dasturlarga ega bo'lish muvaffaqiyatli martaba uchun zarur shartdir. Universitetlar talabalarga tegishli dasturiy mahsulotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi va ular bilan ishlash ko'nikmalarini o'rgatishlari kerak.

3.2. Texnologiyalarning dolzarbligi. Har yili dizayn yondashuvlarini o'zgartiradigan yangi texnologiyalar va vositalar paydo bo'ladi. Masalan, virtual va kengaytirilgan haqiqatdan foydalanish dizaynerlar uchun yangi zamin yaratadi. Ta'lim muassasalari yangi tendentsiyalarni kuzatishi va ularni o'quv dasturlariga qo'shishi muhimdir.

4. Dizaynerlarning ijodiy tayyorgarligi muammolari.

4.1. Tez o'zgaruvchan bozor talablariga moslashish. Dizayn sanoati jadal rivojlanmoqda va universitetlar o'quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab turishlari kerak. Bu o'qituvchilar va talabalar tomonidan moslashuvchanlik va o'zgarishlarga tayyorlikni talab qiladi. Biroq, o'quv jarayoniga yangi texnologiyalar va usullarni tezda kiritish har doim ham mumkin emas.

4.2. Amaliy tajribaning etishmasligi. Ko'pgina bitiruvchilar amaliy tajriba etishmasligi muammosiga duch kelishmoqda. Bu o'quv jarayonida nazariya va amaliyotning etarli darajada integratsiyalashmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Universitetlar sanoat bilan faol hamkorlik qilishlari, amaliyot va loyihalarni Real sharoitda yaratishlari muhimdir.

4.3. Nazariya va amaliyotning muvozanati. Ba'zida ta'lim muassasalari nazariy qismga e'tibor berishadi, bu esa talabalar orasida ijodkorlik etishmasligiga olib kelishi mumkin. Talabalar olgan bilimlarining haqiqiy qiymatini ko'rishlari uchun nazariya va amaliyot o'rtasidagi muvozanatni topish kerak.

4.4. O'ziga xoslikka intilish. Zamonaviy dizaynerlar ko'pincha o'ziga xos va noyob bo'lish bosimiga duch kelishadi. Bu stressni keltirib chiqarishi va o'ziga bo'lgan ishonchni kamaytirishi mumkin. Talabalarga o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasdan o'z uslublarini rivojlantirishga yordam berish orqali ularni qo'llab-quvvatlash muhimdir.

5. Muvaffaqiyatli amaliyotlarga misollar.

5.1. Sanoat bilan hamkorlik. Ko'pgina universitetlar qo'shma loyihalarni yaratishda kompaniyalar va brendlar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqdalar. Masalan, talabalar reklama kampaniyalarini yaratish yoki taniqli brendlar uchun mahsulotlarni ishlab chiqish ustida ishlashlari mumkin. Bu nafaqat talabalarga amaliy tajriba beradi, balki ularga sohada aloqa o'rnatishga yordam beradi.

5.2. Xalqaro loyihalar. Ba'zi ta'lim muassasalari turli mamlakatlardan kelgan talabalarni o'z ichiga olgan xalqaro loyihalarni tashkil qiladi. Bu tajriba almashish, madaniy ufqlarni kengaytirish va ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, talabalar ekologiya yoki ijtimoiy tengsizlik kabi global muammolar bilan bog'liq loyihalar ustida ishlashlari mumkin.

5.3. Tanlovlar va ko'rgazmalarda ishtirok etish. Talabalarning tanlov va ko'rgazmalarda ishtirok etishi ularga o'z ishlarini namoyish etish va professionallardan fikr-mulohaza olish imkonini beradi. Bu nafaqat talabalarga bayonot berishga yordam beradi, balki ularning qobiliyatlariga ishonchni rivojlantiradi. O'qituvchilar talabalarni bunday tadbirlarga tayyorgarlik ko'rishda qo'llab-quvvatlashlari mumkin, bu esa ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa va natijalar. Universitetlarda dizaynerlarning ijodiy tayyorgarligi ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladigan muhim va murakkab jarayondir. Nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy va tanqidiy fikrlashni, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni anglashni rivojlantirish muhimdir. Dizayn usuli, o'zaro intizomiy o'qitish va sanoat bilan hamkorlik kabi zamonaviy o'qitish usullarini qo'llash talabalarni dizayndagi muvaffaqiyatli martabaga tayyorlashga imkon beradi.

Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, universitetlar sanoatdagi o'zgarishlarga moslashish va talabalarni professional bo'lish yo'lida qo'llab-quvvatlash orqali o'z dasturlarini takomillashtirishni davom ettirishlari kerak. Faqat shu tarzda yuqori sifatli ta'limni ta'minlash va ijodiy sanoatni rivojlantirishga katta hissa qo'shadigan dizaynerlarni tayyorlash mumkin.

Adabiyotlar

1. Morozova E. Dizaynerlarni ijodiy tayyorlash: zamonaviy usullari va muammolari. [Творческая подготовка дизайнеров: современные методы и вызовы]. Sankt – Peterburg: “BHV - Peterburg” nashriyoti. (2021)

2. Xalilova D. Dizayndagi zamonaviy tendentsiyalar: yondashuvlar va amaliyotlar. Toshkent: “Ma’rifat” nashriyoti. (2020)

3. Nuritdinovich B. O. Forms That Are Transparent and Reflect the Environment in Modern Architecture //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. 2020 – №. 1. – С. 1-5.

4. Kozhevnikov A.M. Arkhitekturnyy eskiz [The Architectural Sketch]. Vestnik MGSU [Proceedings of Moscow State University of Civil Engineering]. 2013, no. 3, pp. 16—25.

5. Шимко В.Т. Архитектурно-дизайнерское проектирование. Основы теории. — М.: СПЦ-принт, 2003.

6. Шукурова А.Н. Архитектура Запада и мир искусства XX века. — М.: Стройиздат, 1990.

7. Muxamadiyev E., Tugizov Sh., Yunusova K. Dizayn asoslari.- Samarqand, 2019.

УДК 72. 036

ХИКМАТ ЮЛДАШЕВ – ВЫДАЮЩИЙСЯ АРХИТЕКТОР ТАДЖИКИСТАНА

Салия Мамаджанова, Рустам Мукимов

Таджикский технический университет им. акад. М.С.Осими, г. Душанбе, Таджикистан

Аннотация: в статье анализируется творчество известного архитектора Таджикистана – Х.А. Юлдашева. Раскрывается метод архитектора в создании монументальных зданий и подготовке красочного альбома «Архитектурный орнамент Таджикистана».

Ключевые слова: архитектура, геометрический орнамент, полихромный орнамент, альбом, академик, дворец культуры, Хикмат Юлдашев.

Annotation: work of well-known architect of Tadjikistan is analysed In the article – Chikmat Yldaschev. The method of architect opens up in creation of monumental building and preparation of colourful album the "Architectural decorative pattern of Tadjikistan".

Keywords: architecture, geometrical decorative pattern, полихромный decorative pattern, album, academician, recreation centre Chikmat Yldaschev.

Многие из молодых архитекторов Таджикистана не знают незаслуженно забытого первого дипломированного архитектора Таджикистана Хикмата Юлдашева. Он после окончания архитектурной специальности Среднеазиатского индустриального института в 1936 году в Ташкенте был направлен по распределению в Душанбе. Здесь в это время не было ни одного архитектора-таджика. Волей судьбы он быстро приобрел авторитет опытного организатора проектного дела и был избран в правление Союза советских архитекторов Таджикистана, созданного в 1936 году, а затем и председателем этой творческой организации.

Первый таджикский архитектор, академик Академии наук Таджикистана Хикмат Абдуллаевич Юлдашев родился в 1913 году в Самарканде в семье ремесленника. В 1932 году поступил в архитектурно-строительный факультет Среднеазиатского индустриального института, который закончил в 1936 году с дипломом с отличием. Прибыв в город Сталинабад (Душанбе), он сразу включился в бурную архитектурную деятельность, где уже работали посланцы центральных городов бывшего СССР молодые архитекторы В.Г. Веселовский, С.Л. Анисимов, Сергей Кутин, Петр Ваулин и другие. Здесь он женился на Саъдиниссо Хакимовой, ныне доктор медицинских наук, профессор, заслуженный деятель науки Таджикистана, член-корреспондент Российской Академии медицинских наук.



Юлдашев Х.А. в 40-х годах стал участником Великой Отечественный войны, был удостоен многих боевых наград, в том числе Ордена Славы первой степени. После демобилизации в 1945 году его сразу

же назначили на должность первого заместителя Председателя Республиканского Комитета по делам архитектуры, а в 1949 году ему было поручено возглавить этот Комитет.

Весной 1951 года Х.А. Юлдашев был включен в состав учредителей Академии наук Таджикской ССР и сразу же был избран действительным членом этой академии. С этого времени начинается пора творческого взлета талантливого архитектора, на которого возлагал большие надежды руководитель ЦК Компартии Таджикистана, академик АН Таджикской ССР, а впоследствии и академик АН СССР Б.Г. Гафуров.

Для реконструкции столицы республики и застройки центральных кварталов города по согласованию с Б.Г. Гафуровым в 1952 году была приглашена из Ленинграда и успешно работала группа архитекторов. Руководил работой группы известный зодчий, академик Академии архитектуры СССР Н.В. Баранов, впоследствии главный архитектор города Ленинграда[2].

Он же поручает Х.А. Юлдашеву запроектировать и построить под Худжандом, на территории колхоза «Москва» (ныне колхоз имени С. Урунходжаева) большой дворец, а также руководить работами по реконструкции столицы республики – Душанбе (Сталинабад). Параллельно со всеми этими ответственными поручения Х.А. Юлдашев приступает к созданию цветного альбома «Архитектурный орнамент Таджикистана», работу над которым было начало ещё в 1945 году[1].

В это время в колхозе «Москва» успешно шло строительство дворца по проекту академика Х.А. Юлдашева и под его неусыпным авторским контролем.

Еще одна группа архитекторов-художников высокого класса была занята составлением эскизов для альбома. Руководил их работой Х.А. Юлдашев. И вот в 1957 году вышел из печати прекрасно изданный в офсетной типографии Государственного издательства литературы по строительству и архитектуре (Москва) альбом «Архитектурный орнамент Таджикистана». В ноябре 1957 года был достроен и сдан в эксплуатацию и дворец колхоза «Москва». На протяжении нескольких десятков лет Х.А. Юлдашев руководил Союзом Советских архитекторов Таджикистана (Союз архитекторов Таджикистана). В 1980 году его не стало.

Неоценимой заслугой Х.А. Юлдашева стал его труд «Архитектурный орнамент Таджикистана», где удалось сохранить для потомства бесценные шедевры архитектурного орнамента Таджикистана, творчество давно ушедших народных зодчих. Учитывая уникальность настоящего издания и его значимость для народов Центральной Азии и Ирана издательство Академии искусств и Международное издательство «Ал-Худа» в Тегеране переиздали в 2005 году этот альбом в виде красочно оформленной большеформатной книги с комментариями на персидском и русском языках. Расскажем несколько подробнее об этой книге, которая давно стала библиографической редкостью.

В предисловии к красочному альбому Х.А. Юлдашев пишет о том, что предки таджикского народа — согдийцы, бактрийцы — издревле населяли долины многих рек Средней Азии. Основным их занятием с древнейших времен были земледелие и скотоводство. Земли, на которых жили предки таджикского народа, лежали на основных путях великого движения народов между Индией и Европой. По этим землям в течение многих веков с севера на юг двигались многочисленные родственные друг другу племена, именовавшиеся в древнеиндийской литературе ариями. Так называемую индоевропейскую общность языков, в число которых входят иранские языки и таджикский язык, наука считает результатом этого движения народов. Позднее по землям, населенным предками таджиков, были проложены торговые пути между Европой и Индией; проходил здесь и знаменитый Шелковый путь из Европы в страну великого китайского народа.

Архитектура таджикского народа своими истоками уходит в глубокую древность. Свидетельством этого являются ее самобытность, специфическая планировка городов, традиционные строительные приемы, вытекающие из конкретных условий, и, наконец, собственная таджикская архитектурная терминология, во многом принятая народными мастерами Узбекистана и Туркменистана.

Развитие земледелия привело к появлению геометрических форм. Эти формы, известные древним земледельцам, постепенно входили в орнаментальные украшения. Таким образом, появление геометрического и растительного орнаментов связано с земледелием древнейших времен.

Орнаментальные украшения жилища таджиков достигли высокого уровня развития. В них воспеваются цветы и розы, весна и лето, изобилие продуктов земледелия; они жизнерадостны, призывают к труду, дают отдых. Художественные приемы, которыми достигнуты эти результаты, представляют большой интерес и для архитектора, призванного строить красивые и простые дома для советского народа, поэтому изучение архитектуры интерьера таджикского жилого дома будет полезным и для практики строительства.

Планы мечетей являются многократным повторением плана жилого дома. Мечети строились, как правило, силами многих народных мастеров с участием жителей квартала или кишлака. Поэтому в перекрытиях мечетей мы встречаем повторение конструктивных приемов и орнамента жилых домов. Разумеется, в некоторых случаях этот орнамент был более богатым.

Выполнение сложных орнаментов на горизонтальных, вертикальных и наклонных плоскостях плафона после возведения конструкций чрезвычайно затруднило бы работу и ухудшило бы ее качество. Поэтому с древнейших времен среди

народных мастеров установилась своя традиция выполнения орнаментальных работ.

Орнаменталисты, как и другие народные мастера, объединялись в цех, имевший свой письменный устав (*рисоля*) и неписаный ритуал. Новые члены принимались в цех после обучения в течение многих лет у старших мастеров. Учениками были в большинстве случаев сыновья или родственники мастеров. Однако допускался прием в ученичество и любого желающего юноши. Ученик должен был выполнять все поручения учителя, в том числе и не связанные с профессией. Звание мастера давалось после многолетней практической работы совместно с мастером. Так, из поколения в поколение передавались традиции и мастерство орнаменталистов.

Таким образом, многовековый опыт, носителями которого являются народные мастера, позволяет им создавать единство из многих различных соподчиненных элементов и достигать полной гармонии в архитектуре интерьера жилого и общественного здания. И именно этот опыт доносит до нас, современных архитекторов, ученых и проектировщиков, альбом Х.А. Юлдашева.

Интерес как работали народные мастера и как они создавали истинный таджикский орнамент и архитектурные формы стали вновь актуальными в наше время, когда архитекторов-практиков просят как можно активнее привносить в современные здания и сооружений таджикские национальные формы и элементы. Именно в этом ключе Комитет по архитектуре и строительству при Правительстве Республики Таджикистан 29 апреля 2014 года провел республиканский научно-практический семинар-совещание на тему «Масъалаҳои истифодаи унсурҳои меъмории миллӣ дар сохтмони бино ва иншоотҳои Ҷумҳурии Тоҷикистон» (Проблемы использования элементов национальной архитектуры в строительстве зданий и сооружений Республики Таджикистан). После совещания в течение трех месяцев Комархстрой РТ провел три раза республиканский профессиональный конкурс проектов и осуществленных строительством объектов с определением компетентным жюри наиболее интересных и своеобразных проектов и их награждением престижными премиями и призами.

Поэтому мы, отдавая дань глубокого уважения признанному мастеру архитектуры Хикмату Абдуллаевичу Юлдашеву, хотели обратить внимание архитектурной общественность на его творчество, ибо его произведения (научные и практические) могут дать не только пищу для размышлений, но также могут стать путеводной нитью к созданию истинно таджикской архитектуры.

Литература:

1. Юлдашев, Х.А. Архитектурный орнамент Таджикистана. Альбом. – М.: Госстройиздат, 1957. – 26 с. +136 ил.

2. Баранов Н.В. Главный архитектор города. Творческая и организационная деятельность. – М.: Стройиздат, 1979. – 170 с.

ARXITEKTORLARGA BINOLARNING QIRQIMLARI, KONSTRUKTIV YECHIMLARI VA TURLI QISMLAR XUSUSIYATLARINI O’QITISHNING AHAMIYATI

Ibragimov Najib Xasanovich (PhD),
Xaitov Ma’ruf Bolikulovich,
Pardayev Rasul To`lqinovich,
Matyokubov Bobur Pulatovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqola - arxitektura ta'limi jarayonida binolarning konstruktsiyaviy jihatlarini o'rganishning muhimligini, shuningdek, arxitektorlarning qirqimlar va qismlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi. O'qitish jarayonida bu elementlarning funksional, estetik va texnik xususiyatlari haqida ma'lumot berish arxitektorlar uchun muhim amaliy tajriba hisoblanadi. Binoning kesimlari (qirqimlar) arxitektura chizmalarida binoning ichki tuzilishi va funksional joylashuvini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bino qirqimlari arxitektorlar va muhandislar uchun binoning turli qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini va konstruktiv yechimlarini aniq tushuntirish imkonini beradi. Ushbu maqolada bino qirqimlari orqali turli konstruktsiv elementlar, masalan, devorlar, tomlar, ustunlar va zinalar o'rtasidagi aloqalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda konstruktiv yechimlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: arxitektuava va qurilish chizmalarida qirqimlar, bino, arxitekturaviy konstruktiv elementlar, qurilish materiallari.

Kirish. Arxitektura chizmalarida bino qirqimlari binoning ichki tuzilishini va funksional joylashuvini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Bino qirqimlari, yoki kesimlar, arxitektorlar va muhandislar uchun binoning turli qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini va konstruktiv yechimlarini aniq ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu chizmalar orqali binoning ichki strukturasini tushunish, materiallar va uslublarni tanlash jarayonida to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Sohada mavjud muammolar. Biroq, arxitektura chizmalarida bino qirqimlari va konstruktsiyalarning o'zaro ta'sirida bir qator muammolar mavjud. Noto'g'ri o'lchovlar, materiallarning yaroqliligi va yomon konstruktsion yechimlar binoning xavfsizligini tahdid

ostiga qo'yishi mumkin. Shuningdek, ko'plab loyiha jarayonlarida yetarlicha tajriba va bilim yetishmasligi ham muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Muammolarning kelib chiqish sabablari hamda yechimiga doir ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalari. Muammolar asosan loyiha jarayonida o'lchovlarning aniqligiga, materiallarning sifatiga va loyiha jamoasining malakasiga bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar va materiallar bilan tanishmaslik, shuningdek, innovatsion yondashuvlardan foydalanmaslik ham muammolarni yanada oshiradi.

Shu bois, arxitektura va muhandislik sohalarida malakani oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, loyiha jarayonlarini samarali boshqarish zarur. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur o'rganish, mavjud muammolarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijda, masalan, Yevropa mamlakatlarida arxitektura sohasida innovatsion yondashuvlar va yangi materiallardan foydalanish tajribasi mavjud. Ular zamonaviy konstruktsiyalarni yaratishda barqarorlik, energiya samaradorligi va inson omillariga e'tibor qaratadilar. Bu yondashuvlar binolarni nafaqat estetik, balki funktsional jihatdan ham takomillashtirishga yordam beradi.

Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni to'g'ri tushunish va qo'llash ishchi loyiha chizmalarida muhim ahamiyatga ega. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlarni birlashtirgan holda, arxitekturadagi yangiliklarni amalga oshirish va yanada samarali loyihalar yaratish maqsadida o'zaro ta'sirni yaxshilash zarur.

Tadqiqotning dolzarbligi.

Zamonaviy arxitektura rivojlanishi bilan binolarning konstruktiv elementlari va qirqimlarini to‘g‘ri tushunish va loyihalash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binoning qirqimlari uning ichki va tashqi elementlari orasidagi bog‘liqlikni aniq ifodalashda, shuningdek, konstruktsion elementlar orasidagi muvozanatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda bino va inshootlarning dizayni va funktsional imkoniyatlarini oshirish uchun innovatsion konstruktiv yechimlar talab etilmoqda. Shu sababli, qirqimlarni to‘g‘ri loyihalash, zamonaviy materiallardan foydalanish va konstruksiyalarning barqarorligini ta’minlash arxitektura va qurilish sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy arxitekturada binolarning qirqimlari va ularning konstruktiv yechimlarini chuqur o‘rganish, turli qismlarining xususiyatlarini tahlil qilish hamda bu elementlarning zamonaviy va kelajakdagi arxitektura rivojlanishidagi ahamiyatini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Binolarning qirqimlarining asosiy turlarini o‘rganish va ularning ahamiyatini aniqlash. Binoning konstruktiv yechimlari va ularning zamonaviy arxitekturadagi o‘rni haqida ma'lumot berish. Binoning turli qismlarining xususiyatlarini o‘rganish va ularning funksiyalarini aniqlash. Binolar qirqimlarida qo‘llanilayotgan yangi materiallar va texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish. Konstruktiv elementlarning arxitektura rivojlanishida kelajakda qanday rol o‘ynashi haqida prognozlar berish.


Materiallar va usullar Ushbu maqolada binoning konstruktiv yechimlari va kesimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar muammolari amaliy misollar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Maqolada bino kesimlarining shakllantirilishi, bino qismlarining konstruktiv yechimlari va ular orasidagi o‘ziga xos xususiyatlar ko‘rib chiqildi. Bino loyihalarida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha xorijiy tajribalar ham tahlil qilindi. Buning uchun Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion yondashuvlar va ularning barqarorlik, energiya samaradorligi hamda ekologik talablarni bajarishga qaratilgan usullari o‘rganildi.

Bino kesimlari vertikal chiziqlar yordamida amalga oshiriladigan arxitektura chizmasi turi hisoblanadi. Ushbu maqolada bino qirqimlarini yaratish jarayoni va zinapoya, devor, tom kabi asosiy elementlarning konstruktsiyalari hisobga olinadi. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlari o'rtasidagi aloqalar shartli ravishda aniqlanadi va 1:100, 1:50 kabi masshtabda tahlil qilinadi. Kesimlar bo‘yicha talablar va ularning chizmada ko‘rsatilish tartiblari xalqaro me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy qism.

1. Binolarming qirqimlari. Qirqimlar-shartli tiniq tekislik yordamidagi vertikal kesim ning ortogonal proyeksiyasidir. U binoning ichki va tashqi elementlari orasidagi bog’liqlikni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

Qirqim chizmasi binoning uzunasiga va eniga bir necha xarakterli yo‘nalishlar (eshik va derazalar, zinapoyalar, ayvonlar) bo‘yicha bajariladi va harf yoki raqam orqali ifodalanadi. Masalan, «A-A», «2-2». Binoning qayeri qirqimga tushsa, shu joyi albatta qalin chiziq bilan chiziladi va qirqimga tushmagan yerlarining hammasi ingichka chiziqlar bilan ajratiladi. Qirqimlarning ortogonal va aksonometrik turlari mavjud (1-rasm). Qirqimlarda o ‘lcham lar tarh lardan farqli o‘laroq, vertikal holatda chizma yoniga alohida chiqarib qo‘yiladi va «belgi» deb ataladi. Tarh va tarz kabi qirqim ham 1:200, 1:100, 1:50, 1:25 masshatblarda bajariladi.




1-rasm. Qirqimlarning ortogonal va perspektivali turlari (a-rasm mualliflar chizmasi, b-rasm [1])

Qirqimni shakllantirish tartibi.

1. Koordinatsiya o'qlari va asosiy sathlarning (M 1:100) gorizontal chiziqlari ingichka chiziqlar bilan o'tkaziladi.

1-qavatning toza pol sathi nol darajali deb qabul qilinadi. Qavatning balandligi turar joy binolarida odatda (topshiriq bo'yicha poldan polgacha) - 3000 mm, pol konstruksiyasi bilan yopmaning qalinligini shartli ravishda 300 mm (hamma uchun), xonaning balandligi (topshiriq bo'yicha poldan shipgacha) - 3000 - 0,300 = 2,700 m deb qabul qilamiz. 2-qavatdagi shift belgisi - 2,700+3,000=5,700 m (2-rasm).



2-rasm. Qavatlar sathini belgilovchi o'lchamlar (mualliflar chizmasi)

2. Yupqa chiziqlar bilan devorlarning konturlari bog'lanishni hisobga olgan holda chiziladi (topshiriq bo'yicha), to'sinlarning qalinligi ko'rsatiladi.

3. *Parda devorlar, deraza va eshik o'rinlari ingichka chiziqlar bilan chiziladi.*

Deraza o'rnining pastki qismi pol sathidan 750-800 mm balandlikda, deraza o'rnining balandligi 1500 mm (topshiriqqa ko'ra), eshikning balandligi 2100 mm qilib o'tkaziladi.

Qirqimda zinapoyani hisoblash va chizish

Zinapoya har bir qavat darajasida va qavatlar o'rtasida o'rnatiladigan zinapoya marshlari (3 dan 18 gacha zinapoyali qiya elementlar) va zinapoya maydonchalaridan iborat bo'lib, zinapoya katagiga joylashtiriladi.


Zinapoyaning asosiy elementi zina bo'lib, u zina kengligi (qadam) va zina balandligi (pog'ona) dan iborat (7-rasm).

Pog'onalarning o'lchami odamning o'rtacha qadami bilan aniqlanadi

$2h + b = 600$ *мм*

Qadam – 250-300 мм (300)

Pog'ona – 135-180 мм (150)



3-rasm. Pog'onalar o'lchami (mualliflar chizmasi)

Hisoblashda shuni hisobga olish kerakki, marshdagi qadamlar balandliklari qadamlar kengligiga qaraganda bitta ko'p, chunki bitta qadam maydonchaga to'g'ri keladi (friz pog'ona = 220 mm)

Ikki marshli zina: *Qavat balandligi - 3000 mm 1-marsh balandligi: 3000 : 2 = 1500 mm marshdagi pog'onalar soni: 1500 : 150 = 10 pog'ona, 9 – qadam Marsh joylashuvi (gorizontal proyeksiya uzunligi): 300 * 9 = 2700 mm*

Zinapoya katagi uzunligi (L): 6000 - 190 - 200 = **5610** мм (6000 – o'qlar orasidagi masofa; 190, 200 – devor bog'lanishlari)

Maydonchalar eni: Ikki maydonchaga 5610 - 2700 = **2910** мм qavatlar orasidagi – **1310** мм (min. – 1200 мм) qavatdagi – **1600** мм

Marsh eni: (planda tuzish uchun) 2800 - 100 (marshlar orasidagi oraliq) = 2700 : 2 = **1350** мм


Marsh balandligi: 1500 mm

Marsh uzunligi: 300 · 9 = 2700 mm.

Maydonchalar eni: qavatlararo – 1310 mm. qavatdagi – 1600 mm. Maydoncha qalinligi 220 mm.

Zinapoya marshlari va maydonchalari panjaralar bilan o‘ralgan, panjara balandligi 900 mm, qavatlararo maydonchada deraza o‘rni chiziladi [1].

Podyezdga kirish eshigi balandligi (barcha uchun) - 2100 mm. Qavatlararo maydoncha balandligi – 1500 mm. 1500 - 220 (qavatlararo maydonchaning qalinligi) - 100 (min. eshik tirqishining yuqori qismigacha bo‘lgan masofa) = 1180 mm, 2100 - 1180 = 920 mm. Pog‘onalar soni: 900 :150 = 6 pog’ona, 5 qadam. Kichik marshni belgilash 5 · 300 = 1500 (4-rasm).




4-rasm. Ikk qavatli turar joy binasining ko’ndalang kesimi (mualliflar chizmasi)

Binoning konstruktiv yechimlari. Binoni ko‘tarib turuvchi konstruksiyalari ya’ni poydevori, devorlari, alohida tayanchlari, qavatlararo yopmalari fazoda bir-biri bilan bog‘lanib bino strukturasini tashkil etadi. Bino strukturasi ko‘tarib turuvchi elementlarining fazoda qanday joylashtirilganiga qarab binolarni quyidagi konstruktiv tiplariga ajratiladi [2]:

-karkassiz (sinchsiz) binolar o‘zaro bog‘langan tashqi devorlar va qavatlararo yopmalardan iborat bo‘lgan bikr va mustahkam qutidan iborat (5-a rasm). Binoning tashqi va ichki devorlari orayopmalar hamda tom og‘irligini qabul qiladi. Turar joylar, maktablar va boshqa jamoat binolari qurilishida ana shu konstruktiv tip keng tarqalgan.

karkasli (sinchli) binolarda ustunlar sistemasi gorizontal to‘sinlar bilan birgalikda bino skletini tashkil qiladi (5-b rasm). Binoning karkasi binoga ta’sir qiladigan barcha kuch va og‘irlikni qabul qiladi. Karkasli bino konstruksiyalari vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qilib, ko‘tarib turuvchi va himoyalovchi guruhlarga bo‘linadi. Bu holda tashqi devorlar faqat himoyalovchi funksiyani bajarib ular o‘z-o‘zini ko‘taruvchi yoki ilib kuyilgan bo‘lishi mumkin.

Bog'lanishli karkaslarda ustun va to‘sin orasidagi tugunlar bikr bo'lmaganligi uchun gorizontal ta’sir etuvchi kuchlarni qabul qiluvchi qo‘shimcha bog'lanishlar o‘rnatish talab etiladi. Bunday bog’lanishlar vazifasini ko'pincha diafragmani tashkil qiluvchi hamda gorizontal kuchni bikr vertikal diafragmaga uzatuvchi qavatlararo yopmalar bajaradi.



a) **b)**

5-rasm. Binolarning konstruktiv tiplari [3]. a) karkassiz (sinchsiz) bino, b) karkasli (sinchli) bino.

Keyingi paytlarda qurilish amaliyotida kombinatsion, ya’ni ramali-bog'lanishli karkaslar ko'proq uchramoqda. Bunda bir yo'nalishda bog’lanishlar o'rnatilsa, ikkinchi yo’nalishda ramalar o‘rnatiladi.

Shuni aytish kerakki, yirik panelli jamoat va turar-joy binolari qurilishida karkasli binolar qo’llash ko'proq foydalidir. Bulardan tashqari, turar-joy binolari qurilishida zavodlarda tayyorlangan yirik hajmiy bloklar keng qo’lamda qo’llanilmoqda.

Umuman olganda, bino va inshootlar konstruksiyalari sifatida karkas konst ruksiyalar bilan birqatorda panel, yirik panel, monolit, temir-beton, hamda kombinatsiyalashtirilgan konstruksiyalar qo'llaniladi.

Binoning turli qismlari o‘rtasidagi o’ziga xos xususiyatlari. Binolarining yer usti va yer osti qismlari bo‘lib ularning binolarining asosiy konstruktiv elementlaridan ya’ni poydevori, devorlari, qavatlararo yopmalar, alohida tayanchlari, tom deraza, eshiklar, zinalar hamda ichki to‘siq (parda) devorlaridan iborat bo‘ladi [4].

Poydevorlar binoning yer ostki qismi bo‘lib, ular bino og‘irligini o‘ziga qabul qilib, uni asosga uzatuvchi konstruksiyadir.

Devorlar o‘z vazifasiga va joylashishiga ko‘ra ichki va tashqi to‘siq, ya’ni xonani tashqi muhit ta’sirida himoyalovchi yoki xonalarning bir-biridan ajratib turuvchi bo‘lib, bir qavatning o‘zida ular yuk ko‘taruvchilar vazifasini bajaradi. Devorlar yuk ko‘tarib turuvchi va ko‘tarmaydigan turlariga bo‘linadi.

qavatlararo yopmalar binoning ichki bo‘shlig‘ini qavatlarga bo‘ladi va ustunlarga maxsus mahkamlangan rigel yoki progon deb ataluvchi to‘sinlar ustiga yotqiziladi, ayrim hollarda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ustunga mahkamlanadi. qavatlararo yopmalar doimiy va vaqtinchalik yuklarni ko‘tarish bilan birga devorlarni o‘zaro bog‘laydi va ularning ustivorlarini ta’minlaydi va butun binoning fazoviy bikirligini oshiradi. Orayopmalar binoda joylashgan o‘rniga qarab qavatlararo yopmalar (binolarni qavatlarga ajratadi), yerto‘la usti orayopmasi (1-qavatni yerto‘ladan ajratib turadi) va chordoq orayopmasiga (teppa qavatini chordoqdan ajratadi) bo‘linadi.

Tomlar bino va uning konstruksiyalarini atmosfera yog‘in-sochin ta’siridan saqlovchi konstruktiv elementdir. Ular tom yopishuchun ishlatiladigan material va uni ko‘tarib turuvchi konstruksiyalardan iborat bo‘ladi. Tomlar konstruktiv tuzilishi jihatidan chordoqli va chordoqsiz tomlarga bo‘linadi [5].

Chordoq binoning teppa qavati yopmasi bilan tom yopmasi orasida joylashgan bo‘shliq qismidan iborat. Chordoqsiz tomda binoning teppa qavati yopmasi bilan tomi birlashgan bo‘ladi. Tomlar nishabli va tekis bo‘lishi mumkin. Tekis tomlardan dam olish maydoni sifatida va boshqa maqsadda foydalanish mumkin.

Binolar (qavatlararo) bino qavatlarini o‘zaro bog‘laydi va odamlarni binodan evakuatsiya qilish yo‘li vazifasini ham o‘taydi. Zinalar joylashgan maydonga zinapoya deb ataladi.

Zinalar ikki konstruktiv element - zinaning ikki sahni va ular orasidagi qiya joylashgan marshdan iborat bo‘ladi. Zina marshda harakat xavfsizligini ta’minlash uchun marsh chekkasiga zina panjarasi o‘rnatiladi.

Derazalar xonalarga yorug‘lik, quyosh nuri tushishi hamda xonalarni shamollatish uchun xizmat qiladi. Ular deraza o‘rni deraza kesakisi va deraza tabakalardan iborat bo‘ladi.

Eshiklar xonalarni bir-biri bilan bog‘laydi. Shuningdek binoga kirish va undan chiqish yo‘li hisoblanadi. Ular derazadagi yoki pardevordagi eshik o‘rni, eshik kesakisi va tabaqasidan iborat bo‘ladi [6].

Natijalar. Binoning qirqimlari orqali vertikal va gorizontal tekisliklarda binoning konstruktsiv elementlari o'zaro bog'liq holda aniqlanadi. Bu chizmalar yordamida materiallar va uslublarni tanlashda to'g'ri qarorlar qabul qilinadi. Kesimlar devorlar, tomlar, zinapoyalar kabi asosiy elementlarning yuk ko'tarish qobiliyati va stabilligini o'lchash imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va qurilish amaliyotlari orqali binolarni yaratishda barqaror konstruksiyalar va yangi materiallardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatildi.

Bino kesimlarining turlari. Bino kesimlari binoning ichki va tashqi elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda bino kesimlari harf yoki raqamlar orqali belgilanadi va qalin chiziqlar bilan ifodalanadi. Ortogonal va aksonometrik kesimlar orqali binoning turli yo‘nalishlardagi qismlari tasvirlanadi. Binoning pol sathi va qavatlar balandligini belgilashda aniq masshtablardan foydalaniladi.

Misol uchun, zinapoyani kesimda ko‘rsatish uchun pog‘onalar balandligi va kengligi hisob-kitob qilinadi. Zinapoya kesimlari bino qavatlari o‘rtasida harakatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Pog‘onalar o‘lchami odatda o‘rtacha qadam uzunligi asosida belgilanadi va qavatlar balandligiga mos ravishda chizma shakllantiriladi.

Bino konstruktiv yechimlari. Binoning ko‘taruvchi konstruksiyalari uning barqarorligini va yuk ko‘tarish qobiliyatini ta'minlaydi. Bino konstruksiyalari asosan devorlar, ustunlar, poydevor va qavatlararo yopmalar orqali tashkil etiladi. Binolar konstruktiv yechimlariga ko‘ra karkassiz va karkasli turlarga bo‘linadi. Karkassiz binolar tashqi va ichki devorlarga tayanuvchi mustahkam tuzilmaga ega bo‘lsa, karkasli binolar ustunlar va to‘sinlardan tashkil topgan skletga asoslanadi.

Zamonaviy binolar qurilishida yirik panelli konstruksiyalar, monolit temir-beton va kombinatsiyalashgan konstruktsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, karkasli binolarda ustunlar va to‘sinlar tizimi ichki elementlarni yukdan ozod qilib, binoning barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Binoning turli qismlarining xususiyatlari. Binoning yer osti va yer usti qismlari o‘ziga xos konstruktiv yechimlarga ega. Poydevorlar bino og‘irligini asosga o‘tkazuvchi element sifatida xizmat qiladi. Devorlar esa xonalarni tashqi ta'sirlardan himoyalovchi va ichki bo‘linmalarni tashkil etuvchi element sifatida ishlaydi. Qavatlararo yopmalar, zinapoyalar, tom va derazalar kabi elementlar binoning umumiy strukturasi va funksionalligini ta'minlaydi.

Zinapoya marshlari va maydonchalari orqali qavatlar o‘rtasida harakatlanish imkoniyati yaratiladi. Derazalar esa binoning ichki muhitiga yorug‘lik tushirish va shamollatish imkoniyatini beradi.

Munozara. Bino qirqimlari orqali turli konstruktiv elementlar, masalan, devorlar, tomlar, ustunlar va zinalar o'rtasidagi aloqalar ko'rsatiladi. Har bir qirqim binoning struktural barqarorligini, yuk ko'tarish qobiliyatini va ob-havodan himoya qilish funksiyalarini tasvirlaydi. Ushbu aloqalar, shuningdek, binoning ichki muhitini va inson harakatini belgilaydi.

Taraqqiyot tendensiyalari. Hozirgi kunda arxitektura sohasida barqarorlik, energiya samaradorligi va ekologik toza materiallarga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiyalar bino loyihalarining sifatini oshirishga, muammolarni oldini olishga va foydalanuvchilarga qulay muhit yaratishga qaratilgan. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlarni birlashtirish orqali zamonaviy arxitektura talablarga javob beradigan binolar yaratish mumkin.

Bino kesimlarining to'g'ri chizilishi qurilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri o‘lchovlar

yoki materiallarning yaroqliligi bilan bog‘liq muammolar binoning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. Yevropa mamlakatlari tajribasi, jumladan, zamonaviy konstruktiv yechimlar va barqarorlikka qaratilgan yondashuvlar, muammolarni hal qilishning samarali usuli sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuvlar energiya samaradorligi va inson omillarini hisobga olgan holda binolarning texnik va estetik jihatlarini yaxshilaydi.

4) The New Mahalla Center Section: New mahalla centers is actually a relatively large open space with plenty of big trees, but limited use and little aesthetic quality. This green place is potential to serve as the community garden and park offering inclusive services to the people including children, youths and females. This environmentally friendly and socially inclusve could become a model for contemporary mahalla centers.

5) The Craft Center Section: Craft center near Rohobot Mausoleum is not directly related to the neighborhood but it is essential to improve since it affects the attractiveness of the whole greater Gur I Amir district. The government intend to develop this place into a craft center including facility for displaying and selling the crafts as well as demonstrating the making of the crafts. The strategy to enhance the livability and attractiveness of this place is implementing the government's program with creative design to celebrate the cultural richness of the place.

At the end of the program, students present their works in front of the jury in a crit session to review their works and enable them to learn from their peers. A publication is planned following the program so that the lessons can reach larger audience.



Locations to study and design

Result and discussion

After engaging in intensive discussions with lecturers and team members of both institutions, some preliminary design alternatives were proposed for each of the location, to respond to particular issues and challenges. These alternatives to propose are as follows:

1) The Entrance Section: In urban level, the tall wall serves as edge delimiting access and visual connection between districts. To revive the visual connectivity between these two areas the wall is changed into perforated wall with variety of articulations such as green wall and enriched with some traditional ornamentations. Some urban amenities like benches and light posts are introduced especially at the junctions to give place identifications and improve services. Some guidelines for buildings facing the wall are formulated to give a more coherence apperance of this urban façades.

2) The OkSaray Section: The gate connecting this section with Gur I Mir complex which is currently blocked is revitalized by creating a small plaza in front of the gate to make this place is liveable and enjoyable. The boundary around Oksaray Tomb is redesigned to improve the aesthetic quality of the wall on both sides. The open space with irregular shape connecting Gur I Amir and Oksaray is developed into a flexible plaza with temporary structures.

3) The Old Mahalla Center Section: This place is the heart of the mahalla for centuries. Improvement with historic and cultural sensibility is important to maintain the strong sense of place already embodied in the place. The rear part with narrow triangular plaza is revitalized by re-using small rooms around this open space as library and other small-scale communal activities. To enhance the place identity and orientation, the surface of the street in front the mahalla center is paved with traditional pattern. Combined with pergola for grape

veins above, this particular section of the street becomes very distinctive spot.

4) The New Mahalla Center Section: This place is characterized by big trees creating park-like and shadowy open space enjoyable for many outdoor activities of the inhabitants. Mahalla center traditionally is a male dominated placte. In contemporary situations, this place may offer a more inclusive services for children, youths, and females who have very limited provision in the old center. Youths may have place for sports and performances in one end of the park, while children have playground at the central portions where most of the trees grow. Girls and ladies may have good place for gathering, reading, gardening with their fellows on the other end of the place.

5) The Craft Center Section: On the one hand, rows of shops with brick structures create coherence edge of the plaza in front of Rohobot Mausoleum, on the other hand these structure block the view to the plaza so that visitor walking to Gur I Mir do not realized this arts and craft market. A tall temporary structure is placed at the center of the court created as landmark seen from afar. This structure is treated as installation arts incorporating billowing colorful fabrics signifying the local textile making as well as the historic role of Samarkand as the jewel on the Silk Road. A temporary pavilion is constructed around this landmark to demonstrate craftmaking and to accommodate other craft workshop activities.

Conclusion

This Joint Studio is delivered intensively in very limited time. Nevertheless, it gives a number of advantages to the students participating in this program, among others:

- Developing cultural and historical sensibility and awareness of the importance of urban vernacular heritage with living culture in relatins with historic monument of the past;
- Balancing development and historic preservation in an urban historic settlement by enhancing the distinctive character and improving the livability of the place.
- Learning how to strategically observe the location, critically investigate problems, and creatively proposing design solutions in such short time; and
- Improving their ability to perform global collaborative works in real situations, overcoming cultural differnces and language barrier.

References

1. Abouelfadl, Hebatalla, Dalila ElKerdany and Christoph Wessling (2017) *Revitalizing City Districts: Transformation Partnership for Urban Design and Architecture in Historic City Districts*. Springer International Publishing.

2. Krugmeier, Paula. (2015) *Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form*.

3. Singh, Rana P. B., Olimpia Niglio, Pravin S. Rana (2015) Placemaking and Cultural Landscapes. Singapore: Springer

UDK1:502:323.1(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH HAMDA IJTIMOIY FANLAR TARBIYAVIY TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH

Safarov Akbar Isakulovich,
Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti dotsenti, f.f.n.

Annotasiya. Maqolada yangi O'zbekiston bunyodkori bo'lgan yosh avlod tarbiyasida ularning ma'naviy axloqiy qiyofasini shakllantirish va ta'lim – tarbiyaviy jarayonining uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. Shu ma'noda bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan yangi avlod mutaxassis kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy fanlarni o'qitishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yetuklik, axloqiy mas'uliyat, komillik, g'oyaviy tarbiya, g'oyaviy tahdidlar, mafkuraviy immunitet, kasbiy yetiket, etuk mutaxassis.

Аннотатсия. В статье акцентируется внимание на неразрывной связи формирования их духовно-нравственного облика и учебно-воспитательного процесса в воспитании молодого поколения,являющегося творцами нового Узбекистана. В этом смысле цель кардинальных реформ, формирования их духовно- нравственного облика и учебносуществляемых сегодня в системе высшего образования, состоит в том, чтобы подчеркнуть важность нового поколения специалистов, отвечающих требованиям времени.

Ключевые слова: духовная зрелость, нравственная ответственность, совершенство,идеологическое воспитание, идеологические угрозы, идеологический иммунитет, профессиональный этикет, зрелый специалист.

Abstract. The article focuses on the inextricable connection between the formation of their spiritual and moral character and the educational process in the upbringing of the young generation, which is the creators of the new Uzbekistan. In this sense, the goal of cardinal reforms, the formation of their spiritual and moral image and the

educational ones carried out today in the system of higher education, is to emphasize the importance of a new generation of specialists who meet the requirements of the time.

Key words: spiritual maturity, moral responsibility, perfection, ideological education, ideological threats, ideological immunity, professional etiquette, mature specialist.

Kirish. Mustaqil taraqqiyot yo‘limizni tanlab mamlakatimizda keng qamrovli yangilanish va o‘zgarishlar jarayonini qat’iyat bilan davom ettirib kelar ekanmiz, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir vaqtda jamiyatning ma’naviy yangilanishi masalasiga ham jiddiy yondashmoqdamiz. Har ikkala holatda ham asosiy e’tibor inson omiliga yo‘naltirilgandir. Bu borada barcha sa’y–harakatlarimiz xalqimiz, xususan, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratish barobarida ularning dunyoqarashi va tafakkur tarzida mustaqillik g‘oyalarining mustahkam o‘rin egallashi uchun yo‘naltirilgandir.

-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimida yoshlar ma’naviyati va mutaxassis axloqi masalalari mavzusi falsafa fanlari doktori, professor Q.Nazarov, falsafa fanlari doktori, professor O.G‘aybullaev, falsafa fanlari nomzodi, dotsent M.Munavvarovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yetarlicha yoritilgan. Xususan, ushbu olimlar ijtimoiy fanlarni o‘qitishning vazifalari sifatida talaba yoshlarning falsafiy mushohada qobiliyati, mustaqil fikr yuritish darajasi va tanqidiy mulohaza madaniyati singari muhim omillarga e’tibor qaratganlar.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Umumlashtirish, tanqidiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil.

Bugun biz amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarimiz, islohotlar samaradorligi jamiyatning eng faol, tashabbuskor kuchi bo‘lgan barkamol avlod tarbiyasi samaradorligi bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Shu bois, asosiy e’tiborni yoshlarimizning ma’naviy - axloqiy yetukligi, aqliy va jismoniy sog‘lomligi hamda g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasiga qaratayotganligimiz bejiz emas. Ushbu mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga oladigan ta’lim tizimi, unda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, chuqur islohotlar doimiy diqqat markazimizda va davlat siyosati darajasidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyov o‘zining Oliy Majlisga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasida ham aynan strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash masalasiga e’tibor qaratib, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerakligini ta’kidlab o‘tdi.

Hech bir ikkilanishsiz aytish mumkinki, barkamol inson shaxsini tarbiyalash, sog‘lom avlod kelajagi haqida qayg‘urish-jamiyat va millat kelajagi bilan bog‘liq jiddiy masaladir. “Yosh avlod tarbiyasi mamlakat rivojlanishining real talablariga mos yondashuvni, o‘ziga xos aniqlikni taqoza etmoqda. Bu aniqlikda bizning millat va xalq sifatidagi zamonaviy o‘zligimizni anglash darajamiz va zamonaviy taraqqiyot talablari taqoza etadigan milliy tafakkurimiz ifodalanishi kerak” [1].

Biz hamisha milliy yuksalishimiz oldingi saflarida yuksak ma’naviyat va ma’rifat sohiblari bo‘lgan bilimli, ilmiy salohiyatli mutaxassislarni, yangi avlod kadrlarini ko‘ramiz. Shunday ekan, bugungi kun talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni yetuk mutaxassis, o‘z sohasining bilimdoni, ilmiy salohiyat hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan zamonaviy kadrlar sifatida eng ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan jihozlanayotgan sohalar va tarmoqlarni ta’minlash oliy ta’limning birinchi darajali vazifasidir.

Shu o‘rinda oliy ta’lim tizimi sohasida belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlovchi yana bir muhim omilni ta’kidlash joizki, aynan shu omil ta’lim tizimini tubdan yangilash borasida olib borilayotgan islohotlarimizning mazmun mohiyatini belgilab beradi. Aniqlik kiritaylik, gap yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida borar ekan, avvalo, eng ilg‘or talablarga mos, zamonning intellektual, ilmiy - texnikaviy, ma’naviy-axloqiy va g‘oyaviy-mafkuraviy shiddatlariga dosh bera oladigan mutaxassis shaxsi nazarda tutilmog‘i lozim. Bunday moslik va tayyorgarlikni esa faqatgina mutaxassislik talablari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Shunday ekan, biz mutaxassis kadrga uning kasbiy tayyorgarligi, mahorati va qobiliyati bilan cheklanib ta’rif beradigan bo‘lsak, u holda faqat o‘z kasbiy manfaatlaridan kelib chiqib, vaziyatga baho beradigan, jamiyat uchun sarflanadigan bilimi va qobiliyati evaziga undan ikki hissa ko‘proq naf ko‘rishni rejalashtirgan “qashshoq mutaxassis” ta’rifidan nari o‘tolmaymiz. Vaholanki, biz o‘z mutaxassisligining ijtimoiy ahamiyatini mushohada qilib, professional mahoratini uzluksiz oshirib boradigan, uni jamiyat manfaatlari izmida milliy yuksalish maqsadlari sari safarbar etib, faxr va g‘urur tuyg‘usini, moddiy va ma’naviy qoniqish hissini anglab etadigan mutaxassis kadrni tarbiyalab berishni maqsad qilib qo‘yganmiz. Demak, oliy ta’limga faqat oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar etkazib beruvchi ta’lim muassasasi deb qaramasdan, ushbu tizimni yoshlarimizga ham bilim, ham kasb-hunar va ixtisoslik berish bilan bir vaqtda ularda erkin fikr madaniyati va mustaqil dunyoqarash ko‘nikmalarini shakllantiradigan, ma’naviy-axloqiy qiyofasini qaror toptirib, ijtimoiy faollik, ijodkorlik va tashabbuskorlik sari yo‘llaydigan, yuksak ma’naviyatli barkamol inson qiyofasidagi mutaxassis kadrlarni yetishtirib beruvchi ta’lim-tarbiya maskani deb bilmog‘imiz kerak.

To‘g‘ri, oliy ta’limning, unga aloqador fan sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish uchun birinchi galda so‘zsiz, o‘z sohasining chuqur bilimdoni, nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini uyg‘unlikda olib bora oladigan, ilmiy

salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlash vazifasi rad etib bo‘lmas haqiqatdir. Shuningdek, ta’kidlash kerakki, har qanday taraqqiyot va ilmiy faoliyat mahsuli shubhasiz, mushtarak maqsad sari – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi negizida ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish bilan birga milliy taraqqiyot uchun xizmat qilishi kerak. Shundagina biz tayyorlagan mutaxassislar qiyofasida yuksak ma’naviyat, kasbiy madaniyat, ma’rifat va milliy tarbiya xislatlarining ifodasini ko‘ramiz.

Mutaxassis kadrlar ma’naviyati masalasiga to‘xtalar ekanmiz, ta’kidlash kerakki, har bir mutaxassislik ta’limi o‘zida individual va ijtimoiy fazilatlar uyg‘unligini qamrab olmog‘i lozimki, bu uyg‘unlik mutaxassisning bilim saviyasi va kasbiy etiketini namoyon qilish omiliga aylanadi. Ushbu omil mutaxassis saviyasi va kasbiy madaniyatining ma’naviy-axloqiy mezonlarini belgilab beradi. Ular quyidagilar:

- tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha o‘z kasbining mas’uliyatini his qilgan holda aniq maqsad va rejalar asosida faol pozitsiyaga ega bo‘lish;
- o‘z qobiliyati, bilimi va kasbiy mahorati, o‘z o‘rni va mavqeiga moslik darajasini namoyon qilish orqali hurmat va e’tiborga erishish;
- o‘z fikri, g‘oyasi va rejalarini aniq ravon nutqda bayon etib, atrofdagilarga ta’sir eta olish jur’ati bilan jamoaviy birlik va hamkorlikni qaror toptirish;
- zamonaviy bilimlar sohibi sifatida siyosiy ong va huquqiy madaniyat uyg‘unligiga erishish;
- alohida ijtimoiy guruh vakili sifatida muayyan axloqiy me’yorlar doirasida o‘z-o‘zini idora etish orqali o‘zgalarga o‘rnak bo‘lish;
- qabul qilgan har bir qaroriga o‘zgalarni ishontirish, uyushtirish va o‘z ortidan ergashtirib bora olish;
- ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik, mas’uliyat, javobgarlik, burch va majburiyatlarni namoyon etish.

Belgilangan barcha mezonlar sub’ektning shaxsiy fazilatlari ustuvorligini taqozo qiladi. Mavzumiz mazmunidan kelib chiqib, biror-bir fan yoki ta’lim sohasiga ortiqcha baho bermagan holda ta’kidlash o‘rinliki, ta’lim tarbiyaviy yo‘nalishda o‘z maqsad va vazifalarini talaba –yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy faolligi va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy fanlar o‘z mazmuniga monand mutaxassislik bilimlarining sifat samaradorligi va ijtimoiy yo‘naltirilganligini mutaxassis ongiga singdirib, uning ma’naviy mas’uliyatini tarbiyalaydi [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida ta’kidlanganidek: “Oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish” [3]. oliy ta’limni kompleks rivojlantirish va ijtimoiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishga doir funksional vazifalari sifatida belgilab berildi.

Mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar eng avvalo ta’lim sifati samaradorlgiga erishish, bu borada eng ilg‘or va zamonaviy xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda ulardan ijodiy foydalanib, milliy ta’lim tizimimizga tatbiq etish maqsadi sari yo‘naltirilgandir. Tizimning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, yetuk mutaxassislar, ilmiy - pedagogik kadrlar bilan ta’minlash, ilmiy salohiyatni ko‘tarish va tajriba - konstruktorlik ishlarini izchil yo‘lga qo‘yish, hududiy iqtisodiy potensial imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish orqali “ta’lim-fan-ishlab chiqarish” integratsiyasini shakllantirish ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarining pirovard maqsadidir.

Masalani yana bir muhim jihati shundaki, muammoga aslo biryoqlama, ya’ni u yoki bu fan nuqtai nazaridan, uning manfaatlaridan kelib chiqib yondashmaslik kerak. Qolaversa, ta’lim sifati har doim ham o‘quv soatlari hajmini oshirish yoki kamaytirish bilan belgilanavermaydi. Zero, miqdor sifatni belgilovchi yagona sabab emas.

Shu o‘rinda masalaga biroz aniqlik kiritishni muhim deb hisoblaymiz. Mutaxassislikka aloqasi yo‘q fanlarni mutaxassis uchun ham aloqasi yo‘q, deb ayta olamizmi? Savolga to‘g‘ri javob esa biz to‘g‘ri falsafiy mushohada yuritib, mantiqiy xulosamiz asosida o‘z yo‘nalishimizda qaysi fanlarning aloqasi bor yoki yo‘q deb hisoblashimizga bog‘liqdir. Demak, unutmasligimiz kerakki, biz mutaxassislikka mos mutaxassis kadrni tayyorlab berar ekanmiz, uning qiyofasida albatta mukammal bilim va kasbiy ko‘nikma bilan bir vaqtda o‘z shaxsiy pozitsiyasiga ega, mustaqil dunyoqarash va erkin fikr madaniyati bilan bilimi va qobiliyatini aniq maqsad sari yo‘llab sog‘lom ma’naviyat bilan jamiyatga qadam tashlaydigan insonni tarbiyalaymiz.

Bildirilgan fikrlar yakunida belgilangan vazifalarning qay biri muhimroq, ya’ni qaysi omil birlamchi, hal qiluvchi ahamiyatga ega, mutaxassis omilimi, yoki inson omili, degan mazmunda muammoni qo‘yadigan bo‘lsak, mantiqiylikdan yiroqlashamiz.

Oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish bilan bevosita bog‘liq fanlar, xususan, ijtimoiy fanlarning mavqei va maqomini mustahkamlash, mas’uliyatini oshirish, dunyo miqyosida kechayotgan voqealar shiddatiga bilimi va g‘oyaviy e’tiqodi bilan bas kela oladigan barkamol avlod tarbiyasida ushbu fanlarning ta’sirchanligi va amaliy ishtirokini ta’minlash uchun yetarlicha imkoniyat yaratish sohadagi ijobiy o‘zgarishlarning muhim omilidir. Bugungi kun talabi shunday – yetuk mutaxassis, g‘oyaviy e’tiqod sohibi, ma’naviy-ahloqiy fazilatlar sub’ekti, yangilanish va o‘zgarishlar tashabbuskori - bu biz saboq berib, tarbiya qilayotgan oliy ta’lim bitiruvchilariga qo‘yilgan talabdir. Ijtimoiy fanlar ahamiyatini mutlaqlashtirish fikridan yiroq holda jiddiy bir masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Aytaylik, oliy ta’limda qamrab olingan yoshlarimizni

faqat mutaxassislik bilimlari bilan band qilsagu, ma'naviy - tarbiyaviy, kasbiy-axloqiy, dunyoqarashlik, milliy o'ziga xoslik va umuminsoniylik bilimlarini keyingi bosqichga, ya'ni yosh mutaxassisning amaliy faoliyati bosqichiga qoldirsak. Xo'sh, biz tayyorlab, ishonch bildirgan yosh mutaxassis qanday g'oya, qanday saviya bilan va qanday niyatda oldinga yuradi? Uni o'z qo'rshoviga oladigan g'oyalar dunyosida o'z fikri va qarorida qat'iy qolish uchun unda g'oyaviy sobitlik, ma'naviy jur'at, mas'uliyat va daxldorlik xislatlari yetarlicha bo'ladimi? Yoki aksincha, kibr va manmanlik, individualizm va egoizm, korrupsiya va axloqsiz madaniyat singari illatlar iskanjasida chorasiz qoladimi?

Darhaqiqat, ijtimoiy fanlarni o'qitishda ularning funksional vazifalaridan kelib chiqadigan o'ziga xoslikni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Zero, ijtimoiy fanlar talaba yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirish barobarida tashqi voqelikda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildirish, shaxsiy qarorlar qabul qilish va xulosalar chiqarish sari yo'llaydi. Masalaning muhimligi shundaki, yoshlarimizning voqelik haqidagi umumiy dunyoqarashini shakllantirishda birinchi galda shu voqelik mazmun-mohiyatini to'g'ri izohlab, sodir bo'layotgan voqealar, ularni yo'nalishi, harakatlantiruvchi kuchlari va maqsad mudaolari haqida aniq ma'lumotlar asosida yoshlarimiz fikrini oydinlashtirish lozim. Ana shunday mas'uliyatli vazifa ko'proq dunyoqarashlik maqomiga ega bo'lgan falsafiy fanlar zimmasiga tushadi.

Shuning uchun ijtimoiy fanlarni chuqur o'rganish tafakkur madaniyati orqali dunyoni anglash, uning mohiyati to'g'risida mantiqiy mushohada yuritish va shu orqali yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu ma'noda tashqi olam, bizni o'rab turgan borliq to'g'risida tushuncha va xulosalarimiz aqliy qobiliyatimiz mahsuli sifatida tizimli ta'sirning, ya'ni ta'lim jarayonining uzliksizligi va maqsadli yo'naltirilganligi natijasi deb qabul qilinishi mumkin. Binobarin, ta'lim tizimining yuqori bosqichlarida ushbu fanlarni o'qitishda fan dasturlari, o'quv adabiyotlari va ta'lim texnologiyalarida o'ziga xoslikka e'tibor qaratib, hech bir ayniylikka, o'xshashlikka va takrorlanishlarga yo'l qo'ymasligimiz lozim.

Ijtimoiy fanlarni o'qitishda biz avvalo fanning insonparvarlik mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim. Shu bois yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirayotgan g'oyalarda insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va fidoyilik fazilatlari ustuvorligini ta'minlamog'i miz zarur. Ana shu maqsaddan kelib chiqadigan bo'lsak, yoshlarimizning ijtimoiy fanlarga doir bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida ularning aqliy yetukligi, bilim darajasi va fikrlash saviyasini o'stirish maqsadida aqliy tarbiyani; ma'naviy-axloqiy, insoniy fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq axloqiy tarbiyani; huquqiy, siyosiy bilim berish orqali siyosiy hamda huquqiy onglilikni o'stirish, huquqiy madaniyatni oshirishga yo'naltirilgan huquqiy va siyosiy tarbiyani; estetik ongi va ijodkorlik mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan estetik tarbiyani amalga oshirish ta'lim- tarbiyaviy ishlarimizning bosh yo'nalishini tashkil qilish kerak.

Aynan ana shu nuqtada ijtimoiy fanlarning eng muhim va asosiy funksional vazifalaridan biri bo'lgan g'oyaviy-tarbiyaviy maqomi yaqqol seziladi. So'zsiz, mustaqil dunyoqarash, tafakkur erkinligi va sog'lom fikrni qaror toptirish bilan bir vaqtda yoshlarimiz ongu –shuurida turli zararli va yot g'oyalarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish ijtimoiy fanlarning ta'lim –tarbiyaviy vazifasidir. Bir so'z bilan aytganda, mazkur fanlarni o'qitish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning talablariga to'la mos keladi. Ijtimoiy fanlarning ushbu vazifasi bugungi globallashuv jarayonlarida o'z dolzarbligi bilan yaqqol ajralib turibdi. "Ayniqsa, kundan – kunga xatar va tahdidlarning sonusanog'i, turi va shakllari tobora ko'payib, hayotimizga ichkaridan ham, tashqaridan ham yopirilib kelayotgan bugungi g'oyat murakkab va sertashvish dunyoda haqiqatdan ham, bunday sertahlika zamonda ogohlik tuyg'usisiz inson, jamiyat va xalq sezgirlikni yo'qotadi, ixtiyorini bilib bilmasdan yovuz kuchlar qo'liga berib qo'yib, hayotning, taraqqiyotning murakkab yo'llarida boshi berk ko'chalariga kirib, asosiy maqsadlardan chalg'ib ketadi" [4].

E'tibor qiladigan bo'lsak, Prezidentimiz o'zining har bir chiqishda ilm-fan taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishni birinchi galda ma'naviyat va ma'rifat yuksakligi, g'oyaviy-mafkuraviy e'tiqod mustahkamligi bilan bog'lamoqda. Bu demak O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, texnologik rivojlanish jarayonlari har tomonlama puxta ishlab chiqilgan kuchli milliy g'oyaga tayanadigan milliy dastur negizida ruyobga chiqishi lozimligini bildiradi.

Yana bir isbot talab qilmas haqiqat shuki, biz milliy yuksalish sari aniq maqsad va vazifalarni belgilab olgan ekanmiz. "Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyala-shimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak" . [5]

Xulosa va takliflar. Donishmand xalqimiz hikmatiga murojaat qiladigan bo'lsak, ayonki, ilm o'rgatmoq, ta'lim bermoqlikni ma'naviyat va ma'rifatdan, madaniyatdan va albatta tarbiyadan aro yo'lda tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat ta'lim va tarbiya birligida yoshlarimizning dunyoqarashini boyitamiz, fikrini teranlashtiramiz, maqsadi va intilishlarini oydinlashtirib dunyoga yangicha ko'z bilan, ilm-ma'rifat ko'zi bilan qarashga undaymiz. Ana shunday xislatlar bilan yoshlarimiz bugun islohotlar tashabbuskoriga, o'zgarishlar ijodkoriga aylanmoqda. Darhaqiqat "Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi" degan fikr ayni haqiqatdir.

Biz o'z sohamiz mazmunidan kelib chiqib, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy fanlar ahamiyati qay darajada ekanligiga e'tibor

qaratdik. Yuqorida bildirilgan fikrlarga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, agar mutaxassislik fanlari ta’limi yuqori malakali kadrni tayyorlash sari yo‘naltirilar ekan, ijtimoiy fanlarni o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad sog‘lom fikr va tafakkurga ega, atrof voqelikka haqiqat va adolat ko‘zi bilan qaraydigan, o‘zining bilimi va kuchini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida milliy yuksalish sari yo‘llashga qodir ma’naviy etuk, barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Adabiyotlar:

1. M.Munavvarova. Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlari. T., “Ma’naviyat” 2011. 25-bet

2. Raxmonov A., Safarov A . O‘zbekistonning milliy tiklanishdan yuksalish sari rivojlanish bosqichlari. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2020. 121 bet

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidaIgi PQ -2909- sonli Qarori.// lex.uz

4. Qalandar Abdurahmonov. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlari – eng oliy qadriyat. T., G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017. 219 bet

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - // Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil 23 dekabr.

МИРЗО УЛУҒБЕК ИЗИДАН, ЗАБАРДАСТ ОЛИМ, ЖОНКУЯР УСТОЗ ВА МЕЪМОР

Бахрон Маноев – СамДАҚУ доценти в.б.
Саид Маноев – СамДАҚУ докторанти, доцент, (Phd)
Мирзо Улуғек номидаги Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университетининг “университет” мақоми берилганининг 2 йиллигига бағишланади.

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда буюк олим ва меъмор, архитектура доктори, профессор Муҳаммаджон Ахмедовнинг меъморчилик бўйича ижодий фаолияти, лойиҳалари бўйича қурилган бинолари ва уларнинг меъморчиликдаги, жамиятдаги ўрни, аҳамияти илмий асосланган батафсил ёритиб таҳлил этилган. Жумладан, СамДАҚУда устоз-шогирд анъаналарининг узвий давом этаётганлиги, бажарилаётган лойиҳалар ва илмий фаолият атрофлича ёритилган

Калит сўзлар: ижодий фаолият, таҳлил, меъморчилик, илмий асос, боғ-парк, режалаштириш, ташкилотчи, жамғарма, зиёратгоҳ, меъморий ансамбл, мемориал мажмуа, уйғунлик, мутаносиблик, гулдаста.

Аждодлар изидан бориш ўзбек халқининг азалий анъаналаридан ҳисобланади. Ўтмишда билим ва тажрибалар устоз-шогирд тизими асосида устозлардан шогирдларга ўтиб келиб, йиллар давомида ушбу билим ва тажрибалар бойитилган, кенгайтирилган ва сайқалланган. Собиқ шўролар даврида миллий меъморчиликнинг назардан тушганлиги, шаҳарларни ривожлантиришда европа классик анъаналарининг қўлланилганлиги, ундан кейинги даврларда интернационал услубининг ривожлантирилганлиги, миллий шаҳарсозлик ва меъморий анъаналаримизнинг йўқолиб кетганлигини кузатамиз. Ушбу анъаналарнинг билимдони устоз-меъмор, архитектура доктори, профессор Ахмедов Муҳаммад Қосимович меъморчилик соҳасининг кўплаб йўналишларида йўқолган ва эсдан чиқарилган анъаналар ва усулларни қайта тиклашда жонбозлик кўрсатган ва уни шогирдларга мантиқан тўғри талқин қилишда ўз билимларини аямаган устоз ҳисобланадилар. Устознинг айниқса Ўрта Осиё шаҳарсозлигида ансамблсозлик анъаналарининг келиб чиқиши ва ривожланиши йўналишида кенг илмий изланишлар олиб бориб, катта меъморий мактаб яратганлар. Тарихий обидаларнинг қурилиш сирларини чуқур билган устоз, нафақат биноларнинг, балки уларни мажмуа тарзида ўзаро уйғунлашган ҳолда, тарихий шаҳарлар қиёфани шаклланишида алоҳида ўрнини теран англаб, унинг сирларини шогирдларига атрофлича етказишга ҳаракат қилганлар. Устоз нафақат меъморий обидаларни тарихи билан балким замонавий шаҳарсозлик ва меъморчиликни ушбу обидалар билан уйғунлаштириш масалалари билан ҳам шуғулланган. Мажмуаларнинг тузилиши ва уларнинг атроф муҳит ва ўзаро ансамбл ташкил этиши, шу билан бирга изланишлар натижаларини ишлаб чиқаришга, яъни реал лойиҳаларга татбиқ этган олимлардан ҳисобланади. Бугунги кунда устозга талабалик даврлардан шогирд тушиб, у кишининг ишларини давом этиб келаётган ўнлаб шогирдлар қаторида мақола муаллифлари ҳам ўз билим ва тажрибаларини ўз шогирдларига бериб келмоқдалар.

М.Қ. Ахмедовнинг илк йирик ишларидан бу Қўшработ туман бош тарҳи ва туман марказини лойиҳаси эди. 1978 йил Самарқанд вилояти ижроия қўмитасининг фармони ва қарори ҳамда СамДАҚИ ректорининг буйруғига асосан Самарқанд вилоят Қўшработ туман марказини лойиҳалаш бўйича туман марказини бош тарҳини устоз раҳбарлигида бажардик ва кейинчалик ушбу лойиҳа 1979 йилда тасдиқланди. Туман марказини лойиҳалашда ўзига хос миллий анъаналар, иқлимий ва миллий урф-одат, халқ меъморчилиги услублари қўлланилган. Лойиҳа асосида Қўшрабодда жойлашган сой ва кўл атрофи юқори даражада ободонлаштирилган бўлиб, боғ-парк тизими яратилган. Лойиҳадаги марказий қисм батафсил режалаштирилган бўлиб, ҳозирги замонда бинолар халқ хизматига фаолият кўрсатмоқда. (1,2-расмлар)






1-расм. Қўшработ туман маркази бош тарҳи.



2-расм. Қўшработ туман марказий қисми бош тарҳи.

1995 йилда Самарқанд шаҳрининг Регистон майдонида “Мирзо Улуғбек маркази” халқаро лойиҳа танловига устоз бошчилигидаги лойиҳамиз билан қатнишиб, жюри эътиборига сазовор бўлиб, ушбу лойиҳа матбуотда эълон қилинган эди. Танлов ташкилотчиси пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг 37 – авлоди бўлмиш Оға-хоннинг жамғармаси эди. Лойиҳанинг ўзига хослиги ва диққатга сазовор жиҳатлари шундаки, бино ва иншоотлар Ўрта Осиё миллий меъморчилигига хос бўлган ансамбл ва комплекс йўналишида ишлаб чиқилган.

Мазкур лойиҳада Амир Темур бобомизнинг арки “Тепа қўрғон” қисман қайта қурилиши ҳамда Амир Темур тахти юксак намуна сифатида жимжимадор олтин зарҳал билан ишланиши кўзга тутилган эди. Регистон кўчаси ер остига олиниб, Амир Темур мақбарасидан бошлаб, Регистон, Биби Хоним ва Республикамиз биринчи Президенти қўним топган жойлар, Шоҳи Зинда мажмуасигача пиёда сайр қиладиган хиёбонлар от-арава, “извош”, кичик электромобиль ва карвейерлар билан жиҳозланиб, лойиҳаланган.[2]




3-расм. “Мирзо Улуғбек маркази” лойиҳасининг макети

Бу ердаги чашмалар қайта қурилиб, сув ҳавзаси ташкил қилиниб, ҳудудга микроиқлим яратиш чоралари кўрилган. Лойихадаги яна бир диккатга сазовор жойи шундаки устознинг устозлари М. С. Булатов яратган Улугбек обсерваториясининг график қайта тикланган лойиҳаси музей сифатида жойлаштирилган бўлиб, бу устознинг ўз устозига бўлган ҳурмат ва эхтиромини билдиради ва устоз-

шогирд анъаналарининг қайта тикланганлигининг намунаси ҳисобланади. [1]

1993 йилда "Oxford center for Islamic studies" - Исломни ўрганиш маркази (Буюк Британия, Лондон) Имом ал-Бухорий меъморий мажмуа марказини лойиҳалаш бўйича бешта давлат етакчи меъморларига буюртма-танлов эълон қилди ва улардан бири М.Қ. Ахмедов эдилар. Имом ал-Бухорий маркази лойиҳаси устознинг докторлик диссертацияларини ишлаб чиқаришга бевосита тадбиқ этиш лойиҳаси эди.[1] Ушбу лойиҳада меъморий ансамблсозлик йўналиши тўлиқ тадбиқ этилган бўлиб, Мадина шаҳридаги Масжиди Набавиянинг баъзи элементлари қўлланилган (масалан, ер-ости транспорт урбанизацияси). Кейинчалик бу лойиҳа Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов назарига тушиб, шу лойиҳалар асосида қурилишни амалга ошириш кераклиги кўзда тутилган эди. Афсуски, баъзи бир амалдорларнинг ишлари туфайли вариант ўзгартирилиб қурилди. Агар ўша лойиҳа қурилганда, бугунги кунда ҳамма биноларни йиқитиб, қайта қурилмаган бўлармиди. (4,5-расмлар)


Самарқанд шаҳрида жойлашган "Чокар Диза" қабристони мотрудия тариқатининг асосчиси Имом Абу Мансур ал-Мотурудий қўним топган жой ҳисобланади. Ушбу масканни топиб, мемориал мажмуа қуриш топшириғи берилган эди. Бу масалада кўп тадқиқотлар олиб борилди ва Имом ал-Мотурудийнинг қабрларининг жойи аниқланиб, "Аждодлар мемориали" барпо этилди. Бу лойиҳада миллий меъморчилигимизнинг ансамблсозлик анъаналари қўлланилди ва кейинчалик Имом ал-Мотурудийга бағишлаб фақатгина мақбара қурилди.[3] Устоз бу лойиҳага "Аждодлар мемориали" деб ном қўйдилар, чунки бу кўҳна Самарқандда Имом ал-Мотурудийдан бошқа қанчадан-қанча пирлар, устодлар фаолият кўрсатиб шу қабристонда қўним топган. (6,7-расмлар)




4-расм. Имом ал-Бухорий мажмуаси лойиҳаси



5-расм. Имом ал-Бухорий мажмуаси лойиҳасининг макети



6-расм. Имом ал-Мотурудийга бағишланган “Аждодлар мемориали” лойиҳаси макети




7-расм. Имом ал-Мотурудийга бағишланган “Аждодлар мемориали” лойиҳаси

2007 йилда Европа андозаларига мос Университет 3.0 талабларига асосан Қозоғистонлик тадбиркор буюртмаси билан Қозоғистон Республикаси Актау шаҳрида тадбиркорлик университети мажмуаси 25 Га жойда устоз раҳбарлигида ишлаб чиқилди. Лойиҳалаш жараёнида ижодкорлар олдига қўйилган ажратилган ҳудуд муҳитини шаҳарсозликдаги социал, иқлимий экологик ва ҳажмий-фазовий ечимлар тўлалигича илмий асосланган ҳолда ечилган бўлиб, бино ва иншоотлар уйғунлик ва мутаносиблик жиҳатдан ансамбл туркумида, ҳудуд максимал ободонлаштирилган, микроиқлим яратиш учун ўртада сув ҳавзаси ва кўкаламзор майдонлари умумий майдоннинг 50% ни ташкил этиб, экологик муаммо ечилган[5] (8-расм).

2017 йилда Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримовга бағишлаб, Тошкент, Самарқанд ва Қарши шаҳарларида ҳайкал мажмуаси яратиш бўйича танлов эълон қилинди. Бу танловда устознинг қимматли маслаҳатларини олиб, Самарқанд шаҳри Регистон майдонида ансамблга мос комплекс яратилди. Лойиҳанинг асосий ғояси Ислом Каримовнинг Ўзбекистонни ривожлантиришнинг беш тамойиллари яъни “Ўзбек модели” акс эттирилган монумент яратиш бўлиб (9-расм.), композиция марказида Ислом Каримовнинг жадал олдинга ҳаракатланиб келаётган ҳайкали ва орқасида Ўзбекистоннинг мустабид давридан ҳозирги замонгача бўлган даврлар акс этган музей мажмуаси, ҳажмий-фазовий кўринишидаги аркалар орқали акс эттирилган.[4] Аркаларнинг босқичма-босқич ярим

айлана шаклдан миллий аркаларга шаклини ўзгартирилгани - миллий анъаналаризнинг қайта тикланиши ва миллий ўзлигимизнинг қайта тикланганлигининг тимсоли ҳисобланади. Лойиҳа ўрин олмаган бўлса ҳам, мутахассислар эътирофига сазовор бўлиб, оммавий ахборот воситаларига талқин қилинди.



8-расм. Актау шаҳридаги университет мажмуаси лойиҳаси.

9 март 2023 йил Ўзбекистон 24 телеканалининг махсус репортажида Амир Темур ва темурийлар маънавияти ва маърифати кўрсатувида СамДАҚУ профессори А.С. Уралов раҳбарликларида бажарилаётган илмий ишлар талқин қилиниб, у даврдаги меъморчиликда туркум бинолар, меъморий гулдаста, яъни ансамблсозлик анъаналари ривожланганлиги эътироф этилди.[6] Бу эса устоз М.Қ. Ахмедовнинг илмий йўналишларининг давом этаётганлигидан далолат бериб, биз шогирдлар у кишининг етолмаган чўққиларига эришамиз. Бундан ташкари устоз талим берган канчадан-канча шогирдлари бутун дунё буйлаб ижод килиб замонавий инновацион бино ва иншоотларни барпо этиб халклар олкишига сазовор бўлиб келмокдалар. Бунга мисол қилиб ҳозирги пайтда университет қошида устоз-шогирд анъаналарига мувофиқ дуал таълим тизими жорий этилиб, салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Университет доценти С.Б. Маноев раҳбарлигида талабалар билан “Навбоғчиён” маҳалла маркази 2023 йилда қурилиб ишга туширилган [7]. (10-расм).

Университетнинг “Архитектура” кафедраси қошида “Шаҳарсозлик” илмий-тадқиқот марказида доцент в.б. Рауф Зоиров ва Саида Нажмиева раҳбарлигида талабалар халқаро танловларга ўз ижодий ишлари билан қатнашиб, юқори ўринларга сазовор бўлмоқдалар. (11-расм)

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети 1966 йилда ташкил этилганидан бери Марказий Осиёда ягона олийгоҳ сифатида бутун Совет иттифоқидан мутахассислар жалб этилган ва бутун иттифоқ шаҳарларидан талабалар таҳсил олишган. Ҳозирда университет ўзининг янгича замонавий таълим йўналишларини ўқув жараёнига тадбиқ этиб, ягона олийгоҳ сифатида замонавий фанлар, яшил архитектура,

шаҳарсозликда реновация, BIM технологиялари ва бошқа замонавий фанлар бўйича кредит-модуль тизими асосида дарслар ўзбек, рус ва инглиз тилларида, чет эл мутахассисларини жалб қилган ҳолда юқори даражада олиб борилмоқда.





9-расм. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримовга бағишланган ҳайкал мажмуаси танловига бажарилган макет.



10-расм. Навбоғчиён маҳалла мажмуаси умумий кўриниши.

Ўқув жараёнида устоз-шогирд анъаналари миллий меъморчиликда шаклланган анъаналарни узвий давом эттирилган ҳолда замонавий меъморий мажмуалар лойиҳалари яратилмоқда. Келажакда таълим тизимини Марказий Осиё ҳамда жаҳон мамлакатларига интеграция қилинишини ва университет рейтингини юксалтириш мақсадида бошқа тилларда ҳам дарс жараёнларини ташкил этиш ишлари олиб борилмоқда.



11-расм. Самарқанд шаҳридаги халқаро автовокзал лойиҳаси. Талаба: Авазбек Жамолов, раҳбарлар: Рауф Зоиров ва Саида Нажмиева

Катта ўқитувчи Хамза Абдиев раҳбарлигидаги талабалар жамоаси бино ва иншоотлар макетини ясаш билан шуғулланиб, шаҳар ва вилоятда ўз ўринларига эга. (12-расм)





12-расм. Хамза Абдиев раҳбарлигидаги макет устахонаси ва намуналар

Адабиётлар:

1. М.К. Ахмедов. Ўрта Осиё меъморчилик таърихи. Тошкент. 2000.
2. Б. Маноев. Бино ва иншоотлар типологияси. Ўқув қўлланма. Самарканд, "Маҳорат" НМУ, 2023.
3. С.Б. Маноев. Ўзбекистон замонавий шаҳарсозлигида меъморий ансамбл ва комплекслар. Самарканд, "Зарафшон" 2014,.
4. Bahron, M. (2023). The Main Factors Affecting the Formation of the Residential Environment. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(4), 714-719.
5. Bahronovich, M. S. (2015). Formation of Architectural Ensembles and Complexes of Historic Towns Of Uzbekistan. International Journal of Scientific & Technology Research, 4(5), 109-112.
6. Маноев, С. Б. (2013). ФОРМИРОВАНИЕ АРХИТЕКТУРНЫХ АНСАМБЛЕЙ И КОМПЛЕКСОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДАХ УЗБЕКИСТАНА. *SCIENCE AND WORLD*, 154.
7. Manoev, S. Some Issues of Formation of Architectural Ensembles In Uzbekistan.

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ АСПЕКТОВ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В АРХИТЕКТУРЕ И СТРОИТЕЛЬСТВЕ ЗДАНИЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Пак Диана Александровна,
Преподаватель кафедры Методика дошкольного образования, Джизакского государственно педагогического университета

Аннотация: В данной работе рассматривается методика Модульное обучение для подготовки кадров в области архитектуры и строительства дошкольных учреждений. Целью исследования является анализ влияния данной методики на формирование профессиональных компетенций у студентов и педагогов в условиях Узбекистана. В ходе работы предоставляются данные о результатах внедрения методики, которые включают в себя уровень теоретических знаний, практические навыки и мотивацию участников. Исследование акцентирует внимание на аспектах, связанных с развитием навыков групповой работы, коммуникации и критического мышления, а также на важности интеграции международных стандартов в учебный процесс. Анализируются мнения участников о применимости новых знаний в контексте местных условий и специфик проектирования образовательных учреждений. В частности, подчеркивается значимость коллективного обмена опытом между студентами и преподавателями, что способствует углублению понимания актуальных вопросов проектирования и строительства. Также в работе рассматриваются результаты опросов и анкетирования, которые демонстрируют высокую степень заинтересованности педагогов и студентов в продолжении обучения и развитии своих профессиональных навыков.

Ключевые слова: методика, модульное, обучение, подготовка, профессиональные, компетенции, архитектура, строительство, дошкольные, учреждения.

Abstract: This paper examines the methodology of Modular training for training personnel in the field of architecture and construction of preschool institutions. The purpose of the study is to analyze the impact of this methodology on the formation of professional competencies of students and teachers in the context of Uzbekistan. The work provides data on the results of the implementation of the methodology, which include the level of theoretical knowledge, practical skills and motivation of participants. The study focuses on aspects related to the

development of group work skills, communication and critical thinking, as well as the importance of integrating international standards into the educational process. The opinions of participants on the applicability of new knowledge in the context of local conditions and the specifics of designing educational institutions are analyzed. In particular, the importance of collective exchange of experience between students and teachers is emphasized, which contributes to a deeper understanding of current issues in design and construction. The paper also examines the results of surveys and questionnaires, which demonstrate a high degree of interest of teachers and students in continuing their education and developing their professional skills.

Key words: methodology, modular, training, preparation, professional, competencies, architecture, construction, preschool, institutions.

Введение: Современные условия требуют от архитекторов и инженеров проектирования объектов, соответствующих высоким стандартам качества, безопасности и функциональности. Это особенно актуально в строительстве зданий для дошкольных образовательных организаций, где пространство должно быть адаптировано для потребностей детей. В Узбекистане, как и во многих других странах, наблюдается активное развитие данной сферы, что создает потребность в подготовке квалифицированных кадров, способных учитывать международные стандарты и инновационные подходы. Однако существующая система подготовки кадров в области архитектуры и строительства часто сталкивается с недостатком актуальных методик, направленных на адаптацию международного опыта к условиям Узбекистана. Одной из основных проблем в сфере подготовки кадров для строительства дошкольных образовательных учреждений в Узбекистане является недостаточное внимание к международному опыту и стандартам, которые способствуют повышению безопасности и качества образовательных объектов. В текущей системе подготовки будущих специалистов не всегда учитываются требования эргономики, устойчивости, экологичности и безопасности зданий для детей. Кроме того, отсутствуют программы, обеспечивающие интеграцию международных компетенций в местные стандарты, что ограничивает возможности создания современных, комфортных и безопасных условий для дошкольного образования. Для решения данной проблемы необходимо разработать и внедрить комплексную систему подготовки кадров, основанную на международных стандартах и адаптированную к условиям Узбекистана. Такая система должна предусматривать изучение актуальных методов проектирования и строительства объектов для дошкольных учреждений, учитывать нормативы и лучшие практики, принятые в других странах. Одним из эффективных подходов может стать сотрудничество с международными образовательными и профессиональными организациями, проведение обменных программ, стажировок и приглашение зарубежных экспертов для проведения мастер-классов и лекций. Подготовка квалифицированных специалистов для строительства дошкольных образовательных учреждений в Узбекистане, ориентированных на международные стандарты, является необходимым шагом для обеспечения качества и безопасности образовательной среды. Внедрение комплексного подхода, включающего изучение зарубежного опыта, адаптацию международных стандартов и методик проектирования, позволит создать современную систему подготовки кадров. Такое развитие поспособствует созданию безопасных и комфортных условий для детей, повысит уровень профессионализма специалистов и ускорит интеграцию Узбекистана в глобальное архитектурно-строительное сообщество.

Методология: Методика Модульное обучение для подготовки кадров в области архитектуры и строительства дошкольных учреждений направлена на формирование у будущих специалистов ключевых компетенций, необходимых для проектирования и строительства зданий, ориентированных на детей. Основой данной методики является модульная система, включающая теоретические и практические блоки, каждый из которых посвящён различным аспектам проектирования детских образовательных учреждений в соответствии с международными стандартами. В рамках данной методики учебный процесс организуется с акцентом на последовательное освоение ключевых тем. Первый модуль посвящён изучению международных стандартов безопасности и комфорта, необходимых для проектирования дошкольных учреждений. В этом блоке студенты знакомятся с зарубежными практиками, нормативами и требованиями к безопасности, уделяя внимание эргономике, экологичности и устойчивости зданий для детей. Во втором модуле акцент делается на анализе реальных архитектурных решений, реализованных в зарубежных и локальных проектах дошкольных учреждений. Студенты изучают и обсуждают примеры современных детских садов и начальных школ, оценивают применяемые архитектурные и инженерные решения, а также учатся выявлять их сильные и слабые стороны. Третий модуль включает практическую работу, в рамках которой обучающиеся создают собственные проекты детских образовательных учреждений, ориентируясь на международные стандарты и локальные условия. В этом модуле проводится коллективная работа, что позволяет будущим специалистам обмениваться идеями, учитывать различные точки зрения и искать оптимальные решения. Проектная деятельность завершается публичной защитой и обсуждением результатов, что способствует развитию навыков презентации и профессиональной рефлексии. Применение модульного обучения позволяет эффективно интегрировать теоретические знания и практические навыки, обеспечивая студентам

глубокое понимание требований и стандартов, необходимых для создания безопасных и комфортных образовательных пространств для детей.

Методика Модульное обучение для подготовки кадров в области архитектуры и строительства дошкольных учреждений включает несколько ключевых функций, которые направлены на обеспечение высокого уровня подготовки специалистов:

Функция адаптации международных стандартов

Методика должна знакомить студентов с международными стандартами проектирования детских образовательных учреждений и помогать адаптировать их под условия и требования Узбекистана. В рамках этой функции студенты изучают нормативные акты, требования к безопасности, экологичности и эргономике детских учреждений.

Функция практико-ориентированного обучения

Методика предусматривает активное вовлечение студентов в проектные и практические задачи, что позволяет не только осваивать теоретические знания, но и применять их в реальных условиях. Практические задания помогают студентам лучше понять специфику проектирования объектов для детей, повышая уровень их профессиональной компетенции.

Функция анализа и обмена опытом

Важной функцией методики является развитие аналитического мышления и навыков обмена опытом. Студенты анализируют существующие проекты, выявляют их сильные и слабые стороны, что способствует критическому подходу к проектированию и подготовке оптимальных решений. Коллективное обсуждение и обмен опытом помогают формировать комплексный подход к решению задач.

Функция оценки и самооценки компетенций

Методика включает регулярную оценку знаний и навыков студентов через промежуточные и финальные презентации. Это позволяет как студентам, так и преподавателям отслеживать прогресс, выявлять пробелы в знаниях и навыках, своевременно корректировать учебный процесс.

Методика была внедрена в условиях города Джизак в Узбекистане. В процессе её реализации были учтены локальные особенности и потребности региона, что позволило адаптировать её содержание для студентов Джизакского политехнического института. В рамках учебного процесса студенты изучали примеры международных проектов, применяли полученные знания на практике и готовили собственные проектные решения с учетом климатических и архитектурных особенностей Джизака.

In summary, foreign language proficiency, especially in English, is an invaluable asset for professionals in architecture and engineering. It enables access to global knowledge, enhances collaborative skills, and increases job market competitiveness, all of which are essential in an increasingly interconnected world. Language skills empower professionals to innovate and solve problems creatively by drawing on diverse cultural perspectives and technical practices. As these fields continue to globalize, the ability to communicate effectively across languages will remain essential, helping architects and engineers to thrive, contribute to sustainable development, and shape the future of the built environment on a global scale.

Bibliography

1. Bennet, Milton J. Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, & Practices. Intercultural Press, 2013.

2. Crystal, David. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2012.

3. Graddol, David. The Future of English. A Guide to Forecasting the Popularity of the English Language in the 21st Century. British Council, 2000.

4. Kiviniemi, Maija. “Impact of Multilingualism on Innovation and Problem Solving in Engineering and Architecture”. International Journal of Multilingualism and Innovation, vol. 8, no. 3, 2021, pp. 45-63.

5. Moore, Fiona, and Balázs Gulyás. Managing Multinational Teams: Global Perspectives on Cross-Cultural Collaboration. Routledge, 2020.

6. Sánchez, Gabriel. “Language Skills and International Competitiveness in Engineering.” Journal of Global Engineering Education, vol. 12, no. 1, 2018, pp. 120-137.

7. Wei, Li. “The Role of English in Knowledge Exchange in Engineering and Architecture.” Global Journal of Technical Communication, vol. 15, no. 4, 2019, pp. 201-220.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DAVLAT TILINI O'QITISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Anvarova Mohinur Feruz qizi
SamDAQU ''O'zbek tili va adabiyoti'' kafedrasi o'qituvchisi
Abduraxmonov Dostonbek Davron o'g'li
SamDAQU ''O'zbek tili va adabiyoti'' kafedrasi uslubchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurtlarining ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarida o'zbek tilini o'qitish bilan bog'liq muammolar, darslar tarkibida o'zbek adabiyotini o'qitishdagi xatoliklar, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, o'zbek adabiyoti, adabiy ta'lim dasturi, zamonaviy adabiyot, muammo, sabab, yechim, timsol, daraja, savol va topshiriq, yo'naltirish, milliy ruh, madaniy to'siq, ruhiy-axloqiy tarbiya, milliy madaniyat, jarayon, sinfdan tashqari o'qish.

Annotation. The article discusses the problems associated with the teaching of the Uzbek language in the Russian-language groups of higher education, errors in the teaching of Uzbek literature in the classroom, their causes and ways to overcome them.

Keywords: Uzbek language, Uzbek literature, literary education program, modern literature, problem, cause, solution, emblem, degree, question and assignment, orientation, national spirit, cultural barrier, spiritual and moral education, national culture, process, extracurricular reading.

Аннотация. В статье говорится о проблемах, связанных с преподаванием узбекского языка в русскоязычных группах высших учебных заведений, ошибках в преподавании узбекской литературы на уроках, их причинах и путях их устранения.

Ключевые слова: узбекский язык, узбекская литература, программа литературного образования, современная литература, проблема, причина, решение, символ, уровень, вопрос и задание, направленность, национальный дух, культурный барьер, духовно-нравственное воспитание, национальная культура, процесс, обучение за пределами класс.

Ma'lumki, O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari rus guruhlarida ko'p yillardan buyon o'zbek tili davlat tili sifatida o'qitiladi va bu borada tuzukkina tajriba to'plangan, anchagina pedagogik vositalar ham yaratilgan. Oliy o'quv yurtlari ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarida o'zbek tili bugunga qadar: "...talabalarning o'z mutaxassisliklari doirasida erkin muloqot yurita olishlari va davlat tilida ...ish yurita bilishlari» maqsadida o'rganiladi [Dastur 2013: 3–4) va bunga jami 76 soat (faqat 1-kursda) vaqt ajratilgan. Bugungi kunda davlat tilini o'rganishda bu maqsad bilan chegaralanib bo'lmaydi. Qolaversa, o'zbek tilini o'rganish oliy ta'limning yuqori bosqichlarida ham davom ettirilishi, kurslar yuqorilab borgani sari til materiallari kamayib adabiy materiallar ustida ishlash jarayoni shakllantirilishi va rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini bitirib oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan (aslida, ularning 90 foyizi o'zbek millatiga mansub) rus guruhlari talabalaridan DTS talabi bo'yicha ikki ming atrofida o'zbekcha so'z va birikmalarni bilish talab qilinadi. OTM talabalari uchun yaratilgan "O'zbek tili" darsligi ham o'zbek tilini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, unda o'zbek adabiyoti namunalaridan: "Holatni ifodalash", "Fikrni mantiqiy bog'lanishli ifodalash" [Muxiddinova 2012] singari bir qator mavzular doirasida foydalanilgan. Rusiyzabon auditoriya uchun tuzilgan "O'zbek tili" darsligida adabiy materiallarga bevosita badiiy asar sifatida murojaat qilinmay, ularga: a) grammatik bilimlarni mustahkamlash yoki matnni lingvistik tahlil qilish; b) nutq o'stirishda yordamchi vosita; v) o'zbeklarda shunday yozuvchi yoki shoir yashab o'tgani, ularning shaxsi va asarlari haqida xabardor qilish maqsadida yondashilgan [Muxiddinova 2012]. Ya'ni adabiy materiallar darslikda dastur talablaridan kelib chiqqan holda taqdim etilgan.

Lekin, afsuski, hatto shunday maqsad asosida ham talabalarda kommunikativ vaziyatni his ettirish ko'nikmasini shakllantirish masalasi nazardan chetda qolgan. Natijada, oliy o'quv yurtlari rus guruhlari talabalari yetarlicha o'zbekcha so'zlarni bilganlari, ma'lum mavzuda shablon asosida suhbatlasha olganlari holda erkin muloqotga kirisha olmayaptilar. Buning sababi shundaki, talabalar, avvalo, nutqiy vaziyatni his eta olmaydilar. Qolaversa, ular madaniyatlararo kompetensiyaga ham ega emaslar. Talabalar o'zbek adabiyoti namunalari bilan badiiy matn sifatida yaqindan tanishsalargina, ularda madaniyatlararo kompetensiya shakllanishi mumkin. Shundan keyin ular o'zbekcha so'zlarnigina emas, balki ayni so'zlar ishlatiladigan vaziyatni ham, o'zbekcha so'zning zimmasiga yuklangan vazifani ham his etadigan bo'lishadi. Har qanday tilda muloqotga kirishayotgan odam tilning grammatik qoidalaridan ham ko'ra o'sha tilning muloqot qoidalarini yaxshi bilishi taqozo etiladi. Bugungi kunda davlat tilini bilish har qanday mutaxassis uchun hayotiy ehtiyojga aylanib borayotgan ekan, bu jarayonda o'zbek tili darslarida o'zbek adabiyotini o'rganish bosqichiga o'tish, o'zbek tilidagi badiiy matnga badiiy asar tarzida yondashish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Chunki badiiy adabiyot, u qog'oz yoki elektron ko'rinishda bo'ladimi, ruhiy-axloqiy tarbiya berish, estetik zavq olish va intellektual faoliyat ko'rsatish manbai bo'lish bilan birga til o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan vosita hamdir. Ma'lumki, har qanday tili o'rganilayotgan xalqning madaniyati, milliy mentaliteti shu elning adabiyotida to'liq aks etadi. Bundan tashqari, o'rganilayotgan tilning bor go'zalligi, injaliklari ham uning badiiy

so‘zida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Shu bois talabaning o‘zi o‘rganayotgan tilda badiiy asar o‘qishi unga yangi madaniyatni, atrofidagi odamlarni bilishdan tashqari, oradagi madaniy begonalikni yo‘qotish, tili o‘rganilayotgan xalqning milliy psixologiyasini anglash, shu xalqning ma’naviy ildizlarini his etish imkoniyatini ham beradi. Har qanday faoliyatning samaradorlik darajasi maqsadning nechog‘lik to‘g‘ri tayin etilgani bilan o‘lchanadi. Shu ma’noda o‘zbek tilini o‘rganayotgan talabalarga o‘zbek adabiyotini o‘qitishning maqsadini: o‘zbek xalqining umuminsoniy ma’naviy me’zonlariga muvofiq keladigan, ammo faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini biladigan, o‘zbek so‘zining qudrati va injaliklarini his qiladigan, o‘zbekcha qochirimlarni, o‘zbekona yumorni anglaydigan, o‘zbek xalqining milliy ruhiyatini tuyish va shu asnoda, o‘zbekning milliy mentalitetini boshqalardan farqlay oladigan hamyurtlarni shakllantirish – tarzida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.Erishilishi nazarda tutilgan bu maqsad o‘ziga xos vazifalarning belgilanishi va ularning bajarilishini ham taqozo etadi. Shuning uchun ham pedagogik amaliyotda vazifalarni to‘g‘ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga o‘zbek adabiyotini o‘qitishning vazifalari: butunlay boshqacha ruh va boshqa oilaviy muhitda shakllangan talabalarni o‘z fikrini o‘zbek tilida yozma va og‘zaki tarzda fasohat bilan, ravon va savodli bayon qila oladigan, o‘zbek adabiyoti namunalarini asliyatda o‘qiydigan, uni tushunib munosib baholay oladigan, tahlillay biladigan hamda shu asnoda o‘zbeklar orasida o‘z so‘ziga ega bo‘lib o‘rnini topa oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Talabalarda ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganish, uni anglash hamda tahlil qilish malakalarini shakllantirish, barcha milliy adabiyotlar uchun umumiy bo‘lgan, shu bilan birga faqat o‘zbek adabiyotigagina xos nazariy bilimlarni hosil qilish ham o‘zbek adabiy ta’limi vazifalari sirasiga kiradi. Talabalar uchun o‘zbek adabiy ta’limining maqsad va vazifalari adabiyot predmetining mazmunini ham belgilab olishni taqozo etadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidan materiallar, zamonaviy adabiyot va o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, shu bilan birga o‘qilgan asarlarni tushunish va tahlil qilish malakalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi nazariy ma’lumotlar o‘zbek adabiyotini noo‘zbek auditoriyada o‘qitishning mazmunini tashkil etadi.

Hamonki, o‘zbek adabiyotini «O‘zbek tili» darsligiga ilova shaklida o‘qitish nazarda tutilar ekan, o‘rganiladigan asarlar badiiy qimmatiga qarab saralanishi, bilim oluvchilarning ijtimoiy holati, yosh xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari hamda dunyoqarashining rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir. O‘zbek tilini oliy maktabda o‘qitishning dastlabki bosqichida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish ustuvor bo‘lgani tuzuk. O‘zbek tili mashg‘ulotlari oliy ta’lim tizimining ikkinchi bosqichida ham davom ettirilishi va bu bosqichda zamonaviy o‘zbek adabiyot namunalarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tavsiya etilgan materiallarni o‘rganishda talabalarni badiiy asarni ifodali o‘qish, tahlil etish, asar zamiriga singdirilgan milliy ruhni anglash, his qilish, matnlarning janr xususiyatlarini ajrata olish, badiiy hodisa haqidagi fikrlarini o‘zbek tilida ravon, ta’sirchan, savodli, ma’lum izchillikda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga yo‘naltirish, o‘rganganini o‘z milliy adabiyoti namunalari bilan taqqoslay olish, ularning o‘xshash yoki farqli tomonlarini ajrata bilishiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur bosqichda milliy adabiy ta’lim bo‘yicha olingan bilimlarni nazarda tutgan holda nazariy ma’lumotlarni o‘rgatishga ham e’tibor qilinishi o‘zbek tilini mukammal o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. O‘zbek mumtoz adabiyotidan namunalar o‘rganish oliy o‘quv yurtlari o‘zbek tili ta’limining uchinchi bosqichida amalga oshiriladi. O‘zbek klassik adabiyoti namunalarining hajmidan kelib chiqqan holda ularning asli yoki nasriy bayoni bilan tanishish, ularni idrok etish, mohiyatiga kirib tahlil qila bilish talabalardan anchagina ham aqliy, ham ruhiy zo‘riqishni talab qiladi. Avvalgi ikki etapda olingan bilim, shakllangan ko‘nikma va malakalar o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan ishlashda asos bo‘ladi. Oliy maktablar uchun tuzilgan “O‘zbek tili” darsligida tavsiya qilinayotgan adabiy materiallar ustida ishlash bo‘yicha tushunarsiz so‘zlar lug‘ati, uch darajadagi savol-topshiriqlar hamda talabaga notanish bo‘lgan adabiy janrlar xususidagi nazariy ma’lumotlar kabi maxsus didaktik ashyolar taqdim etilishi joiz. Har qanday badiiy matn ustida ishlaganda ularning didaktik tahlili uchun muhim ahamiyat kasb etadigan savol va topshiriqlar uch darajada: 1-daraja. Matn mazmuni yuzasidan savol va topshiriqlar; 2-daraja. Matndagi milliy ruhni anglash uchun savol va topshiriqlar; 3-daraja. Fikrlash va munosabat bildirish uchun savol-topshiriqlar tarzida taqdim etilishi o‘rinli bo‘ladi. Bunda birinchi daraja “o‘rta”, ikkinchi daraja “yaxshi” va uchinchi daraja “a’lo” baho mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida o‘zbekcha badiiy asarlardan foydalanish til o‘rganish samaradorligini oshirish garovidir.

Adabiyotlar:

1. Dastur. Oliy o‘quv yurtlari uchun. "O‘zbek tili". –T.: O‘zDJTU, 2013.

2. Muhiddinova X.S., Salisheva Z.I., Po‘latova X. S. O‘zbek tili. OTM rus guruhlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2012. (304) 3. Muxiddinova Xadicha. O‘zbek tili. – M.: MGLI, 2013. (304)

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI

Xalikova Gulchexra Aliyevna
SamDAQU ‘‘O‘zbek tili va adabiyoti’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi vazifalari haqida so‘z boradi. Talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo‘llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, turkiy tillar, soha, nutqiy kompetentlik, mutaxassislik, og‘zaki va yozma nutq, sohaviy terminlar, k o‘nikma, malaka

Аннотация. В данной статье говорится о цели и задачах использования узбекского языка в различных сферах. Совершенствование навыков студентов письменно и устно излагать свои знания в данной области на узбекском языке, обеспечивать формализацию используемых в данной области терминов, основных понятий и официальных документов, используемых в данной области, стилей речи, особенно научного и официального в узбекском языке и

применение их на практике.

Ключевые слова: непрерывное образование, тюркские языки, сфера, речевая компетенция, специальность, устная и письменная речь, отраслевые термины, навык, квалификация

Abstract. This article talks about the purpose and tasks of the science of the use of the Uzbek language in the field. To improve the skills of students to express their knowledge in the field in writing and orally in Uzbek, to ensure the formalization of the terms used in the field, basic concepts and documents used in the field, speech styles, especially scientific and official in the field it is emphasized that it consists in creating the ability to use the opportunities of the style and to put them into practice.

Key words: continuing education, Turkish languages, field, speech competence, specialty, oral and written speech, field terms, skill, qualification.

KIRISH

Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi yo‘lida barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida ham olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, erkin, ijodkor va mustaqil fikr egasini tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Respublikamizda eng avvalo, ta’limga alohida e’tibor qaratildi. Chunki muhtaram Prezidentimizning:“Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak” degan fikrlari barchamizdan ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga bo‘lgan mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimizni talab etadi. Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e’tiborga olganda, birinchidan, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchinchidan, til va tafakkur o‘zaro ajralmasdir. Til fikrni,shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o‘zida namoyon etadi. To‘rtinchidan, til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo‘ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilsiz fikrni ifodalab bo‘lmaganidek, tafakkursiz til o‘z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo‘ladi. Ongingizda paydo bo‘ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so‘zlar vositasi orqali voqe bo‘ladi. Til faqat kishilarga xos bo‘lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo‘lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog‘liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o‘xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so‘zlar, so‘z birikmalari va jumlalar orqali ifodalaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o‘rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o‘rganish obyektidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinimiz, xalqimizga xos

dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma’naviy inqirozga uchraydi. O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan

boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan. Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu

lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va XX asrdagi adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, davlat ishlarining, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 21 dekabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatini, nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 2 dekabrdagi 87-06- 52 sonli xatida “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish Konseptsiyasi” va ”Yo‘l xaritasi” loyihasida davlat tilini

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish o‘z ifodasini topgan. Bu hujjatlar davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini yanada takomillashtirish uchun oliy ta’lim muassasalarida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab "O‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi" asosiy fan sifatida o‘quv rejasiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Davlat dasturi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘i asosida o‘quv jarayoniga tatbiq etib kelinayotgan mazkur kurs “Davlat tili haqida”gi qonunning quyidagi moddalariga tayanadi: 7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu

jumladan unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi. 9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi. 10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi,

ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin (1, 16-22-b.). Mazkur fanni o‘qitishdan maqsad, talabalarning o‘zbek tilida soha b o‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish, mutaxassisikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarnini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo‘llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi-mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta’minlash, egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me’yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta’minlahshdan iborat. Keyingi yillarda tilimizning kasb-hunar, ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Har bir sohaning o‘z atamalar tizimi mavjud bo‘lib, bitta atama faqat bitta tushunchanigina ifodalaydi. Atamalarni qo‘llashda har qanday murakkab fikrni ixcham, oson, lo‘nda va aniq, shuningdek, tushunarli ifodalashni osonlashtirish maqsad qilib quyiladi. Atamalarga xos bo‘lgan ma’no jihatidan aniqlik, tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgisini aniq ifodalab berish, ulardagi tuzilish jihatidan ixchamlik, qisqalik ishlatishga qulaylik kabilar tushunchani tushunarli, aniq, qisqa bo‘lishini ta’minlaydi. Oliy o‘quv yurtlarida sohaga oid imlo va izohli lug’atlari tayyorlanmoqda, chop etilmoqda. Mavjud lug‘atlardan keng foydalanish, so‘z va atamalar ma’nosini chuqur anglash kishining so‘z boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Ma’lumki, yaqin vaqtlargacha hujjatlar asosan rus tilida rasmiylashtirilar edi. O‘zbek tilida esa ayrim hujjatlargina yuritilar, ular ham rus tilidagi hujjatlar andozasiga asoslangan bo‘lib, milliylikdan yiroq edi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda yuritiladigan hujjatlar o‘zbek tili qonun-qoidalariga mos ravishda rasmiylashtirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislar o‘zlari ishga boradigan mehnat jamoalarida ish qog‘ozlari, hujjatlarning mantiqiy to‘g‘ri yozilishi, yoki to‘g‘ri to‘ldirilishi, ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarsiz, davr talabiga javob beradigan tarzda rasmiylashtirishlari lozim. Buning uchun esa bitiruvchi talabalarimiz nafaqat hujjatlar bo‘yicha, balki yangi alifbo va imlo qoidalari bo‘yicha ham yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishlari talab etiladi. Va shu maqsadda hozirda bu fan barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilmoqda.

References

1. Abdurahmonova M., Fattoxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.

2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456 b.

3. Rahmonov N., Boltaboyev H. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-2 jild. T., 2013, 2015.

4. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-2 jild. T., 2015, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va

mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5850 – son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-40 son qarori

7. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. “O‘zbek tili”. T. TATU, “Aloqachi”, 2019.

8. Jiyanova N., Mo‘minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2016. I-kitob

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005–2008.

UDK: 1:316(575.1)

MARKAZIY OSIYODA EKOLOGIK XAVFSIZLIK BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARINING USTUVORLIGI

Asliddin QULDOSHEV,
Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti dotsenti, f.d.

Annotasiya. Maqolada ekologik munosabatlarda bag‘rikenglik tamoyillarining namoyon bo‘lish xususiyatlari xaqida ilmiy fikrlar bildirilgan. Ilmiy tahlillar asosida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati va uning ahamiyati haqida fikrlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, gumanistik tamoyillar, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, global bag‘rikenglik, ekologik munosabatlar.

Аннотатсия. В стате представлены научные мнения об особенностях проявления принсипов толерантности в экологических отношениях. На основе научного анализа разъяснены мнения о необходимости и важности осуществления действий, которые нелзя откладыват на основе экологической толерантности, взаимопомощи и сотсиалного сотрудничества государств в сфере охраны окружающей среды.

Ключевые слова: Глобализатсия, гуманистические принсипы, экологическая политика,экологическое безопасност, глобалная толерантност, экологические отношения.

Annotation. The article presents scientific opinions on the features of the manifestation of the principles of tolerance in environmental relations. On the basis of scientific analysis, opinions on the need and importance of taking actions that cannot be postponed on the basis of environmental tolerance, mutual assistance and social cooperation of states in the field of environmental protection are clarified.

Key words: Globalization, humanistic principles, environmental policy, environmental safety, global tolerance, environmental relations.

Kirish. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida turli davlatlar, jamiyatlar, harakatlar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalar global ekologik siyosatida bag‘rikenglik (tolerantlik) va o‘zaro hamkorlik (ijtimoiy sherikchilik) hodisalarini falsafa fani kategoriyalari tizimi, xususan alohidalik, maxsuslik va umumiylik kategoriyasi kontekstida tahlil qilish, ularning tarixini ham, mazmunini ham, namoyon bo‘lish shaklini ham, istiqboli haqidagi tasavvurlarni ham milliy va mintaqaviy darajalarda konkretlashtiradi.

Eng muhimi, bir tomondan, “Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni — butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda” [1].

Ikkinchi tomondan esa, bu hodisalarning asosiy motivlari, harakatlantiruvchi mexanizmlari, tamoyillarini kompleks-sistemali ilmiy tahlil etish, uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, global ekologik siyosatni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligi sharti hisoblanadi. Zero, bunday yondashish tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash va ekologik barqaror xavfsizlikni ta’minlash faoliyati ilmiyligini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, O‘zbekistonda ijtimoiy ekologiya muammolari bo‘yicha mutaxassis, falsafa fanlari doktori, professor S.Mamashokirov, Qozog‘istonlik yirik olima – falsafa fanlari doktori, professor R.S.Sartaevalarning fikricha, ekologik faoliyatda bir-biridan nisbatan mustaqil davriy “kaskad”larni tashkil qiladigan masalalar nazariy asoslanishi kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy abstraksiya, kuzatish, qiyoslash, korrelyasion-regression, gipoteza tahlil usuliga asoslangan.

Bu metodologik-ilmiy xulosaga bizning maqolamiz mavzusi kontekstida qaraydigan bo‘lsak: 1) xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi (muayyan milliy, hududiy chegaralardan tashqaridagi turli sohalarning ekologik siyosiy munosabatlarga ta’siri) – umumiylik; 2) xalqaro ekologik siyosiy munosabat yo‘nalishlari va sohalari (barcha sohalardagi xalqaro munosabatlarning ekologik siyosiy jihatlari) – maxsuslik; 3) jahon suveren davlatlarining milliy ekologik siyosati (lokal va transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan milliy siyosiy faoliyati) – alohidalik; 4) ekologik siyosiy munosabat yo‘nalishlari, ko‘lami va darajalarining tashkiliy asoslari (muayyan tarixiy zamon va ijtimoiy makondagi individual xususiyatlariga ko‘ra) – konkretligi dialektikasi ko‘zga tashlanadi.

Shuning uchun ham, xalqaro ekologik siyosiy munosbatlarni bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillari asosida tashkillashtirish va boshqarishda bu xususiyatlarni o‘zaro dialektik aloqadorliklarda olib qarash kerak.

Vaholanki, hozirgi globallashuv sharoitdagi dunyoning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda: insonparvarlik, o‘zaro yordam va tolerantlik tamoyillariga amal qilish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Zero, ekologik barqarorlik – jahon hamjamiyatining ham, uning alohida sub’ektlari rivojlanishi uchun ham shart-sharoit, asos hisoblanadi. Beg‘araz o‘zaro yordam va oqilona tolerantlikka, yuksak ma’naviy-axloqiy normalarga va siyosiy demokratiyaga, gumanistik tamoyillarga asoslangan ijtimoiy-ekologik munosabatlar – umuminsoniyatni umumiy maqsad asosida hamkorlikka olib keluvchi idealga aylanmoqda.

Xalqaro ekologik bag‘rikenglik va o‘zaro yordamning ma’naviy–axloqiy normalari, gumanistik-demokratik tamoyillari, eng avvalo, kundalik ijtimoiy ong shakllari, ma’naviy madaniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, hozirgi davrda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarning asosiy tamoyili – o‘z hududingda amalga oshirgan xatti-harakatlpri tufayli boshqa davlatlarning tabiatiga zarar yetkazmaslik shartligi tamoyili qaror topdi va xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Shu bilan birgalikda, boshqa davlat tabiatiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik mas’uliyati tamoyili ham qaror topa boshladi. 1972 yilda BMTning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha o‘tkazilgan konferensiya deklaratsiyasida bu tamoyillar umumlashtirilib va konkretlashtirilib “Inson erkinlik, tenglik va yetarli hayot sharoitlariga ega bo‘lish, munosib va yaxshi yashashga imkon beruvchi atrof-muhitga haqli asosiy huquqlarga ega”[3], deb ko‘rsatilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (Rio-de-Janeyro, 1992 yil), BMTning Ming yillik deklaratsiyasi (Nyu-York, 2000 yil), Barqaror rivojlanish bo‘yicha Yoxannesburg deklaratsiyasi (Yoxannesburg, 2002 yil), shuningdek BMT barqaror rivojlanish bo‘yicha konferensiyasining Rio-20 «Biz istagan kelajak» yakuniy hujjati prinsiplari va tavsiyalariga amal qilgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini va uning ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni, xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz”[4]. Bu esa, o‘z navbatida, har qanday davlatning global ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish sohasidagi siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish va integratsiyalashtirish – umuminsoniyat manfaatlariga mos keladi.

Shuni ta’kidlash joizki, hozircha hayot talablaridan orqada qolayotgan xalqaro ekologik munosabatlarda ekologik tolerantlik, o‘zaro yordam, ijtimoiy hamkorligini global ekologik siyosat darajasiga ko‘tarishning dastlabki ratsional-madaniy bosqichi hisoblanadi.

Bu haqda YU.M.Lotman “Madaniyat va portlash” nomli asarida munosabat sub’ektlarining o‘zaro ta’sir variantlarini uchta ehtimoliy yo‘nalishga ajratadi: birinchisi – o‘zaro ta’sir ishtirokchilari fikrlari mutlaqo turlicha bo‘lib, “umuman murosaga kelmaydigan” variant; ikkinchisi – o‘zaro munosabat sub’ektlari bir xil imkoniyatga, axborot bazasiga egaligidan, ularning imkoniyatlari mutlaq aynanligi varianti; uchinchisi – munosabat ishtirokchilarining manfaatlari turlicha bo‘lsa ham, ularning fikrlarida “konsensus maydoni” mavjud variantlardir [5].

Bugungi kunda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlardagi birinchi yo‘nalishda sub’ektlari passivligi, avvalo ularni ongli, erkin faoliyat imkoniyatidan mahrum qilib, barqaror taraqqiyotning yangi sifat bosqichiga ko‘tarish strategiyasini shakllantirishga negativ ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, hozirgi davrda insoniyat barqaror taraqqiyoti sur’atlarini ta’minlashda, uning ikkinchi va uchinchi variant yo‘nalishlarini rivojlantirish xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro ekologik siyosat sub’ektlarining axborot ayriboshlash va “konsensus makonini” yaratishi, ikki va ko‘ptomonlama shartnomalarda o‘zaro yordam va tolerantlikni namoyon qiladi.

Ikki va ko‘ptomonlama qabul qilingan xalqaro shartnomalar ekologik bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillarining rasmiylashtirilgan shakli bo‘lib, xalqaro ekologik huquqning manbasi hisoblanadi. Uning e’tirof etilgan legitimligi va imkoniyati realligi, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni: oqilona tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligini belgilaydi. SHuning uchun ham transchegaraviy tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish haqidagi xalqaro qonunchilikni tubdan takomillashtirish, global strategik maqsadlarni amalga oshirilishining muhim vositasi sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bunga faqat milliy ekologik huquqni global bag‘rikenglik, global o‘zaro yordam tamoyillariga asoslangan xalqaro siyosatni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning global madaniyatini shakllantirish orqali erishish mumkin. Shu o‘rinda 2018 yilda Respublikamizning Toshkent shahrida 5 iyun kuni «Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish borasida hamkorlikni mustahkamlash» mavzusida Markaziy Osiyo xalqaro ekologiya forumi bo‘lib o‘tdi. Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologiya va atrof-muhit masalalariga mas’ul vazirlik va idoralari, xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijiy ekspertlar,

ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Tadbirda Markaziy Osiyo mintaqasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy hududlarning bioxilma-xilligini saqlashda hududiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish ekologik muammolarni birgalikda hal etishda muhim omil ekani alohida ta'kidlandi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi har bir mamlakat uchun muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki inson hayoti yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot olami bilan chambarchas bog'liq. Ulardan noto'g'ri foydalanish salbiy oqibatlarni olib kelishi muqarrar. SHu ma'noda, mintaqa tabiati, hayvonot va o'simlik olami bioxilma-xilligini asrab-avaylashga har bir davlat mas'uldir.

Hozirgi davrda inson hayoti uchun optimal tabiiy asoslarini ta'minlashda, dunyo global sotsiomadaniy o'zgarishlar dinamikasining istiqbol mo'ljallarini belgilashda ekologik ilmiy dunyoqarash, ma'naviy-madaniy kapital, intellektual salohiyat potensiali faollashuvi, bevosita xalqaro ekologik siyosiy munosabatlardagi bag'rikenglik va o'zaro yordam tamoyillariga amal qilishga bog'liq bo'lib qolmoqda. SHuning uchun ham "Tinchlik madaniyati" Rezolyusiyasida: "muayyan sotsial munosabatlarni aks ettiradigan qadriyatlar, qarashlar va xulq-atvor turlarini o'z ichiga olgan erkinlik, adolat va demokratiya, insonning barcha huquqlari, sabr-toqat va birdamlik, zo'rlik ishlatishdan voz kechish kabi tamoyillar asosiga kurilgan munosabatlar rivojlanishiga yordam beradigan va tub sabablarini bartaraf etish orqali konfliktlarning oldini olishga yo'naltirilgan, muammolarni dialog va muzakoralar yo'li bilan hal etadigan, o'z jamiyati rivojlanish jarayonlarida ishtirok etishi uchun barcha huquqlardan to'liq darajada foydalana olish imkoniyatlarini kafolatlaydigan" [6] konsepsiya taqdim etilgan. Aytilganlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning ekologik tolerantlik, o'zaro yordam, ijtimoiy hamkorligi asosida kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini va uning ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, hozircha hayot talablaridan orqada qolayotgan xalqaro ekologik munosabatlarda ekologik tolerantlik, o'zaro yordam, ijtimoiy hamkorligini global ekologik siyosat darajasiga ko'tarishning dastlabki ratsional-madaniy bosqichi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch". T.: "O'zbekiston", 2008. - 10 b.
2. Mamashokirov S. "Vahimami yoki haqiqat". – T.: "Iqtisod-Moliya", 2012. - 65 b.
3. Манба: БМТнинг расмий сайти http://www.un.org/ru/.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil, 20-dekabr.
5. Балакина Е. И. "Диалог как средство сохранения разнообразия культур в условиях глобализации". // "Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации". Бишкек, 2007. - с. 19.
6. Kuznetsov V. "Geokultura. Osnovы geokulturnoy dinamiki bezopasnosti v mire XXI: Kultura-set". - M.: "Kniga i Biznes", 2003. – s. 16.

CHALLENGES AND SOLUTIONS IN IMPROVING THE TRAINING SYSTEM FOR PERSONNEL IN ARCHITECTURE AND ENGINEERING

Ruzikulov Elyor Shukurovich
SamSACU, Teacher of the Department of Foreign Languages

Annotation: This article explores the key challenges and solutions for improving the training system in architecture and engineering education. As the industry evolves with rapid technological advancements and increasing demands for sustainable practices, educational institutions face numerous issues, such as outdated curricula, limited practical exposure, and inadequate access to advanced technology. The article highlights the importance of integrating industry-relevant skills, interdisciplinary collaboration, sustainable design principles, and digital tools like Building Information Modeling (BIM) into training programs. Proposed solutions include partnerships with industry, curriculum updates, dedicated courses on sustainability, access to advanced technology, and the promotion of practical, hands-on learning. By addressing these challenges, educational institutions can better prepare graduates to meet industry demands and contribute meaningfully to the fields of architecture and engineering.

Keywords: Architecture education, engineering education, curriculum development, interdisciplinary skills, sustainable design, and industry collaboration, practical training, advanced technology, Building Information Modeling (BIM), professional development.

The training of specialists in architecture and engineering is crucial to developing a skilled workforce capable of meeting modern design and construction demands. However, the current educational system faces several challenges that hinder the preparation of highly qualified professionals in these fields. This article examines the main issues within the training system and suggests potential solutions for improvement.

Often, the curriculum in architecture and engineering programs lags behind rapid advancements in technology and design trends. Students may graduate with outdated knowledge, which limits their competitiveness in the industry. Academic institutions

should establish partnerships with industry leaders to keep the curriculum up to date. Regular curriculum reviews and the integration of the latest design software, sustainability practices, and innovative construction techniques can help ensure that students are equipped with relevant skills.

In architecture and engineering, curriculum relevance is essential to equip graduates with the knowledge and skills needed in a rapidly evolving industry. Yet, many educational programs fail to keep pace with technological advances, emerging sustainability requirements, and innovative design methodologies. This mismatch between education and industry needs can result in graduates who are less competitive and struggle to adapt to workplace demands.

Establishing partnerships with architectural firms, engineering companies, and technology providers can help educators align course content with industry demands. Collaborative programs like guest lectures, workshops, and real-world projects ensure that students are exposed to the latest practices and technologies. Developing a flexible, modular curriculum allows programs to incorporate updates more easily. Elective courses focused on emerging topics-such as renewable energy design or advanced computational modeling-offer students the chance to explore specialized skills without overhauling the entire curriculum.

Proficiency in modern design software (like BIM, CAD, and energy modeling tools) is essential for current architectural and engineering practice. Embedding these technologies within the curriculum as core competencies provides students with practical skills they can immediately apply in the workforce. Creating continuous feedback loops involving alumni and industry professionals helps educators identify gaps in the curriculum. Alumni insights on industry trends and the challenges they face in their careers can inform adjustments to ensure graduates are well-prepared.

A curriculum that reflects industry trends and innovations offers students a competitive edge. It enhances their employability, prepares them to contribute meaningfully from day one, and fosters a culture of lifelong learning and adaptability. This relevance-driven approach in architecture and engineering education ensures that new professionals can meet industry demands and advance their fields with fresh, informed perspectives.

Many educational programs focus heavily on theoretical knowledge, offering limited opportunities for hands-on experience. As a result, graduates often lack the practical skills that are essential in the workforce. Integrating internship programs, collaborative projects with architectural firms, and fieldwork into the curriculum could bridge the gap between theory and practice. Partnerships with local construction companies or design studios for student internships provide real-world experience that enhances practical skills. Access to internships can be competitive, and in some regions, opportunities for students in architecture and engineering may be scarce. Without these hands-on experiences, graduates may lack familiarity with workplace dynamics, practical applications, and client interactions.

Conducting field visits, workshops, and hands-on lab activities can require substantial resources and funding, which some institutions may lack. This can limit students' exposure to on-site construction, surveying, or technical equipment use.

Some programs prioritize theory over practical learning, resulting in students having limited exposure to applied problem-solving, project management, and teamwork—skills that are crucial in both architecture and engineering workplaces.

Requiring internships or cooperative (co-op) programs as part of the curriculum helps ensure that all students gain hands-on experience. Co-op programs, which alternate between classroom learning and work terms, offer an extended and immersive experience that prepares students for the realities of the industry.

Universities can build partnerships with architecture and engineering firms, construction companies, and government agencies to create internship and project-based learning opportunities. These partnerships can provide mentorship, field visits, and collaborative projects, helping students connect classroom theory to real-world applications.

Investing in simulation labs, design studios, and model-building workshops on campus allows students to practice and develop practical skills even when off-campus opportunities are limited. Creating a learning environment that mimics real-world settings, including the use of industry-standard software and equipment, helps students build confidence in a controlled environment.

Bringing in industry professionals to conduct workshops, seminars, and panel discussions exposes students to practical insights from working experts. Through direct interaction with professionals, students gain valuable knowledge about the latest trends, industry expectations, and potential career paths.

Including capstone projects that address real-world problems allows students to work on practical issues under the guidance of faculty and industry mentors. Projects that tackle local construction challenges, environmental design, or community-based architecture give students hands-on experience and produce tangible outcomes.

One of the most significant challenges facing architecture and engineering education is the shortage of qualified instructors with the dual expertise of academic knowledge and real-world experience. This shortage affects the quality of education and leaves students underprepared for the practical demands of the profession. A robust educational experience requires instructors who not only understand theoretical foundations but also bring practical insights from industry, enabling students to acquire a comprehensive skill set. Some instructors lack recent, direct experience in architecture or engineering practices, meaning they

may be unfamiliar with the latest technologies, methods, and industry trends. This knowledge gap can limit students' exposure to practical and current applications of their theoretical learning.

Qualified industry professionals often have higher earning potential in the private sector, which can deter them from pursuing teaching positions. Consequently, educational institutions struggle to attract and retain instructors with practical expertise. Institutions may lack sufficient funding or resources to provide continuous training for their faculty. Without ongoing professional development, even experienced instructors may not stay up to date with the rapid advancements in technology and methods used in modern architecture and engineering. As architecture and engineering become increasingly specialized, it becomes difficult to find instructors with the advanced knowledge needed to teach specialized topics such as sustainable design, digital fabrication, or building information modeling (BIM).

Establishing partnerships with architecture and engineering firms allows industry professionals to teach part-time or as guest lecturers. Institutions can create flexible teaching roles that enable professionals to split their time between industry work and teaching, making it more appealing for experienced practitioners to join academia.

Institutions can invest in continuous professional development programs to equip instructors with the latest knowledge and skills. Providing funding for faculty to attend industry conferences, workshops, and technical training ensures that they remain current with industry practices.

Improving compensation packages, offering benefits, and creating career growth opportunities can make teaching roles more attractive to experienced industry professionals. Establishing endowed professorships or special incentives can further encourage experts to consider teaching positions.

Institutions can leverage adjunct and visiting professors who are currently working in the field. These professionals bring valuable insights from their ongoing industry experience and can teach specialized courses without committing to a full-time academic role.

